O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish: muammolar va innovatsion yechimlar” Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari

Urganch - 2025

“Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali ijtimoiy - gumanitar fanlarni o‘qitish: muammolar va innovatsion yechimlar” [Matn]: Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Urganch, 2025 y.

Mazkur to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-son buyrug‘iga asosan belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash maqsadida 2025-yil 24-25-mart kunlari Urganch shahrida (Urganch davlat pedagogika institutida) “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish: muammolar va innovatsion yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman” materiallaridan iborat. To‘plamdan joy olgan tezislarda keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar javobgardirlar.

Mas’ul muharrirlar:	**Radjapova F.A.**	**- f.f.n., dotsent**
	Tajiyev Q.Q.	**- g.f.f.d., dotsent**
	Samandarov M.I.	**- v.b., dotsent**
	Yusupov H.S.	**- t.f.f.d.(PhD)**
	Raximova S.D.	**- f.f.f.d. (PhD)**
Tahrir hay’ati raisi:	**Madraximova F.R.**	**- p.f.d. (DSc), dotsent.**
Tahrir hay’ati:	**Sheripov U.A.**	**- t.f.n., dotsent**
	Abdullayev D.N.	**- t.f.d., dotsent**
	Xujamurotov U.R.	**- t.f.f.d.(PhD), dotsent**
	Masharipova N.O.	**- f.f.f.d.(PhD), dotsent**
	Nabiyev E.B.	**- p.f.f.d.(PhD), dotsent**
	Xajiyeva D.	**- f.f.f.d.(PhD), dotsent**
	Karimov Z.O	**- f.f.f.d.(PhD), dotsent**
	Absalamov T.T.	**- p.f.f.d.(PhD), dotsent**
	Sa’dullayev J.SH.	**- katta o‘qituvchi**
Taqrizchilar:	**Abdullayev O‘.I.**	**- t.f.d., professor**
	Salayeva M.S.	**- p.f.d., professor**
	Matyakubova T.R.	**- f.f.n., dotsent**

TA’LIM VA TARBIYA JARAYONIDA SHARQ ALLOMALARI MEROSINING O‘RNI

Madraximova Feruza Ruzimbayevna
Urganch davlat pedagogika instituti rektori, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqolada Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya, odob-axloq masalalaridagi qarashlari, islomda bolalar tarbiyasi to‘g‘risida so‘z yuritilgan. Shuningdek, Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta’lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g‘oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to‘g‘ri foydalanish pedagogik ta’lim jarayonida o‘qituvchining pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri ekanligi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: axloqiy qoida, tarbiya, odob, barkamol inson, insonparvarlik, ma’naviy fazilatlar, umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyat, milliy tafakkur, islom madaniyati.

Abstract. The article deals with the views of Eastern thinkers on education, morality, and the upbringing of children in Islam. Also, one of the important features of a teacher's pedagogical skills in the process of pedagogical education is the knowledge of the methods and means of education in the creative activity of Eastern thinkers, the methods and means of education in the minds of the younger generation. revealed that.

Keywords: morality, education, manners, harmonious human being, humanity, spiritual qualities, universal values, national values, national thinking, Islamic culture.

O‘zbek xalqi o‘zining uzoq tarixi davomida yaratilgan ta’lim-tarbiyaga oid boy merosga ega. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, iymon-e’tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o‘ziga xos tajribasini to‘plagan. Bizga ma’lumki, ma’naviy-axloqiy fazilatlar hech qachon o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, balki ularning kelib chiqishining haqiqiy manbai, ularni keltirib chiqargan sabablar va harakatga keltiradigan kuchlar mavjuddir. Zero, har qanday axloqiy qoidalar muayyan tarixiy zaruriyat natijasiga vujudga keladi va muayyan qonuniyat asosida rivojlanib boradi. Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan. Tarbiya ham ota-onalarning burchi va farzandlarning haqqidir. “Tarbiya” so‘zi arabcha “robba” fe’lidan olingan bo‘lib, o‘stirdi, ziyoda qildi, rioyasiga oldi, rahbarlik qildi va isloh qildi ma’nolarini bildiradi. Musulmon ulamolar “tarbiya”ni bir necha xil ta’rif qilganlar. Jumladan, imom Bayzoviy quyidagicha ta’riflaydi: “Tarbiya bir narsani asta-sekin kamoliga etkazishdir”. Rog‘ib Asfihoniy tarbiyani quyidagicha ta’rif qiladi: “Tarbiya bir narsani bir holdan ikkinchi holga o‘tkaza borib, batamomlik nuqtasiga etkazishdir. Tarbiyaning ma’nolaridan biri, insonning diniy, fikriy va axloqiy quvvatlarini uyg‘unlik hamda muvozanat ila o‘stirishdir”. Islomda bolalar tarbiyasi ota-onaning eng mas’uliyatli va uzoq davom etadigan burchlaridir. Boshqa burchlar ba’zi ishlarni qilish yoki mulkni sarflash bilan oxiriga etadi. Ammo tarbiya mas’uliyati bardavom bo‘ladi. Zotan, ota-onaning farzand ne’matiga haqiqiy shukrlari ham aynan tarbiya

mas’uliyatini sharaf bilan ado etish orqali yuzaga chiqadi [1:339-340]. Odob masalasini insoniyat tarixida to‘laqonli ravishda Islom boshlagan, desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Islomda kishining hayotidagi har bir narsaning o‘z odobi bor. Dunyodagi odobga bag‘ishlangan asarlarning asosini va ko‘piligini Islom halqlari vakillari tomonidan yozilgan asarlar tashkil qiladi, degan gapda zarracha mubolag‘a yo‘q [1:342]. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g‘oyalar bugungi kunda ham muhim ta’lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma’naviy ozuqa berib kelmoqda. Uzoq va boy tarixga ega bo‘lgan Markaziy Osiyo xalqlari o‘zining ta’limtarbiyaga oid boy merosini yaratib, takomillashtirib, yoshlarni insonparvarlik, ilmparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, insonlarga va tabiatga do‘stlik, sahiylik kabi umuminsoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab kelishgan. Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan bebaho madaniy meros milliy ma’naviyatimizning o‘zagini tashkil etadi. Shu sababli undan bugun yoshlarimizning ta’lim va tarbiyasiga keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, “Ajdodlarimizdan qolgan meros millatimizning nafaqat o‘tmishi, shuningdek, istiqboli uchun ham kuch va fidoiylik manbai hisoblanadi” [2:47]. Har bir xalqning ta’lim-tarbiyaga oid an’analari borki, ular pedagogik tafikkur taraqqiyotining asosi bo‘lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi. Yuqorida aytganimizdek, har bir ota ona o‘z farzandlarini barkamol inson bo‘lishini istaydi, o‘zlari eta olmagan orzuumidlariga bolalarining etishligini o‘ylaydi. Bolalarning har bir yutug‘idan quvonishadi, mag‘lubiyatidan tashvishga tushishadi. Farzandlarini baxtli ko‘rish ular uchun eng baxtiyor damlar hisoblanadi. Buning uchun ularga bor kuch-quvvatini sarflashadi. O‘tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma’naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o‘z qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bo‘lamiz. Mana shunday mangu allomalar jumlasiga Ahmad Yassaviyni kiritish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy o‘zining ma’naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos qo‘sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo‘lmoqda. “Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko‘ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o‘zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo‘ylik, halollik, o‘z-o‘ziga talabchanlikni targ‘ib qiladi. Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari o‘quvchi shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu fasod ishlardan o‘zini olib qochishga undaydi” [3:10]. Shuning uchun ham ta’lim tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yana bir yiriq allomalardan biri Burxoniddiy Marg‘inoniydir. Burxoniddiy Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida diyonat, iymon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g‘oyalari shaxsni har tomonlama va uyg‘un rivojlantirishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda XXI asrda yashagan islom ta’limotining yirik nomoyondasi Burxoniddiy Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, iymon-e’tiqod, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr hislatlari asosiy o‘rinni egallaydi [4:9]. Alloma

Marg‘inoniy o‘zining axloqiyhuquqiy qarashlari bilan xalqimiz ma’naviyatini rivojlantirishga, musulmon dunyosi madaniyatining taraqqiyotiga hamda ijtimoiy pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan. Farzandga adab, hunar o‘rgatmakni meros deb bilg‘il. Agar sen xoh unga adab o‘rgatg‘il, xoh o‘rgatmag‘il turmush mashaqqatlarining o‘zi unga o‘rgatur. Undoqkim debdurlar, ota-ona tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalaydur [5:24]. Kaykovus 44 bobdan iborat bo‘lgan “Qobusnoma” asarida ota-onalarning farzand tarbiyasidagi vazifa va burchlari, farzandning ota-onaga munosabati, ularni qadrlash, insonlar orasidagi muomila odobi, ularning o‘zaro axloqiy munosabatlari, haqorat, qo‘pollik kabi yomon odatlardan saqlanish zaruriyati bilan bir qatorda bola tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratish, uning kelajagi uchun ota-onaning mas’uliyati katta ekanligi kabi axloqiy masalalarga urg‘u beriladi. Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta’lim va tarbiyaga oid yondashuvlar, g‘oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to‘g‘ri foydalanish – ta’lim jarayonida o‘qituvchilarning pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda odob-axloq mavzuiga bo‘lgan qiziqish anchagina ortdi. Chunki milliy mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, tarixiy va madaniy merosimizni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayishi, milliy va diniy hamda ma’naviy qadriyatlarimizning mazmunidagi axloqiy g‘oyalarni bilishga bo‘lgan xalqimiz qiziqishlarining ortib borayotganligidir. Ta’lim-tarbiya tizimini insonparvarlik yo‘nalishini tubdan o‘zgartirish va yangi zamon talablari darajasiga ko‘tarishning birinchi sharti – unga bir butun tizim sifatida yondoshish va shunga muvofiq, ish olib borishdan iboratdir [6:87]. Yosh avlodda yuksak ma’naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an’analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir. Insonlar o‘zligini chuqur anglashi, mustaqillikning qadrini tobora teran tushunishi, milliy tafakkurning kengayishi va takomillashuvi, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg‘onishini ta’minlash ma’naviyat sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadiga aylandi [7:7]. Taniqli o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniy “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” deb yozgan edi [8:14]. Mashoyixlarning aytishlaricha, “har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog‘liqdur” [5:13]. A.Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asari yangi usul maktablarining yuqori sinflarida ta’lim va axloqiy tarbiya berish uchun darslik sifatida o‘qitilgan. A.Avloniyning asarini chuqur o‘rganar ekanmiz, biz o‘sha davrda maktablarda o‘quvchilarga dars berishda umuminsoniy va diniy qadriyatlari, xalq og‘zaki ijodi, Qur’on oyatlari, hadislar shuningdek, buyuk allomalarimizning hikmatli so‘zlaridan imkon qadar keng foydalanganliklarini ko‘ramiz. Masalan, “Yaxshi xulqlar” qatoriga kiruvchi “Sabr” mavzusida: “Sabr insonlar uchun buyuk bir fazilatdurki, janobi haq sobrlarni madh qilishdur. Shariati islomiyada janobi Haq tarafidan kelgan balo va qazoga sabr qilmoq farzi ayndur”. Shul xususda so‘ylanmish bir hadisi sharifning ma’nosi “ilm imonli kishilarning muhibi, hilm homiysi, aql dalili, yaxshi amal sarmoyasi, muloyimat volidi, afv axavoni, sabr hokimi vijdonidur,” - deyilishi. Arablar

“assabru miftohulfalah”- sabr shodlig‘ning kalilidur deyurlar [9:7]. Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning milliy pedagogik va uslubiy asoslarini ilmiy-nazariy jihatdan ishlab chiqishga bugungi kundagi ehtiyoj va uni samarali hal etishning optimal yo‘llarini topish asosiy muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Shunday ekan, oilada bola tarbiyasi umumdavlat ahamiyatiga molik muammodir. Shu boisdan har qanday jamiyatni oilaga, oilada bola tarbiyasiga bo‘lgan talabi ortib boradi. Ayni vaqtda - davlatning, ota-onaning bolalarni tarbiyalashdagi, farzandlarning ota-ona oldidagi mas’uliyatini oshirishdagi roli kuchayadi. O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov aytganlaridek, “Buyuk ma’rifatparvar bobomizning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi” [5:7]. “Milliy madaniyatimiz, xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to‘plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o‘tgan. Insonlarga og‘ir damlarda madad bo‘lgan. Bizning vazifamiz - shu xazinani ko‘z qorachig‘imizdek asrash va yanada boyitish” [10:78]. Milliy taraqqiyotimiz uchun fundamental ahamiyatga ega ushbu fikr, ko‘rsatma san’atga oid ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to‘xtalib: “Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”. Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug‘ ajdodimiz nima deb yozganlar: “Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog‘liq” [11] deya ta’kidlab o‘tdi. Tarbiya o‘z navbatida oiladan boshlanar ekan, biz o‘z farzandlarimizni baxtisaodatini, kamolini, iqbolini, buyuk inson bo‘lib etishganligini va hayot abadiyligi avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviy qo‘rg‘oni bo‘lmish o‘z oilamizning mustahkamligini ko‘rishni istar ekanmiz, demak oilada tarbiyalanuvchilarimizni har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalashda tarbiyaning barcha turlariga e’tiborni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ota-bobolarimizdan qolgan boy ma’naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o‘rni va roli o‘ziga xos xususiyatga va ko‘rinishlarga ega. “Darhaqiqat, ajdodlar tomonidan yaratilgan tarbiyaviy qadriyatlarni o‘rganishda ta’lim tizimi imkoniyatlarga alohida e’tibor qaratishlozim. Sharq mutafakkirlarining asarlarini o‘rganish, tahlil qilish, ularning ijodi va ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etish muhim amaliy ahamiyatga ega” [12:43]. Ular o‘z asarlarida shaxs ma’naviyati,

insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halol mehnat bilan kun kechirish, atrof-muhitga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lishga oid qarashlarni bayon qilganlar. Shunday qilib, inson va uni tarbiyalash masalalari Sharq mutafakkirlari va allomalari o‘z asarlarida insonning bilim olishi, hunar egallashi, undagi yuksak ma’naviy-ahloqiy sifatlarni ulug‘laydilar va shunday fazilatlarga ega bo‘lishga barchani chorlaydilar. Ma’naviy yuksak, zamonaviy ilm-fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g‘oya yoki mafkura aslo o‘z ta’siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga etkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. T.: 2016 y.
2. I.Karimov. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008 y.
3. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma’naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2008 y.
4. M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma’naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.
5. M.Shoxadjyaev. Burxoniddin Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2006 y.
6. M.Hamdamova. Ma’naviyat asoslari. T.: “Fan va texnologiya”. 2008 y.
7. S.Dolimov, U.Dolimov. Kaykovus unsurulmaoniy qobusnoma T.: “Istiqlol” 1994 y.
8. San’at – yoshlar nigohida. Magistrantlarning ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. T.: 2019
9. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O‘qituvchi. 1992 y.
10. Y.Abdullayev. Eski maktabda xat-savodga o‘rgatish. T.: 1960 y. 38-bet
11. Z.B.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o‘rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta’lim jurnali. 2017 yil, 5-son.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA TENDENSIYALAR

Sheripov Umarbek Atajanovich
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, tarix fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya. Pedagogik oliy ta’lim muassasalari tasarrufidagi ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha uzluksiz pedagogik ta’limning informasion ta’minotini takomillashtirish va pedagog kasbining nufuzini oshirish hamda pedagog innovatorlarni qo‘llab-quvvatlash; Pedagogik ta’limni tartibga soluvchi mavjud me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish; Pedagogik ta’lim innovasion klasterining platformasini ishlab chiqish.

Kalit so‘zlari: Globalizasiya, integrasiya, klaster, intellektual resurslar, optimallashtirish.

Abstract. Improving the information supply of continuing pedagogical education in educational areas under the jurisdiction of pedagogical higher education institutions and increasing the prestige of the pedagogical profession, as well as supporting pedagogical innovators; Improving existing regulatory documents regulating pedagogical education; Developing a platform for an innovative cluster of pedagogical education.

Key words: Globalization, integration, cluster, intellectual resources, optimization.

Аннотация. Улучшить информационное обеспечение непрерывного педагогического образования, повысить престиж педагогической профессии и поддержать педагогических новаторов; Совершенствование действующих нормативных документов, регулирующих педагогическое образование; Развитие платформы инновационного кластера педагогического образования.

Ключевые слова: Глобализация, интеграция, кластер интеллектуальные ресурсы, оптимизация.

Taraqqiyotining bugungi bosqichiga kelib jamiyat rivojlanishining kompleks xarakterda sodir bo‘lishi, taraqqiyotning ijobiy jihatlari bilan birga uning salbiy oqibatlarining ham yuzaga chiqishi insoniyat oldiga yangidan yangi muammolarni ko‘ndalang qo‘ymoqda. Endilikda o‘zaro ta’sirlardan to‘la himoyalangan biror bir mintaqa yoki davlatni topish mumkin bo‘lmay qoldi. Hozirgi kunda shiddatli tarzda kechayotgan globalizasiya jarayonining jahon mamlakatlariga salbiy ta’sirini kamaytirish va ijobiy ta’sirini oshirish uchun bu hodisaning mohiyatini chuqur anglash, uning xususiyatlarini o‘rganish dolzarb masalalardan bo‘lib turibdi. Globalizasiyaning mohiyatini va xususiyatlarini chuqur o‘rganish unga moslashish, yo‘nalishlarini kerakli tarzda o‘zgartirish, uning kuchidan “o‘ziga qarshi” foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, globalizasiya jarayonidan ijobiy va ijodiy foydalanishning usul va vositalarini, mexnizmlarini ilmiy asosda ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Globallashuv jarayoni sohalarning integrasiyalashuv jarayonini ham tezlashtirdi. Taraqqiyotning juda tez sur’atlar bilan kechishi soha va tarmoqlarning uyg‘un holda faoliyat olib borishlarini taqazo qilmoqda. Jamiyat taraqqiyotini va kishilarning

turmush tarzidagi yuksalishlarni fan, ta’lim va ishlab chiqarishning faol integrasiyalashuvisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Integrasiyalashuv jarayonining zamonaviy usullaridan biri, shubhasiz, klaster yondashuvi ekan, uni ilmiy-pedagogik muammo sifatida tadqiq qilish, uning samarador usul ekanligini ilmiy asoslash va amaliyotga joriy etish mexanizmlari bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish milliy pedagogikamizning bosh masalalaridan biri bo‘lib turibdi. Bu borada xorijiy mutaxassislar tomonidan olib borilgan tizimli tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bu tushuncha xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan sub’yektlarning elementlari o‘zaro aloqada va bog‘liqlikda bo‘lgan va muayyan maqsadlarga erishish uchun birgalikda faoliyat yuritadigan yagona tashkiliy tuzilmaga birlashishni anglatadi. Zamonaviy klasterlar, odatda, ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish sub’yektlarini o‘zida jamlaydi va iqtisodiy barqaror global tarmoqni hosil qiladi. Shuning uchun klasterlarning yagona tashkiliy tuzilmalarini yaratishda innovasion yondashuvlarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi.

Ilmiy adabiyotlarda “klaster” tushunchasi borasida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, “pedagogik ta’lim klasteri” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: Pedagogik ta’lim klasteri – muayyan jug‘rofiy hududning raqobatbardosh pedagog kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida bir-biri bilan uzviy aloqadagi teng huquqli alohida sub’yektlarning, texnologiya va inson resurslarining integrasiyalashuvini kuchaytiruvchi mexanizm. Ta’limga nisbatan klaster yondashuv borasidagi tadqiqotlarni o‘rganish va tahlil qilish bu boradagi bir qancha qarashlarni jamlashga imkon berdi. Demak, klaster yondashuvi bu: - alohida soha (ta’lim, iqtisodiyot va b.) bo‘lib, raqobatbardosh samaradorlikka erishishdan manfaatdor bo‘lgan sohalar birlashishining tashkiliy shakllarini kuchaytirish mexanizmi ixtiyoriy komponentlar qatorida o‘zining to‘liq funksional ishchanlik qobiliyatini saqlaydigan bir nechta teng huquqli bo‘laklardan iborat bo‘lgan tuzilma ishlab chiqarish va ta’lim dasturlarining ehtiyojlarini birlashtirish ta’lim-fan-ishlab chiqarish tizimida innovasiyalarni qo‘llab-quvvatlashni shakllantirish vositasi tashkilotning kelajak iqtisodiyoti uchun kadrlar salohiyatini shakllantirishni tashkil qilishning innovasion samarali usuli muhokama va natijalar. Klaster doirasida bir nechta sub’yektlarni o‘zaro integrasiyalash jarayoni murakkab, ko‘p tarmoqli ilmiy-amaliy hodisadir. O‘zaro bog‘liq bir nechta faoliyat turlarini umumiy maqsad atrofida birlashtirish aniq hisob-kitoblarni va ilmiy echimlarni, natijasi kafolatlangan loyihalarni talab qiladi va shundagina klaster sub’yektlarining ishonchini qozonadi. Klasterni byurokratik va ma’muriy yo‘llar bilan amalga oshirib bo‘lmaydi. U sub’yektlarning ixtiyoriy xayrixohligi asosidagina tashkillashtirilishi va samarali faoliyat olib borishi mumkin. SHu nuqtai nazardan olib qaralganda, ta’lim klasteri milliy pedagogikamizda innovasiya bo‘lib, o‘zida nafaqat ta’lim turlari o‘rtasidagi, balki fan, ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integrasiyalashuv jarayonlarini, shuningdek, ta’limni boshqarish, ta’lim vositalari va shakllari bilan bog‘liq sohalarni ham qamrab oladi.

O‘zbekiston sharoitida pedagogik ta’lim klasterining strategik yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: Maktab va maktabdan tashqari ta’lim, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari uchun pedagogik oliy ta’lim muassasalari tasarrufidagi ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha pedagog kadrlar tayyorlash, shuningdek,

pedagog kadrlar va soha mutaxassislarining ilmiy metodik bazalarini shakllantirishni muvofiqlashtirish va o‘quv-metodik rahbarlikni amalga oshirish; Pedagogika sohasidagi talab va ilg‘or xorijiy tajriba, o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etishni hisobga olgan holda viloyat ta’lim muassasalarida davlat ta’lim standartlari, o‘quv reja va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirishni amalga oshirish; Pedagogik oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha viloyatdagi pedagogika sohasidagi ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, fundamental, amaliy va innovasion ilmiy izlanishlar olib borishni muvofiqlashtirish; Pedagogik oliy ta’lim muassasalari tasarrufidagi ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha uzluksiz pedagogik ta’limning informasion ta’minotini takomillashtirish va pedagog kasbining nufuzini oshirish hamda pedagog innovatorlarni qo‘llab-quvvatlash; Pedagogik ta’limni tartibga soluvchi mavjud me’yoriy hujjatlarni takomillashtirish; Pedagogik ta’lim innovasion klasterining platformasini ishlab chiqish. Ta’lim klasterlari, shu jumladan, pedagogik ta’lim klasteri ham nazariy jihatdan ishlab chiqarish klasterlarining analogi emas. Ularni tashkil qilish bilan bog‘liq amaliy jarayonlarda o‘xshashliklar mavjud.

Ta’lim tizimiga bunday yondashuvni qo‘llash bilan bog‘liq tajribalarni o‘rganish, adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ta’limga klaster yondashuvi quyidagilarni taqozo qiladi: ishlab chiqarish va ta’lim dasturlarini birlashtirishni; tuzilmada innovasiyalarni qo‘llab-quvvatlash vositasi (fan-ta’lim-ishlab chiqarish) sifatida namoyon bo‘lishni; kelajak iqtisodiyoti uchun kadrlar salohiyatini shakllantirishning innovasion faoliyatini tashkil etishning samarali usuli bo‘lishni; turli ta’lim muassasalari (bolalar bog‘chasi, maktab, lisey, kollej, universitet) bilan ta’lim tizimining uzluksizligi prinsipi asosida qayta tashkil etishni. Pedagogik ta’lim klasterining asosiy mahsuloti ta’lim xizmatlari hisoblanadi. Klaster, birinchi navbatda, ta’lim xizmatlarini amalga oshirishga emas, balki o‘zgaruvchan bozor sharoitida raqobatbardosh ta’lim berishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Raqobatbardosh ta’lim berish doimiy ravishda innovasiyalarni, zamonaviylikni va talab hamda taklif mutanosibligini talab qiladi. Bu jarayonda ta’lim xizmatlariga yo‘naltirilgan faoliyat o‘sish ko‘rsatkichlarini namoyon qiladi. Klaster shunday tizimki, uni tashkil qiluvchi komponentlarning integrasiyasi har bir sub’yektning yanada samaraliroq ishlashini ta’minlaydi va istisno buzilishlarga olib kelmaydi. Klaster bir qator ta’lim, ilmiy va ishlab chiqarish sub’yektlarining muayyan assosiasiyaga mexanik birlashishi emas, balki ularning o‘zaro yaqindan ta’siri va o‘zaro bog‘liqligi natijasida yuzaga keladi. Bunday tashkilot alohida komponentlar va butun klasterning konvertasiya qilinishini ta’minlaydi. Klaster ishi yangi sifatli mahsulot yaratish imkonini beradi.

Ta’limga nisbatan o‘ziga xos yangi yondashuv bo‘lgan klaster nafaqat hayot davomida ta’lim olish uchun shart-sharoitlarni ta’minlabgina qolmay, balki ta’limning uzluksizligini ta’minlaydigan tarkibiy qismlar o‘rtasidagi mavjud va istiqbolli aloqalarni qayta tiklashga imkon beradi. Klaster mavjud intellektual resurslarni pedagogik ta’limni rivojlantirishning dolzarb muammolari atrofida integrasiyalash, pedagogik sohada oqilona vorisiylik tamoyilini yo‘lga qo‘yish, manfaatdor shaxslarning qoniqish darajasi haqida tezkor fikr-mulohazalar bilan bo‘lajak o‘qituvchilarni amaliy yo‘naltirilgan holda tayyorlash bilan bog‘liq muhim masalalar

atrofida faoliyat olib boradi. Pedagogik ta’lim klasterini shakllantirish uchun bir qator muhim shartlar talab etiladi. Bularga: hududning raqobatbardosh ustunliklaridan foydalangan holda o‘quv yurtlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish; butun tizimning uzoq muddatli innovasiyalari va boshqa strategiyasini belgilovchi etakchilarni aniqlash; ichki va tashqi raqobatbardoshlikni ta’minlaydigan o‘quv muassasasi xodimlarining malaka darajasini oshirish imkonini beradigan ilmiy tashkilotlarni belgilash; ishonch va ijodkorlik muhiti; bitta hududdagi ta’lim muassasalarining umumiy maqsaddan kelib chiquvchi xususiy manfaatdorlikning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin. Klasterni muayyan tizim deyish mumkin, ammo uning oddiy tizimdan farqli jihatlari mavjud. Bu maxsus, o‘ziga xos tizim bo‘lib, elementlarni qo‘shish bilan uning ishi yaxshilanadi, ammo olib tashlash bilan halokatli oqibatlar kuzatilmaydi. Klaster bilan tizimning farqi quyidagilarda ko‘rinadi: Tizim elementlarining har biri alohida vazifani bajarsa-da, ammo ular muhimlik darajasiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Klaster tarkibidagi elementlar esa teng huquqli koponentlardan tashkil topadi. Tizim tarkibidagi elementlardan birining ishlamasligi butun tizimni nuqsonli ishlashiga yoki ishlamasligiga sabab bo‘ladi. Klaster tarkibidagi elementlardan birining ishlamasligi smaradorlikni pasaytirishi mumkin, ammo qolgan elementlarning faoliyatini to‘xtatib qo‘ymaydi. Tizimni mexanik aloqadorlik asosida ham tashkil qilish mumkin, ammo klaster tarkibidagi elementlar ongli, tabiiy va maqsadli aloqadorlikka ega bo‘lishi kerak. Tizimni tashkil qiluvchi elementlarda har doim ham xususiy manfaatdorlik talab qilinmaydi, ammo klasterda xususiy manfaatdorliksiz elementlar ishlamaydi. Tizimda yagona maqsad mavjud va har bir element o‘sha maqsadga bo‘ysundirilgan bo‘ladi. Klasterda esa yagona maqsaddan (umumiy maqsaddan) tashqari har bir elementning xususiy maqsadi ham bo‘ladi. Xususiy maqsadlar umumiy maqsaddan kam ahamiyatga ega emas.

Tizim alohida qismlardan iborat butunlik, klaster esa alohida butunliklardan iborat butunlikdir. Pedagogik klaster tushunchasi ostida quyidagi tavsiflar mavjud: Ta’lim samaradorligini oshirish maqsadida tomonlarning manfaatli birlashuvining tashkiliy shakli; Jamoani psixologik o‘rganish usuli; Pedagogik boshqaruvni optimallashtirish usuli va vositalari majmui; O‘quv dasturlarini loyihalash usuli; O‘qitish usuli; Ta’lim sifatini baholash usuli; Fikrlash shakllarini rivojlantiruvchi pedagogik usul, o‘rganilayotgan mavzuning keng qamrovli aloqalari va munosabatlarini o‘rnatish qobiliyati.

Umumiy maqsad ta’lim klasterida markaziy o‘rinni egallaydi. U o‘quv jarayoni doirasida bitiruvchilarning davlat ta’lim standartlari asosidagi malakalarini ta’minlaydigan qo‘shma loyihalarni amalga oshirishdan iboratdir. Ushbu tizimni o‘rnatish orqali o‘zaro hamkorlik doirasida ko‘ngillilik va ijtimoiy etika asosida ta’lim muassasalarining maqsadlari, manfaatlari, faoliyati va imkoniyatlarining mehnat bozorining barcha sub’yektlari bilan integrasiyalashishiga erishish mumkin. Umuman olganda, pedagogik ta’lim klasteri pedagogika sohasiga iqtisodiy modellarni tatbiq qilish natijasida samaradorlikka erishishni nazarda tutadi. Uning amalga oshirish mexanizmlari, yo‘nalishlari, tamoyillari, maqsad va vazifalarini ilmiy asosda tavsiflash ayni paytda soha mutaxassislari oldidagi jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Ta’limga klaster yondashuvni tatbiq qilish ta’lim tizimidagi uzluksizlik va aloqani,

ta’lim turlari o‘rtasidagi integrasiya jarayonlarini mustahkamlaydi. Natijada klaster ta’limga nisbatan innovasion yondashuv sifatida hududdagi inson resurslari, tashkilotlar va texnologiyalarni birlashtiruvchi kuchli mexanizmni yuzaga keltiradi. Buni ta’limga nisbatan innovasiya sifatida qarash va samaradorligini chamalash hamda amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy jamoatchilikning oldidagi muhim muammolardan sanaladi. Klaster yondashuvi davlat ta’lim siyosatining mazmunini tubdan o‘zgartirib, subyektlar munosabatlariga rivojlanish va samaradorlik mezonlari bilan qarash imkoni beradi. Barcha sohalarga nisbatan yangicha innovasion yondashuvlar tatbiq qilinayotgan, mavjud qarashlar, tushunchalar va munosabatlar taraqqiyot ko‘zgusi va samaradorlik mezonlari bilan qaytadan taftish qilinayotgan ayni paytda ta’lim klasteri modelining taqdim qilinishi muammoga dolzarblik va zamonaviylik nuqtai nazaridan qaralganda ham asoslar etarli ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шамова Т.И. Кластерный подход к развитию образовательных систем// Взаимодействия образовательных учреждений и институтов социума в обеспечении эффективности, доступности и качества образования региона: Материалы 10 Международного образовательного форума (Белгород. 24–26 окт. 2006 г.): в2 ч. / БелГУ, МПГУ, МАНПО; отв. ред. Т.М. Давыденко, Т.И. Шамова. Белгород: Издательство БелГУ, 2006. Ч. 1. С. 24–29.

2. Беспалова Л. Что такое кластер? URL: http://siok.rightside.ru/siok/ 2009-12-01-06-24-41. Загл. с экрана.

3. Кривых С.В. Кластерный подход в прфессиональном образовании / С.В.Кривых// академия профессионального образования. -2014. -№3-4. –с.7-13.

4. Осечкина Л.И. Кластерный подход как условие повышения эффиктивности деятельности вуза / Л.И.Осечкина// Высшее образование в России. -2012. -№8- 9. –с.73-76.

5. Сидорин А.В. Система формирования кадрового потенциала высокотехнологичных отраслей промышленности на основе кластерного подхода / Интернет- журнал «Науковедение». -2012. -№4. –С.1- 7.

6. Ходжамқулов У.Н. Педагогик таълим кластери (Тошкент вилояти тажрибаси). Монография, -Т.: Университет, 2020.

GEOGRAFIK JOYLAR TARIXINI ZAMONAVIY USULLAR ORQALI O‘QITISH

Abdullayev Diyorjon
UrDPI Ilmiy ishlar va Innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, tarix fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya. Geografik joylar tarixi o‘quvchilarga faqatgina o‘zlarining yashash joylarining o‘zgarishi haqida emas, balki dunyo tarixining rivojlanishi haqida ham chuqur tushuncha berish uchun muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda, geografik joylarning tarixini o‘qitish, an’anaviy metodlardan tashqari, zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullarni qo‘llash orqali yanada samarali va qiziqarli bo‘lishi mumkin. Ushbu maqolada geografik joylar tarixini zamonaviy usullar yordamida o‘qitishning samarali yo‘llari va metodlarini tahlil qilamiz.

Kalit so‘zlar: Geografik tarix, GIS texnalogiyalari, virtual reallik, 3D modelleme, kartografik tahlil, dokumental filmlar.

Abstract. The history of geographical places plays a crucial role in providing students with a deep understanding not only of the changes in their own living environments but also of the development of world history. Today, teaching the history of geographical locations can be made more effective and engaging through the use of modern technologies and interactive methods, in addition to traditional approaches. This article analyzes effective ways and methods of teaching the history of geographical places using modern techniques.

Keywords: Geographic history, GIS technologies, virtual reality, 3D modeling, cartographic analysis, documentary films.

Аннотация. История географических мест имеет важное значение для формирования у учащихся глубокого понимания не только изменений их места проживания, но и развития мировой истории в целом. В настоящее время преподавание истории географических мест, помимо традиционных методов, может стать более эффективным и увлекательным благодаря применению современных технологий и интерактивных подходов. В данной статье мы проанализируем эффективные способы и методы преподавания истории географических мест с использованием современных подходов.

Ключевые слова: Географическая история, ГИС-технологии, виртуальная реальность, 3D-моделирование, картографический анализ, документальные фильмы.

Globallashayotgan davrda yoshlarda hududlar tarixiga oid zamonaviy o‘qitish tendensiyalarini qo‘llashimiz lozim. Quyida mana shunday metodlar bilan tanishdiramiz:

1. Raqamli xaritalar va GIS texnologiyalari

Geografik joylar tarixini o‘qitishda GIS (Geografik Axborot Tizimlari) texnologiyalarining roli katta. Raqamli xaritalar va GIS yordamida talabalar geografik o‘zgarishlarni, tabiiy resurslar, siyosiy chegaralar va boshqa ko‘plab omillarni o‘rganishlari mumkin. GIS texnologiyalari yordamida geografik joylar tarixini o‘qitishda talabalarga geografik nuqtayi nazardan o‘zgarishlarni kuzatish, joylar orasidagi aloqalarni aniqlash imkoniyatlari yaratish mumkin.

Jarayon: Talabalar GIS yordamida tarixiy xaritalarni solishtiradi, geografik joylardagi o‘zgarishlarni vizual tarzda ko‘rib chiqadilar va hududning rivojlanishi haqidagi fikrlarini ilgari suradilar. Masalan, biror hududdagi siyosiy yoki iqtisodiy o‘zgarishlarning kartografik tahlili.

2. 3D modelleme

Bugungi kunda virtual reallik (VR) va 3D modelleme texnologiyalari tarixiy joylarni o‘qitishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Virtual turlar orqali talabalar tarixiy joylarga borishlari, yirik madaniy va tabiiy obyektlarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishlari mumkin. Bu usul nafaqat geografik joylarning tarixini tushunishda, balki o‘quvchilarga tarixiy voqealar va madaniyatlarni chuqurroq o‘rganishda ham yordam beradi.

Jarayon: VR texnologiyalarini qo‘llab, talabalar tarixiy joylarga sayohat qilishlari mumkin. Misol uchun, qadimgi Rim shahrini yoki Misrning piramidalarini virtual reallik yordamida o‘rganish orqali tarixiy va geografik tafsilotlarni interaktiv tarzda o‘rganish.

3. Onlayn arxivlar va tarixiy hujjatlarni tahlil qilish

Geografik joylar tarixini o‘qitishda tarixiy hujjatlar va arxiv materiallarini tahlil qilish juda samarali metod hisoblanadi. Onlayn arxivlar va raqamli resurslar yordamida talabalar tarixiy hujjatlarni tahlil qilib, geografik joylarning qanday o‘zgarishlarini va ularning tarixiy jarayonlarga qanday ta’sir ko‘rsatganini o‘rganishlari mumkin.

jarayon*:* Talabalar onlayn arxivlardan foydalanib, tarixiy xaritalar, shartnomalar, qo‘lyozmalar va boshqa hujjatlarni tahlil qilishlari mumkin. Masalan, o‘quvchilar Britaniya imperiyasining geografik o‘zgarishlarini tushunish uchun o‘zlarining hududlari bo‘yicha arxiv hujjatlaridan foydalanadilar.

4. Tarixiy video materiallar va dokumentallar

Zamonaviy texnologiyalarning yana bir qulayligi shundaki, video materiallar orqali geografik joylar tarixini o‘qitish yanada qiziqarli va samarali bo‘ladi. Tarixiy videolar va dokumental filmlar yordamida talabalar geografik joylarning o‘zgarishini, muhim tarixiy voqealarni va ularning jamiyatga ta’sirini ko‘rishlari mumkin.

Jarayon: Talabalarga tarixiy hujjatlar yoki dokumental filmlar ko‘rsatib, geografik joylarning tarixi, madaniyat va iqtisodiyotni yoritish. Misol uchun, o‘quvchilar o‘z hududlarining tarixiy rivojlanishini videolavhalar orqali ko‘rib, ma’lumotlarni tahlil qiladilar.

5. Interaktiv o‘yinlar va simulyatsiyalar

Tarix va geografiya o‘qitishning zamonaviy usullaridan biri bu interaktiv o‘yinlar va simulyatsiyalar. O‘yinlar va simulyatsiyalar talabalarga geografik joylar tarixini o‘rganishda faol ishtirok etish imkonini beradi. Bu usul talabalarni tarixiy vazifalarni bajarishga, geografik joylar bilan bog‘liq qarorlar qabul qilishga va tarixiy jarayonlarni boshqarishga undaydi.

jarayon: Talabalar tarixiy o‘yinlar (masalan, Civilization, Age of Empires) yordamida geografik joylar tarixini o‘rganishlari mumkin. Ular o‘zlarining virtual imperiyalarini yaratib, geografik va siyosiy o‘zgarishlarni boshqaradilar.

6. Hududlar bo‘yicha Tadqiqot Loyihalari

Talabalarga geografik joylar bo‘yicha tadqiqot loyihalarini tayyorlashni taklif qilish orqali ularni o‘z hududlarining tarixini chuqur o‘rganishga undash mumkin. Ushbu metod orqali talabalar geografik joylarning o‘zgarishi, iqtisodiy rivojlanish, madaniy o‘zgarishlar va boshqa jihatlar bo‘yicha mustaqil tadqiqotlar olib boradilar.

jarayon: Talabalar o‘zlarining geografik hududlarida tarixiy joylar, yodgorliklar va tabiiy obyektlar bo‘yicha tadqiqotlar olib boradilar va ular haqida ilmiy maqolalar yozadilar.

Geografik joylar tarixini zamonaviy usullar yordamida o‘qitish, o‘quvchilarga nafaqat tarixiy ma’lumotlarni, balki dunyoqarashlarini kengaytirish, o‘quvchilarning ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash orqali yaratish va faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi. Bu metodlar, geografik joylar tarixini o‘rganishda yanada samarali va qiziqarli bo‘lishi uchun yangi imkoniyatlar taqdim etadi. O‘qituvchilar va talabalar uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, geografik joylar tarixini chuqurroq va interaktiv tarzda o‘rganish eng yaxshi natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bukharaev Sh va Karomatov S. Geografik axborot tizimlari va zamonaviy texnologiyalar. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti, 2019.
2. Ivanova A. Virtual reallik va tarixiy o‘qitish: teoriya va amaliyot. – M. 2021.
3. Muhammadiyev A. Geografiyaning zamonaviy pedagogik yondoshuvlari. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 2021.
4. Robinson A. Introduction to Cartography and GIS Technologies. – London: Wiley, 2017.
5. Steele M. The Power of Virtual Reality in Education. – New York: Education Press. 2020.
6. Smith, J. & Clark, R. History in Motion: Using Gaming Technology for Educational Purposes. – Chicago: Educational Publishers, 2010.

PEDAGOGIK JARAYONDA TARIXIY SHAXSLARNING O‘RNI

Xo‘Jamuratov Umarjon Rustamovich
UrDPI Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedaogik jarayonlarda tarixiy shaxslarning o‘rni, ularning asarlarini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish, ularning o‘quvchilarga ta’siri masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Amir Temur, jadid adabiyoti.

Abstract. This article discusses the role of historical figures in pedagogical processes, the use of interactive methods in teaching their works, and their impact on students.

Keywords: Ibn Sina, Mirzo Ulugbek, Amir Temur, modern literature.

Аннотация. В данной статье описывается роль исторических деятелей в педагогическом процессе, использование интерактивных методов в преподавании их произведений и их влияние на учащихся.

Ключевые слова: Ибн Сина, Мирза Улугбек, Амир Темур, современная литература.

Pedagogik jarayonda tarixiy shaxslarning o‘rni beqiyos bo‘lib, ularning hayoti va faoliyati o‘quvchilar tarbiyasiga, ma’naviy kamolotiga hamda dunyoqarashining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Har qanday millat o‘z tarixidan saboq olib, buyuk shaxslarining merosini asrab-avaylashi va kelajak avlodga yetkazishi zarur. Ushbu maqolada tarixiy shaxslarning ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘rni, ularning ilmiy va madaniy rivojlanishdagi hissasi hamda o‘quvchilarga ta’sir etish usullari tahlil qilinadi.

I. Tarixiy shaxslarning ta’lim va tarbiyada tutgan o‘rni

Tarixiy shaxslar o‘z faoliyati orqali kelajak avlod uchun katta meros qoldirgan. Ularning hayoti va faoliyatini o‘rganish o‘quvchilarga nafaqat tarixiy bilim beradi, balki ularda vatanparvarlik, jasorat, halollik va ma’rifatga intilish ruhini shakllantiradi.

1. **Vatanparvarlik tarbiyasida** – Amir Temurning harbiy jasorati va davlat boshqaruvidagi donoligi yoshlarga fidoyilik va jasorat saboqlarini beradi.
2. **Ilm-fan va ma’rifatda** – Ibn Sino, Beruniy, Al-Farg‘oniy kabi buyuk olimlarning ilmiy izlanishlari o‘quvchilarni ilmga qiziqtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.
3. **Adabiyot va san’atda** – Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shaxslarning ijodi yoshlarga badiiy estetik didni rivojlantirish va adabiyotga mehr uyg‘otish uchun muhim manba hisoblanadi.

II. Pedagogik jarayonda tarixiy shaxslarni o‘rgatish usullari

Pedagoglar tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini o‘quvchilarga yetkazish uchun turli xil usullardan foydalanishlari mumkin. Bu usullar quyidagilardan iborat:

1. **Dars jarayonida hikoya va tahlil qilish** – Tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati bilan bog‘liq qiziqarli hikoyalarni bayon qilish va ularni o‘quvchilar bilan muhokama qilish orqali tarixiy ongni rivojlantirish.
2. **Ilmiy-ijodiy loyihalar** – O‘quvchilarga tarixiy shaxslar haqida tadqiqot olib borish, taqdimotlar tayyorlash va esse yozish topshiriqlarini berish.

3. **Rolli o‘yinlar va sahnalashtirilgan chiqishlar** – Tarixiy shaxslarning hayotidan muhim lavhalarni jonlantirish orqali o‘quvchilarni qiziqtirish.

4. **Tarixiy manbalar bilan ishlash** – Asosiy manbalar, xronikalar, hujjatlar va arxiv materiallari asosida tarixiy haqiqatni o‘quvchilarga yetkazish.

III. Tarixiy shaxslarning ta’lim va ilm-fanga qo‘shgan hissasi

Tarixiy shaxslarning ilm-fan, madaniyat va davlat boshqaruvidagi faoliyati pedagogik jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Masalan:

- **Ibn Sino** – tibbiyot, falsafa va matematika sohalarida muhim asarlar yaratib, ilmiy meros qoldirgan.
- **Al-Farg‘oniy** – astronomiya va geografiya fanlarini rivojlantirgan va o‘z asarlari bilan butun dunyo olimlariga ta’sir ko‘rsatgan.
- **Mirzo Ulug‘bek** – Samarqand rasadxonasi orqali astronomiya ilmiga katta hissa qo‘shgan.
- **Jadid ma’rifatchilari** – Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi jadidlar ta’limni isloh qilish va millatni savodxon qilishga katta e’tibor berganlar.

IV. Tarixiy shaxslarni o‘rganishning o‘quvchilarga ta’siri

O‘quvchilar tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati haqida bilimga ega bo‘lish orqali:

- Ma’naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlaydi.
- Ilm-fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi.
- Vatanparvarlik va milliy g‘ururni his qiladi.
- O‘z oldiga aniq maqsadlar qo‘yib, ularga intilishni o‘rganadi.

Tarixiy shaxslarning pedagogik jarayondagi o‘rni juda katta bo‘lib, ular yosh avlodning dunyoqarashi, vatanparvarlik hissi va intellektual rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida tarixiy shaxslarni o‘rganish orqali o‘quvchilar o‘ziga namuna olishi mumkin bo‘lgan shaxslarni kashf etadi. Shu bois o‘qituvchilar va ta’lim tizimi ushbu shaxslarning merosini chuqur o‘rganish va o‘quvchilarga yetkazishga katta e’tibor qaratishi lozim. Bu esa kelajak avlodning yetuk va bilimli bo‘lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Mirzo Ulug‘bek ijodini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish

Mirzo Ulug‘bek nafaqat buyuk astronom va matematik, balki ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shgan davlat arbobi hamdir. Uning ilmiy ishlari, ayniqsa, astronomiyaga bag‘ishlangan tadqiqotlari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. O‘quv jarayonida Ulug‘bek ijodini o‘rgatish uchun interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, ularning tanqidiy fikrlash va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu maqolada Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosini samarali o‘qitish uchun qo‘llaniladigan interfaol metodlar tahlil qilinadi.

1. Interfaol metodlarning o‘quv jarayonidagi o‘rni

Interfaol metodlar o‘quvchilarning faolligini oshirib, bilimlarni o‘zlashtirish darajasini yuqori bo‘lishiga xizmat qiladi. Mirzo Ulug‘bek ijodini o‘qitishda quyidagi interfaol metodlardan foydalanish mumkin:

1. **Jamoaviy loyihalar** – O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, Mirzo Ulug‘bekning ilmiy ishlari, uning Samarqand rasadxonasi va astronomiya ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi haqida taqdimot tayyorlaydi.
2. **Rolli o‘yinlar** – O‘quvchilar tarixiy shaxslar obrazini gavdalantirib, Mirzo Ulug‘bek davridagi ilmiy muhokamalarni sahnalashtirish orqali uning ishlariga chuqurroq kirib boradilar.
3. **Muammoli ta’lim** – O‘qituvchi Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyati bilan bog‘liq muammolarni ko‘taradi va o‘quvchilar mustaqil yechim topishga harakat qiladilar.
4. **Interfaol darsliklar va multimedia texnologiyalari** – Elektron darsliklar, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar orqali Mirzo Ulug‘bekning astronomiyaga qo‘shgan hissasini tushuntirish yanada samarali bo‘ladi.

2. Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosini o‘qitishda foydalanish mumkin bo‘lgan metodlar

Mirzo Ulug‘bekning ilmiy faoliyatini chuqur o‘rganish uchun quyidagi interfaol metodlarni keng qo‘llash maqsadga muvofiqdir:

1. **Ilmiy-tadqiqot metodlari** – O‘quvchilarga Mirzo Ulug‘bek asarlarini o‘rganish va tahlil qilish topshirig‘i beriladi.
2. **Debat va bahslar** – Ulug‘bekning fanga qo‘shgan hissasi va uning davridagi ilmiy muammolar bo‘yicha munozaralar tashkil etish.
3. **Tarixiy hujjatlar bilan ishlash** – Mirzo Ulug‘bekka oid tarixiy hujjatlar, qo‘lyozmalar va manbalarni o‘rganish orqali o‘quvchilarga ilmiy izlanish ko‘nikmalarini shakllantirish.
4. **Ekskursiyalar va muzey darslari** – Samarqanddagi Ulug‘bek rasadxonasi yoki boshqa tarixiy obidalarga tashrif buyurib, o‘quvchilarni tarix bilan jonli tanishtirish.

Interfaol metodlarning o‘quvchilarga ta’siri

Mirzo Ulug‘bek ijodini interfaol metodlar orqali o‘qitish o‘quvchilarga quyidagicha ta’sir ko‘rsatadi:

- **Ijodiy fikrlashni rivojlantirish** – O‘quvchilar ilmiy masalalarni o‘rganish jarayonida yangicha yondashuvlarni ishlab chiqadilar.
- **Ilmiy izlanishga qiziqish uyg‘otish** – Ulug‘bekning ilmiy merosi orqali o‘quvchilarni astronomiya, matematika va tarixga qiziqtirish.
- **Jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish** – Guruhli loyihalar va bahslar orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini mantiqiy ifodalashni va boshqalar bilan hamkorlik qilishni o‘rganadilar.
- **O‘z-o‘zini baholash va tanqidiy fikrlashni shakllantirish** – O‘quvchilar Ulug‘bekning ilmiy izlanishlari asosida o‘z fikrlarini bildirish va dalillash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Mirzo Ulug‘bek ijodini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarni faol va ijodiy fikrlashga undaydi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilar tarixiy shaxsning ilmiy merosini yanada chuqur o‘rganadilar va o‘zlari ham ilm-fanga

qiziqish bilan yondashadilar. Shuning uchun ta’lim jarayonida interfaol metodlarni keng qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Ibn Sino ilmiy merosini o‘qitishda foydalanish mumkin bo‘lgan metodlar

1. Мирзиёев Ш. М. Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису. 29 декабря 2020 года.
2. Бахтин М. М. Работы о Гоголе. — М.: Художественная литература, 2011. – 320 с
3. Белинский В. Г. О русской литературе.–М., 1961.
4. Белинский В. Г. Статьи о русской литературе. — М.: Наука, 1985. – 240 с.
5. Гоголь Н. В. Мёртвые души. — М.: Эксмо, 2021. – 350 с.
6. Гоголь Н. В. Ревизор. — М.: Просвещение, 2018. – 220 с.
7. Гоголь Н. В. Тарас Бульба. — М.: Наука, 2009. – 200 с.
8. Гоголь Н. В. Шинель. — М.: АСТ, 2015. – 150 с.
9. Гоголь Н. В. Полное собрание сочинений. Т. 3.– М., 1959.
10. Скабичевский А. М. История русской литературы XIX века. – СПб., 1890.

ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ НА ЗДОРОВЬЕСБЕРЕЖЕНИЕ УЧАЩИХСЯ

Григорьев Александр Владимирович
Доцент кафедры философии, культурологии и социологии
Астраханскогогосударственного университета им. В.Н. Татищева
Меркулова Алеся Михайловна
Старший преподаватель кафедры философии, культурологии и социологии
Астраханского государственного университета им. В.Н. Татищева

Аннотация. Влияние глобализации и непрерывное внедрение цифровых технологий во все аспекты социума неизбежно коснулось как системы образования в широком смысле, так и всех ее ступеней. Одной из наиболее значимых тенденций в образовательной сфере является цифровизация учебного процесса. Внедрение цифровых технологий способствуют улучшению отдельных факторов в поддержании здоровья учащихся. Обширное использование девайсов и онлайн-ресурсов способны привести к сокращению навыков критического мышления и способности к самостоятельному обучению. Переход к цифровому образованию – это объективная реальность, предоставляющая студентам беспрецедентные перспективы. Тем не менее, для оптимального использования этих преимуществ и снижения потенциального вреда для самочувствия учащихся, крайне важно внедрить комплекс мер по сохранению здоровья в контексте повсеместного применения цифровых решений в обучении.

Ключевые слова: *Образование, цифровизация, процессы глобализации, информационные технологии, мотивация, риски, здоровьесбережение*

Abstract. The impact of globalization and the continuous introduction of digital technologies into all aspects of society has inevitably affected both the education system in a broad sense and all its levels. One of the most significant trends in the educational field is the digitalization of the educational process. The introduction of digital technologies contributes to the improvement of certain factors in maintaining the health of students. Extensive use of devices and online resources can lead to a reduction in critical thinking skills and the ability to learn independently. The transition to digital education is an objective reality that provides students with unprecedented perspectives. Nevertheless, in order to make optimal use of these benefits and reduce the potential harm to students' well-being, it is extremely important to implement a set of measures to preserve health in the context of the widespread use of digital solutions in education.

Keywords: *Education, digitalization, globalization processes, information technology, motivation, risks, health care*

Annotatsiya. Globallashuvning ta'siri va raqamli texnologiyalarning jamiyatning barcha jabhalariga uzluksiz tatbiq etilishi muqarrar ravishda ta'lim tizimiga ham, uning barcha bosqichlariga ham ta'sir ko‘rsatdi. Ta'lim sohasidagi eng muhim tendentsiyalardan biri bu o‘quv jarayonini raqamlashtirishdir. Raqamli texnologiyalarni joriy etish o‘quvchilarning sog'lig'ini saqlashda alohida omillarni

yaxshilashga yordam beradi. Qurilmalar va onlayn resurslardan keng foydalanish tanqidiy fikrlash qobiliyatlari va mustaqil o‘rganish qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Raqamli ta'limga o‘tish talabalarga misli ko‘rilmagan istiqbollarni taqdim etadigan ob'ektiv haqiqatdir. Biroq, ushbu imtiyozlardan optimal foydalanish va o‘quvchilarning farovonligiga potentsial zararni kamaytirish uchun raqamli ta'lim yechimlarini keng qo‘llash kontekstida sog'liqni saqlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish juda muhimdir.

Kalit so‘zlar: *Ta'lim, raqamlashtirish, globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalari, motivatsiya, xatarlar, sog'liqni saqlash*

Глобализационные процессы и поступательное проникновение цифровых технологий во все сферы общественной жизни не могло не затронуть как образовательную систему в целом, так и все уровни образования в частности. Одной из ключевых тенденций в данной сфере можно назвать цифровизацию образовательного процесса.

С развитием цифровых технологий в образовательной сфере возникает множество новых возможностей, однако наряду с этим появляются и серьезные риски, которые могут негативно сказаться на качестве образования и благополучии учащихся. мы рассмотрим основные группы рисков, связанных с цифровизацией образования, и их потенциальные последствия.

- Психологические:

Одной из ключевых проблем, возникающих в результате внедрения цифровых технологий в образовательный процесс, является потеря базовых когнитивных компетенций у учащихся. Широкое использование гаджетов и онлайн-ресурсов может привести к снижению навыков критического мышления и способности к самостоятельному обучению. Это, в свою очередь, повышает требования к психологическим качествам учителей, которые должны быть готовы справляться с новыми вызовами в образовательной среде. [7, p. 334.] Кроме того, цифровизация может способствовать росту конфликтности в образовательной среде. Учащиеся становятся менее вовлеченными в процесс, что приводит к рассеиванию их субъектности и снижению мотивации к обучению. [5, с. 85.] Это может создать атмосферу напряженности как среди учеников, так и между учащимися и преподавателями.

- Социальные:

Цифровизация образования также несет в себе социальные риски, которые проявляются в повышении социальной атомизированности. Учащиеся могут чувствовать себя изолированными как внутри своих коллективов, так и в отношениях с преподавателями. Это отчуждение может привести к таким явлениям, как цифровой тоталитаризм, когда контроль за учениками осуществляется через различные цифровые платформы. [3, с. 75.]

Не менее актуальными являются проблемы кибер-буллинга и кибер-троллинга, которые становятся все более распространенными в условиях цифрового обучения. Эти явления негативно влияют на психоэмоциональное

состояние учащихся и могут привести к серьезным последствиям для их здоровья и социального взаимодействия [4, с. 74; 1, с. 33].

- Риски для здоровья учащихся:

Среди рисков, связанных с цифровизацией образования, стоит выделить и здоровье учащихся. Увлечение гаджетами и длительное пребывание за экранами могут привести к ухудшению зрения, развитию гиподинамии и даже депрессивным состояниям. [8. p. 16.] Важно отметить, что на фоне увеличения времени, проводимого за цифровыми устройствами, учащиеся могут забывать о необходимости физической активности и полноценного отдыха.

- Информационные риски

Наконец, нельзя не упомянуть информационные риски, которые связаны с нарушением приватности, авторских прав и цифровым неравенством. Учащиеся могут стать жертвами кибер-мошенничества, что подчеркивает важность защиты личной информации в цифровом пространстве. [6, p. 10; 2, с. 309.] Цифровое неравенство также создает дополнительные барьеры для доступа к качественному образованию, что может усугубить социальные проблемы.

Как уже было отмечено, наряду с очевидными преимуществами, цифровизация несет в себе и серьезные риски, непосредственно влияющие на здоровьесбережение учащихся. Рассмотрим подробнее эту взаимосвязь, проанализировав как позитивные, так и негативные аспекты.

Положительные аспекты цифровизации в контексте здоровьесбережения:

Внедрение цифровых технологий может способствовать улучшению некоторых аспектов здоровья учащихся, хотя и косвенным образом. Например, онлайн-платформы позволяют обучаться дистанционно, что особенно актуально для детей с ограниченными возможностями здоровья, проживающих в отдаленных районах или имеющих проблемы с передвижением. Это значительно расширяет доступ к образованию и снижает стресс, связанный с ежедневными поездками в школу. Более того, многие цифровые ресурсы предлагают интерактивные упражнения и игры, способствующие развитию физической активности и координации движений. Например, специальные приложения могут отслеживать физическую активность ученика и мотивировать его к занятиям спортом. Наконец, доступ к онлайн-консультациям с врачами и психологами позволяет своевременно получать необходимую медицинскую и психологическую помощь, что особенно важно в условиях растущего уровня стресса у современных школьников.

Негативные аспекты цифровизации и их влияние на здоровье:

К сожалению, негативные последствия цифровизации для здоровья учащихся значительно перевешивают положительные. Основной проблемой является значительное повышение экранного времени. Существует связь между длительным пребыванием за экранами гаджетов и развитием различных заболеваний. Чрезмерное напряжение глаз, недостаток естественного освещения, близорукость – все это следствие длительной работы за компьютером, планшетом или смартфоном. Дети, проводящие много времени за

гаджетами, часто страдают от сухости глаз, боли в глазах и головных болей. Сидячий образ жизни, связанный с использованием цифровых технологий, приводит к развитию гиподинамии, ожирению и сердечно-сосудистым заболеваниям. Недостаток физической активности негативно сказывается на общем физическом развитии ребенка, снижает его иммунитет и способствует развитию хронических заболеваний. Использование гаджетов перед сном нарушает циркадные ритмы, снижает качество сна и приводит к хронической усталости, раздражительности и снижению концентрации внимания. Голубой свет, излучаемый экранами, подавляет выработку мелатонина – гормона сна, что еще больше усугубляет проблему. Чрезмерное увлечение гаджетами и социальными сетями может привести к развитию депрессивных состояний, тревожных расстройств и проблем с самооценкой. Кибербуллинг, онлайн-зависимость и социальная изоляция – все это негативно сказывается на психическом здоровье учащихся. Длительное сидение за компьютером в неправильной позе является одной из основных причин развития сколиоза, сутулости и других нарушений осанки. Это может привести к болям в спине, ограничению подвижности и другим ортопедическим проблемам.

Меры по обеспечению здоровьесбережения в условиях цифровизации образования:

Для минимизации негативных последствий цифровизации образования необходимо принять ряд мер:

1. Оптимизация экранного времени: необходимо оптимизировать время, проводимое учащимися за гаджетами, как в учебное, так и внеучебное время. Важно включать в расписание регулярные перерывы для отдыха глаз и физической активности.
2. Создание комфортных условий для работы за компьютером: Рабочее место должно быть эргономично оборудовано: правильно подобранный стол и стул, достаточное освещение, удобное положение монитора.
3. Проведение профилактических мероприятий: В школах необходимо проводить профилактические мероприятия, направленные на предотвращение проблем со зрением, гиподинамии и психологических расстройств. Это могут быть лекции, тренинги и консультации специалистов.
4. Внедрение цифровых технологий, учитывающих здоровьесбережение: необходимо использовать образовательные платформы и приложения, которые не только эффективны с точки зрения обучения, но и учитывают требования здоровьесбережения.
5. Повышение осведомленности участников образовательного процесса о рисках здоровью: Родители и педагоги должны быть осведомлены о рисках, связанных с чрезмерным использованием цифровых технологий, и уметь помогать учащимся контролировать экранное время и вести здоровый образ жизни.

В заключение, цифровизация образования – это неизбежный процесс, который открывает перед учащимися новые возможности. Однако, для того чтобы извлечь из него максимальную пользу и минимизировать риски для здоровья учащихся, необходимо принять все необходимые меры по обеспечению

здоровьесбережения в условиях широкого внедрения цифровых технологий в образовательный процесс. Только интегрированный подход, учитывающий как преимущества, так и недостатки цифровизации, позволит создать образовательную среду, благоприятную для полноценного развития и здоровья учащихся.

Список литературы

1. Акулич М.М., Троллинг в социальных сетях: возникновение и развитие // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Социология. 2012.№ 3. С. 30-37.

2. Ильченко Л.М., Уваров Р.В., Зайцев С.И. Социальная инженерия. Фишинг и способы противодействия ему // Региональная информатика и информационная безопасность: сборник научных трудов. СПб: Санкт-Петербургское общество информатики, вычислительной техники, систем связи и управления, 2017. С. 308-311

3. Крайнов А.Л., Цифровой тоталитаризм как следствие развития информационного общества // Философия и культура информационного общества: тезисы докладов седьмой международной научно-практической конференции: в 2-х частях. СПб: Санкт-Петербургский государственный университет аэрокосмического приборостроения, 2017. С. 74-76

4. Осадчая А.В., Виды кибер-буллинга и формы противодействия ему // Проблемы качества образования. Психолого-педагогические аспекты гуманитарной культуры общества. Управление в региональных социально-экономических системах: сборник докладов XVII научно-практической конференции преподавателей, студентов, аспирантов и молодых ученых. Таганрог: Таганрогский институт управления и экономики, 2016. С.73-76.

5. Стрекалова Н.Б., Риски внедрения цифровых технологий в образование // Вестник Самарского университета. История, педагогика, филология. 2019. Т. 25. № 2. С. 84-88.

6. Capurro R., Information ethics for the Information society // Information society. 2010. №5. P. 6-15.

7. Henderson M., Selwyn N., Aston R.,What works and why? Student perceptions of ‘useful’ digital technology in university teaching and learning //Studies in Higher Education. 2017. №42(8). P. 1567-1579, DOI: 10.1080/03075079.2015.1007946

8. Hui-Chun C., Potential Negative Effects of Mobile Learning on Students' Learning Achievement and Cognitive Load - a Format Assessment Perspective // Journal of Educational Technology & Society. 2014. №17(1). P. 332-344.

1-SHO‘BA. TIL VA ADABIYOT TA’LIMIDA INTEGRATSIYA VA METODIK YONDASHUVLAR

O‘ZBEK ROMANCHILIGINING SHAKLLANISHI

Xajiyeva Dilfuza Adambayevna
UrDPI “O‘zbek va rus tili adabiyoti” kafedrasi mudiri, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent. adambayevna81@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada romanchilik tarixi, XIX asrning oltmishinchi yillaridan boshlangan “Milliy uyg‘onish davri” adabiyotidan to bugungi kunimizgacha bo‘lgan davrdagi ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirilgan. O‘zbek adabiyotidagi ayrim romanlar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: roman, romanchilik tarixi, “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Kecha va Kunduz”.

Abstract. This article summarizes the history of the novel, scientific and theoretical views on the period from the literature of the “National Revival” period, which began in the sixties of the 19th century, to the present day. Some novels in Uzbek literature are analyzed.

Keywords: novel, history of the novel, “Bygone Days”, “Scorpion from the Altar”, “Night and Day”.

Аннотация. В данной статье обобщена история романа, научные и теоретические взгляды на период от литературы периода «Национального возрождения», начавшегося в шестидесятых годах XIX века, до наших дней. Анализируются некоторые романы в узбекской литературе.

Ключевые слова: роман, история романа, «Минувшие дни», «Скорпион из алтаря», «Ночь и день».

XIX asrning o‘rtalarida boshlanib, XX asrning boshlarida, ayniqsa jadid davri adabiyotida yangi janrlar, masalan, romanning paydo bo‘lishi, albatta, ahamiyatli voqeadir. Yangi o‘zbek adabiyoti shartli ravshda XIX asrning oltmishinchi yillaridan boshlangan “Milliy uyg‘onish davri” adabiyotidan to bugungi kunimizgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.Yangi o‘zbek adabiyotining romani, haqiqatan ham, omma fikrini shakllantirish va xalqning kundalik hayotiga, uning istaklari va muammolariga e'tibor qaratish borasida muhim o‘rin tutadi. Roman janri o‘zida nafaqat badiiy ifoda vositalarini, balki jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlarni aks ettirish imkonini ham beradi. Bu davrda yozuvchilar milliy o‘zlikni saqlagan holda, dunyoqarashni yangilashga harakat qildilar. Shu tariqa, o‘zbek adabiyotida roman janrining rivojlanishi milliy uyg‘onishning o‘ziga xos ifodasi bo‘ldi. Jadid adabiyotining boshlanishi bilan yangi janrlar va yangi badiiy uslublar o‘zgarishni boshladi, bu jarayon esa nafaqat yozuvchilar, balki umumiy jamiyatning fikrlash tarzini ham o‘zgartirishga sabab bo‘ldi. Roman, masalan, o‘quvchilarni nafaqat o‘zgarayotgan real hayot bilan tanishtirdi, balki ularni yangi ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni qabul qilishga undadi.

Agar ma’rifatchilar faqat badiiy adabiyotnng ma`no mazmuniga yangilik kiritgan bo‘lsalar, jadidlar bu o‘zgarishlarni saqlab qolgan holda o‘z go‘yalarini ommaga qulayroq yetkaza olishi imkoniyatiga ega bo‘lgan, jimjimadorlikdan holi, xalq

so‘zlashuv tiliga yaqin bo‘lgan yangi obrazlar, uslub va janrlarni olib kirdilar. Ana shunday janrlardan biri roman edi Roman(fran. dastlab rumoviy (roman) tillarida yozilgan asar) yangi davr adabiyotidagi katta hajmli epik asar sanaladi.

Adabiyotshunos M.Solihov o‘z maqolasida roman janrining adabiyotimizga kirib kelishi haqida deydi-“Asriy adabiyotg‘a yangidan kira boshlag‘on xalqlar adabiyotning ro‘mon qismimni tarjima bilan ochqonlar. Ya’ni qayu bir xalqning adabiyotida yaxshi ro‘mon bo‘lsa, uni tarjima bilan xalqni va yozuvchilarni u yo‘lg‘a o‘rgata borg‘onlar. So‘ngra-so‘ngra unday ro‘monlarning taqlidini o‘z hayotlariga uydirib chiqora borg‘onlar”.

Bu fikrlar o‘zbek adabiyotida o‘rinli bo‘lmasada (o‘zbek adabiyotida ilk romanlar yaratilguniga qadar birorta tarjima roman bo‘lmagan, tarjima sohasi asrning keyingi yillarida rivojlangan) rus adabiyoti orqali roman janri o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan va rus adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zlashtirib, o‘zbek yozuvchilari roman janrida katta asarlar yaratgan.

O‘zbek adabiyotining birinchi romani sifatida A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari keng tan olingan. H.H.Niyoziyning “Yangi saodat yoxud milliy romani” va Mirmuhsinning “Farzandsiz Ochildiboy” asarlari ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular ham o‘z zamonasida roman janrining o‘ziga xos shakllarini yaratishga intilgan. Har ikkala asar ham roman janrining yangi bosqichini boshlashda muhim rol o‘ynagan.

Shu bilan birga, o‘zbek adabiyotida roman janrining rivojlanishi, nafaqat rus adabiyotidan, balki boshqa yevropa adabiyotlaridan ham ta'sirlar olib, o‘ziga xos o‘zbek romanini yaratishda davom etdi. O‘zbek romanchiligi vaqt o‘tishi bilan o‘ziga xos uslublar va mavzularni ishlab chiqib, adabiyotimizda muhim o‘rin tutgan. Bundan tashqari, o‘zbek yozuvchilari, o‘zbek jamiyatining o‘ziga xos xususiyatlari, tarixiy o‘zgarishlar va milliy qadriyatlarni roman janrida tasvirlash orqali o‘zbek romanining yuksalishiga katta hissa qo‘shganlar. O‘sha davrdagi adabiyotshunoslar va tanqidchilarning fikrlarini hisobga olish muhim. M.Solihovning fikri, o‘zbek adabiyotida roman janri shakllanishi va rivojlanishidagi bosqichlarni belgilashda muhim o‘rin tutadi. U “Mehrobdan chayon”ni nafaqat Julqunboyning ikkinchi asari, balki o‘zbek yangi adabiyotining ikkinchi romani sifatida baholagan. Bu, albatta, romanning shakllanishi va janrning o‘ziga xos xususiyatlarining rivojlanishi bilan bog‘liq edi. Hamza Hakimzodaning “Milliy ro‘mon”i haqidagi fikrda ham muhim nuqta mavjud. U, albatta, o‘z zamonasi uchun muhim bir asar bo‘lsa-da, hozirgi zamon sharoitida roman sifatida baholanishi qiyin edi. Bu, romanning shakllanishi va mukammallashishi uchun zarur bo‘lgan janr talablariga mos kelmasligini ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotida roman janrining shakllanishi va rivojlanishi bosqichma-bosqich bo‘lgan. O‘sha davrdagi adabiyotshunoslarning fikriga ko‘ra, yuqorida tilga olingan asarlar, aslida, roman yaratish yo‘lidagi urinishlar sifatida baholandi. Bu asarlar roman janrini yaratish uchun boshlang‘ich qadamlar sifatida muhim rol o‘ynadi. Jadidlar o‘zbek romanchiligini boshlashda muhim rol o‘ynaganlar. Ular yangi uslub va shakllarni, o‘ziga xos milliy xususiyatlarni roman janriga kiritishda katta hissa qo‘shganlar. Shu tariqa, jadidlarning urinishlari o‘zbek romanining kelajakda rivojlanishiga asos bo‘lgan. Hozirgi kunda esa, bu asarlar tarixiy ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zbek adabiyotida roman janrining rivojlanish yo‘lidagi boshlang‘ich nuqtalar

sifatida qadrlanadi. O‘zbek adabiyotida, ayniqsa roman janrida, mumtoz adabiyotdan olingan an'analar va obrazlarning qurilishida an'anaviy shakllar ko‘p uchraydi. Masalan, Otabek, Kumush, Homid, Anvar, Ra'no va Musulmonqul kabi personajlar, o‘zbek romanida klassik oshiq-mashuqaraqib (uchlik) strukturasini davom ettirgan. Bu obrazlar, aslida, mumtoz adabiyotdagi o‘rganilgan mavzular va uslublarni yangilashga, zamonaviy roman janrida o‘ziga xos yondashuvlar yaratishga intilgan. Kumush obrazini tasvirlashda ham mumtoz an'analarga e'tibor qaratilganligi aniq ko‘rinadi. Kumush, nafaqat tashqi ko‘rinishi, balki uning ichki dunyosi, xulqi va hissiyotlari, boshqa roman obrazlaridan farq qiladi. Shuning uchun, Kumush obrazining ko‘rinishida an'anaviy mumtoz elementlar mavjud bo‘lsa-da, uni faqat bir xil obraz sifatida ko‘rmaslik kerak. Agar M. Solihovning “Mehrobdan chayon” asarini tahlil qilsak, uning mavzui, tuzilishi an'anaviy o‘zbek romaniga xos bo‘lib, ijobiy va salbiy obrazlar o‘rtasida qat'iy farq mavjud. Bu asarda ijobiy va salbiy qahramonlarning mutlaq va o‘zgarmas xususiyatlari ko‘rsatilgan. Bu, albatta, mumtoz adabiyotning ta'siri va klassik qahramonlar tasvirining davomidir. Ammo, keyingi davr romanlarida, ayniqsa, Sobiq Sovet davrida, adabiyotda xarakterlarning evrilishi, o‘zgarishi va ruhiyatidagi o‘zgarishlar ko‘proq kuzatilgan.

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanida esa, siz ta'kidlaganidek, qahramonlarning ruhiyatida va xarakterlarida sezilarli evrilishlar mavjud. Cho‘lpon, o‘zbek romanida, har bir qahramonning ichki dunyosini, o‘zgarish va rivojlanish jarayonini chuqurroq ko‘rsatgan. Bu romanning katta erkinlik va in'ikos yaratishi, o‘zbek romanida xarakterlarning ichki izlanishlari va ruhiyatidagi o‘zgarishlarni birinchi marta mukammal tarzda aks ettirganini ko‘rsatadi. Shu tarzda, o‘zbek adabiyotida mumtoz an’analardan boshlab, romantik davrda xarakterlarning chuqur va murakkab tasvirlariga o‘tish, roman janrining rivojlanishining muhim bosqichlarini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Henderson A. The International Fame of Mark Twain. North American Review, 192 (Dec. 1910) Critical Essays on Mark Twain: 1910-1980. - Boston: G.K.Hall & Co., 1983. P. 17.
2. Howells W. D. Criticism and Fiction and Other Essays. N. Y.: New York University Press, 1959 (1st ed. - 1892).
3. Doniyarova Sh.X. Istiqlol davri o‘zbek romanlarida milliy ruh va qahramon muammosi. Filol. fanlari doktori … diss. – T., 2012. – S.
4. Grenby M.O. The origins of childrens literature // The Cambridge companion to children;s literature. —2020.
5. Muxtor O. To‘rt tomon qibla: Uch romandan iborat Sharq daftari: (Trilogiya). – T.: Sharq NMAK, 2000. – 432 b. (Mukhtar O. Qibla to four sides: Eastern Notebook consisting of three novels: (Trilogy). – T.: Sharq NMAK, 2000. – 432 p.)

BARQAROR TIL BIRLIKLARINING LINGIVISTIK MOHIYATI VA ULARNING TASNIFI

Raximova Sulurxon Jumaniyozovna
Urganch davlat pedagogika instituti dotsent. v/b (PhD), sulurrahimova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada barqaror til birliklarining lingvistik mohiyati va ularning tasnifi o‘rganiladi. Frazeologik birliklarning tuzilishi, semantik xususiyatlari va qo‘llanilish doirasi yoritiladi. Shuningdek, turli tillarda barqaror birliklarning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar va ularning qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Maqolada ilmiy nazariy manbalar asosida barqaror til birliklarining turlariga doir ikki xil tasnif taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: barqaror til birliklari, frazeologik birliklar, semantika, lingvistika, tasnif, qiyosiy tahlil.

Аннотация. В статье рассматривается лингвистическая природа устойчивых языковых единиц и их классификация. Рассматриваются структура, семантические свойства и сфера применения фразеологизмов. Также рассматриваются факторы, влияющие на формирование устойчивых единиц в разных языках, и проводится их сравнительный анализ. В статье представлены две классификации типов устойчивых языковых единиц, основанные на научно-теоретических источниках.

Ключевые слова: устойчивые языковые единицы, фразеологические единицы, семантика, языкознание, классификация, сопоставительный анализ.

Abstract. This article studies the linguistic essence of stable language units and their classification. The structure, semantic features and scope of phraseological units are covered. Also, the factors influencing the formation of stable units in different languages and their comparative analysis are carried out. The article presents two classifications of types of stable language units based on scientific theoretical sources.

Keywords: stable language units, phraseological units, semantics, linguistics, classification, comparative analysis.

Kirish. Til - jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, u inson tafakkuri va madaniyatining asosiy ifodasi hisoblanadi. Har bir til o‘ziga xos tuzilishga, grammatik qonuniyatlarga va boy lug‘at tarkibiga ega. Til birliklari esa ushbu tizimning ajralmas qismi bo‘lib, ular muayyan kontekstda aniq ma’no ifodalash xususiyatiga ega. Lingvistika fanida barqaror til birliklari muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular frazeologik boylikning asosini tashkil etib, nutqning ifodaviyligini oshirishga xizmat qiladi.

Barqaror til birliklari, odatda, tarkibiy qismlarining o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymaydigan va ma’lum bir semantik yaxlitlikka ega bo‘lgan til birliklari sifatida izohlanadi. Ular xalqning madaniyati, urf-odatlari va tarixiy tajribalarining aks etgan shakli bo‘lib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan nutqiy qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi. Bunday birliklar muloqot jarayonida qo‘llanilganda, nutqning mazmunan boy va ifodali bo‘lishini ta’minlaydi[1].

[1] Bo‘riyev Sh. Semantik lingvistika asoslari. – Samarqand: SamDU, 2015.

Frazeologik birliklar va barqaror iboralar tilshunoslikda keng o‘rganilib kelinmoqda. Ularning lingvistik mohiyatini anglash uchun semantik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini o‘rganish zarur. Shuningdek, barqaror til birliklarining turli tillardagi o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash, ularning tildagi o‘rni va ahamiyatini yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Ushbu maqolada barqaror til birliklarining lingvistik mohiyati va ularning tasnifi haqida batafsil ma’lumot beriladi. Shuningdek, turli tadqiqotlar va ilmiy manbalar asosida ularning tarkibiy tuzilishi va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi barqaror til birliklarining semantik va sintaktik jihatdan tasnifini berish hamda ularning kommunikativ ahamiyatini yoritishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Barqaror til birliklari haqidagi tadqiqotlar frazeologiya, semantika va sintaksis nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Ushbu maqolada O‘zbek va jahon tilshunosligidagi frazeologik birliklar haqidagi ilmiy asarlardan foydalanildi. Metodologik jihatdan maqolada qiyosiy-tarixiy va statistik tahlil metodlari qo‘llanildi. Frazeologik birliklarning turli tillarda qo‘llanilishi va ularning lug‘aviy tarkibi tahlil qilindi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maqolada barqaror til birliklarining quyidagi tasniflari keltirilgan:

1-jadval. Barqaror til birliklarining semantik tasnifi[1]

№	Tasnif turi	Tavsifi
1	Frazeologik birikmalar	Erkin birikmalarga yaqin, lekin o‘zgarmas tarkibga ega
	Ko‘ksini yuz pora qilmoq	Kishi gar ko‘ksini yuz pora qilsin Falak zulm etsa gar, ne chora qilsin.(291-b), Farhod ko‘ksin ajal qilar yuz pora, Jonin olish uchun axtarar chora(303-b) F va Sh
2	Frazeologik butunliklar	Ma’nosi tarkibiy qismlarining yig‘indisidan farqli bo‘lgan birliklar
	Ko‘zi to‘rt bo‘lmoq	Ko‘zida suv lekin joni ichra o‘t,Har tomonga boqar ko‘zi bolib to‘rt.(247-b), Zaiflik bobidan joni ichra ot,Yuzingni bir ko‘ray deya ko‘zi to‘rt.(295-b) Fva Sh
3	Frazeologik iboralar	Turg‘un holatda qo‘llaniladigan va obrazli ifodalar
	Ko‘zini uzmaslik	Rom qilar Farhodni ham ishbilarmon, Undan sira ko‘zin uzmagay hamon.(179-b),Ish boshlar pinagin sira buzmasdan,Farhod unga boqar ko‘zin uzmasdan.(179-b

Ko‘kragini kermoq Mulkoroga xoqon topshiriq berar, Yaxshi niyat bilan ko‘kragin kerar.(176-b)Fva Sh**,** Bog‘ ichra mardona kim ko‘krak kerar,Ochilgan gullarni birma-bir terar.(162-b)Fva Sh iboralar bir-biridan ma’no jixatdan farqlanyapti. **Ko‘nglini shod qilmoq** Ko‘ngli faqat yodi bilan shod bo‘lar, Firoqimda umri ham barbod bo‘lar.(260-b)FSH Ko‘nglini pora qilmoq Sh**, Ko‘nglini pora qilmoq** Zaminni ham qilar ko‘nglini pora, Barcha oshiq ahlin manglayin qora.(218-b)Fva Sh, Ishq dardi qilsa gar **ko‘nglini pora**,Oshiq dardiga may yagona chora.(187-b)Fva Sh**,** Bu g‘ussa ko‘ngling qora qilganday, Hatto **ko‘nglini** ham **pora qilganday**.(301-b)Fva Sh, Xazin **ko‘nglim** mening **ming pora** bo‘lmish, Shirin orzusida ovvora bo‘lmish(284-b), Tosh otib sen tomon u ikki bora, Barchaning **ko‘nglini qilgandi pora**.(298-b)Fva Sh. Navoiy asarlarida barqaror til

[1] Abduazizov A. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2020.

birliklarining juda ko‘p semantik tarkibi aniqlandi. Asar mazmunini boyitishda turg‘un birikmalar o‘rni alohida tasniflarni talab qiladi.

Barqaror til birliklari sintaktik jihatdan quyidagicha tasniflanadi:

2-jadval. Barqaror til birliklarining sintaktik tasnifi[1]

№	Tasnif turi	Tavsifi
1	So‘z birikmalari	Ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan birliklar
2	Gaplar	Mustaqil mazmun ifodalovchi butun gap shaklidagi birliklar
3	Matn birliklari	Matn ichida qo‘llaniladigan va kontekstga bog‘liq turg‘un birliklar

Ushbu tasniflar orqali barqaror til birliklarining turli lingvistik jihatlari yoritildi.

XULOSA

Barqaror til birliklari til tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ularning semantik va sintaktik xususiyatlari ilmiy tahlil qilishni talab etadi. Ushbu tadqiqot davomida barqaror til birliklarining o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, ularning strukturaviy va funksional jihatlari o‘rganildi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, barqaror til birliklari o‘z tarkibiy qismlarining semantik mustahkamligi va o‘zgarmasligi bilan ajralib turadi. Frazeologik birliklar erkin so‘z birikmalaridan farqli ravishda o‘zining ma’no yaxlitligini saqlaydi hamda nutq jarayonida tayyor holatda qo‘llanadi. Semantik jihatdan frazeologik birliklar bir necha guruhlarga bo‘linib, ularning tarkibiy va ma’noviy tuzilishi aniqlab berildi. Shuningdek, sintaktik nuqtayi nazardan ushbu birliklarning so‘z birikmalari, gap va matn tarkibida qanday ishlatilishi ham tadqiq qilindi.

O‘zbek tilida barqaror birliklarning shakllanishi va rivojlanishiga milliy madaniyat hamda tarixiy omillar muhim ta’sir ko‘rsatganligi aniqlandi. Frazeologik birliklarning kelib chiqish manbalari, ularning tarixiy qatlamlari va milliy o‘ziga xosligi o‘rganilib, ularning funksional va lingvokulturologik ahamiyati tahlil qilindi.

Kelgusida frazeologik birliklarning boshqa tillar bilan qiyosiy tahlilini kengaytirish hamda ularning lingvokulturologik va psixolingvistik jihatlarini chuqur o‘rganish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqot natijalari tilshunoslikning turli sohalarida, xususan, frazeologiyaning nazariy va amaliy jihatlarini chuqurlashtirishga hamda tarjima jarayonida samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduazizov A. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Kunjayev M. Frazeologiyaning asosiy tushunchalari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2022.
3. Vinogradov V.V. O lingvisticheskoy prirode frazeologicheskix edinits. – Moskva: Nauka, 2022.
4. Kunin A.V. Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar. – Moskva: Progress, 2017.
5. Bo‘riyev Sh. Semantik lingvistika asoslari. – Samarqand: SamDU, 2015.
6. Palmer F.R. Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.

[1] Kunjayev M. Frazeologiyaning asosiy tushunchalari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2022.

O‘ZBEKCHA-RUSCHA TARJIMA LUG‘ATIDA ETNOLINGVISTIK BIRLIKLARNING BERILISHI

Yuldasheva Orasta
kichik ilmiy xodim, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
yuldasheva_orasta@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek lug‘atshunosligi va uning taraqqiyoti hamda bugungi kundagi o‘zbek lug‘atshunosligining erishgan yutuqlari haqida so‘z boradi. Bundan tashqari, leksikografiya doirasida olib borilgan ishlar ham ushbu maqoladan joy olgan bo‘lib, muallif tomonidan amalga oshirilgan amaliy ishlar izohlanadi. Mustaqillik davri o‘zbek lug‘atshunosligi lug‘at taraqqiyotining barcha davrlarini mujassamlashtirganligi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: lug‘at, lug‘atshunoslik, o‘zbek lug‘atshunosligi, ikki tilli lug‘atlar, etnolingvistika, etnolingvistik birlikar.

Аннотация. В статье говорится об узбекской лексикологии и ее развитии, а также о достижениях узбекской лексикологии сегодня. Кроме того, в данную статью также включена работа, проведенная в рамках лексикографии, и объяснена практическая работа, проводимая автором. Отмечается, что узбекская лексикология периода независимости воплотила в себе все периоды развития лексики.

Ключевые слова: словарь, лексикография, узбекская лексикология, двуязычные словари, этнолингвистика, этнолингвистические единицы.

Abstract. The article discusses Uzbek lexicography and its development, as well as the achievements of Uzbek lexicography today. In addition, the work carried out within the framework of lexicography is also included in this article, and the practical work carried out by the author is explained. It is noted that Uzbek lexicography of the period of independence embodied all periods of lexical development.

Keywords: dictionary, lexicography, Uzbek lexicography, bilingual dictionaries, ethnolinguistics, ethnolinguistic units.

Tilshunoslikning leksikografiya bo‘limi har doim yangilanib turuvchi hamda har bir sohada o‘zining muqim o‘rniga ega bo‘lgan bo‘lim hisoblanadi. Qay sohaga nazar tashlamaylik, unga oid har bir so‘z, albatta, tarjima va o‘quv lug‘atlarida o‘z izohiga ega. Muayyan adabiy tilning deyarli barcha so‘zlarini qamrab olgan leksik yig‘indiga nisbatan “lug‘at” atamasi ishlatiladi hamda ushbu atama ostida turli fan sohalariga oid turfa lug‘atlar jamlanmasi o‘z aksini topadi. Aytish joizki, har bir xalqning o‘z lug‘at tizimi mavjud bo‘lgani kabi, o‘zbek tilining ham lug‘atchilik tizimi mavjud.

Bir qancha davrlarni, bosqichlarni bosib o‘tgan o‘zbek lug‘atchiligi mustaqillik davriga kelib, o‘zining yuksak cho‘qqisiga erishdi, desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Lug‘at tuzuvchi mutaxassislar – leksikograflar tomonidan qator lug‘atlar ishlab chiqildi, bundan tashqari, lug‘at tuzish tamoyillari, lug‘at tuzish metodikasi, leksikografik ishlarning ma’lum tartibga solinishi ham lug‘atshunosligimizning ulkan yutuqlaridan hisoblanadi. Lug‘atshunoslik ikki asosiy yo‘nalishga bo‘linadi:

1. Nazariy lug‘atshunoslik: lug‘atlarning turlari, tuzilishi, tamoyillari va metodologiyasini o‘rganadi. Bu yo‘nalish so‘zlarning ma’no qatlamlarini, lug‘at birikmalari tuzilishini va ularning til tizimidagi o‘rnini tadqiq qiladi.

2. Amaliy lug‘atshunoslik: lug‘atlarning yaratilishi va nashr etilishi bilan shug‘ullanadi. Masalan, ikki tilli lug‘atlar, maxsus soha lug‘atlari (texnika, tibbiyot va boshqalar) yoki umumiy til lug‘atlari.

Lug‘atshunoslik so‘zlarni tanlash, ularni tasniflash, ma’nolarini aniqlash va so‘z birikmalarini izohlash jarayonlarida muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, u lingvistik madaniyat, tarix va jamiyatning rivojlanish bosqichlarini aks ettiruvchi ilmiy soha sifatida ham tan olingan. O‘zbek-rus tili tarjima lug‘ati – o‘zbek tilidagi so‘zlarning rus tiliga tarjimasini taqdim etadigan ikki tilli lug‘atdir. Bu lug‘at o‘zbek va rus tillarida so‘zlashuvchilar uchun qulay vosita bo‘lib, tarjima, ta’lim va o‘zaro muloqotda yordam beradi.

Har bir millatning o‘ziga xosligi, milliyligi tilida namoyon bo‘ladi. “Tilning tafakkurga, tafakkurning esa tilga faol ta’sir qilishi ochiq haqiqatdir. Zotan, “milliy ong”, “milliy tafakkur”, “milliy madaniyat”, “milliy ma’naviyat”, “milliy mentalitet”, “milliy xarakter” kabi bugun keng iste’molda bo‘lgan juda ko‘plab istilohlarda mazkur bog‘liqlik e’tirof etilgan”[1].

Tarjima lug‘atlarida etnografizmlarni berish juda muhim. Ular boshqa tillarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega bo‘lmasligi mumkin, shuning uchun ularni tarjimada to‘g‘ri izohlash yoki o‘xshash ma’noli so‘z bilan berish alohida e’tibor talab etadi.

Tarjima lug‘atlarida etnografizmlar turlicha berilishi mumkin. Agar rus tilida etnolingvistik birliklarga mos keluvchi hamda uning mazmun-mohiyatini ochib beruvchi so‘z bo‘lsa, to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilinadi. Masalan, “sumalak” rus va o‘zbek tilida ham bir xil nomlanadi. Asosan, lug‘atda so‘z tarjima qilinib, izoh keltirilgan.

Olamning lisoniy manzarasi tavsirida har bir xalqning dunyoni qay tarzda idrok etishi, uni til orqali qanday ifoda etishi, boshqalardan farqlovchi milliy-madaniy qarashlari, o‘zigagina xos tafakkur tarzi kabilarning o‘rni, shuningdek, tilda namoyon bo‘lgan olam manzarasining umumiy va xususiy jihatlarini tadqiq etish dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Tarjima lug‘atlarida har bir xalqning milliy o‘ziga xosligi aks etishi kerak.

Tarjima lug‘atlarida etnografizmlarni to‘g‘ri berish faqat lingvistik masala emas, balki madaniyatlararo muloqotni chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi muhim vositadir.

OTIN *уст. этн*. **1** учи́тельница (*в дореволюционной старометодной женской школе*); **2** же́нщина, чита́вшая моли́твы, тра́урные стихи́ *и т. п.* по слу́чаю чье́й-либо сме́рти; **3** *употреблялось вместе с именем собственным при почтительном обращении к женщине, напр*. **Hafiza, Zaynab ~** *и т. п.*; **4** *употреблялось вместе со словами* **oyi, buvi** (*см.*) *и т. д. при почтительном обращении к женщинам, пользовавшимся авторитетом вследствие своей религиозности, грамотности, происхождения и т. п., напр*. **~ oyi, ~ buvi, ~ bibi[2].**

[1] Маҳмудов.Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти, 2012, 5-сон, 8-бет.
[2] Ўзбекча-русча луғат. 1988, 317-бет.

“Otin” 1 *tar*. Eski maktablarda qizlar o‘qituvchisi; din va shariat bilimdoni. Har kun qo‘shnimiz otin bibida qiyomgacha o‘qib, keyin to kechgacha, ko‘pincha kechalari ham, ayamning yoniga kirib, tikish tikdim (Oybek, Tanlangan asarlar).

2 *etn*. Ayollar o‘rtasida diniy marosimlar (mas., mavlud)ga boshchilik qiladigan ayol.

3 *s.t.* Har qanday o‘qimishli yoki o‘qituvchi ayol.

4 O‘qimishli, obro‘li ayollarga murojaatda yoki ular to‘g‘risida gap borganda, ismiga qo‘shib aytiladigan so‘z[1].

“Otin” so‘zi, asosan, Markaziy Osiyo xalqlari, jumladan, o‘zbek tilida diniy mavqega ega bo‘lgan ayollarni anglatadi. U arabcha “otin” yoki “otinoy” (ayollar orasida diniy ilmlarni targ‘ib qiluvchi ayol) so‘zidan kelib chiqqan.

“Otin” odatda Qur’on va diniy ilmlarni o‘rgangan, ayollar orasida islomiy ta’lim beruvchi yoki marosimlarni o‘tkazuvchi ayolni anglatadi. Ko‘pincha otinlar ayollar to‘plangan yig‘inlarda diniy ma’ruzalar qilgan, marosimlarda (masalan, duoxonlik) faol ishtirok etgan. Hozirgi kunda ham bu ma’no saqlangan.

Otinlar o‘z davrida savodli va diniy bilimga ega bo‘lgan kam sonli ayollardan hisoblangan. Ular jamiyatda hurmatga sazovor bo‘lgan va axloqiy-tarbiyaviy yo‘nalishda faoliyat yuritgan.

Hozir dunyoviy bilimga ega bo‘lgan ayollarga nisbatan bu so‘z ishlatilmaydi, faqat diniy bilimga ega, diniy bilim bera oladigan ayollarga nisbatan qo‘llaniladi. O‘zbek va boshqa turkiy tillarga arabcha-islomiy ta’sir bilan kirgan. U o‘zbek madaniyatida saqlanib qolgan va hanuzgacha ishlatiladi.

Shunday qilib, “otin” so‘zi diniy-madaniy va ijtimoiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, asosan islom ta’limoti doirasida faoliyat yuritgan ayollar mavqeini ifodalaydi. Bu so‘zning rus tilida ekvavalienti yo‘q, shu sababli, lug‘atda tarjima bilan birgalikda izohi ham keltirilgan. Ya’ni “учи́тельница (*в дореволюционной старометодной женской школе*)” deb izoh berilgan. Eski usul maktabining o‘qituvchisi deb izoh berilgan bo‘lsa-da, izoh bu so‘zni ochib bera olmagan.

Lug‘at yozilgan davrda kitoblarda diniy tushunchalar, iboralarni yozish yoki qo‘llashga senzura qo‘llangan. Davr talabidan kelib chiqqan holatda izohda “eski maktab o‘qituvchisi” deb berilgan. Bunday maktablarida, asosan, diniy ta’lim berilgan. Shu sababdan bo‘lsa kerak, diniy bilimga ega, diniy bilim bera oladigan ayollarga hozirgi kunda ham shu so‘z bilan murojaat qilinadi. Yangi tahrirdagi “o‘zbekcha-ruscha” lug‘at qayta to‘ldirilib, tahrir qilinib nashr qilinadi hamda etnografizmlar qayta izohlanadi.

Shuni ta’kidlash mumkinki, mustaqillik davri o‘zbek lug‘atshunosligi bugungi kundagi sayqaliga yetgunga qadar birmuncha taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan bo‘lib, bunda ilm-fan jonkuyarlari bo‘lmish – leksikograflarimizning xizmatlari kattadir.

Aytish joizki, mazkur lug‘atlar kelgusida yanada yangi so‘zlar bilan boyitilib, yurtimiz taraqqiyotiga bevosita o‘zining munosib hissasini qo‘shadi.

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. 2020, 155-бет.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбеуча-русча луғат / С.Ф.Акобирова ва Г.Н.Михайлов таҳрири остида. – Тошкент: УзСЭ Бош редаксияси, 1988. – 727 б.
2. Маҳмудов.Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. -№ 5.
3. Мадвалиев А. Ўзбек лексикографиясининг мустақиллик даври тараққиёти тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2018. -№ 5.
4. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T., 2020. – 124 b.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / Э.Бегматов, А.Мадвалиев... таҳрири остида. Учинчи жилд. – Тошкент, 2020, 687 б.

ABDULLA ORIPOV SHE’RIYATIDA ONA VA VATAN TUSHUNCHASI

Xajiyeva Dilfuza Adambayevna
UrDPI “O‘zbek va rus tili adabiyoti” kafedrasi mudiri, Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent. adambayevna81@gmail.com
Kamolova Marvarid Xakimjon Qizi
UrDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq shoiri, O‘zbekiston Qahramoni hisoblangan Abdulla Oripov she'riyatida ona siymosi, uning betakror jihatlari adabiyotshunoslik nuqtai nazardan tahlil qilinib, muhokama qilingan. Adibning “Ona”' she’ri va boshqa asarlaridagi ona madhi, uning badiiy vositalar yordamida ifodalanishi, shoirning milliy va insoniy qadriyatlarni ulug'lashdagi roli ko‘rib chiqilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются и обсуждаются с точки зрения литературоведения фигура матери в поэзии Абдуллы Орипова, считающегося народным поэтом и Героем Узбекистана, ее уникальные аспекты. Рассмотрен гимн матери в стихотворении «Мать» и других произведениях писателя, его выражение художественными средствами, роль поэта в прославлении национальных и общечеловеческих ценностей.

Abstract. This article analyzes and discusses the image of the mother in the poetry of the people's poet, Hero of Uzbekistan Abdulla Oripov, her unique aspects from the point of view of literary criticism. The praise of the mother in the poem "Mother" and other works of the writer, its expression through artistic means, the role of the poet in glorifying national and human values are considered.

Kalit so‘zlar: Abdulla Oripov, poetik uslub, o‘zbek adabiyoti, she'riyat, milliy qadriyatlar, badiiy uslub, ona siymosi.

Ключевые слова: Абдулла Орипов, поэтический стиль, узбекская литература, поэзия, национальные ценности, художественный стиль, образ матери.

Key words: Abdulla Oripov, poetic style, Uzbek literature, poetry, national values, artistic style, the image of the mother.

Mavzuning dolzarbligi: Badiiy adabiyotda ona obrazi yorqin, chuqur va samimiy timsollardan biri hisoblanadi. U ko‘pincha, fidoyilik, sabr-toqat, hayotiy va insoniy fazilatlarning mujassamlashishi sifatida tasvirlanadi. Ona siymosida hayotning turli-tuman ohanglari, tovushlari, ranglari uyg‘unlashib ketgan. Ranglar va ohanglarning o‘zaro birlashishidan ona va hayot falsafasi yuzaga kelganligini ko‘rishimiz mumkin. [1.] Ona obrazi turli adabiy janrlarda turlicha namoyon bo‘ladi, biroq u har doim insoniyatning eng yuksak qadriyatlarlari bilan bog‘liq holda tasvirlanadi. Har qanday badiiy asarda ona obrazi bilan tanishish kitobxon qalbini larzaga keltiradi. Aziz yurtboshimiz o‘zining nutqida aytib o‘tganidek, yer yuzida so‘z va soz san‘ ati, shoir-u hofiz, rassom va haykaltarosh paydo bo‘libdiki, ona va ayol zoti yuksak pardalarda tarannum etib kelinadi.[2] Abdulla Oripov ham mana shunday tabarruk siymoni o‘z asarlarida tariflashga uringan ijodkorlardan biri hisoblanadi. Ijodkor o‘z asarlarida onaning oila va farzand hayotidagi o‘rnini tasvirlabgina qolmay, butun jamiyatdagi muqaddas mavqeini yoritib beradi. Shoirning “Onajon”, “Ona” “Sen

bahorda tugilgansan” kabi sherlarida ona siymosi mehribon, samimiy, va beqiyos fidoyi inson sifatida tasvirlanadi. Uning sherlari ona nafaqat bir oilaning farishtasi, balki Vatanni, xalqni, ona zaminni anglatadigan yuksak timsol hamdir. “Onajon” she‘rida ona obrazi cheksiz muhabbat bilan bitilgan. Shoir onasini eslab, unga bolgan mehr-muhabbatini quyidagicha izhor etadi;

Tunlari bedor uxlamay
Mehring quyoshdan -da baland.

Adabiyotlar tahlili: Bu misralar orqali adib ona mehrining cheksiz ekanligini isbotlash maqsadida uni “Quyoshdan-da baland” jumlasi orqali mubolag‘a sanati orqali tasvirlaydi. Ijodkorning “Ona” she‘ri ham alohida ahamiyatga ega. Bu she‘rda ona muqaddas timsol sifatida tilga olinadi. Abdulla Oripov ushbu she‘rida o‘zbek folklorizmiga murojaat qilgan holda mifologiyadan mohirona foydalangan. Shuningdek, osmonda yulduz uchishining bir insonni bu dunyodan koz yumishi bilan boglab, onalar bu yorug olamni tark qilganida nafaqat yulduz, balki osmon qulasa arziydi deya keltiradi.

Ona ketsa, yulduz-ku yulduz
Qulab tushsa arziydi osmon. [3]

Abdulla Oripov ijodida ona, Vatan hamda milliy til tushunchalari bir-biriga chambarchas bog‘langan. U onani xalqning hayot manbai, Vatan timsoli sifatida gavdalantiradi. Masalan, uning sherlarda Vatan ham xuddi onadek mehribon va aziz deb korsatiladi. Vatan tushunchasi insonga ona vujudidayoq singib boshlaydi. Inson o‘z onasini qanday sevsa, Vataniga ham shunday ko‘ngil qo‘yadi. Ona kalomi yana bir muqaddas kalom bo‘lmish- Vatan kalomi bilan hamisha yonma-yon yashaydi.

O, sen vatan, kindik qoni tomgan joy,
Seni sormay, kormay bolurmi
Ko‘z ko‘rgani yosh-u qarining
Ona bag‘rin sevmay bo‘lurmi [4]

Shoir ushbu sherida ona vatan tushunchasi orqali ifodalanib turgan, kindik qonimiz tokilgan muqaddas zaminga sadoqatli, fidoyi farzand bolishga chorlaydi. Ona va Vatan tushunchasini bevosita et bilan suyak tushunchasiga qiyos etsak boladi. Shoir ijodida ushbu xalqonq jumla badiiy mukammallikka erishgan. Xalqimiz kop yillar fasrzand kora olmayotgan ayollar nisbatan “Tirnoqqa zor” iborasini qollaydi. Shuningdek, Abdulla Oripov Vatanni onaga mengzar ekan, shu tuproqdac tugilgan har bir insonni farzand deya tasvirlaydi va Vatandan ko‘p yillardan buyin yiroq, ozga yurtlarni makon tutgan kimsalarni tarqab ketgan el va tirnoqqa qiyoslaydi.

Sendan yiroq bolsa, Vatanning kozi,
Ajrab ketgan bolsa el bilan tirnoq.

Adib ijodida xalqona ibora va miflarning mazmuni yuksak darajada aks ettirilgan. Ushbu uslub aytilayotgan sozning isboti uchun qollaniladi. Qalam tebratayotgan har qanday ijodkor bevosita xalq ogzaki ijodi- folklorizmga murajaat etadi, ota-bobolarimiz aytib otgan qimmatli fikrlarni o‘z asarlarida keltirish orqali kitobga eslatishga urinadi. Xususan, Abdulla Oripov ham ozining sherlari mazmuniga singdirganini korishimiz mumkin.

Xulosa: Shoir sheriyatida ona va vatan tushunchalari teng qiymatli deb qaralgan. Shoir nazdida Vatan bu — bagri dunyolardan-da keng, tafti qaynoq, quvonch va qaygular makonidir. Uning ijodida falsafiy-lirik yonalish ustunlik qilgan. U sheriyatida bosh obraz sifatida ozini- “men”ni qoyib tasvirlagan. Ona mehri, uning sabr toqati va fidoyiligini tasvirlashda mushfiq farzandning oz onasiga aytgan sozlari sifatida aks ettirgan. Uning ijodida ilohiy mavzular va inson hayotining manaviy Manosi haqidagi falsafiy mushohodalar ham mavzud. Shoir ilohiy tuygular va ezgulikni yuksak darajada tasvirlagani bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik Ozbekiston davlatini birgalikda quramiz. -Toshkent; Ozbekiston.2017, -488.b.

2. Oripov A. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va sanat nashriyoti. Toshkent, 1980.

3. Oripov A. Adolat Ko‘zgusi. Beshinchi jild.-T.;Adolat, 2005. – B.42.

4. ziyo.uz Internet tarmog‘i.

“TILSHUNOSLIK ASOSLARI” FANINI FANLARARO INTEGRATSIYALASH ASOSIDA TASHKIL QILISH METODIKASI

Yakubova Nilufar Egamberganovna
UrDPI O‘zbek va rus tili adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
niilufar.yakubova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim tizimidagi integratsiyalashish jarayoni, fanlarni integratsiya qilib dars o‘tilganda e’tibor berish lozim bo‘lgan jihatlar, shuningdek, “Tilshunoslik asoslari” fanini o‘qitishda integratsiya qilish usullari xususida so‘z yuritilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается процесс интеграции в системе образования, аспекты, на которые следует обратить внимание при преподавании предметов с интеграцией, а также методы интеграции в преподавании предмета «Основы языкознания».

Abstract. This article examines the integration process in the education system, the aspects that should be considered when teaching subjects with integration, and the methods of integration in teaching the subject “Fundamentals of Linguistics”.

Kalit so‘zlar: Tilshunoslik asoslari, integratsiya, integratsiyalash, fanlararo aloqa, turdosh fanlar, tilshunoslik va ijtimoiy faanlar, tilshunoslik va tabiiy fanlar, tishunoslik va aniq fanlar.

Ключевые слова: Основы лингвистики, интеграция, интегративная связь, междисциплинарные связи, смежные науки, лингвистика и социальные науки, лингвистика и естественные науки, лингвистика и точные науки.

Keywords: Fundamentals of linguistics, integration, integrative connection, interdisciplinary connections, related sciences, linguistics and social sciences, linguistics and natural sciences, linguistics and exact sciences.

Bugungi kunda bizning ta’lim tizimimizga ham integratsiyalashish jarayoni kirib keldi. Integratsiya – “butun” degan ma’noni bildiradi, demak, bu tafakkur o‘sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirishdir. Bu esa, ta’limda fanlararo aloqadorlikni, fanlarni bir-biri bilan chambarchas bog‘liq holda o‘qitishni ko‘rsatadi.

Fanlarni integratsiya qilib dars o‘tilganda quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- har bir dars muayyan maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak;
- fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo‘shimcha material o‘tiladigan mavzu bilan bog‘lanishi shart;
- talabalarning faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo‘llarini aniqlash mumkin.

O‘quvchilarda milliy tafakkurni shakllantirishda va rivojlantirishda fanlararo integratsiyani amalga oshirishda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- o‘qituvchi sinfda (qaysi sinfda dars berishiga qarab) o‘qitiladigan barcha fanlar darsliklaridagi materiallarni atroflicha o‘rganib chiqishi, ulardagi bog‘lanish obyektlarini aniqlab olishi;
- fan darsliklaridagi mazkur materiallarni o‘zaro bog‘lanish nuqtalarini aniqlab olishi;

- dars jarayonida fanlararo bog‘lanish nuqtalarining yechimiga olib keluvchi shart-sharoitlar yaratishga e’tibor qaratish:

- fanlararo integrasiyani amalga oshirishning faol yo‘l va usullarini va vositalarini oldindan tanlash, ishlab chiqish va dars jarayonida mohirona foydalanish;

- fanlararo integrasiyani amalga oshirishda yetarlicha adabiyotlarni to‘plash va ulardan ko‘rgazmali vosita sifatida dars jarayonida foydalanish;

- turli fanlarni bir xil obyektlarni o‘rganishga qaratilgan turdosh mavzularini aniqlab olish;

- bir fan usullaridan boshqa bir fan obyektlarini o‘rganishda qo‘llay olish;

- turli fanlarda ba’zi obyektlarni o‘rganishda bir xil nazariyadan foydalanish nuqtalarini belgilash va uni amalga oshirish.

Dars faqat ta’limiy bo‘lib qolmasdan, talabalarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lishi zarur. Mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, tabiat, jamiyat, inson tafakkuri, taraqiyoti haqidagi bilimlar respublikamiz kelajagiga ishonch va e’tiqodni shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bu esa talaba dunyoqarashini kengaytiradi. Umuman olganda integratsiya darsi bir-biriga mos kelishi (mavzu jihatdan) va puxta reja asosida tuzilgan bo‘lishi kerak.

Ona tili darslari boshqa o‘quv predmetlaridan alohida, mustaqil yashay olmaydi. Aksincha u ta’lim bosqichlarida o‘rganiladigan xilma-xil o‘quv predmetlari, xususan, adabiyot, matematika, fizika, informatika, xorijiy tillar bilan o‘zaro aloqadorlikda o‘rganilsa, o‘z samarasini beradi. Chunki ta’lim tizimida fanlararo aloqadorlik – integratsiya darslarini tashkil etish o‘quvchilarning mavzuni tez va oson anglashiga olib keladi. Ona tili darslari asosida so‘z va matn turgani uchun ham bu imkoniyat yanada kengayadi. Chunki matn vazifasini istagan o‘quv fani materiali bajara oladi. Umuman olganda, fanlararo aloqalarni amalga oshirishning turli xil usullari mavjud. Ona tili darslarida badiiy matnning til xususiyatlarini, uslublarini o‘rganish, shu orqali o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirishda bajariladigan ish turlaridan biri undan biror til hodisasi yoki uslubini aniqlash va izohlash, bunda o‘quv fanlararo integratsiyalashdan foydalanishdir. Mazkur ish usuli mohiyatan hosil qilinayotgan bilimlarni mustahkamlash jarayonini ifoda etadi. Dastlab o‘qituvchi uslublar haqida umumiy ma’lumot beradi va o‘quvchilarga kerakli manbalarni yozdirib o‘tadi. Mavzu tushuntirib berilgandan keyin bevosita boshqa fanlar bilan bog‘laydi. Ta’lim bosqichlarida, xususan, dars jarayonida “Uslubiyat” mavzusini o‘tishda qo‘shimcha manbalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Buning uchun o‘qituvchi talabalar qo‘liga har xil turdagi matnlar aks etgan tarqatma materiladan foydalanashi mumkin. Bu bilan o‘qituvchi darsning qiziqarli o‘tishi va shu bilan bir qatorda o‘quvchining faol bo‘lishiga imkon yaratadi.

1.Yaxshi ham boshqa bolalar bilishmadi, dedi Gulchehra xo‘rsinib. –bilishganda, bittasi emas, bittasi aytib qo‘yardi. -Ha, rozi bo‘ldi Abdulla, rosa to‘polon bo‘lardi. - Men amakidan qo‘rqaman. Ko‘zi yomon. Gulchehra Dadavoy amakining ko‘zlarini ko‘rsatmoqchi bo‘lib olaydi, o‘xshata olmadi. Abdulla kulib yubordi. [8,27]

2. Razzoq so‘fida unday quvvat ortig‘i bilan bor. Bu odam, jadidnamo bir hamshahrining deganidek, “ko‘rgazmaga qo‘yilaturgan antiqa maxluqlardan edi”. Aytishlaricha, uni ona qornidan sihat-salomat tushirtirgan va birinchi daf'a

yo‘rgaklagan kampir hazilkashligi va sho‘xligi bilan xotin-xalaj o‘rtasida dong chiqargan Hamro enaymish. Bolani yo‘rgaklaganidan keyin hali u qadar odam kepatasiga kirmagan yuzlariga tikilgan va mana bu so‘zlar bilan erkalatganmish. [9,11]

3. Haqiqiy yozuvchining har bir asari izlanishlar samarasidir. Xudoyberdi To‘xtaboyev har bir asari bilan o‘z ijodini nimalar bilandir boyitadi, qandaydir yangiliklarga erishadi. Biroq ijodkor uchun, xususan, o‘ziga talabchan, mas‘uliyatini his qiladigan yozuvchi uchun izlanishlarning cheki yo‘q. [10,40]

4. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni *Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida.* Ushbu qonun O‘zbekiston Respublikasi Konsititutsiyasiga asoslanib va o‘zbek yozuvining lotin alifbosiga o‘tilgan 1929-1940-yillardagi ijobiy tajribasidan kelib chiqib, jamoatchilik vakillari bildirgan istak-xohishlari inobatga olingan holda respublikaning har taraflama kamol topishi va jahon kommunikatsiya tizimiga kirishni jadallashtiruvchi qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi. [13]

5. Inersiya borligi tufayli jismning tezligini to‘satdan oshirib yoki kamaytirib bo‘lmaydi. Jism holatini o‘zgartirish uchun ma’lum vaqt kerak. Ma‘lum tezlikda kelayotgan avtomobil birdaniga to‘xtay olmaydi. Shu tezlikda kelayotgan poyezd sostavining to‘xtashi uchun yana ham ko‘proq vaqt va masofa kerak bo‘ladi. Shuning uchun yurib ketayotgan transport vositasi oldini kesib o‘tish juda xavfli. Transport vositasining to‘xtashi davomida bosib o‘tgan yo‘li tormozlanish masofasi deb ataladi. [5,74]

Matnlardan ko‘rinib turibdiki, har bir uslubni o‘quvchiga tushuntirishda boshqa fanlar bilan bog‘langan. O‘quvchilar qo‘lidagi matnlar jamlanmasini o‘qituvchi bilan birgalikda kuzatib boradilar va bu uning ko‘z o‘ngida qolishiga yordam beradi. O‘qituvchi tushintishni boshlaydi: birinchi matn badiiy asardan olingan bo‘lib, so‘zlashuv uslibiga, aynan, badiiy so‘zlashuv uslubiga xosligini va so‘zlashuv uslubiga xos belgilarni ko‘rsatib o‘tadi. Ikkinchi gapda esa, badiiy uslub ishtirok etganini va bu uslubni yoritish uchun badiiy asarga yuzlanganini aytadi. Uchinchi gapda publitsistik uslubning yozma shaklini aytib, bu uslubning muhim xususiyati axborot berish va ta’sir etish bo‘lib, soddalilik, tushunarlilik, adabiy til me’yorlariga qattiy amal qilishi ekanligi eslatilib o‘tib ketiladi. To‘rtinchi matn rasmiy uslubida yozilganligini tushuntish bilan bir qatorda rasmiy uslub turlariga yana bir marotaba to‘xtab, quyida berilgan matn rasmiy uslubning sof qonunchilik uslubida yozilganligini sharhlab o‘tadi. Va nihoyat, beshinchi matnda o‘qituvchi ilmiy uslubni organish uchun fizika faniga murojaat etganligini aytib o‘tadi va ilmiy uslubni yana bir bor takrorlab o‘tadi. O‘qituvchini bu usul, yani uslubiyat mavzusini boshqa predmetlarga murojat etish yo‘li bilan o‘rganish o‘quvchi tez va oson organishini va mavzuni yana bir bor takrorlanishini ta’minlaydi.

Ona tili darslarida boshqa o‘quv fanlari bilan turli darajada integratsiya amalga oshiriladi. Birida mos keluvchi holatlardan andaza olinadi, ikkinchisida o‘zaro ta’sir orqali bir-birining ta’lim mazmunini unifikasiya qilish, boyitish ro‘yobga chiqariladi. Biriga so‘z mahoratidan foydalanish borasida tayaniladi, ikkinchisiga shu niyatda suyaniladi, uning ta’lim mazmuni bilan bir qadar hisoblashiladi hamda o‘zaro ta’sir tavsifidagi aloqaga kirishiladi. Biri bilan (masalan, rus tili, chet tillar, qisman tarix) bir tomonlama, ikkinchisi, aniqrog‘i, so‘z san’ati sanalmish adabiyot o‘quv fani bilangina

ikki tomonlama integratsiyalash sodir etiladi. Ko‘proq rus tili, kamroq chet tillar, tarix o‘quv fanlaridan ona tili ta’limi mazmuni uchun ijobiy tajribalar ibrat qilib olinadi, lekin o‘zi ushbu fanlar ta’lim mazmunini o‘zgartirishga doir jiddiy tavsiyalar bera olmaydi. Bir tomonlama integratsiya deganda ana shu holatlar nazarda tutiladi.

Ona tili darslarida o‘tiladigan leksik va grammatik vositalar bilan shu vositalarning badiiy qiymat yaratishdagi o‘rni va ahamiyati o‘quv fanidagi ichki integratsiyalash asosida o‘rganilishi mumkin.

Ona tili darslarida mashq materiali sifatida keltirilgan badiiy matnning til xususiyatlari ona tilidan o‘tiladigan mavzularda o‘rganiladigan emosional-ekspressiv leksika, morfologik shakllar, sintaktik figuralar va birliklarni aks ettiradi, badiiy qiymat shu vositalar yordamida vujudga keltirilgan holatlar adabiyot darslarida asar tili ustidagi ishlarda ham tilga olinadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ona tilidan ishlab chiqiladigan tavsiyalar adabiyot darslari uchun ham aloqador bo‘lishi tabiiy. Shunga ko‘ra ham ona tili va adabiyot darslari o‘zaro ikki tomonlama integratsiyalanadi, deyish mumkin. Ona tilini adabiyot fani bilan integratsiyalashni ikki tomonlama tashqi integratsiyalash deb yuritish xato bo‘lmaydi.

Tilshunoslikni integratsiyalash metodlari talabalarga tilning faqat lingvistik jihatlarini emas, balki uning ijtimoiy, madaniy, psixologik va tarixiy kontekstlarini ham o‘rganish imkonini beradi. Bu esa nafaqat tilni chuqurroq tushunishga, balki boshqa sohalar bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni rivojlantirishga ham yordam beradi.

Tilshunoslikda integratsiya, umuman olganda, turli fanlar o‘rtasidagi chegaralarni ko‘tarib, tilni yanada chuqurroq va kengroq tushunish imkoniyatini yaratadi. Bu esa tilshunoslarga tilning jamiyat, psixologiya, texnologiya, madaniyat kabi sohalar bilan qanday aloqada ekanligini aniqlashda yordam beradi.

Integratsiya qilishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash ham muhimdir. Masalan, interaktiv dasturlar va ilovalar yordamida talabalarga tilshunoslikni boshqa sohalar bilan integratsiyalashgan tarzda o‘rgatish mumkin. Bu, masalan, tilni o‘rgatish jarayonida boshqa fanlardan olingan misollar yoki real hayotdagi situatsiyalarni o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Tilshunoslikni ta’lim fanlari bilan integratsiya qilish, til o‘rganish jarayonlarini yanada samarali qilish imkonini beradi. Bunda ona tili o‘qitish metodikasi, lingvistik taraqqiyot nazariyalari va didaktika metodlari birlashtiriladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ona tili darslarini boshqa fanlar uyg‘unlikda olib borish, o‘quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashlarini yanada boyishiga olib keladi.

Aynan ona tilida biron bir nazariy ma’lumot o‘rganilayotgan bir paytda o‘quvchilarga aynan shu damda adabiyotdan o‘tilayotgan hikoya, asardan parchalardan misollar topib kelish, til tarixiga yuzlangan paytda tarixga oid ma’lumotlarni qayta xotirlash, nutq organlari haqidagi nazariy asoslar munozara qilinganda esa anatomiya va fiziologiya, shuningdek, bu fanlardan o‘sib chiqqan neyrolingvistika sohasiga oid dastlabki nazariyalarni egallashi nuqtayi nazaridan tahlil qilishga o‘rgatib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. –Toshkent, 2010. 213b.
2. Ashurbayeva R.K. Ona tili darslarida o‘quvchilarning innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalshgan ta’lim berish usullari. Filol.fan.nomz…diss. Avtoreferat. – Buxoro, 2023. – 49 b.
3. Fizika. 7-sinf uchun darslik. Toshkent, 2017-yil, 179 b.
4. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent, 2009. – 256 b.
5. Nurmonov A. O‘zbek tilshunosligi tarixi. –Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – 232
6. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001. – 160 b.
7. Umarbekov O‘. Odam bo‘lish qiyin. Roman. – Toshkent, 2019. 270 b.
8. Cho‘lpon. Kecha va Kunduz. Roman. - Toshkent: Ilm-ziyo-zakovat, 2007. –
9. Yoshlik jurnali. 2023-yil, avgust, 8-son. 64 b.
10. Yo‘ldoshev I. va boshqalar. Tilshunoslik asoslari (darslik) – Toshkent, 2007.
11. Zverev D.I. Ta’lim fanlarining o‘zaro bog‘liqligi - M.: Bilim, 1977. – 64 b.
12. https://lex.uz/docs/-112286

CHALLENGES OF COMMUNICATION AMONG YOUNG PEOPLE AND HOW TO OVERCOME THEM

Uktamova Umida Zokirjon kizi
Tourism faculty Chirchik state pedagogical university Ziyodaoktamova1@gmail.com
Scientific advisor: Kurbanova Feruza

Annotatsiya. Bugungi raqamli davrda yoshlar turli xil muloqot muammolariga duch kelishmoqda, bu esa ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Texnologiyaga ortiqcha bog‘lanish, yuzma-yuz suhbatlarning kamayishi va tinglash ko‘nikmalarining yetishmovchiligi asosiy to‘siqlar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu maqolada yoshlarning muloqotdagi asosiy muammolari, jumladan, ijtimoiy tashvish, onlayn muloqotdagi noto‘g‘ri tushunishlar va og‘zaki ifoda qilishdagi ishonchsizlik tahlil qilinadi. Shuningdek, faol tinglashni rivojlantirish, hissiy intellektni oshirish va raqamli hamda real hayot muloqotini muvozanatlashtirish kabi samarali yechimlar taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: muloqot muammolari, leksik cheklovlar, tinglash ko‘nikmalari, madaniy farqlar.

Аннотация. В современную цифровую эпоху молодёжь сталкивается с различными проблемами общения, которые влияют на их личную и социальную жизнь. Чрезмерная зависимость от технологий, сокращение количества живых бесед и недостаток навыков слушания являются основными препятствиями. В данной статье рассматриваются основные коммуникативные трудности, с которыми сталкиваются молодые люди, включая социальную тревожность, недопонимание в онлайн-общении и неуверенность в устной речи. Кроме того, предлагаются эффективные решения, такие как развитие навыков активного слушания, повышение эмоционального интеллекта и баланс между цифровым и реальным общением.

Ключевые слова: коммуникативные проблемы, органиченный словарный запас, навыки слушания, культурные различия.

Abstract. In today’s digital era, young people face various communication challenges that affect their personal and social interactions. Excessive reliance on technology, lack of face-to-face conversations, and poor listening skills contribute to communication difficulties. This article explores the main barriers young people encounter, such as social anxiety, misinterpretation in online communication, and reduced confidence in verbal expression. Additionally, it provides practical solutions, including improving active listening, developing emotional intelligence, and balancing digital and real-life interactions.

Keywords: communication challenges, limited vocabulary, listening skills, cultural differences.

Introduction. Speaking a foreign language is a valuable skill in today’s globalized world, but it comes with many challenges. Many learners struggle with confidence, vocabulary limitations, grammar mistakes, and understanding native speakers. What is more, cultural differences and fear of making errors can make communication even more difficult. These challenges often prevent people from

expressing themselves freely and fluently. Many people also struggle with feeling unheard or misinterpreted, especially by their loved ones. In any relationship, we influence and support each other, much like a source of sustenance. Therefore, it is essential to carefully choose the kind of "nourishment" we provide, ensuring that it fosters growth and strengthens our connections. In fact, development, whether physical, intellectual, or moral, represents an example of the continuity principle. However, some argue that growth can take various paths. For instance, a person who chooses a life of crime may improve their skills over time and become a highly skilled burglar. Therefore, it is suggested that simply growing is not sufficient; it is also essential to define the direction and ultimate goal of that growth. Before accepting this argument as definitive, however, it is necessary to examine the issue more closely.

Methodology. Speaking a foreign language fluently and confidently can be a challenge. Knowing grammar and vocabulary is not enough; it is essential to apply them in practice, speak naturally, and express thoughts quickly. To achieve this, specific techniques can help language learners reach effective results. Below are two of the most effective methods for improving speaking skills in a foreign language. *Shadowing is a technique* that involves immediately repeating what is heard as accurately as possible. This method was first popularized by linguist Alexander Arguelles. The process of shadowing is as follows: first, the learner listens to an audio recording, then repeats the speech word-for-word without pauses or modifications. This technique improves pronunciation and intonation, as the learner tries to mimic the natural sound of the language, enhances listening skills, since it requires paying close attention to every word, develops faster speaking abilities, as it trains the brain to process and produce speech more quickly, and to practice shadowing effectively, it is recommended to use short audio materials such as podcasts, audiobooks, or videos. Regularly listening and repeating aloud will help learners strengthen their pronunciation and fluency. *Thinking in the Target Language:* One of the main reasons learners struggle to speak fluently is the slow thought process. Many people first think in their native language and then attempt to translate into the foreign language, which slows down speech. To overcome this issue, it is essential to develop the habit of thinking directly in the target language. This technique can be applied through the following steps: Initially, try to think about everyday objects and situations in the foreign language. For example, instead of thinking, "I need to read a book now" in the native language and translating it, say it directly in the target language and gradually trains the brain to adapt to the foreign language, making speech more natural and fluent. By consistently applying these methods, learners can achieve fluency and speak a foreign language comfortably and naturally.

Results and discussion. Teaching the native language in schools differs significantly from teaching foreign languages. While the communicative function and educational value of languages are universally important, the extent to which these functions are fulfilled varies for each language. For example, when studying the "Native Language" as a subject, students experience both its communicative and educational functions equally. However, in the case of a foreign language, communication and practical application become the primary functions, while its

educational and moral aspects develop as a secondary outcome. This is because students acquire their native language through practical experience before entering school. In school, their reading and writing skills are formed, and their speaking abilities are refined. The educational aspect (the systematic study of language theory) receives special attention in native language instruction. In the case of a second language, some practical skills may have already been acquired to a certain extent, and theoretical knowledge is presented in a more limited scope than in the native language. However, foreign language learning begins entirely from scratch, requiring the development of a completely new linguistic system for communication. The rules taught in foreign language instruction (basic theoretical knowledge) are subordinated to the goals of accelerating and optimizing practical skill acquisition. The realization of practical goals directly influences the educational process, where speech practice (communication) in the classroom primarily serves as a means of receiving and transmitting information. Another characteristic of language learning is that prior knowledge of the native language influences the learning of a second language, and both of these, in turn, affect the acquisition of a foreign language—both positively and negatively. A common challenge is interference, where existing language skills interfere with the learning of a new linguistic phenomenon.

Conclusion. The main difficulties in speaking a foreign language include limited vocabulary, grammatical mistakes, pronunciation issues, and lack of confidence. To overcome these challenges, it is essential to practice regularly, learn new words, use the shadowing technique, and engage in frequent conversations. Most importantly, by overcoming fear and applying the language in real-life situations, one can achieve fluency and confidence in speaking.

References:

1. Lucas, Stephen. The Art of Public Speaking (12th Edition).
2. Brown, Gillian, and George Yule. Teaching the Spoken Language: An Approach Based on the Analysis of Conversational English.
3. Richards, Jack C. (2008). Teaching Listening and Speaking: From Theory to Practice. Cambridge University Press.
4. Thornbury, Scott. (2005). How to Teach Speaking. Longman.
5. Bailey, Kathleen M. (2005). Practical English Language Teaching: Speaking. McGraw Hill.
6. "How to Improve Your English-Speaking Skills" – YouTube educational channels like BBC Learning English and English Addict with Mr. Steve.

НРАВСТВЕННО-ПАТРИОТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Сабуров Раимберган Садуллаевич
Преподаватель кафедры «Узбекский и русский язык литература»
Ургенчского государственного педагогического института
soburov1961@gmail.com

Аннотация. Одной из важнейших задач, стоящих перед Узбекистаном в современную непростую эпоху, когда темпы развития увеличиваются, а глобальные угрозы и процессы трансформации усиливаются, по мнению узбекских специалистов данной сферы, является правильное воспитание молодого поколения и эффективная реализация молодежной политики.

Поэтому в стране на системной основе уделяется большое внимание решению вопросов, связанных со здоровьем, социальным статусом, образованием и трудоустройством молодежи, созданию необходимых условий для ее развития как гармонично развитого поколения.

Annotatsiya. Bugungi murakkab davrda O‘zbekistonning oldida turgan asosiy vazifalardan biri, bu yosh avlodni to‘g‘ri tarbiyalash hamda yoshlar siyosatini samarali olib borishdan iboratdir.

Shundan kelib chiqib, mamlakatda yosh avlodning sog‘ligi, ijtimoiy maqomi, ta’lim olishi va ish bilan bandligi masalalariga, ularning barkamol avlod bo‘lib shakllanishiga xizmat qiluvchi barcha sharoitlarni yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda.

Abstract. One of the most important tasks facing Uzbekistan in the modern difficult era, when the pace of development is increasing, and global threats and transformation processes are intensifying, according to Uzbek experts in this field, is the proper education of the younger generation and the effective implementation of youth policy.

Therefore, the country systematically pays great attention to solving issues related to the health, social status, education and employment of young people, creating the necessary conditions for their development as a harmoniously developed generation.

Ключевые слова: глобализация, молодёжь, воспитание, Родина, нравственность, духовность, просветительство, патриотизм, история, образование, национальная идея, терроризм и экстремизм.

Kalit so‘zlar: globallashuv, yoshlar, tarbiya, Vatan, axloqiy, ma’naviyat, ma’rifat, vatanparvarlik, tarix, ta’lim, milliy g‘oya, terrorizm, ekstremizm.

Keywords: globalization, young people, education, Homeland, morality, spirituality, enlightenment, patriotism, history, the national idea, terrorizm, extremism.

Как мы знаем, глобализация, это неотъемлемая часть мирового прогресса. Она проникла во все сферы жизни человека.

В процессе эволюции рыночных отношений изменяется структура мирового хозяйства, формируется единая мировая рыночная экономика, состоящая из совокупности национальных экономик. Это видоизменение называется глобализацией. Что такое глобализация? Глобализация —

расширение каких-либо процессов или явлений до планетарного уровня (в переводе с латинского «globus» — ‘Земля’). Глобализация - процесс развивающихся взаимосвязей и взаимозависимости мировых культур и экономик.

Она имеет ряд преимуществ, которые позитивно влияют на развитие человечества:

развитии научно-технического прогресса;

повышении качества и доступности производимых товаров и услуг и уровня жизни людей;

появлении возможностей трудоустройства для людей в странах с дефицитом капитала и рабочих мест;

применении в национальной экономике технологий;

разработок и инновационных достижений других стран;

укреплении деловых отношений между странами;

развитии мирового финансового рынка и IT-секторов;

обеспечении свободного доступа к информации.

С одной стороны, глобализация стимулирует мировой прогресс. Но с другой — имеет ряд негативных последствий. В чем недостатки глобализации?

Проблемы глобализации состоят в:

росте безработицы в дотационных регионах из-за миграции рабочей силы в развитые страны;

снижении рождаемости;

ухудшении экологии;

высокой конкуренции между национальными предприятиями и транснациональными корпорациями;

росте монополизации рынков;

усилении отрыва в экономическом развитии между развитыми и развивающимися странами;

появлении угроз для потери национального суверенитета государств;

потери самобытности народов и культур;

истощения природных ресурсов.

Как нам известно, наша страна имеет глубокую историю развития, испокон веков здесь развивалась наука, культура, до наших дней сохранились обычаи и обряды народов, проживающих в Узбекистане.

В условиях глобализации, в то время, когда между государствами теряется самобытность народов и культур, возникновении глобальных геополитических проблем, таких как, вооруженные конфликты в регионе, в росте религиозного экстремизма, главной проблемой является нравственно-патриотическое воспитание молодёжи.

В годы независимости в республике особое внимание уделяется нравственно-патриотическому воспитанию молодёжи. «Если мы не будем заниматься воспитанием детей, ежедневно проверять их поведение, давать образование, обучать профессиям, обеспечивать их трудоустройство, сложно будет защитить их от вредных воздействий», — сказал Шавкат Мирзиёев.

Сегодня первоочередной задачей государства и общества, является привить молодёжи любви к Родине, уважение к его истории, и сегодняшнему дню, а также вера в светлое будущее страны.

В условиях глобализации должный эффект должны дать следующие педагогические методы и тенденции, которые способствуют развитию мышления учащихся и студентов:

Интерактивное обучение. Учебный процесс происходит в условиях постоянного активного взаимодействия учащихся. Такие методы помогают развивать критическое мышление, рефлексию и умение решать проблемы.

Использование информационно-коммуникационных технологий (ИКТ). Они позволяют расширить доступ к образовательным ресурсам, предоставляя возможность обучаться в режиме онлайн, участвовать в вебинарах и проходить курсы на дистанционных платформах.

Увеличение мобильности студентов и преподавателей. Образовательные учреждения активно стремятся привлечь иностранных студентов, предлагая международные программы и курсы на английском языке. Это способствует межкультурному обмену и расширению мировоззрения студентов.

Стандартизация образовательных систем. Университеты и школы по всему миру стремятся соответствовать международным стандартам и рейтингам, что приводит к унификации учебных программ и методов преподавания.

Акцент на развитие глобального гражданства. Студенты учатся понимать и ценить разнообразие культур и работать над созданием более справедливого и устойчивого мира.

В этом контексте предлагаем выделить следующие методы обучения:

1. Объяснительно-иллюстративный метод - метод, при котором учащиеся получают знания на лекции, из учебной или методической литературы, через экранное пособие в "готовом" виде;

2. Репродуктивный метод - метод, где применение изученного осуществляется на основе образца или правила;

3. Метод проблемного изложения - метод, при котором, используя самые различные источники и средства, педагог, прежде чем излагать материал, ставит проблему, формулирует познавательную задачу, а затем, раскрывая систему доказательств, сравнивая точки зрения, различные подходы, показывает способ решения поставленной задачи;

4. Частично поисковый, или эвристический метод обучения заключается в организации активного поиска решения выдвинутых в обучении (или самостоятельно сформулированных) познавательных задач либо под руководством педагога, либо на основе эвристических программ и указаний.

5. Исследовательский метод - метод, в котором после анализа материала, постановки проблем и задач и краткого устного или письменного инструктажа обучаемые самостоятельно изучают литературу, источники, ведут наблюдения и измерения и выполняют другие действия поискового характера.

Для защиты нашей молодёжи от всякого рода негативного, отрицательного влияния внешних сил, предлагаем следующие направления по профилактической работы среди молодёжи:

- проведение комплексных мероприятий по формированию правовой культуры в молодёжной среде;
- снижение социальной напряженности в обществе;
- противодействие экстремизму через общественные организации, ученическое, студенческое самоуправление;
- воспитание у молодёжи установок признания, соблюдения и защиты прав и свобод человека и гражданина, соблюдения законов;
- формирование норм социального поведения, характерного для гражданского общества;
- повышение роли семьи в формировании у детей и молодёжи норм толерантности;
- воспитание законопослушных граждан, уверенных в неотвратимости наказания за такого рода преступления;
- выявление и контроль за интернет-ресурсами, оказывающие неблагоприятное воздействие на молодёжь;
- ужесточение наказание за экстремистские и террористические преступления, а также за подстрекательство.

Конечная цель этой работы – изменить правовую пссихологию людей, добиться отторжения абсолютным большинством населения самой мысли о возможности применения террористических методов для разрешения территориальных, социальных, конфессиональных, культурных и любых других проблем и неприязней, предприняв такие меры, которые способствуют пониманию молодых людей, что государство заботиться о них, и нет необходимости совершать противозаконные действия, а равно искать защиту и покровительство за рамками государственных органов.

Использованная литература:

1. Конституция Республики Узбекистан. 08.12.1992 г.

2. Мирзиёев Ш.М. Стратегия развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы. - № УП-60 от 28.01. 2022 г. «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» http://lex.uz/ru/docs/58410772

3. Еремеева, Л.И. (2016). К вопросу о духовно-нравственном воспитании студенческой молодежи / Л.И.Еремеева // Вестник Югорского государственного университета. 1, 124-129. – ISSN 1816-9228. – Текст: электронный // Лань: электронно-библиотечная система. – URL: https://e.lanbook.com/journal/issue/298380.

4. Щеулова Е.А., Николаева А.Е. Духовно-нравственное воспитание современной молодежи как основа формирования и развития личности // Современные научные исследования и инновации. 2016. № 12 [Электронный ресурс]. URL: https://web.snauka.ru/issues/2016/12/74749.

5. Инаева Д.Д. Профилактика терроризма и экстремизма в молодёжной среде /Д.Д.Инаева. – Текст: непосредственный// Молодой учёный. – 2017. - №1 (135) – с. 334-336 - URL : https://moluch.ru/archive/135/37941

ADVANTAGES AND LIMITATIONS OF GRAMMAR TRANSLATION METHOD

Reyimberganova Durdona Islombek Qizi
1st year student at Tourism Faculty Chirchik State Pedagogical University Scientific adviser: **Zilola Mahmudova Shukhrat qizi**
English teacher, Chirchik State Pedagogical University

Abstract. This thesis examines the Grammar Translation Method (GTM), a traditional language teaching approach that prioritizes grammar analysis, translation exercises, and literacy skills. It explores the historical background, fundamental principles, advantages, and limitations of GTM. Despite its structured methodology and effectiveness in developing reading and writing skills, the method has notable weaknesses, particularly in fostering speaking and listening abilities.

The thesis discusses the ongoing role of GTM in contemporary education and suggests a balanced approach that integrates communicative techniques for a more comprehensive language learning experience.

Keywords: *GTM, language learning, grammar instruction, translation exercises, reading and writing skills, communicative approach, language education.*

Annotatsiya. Ushbu tezis grammatikani tahlil qilish, tarjima mashqlari va savodxonlik ko‘nikmalarini birinchi o‘ringa qo‘yadigan an’anaviy til o‘rgatish yondashuvi bo‘lgan grammatikani tarjima qilish usulini (GTM) ko‘rib chiqadi. U GTM ning tarixiy asoslari, asosiy tamoyillari, afzalliklari va cheklovlarini o‘rganadi. O‘qish va yozish ko‘nikmalarini rivojlantirishda tizimli metodologiyasi va samaradorligiga qaramay, usul, ayniqsa, nutq va tinglash qobiliyatlarini rivojlantirishda sezilarli zaif tomonlarga ega.

Tezis zamonaviy ta’limda GTM ning davom etayotgan rolini muhokama qiladi va tilni yanada kengroq o‘rganish tajribasi uchun kommunikativ usullarni birlashtiradigan muvozanatli yondashuvni taklif qiladi.

Kalit so‘zlar: *GTM, til o‘rganish, grammatika yo‘riqnomasi, tarjima mashqlari, o‘qish va yozish ko‘nikmalari, kommunikativ yondashuv, til ta’limi.*

Аннотация. В этой тезис рассматривается метод грамматического перевода (GTM), традиционный подход к обучению языкам, который акцентирует внимание на грамматическом анализе, переводных упражнениях и навыках чтения и письма. Исследуется исторический контекст, основные принципы, преимущества и ограничения метода. Несмотря на свою структурированную методологию и эффективность в развитии навыков чтения и письма, метод имеет заметные слабости, особенно в развитии навыков устной речи и восприятия на слух.

В тезис обсуждается продолжающаяся роль метода GTM в современном образовании и предлагается сбалансированный подход, который интегрирует коммуникативные техники для более полноценного процесса обучения языку.

Ключевые слова: *МГП, изучение языков, преподавание грамматики, переводные упражнения, навыки чтения и письма, коммуникативный подход, языковое образование.*

Introduction. The **Grammar Translation Method (GTM)** has been extensively used in language teaching since the 18th century. Originally developed for teaching Latin and Greek, GTM focuses on detailed grammatical analysis and translation exercises. Despite the emergence of communicative language teaching approaches, GTM remains in use due to its structured methodology. However, its effectiveness in fostering practical language skills remains debated.

GTM emerged as a formalized teaching approach during the 18th and 19th centuries when Latin and Greek were considered essential components of an educated individual’s knowledge base. As education systems evolved, GTM was adapted for modern languages such as French, German, and English. The method became a standard practice in schools and universities, emphasizing linguistic accuracy, literacy, and scholarly engagement with texts.

Despite the significant changes in language education over the centuries, GTM continues to influence traditional language instruction, particularly in non-English speaking countries where learning English as a foreign language is highly structured and exam-oriented. Grammar Translation Method focuses on grammar rules and students learn grammatical structures through explicit instruction and analysis.

Grammar Translation Method has strong grammatical foundation, structured and systematic learning that it helps learners develop a deep understanding of grammar rules, allowing them to use the language accurately in both writing and speech, and also the approach follows a clear and organized structure, making it beneficial for learners who prefer methodical instruction.

Additionally, GMT helps learners expand vocabulary. Regular translation exercises assist students in learning new words in context, helping them build a richer vocabulary. Furthermore, the method is highly effective in enhancing reading comprehension and written accuracy.

In spite of having a number of advantages, there are limitations of this method, such as limited speaking and listening skills, lack of practical application, and dependence on translation. This approach prioritizes reading and writing, often neglecting oral communication and listening comprehension. Learners may struggle to use the language in real-life conversations since the focus is more on written proficiency than spoken fluency. Students may become overly reliant on their native language, which can hinder their ability to think directly in the target language.

GTM has a vital role in modern language education, while GTM has several limitations, it remains relevant in various educational contexts. Many institutions incorporate GTM elements alongside communicative approaches to create a more balanced curriculum. In regions where standardized testing and academic literacy are priorities, GTM continues to serve as a valuable tool for language instruction. In addition to this, GTM can be beneficial for learners pursuing linguistic studies, translation careers, or academic research that requires an in-depth understanding of grammar and written language.

CONCLUSION

The Grammar Translation Method remains a valuable approach for developing grammatical accuracy, reading comprehension, and vocabulary. However, its

limitations in fostering speaking and listening skills make it less suitable for learners seeking communicative proficiency. A balanced approach, integrating GTM with modern interactive techniques, can provide a more comprehensive language learning experience. Educators should consider the specific needs and goals of their students when implementing GTM. While it can be an effective tool for certain aspects of language learning, it should not be the sole method used in contemporary language education.

REFERENCES:

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.

2. Cook, V. (2008). Second Language Learning and Language Teaching. Hodder Education.

3. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman.

4. Larsen-Freeman, D. (2011). Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford University Press.

5. Mahmudova, Z. (2025). THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN DEVELOPING SPEAKING SKILLS OF ECONOMIC FIELD STUDENTS. *EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements*, *1*(2), 141-146.

6. qizi Mahmudova, Z. S., & Yusupova, M. A. THE ETYMOLOGY OF ENGLISH WORDS.

7. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

8. Sh, M. Z. (2023). Principles Of Development Of Creative Activity Of Primary Class Students In Tashkent Regional Universities. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, *1*(2), 567-571.

9. Stern, H. H. (1983). Fundamental Concepts of Language Teaching. Oxford University Press.

XORAZM DOSTONLARIDA QO‘LLANILGAN “JON” LEKSEMASI BILAN BOG‘LIQ SOMATIK FRAZEMALAR TADQIQI
(“Sayod ca Hamro”, “Hurliqo va Hamro”, “Royi Chin”, “Edigo”, “Malikayi Zavriyo”, “Malikayi Dilorom” dostonlari misolida)

Muxammedova Sumbul Ikrombek Qizi
NDPI tayanch doktoranti muxammedovasumbula@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada frazeologizmlar, somatizmlar haqida ilmiy-nazariy qarashlar umumlashtirilgan. “Sayod va Hamro”, “Hurliqo va Hamro”, “Royi Chin”, “Edigo”, “Malikayi Zavriyo”, “Malikayi Dilorom” dostonlarida qo‘llanilgan “jon” leksemasi bilan bog‘liq somatik frazemalar tahlil qilingan.

Abstract. This article summarizes scientific-theoretical views about phraseologisms and somatisms. The somatic phrases related to the lexeme “soul” used in the epics “Sayod and Hamro”, “Hurliqo and Hamro”, “Royi Chin”, “Edigo”, “Malikayi Zavriya”, “Malikayi Dilorom” were analyzed.

Аннотация. В данной статье обобщены научно-теоретические взгляды на фразеологизмы и соматизмы. Проанализированы соматические словосочетания, относящиеся к лексеме «душа», используемые в эпосах «Сайод ча Хамро», «Хурлико ва Хамро», «Ройи Чин», «Эдиго», «Маликаи Заврия», «Маликайи Дилором».

Kalit so‘zlar: paremiologik birliklar, frazema, maqol, matal, hikmatli so‘z, somatik birliklar.

Key words: paremiological units, phrase, proverb, proverb, wise word, somatic units.

Ключевые слова: паремиологические единицы, словосочетание, пословица, пословица, мудрое слово, соматические единицы.

Kirish. Har bir xalq tilidagi mavjud paremiologik birliklar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida sayqallanib, kelajak avlodga meros qilib qoldiriladi. Paremiologik birliklar – maqol, matal hikmatli so‘z va iboralarning tarkibida, albatta, somatizmlar ham faol qo‘llaniladi. Somatizm (yunoncha «soma» - «tana») termini tilshunoslikda birinchi marta uyg‘ur-fin tillari tadqiqotchisi F.Vak tomonidan inson tana a’zolari ishtirok etgan eston tili frazeologizmlarini nomlashda qo‘llanilgan[1]. F.Vak somatizmlarni tadqiq qilar ekan, “somatizmlar frazeologiyaning eng qadimgi qatlamlaridan biriga tegishli va har qanday til so‘z boyligining eng ko‘p ishlatiladigan qismini tashkil qiladi”[2] – degan xulosaga keladi ularni uch guruhga ajratadi:

1. Shaxsni tavsiflash;
2. Odamlar va hayvonlarni tasvirflash;
3. Hayvonlarni tasvirlash.

Somatizmlar – bu odam yoki hayvon tanasi qismlarining asl ma’nosiga ega bo‘lgan otlar bo‘lib, bu atama biologiyada, tibbiyotda “inson tanasi bilan bog‘liq narsa”

[1] Gadoyeva M. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarida somatik birikmalarning semantic tahlili, NamDU ilmiy axborotnoma, 2023. – B.424-428.

[2] Вакк Ф.О. Соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф.дисс…канд. филол. наук. – Таллин, 1964. – С. 23.

ma’nosida ishlatiladi[1]. Tilshunoslikda inson tana a’zolarini ifodalovchi somatizmlarning kelib chiqishi, semantik, pragmatik, struktur xususiyatlari to‘g‘risidagi tadqiqotlar qadimdan to hozirga qadar davom etib kelmoqda. Dunyo tilshunosligida somatizmlar alohida leksik-semantik guruh sifatida tan olinib, ularning semantik-struktur hamda kommunikativ-pragmatik jihatlari, nutqda voqelanish mexanizmlari, muayyan kontekstda aniq tushunchaning verbal ramzi sifatida namoyon bo‘lishiga doir tadqiqotlar amalga oshirilmoqda[2].

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab “somatik” atamasi odam yoki hayvon tanasiga tegishli bo‘lgan hamma narsani anglatuvchi so‘zlarni o‘rganishda faol qo‘llanila boshlandi[3].

Jahon tilshunosligida somatik birliklarning o‘rganilishi uzoq tarixga ega bo‘lib, ma’lum bir etnosga xos bo‘lgan leksik birliklar bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilgan. Tana qismlarining nomlari, ya’ni ko‘pchilik madaniyat va tillar uchun universal hisoblangan somatizmlar tadqiqi borasida jahon tilshunosligida N.V.Masaleva, S.V.Bogolepova, G.Y.Kreydlin, Z.A.Bogusб S.I.Magomedova kabi olimlar ish olib borganlar. O‘zbek tilshunosligida M.I.Gadoyeva, U.M.Rashidova Sh.R.Usmonova, D.S.Turdaliyeva, B.M.Jo‘rayeva, X.T.Nurullayev, M.Batirxanova kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan.

D.O‘rayeva “Ingliz va o‘zbek madaniyati olqishlarida somatizm semantikasi”[4] tadqiqot ishida o‘zbek madaniyati olqishlarida qo‘llaniladigan somatizmlarni quyidagicha tavsiflaydi:

1) *uzoq umr ko‘rish olqishlarida somatizm;*
2) *salomatlik haqidagi olqishlarda somatizm;*
3) *boylik va farovonlik haqidagi olqishlarda somatiz;*
4) *nikoh va to‘y olqishlarida somatizm;*
5) *yangi tug‘ilgan chaqaloqqa aytilgan olqishlarda somatizm;*
6) *baxt va quvonchni ifodalovchi olqishlarda somatizm;*
7) *ruhni qutqarish haqidagi olqishlarda somatizm (janoza olqishlari);*
8) *uy, hovli olqishlarida somatizm.*

Inson somatizmlarni ko‘chma ma’noda, qiyoslashda, metaforalarda, frazeologizmlar va maqollarda ham qo‘llab, ular orqali o‘z fikrlarni yetkazishga harakat qiladi. Bundan tashqari, nutqda dunyoni qabul qilishga qaratilgan, hayot va tuyg‘ularni anglashga, insonning xarakteri, jismoniy va aqliy faoliyatini anglatuvchi somatizmlar ham faol qo‘llaniladi.

Somatizmlarni tilshunoslar tomonidan keng ko‘lamda o‘rganilishiga sabab, barcha tillardagi so‘z birikmalari komponentlarning katta qismini tashkil etganligidir. Bundan tashqari, ular muayyan til vakillarining ko‘p asrlik tarixiy o‘ziga xosliklari, tarixi va madaniyatini ko‘rsatadi. Somatik birliklar mahsuldor hisoblanib, ular juda keng ko‘lamlidir.

[1] Gadoyeva M. Somatik leksikaning xususiyatlari. Sscientific progress, 2021. – B.1749-1754.
[2] Xamdamova G. O‘zbek va ingliz tillarida somatizmlar asosida shakllangan maqollarning kognitiv-semantik va struktur xususiyatlari f.f.n. avtor. – Buxoro, 2023. – B.5.
[3] Gadoyeva M. Somatik leksikaning xususiyatlari. Sscientific progress, 2021. – B.1749-1754.

Muhokama va natijalar. “Oshiqnoma” dostonlarida “jon” leksemasi bilan bog‘liq 40 dan ortiq ibora uchraydi. Iboralarning tarkibidagi, tobe bo‘lak hokim bo‘lakka bitishuv, boshqaruv, moslashuv yo‘li orqali tobelangan. Quyida bitishuv yo‘li orqali tobelangan iboralarga namunalar keltiramiz:

“Jon bermoq” – I. 1) kim? kimga? barhayot qilmoq (diniy). 2 kim? nimaga? hayot bag‘ishlamoq. II 1 kim? yoki nima? (jonli) o‘lmoq, so‘nggi marta nafas chiqarmoq. Sinonimi: joni chiqdi. 1 kimning? yoki nimaning? (jonlining); joni uzildi kimning? III [ǯan ber=] tar. kim? 1 ziqnalik qilmoq, pul berishga qiynalmoq, har qanday og‘ir shartni, talabni bajarishga tayyor bo‘ldi. Varianti: jonin bermoq [Rahmatullayev Sh. 222-b.]

“Royi Chin” dostonida “jon bermoq” iborasi “jon beran” va “jon bermoq” shakllarida qo‘llanilgan bo‘lib, insonning o‘limi, bu dunyodan o‘tishi ma’nosida ifodalagan.

Jon	**beran**	– Tog‘a chiqib **jon beran** oshiq Farhodi (1-kitob, RCh. 150-bet).
	bermoq	– **Jon bermagan** har oshiq yo‘linda qabohatdur (1-kitob, RCh. 130-bet). – Yo‘linda **jon berib** diydorin topti (1-kitob, RCh. 153-bet). – Sayodxon sariyoyini olib har tortib yuborganda 50-60 dushman birdan **jon berar** erdi (1-kitob, SH. 90-bet).

“Jon olmoq” – [ǯan al=] tar. kim? kimdan? badal sifatida hayotini olmoq [Rahmatullayev Sh. 222-b.] “Edigo” dostonida ushbu ibora “**jon olur”** va **“jon olmoq”** shakllarida qo‘llanilgan bo‘lib, biror kishining jonini olish, o‘ldirish ma’nosini ifodalaydi.

Jon	**olur**	– So‘zlari **jon olur** ko‘zi xovari, Go‘yoki bir sohibqirona mangzar (1-kitob, MZ. 256-b.) – Boshingni uzubon **joningni olur.** [1-kitob, SH. 16-bet].
	olmoq	– Mamat shohning qizi mani mast aylar, G‘amzalari **jon olmo**qqa qast aylar (1-kitob, SH. 27-b.) Bir qiyo boqishing **oladir jonim,** Dedigim fitna so‘z tildin aybdir. [1-kitob, SH. 37-bet].

“Jon kirmoq” iborasi Xorazm dostonlarida turli variantlarda qo‘llanilgan. “Jon kirmoq” – I. 1) huzur qilmoq, maza qilmoq, orom olmoq; 2) juda xursand bo‘lmoq, quvonmoq, sevinchi ichiga sig‘may ketmoq. II jon qaytib tanaga kirmoq. [Madvaliyev A. 675] Ushbu ibora “Royi Chin” dostonida qo‘llanilgan bo‘lib, tobe so‘z hokim so‘zga so‘z tartibi hamda ohang yordamida birikkan. Bitishuv usulini hosil qilgan, Tobe so‘z ot so‘z turkumi, hokim so‘z fe’l bilan ifodalangan va sodda yig‘iq ibora hisoblanadi.

Jon	**kirmoq**	– Jonsiz erdi, **jon kirdi** (1-kitob, RCh. 143-b.)

“Oshiqnoma” turkum dostonlarida **“jon(i) chiqmoq”** iborasi she’riy misralarda ko‘p qo‘llanilgan iboralardan biri. Bu ibora “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da ikki xil ma’noda izohlangan. I kimning? yoki nimaning? (jonlining) o‘lmoq, so‘nggi marta nafas chiqarmoq ma’nosini ifodalaydi. Iboraning ushbu birinchi ma’nosiga – *jon bermoq, jon uzulmoq, vafot etmoq, arshi aloga ketmoq, narigi dunyoga ravona bo‘lmoq, narigi dunyoga rixlat qilmoq, omonatini topshirmoq* kabi iboralar sinonim

bo‘la oladi. II Kimning [nimaga? yoki nimadan?] nihoyatda qattiq g‘azablanish, darg‘azab bo‘lishini anglatadi [Rahmatullayev Sh :232]. “Joni chiqmoq” iborasining ikkinchi ma’nosiga *jon pon(i) chiqib ketdi, jon pon(i) chiqarib yubormoq* iboralari variantdosh iboralar hisoblanadi. G‘azabi qaynadi, g‘azab(i)ni qaynatmoq, jon(i) halqum(i)ga keldi, jon(i)ni halqum(i)ga keltirmoq iboralari ikkinchi ma’noga sinonim iboralar hisoblanadi [Rahmatullayev Sh :232].

Jon(i)	**chiqmoq**	– Jasadimdin **chiqdi jonim,** Shirin jonimdan ayrildim [1-kitob, SH. 13-bet]. –Nozli yora arz etguncha **jon chiqar,** Aytayinmi, aytmayinmi, na dersan? [1-kitob, SH. 26-bet]. – San xalifa bo‘lsang, man bo‘lam tolib, Jon chiqib jasaddin, gavda bo‘sh qolib (1-kitob, SH. 72-bet). – Chiqsin jonim kuyib nora pishguncha, Imonsiz yuzig‘a yuzim tushguncha (1-kitob, MD. 292-bet).

“Joni tebranmoq” iborasi “Hurliqo va Hamro” dostonida qo‘llanilgan bo‘lib, **qo‘rqib ketmoq, hayajonlanmoq yoki xavotirlanmoq** degan ma’nolarni anglatadi.

Jon(i)	tebranmoq	– Aning shaəmi jamolidin, Jonim tebrandi tebrandi (1-kitob, HH. 108-bet).

“Jonga yetmoq” iborasi “Sayod va Hamro dostonida “jona yetushmoq, “Royi Chin dostonida” “jona yetushmoq” shaklida qo‘llanilgan bo‘lib, “jonga yetmoq” iborasining dialektal ko‘rinishi hisoblanadi.

Jon(a)	**yetmoq**	– Ishq otashi **yetdi jona** (1-kitob, SH. 10-bet).
	yetushmoq	– **Yetushdi jonima** ishqdin alomat (1-kitob, RCh. 138-bet).

“Jon olmoq” iborasi “Edigo” dostonida “**jonim olur”** va **“joning olurman”** shakllarida qo‘llanilgan bo‘lib, kimningdir hayotiga yakun yasash, jonini olish ma’nosini ifodalaydi. “Jon olmoq” – [ǯan al=] tar. kim? kimdan? badal sifatida hayotini olmoq [Rahmatullayev Sh. 222-bet].

Jon	**olmoq**	– **Jonim olsang** emdi yo‘qdir parvoyim, Kerakmasdir manga bu jon xudoyim (1-kitob, ED. 168-b.). – Bukun tandin maning **jonim oladir**, E xudoyim, yomon darda uchradim (1-kitob, ED. 175-b.) – Mamat shohning qizi mani mast aylar, G‘amzalari jon olmoqqa qast aylar (1-kitob, SH. 27-b.)
	olur	– Qora dev der, emdi nelar qilurman, Omon bermay saning **joning olurman** (1-kitob, ED. 216-b. – Boshingni uzibon, joningni olur (1-kitob, SH. 15-bet).

“Jonga tegmoq” iborasi “Malikayi Zavriyo” dostonida “jona tegmoq” shaklida qo‘llanilgan bo‘lib, “jonga tegmoq” iborasining dialektal ko‘rinishi hisoblanadi. “Jonga tegmoq” iborasi – “jondan bezor qilmoq” degan ma’noni ifodalaydi. Varianti jon(i)ga tegmoq.

Jonga	**tegmoq**	– Bodi shamol yuzlaringa tegibdur, Jamoling xanjari **jona tegibdur** (1-kitob, MZ. 259-bet).

“Jonga dard bo‘lmoq”, ibora “Malikayi Zavriyo” dostonida “jong‘a dard bo‘lmoq” shaklida qo‘llanilgan bo‘lib, dard-u g‘am, tashvishli bo‘lmoq degan ma’noni ifodalaydi. “Jong‘a” leksemasi “jonga” so‘zining kitobiy varianti hisoblanadi. **“Jonga ofat tushmoq”** iborasi “Xurliqo va Hamro” dostonida “Jong‘a ofat tushmoq” shaklida qo‘llanilgan bo‘lib, boshiga g‘am-tashvish tushmoq degan ma’noni ifodalaydi.

Jon(g‘a)	**dard bo‘lmoq**	– Anda Shahribonu aydi: ey podshohim va ey Sultoni bokaram, aytsam sizdin qo‘rqarman, iltimosim jonimg‘a dard bo‘lar, aytmasam bo‘lmas dedi (1-kitob, MZ. 282-bet).
	ofat tushmoq	– Boshdin g‘ariblikdur maning qismatim, Jong‘a ofat tushdi, yo‘qdur toqatim (1-kitob, HH. 99-bet).

“Jon(i)dan/jondin o‘tmoq” iborasi “Sayod va Hamro” dostonida qo‘llanilgan bo‘lib, *nima? kimning?* jismonan alamli ta’sir qilmoq, qaqshatmoq (“sovuq”)degan ma’noni ifodalaydi. Varianti: jon-jon(i)dan o‘tib ketmoq [Rahmatullayev Sh. 232-bet].

Jon(i)dan/jondin	**o‘tmoq**	– Falak biza jabru sitam etibdir, Ayriliq xanjari jondan o‘tibdir (1-kitob, SH. 68-bet). – Ayriliq o‘limdin battar, Mujgonlaring jondin o‘tar (1-kitob, SH. 30-bet). – Jodu ko‘zing mangzatmisham jalloda, Mujgon tig‘i jondin o‘tar ko‘zingdin (1-kitob, SH. 71-bet). – Nozlim bu jonima jabr etma batar, Mujgoning xanjardir, jonimdin o‘tar (1-kitob, SH. 53-bet). – **Jonimdan o‘tdi** ming sitam, mani dardisar ayladi (1-kitob, MD. 311-bet).

“Jon(i)ni olmoq” iborasi Xorazm dostonlarining ko‘pchiligida “jonin olmoq” ko‘rinishida uchraydi. “Jon(i)ni olmoq” iborasi quyidagi ma’nolarda qo‘llaniladi: *kimning?* 1 *“kim?”* o‘ldirmoq *(diniy).* **2** *kim?* ruhan juda qattiq ezib yubormoq. Varianti: jon oluvchi (–). 3 *nima?* jismonan juda qattiq ezib yubormoq. Varianti: jon olg‘uchi (–). [Rahmatullayev Sh. 231-bet].

Jon(i)ni	**olmoq**	**–** Rahm aylagil, jonim olg‘il emdi sher (1-kitob, MD. 292-bet). – Oshiqin o‘ldirib, jonin olgan qiz (1-kitob, SH. 15-bet**).** – Bir qiyo boqishing oladir jonim, Dedigim fitna so‘z tildin aybdir (1-kitob, SH. 36-bet). – Man bilmadim ular nechuk balodir, Har nar'a chekishi jonim oladir (1-kitob, SH. 59-bet). – Xoni-beglar manga dushman bo‘ldilar, Har kim bir so‘z aytib jonim oldilar (1-kitob, ED. 162-bet).

“Jon(i)(ni) yoqmoq” iborasi “Oshiqnoma dostonlarida faol qo‘llanilgan iboralardan biri bo‘lib, odatda yor tomonidan oshiqning jonini o‘tda yoqish, ishq azobida kuydirish degan ma’nolarda qo‘llaniladi. Ushbu ibora Xorazm dostonlarida “jonin yoqishli”, “jonin yoqmoq”, “jonin olib o‘tga solmoq” “jonina o‘t bermmoq”,

“jonina o‘t solmoq”, “jonina o‘t tushmoq”, “jonini kuydirmoq”shakllarida qo‘llanilgan.

Jon(i)ni	**yoqishli**	– Yuzi tarlon boqishli, oshiqlar jonin yoqishli (1-kitob, SH. 22-bet).
	yoqmoq	– Islom qilichlarin chakib, Raqiblarning jonin yoqibet (1-kitob, MZ. 273-bet). – Mehr birla yuzlarimga boqarsiz, Har boqqanda maning jonim yoqarsiz (1-kitob, ED. 212-bet). – Ul nechuk daraxtdir sallonur bo‘yla, O‘t berma jonima, yoqmag‘il bo‘yla (1-kitob, SH. 54-bet).
	olib o‘tga solmoq	– Maning jonim olib o‘tga solibdur, Qozim mango nikox tushar deyago‘r. (1-kitob, HH. 115-bet).
	kuydirmoq	– Kuydirdi jonimni tili Sayodning (1-kitob, SH. 27-bet). – Bir farzand deb kuydi jonim, Shoyad bo‘lg‘ay jon darmonim (1-kitob, ED. 180-bet).
Jon(i)ga	**o‘t bermoq**	– Ul nechuk daraxtdir sallonur bo‘yla, O‘t berma jonima, yoqmag‘il bo‘yla (1-kitob, SH. 54-bet).
	o‘t solmoq	– Jonima o‘t soldi husni jamoling (1-kitob, RCh. 142-bet). – Bu dunyoda nichcha ishlar qilg‘onsan, Miskinlar jonig‘a o‘tlar solg‘onsan (1-kitob, MD. 313-bet).
	o‘t tushmoq	– Andin so‘ng Qaytus shoh o‘g‘lini ko‘rib, jonina o‘t tushib, maydong‘a kirib, jang mag‘luba qildi (1-kitob, MZ. 273-bet).
	o‘t yopushmoq	– Qa’riyaning husnining orzusi tushub, jonig‘a o‘t yopushti (1-kitob, RCh. 129-bet).

“Jon(i)dan kechmoq” iborasi “Royi Chin” va “Edigo” dostonlarida “jondin kechmoq” shaklida, “Sayod va Hamro” dostonida “jon-u sardin kechmoq” shaklida qo‘llanilgan bo‘lib, 1) kim?[o‘zining] hamma qiyinchiliklarga, hatto o‘limga ham rozi bo‘lmoq. 2) ortiq toqat qilolmasligi tufayli o‘limiga ham rozi bo‘lmoq. Varianti: jon(i)dan to‘ydirmoq kim? kimni? [o‘zining]. Sinonimi: jon(i)dan bezor bo‘lmoq kim? [o‘zining] –jon(i)dan bezor qilmoq kim? kimni? [o‘zining [Rahmatullayev Sh, 229-bet].

Jondan/jondin	kechmoq	Yo‘lingda bu jondin kechimen (1-kitob, RCh. 135-bet) – Kelib dargohinga bu jondin kechdim (1-kitob, RCh. 142-bet). – Rohat ko‘rmay mehnat sitamin ichgan, Maning uchun shirin jonidin kechgan **(1-kitob**, ED. 233-bet).
Jon-u sardan	kechmoq	– Sani deyib kechsam jonu sarimdin, Do‘g‘rasalar tebranmiyman yerimdin (1-kitob, SH. 58-bet)

“Jon(i)ga jabr qilmoq” iborasi “Sayod va Hamro” dostonida “jonina jabr etmoq” shaklida qo‘llanilgan bo‘lib, insonning jismoniy yoki ruhiy charchoqni his qilishini ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Jon(i)ga	**jabr qilmoq**	– Nozlim bu jonima jabr etma batar, Mujgoning

		xanjardir, jonimdin o‘tar (1-kitob, SH. 53-bet).

“Jonni fido qilmoq” iborasi “Royi Chin” dostonida “jonni fido aylamoq” shaklida qo‘llanilgan bo‘lib, *kim? kim uchun?* o‘zini qurbon qilishga tayyor bo‘lmoq degan ma’noni ifodalaydi [Rahmatullayev Sh. 222-bet].

Jon(i)ni	fido qilmoq	– Jonon yo‘lida aylar jonini fido oshiq (1-kitob, RCh. 130-bet).

“Jon(i)dan to‘ymoq” iborasi “Royi Chin” dostonida “jon(i)din to‘ymoq” shaklida qo‘llanilgan bo‘lib, **hayotdan umidini uzmoq, yashashni istamay qo‘ymoq, qattiq iztirob yoki tushkunlikka tushmoq** egan ma’nolarni ifodalaydi.

Jon(i)dan	**to‘ymoq**	– Bu shirin jonimdin to‘ydim yor yo‘linda qurbon aylay (1-kitob, RCh. 139-bet).

“Jonining ichida joy qilmoq” iborasi “Edigo” dostonida qollanilgan bo‘lib, insonning kimnidir yurakdan qadrlashini va unga mehr qo‘yishi, kimnidir juda hurmat qilmoq, yuragida alohida o‘rin ajratmoq, juda yaxshi ko‘rmoq degan ma’nolarni ifodalaydi.

Jon(i)ning	ichida joy qilmoq	– Xayol qildi: «Darhol turib jonimning ichida joy qilsam», deb o‘zini bir hol birlan saqlab Oqsuluv parizodning so‘ziga muvofiq bul ham bir necha so‘zlar aydi (1-kitob, ED. 228-bet).

Frazeologizmlar tarkibida ko‘pincha efemistik xarakterdagi iboralar ham ko‘plab uchraydi. Vafot etmoq, o‘lmoq, so‘zi o‘rnida Xorazm dostonlarida “Jon jasaddin uzilmoq”, “joni jahannamga ketmoq” iboralari ko‘proq qo‘llanilgan.

Jon(i)	jasaddin uzilmoq	– Hamro deyar, jon jasaddin uzildi, Qora bag‘rim suv bo‘libon ezildi (1-kitob, SH. 72-b.) – Vaqtim yetib jon jasaddin uzildi, Qarorim yo‘q, nozli yorim kelincha (1-kitob, SH. 75-b.).
	jahannamga ketmoq	– Birini o‘ltirib boshini kelturdim, yana birin ham boshin olib berurman, deb bir zo‘r qilib qora tukli devni ko‘tarib, aylantirib, To‘kashohning taxtig‘a andoq urdi, joni jahannamga ketdi (1-kitob, ED. 219-bet).

“Jon qazog‘a yetmoq” iborasi “Royi Chin” dostonida qo‘llanilgan bo‘lib, **haddan tashqari charchamoq, holdan toyib ketmoq, juda qiynalmoq** degan ma’nolarni anglatadi.

Jon	qazog‘a yetmoq	– Toqatim yo‘q jonim tanda balki jon qazog‘a yetdi (1-kitob, RCh. 137-b.)

“Joni bilan qoqmoq” iborasi “Xurliqo va Hamro” dostonida qo‘llanilgan bo‘lib, insonning biror ish-harakatni katta qiyinchilik bilan bajarish, jon-jahdi bilan harakat qilishini ifodalaydi.

Jon(i)	bilan qoqmoq	– Joning bilan emdi mani qoqqaning, San na uchun ohu afg‘on etarsan? (1-kitob, HH. 112-bet).

“Joni o‘rtanmoq” iborasi “Edigo” dostonida qo‘llanilgan bo‘lib, qiynalmoq so‘zi o‘rniga qattiq qayg‘urmoq, iztirob chekmoq, yuragi achishmoq degan ma’nolarni ifodalaydi.

Jon(i)	**o‘rtanmoq**	– Bobong aytir, bu dam o‘rtandi joni, Sansan bolam maning nomu-nishonim (1-kitob, ED. 200-bet).

Xulosa. Somatik frazeologizmlar vositasida har bir xalqning urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari va kundalik turmushidagi mushtarak tomonlar ifodalaniladi. Frazeologiyaning muhim qismi sifatida somatik frazeologizmlar ajratiladi. Inson somatizmlarni ko‘chma ma’noda, qiyoslashda, metaforalarda, frazeologizmlar va maqollarda ham qo‘llab, ular orqali o‘z fikrlarni boshqalarga yetkazishga harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gadoyeva M. O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarida somatik birikmalarning semantic tahlili, NamDU ilmiy axborotnoma, 2023. – B.424-428.
2. Gadoyeva M. Somatik leksikaning xususiyatlari. Sscientific progress, 2021. – B.1749-1754.
3. Madvaliyev A. va boshqalar O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI tomlik. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022. – B.962.
4. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N.,Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati, – T.: G‘afur G‘ulom. 2022. – B.636.
5. Xamdamova G. O‘zbek va ingliz tillarida somatizmlar asosida shakllangan maqollarning kognitiv-semantik va struktur xususiyatlari f.f.n. avtor. – Buxoro, 2023. – B.5.
6. Вакк Ф.О. Соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф.дисс…канд. филол. наук. – Таллин, 1964. – С. 23.

SOHALARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING QO‘LLANISHI.

SH.T.Djurayeva, TDTU katta o‘qituvchi,
CH.S.Xoshimova, TDTUkatta o‘qituvchi.

Annotasiya. Axborot texnologiyalari (inglizcha: Information Technology (IT) — bu **kompyuter tizimlari, dasturiy ta’minot, dasturlash tillari, ma’lumotlar, ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlashni** o‘z ichiga olgan tegishli sohalar to‘plami.

Аннотации. Информационные технологии (ИТ) — это совокупность соответствующих отраслей, включая компьютерные системы, программное обеспечение, языки программирования, обработку и хранение данных.

Abstract. Information technology (IT) is a collection of relevant industries, including computer systems, software, programming languages, and data processing and storage.

Kalit so‘zlar: axborot, marketing, kompyuter, robototexnika, telekamera, datchiq.

Keywords: information, marketing, computer, robotics, television camera, sensor.

Ключевые слова: информация, маркетинг, компьютер, робототехника, телекамера, датчик.

Axborot bilan qamrab olinmagan biror muhim xo‘jalik sektorini (ishlab chiqarish, transport, kredit-moliya sohasi, savdo) misol keltirish qiyin. Axborot texnologiyalari faqat fan va texnika hodisasi bo‘lmasdan, iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanmoqda. Ayni paytda kompyuterlar va aloqa vositalari asosida axborotni to‘plash, saqlash va taqdim yetishning zamonaviy usullari, yangi axborot texnologiyalari va xizmatlarni sotish (tarqatish) maqsadlarida ishlab chiqarish mustaqil tarmoq sifatida shakllandi va ajralib chiqdi. Shunday qilib, xalq xo‘jaligini axborotlashtirish kelgusiga yorib o‘tish demakdir.

Axborot texnologiyalari, shu jumladan, kompyuterlar keng qo‘llanilib kelayotgan ayrim sohalarni ko‘rib chiqamiz.

Biznes sohasi: Axborot texnologiyalari yangi korxona yoki firmaning muvaffaqiyat bilan faoliyat ko‘rsatishida katta rol o‘ynashi mumkin.

Masalan:

- biznes reja tuzishda va kutilayotgan daromad va chiqimlarni hisoblashda;
- kompaniya yoki firmaning yemblemasini va tegishli hujjatlarini tartibga keltirishda;
- kompaniya yoki firmaning taqdimot marosimini o‘tkazishda;
- reklamalarning loyihasini tuzish va reklama materiallarini tayinlash, hisobotlar, shartnomalarni tayyorlashda;
- mijozlar haqidagi ma’lumotlar ro‘yxatini saqlash va u bilan ishlashda;
- boshqa firmalar, potensial ta’minotchi, ulgurji xaridorlar bilan bog‘lanishda;
- mijozlar va ta’minotchilar bilan muzokara olib borish va hokazolarda.

Bank sohasi: Bank tizimi o‘zining ish faoliyatida axborot texnologiyalaridan keng foydalanish imkoniyatiga ega. Masalan:

- yil davomida sutkasiga 24 soat mijozlarga aloqa uchun va tegishli ma’lumotlarni olish, balansni tekshirish, hisobni to‘lash imkoniyatini yaratish;

- mijozlarga xizmat ko‘rsatish madaniyatini oshirish;

- kredit kartochkalari yordamida telefon yoki Internet orqali xizmatni yo‘lga qo‘yish va boshqalar.

Robototexnika sohasi: Ma’lumki, "robot" so‘zi bizning tilimizga ilmiy fantastikadan kirib kelgan. Birinchi bor bu so‘zni oltmish yil oldin taniqli chex fantast yozuvchisi Karel Chepek ishlatgan. Ammo "mexanik odamlar" undan oldinrok ham ma’lum yedi. O‘rta asrlarda inson iste’dodlariga yega bo‘lgan musiqachi-qo‘g‘irchoq yoki rassom-qo‘g‘irchoqlar paydo bo‘lganligi ma’lum.

Kompyuter asri boshlanishi bilan insonni og‘ir va zararli mehnatdan ozod yetadigan robotlar paydo bo‘ldi.

Ular garchi odam qiyofasida bo‘lmasa-da, ko‘plab funksiyalarni (ishlarni) bajara oladilar. Masalan, UzDAEWOO avto O‘zbekiston - Koreya qo‘shma avtomobil korxonasida turli ishlarni bajaradigan robotlar keng qo‘llanilmokda.

Bugungi kunda robotlar mashinasozlik zavodlarida, po‘lat quyish sexlarida, ximiyaviy laboratoriyalarda, qurilishda keng qo‘llanilmoqda. Robotlarni yaratish bilan shug‘ullanadigan texnikaning mahsus shohobchasi - robototexnika paydo bo‘ldi.

Robotlar orasida keng tarqalgani bu robot manipulyatorlardir. Manipulyatorlar - o‘ta sezgir va kuchli mexanik qo‘ldir.

Robotlarni kompyuter boshqarib turadi, ya’ni kompyuter robotning "miyasi"dir, ular telekameralar orqali "ko‘rib", mikrofonlar yordamida "yeshitadilar", ya’ni axborot qabul qiladilar. Mahsus datchiqlar "sezgi" organi vazifasini o‘taydi.

Marketing sohasi: Marketing inglizcha "market" (bozor) so‘zidan olingan bo‘lib, bozor, savdo sohasidagi faoliyatni anglatadi.

Marketingda eng asosiysi, bozorni, xaridorlar talab va yehtiyojlarini chuqur va har taraflama o‘rganish va ishlab chiqarishni shuning asosiga qurish, ikkinchi tomondan yesa bozorga, mavjud talab va ehtiyojga faol ta’sir ko‘rsatish, xaridorlarning muayyan mollarga bo‘lgan talablarini shakllantirishdan iborat.

Marketingni kompyuterlarsiz, axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Ishlab chiqarish sohasi: Ishlab chiqarishning deyarli barcha sohalarida kompyuterlar qo‘llanilib kelmoqda. Kompyuterlar ko‘pgina texnologik jarayonlarni boshqarmoqda. Ular yordamida yangi mahsulotning chizmasini yaratishdan toki tayyor mahsulot bo‘lib chiqqunga qadar bo‘lgan barcha jarayonlarni avtomatlashtirish mumkin.

Mahsulot shaklini konstruktor kompyuter ekranida chizib, tegishli o‘zgartirishlar yasab, qog‘ozga chop etishi mumkin.

Mahsulotni ishlab chiqarish uchun kerakli barcha qurilmaning imkoniyatlari, unga ketadigan sarf-xarajatlarni hisob-kitob kilishda va boshka ishlarni bajarishda ham kompyuter beg‘araz yordamchidir. Mahsulotni ishlab chiqarishda axborot asosiy kompyuterdan ishlab chiqarish liniyalariga yetkaziladi. U yerda axborotni qabul qilishga tayyor turgan robotlar kompyuter uzatgan dastur asosida mahsulotni yig‘a

boshlaydi. Tayyor mahsulotlar yesa robotlar yordamida tekshirilib, omborlarga jo‘natiladi.

Tibbiyot sohasi: Ma’lumki, shifokorga borishni ko‘pchiligingiz xush ko‘rmaysiz. Birinchidan, siz bemorsiz. Sog‘lom odam u yerga bormaydi. Ikkinchidan, u yerda hamma joyda navbatda turishga tug‘ri keladi. Masalan, registraturada kasallik varaqasi uchun, shifokorlar qabuliga kirish uchun va hokazo. Uchinchidan, shifokor yozib bergan dorilarni dorixonalardan izlash kerak bo‘ladi.

Kompyuterlarning shifohonalarda va poliklinikalarda paydo bo‘lishi ko‘p narsalarni, jumladan, yuqoridagi muammolarni ham tubdan o‘zgartirib yuboradi. Yendi siz tug‘ridan-tug‘ri shifokor huzuriga yul olasiz. Uning ish stolida odatdagi meditsina ish qurollaridan tashqari kompyuter ham joy olgan: uning xotirasida barcha bemorlarning kasallik tarixi yozib qo‘yilgan.

Agar siz oldin ham murojaat yetgan bo‘lsangiz, sizniki ham bo‘ladi. Birinchi bor murojaat yetayotgan bo‘lsangiz siz haqingizdagi barcha axborotni shu yerning o‘zida shifokor kompyuterga kiritib qo‘yadi. Kasalligingiz haqidagi barcha ma’lumotlar kompyuterga kiritilgach, sizning kasalligingiz haqida tashxis qo‘yiladi va chop yetish qurilmasi yordamida dorilar uchun retsept chop yetib beriladi. Retseptni olib, boshqa kompyuter yordamida ushbu dorilarni yeng yaqin bo‘lgan qaysi aptekalardan topish mumkinligi haqida axborot olishingiz mumkin.

Kompyuter meditsinada boshqa ishlarga ham qodir. Masalan, tomograf - ya’ni siljib harakatlanadigan rentgen apparati insonning ixtiyoriy organi haqida to‘liq ma’lumot olishi, ulardagi mikroskopik defektlar, chet jinslar (masalan, buyrakdagi tosh) haqida ma’lumot berishi mumkin. Tomograf uzatgan axborotni tezda qayta ishlash va yekranda ko‘rsatish uchun albatta u kompyuter bilan bog‘langan bo‘lishi shart.

Kompyuter va san’at: Kompyuterning san’atga qanday aloqasi bor? Kompyuterlar aniq programma asosida ishlaydi. San’at yesa - bu ijod, fantaziyadir. Lekin bu sohada ham kompyuter ijod ahliga yordam berishi mumkin.

Kompozitor musiqa yaratishda kompyuterdan unumli foydalanishi mumkin. Buning uchun kichik royal yoqi yelektroorgan yordamida kompyuterga ulanib yozayotgan musiqa notalarini yekranda ko‘rib turgan holda yangi asar yaratishi va shu yerning o‘zida, shu onda yeshitib ko‘rishi ham mumkin.

Kompyuterlar rassomlarga ham ko‘p yoqib qolgan. Kompyo‘ter grafikasi bo‘yicha birinchi ko‘rgazma 1956yili o‘tkazilgan. Turli yeskizlar, chizmalar va rasmlar chizishda rassomlar kompyuterdan foydalanib kelmoqdalar.

Bundan tashqari, kino va televidenieni ham kompyuterlarsiz tasavvur yetish qiyin. Hozirgi davrda turli joylarda, mintaqalarda, hatto qit’alarda yashaydigan insonlar ishtirokida telekonferensiyalar o‘tkazish an’anaga aylanib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Информационные технологии и вычислительные системы: Высокопроизводительные вычислительные системы. Математическое моделирование. Методы обработки информации / Под ред. С.В. Емельянова. - М.: Ленанд, 2012. - 100 с.

2. Александров, А.Ю. Математическое моделирование и исследование устойчивости биологических сообществ: Учебное пособие / А.Ю. Александров, А.В. Платонов и др. - СПб.: Лань, 2017. - 320 с.

3. Клейнрок Л. Вычислительные системы с очередями// Москва, Мир, 2018, С. 512.

4. Флинт Д. Имитпционное моделирование. //Москва, Финансы и статистика, 2014. С.348.

5. Dinora Jalilova, Aysulu Najimova, Khurshida Khalikova, Shoxida Akbarova. Energy efficiency of energy-intensive productions and technologies. E3S Web of Conferences 461, 01095 (2023).

6.Gulnara Rafikova, Ruslan Mustaev, Ramziddin Pirimov, Feruza Zokirova. Increasing the environmental cleanness of industrial enterprises. E3S Web of Conferences 461, 01100 (2023). https://doi.org/10.1051/e3sconf/202346101100

GENDER TENGLIK MUNOSABATLARINI TA’MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK OMILLARI

Umirova Gulnoza Zakirbayevna
Urganch davlat pedagogika instituti doktoranti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada gender tenglik munosabatlari ta’minlashning ijtimoiy-psixologik omillari, bunda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash, xotin-qizlarni turli tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish hamda ayollarning jamiyat hayotida tutgan ro‘lini oshirish bilan bog‘liq bir qator masalalar o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada xotin-qizlarning huquqiy va iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularning turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, reproduktiv salomatligini mustahkamlash, ayollar va erkaklarning jamiyat va oiladagi an’anaviy rolini o‘zgartirish masalalari bo‘yicha muhim tavsiyalar ilgari surilgan. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar mazkur muammoni o‘rganish bugungi kunda juda dolzarb ekanligini ko‘rsatmoqda.

Kalit so‘zlar: oila, jamiyat, islohot, milliy qadriyatlar, gender tenglik, inson huquqlari, jins, xotin-qizlar, erkaklar, oilaviy munosabatlar, er-xotin, ota-ona, farzand, rol, mehnat taqsimoti, tazyiq, zo‘ravonlik.

Аннотация. В данной статье исследуются социально-психологические факторы обеспечения гендерного равенства, включая вопросы обеспечения равных прав и возможностей для женщин и мужчин, защиту женщин от различных видов давления и насилия, а также повышение роли женщин в общественной жизни. Также в статье представлены важные рекомендации по улучшению правового и экономического положения женщин, улучшению условий их жизни и труда, укреплению репродуктивного здоровья, изменению традиционной роли женщин и мужчин в обществе и семье. Проведенные исследования показывают, что изучение этой проблемы в настоящее время является крайне актуальным.

Ключевые слова: семья, общество, реформы, национальные ценности, гендерное равенство, права человека, пол, женщины, мужчины, семейные отношения, супруги, родители, дети, роль, трудовое разделение, давление, насилие.

Abstract. This article explores the social-psychological factors of ensuring gender equality, including ensuring equal rights and opportunities for women and men, protecting women from various forms of pressure and violence, and increasing the role of women in public life. Additionally, the article presents important recommendations for improving the legal and economic status of women, improving their living and working conditions, strengthening reproductive health, and changing the traditional roles of women and men in society and the family. The research conducted in this field indicates that studying this issue is highly relevant in today’s context.

Keywords: family, society, reforms, national values, gender equality, human rights, sex, women, men, family relationships, spouses, parents, children, role, division of labor, pressure, violence.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish masalalari bo‘yicha mustahkam huquqiy asoslar yaratildi. Istiqlol yillarida mamlakatimizda gender tenglikni ta’minlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, parlament Yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasining Gender tenglikni ta’minlash masalalari bo‘yicha komissiyasi, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahat-kengashlari, Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etildi. Bugungi kunda islohotlar samarasi sifatida jamiyatimiz hayotida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratilganligi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta’minlanayotganligi, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ularni har xil tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilayotganligi quvonarli holdir

Ma’lumki, “gender” tushunchasining lug‘aviy ma’nosi lotincha “genus”, ya’ni “jins” ma’nosini anglatib, jamiyatda har ikki jins vakillari o‘zlarining shaxsiy fazilatlarini namoyon qilish uchun teng, bir xil sharoit va imkoniyatlarning mavjudligini anglatadi. Biologik Biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratsa, gender esa – ayol va erkaklarning jamiyatdagi statusini ajratishga qaratilgan. Jamiyatda ayol va erkaklarning o‘z o‘rnini topishi va belgilashi uchun davlatning ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi gender tenglikni ta’minlashda asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham o‘tgan davr mobaynida O‘zbekistonda erkaklar va ayollar o‘rtasida to‘liq tenglikka erishishga, ayniqsa, xotin-qizlarning huquqiy va iqtisodiy ahvolini, ularning turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilashga, reproduktiv salomatligini saqlashga, shuningdek ayollarning ham, erkaklarning ham jamiyat va oiladagi an’anaviy rolini o‘zgartirishga qaratilgan siyosat qonun chiqaruvchilik va ijro etuvchilik darajalarida olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab uning inson huquqlariga oid asosiy g‘oya va qoidalarini o‘ziga singdirgan xalqaro huquqiy hujjatlar – Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” hamda “Bolalar huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasi qoidalariga mos ravishda oilani mustahkamlash, uning har bir a’zosi haq-huquqlarini himoya qilish, oilaviy munosabatlarda o‘z huquq va erkinliklaridan to‘laqonli foydalanishlari uchun imkoniyatlar yaratishga yo‘naltirilgan milliy qonunchilik bazasi yaratildi va yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga hamohang tarzda doimiy ravishda takomillashib bormoqda. Jumladan, xalqimizning milliy o‘ziga xosligi, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan urf-odat va an’analarimiz, qadriyatlarimizga bo‘lgan hurmat va ishonch ramzi sifatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga “Oila” deb nomlangan alohida bob kiritilib, uning 63-moddasida oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, u jamiyat va davlat muhofazasida ekanligi qat’iy kafolatlab qo‘yildi.

ASOSIY QISM

Jahon pedagogikasi va psixologiyasida oilaviy munosabatlarda gender tenglik masalasini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Masalan, amerikalik tadqiqotchi Devid Mayyers jins, genlar va madaniyat masalalarini o‘rganar ekan, genderni – erkaklik va ayollik xususiyatlarini tavsiflovchi tushuncha sifatida, jinsiy tafovutlarni o‘rganish xotin-qizlarning erkaklarga nisbatan anchagina masalalarda ustunlikka ham ega ekanligini alohida ta’kidlaydi. Uning fikricha, ayollardagi tajovuzkorlikning kamligi, o‘zgalarga g‘amxo‘rlik va o‘zgalar tashvishlariga nisbatan befarq bo‘lolmaslik, hamdardliklari aynan ularning jamiyatda tutgan foydali mavqelarini belgilashi mumkin. Aynan ayollar, boshqa tadqiqotchilarning fikricha, insonlar bilan bo‘ladigan munosabatlarda iliqlik, yaqinlik tarafdorlaridir.

Mamlakatimizda ham gender masalasi ko‘pincha oila muammolari doirasida o‘rganilishi an’anaga aylangan. Jumladan, mamlakatimizda psixologiyasida mamlakatimiz psixologiyasida E. G‘oziyev, G‘. Shoumarov, V. Karimova, A. Jabborov, I. Yokubov, B. Qodirov, S. Mirxosilov, E. Usmonov, N. Sog‘inov, F. Akramova, L. Karimova, N. Salayeva, O. Shamiyeva, O. Abdusattorova, M. Fayziyeva, I. Jabborov va boshqalar tomonidan oilaviy hamda shaxslararo o‘zaro munosabatlar doirasida alohida ahamiyat kasb etgan gender tafovutlar o‘rganilgan. E. G‘oziyev oilaviy munosabatlarda gender tenglik masalalariga to‘xtalib, oila but bo‘lishi uchun birinchi navbatda, shaxslararo tenglikni qaror toptirish kerakligini ta’kidlaydi. Bunda ikki yosh, ya’ni bo‘lg‘usi kuyov-kelinlar bir-birlarini chuqurroq o‘rganishlari, ayrim nuqsonlardan ko‘z yumushlari zarur. Yoshlarni qiyinchiliklarni yengishga, o‘zgacha shart-sharoitga ko‘nikishga bolalikdan o‘rgatib borish lozim. Oilada mehnat taqsimotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish ayni muddaodir, deydi muallif. V. Karimovaning oila va oilaviy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik omillari va oqibatlariga bag‘ishlangan asarlarida oilada yoshlarni gender munosabatlarga tayyorlash, gender tasavvurlarning shaxs tarbiyasidagi o‘rni, er-xotin va oiladagi salbiy munosabatlarning bola shaxsiga ta’siri masalalariga ko‘proq e’tibor qaratadi. Uning fikricha, oiladagi o‘zaro munosabatlarning asosini tashkil etgan oilaviy rollarga oid tasavvurlar va ularning differensiatsiyasi o‘zining yosh, hududiy va jinsiy xususiyatlariga ega bo‘lib, ular avvalo har bir oilaning ruhiy ma’naviy muhiti, u yerdagi milliy qadriyatlar, an’analar, rasm-rusumlar qanchalik saqlanib qolganligiga ham bog‘liqligi asoslangan. Muallif nikoh yoshigacha bo‘lgan yoshlar bilan oilali er-xotinlarning oilaviy ijtimoiy tasavvurlari o‘rtasidagi asosiy farqlarni psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, uning sabablarini ko‘rsatib o‘tgan. Ota-ona munosabatlarining farzandlarga gender ta’siri muammosi M. Salayeva tadqiqotlarining predmetiga aylangan. Jumladan, u qo‘lga kiritgan xulosalardan biri, o‘zbek oilalarida otalarga nisbatan onalarning farzandlariga o‘ta g‘amxo‘rligi, ya’ni ularni qiyinchiliklardan saqlash, ziyon yetkazib qo‘yishdan qo‘rqish, farzandining o‘ziga bog‘langanligi va tobeligini rag‘batlantirish, ularda shahvoniylik va tajovuzkorlikni bosish kabi xususiyatlarning kuchligigi, onalarda otalarga qaraganda demokratiklilikning kuchliligi isbotlangan.

M.Fayziyevaning tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, o‘zbek oilalarida shaxslararo munosabatlar barqarorligini belgilashda er-xotin munosabatlaridagi o‘zaro hurmat va ishonch, bir-birini yaxshi tushunish, farzandlar, muomala odobi, onglilik va ma’naviy axloqiy mavqe, uning moddiy ta’minlanganligi, uy-joy bilan ta’minlanganlik, rollar taqsimotining mosligi, jinsiy moslik muhim omillar hisoblanadi. Muallif oilaviy nizolarning shakllanishi va ularning buzilib ketishida er-xotin fe’l-atvorining mos kelmasligi, farzandsizlik, sevgi va mehr-muhabbatning yetarli emasligi, ola budjetini oqilona boshqara olmaslik asosiy omillar bo‘lib, ro‘zg‘or ishlarining saranjom-sarishta va orasta emasligi, iqtisodiy ta’minotdagi kamchiliklar, rashk va ishonchsizlik, ota-onalarning er-xotin munosabatlariga aralashuvi, dunyoqarash va maslaklarning nomuvofiqligi, jinsiy nomoslik kabi omillar ham oilaviy munosabatlarda ziddiyatlarni kelib chiqarishda muhim o‘rin tutadi, deydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shubha yoqki, qaysidir jamiyatda gender tenglik ta’minlanmas ekan, u jamiyatda rivojlanish bo‘lmaydi, sababi ayol va erkak huquqlari buzilar ekan, o‘sha jamiyatning ijtimoiy hayotida tengsizlik yuzaga keladi, mehnat unumdorligi pasayadi, iqtisodiy o‘sish sekinlashadi, farzandlar nosog‘lom tug‘iladi, qashshoqlik darajasi ortib boradi. Qizlar bolaligidanoq asrlar davomida qaror topgan ayollik vazifalarini bajarishga tayyorlanadi, ularda sustkashlik, yuvoshlik va itoatkorlik ruhi tarbiyalanadi; erkaklar oila budjetini shakllantirishda ishtiroklari hissasi yuqori bo‘lganligi tufayli oilada hukmron mavqeni egallaydilar; uy-ro‘zg‘ordagi vazifalar taqsimlanishida notenglikka yo‘l qo‘yiladi va hokazo.

Oilaning jamiyatda tutgan o‘rni, oila tarbiyasi, ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, oilaning pokligi va mustahkam bo‘lishiga oid qimmatli fikrlar hadislarda muhim o‘rin egallaydi. Bunda oilaviy hayotning asosiy tashkilotchilari va a’zolari bo‘lmish er va xotinning har biriga o‘ziga xos burch va vazifalar yuklangan, bir-biriga nisbatan haq-huquqlari ham belgilab berilgan. Islom ta’limoti ayollarni ilm olish, mehnat qilish, meros huquqi, jamiyat taraqqiyotida faol qatnashishda erkaklar bilan teng huquqli qildi.

Bugungi davrda ustuvor bo‘lgan qarashlarda ham jamiyatning qanchalik taraqqiy etgani uning ayolga munosabati nechog‘lik go‘zal va ma’naviy asosga ega ekani bilan belgilanishi ta’kidlanadi. Buyuk shaxsni buyuk ona tarbiyalaydi” degan naql bor. Buyuk onalarni tarbiyalash esa yana o‘sha oila atalmish muqaddas dargohning holati va muhitiga kelib taqaladi. Ona hurmat topgan oilada farzand ham oqil bo‘lib o‘sadi. Bolalikda ayolga hurmatsizlik namunalarini ko‘rib ulg‘aygan bola esa kelajakda o‘z oilasini ham mustahkam saqlay olmaydi. Oilasining sha’ni va nomusini himoya qilishga qobil bo‘lmaydi. Shu bois, farzand bu mas’uliyatning nechog‘lik sharaf ekanini bolalikdanoq ko‘rib, tushunib yetishi kerak. Ona hurmat ko‘rmay o‘tgan oilada balog‘atga yetgan qiz ham turmush shunday ekan, degan tasavvur bilan ulg‘ayadi. Oilalarda ma’naviy-axloqiy muhitni barqarorlashtirish va gender tenglikni ta’minlashda erkakning ham, ayolning ham o‘z o‘rni bor. Oilaviy hayot masalalarida erkak va ayol jamiyatdagi meyorlarga amal qilishi, zimmasidagi burch va vazifani qonun doirasida, adolat tamoyillariga rioya qilgan holda bajarishi,

oila boshqarishni bilishi, yoshlarni o‘z ortidan ergashtira oladigan, turli ishlarga chiroyli tarzda safarbar eta oladigan salohiyatga ega bo‘lishi, nafaqat oila a’zolariga, balki jamiyatning barcha a’zolariga ibrat bo‘lishi zarur. Er va xotinning gender tenglik masalasida bir-birlarini tushunishi, hurmat qilishi, oilaviy masalalarni birgalikda hal qilishga harakat qilishi oilada yuzaga keladigan har qanday nizo, ixtilof va muammolarni tinch yo‘l bilan bartaraf qilishga imkoniyat yaratadi. Sababi, ota-ona, kelajak avlod egalari – yoshlar uchun ibrat ko‘zgusidir.

XULOSA

Yuqorida fikrlarga xulosa sifatida aytganda, oilaviy munosabatlar hamda bolalar tarbiyasi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash muammosi juda dolzarb bo‘lib, maqsadga erishish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

– oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda barcha oila a’zolarining mas’ulligini oshirish, biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha amaldagi mexanizmlarni takomillashtirish;

– erta nikoh, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi nikoh, erta tug‘ruq, oilaviy ajralishlarning yuzaga kelish sabablari hamda shart-sharoitlarini tahlil qilish, bu borada ilmiy, amaliy hamda fundamental tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash;

– asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlar, ijobiy urf-odatlar va an’analar asosida oilalarni mustahkamlash, oilaviy ajralishlarning oldini olishda davlat organlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari o‘rtasida ijtimoiy sheriklik munosabatlarini mustahkamlash;

– oilaviy munosabatlarda xotin-qizlar va erkaklarning o‘rni haqida jamiyatda shakllangan salbiy qarashlarni o‘zgartirish, bu borada ommaviy axborot vositalari ishtirokida targ‘ibot-tashviqot ishlarini qo‘llab-quvvatlash;

– ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirishda xotin-qizlar bilan bir qatorda erkaklarning mas’uliyati hamda rolini oshirish;

– oilaviy hayotga oid muammolar, psixologik-pedagogik, huquqiy va boshqa masalalar yuzasidan xotin-qizlar va erkaklar uchun maslahatlar berish tizimini yanada takomillashtirish;

– oilalarni yoshlarning axloqiy negizlarini buzishga olib keladigan, oilaviy qadriyatlarni inkor etadigan, axloqsizlikni targ‘ib qiladigan, shuningdek ota-onasiga va oilaning boshqa a’zolariga nisbatan hurmatsizlik munosabatini shakllantiradigan, jinslardan birining ustunligi g‘oyasiga asoslangan noto‘g‘ri tasavvurlardan himoya qilish;

– xotin-qizlar va erkaklarning oilaviy munosabatlardagi huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari to‘g‘risida axborot-ma’rifiy faoliyat samaradorligini oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi SQ–297-IV-sonli qarori. Lex.uz.

2. Yoziyev E. Ta’lim muassasalarida gender-menejmentning zamonaviy psixologik masalalari: muammo, yechim va takliflar. “Zamonaviy ta’lim/ Современное оброзование” jurnali. 2017, 3-son.

3. Ijtimoiy psixologiya. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012, – B. 172.

4. Salayeva N. Xorazm oilalarining etnopsixologik xususiyatlari. / Psixol. fan. nomz. diss. – T., 2001. – B. 162.

5. Fayziyeva M., Jabborov A. “Oilaviy munosabatlar psixologiyasi”. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2007. – B. 144.

6. Shoumarov G‘.B. Oila psixologiyasi.: Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun. – T.: Sharq. – B. 140.

7. G‘oziyev E. Psixologiya metodologiyasi. – T.: 2002. – B. 174.

IQTIDORLI YOSHLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Xo‘jayeva Nozima Qadamboyevna
Urganch davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola, aynan, iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashning pedagogik shart-sharoitlarining ahamiyati va bugungi kun o‘quvchilarining iqtidorlilik qobiliyatlarini anqlash usullari, bu soha bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlardan xulosalar va fikrlar baayonidan iborat.

Kalit so‘zlar: Qobiliyat, intellektual salohiyat, individual yondashuv, iqtidor, akademik qobiliyat, ijodiy qobiliyat, differensiallik, kreativlik.

Abstract. This article is a summary of the importance of pedagogical conditions for supporting gifted students and methods for identifying the gifted abilities of today's students, as well as conclusions and thoughts from research conducted in this area.

Key words: Ability, intellectual potential, individual approach, talent, academic ability, creative ability, differentiation, creativity.

Аннотация. Данная статья состоит из описания значения педагогических условий поддержки одаренных учащихся и методов выявления одаренных способностей современных школьников, выводов и мнений из исследований, проводимых в этой области.

Ключевые слова: Способности, интеллектуальный потенциал, индивидуальный подход, талант, академические способности, творческие способности, дифференцированность, креативность.

Iste’dodli odamga - dag‘allik,
qobiliyatsizga - mansab yarashmaydi.
Juvayniy

Hozirgi rivojlanib borayotgan bir davrda jahon andozalariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ta’lim-tarbiya sohasi oldiga fan-texnika va texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlaridan keng foydalanish orqali mustaqil fikrlovchi, ijodkor, milliy mafkuramizga sadoqatli, dunyoqarashi keng intellektual salohiyatli barkamol shaxsni shakllantirish talabini qo‘ymoqda.

Muayyan sohada iqtidorga ega shaxslarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash maqsadida pedagogik, psixologik, ijtimoiy shart-sharoitlar yaratish, ularning ma’naviy-ruhiy kamoloti, aqliy-ijodiy iqtidorini oshirishning zarur me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4306-son qarori aynan iqtidorli bolalar bilan ishlashni takomillashtirishni nazarda tutadi.

Iqtidorli o‘quvchilar – bu o‘z yoshidan kelib chiqib, o‘zlariga xos qobiliyat va iste’dodlarga ega bo‘lgan shaxslar. Bundan tashqari, ular o‘zida maxsus qobiliyat, ijodiy fikrlash va o‘z maqsadlariga erishish uchun yuqori motivatsiyaga ega hisoblanadi. Ular ko‘pincha o‘qituvchilardan alohida e’tibor va yondashuvni talab qiladi. Iqtidorli o‘quvchilar bilan samarali ishlash uchun pedagogik metodlar va ijtimoiy shakllarni to‘g‘ri tanlash muhimdir. Ularning iqtidorini rivojlantirish va

qo‘llab-quvvatlash jamiyatning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Iqtidorli yoshlar bilan ishlashda to‘g‘ri yondashuv ularning individual xususiyatlarini inobatga olishni talab etadi. Har bir iqtidorli shaxs o‘ziga xos qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga ega. Ularni aniqlash va rivojlantirish jarayonida tarbiyachilar, o‘qituvchilar va ota-onalarning roli juda muhimdir. N. Ojegovning lug‘atida iste’dod “tabiat tomonidan berilgan maxsus qobiliyat”, deb ta’riflanadi. Shuning uchun, ota-onalar, psixologlar va o‘qituvchilar bolaning iqtidorini rivojlantirishga e’tibor berishlari kerak. Albatta, iqtidorli yoshlarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi lozim:

Iqtidorli o‘quvchilarning qobiliyatini yuzaga chiqarish uchun individual yondashuv asosida har bir shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ularning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shaxsiy reja tuzish zarur.

Keyingi jarayonda innovatsion ta’lim usullari, zamonaviy texnologiyalar va pedagogik metodlardan foydalanish iqtidorli yoshlarni jalb etadi. Masalan, interaktiv darslar, loyihalar orqali ta’lim berish va gamifikatsiya usullari samarali hisoblanadi.

Bundan tashqari, o‘qituvchilar o‘z talabalari uchun motivatsiya manbayi bo‘lishi kerak. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga qarab, stipendiyalar, mukofotlar yoki boshqa rag‘batlantiruvchi mexanizmlar yordamida iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash mumkin. Iqtidorli yoshlarni bir-biriga munosabatlarni shakllantirish, ularning fikr almashishini ta’minlash hamda tajriba almashishi uchun turli xil tarmoq dasturlarini yaratish, ota-onalar ham iqtidorli yoshlarning rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning psixologik qo‘llab-quvvatlashi, qiziqishlarini yengillashtirishi va ularning faoliyatini rag‘batlantirishi va o‘qituvchilar iqtidorli yoshlarning psixologik holatini tushunishi lozim. Ularni stressdan himoya qilish va sog‘lom psixologik muhit yaratishga e’tibor berilishi kerak.



Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, bugungi kun o‘quvchilarida iqtidorlilik qobiliyatini rivojlantirishga yordam beruvchi quyidagi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarni klaster shaklida belgilab olish mumkin:

Shu o‘rinda savol tug‘iladi, o‘quvchilarning iqtidorlilik qobiliyatini qanday yo‘llar orqali aniqlash mumkin? Bunda quyidagicha usullardan foydalansa bo‘ladi:

a) o‘quvchilar va ularning ota-onalari o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish;

b) o‘quvchilarning qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan turli topshiriqlardan iborat psixodiagnostik testlar, treninglar o‘tkazish;

c) o‘quvchining oilaviy, ijtimoiy holatini o‘rganish;

d) o‘quvchilarning ota-onalari bilan muntazam ravishda hamkorlik olib boorish;

e) o‘quvchilarni turli xil fan olimpiadalariga, musobaqalarga, kreativ, ilmiy loyihalarga va ijtimoiy tadbirlarga jalb etish.

Bundan tashqari, rossiyalik olim V. Yurkevich iqtidorning 3 ta asosiy turini ajratadi va bularni maktablarda hisobga olinishi kerak deb hisoblaydi:

1) akademik qobiliyat – o‘qish, ilmiy faoliyat uchun aniq ko‘rinib turgan qobiliyat;
2) intellektual qobiliyat – dallilarni tahlil qilib, qiyoslab fikrlash qobiliyati;
3) ijodiy qobiliyat – biron bir san’at, she’riyat yoki nosandart fikrlash qobiliyati.

Olimning fikriga ko‘ra, iqtidrli bolalarni bilishga qiziqish birlashtiradi, ular bilimga chanqoq va o‘z aqliy mehnatlaridan qoniqadi. Iqtidorning boshqa belgilari, ya’ni kattalar bilan munosabatga kirishish, yuqori hissiyotlilik, yumor qila olish, o‘zgacha nutqqa ega bo‘lish kabilarni sanab o‘tadi. O‘zbekistonda esa, aynan, bu soha bo‘yicha, ya’ni iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash xususiyatlari yuzasidan Z. Narimbetova tadqiqot olib brogan. U, asosan, iqtidorli bolalarni o‘qitishda, asosan, o‘qituvchi mahoratiga e’tibor qaratgan.

Iqtidorli bola – bu tabiatning ajoyib mo‘jizasi. Bu kabi bolalarni ota-onalar, o‘qituvchilar va ijtimoiy muhitning psixologik-pedagogik, ma’naviy-ma’rifiy qo‘llab-quvvatlashi, ularga bo‘lgan ishonchi, aynan, ulardagi mavjud iqtidorlilik qobiliyatini yanada rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa sifatida, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash nafaqat ta’lim tizimining vazifasi balki butun jamiyatning mas’uliyatidir. Ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va ularga imkoniyat yaratish orqali biz kelajak avlodni yanada kuchaytiramiz. Pedagogik shart-sharoitlar bu jarayonni yanada samarali qilishda muhim rol o‘ynaydi va har bir mutaxassis ushbu masalaga jiddiy yondoshishi lozimdir.

Bunday iqtidorlilarni tarbiyalagan holda biz ilm-fan, san’at va boshqa sohalarda yangi yutuqlarga erisha olamiz hamda jamiyatimizni yanada ilg‘or qilib shakllantiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin M. G. va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1997.
2. X. Beknazarova. “Iqtidorli yoshlar ta’limi differensial ta’limning asosiy yo‘nalishi sifatida” Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 3, no. 5, 2023, pp. 1150-1153.
3. S. Allayarova, M. Norbutayeva. “iqtidorli bolalarni o‘qitishning pedagogik xususiyatlari” Academic research in Educational Sciences. May, 2024, pp. 265.
4. Z. Narimbetova “Maktabda iqtidorli bolalar bilan ishlash xususiyatlari” Экономики и социум, 2021, ст. 922.
5. https://diss.natlib.uz/
6. www.ziyonet.uz

MAKTAB TA’LIMIDA XALQARO TADQIQOTLARNIN AHAMIYATI VA O‘QUVCHILARNI MAZMUNLI GAPIRISH, O‘QIB TUSHUNISH, MATN BILAN ISHLASHGA O‘RGATISH

Polvonova Shahnoza Faxriddinovna
NDPI 2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada matn mazmunini o‘qib tushunish va mazmunli gaprirish orqali inson psixologiyasiga ta’sir etish, matn o‘qish orqali individual fikrlashni rivojlantirish kabi masalalar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: matn, individual fikrlash, mazmunli gapirish, kakografiya metodi

Abstract. The article examines issues such as reading and understanding the content of the text and influencing human psychology through meaningful speaking developing individual thinking through reading the text.

Key words: text, individual thinking, meaningful speaking, cacography method

Аннотация. В статье рассматриваюся такие вопросы, как чтение и понимание содержания текста и влияние на психологию человека постредством осмысленной речи, а также развитие индивидуального мышление посредством чтение текста.

Ключевые слова: текст, индивидуальное мышление, осмысленная речи, какография.

KIRISH

Bugungi kunda ta’lim sifatini baholash boyicha PISA, PIRLS, TIMSS kabi tadqiqotlarda munosib ishtirok etish mamlakatimiz xalq ta’limi tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Mana shu dastur orasida PISA tadqiqoti o‘quv jarayoniga zamonaviy usullarni olib kirish, ta’lim oluvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilganligi bilan ahamiyatlidir.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Ma’lumki, ona tili ta’limining bosh maqsadi og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmasi, to‘g‘ri va ifodali o‘qish va ifodali fikrlash malakasini tarkib toptirish, o‘quvchilarni imlo va uslubiy jihatdan savodxon qilishdan iborat. Ona tili darslarida og‘zaki hamda yozma nutq ko‘nikmasini shakllantirish ancha murakkab jarayon bo‘lib, unda savodxonlik, ijodiylik, fikrni aniq, qisqa va tushunarli tarzda bayon eta olish muhim hisoblanadi. Yozma nutq savodxonligi o‘quvchidan o‘z fikr-qarashlarini tilning imloviy-grammatik qoidalari, adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda ifodalashni talab etadi. Bu talab qilinganlar orqasida og‘zaki nutq alohida ajralib turadi. Chunki og‘zaki nutqda o‘quvchining fikrlash qobiliyati, tafakkuri, dunyoqarashi, ohangni o‘z o‘rnida qo‘llashi muhim hisoblanadi.

MUHOKAMA VA TAHLIL

Oldingi darsliklarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ko‘proq grammatik qoidalar va grammatik topshiriqlar ko‘p ekanligiga guvoh bo‘lamiz. O‘quvchi tayyor qoidalar asosida ishlash bilan cheklanib qolgan edi, mustaqil fikrlashdan uzoqlashib ketgan edi. Bugungi kunga kelib darsliklarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, matnlarni tahlil qilishda, og‘zaki va yozma nutqni shaklantirishda matnni o‘qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so‘zlash va yozma savodxonlik kabi tamoyillardan foydalanilmoqda. Shuningdek,

tegishli fanlar kesimida o‘quv dasturi va darsliklar xalqaro baholash dasturi talablari asosida takomillashtirilmoqda. Jumladan, 2020-2021-o‘quv yilida 5-sinf ona tili o‘quv dasturlarida tubdan o‘zgarish bo‘ldi va darslik qayta ishlandi. Yangi dastur mazmuni nazariya va amaliyotga birday yo‘naltirildi. Amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan mashq va topshiriqlar ularning mazmuniga singdirildi. Darslikka matn va lug‘at bilan ishlash rukni kiritildi.

O‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish maqsadida ikki yuzga yaqin so‘zlarning izohli lug‘ati berildi. Matnlar bilan ishlash uchun to‘rt ko‘nikma: tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish bo‘yicha malaka talablari ishlab chiqildi. Buning natijasida o‘quvchi, avvalo, matn tuzish texnikasini o‘rganadi. Mustaqil matn tuzib, fikrini bemalol yozma bayon eta oladigan bo‘ladi. Matn, lug‘at, nutq bilan ishlash jarayonida qanday so‘zlardan foydalanish kerakligini, qaysi so‘z qo‘llansa, o‘rinli bo‘lishini anglab yetadi.

Tilning o‘ziga xos nafosatini o‘quvchilarga yetkazish, his qildirish, sezish va undan oqilona foydalanish maqsadida hozirda ona tili ta’limida an’anaviy usullardan tashqari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanilmoqda. Keyingi yillarda *breynrayting, breynstorming, aqliy hujum, bumerang, blits-so‘rov, klaster, keys-stadi, germenektiv suhbat* kabi turli tuman metodlar paydo bo‘ldi.

Kakografiya interfaol usullardan biri sifatida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, narsalarni bir-birlari bilan solishtirishga, izlanishga, masalaning yechimini topishga, eng muhimi ona tili darslarida olingan bilim va malakalariga asoslanib, muayyan mavzular bo‘yicha zaruriy xulosalar chiqarishga yordam beradi.

Tajribamizdan ma’lumki, o‘quvchilarning aksariyati ona tili darslarida imlo qoidalarini puxta o‘zlashtirmaydilar. So‘zlarni qanday aytilsa, shunday yozilishiga odatlanib qoladilar. Shuningdek, o‘quvchilarning nutqidagi dialectal xatoliklar ularning savodxonligiga soya solidi. Bu esa bora-bora ulardagi savodxonlik darajasining qotib qolishiga, so‘zlarning muntazam ravishda xato yozilishiga sabab bo‘ladi. Masalan, o‘quvchilarning og‘zaki nutqida *baho, bahor, bilan, yulduz, teatr, savol, orden, obod, marvarid, shanba, mas’ul, daryo kabi* so‘zlarni *boho, bohor, blan, yuldiz, tiatr, sovol, ordin, obot, marvarit, shamba, ma’sul, darya* tarzida talaffuz qilish va shu asosda xato yozish amaliyoti ko‘pincha uchraydi.

Nutqiy koptensiyalarni rivojlantirishda ona tili darslarida mustaqil nutq tayyorlash muhim o‘rin tutadi. Insonda ma’lum bir ehtiyoj tufayli muloqotga kirishishga istak-xohish yuzaga keladi.

Список использованной литературы:

1. Казак Волфганг. Лексикон русской литературы. -М. Рик «Культура». 1996.-С.406

2. Зульфикаров Темур. Письмо Александру Пушкину в райские сады. Стихи.ру

3. Цветаева Марина. Избранное/Сост.коммент. Л.А.Беловой.- М.:Просвещение, 1989.-С.164.

AHMAD YASSAVIY HIKMATLARINING BADIIY TAHLILI (“AVAZ”ROMANI TALQINIDA)

Kurbanova Sarvinoz Azatbay qizi
UrDPI talabasi sarvinozsaparboyeva39@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Sa’dulla Siyoyevning “Avaz” romonida keltirilgan Yassaviy hikmatlari badiiy jihatdan tahlil qilinadi. Asar obrazi Matpano tilidan aytilgan to‘rtliklarning roman mavzusiga mutanosibligi, asarda tasvirlangan hayotga mosligi va o‘sha davrdagi qalandarlik borasida fikr yuritiladi. Yassaviy hikmatlarining roman syujetidagi roli va ahamiyati borasida mulohazalar yuritiladi.

Аннотация. В статье содержится качественный анализ мудрости Яссави в романе Саъдуллы Сиёева “Аваз”. Характер произведения выражен языком матпано, обсуждается соразмерность катренов теме романа, их совместимость с жизнью, изображенной в произведении, а также остальная часть того периода. Обсуждаются роль и значение мудрости Яссави в сюжете романа.

Abstract. The article contains a high-quality analysis of Yassavi's wisdom in the novel “Avaz” by Sa’dulla Siyoyev. The character of the work is expressed in the Matpano language, the proportionality of the quatrains to the theme of the novel, their compatibility with the life depicted in the work, and the rest of that period are discussed. The role and importance of Yassavi's wisdom in the plot of the novel are discussed.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, ma’naviy hayot, hikmat, qalandar, ruhiy uyg‘oqlik, poklanish ramzi, darvesh.

Ключевые слова: Суфизм, духовная жизнь, мудрость, Каландар, духовное пробуждение, символ очищения, дервиш.

Key words: Sufism, spiritual life, wisdom, Qalandar, spiritual awakening, symbol of purification, dervish.

KIRISH

Tasavvuf adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo‘lgan Ahmad Yassaviyning hikmatlari Islom dini tarixida katta ahamiyatga ega. Uning to‘rtliklari tarixiy taraqqiyot mobaynida barcha dinparvar shaxslar tomonidan o‘rganilgan. Adibning hayot faoliyati, hikmatlari maqola manbayi bo‘lgan “Avaz” romanida qo‘llanilgan o‘rinlar bor. Maqolada ana shu hikmatlarning roman mazmun mohiyatidagi tutgan o‘rni xususida fikr-mulohazalar yuritiladi. Har bir asarda g‘oyaviy mazmunga xos bo‘lgan to‘rtliklar, maqol, matal, hikmatli so‘zlar, iboralar va iqtiboslar keltiriladi. “Avaz” romanida ham shunga o‘xshash unsurlar o‘z o‘rnida qo‘llanilgan. Roman muallifi Sa’dulla Siyayev asar tarkibida Xorazm adabiy muhitining xalq og‘zaki ijodi namunalaridan, Ogahiy baytlaridan, Sa’diy Sheroziy va Pahlavon Mahmudning ijod namunalaridan misollar keltirgan. Har bir keltirilgan namunalar tasvirlanayotgan syujet va bobga mos tushgan.

Ahmad Yassaviviyning faoliyati adabiyotshunos olimlarga ma’lum va ijodkorning kishilarni odob-axloq, insoniy jihatdan yukaltiruvchi hikmatlari bor. Kishi ma’naviy dunyosinining ko‘lamini rivojlantirishga qaratilgan bu kabi hikmatlar adabiyotshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, islom

dinining rivojlanish taraqqiyotida adib hikmatlarining o‘rni alohida ajralib turadi. Yassaviylik tariqatining asoschisi bo‘lgan Ahmad Yassaviy ijod namunalari roman muallifining diqqatini tortgan. Xiva xonligidagi ijtimoiy tuzim va madaniy hayotni tasvirlash maqsadida hikmatlardan namunalar keltirilgan. Shu bilan birgalikda o‘sha davrdagi so‘filik va qalandarlik to‘g‘risida ham ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. “Qalandarlar xalqasida” bobida keltirilgan tarbiyaviy hikmatlar maqolada tahlil qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tarixiylik, tizimli yondashuv, xolislik tamoyillari kabi metodlardan unumli foydalaniladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ahmad Yassaviy hikmatlari “Devoni hikmat”, “Avaz” romani, “Ahmad Yassaviy” romani va Nasimxon Rahmonovning “O‘zbek adabiyoti tarixi” (eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarmigacha) darsliklarida keltirilgan. Adibning hayot yo‘li, faoliyati, bajargan ishlari Sa’dulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romanida batafsil yoritilgan.

Tariqatshunosning faoliyati Alisher Navoiyning ham e’tiborini tortgan. Adib o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat” asarida Yassaviy haqida ma’lumotlar keltirgan. Nasimxon Rahmonovning darsligida Xo‘ja Ahmad Yassaviy hayot yo‘li, u bilan bog‘liq bo‘lgan timsol va hikoyatlar haqida zaruriy ma’lumotlar berilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Romanning “Qalandarlar halqasida” bobida asar qahramoni Matpono tilidan Yassaviyning hikmatlari keltiriladi. Ustozining iltimosiga binoan qalandrlik jandasini yana qayta kiygan Matpono xalqning ko‘zini ochish maqsadida quyidagi baytlarni aytadi:

Shaksiz biling, bu dunyo barcha xalqdin o‘taro,
Inonmag‘il molingga, bir kun qo‘ldan ketaro.
Ota-ona, qarindosh – qayon ketdi, fikr qil,
To‘rt oyoqli cho‘bin ot bir kun senga yetaro…[3.b.232.]

Hikmatdagi ma’noning qanchalik chuqurligi har bir kishini o‘ziga tortadi. Xonlik xalqining turli tabaqaga mansub vakillar ekanligi tarixiy jarayonlarda ma’lum bo‘lgan. Xiva xonligida amaldorlar va oddiy xalq, shu bilan birgalikda darvishlar ham yashagan. Darveshlarning yashash sharoiti bo‘lmaganligi bois qalandarlar safiga qo‘shilgan va shu kabi hikmatlarni aytib kun kechirgan. Matpononing romanning boshlanish syujetida darvesh ekanligi tasvirlangan. Ammo har qanday roman mutolaachisi yosh yigitning nima sababdan bunday yashashini tanlaganligi tugun holida berilgan. “Navro‘z saylida” va “Oq halqalilar” boblarida tugunga yechim berilgan. Matpononing Marhamat isimli qizga yetisha olmaganligi sababli tarkidunyochilik yo‘lini tanlaganligi tasvirlangan. Syujet oqimi natijasida ko‘plab unsurlar berib o‘tilgan.

Avaz O‘tar va Matpononing tanishish sahnasi ham aynan Yassaviyning hikmatlari sabab ro‘y bergan. O‘sha jarayonda ham Matpononing yo‘qorida keltirilgan hikmatni aytgan voqea tasvirlangan. Avaz O‘tar darveshning hikmatli chaqirig‘iga javoban o‘zining g‘azalini aytgan sahnalar ham mavjud. Maqolada

Ahmad Yassaviy hikmatlarining romandagi badiiy ahamiyati tatqiq qilinadi. Romandagi bobga mos tushgan hikmatning mazmunini quyidagicha tahlil qilish mumkin. “Bu dunyo o‘tkinchidir, va u sendan ham mendan ham qoladi. Shu paytgacha yer yuzida qancha xalq yashadi va ularning hech biri to bugungi kungacha tirik emas. Shunday ekan qo‘lingdagi molingga, boyligingga ishonma. Ulardan ham qadrli bo‘lgan ota-onang, qarindoshlaring qayerga ketganligini anglab ol. Yaqinlaringni so‘nggi manziliga yetkazgan to‘rt oyoqli cho‘bin ot (tobut) bir kun seni ham manzilingga eltadi. Shunday ekan bu dunyoning o‘ziga va moliga dilingni bog‘lama” kabi fikrlar bor. Avaz O‘tar 19-asrda yashagan. Bundan ko‘rinadiki, Ahmad Yassaviy hikmatlari bir necha asrlar mobaynida o‘zining dolzarbligi bo‘yicha muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Haqdin o‘zgani – dema, dunyo uchun g‘am yema,
Birov haqini yema – sirot uzra tutaro…”[3.b.232]

Ikkinchi keltirilgan bayt yo‘qorida keltirilgan baytning davomi. Uning ma’nosi quyidagicha: “ Ollohdan o‘zgasini dema, faqat Yaratganni rozi qilish uchun yasha. Dunyo o‘tkinchi va sen hen ham bu dunyoda qolmaysan. Shunday ekan hech kimning haqini yema, haqiga xiyonat qilma. Kun kelib sirot ko‘prigida amallaring oyog‘ingdan chaladi” kabi ma’nolar bor.

Tatqiqotning muhim ahamiyati shundaki, hikmatlar yaratilganiga qancha ko‘p vaqt bo‘lgan bo‘lmasin ular o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Birinchi to‘rtlikning to‘rtinchi misrasida tashbeh san’ati ishlatilgan. Tashbeh bu – o‘xshatish san’atidir. “To‘rt oyoqli cho‘bin ot” – tobut kabi o‘xshatish hikmatli to‘rtlikning ma’nosini ta’sirli qilgan. Baytlar barmoq vaznida yozilgan bo‘lib, qofiyadosh so‘zlari – “o‘taro”, “ketaro”, “yetaro”, “tutaro”dir. Qofiyadosh so‘zlardagi tirgak tovush vazifasini “o” unlisi bajargan. Cho‘ziq unlining tirgak tovush sifatida keltirilishi hikmatlarning ta’sirchanlik kuchini oshirgan.

Mumtoz adabiy manbalardan ma’lumki Ahmad Yassaviy tasavvuf borasida ham o‘z qarashlarini bayon qilgan. Ammo “Avaz” romanida adib ijodining ma’rifatparvarlik va jadid adabiyotiga ta’siri ham ma’lum bo‘lgan. Hikmatlarda ommani insof va diyonatga chorlash asosiy maqsad bo‘lsa, jadid va ma’rifatparvarlar ijodida xalqni ilmli qilish asosiy unsurlardan biri bo‘lgan. Matponoga yangicha g‘oyadagi she’rni yaratishi hikmatlarning 19-asr adabiyotiga bo‘lgan ta’siridir. Avaz O‘tarning Toshkent gazetalaridan birida chop qilingan Abdulla Avloniy yozgan she’rni Matponoga o‘rgatishi buning bir dalili. Abdulla Avloniy ijodiga mansub she’r quyidagicha:

“Qodir Ollo, qodir Ollo, tog‘ni yaratdi,
Tog‘ning ichi qorong‘u deb oyni yaratdi.
Kambag‘alni muhtoj qildi bir burda nonga,
Katta-katta to‘y qilsin deb boyni yaratdi!”[2.b.234]

Bundan shu ma’lumki, xalqni to‘g‘ri yo‘lga chorlash hamma zamonda ham bor. Lekin uning ma’no mazmuni har bir davrda o‘ziga xos tarzda aks etadi. 19-asr Xiva xonligidagi madaniy hayotning o‘zgarishi darveshlar hayotida ham yuz bergan. Bu jarayon, balki, Sa’dulla Siyoyev tomonidan badiiy to‘qima jihatida keltirilgan. Ammo Yassaviy hikmatlarining kishilarga ta’sir qilish ko‘lami hech qachon o‘z ahamiyatini

yo‘qotmaydi. Yo‘qoridagi she’rda tazod – “zidlantirish” san’atidan foydalanilgan. “Boy” va “kambag‘al” so‘zlari bu san’atning ko‘rinishidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Romanda ko‘plab shaxslar ijodiga mansub bo‘lgan birliklar keltirilgan. Ularning har biri asar mohiyatiga mos tushgan. Eng muhim jihati har bir bob nomi unda keltiriladigan bayt va to‘rtliklar bilan bog‘liq. “Avaz” romanida folklor janridan tortib jadid adabiyotiga mansub namunalar bor. Bu janrlarning har biri romanning tarkibiy qismida o‘z qiymatiga ega. Asarda Xiva xonligining hayot tarzi qaytadan tiriltirilgan.

Xo‘ja Ahmad Yassaviy hikmatlarini romanida qo‘llash va uni mazmunga mos tarzda tasvirlash ijodkordan katta mehnat talab qiladi. Tadqiqot jarayonida shu ma’lum bo‘ldiki, Sa’dulla Siyoyev romanini yozish uchun Avaz O‘tar yashagan davrni his qilgan. Bu borada tinimsiz izlanishlar olib borgan. Kitob o‘quvchilarga tabiiy ta’sir qilishi maqsadida o‘sha davrni beruvchi ijod namunalardan o‘rni bilan foydalangan. Qalandarlik, darvesh, tasavvuf, tariqat kabi ilmiy terminlarni eshitishimiz bilan ko‘z o‘nggimizga Ahmad Yassaviy keladi. Hikmatlarning “Qalandarlar halqasida” bobida kelishi ham adib ijodiga mos tushgan. Asarini shu kabi tarkibiy qismlarda nomlash va ularni jonli gavdalantirish is’tedodi Sa’dulla Siyayev uchun alohida tahsinga sazovorligidan dalolatdir.

Hikmatlarning butun roman syujetidagi ahamiyati alohida ajralib turadi. Avaz va uning yor-birodarlari mavjud sahnalarning har birida personajlar to‘rtliklarga rioya qilgandek tasvirlangan. Muhim ahamiyatli jihati shuki, qanday zamon va qanday inson bo‘lishidan qat’iy nazar uning ruhiy olamiga Yassaviy hikmatlari ta’sir qila oladi. Tadqiqot jarayonida hikmatlarning to bugungi kungacha bo‘lgan amaliy ahamiyati ochib berildi va zaruriy ma’lumotlar keltirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nasimxon Rahmonov. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: “Sano-standart”, – 2017.
2. Nodirxon Xasan. Devoni hikmat. Toshkent: “Movarounnahr”, – 2004.
3. Sa’dulla Siyoyev. “Avaz”. Toshkent: “Yosh gvardiya”, – 1987.
4. Sadulla Siyoyev. “Ahmad Yassaviy”. Toshkent: “O‘zbekiston”, – 2012.

BADIIY ADABIYOTDA “URUSH” MAVZUSI (O‘TKIR HOSHIMOV VA QO‘CHQOR NORQOBIL ASARLARIDA)

Ganjayeva Anabibi
UrDPI, Filologiya va tarix fakulteti, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada elimiz suygan, adabiyotimiz merosiga o‘z asarlari bilan katta hissa qo‘shgan adiblarimiz O‘tkir Hoshimov va Qo‘chqor Norqobilning urush mavzusidagi asarlari qiyosiy tahlil qilinadi. Yozuvchilarning obraz yaratishdagi mahoratlari, romanlaridagi hayotiylik, soddalik haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Roman, davr, inson, urush, qiyosiy tahlil, epizod, qahramon, afg‘on urushi.

Аннотация. В данной статье сравниваются произведения наших любимых писателей Откира Гашимова и Кочкора Норкабила, которые своими произведениями внесли большой вклад в наследие нашей литературы, на тему войны. Говорится об умении писателей в создании образов, жизненности и простоте их романов.

Ключевые слова: Роман, период, человек, война, сравнительный анализ, эпизод, герой, Афганская война.

Abstract. This article provides a comparative analysis of the war-themed works of our beloved writers O‘tkir Hoshimov and Ko‘chkor Norqobil, who have made a significant contribution to our literary heritage with their works. The authors' skills in creating images, the vitality and simplicity of their novels are discussed.

Keywords: Novel, era, person, war, comparative analysis, episode, hero, Afghan war.

Yurtimizning mustaqillikka erishishi xalqimizga asrga tatigulik imkoniyatlar, bir qator ulug‘ nematlar berdiki, bular bugungi hayotimizda, kundalik turmush tarzimizda o‘zining yaqqol ifodasini topmoqda. Mana shunday olamshumul o‘zgarishlarga olib kelgan ne’matlardan biri xalqimizning ko‘p asrlik tarixiga, ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan buyuk ma’naviy merosimizga munosabatini tubdan o‘zgarishi bo‘ldi. Mustaqilligimiz qo‘lga kiritilgan dastlabki yillarda mamlakatimizda ona tilimizga, milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga e’tibor yanada kuchaydi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ulug‘ ajdodlarimizning boy ma’naviy merosini xalqqa, avvalo, yoshlarga yetkazish, ta’lim tizimida mustaqillik mafkurasini yoshlarimiz ongiga singdirish bo‘yicha barcha ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, mumtoz adabiyotni tiklash, zamonaviy adabiyotimizni rivojlantirish, ajdodlar merosini avlodlarga yetkazish, adiblar hayoti va ijodi, asarlarini tadqiq qilish bo‘yicha bugungacha ko‘zga ko‘rinarli izlanishlar qilib kelinmoqda.

Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida xalqning aniq maqsad yo‘lida harakat qilishida ta’lim-tarbiyaning roli naqadar muhim ekanini uqtirarkan, shunday ta’kidlaydi: “Hozirgi vaqtda yoshlar tarbiyasi biz uchun o‘z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bo‘lib qolmoqda... Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan

milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”[1]. Shubhasiz, bugungi kunda o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyasida adabiyot muhim o‘rin tutadi. Yoshlarimiz ongini buzg‘unchi g‘oyalar bilan aynitish oson bo‘lib borayotgan bir paytda, ularni o‘tmishdagi ajdodlar jasorati, jonkuyar adiblarimizning tinchlik uchun qilgan fidoiyliklarini qayta-qayta uqtirishimiz zarur.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, Respublika davlat mukofotining sohibi O‘tkir Hoshimov XX asrning 60-yillari o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan avlod vakilidir. Adib ko‘plab hikoyalar, romanlar va dramalar yozdi. Yozuvchi o‘ziga xos, betakror publitsist sifatida ham tanilgan. Uning sermazmun va bugungi kungacha o‘z qiymatini yo‘qotmay kelayotgan roman, qissa va hikoyalari o‘quvchi e’tiborini jalb qiladi. O‘tkir Hoshimov romanlarining mavzu ko‘lami, ularning boy va rang-barang voqealarini har jihatdan, ham ijtimoiy, ham siyosiy, ham madaniy taraflarini o‘rganish, biz yoshlar uchun dolzarb masalaga aylanmoqda. Barchamizga ma’lumki, O‘tkir Hoshimov o‘z romanlari, ayniqsa, urush mavzusidagi asarlari bilan adabiyotimizda o‘chmas iz qoldirgan adibdir. Adibning “Tushda kechgan umrlar”, “Ikki eshik orasi” kabi romanlari bu boradagi takrorlanmas durdonalar desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Urush” mavzusida keng ko‘lamli ijod qilgan yana bir o‘zbek yozuvchisi bu Qo‘chqor Norqobildir. Adibning ayniqsa, afg‘on urushini tilga oluvchi asarlari o‘quvchini qalbini larzaga keltiradi. Uning asarlaridagi hayotiylik, asar qahramonlarining soddaligi, insonparvarligi, adolat uchun kurashishlari juda haqqoniy tarzda yoritilgan. Ushbu maqolada aynan, O‘tkir Hoshimov va Qo‘chqor Norqobil asarlaridagi “urush” mavzusining o‘xshash tomonlarini tahlil qilamiz.

Qo‘chqor Norqobil ijodida, xoh u nazmiy, xoh nasriy yoki dramatik asarlar bo‘lmasin, ularning deyarli barchasida “afg‘on urushi” mavzusi yetakchilik qiladi. Adib urushni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan, ishtirok etgan. O‘zi bilan yonma-yon yurgan safdoshlari ko‘z oldida jon bergan, qonga belangan, oddiy aholi qanchalik jabr ko‘rgan. Garchi urush tugagan bo‘lsa-da, uning jarohatlari, asoratlari hali-hamon tugagan emas. Adibning o‘zi suhbatlarining birida shunday deydi: “Nima yozsam, yuragimga zarb bergan narsalarni yozdim, sevdim, sevildim, yondim, borini to‘kdim. Biroq, qalbimda cho‘kib yotgan, azob bergan, qiynagan hayot haqiqatlarini she’rga solishga kuchim yetmadi, urush mavzusi, o‘zim ko‘rgan, yuragimga o‘rnashgan dard toshini sug‘urib olish uchun she’riyatni “azob”lagim kelmadi.”.[2] Ijodkorning kundalik qaydlari uning badiiy olami, dunyoqarashi, badiiy-estetik g‘oyalarini ifodalovchi manbadir. Qo‘chqor Norqobilning urush paytida yozgan kundaliklariga nazar solsak, avvalo, ularda ham ijodkor, ham jangchi sifatida ichki kechinmalarini ko‘ramiz. “Tushda kechgan umrlar” asaridagi Rustamning boshdan kechirganlari, urushdaligida kundalik orqali ichki kechinmalarini aks attirishi va Qo‘chqor Norqobilning asarlari orasida qandaydir o‘xshashlik yoki mantiqiy bog‘liklik bordek tuyuladi. Bu iztiroblar keyinchalik adibning asarlariga xamirturush bo‘lganiga shubha yo‘q. O‘tkir Hoshimovning afg‘on urushi haqida reallikka yaqin asar yozishida Qo‘chqor Norqobilning ta’siri katta. Chunki adibning suhbatida bo‘lgan O‘tkir Hoshimov o‘z asarlari orqali urushning

[1] Mirziyoyev. Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash- yurt taraqqiyoti va farovonligining garovi. “Xalq so‘zi”, 2016-yil, 8-dekabr.
[2] Norqobil.Q. “Quyoshni kim uyg‘otadi?”: qissalar, hikoyalar. T.:Sharq, 2007

achinarli oqibatlarini haqqoniy tasvirlashga erishadi. “Quyoshni kim uyg‘otadi?” asari Q.Norqobilning kundalik qaydlari, yozuvlaridan tarkib topgan. Unda Afg‘onistonda kechgan urush va undan keyingi yillardagi xotiralari jamlangan. Ushbu asardagi qahramon “Tushda kechgan umrlar” asaridagi Rustam bilan deyarli bir xil. U urushda qanchadan qancha do‘stlarining o‘limiga guvoh bo‘ladi. Urushdan qaytgandan so‘ng oddiy hayotga ko‘nikib ketishi juda qiyin kechadi. Rustam ham ayni gullagan yoshlik chog‘ida urushga safarbar qilindi. Urushda qanchadan qancha do‘stalrini o‘limiga guvoh bo‘ldi, o‘zi ham qo‘lini qonga belashga majbur bo‘ldi. Urushdan majruh bo‘lib qaytib kelsa-da, urushning dahshati uni tark etmadi. Ko‘cha-ko‘yda yursa ham ortidan kimdir kuzatayotgandek, yoki bir yerdan bomba portlaydigandek sergak yurishga o‘rganib qoldi. Kechalari qo‘rqinchli tushlar ko‘rib hatto Shahnozani cho‘chitib yuboradigan odat chiqargandi.

Adibning “Daryo ortidagi yig‘i” asarida ham urush mavzusi ochib berilgan. “Urush muradlardan haybatlanadi. Qonni sevadi. Ruhingga karaxtlik tamg‘asini bosadi. Diydangni qotiradi. Shunda senda shubha uyg‘onadi: ko‘ksingdagi tog‘mi yo… Urush hech qachon o‘zini oqlay olmaydi. Ayniqsa, Afg‘ondagisi”.[1] Mazkur parchada insonning ruhiy holati ta’sirli tarzda ochib berilgan. Bunday ichki monologlar adibning deyarli barcha asarlarida yetakchi qo‘llanadi. Ushbu qissada adib boshdan kechirganlarini tasvirlaydi. Bunda safdoshlarining o‘limi, umuman olganda, urushdagi vaziyatlar uning ruhiy holatiga qattiq ta’sir qiladi. Bu qissada uch do‘st – Mo‘min, Renat va Qo‘chqor jang maydonida ham bir safda kurashadi. Ular to asar oxirigacha jang maydonida birga kurashadi. “Daryo ortidagi yig‘i” asari qahramoni urushdan keyin ham tinch hayot kechirolmaydi. Xuddi har qadamda uni dushman kuzatib kelayotgandek, har qadamda mina portlab qolishi mumkindek tuyularda. “Tushda kechgan umrlar”da ham shunday. Rustamning yaqin do‘stlari bor edi. Temur, Xayriddin, Sasha kabi. Bularning o‘limiga guvoh bo‘lgan Rustam qattiq iztirobda qoladi. “…baribir Xayriddin hayolimdan ketmaydi. Qayoqqa qaramay ro‘paramga kelib, ma’yus jilmayib turaveradi. Urush odamning diydasini qotiradi deyishadi. Bo‘lsa bordir. Ammo kelib-kelib farishtadek beozor yigitning o‘lishi…”[2]

Urush tugagandan keyin ham uzoq yillar davomida insonlar hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelgan. Keyinchalik ham ko‘plab azoblar keltirgan. O‘tkir Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar” asarida Rustam, Qo‘chqor Norqobilning “Osmon ostidagi sir” asaridagi To‘lqin obrazlari orqali jamiyatdagi ba’zi qurbonlar mahoratli tarzda ochib berilgan. Ular nafaqat urushning, balki, shu davr ijtimoiy tuzumining qurboni edilar. Qo‘chqor Norqobilning ushbu asarlari va “Tushda kechgan umrlar” romanida mantiqiy bog‘liqlik mavjud. Chunki, uchala asarda ham syujet markazida urush turadi. Urush tufayli oilalarning barbod bo‘lishi, yosh yigitlarning umri erta xazon bo‘lishi, ayniqsa, afg‘on urushining ayanchli asoratlari keltirilgan. Nafaqat urush, balki, o‘sha davr ijtimoiy tuzumi ham insonlar hayotiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Buni Rustamning, To‘lqinning hayoti orqali yaqqol sezishimiz mumkin.

Shubhasiz, “Tushda kechgan umrlar” romani ijtimoiy yo‘nalishi jihatidan ham insoniy mazmunining teranligiga ko‘ra ham, badiiy fazilatlari bilan ham O‘tkir

[1] Norqobil.Q. “Daryo ortidagi yig‘i”. T.: Sharq, 1994.
[2] “Tushda kechgan umrlar”. T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi.2017

Hoshimovning ijodida yangi bir bosqich bo‘ldi va adabiyotimizga o‘ziga xos hissa bo‘lib qo‘shildi. Urush nafaqat O‘tkir Hoshimovning, balki, barcha o‘zbek, qolaversa butun jahon adiblarining eng og‘riqli mavzusidir.

Xulosa qilib aytganda ushbu romanlarda ishtirok etgan har bir obrazning hayotida urush ma’lum bir iz qoldirdi. Garchi ularning bazilari jang maydonlarida bo‘lmagan bo‘lsa-da, urushning fojiaviy ta’siridan chetda qola olmadi. Adiblar personajlarning xoh erkak bo‘lsin, xoh ayol, xoh yosh bo‘lsin, xoh keksa ularning ichki dunyosi, ruhiyati, o‘y-kechinmalarini ifodalashga va buni o‘quvchiga ham yetkazib berishga erishishida O‘tkir Hoshimov va Qo‘chqor Norqobilning obraz yaratishdagi mahoratlari ko‘zga tashlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Norqobil.Q. “Daryo ortidagi yig‘i”. T.: Sharq, 1994.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –T.: Navoiy universiteti, 2018.
3. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.:2010.
4. Hoshimov O‘. “Tushda kechgan umrlar”. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. 2017.

TURKIY TILLAR OILASIGA MANSUB O‘ZBEK, QOZOQ, TURK TILLARINING MORFOLOGIK VA GRAMMATIK QIYOSI

Otaxonova Albina Ruslan qizi, UrDPI talabasi
albinaaruslanovna05@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy tillar oilasiga mansub o‘zbek, qozoq, turk tillarning morfologik va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Turkiy tillarning umumiy aglyutinativ tizimi, kelishik qo‘shimchalari, egalik qo‘shimchalari kabi jihatlari bir-biriga o‘xshash bo‘lsa-da, morfologik-grammatik tafovutlar ham uchrab turadi. Ushbu farqli tomonlar til tarixiy taraqqiyoti, geografik joylashuvi va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllangan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются морфологические и грамматические особенности языков тюркской семьи. Несмотря на схожесть в агглютинативной системе, падежных и притяжательных аффиксах, наблюдаются различия в фонетике, морфологии и синтаксисе. Эти различия сформировались под влиянием исторических, географических и социальных факторов.

Abstract. This article examines the morphological and grammatical characteristics of the Turkic language family. Despite similarities in the agglutinative system, case endings, and possessive affixes, differences exist in phonetics, morphology, and syntax. These variations have been shaped by historical, geographical, and social factors.

Kalit so‘zlar: turkiy tillar, grammatika, morfologiya, tafovutlar, aglyutinativlik, kelishiklar, sintaksis.

Ключевые слова: тюркские языки, грамматика, морфология, различия, агглютинативность, падежи, синтаксис**.**

Keywords: Turkic languages, grammar, morphology, differences, agglutination, cases, syntax.

Turkiy tilli xalqlar yer yuzida keng tarqalgan bo‘lib, Markaziy Osiyo, Sharqiy Yevropa, Kavkaz, Sibir va Yaqin Sharq hududlarida yashaydi. Qadimgi turkiy xalqlar son jihatidan qariyb 65 taga yetgan bo‘lsa, bugungi kuda jahonda 30 dan ortiq o‘z yozuviga ega turkiy xalqlar borligi aniqlangan (Mamatov, 2010). Ushbu tillar genetik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, ularning grammatik va morfologik xususiyatlarida muayyan farqlar mavjud. Bu farqlar til rivojlanishining tarixiy jarayonlari, mintaqaviy ta’sirlar hamda sotsiolingvistik omillar natijasida shakllangan (Rahmatullayev, 1995). Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi: turk, ozarbayjon, turkman, gagauz, qrim-tatar, qorachoy, balqar, qumiq, no‘g‘oy, boshqird, oltoy, shor, xakas, tuva, yoqut, qirg‘iz, o‘zbek, qoraqalpoq, chuvash, qozoq, uyg‘ur kabilar. Turkiy tilli xalqlar oilasiga mansub o‘zbek, qozoq va turk tillari orasida o‘xshashliklar mavjud. Biz quyida o‘zbek, qozoq va turk tillarining morfologik-grammatik xususiyatlari haqida ma’lumot berib o‘tamiz:

1. Aglyutinativlik xususiyati. Turkiy tillar aglyutinativ tillar guruhiga kiradi, ya’ni grammatik ma’no qo‘shimchalar yordamida ifodalanadi va har bir qo‘shimcha alohida grammatik vazifani bajaradi (Abdurahmonov,2008). Masalan:

• O‘zbek tili: kitoblarimizdan (kitob + lar + imiz + dan);

• Turk tili: kitaplarımızdan (kitap + lar + ımız + dan);

• Qozoq tili: кітаптарымыздан (кітап + тар + ымыз + дан).

2. Kelishiklar tizimi. Turkiy tillarda kelishiklarning grammatik ma’no ifodalanishi bir xil bo‘lsada, grammatik shakllari turli xil miqdor bilan belgilanadi. Jumladan, yoqut tilida beshta kelishik: boshlang‘ich kelishigi, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, o‘rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi; o‘zbek va turk tillarida oltita: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo‘nalish kelishigi, o‘rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi; qozoq tilida yettita: bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, o‘rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi, vositali kelishik mavjud (Bo‘riyev,2012, Erdal, 2004, Rahmatullayev,1995).

• O‘zbek tili: ota, otaning, otani, otaga, otada, otadan;

• Turk tili: baba, babanın, babayı, babaya, babada, babadan;

• Qozoq tili: ата, атаның, атаға, атаны, атада, атадан, атамен (ota bilan);

3. Egalik qo‘shimchalari. Egalik qo‘shimchalari barcha turkiy tillarda mavjud:

• O‘zbek tilida: uyim, uying, uyi;

• Qozoq tilida:,үйім, үйің, үйі;

• Turkcha: evim, evin, evi.

4. Fe’l tizimi. Fe’llar shaxs va zamon bo‘yicha shakllanadi. Ko‘pchilik turkiy tillarda shaxs qo‘shimchalari deyarli bir xil (Rahmatullayev, 1995):

• O‘zbek tilida: men kelaman, sen kelasan, u keladi;

• Turk tilida: ben geliyorum, sen geliyorsun, o geliyor;

• Qozoq tilida: мен келемін, сен келесің, ол келеді.

Endi esa turkiy tillararo morfologik-grammatik farqlanishlarni ko‘rib chiqsak.

1. So‘z tartibidagi farqlar. Turkiy tillarda asosiy so‘z tartibi SOV shaklida (subyekt-obyekt-fe’l (ya’ni verb) shaklida) bo‘lsa-da, ba’zi hollarda, jumladan inversiya holatlarida, ta’kid ma’nosi ifodalanganda, kommunikatsiyaning maqsadi nuqtai-nazaridan kelib chiqib SVO (subyekt-fe’l-obyekt) so‘z tartibi shaklida ham berilishi mumkin (Johanson, 1998). Ayniqsa, og‘zaki nutqda o‘zbek, turk va qozoq tillarida bu holat kuzatilishi mumkin:

• O‘zbek tili (SVO): Men o‘qidim kitobni. (Standard tartib: Men kitobni o‘qidim. – SOV)

• Turk tili (SVO): Ben gördüm seni. (Standard: Ben seni gördüm. – SOV)

• Qozoq tili (SVO): Мен көрдім seni. (Standard: Men seni көрдім. – SOV)

2. Fe’l zamonlarining farqliligi. Turkiy tillarda fe’l zamonlari o‘xshash bo‘lsa-da, ularning yasalishi va ishlatilishida farqlar mavjud.

O‘zbek tilda oddiy hozirgi zamon shakli ishlatiladi (o‘zbek tili: men kelaman), turk va qozoq tillarida esa hozirgi davomiy zamon maxsus yordamchi so‘z bilan hosil qilinadi (turk tili: ben geliyorum; qozoq tili: men kelip jatırmın).

O‘tgan zamon devorativ ravishda hamma tillarda deyarli bir xil (-di/-dım/-dem), lekin talaffuz farqlari mavjud. Bo‘lishsizlik shakli esa turk va o‘zbek tillarida -ma/-me orqali oddiy shakllanadi, qozoq va qirg‘iz tillarida esa -gen, -jok kabi shakllar ishlatiladi.

Kelasi zamon turk tilida -ecek/-acak qo‘shimchalari bilan hosil qilinadi (geleceğim), o‘zbek tilida esa -a/-y yoki -jak ishlatiladi. Qozoq va qirg‘iz tillarida esa

boshqa zamon qo‘shimchalari ishlatiladi: qozoq tilida - men kelermen; qirg‘iz tilida - men kelöm.

Xulosa. Turkiy tillar umumiy morfologik va grammatik xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, ularda tarixiy rivojlanish va geografik tarqalish natijasida sezilarli tafovutlar ham shakllangan. Ushbu farqlar va o‘xshashliklar turkiy tillarning o‘zaro munosabatlarini va tilshunoslikdagi ahamiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. O‘zbek, qozoq va turk tillarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning aglyutinativ tizimi, kelishik va egalik qo‘shimchalari o‘xshash bo‘lsa-da, fe’l zamonlari va so‘z tartibi kabi jihatlarda sezilarli tafovutlar mavjud. Turkiy tillarni qiyosiy o‘rganish nafaqat ularning o‘zaro bog‘liqligini tushunish, balki umumiy til taraqqiyoti jarayonlarini aniqlash uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Abdurahmonov G‘. H. (2008). O‘zbek tilining grammatikasi. Toshkent: Fan.
2. Bo‘riyev T. (2012). Qiyosiy turkiy tilshunoslik asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
3. Johanson, L. (1998). The structure of Turkic languages. Oxford University Press.
4. Erdal, M. (2004). A Grammar of Old Turkic. Brill Academic Publishers.
5. Rahmatullaev Sh. (1995). O‘zbek tilining morfologik tuzilishi. Toshkent: Fan.
6. ReasearchGate.net sayti.

OMON MATJON SHE’RIYATIDA VATAN MADHI

Bobojonova Sevinchoy Ikrombek qizi
UrDPI Filologiya va tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek she’riyatining zabardast vakili Omon Matjonning she’rlaridagi vatanparvarlik g‘oyalari va el-yurtni madh qilgan she’rlariga to‘xtalib, ularning o‘ziga xos uslubi, ma’no va ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola, shuningdek, Omon Matjonning she’riyatidagi vatan sevgi, milliy g‘urur va elga bo‘lgan sadoqatni yoritib, uning adabiy merosiga qo‘shgan salmoqli hissasini ko‘rsatadi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются патриотические идеи в поэзии Омона Матжона, выдающегося представителя узбекской литературы, а также его стихи, восхваляющие народ и Родину. Также анализируются уникальный стиль, смысл и значение его произведений, освещая его вклад в литературное наследие, особенно выражение любви к Родине, национальной гордости и преданности народу.

Abstract. This article focuses on the patriotic ideas in the poetry of Omon Matjon, a prominent figure in Uzbek literature, and his poems that praise the nation and the homeland. It also analyzes the distinctive style, meaning, and significance of his works, shedding light on his contributions to the literary heritage, particularly his expressions of love for the homeland, national pride, and devotion to the people.

Kalit so‘zlar: shoirlik, vatan mehri, Xorazm raqsi, millat ruhi, el –yurt sha’ni, daholar, moziy

Ключевые слова: поэзия, любовь к родине, хорезмский танец, национальный дух, честь народа, гении, история.

Key words: poetry, love for the homeland, Khorezm dance, national spirit, honor of the people, geniuses, history.

Zamonaviy o‘zbek she’riyatining yirik vakili Omon Matjon o‘zining she’riyati, adabiy asarlari va ijodi orqali o‘zbek xalqining tarixiy xotirasini saqlash, milliy qadriyatlarni ulug‘lash va ma’naviy merosni yosh avlodlarga yetkazish mas’uliyatini o‘z zimmasiga olgan shoirdir. Adibimiz 1943-yil 14-fevralda Xorazm viloyati Gurlan tumanining Bog‘olon qishlog‘ida tug‘ilgan.Tabiatan iste’dodli, ta’sirchan va g‘oyat ko‘p o‘qiydigan Omon Matjon uchinchi sinflarda o‘qib yurgan paytlarida she’rlar, ertaklar yozgan.

Omon Matjon uch yasharligida onasidan yetim qoladi. Shoirni o‘gay onasi O‘rozbika opa tarbiyalagan. Omon Matjonning ilk qo‘liga qalam olib, adabiyotga muhabbat qo‘yishida ikkita opasi Gulsara va Oyimjonlarning ham xizmatlari katta bo‘lgan. Gulsara opasiga ergashib Omon olti yoshida Gurlan tumanidagi Orjanikidze nomli o‘rta maktabga boradi va 1-sinfga o‘qishga qabul qilinadi. Opasining dastxati juda chiroyli edi. Omon Matjon maktab ustozlaridan tashqari, opasi bilan ham o‘qish va yozish mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanadi. [Omon Matjon. 2022. – T.3.]

Ilk she’ri 1958-yilning 15-martida Yangibozor gazetasida bosilib chiqqan. Shoir o‘zining she’rlarida Xorazm xalqining qiyinchiliklarini, orzularini, g‘ururini va xalqning ijtimoiy ruhiyatini tasvirlagan. Omon Matjonning asarlari yuksak badiiyati

bilan ajralib turadi. Uning she’riyati nafaqat o‘zbek xalqining, balki butun turkiy xalqlarning o‘tmishini fodalaydi. Omon Matjon nozik didli, hayotning har bir lahzasidan chuqur falsafiy xulosalar chiqara oladigan, voqelikni teran anglaydigan hassos shoir edi. U hayotda hamma narsani bekam-u ko‘st ko‘rishga intilardi, go‘zallikni, adolatni, haqiqatni ulug‘lardi. Inson bu cheksiz olamda kechadigan lahzalik hayotida o‘zidan ezgu ishlarni, ezgu amallarni meros qoldirib ketishi kerak, degan g‘oya bilan yashardi. Shuning uchun she’riyatida ezguliklarni ulug‘lash g‘oyasi hamisha ustuvor bo‘lib kelgan. Uning qalbida doimo tariximizga buyuk oshuftalik bor edi. Tarixni o‘rganmasdan turib bugunni anglab bo‘lmaydi, bugunsiz esa kelajak yo‘q, degan fikr har bir asarining markazida turardi. U uchliklaridan birida:

Uchrashuvimizga yaqin qoldi,
O‘tmish, bugun bilan yuzma-yuz
Shundoq kelajakning yonginasida,

deb yozishi ham bejiz emasdi. Shoirning qalbidagi barcha orzular, o‘ylar, ezgu maqsadlar, armonlar, tug‘yonlar “Ochiq derazalar”, “Karvon qo‘ng‘irog‘i”, “Yonayotgan daraxt”, “Yarador chaqmoq”, “Quyosh soati”, “Haqqush qichqirig‘i”, “Seni yaxshi ko‘raman”, “El birla bo‘l”, “Diydor aziz” kitoblarida, “To‘g‘on”, “Pahlavon Mahmud”, “Abu Rayhon Beruniy” dramatik dostonlarida, “Shayx Najmiddin Kubro” tarixiy fojiasi, “To‘rabekxonim” qissasi, “Ming bir yog‘du” deb atalgan Alisher Navoiyning “Xamsa”si asosida yaratilgan bitiklarida, xorijiy ko‘plab ijodkorlar asarlaridan tarjimalarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. U o‘zining adabiy ijodi bilan o‘zbek xalqining tarixi, madaniyati va an’analarini ifodalab, o‘zbek adabiyotining rivojiga katta hissa qo‘shgan.

XORAZM RAQSI
Davra oling, o‘ynoli,
“Lazgi” chaling, o‘ynoli
Larza soling, o‘ynoli,

O‘ynab qoling, o‘ynoli!

Bu – navbahor, o‘ynoli,
Sayradi tor, o‘ynoli.
O‘rtada, yor o‘ynoli,
Dil intizor, o‘ynoli! [O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Omon Matjon. Maqsudam. Toshkent adabiyot. 2021-y]

Bir so‘z bilan aytganda Omon Matjionning haqiqiy Xorazmning mard o‘g‘loni ekanligini aytmasdan ilojimiz yo‘q. Shu o‘rinda shoirimiz o‘z shevasing jozibadorligiga alohida urg‘u berib o‘tganlar. She’r aynan shevada yozilhganligi esa alohida tahsinga loyiq. Xorazm lazgisi dunyo tan olgan kuylardan biri hisoblanadi.

Afsonaviy "Lazgi" Xorazm raqsi bu nafaqat raqs, balki his-tuyg‘ularni, hissiyotlarni, dunyoni anglashni ifoda etishning o‘ziga xos uslubi, odamlarning ruhiyatidir. "Lazgi" harakatlarining o‘ziga xos xususiyati - bu yarim bukilgan oyoqlar, yelkalar va qo‘llar salgina silkinishining ustunligi, qo‘llarning "tebranadigan" harakatlari, oyoqlar bilan o‘ziga xos harakatlar hamda bo‘yin va boshning o‘ngdan

chapga va chapdan o‘ngga mashhur harakatlanishidir. Xorazm raqsini ijro etish paytida yuz ifodalari nihoyatda ta’sirchan va hissiyotli ko‘rinish oladi. [https://uzbekistan.travel/uz/o/lazgi-raqsi-xorazm-folklorining-yuragi/]

Shoir sifatida, Omon Matjon o‘zbek xalqining o‘tmishi, orzulari va qayg‘ularini, shuningdek, bugungi kunning muammolarini she’riyatida chuqur tasvirlagan. Yoshligidan she’riyatga qiziqib, o‘zining she’rlarida Xorazm xalqining turmush tarzini, qadriyatlarini va tarixiy an’analari bilan tanishtirgan. U Xorazmning o‘ziga xos madaniyatini, xalqning dard va quvonchlarini she'riyatida ifodalagan. Shoirning asarlari xalqning ko‘p asrlik tarixini yoritib, uning qahramonlik va fidoyilik fazilatlarini ulug‘lagan.

Omon Matjonning "moziy kuychi" sifatidagi ahamiyati uning she'riyatida muhim o‘rin tutadi. Uning asarlarida o‘tmishning dardli va quvonchli, umid va orzularini ifodalovchi obrazlar ko‘rinadi. Shoir Xorazm xalqining tarixiy xotirasini, uning kechgan davrlarini musiqiy bir tuyg‘u bilan tasvirlaydi. Omon Matjonning she'riyatida o‘tmish va bugun o‘rtasidagi bog‘lanish, tarixiy yodgorliklar va madaniy merosni saqlashga intilish alohida ahamiyatga ega. Shoirning “Quyosh soati” kitobida shunday so‘zlar bor: “Xorazmda tog‘lar yo‘q emas, bor. Xorazm tog‘lari vohani tongda quyoshdan to‘sib qo‘ymaslik uchun odamlar qiyofasida yashashadi! Xorazmiy, Beruniy, Pahlavon Mahmud, Ogahiy, Hojixon...” Mening nazarimda, ular yonida odam qiyofasidagi yana bir tog‘ paydo bo‘ldi — uning nomi Omon Matjondir!

Xulosa qilib aytganda, Omon Matjonning ijodi, ayniqsa, uning "moziy kuychi" sifatidagi roli, zamonaviy o‘zbek she’riyatining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan. Uning she’rlari xalqning tarixiy xotirasini saqlashga va yuksaltirishga xizmat qiladi. Shoirning asarlari Xorazm va butun O‘zbekistondagi madaniy merosni, xalqning qayg‘ularini va orzularini jonlantiradi. Omon Matjon o‘zining she'riyatida nafaqat o‘tgan davrlarning dardlarini, balki kelajakni ham yoritadi. Uning ijodi zamonaviy o‘zbek she’riyating durdona asarlaridan biri sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Omon Matjon. Turkiy adabiyot durdonalari. – Toshkent: 2022. 3
2. «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» gazetasining 2003. 7-soni.
3. O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Omon Matjon. Maqsudam. Toshkent adabiyot. 2021.
4. https://uzbekistan.travel/uz/o/lazgi-raqsi-xorazm-folklorining-yuragi/

GAGAUZ TILINING LINGVISTIK SHARHI

Hakimova Durxonim
UrDPI Filologiya va tarix fakulteti talabasi hdurxonim@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy tillar oilasiga mansub gagauz tili va o‘zbek tilining fonetik, lelsik, morfologik va grammatik xususiyatlari qiyoslandi. Shuningdek gagauz tilining leksik tarkibi tahlil etiladi, kelib chiqish tarixi yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: lahja, sheva, gagauz tili, turkiy tillar oilasi, morfologiya.

Аннотация. В данной статье сопоставлены фонетические, лексические, морфологические и грамматические особенности гагаузского языка и узбекского языка, принадлежащих к тюркской языковой семье. Также анализируется лексический состав гагаузского языка, поясняется история его происхождения.

Ключевые слова: диалект, диалект, гагаузский язык, тюркская языковая семья, морфология.

Abstract. This article compares the phonetic, lexical, morphological and grammatical features of the Gagauz language, which belongs to the Turkic language family, and the Uzbek language. The lexical composition of the Gagauz language is also analyzed, and the history of its origin is explained.

Keywords: dialect**,** dialect, Gagauz language, Turkic language family, morphology.

Kirish. Gagauz tili turkiy tilli xalqlardan biridir. Gagauzlar Ukraina va Moldaviyaning Bendera hamda Izmail tumanlarida (200 ming kishi), Shimoliy Bolgariya va Ruminyada (5 ming kishi) yashashadi. Gagauzlarning turli-tuman hududlarda joylashuvi turli sheva va dialektlarni keltirib chiqargan. Lahjalar, asosan, leksik xususiyatlari bilan farqlanadi.

Lahja arabcha so‘z bo‘lib u ham ravish, tarz, yo‘sin, sheva ma’Gnolarini bildiradi. **Dialekt** so‘zi grekcha bo‘lib, sheva degan ma’noni anglatib (aslida qabila tili demakdir), aksariyat til xususiyatlari o‘xshash bo‘lgan shevalarni birlashtiradi. **Sheva** forscha ravish, tarz, yo‘sin degan ma’nolarni bildirib, fanda biror tilning o‘ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik territoriyaga oid qismini anglatadi.

O‘zbek tili o‘z tarixiy taraqqiyotida uchta lahjaning birligidan tarkib topgan. Ular quyidagilar:1.Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasi.

2. Qipchoq lahjasi.

3. O‘g‘uz lahjasi.

Asosiy qism. Gagauz tilida o‘g‘uz tili belgilari ustun. Gagauz tiliga bolqon turklari, gajal, tozluq, gerlovliklar, qizilboshlar, yuruq, qaramanli, surg‘uch qabilalarining tillari yaqin. Gagauz tili dastlab faqat og‘zaki shaklda mavjud bo‘lgan, tarixiy rivojlanishida bu til Bolgariya hududida qoralangan va gagauz tilining birinchi rasmiy yozma nusxasi 1957-yilda yozilgan. Gagauz tili o‘zining fonetikasi, grammatikasi va lug‘aviy tarkibi jihatidan turk tiliga juda yaqin. Gagauz tili 1812-yilgacha yunon alifbosi bilan yozilgan. 1909-yilda esa kirill alifbosi versiyasi bilan yozilgan. 1932-yildan lotin alifbosi versiyasi bilan yozila boshlandi. 1957-yildan esa

kirill alifbosining boshqa versiyasidan foydalanildi. 1993-yildan beri lotin alifbosining turkchaga asoslangan versiyasi qo‘llanilmoqda. Gagauzlar uchun standart orfografiya 2014-yilda Gagauziyada yaratilgan.

Gagauz tilidagi asosiy so‘z boyligi turkiy ildizlarga ega bo‘lsa-da, unda rus, moldovyan (rumin), bolgar va yunon tillaridan kirib kelgan so‘zlar ham uchraydi. Ayniqsa, sovet davrida gagauz tiliga rus tilidan juda ko‘p so‘zlar o‘zlashtirilgan.

Gagauz tilining leksik tarkibi uchta asosiy manbaga tayanadi: turkiy qatlam, slavyan qatlam va g‘arbiy yevropa (roman-german) qatlamlari.

1. Asosiy (turkiy) qatlam

Gagauz tili o‘g‘uz guruhiga mansub bo‘lib, uning asosiy lug‘at tarkibi turkiy so‘zlardan iborat. Quyidagi sohalar bo‘yicha turkiy ildizli so‘zlar ko‘p uchraydi:

- tabiat va atrof-muhit: *gün (quyosh), ay (oy), su (suv), dağ (tog‘);*
- *o*ilaviy va ijtimoiy hayot: *ana (ona), ata (ota), kardeş (aka/uka), ev (uy);*
- asosiy fe’llar: gelmek (kelmoq), *gitmek (ketmoq), yapmak (qilmoq), bilmek (bilmoq)*

2. Slavyan (rus va bolgar) qatlam:

Gagauzlar uzoq vaqt davomida slavyan xalqlari bilan yaqin aloqada bo‘lgani uchun rus va bolgar tillaridan olingan ko‘plab so‘zlar mavjud. Ular asosan quyidagi sohalarga tegishli:

A. Ma’muriy va ijtimoiy atamalar: sovet (kengash), zakon (qonun), şkol (maktab)
B. Fan va texnika: elektr (elektr), traktor (traktor), telefon (telefon)
C. Oshxona va kundalik hayot: kartof (kartoshka), sup (sho‘rva), butılka (butilka)

3. G‘arbiy Yevropa (roman-german) qatlam

Gagauz tili Ruminiya va Moldova ta’sirida bo‘lgani uchun fransuz va nemis tillaridan ham so‘zlar qabul qilgan. Bular ko‘pincha ilm-fan, madaniyat va siyosat sohalariga tegishli:

doktor (shifokor), politik (siyosat), hotel (mehmonxona), muzik (musiqa.

Gagauz tili leksik jihatdan, asosan, turkiy ildizga ega bo‘lsa-da, tarixiy ta’sirlar natijasida rus, bolgar, rumin va g‘arbiy yevropa tillaridan sezilarli darajada so‘zlar qabul qilgan. Bu holat Gagauz tilini boshqa o‘g‘uz tillaridan farqlantiradi va uni o‘ziga xos turkiy-slavyan lisoniy tuzilishga ega bo‘lgan tilga aylantiradi.

Sample text in Gagauz (Cyrillic alphabet)

Ынсаннар хепси дууэрлар сербест хем биртакым кенди кыйметиндä хем хакларында. Оннара верилмиш акыл хем üз да läазым бири-биринä даврансыннар кардашлык рухуна уйгун.

Sample text in Gagauz (Latin alphabet)

Insannar hepsi duuêrlar serbest hem birtakım kendi kıymetindä hem haklarında. Onnara verilmiş akıl hem üz da läazım biri-birinä davransınnar kardaşlık ruhuna uygun.

Barcha insonlar erkin, qadr-qimmati va huquqlari bo‘yicha teng bo‘lib tug‘iladilar. Ular aql va vijdonga ega bo‘lib, bir-birlariga birodarlik ruhida harakat qilishlari kerak.

Xulosa. Gagauz tili o‘zining turkiy ildizlariga qaramay, tarixiy va geografik omillar ta’sirida sezilarli darajada o‘zgarishlarga uchragan. Uning rivojlanish yo‘li,

ayniqsa, yozuv tizimi va leksik tarkibining shakllanishi boshqa turkiy tillardan farq qiladi. Tilning dastlab yunon, keyinchalik kirill va lotin alifbosida yozilishi, turli madaniyat va siyosiy tuzumlarning ta’siri ostida bo‘lganligini ko‘rsatadi.Gagauz tilining leksik tarkibida faqat tashqi ta’sirlar emas, balki ichki rivojlanish jarayonlari ham muhim rol o‘ynagan. Masalan, u o‘g‘uz guruhiga mansub bo‘lsa-da, turk tilidan ayrim fonetik va grammatik jihatlari bilan farqlanadi. Ayniqsa, Gagauziyada standart orfografiyaning faqat 2014-yilda yaratilgani bu tilning normativlashuv jarayoni kech boshlanganidan dalolat beradi. Shuningdek, gagauz tilining ijtimoiy mavqei ham muhim ahamiyatga ega.

Uzoq vaqt davomida bu til faqat og‘zaki shaklda mavjud bo‘lgani va asosan xalq tilida ishlatilgani sababli uning rasmiy maqomga ega bo‘lishi kechikkan. Bugungi kunda gagauz tili rasmiy tilda ishlatilsa-da, rus va rumin tillarining ta’siri hanuzgacha sezilarli. O‘zbek tili bilan taqqoslaganda, gagauz tili boshqa turkiy tillar bilan mustahkam aloqada bo‘lish imkoniyatidan ancha uzoqlashgan.

O‘zbek tili Markaziy Osiyo turkiy tillari bilan uzluksiz aloqada bo‘lib, arab va fors tillari ta’sirida rivojlangan bo‘lsa, gagauz tili asosan slavyan va roman-german tillari bilan ta’sirlanib, o‘ziga xos turkiy-slavyan lisoniy tuzilishga ega bo‘lgan. Shunday qilib, gagauz tili tarixiy sharoitlar va lingvistik aralashuvlar natijasida o‘zining turkiy asosini saqlab qolgan holda, turli tillardan so‘zlar va grammatik xususiyatlarni o‘zlashtirgan. Uning bugungi kundagi holati tilning tiriklik darajasi va kelajak avlodga yetkazish muammolari bilan bog‘liq bo‘lib, bu tilni saqlab qolish uchun maxsus dasturlar va ta’lim tizimi muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ashirboyev Saminxon. “O‘zbek dialektologiyasi”, Toshkent- 2013.
2. Dadaboyev H., Xolmanova. Z. “Turkiy tillarning qiyosiy - tarixiy grammatikasi”, Toshkent - 2015.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA INTERNETNING YOSHLAR TARBIYASIGA SALBIY TA’SIRI

Shokirova Gulasal Umidbek qizi
Urganch DPI talabasi

Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy tarmoqlar va bugungu kunda yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlar haqida qarashlari, internet tizimidan qay holatda foydalanishi, ularning ijobiy va salbiy tomonlari, psixologik tahlili ifoda etilgan.

Tayanch so‘z va tushunchalar: globallashuv, madaniyat, ijtimoiy tarmoq, internet, ommaviy axborot vositalari, g‘oyaviy xuruj, virtual muloqot, mafkura maydonlari.

Аннотация. В статье осуществлён психологический анализ положительных и отрицательных сторон использования системы интернета среди молодежи; взгляды на социальные сети и условия их использования.

Ключевые слова и понятия: глобализация, культура, социальная сеть, интернет, средства массовой информации, виртуальная система, идеологическая угроза, идеологические полигоны.

Abstract. In the article is presented the social network and views of youth in regards of social network, ways of the internet implementation, it's positive and negative sides and psychological analyses.

Key words: globalization, culture, social network, internet, mass media, notional attack, virtual communication.

XXI asrda dunyoning mafkuraviy manzarasi tubdan o‘zgardi, global integratsiya jarayonlarining tezlashishi yangicha fikrlashni talab qiladi. Yoshlar va o‘smirlar ongida Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish, mustaqillik eng oliy ezgulik ekanini tushuntirish, yurt va xalq farovonligi yo‘lida zarur bo‘lsa, fidoyilik ko‘rsatishga qodir, mustaqilligimizning mazmun-mohiyatini chuqur anglaydigan, uni har qanday alohida burchga ega bo‘lgan, uni har qanday burchidan asrash, o‘z burchini muqaddas deb biladigan shaxsni tarbiyalash dolzarb vazifalardandir mustaqil, erkin fikrlaydigan, ma’naviy va jismonan yetuk. Bunga erishish uchun yoshlarda tarixiy voqelikni xolisona baholash, to‘g‘ri xulosalar chiqarish ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Binobarin, ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Hozirgi kunda yoshlar qalbi va ongini zabt etishga qaratilgan turli buzg‘unchi g‘oyalar, ayniqsa, internet tarmog‘i orqali tobora ko‘payib bormoqda.

Albatta, zamonamizning eng buyuk ixtirolaridan biri bu internetdir. Qisqa vaqt ichida bu tarmoq televideniye, radio, gazeta va jurnallarni ortda qoldirdi. Dunyo bo‘ylab son-sanoqsiz odamlar ma'lumot almashish, bilimlarini kengaytirish va turli muammolarni tezda hal qilish uchun Internet xizmatlaridan foydalanadilar. Bugungi kunda internet tarmog‘idan foydalanuvchilar soni, yoshi, ijtimoiy guruhi va ijtimoiy tabaqasidan qat’i nazar, o‘sishda davom etayotgan bo‘lsa-da, yoshlar sonining ko‘payishi bu boradagi ta’lim va reklama faoliyatini yanada faollashtirish, uning samaradorligini oshirishni taqozo etmoqda.

Internet paydo bo‘lganidan buyon ba'zi mutaxassislar uni ijobiy baholasa, boshqalari uning salbiy tomonlari haqida gapirdi. Bu boradagi umumiy qabul qilingan nuqtai nazar shundan iboratki, Internet ham xuddi televidenie va radio kabi ommaviy axborot vositasidir. Agar uni yaxshilikka ishlatsak, u yaxshi bo‘ladi, lekin yomonlik uchun ishlatsak, u yomon bo‘ladi. Bu yerda eng muhim omil inson omilidir. Chunki inson bir vaqtning o‘zida ham to‘g'ri, ham noto‘g'ri ma'lumotni tarqatishi va qabul qilishi mumkin. Boshqa tomondan, yosh talabalar yaxshi yoki yomon har qanday ma'lumotni tushunmasdan qabul qilishlari mumkin. Shunday ekan, yosh avlodga internetdan to‘g‘ri foydalanish yo‘llarini ko‘rsatish, uning zararli oqibatlaridan ogoh etish ustoz va murabbiylar oldidagi muhim vazifadir. Boshqa tomondan, ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarimizga zid g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi shaxslar ta’siridan qochishga o‘rgatishdir.

Shuning uchun ham aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buning dalili sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha beshta muhim tashabbus”ning uchinchi tashabbusi “Aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish”ga qaratilgani bejiz emas.

Yangi zamonaviy texnologiyalarning afzalliklaridan biri shundaki, jahonda jadal rivojlanayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va internet tarmog‘idan samarali foydalanish yoshlarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, o‘zini namoyon qilish imkonini bermoqda. Bunga erishish uchun yoshlarimizni zamon talablariga javob beradigan barcha zarur texnik vositalar bilan ta’minlash, jumladan, ularning intellektual salohiyati, qobiliyat va iste’dodini namoyon etish maqsadida ham, ta’lim-tarbiya jarayonida ham internet tizimidan maqsadli va mazmunli foydalanishni tashkil etish zarur.

Ma’lumki, o‘sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash, barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma’naviy, axloqiy va jismonan sog‘lom etib voyaga yetkazish, amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etish, texnologiya va ilg‘or texnologiyalar, internet, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirishda ta’lim muassasalarining o‘rni va ahamiyati katta.

Bundan ko‘zlangan maqsad yoshlarni yot g‘oyalar ta’siridan asrash, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash, talaba-yoshlar muhitiga yot “ommaviy madaniyat” kirib kelishining oldini olish choralarini ko‘rish, ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishdan iborat.

Bugungi kunda jamiyatimiz innovatsion, islohotchi, strategik fikrlaydigan, bilimli va malakali kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashdan manfaatdor. Shu bois ta’limning barcha bosqichlari – bog‘chadan tortib oliy ta’limgacha isloh qilinmoqda. Binobarin, nafaqat zamonaviy yoshlar, balki jamiyatimizning barcha a’zolarining bilim saviyasini, saviyasini yuksaltirish uchun eng avvalo bilim, bilim va yuksak ma’naviyat zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ilm bo‘lmagan joyda qoloqlik, jaholat va, albatta, to‘g‘ri yo‘ldan

og‘ish ham bo‘ladi”. Sharq donishmandlari aytganidek: “Eng katta boylik – aql va bilim, eng katta meros – yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – jaholatdir!”

Yosh avlodning ma’naviy kamolotini ta’minlash, uning axborot va axborot erkinligiga bo‘lgan huquqlarini ro‘yobga chiqarish uchun zarur texnologik shart-sharoitlar va huquqiy kafolatlar yaratilgan. Har bir insonning fikr va so‘z erkinligi, o‘zi istagan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga oid konstitutsiyaviy normalar milliy qonunlarimizda mustahkamlab qo‘yilgan. Qonunlarimizda xalqaro axborot tarmoqlari va internetdan erkin foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratilishini e’tirof etuvchi normalar ham o‘z aksini topgan.

Axborot xavfsizligi bo‘yicha mutaxassislar o‘quvchilarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan noto‘g'ri foydalanishining salbiy oqibatlarini tavsiflovchi tahdidlarning 5 ta asosiy tasnifini aniqladilar.

Birinchidan, Internetdan nazoratsiz foydalanish natijasida ota-ona hokimiyatining zaiflashishi. Ba'zida ota-onalar farzandini global tarmoq bilan yolg'iz qoldirishadi: "Mening bolam katta bo‘ladi" yoki "Bolam nimadir bilan band bo‘lishini va meni bezovta qilmasligini xohlamayman". Bunday holatlar bolalarning internetdan nazoratsiz foydalanishiga birinchi qadam bo‘lib, oxir-oqibatda bolalarning ota-onasiga bo‘ysunmasliklari, ularga yolg‘on gapirishlari, ularga hurmatsizlik ko‘rsatishlariga olib keladi.

Ikkinchidan, ziddiyatli madaniyat, g‘oyalar va mafkuralar tizimi. Hayotning mana shu og‘ir davrida o‘smir o‘zini namoyon qilish, jamiyatda o‘z o‘rnini egallash yo‘llarini izlaydi. U mustaqillikka ehtiyoj sezadi. Shunday qilib, internet tarmog‘ida tarqatilayotgan va targ‘ib qilinayotgan kontrmadaniyat tizimi, boshqa submadaniy oqimlar, diniy ekstremistik mafkuralar hali barqaror shaxsni shakllantira olmagan yosh avlod uchun katta xavf tug‘dirmoqda.

Uchinchidan, anonim internet aloqalari. Anonim suhbatlar haqorat, kamsitish va ta'qib qilish kabi harakatlarga olib kelishi mumkin.

To‘rtinchidan, shaxsiy ma'lumotlarning yo‘qolishi. Bu Internet foydalanuvchilarining (bolalar va o‘smirlar) haddan tashqari ishonchi va ochiqligi tufayli sodir bo‘ladi. Shunga o‘xshash holatlar ijtimoiy tarmoqlarda ro‘yxatdan o‘tish, onlayn xaridlarni amalga oshirish, chat va forumlarda shakllarni to‘ldirishda kuzatiladi.

Beshinchidan, qimor o‘yinlariga qaramlik. Onlayn o‘yinlar haqiqatan ham hayajonli va ularning yaratuvchilari bolalarni iloji boricha uzoq vaqt davomida qiziqtirish uchun barcha choralarni ko‘rishgan. Bunday holatlar bolaning ruhiy charchashiga va o‘yinga qaram bo‘lishiga olib keladi. O‘yinlarga berilib ketgan ko‘plab bolalar ovqatlanishni, uy vazifasini bajarishni unutishadi va hatto uyqusizlikdan azob chekishadi.

Bugungi kunda ta’lim tizimini maqsadli tashkil etish, tarbiyaviy faoliyat samaradorligini oshirish zarur. Chunki ta’lim sohasidagi islohotlar bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Ta’lim tizimi yoshlar ongida mafkuraviy bo‘shliq paydo bo‘lishining oldini olish uchun ularni tashqi mafkuraviy ta’sir va xurujlardan himoya qiladigan kuchli mafkuraviy immunitetni shakllantirishi zarur

Bu bosqichda o‘zingizni himoya qila bilish, internetdagi ruhiyatga zarar yetkazuvchi taqiqlangan va axloqsiz saytlarni ajrata bilish kerak.

Buning uchun siz quyidagilarni bajarishingiz kerak:

- samarali pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va ularning ta’lim muassasalari faoliyatiga faol tatbiq etilishini ta’minlash, barkamol ta’limni amalga oshirish, yoshlarni nafaqat bilimdon, balki ma’naviy-axloqiy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash;

- ta’lim jarayonida yoshlarni turli yot g‘oyalar ta’siridan, axborot xurujlari, “ommaviy madaniyat”ning salbiy ta’siridan asrash maqsadida ularda vatanparvarlik, yurtga sadoqat, uning taqdiriga daxldorlik tuyg‘ularini shakllantirish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratish;

-yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ularning noto‘g‘ri yo‘l tutishiga yo‘l qo‘ymaslik uchun maktabdan tashqari ta’lim shakllarini tubdan yangilash;

- ta’lim muassasalari o‘qituvchilari va ota-onalari o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, shuningdek, globallashuvning zamonaviy sharoitlarining salbiy oqibatlari haqida ota-onalar o‘rtasida tushuntirish ishlarini boshlash;

- o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda oila va maktab o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash;

– yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish maqsadida kitobxonlikni ommalashtirish.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ta’lim sohasining asosiy maqsad va vazifasi o‘quvchilarni intellektual rivojlangan, mustaqil va keng fikrlay oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat bo‘lib, bu borada ularda zamonaviy axborot makonida ongli harakat ko‘nikmalarini shakllantirish zarur. Bu ta'limga muvofiqlashtirilgan yondashuvni va ushbu masalaga ustuvor ahamiyat berishni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 28-yanvar “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 8-sentabrdagi “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-444-son qonuni.

3. Abduazimov O. Ommaviy axborot vositalari – fuqarolik jamiyatini barpo etish omili. –T: “Akademiya”, 2008.

4. Umarova N. Axborot xavfsizligi: muammo va yechimlar. -T: “Akademiya”, 2008.

5. Erkayev A. Globallashuv, axborot xuruji va ommaviy madaniyat. -T: “Tafakkur”, 2019.

OMON MATJON LIRIKASINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI VA BADIIYATI MASALASI

Kumushoy Qurolova
UrDPI talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Omon Matjon she’rlari badiiy-g‘oyaviy tahlili ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, Omon Matjon lirikasidagi mavzular ko‘lami, mazmunning yorqin ifodalanishiga alohida fikrlar keltirilgan.

Abstract. This article examines the artistic and ideological analysis of Omon Matjon’s poems.In addition,special attention is paid to the vivid expression of the scope of topics and content in Omon Matjon’s lyrics.

Аннотация. В данной статье рассматривается художественно-мировоззренческий анализ стихотворений Амона Матджона.

Kalit so‘zlar: Omon Matjon ijodi,lirika,badiiy-g‘oyaviy tahlil,mavzular ko‘lami, adabiyot, ijodkor.

Keywords. Omon Matjon’s work, lyrics, artistic and ideological analysis, scope of topics, literature, creator.

Ключевые слова. Творчество Амона Матджона, лирика, художественно-идеологическийй анализ, литература, автор.

O‘zbek adabiyotida o‘z o‘rni va so‘ziga ega ijodkor Omon Matjon-O‘zbekiston xalq shoiri. She’riyat shunday silsilaki, yondiradi, kuydiradi, kuldiradi, yig‘latadi… Omon Matjon esa o‘sha she’riyat silsilasiga o‘zining so‘zlari,his-tuyg‘ulari bilan kira olgan ijodkor.Hozirgi o‘zbek she’riyatining darg‘alaridan biri Omon Matjon Bog‘olon elining tanti farzandi.U vatan mehri,yor vasli,ishq fasli,do‘slik,bolalik va boshqa kitobxonlar qalbiga yaqin mavzularda she’rlar bitgan.Uning ilk she’riy to‘plami “Ochiq derazalar”(1970) nomi bilan nashr qilingan.Aynan ushbu to‘plamida ijodkor haqiqiy shoir bo‘lib adabiyot olamiga kirib kelganligi o‘z ifodasini topgan.Omon Matjonning zamondoshlari bo‘lgan ijod ahli ham bugun u haqida iliq fikrda…”O‘zimning she’riyat olamida shaxsiy derazam bo‘lsa edi.Undan taralayotgan nur ham shabada ham o‘zimniki bo‘lsa edi.Kitobxonlar shu deraza orqali meni ya’nikim ijodkor Omonni va uning yoniq qalbini ko‘ra olsa edi bu dunyoda armonim bo‘lmas edi.”-derdi ijodkor.Ayni ushbu fikrlar orqali shoir nega birinchi to‘plamini “Ochiq derazalar”deb nomlaganining ham shohidi bo‘lsak ajabmas.Haqiqiy ijodkor hamisha ilhom qanotida bo‘ladi.Shoirning birin ketin ijod namunalari chop qilinadi.”Karvon qo‘ng‘irog‘I”,”Yonayotgan daraxt”,”Yarador chaqmoq”,”Seni yaxshi ko‘raman”,”Daraxtlar va giyohlar”,”O‘rtamizda birgina olma”,”Qush yo‘li”,”Iymon yog‘dusi” va boshqa ijod namunalari so‘z muxlislarining qalbidan chuqur joy olib ulgurgan.Shu o‘rinda,ijodkor she’riyatda o‘z derazasini ochaolgan shoir.Uning har bir ijod mahsulini kitobxonlar iliqlik bilan qarshi oldi.Ijodkor har bir she’rida obraz yarata olgan.She’rlari o‘ynoqi,xalqona va o‘xshashsiz desak,mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ijodkor o‘z tuyg‘ularini she’rlariga jo qilar ekan,shubhasiz bu tuyg‘ular kitobxonlar qalbini ham zabt etadi.Shoir hech qachon olqish istamaydi,mansab demaydi.Ijodkorlik olami juda o‘zgacha olamdir.Bu olamni haqiqiy ijodkorgina ko‘ra

oladi.Ijod bobida ko‘p mashaqqatlar bor.Hatto ilhomning kelishi,misralar to‘lqini,yurak va aql jangi,xayollar ummoni,orzular oshiyoni,dardlar girdobi,armonlar qanoti…Bularning barchasi shoir,ijodkor odamning she’riyat to‘lg‘og‘i deyilmaydimi?Bu to‘lg‘oq ham bir shirin,bir achchiq bo‘ladi.She’rning dunyoga kelishi ham shu zayil…Satrlardagi injiqlik,misralardagi suron va har bir so‘zning yashashga intilishi bu shoir uchun bir o‘lib, bir tirilish demak!Shunday bunyodkorlik yaratmoq esa katta jasorat emasmi?Bu misralarni tahlil qilmoq ham ijod olamini bir sayr aylamoq bilan barobar.Omon Matjonning ko‘pgina she’rlari tahlil qilingan.Fikrlar noto‘g‘ri bo‘lmaydi.Shunchaki,ijod namunasiga ijodkorning ko‘zi bilan qarash ijodkorlikning o‘zini talab qiladi.Ijod namunasida yaratilgan obrazlarni his qilish,ularni shoir nima maqsadda yaratganligini anglash asarni to‘g‘ri tahlil qilish uchun kerakli tuyg‘ularni paydo qilish ham ijodkorlik aslida.

Shoirning tili bilan aytganda:

“Birinchi she’rim haliyam esimda, uning nomi” Baliq va chirik to‘r” edi:

Baliq bilan chirik to‘r,
Janjal qildi juda zo‘r.
Chirik to‘r der:baliqvoy,
Ishing chatoq,holing voy.
Seni o‘rab olaman,
Va xaltamga solaman.
Ovchiga yetkazaman,
Kuningni bitkazaman…

Shoir falon mavzuda she’r yozaman deb qo‘liga qalam olmaydi.Shoirning o‘ylamagan his-tuyg‘ulari oq varoqlarda aks etadi.Boshqa o‘yda yozilgan she’rlar ba’zida katta falsafiy ma’no yaratadi.Xuddi ushbu holat yuqoridagi misralarda o‘z ifodasini topgan.Yuqoridagi misralari orqali ham ijodkor obraz yarata olgan.Bolalarcha yozilgandek tuyilgan she’rda falsafiy ma’no bor.Ushbu she’rda chirigan to‘r va baliq o‘zaro muloqot qiladilar.Bu uslub yosh shoirning bolalarcha badiiy tafakkuri,fantaziyasini namoyon qilgan bo‘lsa,ayni vaqtda o‘zi anglab-anglamagan holda majoziy, falsafiy she’r namunasini yaratganligiga guvoh bo‘lamiz.Chirik to‘r-chirigan tuzum ramzi bo‘lsa,to‘rga ilingan baliq –sobiq sho‘ro odami.Chirik to‘r baliqni tezroq ovchiga yetkazmoqchi bo‘ladi,ammo ozodlik nafasini tuygan, qo‘rqmas,jasoratli baliq chirigan to‘rni dog‘da qoldiradi.She’rning xulosasi ham o‘ziga xos gumanistik va optimistik g‘oyalar bilan sug‘orilgan.Umuman olganda, she’rda yosh shoirning ijtimoiy munosabatlar,ezgulik va yovuzlik,ozodlik va tutqunlik o‘rtasidagi abadiy ziddiyatlar haqidagi ta’sirli ifodalar timsolli obrazlarda o‘z aksini topgan

Omon Matjon lirikasida muhabbat mavzusi alohida o‘rin tutadi. Har bir ijod ahli sevgi nafasini o‘zgacha tuyadi. Jumladan Omon Matjonning ushbu satrlariga e’tibor qaratsak:

Eshigingdan o‘taman…(1967)
Kuz yoysa ham yo‘llarga xazon,
Qor ko‘msa ham borliqni butun.
Ko‘klam kelib ursa ham xandon,

Eshigingdan o‘taman bir kun.

Sochlaringga tushsahamki oq,
Peshanangni bossa ham ajin.
Kirganda ham gavdangga titroq,
Eshigingdan o‘taman bir kun.

Vaqtim yetib chiqsa bu jonim,
Dardlarimga yasalsa yakun.
Bu dunyoni tark etar onim,
Eshigingdan o‘taman bir kun.

Shoir ahlining muhabbati xuddi ijod olamidek go‘zal va o‘zgacha bo‘ladi.Aslida har bir ijodkorga ishq mavzusi notanish emas.Muhabbat haqida she’r bitmoq har bir shoirga ham emas.Omon Matjonning ko‘pgina muhabbat haqidagi she’rlaridan bilib olishimiz mumkinki,uning qalbi muhabbatga oshno,muhabbat ko‘chasidan o‘tgan sevgiga to‘la qalb.Kamtarona muhabbat kuylangan satrlarni mutolaa qilar ekanmiz,vujudimizga hayajon suvi yuguradi.Shoir o‘z sevgan yorining eshigidan o‘tmoqlikni katta hijolatlar bilan yozgan bo‘lsa ajabmas.Hali ko‘zi ochiqligida yor eshigini tavof qilolmasa,omonatini topshirar onda bo‘lsa ham yor eshigidan o‘tmoqlikni o‘z misralarida keltirgan. Aslida muhabbat deb atalmish jumboqning ham javobini topgan:

Seni yaxshi ko‘raman.
Sen oppoq ko‘ylakda qora soch,
Tushimda ko‘rinding yosh pari.
Va bor yo‘q xotirot olamim,
Chekindi ruhimdan tashqari.

Kim bo‘lding? Tanimni osmondan…
Quyoshga nur qilib elatgan.
Kim bo‘lding?Mudroq bu tanamda…
Sanoqsiz daraxtlar gullatgan.

Bu sensan,muhabba0t, tanidim,
O‘ylagan, kutganim,deganim.
Lekin sen nahotki bilmading,
Bu- bir tush uyquda ekanim…

Yuqoridagi go‘zal satrlar orqli ham shoir o‘z muhaabbatini tushlariga yashirgan va kitobxoniga ochiqchasiga oshkor qilmagan.Shoir his –tuyg‘ular o‘ynoqiligidan falsafiy qarashlar yarata olgan.Ijodkorning tilining sofligi,fikrlarining uyg‘unligi,she’rlari mazmun ko‘lamining kengligi diqqatni tortmasdan qo‘ymaydi.She’rlarida qo‘llangan xalqona so‘zlar unga yanada mukammallik va go‘zallik bag‘ishlagan:…

Quyosh tong oldida qizargan kabi,

G‘unchalar **qisinib** yuz yorgan kabi.
Iymanib kelasan ochilolmaysan:
“Anavilar bor-da,o‘shalar…” deysan.
…
Turnalar uchdi,
Bulutlar ko‘chdi.
Og‘ochlarning barglari,
Yerlara tushdi.
G‘amgin ko‘rdim seni bu kez-a,
Bahoringni bermagil **kuza,**
Tabassum qil!

She’rda har bir so‘z nafas olmog‘i, yashamog‘i lozim. Omon Matjonning har bir so‘zi o‘rinli, o‘z qolipida…Biz hali bunday namunalardan ancha keltirishimiz mumkin. Bu ijodkorning sermahsulligidan dalolat emasmi? Shoirning umumbashariy g‘oyalar bilan sug‘orilgan to‘rtliklarini alohida e’tirof qilish lozim:

…
Bu yo‘lda biz qancha qo‘rg‘ondan o‘tdik,
Adirlar, qumlardan, darg‘ondan o‘tdik.
Shoshmay,lekin qaytmay, haq deb har doim,
Bizdan ancha oldda borg‘ondan o‘tdik.
…
Dehqon o‘z xirmonin ko‘rmasin hech kam,
Do‘stlar yig‘ilsinlar erta ham,kech ham.
O‘z yer,o‘z joyida yashasin ellar,
O‘z erkin boshqadan so‘ramay hech ham!
…
Birlik- ko‘ngil bilan gulning birligi,
Birlik-vijdon bilan tilning birligi.
Birlik to‘qson ikki bovli o‘zbakning-
Ertadan umidvor elning birligi.

Ijod sarhadalaridan shunday to‘rtliklar ham munosib o‘rin olgan ijodkorni,uning ruhiyatini,ichki olamini har bir kitobxon har xil tasvirlaydi shubhasiz!Uning ushbu satrlarida ham o‘zining ruhiyat chizg‘ilarini ko‘rishimiz mumkin.Ijodkor hech qachon o‘ziga talab qo‘ya olmaydi.U borini yozadi.Omon Matjonning yana bir go‘zal satrlariga nazar tashlaymiz:

Umr o‘tar.
Umr o‘tar, vaqt o‘tar,
Xonlar o‘tar, taxt o‘tar.
Omad o‘tar, baxt o‘tar,
Lekin hech qachon chiqmas yodimdan…
Sening yurishlaring,sening kulishlaring.
Bahorda bog‘ na go‘zal,
Qor tushsa,qor na go‘zal.
Bu yoshlik chog‘ na go‘zal,

Lekin hech qachon chiqmas yodimdan…
Sening qarashlaring,xolim so‘rashlaring.

Qo‘shiqqa aylanib ulgurgan satrlarda ijodkorning mahorati, so‘zlarni o‘rnida qo‘llay olishi yaqqol sezilib turadi.Dunyoning o‘tkinchiligi bilan bog‘langan muhabbat tuyg‘ulari talqini sevgi ohangrabosini taratgan desak,mubolag‘a bo‘lmaydi.Ammo bu misralarda hayotiy- falsafiy qarash yashirin.Muhabbati pinhonaligi,tuyg‘ulari yashirinligi ayniqsa kitobsevarlar diqqatini tortadi.

Shoir kimnidir sevgan va buni oshkora aytmagan.Bu holatni shoirning she’rlarida yaqqol his qilish mumkin.Shoir ijodiga tubdan nazar tashlar ekanmiz,uning ijodi takrorlanmas,mavzular ko‘lami rang-barang ekanligining guvohi bo‘lamiz.Ijodkorimiz haqida gap borar ekan,Omon Matjon nafaqat she’riyat balki tasviriy san’atdan ham xabardor bo‘lgan shoir.U she’rlari orqali tuyg‘ularning rangin jilosini chizgan.

Omon Matjon haqida ijodkor shoir Davron Rajabov shunday deydi: “Zamonaviy adabiyotni va zamonaviy tasviriy san’atni bilishi bu ijodkorning eng katta yutug‘i.Uning Pol Ga Gen va ko‘plab fransuz rassomlari asarlari bilan tanish ekanligi har birimizni hayratlantirishi turgan gap.Omon akaning she’rlarida rassomona tasvirlarni uchratamiz.Bir vaqtning o‘zida matnning ma’nosini anglaymizu,bo‘layotgan voqea-hodisani rassom ifodalaganday.

Haqqush qichqirig‘i” kitobi bor. Juda ham mashhur. Afsonalardan tashkil topgan.40 ta afsonani o‘z ichiga oladi deyilgan.Ammo 39-afsonadan keying afsona bo‘sh edi.Ijodkor aytardi:”Har kimning o‘z afsonasi bo‘lishi kerak.Har kim o‘z afsonasini yozishi kerak!”Bu shu davr uchun juda hayratlanarli hol edi.”

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki,ijodkor she’rlarida yashadi,she’rlarida nafas oldi.”She’riyat” she’rida shoir shunday degan edi:

…Men ham shoshilyapman senga she’riyat!
Sen sari ketguvchi ulkan kemadan …
Faqat yuklarimga joy topsam, mayli.
She’riyat!

U she’riyatga talpinib,misralar bag‘rida suzib yashadi.Uning she’riyat ummoni shu qadar cheksizki, undan har kim ham suzib o‘taolmaydi.Omon Matjon she’riyatining o‘ziga xosligi ham shunda.U hech kimga o‘xshamadi va haligacha hech kim u bo‘la olmadi.

Adabiyotshunos Umarali Normatov uni “Omon-jahongashta shoir”,deb ta’riflagan edi.Shubhasiz uning ijod namunalari bugun dunyo kitobxonlari orasida qo‘lma –qo‘l bo‘lmoqda.Qisqa qilib aytganda:”U o‘z qalbining Kolumbi bo‘la oldi”..Zamin farzandi,so‘z qadrdoni,she’riyatning yuragi Omon Matjon o‘zbek adabiyotida xuddi Kolumb kabi yangilik yarata oldi.U o‘zining hech kimnikiga o‘xshamaydigan she’riyat olamini kashf etdi.Endi biz Omon Matjon deganda qaraydigan deraza borligi bilan ham qalbimiz cheksiz mehr-muhabbatga to‘ladi.

O‘zbekiston xalq shoiri Xurshid Davron shoir Omon matjon haqida shunday deydi:”Omon aka hech qachon adabiyotga ham,so‘zga ham xiyonat qilgan inson emas.Uning har bir she’rida o‘ziga xoslik,badiiy- g‘oyaviy fikrlar bo‘lar

edi.Hattoki,she’rlarini ham o‘z uslubida,o‘ziga xoslik bilan,boshqa shoirlarnikiga o‘xshatmasdan o‘qir edi.”Haqiqatdan ham shoir adabiyot olamiga Xorazm nafasini olib kirdi.Shoir katta daryo.Uning to‘lqinlari har bir qalbning torlarini chertib o‘tajak.U o‘zidan shunday irmoqlar qoldirdiki,bu irmoqlar ham vaqti kelib adabiyotning buyuk ummoniga aylanadi shubhasiz…Omon Matjonda tushib qoladigan she’rlar yo‘q.Uning she’rlari umrboqiy…

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Omon Matjon. “Haqqush qichqirig‘i”-T.1979
2.Omon Matjon. “Umr o‘tar, vaqt o‘tar”-T.:O‘zbekiston,2016
3.Omon Matjon. “O‘rtamizda birgina olma. -T:Yosh gvardiya,1990
4.Omon Matjon. “Yonayotgan daraxt”-Toshkent:G‘.G‘ulom,1977
5.Jumaboyeva.J “XX asr o‘zbek she’riyatida psixologik tasvir mahorati”-T,2024.

ODIL YOQUBOVNING “ULUG‘BEK XAZINASI” ROMANIDAGI KONFLIKTLAR

Qozaqova Laylo Yusufjon qizi
UrDPI Filologiya va tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbek nasriy adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lgan **O**dil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanidagi konfliktlar haqida fikr yuritilgan. Ilmiy adabiyotlardagi konfilkt turlari roman syujetidan kelib chiqqan holda tahlil qilingan.

Abstract. This article discusses the conflicts in the novel "The Treasure of Ulugbek" by Odil Yakubov, one of the great representatives of Uzbek prose literature. The types of conflicts in scientific literature are analyzed based on the plot of the novel.

Аннотация. В данной статье рассматриваются конфликты в романе Одила Ягубова, одного из крупнейших представителей узбекской прозы, «Сокровища Улугбека». Анализируются типы конфликтов в научной литературе на основе сюжета романа.

Kalit so‘zlar: konflikt, konfliklt va syujet, I.Bexer, ichki(psixologik), dilemma, xarakterlararo, qahramon va muhit.

Keywords: conflict, conflict and plot, I. Becher, internal (psychological), dilemma, inter-character, hero and environment.

Ключевые слова: конфликт, конфликт и сюжет, И. Бехер, внутренняя (психологическая), дилемма, межперсонаж, герой и окружение.

Har qanday hayotiy jarayonda, qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar uchrashi mumkin. Yaxshilik va yomonlik, vafo va jofo, ezgulik va yovuzlik, oq va qora, muhabbat va nafrat singari. Ular doimo bir- birlari bilan kurashib keladilar. Badiiy adabiyot ham qadimdan insonlarning ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurashlarini talqin qilib keladi. Ana shu azaliy kurashlar baddiy asarda konflikt (qarama-qarshilik) sifatida namoyon bo‘ladi.

Konflikt (lot.conflictus-to‘qnashuv) – badiiy asarda ishtirok etuvchi shaxslar o‘rtasidagi yuzma-yuz kurash yoki qahramonlarning o‘z atrofini qurshab olgan muhiti,o‘z-o‘zi bilan ruhiy to‘qnashuvi,olishuvi. “Konflikt-syujetni harakatga keltiruvchi kuchdir.”[Boboyev T, 2002:114] Agar syujetni dengiz deb oladigan bo‘lsak, dengiz to‘lqinlarining mavjlanishi-yu, u yerda sodir bo‘ladigan to‘fonlar konfilktdir. Buyuk nemis shoiri I.Bexer shunday deydi: “Badiiy asarda zarur keskinlikni yuzaga keltiradigan narsa nima? –Konfilkt. Hayotda, adabiyotda…bizni oldinga harakat qilishga undaydigan narsa nima?-Konfilkt! Konfilkt qanchalik teran,qanchalik ahamiyatli bo‘lsa, shoir ham shunchalik ahamiyatli bo‘ladi.Poeziya osmoni qachon musaffo bo‘lib charaqlab turadi ? Momoqaldiroqli jaladan,musbat va manfiy qutblar to‘qnashuvidan,konfilktdan keyin mana shunday hol yuz beradi.”[I.Bexer,1965:156]

Odil yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanidagi konfilktlar asar syujetining qiziqarli bo‘lishiga xizmat qilgan,desak mubolag‘a bo‘lmaydi.Asarning bosh qahramoni bo‘lmish Temuriyzoda Mirzo Ulug‘bek, qirq yil Muvarounnahrga rahnamolik qilgan,ko‘plab ilmiy asarlar muallifi,podshohlik yo‘lida ham,ilm yo‘lida ham birdek ter to‘kkan qahramon sifatida tasvirlanadi.Ko‘plab ilm-u toliblarga

ustodlik qilgan Mirzo Ulug‘bek o‘z pushtikamaridan bo‘lgan o‘g‘illari Abdulatif va Abdulazizlarning aqli qosirligidan ko‘ngli hira tortadi.Mirzo Ulug‘bek garchi,ilm-ma’rifat yo‘lini toj-u taxtdan ustun qo‘ygan bo‘lsada,yurt osoyishtaligini ta’minlash va xalqiga tinchlik atalmish buyuk ne’matni in’om etish yo‘lida qilich tutgan insondir.Romanda xarakterlararo, psixologik va qahramon va muhit o‘rtasidagi konflikatlar uchraydi.

Xarakterlararo konfliktda qahramon boshqa personaj yoki personajlar guruhining qarshiligiga duch keladi. Bu jismoniy qaramaqarshiliklar, og'zaki tortishuvlar yoki ijtimoiy mojarolarni o‘z ichiga olishi mumkin.[D.Quronov,116] Bunga misol qilib, Mirzo Ulug‘bek va uning o‘g‘li Abdulatif, Abdulaziz va Mavlono Muhiddin, Mirzo Ulug‘bek va Gavharshodbegim, Muhammad Tarag‘ay (M.Ulug‘bek) va uning amirlari bundan tashqari,Ulug‘bek va Xomush obrazlarini aytishimiz mumkin.

Mirzo ulug‘bekning o‘g‘li Abdulatif o‘z qo‘shini bilan saltanatni egallash uchun unga qarshi chiqadi.Dastavval,Mirzo Ulug‘bek o‘g‘li bilan sulh tuzishga harakat qiladi.Ammo, shahzoda Abdulatif Jayhundan o‘tib, Kesh qal’asiga bostirib boradi.Bu paytda Kesh qal’asini Amir Kamolliddin boshqarayotgan edi.Amir Kamolliddin hech qanday qarshiliksiz o‘z ixtiyori bilan Kesh darvozalarini Abdulatifga ochib beradi.Roman shahzodaga Juvonbaxt deya murojat qilingan joylarini uchratishimiz mumkin.Oxir oqibatda Mirzo Ulug‘bek o‘z pushtikamaridan bo‘lgan shahzoda Abdulatifga ta’slim bo‘ladi. Abdulatif esa otasini barcha ilm yo‘lida to‘plagan ilmiy asarlarini,yozgan barcha riyoziot ilmiga doir kitoblarini va rasadxonadagi barcha ilmga oid narsalarni yo‘q qilishni buyuradi.Shuningdek, Mirzo Ulug‘bek barcha shogirdlariga,aniqrog‘i ilm ahliga qarshi chiqadi.

Shahzoda Abdulatif Mirzo Ulug‘bekni esa Haj safariga yuborishga fatvo beradi.Aslida, esa bu bir hiyla yani fuqarolar va amirlar uni padarkush deb unga qarshi chiqmasliklari uchun otasini Haj ziyoratiga yuborib uni yo‘lda o‘ldirtirish edi.Ammo uning nodir asarlarini,to‘plagan noyob kitoblarini yo‘q qila olmaydi. Mirzo Ulug‘bekning dunyoviy ilmlarni o‘rganishi,osmon jismlarni harakatlarini kuzatishiga faqatgina Abdulatif emas,balki,ayrim din peshvolari ham norozi edilar.Misol uchun,asradagi yana bir konfilkt bu – Ulug‘bek va Naqshbandiylar jamosining rahnamosi janob Nizomiddin Xomush edi.Nizommiddin Xomush romanda xurofot botqog‘iga botib qolgan johil ulamo sifatdi tasvirlanadi.U Mirzo Ulug‘bek haqida dunyoviy ilmni ulug‘lab,ilm ahlini e’zozladi,diniy ilmni inkor etib,din peshvolariga nisbatan hurmatsizlik qilishda ayblab turli hil mish-mishlarni tarqatib,din rahnamolarini va ziyolilarni podshohga qarshi qilib qo‘yadi. Asarda yana bir Abdulatifni o‘z otasiga qarshi qilgan orbraz sifatida Gavharshodbegim tasvirlanadi.

Gavharshodbegimni Mirzo Ulug‘bek “ U qosh- ko‘zlari qop-qorq, qiyg‘irburun,xushsurat xotun bo‘lsa ham farishtasi yo‘q,chehrasi sovuq ayol edi,”-deya ta’riflaydi.Dastlab,Shohrux Mirzo vafotidan keyin,Hirot uning kirdikorlari tufayli,Hirot saroyida nizo-nifoq avj oladi va beqiyos saltanat xvf ostida qoladi.Bu fitna-yu xunliklar foyda bermagandan keyin,Gavharshodbegim o‘z o‘g‘li Ulug‘bekka “Shohi sharir” (buzuq shoh) degan nom taqib,unga tarbiyasidagi shahhzoda

Abdulatifni qayrab qo‘yadi.Gavharshodbegim o‘z o‘g‘li va nabrasi o‘rtasiga dushmanlik urug‘ini ekkan volida sifatida tarixda qolgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Romanning bosh qahramonlaridan biri bo‘lgan Abdulaziz va Mavlono Muhiddin obrazlarini xarakterlararo konflikltga misol qilib olishimiz mumkin.Mavlono Muhiddinning husnda tengi yo‘q,xusnihati benazir,ta’limi va tarbiyasi bilan hammani lol qoldiradigan qizi bor edi,hatto Mirzo Ulug‘bekning bir nechta risolalarini ham ko‘chirib bergan va Ustod uning xusnihatiga qoyil qolgan edi.Mavlono Muhiddinning qizini Ali Qushchi o‘z shogirdi bo‘lmish Qalandar Qarnoqiyga so‘rab sovchilikka boradi.Ammo,Mavlono va uning otasi Xoja Salohiddin uni qattiq rajitib qaytarib yuboradi. Muhiddin qizini Amir Ibrohimbekning o‘g‘liga turmushga beradi.Mirzo Ulug‘bek Samarqand Abdulazizga topshirib, o‘zi juvonbaxt Shahzoda Abdulatif bilan jang qilish uchun ketgan paytida,saroyda qolgan shahzoda Amir Ibrohibekni o‘g‘lini qatl ettirib,uning ayolini (Muhiddinning qizi Xurshidabonu) o‘z haramiga olib keladi.Bu voqeadan juda kech xabar topgan podshoh esa,Xurshidabonudan kechirim so‘raydi va uni saroydan ketishiga ruxsat beradi. Mirzo Ulug‘bek va Abdulatif bilan bo‘lgan jangda,juda ko‘plab amirlarning, saroybonlarning podshohga nisbatan xiyonat qilishi romandagi yana bir xarakterlararo konfilikning namunasi desak bo‘ladi.Xususan,Jondor sulton,Mironshoh,Shohruhiya qal’asini boshlig‘i Ibrohim Po‘lat o‘g‘li,kabi uning ishonga amir-u beklari jang paytida Abdulatif tomonga o‘tib ketishadi.

Bundan tashqari, asarda psixologik konfliktlar ham ucharaydi. Bu turdagi ziddiyat qahramonning ongida sodir bo‘ladi. Bu qahramonning o‘z qo‘rquvlari, shubhalari yoki axloqiy dilemmalari (mantiqiy hukm) bilan kurashishini o‘z ichiga oladi. Ichki konflikt ko‘pincha qiyin qarorlar, hissiy tartibsizliklar yoki o‘z-o‘zini kashf qilish atrofida aylanadi.Romanda Mirzo Ulug‘bek podshohlik va otalik mas’uliyatini o‘z zimmasiga olgan holda qaror qabul qilish jarayonida ziddiyatlar va his tuyg‘ularining iskanjasida qoladi. Yani Shahzoda Abdulazizni ko‘ngliga juda yaqin oladi.Chunki uning jismi nogiron,ko‘ngli yarim deb uni hamisha o‘z yonida olib yuradi.Ammo,Abulazizning Amir Ibrohimbekning o‘g‘lini qatl qildirishi va ayolini o‘z haramiga olib kelishi,Ulug‘bek shoh sifatida qahr-g‘azabga to‘lgan bo‘lsa-da,ota sifatida o‘g‘lini bunday odobsizlik qilishi dilini qattiq o‘g‘ritgani haqiqatdir.Lekin,Mirzo Ulug‘bek bu vaziyatda Ali Qushchi bilan bo‘lgan suhbatda qaysi barmog‘imni tishlasam ham jonim og‘riydi degan gaplarni aytib o‘tadi.Yoki bo‘lmasa,Shahzoda Abdulatif uning ustiga lashkar tortib kelgan paytda shoh sifatida uning tomiridagi buyuk bobosi Amir Temurning qoni jo‘sh urib qilich yalong‘lab turib shahzoda bilan jang qilishni hohlasa ham,ota sifatida toj-u taxt,saltanat,boylik va shon-shuhrat uchun o‘z pushtikamiradan bo‘lgan o‘g‘liga qarshi chiqishni o‘ziga ep ko‘rmagan. Har ikkala vaziyatda ham,Mirzo Ulug‘bek ota sifatida qaror qabul qilgani ayni haqiqatdir. Mirzo Ulug‘bek o‘g‘liga toj-u taxt hech kimga vafo qilmagan,hatto buyuk Sohibqiron Amir Temurga ham bu saltanat,shon- shuhrat vafo qilmaganligini bod- bod takrorlaydi,biroq,Abdulatif otasini nasihatlariga uloq tutmasdan otasidan bobosi Amir Temurdan qolgan oltin va javohirlarni qayerga yashirganini so‘raydi.Bu savoldan keyin Mirzo Ulug‘bek o‘g‘lini hech qanday gap qulog‘iga kirmayotganini anglab

yetadi. Ulug‘bek shahzoda Abdulatifning toj –u taxt boylik va mansabparastligi ko‘zlarini ko‘r qilib qo‘yganidan juda qattiq afsuslanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak,romanda keltirilgan konfiliktlar badiiy asar syujetini yorqinroq bo‘lishini ta’minlangan. Asardagi psixologik konfilikt sifatida ko‘rsatilgan Mirzo Ulug‘bek obrazi, uning ichki kurashlari romanning hissiy o‘zagini tashkil qiladi va asardagi bu to‘qnashuvlar qahramonning ichki holatini kitobxonga to‘laqonli ochib berish imkonini beradi.Ushbu asrda Mirzo Ulug‘bek toj- taxt o‘rniga doimo ilm-ma’rifatni, qilich o‘rniga qalamni, podshohlik o‘rniga esa otalikni,insoniylikni tanlagan obraz sifatida tasvirlanadi.

Asardagi xarakterlararo konfiliktlarning ba’zilari ma’lum epizodlarda davom etib, keyinchalik g‘oyib bo‘lsa, ba’zi konfilktlar asarning bosh qismidan boshlanadi, voqealar rivojlangan sari konflikt ham rivojlanib boradi va asar so‘ngida yechiladi.Xuddi,Mirzo Ulug‘bek va Abdulatif o‘rtasidagi konfliklt singari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” roman nurli dunyo nashiryot uyi Toshkent 2024.

2. “Badiiy adabiyotda konflikt masalalari” mavzusidagi Dilshodbek Sharipov maqolasi.Turan International University Erkin tadqiqotchisi dilshodbeksharipov93@gmail.com

3. A.Tolstoy. Adabiyot, M., 1958, 358-бет.

4. I.Bexer. “Mening sevimli she’rim,” 1965: 156-betlar.

5.T.Boboyev. “Adabiyotshunoslik asoslari” O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi universitetlar va pedogogika oliy o‘quv yurtlaring filologiya (o‘zbek tili va adabiyoti) fakulteti talabalari (bakalavr bosqichi uchun) uchun darslik sifatida tafsiya etilgan.Toshkent—“O‘zbekiston” -2002

ОСОБЕННОСТИ ОПРЕДЕЛЕНИЯ КАТЕГОРИИ РОДА ЗАИМСТВОВАННЫХ СЛОВ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Исмагилова Мадина Фаридовна
Ст преподователь кафедра «Узбекский и русский язык литература» УрГПИ,
Жумабоева Севинч Бахтиёровна
студентка 2-курса 234 группы направления «Русский язык в иноязычных группах» УрГПИ.

Аннотация. Эта статья посвящена изучению спецификаций для разделения слов, распущенных на русском языке. В нем анализируется заимствования, влияющее на стержень слов, то есть на его фонетическое и морфологическое сходство, семантическую и грамматическую форму, а также анализируются первичные языковые характеристики. Кроме того, проанализированы некоторые случаи заимствования, которые в русском языке совсем не обнаруживаются. Данное исследование весьма полезно как для учителей, так и для учеников, заинтересованных изучением раздела лексикологии.

Ключевые слова: род, заимствования, морфологическая особенность, орфографическая особенность, семантическая особенность, окончание, суффикс, неизменяемые слова.

Abstract. This article is devoted to the study of specifications for separating words loose in Russian. It analyzes borrowings that affect the core of words, that is, its phonetic and morphological similarity, semantic and grammatical form, and also analyzes the primary linguistic characteristics. In addition, some cases of borrowing are analyzed, which are not found at all in the Russian language. This study is very useful for both teachers and students interested in studying the section of lexicology.

Key words: gender, borrowings, morphological feature, spelling feature, semantic feature, ending, suffix, unchangeable words.

Annotatsiya. Ushbu maqola rus tilidagi bo‘sh so‘zlarni ajratish uchun texnik xususiyatlarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda so‘zlarning o‘zagiga, ya’ni fonetik va morfologik o‘xshashligiga, semantik va grammatik shakliga ta’sir etuvchi o‘zlashuvlar tahlil qilinadi, shuningdek, birlamchi lingvistik xususiyatlar tahlil qilinadi. Bundan tashqari, rus tilida umuman uchramaydigan qarz olishning ayrim holatlari tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot leksikologiya bo‘limini o‘rganishga qiziqqan o‘qituvchilar va talabalar uchun juda foydali.

Kalit so‘zlar: jins, o‘zlashuvlar, morfologik xususiyat, imlo xususiyati, semantik xususiyat, tugash, qo‘shimcha, o‘zgarmas so‘zlar.

Заимствованные слова играют важную роль в развитии русского языка, обогащая его лексический состав и расширяя возможности выражения. Однако определение категории рода заимствованных слов представляет собой сложную задачу, требующую учета различных факторов, таких как фонетические, морфологические и семантические особенности. В настоящее время приток иностранных слов в русский язык увеличивается, в частности, многие слова из английского языка проникают в русский язык. В основном это касается сфер техники, спорта, образования, моды и культуры.

В конце XX и начале XXI века английский язык оказывает большое влияние на русский язык, в частности, в него вошли многие слова из сферы информационных технологий, маркетинга, финансов и спорта. Данные слова можно распределить по определенным группам слов:

А) Компьютерные технологии: смартфон(smartfon), интернет (internet), гаджет(gadget), софт(soft- программное обеспечение).

Б) Бизнес и деньги: стартап (startup), бренд(brand), менеджер(manager), инвестиция (investitsion).

В) Спорт и мода: фитнес (fitness), теннис (tennis), лук (look– внешный вид).

В то же время многие слова, связанные с искусством, модой, едой, технологиями, бизнесом и автомобилями, пришли в русский язык из китайского, арабского, турецкого, итальянского и других языков.

Особо следует отметить, что заимствованные слова изучали, изучают и по сей день многие лингвисты и филологи. Среди них такие как:

1.Марк Фасмер является автором «Этимологического словаря русского языка», в котором подробно рассматриваются заимствованные слова.

2.Александр Преображенский исследовал влияние западноевропейских языков на русский язык.

3.Николай Шанский занимался морфологией и словообразованием, уделял внимание заимствованием.

4.Виктор Виноградов изучал стилистику и влияние иностранных слов на русскую лексику.

5.Леонид Скворцов исследовал процесс адаптации заимствованных слов в русском языке.

Основные аспекты определения рода заимствованных слов

1. Фонетические особенности

Фонетическая структура заимствованных слов может влиять на их род. Например, слова, заимствованные из французского языка, часто имеют окончание, характерное для существительных женского рода, что может вводить в заблуждение. Однако важно учитывать, что не все слова с такими окончаниями относятся к женскому роду в русском языке.

2. Морфологические характеристики

Морфологические признаки, такие как окончание и склонение, также играют важную роль. Заимствованные слова могут сохранять свои оригинальные формы, что иногда затрудняет их интеграцию в русскую грамматику. Например, слово "кафе" сохраняет форму, характерную для среднего рода несмотря на то, что в других языках оно может иметь другой род.

3. Семантические факторы

Семантика слова также может влиять на его род. Например, слова, обозначающие профессии или роли, могут иметь разные родовые формы в зависимости от контекста. Слово "менеджер" может использоваться как в мужском, так и в женском роде, в зависимости от того, о ком идет речь.

Признаки заимствованных слов

1.Если начало слова начинается с буквы «а»: абажур, апрель, алый, армия, аптека.

2.Если в корне слова есть буква «э»: мэр, алоэ, эмоции, фаэтон.

3.Если в слове есть буква "ф": графин, скафандр, февраль.

4.Если сочетаний двух или несколько гласных в корнях слов: диета, дуэль, ореол, поэма, караул.

5.Если есть сочетаний согласных "кд","кз","гб","кг" в корнях слов: анекдот, вокзал, шлагбаум, пакгауз.

6.Если есть сочетаний "ге","ке","хе" в корне: легенда, трахея.

7.Если есть сочетании "бю","вю","кю","мю" в корнях слов: бюро, гравюра, кювет, коммюнике.

8.Если есть двойных согласных в корнях слов: вилла, прогресс, профессия, сессия, ванна.

9.Если произношение твёрдого согласного звука перед гласными [э] (буквой "е"): модель [дэ], тест [тэ].

10.Несклоняемость слов: протеже, кешью, курабье, барбекю.

11.Если есть иноязычных приставок интер-, де-, ин-, ре-, контр-, анти-, дез- и других: дедукция, дезинформация, реконструкция.

Определение родовой принадлежности заимствованных слов в русском языке имеет свои особенности и может быть связано с их происхождением, морфологией, а также с существующими в языке аналогами.

Вот основные особенности, которые учитываются при определении их принадлежности:

1. Морфологические особенности. Заимствованное слово может приобретать род в зависимости от окончания. Вот основные закономерности:

Мужской род. Слова, оканчивающиеся на согласный звук, чаще всего относятся к мужскому роду:

А) английские слова: компьютер, фильм, клавиш, лидер, пудинг, пиджак, торт, свитер, спорт, бокс, турист, чемпион.

Б) французике слова: ресторан, жакет, комфорт, визит, мармелад, одеколон, офицер, солдат, табурет, тротуар, фильтр

в) немецкие слова**:** галстук, бутерброд, шланг, бухгалтер, орден, штраф, штурм, кварц, лук

Исключение: Слова, связанные с естественным полом (например, мадам), относятся к женскому роду.

Женский род. Слова, оканчивающиеся на **-а** или **-я**, обычно такие заимствования воспринимаются как слова женского рода:

А) итальянские слова: арка, баррикада, канцона, балерина.

Б) французские слова: батарея, мода, котлета, пьеса, этажерка.

В) немецкие слова: дамба, канцелярия, кнопка, кухня, рота, скамейка, форточка.

Слова, оканчивающееся на **–ь** (мягкий знак), некоторые заимствования женского рода. Например: шаль (от нем. schal), роль (от фр. role), виолончель (от ит. violoncello).

Средний род. Слова на **-о** или **-е** относятся к среднему роду: кино, кафе, метро.

Если заимствованное слово совпадает по форме с существующими в языке словами, его род часто определяется аналогией. Например: Суши — слово неизменяемое, но его ассоциируют с множественным числом, как и многие русские слова на -и.

2. Род в самом языке - источнике. Иногда род слова в языке-источнике может влиять на его род в русском, особенно если это имя собственное или термин. Наприме: вермут (нем.) — мужской род в русском языке. Однако, не всегда род сохраняется: какао (исп.) — средний род.

3. Семантические признаки. Род может быть определен исходя из значения слова:

Слова, обозначающие одушевленные существа, чаще получают род в соответствии с полом. Например: мадам, мадемуазель миссис, леди-женский род; месье, маэстро-мужской род. Для неодушевленных слов значение играет меньшую роль.

4. Неизменяемые слова. Неизменяемые заимствованные слова (например, суши, пюре, пальто) обычно получают род в зависимости от их ассоциации с аналогами в русском языке: пальто — средний род (по аналогии с окончаниями на -о); кофе — мужской род (традиционное значение), хотя допускается и средний.

5. Отклонения и варианты. Некоторые заимствованные слова могут иметь колебания в определении рода: кофе — изначально мужской род, но в современном языке часто используется как средний; тонна и мегабайт — род определяется по главному слову в значении (например, единица измерения женского рода — тонна).

6. Новейшие заимствования. Для слов, недавно заимствованных, род, может быть, не сразу закреплен. Он определяется со временем в процессе использования. Например, гайд (от англ. guide) — чаще мужской род, но встречается в нейтральных контекстах.

Род заимствованных слов определяется их фонетической и морфологической адаптацией, а также аналогиями в русском языке. Хотя существуют общие тенденции, исключения и колебания достаточно часты, особенно в случае новейших заимствований.

Эти правила помогают избежать ошибок при соединении заимствованных слов со словами из других словарных групп и помогают правильно использовать их в речевом процессе.

Основные рекомендации при определении категории рода заимствованных слов:

1.При использовании заимствованных слов важно обращать внимание на их род и склонение. Рекомендуется:

2.Проверять слова в словарях, чтобы определить их правильный род.

3.Учитывать контекст, в котором используется слово, чтобы избежать ошибок.

4.Обращать внимание на фонетические и морфологические особенности заимствованных слов.

В настоящее время наиболее активны заимствования из английского языка. Слова, связанные с компьютерными технологиями, интернетом, бизнесом, модой и музыкой, в основном заимствованы из английского языка.

Иноязычные слова в лексике современного русского литературного языка хотя и представляют довольно многочисленный пласт лексики, но тем не менее не превышают 10% всего его словарного состава. В общих лексической системе языка лишь небольшая их часть выступает в качестве межстилевой общеупотребительной лексики; подавляющее большинство их имеет стилистически закрепленное употребление в книжной речи и характеризуется, в связи с этим узкой сферой применения (выступая как термины, профессионализмы, варваризмы, специфически книжные слова и т. д).

Таким образом, словарный состав русского языка обогащался из многих источников, и этот процесс продолжается и по сей день. Хотя точную цифру в процентном отношении назвать сложно, есть информация, что примерно 10–20% слов являются заимствованными. Определение категории рода заимствованных слов в русском языке является сложной задачей, требующей учета различных факторов. Фонетические, морфологические и семантические характеристики играют ключевую роль в этом процессе. Правильное использование заимствованных слов обогащает язык и способствует его развитию.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Баранов А. В. Русский язык: грамматика и лексикология. – Москва: Наука, 2010.

2. Кузнецов В. И. Заимствованные слова в русском языке: проблемы и решения. Санкт-Петербург: Издательство РГП, 2015.

3. Соловьев А. Н.. Словарь заимствованных слов. – Москва: Эксмо, 2018.

4. Шмелев И. А. Фонетика и морфология заимствованных слов.– Казань: Казанский университет, 2012

5. Шанский Н.М. Лексикология современного русского языка. – Москва «Просвещение», 1972.

6. https://cyberleninka. ru/article/n/istoriya-zaimstvovaniy-slov-v-russkom-yazyke

7. https://ru.m.wikipedia.org/wiki/

ОСНОВНЫЕ АСПЕКТЫ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ

Исмагилова Мадина Фаридовна
Ст/ преподователь кафедра «Узбекский и русский язык литература» УрГПИ,
Юлдашева Зиёдахон Рустамбек кизи
студентка 2 -курса УрГПИ, Ургенч ziyodayuldasheva59@gmail.com

Аннотация. В данной статье мы рассмотрим основные аспекты заимствований в русском языке, их классификацию и влияние на язык. Работа помогает лучше понять закономерности адаптации заимствованных слов и избежать распространённых ошибок при их употреблении.

Ключевые слова: заимствованные слова, род, язык, классификация, аспекты, языковая идентичность.

Annotatsiya. Ushbu maqolada biz rus tilidagi qarzlarning asosiy jihatlarini, ularning tasnifi va tilga ta'sirini ko‘rib chiqamiz. Ish olingan so‘zlarning moslashish naqshlarini yaxshiroq tushunishga va ulardan foydalanishda keng tarqalgan xatolardan qochishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: o‘zlashtirilgan so‘zlar, jins, til, tasnif, jihatlar, lingvistik o‘ziga xoslik.

Abstract. In this article we will look at the main aspects of borrowings in the Russian language, their classification and impact on the language. The work helps to better understand the patterns of adaptation of borrowed words and avoid common mistakes when using them.

Key words: borrowed words, gender, language, classification, aspects, linguistic identity.

Русский язык, как и любой другой язык, постоянно развивается и изменяется. Одним из ключевых факторов, способствующих этому процессу, является заимствование слов и выражений из других языков. Заимствования могут происходить по различным причинам, включая культурные, экономические и социальные изменения. В данной статье мы рассмотрим влияние заимствований на русский язык, их источники и последствия.

Заимствование слов из других языков – это естественный процесс, обогащающий лексику русского языка. Однако одно из главных затруднений, возникающих при адаптации таких слов, – определение их грамматического рода. В русском языке каждое слово принадлежит к одному из трех родов: мужскому, женскому или среднему. Для носителей русского языка обычно не составляет труда определить род слова. Например, "стол" — он (мужской род), "чашка" — она (женский род), "солнце" — оно (средний род). Тем не менее, иногда возникают трудности, особенно с заимствованными и несклоняемыми словами. Заимствования — это слова, которые были перенесены из одного языка в другой. В русском языке заимствования играют важную роль, обогащая его лексику и позволяя выражать новые концепции и идеи.

Заимствования можно классифицировать по нескольким критериям:

1. По происхождению:

Лексические заимствования: слова, перенесенные из других языков (например, "ресторан" из французского).

Фонетические заимствования: слова, которые были адаптированы к фонетическим нормам русского языка (например, "компьютер" из английского).

2. По степени адаптации:

Полные заимствования: слова, которые полностью адаптированы к русскому языку (например, "бюджет").

Частичные заимствования: слова, которые сохраняют элементы оригинала (например, "футбол" с английского).

Заимствования в русский язык начали поступать с момента его формирования. Влияние других языков, таких как церковнославянский, польский, французский, немецкий и английский, заметно на протяжении всей истории русского языка. Например, в XVIII-XIX веках, когда Россия активно взаимодействовала с Западной Европой, в язык вошло множество французских слов, таких как "бюро", "ресторан", "модный".

Однако заимствования также могут вызывать споры среди лингвистов и носителей языка. Некоторые считают, что чрезмерное использование заимствованных слов может привести к утрате языковой идентичности.

Слова, обозначающие неодушевленные предметы, чаще всего относятся к среднему роду, а род одушевленных существительных определяется по полу.

Примеры:

"Резюме", "безе", "колье" — неодушевленные, средний род.

"Конферансье", "маэстро" — одушевленные, мужской род.

"Мисс", "леди" — женский род.

Русский язык полон исключений, и эта тема не исключение. Мы не будем углубляться в редкие слова, такие как "экю", "арго", "толь", "триоль", "вакуоль", "сирокко" и т.п.

Сосредоточимся на запоминании рода более распространенных слов-исключений, таких как "салями", "пенальти", "иваси", "кольраби", "бри", "сулугуни", "бренди", "виски", "евро", "кофе".

Чтобы определить род таких слов, достаточно подставить родовое слово:

"Салями" — "колбаса" (женский род), значит, "салями" тоже женского рода.

"Пенальти" — "удар" (мужской род).

"Иваси" — "сельдь" (женский род).

"Кольраби" — "капуста" (женский род).

"Бри", "сулугуни" — "сыр" (мужской род).

"Бренди", "виски" — "напиток" (мужской род), но допускается и средний род.

"Евро" — "денежная единица" (мужской род), так как большинство названий валют мужского рода: "рубль", "доллар", "тугрик", "фунт".

Слово "кофе" долгое время существовало в форме "кофий" и относилось к мужскому роду. Сегодня закреплены две формы: мужской и средний род.

Также слова, подпадающие под общее правило, можно перепроверить:

"Безе" — "пирожное" (средний род).

"Колье" — "украшение" (средний род).

"Конферансье" — "ведущий" (мужской род).

В последние десятилетия наблюдается значительное увеличение заимствований из английского языка, что связано с глобализацией и развитием технологий. Слова, такие как "интернет", "компьютер", "стартап", стали неотъемлемой частью современного русского языка. Это явление вызывает как положительные, так и отрицательные последствия.

1.Положительные аспекты

Обогащение лексики: Заимствования позволяют расширить словарный запас языка, вводя новые понятия и идеи.

Упрощение коммуникации: Использование международных терминов облегчает общение между носителями разных языков, особенно в научной и технической сферах.

2.Отрицательные аспекты

Утрата языковой идентичности: Чрезмерное использование заимствованных слов может привести к утрате уникальности русского языка.

Сложности в понимании: Некоторые заимствования могут быть трудны для восприятия широкой аудиторией, особенно если они не имеют аналогов в русском языке.

Таким образом, заимствования играют важную роль в развитии русского языка, обогащая его и внося новые элементы. Однако необходимо сохранять баланс между использованием заимствованных слов и защитой языковой идентичности. Важно помнить, что язык — это живой организм, который должен адаптироваться к изменениям, но при этом сохранять свои корни и традиции.

Следует всегда помнить, что:

3. Semiotik tahlil. Semiotik yondashuv she’riy matnni ramzlar tizimi sifatida ko‘rib chiqadi. Bu usul matndagi belgilarni aniqlash va ularning ma’nosini o‘rganishga asoslangan. Ya’ni asarning hikoya dinamikasidagi qahramonlar o‘rtasidagi munosabatni aniqlashga yordam beradi.

4. Lingvistik tahlil. Lingvistik tahlil she’riyatda lingvistik vositalarni o‘rganishga qaratilgan. Bu usul so‘zlarning tovush birikmalarini (alliteratsiya, assonans) tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bu sizga majoziy so‘zlarni (metafora, epithets) aniqlash va ularning she’riy matndagi rolini baholash imkonini beradi.

5. Tanqidiy fikrlash. Tanqidiy fikrlash usuli o‘quvchilarni matnni chuqurroq baholashga va o‘z fikrlarini bildirishga undaydi. O‘quvchilar matndagi g‘oyalarni tanqidiy tekshiradi va ularni o‘z tajribasi bilan taqqoslaydi. She’riy asarning ijtimoiy va madaniy jihatlariga e'tibor qaratadi.

Izohli o‘qish, germenevtika, semiotika, lingvistik tahlil va tanqidiy fikrlash kabi usullar orqali o‘quvchilar she’riyatning chuqur mohiyatini ochib berishlari mumkin. [1:199]

Xulosa qilib aytganda, she’riy matnlar orqali o‘qitish nafaqat til va adabiyot bilimlarini rivojlantiradi, balki o‘quvchilarning ijodiy va estetik tafakkurini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular his-tuyg‘ularni ifoda etishga yordam beradi va mustahkam axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi. She’rlar orqali matnni o‘qib tushunish o‘zbek tili ta'limi jarayonida darslarni yanada qiziqarli tarzda samarali o‘tishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergasheva G. “O‘zbek tili darslarida she’riy matnlar va epik she’rlar ustida ishlash metodikasi”

2. D.Yusupova “Oliy ta’limda mumtoz she’r tuzilishini o‘qitish muammolari”

3. Отарбаева Ғ.Н “мәтін және интерпретация: көзқарастар мен концепциялар”

4. M.Tojiboev, U.Xo‘jamqulov, Sh.Botirova. “Adabiy germenevtika va badiiy til poetikasi”

5. Saparbayeva Indira. matnni o‘qib tushunishda badiiy matn namunalaridan foydalanishning ahamiyati

6. Shoxista Bo‘ranova, Indira Saparbayeva. “O‘zbek tili darslarida matnni o‘qib tushunishga qaratilgan mashq va topshiriqlar ustida ishlash.”

ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Matqurbanova Yulduz Sharifboy qizi
UrDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi, yulduzmatkurbanova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ona tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari maktabning 8-sinf ona tili darsligidagi “Teng va tobe bog‘lanish” mavzusi misolida yoritilib berilgan. Mazkur maqolada mavzu turli xil metod va topshiriqlar orqali tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье освещены методы использования инновационных педагогических технологий на уроках родного языка на примере темы "Равные и зависимые связи" в школьном учебнике родного языка для 8-го класса. В данной статье тема анализируется с помощью различных методов и заданий.

Abstract. In this article, the methods of using innovative pedagogical technologies in mother tongue lessons are covered using the example of the topic "Equal and Dependent Connections" in the 8th-grade school mother tongue textbook. In this article, the topic is analyzed using various methods and tasks.

Kalit so‘zlar: sintaksis, metod, so‘z birikmasi, teng bog‘lanish, tobe bog‘lanish, loyihalash, so‘z qo‘shilmasi, tobe so‘z, hokim so‘z.

Ключевые слова: синтаксис, метод, словосочетание, сочинительная связь, зависимая связь, проектирование, словосочетание, зависимое слово, главное слово.

Keywords: syntax, method, word combination, coordinating connection, dependent connection, design, word combination, dependent word, main word.

O‘zbek tili ta’limini yanada ta’minlash, bu jarayonlarda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish bugunning muhim muammosi hisoblanadi. Bu muammoni hal qilishda ko‘plab mutaxassis ustozlarimiz o‘z hissalarini qo‘shishmoqda. Darslarni tashkil qilishda yangi pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilyapti va amaliyotda qo‘llanyapti. Bugun biz davr talabi bilan hamnafas holda o‘quvchilarimizni tekshirish ya’ni testlar, turli xil topshiriqlar, PISA, PIRLS hamda TIMSS bosqichli testlarga tayyorlar ekanmiz, ularga til ta’limidagi ya’ni grammatikaga oid bilimlarni, balki o‘z ona tillarida mantiqiy, ijodiy fikrlash darajalarini o‘stirishni oldimizga maqsad qilib qo‘yishimiz lozim.

Ushbu metodik tavsiya va topshiriqlarda umumiy o‘rta ta’lim maktalarida ona tili fanlarini o‘qitishda turli metod va usullar, topshiriqlar haqida gap ketadi.

8-sinf o‘quvchilariga ona tili fanidan teng va tobe bog‘lanish mavzusi misolida metodik tavsiyalar va topshiriqlardan berish mumkin bo‘ladi. Berilgan topshiriqlar orqali o‘quvchilarning darslarda faolligini oshirishga, dars sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

“Teng va tobe bog‘lanish” mavzusini[1] o‘rganish uchun metodik tavsiya va topshiriqlar:

“Klaster” sxemasi orqali o‘quvchilar mavzuga oid tushunchalarni, ma’lumotlarni shu sxema orqali to‘ldirishadi.

“SWOT–TAHLIL” metodi. O‘quvchilar alohida kichik guruhlarga bo‘linadilar. SWOT jadvalini tuzadilar. Mavzu yuzasidan berilgan javoblar asosida jadvalni to‘ldiradilar. Mavzu bayoni va savol-javoblardan keyin kichik guruhlar birlashadilar, jadvallarini taqqoslaydilar, to‘ldiradilar, zarur bo‘lsa, jadvalni o‘zgartiradilar. Umumiy jadval holatiga keltiradilar. Jadval natijalari taqdimoti o‘tkaziladi.

SWOT-tahlil – alohida muammo yoki loyihani tashkillashtirishdek vaziyatni tahlil qilish va manbani baholash vositasi. O‘quvchilarda tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“SWOT-tahlil” metodi

S	**W**
O	**T**

“Bahsli tomonlar” metodi. Xonaning bir tomoniga TO‘G‘RI, ikkinchi tomoniga esa XATO deb yozilgan katta qog‘oz yopishtiriladi.

Doskaga 6ta o‘quvchi chiqadi va siz 10 ta qoida o‘qiysiz (Teng va tobe bog‘lanish bo‘yicha ma’lumotlar yoziladi). Qoidalar xato va to‘g‘ri fikrlardan iborat bo‘ladi. To‘g‘ri fikr o‘qilganda o‘quvchilar to‘g‘ri deb yozilgan tarafga, xato gap aytilganda esa xato tarafga qarashlari kerak.

Shartni noto‘g‘ri bajargan ishtirokchi tark etadi. Har bir jumladan keyin o‘quvchilar nega to‘g‘ri yoki nega xatoligi haqida bahslashadilar va dastlabki holatga qaytishadi.

Bu metod o‘quvchilar zehnini o‘tkirlashda, darsda ijobiy atmosfera yaratishda juda zo‘r usul!

8-sinf darsligida berilgan topshiriqlarni og‘zaki va yozma tarzda bajarishlari va oxirgi topshiriqni jadval asosida o‘quvchilar yozishlari kerak bo‘ladi. Bularning barchasi o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini aniqlash hamda ularni rivojlantirib borish uchun asos hisoblanadi.

1-topshiriq. Matnni o‘qib, tobe so‘z hokim so‘zga nima vositasida bog‘lanishi asosida aniqlanadi.

HUNAR XOSIYATI

Aytishlaricha, Gushtasp (Erondagi kayoniylar sulolasining beshinchi hukmdori) kunlardan birida o‘z Vatanidan ayrilib, begona bir shaharga kelib qoldi. Uning yonida biror chaqa ham yo‘q edi. Yeyishga narsa topolmay, och qoldi. Birovdan so‘ray desa, izzat-nafsi yo‘l qo‘ymas edi. Uning yodiga yoshligi tushdi. U bolalik paytida maktabga borar ekan, yo‘l chetida joylashgan temirchi do‘koni oldida biroz

[1] 8-sinf darsligi. Toshkent: - Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2019-yil, 35-bet

to‘xtab, temirchilarning pichoq va bolta yasashlarini tomosha qilar edi va uning siridan birmuncha voqif bo‘lib qolgan edi. Gushtasp ko‘p o‘ylab o‘tirmay, temirchilarning oldiga bordi va ularga dedi:

- Ey birodarlar, temirchilik siridan ancha xabardorman, meni ham o‘zlaringga sherik qilib olsalaringiz.

Temirchilar rozi bo‘lishdi. Gushtasp bir necha muddat ishlab, pul yig‘di. So‘ng Vataniga qaytib bordi. U martabaga erishgan paytida barcha yosh-u qarini kasb va hunar o‘rganishga da’vat qildi.

Bolalarni kunning avvalida o‘qitib, ikkinchi qismida hunar o‘rgatishga farmon berdi.[1]

2-topshiriq. Mashqda berilgan gaplardagi teng va tobe aloqalarni va ularning turlarini aniqlang.

1.Til do‘stlik va hamjihatlikni qaror toptirishning eng qulay vositasidir. (E.Rot.)

2. Tonggi salqin o‘rnini asta iliq shabada tafti egallay boshladi. (J.Abd.)

3. Jimjit kechada ark darvozasining g‘iyqillab ochilgani uzoqlarga eshitildi. (P.Q.)

4. Mavlono Fazliddin bahor kirganini, qal’a ichidagi bog‘chalarda bodom va o‘rik gullaganini esladi. (P.Q.)

5.Samarqanddan chiqayotganda vujudini zilday bosib yotgan g‘am-g‘ussalar endi asta-sekin tarqab ketayotganday tuyuldi. (P.Q.).

6. Navoiy turli shoirlarning turli-tuman asarlaridan o‘n minglarcha baytni yod bilar edi. (O.)

7. Kipriklarim ikki saf bo‘lib Bir-biridan yashaydi yiroq. (E.V.).

8. Dalaga yoyilgan otlarning kishnashlari, yigitlarning qo‘shiqlari quloqlarda endi boshqacha yangraydi. (O.)

9. Dala bag‘rini baxmal ko‘rpa kabi qoplab olgan bo‘z o‘tlar kundan-kun bo‘y cho‘zadi, gullaydi.

10. Ahmad Tanbal Andijon etagida bo‘lgan jangda shikast yetgandan keyin qo‘rg‘onga kirib bekindi. (P.Q.)

3-topshiriq. Bu topshiriqda o‘quvchilar jadval ichiga teng va tobe bog‘lanishga doir misollar yozib to‘ldirishadi.

T/R	TENG BOG‘LANISH	TOBE BOG‘LANISH
1.		
2.		
3.		
4		
5.		
6.		
7.		

[1] 8-sinf darsligi. Toshkent: - Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2019-yil, 36 -bet

Xullas, maktabda so‘z birikmasi bilan bog‘liq mavzular ta’limi o‘quvchiga shaxs (odam-yaxshi odam, ayol-farishtasifat ayol), narsa-buyum (gul-tuvakdagi gul, uy-hashamatli uy), voqea-hodisa (janjal-ko‘chadagi janjal, to‘y-akamning to‘yi), tushuncha (xayol-bema'ni xayol, falsafa-hayot falsafasi), jarayon (o‘rganish- ustozdan o‘rganish, shamollash-qishda shamollash), holat (qizarmoq-uyatdan qizarmoq, sarg‘ayish-yaproqning sarg‘ayishi) kabilarni so‘zga nisbatan aniqroq ifodalash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida darslarni innovatsion texnologiyalar, interfaol metod va topshiriqlar orqali o‘tkazish orqali o‘quvchilarning shu fanga bo‘lgan qiziqishi ortadi, chuqur bilimga ega bo‘lishadi. Buning uchun har qanday holatda ham o‘qituvchi, murabbiy ya’ni insonlar o‘rganishdan, izlanishdan to‘xtamasligi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 8-sinf darslik. Toshkent: 2019.
2. A. G‘ulomov “Ona tili o‘qitish metodikasi”, Toshkent: 2012.
3. K. Qosimova, S.Matchanov, X.G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva, Sh.Sariyev “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent: 2009.
4. M.Saparniyazova, N.Ahmedova, “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”, Toshkent: 2010.
5. M.T.Irisqulov “Tilshunoslikka kirish“, Toshkent: 2009.
6. www.ziyouz.com
7.

SHAHODAT ISAXONOVA ASARLARIDA ERGASHGAN QO‘SHMA GAPLARNING QO‘LLANISHI

Saliyeva Risolat Turg‘Unboy qizi
UrDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi, risolatsaliyeva33@gmail.com

Annotatsiya. Yozuvchi asar yozishda ko‘proq ko‘p komponentli qo‘shma gap qolipidan foydalanishga harakat qiladi. Qo‘shma gaplar badiiy asarning mazmun-mundarijasini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada iste’dodli yozuvchi Shahodat Isaxonovaning asarlarida qo‘llangan ergashgan qo‘shma gaplarning uslubiy xususiyatlari bayon qilingan va tahlilga tortilgan.

Аннотация. Писатель при написании произведения старается больше использовать шаблон многокомпонентного сложного предложения. Сложные предложения служат для раскрытия содержания художественного произведения. В данной статье описаны и проанализированы стилистические особенности сложноподчиненных предложений, используемых в произведениях талантливой писательницы Шаходат Исахоновой.

Abstract. The writer, when writing a work, tries to use the template of a multicomponent complex sentence more. Compound sentences serve to reveal the content of a literary work. This article describes and analyzes the stylistic features of compound sentences used in the works of talented writer Shahodat Isaxonova.

Kalit so‘zlar: komponent, sodda gap, qo‘shma gap, ergashgan qo‘shma gap, murakkab qo‘shma gap, sintaktik qurilma.

Ключевые слова: компонент, простое предложение, сложное предложение, сложноподчинённое предложение, сложносочинённое предложение, синтаксическая конструкция.

Keywords: component, simple sentence, compound sentence, subordinate clause, coordinate clause, syntactic construction.

Qo‘shma gap sintaktik birlikning eng yuqori shaklidir. Qo‘shma gaplar uchun sodda gaplar qurilish materiali sanaladi. Qo‘shma gaplar mustaqil sodda gaplardan emas, balki mazmun va grammatik jihatdan bir-biriga bog‘liq birliklardan tashkil topadi. Mazmuni, grammatik tuzilishi hamda intonatsiyaga ko‘ra bir butunlikni tashkil etgan turli xil grammatik, leksik-grammatik va leksik vositalar yordamida birikkan tuzilmalar qo‘shma gap deyiladi. Qo‘shma gaplarning 3 turi bor: bog‘langan, ergashgan, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar.[1] Shundan ergashgan qo‘shma gaplarni tahlil qilib, o‘rganamiz. O‘zbek tilidagi ergash gapli qo‘shma gaplarni o‘rganishda G‘.Abdurahmonov, M.A.Asqarova, A.Berdialiyevlarning ilmiy tadqiqotlari alohida diqqatga sazovor.

Tobelovchi bog‘lovchilar yoki bog‘lovchi vazifasidagi vositalar yordami bilan aloqaga kirib, bir gapi ikkinchisiga mazmunan tobe bo‘lib, uni izohlab kelgan gaplar birikmasidan tashkil topgan qo‘shma gaplarning turiga ergash gapli qo‘shma gaplar deyiladi. Ergashgan qo‘shma gaplar xuddi so‘z birikmalariga o‘xshaydi, ya’ni tobe va hokim qismlari bo‘ladi. Ergash gapli qo‘shma gaplarni tashkil etgan sodda gaplar xarakteriga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: boshqa bir gapga ergashib, tobe bo‘lib,

[1] Abdurahmonov G‘. Qo‘shma gap sintaksisi asoslari. Toshkent: 1968, 69-b.

ikkinchi bir gapni izohlab, to‘ldirib keluvchi gaplarga ergash gaplar deb aytiladi. Mazmuni izohlanayotgan boshqaruvchi gap bosh gap deyiladi.[1]

Qo‘shma gap sodda gap bilan mustahkam bog‘langan, biroq undan ham struktur, ham uzatilayotgan axborot miqdori va sifati nuqtayi nazaridan farqlanuvchi sintaktik qurilma. Shu bois qo‘shma gapning umumiy lisoniy mohiyati uning sodda gap bilan o‘zaro munosabatida ochiladi. Sodda gapda shakllangan kesim bitta bo‘lsa, qo‘shma gapda u birdan ortiq bo‘ladi va birdan ortiq qo‘shma gaplarning mazmun va grammatik jihatdan birikuvidan tashkil topadi. Sodda gap bilan qo‘shma o‘rtasidagi asosiy farq, birinchidan, ularning tuzilishiga ko‘ra bo‘lsa, ikkinchidan, ularni tashkil etgan materiallarning turliligidadir. Qo‘shma gap komponentlarining mazmun jihatdan munosabati, ularning tuzilishi va birikish yo‘llari xilma-xildir. Shuningdek, bog‘langan, ergashgan va bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar bir qancha ma’no nozikliklariga va uslubiy xususiyatlarga ega.[2]

Bir-biri bilan teng bo‘lmagan, biri ikkinchisiga tobe bo‘lgan komponentlarning ergashtiruvchi bog‘lovchilar, nisbiy so‘zlar va tobelanish intonatsiyasi vositasida birikishidan tashkil topgan qo‘shma gap turiga ergashgan qo‘shma gap deyiladi.

Shaxodat Isaxonovaning “Tosh nok” hikoyasidagi ergashgan qo‘shma gaplar tahlili:

1. Qishloqdagi hamma noklar oq, sarg‘ish, qizg‘ish bo‘lib gullasa, u bir xilda, pushti rangda ochiladi. (shart mayli vositasida ergashgan qo‘shma gap)

2. Katta opasi Roziya “men bilan teng” desa, o‘rtancha opasi Ruqiya “men tug‘ilgan yili bobom sovg‘a qilgan ekan, o‘z og‘izlaridan eshitganman” deb urib yengadi. (shart mayli vositasida ergashgan qo‘shma gap)

3. Kecha Nargiz dugonam Dayrovotga baliqxo‘rlikka taklif qilsa, shuyam yesin deb “uyga olib kelaqol” debman. (shart mayli vositasida ergashgan qo‘shma gap)

4. Arpa qishloqlik Kenja traktorchining hovlisida bir nok borki, o‘tganning ham, qaytganning ham havasi keladi. (Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap)

“Katta “A” va kichkina “a” hikoyasidagi ergashgan qo‘shma gaplar tahlili:

1. Lekin lahza o‘tmay, uni yana esnoq tutib, ko‘z oldida g‘alati halqachalar paydo bo‘la boshladi. (Ravish ergash gapli qo‘shma gap)

2. “Bir, ikki, uch...”, deya halqachalarni sanashga kirishganda ular shu qadar ko‘payib ketishdiki, o‘ntaga yetganda adashib qoldi. (Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap)

3. Qo‘llar qanday tez ko‘tarilgan bo‘lsa, xuddi shu yo‘sinda pastga tushirildi. (Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap)

4. U: “Sen kim bo‘lmoqchisan?”, deb so‘rab qolsa, “nima javob beraman?”, deb o‘ylab o‘tirgan edi. (Shart ergash gapli qo‘shma gap)

“Sovchilar” hikoyasidagi ergashgan qo‘shma gaplar tahlili:

1. Yigitlar marhum Qozonxonning bevasi Xonlar begimga bosh egishib, hurmatlarini izhor qilishgach, uzun, ganchkor yo‘laklardan yurishib, mehmonxonaga kirishdi. (Sabab ergash gapli qo‘shma gap)

[1] Abdurahmonov G‘. Qo‘shma gap sintaksisi asoslari. Toshkent: 1968, 79-b.

[2] Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2009, 391-b.

2. Qiz yigitga, yigit ham qizga ma’qul tushsa, kuyov bo‘lmish nishonalik sovg‘asini belgi sifatida berib qaytardi. (Sabab ergash gapli qo‘shma gap)

3. Xonzodamiz bilan Bekning yulduzlari bir-biriga to‘g‘ri kelsa, boshimiz ko‘kka yetur. (Shart ergash gapli qo‘shma gap)

4. Jahli chiqqanda “astag‘furulloh” kalimasini o‘ngacha sanaydigan Saroy Mulk Xonim hayajoni susaya boshlagach, Husaynbekning yonida begona yigit borligini, shu bois, amirga munosib javob qilmoq joizligini his etib kiyinmoqqa tutindi. (Sabab ergash gapli qo‘shma gap)

“Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika” romanining 2 bobida qo‘llangan ergashgan qo‘shma gaplar tahlili:

1. Menimcha, malikamiz Bog‘dodiy hazratlarini o‘zlariga murshid aylagach, Bog‘dodiyning mavqesi o‘zinikidan oshib ketishini o‘ylab, shul ishga qo‘l urgan. (Sabab ergash gapli qo‘shma gap)

2. Jaloliddin sarbonning vahima aralash gaplariga o‘zini ishonayotgan qilib ko‘rsatayotgan bo‘lsada, uning bu qadar jiddiy ekanligini unchalik his qilmagan edi. (To‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gap)

3. So‘nggi voqealar shunchalik tez va tasodifan yuz berdiki, Jaloliddin ularning qanday boshlanib, qanday tuganini o‘zi ham ilg‘amay qoldi. (Aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap)

4. Otasi uni kindik qoni to‘kilgan yurti Xorazmga, piri murshidi va ustozi Najmiddin Kubro madrasasida tahsil ko‘rishga kutayotganidan quvonayotgan bo‘lsa-da, hali jussasida bolalik hidi anqiyotgan o‘spirin o‘g‘lini uzoq va mashaqqatli karvon yo‘li orqali, buning ustiga, saratonda yo‘lga tushayotganidan xavotirda edi. (To‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gap)

5. Muhammad Xorazmshoh qoraxitoylar hukmdori G‘urxon ustidan to‘la-to‘kis g‘alaba qozongach, o‘ziga ana shu – Iskandar Zulqarnayn navbasini tanlagan edi. (Sabab ergash gapli qo‘shma gap)

6. Xitoydagi Lyao imperiyasi Janubiy Xitoyning Sun sulolasi birlashgan chjur-chjenlar tomonidan tor-mor qilingach, melodiy 1124-yili Kidan shahzodasi Yelyuy Dashi o‘z tarafdorlari hisoblanmish o‘n sakkiz qabila bilan birga g‘arbga yurish qildi. (Sabab ergash gapli qo‘shma gap)

7. Ma’muriy mansabdorlarning nomlari musulmoncha atalsa-da, xitoychasi ham birgalikda qo‘shib, qo‘llanilardi. (To‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gap)

8. Mamlakatda buddaviylik, islom dini, shamanlik va nasroniylik keng yoyilgan bo‘lsa-da, aholisi asosan turkiy urug‘lardan iborat edi. (To‘siqsiz ergash gapli qo‘shma gap)

9. Sarbon darvoza qo‘riqchilardan birini yoniga chaqirdi-da, ulug‘ elchining qaytgani xabarini kutvolga yetkazishini tayinlab, o‘zi nog‘orachilarni ko‘rmak istagida ularning safiga zimdan nazar solganicha, otini ildamroq qistadi. (Ravish ergash gapli qo‘shma gap)

10. Sarbon Kotiyning nigohi safning oxiridagi tanish chehralarga tushib, boshiga sovuq suv quyilgan kabi bir seskandi. (Ravish ergash gapli qo‘shma gap)

Xulosa qilib aytganda, Shahodat Isaxonova o‘z asarlarida qo‘shma gaplarni unumli ishlatib, o‘quvchi e’tiborini jalb qilishga erishadi. Yozuvchi qo‘shma

gaplarning ba’zan oddiy turidan, ba’zan murakkab turidan foydalanib, hikoyaning ta’sirchanligini, badiiyligini oshiradi. Uning “Tosh nok” hikoyasida 4 ta, “Katta “A”, kichik “A” hikoyasida 4 ta, “Sovchilar” hikoyasida 4 ta, “Sulton Jaloliddin Manguberdi yoxud Chingizxon tuzog‘iga tushgan malika” romanining 2 bobida esa 10 ta ergashgan qo‘shma gaplar tahlilga tortildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asqarova M.A. Ergashgan qo‘shma gaplarning sintaktik sinonimikasi masalasiga doir (Toshkent davlat pedagogika institutining “Ilmiy asarlari”, 42-tom, 1-kitob. Tilshunoslik masalalari, Toshkent, 1963), 256 b.
2. Asqarova M.A. Hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘shma gaplar. T., 1960, 321 b.
3. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H., Qurbonova M.M., Yunusova Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. O‘quv qo‘llanma. – T., “Fan va texnologiya”, 2009.
4. G‘ulomov A.G‘., Asqarova M.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (Sintaksis) T., “O‘qituvchi”, 1965.
5. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. -Toshkent: Fan, 1988.
6. O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami. –Samarqand, 2009
7. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shahodat-isaxonova-1951/shahodat-isaxonova-tosh-nok-hikoya

ЭФФЕКТИВНОСТЬ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КАК ИНОСТРАННОМУ В УЗБЕКСКОЙ СРЕДНЕЙ ШКОЛЕ В УСЛОВИЯХ ХОРЕЗМСКОГО ДИАЛЕКТА

Самандаров М. И.
доцент кафедры «Узбекского и русского языка литературы»
факультета “Филологии и истории” УрГПИ

Аннотация. В данной статье рассматривается эффективность различных методов обучения русскому языку как иностранному в узбекских средних школах, функционирующих в условиях хорезмского диалекта. Особое внимание уделено специфическим трудностям, возникающим у учащихся в процессе изучения языка, и адаптации методик преподавания с учетом диалектных особенностей. В ходе исследования использованы методы сравнительного анализа, анкетирования и экспериментального обучения. Выявлено, что наибольшую эффективность показывают коммуникативный метод, метод сопоставительного анализа, игровые технологии и аудиовизуальные средства. Разработаны практические рекомендации для преподавателей, направленные на повышение мотивации учеников и устранение языковых барьеров. Полученные результаты могут быть использованы при разработке учебных программ и методических материалов для билингвального обучения.

Ключевые слова. Русский язык как иностранный, узбекская средняя школа, хорезмский диалект, билингвизм, коммуникативный метод, метод сопоставительного анализа, игровые технологии, аудиовизуальный метод, фонетические особенности, межкультурная коммуникация.

Annotsiya. Ushbu maqolada Xorazm shevasi sharoitida faoliyat yurituvchi o‘zbek umumta’lim maktablarida rus tilini chet tili sifatida o‘qitishning turli usullarining samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Til o‘rganish jarayonida o‘quvchilar duch keladigan o‘ziga xos qiyinchiliklarga, dialektal xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘qitish usullarini moslashtirishga alohida e’tibor beriladi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, anketa va eksperimental ta'lim usullaridan foydalanildi. Kommunikativ usul, qiyosiy tahlil usuli, o‘yin texnologiyalari va audiovizual vositalar eng samarali usullar ekanligi aniqlandi. Talabalarning motivatsiyasini oshirish va til to‘siqlarini bartaraf etishga qaratilgan o‘qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Olingan natijalar ikki tilli ta'lim uchun o‘quv dasturlari va uslubiy materiallarni ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin.

Kalit so‘zlar. Rus tili chet tili sifatida, o‘zbek umumta’lim maktabi, Xorazm shevasi, ikki tillilik, kommunikativ metod, qiyosiy tahlil usuli, o‘yin texnologiyalari, audiovizual metod, fonetik xususiyatlar, madaniyatlararo muloqot.

Abstract. This article examines the effectiveness of various methods of teaching Russian as a foreign language in Uzbek secondary schools operating in the Khorezm dialect. Particular attention is paid to the specific difficulties that students encounter in the process of learning the language and the adaptation of teaching methods taking into account dialectal features. The study used the methods of comparative analysis, questionnaires and experimental learning. It was revealed that the communicative method, the method of comparative analysis, game technologies and audiovisual

means show the greatest efficiency. Practical recommendations for teachers aimed at increasing students' motivation and eliminating language barriers have been developed. The results can be used in the development of curricula and methodological materials for bilingual education.

Keywords. Russian as a foreign language, Uzbek secondary school, Khorezm dialect, bilingualism, communicative method, comparative analysis method, game technologies, audiovisual method, phonetic features, intercultural communication.

Введение. Обучение русскому языку как иностранному (РКИ) в узбекских школах является актуальной задачей, особенно в регионах с выраженными диалектными особенностями, таких как Хорезм. Хорезмский диалект узбекского языка оказывает влияние на восприятие и усвоение русского языка, что требует адаптации методических подходов. Изучение эффективности различных методов обучения РКИ в условиях хорезмского диалекта помогает определить наиболее результативные стратегии преподавания.

Целью данного исследования является анализ эффективности различных методов обучения русскому языку как иностранному в узбекской средней школе, учитывая влияние хорезмского диалекта. Для достижения этой цели были поставлены следующие задачи:

Выявить основные трудности, возникающие у учащихся при изучении русского языка;

Рассмотреть наиболее эффективные методы преподавания РКИ;

Разработать практические рекомендации для учителей, работающих в условиях билингвизма.

Методология. Исследование основано на анализе научной литературы по методике преподавания РКИ, а также на эмпирических данных, полученных в результате наблюдений за учебным процессом в узбекских школах Хорезмской области. Применены методы сравнительного анализа, анкетирования учителей и учеников, а также экспериментальное обучение с применением различных методик.

Для более детального изучения влияния хорезмского диалекта на процесс обучения была проведена серия уроков с разными методическими подходами. Оценка эффективности проводилась на основе наблюдений за речевой активностью учеников, результатов тестирования и опросов среди педагогов и учащихся. Полученные данные позволили выделить наиболее действенные методики и предложить рекомендации по их применению.

Результаты и обсуждение. Трудности изучения РКИ в условиях хорезмского диалекта Хорезмский диалект отличается специфическими фонетическими, лексическими и грамматическими особенностями, которые могут вызывать трудности при изучении русского языка. Например, существует редуцированное произношение гласных, что приводит к неправильному восприятию русских фонем. Также наблюдаются ошибки в употреблении падежных окончаний и предлогов.

Эффективные методы преподавания на основе проведенного анализа выделены следующие методы, способствующие успешному обучению РКИ:

Коммуникативный метод – эффективен для формирования навыков общения, снижает языковой барьер у учащихся;

Метод сопоставительного анализа – помогает осознать структурные различия между русским и узбекским языками, что уменьшает количество грамматических ошибок;

Игровые технологии – повышают мотивацию к изучению языка и делают процесс обучения более интерактивным;

Проектный метод – способствует самостоятельному освоению материала и развитию творческих способностей;

Аудиовизуальный метод – улучшает восприятие языка за счет работы с аутентичными аудиозаписями и видеоматериалами.

Рекомендации для учителей на основе исследования разработаны следующие рекомендации:

Проводить регулярные фонетические тренировки для коррекции произношения;

Использовать билингвальные учебные пособия, облегчающие переход от узбекского к русскому языку;

Внедрять интерактивные методы обучения для повышения мотивации;

Организовывать языковые клубы и внеурочные мероприятия на русском языке;

Включать в образовательный процесс элементы межкультурной коммуникации для развития межъязыковой компетенции;

Разрабатывать специализированные учебные материалы, учитывающие влияние хорезмского диалекта на изучение русского языка;

Применять адаптированные методы работы с аудиовизуальными материалами, акцентируя внимание на фонетических особенностях.

Заключение. Применение современных методик преподавания РКИ с учетом особенностей хорезмского диалекта способствует повышению эффективности обучения. Коммуникативные, игровые и аудиовизуальные методы помогают преодолеть языковые трудности, развить навыки устной речи и грамматики. В дальнейшем рекомендуется проводить более углубленные исследования влияния диалектных особенностей на процесс освоения русского языка.

Использованная литература

1. Бим И.Л. Теория и практика обучения русскому языку как иностранному. – Москва: Русский язык, 2017.
2. Вербицкая Л.А. Методика преподавания русского языка в национальной школе. – Санкт-Петербург: Просвещение, 2019.
3. Гальскова Н.Д. Современные методы обучения иностранным языкам. – Москва: Академия, 2021.
4. Шахнарович А.М. Русский язык и национальные языки: проблемы билингвизма. – Москва: Издательство МГУ, 2018.

МЕТОДЫ РАЗВИТИЯ РАЗГОВОРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПО РУССКОМУ ЯЗЫКУ (КАК ИНОСТРАННОГО)

Самандаров М.И.
и.о. доцента кафедры «Узбекский и русский язык литература» УрГПИ,
Пулатбоева С.
студентка 3 курса направления Русский язык в иноязычных группах факультета Филологии и истории УрГПИ

Аннотация. В данной статье анализируется роль изучения языков в развитии человека. Язык – это не только средство коммуникации, но и важный фактор интеллектуального и профессионального роста. Изучение иностранных языков способствует улучшению памяти, расширению кругозора, академическому и научному развитию, карьерному успеху, межкультурной коммуникации и личностному росту. В статье рассматриваются ключевые преимущества изучения языков и их значимость в современном обществе.

Ключевые слова: изучение языка, коммуникативная компетенция, методы.

Annotatsiya. Ushbu maqolada til o‘rganishning inson taraqqiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Til – nafaqat muloqot vositasi, balki insonning intellektual va kasbiy rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Chet tillarini o‘rganish xotirani mustahkamlash, tafakkurni kengaytirish, ilmiy va akademik rivojlanish, kasbiy muvaffaqiyat, madaniyatlararo muloqot va shaxsiy o‘sishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada til o‘rganishning asosiy foydalari va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: til o‘rganish, kommunikativ kompetensiya, usullar.

Abstract. This article analyzes the role of language learning in human development. Language is not only a means of communication but also a crucial factor influencing intellectual and professional growth. Learning foreign languages enhances memory, broadens thinking, contributes to academic and scientific progress, supports career success, fosters intercultural communication, and promotes personal development. The article explores the main benefits of language learning and its importance in modern society.

Key words: language learning, communicative competence, methods.

В мире существует множество языков, но наиболее широко используемых и распространенных среди носителей – лишь несколько. Быстрое развитие современного мира и рост потребностей заставляют людей изучать иностранные языки наряду с родным. Кому-то это необходимо для учебы, кому-то – для работы, а кому-то – для путешествий. Однако этот процесс может быть довольно сложным. Тем не менее, использование различных эффективных методов и учебных материалов значительно облегчает изучение языка. Например, полезно знакомиться с научными статьями по методике изучения иностранного языка, использовать обучающие программы и платформы. Также стоит прислушаться к советам друзей и близких: просмотр мультфильмов с субтитрами или прослушивание песен на изучаемом языке – это методы, которые часто рекомендуют. Частично они тоже могут помочь. Однако в современном мире под

влиянием глобализации наблюдается доминирование некоторых языков и исчезновение других.

Значение многоязычия

1. Личностное развитие – знание нескольких языков развивает интеллектуальные способности, расширяет кругозор и способствует быстрому усвоению новой информации.

2. Межкультурная коммуникация – владение разными языками помогает лучше понимать культуру других народов и обогащает мировоззрение.

3. Профессиональные возможности – знание иностранных языков является большим преимуществом при работе в международных компаниях.

4. Научно-технологический прогресс – многоязычие позволяет получать доступ к широкому спектру научных и образовательных материалов.

5. Социальная адаптация – знание местного языка упрощает жизнь при переезде в другую страну или во время путешествий.

Многоязычие в современном обществе является важной компетенцией, способствующей взаимопониманию и сотрудничеству между людьми. Поэтому изучение иностранных языков имеет большое значение не только для личного, но и для социального развития.

В современном мире знание иностранных языков стало не просто дополнительным навыком, а необходимостью. Процессы глобализации, развитие международных экономических и культурных связей усиливают потребность в многоязычии. Рассмотрим основные современные потребности в изучении иностранных языков.

1. Образование и научная деятельность. Обучение и наука придают большое значение изучению новых языков. Изучая иностранные языки на международном уровне, можно стать студентом престижного университета.

2. Профессиональный рост и трудоустройство. Для работы в международных компаниях требуется знание как минимум одного иностранного языка. В сферах IT, медицины, инженерии и бизнеса владение иностранными языками играет важную роль в карьерном развитии. Возможности онлайн-работы (фриланс, удаленная занятость) требуют взаимодействия с иностранными клиентами.

3. Путешествия и социальная адаптация. Польза изучения языков особенно проявляется во время путешествий. Пока некоторые люди вынуждены пользоваться услугами переводчика, вы сможете свободно общаться с иностранцами самостоятельно. Это, безусловно, повысит вашу уверенность в себе.

4. Культура и искусство. Как мы знаем, многие зарубежные бестселлеры не имеют перевода на узбекский язык. Однако те, кто изучает иностранные языки, могут свободно читать эти произведения в оригинале. Это большое достижение и успех. Читая оригинальный текст без перевода, человек может прочувствовать истинные эмоции автора и наслаждаться произведением в полной мере.

В настоящее время разработано множество платформ и программ для изучения русского языка как иностранного. Для изучения русского языка как иностранного существуют следующие популярные платформы и программы:

1. Duolingo. Позволяет изучать русский язык шаг за шагом с помощью интерактивных упражнений. Подходит для увеличения словарного запаса и освоения базовой грамматики.

2. Busuu. Эта платформа предназначена для развития навыков общения на русском языке. Позволяет практиковаться с носителями языка.

3. LingQ. Предлагает изучение через тексты и аудиоматериалы. Помогает развивать навыки аудирования и понимания.

4. Memrise. Программа ориентирована на запоминание слов и улучшение произношения. Доступны курсы для разных уровней владения русским языком.

5. HelloTalk. Приложение, которое позволяет изучать язык через общение с реальными людьми. Полезно для прямого общения с носителями русского языка.

6. BBC Languages – Russian. Предоставляет бесплатные ресурсы и учебные материалы для изучения русского языка.

7. RussianPod101. Платформа для самостоятельного изучения русского языка с аудио- и видеоуроками.

8. Anki. Программа на основе карточек для запоминания русских слов и выражений.

Эти платформы помогут эффективно изучать русский язык как иностранный. В Узбекистане создан образовательный центр «Ibrat farzandlari» в офлайн и онлайн-формате. Лично я использую его онлайн-платформу. Преподаватели объясняют материал очень просто и доступно.

Изучение языков – это не просто чтение или заучивание новых слов на другом языке, а умение мыслить на этом языке. Осваивая разные языки, человек, прежде всего, расширяет свой кругозор и мышление. Кто знает язык – знает мир. Люди, обладающие навыками общения на разных языках, также обладают высокой уверенностью в себе.

Использованная литература:

1. Самандаров Махмуд Ибадуллаевич. Преподавание русского языка в школах Узбекистана. “Globallashuv sharoitida pedagogika sohasidagi tadqiqotlar: muammo va yechimlar” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. 2024-yil 13-noyabr, Urganch shahri
2. Абдувалиева Адиба Закировна. Главная задача образовательной политики - обеспечение современного качества образования // Вестник науки и образования, 2019. № 19-3 (73). https://cyberleninka.ru/article/n/glavnaya-zadacha obrazovatelnoy-politikiobespechenie-
3. Умарова Дилмура Закировна. Инновационные реформы в системе высшего образования республики Узбекистан // Вопросы науки и образования. 2018. №2
4. Умарова Дилмура Закировна. Технология блочно-модульного обучения как перспектива повышения качества обучения // Проблемы Науки, 2019. № 11- 2 (144).

G‘OFUR G‘ULOM SHE’RIYATI VA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Alimbayeva Hilola G‘ayrat qizi
Urganch davlat pedogogika instituti tabalasi

Annotatsiya. G‘ofur G‘ulom buyuk she’riyat vakili bo‘lim uning she’rlarida juda katta ma’no va serqirra jihatlari yaqqol namoyon bo‘lib turadi. Har bir ijodkor o‘z she’rlarida adolat, matonat, ishq, vatanga muhabbat kabi fikrlarni va g‘oyalarni ilgari suradi.

Abstract. Gafur Ghulam is a great poet, his poems have great meaning and bright edges. Every artist puts forward thoughts and ideas such as justice, fortitude, love, love for the country in his poems.

Аннотация. Гафур Гулам – великий поэт, его стихи имеют большой смысл и светлые грани. Каждый художник в своих стихах выдвигает такие мысли и идеи, как справедливость, сила духа, любовь, любовь к Родине.

Kalit so‘zlar: she’riyat, jadidchilik, tahlil, badiiy tahlil, dunyoqarash, fikrlash, nasriy tahlil.

Keywords: poetry, Jadidism, analysis, artistic analysis, worldview, thinking, prose analysis.

Ключевые слова: поэзия, джадидизм, анализ, художественный анализ, мировоззрение, мышление, анализ прозы.

Kirish. Ma’lumki, lirikada voqelik lirik subyekt (*shoir*), his-tuyg‘ular obyekt(*lirik qahramon qalb prizmasi*) orqali ifodalanadi. Lirika obyekt va subyektni bitta shaxsda uyg‘unlashtirishga qodir. U o‘z muallifi ichki dunyosi va ruhiy kechinmalari ko‘zgusidir. Odatda, odamning tuyg‘ulari o‘z-o‘zidan qo‘zg‘alib, yuzaga kelavermaydi. Unga itimoiy, siyosiy tabiiy yoki maishiy hodisalar sabab bo‘ladi. Inson bekorga xursand bo‘lmagani kabi behudaga iztirob chekavermaydi ya’niy kechinma voqelik ta’sirida yuzaga keladi. O‘sha oniy lahzaning insonga xos nisbiy barqaror asosi (*javhari*) so‘z va emotsional ohang vositasida aks etadi[1]. G‘.G‘ulom donishmandona fikr-mushohadalari: inson – hayot; tiriklik – o‘lim; ibtido - intiho juftliklari o‘rtasida mavjud ajralmas rishtalar hissiy anglanishidan paydo bo‘ladi va she’riy matnga o‘ziga xos ruh bag‘ishlaydi. Chunki, shoirning mukarram hayot har bir oni, g‘animat umr (*zamon*) haqidagi sobit falsafasi muayyan shaxs bilan bog‘liq aniq ifodaga ega. B.Sarimsoqov ta’kidlaganidek: “XX asr o‘zbek she’riyatida akademik shoir G‘afur G‘ulomdek faylasuf-shoirni topish qiyin. G‘afur G‘ulom she’riyatda faylasuf bo‘lishi barobarida, falsafada shoir ham ekaniga amin bo‘lamiz”[2]. Shoirning “Sen yetim emassan”, “Vaqt” “Xalq otlandi”, “Sog‘inish” singari she’rlarida bizga uzoq va yaqin o‘tmish manzaralari shoir ichki olami bilan uyg‘unlikda tasvir etilgan. Ularni o‘qish, o‘rganish, chuqur tahlil qilish bugungi kunda ham muhim ahamiyatga egadir.

Ijodiy tahlil. Hozir to‘xtalishni maqsad qilganimiz, G‘afur G‘ulom she’rlarida ham juda go‘zal tahlillar bor. Tanlaganimiz “Navqiron naslimiz sinov oldida” she’ri ham juda tahlilbop asar va u shoir ijodidagi mashhur she’rlaridan biri.

[1] Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. *Adabiyotshunoslik lug‘ati*. Toshkent: Akademnashr; 2010. 252-b.
[2] Sulton I., Sarimsoqov B., Umurov H., Quronov D. Lirik janr haqida ba’zi mulohazalar. – Farg‘ona: Farg‘ona Davlat Universiteti, 2022. – 150 b.

“Navqiron naslimiz sinov oldida”

Yozajak she’rimga bo‘lsin deb asos
Kechmishni hozirga ayladim qiyos.
Siz bugun dovyurak, qaynagan qon-la,
A’lo baholarni kutasiz jon-la,
A’lochi o‘g‘lonlar a’lochi qizlar
Vatan istagi ham xuddi ana shu.

Yuqorida keltirib o‘tilgan she’riy misralar tahliliga nazar soladigan bo‘lsa har bir ikkilik o‘z navbatida quyidagi ma’nolarni aks ettiradi:

Yozajak she’rimga bo‘lsin deb asos
Kechmishni hozirga ayladim qiyos.

Bu she’rning boslanishi ila misralarda hozir va o‘tmishdaga voqealarni bir-biriga qiyoslash, taqqoslash qalamga olinmoqda.

Siz bugun dovyurak qaynagan qon-la
A’lo baholarni kutasiz jon-la
A’lochi o‘g‘lonlar a’lochi qizlar
Vatan istagi ham xuddi ana shu.

Bu she’rda o‘zbek adabiyotining ma’lum bir janrida, ya’ni vatanparvarlik va yoshlik tuyg‘ularini tasvirlashda qo‘llanilgan she’riy uslublardan biri ko‘rinadi. She’rda yurtga, vataniga bo‘lgan sevgi va bunga ehtiyoj sezilarli tarzda ifodalangan. Keling, har bir qatorni nasriy tahlil qilib ko‘raylik:“Siz bugun dovyurak qaynagan qon-la”: Bu satrda “dovyurak qaynagan qon” iborasi orqali yoshlikning energiyasini va faolligini ifodalaydi.“A’lo baholarni kutasiz jon-la”: Bu yerda “a’lo baholarni kutasiz” degan ibora, yoshlarga muvaffaqiyat va mukofotlar kutishini tasvirlaydi.“A’lochi o‘g‘lonlar a’lochi qizlar”: Bu satrda yoshlarni “a’lochi” (yaxshi, namunali) o‘gil va qizlar sifatida ko‘rish, ularning ajralmas bo‘laklari va hayotdagi muvaffaqiyatlarida ulug‘lanishlarini tasvirlaydi. Bu, yoshlarni faqatgina mehnat qilish bilan emas, balki to‘g'ri yo‘nalish bilan tarbiyalashga urg‘u beradi. “Vatan istagi ham xuddi ana shu”: Bu qatorda “vatan istagi” keng ma’noda vatanparvarlik hissi sifatida ko‘rinadi. Vatan uchun biror bir yo‘lda mehnat qilish, ana shu a‘lochi yoshlarga xos bo‘lgan fazilat sifatida tasvirlanmoqda. Ular, o‘zlarining kelajagiga va yurtining farovonligiga xizmat qilishga tayyor. Bu she’rda umumiy ma‘no shundaki, yoshlar yurtini sevib, uning rivojlanishi uchun xizmat qilishga tayyor, va bunday salohiyatga ega bo‘lgan avlodga yuqori baholar beriladi. Vatanparvarlik tuyg‘usi, intilish va umidlar yoshlar qalbida ajralmas jihat sifatida aks etmoqda.

Jaholat fikrini ming yil ko‘tardi,
Suqrotga falsafa zahar yuttirdi.
Ulug‘Marks, Leninning zo‘r falsafasi
Navqiron naslimiz olgan nafasi,
A’lochi o‘g‘lonlar, a’lochi qizlar,
Vatan istagani ham xuddi ana shu.

Bu she‘rda katta tarixiy va falsafiy mohiyatni aks ettiruvchi chuqur fikrlar mavjud. Har bir qatorni tahlil qilib ko‘raylik. **“**Jaholat fikrini ming yil ko‘tardi.” misrasida jaholatning insoniyatni uzoq vaqt davomida zulmatga solib kelganini

bildiradi. “Soqrotga falsafa zahar yuttirdi” Bu qatorda yunon falsafasining eng buyuk namoyandalaridan biri bo‘lgan Suqrotga tilga olingan. U o‘zining fikrlarini aytganligi uchun, hukumat tomonidan zahar bilan o‘ldirilgan. Bu satrda uning o‘limi va falsafaning jamiyatga qarshi kurashini tasvirlashni ko‘rishimiz mumkin.”Ulug‘ Marks, Leninning zo‘r falsafasi” Bu qatorda Karl Marks va Vladimir Leninning ijtimoiy va siyosiy g‘oyalari haqida so‘z boradi. Bu g‘oyalar, xususan, marksizm va leninizmning kuchli ta’siri tasvirlangan. She’rda ularning falsafasi, dunyoqarashi hamda bu g'oyalar asosida o‘zgarishlar amalga oshirgan davrni tasvirlaydi.”Navqiron naslimiz olgan nafasi” Bu qatorda yangi avlodning o‘ziga xos ruhiy va aqliy kuchi, yangi g‘oyalar va ilmlar olish orqali kelajakni qurishga intilishi ko‘rsatilgan.So‘nggi misralarda millatning yuksak, faxrli avlodi – yoshlarning yangi, jadal va innovatsion fikrlar bilan to‘lib-toshganligini ta’kidlaydi. Ular o‘z vatanini yuksaltirish uchun harakat qilayotgan, yaxshi ishlarga erishishga intilayotgan yoshlarni ifodalaydi. She’rning oxirgi qatori vatan sevgisi, unga bo‘lgan ehtiyoj va fidoyilikni ta'kidlaydi. Vatanning yuksalishi va rivojlanishi uchun nafaqat nazariy falsafalar, balki yangi avlodning faoliyatlari, o‘zgartirishlarga bo‘lgan ishtiyoqi ham zarur.

Xamma xalqqa “Qonun”, shaxsiga zahar
Sinoni o‘z asri qildi darbadar.
Bizning o‘lkamizda yo‘qdir ofat.
O‘limni yengishga sizlar kandidat,

Ushbu she’rda muallif “Qonun” tushunchasini tanqidiy tarzda yoritgan va o‘zining fikrlarini ifoda etgan. “Xamma xalqqa “Qonun”, shaxsiga zahar.” Bu misrada “Qonun” umumiy xalq uchun mavjud bo‘lgan, ammo bu qonunlar shaxsiy yoki jismoniy ravishda zarar keltiruvchi holatga aylangan deb ifodalangan. Qonunlar, umuman olganda, odatda jamiyatni tartibga solish uchun yaratiladi, lekin bu holatda ular faqat tartibni emas, balki shaxsiy zarar keltirishi mumkinligi ko‘rsatilgan. “Sinoni o‘z asri qildi darbadar” “Sinoni o‘z asri” bu misra orqali shaxslar va ular yashayotgan davrning o‘zaro bog‘liqligi ta’kidlangan. Asrning o‘zgarishi bilan, sinolar (o‘zgarishlar, yangiliklar, noaniqliklar) odamlarni “darbadar” — boshpana topa olmaydigan, iztirobga solingan holatga olib keladi. Bu, o‘z navbatida, odamlarning azob-uqubatlariga sabab bo‘ladi. “Bizning o‘lkamizda yo‘qdir ofat.” Bu satrda muallif o‘z yurti haqida gapiradi va “ofat” ning yo‘qligini ta’kidlaydi. Shuningdek, ofatlarning mavjud emasligi jamiyatdagi tartibsizlikni, muammolarni va nosog‘lom qonunlarni ta’kidlaydi. “O‘limni yengishga sizlar kandidat.” Bu misra o‘limni yengish g'oyasini ilgari suradi va bu holatda "sizlar kandidat” deyish orqali, muallif o‘limni yengishga intilayotganlarni kiritadi. O‘limning yengilishi, ehtimol, jamiyatdagi tenglik, tinchlik va adolatni tiklash ma’nosida bo‘lishi mumkin.

Sevimli Hamzamiz, Hoziq-la turdi
Xalqimiz san’ati uchun bosh berdi.
Ertaning, ey adib va shoirlari,
Kishilik ruhining injenerlari,
A’lochi o‘g‘lonlar, a’lochi qizlar,
Vatan istagi ham xuddi ana shu.

Bu she’rda muallif xalqimizning san’ati va adabiyotiga bo‘lgan hurmatini ifoda etadi va ularni kelajakda shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi shoirlar va adiblar sifatida tasvirlaydi. Sevimli Hamzamiz, Hoziq-la turdi – Bu satrda muallif xalqimizning sevimli va hurmatga sazovor shaxslarini tilga oladi. “Hamza” va “Hoziq” kabilar o‘z vaqtida yuksak san’atkorlar bo‘lgan va ular hamma vaqt xalqining san’ati va madaniyati uchun xizmat qilishgan. Bu orqali adib o‘zining sevimli shaxslarini, ularga hurmatini bildiradi. Xalqimiz san’ati uchun bosh berdi – Bu satrda xalqning san’ati va madaniyati uchun o‘zini bag‘ishlagan shaxslar haqida so‘z boradi. “Bosh berdi” iborasi ularning fidoyiligi va xalq san’ati uchun qilingan xizmatlarni ta’kidlaydi. Ertaning, ey adib va shoirlari – Bu satrda muallif kelajakdagi adiblar va shoirlarga murojaat qiladi, ular xalqni tarbiyalovchi, yuksaltiruvchi san’atkorlar sifatida keltiriladi. “Ertaning” so‘zi orqali ularga katta umidlar bildirilgan. Kishilik ruhining injenerlari – “Injener” so‘zi kishilik ruhini shakllantiruvchi, uni rivojlantiruvchi odamlarni anglatadi. Adiblar va shoirlar kishilik ruhining quruvchilari, uni yangilovchi va ilgari suruvchi shakllantiruvchilari sifatida tasvirlanadi. A’lochi o‘g‘lonlar, a’lochi qizlar – Bu satrda yosh avlodning yangi va a’lochi (ya’ni yuqori darajadagi) vakillariga e’tibor qaratiladi. Ular Vatanni himoya qilishda va uni yuksaltirishda muhim rol o‘ynashadi. Vatan istagi ham xuddi ana shu Bu satrda vatanparvarlik, Vatanni sevish, uni yuksaltirish istagi ham adib va shoirlarning ishlariga o‘xshatiladi. Ularning ijodi, xalqni o‘zining milliy qadriyatlariga, vatanparvarlikka undaydi. Natijada, she’rda muallif o‘zining xalq san’ati va adabiyotiga bo‘lgan ishonchini, umidlarini ifodalab, adiblar va shoirlarga kelajakda ham shu yo‘lda davom etishni va Vatan uchun xizmat qilishni chaqiradi. She’rda, san’atkorlarning o‘z xalqining ruhini shakllantiruvchi va uni yuksaltiruvchi o‘rni o‘zgacha ta’kidlanadi.

Qora yerga yaqinroq kelsin deb quyosh,
Ulug‘bek yo‘qotdi ko‘kday ulug‘ bosh.
Siz osmon ilmini suvday ichasiz,
Yulduzdan yulduzga zumdan uchasiz.

Ushbu she’rda Alisher Navoiy tomonidan yozilgan “Qora yerga yaqinroq kelsin deb quyosh” asaridan parcha keltirilgan. Nasriy tahlilni quyidagicha berish mumkin: Qora yerga yaqinroq kelsin deb quyosh-Bu qatorda quyoshning yerga yaqinlashishini istash, tasavvurdagi ilmning yuksalishi va uning insoniyatga ta’sirini ifodalaydi. Quyosh har doim hayot va bilim manbai sifatida qabul qilinadi, lekin yerga yaqinlashishi uning yuksalishiga to‘g‘ri kelmasligi mumkin. Bu, shuningdek ma'naviy va ilmiy jihatdan yuqoriga ko‘tarilish, lekin yerga yaqinlashish (ya’ni, insonning ilmga yaqinlashishi) uning maqsadlariga erishishida ko‘ngilsizlikni anglatadi.Ulug‘bek yo‘qotdi ko‘kday ulug‘ bosh — Ulug‘bek astronom, olim va hukmdor bo‘lib, uning ilmiy izlanishlari o‘sha davr uchun katta ahamiyatga ega edi. Bu qatorda Ulug‘bekning ilmiy kashfiyotlari va ilm-fan sohasidagi yuqori maqomi tilga olinadi. “Yo‘qotdi” so‘zi bu yuksaklikni ta’kidlaydi, ya’ni, Ulug‘bek ilmga bo‘lgan ulkan hissa qo‘shgan bo‘lsa ham, ba’zida inson ilmga, ma’rifatga erishishda barcha narsalarga ega bo‘lishi mumkin emas.Siz osmon ilmini suvday ichasiz — Bu qatorda insonning ilmga bo‘lgan ehtiyoji va ulkan maqsadlariga erishish istagi haqida gap boradi. “Osmon ilmi” tushunchasi olamning sirlarini o‘rganish, yulduzlar va osmon haqida ilmni o‘zlashtirishni bildiradi.

Bu ilm insonni yuksaltiradi, biroq “ichish” ifodasi ma’naviy birlashtirishni, har bir insonning bilimga bo‘lgan ehtiyojini ta’kidlaydi.Yulduzdan yulduzga zumdan uchasiz. Bu qatorda ilmning cheksizligi va rivojlanishini ifodalash mavjud. Yulduzlar o‘rtasidagi masofa katta bo‘lsa ham, ular orasida uchish, ilmiy izlanishlarni davom ettirish va yuksalish maqsadidagi odamlar uchun bu eng yuqori maqsadga erishishning ramzidir. She’rda ilm va ma'naviyat, ulug‘lik, yuksak maqsadlar haqida gap boradi. Ulug‘bekni va uning ilmiy faoliyatini yuksak qadrlash, uning hayoti va ishlari orqali ma'naviy yuksalishni ifodalash ko‘zda tutilgan.

Siz bilgan fanlarni qilmayman takror,
Faqat salobatli bir haqiqat bor,
Otamiz Leninning hurmati uchun,
Ko‘rsating navqiron naslimiz kuchin.
A’lochi o‘g‘lonlar, A’lochi qizlar,
Vatan istagi ham xuddi ana shu.

3. Tarixiy va madaniy kontekstdagi yozuv topshiriqlari: O‘quvchilarga tarixiy voqealar, madaniy meros va urf-odatlarga oid yozuv topshiriqlarini berish ularning o‘z tarixini anglash va uni yozma ravishda ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, “Buyuk ipak yo‘li va uning madaniy ahamiyati” yoki “Amir Temur davlati va uning madaniy yutuqlari” kabi mavzular yuzasidan yozma ishlar tayyorlash samarali bo‘ladi.

Madaniy va tarbiyaviy faktorlar o‘quvchilarning yozuv ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy-madaniy muhit, oilaviy tarbiya va ta’lim metodlari yozuv malakalarining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Yozuv ko‘nikmalarini samarali rivojlantirish uchun madaniy jihatlar va tarbiyaviy yondashuvlarni birgalikda qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
2. Krashen, S. D. (1982). Principles and Practice in Second Language Acquisition. Pergamon Press.
3. Gee, J. P. (2012). The Social Mind: Language, Ideology, and Social Practice. Oxford University Press.
4. Halliday, M. A. K. (2004). An Introduction to Functional Grammar. Arnold Publishers.
5. Tomlinson, B. (2011). Materials Development in Language Teaching. Cambridge University Press.

COMMON MISTAKES IN LEARNING ENGLISH

Yusupova Dilnoza Raximboy qizi
UrSPI, student of foreign language and literature: English language direction,
yusupovadilnoza@gmail.com

Abstract. This article states some common mistakes in getting proper knowledge in English language and explains several reasons for it. In this article some students are given as examples who find foreign languages difficult as a result of separate reasons with a number of appropriate solutions to fix them.

Keywords: acquisition, foreign languages, grammar, spelling, pronunciation, fix, approach.

Аннотация. В данной статье рассматриваются распространенные ошибки при освоении английского языка и объясняются несколько причин их возникновения. В статье приведены примеры студентов, которым труднее даются иностранные языки по разным причинам, а также предложены соответствующие решения для устранения этих проблем.

Ключевые слова: освоение, иностранные языки, грамматика, орфография, произношение, исправление, подход.

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tilini o‘rganishda keng tarqalgan xatolar va ularning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan bir nechta omillar keltirilgan. Maqolada, ayrim talabalar, turli sabablarga ko‘ra, xorijiy tillarni qiyin deb hisoblashlari misol sifatida keltirilgan va bu muammolarni hal qilish uchun bir qancha tegishli yechimlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘rganish, xorijiy tillar, grammatik, imlo, talaffuz, tuzatish, yondashuv.

What is learning?

Learning is a process of acquiring knowledge in a proper field and it may include some tough steps.

Why is learning a foreign language considered as a difficult task?

If it is language learning it may get more challenging. Because obtaining knowledge of a certain language means students should learn all of its aspects such as grammar, spelling, pronunciation and so on. That is why students, mostly new language learners confront more difficulties during the process and make some similar mistakes. The mistakes may slow down the progress, however they are fixable. If the teacher takes the right approach, students can understand the reason and do not repeat the mistake.

Looking at some common mistakes done by English language learners, the first and the most common one is translating directly from native language. For example, saying "I have 25 years" instead of "I am 25 years old." It happens because of different sentence structures in native languages. One solution to fix it may be to think in English instead of translating word for word. Read and listen to English daily. The second one is mispronouncing words. As Uzbek students find it difficult to make a conversation with native speakers or to find and listen to authentic materials, limited exposure causes some mistakes in pronouncing the words. Moreover, English spelling doesn’t always

match pronunciation. There are some ways to fix that, such as, listening to native speakers, using online pronunciation tools, and practicing with tongue twisters.

Countable and uncountable nouns are commonly used in the English language. As the name indicates, countable nouns are the nouns that can be counted. They are easy to understand, and the chances of making grammatical mistakes are low. You can use singular articles like “a” and “an” for singular countable nouns. You can use plural forms such as adding “s” to the word when there is more than one noun as it becomes plural. Uncountable nouns are a bit more complicated as they usually don’t have a plural form, and you can’t use a singular article with them. One way to talk about the uncountable nouns is by using quantifiers to explain how much of the noun there is.

The contrast between the use of countable and uncountable nouns in English is very evident as they are completely different. Let’s just compare a countable noun “orange” and an uncountable noun “advice” to understand the concept better. We can use the words in sentences as follows:

I have an orange for you.

I have a piece of advice for you.

How many oranges do you have?

How much advice can you give me?

I have a few oranges for you.

I have a little advice for you. [1]

Furthermore, there are some students who find speaking most. It is because of the fear of making mistakes. As a result, they stay silent in order not to say something wrong. It happens because of lack of confidence or fear of judgment. They should speak as much as possible, even if it’s not perfect. Native speakers appreciate effort.

Many commonly used words in English sound similar but have different meanings. This confuses people, especially people who are still at the beginning stage of learning English. The words that sound similar but vary in meaning are known as homophones. You cannot use such words interchangeably; therefore, you must learn the differences in their meanings. Learning this will help you improve your vocabulary and improve your English speaking and writing skills.

Some examples of homophones are as follows:

Accept and except

Flower and flour

Beat and beet

Now, using them in a sentence incorrectly vs correctly would be as follows:

Incorrect: She excepted food from a stranger.

Correct: She accepted food from a stranger.

Hundreds of homophones sound the same but have completely different meanings and can change the whole meaning of the sentence or context of the situation.

As everyone knows there are so many synonyms in English language. However, some students find it difficult to learn them or even not useful at all. That is why they end up making a mistake unconsciously. It is a mistake of using certain words too much. For example, some learners tend to use the word of very too much. For instance, saying "very happy" instead of "thrilled" or "very cold" instead of "freezing" may

happen. So, it is because of limited range of vocabulary. There are also several ways to fix that. One of them if to learn synonyms and advanced vocabulary through reading and listening. As I mentioned above many students have a lack of authentic materials. As a result, they may struggle with understanding the speech of native speakers and find it much faster to catch the meaning. It can be eased by listening to English podcasts, watching movies with subtitles, and practicing with listening exercises. Another one of the most common ESL mistakes we see in academic writing is an over-reliance on transitional phrases. Often, two logically-related sentences do not need a transitional word to link them. For example, "The lumberjacks chopped the tree. Consequently, it fell down." In this instance, consequently is not needed because readers can figure out for themselves that the tree fell as a consequence of the lumberjacks' chopping.

The tendency to use two or three words when one would do is a common ESL mistake. If we compare the sentence, "Suzie believed, but could not confirm, that Bill had feelings of affection for her," to this sentence, "Suzie assumed Bill liked her," we notice that they communicate the same meaning, except one uses five words and one uses 14. When writing an essay, it's important to avoid wordiness and to be as precise as you can when constructing sentences. Another one of the most common ESL mistakes relates to adverbs (words that add something to a verb, such as quickly, slowly, or peacefully). In ESL academic writing, adverbs are sometimes placed far away from the verbs they modify. When using an adverb, keep it close to the verb in order to avoid confusion. Never put an adverb in between the word "to" and a verb (i.e., to quickly run). This results in what is known as a split infinitive and should be avoided in traditional academic writing.

Another common mistake in language learning is expecting fluency too quickly and becoming discouraged by slow progress. Many learners start with high motivation but lose confidence when they struggle to form sentences or understand native speakers. Learning a language is a long-term process, and it’s normal to face challenges along the way. Instead of aiming for perfection, students should focus on gradual improvement, celebrating small achievements like understanding a new phrase or successfully holding a short conversation. Consistency is key—regular practice, even in small amounts, is far more effective than studying intensively for a short period and then quitting. By embracing mistakes as part of the learning journey, students can stay motivated and build real proficiency over time.

Many students lack consistency while learning a completely new language. Some begin as hobbyists, excited by the idea of learning but lacking a clear purpose, which leads them to quit when the novelty wears off. Others stop due to busy schedules, unable to balance language learning with work, school, or personal responsibilities. Perfectionists may give up when they don’t see immediate progress, feeling discouraged by grammar rules or pronunciation difficulties. Additionally, students who rely on formal classes might stop learning once the course ends, failing to continue on their own.

To overcome inconsistency, learners need clear, achievable goals that keep them focused, such as aiming for a five-minute conversation in the target language within a

month. Developing a daily habit, even if it’s just 10-15 minutes of exposure, helps maintain progress over time. Making learning enjoyable is also key—watching movies, listening to music, or reading in the target language can keep motivation high. Engaging with a learning partner or joining a community creates accountability and makes the process more interactive. Tracking progress, celebrating small wins, and immersing in the language, such as by changing phone settings or following content in the target language, can also help maintain consistency. Most importantly, learners must accept that mistakes are a natural part of the process and that progress takes time. By incorporating these strategies, students can build a sustainable learning habit and avoid long gaps in their language journey. One of the biggest mistakes language learners make is focusing too much on passive learning while neglecting active practice. Many students spend hours memorizing vocabulary lists, watching videos, or reading grammar rules, but they rarely use the language in real-life situations. This leads to a gap between knowledge and actual communication skills. To truly master a language, learners should prioritize speaking and writing regularly, even if they make mistakes. Engaging in conversations, writing short texts, or even thinking in the target language can significantly improve fluency. Language learning is not just about understanding—it’s about using the language actively and consistently.

Correcting errors is an essential part of teaching. It helps students learn from their mistakes and avoid repeating them. Knowing when and how to correct errors creates more effective and meaningful learning experiences for your students. It’s not necessary to correct every error. Focus on errors that interfere with communication and provide positive reinforcement for improvement. Teach students to simplify their sentences by removing unnecessary words and focusing on conveying the core message clearly.

There may be many other common mistakes that students may do, ut the ones I mentioned above are extremely helpful to improve your students’ English language or yours. The key is to practice more on these mistakes instead of just looking and ignoring them.

References

1. Frontpsychol., (2019). Sec. Psychology of Language. Volume 10 - 2019 | https://doi.org/10.3389/fpsyg.2019.02128

2. Azimova M. A. (2022). Psychological factors in foreign language teaching. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(5), 389–389. Https://doi.org/10.17605/OSF.IO/T8BU3

3. Swain (2013). The Inseparability of Cognition and Emotion in Second Language Learning. Cambridge university press.

4. https://learnesl.net/10-common-grammar-mistakes-in-english-and-how-to-fix-them/?utm_source=chatgpt.com

INGLIZ TILIDA TALAFFUZ VA FONETIKANI O‘QITISH

Rajapova Gulnoza Azimboy qizi
UrDPI, Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi talabasi,
gulnozarajapova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada talafuzni o‘qitish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar, ushbu sohada chet el va o‘zbek olimlarining izlanishlar olib borganligi hamda qo‘shgan hissalari haqida qisqacha keltirib o‘tilgan, shuningdek bu sohaga doir zamonaviy texnologiyalar qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: Til, talaffuz, akustik fonetika, perseptiv fonetika, tadqiqot, texnologiya, tilshunos.

Abstract. This article provides a brief overview of scientific research on pronunciation teaching, highlighting the contributions of both foreign and Uzbek scholars in this field. Additionally, it discusses modern technologies related to this area.

Keywords: Language, pronunciation, acoustic phonetics, perceptive phonetics, research, technology, linguist.

Аннотация. В данной статье кратко изложены научные исследования по обучению произношению, упомянуты работы как зарубежных, так и узбекских ученых, а также их вклад в эту область. Кроме того, рассматриваются современные технологии, связанные с данной темой.

Ключевые слова: язык, произношение, акустическая фонетика, перцептивная фонетика, исследование, технология, лингвист.

Til o‘rganish jarayonida talaffuz va fonetika muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ri talaffuz nafaqat o‘z fikrini aniq ifodalashga, balki eshituvchilar bilan samarali muloqot qilishga yordam beradi. Fonetik tadqiqotlar ko‘rsatishicha, to‘g‘ri talaffuzni egallagan o‘quvchilar tilni o‘zlashtirishda muvaffaqiyatliroq bo‘lishadi. Shu sababli, tilshunoslar talaffuz va fonetikani samarali o‘qitish metodlarini ishlab chiqishga katta e’tibor berishgan.

Talaffuz va fonetikaning til o‘rganishdagi o‘rni:

Talaffuz va fonetika tilda aniq muloqot qilish uchun zarur hisoblanadi. Ingliz tilida, masalan, "ship" (kema) va "sheep" (qo‘y) so‘zlari bir-biridan faqat bitta fonetik farq bilan ajralib turadi. Agar o‘quvchi ushbu tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilsa, tushunmovchilik yuzaga kelishi mumkin.

Fonetik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, talaffuz o‘rganishda akustik fonetika, artikulyatsion fonetika va perseptiv fonetika kabi yo‘nalishlar mavjud. Masalan, akustik fonetika nutq tovushlarining fizik xususiyatlarini o‘rganadi, artikulyatsion fonetika esa og‘iz va nutq apparatining qanday ishlashini o‘rganishga qaratilgan. Ingliz tilida talaffuz va fonetikani o‘qitish turli yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Eng samarali usullardan biri **auditor va vizual yondashuv** bo‘lib, bunda o‘quvchilar audio yozuvlarni tinglash va og‘zaki mashqlarni bajarish orqali to‘g‘ri talaffuzni o‘rganadilar. **Kommunikativ yondashuv** esa o‘quvchilarning real suhbatlar orqali talaffuzni rivojlantirishini ta’minlaydi. Shuningdek, **IPA (Xalqaro fonetik alfavit) tizimi** yordamida har bir tovushning to‘g‘ri talaffuzi o‘rgatiladi. **Drilling (takroriy**

mashq qilish) va **shadowing (ovoz ortidan takrorlash)** usullari esa o‘quvchilarga tabiiy intonatsiya va urg‘uni o‘zlashtirishga yordam beradi. Zamonaviy texnologiyalar, masalan, **ELSA Speak, Forvo va boshqa mobil ilovalar**, o‘quvchilarga mustaqil ravishda talaffuzni yaxshilash imkonini beradi.

Talaffuzni o‘qitish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar:

Talaffuz va fonetika bo‘yicha tadqiqotlar qadimdan boshlangan bo‘lib, ular tilshunoslikning rivojlanishida muhim rol o‘ynagan. Quyidagi olimlar ushbu sohada muhim izlanishlar olib borgan:

- Daniel Jones (1881–1967) – Britaniyalik tilshunos bo‘lib, Received Pronunciation (RP) terminini joriy qilgan va fonetik transkripsiyani takomillashtirgan. U o‘z ishida fonetikani o‘qitishda transkripsiya tizimining muhimligini ta’kidlagan va "An Outline of English Phonetics" asarini yozgan.
- Henry Sweet (1845–1912) – Ingliz fonetikasi bo‘yicha tadqiqot olib borgan va zamonaviy fonetika asoschilaridan biri hisoblanadi. U fonetik transkripsiyani rivojlantirishda muhim hissa qo‘shgan.
- Peter Ladefoged (1925–2006) – Dunyo tillarining fonetik tizimlarini tadqiq etgan va "A Course in Phonetics" asarini yozgan. Uning tadqiqotlari har xil tillarning talaffuz tizimlarini solishtirishga yordam bergan.
- Noam Chomsky va Morris Halle (1968) – "The Sound Pattern of English" kitobida ingliz fonologiyasining nazariy asoslarini yaratgan.

Izlanishlarda uchragan qiyinchiliklar:

Bu olimlar o‘z tadqiqotlari davomida turli qiyinchiliklarga duch kelishgan. Masalan, Daniel Jones fonetik transkripsiya tizimini yaratishda standartlashtirish muammosiga duch kelgan. Peter Ladefoged esa dunyo bo‘ylab turli tillarning talaffuz tizimlarini solishtirishda to‘g‘ri fonetik ma’lumotlarni yig‘ish qiyinligi bilan yuzlashgan.

O‘zbek tilshunosligida talaffuz va fonetika tadqiqotlari

O‘zbek tilshunosligida ham talaffuz va fonetika bo‘yicha izlanishlar olib borilgan. O‘zbek tilida talaffuzga oid muhim tadqiqotlar quyidagi olimlar tomonidan amalga oshirilgan:

- Shuhrat Sodiqov – O‘zbek tilining fonetik tizimi va urg‘u xususiyatlarini o‘rganib, ularni boshqa tillar bilan solishtirgan.
- Bahodir Mengliyev – Chet tillarni o‘rgatishda o‘zbek tilining fonetik xususiyatlari qanday ta’sir qilishini tadqiq qilgan.
- Abduaziz Madrahimov – O‘zbek tili fonetikasi bo‘yicha darsliklar yaratgan va talaffuz o‘rganish metodologiyasini takomillashtirishga hissa qo‘shgan.

Bu olimlar ham o‘z tadqiqotlarida ayrim muammolarga duch kelishgan. Masalan, Shuhrat Sodiqov o‘zbek tilidagi urg‘u tizimining chet ellik o‘quvchilar tomonidan qabul qilinishini o‘rganishda muammolarga duch kelgan. Bahodir Mengliyev esa chet tillar fonetikasi va o‘zbek tilining talaffuzi o‘rtasidagi farqlarni o‘rganishda qiyinchiliklarga duch kelgan.

Fonetik tadqiqotlar va texnologiyaning roli:

Zamonaviy texnologiyalar talaffuzni o‘rganish jarayonini ancha osonlashtirdi. Sun’iy intellekt, mobil ilovalar va kompyuter lingvistikasining rivojlanishi tufayli o‘quvchilar real vaqtda o‘z talaffuzlarini tekshira olishadi.

Mashhur fonetik ilovalar

- Forvo – So‘zlarni turli tillarda qanday talaffuz qilishni o‘rgatuvchi ilova.
- ELSA Speak – Sun’iy intellekt yordamida talaffuzni to‘g‘rilashga yordam beradigan dastur.
- Sounds: The Pronunciation App – Ingliz tilining talaffuzi va fonetik transkripsiyasini o‘rganish uchun mo‘ljallangan.

Talaffuz va fonetika til o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. To‘g‘ri talaffuz qilish o‘quvchining o‘z fikrini aniq ifodalashiga va samarali muloqot qilishiga yordam beradi. Talaffuzni o‘rganishda eshitish, takrorlash, minimal juftliklar bilan ishlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish samarali usullardan hisoblanadi. Shu bilan birga, fonetik tadqiqotlar va texnologiyalar yordamida talaffuzni o‘rgatish yanada samarali bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jones, D. (1956). *An Outline of English Phonetics*. Cambridge University Press.
2. Ladefoged, P. (2001). *A Course in Phonetics*. Cengage Learning.
3. Chomsky, N., & Halle, M. (1968). *The Sound Pattern of English*. MIT Press.
4. Forvo (www.forvo.com) – So‘zlarning talaffuzini tinglash uchun resurs.
5. ELSA Speak (www.elsaspeak.com) – Sun’iy intellekt asosida talaffuzni yaxshilash dasturi.
6. British Council (www.britishcouncil.org) – Ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha ilmiy maqolalar va qo‘llanmalar.
7. Sodiqov, Sh. (2010). *O‘zbek tilining fonetik tizimi*. Toshkent: Fan nashriyoti.
8. Mengliyev, B. (2015). *O‘zbek tilida urg‘u va intonatsiya*. Samarqand davlat universiteti.

GADJETLARNING BOLA ONGI VA RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Xudayberganova Himoyat
UrDPI, Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo‘nalishi talabasi,
xudayberganovahimoyat@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalarning ekran qaramligining rivojlanishi va uning psixologik hamda jismoniy sog‘liqqa ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ortiqcha ekran vaqti bolalarning nutq rivojlanishi, ijtimoiy ko‘nikmalari, diqqatni jamlash qobiliyati va ruhiy holatiga salbiy ta’sir qiladi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) va Kasalliklarni nazorat qilish markazi (CDC) ma’lumotlariga ko‘ra, ortiqcha ekran vaqti depressiya, tashvish va uyqu buzilishlariga sabab bo‘lishi mumkin. Shuningdek, maqolada ota-onalar farzandlarining texnologiyadan foydalanish vaqtini qanday nazorat qilishi mumkinligi, muqobil qiziqishlarni shakllantirish va real hayotdagi ijtimoiy faollikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan. Maqola bolalarning sog‘lom rivojlanishi uchun muhim bo‘lgan muammolarni yoritib, ota-onalar va pedagoglarga muhim xulosalar beradi.

Kalit so‘zlar: bolalar, telefon, ekran bog‘liqligi, diqqat buzilishi, ruhiy salomatlik, ota-onalar nazorati, zamonaviy texnologiyalar.

Abstract. This article analyzes the development of screen addiction in children and its impact on psychological and physical health. Research shows that excessive screen time negatively affects children's speech development, social skills, attention span, and emotional well-being. According to the World Health Organization (WHO) and the Centers for Disease Control and Prevention (CDC), excessive screen time can lead to depression, anxiety, and sleep disorders. The article also provides recommendations on how parents can monitor their children's use of technology, foster alternative interests, and increase social activity in real life. The article highlights key issues important for the healthy development of children and provides valuable conclusions for parents and educators.

Keywords: children, phones, screen addiction, attention disorders, mental health, parental control, modern technologies.

Аннотация. В данной статье анализируется развитие экранной зависимости у детей и ее влияние на психологическое и физическое здоровье. Исследования показывают, что чрезмерное время, проведенное перед экраном, негативно сказывается на развитии речи детей, их социальных навыков, способности сосредотачивать внимание и психоэмоциональном состоянии. Согласно данным Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ) и Центров по контролю и профилактике заболеваний (CDC), избыточное время перед экраном может привести к депрессии, тревожности и расстройствам сна. Также в статье приводятся рекомендации о том, как родители могут контролировать время использования технологий их детьми, формировать альтернативные увлечения и повышать социальную активность в реальной жизни. В статье освещаются ключевые проблемы, важные для здорового развития детей, и даются важные выводы для родителей и педагогов.

Ключевые слова: дети, телефоны, экранная зависимость, нарушение внимания, психическое здоровье, контроль со стороны родителей, современные технологии.

Bugungi kunda insoniyat duch kelayotgan eng dolzarb muammolardan biri-telefonlarga qaramlikdir. Texnologiyalar shu darajada inson ongi va hayot tarziga singib ketmoqdaki, endigina dunyoga kelgan bolalar ham uning asiriga aylanmoqda. Kichik yoshdagi farzandlarning aksariyati telefonsiz ovqatlanmaydi, o‘yin o‘ynamaydi, hattoki uxlash ham qiyinlashib bormoqda.

Xo‘sh, bugungi o‘sib kelayotgan yosh avlod kelajakni faqat ekran orqali tasavvur qila boshlamadimi? Ular ham chet eldagi tengdoshlari singari rivojlanib, o‘z ustida ishlashi, yangi narsalarni o‘rganishi uchun telefondan voz kechishi kerak emasmi?

Bolalar nega ekranga bog‘lanib qolmoqda?

Bugungi zamonda internet va turli texnologik qurilmalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Endilikda har bir oilada kamida har bir odamda bittadan smartfon bor. Kattalar ko‘pincha ish faoliyatiga bog‘liq holda telefondan foydalanishadi, lekin ko‘p hollarda farzandlarining ortiqcha shovqin qilmasligi yoki tinch o‘tirishi uchun ularga telefon berib qo‘yishadi. Bu esa bolalarda kichik yoshdan boshlab gadjetlarga qaramlik shakllanishiga sabab bo‘lmoqda.Tik tok,Instagram reels,you tube shorts sababli bolalar uzoq vaqt bir narsaga diqqat qaratolmaydi.Bolalar o‘zlari o‘ylab topadigan o‘yinlar o‘ynash o‘rniga tayyor o‘yinlarni tanlamoqda.”Ekran detoksi” (ya’ni, telefonsiz bir necha kun o‘tqazish) bolalar uchun qiyinlashmoqda.

Telefonga qaramlikning salbiy oqibatlari:

1. Nutq va ijtimoiy ko‘nikmalarga ta’siri.

Telefon va gadjetlardan ortiqcha foydalanish bolalarning nutq va ijtimoiy ko‘nikmalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar tabiiy ravishda atrof-muhitdan, yaqinlarining nutqidan o‘rganadi. Biroq, ko‘p vaqtini ekran qarshisida o‘tkazadigan bolalar real muloqotga kamroq ehtiyoj sezadi, bu esa ularning so‘z boyligi va ifoda qilish qobiliyatini cheklaydi. Tadqiqotlarga ko‘ra, gadjetlardan haddan tashqari foydalanadigan bolalar og‘zaki nutq orqali o‘z fikrlarini aniq ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelishadi.Bundan tashqari, ijtimoiy ko‘nikmalarning rivojlanishi ham sustlashadi. Bolalar yuzma-yuz muloqot qilmagani sababli hissiy ifodalar, tana tili va intonatsiyani tushunishda qiyinchiliklarga uchraydi. Do‘stlar bilan o‘ynash, oilaviy suhbatlar va jonli muloqot kamaysa, bola yolg‘izlanishi yoki ijtimoiy muhitda o‘zini noqulay his qilishi mumkin. Shu sababli, ota-onalar bolalarni real hayotdagi muloqotga ko‘proq jalb qilishlari, ularga suhbatdosh bo‘lishlari va ijtimoiy muhitda faol qatnashishiga sharoit yaratishlari lozim. Olimlarning tadqiqotlariga ko‘ra, telefonga qaram bolalar keyinchalik muloqot qilishda qiynalishadi va ijtimoiy faolligi pasayadi.

2. Diqqatni jamlash va ruhiy holatga ta’siri.

Tadqiqotlarga ko‘ra, 8-10 yoshdagi bolalar kuniga o‘rtacha 6 soat vaqtni ekran qarshisida o‘tkazadi. Bu uzoq muddatda diqqatni jamlash qobiliyatining pasayishi, stress, uyqu buzilishi va real hayotdagi ijtimoiy muammolar yuzaga kelishiga olib keladi. Masalan, AQShning Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazi (CDC)

ma’lumotlariga ko‘ra, haddan tashqari ekran vaqtiga ega bolalar depressiya, tashvish va kam harakatlilikdan aziyat chekadi.

3. Ko‘z sog‘lig‘iga ta’siri.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining (WHO) ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda yosh bolalar orasida ko‘rish qobiliyatining pasayishi 35% ga oshgan. Haddan tashqari ekran oldida vaqt o‘tkazish bosh og‘rig‘i, uyqu buzilishi va xotiraning sustlashishiga ham sabab bo‘ladi.

Farzandlarni ekran qaramligidan qanday himoya qilish mumkin?

Hozirgi zamonda bolalarni telefondan butunlay uzoqlashtirish juda qiyin. Chunki ular texnologiyani katta odamlarga qaraganda tezroq o‘zlashtirishadi. Shunday vaziyatda ota-onalar farzandning gadjetdan qanday foydalanayotganiga alohida e’tibor berishlari lozim.

1. Telefon ishlatish vaqtini cheklash.

Bolalarning ekran qarshisida o‘tkazadigan vaqtini cheklash ularning sog'lig'i va rivojlanishi uchun muhimdir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun quyidagi tavsiyalarni beradi:

1 yoshgacha bo‘lgan chaqaloqlar: umuman ekran vaqtiga ega bo‘lmasliklari kerak. 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar: ekran vaqtini imkon qadar cheklash, ya'ni kamroq foydalanish tavsiya etiladi.

3 yoshdan 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar: kuniga maksimal 1 soat sifatli ekran vaqti bilan cheklanishlari kerak.

Ushbu cheklovlar bolalarning jismoniy faolligini oshirish, uyqu sifatini yaxshilash va sog‘lom rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, ota-onalar bolalariga ekran vaqtini nazorat qilishda namuna bo‘lishlari va oilaviy faoliyatlarni birgalikda o‘tkazishlari muhimdir.

Amerika Pediatriya Akademiyasi(AAP) ham kichik yoshdagi bolalar uchun ekran vaqtini cheklashni tavsiya etadi. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, ortiqcha ekran vaqti bolalarning nutq rivojlanishi, ijtimoiy ko‘nikmalari va uyqu sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

2. Muqobil qiziqishlarni shakllantirish.

Zamonaviy bolalar ko‘p vaqtini telefonda yoki boshqa gadjetlarda o‘tkazishga moyil bo‘lib qolmoqda. Buning oldini olish uchun ularga muqobil qiziqishlar shakllantirish muhimdir. Muqobil qiziqishlar bolaning yoshiga, qiziqishlariga va temperamentiga mos kelishi kerak. Masalan, san’at va qo‘l mehnatiga qiziqqan bolalar uchun rasm chizish, loydan shakllar yasash yoki qo‘l mehnati bilan bog‘liq mashg‘ulotlar tavsiya etiladi. Bunday faoliyatlar nafaqat bolaning tasavvurini rivojlantiradi, balki uning diqqatini jamlash qobiliyatini ham oshiradi. Ba’zi bolalar tabiat bilan bog‘liq mashg‘ulotlarga qiziqishi mumkin. Ularni bog‘dorchilik, gul o‘stirish yoki hayvonlarga g‘amxo‘rlik qilish kabi faoliyatlarga jalb etish mumkin. Bu, o‘z navbatida, bolaning mas’uliyat hissini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, musiqa va qo‘shiq kuylashga qiziqqan bolalar uchun turli musiqa asboblarida o‘ynashni o‘rgatish yoki qo‘shiq aytish bo‘yicha mashg‘ulotlarga jalb etish foydali bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, bolalar teatr yoki sahnalashtirilgan o‘yinlarga ham qiziqish bildirishi mumkin. Ular kichik spektakllar tayyorlab, oilaviy tomoshalar uyushtirsa, bu ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. Muhimi, bolaning gadjetdan tashqarida ham o‘zini qiziqtiradigan mashg‘ulotlari bo‘lishini ta’minlashdir. Bu uning hayotiy tajribasini boyitish va sog‘lom rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashga yordam beradi.

3. Sport va kitobga oshno qilish.

Zamonaviy texnologiyalar bolalarning bo‘sh vaqtini egallab borayotgan bir paytda, ularni sport va kitobga oshno qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Sport bilan shug‘ullanish bolaning jismoniy sog‘lig‘ini mustahkamlash bilan birga, unda intizom va maqsad sari harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Jamoaviy sport turlari, masalan, futbol, basketbol yoki voleybol, bolalarga jamoada ishlashni, sheriklariga ishonishni va muloqot qilishni o‘rgatadi. Individual sport turlari, xususan, suzish, yugurish yoki gimnastika esa ularning o‘z ustida ishlash, chidamlilik va iroda kuchini shakllantirishiga yordam beradi. Eng muhimi, bolaning qiziqishiga qarab sport turini tanlash va unga rag‘bat berish zarur.Kitob o‘qish esa bolaning aqliy rivojlanishi uchun bebaho manba hisoblanadi. O‘qish tafakkurni rivojlantiradi, tasavvur doirasini kengaytiradi va so‘z boyligini oshiradi. Bola kitob o‘qishga qiziqishi uchun avvalo unga mos, qiziqarli va mazmunli adabiyotlar tanlab berish kerak. Mashhur ertaklar, qiziqarli hikoyalar yoki sarguzasht kitoblari bolani o‘qishga jalb qilishi mumkin. Bundan tashqari, ota-onalar farzandlari bilan birgalikda kitob o‘qib, muhokama qilishsa, bu o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqni yanada oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolaligidan kitob o‘qishga o‘rgatilgan insonlarning tafakkuri kengroq bo‘ladi va ular hayotda muvaffaqiyatga erishish ehtimoli yuqori. Shunday qilib, bolani sport va kitob bilan do‘stlashishga undash nafaqat ularning jismoniy va aqliy rivojlanishiga yordam beradi, balki ularning kelajagini ham mustahkam poydevor bilan ta’minlaydi.

Zamonaviy texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bo‘lsa-da, bolalarning ortiqcha ekran vaqtiga berilishi ularning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yosh bolalar ko‘proq real hayotiy tajribalarga, jonli muloqotga va faol o‘yinlarga muhtoj. Gadjetlardan ortiqcha foydalanish esa diqqatni jamlash qobiliyatini pasaytirishi, uyqu rejimini buzishi, stress va depressiyaga olib kelishi mumkin. Ota-onalar farzandlariga ekran vaqtini to‘g‘ri boshqarish, alternativ mashg‘ulotlarni taklif qilish va ularni sport, kitob o‘qish yoki boshqa ijodiy faoliyatlarga jalb qilish orqali ushbu muammoning oldini olishlari lozim. Shuningdek, oilaviy muloqot va jonli suhbatlar bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Shunday ekan, bolalarimizning kelajagini o‘ylab, texnologiyadan oqilona foydalanish, ekran vaqtini me’yorida belgilash va ularning sog‘lom rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish har bir ota-onaning vazifasidir. Zamon talablariga mos ravishda, lekin sog‘liq va rivojlanish manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘ygan holda texnologiyadan foydalanish eng to‘g‘ri yo‘ldir. Bugun biz ota-onalar farzandimiz uchun so‘nggi rusumdagi telefonni emas, balki so‘nggi nashr qilingan kitobni tanlaylik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. L. Zimmerman, "The Effects of Screen Time on Children’s Development," Journal of Child Psychology, 2023.
2. CDC (Centers for Disease Control and Prevention), "Screen Time Recommendations for Children," 2022.
3. American Psychological Association, "Screen Time and Mental Health," 2021.
4. WHO (World Health Organization), "Vision Loss and Digital Eye Strain," 2023.
5. World Health Organization. (2019). Guidelines on physical activity, sedentary behaviour and sleep for children under 5 years of age. Geneva: World Health Organization.
6. American Academy of Pediatrics. (2016). Media and Young Minds. Pediatrics, 138(5), e20162591.
7. National Literacy Trust, "Impact of Early Reading on Cognitive Development," 2021.

ELEKTRON RESURSLARNI ISHLAB CHIQISHDAGI TEXNIK CHEKLOVLAR

Bekjanova Zamira Ismailovna
UrDU, Fakultetlararo chet tillar kafedrasi o‘qituvchisi, bekjanova1968@gmail.com
Rahimova Mehribon Allayorovna, UrDU, doktorant

Annotatsiya. Elektron resurslar chet tilini o‘qitish jarayonida ta’lim samaradorligini oshirish va interaktivlikni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Biroq, ularni yaratish va foydalanish jarayonida turli texnik cheklovlar, xususan, dasturiy ta’minotdagi nosozliklar, qurilmalar mosligi, internet aloqasi va kuzatuv tizimlarining yetarli darajada ishlamasligi kabi muammolar yuzaga keladi. Ushbu maqolada elektron o‘qitish vositalarini samarali ishlatishda uchraydigan texnik to‘siqlar tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish yo‘llari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Elektron resurslar, texnik cheklovlar, dasturiy ta’minot, interaktiv ta’lim, o‘qitish samaradorligi.

Abstract. Electronic resources are among the most widely used tools in foreign language teaching, enhancing the effectiveness and interactivity of education. However, several technical constraints, such as software malfunctions, device compatibility issues, poor internet connectivity, and limited monitoring systems, may negatively affect the teaching process. This article analyzes common technical barriers in the use of digital teaching resources and proposes solutions to overcome them for more effective educational outcomes.

Keywords: Electronic resources, technical constraints, software malfunctions, interactive learning, teaching efficiency.

Аннотация. Электронные ресурсы являются одним из наиболее широко используемых инструментов в процессе преподавания иностранных языков, способствуя повышению эффективности и интерактивности обучения. Однако при создании и использовании таких ресурсов возникают различные технические ограничения, включая сбои программного обеспечения, несовместимость устройств, проблемы с подключением к интернету и ограниченность систем мониторинга. В данной статье рассматриваются основные технические проблемы электронного обучения и предлагаются пути их устранения для повышения качества образования.

Ключевые слова: Электронные ресурсы, технические ограничения, сбои программного обеспечения, интерактивное обучение, эффективность преподавания.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ta’lim sohasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, chet tillarni o‘qitishda elektron resurslardan foydalanish ta’lim jarayonini yanada samarali, interaktiv va o‘quvchi markazli qilmoqda. Elektron darsliklar, onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali taqdim etilayotgan bilimlar zamonaviy talabalarning ehtiyojlariga javob beradi. Biroq, ushbu resurslardan foydalanishda bir qator texnik cheklovlar mavjud bo‘lib, ular ta’lim

sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu maqolada aynan shunday texnik muammolar tahlil qilinadi va ularni bartaraf etish bo‘yicha amaliy takliflar beriladi.

Elektron resurslar chet tilini o‘qitish jarayonida keng qo‘llanilayotgan vositalardan biri bo‘lib, ular ta’limni yanada samarali va interaktiv qiladi. Biroq, bu resurslarni yaratishda bir qancha texnik cheklovlar mavjud bo‘lib, ular o‘qitish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Elektron darsliklar, onlayn platformalar va mobil ilovalar orqali ta’lim berishning samaradorligini oshirish uchun texnik cheklovlarni yengish zarur [1-2].

Texnik cheklovlar turli sabablarga ko‘ra yuzaga kelishi mumkin, jumladan, dasturiy ta’minotdagi nosozliklar, apparat resurslarining yetishmasligi, internetga ulanishdagi muammolar va foydalanilayotgan texnologiyalarning malakali qo‘llanilmasligi.

Ushbu cheklovlar nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar uchun ham o‘ziga xos muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shundan dasturiy ta’minotdagi nosozliklar bo‘yicha quyidagi jihatlarni keltirish mumkin.

Elektron resurslarni yaratishda va foydalanishda dasturiy ta’minotdagi nosozliklar muhim texnik muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan, interaktiv darsliklar yoki onlayn platformalar turli xil brauzerlarda yoki qurilmalarda noto‘g‘ri ishlashi mumkin. Bu nosozliklar o‘quvchilarning ta’lim jarayonini uzilishlar yoki ba’zi funksiyalarning ishlamasligi sababli murakkablashtirishi mumkin. Ularni quyidagi toifalarga ajratish mumkin.

- **Kengaytirilgan funksiyalarni qo‘llash**: Ba’zi dasturiy ta’minotlar ilg‘or funksiyalarni qo‘llab-quvvatlasa ham, bularni barcha qurilmalarda qo‘llash mumkin bo‘lmasligi mumkin. Masalan, mobil qurilmalarda kompyuterlardagi kabi interaktiv imkoniyatlar mavjud emas.
- **Kuzatuv tizimlarining cheklanganligi**: O‘quvchilarning faoliyatini kuzatish uchun ishlab chiqilgan tizimlar ba’zan ishlab chiquvchilar tomonidan yetarlicha optimallashtirilmagan bo‘lishi mumkin. Bu esa o‘qituvchining darsdagi ishtirokchilarning darajasini aniqlashda qiyinchiliklarga olib keladi.
- **Versiya mosliklari**: Yangi versiyalar chiqarilganida, eski versiyalar bilan moslikda muammolar paydo bo‘lishi mumkin. Bu o‘qituvchilarning va o‘quvchilarning o‘z resurslarini yangilashda vaqtincha foydalanishdagi qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi.

Yuqoridagi muammolarni dasturiy ta’minotni ishlab chiqishdan oldin keng qamrovli testlarni o‘tkazish, turli xil qurilmalarda va platformalarda sinovlardan o‘tkazish hamdatTexnik qo‘llab-quvvatlash xizmatlari va doimiy yangilanishlar ta’minoti orqali bartaraf qilish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, elektron resurslardan foydalanish chet tilini o‘qitishda katta imkoniyatlar yaratadi, ammo mavjud texnik cheklovlar ularning samaradorligini pasaytirishi mumkin. Ushbu muammolarni oldindan aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar o‘qitish sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Dasturiy ta’minotni yangilash, texnik qo‘llab-quvvatlash xizmatlarini rivojlantirish va foydalanuvchilarning texnik savodxonligini oshirish bu borada asosiy yo‘nalishlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sirojiddinova S. et al. Xorijiy tillarni masofaviy o‘qitishning kamchilik va yutuqlari //" ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION. – 2023. – Т. 10. – №. 1.
2. Goltz-Wasiucionek D. THE DISABLED LEARNING A FOREIGN LANGUAGE-RESTRICTIONS AND POSSIBILITIES OF USING EDUCATIONAL PLATFORM //Use of E-learning in the Developing of the Key Competences. – С. 369.

COMPARATIVE ANTHROPOCENTRIC ANALYSIS OF UZBEK AND ENGLISH DEMONYMS

Sapayeva Zuhra
UrSPI, teacher of the department of Foreign Philology,
sapayevazuhrahon@gmail.com
Yusupova Dilorom Karimboy qizi
UrSPI, student of the direction of foreign language and literature: English language, Yusupovadilorom2005@gmail.com

Abstract. Beliefs about supernatural entities in demonology are deeply embedded in folklore, serving as a mirror of a society’s cultural values, anxieties, and customs. This paper compares demonological figures in Uzbek and English folklore from an anthropocentric perspective, analyzing their roles, characteristics, and cultural significance. By examining historical contexts and scholarly research, this paper explores how these supernatural beings help societies explain emotions, maintain cultural identity, and shape moral understanding across generations.

Key words: Demonym, folklore, supernatural beings, Uzbek folklore, English folklore, cultural identity, psychological struggles, historical context.

Annotatsiya. Demonologiyadagi g‘ayritabiiy mavjudotlar haqidagi e’tiqodlar xalq og‘zaki ijodida chuqur ildiz otgan bo‘lib, jamiyatning madaniy qadriyatlari, tashvishlari va urf-odatlarini aks ettiruvchi oyna vazifasini bajaradi. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz folkloridagi demonologik obrazlar antropotsentrik nuqtai nazardan taqqoslanib, ularning roli, xususiyatlari va madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Tarixiy kontekst va ilmiy tadqiqotlarni o‘rganish orqali ushbu mavjudotlarning jamiyat tomonidan hissiyotlarni tushuntirish, madaniy o‘zlikni saqlash va axloqiy tushunchalarni shakllantirishdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: demonim, folklor, g‘ayritabiiy mavjudotlar, o‘zbek folklori, ingliz folklori, madaniy o‘zlik, psixologik kurashlar, tarixiy kontekst.

Аннотация. Вера в сверхъестественные существа в демонологии глубоко укоренилась в фольклоре, выполняя роль зеркала, отражающего культурные ценности, тревоги и обычаи общества. В данной статье проводится сравнительный анализ демонологических образов в узбекском и английском фольклоре с антропоцентрической точки зрения, рассматриваются их роли, характеристики и культурное значение. Изучая исторический контекст и научные исследования, раскрывается, как эти сверхъестественные существа помогают обществу объяснять эмоции, сохранять культурную идентичность и формировать моральные представления из поколения в поколение.

Ключевые слова: Демоним, фольклор, сверхъестественные существа, узбекский фольклор, английский фольклор, культурная идентичность, психологические переживания, исторический контекст.

Every culture reflects its values and moral beliefs through supernatural beings. Demonym, the study of demons and other supernatural entities, plays a crucial role in folklore and mythology, serving as a mirror of a society’s ethical and religious views. This paper compares demonological figures in Uzbek and English folklore from an

anthropocentric perspective. In Uzbek traditions, beings like dev, ajina, and jin act as moral enforcers or embodiments of evil, teaching ethical lessons. Meanwhile, English folklore features figures like the bogeyman, the puck, and the black shuck, which often symbolize personal fears and the unknown. While both traditions use supernatural beings to address societal concerns, their representations differ significantly. This study explores these similarities and differences, highlighting how folklore preserves cultural identity and reflects human psychology. The findings contribute to a deeper understanding of how myths and legends shape collective beliefs. As a branch of religious studies and folklore, demonology analyzes mythological beings that signify evil power, moral teachings, or mysterious anxieties in many cultures. Although the study of demons has historically been connected to religious interpretations, contemporary folklore studies view it as a reflection of psychological fears and social conventions.

Folklore functions as a repository of cultural heritage, safeguarding traditions, beliefs, and societal concerns through both oral and literary storytelling. The study of supernatural entities like demons, spirits, and mythological creatures is known as demonymy, and it is one of the most fascinating regions of folklore. The way a civilization views morality, the paranormal, and human psychology is reflected in its demonological figures. Instilling fear to control conduct or externalizing the unknown and uncontrollable aspects of life, these entities can serve as both personifications of psychological fears and moral enforcers.

This study compares the cultural relevance, symbolic functions, and influence on societal belief systems of the demonological traditions of Uzbekistan and English. In Uzbek folklore, figures as guardians of ethical and social order such as the dev (a large, often evil creature), ajina (a female demon associated with darkness and mischief), and jin (a spirit embodying both good and evil traits) play a crucial role in narratives and moral teachings.

These entities, shaped by pre-Islamic beliefs and subsequent Islamic influences, were frequently employed to account for misfortunes or to validate societal norms. English folklore frequently depicts them as representations of individual fears and existential anxieties and similarly features characters like the bogeyman, a being employed to instill fear in children for disciplinary purposes; Puck, a playful spirit present in medieval and Shakespearean works; and the black shuck, a spectral black dog linked to death omens. These entities developed in tandem with Christianity, medieval superstitions, and early modern horror stories, mirroring the cultural transformations in the understanding of the supernatural.

The idea of supernatural beings has been a part of human culture for centuries, evolving alongside different religious, social, and historical contexts. Supernatural beings in folklore frequently serve as guides that help define the boundaries of morality within a society. These mythological figures are often used to reinforce ethical norms by illustrating the consequences of unacceptable behavior. In some cultures, they act as protectors of communal values, warning individuals against actions that may disrupt social harmony. While certain traditions depict these beings as enforcers of discipline, others associate them more with human emotions and psychological fears. Instead of

being strict moral regulators, some supernatural entities symbolize deep-seated anxieties, particularly those experienced in childhood. These figures personify the fear of the unknown, making Abstract. worries more tangible through storytelling.

Folklore’s depiction of supernatural beings serves as a window into a society’s moral framework and psychological landscape. While some traditions emphasize their role in reinforcing ethical norms, others focus on their connection to deep-seated fears and uncertainties. In cultures where social cohesion is highly valued, these entities often act as enforcers of communal ethics, ensuring that individuals adhere to collective standards. Meanwhile, in societies where individual fears take precedence, supernatural beings manifest as representations of personal anxieties and existential doubts. These differing portrayals highlight how folklore adapts to the needs of the people who create and preserve it. Whether serving as moral guardians or embodiments of fear, supernatural figures continue to play a crucial role in shaping cultural identity and reflecting the human experience.

Throughout history, demonological figures have experienced substantial changes. In ancient civilizations, early demonological figures were often deities associated with natural forces, disorder, and destruction. Medieval Period: Supernatural entities were more frequently associated with sin and divine retribution in Islamic and Christian contexts. Contemporary Interpretations: Demonological characters are now employed in literature and film to examine psychological issues and societal anxieties. This development demonstrates how folklore changes to reflect the shifting ideals and concerns of each period.

Demonological characters are still widely used in literature, movies, and digital media in today's society. From moral enforcers to intricate psychological and symbolic entities, the portrayal of supernatural creatures has changed over time. Hollywood and Popular Culture: The Exorcist and The Conjuring, which depict demons as evil spirits that possess people, serve to reinforce Western demonological anxieties. Digital media and gaming: Diablo and The Witcher are two examples of games that modify classic demonological characters to give them new interactive and symbolic meanings. Uzbek Media Influence: Although they frequently maintain their conventional moralistic tone, horror films and television shows based on Uzbek folklore include demonological elements. Folklore is a living and changing tradition that is always being altered to meet the concerns of the modern world, as these contemporary adaptations show.

Demonological characters in English and Uzbek folklore share similarities with those in other international traditions: Slavic Mythology: The Russian Babayka, who resembles the Bogeyman, is a figure of childhood horror. Japanese Yokai: In Japanese legend, Oni (demons) are both punishing and protective spirits, much like jinn.

African Legends: Similar to Uzbek demonology, ancestral ghosts and spirits act as guardians of tradition and values. These similarities demonstrate that while demonological figures can take many different forms, their functions are always significant. This comparative analysis highlights the folklore's anthropocentric depictions of demons. While Uzbek folklore emphasizes communal ethics, English folklore focuses on personal fears. These findings contribute to folklore studies, demonstrating how supernatural beings reflect human concerns and cultural beliefs.

The study also highlights how modern culture, psychology, and historical evolution continue to reshape demonological figures, keeping them relevant in contemporary storytelling. Future research could explore regional variations of demonological figures, examining how globalization and contemporary media reshape traditional supernatural beliefs.

References

1. Dundes, A. Interpreting Folklore. Indiana University Press. 1980
2. Davies, O. Grimoires: A History of Magic Books. Oxford University Press. 2009
3. McCraw, B. W., & Arp, R. Philosophical Approaches to Demonology. Routledge. 2017
4. Simpson, J., & Roud, S. A Dictionary of English Folklore. Oxford University Press. 2000
5. Ismoilov, H. O‘zbek Xalq E'tiqodlarida Jinlar va Ularning Diniy Asoslari. Toshkent Islom Universiteti Nashriyoti. 2015
6. Rasulov, B. O‘zbek Zamonaviy Madaniyatida Demonologik Obrazlar. O‘zbekiston Folklori Jurnali, 5(1), 22-35. 2020
7. Kendall, T. Demonic Traditions in Modern British Media. Journal of Contemporary Folklore, 12(3), 45-67. 2018
8. Sadriddinzoda, S. S. A Comparative Study of Demonological and Mythological Characters in Central Asian Folklore. Central Asian Folklore Studies, 3(2), 50-68. 2021
9. Lang, A. The Blue Fairy Book. Dover Publications. 1976
10. Atkamova, S. A., & Duysenbaev, K. S. Anthropomorphic Metaphors in Uzbek Language. Journal of Linguistic Studies, 15(4), 99-112. 2024

O‘ZBEK TILIDA SO‘ZLASHUV USLUBIDAGI DASTURXON NUTQI JANRLARINING MAZMUNIY TUZILISHI

Ro‘zimova Nargul Egamberganovna
UrDU, Xorijiy filologiya fakulteti Fakultetlararo chet tillar kefedrasi o ‘qituvchisi,
ruzimovanorgul@gmail.com

Annotatsiya. O‘zbek lingvomadaniyatida dasturxon nutqi madaniyatining o‘ziga xosligi haqida fikr yuritilib, hol-ahvol so‘rash, ovqatga taklif, erkalatish, duo, buyruq gap, mehmonni kutib olish, fotiha o‘qish kabi nutqiy harakatlar o‘zbek dasturxon suhbatining mazmunini tashkil qilishi misollar yordamida dalillanadi. O‘zbek lingvomadaniyatida dasturxon nutqida qarg‘ish tipidagi xitob, yengil tanbeh, duo, tilak, ovqatga taklif, mehmonni kutib olish kabi nutqiy aktlar va nutqiy janrlar faol qo‘llanilishligi o‘zbek lingvomadaniyatining o‘ziga xosligini tashkil qiladi.

Kalit so‘zlar: matn, dasturxon nutqi, so‘zlashuv uslubi, xitob, nasihat, yangi axborotlar taqdim qilish, kichik yoshdagilarga tanbeh berish, nutqiy aktlar, nutqiy janrlar kabilar.

Аннотация. В узбекской лингвокультуре обсуждается своеобразие культуры застольной речи и на примерах доказывается, что содержание узбекской застольной беседы составляют такие речевые действия, как расспрос о ситуации, предложение еды, ласка, молитва, приказание, приветствие гостя, произнесение благословений. В узбекской лингвокультуре своеобразием узбекской лингвокультуры является активное использование таких речевых актов и речевых жанров, как восклицание-ругательство, легкий упрек, молитва, пожелание, приглашение к еде, приветствие гостя.

Ключевые слова: текст, застольная речь, стиль речи, обращение, увещевание, изложение новой информации, выговор несовершеннолетним, речевые действия, речевые жанры и др.

Abstract. In the Uzbek linguistic culture, the uniqueness of the culture of table speech is discussed, and it is proved with the help of examples that speech acts such as asking about the situation, offering food, caressing, praying, commanding, welcoming a guest, reciting blessings constitute the content of the Uzbek table conversation. In the Uzbek linguistic culture, the active use of speech acts and speech genres such as curse-type exclamation, light rebuke, prayer, wish, invitation to food, welcoming a guest, constitutes the uniqueness of the Uzbek linguistic culture.

Key words: text, table speech, speech style, address, exhortation, presenting new information, reprimanding minors, speech acts, speech genres, etc.

Dasturxon muloqoti bilan bog‘liq nutqiy janrlarning tasnifiy guruhlari va turkum xususiyatlari, qolaversa, dasturxon muloqoti bilan bog‘liq alohida nutqiy janrlar, dasturxon etiketi, adresant va adresat, ular tegishli jamiyat, dasturxon nutqiga oid milliy-madaniy xususiyatlar kabi lingvistik masalalarning o‘rganilishi rus tilshunoslari nomi bilan bog‘lanadi. Rus tilshunoslari tadqiqotlari bevosita rus tilining milliy madaniy xususiyatlari asosida xosil bo‘lgan qadah so‘zi, suhbat nutqiy janrlarining ekstralingvistik omillarini aniqlashga qaratilganligi bilan xarakterlanadi.

O‘zbek lingvomadaniyatida esa bu kabi tadqiqotlarning olib borilishi qadah so‘zi nutqiy janri misolida boshlangan. Tadqiqotchi M. Anorboeva ingliz va o‘zbek tillarida qadah so‘zi nutqiy janrining matniy kompozitsion tuzilishi va millliy madaniy xususiyatlarini qiyoslashga harakat qilgan.

Darhaqiqat, dasturxon nutqida ishtirok etuvchi nutqiy janrlar o‘zbekona nutqiy muloqot xulqini yuzaga keltiruvchi nutqiy janrlar tanlovini amalga oshiradi. Ayniqsa, so‘zlashuv uslubidagi nutqiy janrlarda xitob, tanbeh, buyruq mazmunli nutqiy janrlarning qo‘llanilishi o‘zbek lingvomadaniyatida adresantlar va adresatlarning gender va ijtimoiy lingvistik xususiyatlari mavjud ekanligidan darak beradi.

O‘zbek lingvomadaniyatida dasturxon nutqidagi janrlarning matniy tuzilishi o‘ziga xos bo‘lib, eng avvalo, matnlar uslubiy ko‘rinishiga ko‘ra farqlanadi. So‘zlashuv va badiiy uslubdagi dasturxon nutqida xitob, nasihat, yangi axborotlar taqdim qilish, kichik yoshdagilarga tanbeh berish kabi nutqiy harakatlar va janrlar faol qo‘llaniladi. Masalan, badiiy-so‘zlashuv uslubidagi dasturxon nutqi matni:

-Bashor opa o‘rnidan turguncha darvozada eski quloqchin kiygan bobom ko‘rindi. Qo‘ltig‘ida kattagina tog‘ora. Bir qo‘lida tugun. Dimoqqa osh isi urildi. Bashor opa so‘ramasa ham tushuntirdi.

-To‘y, Bashoratxon, to‘yni boshlab qo‘ydik! Robiyaga to‘y keldi, Kimsanga unashtirdik (Yangi axborot taqdim qilish).

Nima qilishimni bilmay qoldim. Tashqariga qochib chiqay desam, darvoza oldida bobom turibdi. Boya Parcha qochib borgan burchakka o‘zimni urdim. Bashor opa bir zumda shunday yerning o‘ziga dasturxon yozdi. Bobom ketib bo‘lganinin bilib, endi qochib qolmoqchi edim, Bashor opa qo‘limdan mahkam tutdi.

-Erga tegishga uyalmagan, oshini yeyishga noz qilasanmi, qiz tushmagur, o‘tir bundoq! (xitob)

Lagan to‘la sap-sariq oshga Parcha shosha picha qo‘l cho‘zgan edi, Bashor opa bilagiga qarsillatib tushirdi.

-Shoshma, nafsing qurgur, avval patirdan ye, xolvadan og‘zingga sol. Keyin hamma osh seniki! (tanbeh)

Qornim ochib ketgan bo‘lsa-yam, oshdan bir-ikki cho‘qib qo‘limni artdim.

Bashor opa piyoz hidi anqib turgan lablari bilan ikki yuzimdan qattiq o‘pdi.

-Baxtli bo‘l, singlim. Qaylig‘ing eson-omon kelsin! (tilak, murojaat, duo)

Ushbu matnda polilogik nutq vakillari ishtirok etib, adresantning adresatlarga nisbatan qarg‘ish tipidagi xitobi (nafsing qurg‘ur, qiz tushmagur), tanbehi (Shoshma), tilagi (baxtli bo‘l), duosi (qaylig‘ing eson-omon kelsin) va yangi axborotlar taqdimoti (To‘y, Bashoratxon, to‘yni boshlab qo‘ydik! Robiyaga to‘y keldi, Kimsanga unashtirdik) alohida nutqiy janrlarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, ushbu matnda murojaat nutqiy akti (singlim, Bashoratxon) adresatlarni ko‘rsatishga xizmat qiladi.

O‘zbek lingvomadaniyatida hol-ahvol so‘rash, ovqatga taklif, erkalatish, duo, buyruq gap, mehmonni kutib olish, fotiha o‘qish dasturxon suhbatining mazmunini tashkil qilishi mumkin. Masalan:

Mehmonni kutib olish: -Kesinlar! Akasining ukasi, kesinlar, -dedi dilkashlik bilan shang‘illab.

Ovqatga taklif va xol ahvol so‘rash: -Olsangchi, -dedi qistab. -Bodomlardan olgin! Toshkentda bodom yo‘qku... hammalaring yaxshimisizlar? Ukang katta bo‘lib qoldimi?

Buyruq-iltimos: -Nasibahon, qizim, choy damlab kela qol, akang sovqotib keldiku.

Yengil tanbeh: -Hoy, Nasibaxon! Akang bilan quchoqlashib ko‘rishmaysanmi?

Ko‘rinadiki, o‘zbek lingvomadaniyatida dasturxon nutqida qarg‘ish tipidagi xitob, yengil tanbeh, duo, tilak, ovqatga taklif, mehmonni kutib olish kabi nutqiy aktlar va nutqiy janrlar faol qo‘llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Портных Н.Н. Праздничная застольная беседа как предмет речи на школьном уроке литературы. Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2016. № 7(61): в 3-х ч. Ч.3. С 202-205.
2. Н.И.Шихкибирова. Языковая игра в тосте. Автореф.д.канд..филол. наук, Махачкала, 2012, 33 с.
3. *Ма Яньли.* Застольный ритуал и концепт “застолье” в китайской и русской лингвокультурах: Дис. … канд. филол. наук. М., 2005. 165 с. С. 39.
4. Е.М. Архипова. Тост как первичный речевой жанр в современной концепции научного знания. Научная мысль Кавказа 2010 № 3, с 151-155.
5. Ў. Ҳошимов. Икки эшик ораси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2018. 588 бет.

CHALLENGES IN TEACHING SOCIAL SCIENCES AND HUMANITIES

Ro‘zmetova Madinabonu Ruslan qizi
UrSU, Foreign Philology major student, madinarozmetova2006@gmail.com

Abstract. Teaching social sciences and humanities is important for the development of society and the study of the cultural heritage of humanity. The main goal of education in these areas is not only to impart knowledge, but also to develop in students the ability to think critically, feel social responsibility and make ethical decisions. However, a number of difficulties arise in teaching social sciences and humanities. The first type of these problems includes methodological difficulties. For example, the lack of harmony between traditional methods and innovative methods in teaching social sciences and humanities hinders the effectiveness of the teaching process**.**

Keywords: Social sciences, humanities, teaching methodology, innovations in education, student motivation, pedagogical approaches, teaching challenges.

Annotatsiya. Ijtimoiy fanlar va gumanitar fanlarni o‘qitish, jamiyatning taraqqiyoti va insoniyatning madaniy merosini o‘rganish uchun katta ahamiyatga kasb etadi. Ushbu sohalarda ta’lim olishning asosiy maqsadi nafaqat bilim berish, balki talabalarda tanqidiy fikrlash, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish va etika asosida qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishdir. Ammo, ijtimoiy fanlar va gumanitar fanlarni o‘qitishda bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi. Bu muammolarning birinchi turiga metodologik qiyinchiliklar kiradi. Misol sifatida, ijtimoiy fanlar va gumanitar fanlarni o‘qitishda an’anaviy usullar va innovatsion metodlarning uyg‘unlashmaganligi o‘qitish jarayonini samarali bo‘lishiga to‘sqinlik qiladi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy fanlar, gumanitar fanlar, o‘qitish metodologiyasi, ta’limda innovatsiyalar, o‘quvchilarni motivatsiya qilish, pedagogik yondoshuvlar, o‘qituvchilik qiyinchiliklari.

Аннотация. Преподавание социальных и гуманитарных наук имеет большое значение для развития общества и изучения культурного наследия человечества. Основная цель образования в этих областях заключается не только в передаче знаний, но и в развитии у студентов способности критически мыслить, чувствовать социальную ответственность и принимать решения, основанные на этике. Однако существует ряд трудностей в преподавании социальных и гуманитарных наук. К первому типу этих проблем относятся методологические трудности. Например, несовместимость традиционных методов и инновационных подходов в преподавании социальных и гуманитарных наук препятствует эффективному учебному процессу**.**

Ключевые слова: общественные науки, гуманитарные науки, методика преподавания, инновации в образовании, мотивация учащихся, педагогические подходы, трудности обучения.

Social sciences and humanities play an important role in the development of society. These disciplines are important in studying the historical and cultural heritage of humanity, analyzing social systems, and protecting human rights. Through the humanities, students develop their thinking skills, broaden their worldview, and form

moral values. Social sciences, on the other hand, prepare students for active participation in society and problem-solving by studying changes in society, social justice, political systems, and the economic situation.

However, there are a number of difficulties in teaching these disciplines. The specific requirements of modern pedagogical approaches and the incompatibility of traditional teaching methods make it difficult for teachers to introduce new methods. At the same time, the decline in interest in social sciences and humanities among students negatively affects the effectiveness of the educational process. This leads to a decrease in student motivation and reduces their active participation in the educational process. In addition, the need for teachers to improve their skills, learn new technologies, and update pedagogical methods in teaching social sciences and humanities is constantly increasing.

Also, social, political, and economic changes in society require updating curricula, which forces teachers to constantly update themselves. This article analyzes the main difficulties encountered in teaching social sciences and humanities and provides recommendations for overcoming them.

One of the most important challenges in teaching social sciences and humanities is methodological approaches. Many teachers continue to rely on traditional teaching methods. Such methods often offer a passive learning method based on memorization of information, which makes students passive.

However, given the significant changes taking place in pedagogy and teaching methods today, teachers are required to use new methods. Modern pedagogical approaches are aimed at actively involving students in the learning process and developing their critical thinking skills. This requires teachers to teach not only traditional methods, but also interactive methods, group work, problem-based learning, case analysis and technology.

Therefore, it is important for teachers to learn innovative methodologies and use them effectively. Presenting educational materials in interactive forms, using videos, virtual classrooms and other multimedia tools increases student activity.

Decreased student motivation: another problem that arises in teaching social sciences and humanities is the decrease in student motivation. Today, students often show less interest in theoretical knowledge that is not related to practical life. The development of the Internet and social networks, modern technologies, games and many new opportunities such as virtual reality make it difficult for students to concentrate.

Therefore, teachers should focus their lessons not only on imparting theoretical knowledge, but also on orienting students to real life, teaching them to solve practical problems. One of the effective ways to motivate students is to organize interactive classes, role-playing games and practical exercises.

Creating opportunities for students to actively participate in solving social problems in society, ensuring that they apply their knowledge in practice, increases motivation. This, in turn, helps them to assimilate knowledge more deeply and effectively.

Teacher Qualifications and Training: teacher qualifications and training are one of the important factors in teaching social sciences and humanities. Teachers need to update their pedagogical and scientific knowledge, master new methods. In many cases, teachers teach using old, traditional methods, which is not very effective for students.

The need for teachers to improve their skills is constantly increasing. It is important to organize advanced training courses, trainings and seminars to familiarize teachers with innovative methods and technologies. This, in turn, ensures the effective work of teachers and increases the quality of the educational process. At the same time, teachers need to update their pedagogical approaches, improve their individual approach to students. Improving the specific qualifications and competencies of teachers allows them to effectively direct the scientific activities of students. Teachers need to be well-versed in the new requirements and regulations in the education system in which they work, as these requirements can lead to significant changes in pedagogical practice.

Social, political, and economic changes in society have a significant impact on the teaching of social sciences and humanities. Curriculum updates, new political decisions, economic crises, and other social factors require teachers to adopt new approaches. Taking into account changes in society, teachers should organize their lessons in such a way that students not only acquire theoretical knowledge, but also engage in activities aimed at solving problems in society. Updating curricula, developing new educational materials, and adapting teaching methods are important.

Lessons should encourage students not only to study, but also to understand and critically approach changes in society. To do this, teachers should recognize problems in society and provide approaches to them from a scientific perspective. More discussion of socio-political topics in lessons and educational materials will help students acquire new knowledge and increase their social responsibility. At the same time, teachers need to regularly update their knowledge and skills to quickly adapt to social changes in society and make education more effective.

The difficulties encountered in teaching social sciences and humanities are reflected in various areas. Continuous improvement of teachers' pedagogical and methodological skills, the use of modern technologies in lessons, and the provision of new educational materials to students play an important role in making the educational process more effective. To increase student motivation and ensure their active participation, it is necessary to use interactive approaches and practical exercises. It is very important to organize special advanced training courses and trainings for teachers to improve their own skills.

In order to adapt to social and political changes in society, update curricula, and increase students' social responsibility, it is necessary to make lessons practical and close to real life. At the same time, it is necessary to introduce modern pedagogical approaches and technologies in teaching social sciences and humanities. Teachers can achieve more effective direction of students' scientific and social activities by updating their knowledge and introducing new methods. Thus, overcoming the difficulties

encountered in teaching social sciences and humanities will serve to improve the quality of the education system and further develop society.

References

1. Elliott, S. Innovative Teaching Methods for Humanities Education. Cambridge: Cambridge University Press. (2017).
2. Fletcher, K., & Smith, T. Interdisciplinary Teaching and Learning in the Social Sciences. London: Routledge. (2019).
3. Harris, C. Learning and Teaching in the Humanities: An Evidence-Based Approach. Oxford: Oxford University Press. (2015).
4. Hickson, S., & Roberts, M. Pedagogy in the Social Sciences: An Exploration of New Educational Trends. San Francisco: Jossey-Bass. (2019).
5. Jones, D. Contemporary Pedagogies in the Humanities and Social Sciences. New York: Routledge. (2017).
6. Loughlin, M. Critical Pedagogy and the Teaching of Social Sciences. London: SAGE Publications. (2021).
7. Miller, T., & Davies, J. Transforming Humanities Education: Theory and Practice. New York: Palgrave Macmillan. (2018).
8. Rey, M. Social Science Teaching: Challenges and Approaches. New York: Educational Insights Press. (2018).
9. Smith, J.R. Educational Strategies for Humanities Subjects. Oxford: Oxford University Press. (2019).
10. Tarrant, M.A. & Horne, J. Teaching Social Studies: A Critical Thinking Approach. London: Routledge. (2019).

DASTURXON NUTQI JANRLARINING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Ro‘zimova Nargul Egamberganovna
UrDPI Xorijiy filologiya fakulteti Fakultetlararo chet tillar kefedrasi o ‘qituvchisi
ruzimovanorgul@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tili misolida dasturxon nutqining lingvistik matn ekanligi, uning boshlanma, asosiy va yakuniy qismlari mavjudligi, monologik va dialogik xarakterda bo‘lishi haqida fikr yuritiladi. Monologik nutqdagi dasturxon nutqi janrlari duo, tilak, niyat kabi, dialogik nutqdagi dasturxon nutqi janrlari minnatdorchilik bildirish, dasturxonga taklif qilish, suhbat, hazil, mish-mish, g‘iybat, maslahat, nasihat kabilarni kiritish mumkinligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: dasturxon nutqi, rasmiy, norasmiy, rasmiy uslub leksikasi, grammatik vositalar kabilar.

Аннотация. В данной статье на примере узбекского языка рассматривается, что застольная речь представляет собой языковой текст, имеет начальную, основную и заключительную части, носит монологический и диалогический характер. Отмечается, что жанры застольной речи в монологической речи могут включать молитвы, пожелания, намерения, а в диалогической речи такие жанры застольной речи, как благодарность, приглашение к столу, беседа, шутки, слухи, сплетни, советы, советы и др.

Ключевые слова: застольная речь, формальная, неофициальная, формально-стилевая лексика, грамматические приемы и др.

Abstract. This article, using the Uzbek language as an example, discusses that a table speech is a language text, has an initial, main and final part, and is monologue and dialogic in nature. It is noted that the genres of a table speech in a monologue speech may include prayers, wishes, intentions, and in a dialogic speech such genres of a table speech as gratitude, invitation to the table, conversation, jokes, rumors, gossip, advice, etc.

Keywords: table speech, formal, informal, formal-stylistic vocabulary, grammatical devices, etc.

Tilshunoslikda dasturxon nutqi bilan bog‘liq lingvistik tadqiqotlar bir til yoki o‘zga tillar qiyosi doirasida olib borilganligi bilan xarakterlanadi. Ammo hozirgi kungacha o‘zbek tili misolida qiyoslangan lingvistik tadqiqotlarning olib borilmaganligi o‘zbek lingvomadaniyati bilan bog‘liq dasturxon nutqining milliy-madaniy xususiyatlari hali o‘rganilmaganligini anglatadi. Bu o‘rinda o‘zbek lingvomadaniyatidagi dasturxon nutqining o‘ziga xos xususiyatlari ochib berilmaganligi, o‘zbek tilidagi dasturxon nutqi bilan bog‘liq nutqiy aktlar va nutqiy janrlarning matniy lingvistik xususiyatlari va boshqa lingvomadaniyatlar qiyosidagi o‘hshash va noo‘xshash jihatlar aniqlanmaganligini alohida ta’kidlash zarur.

Dasturxon nutqi o‘ziga xos kommunikativ muhitning nutqiy mahsuli sifatida milliy madaniy ko‘rsatkichlar asosida shakllanadigan nutq sanaladi. Har bir jamiyatning o‘ziga xos dasturxon nutqini boshlash, asosiy qismi va nutqni tugatish bosqichlari mavjud. Buni quyidagi jadval orqali tasvirlaymiz:

Ko‘rinadiki, dasturxon nutqining boshlanma, asosiy va yakuniy qismlarida turli nutqiy janrlarning qo‘llaniladi. Bu esa nutq ishtirokchilarining rasmiy va norasmiy vaziyatiga bevosita bog‘liqdir. Ushbu xususiyatlariga ko‘ra dasturxon nutqining rasmiy tantanali va norasmiy tantanasiz dasturxon nutqi janrlarini farqlash mumkin. Masalan, rasmiy tantanali nutqiy vaziyatlarda, xususan, yubiley, tug‘ilgan kun, tadbirlarning ochilish marosimi kabilarda dasturxon nutqi ko‘tarinki ruhda tantanali ohangda aytilishi, rasmiy uslub leksikasi va grammatik vositalardan foydalanishligi bilan xarakterlanadi. Yevropa mamlakatlarida qadah so‘zi nutqiy janri eng ommalashgan dasturxon nutqining tantanali nutqiy janrlardandir. Ammo bu o‘zbek lingvomadaniyatida diniy jihatdan qo‘llanilishi ma’n qilinganligi bois rasmiy tantanali nutqiy vaziyatlardagi tadbirlarda qadah so‘zi nutqiy janrining qo‘llanilishi kuzatilmaydi.

Ingliz lingvomadaniyatida dasturxon nutqining rasmiy uslubga xoslangan shakllari “speech”, ya’ni nutq deb nomlanib, qirol/qirolichalar va prezidentlarning rasmiy banketlarda, rasmiy tushlik va kechki ovqatlar oldidan nutq so‘zlashiga nisbatan ham qo‘llaniladi. Bunday nutqlarda mamlakatga tashrif buyurgan mehmonlar sharafiga qadah ko‘tarilib, ushbu mamlakat bilan yaxshi munosabatlarda bo‘lish maqsadida ushbu mehmon sharafiga hurmat tarzida qadah ko‘tariladi va qadah nutqiy so‘zlanadi. Bu kabi milliy madaniy xususiyatlar ushbu masalaga yanada chuqurroq yondoshishni talab qiladi

Dasturxon nutqining boshlanma, asosiy va yakuniy qismlari ba’zan monologik va dialogik xarakterda bo‘lishi mumkin. Monologik nutqda hosil bo‘luvchi dasturxon nutqi janrlari odatda duo, tilak, niyat kabi nutqiy janrlar orqali ifodalanadi. Dialogik xarakterdagi dasturxon nutqi janrlariga minnatdorchilik bildirish, dasturxonga taklif qilish, suhbat, hazil, mish-mish, g‘iybat, maslahat, nasihat kabilarni kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, dasturxon nutqi bilan bog‘liq nutqiy aktlar va nutqiy janrlar o‘ziga xos milliy-madaniy xususiyatga ega nutqiy janrlardir. Ularning adresant va adresat o‘rtasida qo‘llanilishi rasmiy va norasmiy nutqiy vaziyat talablariga muvofiq tarzda qo‘llaniladi.

Bir so‘z bilan aytganda, o‘zbek tilida dasturxon nutqi bilan bog‘liq nutqiy janrlar lingvistikasi o‘ziga xos bo‘lib, ularni lingvistik jihatdan tadqiq qilish masalasi o‘zbek tilida dasturxon nutqi janr turlari aniqlash, tasnif qilish, barcha tillar uchun dasturxon nutqi janrlarining universal turlarini aniqlash, turli tizimli tillarda dasturxon nutqi janrlarining xususiy turlarini aniqlash, o‘zbek tilida dasturxon nutqi janrlarining verbal va noverbal vositalarini aniqlash, o‘zbek tilida dasturxon nutqi janrlarining matniy ifodadasidagi milliy-madaniy xususiyatlarni aniqlash, o‘zbek tilida qadah so‘zi, minnatdorchilik bildirish, duo kabi nutqiy aktlarning milliy xususiyatlarini aniqlash kabi vazifalar bilar chambarchas bog‘liq.

Dasturxon nutqi tushunchasi keng ma’nodagi tushuncha sifatida muayyan voqea va hodisalarni nishonlashdan tortib, kundalik ovqatlanish jarayonlarida bo‘lib o‘tadigan barcha nutqlarni o‘z ichiga oladi. Dasturxon nutqida uchraydigan nutqiy janrlar va nutqiy aktlar universal va xoslangan bo‘ladi. Masalan, murojaat va taklif nutqiy aktlari, minnatdorchilik bildirish, maqtov nutqiy janrlari barcha til vakillari uchun universal qo‘llanilsa, qadah so‘zi, tabrik, duo, shukronalik, tilak aytish, she’r,

qo‘shiq aytish, dasturxondagi suhbatlar, hazil kabilar tantanavor dasturxon nutqiga tegishlidir.

Dasturxon nutqidagi matnlar matniy kompozitsion tuzilishiga ko‘ra kirish, asosiy va yakuniy qismlardan iborat mikromatn, makromatn va gipermatn xajmida bo‘lishi mumkin. Til tizimida diniy marosim xarakteridagi dasturxon nutqi o‘ziga xos gipermatnli nutqiy janrlar va nutqiy aktlarni ishlab chiqadi. Masalan, mushkulkushod, ehson, ta’ziya, to‘y, yubiley, tugilgan kun nutqlari gipermatn xajmida shakllanib, ular tarkibida makro va mikroxajmli nutqiy janrlar ishtirok etadi. Kundalik maishiy xarakterdagi dasturxon nutqi esa so‘zlovchi va tinglovchi ishtirokiga qarab, bir yoki undan ortiq mikromatnli nutqiy janrdan foydalaniladi. Masalan, o‘zbek lingvomadaniyatida adresantning bir o‘zi ovqatlaganda ham qo‘llashi lozim bo‘lgan tanovulni boshlash va shukronalik duolarini aytish odati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Anorboeva M. Ingliz va o‘zbek tillarida qadah so‘zi nutqiy janrining tashkiliy va matniy kompozitsion tuzilishi. NamDu ilmiy xabarnomasi. 2023, № 5, B 332-335.

2. Архипова. Е.М. Тост как первичный речевой жанр в современной концепции научного знания. Научная мысль Кавказа 2010 № 3, с 151-155 и др.

3. Ма Яньли. Застольный ритуал и концепт “застолье” в китайской и русской лингвокультурах: Дис. … канд. филол. наук. М., 2005. 165 с. С. 39.

4. Шихкибирова. Н.И. Языковая игра в тосте. Автореф.д.канд..филол. наук, Махачкала, 2012, 33 с.

5. Мекеко. Н.М. Сопоставительный анализ функционирования единиц речевого этикета тематической группы “Пожелание” в английском и русском языках. Дисс.канд. фил.наук, Москва, 2—1, 207 с.

6. Портных Н.Н. изучение жанровых особенностей праздничной застольной беседы в условиях высшего филолого-педагогического образования. Вестник ТГПУ, 2014 9 (150) С. 76-80.

7. Портных Н.Н. Праздничная застольная беседа как предмет речи на школьном уроке литературы. Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2016. № 7(61): в 3-х ч. Ч.3. С 202-205.

3-SHO‘BA: MILLIY G‘OYA VA FALSAFA FALSAFA VA MILLIY G‘OYA TURKUMIGA KIRUVCHI FANLARNI O‘QITISHNING DOLZARB MASALALARI, ILG‘OR TAJRIBALAR VA ISTIQBOLLAR

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNING TUTGAN O‘RNI VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING O‘QITILISHI

Karimov Zafarbek Ataboyevich
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi mudiri F.F.D.,(PhD)
zafar.karimov.1988@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu tezisda oliy ta’lim muassasalarining jamiyatimiz rivojida tutgan o‘rni hamda oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishning ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: ilm-fan, oliy ta’lim muassasalari, ijtimoiy davlat, davlat granti, konsepsiya, ta’lim tizimi.

Аннотация. В данной тезисе освещается роль высших учебных заведений в развитии нашего общества, а также значимость преподавания социально-гуманитарных наук в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: наука, высшие учебные заведения, социальное государство, государственный грант, концепция, система образования.

Abstract. This thesis highlights the role of higher education institutions in the development of our society, as well as the importance of teaching social and humanitarian sciences in higher education institutions.

Keywords: science, higher education institutions, social state, state grant, concept, education system.

Ilm-fan taraqqiyotisiz hech qanday islohot va maqsadlarga erishib bo‘lmaydi. Ilm qayerda rivojlanmasin, uning jahon taraqqiyotiga ta’siri muqarrar. Buni dunyodagi ilg‘or mamlakatlar tajribasida ham yaqqol ko‘rish mumkin. Aynan ilm-fan ulkan yutuqlarga asos yaratib, taraqqiyotning asosiy omili sifatida xizmat qilmoqda. Shu bois, yurtimizda ham ilm-fan rivojiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilib, so‘nggi olti yil ichida ta’lim tizimida sezilarli o‘zgarishlar amalga oshirildi. Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, ularning infratuzilmasi tubdan yangilandi. Bu esa ta’lim sifatining oshishiga va yoshlarning oliy ta’limga bo‘lgan ishtiyoqining ortishiga sabab bo‘ldi.

Bugun yurtimizda millati, tili, dini e’tiqodidan qat’iy nazar har bir inson o‘z iste’dodi va qobiliyatini ro‘yobga chiqaradigan ijtimoiy davlat barpo etmoqdamiz. Shu maqsadda barcha imkoniyatlar yoshlarning kamol topishi, ilm olishi, unib o‘sishiga safarbar qilinmoqda. Ilgari oliy ta’lim muassasalariga kirish jarayoni ancha murakkab edi: kvotalar cheklangan, qabul imtihonlari esa turli muammolar bilan kechardi. Bugungi kunda ushbu masalalar bosqichma-bosqich hal etilib, oliy ta’limga qabul kvotalari muntazam oshirib borilmoqda. Bu esa yoshlarning bilimli va malakali

mutaxassis bo‘lib yetishishiga, shuningdek, ularning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga katta turtki bermoqda. Yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirishga qaratilgan islohotlar natijasida oliy ta’lim muassasalari soni 2,5 barobarga ko‘payib, 200 taga yetdi. Talabalar soni sezilarli darajada ortdi: qamrov darajasi 9 foizdan 42 foizga ko‘tarildi. [SH.Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga tabrigi. “Xalq so‘zi gazetasi”.

2023 yil 30 sentyabr, № 205 (8548)]; Bundan tashqari, oliy ta’lim olish uchun imtiyozli kreditlash tizimi, jumladan, ayollar uchun foizsiz kredit ajratish mexanizmi yo‘lga qo‘yildi.

Agar 2017-yilgacha oliy ta’lim muassasalarida davlat granti asosidagi o‘rinlar kamayib kelgan bo‘lsa, so‘nggi yillarda bu borada ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Davlat granti asosida ajratiladigan o‘rinlar 75 foizga oshirildi, ehtiyojmand oilalarning qizlari uchun ajratilgan grantlar esa ikki baravar ko‘paytirildi.

Oliy ta’lim tizimini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar nafaqat mamlakat ichkarisida, balki xalqaro miqyosda ham katta e’tirofga sazovor bo‘ldi. So‘nggi yillarda sohaga oid qator qonunlar, Prezident farmon va qarorlari qabul qilinib, ta’lim tizimining huquqiy asoslari mustahkamlandi.

2020-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun bu boradagi maqsadlarni aniq ifodalab berdi. Mazkur qonunning 5-moddasiga muvofiq, har kim jinsi, irqi, millati, dini va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, ta’lim olish huquqiga ega ekanligi belgilandi. 11-moddada esa oliy ta’lim bo‘yicha maxsus qoidalar kiritildi.

2030-yilgacha oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasiga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalari va xususiy sektor sherikligida ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytirish hamda qamrov darajasini 50 foizdan oshirish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, ta’lim sifatini oshirish va xalqaro standartlarga mos mutaxassislar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

“Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” davlat dasturida ham oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’lim shaklini joriy etish, davlat grantlari sonini oshirish va nodavlat ta’lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash uchun 1000 ta davlat granti ajratish kabi chora-tadbirlar belgilangan.

Konstitutsiyamizning 51-moddasida esa fuqarolarning davlat hisobidan oliy ta’lim olish huquqi mustahkamlab qo‘yilgan. Bundan tashqari, oliy ta’lim muassasalarining akademik erkinligi, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va innovatsion ishlanmalarni joriy etish borasidagi huquqlari ham kafolatlangan. Bularning barchasi yurtimizda yoshlar siyosati ustuvor yo‘nalish ekanligini ko‘rsatadi.

Bugungi islohotlar oliy ta’lim tizimini xalqaro standartlarga integratsiya qilish, mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Mamlakatimizning rivojlanish strategiyasi doirasida oliy ta’limning mazmuni va sifati yangi bosqichga ko‘tarilib, zamonaviy bilim va kasbiy mahoratga ega yosh kadrlarni yetishtirish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Xalqaro tajribalar asosida oliy ta’lim tizimi yanada rivojlantirilmoqda. Misol uchun, Germaniya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Singapur va Janubiy Koreya tajribasi o‘rganilib, ilg‘or model va texnologiyalar ta’lim tizimiga tatbiq etilmoqda. Bu esa mamlakatimiz oliy ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy ta’lim tizimi, ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi davlat va jamiyat oldiga mutlaqo yangi turdagi mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda. Bu jarayon global mehnat bozorida raqobatbardosh, yuqori intellektual salohiyatga ega, professional mahorati yuksak kadrlarni shakllantirishni talab qiladi. Bunday mutaxassislar nafaqat o‘z kasbiy yo‘nalishida yetuk bo‘lishi, balki xorijiy tillarni bilishi va zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan amaliy foydalanish malakasiga ega bo‘lishi ham zarur. Afsuski, so‘nggi yillarda uzluksiz ta’lim bosqichlarida, ayniqsa, oliy ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarga e’tibor susayganiga guvoh bo‘lmoqdamiz.

2000-yillardan boshlab O‘zbekistonda ijtimoiy fanlarga texnokratik yondashuv kuchayib, mazkur fanlarga nisbatan “begona” qarashlar shakllangan. Oliy ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarning qancha va qaysi yo‘nalishlarda, qanday shaklda va mazmunda o‘qitilishi borasida hanuzgacha yagona yondashuv mavjud emas. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev bu masalaga alohida to‘xtalib: “Bizda uzoq yillar davomida ijtimoiy fanlarga nisbatan bir tomonlama texnokratik yondashuv, ularga o‘gay nazar bilan qarash shakllanib qolgan. Ayni paytda, afsus bilan qayd etish mumkinki, haligacha uzluksiz ta’lim bosqichlarida, ayniqsa, oliy ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni qanday hajmda va qaysi yo‘nalishlarda, qaysi shaklda hamda qanday mazmunda o‘qitish bo‘yicha yaxlit konsepsiya yo‘q. Ayrim kaltabin mulozimlarning “Ijtimoiy fanlardan foyda yo‘q” qabilidagi nojo‘ya qarashlari oqibatida ushbu fanlarning salmog‘i va sifati pasayib ketishiga yo‘l qo‘yildi” deb ta’kidlagan. [Sh.Mirziyoyev., 2021. – S.231-232];

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda esa ijtimoiy fanlarni o‘rganish zamonaviy shart-sharoitlarda samarali hayot kechirish va faoliyat yuritishning muhim omili sifatida qaraladi. Shu boisdan bu davlatlarda ijtimoiy fanlarni o‘qitishning o‘ziga xos tizimi shakllangan. Masalan, AQShda bu tizim mutaxassislar tayyorlashga mo‘ljallangan ijtimoiy ta’lim, turli yo‘nalishdagi talabalar uchun ijtimoiy bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan kurslar hamda fuqarolarga ijtimoiy bilimlarni yetkazish uchun tashkil etilgan maxsus o‘quv dasturlarini o‘z ichiga oladi.

So‘nggi yillarda Osiyo mamlakatlarida ham ijtimoiy fanlarga bo‘lgan e’tibor ortib bormoqda. Masalan, Xitoyda 1977-yilda tashkil etilgan Ijtimoiy fanlar akademiyasi yangi asrda mazmunan va tarkiban takomillashtirildi. [M.Majitov., 2022. – S.109];

Bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy fanlarni o‘qitishni bitta kafedrada amalga oshirish tajribasi o‘zining kutilgan samarasini bermaydi. Ijtimoiy fanlarning har biri inson shaxsining shakllanishi jarayoniga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatishga qodir.

Ijtimoiy fanlarni o‘qitishning bir nuqtadan umumiy, standart talablar asosida amalga oshirilishi bu fanlar o‘rtasidagi tafovutni yuvib yuboradi, ularning shaxsga ta’sirini kamaytiradi. Shu sababli ham bugungi kunda gumanitar bilimlarni dolzarblashtirish, soha vakillarini ijtimoiy muammolarni hal qilish jarayoniga jalb etish uchun avvalo munosabat o‘zgarishi lozim: jamiyatda o‘tkir akademik va ijtimoiy bahslar uyushtirilib, tarixchi, tilshunos, jamiyatshunos va boshqalarning faoliyati

taftish etilishi, talablarga ko‘ra ijtimoiy buyurtma shakllanishi lozim. [Asanov E. Gumanitar fanlardan nima naf?, Tafakkur jurnali, 2021-yil, 4-son.];

Umuman olganda, mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan yangilash, uni xalqaro andozalarga moslashtirish, zamonaviy bilim va malakalarga ega kadrlar tayyorlash bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Maqsad esa aniq: oliy ta’limni sifat jihatidan yangi pog‘onaga ko‘tarish va mustaqil fikrlaydigan, bilimli hamda yuksak ma’naviyatli mutaxassislarni yetishtirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga tabrigi. “Xalq so‘zi gazetasi”. 2023-yil 30-sentyabr, № 205 (8548).
2. Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: ―O‘zbekiston, 2021.
3. M.Majitov. ― “Inson shaxsini takomillashtirishda ijtimoiy fanlarni o‘qitishning ahamiyati”. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb masalalari. 2022-yil, 2-son.
4. E.Asanov Gumanitar fanlardan nima naf? Tafakkur jurnali, 2021-yil, 4-son.

OLIY TA’LIMNING YANGI IMKONIYATLARI: RAQAMLI TA’LIM VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Karimov Zafarbek Ataboyevich
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi mudiri, F.F.D,(PhD)
zafar.karimov.1988@bk.ru

Annotatsiya. Ushbu tezisda oliy ta’lim tizimining zamonaviy talablarga moslashtirish va uni raqamlashtirishning dolzarbligi, raqamli ta’lim haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Ta’lim tizimi, oliy ta’lim, axborotlashtirish, raqamlashtirish, pedagog, talaba, kompyuter.

Аннотация. В данном тезисе рассматривается актуальность адаптации системы высшего образования к современным требованиям и ее цифровизации, а также обсуждаются вопросы цифрового образования.

Ключевые слова: система образования, высшее образование, информатизация, цифровизация, педагог, студент, компьютер.

Abstract. This thesis discusses the relevance of adapting the higher education system to modern requirements and its digitalization, as well as issues related to digital education.

Keywords: education system, higher education, informatization, digitalization, teacher, student, computer.

Bugungi kunda ta’lim tizimini axborotlashtirish va raqamlashtirishning dolzarbligi, ahamiyati, uni amalga oshirishga imkon beradigan omillar va to‘siqlar juda keng o‘rganilib kelinmoqda. Ta’limda raqamli texnologiyalarni qo‘llash bir qator afzalliklarni namoyon qiladi. Xususan, o‘qitishda tezkorlikka erishiladi (o‘qitishning vaqti va joyini o‘zgartirish); butun hayot davomida uzluksiz ta’lim olish imkoniyatining yuzaga keladi; o‘quvchi, talaba, tinglovchi (mutaxassis)larni avvaldan loyihalangan individual o‘qitish asosida kasbiy qayta tayyorlash kurslari va dasturlari bo‘yicha tayyorlash imkoniyatining yaratiladi.

Uzluksiz ta’limning barcha bosqichlarida bo‘lgani kabi OTMda ham raqamli ta’lim muhitini shakllantirish turli shakllarda kechadi. Bu o‘rinda E.V.Ustyujanina, S.G.Evsyukov quyidagi shakllarni keltirib o‘tadi: mavjud o‘quv materiallari, shu jumladan, ma’ruza, taqdimot, darslik, mustaqil ish topshiriqlari hamda bilimlarni nazorat qilish vositalarini elektron variantga o‘tkazish; pedagog va talabalarning o‘zaro hamkorligiga asoslangan interfaol elektron muhitni, xususan, pedagoglarning elektron kabinetlarini, vebinar, bahs-munozara, forumlar o‘tkaziladigan auditoriyalarni shakllantirish; o‘quv vositalari: elektron darsliklar, elektron masalalar to‘plami, video ma’ruza, kvestlar, kompyuter o‘yinlari kabi yangi tiplarini yaratish; elektron ta’lim muhitining imkoniyatlaridan foydalanish hisobiga o‘qitishning mutlaqo yangi shakllarini yaratish – obrazli axborotlarni uzatish spektrini kengaytirish, rolli o‘yinlarni tashkil etish orqali turli vaziyatlari modellashtirish, bellashuv o‘yinlarini imitatsiyalash va hokazolar; sun’iy intellekt imkoniyatlarini o‘qitish jarayoniga kiritish. [Сысоева М.Е., 2018. – S.25-36];

Mualliflar D.P.Xashimova, R.A.Parpieva oliy ta’lim tizimida AKTdan samarali foydalanish muammosini o‘rganar ekan, bu borada hal qilinishi zarur bo‘lgan muhim vazifalarni aniqlashga e’tiborni qaratadi. Ular tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari ayni vaqtda oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni o‘qitish sifatini oshirishda quyidagilarga e’tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir: Internet infratuzilmasini yaxshilash; mobil operatorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish; yoshlar, xususan, talabalar tomonidan zamonaviy AKTning so‘nggi yutuqlarini o‘zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imtiyozlar yaratib berish; o‘quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ko‘lamini kengaytirish; axborot resurslari, o‘qitish vositalari, masofaviy o‘qitish texnologiyalarini rivojlantirish; ijodkor talabalarni universitetning raqamlashtirish loyihalariga jalb qilish; OTM faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha vakolatli organlarga takliflar berish; yuqori samaradorlikka ega raqamli qurilmalar bilan jihozlangan tuzilmalar, o‘quv xonalari, laboratoriyalar, media studiyalar va boshqalarni o‘z ichiga olgan markazlarni tashkil etish hamda unda orttirilgan tajribani O‘zbekistonning barcha oliy ta’lim muassasalarida qo‘llash; zamonaviy AKT va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash; bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish; interfaol taqdimot tizimlaridan foydalanish, ma’ruza va seminar darslari uchun internet bilan bog‘liq holda interfaol va multimediali taqdimotlarni ishlab chiqish kabi mavzular bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun kurslarni tashkil qilish va o‘tkazish; real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, video konferensiya aloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o‘qitish jarayonini amalga oshirish; bulutli texnologiyalar, virtual voqelik, kengaytirilgan voqelikdan foydalanish hamda didaktik materiallar va tajriba dizaynlarini ishlab chiqishda 3D printerini qo‘llash, raqamli didaktika va raqamli ta’lim modellarini qo‘llash, o‘qituvchilar va talabalar uchun loyihalar, diplom ishlari, ilmiy izlanishlar va boshqalarini muhokama qilish uchun ilmiy veb-saytlar ishlab chiqish; ta’lim subyektlarining media kompetentligini uzluksiz oshirib borish mexanizmini ishlab chiqish (Youtube va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda mavjud bo‘lgan videodarslarini o‘zbek tilida ham ko‘paytirishni davlat darajasida qo‘llab-quvvatlash); ta’lim muassasalari uchun zarur zamonaviy texnik jihozlar bilan ta’minlash jarayonini nazoratga olish va amaliy qo‘llab-quvvatlash; chekka hududlarda ham Internet aloqasi, texnik jihozlarning tizimli faoliyatini yo‘lga qo‘yish; barcha ilmiy jurnallar va ishlanmalarni veb-saytlarga muntazam joylab borish; elektron boshqarish tizimlarini amaliy faoliyatga keng joriy etish va keraksiz hujjatlar bilan ishlashni keskin kamaytirish; masofaviy ta’lim platformasi, shu bilan birga barcha ijtimoiy tarmoqlarda subyektlar mas’uliyatini oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish, ta’lim jarayonini boshqarish vositasi sifatida, ya’ni, ta’lim muassasasining barcha ish faoliyati, jumladan, o‘quv, ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish uchun axborotlashtirish, tahlil va bashorat qilish tizimini yaratish; talabalar, pedagoglarning ilmiy-pedagogik izlanishlarini amalga oshirish vositasi sifatida o‘quv

muassasasida zamonaviy axborot tizimlarini yaratish va tatbiq etish. [Хашимова Д.П., 2020. – S.151-152];

Ayrim tadqiqotchilar ta’lim tizimini raqamlashtirishning bir qator afzalliklarga ega bo‘lishi bilan birga muayyan salbiy oqibatlarni yuzaga keltirishini ham aytib o‘tadi. Xususan, N.I.Kasperskaya ta’lim tizimini raqamlashtirishning salbiy oqibatlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatib o‘tadi: referatlar, uy vazifalari, muammolarni hal kilish va testlarni ishlashdan ko‘chirmachilik, talabalarning turli yordamlardan foydalanish bilan bog‘liq salbiy harakatlarining oldini olishdagi murakkablik; ta’lim, madaniyat hamda axloq tamoyillariga ziyon yetkazilishi; talabalarda akademik sifatlar (xatosiz yozish, to‘g‘ri hisoblash, mutola madaniyatini o‘zlashtirish, mantiqiy fikrlash qobiliyati)ning pasayishi yoki yo‘qolib borishi; pedagog rolining o‘zgarishi, uning psixologik tayyorgarligiga bo‘lgan talabning ortishi; akademik guruhlarda jamoaviylik kayfiyati, ruhiyatining yo‘qolishi; talabalarda o‘z bilimini o‘quv auditoriyasida jonli mulokot shaklida namoyon qilish malakasining tanazuli. [Касперская Н.И., 2019. – S.60];

Dunyoda ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish fan uchun juda katta samarali natijalar olib kelmoqda. Zamonaviy oliy ta’lim tizimi raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu texnologiyalar ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda ham muhim rol o‘ynamoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonlarini yanada samarali, interfaol va innovatsion shaklda tashkil etish imkonini beradi. An’anaviy ta’lim jarayonida ma’lumotlarning bir tomonlama uzatilishi (ma’ruzalar, darsliklar) talabalar ishtirokini kamaytiradi. Raqamli texnologiyalar esa, interfaol ta’lim usullarini joriy qilish, virtual muhitda muhokama va muloqotni tashkil etish, talabalarni dars jarayoniga faol jalb etish imkonini yaratadi. Masalan, onlayn forumlar, viktorinalar, interfaol xaritalar, virtual muzey ekskursiyalari kabi texnologiyalar yordamida talabalar tarix, falsafa yoki siyosatshunoslik fanlarini yanada qiziqarli tarzda o‘rganishlari mumkin. Ta’lim manbalariga kengroq kirish imkoniyatini yaratadi.

Raqamli texnologiyalar orqali talabalar ijtimoiy-gumanitar fanlarga oid turli manbalarga osongina kirishlari mumkin bo‘ladi. Elektron kutubxonalar (Google Books, JSTOR, Springer va boshqalar), ilmiy maqolalar bazasi (Google Scholar, ResearchGate), video darslar va onlayn kurslar (Coursera, Udemy, Khan Academy)dan dars jarayonida, balki mustaqil ta’lim olishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha tadqiqotlar samaradorligini oshiradi. Raqamli texnologiyalar ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamli texnologiyalar ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda tub o‘zgarishlar qilmoqda. Ular ta’lim jarayonini yanada interfaol, qiziqarli va samarali qiladi. Vizual vositalar, onlayn kurslar, sun’iy intellekt, virtual reallik kabi texnologiyalar talabalar uchun yangi bilim olish imkoniyatlarini yaratadi.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimi raqamli texnologiyalarni faol qo‘llash orqali ijtimoiy-gumanitar fanlarning ta’sirini oshirishi va ularni yanada kengroq auditoriyaga yetkazishi mumkin. Shu sababli, bu fanlarni raqamli texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish – oliy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Вайндорф-Сысоева М.Е., Субочева М.Л. “Цифровое образование” как системообразующая категория: подходы к определению // Ж. Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Педагогика. – М.: 2018. - № 3.

2. Хашимова Д.П., Парпиева Р.А. Замонавий таълимда рақамли технологиялардан фойдаланиш истиқболлари // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron j. – T.: 2020. - № 3, may-iyun.

3. Касперская Н.И. Цифровая экономика и риски цифровой колонизации: информационный портал семейной политики (2019) // https://ivan4.ru/news/traditsionnye_ semeynye_tsennosti.

XORAZM BAYRAMLARINING YOSH AVLODNING MA’NAVIY TARBIYASIDAGI O‘RNI.

Niyozmatov Anvar Bahodirovich
Urganch davlat pedagogika instituti Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi o‘qituvchisi

Har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida azaliy an’ana, urf-odat, marosim, bayramlar alohida o‘rin tutadi. Ular kishilar turmush tarzining o‘ziga xos hodisasi sifatida namoyon bo‘ladi. “An’ana”, “odat”, “marosim” bevosita “bayram” tushunchasi bilan bog‘liq. An’ana - tarixiy taraqqiyot jaroyonida tabiy va ijtimoiy extiyojlar asosida vujudga kelgan, avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tadigan, kishilar ma’naviy hayotiga ta’sir ko‘rsatadigan madaniy hodisadir. An’ana o‘ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida, kishilar ongiga singan umum yoki ma’lum guruh tamonidan, qabul qilingan tartib va qoidalarning majmuasi hisoblanadi.

O‘tkazgan tadqiqotimiz natijasida “xalq an’analari” tushunchasining ijtimoiy – manaviy mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: xalq an’analari – uzoq taraqqiyot jarayonida etnoslarning ijtimoiy – manaviy extiyojlari asosida vujudga kelib, ularning aqliy – ijodiy faoliyati asosida, atrof – muhit, tabiat, mexnat jarayoniga bog‘liq holda avloddan – avlodga o‘tib, taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar fikri, orzu – o‘ylari, tajribalari, yutuqlari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan bebaho ijtimoiy – madaniy merosga aylangan.

Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar tasirida talabga javob bermay an’analar va bayramlar asta-sekin unitila boshlaydi. Mohiyatan xalqchil, ijtimoiy salmoqqa ega bo‘lgan an’analar taraqqiy etadi. Masalan, Navro‘z, Qovun sayli, Lola sayli va hakozo bayramlar zamonaviy talablarga javob bergani uchun asrlar davomida yashab kelmoqda. Xalq turmushining o‘zgarishi unga mos an’analarni vujudga keltiradi. O‘zbek xalqi hayotida ham yaqin yillar ichida avvallari mavjud bo‘lmagan ko‘plab ijtimoiy va shaxsiy oilaviy an’ana, marosim va bayramlar paydo bo‘ldi.

Keyingi paytlarda ilmiy adabiyotlarda, davriy nashrlarda “an’anaviy bayramlar”, yangi bayramlar” so‘zlari ishlatila boshladi.

“An’anaviy bayramlar” deganda ma’lum vaqtda muntazam o‘tkazib turiladigan azaliy madaniy ommaviy tadbirlar Gul bayrami, Qovun sayli, Lola sayli, Xirmon to‘yi (xozirgi paxta bayrami) nazarda tutiladi. Chunki ular qadim zamonlardan buyon mavjud bo‘lgan xalq bayramlaridir.

XX asrning ikkinchi yarmida, zamon o‘zgarishi bilan keyingi davrda xayotimizga tug‘ulgan chaqoloqlarning ota onalariga guvoxnoma yoki voyaga yetgan yoshlarga pasport topshirish, o‘quv yurti bitiruvchilarini tantanali ravishda mexnat jamoasiga qabul qilish, birinchi maosh tantanasi, Avlodlar uchrashuvi, Oltin va Kumush to‘ylar tantanali nafaqaga kuzatish tadbirlari kirib kelgan edi. Xozirgi paytga kelib, ular “yangi” emas, balki “an’anaviy tadbir” bo‘lib qoldi.

Bayramlarning mohiyati va asosiy xususiyatlari. Odatda, bayram deganda biror-bir muxum hodisa, voqea, sanani ko‘pchilik bo‘lib ko‘tarinki ruxda, xursandchilik bilan nishonlanish tushuniladi. Shu boisdan Beruniy bayramlarni hayotdagi eng muhim kunlari desa Maxmud Qashg‘ariy shodlik va xursanchilik kuni deb tariflaydi[1].

Darhaqiqat, bayram odatdagidan ko‘ra ko‘tarinkiroq kayfiyatni vujutga keltiradi. Bayram chog‘ida hamma boshqa kunlarga qaraganda xursand, shod va baxtiyor bo‘ladi.

“Bayram- deb yozadi A. I. Mazayev- bu ma’lum vaqtdagi ideal hayotdir.[2] Bayram kunlarida odamlar” qisqa vaqitga bo‘lsada, o‘zlarini siyosiy mexnatdan tashvishdan, g‘am g‘ussadan qaramlikdan, xoli erkin sezadi,- deydi M.Qadirov zotan bayram kunlari xamma teng hur va ozotdir, istaganicha yayrashi ko‘nglidagini aytishi, xoxlaganicha o‘ynashi, kulishi, maynavozchilik qilishi, kimningdir ustidan kulishi mumkun. Xech kim buni man etmaydi[3].

Bayram hayotning davomi, muhim qismidir. Bayram shaxs, oila, jamiyat, millat, davlat, xalqaro hayotdagi eng muhim xodisa, voqea - xodisalarni qayd etadi, ularni nishonlashga imkoniyat yaratadi. U kishilarning hayoti, faoliyatida erishgan yutuqlarini ifodalaydigan hodisadir. Xorazm xalqida yirik ishlarning boshlanishi va yakunlashi odatda bayramga aylanadi. Yangi xosil mavsumining boshlanishi va ilk urug‘ qadash jarayoni ham dehqonlar hayotida muhim voqea bo‘lganligi bois bayramona kayfiyatda o‘tadi. Keyingi davrda xar bir yirik sanoat inshoatining ochilish bayram holatida uyushtiriladi.

Bayram insoniyatning bosib o‘tgan yo‘llarini chuqur anglashga, g‘alabalardan faxrlanishga, ertangi kun uchun rejalar tuzishga, kelajakka umid bog‘lashga yordam beradi. Shu boisdan ham, bayram arafasida kishilar bir –birlarini tabriklashadi, yaxshi istaklar bildirishadi.

Bayramlar vaqtning monotonligini (bir xilligini) buzib, unga muayyan “shodlik sur’ati” baxsh etadi. Shu sababli, qadimdan bayramlar vaqtning o‘ziga xos o‘lchovi hisoblangan. Hozir ham bayram kunida, masalan, yangi yil nishonlayotganda muayyan vaqtda o‘tganligini, ya’ni o‘tgan yangi yil bilan hozirgi Yangi yil orasida yana bir yil o‘tganligini hamma biladi. Bayram kunlarida kishilar “Oradan shuncha vaqt o‘tibdi-ya?!” degan so‘zlarni ko‘p bora aytishadi. Bayramlar vaqtining qadriga yetishga, uni e’zozlashga da’vat qiladi.

Bayramlar xar bir xalqning o‘ziga xos qadriyatlarini aks ettiradigan “ko‘zgu” sanaladi. Chunonchi kishilar bayram chog‘ida chiroyli kiyimlarni kiyishadi, lazzatli taomlar tayyorlashadi, o‘z qobiliyatlarini namoyish etadilar. O‘sha kuni hamma ko‘tarinki kayfiyatda bo‘ladi.

Bayramlar erkinlik kuni hisoblanadi. Ayniqsa umumxalq bayrami kunida hamma dam oladi. Bu kunda xamma o‘z tashvishlari, dard-u alamlarini bir zumga bo‘lsa – da unutadi, o‘zini shod –xursand ko‘rsatishga xarakat qiladi.

Bayram kunida kishilar o‘rtasida boshqa kunlarga qaraganda muayyan darajada yaqinlik, xamkorlik vujudga keladi. Qadimda bu kunda hamma bir qozondan ovqat yegan, bir hil tamosha ko‘rgan, bitta joydagi saylgohda sayr qilishgan. “Aynan bayram, - deydi I.Arnoldov, - dunyo madaniyati xazinasiga yig‘ilgan eng qimmatli boyliklarni o‘zida mujassamlashtiradi”[4]. O‘zbek xalqining, jumladan, xorazmliklarning bayram – marosim madaniyati shu qadar boy va rang – barangki, ularni tabiat, mehnat, diniy e’tiqod, oilaviy hayot, ijtimoiy – siyosiy, madaniy – ma’rifiy, san’at va sport kabi ko‘plab turlarga bo‘lib tadqiq etish mumkin.

O‘zbekiston bayramlarini tashkil qilish tajribasi MDH da eng ilg‘or deb tan olinmoqda. Shuning uchun bo‘lsa kerak, dunyoning ko‘pgina mamalaktlaridan kelgan mutaxassis olimlar O‘zbekiston bayramlari saviyasiga tan berish bilan bir qatorda bu yerdagi tajribalarni o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borishmoqda. “Oldingdan oqqan suvning qadri yo‘q” deganlaridek, o‘zbek bayramlarini ko‘proq chet el olimlari tadqiq etishmoqda. Xususan, amerikalik sotsiolog olim Lora Adams Vatanimizga kelib, O‘zbekiston bayramlariga oid doktorlik dissertatsiyasini yozgan va uni Amerikada yoqlagan. Shunday qilib, eng qadimgi davrlardan boshlab shakillana borgan o‘zbek xalqi bayramlarini mahsus va har tomonlama tadqiq etishga katta ehtiyoj bor. Xorazm xalqi bayranlari ham yuqoridagi fikrlarga bevosita aloqadordir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Махмуд Қошғарий.’’Девони луғатит турк,,Т.А.І.Т. -Т: “Фан,,1963.с.447.
2. Мазаев А.И.Праздник как социально-художественное явление - М.:”Наука,, 1978,с.172
3. М. Қадиров.Томоша санъати ўтмишидан лавхалар.Т.:’’Фан ’’,1993, с.81.
4. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т., 1998. 21-бет.

SHARQ DINIY, TARIXIY VA FALSAFIY MEROSI HAMDA UNDAGI MA’NAVIY KONSEPSIYALAR

Karimov Zafarbek Ataboyevich
UrDPI, Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi mudiri F.F.D.,(PhD)
Erkinova Zilola Ergash qizi
Ijtimoiy-gumanitar fanlarini o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezis Sharq madaniyatlarining boy diniy, tarixiy va falsafiy merosini va undagi ma’naviy konsepsiyalarni o‘rganishga qaratilgan. Sharq falsafasi insonning ichki dunyosini, axloqiy qadriyatlarini va tabiiy muvozanatni saqlashni ta’kidlaydi. Mavzu doirasida Siddxarta Gautama, Lao Szi, Konfutsiy, Al-Farobiy, Al-Beruniy kabi mashhur mutafakkirlarning manaviy qarashlari tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot orqali sharq falsafasining inson hayotidagi ahamiyati va uning zamonaviy davrda ham dolzarbligi ko‘rsatiladi.

Kalit so‘zlar: Sharq, ma’naviy konsepsiya, Gautama, Lao Szi, Konfutsiy, axloq, ilm, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino.

Аннотация. Данная диссертационная работа направлена на изучение богатого религиозного, исторического и философского наследия восточных культур и их духовных концепций. Восточная философия подчеркивает сохранение внутреннего мира человека, моральных ценностей и природного равновесия. В рамках темы анализируются духовные взгляды таких известных мыслителей, как Сиддхартха Гаутама, Лао-Цзы, Конфуций, Аль-Фараби, Аль-Бируни. Благодаря этому исследованию будет показана важность восточной философии в жизни человека и ее актуальность в наше время.

Ключевые слова: Восток, духовная концепция, Гаутама, Лао-Цзы, Конфуций, этика, наука, Фароби, Беруни. Ибн Сина.

Abstract. This thesis aims to study the rich religious, historical and philosophical heritage of Eastern cultures and their spiritual concepts. Eastern philosophy emphasizes the preservation of the inner world of man, moral values and natural balance. Within the framework of the topic, the spiritual views of famous thinkers such as Siddhartha Gautama, Lao Tzu, Confucius, Al-Farabi, Al-Biruni are analyzed. Through this study, the importance of Eastern philosophy in human life and its relevance in modern times will be shown.

Key words: East, spiritual concept, Gautama, Lao Tzu, Confucius, morality, science, Farobi, Beruni. Ibn Sina.

Dunyo sivilizatsiyasi haqida gap borar ekan, uning mustahkam poydevori sifatida sharq olami o‘ziga xos o‘rin egallagan. Chunki Sharq insoniyat tafakkuri, madaniyati va ilmiy yutuqlarining asosiy bo‘g‘ini, uning bosh fundamenti vazifasini bajargan. Aynan Sharqda eng yirik diniy ta’limotlar shakllangan, tarixiy imperiyalar paydo bo‘lib, madaniy va ilmiy taraqqiyotning eng yuksak bosqichlari kuzatilgan. Shuningdek, Sharq mutafakkirlari inson, jamiyat va borliq haqidagi fundamental masalalarni falsafiy jihatdan yoritib bergan. Shu bilan bir qatorda, Sharq madaniyatlarida ma’naviy konsepsiyalar turli xil va boy o‘ziga xosliklarga ega.

Sharqning diniy-falsafiy an’analari manaviyatni turli yo‘llar bilan tahlil qilib, inson hayoti hamda jamiyatning turli sohalarida muhim o‘rin egallagan.

Sharq sivilizatsiyasi tarixiy jihatdan olib qaraganda yirik imperiyalar va madaniy markazlarga boy bo‘lib, bu hudud dunyoning ilmiy va madaniy rivojida katta o‘rin tutgan. 18 asr davomida faoliyat ko‘rsatgan Buyuk Ipak yo‘li Sharq va G‘arb o‘rtasidagi madaniy, savdo va ilmiy aloqalarning eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan. Sharq mutafakkirlari orqali falsafa va ilm G‘arbga tarqalgan. Turli din va madaniyatlarning o‘zaro ta’siri kuchayishiga, shuningdek, Sharqdagi hunarmandchilik va san’at Yevropa va boshqa hududlarga yetib borishiga zamin yaratgan.

Ma’lumki Sharqda qadimgi davrlardan beri Hind falsafasi va dunyoqarashi, unda shakllangan ma’naviy konsepsiyalar dunyo aholisining ko‘pchilik qismiga katta ta’sir o‘tqazgan. Ayniqsa karma va dxarma masalasi va uning mazmun-mohiyati muhim ahamiyatga ega. Karma konsepsiyasiga ko‘ra har bir insonning amallari, qarorlari va niyatlari uning kelajakdagi hayotiga ta’sir qiladi. Yaxshi amallar yaxshi natijalar keltiradi, yomon amallar esa yomon natijalar keltiradi. Buni o‘zbek xalqining “qaytar dunyo” iborasining mazmuniga mos keladi desak xato bo‘lmaydi. Insonning hayotdagi vazifalari, burchlari va to‘g‘ri hayot yo‘lini tanlab o‘z taqdiri tomon borishi kerakligi esa dxarmada o‘z aksini topgan. Shuningdek, Sidhartha Gautama, yoki Budda, sharq falsafasining eng muhim shaxslaridan biri bo‘lib, uning ma’naviy qarashlari Buddizmning asosini tashkil etadi. Uning asosiy ma’naviy qarashlari 8 ta bo‘lib, ular haqiqatni to‘g‘ri tushunish va qabul qilish, to‘g‘ri niyat va maqsadlarni belgilash, haqiqatni gapirish va yolg‘on so‘zlamaslik, to‘g‘ri va axloqiy harakatlar qilish hamda halol va axloqiy turmush tarzini olib borish kabi masalalarni o‘z ichiga olgan. Buddaning ma’naviy qarashlari insonning ichki dunyosini o‘rganish va azob-uqubatlardan qutulish yo‘llarini ko‘rsatishga qaratilgan bo‘lib,u o‘z ta’limotlari orqali insonlarni xotirjamlik va baxtga erishishga undaydi.

Xitoy ma’naviy konsepsiyalari haqida fikr yuritadigan bo‘lsak, u hayot, tabiat va koinot haqida chuqur mulohazalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, Daosizm ta’limotida har bir insonning tabiat bilan uyg‘unlashishi kerakligi hamda tabiiy ravishda harakat qilish va hayotdagi muvozanatni saqlash kerakligini ta’kidlaydi. Bu konsepsiyalar orqali inson o‘zining ichki tinchligini topishi va shu orqali baxtli hayot kechirishi mumkinligi ta’kidlanadi. Konfutsiy ilgari surgan g‘oyalarida insonparvarlik va axloqiylik yuksak qadrlanadi, boshqalarga muhabbat va g‘amxo‘rlik qilish, ayniqsa farzandlarning ota-onalari oldidagi vazifalari axloqiy jihatdan eng yuksak vazifa sifatida belgilab qo‘yiladi. Ushbu ma’naviy konsepsiyalar inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash, axloqiy qadriyatlarni saqlash va hayot energiyasini muvozanatlashtirishga qaratilganligi bilan o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo hamda Eron hududlarida miloddan avvalgi asrlardan Zardusht asos solgan din va konsepsiyalar keng ko‘lamda xalq orasiga yoyilgan edi. Zardusht ta’limotida axloqiy tamoyillar hamda ekologik soflik, suv, havo, olov, tuproqni muqaddas bilib, uni muhofaza qilish masalalari, yaxshilik, ezgulikka chorlov, yaxshi fikr, yaxshi so‘z,yaxshi amallar qilish kabi ma’naviy qarashlar ham o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, Zardushtiylikning ma’naviy konsepsiyalari yaxshilik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash, haqiqat va adolatga intilish, va insonning axloqiy burchlarini

ifodalaydi. Ushbu konsepsiyalar orqali insonlar, yovuzlikka qarshi kurashishlari kerak. Uning diniy merosi e’tiqod va axloqiy qadriyatlarni shakllantirgan, tarixiy merosi madaniyatlararo muloqot va taraqqiyotga xizmat qilgan, falsafiy merosi esa inson va borliq haqidagi tushunchalarni boyitgan. Bugungi kunda ham Sharq tafakkuri insoniyat taraqqiyoti va ma’naviy yuksalishida muhim o‘rin tutadi.

Forobiyning ilm va falsafaning jamiyatdagi roli haqidagi qarashlari ham sharq falsafiy, ma’naviy merosida muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ilmiy - falsafiy merosi xalqimizning buyuk ma’naviy boyligi sifatida asrlar o‘sha avlodlar uchun muhim ijod manbai bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Uning ma’naviy qarashlari insonning intellektual va axloqiy yetukligi, jamiyatning mukammal tuzilishi, ilm-fan va falsafa bilan bog‘liq. Uning fikriga ko‘ra, jamiyat ma’naviy va ilmiy jihatdan rivojlangan, adolatli va axloqiy barkamol bo‘lishi kerak. Bu jamiyatga esa bilimdon va dono rahbar yetakchilik qilishi lozim. Forobiy insonni oliy mavjudot sifatida ta’riflab, uning ma’naviy yuksalishi faqatgina ilm orqali amalga oshishini ta’kidlagan. Unga ko‘ra, bilim va ma’rifat insonni komillikka yetaklaydi, jaholat esa insonning ma’naviy inqiroziga sabab bo‘ladi. Forobiy ilmni inson hayotining ajralmas qismi deb bilgan hamda uni jamiyat taraqqiyotining poydevori sifatida ta’riflagan. U ilm orqali inson mukammallikka erishishini ta’kidlab shunday deydi: Insonning saodatga yetishi uchun uning aql va tafakkurini mukammallashtirishi lozim. Zero, haqiqiy baxt ilm va hikmat bilan erishiladigan eng oliy darajadir. [Abu Nasr Forobiy., 2013. S.34]; Uning fikriga ko‘ra, bilim odamga dunyoni to‘g‘ri tushunish, adolatli bo‘lish va jamiyat uchun foydali bo‘lish imkoniyatini beradi. Ilm – insonni jaholat va xurofotdan xalos qiladigan asosiy vositadir. Forobiy insonni ikki asosiy jihatdan tarbiyalash kerakligini aytgan: Bularning biri aqliy tarbiya – ilm-fan, tafakkur va falsafani o‘rganish. Ikkinchisi esa axloqiy tarbiya – odob-axloq qoidalariga rioya qilish, poklik va adolatni targ‘ib etish. Uning fikricha, inson nafaqat aqlli bo‘lishi, balki axloqan ham yetuk bo‘lishi lozim. Forobiy inson hayotining oliy maqsadi saodatga (baxtga) erishish deb hisoblagan. U insonlarni moddiy manfaatlardan ko‘ra, ma’naviy taraqqiyotga intilishga chaqirganligi bugungi kun uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Sharq falsafiy hamda ma’naviy dunyosida Abu Rayhon Beruniy ham alohida o‘rin egallaydi. Uning ma’naviy qarashlari ilm-fan, tafakkur, adolat va haqiqatni izlash tamoyillariga asoslanganligi bilan ajralib turadi. U ilmiy izlanishlarni insonning ma’naviy kamoloti uchun zarur deb hisoblagan va jaholatga qarshi kurashish tarafdori bo‘lgan. Beruniy fikriga ko‘ra, ilm insonning asosiy fazilati hisoblanadi. U ilmiy bilimlarni o‘rganish va tarqatish orqali insoniyatning taraqqiyotga erishishini, shuningdek, haqiqatni izlash – eng yuksak ma’naviy qadriyat ekanligini yozib qoldirgan. Abu Rayhon Beruniy inson tarbiyasiga salbiy ta’sir qiluvchi illatlar haqida fikr yuritib, ular yovuz niyatda qilinishini qayd etgan: “Haddan ortiq g‘azab vahshiylik keltiradi va bevaqt qilingan lutf obro‘ni ketgizadi” deydi.[Abu Rayhon Beruniy., 1991. – S.68.]

Uning qarashlaridan ma’lum bo‘ladiki, u odamlarning bilim va ma’naviyatini o‘rganish muhimligini ta’kidlagan. Shuningdek, Beruniy har qanday bilimni tanqidiy tahlil qilish kerakligini aytgan. U faqatgina an’anaga suyanib, ilmiy asosga ega bo‘lmagan bilimlarni qabul qilishni noto‘g‘ri deb bilgan. Masalan, u qadimgi yunon va

hind astronomik bilimlarini taqqoslab, ularning afzallik va kamchiliklarini tahlil qilgan. Beruniy tabiatni o‘rganish orqali inson o‘zining ma’naviy olamini boyitishini ta’kidlagab o‘tgan.

Shuningdek, sharq ma’naviy konsepsiyalarida ekologik toza muhit, tabiatni asrash kerakligini ilgari surgan g‘oyalar ham mavjud. Ibn Sino inson organizmi bilan tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni muhim deb bilgan. U agar tabiatga mos yashasa, kamroq kasal bo‘lishini, tabiatni buzish esa inson salomatligiga zarar yetkazishini ta’kidlagan. Bu kabi fikrlari ekologik muhitning inson sog‘lig‘iga ta’siri haqidagi hozirgi ilmiy qarashlarga mos keladi. Ibn Sino toza havo, sof suv va ekologik muhitning sog‘lom bo‘lishini tavsiya qilgan. Bu fikr tabiatni asrash va ekologik muhitni yaxshilash orqali sog‘lom turmush tarzini ta’minlash g‘oyasini ilgari suradi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Sharq falsafiy va ma’naviy konsepsiyalari inson hayoti, tabiat va koinot haqidagi chuqur mulohazalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu konsepsiyalar turli madaniy va diniy an’analar orqali rivojlanib, sharq dunyosining boy ma’naviy merosini aks ettiradi. Sharqda, ayniqsa, Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan allomalarning xizmati nihoyatda buyukdir. Yurtboshimiz ham bejizga: “Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda jadal ilgari surilayotgan Uchinchi Rennesans g‘oyasi ko‘p jihatlari bilan qadimdan davom etib kelayotgan milliy va ma’naviy qadriyatlarimizga taalluqlidir -deb ta’kidlagan edilar”. [G‘.Utayev., 2022. – S.412-415]; Umuman olganda, sharq falsafiy va ma’naviy konsepsiyalari insonning hayotiy maqsadlari, axloqiy qadriyatlari va koinot haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga yordam beradi hamda har bir falsafiy oqimning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, ular insonning ichki tinchlikka erishishi, tabiat bilan uyg‘unlashishi va yaxshi hayot kechirishiga yordam berishini nazarda tutadi. Insonni ham ruhan ham ma’nan yetuklikka chorlaydi. Bu konsepsiyalar orqali insonlar o‘zlarining ichki dunyosini tushunib, ruhiy tinchlik va ma’naviy yuksalishga intilishlari hamda ma’naviy jihatdan ham kamol topishida muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abu Nasr Forobiy, “Baxt-saodatga erishish haqida”, - T.: Ma’naviyat, 2013.
2. Abu Rayhon Beruniy. “Tarvihalar. “Javohirot kitobi”dan. – T.: Meros, 1991.
3. G‘.Utayev, (2022). Ajdodlarmiz tafakkuri va buyuk dahosi. Academic research in educational sciences, TMA Conference 3.

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHDA NAZARIY VA KONSEPTUAL ASOSLAR

Ataniyazov Ikrom Yusupovich
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi,
Ikromataniyazov1@gmail.com
Erkinova Zilola Ergash qizi
UrDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarini o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezis ijtimoiy-gumanitar fanlarning nazariy va konseptual asoslarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Ushbu fanlarning insoniyat tarixidagi o‘rni, ularning rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy ta’lim tizimidagi ahamiyati ko‘rib chiqiladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda innovatsion va kompetensiyaviy yondashuvlarning dolzarbligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy-gumanitar fanlar, nazariy asoslar, metodologik yondashuv, ta’lim, falsafa, tarix, sotsiologiya, axloqiy qadriyatlar.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу теоретических и концептуальных основ социально-гуманитарных наук. Рассматривается их роль в истории человечества, этапы развития и значение в современной образовательной системе. Подчеркивается актуальность инновационных и компетентностных подходов в преподавании этих наук.

Ключевые слова: Социально-гуманитарные науки, теоретические основы, методологический подход, образование, философия, история, социология, моральные ценности.

Abstract. This thesis analyzes the theoretical and conceptual foundations of social and humanitarian sciences. It examines their role in human history, stages of development, and importance in the modern education system. The relevance of innovative and competency-based approaches in teaching these sciences is emphasized.

Key words: Social and humanitarian sciences, theoretical foundations, methodological approach, education, philosophy, history, sociology, moral values.

Insoniyat jamiyatining rivojlanishi, uning madaniyati shakllanishi, qadriyatlari va tafakkurini o‘rganish har bir davrda muhim hisoblangani kabi, bugungi globallashuv zaminida ham ushbu ilmlarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan ham bularning bari ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida birlashtirilgan. Ijtimoiy-gumanitar fanlar inson hayoti, uning jamiyatdagi o‘rni, uning huquq va burchlari, shu bilan birga axloqiy qadriyatlari haqida bilim beradi. [Abdullayev B., 2021. – S.58]; Bu fanlar yordamida inson o‘zini va atrof-muhitni yanada yaxshiroq tushunishga, uni anglashiga imkon tug‘iladi Tarix, falsafa, dinshunoslik, sotsiologiya kabi fanlar insonni mustaqil fikrlashga, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarishga o‘rgatadi. Bu esa jamiyatdagi turli muammolarni tahlil qilish va hal etishda muhim ahamiyatga ega. Bu fanlar orqali jamiyatning rivojlanishi, shu asnoda insonlarning, butun bir xalqning fikrlashi, dunyoqarashi rivojlanadi. Chunki inson o‘zini anglashi uchun, avvalo o‘tmish tarixiga nazar solishi, shu vaqtgacha qanday kunlar millat boshidan o‘tganini anglab yetishi

kerak. Bularning bariga ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida talabalar ongiga singdirish mumkin. Ijtimoiy-gumanitar fanlar insonni ezgulik, adolat, halollik, vatanparvarlik, bag‘rikenglik kabi qadriyatlarni anglashga undaydi. Shu bois ular jamiyatning ma’naviy yuksalishida muhim rol o‘ynaydi.

Aynan ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘qitilishi uning nazariy hamda metodologik asoslarining shakllanishi bugungi davrda, ayniqsa, alohida e’tibor berilishi kerak bo‘lgan jihat hisoblanadi. Chunki bu fanlar o‘qitilishida haligacha mukammal hamda aniq dasturlar ishlab chiqilmagan. Bu haqida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ham alohida ta’kidlab o‘tgan edilar: “Bizda uzoq yillar davomida ijtimoiy fanlarga nisbatan bir tomonlama texnokratik yondoshuv, bu oradagi masalalarga ajabtovur bir “o‘gay” qarash shakllanib qolgan. Ayni paytda, afsus bilan qayd etish mumkinki, haligacha uzluksiz ta’lim bosqichlarida, ayniqsa oliy ta’limda ijtimoiy fanlarni qancha hajmda va qanday yo‘nalishlarda, qay bir shaklda va qanday mazmunda o‘qitish va o‘rgatish bo‘yicha yaxlit kontseptsiya yo‘q”. [Sh.Mirziyoyev., 2021. – S.228]; Tarix, adabiyot, san’atshunoslik kabi fanlar milliy va umuminsoniy madaniyatni o‘rganishga, ajdodlarning boy merosini saqlash va targ‘ib qilishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar insonlar o‘rtasida o‘zaro tushunish va hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Bu fanlar orqali huquqiy ong, fuqarolik jamiyati, demokratiya, inson huquqlari tushunchalari shakllanishi bilan alohida ahamiyatga ega. Ijtimoiy-gumanitar fanlar nafaqat ilmiy bilim beradi, balki insonni yuksak axloqiy hamda madaniy darajaga olib chiqadi. Ular jamiyat taraqqiyoti uchun muhim hisoblanib, insoniyatning ongli, bag‘rikeng, bilimli va tafakkurli bo‘lishiga hissa qo‘shadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning nazariy asoslari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, u insoniyat taraqqiyoti bilan bog‘liq holda shakllangan. Ularning ilk manbalari qadimgi Sharq sivilizatsiyalarida – Misr, Bobil, Hindiston va Xitoydagi falsafiy va diniy qarashlardan boshlangan. Lekin tizimli ilmiy asoslar qadimgi yunon mutafakkirlari tomonidan ishlab chiqilgan. Xususan, Falsafa fani qadimgi Yunonistonda (Sokrat, Platon, Aristotel) asos solingan bo‘lib, u olam va inson mohiyatini tushuntirishga qaratilgan fandir. [Artyomov P., 2020. – S.23-24]; Tarix fani esa Gerodot va Fukidid tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, ijtimoiy voqealarning xronologik rivojini tahlil qiluvchi ijtimoiy-gumanitar fanlardan biridir. Rim huquqi asosida shakllangan hamda asrlar davomida rivojlangan va jamiyatdagi tartib-qoidalar tizimini ishlab chiqilishini taqozo qilgan siyosatshunoslik ham ijtimoiy fanlar tarmog‘ida muhim ahamiyatga ega dastlabki davrlarda ijtimoiy-gumanitar fanlar umumiy falsafiy tafakkur doirasida bo‘lib, inson va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirishga xizmat qilgan.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning nazariy asoslari, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy yondashuvlar O‘rta asrlarda bu fanlar diniy qarashlar bilan chambarchas bog‘langan bo‘lsa-da, Sharq va G‘arbda yangi nazariy asoslar shakllangan: Xususan, Islom olamida – Al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ibn Xaldun kabi olimlar inson tafakkuri, uning dunyoqarashi, shuningdek, davlat boshqaruvi, tarixiy taraqqiyot va axloqiy tamoyillar haqida fundamental g‘oyalarni ilgari surgan. Aynan shu davrlar mobaynida Yevropada Uyg‘onish davri (XIV-XVI asrlar) bo‘lib, bu davr ijtimoiy-gumanitar fanlarning mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanishiga turtki bo‘ldi. Bu davrda Makiavelli siyosatshunoslik va davlat boshqaruvi haqida nazariy asoslarni yaratgan.

Shu bilan bir qatorda aynan bu davrda fanlarning mustaqil tarmoqlarga ajralishi, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan yondashuvlarning paydo bo‘lishi kuzatiladi.

XVII-XIX asrlarda ijtimoiy-gumanitar fanlar ilmiy metodologiyaga asoslanib, empirik va nazariy tadqiqotlarga yo‘naltirilgan: Falsafada – Dekart, Kant, Gegel kabi faylasuflar inson tafakkuri va bilish nazariyalarini rivojlantirdi. Sotsiologiyaning asoschisi fransuz mutaffakiri Ogyust Kont sotsiologiyani jamiyat haqidagi tajribaga asoslangan fan deb hisoblaydi. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sotsiologiya]; Bu davrga kelib, ijtimoiy-gumanitar fanlar falsafadan ajralib, aniq nazariy va metodologik asoslarga ega bo‘ladi. Bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlar quyidagi asosiy nazariy yondashuvlarga tayanadi: Strukturaviy-funksional yondashuv – ijtimoiy tizimlar qanday ishlashini tushuntirishga qaratilgan.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt va globalizatsiya jarayonlari ijtimoiy-gumanitar fanlarga yangicha metodologik yondashuvlarni taqdim etmoqda. Shu bois, ular nafaqat an’anaviy nazariyalar bilan cheklanib qolmay, balki zamonaviy muammolarni hal qilish uchun interfaol va kompleks metodlarga asoslanmoqda. Bugungi kunda ham ijtimoiy-gumanitar fanlarning bir qancha vazifalari bor. Shuningdek, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda innovatsion va interfaol tadi metodlardan foydalanish, xususan, muammoli ta’lim, keys-stadi, rolli o‘yinlar, media-ta’lim, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish ham o‘qitish jarayonida zamonaviy metodlardan hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ijtimoiy-gumanitar fanlarning nazariy va konseptual asoslarini o‘rganish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu fanlar insoniyat tarixiy taraqqiyoti, tafakkuri, madaniy va axloqiy qadriyatlarini shakllantirishda asosiy rol o‘ynaydi. Ularning rivojlanishi qadimgi Sharq sivilizatsiyalaridan boshlab, yunon falsafasi, O‘rta asrlar Islom olimlari hamda Uyg‘onish davri mutafakkirlari tomonidan rivojlantirilgan. Bugungi kunda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda kompetensiyaviy, innovatsion va interfaol yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalari va globalizatsiya jarayonlari bu fanlarning ta’lim jarayonidagi o‘rnini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu sababli, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish usullarini takomillashtirish, ularning nazariy va metodologik asoslarini rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayev B. (2021). Ijtimoiy-gumanitar fanlar va jamiyat taraqqiyoti. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

2. Shavkat Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi- T.2021.

3. Artyomov, P. (2020). Cultural heritage and social responsibility in modern society. Journal of Sociology and Cultural Studies, 10.

4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Sotsiologiya.

VATANPARVARLIK TUYG‘USI

Saidov Xakim G‘ofurovich
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi dotsenti, saidovakim654@gmail.som

Annotatsiya. Ushbu tezisda vatan tuyg‘usi, tinchlik va milliy g‘urur haqida fikr yuritilgan. Ko‘rinib turibdiki, vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘usi ko‘p omilli hodisa, ular turli, goho esa ziddiyatli ta’sirlar ostida shakllanadi.

Kalit so‘z: vatanparvarlik, jasorat, faoliyat, qahramonlik, altruizm, e’tiqod, vatan, yurt, inson, faoliyat, faollik.

Аннотация. В этой статье рассматриваются чувства патриотизма, мира и национальной гордости. Является очевидным, что патриотизм и национальная гордость — это многогранные явления, которые формируются под воздействием различных, порой противоречивых факторов.

Ключевые слова: патриотизм, смелость, деятельность, героизм, альтруизм, вера, родина, стран, человек, действие, активность.

Abstrast. This article discusses the feelings of patriotism, peace, and national pride. It is clear that patriotism and national pride are multi-faceted phenomena, which are shaped under various, sometimes even contradictory, influences. The homeland is unique. This uniqueness also makes the feeling of patriotism unique and complex.

Key words: patriotism, courage, activity, heroism, altruism, faith, homeland, country, human, action, activeness.

Vatanparvarlik va milliy g‘urur inson hayotining, mavjudligining mohiyatini ifodalovchi “faoliyat”, “faollik”, “amallar”, “altruizm”, “qahramonlik” va “jasorat” kabi kategoriyalarga borib taqaladi. Vatanparvar bo‘lishga intilib yashash odatiy tuyg‘u va unga hamma ham qodir. Istagan bir kishi vatanparvar bo‘lishi va bu tuyg‘usini obyektivlashtirishi mumkin. Ammo qahramon bo‘lish har kimga ham nasib etavermaydi. Qahramonlik vatanparvarlikning yuksak ko‘rinishi. Bu o‘rinda vatanparvarlik va milliy tuyg‘uning turli darajalarda, pog‘onalarda kelishi ko‘zga tashlanadi. Mavjud ilmiy-nazariy va falsafiy qarashlarni, tajribalarni o‘rganishdan kelib chiqib, biz ularni quyidagi pog‘onalarga ajratishimiz mumkin:

- ong osti pog‘onasi;
- anglangan va hayotiy maqsad sifatida shakllangan ma’naviy axloqiy ideal pog‘onasi;
- palliativ motivlar ta’siri pog‘onasi;
- chuqur e’tiqod pog‘onasi;
- turli-tuman vaziyatlar va sensitiv (hissiy ruhiy) ta’sirlar pog‘onasi;
- tasodifiy omillar ta’siri pog‘onasi.

Vatanparvarlik va milliy g‘urur goho tasodifiy ta’sirlar mahsuli sifatida ham kelishi mumkin. Inson xaraketerida tasodiflar muhim o‘rin egallaydi. Masalan, etnopsixologik kuzatishlardan ma’lumki, o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtdan uzoqda ishlayotgan shaxs xalqi, millati haqida haqorotomuz fikr eshitib qolsa, kutilmaganda unda vatanparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘usi jo‘sh uradi, u o‘z xalqi, millati sha’nini himoya qilishga intiladi. U shu paytgacha etnoegoistik kayfiyatga berilgan bo‘lishi mumkin, ammo bir turtki bo‘ldiki, u endi vatanparvarga, xalqparvarga aylandi.

[Психология национальной нетерпимости: Хрестоматия., 2003. - С.145]; Ko‘rinib turibdiki, vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘usi ko‘p omilli hodisa, ular turli, goho esa ziddiyatli ta’sirlar ostida shakllanadi.

Vatanparvarlik asosan “yurt”, “ota makon”, “ona vatan” kabi ijtimoiy-jug‘rofiy tushunchalar orqali idrok etiladi. Milliy g‘urur esa ma’lum bir millatga mansublikdan faxrlanishni taqozo qiladi. Millat yaratgan artefaktlar, madaniy boyliklar, tili, yozuvi va tarixi, o‘tmishi shaxsda faxr hissini uyg‘otishi kerak. Vatan betakrordir. Ushbu betakrorlik vatanparvarlik tuyg‘usini ham betakror, izohlash qiyinliq qiladi. Shaxsda ikki yoki uch vatan bo‘lmaydi, u mudom bitta. Xalq iborasi bilan aytganda “Inson kindik qoni to‘kilgan joy uning vatani. U ikkita bo‘lmaydi”. To‘g‘ri, keyingi yillarda bu tushunchada, tasavvurda transformatsiya kuzatiladi. Globallashuv, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi vatan va vatanparvarlik tushunchasiga ma’lum bir o‘zgarishlar kiritmoqda.

Bugun vatandoshlarimiz AQSH va Yevropadagi ilg‘or davlatlarda yashashadi, ishlashadi, o‘sha davlatlardagi fuqarolar bilan oila qurishgan. Bu migratsiya jarayonlari vatan va vatanparvarlik tushunchalariga ta’sir etmay qolmaydi, albatta. Biroq unutmaslik kerakki, o‘sha yurtdoshlarimiz “o‘z kindik qoni to‘kilgan” O‘zbekistonni ona vatani deb biladi, o‘zining millati o‘zbek ekanidan g‘ururlanadi. Vatan va vatanparvarlik kishida hissiy-ruhiy ko‘tarinkilik, altruistik niyatlar, fikrlar uyg‘otadigan voqeliklar hisoblanadi. Vatan uchun fidokorona mehnat qilish, uni donishmandlardan himoya etish boshqa xalqlar, millatlar qatorida navbat, hurmat qilish, farovon va obod yurtga aylantirish kabi oliyjanob maqsadlar ana shu niyatlar va fikrlarning amaldagi ifodasi sifatida keladi. Fidoiylik, altruizm, qahramonona mehnat shunchaki, istaklar va shiorlar emas, ular har doim obyektivlashishi tufayli real voqealarga aylanadi. Shoir aytganidek, “Mening vatan ishqim ajib muhabbat, bu ishqni yengolmas idrokim, zehnim. [Лермонтов М.Ю., 1955.- S.120]; Ha, vatanga bo‘lgan mehr, muhabbatni idrok va zehn bilan izohlash qiyin. Akademik E.Yusupov yozganidek, “vatanparvarlik - o‘z taqdirini vatan, millat taqdiri bilan bog‘lagan barcha kishilarga xos fazilat. Millat taraqqiyotining imkoniyatlari, shon-shuhrati, obro‘-e’tibori ham shu millat kishilari vatanparvarlik tuyg‘usining darajasi bilan bog‘liqdir. Vatanparvarlik ham milliy, ham umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. [Эркин Юсупов., 1998. 148]; Olim ta’kidlaganidek: “vatanga bo‘lgan munosabat ma’naviyat darajasiga ko‘tarilib, inson faoliyatiga maqsad va yo‘nalish berish - vatanparvarlikdir. Bunday ta’rif va tasniflarni yana keltirish mumkin.

Xullas, vatanparvarlik nafaqat betakror, shuningdek, izohlanishi qiyin hol, hodisa. Uning paydo bo‘lish nuqtasini topish qiyin. Tadqiqotchilar, inson xatti-harakatlarining, masalan, tashqi tovushga, xavfga, silashga, ovqatlanish va suvga bo‘lgan ehtiyojlarning boisiga oid psixofiziologik va neyrologik nuqtalarni topishgan, lekin ular sevgi, muhabbat uyg‘otadigan nuqtani topisholmagan. Bundan ular sevgi, muhabbat bir vaqtning o‘zida butun vujudda paydo bo‘ladi, degan xulosaga kelishgan. Vatanparvarlik ana shunday butun vujudda paydo bo‘ladigan tuyg‘udir. Shuning uchun bu tuyg‘uni tadqiqotchilardan ko‘ra inson his-hayajonlarini, ichki sensitiv kechinmalarini chuqur sezadigan shoirlar to‘laroq, obyektivroq ifodalaydilar.

Erkin Vohidovning “O‘zbegim” yoki Abdulla Oripovning “Men nechun sevaman O‘zbekiston” ni she’rlari ana shunday tuyg‘ular ifodasidir.

Men nechun sevaman O‘zbekistonni
Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo
Nechun Vatan deya yeru osmonni
Muqaddas atayman, atayman tanho.

A.Oripov turli vatanlar to‘g‘risida to‘xtalar ekan har kim o‘z vatanini sevishiga shubha uyg‘otmaydi. Ammo u O‘zbekiston farzandi sifatida jonu ta’nini shu yurt, shu o‘lka bilan omuxta ekanini g‘urur bilan qayd etadi:

Vatanlar, Vatanlar,
Mayli, gullasin,
Bog‘ unsin mangulik muzda ham, ammo
Yurtim, seni faqat boyliklaring-chun
Sevgan farzand bo‘lsa, kechirma aslo!

Demak, vatanni boyliklari uchun emas, balki qalbi, vujudi va borlig‘i ona zamin bilan omuxta, bir bo‘lgani uchun sevadilar. Vatanparvarlik-ana shunday sevgi!

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Психология национальной нетерпимости: Хрестоматия. Минск: Харвест, 1998; Современная этнопсихология. Хрестоматия. Минск: Харвест, 2003.

2.Лермонтов М.Ю. Танланган асарлар.1.-Ташкент: Ўз давр нашр, 1955.

3.Эркин Юсупов. Инсон камолатининг маънавий асослари. Тошкент: “Университет” нашриёти, 1998.

TA’LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZARARLI AXBOROTLAR TAHDIDINING TALABALAR XULQ-ATVORI VA RUXIYATIGA TA’SIRI

Saidov Xakim G‘ofurovich
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi f.f.dots (PhD), saidovxakim@gmail.com
Ibragimova Nilufar Qudrat qizi
UrDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Tezisda globallashuv jarayonida yoshlarning axloqiy qiyofasi va informatsion madaniyatining shakllanishi muhokama qilinadi. Axborot texnologiyalarining ijobiy va salbiy ta’siri tahlil qilinib, zararli axborot tahdidlariga qarshi kurashish zarurati ta’kidlanadi. Milliy qadriyatlar va madaniyatning yoshlar tarbiyasidagi roli ochib berilib, axborot xavfsizligi va ma’naviy mustaqillikni mustahkamlash bo‘yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so‘z: Axborot, zamonaviy texnologiyalar, madaniyat, ma’naviyat, axloq, mintaqaviy xavfsizlik.

Аннотация. В тезисе обсуждается моральный облик молодежи и формирование информационной культуры в процессе глобализации. Анализируется положительное и отрицательное влияние информационных технологий, подчеркивается необходимость противодействия угрозам вредоносной информации. Раскрывается роль национальных ценностей и культуры в воспитании молодежи, выдвигаются предложения по укреплению информационной безопасности и духовной независимости.

Ключевые слова: Информация, современные технологии, культура, духовность, мораль, региональная безопасность.

Abstract. The thesis discusses the moral image of youth and the formation of informational culture in the process of globalization. The positive and negative effects of information technologies are analyzed, emphasizing the necessity of combating harmful information threats. The role of national values and culture in youth education is revealed, and proposals are put forward to strengthen information security and spiritual independence.

Key words: Information, modern technologies, culture, spirituality, morality, regional security.

Bizga ma’lumki kishilik jamiyati paydo bo‘lgandan beri inson axborot olish, tarqatish va undan foydalanishga ehtiyoj sezib keladi. Albatta, qadimda bu jarayon juda sodda ko‘rinishga ega edi. Dunyo taraqqiy etgan sari u murakkablashib, axborotning jamiyatdagi o‘rni yanada oshdi. Hatto, davrimiz ham “Axborot asri” – deb nom olgani bejiz emas. Ayni paytda mutaxassislar har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan birga mudofaa qudrati ham axborot tizimi va texnologiyalariga bog‘liqligini ta’kidlashmoqda. Shu o‘rinda jamiyat hayotining turli sohalarini kompyuterlashtirish, elektron kommunikatsiyalar, elektron ko‘rinishdagi ma’lumotlar bazasi, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ijobiy natijalar bilan bir qatorda, yoshlarni xulq atvoriga buzg‘unchilik maqsadida ta’sir etishni ko‘zda tutuvchi yangi “axborot quroli” ning ta’siri kuchayishiga olib kelayotganini aytib o‘tish

joiz. Bu esa o‘z navbatida, mamlakatimizning axborot resurslari va telekommunikatsiya tarmoqlarini noqonuniy maqsadlarda ishlatishga qarshi himoya choralarini ko‘rish va ularning benuqson faoliyatini ta’minlashga da’vat etmoqda. Globollashuv sharoitida demokratik jamiyatga, ayniqsa yoshlarga turli ommaviy axborot vositalari orqali o‘z salbiy ta’sirini o‘tkazishga intilayotgan “ommaviy madaniyat”, “terrorizm”, “diniy ekstremizm” kabi zararli oqimlar, g‘oyalarning mazmun va maqsadi, mohiyatini fosh qilish lozimigi ham axborot madaniyatni shakllantirish zaruriyatini vujudga keltiradi. Ta’kidlash lozimki, bunday holat bevosita mamlakatimizda huquqiy demokratik davlatning taraqqiyoti va fuqarolik jamiyatining qaror topishi, rivojlanishi, taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Alohida qayd qilish mumkin: hozirgi davrda shaxs faoliyatidagi muhim masalalardan biri uning demokratik xarakterdagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta’minlash, o‘z huquqiy imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishi lozimligi ham axborot madaniyatining yuksalishini ta’minlash, jamiyat rivojlanish jarayonlarini o‘zida aks ettiruvchi informatsion bazani vujudga keltirish bilan bog‘liqdir. Jamiyat barcha jabhalarining modernizatsiyalashuvi unda inson omiliga alohida e’tibor berish lozimligini talab qiladi va shu munosobat bilan shaxs informatsion madaniyati shakllanganligi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy amaliyotda ham namoyon bo‘ladi. Globallashuv sharoitida mintaqalar va mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalar va o‘zaro ta’sirlar kuchayib boraverar ekan, unda yoshlar ma’naviyati, ayniqsa, ularning axloqiy qiyofasini shakllantirish zamonaviylikni tarixiylik bilan uyg‘unlashtirishni taqozolaydi. Sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga qanchalik qarshilik ko‘rsatmaylik inson erisholmagan manzil doimo qiziqarli hisoblanadi.

Zero globallashuv jarayonining asosiy subyekti va harakatlantiruchi kuchi muayyan g‘arazli maqsadlarni ko‘zlar ekan, milliy ma’naviyat va qadriyatlarga tayangan an’anaviy tafakkur tarziga zarba berish va yoshlarni g‘arbona andozadagi qolipga solish va ular ustidan hukmronlik qilishga intilaveradi. Shunday global ta’sirlar telekommunikatsiyalar, internet tizimidagi saytlar orqali yoshlarimiz ongi va ma’naviy-axloqiy qiyofasiga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Davlatimiz madaniy–ma’naviy mustaqilligini ta’minlashda sharqona odob, axloq, milliy qadriyatlar, urf-odat va an’analarimiz asosida tarbiyalash nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyat rivojlanib borgan sari uning axloqiy tizimi ham o‘zgarishlarga ehtiyoj sezadi. Yurtimizning hozirgi rivojlanish bosqichida yoshlarimizning ongi, dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy jihatlarining shakllanishida bunday xatolarga yo‘l qo‘yish mumkin emas. Demak, hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy–iqtisodiy va siyosiy hayotida ijtimoiy–gumanitar va boshqa fanlar oldida ulkan vazifalar turibdi. Bu vazifalar esa, yoshlarni ma’naviy kamolot sari yetaklash, axloqiy jihatdan yetuk kishilar qilib tarbiyalashdir. Xulosa qilib aytganda, globallashuvni to‘siq qo‘yib, chegara tortib ushlab bo‘lmaydi. Hindistonlik mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining qo‘yidagi so‘zlarida: “Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o‘tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib uyimni ag‘dar-to‘ntar qilib tashlashi, o‘zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman”. Shuning uchun ham, milliy istiqlol g‘oyasi bugungi globallashuv jarayonida uyimizni, hayotimizni toza

havo bilan ta’minlab, ayni paytda. “dovullar”dan saqlash omili ekanligini anglashimiz zarur. “Shaxs jamiyatda va uning a’zolari orasida muayyan harakatda bo‘lgan ma’lumotlar, xabarlar, maxsus bilimlar, ommabop axborotlarga ega bo‘lgan taqdirdagina o‘z davrining ziyoli kishisi sifatida shakllanadi. Shuningdek, yuqoridagi axborot vositalari mazmuni, mohiyatini bilish va ulardan o‘z faoliyatida informatsion yondashishi asosida samarali foydalana olish axborot madaniyatini tashkil etadi”. [З.Арслонов., 2017. – Б.12];

Axborot madaniyat shakllanishi esa axborotning azbukasidan ya’ni uning boshlang‘ich asoslaridan boshlanadi. Shaxsning axborot madaniyatini shakllanishi va evolyusiyasi ana shu boshlang‘ich davri bilan bog‘liq bo‘ladi. Shaxsning axborot madaniyatini shakllanishi va evolyusiyasi ana shu boshlang‘ich asoslaridan dastlabki manbalarini oladi va tobora kengayib, rivojlanib boradigan axborot tizimlari, vositalari, ilmiy-amaliy yutuqlari asosida muayyan bosqichga ko‘tariladi. Shu ma’noda axborot kitob yoki ma’ruzaning yakunlashi emas, aksincha ana shu axborot manbaidan olingan yangilik, axborot mazmun-mohiyatiga nisbatan uning yuqori bosqichidir. Axborot madaniyati, bevosita axborot manbai uchun mas’ulligi va uni samarali boshqarishida namoyon bo‘ladi. Bu erda shaxsning intelektual qobilyati, uning bilimi muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxs dunyoqarashi, layoqati namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, shaxsning axborot madaniyati tushunchasining mohiyati, tarkibiy elementlari, evolyusion tendensiyasi, axborot aloqa tizimlari bilan bevosita bog‘liqligi kabi ko‘plab masalalarni tadqiq etish uning muhim qismini tashkil etadi. Ta’kidlash lozimki, ommaviy axborot vositalari shaxsning ijtimoiy ongi, tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda asosiy omil, bo‘lib obyektiv va subyektiv asoslarga ega. Birinchidan, shaxsning globallashuv sharoitida yuz berayotgan jiddiy o‘zgarishlar zamonaviy axborot madaniyatining ma’naviy, g‘oyaviy mafkuraviy negizini tashkil etib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida muhim o‘rin egallaydi. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy voqelikka kirib kelishida axborot tizimi, vositalari va texnologiyasi faol ishtirok etadi. Zero XXI asrda biron bir mamlakat yoki hudud taraqqiyotni tezkor axborot almashuvisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu ma’noda axborotlashuvni geosiyosiy jarayonlar bilan bog‘lanib ketayotganligini ham kuzatish mumkin. Bu borada Rossiyalik faylasuf S.A.Modesovning quyidagi fikrlarini keltirish o‘rinli. Uning fikricha, “axborotlashgan makon yangidan-yangi geosiyosiy munosabatlardagi raqobatni shakllantirib, ya’ni jahon tartiboti jarayonida ayrim davlatlarda axborotlashtirishni takomillashtirish asosida kattaroq mavqega ega bo‘lib boradi.” [Модесов С.А., 1997. - Б.16-17];

Bugungi kunda axborotlashtirish, bu umumjahon jarayoni bo‘lib, taraqqiy etgan mamlakatning jahon bozoridagi peshqadamligi, iqtisodiy o‘sishi va milliy xavfsizligini ta’min etadi. Ma’lumki, globallashuv jarayoni obyektiv va qonuniy jarayon bo‘lib, o‘ziga xos bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. Bu jarayon birinchi galda davlatlarga xalqaro maydonga erkin chiqishga, boshqalar bilan yaqindan hamkorlik olib borishga hamda o‘z milliy manfaatlarini turli xil xalqaro va nodavlat tashkilotlar doirasida ta’minlashga keng imkoniyatlar beradi. Shuni aytish kerakki, vaqt o‘tishi bilan globallashuv jarayonining o‘ziga xos ijobiy tomonlari bilan birga, bir qator salbiy jihatlari ham namoyon bo‘la boshlaydi. Davlatlarning bir-biriga sezilarli darajada

o‘sgan bog‘liqligi shuni ko‘rsatmoqdaki, bir mintaqadagi xoh salbiy, xoh ijobiy voqea – hodisalar dunyoning boshqa bir mintaqasiga juda tez tarqalib, o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Buning oqibatida, mintaqa xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy tahdidlar vujudga kelmoqda. Vaziyatning keskinlashuvi, tashqi tahdidlarning ichki tahdidlar bilan, ya’ni an’anaviy tahdidlar bilan o‘zaro qo‘shilishi, ular orasidagi masofa yaqinlashuvi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi o‘sishi kuzatilmoqda. Bu holat esa milliy va mintaqaviy hamda shaxsiy xavfsizlikni ta’minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Respublikamizning birinchi prezidenti I.A.Karimov aytganlaridek, axborot omili yadroviy poligonlardan ham dahshatli omilga aylanib borayotir. Agar mazkur omilga alohida e’tibor berilmas ekan, u borgan sari kuchayib boradi. Natijada, ayrim kuchlar qo‘lida asosiy “qurol”ga aylanadi. Bu esa nafaqat davlatlar yoki mintaqalarda keskin vaziyat vujudga kelishiga sabab bo‘ladi, balki xalqaro miqyosda ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Xalqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan o‘zgarishlar natijasida milliy xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlik va xalqaro xavfsizlik hamda shaxsiy xavfsizlik kabi tushunchalar mohiyatini tushinishga, ularning o‘zaro bog‘liqligini anglashga e’tibor ortib bormoqda. Bugungi dunyoning axborot xavfsizlik holati “xavfsizlik”ga bo‘lgan zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishga va milliy, mintaqaviy va xalqaro xamda shaxsiy xavfsizlikka nisbatan konseptual qarashlarni rivojlantirishga undamoqda. Bugungi globallashuv asrida axborotga bo‘lgan talab har qachongidan ko‘ra, kuchayib bormoqda. Shunday ekan, xolis va haqqoniy axborotlarni tarqatish, ommaning bu mahsulotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko‘ra bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari, tele-radio kanallar odamlarni xolis va haqqoniy axborot yetkazadigan, gumanistik qarashlar, ilg‘or g‘oyalarni ifoda qiladigan erkin minbar sifatida e’tibor beriladigan vositadir. Aslida ham shunday. Bugun jahon miqyosida bo‘layotgan olamshumul o‘zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fandagi inson aqlini lol qoldiradigan yangiliklar-u ixtirolar barcha-barchasi ommaviy axborot vositalari orqali ma’lum bo‘lmoqda. Demak, OAV, matbuot yaxshilikka, ezgulikka xizmat qilmoqda. Lekin ming afsuslar bo‘lsinki, o‘tgan asrning oxirlari, XXI asrning dastlabki yillarida G‘arb matbuotida biz aytgan ezgulikka xizmat qilish o‘rniga boshqa buyurtmali “ezgulikka” xizmat qilish hollari ham kuzatilmoqda. Shu o‘rinda ulug‘ alloma Abu Rayxon Beruniy merosidagi ayrim fikrlarga e’tiborni qaratmoqchimiz. Alloma bundan ming yil burun shunday yozib ketganlar: “Xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg‘onlik tusini oladi. Chunki, odamlarning maqsadlari xilma-xil xalqlar o‘rtasida tortishish va talashish ko‘p. Shunday kishilar ham bo‘ladiki, ularning tabiatiga yolg‘on xabar tarqatish o‘rnashib qolib, go‘yoki unga shu vazifa yuklangandek bo‘ladi va xabar tarqatmasdan tinchiy olmaydi. Bu yomon xohishlardan va tabiatiga buzuq fikrlarning joylashganligidan kelib chiqadi”. Qarang bundan o‘n asr avval yashab o‘tgan bobokalonimiz bugungi kun voqeligi so‘z, ayniqsa, o‘zini adolatparvar, inson huquqlari himoyachisi, oddiy bilan aytganda, “jurnalist” deb yurgan ayrim kimsalarga bahs berib o‘tgan ekanlar. Axborotni himoyalash masalalariga rivojlangan mamlakatlar katta ahamiyat beradi. Hozirgi paytga kelib xalqaro munosabatlar yangi axborot texnologiyalari asosida shakllanayotgani bois, axborotni himoyalash va yoshlarni axborot psixologik xavfsizligini ta’minlash jamiyat

oldidagi eng muhim vazifalardan biriga aylanmoqda. “Bugungi kunda, – degan edi, O‘zbekistonning birinchi prezidenti Islom Karimov, – insoniyat qo‘lida mavjud bo‘lgan qurol-yarog‘lar yer kurrasini bir necha bor yakson qilishga yetadi. Buni hammamiz yaxshi anglaymiz. Lekin hozirgi zamondagi eng katta xavf – insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi”. [Karimov I.A., 1998. -S.160]; Kurashning bu turida eng samarali qurol – axborot. Shu bois, axborotni o‘z maqsadlariga xizmat qildirishga intilish keskin tus olmoqda. Axborot, uni uzatish, qayta ishlash va yig‘ish bosqichlari o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Ya’ni, insonning oddiy, kundalik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan hatti-harakatlarining asosini ham, dunyo mamlakatlarining insoniyat taqdiriga daxldor bo‘lgan qarorlarining manbaini ham axborot tashkil etadi. Bu esa o‘z navbatida g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. З.Арслонов. Ёшларда ахборот маданиятини шакллантириш. илмий-оммабоп рисола. Dadaxon Nur Print. Фарғона – 2017.

2. С.А.Модесов Информационное пространство как фактор геополитической конкуренции. –М.1997.

3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari, Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T.6. -T.: O‘zbekiston, 1998.

ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНЫХ ЦЕННОСТЕЙ МОЛОДЕЖИ В УЗБЕКИСТАНЕ СКВОЗЬ ПРИЗМУ ИСТОРИИ

Саидов Хаким Гафурович
УрГПИ, Кафедра национальной идеи и философии (PhD),
saidovakim654@gmail.som
Рузметова Зулфизар Аминбоевна
магистрант УрГПИ по направлению Методика преподавания социально-гуманитарных дисциплин zulfizarruzmetova@gmail.com

Аннотация. Тезис посвящен важности формирования духовных ценностей среди молодежи Узбекистана, который сталкивается с современными вызовами глобализации и культурного обмена. В работе рассматриваются исторические, культурные и исламские основы духовного воспитания молодежи, а также роль образования, религиозных и культурных институтов в процессе формирования духовных ориентиров. Особое внимание уделяется влиянию исторического контекста и культурного наследия Узбекистана, а также необходимым мерам для адаптации молодежи к новым социальным и идеологическим условиям. Исследуется, как программы развития образования, национальной идентичности и укрепления духовных ценностей способствуют формированию у молодежи патриотизма, честности и ответственности, что является важным фактором для стабильности и процветания страны.

Ключевые слова: молодежь, духовные ценности, историческое наследие, национальная идентичность, образование, патриотизм, глобализация, духовное воспитание.

Annotatsiya. Tezis globallashuv va madaniy almashinuvning zamonaviy muammolariga duch kelayotgan O‘zbekiston yoshlari o‘rtasida ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish muhimligiga ba‘ishlangan. Asarda yoshlarning ma’naviy tarbiyasining tarixiy, madaniy va Islomiy asoslari, shuningdek, ma’naviy yo‘nalishlarni shakllantirish jarayonida ta’lim, diniy va madaniy institutlarning o‘rni ko‘rib chiqiladi. O‘zbekistonning tarixiy konteksti va madaniy merosi ta’siriga, shuningdek, yoshlarni yangi ijtimoiy va mafkuraviy sharoitlarga moslashtirish uchun zarur chora-tadbirlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’limni rivojlantirish, milliy o‘ziga xoslik va ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash dasturlari yoshlarning vatanparvarligi, halolligi va mas’uliyatini shakllantirishga qanday hissa qo‘shayotgani o‘rganilmoqda, bu mamlakat barqarorligi va ravnaqi uchun muhim omil hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, ma’naviy qadriyatlar, tarixiy meros, milliy o‘ziga xoslik, ta’lim, vatanparvarlik, globallashuv, ma’naviy tarbiya.

Abstract. The thesis is devoted to the importance of the formation of spiritual values among the youth of Uzbekistan, which is facing the modern challenges of globalization and cultural exchange. The paper examines the historical, cultural and Islamic foundations of the spiritual education of youth, as well as the role of education, religious and cultural institutions in the process of forming spiritual guidelines. Special attention is paid to the influence of the historical context and cultural heritage of Uzbekistan, as well as the necessary measures to adapt young people to new social and

ideological conditions. The article examines how programs for the development of education, national identity and strengthening spiritual values contribute to the formation of patriotism, honesty and responsibility among young people, which is an important factor for the stability and prosperity of the country.

Keywords: youth, spiritual values, historical heritage, national identity, education, patriotism, globalization, spiritual education.

Важность формирования духовных ценностей среди молодежи является актуальной задачей для многих стран мира, в том числе для Узбекистана. Молодежь — это будущее общества, и её духовное развитие имеет стратегическое значение для стабильности, процветания и социальной гармонии. В Узбекистане, с учетом богатой истории, культурных традиций и исламских ценностей, процесс формирования духовных ориентиров у молодежи всегда имел особое значение. В рамках данной работы будет рассмотрено, как исторический контекст и культурное наследие Узбекистана влияли на воспитание духовных ценностей среди молодежи, а также как современные вызовы требуют обновления подходов к этой проблеме.

Исторический путь Узбекистана также связан с влиянием различных цивилизаций, таких как персидская, арабская и тюркская. Эти взаимодействия не могли не отразиться на духовных ценностях, которые формировались в обществе. В частности, ислам, который пришел на территорию современного Узбекистана в VIII веке, сыграл ключевую роль в воспитании духовных ценностей. Важными составляющими исламской духовности являются милосердие, помощь ближнему, справедливость и миролюбие.

С переходом к независимости в 1991 году Узбекистан стал сталкиваться с новыми вызовами, в том числе с необходимостью укрепления национальной идентичности. Важным аспектом стал вопрос воспитания духовных ценностей в контексте постсоветского периода, когда странам Центральной Азии, включая Узбекистан, предстояло пройти через процессы социального и культурного обновления. В этой ситуации молодежь оказалась на переднем крае борьбы за сохранение традиционных ценностей, а также адаптацию к глобализационным тенденциям.

Одной из значимых инициатив стала программа развития образования, направленная на укрепление духовных и культурных традиций. В частности, в Узбекистане был принят ряд законов, направленных на популяризацию исламской культуры, традиций народной мудрости и патриотизма.

Система образования в Узбекистане играет важную роль в формировании духовных ценностей среди молодежи. В учебных заведениях особое внимание уделяется обучению молодого поколения вопросам патриотизма, уважения к культуре и истории страны, а также основам исламской этики и морали.

Важным аспектом является также изучение истории Узбекистана, которое позволяет молодежи осознать значимость своего народа и его культурных достижений.

Сейчас в Узбекистане активно реализуются программы, направленные на воспитание уважения к национальным традициям и обрядам. Реформы в

образовательной сфере включают элементы религиозного воспитания, развитие школьных и университетских курсов по культурному наследию, а также изучение основ духовности и этики.

В эпоху глобализации, когда молодежь сталкивается с массой новых информационных и культурных воздействий, задача сохранения и укрепления духовных ценностей становится особенно актуальной. В Узбекистане молодежь все чаще сталкивается с культурными и идеологическими вызовами, такими как влияние западных ценностей, которые могут вступать в противоречие с традиционными исламскими и культурными ориентирами.

Формирование духовных ценностей молодежи в Узбекистане является важным элементом государственной политики, направленной на сохранение национальной идентичности, укрепление культурного наследия и воспитание гармонично развитого поколения.

Исторический контекст Узбекистана, богатый событиями, культурными достижениями и духовными традициями, служит основой для этого процесса. Узбекистан, расположенный на перекрестке Великого Шелкового пути, на протяжении тысячелетий был центром взаимодействия различных цивилизаций, религий и культур. [Абдуллаев., 2012, - С.94];

Это взаимодействие сформировало уникальные духовные ценности, такие как толерантность, уважение к другим народам, стремление к знаниям и гармонии.

Исторические личности, такие как Авиценна (Ибн Сина), Аль-Бухари, Аль-Фергани, Улугбек, Алишер Навои и Бахауддин Накшбанд, внесли неоценимый вклад в развитие не только узбекской, но и мировой культуры, науки и духовности. Их труды и идеи до сих пор изучаются и используются в образовательных програмах, что способствует формированию у молодежи уважения к науке, знаниям и духовным исканиям. Например, Авиценна, известный своими трудами в области медицины и философии, стал символом стремления к знаниям, а поэзия Алишера Навои воспитывает любовь к родному языку и культуре.

В современном Узбекистане государство активно поддерживает программы, направленные на сохранение и популяризацию исторического наследия. Это включает в себя образовательные инициативы, такие как изучение истории, литературы, традиций и культуры в школах и вузах. Особое внимание уделяется воспитанию молодежи в духе патриотизма, уважения к старшим, семейным ценностям и межнациональной гармонии. Например, в учебных программах широко представлены темы, связанные с историей Узбекистана, его культурным наследием и вкладом в мировую цивилизацию. [Халилова Р.М., 2015, - С.75];

Культурные мероприятия, такие как фестивали, выставки, конкурсы и научные конференции, также играют важную роль в формировании духовных ценностей. Например, ежегодно проводятся фестивали, посвященные наследию Алишера Навои, Амира Темура и других исторических личностей. Эти

мероприятия способствуют популяризации национальной культуры среди молодежи и укреплению их связи с историческими корнями.

Религия, в частности ислам, также играет значительную роль в формировании духовных ценностей. Ислам в Узбекистане имеет многовековую историю и тесно связан с культурой и традициями народа. Он проповедует такие ценности, как милосердие, справедливость, трудолюбие и уважение к другим. Однако государство уделяет особое внимание тому, чтобы молодежь воспринимала религию как часть культурного наследия, а не как инструмент радикализации.

В этом контексте важную роль играют образовательные программы, направленные на формирование критического мышления и понимания роли религии в истории и культуре.

Современные вызовы, такие как глобализация и цифровизация, также влияют на процесс формирования духовных ценностей. Молодежь Узбекистана активно использует современные технологии, что открывает новые возможности для образования и саморазвития. Однако это также требует усилий со стороны государства и общества для того, чтобы сохранить традиционные ценности и предотвратить негативное влияние глобализации. В этом контексте важную роль играют медиа и социальные сети, которые могут быть использованы для популяризации национальной культуры и духовных ценностей.

Роль системы образования в этом процессе неоценима, поскольку она помогает молодому поколению осознать важность своих корней и традиций, а также предоставляет платформу для освоения этических норм и духовных практик. В то же время, внедрение современных программ, направленных на воспитание уважения к национальным ценностям и укрепление национальной идентичности, помогает молодежи адаптироваться к вызовам глобализации.

Важным аспектом является взаимодействие государственных, религиозных и образовательных институтов, которые совместными усилиями способствуют формированию у молодежи целеустремленности, честности и ответственности, что является залогом стабильности общества и процветания Узбекистана в будущем.

В конечном итоге, гармоничное сочетание традиционных духовных ценностей и современных подходов к воспитанию будет способствовать развитию устойчивого и процветающего общества, где молодое поколение будет готово к встрече с глобальными вызовами, сохраняя при этом свою уникальную культурную и духовную идентичность.

Таким образом, формирование духовных ценностей молодежи в Узбекистане через призму истории представляет собой сложный и многогранный процесс, который включает в себя образовательные, культурные и религиозные аспекты. Это позволяет воспитывать поколение, которое ценит свое прошлое, стремится к знаниям и готово к диалогу с другими культурами. [Мирзиёев Ш.М., 2021, - С.55]; Историческое наследие Узбекистана служит основой для этого процесса, а современные образовательные и культурные инициативы помогают адаптировать его к вызовам XXI века

Список использованной литературы

1. Мирзиёев Ш.М. «Стратегия развития Узбекистана: приоритеты и перспективы». – Ташкент: Узбекистан, 2021.

2. Халилова Р.М. «Духовное наследие Узбекистана: традиции и современность». – Ташкент: Маънавият, 2015.

3. Абдуллаев Е.В. «Роль Великого Шелкового пути в формировании культурного наследия Центральной Азии». – Ташкент: Фан, 2012.

TARIXIY ONGNI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY G‘OYA FANINI O‘QITISHNING DOLZARBLIGI

Matchanova Barno Irkinovna
UrDPI, Milliy g‘oya va falsafa kafedrasi v.b dotsenti (PhD),
matchanovabarno@gmail.com
Saparbayeva Indiya Xamro qizi
UrDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Ma’naviyat asoslari) ta’lim yo‘nalishi magistranti, saparbayevaindiya@gmail.com

“Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir”
Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya. Ushbu tezisda milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari fanini o‘qitishning dolzarbligi hamda o‘qitilishidan ko‘zlangan maqsad, yoshlarni tarbiyalashda hamda ularni ma’nan yetuk qilib tarbiyalash, ularda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ma’naviyat, milliy g‘oya, vatanparvarlik, mafkura, farmon, qaror, qadriyat.

Аннотация. Рассматривается актуальность преподавания предмета “Основы национальной идеи и духовности”, а также его цели — воспитание молодежи, развитие их духовной зрелости и формирование чувства патриотизма.

Ключевые слова: духовность, национальная идея, патриотизм, идеология, указ, постановление, ценности.

Abstract. The relevance of teaching the subject “Fundamentals of National Ideology and Spirituality” is crucial for educating the youth. This subject is taught to develop spiritually mature young individuals and instill feelings of patriotism, national values, and self-awareness. Furthermore, through this subject, the goal is to impart the national ideology to the younger generation based on state decrees, resolutions, and ideology, thereby enriching their spiritual world.

Keywords: spirituality, national ideology, patriotism, ideology, decree, resolution, value.

Darhaqiqat har qanday jamiyat ham iqtisodiy ham ma’naviy jihatdan rivojlanib borsagina u chin ma’noda yuksak darajada rivojlangan davlatga aylanadi. Negaki davlat o‘z fuqarolarini qornini to‘ydiribgina qolmay ularning ongini ma’naviyatini ham oziqlantirib, to‘ldirib bormog‘i darkor shundagina bu davlatdan, bu yurtdan yurtiga sadoqatli, mehnatkash, ma’nan yetuk va vatanparvar insonlar yetishib chiqadi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yilning 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi o‘tkazilganligini ham alohida tilga olish lozim.

Yaqinda bo‘lib o‘tgan yirik tadbirlar – davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O‘zbekiston yoshlarining birinchi

forumi hamda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida ma’naviyat yo‘nalishidagi dolzarb vazifalar belgilab berildi. Negaki bu borada yechimini kutib turgan va o‘zgarishlar shamoli kirib bormagan masalalar ko‘pligini hisobga olgan holda, hamda milliy g‘oyaning mohiyatini to‘liq anglab yetmagan, eski mafkurani tasavvur qilib, bunga yuzaki qaraydiganlar ham yo‘q emas. Shu bois Prezidentimiz mamlakatimiz mafkurasining asosiy g‘oyasini ta’kidlab, biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslanganligini aytdilar. Yuqorida takidlangan milliy g‘oya, ezgulik, odamiylik va mafkura kabi so‘zlar o‘zi qanday ma’noni anglatishi hamda bu atamalarning tub mohiyati nima ekanligi aynan gumanitar fanlar sirasiga kiruvchi “Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari”, “Vatan tuyg‘usi” kabi fanlar orqali targ‘ib qilinib, hozirgi kunda esa “Tarbiya” fani orqali yoshlar ongiga to‘g‘ri va chuqur singdirilmoqda. Nafaqat bugungi kunda balki bu kabi chora tadbirlar ancha oldin ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning qaror va farmonlari hamda uning tashabbusi bilan amalga oshirilgan tadbirlar hamda islohotlarda ham o‘z aksini topgan edi. Jumladan I. Karimovning “Tafakkur” jurnali bosh muharriri, “Uzteleradiokompaniya” raisi savollariga javoblari va respublikamizning bir guruh tarixchi olimlari, shuningdek, matbuotchilar, jurnalistlar, adabiyotshunos olimlar bilan bo‘lgan suhbatlarida, Vazirlar Mahkamasining “Ma’naviy –ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” hamda “O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlarida yoshlarimiz ongida milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish, ularning ma’naviyatini milliy va umumbashariy qadriyatlat asosida yuksaltirish, o‘tgan ming yillar davomida ajdodlarimiz yaratgan shonli tariximiz haqidagi haqiqatlarni qayta tiklash va uning misolida yosh avlodni milliy iftixor,vatanparvarlik tuyg‘ulari ruhida tarbiyalash kabi g‘oyalar, vazifalar ham ta’lim tizimining oldida turgan dolzarb vazifalarga aylandi. [M.Hamdamova., 2008, - S. 224];

Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi. Ma’naviyat, mafkura, milliy g‘oya kabi tushunchalar qanday ma’noni anglatadi ularning mohiyatida nimalar yotadi?

Ma’naviyat so‘zi arabchadan olingan bo‘lib “ma'nolar majmui” degan ma’noni anglatadi.

[G.K. Masharipova,T.J.Xo‘janova., 2022. – S.9-10]; Uning asosida “ma’ni”, “ma’no” so‘zi yotadi va hozirga qadar bu so‘zga ko‘plab tariflar berilgan. Taniqli faylasuf A. Jalolov “Ma’naviyat” tushinchasiga “Ma’naviyat — insonning zot belgisi, faoliyatining ajralmas tarkibiy qismi, ongi, aql-zakovatining mahsuli” [Jalolov A., 1996. – S.9] — deb ta’kidlagan o‘zining “Mustaqillik mas’uliyati” nomli asarida va uning fikricha ma’naviyatsiz hayot qorong‘u xonaga o‘xshaydi. Darhaqiqat ma’naviyat inson ongini boyituvchi eng buyuk kuch shunday ekan u insonlarning hayot yo‘lini yoritguchi nur kabidir. Aynan mana shu haqiqatni teran anglab yetgan holda mamlakatimizda ta’lim tizmida xususan umumiy o‘rta ta’lim muassalarida bir qator o‘zgartirishlar amalga oshirildi. Masalan, maktablarda yangi “Tarbiya” fanini o‘qitishning joriy etilganligi va bu fan “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol

g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda yagona “Tarbiya” fani shakllantirish orqali tashkillashtirildi. Bu fan “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yilning 6-iyundagi 422-son qarori”ga [O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 06.07.2020-yildagi 422-son] muvofiq shakilda 2020-yilning 7-iyul sanasida qaror kuchga kirishi bilan maktablarda 1-9-sinflarda — 2020-2021-o‘quv yilidan, 10-11-sinflarda esa — 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etildi. Bu chora-tadbirlar Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslarini o‘qitishning dolzarbligi hamda bugungi kunda uni yanada takomillashtirish ishlari uzluksiz davom ettirilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki jamiyatda milliy g‘oya, vatanparvarlik, insoniylik kabi bir qator fazilatlarni shakllantirish va kamol toptirish hozirgi kundagi eng muhim hamda dolzarb masaladir. Aynan bu borada Prezidentimizning “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” deb nomlangan ma’ruzalari va asarlaridan olingan fikrlar to‘plamida ham alohida e’tibor qaratganlar va shunday ta’kidlab o‘tganlar: “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna solayotgan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishiga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”.[O.Salimov, Q.Quronboyev, M.Bekmurodov, L.Tangriyev., 2019. – S.83]; Chindan ham bu so‘zlar aynan biz nima uchun ma’naviyatimizni yuksaltirish borasida uzliksiz va tinimsiz chora tadbirlar amalga oshirayotganimizni ochib beradi. Shuning bilan birgalikda jamiyat taraqqiyotida, insonlarning farovon hayot kechirishida, kundalik hayotdagi g‘oya va mafkuralarni to‘g‘ri hamda teran tushinib yetishga o‘rgatadi. Umumiy o‘rta ta’lim muassalarida maxsus fanlarning joriy etilishi esa yoshlarni bolalikdan to‘g‘ri fikrlashga o‘rgatish hamda ularni turli yot g‘oyalardan himoya qilish bizning oliy maqsadimizni ifodalovchi jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.Hamdamova. Ma’naviyat asoslari (Barkamol avlodni tarbiyalashda uzluksiz ta’limni insonparvarlashtirish texnologiyasi). T., “Fan va texnologiya”, 2008.

2. Ma’naviyatshunoslik: barcha bakalavr ta’lim yo‘nalishlari uchun o‘quv darslik,
G.K.Masharipova, T.J.Xo‘janova – Toshkent: Fan ziyosi nashriyoti, 2022.

3.Jalolov A, Ma’naviyat ma’suliyati. – Toshkent: '”O‘qituvchi'”, 1996.

4.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 06.07.2020 yildagi 422-son.

5. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari, Nashrga tayyorlovchilar: O.Salimov, Q.Quronboyev, M.Bekmurodov, L.Tangriyev.—Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. 2019.

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA IJTIMOIY - GUMANITAR FANLARNI INNAVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB O‘QITISHNING NAZARIY VA HUQUQIY ASOSLARI

Matchanova Barno Irkinovna
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi v.b. dotsent (PhD),
matchanovabarno@gmail.com
Atoxonova Dilfuza Botirboy qizi
UrDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Ma’naviyat asoslari) ta’lim yo‘nalishi magistranti, atoxonovadilfuza@gmail.com
Matniyozov Mashxurbek Rustamovich
Shovot tumani Royat mahallasi hokim yordamchisi,
matniyozovmashhurbek@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda Yangi O‘zbekiston sharoitida ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning nazariy va huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar pedagogik metodlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tezisda milliy qonunchilik va xalqaro tajriba asosida ta’limni innovatsion yondashuvlar yordamida rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Innovatsion texnologiyalarning ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda tutgan o‘rni va ahamiyati, ularning ta’lim sifatiga ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsion pedagogik texnologiyalar, ijtimoiy-gumanitar fanlar, ta’lim sifati, nazariy asoslar, huquqiy asoslar, pedagogik metodlar, ta’lim innovatsiyalari, zamonaviy ta’lim, interfaol o‘qitish, raqamli texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и правовые основы использования инновационных педагогических технологий в преподавании социально-гуманитарных наук в условиях Новой Узбекистана. В современном образовательном процессе инновационные технологии способствуют повышению эффективности педагогических методов. Кроме того, в статье анализируются вопросы развития образования с применением инновационных подходов на основе национального законодательства и международного опыта. Рассматривается роль и значение инновационных технологий в преподавании социально-гуманитарных дисциплин, а также их влияние на качество образования.

Ключевые слова: Инновационные педагогические технологии, социально-гуманитарные науки, качество образования, теоретические основы, правовые основы, педагогические методы, образовательные инновации, современное образование, интерактивное обучение, цифровые технологии.

Abstract. This article analyzes the theoretical and legal foundations of using innovative pedagogical technologies in teaching social and humanitarian sciences in the context of New Uzbekistan. In the modern educational process, innovative technologies enhance the effectiveness of pedagogical methods. Additionally, the article examines the development of education through innovative approaches based on national legislation and international experience. The role and significance of

innovative technologies in teaching social and humanitarian disciplines, as well as their impact on the quality of education, are highlighted.

Keywords: Innovative pedagogical technologies, social and humanitarian sciences, education quality, theoretical foundations, legal foundations, pedagogical methods, educational innovations, modern education, interactive teaching, digital technologies.

Yangi O‘zbekiston sharoitida malakali kadrlar tayyorlash va ularni har tomonlama rivojlantirish yuqori malakali o‘qituvchi pedagoglarni tayyorlash bilan birga, yosh avlodga ta’lim - tarbiya berishni ham yuqori saviyada olib borish uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda. “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”. [Mirziyoyev Sh.M., 2016. S.69];

Shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoda bugungi kunda xalqimizning munosib hayot kechirishi, jahon talablari darajasida ta’lim olish va kasb egallashi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini yuksaltirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarori hamda Prezidentimizning 2022-yil 29-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq ta’lim bosqichlarining uzluksizligi va izchilligini ta’minlash, ta’limning zamonaviy metadologiyasini yaratish, davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarning yangi avlolodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur, innovatsion loyiha va tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish borasida qator vazifalar belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017-yil 20-aprelgi - Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirishni isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlarning ham mantiqiy davom, ham uni yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Qarorning eng muhim jihatlaridan biri, unda oliy malakali mutaxassislar tayyorlashda xalqaro standartlar mezoniga rioya qilish, uning darajasida shart-sharoit yaratish, ruh va talabiga mos zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratilgan. [https://lex.uz/ru/docs/-3765586];

Jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar asosida umumiy o‘rta ta’limning sifati va mazmuniga qo‘yiladigan talablarni ortib borishi, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlanishi hamda tadbirkorlik faoliyatini keng joriy qilishda o‘quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligi, ta’lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etilayotganligini inobatga olgan holda umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan ijtimoiy-gumanitar fanlar bugungi kun talablarini

inobatga olib ko‘p tarmoqli yo‘nalishlarga asoslangan holda uning mazmuni ishlab chiqilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida ta’limning uzluksizligi va uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va uning qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda tayanch va fanga oid kompetensiya shakllantirildi. O‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirish asosida ishlab chiqilgan o‘quv dasturi hamda amaldagi o‘quv dasturining qiyosiy tahliliga ko‘ra o‘quv dasturlariga o‘zgartirishlar kiritildi.

Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘quv dasturlari asosida mualliflar guruhi tomonidan darsliklarga 50%dan 70%gacha o‘zgartirishlar kiritilib nashr qilindi.

Shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda talaba (yoki o‘quvchi) larni faqat tayyor bilimlarni egallashga o‘rgatib kelingan edi. Bunday usul talaba (yoki o‘quvchi) larda mustaqil fiklash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so‘ndirar edi. Endi o‘quv jarayonini yangi dastur va standart talabalarini inobatga olgan holda zamonaviy darslar ko‘rinishida tashkil etish vaqti keldi. Xozirgi kunda zerikarli mashg‘ulotlar o‘rniga zamonaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishga qodir, bilimdon, metodik mahorati yuqori, mas’uliyatli, interfaol pedagogik texnologiyalarni mukammal o‘zlashtirib amaliyatda qo‘llay oladigan, innovatsiyalar asosida mashg‘ulotlarni tashkil eta oladigan o‘qituvchilarga bo‘lgan talab kundan-kunga oshib bormoqda.

Pedagogik jarayon - ta’lim masalalari, uning taraqqiyotini hal qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning maqsadli o‘zaro munosabatlaridir.

Shuning uchun ham, o‘quv tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari, interfaol uslublari, innovatsion pedagogik texnologiyalarning o‘rni va ahamiyati kattadir. Pedagogik texnologiyalarning ta’limda to‘g‘ri qo‘llanishi talabalarni bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta’minlaydi.

Pedagogik texnologiya – oldindan loyihalashtirilgan pedagogik jarayonni amaliyotda rejali va maromida tatbiq etish yoki pedagogik masalani yechishga qaratilgan pedagogning uzluksiz o‘zaro bog‘langan harakatlar tizimi.

“Pedagogik texnologiyaning maqsadi – ommaviy ta’lim sharoitida ta’lim jarayonining zaruriy samaradorligini ta’minlash va talabalar tomonidan o‘qishning ko‘zlangan natijalariga erishish kafolatidan iborat”.[Avliyaqulov.N.X, Musayeva N.N., 2012 - S.67];

Pedagogik texnologiyadan to‘g‘ri foydalanilsa o‘qituvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga erishishi oson bo‘ladi. O‘qitish jarayonida, maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishda ta’lim texnologiyasining to‘g‘ri tanlanishiga va undan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq.

Pedagogik maqsadning amalga oshishi ham kafolatlangan natijaga erishishi o‘qituvchining talabalar bilan hamkorlikdagi faoliyati, o‘qituvchi qo‘ygan maqsad, tanlagan mazmun, uslub, vosita, shakliga ya’ni texnologiyaga bog‘liqdir.

O‘qituvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashi uning ixtiyorida, chunki uning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab,

ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan: natijaga erishish uchun balki, darsda taqdimotdan foydalanish lozimdir, balki ko‘rgazmali qurollar bilan ishlash lozimdir, balki tarqatma materiallar, chizma va plakat, axborot texnologiyasi, turli adabiyotlar kerak bo‘lar. Bularning hammasi o‘qituvchi va talabalarga bog‘liq.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim tizimini takomillashtirish va malakali kadrlar tayyorlash strategik ahamiyat kasb etmoqda. Davlat tomonidan qabul qilingan qonun va farmonlar ta’lim jarayonining uzluksizligi, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va xalqaro standartlarga mos malakali mutaxassislar tayyorlashni ta’minlashga qaratilgan. An’anaviy ta’lim tizimidan kompetensiyaviy yondashuvga o‘tish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy izlanishi va tashabbuskorligini rivojlantirish maqsad qilingan. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va interfaol pedagogik metodlarni qo‘llay oladigan, mas’uliyatli va innovatsion fikrlovchi pedagoglarga bo‘lgan talab tobora ortib bormoqda. Shu sababli, ta’lim tizimi nafaqat bilim berishga, balki yosh avlodning zamonaviy ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2016-yil.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyunda qabul qilingan “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarorining Yo‘l xaritasi 11-bandi. https://lex.uz/ru/docs/-3765586.

3. Avliyaqulov N.X, Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya: - Toshkent, Cho‘lpon, 2012-y.

SHERMUXAMMAD MUNISNING “SAVODI TA’LIM” ASARIDA TA’LIM-TARBIYAGA OID G‘OYALAR

Sapayev G‘ulom Baxtiyarovich
UrDPI dotsenti, f.f.d. (PhD), sapayev11@mail.com
Shakirova Lobar Abduraxim qizi
UrDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Ma’naviyat asoslari) ta’lim yo‘nalishi magistranti, shakirovalobar@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda shoir Munis Xorazmiyning ma’rifatparvarlik va pedagogik qarashlari yoritilgan bo‘lib, ta’lim-tarbiyaning va ilm-fanning jamiyat farovonligini ta’minlashda hamda mamlakat taraqqiyotidagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan. Shuningdek, Munisning yoshlarni ilmli va kasb-hunarli bo‘lishga da’vat etuvchi g‘oyalari, ilm-ma’rifat ahllarini qadrlashga oid qarashlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Munis, ma’naviy me’ros, ma’rifatparvarlik, ta’lim, ilm-fan, “Savodi ta’lim”, “xaftiyak”, yozuv va xusnixat, pedagogika, odob-axloq, ijtimoiy adolatsizlik.

Аннотация. В статье освещены учебно-воспитательные и просветительские взгляды поэта Муниса Хорезми, указана значимость науки и просвещения в развитии общества и государства в целом. Проанализированы идеи Муниса, призывающие молодёжь к овладению знаний, профессий, а также к почтенности по отношению к интеллигенции.

Ключевые слова: Мунис, духовное наследие, просветительство, образования, наука и знания, “Саводи таълим”, «хафтияк», письменность и каллиграфия, педагогика, этика, социальное несправедливости.

Abstract. This article covers the educational and enlightenment views of the poet Munis Khorezmi and shows the importance of science and education in the development of society and the country. It also includes Munis`s ideas which encourage the youth to be educated and occupated, appreciate the scientist, teachers and poets.

Keywords.Munis spiritual inheritance, enlightenment, education, science, socio-ethical views, “Savodi ta’lim”, "Xaftiyak", handwriting and calligraphy, pedagogics, morality, social injustice.

Har bir mamlakat taraqqiyotini, jamiyat farovonligini ilm-fan rivojisiz, ma’rifatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Tarixda ham, bugungi davrda ham barcha rivojlangan davlatlar ilmga, ta’lim-tarbiyaga e’tibor berish, ma’naviy-ma’rifiy sohani rivojlantirish orqali ulkan yutuq va zafarlarga erishgan, yosh avlod esa ilm-fanning yuksak cho‘qqilariga erishgan. Shu sababli, bunday davlat va jamiyatda ilm-fan va ma’rifat ahli qadrlanib, ziyolilar va kasb-hunar egalari e’zozlanib kelingan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berish ishlari eng oldingi o‘rinlardan biri bo‘lgan. Bu esa jamiyat farovonligi va mamlakat taraqqiyotining chinakam lakamativi bo‘la oladigan ilmli, iqtidorli, yangicha va zamonaviy fikrlaydigan, ma’nan va jismonan yetuk kadrlar yetishib chiqishiga zamin yaratadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri

yo‘ldan adashish bo‘ladi”. [O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2020-y. 25-yanvar, 19-son];

Ushbu haqiqat nafaqat bugungi kun uchun, balki o‘tmishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, buyuk mutafakkirlar, siyosatchilar, shoiru-yozuvchilar ijodining asosiy mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Xususan, Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan ko‘plab allomalar, ma’rifatparvar olimlar va ijodkorlar o‘z asarlarida ma’rifatga, jamiyatni ziyoli qilishga, kasb-korga ega bo‘lish va ilmli bo‘lishga, yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga katta e’tibor berishgan. Mutafakkirlar o‘z asarlarida ma’rifatparvarlik g‘oya va qarashlarini ilgari surib, qashshoqlik va jaholat botqog‘idan qutulishning yagona yo‘li ilm-ma’rifat deb bilishgan.

Ana shunday ilg‘or ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan Markaziy Osiyo tafakkuri tarixida katta o‘ringa ega, asarlarida ilm-ma’rifatni, ta’limni da’vat etgan mutafakkirlardan biri Shermuxammad Munis (Xorazmiy tax.)dir (1778-1829). U XVIII-XIX asrlarda Xorazmda yashab ijod etgan tarixchi, tarjimon, xattot, pedagog, shoir va ma’rifatni targ‘ib qilgan olimlardan hisoblanadi.

Munis yaratgan boy ilmiy merosi bugungi yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan kamol toptirishda muhim tarbiyaviy o‘ringa egadir. Shu bois ham uning ijodini, ma’naviy merosini o‘rganish, ayniqsa ta’lim-tarbiya, ilm, kasb-hunar va insoniy fazilatlarga oid qarashlarini tadqiq qilish hamda keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib qilish bugunning dolzarb vazifasidir.

Munis ma’rifatparvar olim sifatida XVIII-XIX asrning ilg‘or tarixchisi, tarjimoni va mohir hattoti bo‘lib qolmay, o‘z davrining zabardast shoiri va pedagogi edi. Mutafakkir dunyoqarashi va g‘oyalarining tarbiyaviy-ma’rifiy jihati shundaki, uning asarlari va ijodida yoshlar ta’lim-tarbiyasi, o‘qish, yozish, ilm o‘rganish va kasb-hunar, xalq savodxonligimasalalariga katta e’tibor berib, jamiyatda ilm-ma’rifatning ahamiyatini ko‘rsatib berdi. U xalqning ma’rifatli va savodli bo‘lishi nafaqat jamiyat yoki insonlarning o‘zi uchun, balki mamlakatning kelajak istiqboli, taraqqiyoti aynan ilm-fan rivojiga bog‘liq deb hisoblaydi.

Munisning ta’lim-tarbiya va ma’rifatga bag‘ishlangan yirik asarlaridan biri “Savodi ta’lim” bo‘lib, unda shoir o‘zining ilm-fan, maktab, o‘quv-tarbiyaga doir fikr-mulohazalarini batafsil yoritgan. She’rlarida esa, tarbiya masalalari zarurligini uqtirdi, insonga xos yuksak fazilatlarni ilm orqali tarbiyalash lozimligini ko‘rsatib bergan. [Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H., 1997. – S.122]; Albatta, “Savodi ta’lim” asari yozuv va hattotlik ilmiga bag‘ishlangan bo‘lsada, tadqiqotchi olim N.Jumayev aytganidek, “unda Munisning ustod Ibn Hojib haqida, yozuvning madaniyat taraqqiyotidagi o‘rni, xususan, husnihat ta’limi va, umuman ta’lim-tarbiya to‘g‘risidagi qimmatli fikrlari mavjud”. [Nusratullo Atoullo o‘g‘li Jumaxo‘ja, 1997. – S.3];

Ushbu asarida mutafakkir ilm olish va ma’rifatli bo‘lishda xat-savodning hamda yozuvning roli katta ekanligini, jamiyatda har bir kishi eng avvalo o‘qish va yozishni, ayniqsa chiroyli, xusnixat bilan yozishni bilmog‘i kerakligini uqtiradi. Chunki, o‘qish va yozishni bilish kishining tarbiyali, ilmli va ma’rifatli bo‘lish yo‘lidagi dastlabki muhim qadam, boshqacha aytganda, ta’limdagi muvaffaqiyat garovidir deb hisoblaydi. Shoir yozuvni jamiyat taraqqiyotining zaruriy hodisasi deb baholagan:

Har so‘zki, ko‘nguldin o‘ldi mavjud,
Xat bo‘lmasa, bo‘lg‘ay erdi nobud. [Nusratullo Atoullo o‘g‘li Jumaxo‘ja, 1997. – S.3];

Munis inson xatiga qarab uning ilmga bo‘lgan munosabatini bilish mumkinligini aytib, husnihatning, ya’ni yozuvning ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatini ko‘rsatib beradi:

Xattidin o‘lub xujasta ta’lim,
Ta’lim fani xatig‘a taslim.
Sharmanda xati sabz xatlar,
Xol ofati xatida nuqatlar.
Ta’lim berur na bir raqamdin,
Xat yozmoq ishi yetti qalamdin. [Munis., 1980. – S.332];

Munisning ta’lim va ma’rifatparvarlik g‘oyalarining ahamiyatli jihati shundaki, asarlarida ilm ahli va qalam sohiblari (shoir, yozuvchi, hattot, kotib va hokazo) ni yuksak qadrlangan, ularni ulug‘ va sharafli kasb deb biladi, ziyo tarqatuvchi kishilarni doim e’zozlashini targ‘ib qilgan:

Ilm ahli nasibi andin afzun,
Jahl ahli aning g‘amidin mahzun.
Olam ishi intizomi andin,
Olam elining nizomi andin. [Nusratullo Atoullo o‘g‘li Jumaxo‘ja, 1997. – S.3];

Bunday kishilar esa o‘z kasblarida faxrlanish lozim deb hisoblaydi:

Ey ahli qalamliq etgan isbot,
Lozimdurur aylasang mubohot. [Nusratullo Atoullo o‘g‘li Jumaxo‘ja, 1997. – S.3];

Shoirning ushbu fikrlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, davr jaholati va ziddiyatiga qaramasdan, bilim olishni da’vat etdi, ilmsiz va ma’rifatsizlikni tanqid qildi, buning sabablarini oshkor qilib, o‘z zamondoshlarini ayblaydi. Tadqiqotchi S.Hasanov aytganidek, “U reaksiya va jaholat kuchaygan bir vaziyatda poeziya bayrog‘ini yuksaklikka, ma’rifatning targ‘ibotchisi darajasiga ko‘tarildi. [S.Hasanov., 1985. – S.31];

Ma’rifatparvar olim murakkab ijtimoiy-siyosiy tuzum va og‘ir sharoitning guvohi bo‘lib yashar ekan, bu jaholat va zulmning asosiy sababini ma’rifatsizlikda, og‘ir turmushni ilmsiz va kasb-hunarsizlikda deb biladi.

Munis ilm-ma’rifatli va kasb-hunarga ega bo‘lishlikni targ‘ib qilar ekan, ta’lim olish va bilimli bo‘lishning eng maqbul vaqti “vasli shabob”, ya’ni yoshlik davri ekanligini, shuning uchun bu fursatni g‘animat bilib foydalanib qolishlikni ta’kidlaydi:

Kamol kasbida, Munis, shitob qilki, erur,
Hayot fursatikim, bedarang fasli shabob. [V.A.Abdullayev., 1980. – S.235];

Mutafakkirning pedagogik qarashlarida o‘sha davrda ta’lim maskanlari faoliyati va ulardagi o‘qitish hamda bilim berish metodlariga ham alohida urg‘u beriladi. Ayniqsa, maktab va madrasalardagi o‘zlashtirish qiyin bo‘lgan sxalastik bilim berish usullari haqida to‘xtalib, bolaning savod chiqarish, ya’ni o‘qish va yozish bo‘yicha ta’lim berishning eskirgan metodlarini qoralaydi, alohida metodik qo‘llanmalarning yo‘qligini tanqid qiladi. Chunki, bolalar birdaniga “Haftiyak”dan o‘qishni boshlar va

arab tilini esa tushunmaganliklari uchun “Qur’on” suralarini ko‘r-ko‘rona yodlar, natijada savodini tez chiqara olmas edilar. Shu sabab bo‘lsa kerak, tadqiqotchi olim S.Hasanov ayganidek, “Munis o‘z davrining pedagog olimi sifatida, bolalarning xat-savod chiqarishlarini, ilm o‘rganishlarini bir qadar osonlashtirish maqsadida o‘zining “Savodi ta’lim” yoki “Risolai savod” asari(1803)ni yaratdi”.. [S.Hasanov., 1985. – S.29];

Bu asarda til, yozuv va husnixatning jamiyat hayotidagi o‘rnini, ma’naviy boyliklarni boyitishda va kelajak avlodga yetkazishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Munis fikricha, yozuv va xat tufayli kishilik jamiyatida muvaffaqiyatlarga erishilmoqda, u bo‘lmasa ma’naviy yutuq va ilmiy boyliklar kelajak avlodga yetkazilmagan bo‘lar edi:

Har so‘zki, ko‘nguldin o‘ldi mavjud,
Xat bo‘lmasa, bo‘lg‘ay erdi nobud...
Xat aylar o‘z ahlini mukarram,
Hattig‘a chekib ulusni har dam. [Munis. Saylanma. 1980. – S.334];

Munisning falsafiy-didaktik asarlarida odob-axloq masalalari ham alohida o‘ringa ega bo‘lib, insoniy fazilatlarni shakllantirishda bilim va ta’lim-tarbiyaning roli ko‘rsatib berilgan. Bu masalada shoirning asosiy maqsadi insoning baxtli yashashi va kamolga yetishi bo‘lgan. U o‘z g‘oyalarida rostgo‘ylik, adolat, mardlik, saxiylik, xalparvarlik va vatanparvarlik, sadoqat va vafo, muhabbat kabi insoniy qadriyatlarni yuksak qadrlab, kishini bunday fazilatlarga ega qilib tarbiyalashda ilmning o‘rni katta ekanligini ta’kidlaydi.

Umuman, shoir asarlarida asosan go‘zallik, ishq-muhabbat tuyg‘ulari ifodalangan bo‘lsa-da, uning ijodida yoshlarning ta’lim olishi va to‘g‘ri tarbiyalanishi, ilm-fanni o‘rganish, jamiyatda inson qadri va nufuzi uning bilimi hamda kasb-hunari bilan belgilanishi kabi ma’rifiy fikrlar katta o‘rinni egallaydi. Munisning bunday g‘oyalari nafaqat u yashagan jaholat ustun bo‘lgan, ilmli kishilar kam va ma’naviy qashshoqlik avj olayotgan davrda, balki bugungi zamonaviy jamiyatda ham katta ma’rifiy ahamiyatga egadir.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, eng avvalo Munis ijodida ma’rifatparvarlik qarashlar, xususan ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalar asosiy o‘rinda bo‘lib, ilm-ma’rifatga e’tibor buyuk kelajak sari qo‘yilgan eng muhim qadam va omil deb bilgan. Zero, shoir nazarida bilim hayotdagi har qanday qiyinchilik va muammolarni yengishga, maqsadlarga erishishga ko‘mak beradigan qudratli kuchdir. Ikkinchidan, har qanday davlat va jamiyat rivojining negizida ilm-ma’rifat yotadi deb hisoblagan. Shu sababli davlat amaldorlari va fuqarolar jamiyatning ziyoli qatlamlarini doim qo‘llab quvvatlashlari, qadrlab e’zozlashlari lozimligini uqtiradi. Uchinchidan esa, Munis nazarida jamiyatdagi qashshoqlikning, ijtimoiy-iqtisodiy tanazzulning va jaholatning asosiy sababchisi savodsizlik va bilimsizlikdir. Shu sababli, ota-onalarni o‘z farzandlariga yoshlikdan yaxshi bilim va to‘g‘ri tarbiya berishlari, jamiyat tomonidan yosh avlodni bilimli bo‘lishga katta e’tibor berishga da’vat etadi. To‘rtinchidan, Munis yoshlarga qarata o‘qish va yozishni bilishi, ilm o‘rganishlari va ma’rifatli bo‘lishlariga, yaxshi kasb-hunarga egallashlarini da’vat etadi. Chunki, bu nafaqat hayotda baxtli va yaxshi hayot kechirish omili, balki, inson qadri va hurmati

uning ilmi-ma’rifati xamda jamiyat uchun foydali kasb-hunari bilan o‘lchanadi deb hisoblaydi.

Shunday ekan, biz bugungi yoshlar ta’lim-tarbiyasida, ularni ham ma’nan, ham jismonan sog‘lom qilib voyaga yetkazishda o‘tmishda ijod qilgan Munis kabi ma’rifatparvar olimlarimiz me’rosidan ma’naviy vosita sifatida foydalanishim lozim. Yosh avlod ongiga milliy tarbiya an’analarini singdirish, ularni tarbiya borasidagi ota-bobolarimizning tajribalaridan barhamand etish muhim ahamiyatga egadir. Ayniqsa, maktablarda o‘quvchilarida zamonaviy axloqiy tarbiyani shakllantirishda, ilm-fan cho‘qqilarini va kasb-hunarni egallashga intilish, ular qalbida yaxshilik va ezgulik, vatanga mehr qo‘yish sifatlarini shakllantirishda Munisning tarbiyaviy va ilmiy-didaktik qarashlari ahamiyati kattadir.

Muxtasar qilib aytganda, jamiyat taraqqiyoti ilmiy-ma’rifiy islohotlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma’rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz.” [O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi 2020-y. 25-yanvar, 19-son];

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. “Xalq so‘zi” gazetasi 2020 y. 25 yanvar 19-son.
2. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Hamidov H. “Pedagogika tarixi”. Toshkent: “O‘qituvchi”, 1997.
3. Munis Shermuhammad. Savodi ta’lim: (Adabiyot o‘qituvchilari uchun qo‘llanma) / Nashrga tayyorlovchi, so‘zboshi va izohlar muallifi: Nusratullo Atoullo o‘g‘li Jumaxo‘ja. – Toshkent: O‘qituvchi, 1997.
4. Munis. Saylanma. G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, T.: 1980.
5. S.Hasanov. “Xorazm mutafakkirlari ta’lim tarbiya to‘g‘risida” T.: “O‘qituvchi”, 1985.
6. V.A.Abdullayev. O‘zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. T.: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1980.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ORQALI IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISH: QIYINCHILIKLAR VA INNOVATSION YECHIMLAR

Xudaybergenov Kudrat Baxtiyarovich
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi, qtpower2504@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu maqolada VR/AR texnologiyalari, onlayn ta’lim platformalari, gamifikatsiya va loyihaviy ta’lim kabi innovatsion yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, interfaol o‘quv metodlari talabalar motivatsiyasini oshiradi, bilimlarni o‘zlashtirish darajasini yaxshilaydi va mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

Аннотация. Современные педагогические технологии создают новые возможности в преподавании социально-гуманитарных наук. В данной статье рассматривается эффективность таких инновационных подходов, как VR/AR-технологии, онлайн-образовательные платформы, геймификация и проектное обучение. Результаты исследований показывают, что интерактивные методы обучения повышают мотивацию студентов, улучшают усвоение знаний и развивают критическое мышление.

Abstract. Modern pedagogical technologies are creating new opportunities for teaching social and humanitarian sciences. This article analyzes the effectiveness of innovative approaches such as VR/AR technologies, online educational platforms, gamification, and project-based learning. Research results indicate that interactive learning methods enhance student motivation, improve knowledge retention, and develop critical thinking skills.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy pedagogika, interfaol ta’lim, VR/AR, onlayn ta’lim platformalari, gamifikatsiya, loyihaviy ta’lim, ijtimoiy-gumanitar fanlar.

Ключевые слова: Современная педагогика, интерактивное обучение, VR/AR, онлайн-образовательные платформы, геймификация, проектное обучение, социально-гуманитарные науки.

Keywords: Modern pedagogy, interactive learning, VR/AR, online learning platforms, gamification, project-based learning, social and humanitarian sciences.

Kirish.

Zamonaviy texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimini tubdan o‘zgartirib, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda ham yangi metod va vositalarni talab qilmoqda. Ushbu fanlar insoniyatning madaniy, ijtimoiy, falsafiy va tarixiy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida ularni samarali o‘qitish dolzarb masalalardan biridir. Biroq, bu jarayonda qator qiyinchiliklar mavjud bo‘lib, ularni innovatsion yondashuvlar bilan yengish mumkin. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishga ta’siri, mavjud muammolar va ularni hal qilish yo‘llari tahlil qilinadi.

Qiyinchiliklar

1. Fanlarning murakkabligi va mavhumligi Ijtimoiy-gumanitar fanlar ko‘pincha nazariy tushunchalar va mavhum g‘oyalarga asoslangan bo‘lib, ularni tushunish va amaliyotda qo‘llash qiyin kechadi. Masalan, falsafa yoki sotsiologiya fanlarida abstrakt tushunchalarni tushuntirish va ularni real hayot bilan bog‘lash muammosi mavjud [1, 45-b.]. Talabalar ushbu mavzularni tushunishda qiynalib, ularning amaliy ahamiyatini anglashda qiyinchiliklarga duch keladilar.

2. Texnologiyalarni qo‘llashdagi cheklovlar va pedagogik tayyorgarlikning yetarli emasligi Ba’zi o‘qituvchilar zamonaviy texnologiyalarni samarali qo‘llashda yetarlicha bilim va tajribaga ega emas. Masalan, interfaol ta’lim platformalaridan foydalanish yoki raqamli ta’lim vositalarini yaratish bo‘yicha yetarli malaka shakllanmagan. Tadqiqotlarga ko‘ra, pedagogik texnologiyalarni samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarning doimiy qayta tayyorlanishi zarur [2, 112-b.]. Bundan tashqari, ba’zi ta’lim muassasalarida texnologik infratuzilma yetarlicha rivojlanmaganligi sababli interfaol darslar tashkil etish qiyinlashadi.

3. Talabalarning motivatsiyasi va ishtiroki yetishmovchiligi Ko‘plab talabalar ijtimoiy-gumanitar fanlarni amaliy hayot bilan bog‘lashda qiynaladilar va ushbu fanlarning muhimligini yetarli darajada anglamaydilar. Masalan, talabalar tarix yoki falsafa fanlarini nazariy fan sifatida qabul qilib, ularni o‘z kasbiy faoliyatlarida qo‘llash imkoniyati cheklangan deb hisoblashadi [3, 78-b.]. Natijada, bu fanlarga bo‘lgan qiziqish pasayadi va passiv ishtirok kuzatiladi.

4. Resurslarning yetishmovchiligi va texnologik ta’minotdagi muammolar Ba’zi ta’lim muassasalarida zamonaviy texnologiyalar yetarlicha emas. Bu esa o‘qitish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, ayrim universitetlarda kompyuter laboratoriyalari yoki yuqori tezlikdagi internet yetishmovchiligi sababli interfaol darslar tashkil etish cheklangan [4, 89-b.]. Bundan tashqari, elektron darsliklar va onlayn resurslarning yo‘qligi ham ta’lim sifati pasayishiga olib kelishi mumkin.

5. Baholash tizimidagi muammolar An’anaviy baholash tizimlari talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini to‘liq aks ettira olmaydi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda ko‘pincha esse va tahliliy yozma ishlar talab etiladi, biroq ko‘plab ta’lim muassasalarida baholash jarayoni testlar va standartlashtirilgan topshiriqlar bilan cheklanadi [5, 102-b.]. Bu esa talabalar ijodiy va tanqidiy fikrlashiga yetarlicha rag‘bat bermaydi.

Innovatsion yechimlar

1. Interfaol o‘quv usullari Virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalari (VR/AR) yordamida tarixiy hodisalar, madaniy yodgorliklar yoki ijtimoiy jarayonlarni vizual va interfaol tarzda namoyish etish mumkin. Tadqiqotlarga ko‘ra, VR texnologiyalari yordamida tarixiy joylarni virtual ekskursiyalar orqali o‘rganish talabalarning bilim darajasini sezilarli oshirgan [6, 134-b.]. Bundan tashqari, muhokama klublari, debatlar, keys-stadi (case study) va rolda o‘ynash kabi interfaol metodlar ham talabalarning faol ishtirokini ta’minlashda samarali hisoblanadi.

2. Onlayn platformalar va resurslar MOOC (Massive Open Online Courses) va boshqa onlayn resurslardan foydalanish orqali talabalar o‘z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin. Onlayn ta’lim resurslari talabalarning o‘rganish

jarayonini individualizatsiya qilish imkoniyatini yaratadi [7, 211-b.]. Bundan tashqari, Coursera, EdX, Khan Academy kabi xalqaro platformalar hamda O‘zbekistonning Ziyonet kabi mahalliy platformalari ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin.

3. Gamifikatsiya O‘quv jarayoniga o‘yin elementlarini kiritish orqali talabalarning motivatsiyasini oshirish mumkin. Misol uchun, tarixiy hodisalar yoki adabiy asarlar asosida yaratilgan o‘yinlar orqali bilimlarni mustahkamlash. Tadqiqotlar gamifikatsiyani ta’limda qo‘llash samaradorligini tasdiqlaydi [8, 67-b.]. Shu bilan birga, ball to‘plash, reyting tizimi, missiyalar va virtual mukofotlar ham o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi.

4. Loyihalar asosida ta’lim Talabalarga ijtimoiy-gumanitar fanlar bo‘yicha loyihalar ishlab chiqishga topshiriqlar berish orqali ularning tanqidiy fikrlash va tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Tadqiqotlarga ko‘ra, loyihalar asosida ta’lim talabalarning kreativligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi [9, 190-b.]. Masalan, tarixiy shaxslar haqida video tayyorlash, huquqiy muammolar bo‘yicha tadqiqot olib borish yoki sotsiologik so‘rovnomalar o‘tkazish talabalarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

5. Sun’iy intellekt yordamida individualizatsiya Sun’iy intellekt (AI) texnologiyalari o‘quv jarayonini individualizatsiya qilishda katta imkoniyatlarga ega. AI asosidagi adaptiv ta’lim platformalari har bir talabaning bilim darajasi, o‘rganish sur’ati va individual ehtiyojlarini aniqlash orqali ularga moslashtirilgan o‘quv materiallari, topshiriqlar va testlar taklif etadi [10, 78-b.]. Masalan, **Coursera, EdX, Khan Academy** kabi platformalar AI algoritmlaridan foydalangan holda foydalanuvchilarga mos darsliklar va mashqlarni tavsiya qiladi.

AI vositalaridan biri — **intellektual repetitor tizimlari** (Intelligent Tutoring Systems, ITS) bo‘lib, ular real vaqtda talabaning javoblarini tahlil qiladi va qiyinchiliklarni aniqlab, tushunarsiz bo‘limlarni qayta o‘rgatadi. Masalan, **Carnegie Learning** kompaniyasining AI asosidagi repetitorlari matematika va tilshunoslik bo‘yicha talabalar muvaffaqiyatini sezilarli oshirganligi aniqlangan.

Bundan tashqari, **AI chat-botlar** va virtual yordamchilar (masalan, **ChatGPT, IBM Watson**) talabalar savollariga javob berib, ularning mustaqil ta’lim jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. Ushbu tizimlar o‘qituvchilarning yukini kamaytiradi va talabalarga o‘zlariga qulay vaqtda bilim olish imkoniyatini beradi.

AI asosidagi ta’lim tizimlari shuningdek, **natural tilni qayta ishlash (NLP)** texnologiyalaridan foydalangan holda talabalar yozgan esse va tadqiqot ishlarini baholashi, grammatik xatolarni aniqlashi va tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam berishi mumkin. Misol uchun, **Grammarly** va **Turnitin** kabi tizimlar nafaqat grammatik xatolarni tuzatadi, balki plagiatni tekshirish va yozma ishlarning sifatini oshirishda ham foydali vositalar hisoblanadi.

AI texnologiyalarini joriy etish orqali talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularga individual yondashuvni yo‘lga qo‘yish va o‘quv jarayonini yanada samarali qilish mumkin. Shu bilan birga, bu tizimlarning rivojlanishi o‘qituvchilarni yangilangan pedagogik usullarni o‘zlashtirishga undaydi, bu esa ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Smith, J. (2020). *Challenges in Teaching Social Sciences: A Theoretical Perspective*. Journal of Educational Research, p. 45.
2. Anderson, L. (2019). *Integrating Technology in Education: Barriers and Solutions*. TechEd Journal, p. 112.
3. Brown, T. (2021). *Student Motivation in Humanities: A Case Study*. International Journal of Learning, p. 78.
4. Johnson, R. (2022). *Resource Limitations in Modern Education*. Educational Policy Review, p. 89.
5. Lee, S. (2021). *Virtual Reality in History Education: A New Frontier*. Journal of Innovative Teaching, p. 134.
6. Gates, B. (2020). *The Role of MOOCs in Modern Education*. Online Learning Journal, p. 211.
7. Deterding, S. (2019). *Gamification in Education: Theory and Practice*. Game-Based Learning Review, p. 67.
8. Thomas, D. (2022). *Project-Based Learning in Social Sciences*. Educational Innovations, p. 190.
9. Zhang, W. (2023). *AI in Education: Personalized Learning Approaches*. AI and Education Journal, p. 78.

YOSHLARDA MILLIY ONG VA MA’NAVIY TARBIYA G‘OYASINI SHAKLLANISHIDA JADIDCHILAR ASARLARINING AHAMIYATI

Kutlimuratov Sardorbek Rustamovich
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi katta o‘qituvchisi,
kutlimuratovsardor@gmail.com
Alimboyeva Mohinur Muxtorbek qizi
UrDPI, Filologiya va tarix fakulteti 1-bosqich talabasi,
alimboyevamohinur@gmail.com

“Jadidlar g‘oyasi - Yangi O‘zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg‘un va hamohang”. Shavkat Mirziyoyev.

Annotatsiya. Ushbu tezisda Turkistonda ma’rifatparvarlik g‘oyalarining shakllanish jarayoni hamda jadidchilik harakati namoyondalarining milliy ong va ma’naviy tarbiyaning rivojlanishidagi roli tahlil etilgan. Jumladan, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Cho‘lpon kabi yetuk ma’rifatparvar adiblarimizning asarlari kelajagimiz bunyodkori bo‘lgan yoshlarni har tomonlama yetuk, sog‘lom va barkamol inson qilib tarbiyalashdagi ahamiyati tadqiq qilingan. Shuningdek, bugungi kunda dunyoda mafkuraviy kurashlar avj olgan bir sharoitda yoshlarimizning ogohligi, sezgirligi va ma’naviy uyg‘oqligini oshirish masalalariga ham alohida e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Jadid, ta’lim, tarbiya, ma’naviy tarbiya, ma’rifatparvarlik, milliy ong, adib, milliy g‘urur, vatanparvarlik.

Аннотация. В данном тезисе анализируется процесс формирования идей Просвещения в Туркестане, а также роль деятелей джадидистского движения в развитии национального сознания и духовного воспитания. В частности, были исследованы работы таких зрелых ученых-просветителей, как Абдулла Кадыри, Абдулла авлони, махмудходжа бехбуди, Чулпан, значение которых для воспитания молодежи-созидателей нашего будущего-во всех отношениях зрелыми, здоровыми и гармоничными людьми. Также особое внимание уделяется вопросам повышения бдительности, чуткости и духовного пробуждения нашей молодежи в условиях сегодняшней глобализации, в условиях обострения идеологической борьбы в мире.

Ключевые слова: Джадид, духовное воспитание, “день и ночь”, “прошедшие дни”, “Падаркуш”, воспитание, образование и воспитание, просвещение, “Темур саганаси", Абдурауф Фитрат

Abstract. This thesis has analyzed the process of formation of enlightenment ideas in Turkestan and the development of national consciousness and spirituality of the body of the body. In particular, the importance of our future enlightened writers such as Abdulla Qodiri, Mahmudkhoja Behumani, Cholpon's works of our future are the importance of young people in fully, healthy and well-harmed people. Also, during today's globalization, special attention is paid to the awareness, sensitivity and spiritual awakening of our youth in the context of the growing conditions.

Keywords: Jadid, spiritual education, "Last days", "Padarkush", "Padarkush", "Padarkush", Education, Education and Education, "Temur Sagurati", "Temur Sagurat", Abdurauf Fitrat

Milliy ong va ma’naviy tarbiya har qanday jamiyatning madaniy va ma’naviy taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “... yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda ta’lim-tarbiya - bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda” - degan fikrlari ta’lim va tarbiyaning jamiyat kelajagidagi beqiyos ahamiyatini ko‘rsatib beradi. [Мирзиёев Ш.М., 2017. – Б.504-505];

Bugungi kunda yosh avlodning tarixiy xotirasini mustahkamlash, milliy qadriyat va an’analarimizni anglash va ma’naviyatini yuksaltirish dolzarb vazifalardan biridir. Bu jarayonda jadidchilik harakati va uning namoyondalari katta o‘rin tutadi. Jadid bobolarimiz Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxanov va shu kabi boshqalar o‘z asarlari orqali xalqni ilm-ma’rifatga, taraqqiyotga, milliy o‘zlikni anglashga chorlaganlar. Ular o‘zbek xalqining ruhiy uyg‘onishi, zamonaviy dunyoqarashga ega bo‘lishi, yetuklikka erishish yo‘lida beqiyos xizmat qilganlar. Bugungi kun yoshlarining milliy g‘ururini shakllantirishda va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jadidlarning ilmiy, adabiy merosi muhim manbalardan biri hisoblanadi.

“Jadidchilik harakati XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim-tatar xalqlari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy harakatdir. Jadidchilik dastlab, XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga kelgan harakatdir. XIX asrning 90-yillaridan boshlab esa ushbu harakat O‘rta Osiyo hududida ham keng tarqala boshlaydi”. [Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, 1999. – S.45]; Jadidchilik harakati vakillari o‘zlarining ma’rifatparvarlik mafkurasiga bir tomondan o‘sha davr uchun dolzarb bo‘lgan demokratik g‘oyalarni ya’ni ilm o‘rganish, fan va texnika yutuqlaridan bahramand bo‘lish, so‘z va fikr erkinligini joriy qilish, adabiyot va san’at kabi zamonaviy janrlarni rivojlantirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa mustamlakachilik siyosati ta’siri ostida milliy o‘zlikni anglash, milliy ong, milliy tafakkur va diniy e’tiqodlarni mustahkamlash kabi g‘oyalarni asos qilib olganlar. Yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda badiiy asarlarning o‘rni juda katta ahamiyat kasb etadi. Yaqin o‘tmishda yashab o‘tgan ma’rifatparvar adiblarimiz asarlari bugungi kun yoshlarining hayoti va ma’naviy tarbiyasi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shu o‘rinda ma’naviy tarbiyanig o‘zi nima degan savol tug‘iladi? Ma’naviy tarbiya bu - inson irodasi, ma’naviy olami, tafakkuri va dunyoqarashining zamon talablari darajasida shakllanishini tushinamiz. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilar ekan, buning negizida kelajagimiz bunyodkori bo‘lgan yoshlarni yetuk, sog‘lom qilib voyaga yetkazish bilan bir qatorda yoshlarimizni turli xil yot g‘oya va tajovuzlardan himoya qilish maqsadi ham mujassamdir.

Muhtaram Prezidentimiz tashabbusi bilan jadidlarimiz merosini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadbirlar va ilmiy konferensiyalar o‘tkazilishi, siyosiy

qatag‘onga uchragan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilishi bejiz emas. Chunki huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda, qolaversa yoshlarimizni ma’naviy jihatdan sog‘lom qilib voyaga yetkazishda, ma’rifatparvar adiblarimizning o‘rni benihoya kattadir. Buni yurtboshimiz tomonidan quyidagi keltirilgan fikrlar orqali ham bilib olishimiz mumkin: “O‘ylaymanki, tarixda ikki buyuk Renessansga zamin bo‘lgan mintaqamizda uchinchi Renessansni aynan jadidlarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Afsuski, mustabid tuzum ularning bu ezgu g‘oya va amaliy harakatlarini to‘la ro‘yobga chiqishiga imkon bermadi. Biz bugun mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati, huquqiy demokratik davlat barpo etar ekanmiz, jadid bobolarimizning gumanistik qarashlariga tayanamiz, ularning merosidan ma’naviy kuch-quvvat olamiz”.[Sh.Mirziyoyev: Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqarokonferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigidan.2023 yil 6-mart];

Jadid mutafakkirlarimizdan biri Abdulhamid Cho‘lpon 17 yoshidan jadid nashrlari bilan aloqa bog‘laydi va u ushbu nashrlarda o‘zining publitsistik maqolalari bilan qatnasha boshlaydi. Cho‘lpon asarlari mudroq xalqni tong yulduzi kabi uyg‘otishga da’vat etadi. Adibning g‘aflat uyqusida yotgan bir holati “Kecha va Kunduz” asaridagi Razzoq so‘fi, Qurvonbibi, Eshonbobo, Zebi, Miryoqub obrazlari orqali yorqin tasvirlangan. “Kecha va Kunduz” asarini o‘qish yoshlarimizning milliy ong va ma’naviyatini shakllanishiga yordam beradi. Cho‘lponning ushbu asarida Zebi obrazi orqali o‘sha davr ayollarining mash’um taqdiri, o‘zgalar tomonidan cheklanayotgan kelajaki, toptalayotgan sha’ni va g‘ururi, chekayotgan jabr-u sitamlari yaqqol namoyon qilingan. Asarda muhabbat, vatanparvarlik, ma’rifat va insoniylik g‘oyalari oldingi o‘rinda turadi. Cho‘lpon Razzoq so‘fi timsolida esa e’tiqodining mohiyatiga yetmasdan, faqat “omin” deb turishgagina yaragan omil xalq fojiyasini mujjasam etadi va shu bilan birga mehnatkash bir odamning tekinxo‘r kimsa-yu munofiq dindorga aylantirilgan ijtimoiy-ruhiy omillarini ochib berishga intiladi. [Abdulhamid Cho‘lpon., 2022. – S.25];

Yana bir ma’rifatparvar adiblarimizdan biri ulkan iste’dod sohibi, o‘zbek romanchiligining asoschilaridan biri, Abdulla Qodiriy ijodining dastlabki namunalari ham millatparvarlik, ma’rifatparvarlik ruhida yozilgan bo‘lib, ularning barchasi jadidchilik g‘oyalari asosida sug‘orilgan edi. Muallif o‘z ijodida xalqning zabun holatidan kuyunib so‘zlaydi, jaholatni qoralaydi, ma’rifatni ulug‘laydi, turli maishiy dog‘lar sabab kirlangan yuraklarni adabiyot bulog‘ining pokiza suvi bilan yuvishga intiladi. Millatni ogohlik, uyg‘oqlik va erkin fikrlashga chorlaydi. Qodiriy o‘z davrining ilg‘or bir ziyolisi sifatida vatan va millat taqdiri xususida qayg‘uradi. Mutafakkir o‘zining “O‘tkan kunlar” romani orqali “tariximizning eng kir, qora kunlari” yurtni mustamlaka balosiga yo‘liqtirgan keyingi noahil “xon zamonlaridan” so‘z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo‘ladi. Asardagi asosiy qahramonlar Otabek va Kumush obrazi chin muhabbat va vafodorlik timsoli bo‘lib, ularning fojiali qismati orqali Abdulla Qodiriy jamiyatdagi zulm, hasad va fitnalarning qanday oqibatlarga olib kelishini tasvirlaydi. Muallif oshiqlarning ishqiy sarguzashtlari orqali muayyan tarixiy davrni ya’ni Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, xalqning qora kunlarini ko‘z oldizmizda gavdalantiradi. Ayni damda o‘lkaning

tutqunlikka tushishini bosh sababi bu qoloqlik va o‘zaro ichki nizolardir, degan fikrni g‘oyat ustalik bilan asarning mazmun-mohiyatiga singdiradi. “O‘tkan kunlar” romanida o‘zbek xalqining o‘tmishdagi hayoti, urf-odatlari va o‘sha davrdagi ijtimoiy muammolar aks ettirilgan bo‘lib, asarni o‘qish orqali biz o‘sha davrdagi fitna va adolatsizliklar inson taqdirini qanday o‘zgartirib yuborganini ko‘rishimiz mumkin. “Abdulla Qodiriy bu asari orqali yoshlarimizni kechagi xatolardan saboq olib, kelajakni yorug‘roq qilishga, tinchlikni qadriga yetishga undaydi”. [Abdulla Qodiriy., 2022. – S.140];

Markaziy Osiyo ijodkorlari orasida birinchi bo‘lib milliy dramatik asarlar yaratgan allomamiz Mahmudxo‘ja Behbudiy 1911-yilda o‘zining “Padarkush” dramasini yozdi va u 1913-yildagina nashrdan qilindi. Ushbu asarning dunyo yuzini ko‘rishi oson kechmadi. Bunga sabab, chor Rossiyasi hukumati mustamlaka Turkistonning ma’rifat yo‘liga kirib, o‘z huquqlarini tanishidan manfaatdor emas edi. Buni 1916-yildagi Turkiston general-gubernatori A.Kuropatkinning o‘z kundaligida yozgan va juda mashhur bo‘lib ketgan ushbu “Biz tubjoy xalqni taraqqiyotdan, maktabdan, rus hayotidan 50 yil chetda tutdik” degan so‘zlarini alohida eslash kifoya. Muallif bu haqdagi xatlarga javoban kinoyaomuz: “Turkistonda bekor odam yo‘qki, xalq uchun ishlasa yoki xalq uchun masxarabozlik qilsa” deb yozgan edi. “Padarkush” dramasida bir boyning Toshmurod ismli o‘g‘li bor edi. O‘g‘il o‘qimagan. Boy atrofdagilarning gapiga kirmaydi, o‘g‘lini o‘qitmaydi, oqibatda u ko‘cha bezorilariga qo‘shiladi. Restoranda maishatga puli yetmay, sheriklarini uyiga boshlab keladi. Boyni o‘ldirib, pulini olib ketadilar. Jaholat va nodonlik otaning ham, bolaning ham boshiga yetadi. Ushbu dramada ilk bora turkistonliklarga o‘z tilida, tipik obrazlar orqali hayotiy muammolar ochiqchasiga gapirilgan edi. Ilmsizlik, jaholat, to‘g‘ri yo‘ldan adashish oilaga baxtsizlik, chinakam kulfatlar keltirishi ta’sirli dialoglarda aks ettirgani uchun sahnadagi harakatlar tomoshbinni hayratga solib, butun vujudini qamrab oladi. Sahnadagi voqealarni to‘g‘ri idrok qilgan har qanday tomoshabin Turkistonning asosiy fojiyasi nimadan iborat ekanligini ko‘rib yig‘laydilar, mamlakat yoshlarini o‘qitish orqali yangi hayotga olib chiqish zarurligini tushinadilar. [Mahmudxo‘ja Behbudiy., 2022. – S.140] ;“Padarkush” asari orqali Behbudiy jaholat va ilmsizlik insonni qoloqlikka, hattoki eng dahshatli jinoyatlarga yetaklashini, faqatgina ilm-ma’rifat millatni, jamiyatni bu qoloqlikdan olib chiquvchi bir najot ekanligini ko‘rsatib beradi.

O‘rta Osiyo jadidchiligining yana bir taniqli vakili, birinchi o‘zbek professori Abdurauf Fitrat haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirilganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim: “Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tiborda qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikda olgan tarbiyalariga bog‘liq” - degan fikrlarga amal qilishimizni so‘rashi insonning hayotida tarbiyaning o‘rni nihoyatda muhim ekanligini yana bir marta ko‘rishimiz mumkin. Abdurauf Fitratning “Temur sag‘anasi” asari, bizningcha, 1818-yilning boshlarida yaratilgan bo‘lib, bu asar vositasida Fitrat xuddi

avvalgi publistik asarlari kabi yurtdoshlariga murojaat qiladi, uning o‘zligini eslatishga, bu zulmat va g‘aflatdan chiqib ketmoqqa da’vat etadi.

Asarda Amir Temurning o‘z qabridan tik turib, xalqiga qarata aytgan so‘zlari dramaning eng ta’sirli lavhalaridan bo‘lgan. Uning so‘zlari “Yurt qayg‘usi” sochmasida asar qahramoni Temur ruhiga murojaat qilgan bo‘lsada, dramada unga javoban Temurning so‘zlari qalamga olinadi: “Men sizlarga ko‘p narsalar yetkazdim. Ne bo‘ldiki, bir zamonlar sharafli va jasur bir millatning avlodlari hozir boshqa bir millatning zulmi ostida qolmish. Kimlar bog‘laringdan qushlarimni quvmoqda!.. Otalar merosidan nimani oldingiz? Sizdan talab etaman, qalqingiz! O‘lkani tuzatingiz, avlodlarimning hur yashamoqlarini ta’min etingiz” - degan keskin gaplari bilan bosqinchilarga qarshi nafratning ifodalanishi XX asrning 20-yillar oxirlaridan boshlab tanqidlarga va adabiy “janjal”ga sabab bo‘lgan. [Abdurauf Fitrat., 2022. – S.98];

Abdurauf Fitratning “Temur sag‘anasi” asari xalqni milliy o‘zligini anglashiga, tarixiy qahramonlarni hurmat qilishga va insonlarda vatanparvarlik tuyg‘usini kuchaytirishga undaydi. Ushbu asar orqali Fitrat Amir Temur siymosi va uning merosini yodga olib, millatning buyuk tarixiy shaxslariga munosib bo‘lish kerakligini targ‘ib qiladi.

Abdulla Avloniy atoqli ma’rifatparvar, iste’dodli shoir va pedagog sifatida tanilgan. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”, degan so‘zlari har bir maktab binosida yozib qo‘yilishi kerak”- degan topshirig‘i asosida, bugungi kunda har bir maktab binosida bu hikmatli so‘zlarning oltin harflar bilan yozilishi ham bejiz emas. Zero, bu tarbiyaning naqadar muhim ekanligini, uning inson hayotidagi ta’sirini yana bir bor ta’kidlaydi.

Abdulla Avloniyning “Biz va Siz” asari o‘z nomlanashidan ko‘rinayotganidek, turmushga ikki xil yondashishni ifoda etadi. Unda jaholat mavzusi bilan yonma-yon muhabbat ham beriladi. Uning markazida 10 yil o‘qib “yangi hayot”, “yangi turmush” haqidagi jo‘shqin orzular bilan qaytgan Kamolning taqdiri turadi. U chirib, biljirab ketgan eski turmushni tuzatmoqchi bo‘ladi. Uning butun fikru-zikri shu bilan band. U o‘qimishli Maryamni sevadi. Uning sevgisi ham aytish mumkinki, g‘oyaviy-ma’naviy yaqinlik asosiga qurilgan. Biroq unda “eski turmush” kuchlari ustun keladi. Kamol va Maryam halok bo‘ladilar. Ammo ularning o‘limi optimistik mazmun uchun xizmat qiladi.

Avloniy juda muhim bir masalani, insonning baxti va turmushini asarning qoq markaziga qo‘yadi va ijtimoiy ziddiyatni keskin vaziyatlarda ochib berishga urinadi. [Abdulla Avloniy., 2022. – S.129];

Ushbu asar orqali xalqni o‘qish, ilm olish va taraqqiyotga intilishga da’vat qiladi. U eski qarashlarga mahkam yopishib olgan odamlarni tanqid qiladi. Asarda eski, qoloq dunyoqarash tarafdorlari “Siz” hamda yangiliklarni targ‘ib qiluvchi ilg‘or kishilar “Biz” o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar ko‘rsatiladi.

Shoir, dramaturg va teatr namoyondasi bo‘lgan G‘ulom Zafariyning “Vannaycha” dostoni ham real voqelik asosida yozilgan. Asar endigina tetapoya bo‘lib kelayotgan o‘zbek sahnasida charaqlagan yulduz misol bir yonib o‘chgan o‘zbek qizining fojiali o‘limi munosabati bilan yozilgan. Bu davrda sahnada o‘zbek ayollari

kamdan-kam ko‘rinar, har qanday iste’dodli qiz ham o‘z san’atini sahnada namoyon qilishga jur’at qilavermasdi. Asardagi Vannaychaning eri obrazi - uni o‘ta qudratli, ammo johil rashk bilan birgalikda sevuvchi yigit timsolida gavdalangan. Sobiq sho‘ro davri adabiyotining eng katta qusuri qahramonlarni ikkiga - ijobiy va salbiy qahramonlarga ajratib, birini oq, ikkinchisini esa faqat qora bo‘yoqlar bilan tasvirlashdan bu doston xoli.

Shoir sevguvchi yigitning ko‘r rashk oldidagi ojizligi, qalb fojiasi, iztirobu alamlarini ham ko‘rsatib berishga uringan. Yigit o‘z qurbonini o‘ldirib shunday ketavermaydi, u o‘ksib - o‘ksib yig‘lab, pushaymonlar qiladi, kesilgan boshni qo‘liga olib, uni kechrishini yolvorib so‘raydi. Ikki o‘t o‘rtasida o‘rtanayotgan, to‘xtamasdan yuzini timdalab yig‘layotgan yigitning qalb fojiasi tasviri o‘quvchini larzaga soladi, o‘z rashkining qurboni bo‘lgan o‘zbek Otellosiga nisabatan kishida jinday achinish hissi paydo bo‘ladi.

Xalq qo‘shiqchisi Vannaycha o‘limi har ikki shoirni ham birday larzaga solgan, ular chekkan iztirob qalblaridan doston bo‘lib sizib chiqqan. Ming yillik urf-odatlar, e’tiqodlarning zil ketishi, dunyoqarashning shafqatsiz to‘qnashuvi qurbonlarsiz kechmaydi. Ana shu jarayonda, odatda, Vannaycha singari o‘z davridan ilgarilab ketgan kishilar qurbon bo‘ladilar. Ko‘rib turganingizdek asarda o‘zbek teatrining dastlabki yulduzlaridan bo‘lgan Vannaychaning fojiali o‘limi bilan bog‘liq voqealar yaqqol tasvirlangan.

Asarda Vannaychani sevgan yigitning rashk tufayli uni o‘ldirishi va qotilning shu dahshatli daqiqalardagi ruhiy azoblari to‘liq tasvirlangan. “G‘ulom Zafariy ushbu asari orqali jamiyat e’tiborini xotin-qizlar masalasiga qaratib, ularning tarixiy taqdirini o‘zgartirmasdan turib insonparvarlik jamiyatini barpo etish mumkin emasligini ta’kidlagan”. [G‘ulom Zafariy., 2022. – S.97];

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi yosh avlod ma’naviy qiyofasini shakllantirishda ma’rifatparvar adiblarimizning o‘gitlari o‘rni beqiyos ahamiyatga ega. Mirzo Bedil aytganidek, me’mor dastlabki g‘ishtni to‘g‘ri qo‘ymasa, binoning boshi yulduzlarga yetsa ham, u noo‘rin qolaveradi. Shunday ekan, jamiyatda inson o‘rni moddiy boyliklar bilan emas balki ma’naviy qiyofasi, ma’naviy tarbiyasi bilan belgilanishi kerak.

Bugungi kun yoshlari ishsizlik, ochlik va axloqiy qashshoqlik kabi masalalar bilan yuzlashgan ekologik muammolar ham tahlikaga solayotgan bir davrda kelajagimiz bunyodkori bo‘lgan yoshlarni har tomonlama yetuk, sog‘lom va ma’naviy jihatdan uyg‘oq qilib tarbiyalashda badiiy asarlarning o‘rni juda kattadir.

Ma’rifatparvar adiblarimizning asarlarini mutolaa qilish orqali yoshlarimiz ongida murakkab va tahlikali hayot haqida, uning shavqatsiz o‘yinlari to‘g‘risida tasavvurlar shakllanadi. Buyuk ma’rifatparvarlarning ilmiy asarlari bizning ezgu yo‘limizga xizmat qilmoqda.

Vatanparvarlik ruhida kamolga yetgan shaxs vatan taqdirini o‘z taqdiridek ko‘rib, uning taraqqiyoti uchun bor kuch-qudratini sarflaydi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Bu davlat bu jamiyat menga nima berdi deb emas, men shu vatanga nima berdim, nima bera oldim” deb yashash bugungi kun yoshlarining asosiy maqsadi bo‘lmog‘i kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.

2. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash, Toshkent, 1999.

3. SH.Mirziyoyev: Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigidan. 2023-yil 6-mart.

4. Abdulhamid Cho‘lpon “Jadidlar”. - Yoshlar nashriyot uyi-Toshkent-2022.

5. Abdulla Qodiriy “Jadidlar”. - Yoshlar nashriyot uyi - Toshkent-2022.

6. Mahmudxo‘ja Behbudiy “Jadidlar”. - Yoshlar nashriyot uyi - Toshkent-2022.

7. Abdurauf Fitrat “Jadidlar”. - Yoshlar nashriyot uyi - Toshkent-2022.

8. Abdulla Avloniy “Jadidlar”. - Yoshlar nashriyot uyi - Toshkent-2022.

9. G‘ulom Zafariy “Jadidlar”. - Yoshlar nashriyot uyi - Toshkent-2022.

RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MEDIA VA MEDIASAVODXONLIK TA’LIMINING O‘RNI VA ROLI

Baltayeva Ma’mura Baxtiyarovna
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi, *mamura381@gmail.ru*

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekiston ta’lim tizmida raqamli savodxonlik va innovatsion texnologiyalarning o‘rni haqida fikr yuritilgan. Mediata’lim so‘zining sinonimi sifatida pedagogikada mediamadaniyat va axboriy madaniyat so‘zlari ham qo‘llaniladi. Bugun axboriy madaniyat va mediasavodxonlik o‘ta dolzarb masala hisoblanadi. Tezisda aynan ta’lim tizimida mediata’limni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: media savodxonlik, raqamlashtirish, koreys tili, Sejong markazi, axborot texnologiyalari, ta’lim texnologiyalari, umumiy o‘rta ta’lim, mediata’lim, axborot madaniyati, mediasavodxonlik, ommaviy axborot vositalari, pedagogik yondashuvlar.

Аннотация. В статье рассматривается роль цифровой грамотности и инновационных технологий в системе образования Узбекистана. В педагогике слова медиакультура и новостная культура также используются как синонимы слова медиаобразование. Сегодня новостная культура и медиаграмотность считаются очень актуальными вопросами. В статье подробно анализируется роль средств массовой информации в развитии медиаобразования в системе образования.

Ключевые слова: медиаграмотность, цифровизация, корейский язык, Центр Седжон, информационные технологии, образовательные технологии, общее среднее образование, медиаобразование, информационная культура, медиаграмотность, средства массовой информации, педагогические подходы.

Abstract. This article discusses the role of digital literacy and innovative technologies in the Uzbek education system. In pedagogy, the words media culture and news culture are also used as synonyms of the word media education. Today, news culture and media literacy are considered very urgent issues. The role of mass media in the development of media education in the educational system is analyzed in detail in the article.

Keywords: media literacy, digitization, Korean, Sejong Center, information technology, educational technology, general secondary education, media education, information culture, media literacy, mass media, pedagogical approaches.

Raqamli savodxonlik yoki digital savodxonlik, zamonaviy texnologiyalar va raqamli vositalardan samarali, unumli foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni anglatadi. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim dasturlarida aynan raqamli savodxonlik juda katta ahamiyat kasb etadi. Raqamli savodxonlik — zamonaviy dunyoda hayot uchun, raqamli texnologiyalar va internet resurslaridan xavfsiz va samarali foydalanish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalar to‘plamidir. Shuningdek, dinamik onlayn rejimlarni yaratish va saqlash, yirik va murakkab bo‘lgan onlayn ijtimoiy tarmoqlarni boshqarish qobiliyati hisoblanadi.

Raqamli savodxonlik - bu odamga raqamli muhitda muammolarni samarali hal qilishga imkon beradigan bilim, ko‘nikma va munosabatlarning asosiy majmuini anglatadi. Raqamli savodxonlik komponentlari o‘z ichiga quyidagilarni oladi: axborot savodxonligi – axborotni izlash, olish, saqlash va tarqatishni amalga oshirishda axborotning ishonchliligiga, manbaning to‘g‘riligiga va e’tibor qaratish, axborotning o‘ziga xos xususiyatlari va uning turli manbalari haqida bilimlarni o‘rganib, targ‘ib qilish, tegishli ma’lumotlarni topish va solishtirish ko‘nikmalarini shakllanishiga ko‘maklashadi. Shuningdek, axborotning foydasi va zarariga munosabat bildirish kabi foydalanuvchi shaklida talab qo‘yishni o‘rganishni o‘z ichiga oladi va kompyuter savodxonligi haqida kengroq va to‘liqroq tushunchalar berish bilan birga, kompyuter qurilmasi hamda uning vazifalarini bilish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shunday ekan, kompyuter va shunga o‘xshash qurilmalardan foydalanish ko‘nikmalari va kundalik amaliyotda kompyuterning o‘rni haqidagi munosabatlarni o‘rgangan holda, media savodxonligi tushunchasiga ahamiyat qaratiladi. Natijada ommaviy axborot vositalarining tarkibi va manbalari haqida ma’lumotlarga ega bo‘linadi. Yangiliklarni qidirish va faktlarni tekshirish ko‘nikmalari jarayoni e’tiborli amalga oshirilgan holda ommaviy axborot vositalari orqali etkazilgan ma’lumotlarning ishonchliligiga munosabat shakllanadi. Buning natijasida muloqot savodxonligi ortadi, raqamli aloqada muloqotning o‘ziga xos xususiyatlari haqida bilimlar shakllanadi, zamonaviy aloqa vositalaridan to‘g‘ri va unumli foydalanish ko‘nikmalari egallanadi. Demak, raqamli muhitda aloqa etikasi va me’yorlariga munosabat nafaqat jamiyatimiz yoshlarida balki raqamli texnologiyaning faol foydalanuvchilari bo‘lgan har bir fuqaroda shakllanadi. Texnologik yangiliklardan xabardor bo‘lib borish zarur. Natijada hozirgi texnologik tendensiyalarni bilish, gadjetlar va ilovalar bilan ishlash ko‘nikmalari, texnologik innovatsiyalarning afzalliklari haqidagi qarashlar to‘g‘ri shakllanadi. Va bu jarayon raqamlashtirish sharoitida media va mediasavodxonlikning ta’lim jarayonida o‘rnini belgilab beradi.

YuNESKO tomonidan mediata’lim dunyoning barcha mamlakatlari ta’lim tizimlari milliy o‘quv rejalariga joriy etishni tavsiya etiladi. Hozirgi kunda Yevropa davlatlari, AQSh, Avstraliya va Rossiya singari mamlakatlarda mediata’lim majburiy fan sifatida ta’lim tizimiga kiritilgan. Rostov davlat iqtisodiyot universiteti o‘qituvchisi И.В.Челышеванинг “Методика и технология медиа образования в школе и вузе” nomli monografiyasining o‘quvchilar va talabalar auditoriyasida mediata’lim darslarini tashkil etish, mediata’lim jarayonining shakllari, usullari va texnikasi bo‘limida mediata’limni o‘rganishda davriy nashrlar ahamiyati borasida shunday misol keltirilgan: “OAV manbalarini jalb qilgan holda darsda ishlashning yana bir qiziqarli shakli davriy matbuotdagi ilmiy-texnikaviy maqolalarni ko‘rib chiqish bo‘lishi mumkin. Muntazam ravishda, u yoki bu ilmiy ommabop jurnallar nashr etilishi bilan maktab o‘quvchilari auditoriyani og‘zaki yoki yozma (referat yoki ijodiy ish shaklida) eng qiziqarli nashrlar bilan tanishtiradilar. Keyinchalik bu ishlar maktab devoriy gazetasida chop etilishi mumkin.”

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib shuni qayd qilish joizki, bugungi zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida raqamli texnologiyalaridan oliy ta’lim muassasasi talabalari faol foydalanib kelmoqdalar. Va shu o‘rinda media vositalarining

foydalanuvchilari sifatida mediasavodxonlik yuqori o‘ringa chiqadi. Talabalarni kelajakda egallayotgan kasbiga oid raqamlashtirish va raqamli texnologiyalarda ishlay olish qobiliyatlarini va shu bilan birga kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda yordam beradi. Buning uchun talablarga fanlar aro aloqadorlikni amalga oshirish bilan birga kasbga yo‘naltirish va kasbiy kompetensiyarini rivojlantirish maqsadlarini olib borish bugungi kunda dolzarb fazifalardan birini tashkil qiladi.

Bugungi kunda davlatimizda raqamli dunyoda raqamli texnologiyalar bilan ta’lim olish va bu jarayonda ta’lim berish hamda ta’lim tizimini raqamlashtirishda juda ko‘p va muhim ishlar amalga oshirilyapti. Va bu ishlar natijasi uzoq kuttirmasligi rivojlangan davlatlar tajribasida kuzatilmoqda. Raqamli olamda talabalarni o‘rganish savodxonligini oshirish, raqamli ta’limda ta’lim olish samarasini rivojlantirish, raqamli ta’lim olish madaniyati va etikasini shakllantirish, va buning natijasida raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish hamda raqamli ta’limda axborot almashish, muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish davlatimiz va talabalarimizdan mas’uliyat talab etadi. Bu jarayonda o‘rganilgan bilim va ko‘nikmalar albatta hayotimizda jamiyatimizni yanada rivojiga o‘z hissasini qo‘shmasdan qolmaydi.

Davlatimizning axborot infratuzulmasining rivojlanishi, global tarmoqqa kirib borish imkoniyatining ortishi sharoitida yoshlarning internetdan foydalanish darajasi tobora o‘sib bormoqda. Mobil telefon orqali internetga kirish ham tobora ommalashib bormoqda. Natijada “Global o‘rgimchak to‘ri”dan foydalanuvchilar soni ortgan sari ularga solinayotgan tahdidlar ham tobora kuchayib bormoqda. Internet yoshlar uchun balki barcha fuqarolar uchun ham juda katta imkoniyatlarni ochib beradi, yoshlar undan foydalanib juda ko‘p ma’lumotlarni bilib oladilar, bu ma’lumotlarni olishdagi qulayliklarni mavjudligi ularga internetdan foydalanish uchun ancha yengillik tug‘diradi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, Internet tarmoqlaridan nafaqat axborot izlash, olish, saqlash va tarqatish ya’ni ma’naviy jihatdan foydalanish balki, moddiy jihatdan ham foydalanib bo‘lishi hech kimga sir emas. Shunday ekan internetdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalari ta’lim jarayoniga singdirilishi lozim. Zero, millatimizning rivoji aynan shu ma’nan sog‘lom yoshlarning qo‘lidadir. Va bu jarayonda yoshlarni to‘g‘ri tarbiyalash oila va pedagoglarning zimmasiga tushadi.

Bugungi kunda internet tarmoqlarida bor bo‘lgan ko‘plab o‘yinlar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga iqtisodiyot, tarix va adabiyotga nisbatan qiziqish uyg‘otadi. Ushbu o‘yinlar ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan diqqatga sazovordir. Raqamli texnologiyalarda ta’lim-tarbiya imkoniyatlarini kengaytiruvchi turli manbalarga mavjud, lekin unda ham foydali, ham ishonchli bo‘lmagan turli axborotlar ham bordir. Aynan internetda foydalanuvchi sifatida yoshlar uni hayajonga soladigan ko‘plab savollarga javob topishi mumkin. Hozirgi zamon bolalarini internet tarmoqlari, xususan Telegram, Instagram, Facebook va ayniqsa Youtube dan mutlaqo ajratishni iloji bo‘lmasligini hisobga olgan holda, jurnalda ushbu tarmoqlarda bolalar uchun qiziqarli va asosiysi aniq axborotlarga ega kanal va sahifalarni ma’lum qilib borish, ushbu kanal va sahifalar bilan hamkorlik qilish ijobiy ijodiy muhit hosil qilish ehtimoli bor.

Zamonaviy bolalar qo‘llaridagi gadjet orqali ma’lumot olishga ko‘nikkan bo‘lsa, aynan ana shu gadjetlar yordamida ularni bosma nashrlarga qaytarish, eng to‘g‘ri yo‘l

bo‘lishi mumkin.

Internetda o‘zbek xalqimizning milliy madaniyati va mentalitetiga to‘g‘ri kelmaydigan ijtimoiy xavfli va agressiv mazmunga ega bo‘lgan materiallar ham mavjudligi hech kimga sir emas. Va bu jarayon bola o‘z ruhiy rivojlanishida bir-biridan anchagina farq qiluvchi turli bosqichlarni bosib o‘tadi. Shuningdek, bu holat bolalarning internetga qiziqishida ham o‘z ifodasini topadi. Biz pedagoglar bolalar bilan internet xavfsizligi qoidalari haqida suhbatlashish jarayonida aynan nimalarga ko‘proq e’tibor qaratish kerakligini, bunda bolalarning yosh xususiyatlari bilan bog‘liq jihatlarini nazarda tutishimiz lozim. Bundan tashqari bolalarning internetda ishlashini o‘rtacha 7-14 yosh davrida o‘zlashtirishni e’tiborga olishi zarur. [M.Aripov, B. Begalov, Sh. Begimqulov,. M. Mamarajabov., 2009. – S.145];

Shu o‘rinda quyidagilarni qayd qilish kerakki, ota-onalar bunday salbiy ta’sir mavjudligini yodda tutishlari va ularning farzandlari tarbiyasiga ko‘rsatadigan xavfli ta’sirini oldini olish choralarini ko‘rishlari zarur. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: Ota-onalar internetdan farzandlari bilan birga foydalanishni nazorat qilishlari lozim. Bolalarni nazorat qilish osonroq kechishi uchun kompyuterni umumiy xonaga joylashtirish orqali buni amalga oshirsa bo‘ladi. Ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchilar bolalarni kompyuterda ishlash vaqtini me’yorlashtirish ham yaxshi natijalar beradi. Ota-onalar nazoratiga yordam beradigan turli dasturlar mavjud bo‘lib, ulardan foydalanish mumkin. Natijada, foydalanuvchining kiradigan resurslarni nazorat qilish uchun maxsus zamonaviy dasturiy ta’minotdan foydalanish orqali nazoratni kuchaytirish foydalidir. Axloqsizlikni targ‘ib qiladigan kontetlarni taqiqlash vositalaridan foydalanish o‘sib kelayotgan yosh avlod ongi va shuurini to‘g‘ri shakllanishda yordamchi vosita sifatida katta ahamiyatga ega. [Челышева.И.В., 2013. – S.46];

Pedagoglarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, pedagoglar orasida ijodiy muhit, muayyan ma’naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo‘llashga ham alohida e’tibor qaratish lozim. Xuddi mana shuning o‘zi pedagogik innovatsiyalarning optimallik darajasini belgilaydi. Innovatsion usullarning eng muhim belgisi sifatida natijalanganlik o‘qituvchi faoliyatida ijobiy yutuqlarga erishilgandagina namoyon bo‘ladi. O‘lchovlardagi texnologiklik, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o‘qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo‘ladi. Mazkur o‘lchovning ahamiyatli jihati shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo‘ladi. Shu munosabat bilan innovatsion jarayonni ilmiy g‘oyani amaliy foydalanish bosqichiga olib chiqish va shu bilan bog‘liq ijtimoiy pedagogik muhitdagi o‘zgarishlarni amalga oshirish jarayoni deb hisoblash mumkin. G‘oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta’minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat bu innovatsion faoliyatdir. Innovatsiya jarayoni rivojlanish bosqichlarining yana bir o‘ziga xos xususiyati mavjud. Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo‘llash alohida o‘qituvchilar ish faoliyatining boshlang‘ich bosqichida namoyon bo‘ladi. [A.T. Kenjaboev, B. Sultonov., 2019. – S.110];

Xulosa o‘rnida shuni qayd qilish kerakki, raqamlashtirishning rivojlanishi

zamonaviy jamiyatda media va mediasavodxonlik ta’limining muhimligini yanada oshirdi. Raqamli texnologiyalar va yangi media vositalarining joriy etilishi axborot oqimini tezlashtirib, yanada kengroq auditoriyaga yetkazish imkonini berdi. Shu bilan birga, mediasavodxonlik ta’limi shaxslarning raqamli vositalardan oqilona va xavfsiz foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi, ularni axborotning ishonchliligi va to‘g‘riligini baholashga o‘rgatadi. Mediasavodxonlik ta’limi nafaqat raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki shaxslarning axborotlarga nisbatan tanqidiy fikrlashini, axborotni tahlil qilish va saralash qobiliyatini ham shakllantiradi. Shu sababli, raqamli dunyoda omon qolish va muvaffaqiyatga erishish uchun mediasavodxonlik ta’limi zarurdir. Bu tezis orqali raqamlashtirish sharoitida media va mediasavodxonlik ta’limining o‘rni va roli keng yoritildi va bu sohalardagi rivojlanish jarayonlari ko‘rsatib berildi. Kelgusida bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar va ta’lim dasturlarini yanada rivojlantirish orqali jamiyatning raqamli bilimdonligini oshirish va raqamli xavfsizlikni ta’minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axborot texnologiyalari, M.Aripov, B. Begalov, Sh. Begimqulov,. M. Mamarajabov, 2009.
2. Челышева.И.В. Методика и технология медиа образования в школе и вузе. –М.: Директ-медиа, 2013.
3. Axborot texnologiyalari.A.T. Kenjaboev, B. Sultonov Toshkent-2019.

JADID BOBOLARIMIZNING ILMIY-MA’RIFIY VA TARBIYAVIY QARASHLARINING BO‘LG‘USI PEDAGOGLARGA TA’LIM BERISHDAGI AHAMIYATI

Baltayeva Ma’mura Baxtiyarovna
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi, mamura381@gmail.ru

Annotasiya. Mazkur tezisda vatan ozodligi, istiqlol yo‘lida, millat savodxonligi uchun umrini baxshida etgan ma’rifatparvar ziyolilarimiz, avlodlarni erk va ozodlikka, ma’rifat va taraqqiyotga yetaklab jadidlar nomi bilan tarixga kirgan fidoyi vatandoshlarimiz faoliyatlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ozodlik, millat, jadidchilik, qadriyat, uyg‘onish, matbuot, ma’rifatparvar, ziyolilarimiz, Yangi O‘zbekiston, millatparvarlar, adabiyot.

Аннотация. В данной статье размышляется о деятельности нашей просвещенной интеллигенции, отдавшей свою жизнь за свободу Родины, независимость и грамотностьнации, и наших самоотверженных соотечественников, вошедших в историю во имя джадидов, ведущих поколения к свободе и развитие свободного просвещения.

Ключевые слова: свобода, нация, модернизм, революция, возрождение, пресса, просветитель, наша интеллигенция, Новый Узбекистан, националисты, литература.

Annonation. In this article, freedom of the Motherland, on the way to independence, our enlightened intellectuals who sacrificed their lives for the literacy of the nation, we will reflect on the activities of our self-sacrificing compatriots who went down in history in the name of Jadids, leading generations to freedom, enlightenment and development.

Key words: freedom, nation, jadidism, value, revival, press, enlightener, our intellectuals, New Uzbekistan, nationalists, literature.

Ota-bobolarimiz “moziyga qarab ish ko‘rmoq xayrlidir” deganlar. Va bu bejizga aytilmagan. Chunki millatimizning uch ming yillik tarixida vatan va millat uchun qayg‘urgan insonlarning boqiy faoliyatlarini bugungi yoshlarga ibrat qilib ko‘rsatish, xayrli ishlardan hisoblanadi. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyaning 5-bandida Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish masalasi belgilangan. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “... bizning insoniy qadr-qimmatimizni, g‘urur va sha’nimizni, din-u diyonatimizni, milliy davlatchiligimizni tiklab bergan mustaqillik kuni vatanimizning shonli tarixida hamisha eng yorqin sahifa bo‘lib qoladi”. Jadidlar ta’limoti–o‘z davrining haqiqiy ta’limoti edi. Bu haqda tilshunos olim, professor Begali Qosimov Turkiston tarixining XX asr boshidagi eng muhim hodisa hisoblangan jadidchilik harakatiga katta baho berib, quyidagicha o‘zining qimmatli fikrlaridan birini bildiradi: “Jadidchilik harakati millatni ham tarbiyalab bordi. Jadidlar millatning yashamog‘i, taraqqiy topmog‘i uchun, birinchi navbatda, ozod, mustaqil bo‘lmog‘i lozimligini anglab yetdilar va keng xalqni uyg‘otishga alohida e’tibor berdilar”. [Abdurashidxonov M., 2001. – S.78]; Olimning ushbu fikrlari asosli ravishda bugungi kunda yosh olimlar e’tibori va e’tirofini qozonib ulgurgan.

Xalqimizning ma’rifatparvar farzandlari Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy kabi buyuk bobolarimiz qarashlari va ular qoldirgan ulkan ma’naviy-tarixiy merosdan o‘rnak va ibrat olib, bu g‘oyaviy ta’limotni yoshlar ongiga qanchalik darajada singdira olsak, ularning tariximizga bo‘lgan hurmat- ehtiromini yanada oshirgan bo‘lamiz.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, istiqlol g‘oyasining yalovbardori, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, noshir, jurnalist edi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-sentabrdagi “Ma’rifatparvar jadidchilik harakati namoyandalarini mukofotlash to‘g‘risida”gi farmonida, milliy ta’lim va tarbiya tizimini yaratishga beqiyos hissa qo‘shgan mutafakkir Mahmudxo‘ja Behbudiy “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlandi. [Ахорова, З., 2023. – S.201];

Yuksak ma’naviyat va axloqiy barkamollik har qanday xalq, har qanday davlat rivojining bosh mezoni bo‘lib xizmat qilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Yangi O‘zbekiston orzusi, bugungi kunlarimizga nisbatan aytganda, hozirgi davrning taqozosi, uning asl qiyofasini, harakatlantiruvchi kuchlari va omillarini belgilaydigan g‘oyaviy-ma’naviy asos, xalqimizga xos yaratuvchanlik shijoati va keng ko‘lamli islohotlarimizning yaqqol ifodasidir”, – deb ta’kidlashlari bejiz emas.

Bo‘lajak mutaxassis sifatida talabalar har qanday vaziyatda tanqidiy fikrlash va muammolar yechimini topishni, o‘zaro hamkorlik asosida yetakchilik qobiliyatini namoyon etishni, zamonaviy bilimlarga chanqoqlikni va vaziyatga moslashuvchanlikni, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni, insonlar bilan samarali muloqatni tashkil etishni, ishlab chiqarish jarayonida ma’lumotlarni baholashni va tahlil qilishni, yangiliklarga qiziquvchanligini va tasavvur hosil qilish ko‘nikmalarini egallashlarini ustuvor vazifalar qilib qo‘yilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z davrining yirik allomalaridan biri, muftiy bo‘lishiga qaramay, hamisha bid’at va xurofotga qarshi kurash olib bordi, o‘z asarlarida islom dinining asl mohiyatini to‘g‘ri tushunish lozimligini uqtirdi, milliy masalaga keng e’tibor berdi. Behbudiyning Turkistonda yangi usuldagi maktablarni tashkil etishdagi va jadidchilik g‘oyalarini matbuot orqali targ‘ib qilishdagi xizmatlari g‘oyat katta. U 1903-1904-yillarda o‘zbek va tojik tillarida “Qisqacha umumiy geografiya” asarini, yangi usuldagi maktablar uchun darslik va qo‘llanmalarni yozdi. “Behbudiy” nomli nashriyotni tashkil etib, unda o‘zbek tilida darsliklar bosib chiqardi.

Behbudiy millat o‘zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarni boshqalar bilan teng muhokama eta oladi, degan fikrda bo‘ldi. Shuning uchun ham tarixga alohida e’tibor berdi. Umuman Behbudiyning publisist sifatida faoliyati adib iste’dodini juda yorqin bir qirrasini tashkil etadi. U o‘z umri davomida yuzlab maqolalar yozdi. O‘zining Millat va Vatan, jamiyat va axloq haqidagi fikrlarini ko‘proq maqola va chiqishlarida ifoda etdi. Uning maqolalari 300 dan ortiq. Muhimi shundaki, u XX asr boshidagi Turkistonning yirik siyosiy arbobi edi. Ushbu tarixiy davrda yashagan olim M. Behbudiy va A. Fitrat kabi ma’rifatparvarlarning milliy taraqqiyot uchun avvalo, dunyo tajribasini o‘rganmoq darkor deb, zamona yoshlarini

ilm-ma’rifatga, chet tillarni puxta egallashga chaqirgani, ularning asarlarida aks etadi. [B.Qosimov., 1999. – S.65];

Biroq bu davrda o‘ziga xos yo‘nalish sifatida maydonga kelgan ma’rifatparvarlik harakati mazkur masalada yangilik kiritishga urindi. Ularning asarlarida xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj asoslandi. Xususan, Cho‘lpon, Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat va ularning boshqa safdoshlari o‘zlarining serqirra faoliyatida til o‘rganish masalasini ilgari surdilar. Behbudiy o‘zi asos solgan va muharrirlik qilgan “Oyina” jurnalining 1913-yil 13-avgust 1-sonida kamida 4 tilni bilish lozim, degan g‘oyani ilgari surdi. Shuningdek faoliyati davomida jurnalni to‘rt tilda nomlagani ham chet tillarni bilish va egallash favqulotda zarurligidan dalolat beradi. M. Behbudiy bu masalada shaxsan o‘zi ibrat bo‘lgan.

“Biz o‘z qismatimizni bilamiz... agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun kerak bo‘lsa, biz o‘limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz. Mumkin qadar ko‘proq yaxshi maktablar ochish, shuningdek, maorif va xalq saodatini taminlash sohasida tinmay ishlash bizga eng yaxshi haykal bo‘ladi” (M. Behbudiyning qatl oldidan yozgan “vasiyatnoma”sidan). Munavvar qori Abdurashidxonov o‘zbek xalqining milliy ozodlikka erishish yo‘lida faoliyat ko‘rsatgan pedagog, jurnalist, jamoat arbobidir. XX asr boshlarida o‘lkada yuz berayotgan voqealar tufayli, xalqning ruhi tushib ketganini, ziyolilarning esa ma’naviy tanazzul tomon yuz o‘girganini ko‘rgan Munavvar qori bu holatlarning ijtimoiy ildizini tekshirishga urinadi. Ushbu urinish uning maktab va madrasa faoliyatini tamoman isloh qilish zarur degan xulosaga kelishiga turtki bo‘ldi. Munavvar qori maktab maorif islohoti, tom ma’nodagi milliy maktab yaratish niyatidan sira qaytmagan. Munavvar qori “Usuli jadid” “milliy maktab” asoschisi bo‘lib qolish bilan birga, chet elga bolalarni o‘qishga yuborish masalasini ko‘tardi. Toshkentda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda Munavvar qori, “o‘zbek ziyoli bolalarini Germaniyaga yuborib o‘qitishga juda muxtojmiz. Bolalar o‘qib, ilm tahsil qilib kelsalar, millatga katta xizmat qila oladilar”, deb ma’ruza qilgan. [Qosimov B., 2002. – S.8];

Fitrat asarlarida xalqni jaholat va nodonlikdan qutqazish, ilm- ma’rifatga chorlash, milliy mustaqillikka erishish, xalqning o‘zligini tanishi, ongining o‘sishi, kuchli va rivojlangan davlat tuzish, xalqning bilimdon bo‘lib, tijorat va tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi, Yevropaning fan va texnika yutuqlarini o‘rganish kabi g‘oyalar ilgari suriladi. [Хамрокулова, Ш. Э. Тулишов, Ғ. Р., 2022. – S.123];

Xulosa qilib aytsak, Mahmudxo‘ja Behbudiyning ma’rifiy – axloqiy qarashlaridan bugungi yoshlar tarbiyasi masalalarida foydalanish ham bugungi globallashuv jarayonlarida milliy ong va milliy dunyoqarashni o‘zligicha saqlash garovi ekanligini ko‘ramiz. Yangi O‘zbekistonda tariximiz, eng avvalo o‘tgan buyuk siymolar, ajdodlarimiz, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Is’hoqxon Ibrat, Munavvar Qori to‘g‘risida badiiy filmlar yaratildi. Umuman, biz jadidchilik harakati, ma’rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o‘rganishimiz kerak. Shuningdek o‘z bilimlarimizni bo‘lg‘usi pedagoglarga ta’lim va tarbiya berish jarayonida qo‘llashimiz

shart. Bu ma’naviy xazinani qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga javob topamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurashidxonov M. “Xotiralarim”. -T.: Sharq. 2001.
2. Аҳророва, З. Б. (2023). Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг Маънавий-ахлоқий тарбияга оид қарашлари. Academic research in educational sciences, 5(NUU Conference 2).
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. / / To‘plovchi, so‘zboshi va izohlar; B. Qosimov.- 2-nashri, tuzatilgan va to‘ldirilgan.—T.: ―Ma’naviyat, 1999.
4. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. -T.: Ma’naviyat. 2002.
5. Хамрокулова, Ш. Э. Тулишов, Ғ. Р. (2022). Абдурауф Фитрат асарларида ижтимоий тарбия масалаларининг ёритилиши.

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH

Djumaniyozova Maryamjon
UrDPI - “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu tezisda ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi va ularning ta’lim jarayonlariga kiritilishi masalasini o‘rganadi.

Kalit so‘zlar: Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ijtimoiy-gumanitar fanlar, ta’limda innovatsiyalar, interaktiv ta’lim, onlayn ta’lim, pedagogik texnologiyalar, ta’lim samaradorligi, virtual darslar, raqamli darsliklar, ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar.

Аннотатция: В данной статье рассматривается вопрос использаваныя современниых информационно-коммуникационных технологий в преподавании социалных и гуманитарных наук и включения их в учебный процесс.

Клучевые слова: Информационные и коммуникационные технологии, социально-гуманитарные науки, инновации в овбразовании, интерактивное обучении, педагогические технологии, образовательная эффективность, виртуальные учебники, изменения в системе образовании.

Abstract. This article examines the issue of the use of modern information and communication technologies in the teaching of social and humanitarian sciences and their inclusion in the educational process.

Keyword: Information and communication technologies, social humanities, innovation in education, interactive learning, online education, pedagogical technologies, educational effectiveness, virtual classes, digital textbooks, changes in the education system.

Bugungi kunda kelajak avlodni ma’naviy-axloqiy barkamol qilib tarbiyalsh o‘ta muhim vazifalardandir. Chunki mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar fuqarolardan o‘zlikni chuqur anglashni va mas’uliyatli bo‘lishni taqozo etadi. Shu boisdan uzluksiz ta’lim tizimida yoshlarni ma’naviy ruhiyatiga mos zamonaviy usullardan foydalangan holda dars jarayonini olib borish va turli xil innovatsion texnologiyalar asosida o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yib borish maqsadga muvofiqdir.

Ta’lim sohasida texnologiyalarning roli songgi o‘n yillikda sezilarli darajada o‘zgargan. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) rivojlanishi, nafaqat ilmiy izlanishlar, balki ta’lim jarayonini samarali va interaktiv qilishda ham katta o‘zgarishlar yaratdi. Bugungi kunda ta’lim tizimi, ayniqsa ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida, yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llashda katta qadamlar qo‘ygan. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari yordamida talabalarning fikrlash, tushunish va yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin, shu bilan birga ular bilimni o‘zlashtirish jarayonida yangi imkoniyatlarga ega bo‘ladilar. “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ta’lim tizimida qo‘llanilishi nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki o‘quvchilarga mustaqil fikrlash, ijodkorlik yondashuvlarini rivojlantirish imkonini

yaratadi. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar (tarix, falsafa, siyosatshunoslik va ijtimoiy psixologiya kabi fanlar) ni o‘qitishda texnologiyalarning roli alohida ahamiyatga ega”. [M.Ibragimova., 2020. – S.10];

“Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limda qo‘llanilishi yangi bir fenomen emas, ammo uning samarasini maksimal darajada oshirish uchun yillar davomida turli metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Internet, kompyuterlar, raqamli qurilmalar, onlaym platformalar va interaktiv resurslar ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan”. [D.Nurmuhammadova., 2019. – S.34]; Ushbu texnologiyalar o‘quvchilarni faqatgina mustahkam bilim bilan ta’minlaydi, balki ularga zamonaviy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. Internet va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish o‘quvchilarga samarali o‘qitishning yangi usullarini yaratadi. Masalan, onlayn kurslar, video darslar, interaktiv testlar va forumlar talabalarga bilimni mustahkamlashda yordam beradi. Xususan, zamonaviy axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘qitishning an’anaviy usullarini o‘zgartiradi. Endi o‘quvchilar uchun har qanday ma’lumotni istalgan joyda va istalgan vaqtda olish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, onlayn resurslar yordamida talabalarga o‘qituvchilar tomonidan berilgan darslardan tashqari qo‘shimcha materiallar ham taqdim etiladi. Masalan, video darslar, taqdimotlar, interaktiv kartalar va jadvallar, o‘quvchilarga darslarni yanada yaxshi tushunish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, bu texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonidagi o‘zgarishlarga tez va samarali moslashish mumkin.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar, ayniqsa tarix, falsafa siyosatshunoslik, ijtimoiy psixologiya kabi fanlar, o‘z tabiati bilan murakkab va ko‘p qatlamli bo‘lib, ularni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar yordamida yangicha yondashuvlar talab qilinadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar, asosan, tushuncha va nazariyalar asosida qurilgan bo‘lib, ularni o‘rgatishda texnologiyalar interaktiv va analitik usullarni taqdim etadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar o‘qitishda texnologiyalardan foydalanish, talabalar va o‘qituvchilar o‘rtasida faol va doimiy muloqotni ta’minlaydi”. [Jalolova S., 2021. – S.45];

Interaktiv ta’lim o‘quvchilarning faolligini oshirishga yordam beradi. Bu orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini erkin ifoda etishadi va o‘qituvchi bilan o‘zaro muloqotda bo‘lishadi. Ayniqsa, onlayn platformalar, forumlar va interaktiv darslar, talabalarga o‘z fikrlarini yanada ravon bayon etish imkoniyatini beradi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda, tarix va falsafani o‘qitishda texnologiyalar yangi yondashuvlarni ishlab chiqishga imkon yaratadi. Misol uchun, virtual ekskursiyalar, tarixiy joylarni o‘rganish uchun interaktiv xaritalar va arxivlar orqali ta’lim samaradorligini oshirish mumkin. Texnologiyalar yordamida o‘quvchilar o‘z vaqtida tarixiy manbalar bilan tanishadilar real vaqtda tarixiy hodisalar haqida ma’lumot olishlari mumkin.

Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim tizimiga to‘liq integratsiya qilishda ko‘plab muammolarga duch kelinmoqda. Bunga texnik vositalarning yetarli emasligi, texnologik ko‘nikmalarning pastligi va ma’lumotlarni samarali tahlil qilish qobiliyatining yetishmasligi kiradi. Bundan tashqari, texnologiyalarning barcha o‘quvchilarga bir xil darajada taqdim etilmasligi ham ta’limda tengsizlikka olib keladi. “Ba’zi mintaqalarda, xususan rivojlanayotgan davlatlarda, texnologiyalar bilan ta’minlashda resurs muammolari mavjud.

O‘quvchilarda kerakli texnik vositalar va internet ulashni ta’minlash bilan bog‘liq cheklovlar bor. Bu o‘z navbatida ta’limning samaradorligini kamaytiradi”. [B.Aliyev, A.Xolmatov., 2020. – S.29];

Yuqoridagi muammolarni hal qilishda innovatsion yechimlar samarali bo‘lishi mumkin. Onlayn ta’lim, video darslar va interaktiv platformalar, texnologiyalarning ta’limda qo‘llanilishini osonlashtiradi. Shuningdek, o‘quvchilar uchun onlayn malaka oshirish kurslari tashkil etilishi, ularning pedagogik metodologiyalarini yangilashga yordam beradi. Digital resusrlar, masalan, interaktiv kartalar, raqamli dasliklar va video materiallar, o‘quvchilar uchun nafaqat o‘qish materiallarini tezda olish, balki o‘rganish jarayonini ko‘proq vizual va interaktiv qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, onlayn testlar orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlab oladilar.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash, ta’lim jarayonini samarali va interaktiv qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, texnologiyalarni ta’limga integratsiyalashda yuzaga keladigan muammolarni hal qilish uchun innovatsion yechimlar ishlab chiqish zarur. Zamonaviy ta’lim texnologiyalarining muvaffaqiyatli qo‘llanilishi, o‘quvchilarga yuqori sifatli ta’lim olish imkonini beradi va ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida ta’lim samaradorligi oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.M.Ibragimova.“Ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari”. Tashkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti. 2020-yil.

2.D.Nurmuhammadova. “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari : Ta’lim tizimiga integratsiyasi”. Tashkent. Akademnashr. 2019-yil.

3.Jalolova.S “Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ijtimoiy fanlar tizimidagi o‘rni”. Journal of Education and technology, 2021-yil.

4.B.Aliyev, A.Xolmatov. “Pedagogik texnologiyalar: Tahlil va tendensiyalar” Tashkent. Fan va texnologiya nashriyoti. 2020-yil.

YOSHLAR INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISHDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING ROLI

Djumaniyozova Maryamjon
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Aniq fanlar insoniyat, jamiyat turmushini qulaylashtirib, og‘irini yengillashtirsa, ijtimoiy fanlar inson (shaxs), jamiyat ongini to‘ldiradi, “davolaydi”. Chunki ijtimoiy fanlar xalqni va millatni uyg‘otishga qodir bo‘lgan kuch bo‘lib, uchinchi renessans taraqqiyotining “katalizatori” hisoblanadi. Shu boisdan ham ushbu tezisda ijtimoiy fanlarga bo‘lgan qarashlar tanqid qilinib, yoshlar orasidagi roli yoritilib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy-gumanitar, yoshlar, katalizator, globallashuv, taraqqiyot strategiyasi, Renessans, ta’lim, falsafiy yondashuv.

Аннотатция: В то время как точные науки делают жизнь человечества и общества более комфортной и облегчают их бремя, социальные науки обогащают и «исцеляют» сознание личности и общества. Потому что общественные науки — это сила, способная пробудить народ и нацию, а «катализатор» развития третьего ренессанса широк. Поэтому в данной статье критикуются взгляды на общественные науки и подчеркивается их роль среди молодежи.

Клучевые слова: Социально-гуманитарный, молодежь, катализатор, глобализация, стратегия развития, Возрождение, образование, философский подход.

Abstract. While the exact sciences make the life of humanity and society easier and alleviate its burden, the social sciences fill and “heal” the consciousness of a person (individual) and society. Because the social sciences are a force capable of awakening the people and the nation, and are a broad “catalyst” for the development of the third renaissance. Therefore, this article criticizes the views on the social sciences and highlights their role among young people.

Keywords: Socio-humanitarian, youth, catalyst, globalization, development strategy, Renaissance, education, philosophical approach.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Bugungi kunda O‘zbekistonda ijtimoiy-gumanitar fanlar jamiyatni erkinlashtirish, demokratik huquqiy davlat barpo etish jarayonida milliy g‘oyaning asosiy tamoyillarini tadqiq etishni izchil davom ettirib, o‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi masalalari “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunni joriy etish jarayonida uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish muammolarini ilmiy tadqiq etish orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlashni yangi bosqichga

ko‘tarishga, millat tafakkurini isloh qilishga yo‘naltirildi. “Ijtimoiy-gumanitar fanlar – tarix, falsafa, huquqshunoslik, arxeologiya, sharqshunoslik, O‘zbekiston xalqlari madaniy merosi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, san’atshunoslik va boshqa sohalarda ham muhim natijalarga erishganlari bunga yaqqol misoldir”. [Mirziyoyev Sh., 2023, - S.70];

Ayrim uzoqni ko‘ra olmaydigan “arboblar”ning “ijtimoiy fanlardan foyda yo‘q” qabilidagi nojo‘ya qarashlari oqibatida ushbu fanlarning salmog‘i va sifatini tushirib yuborishga yo‘l qo‘yildi. Bu yo‘nalishda kimningdir subyektiv yondashuvi ta’sirida biror-bir fanni joriy etish, boshqa birini esa yo‘qotish, ayrimlarini qo‘shish va ularda professor-o‘qituvchilar sonining haddan ortib ketishi bilan bog‘liq tez-tez ro‘y berib turadigan “tajribalar”, ijtimoiy fanlar olimlari va mutaxassislari, professor-o‘qituvchilarning mehnatiga loqayd munosabatda bo‘lish holatlari sohaga jiddiy ziyon yetkazdi. Aynan ana shunday holat ushbu yo‘nalishlarning ayrim vakillarida “Biz va bizning fanlarimiz kerak emasmi, bizga ham hech narsa kerak emas. Shunchaki topshiriqlarni bajarib, fanlarimizni o‘qitib va darslarimizni o‘z vaqtida o‘tib yursak bo‘ldi”, degan tasavvur shakllanishiga sabab bo‘lgan. Vaholanki, ijtimoiy-gumanitar fanlar tarix, falsafa, huquqshunoslik, arxeologiya, sharqshunoslik, tilshunoslik va boshqa sohalarning barchasi o‘sib kelayotgan yoshlarning salohiyatini oshirishda katta o‘rin tutadi”. [Asadbek Zairov., 2021. – S.212];

Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, “Biz zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallagan avlodni tarbiyalashimiz kerak. Tabiiy-texnik va ixtisoslik fanlari bunday mutaxassislarni tayyorlash uchun asos bo‘ladi. Ammo yangi avlodni xalq va jamiyat, millat va davlat manfaatlarini ko‘zlaydigan, o‘zini yurt manfaatlari bilan ko‘radigan va islohotlarga daxldorligini, ijtimoiy mas’ulligini sezadigan, yetuk inson etib tarbiyalash uchun ushbu tabiiy-texnik va ixtisoslik fanlarning o‘zi kifoya qilmaydi”. Demak, ijtimoiy fanlarni o‘qitishga pulni ayamasligimiz kerak. Besh yil o‘tar, o‘n yil o‘tar, sarflangan mablag‘ izsiz ketmaganligining guvohi bo‘lamiz. Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur kabi davlatlar tajribasi ham ta’lim va tarbiyaga sarflangan moliya o‘zini oqlaganini butun dunyoga namoyon qildi. Agar ijtimoiy fanlar rivojiga pulni ayasak, yana eski yo‘l o‘zanlariga tushib qolamiz. Bunga esa aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi.

“Bizda uzoq yillar davomida ijtimoiy fanlarga bir tomonlama texnokratik yondashuv, bu boradagi masalalarga ajabtovur bir “o‘gay” qarash shakllanib qolgan”.[Мирзиёев Ш.М., 2022. -Б.230];

Shu boisdan ta’lim tizimining barcha bosqichida ijtimoiy fanlarni qay tarzda taqsimlash, uni yoshlarga qay tarzda o‘qitish va amaliyot soatlarini qanday tashkil etishga doir maxsus konsepsiyani ishlab chiqish ehtiyojga aylandi. Shu sababli Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida aytganidek, “Uzluksiz ta’lim tizimida ijtimoiy fanlarni o‘qitish tartibi va tamoyillari to‘g‘risida” qonunni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish zarur. Bu jihatdan 2022-2030-yillarda uzluksiz ta’lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi yaratilishi va amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Shundagina biz iqtisodiyot sohasida ham har tomonlama bilimli zamonaviy kadrlarni tayyorlashga erishamiz. Haqiqatan ham, biz katta niyatlar bilan poydevorini qo‘yayotgan Yangi O‘zbekiston –

Renessans davri mamlakatimizda mana shunday ulkan boylik yaratishga, xalqimiz hayotini farovonlashtirishga va kelgusi avlodlarga o‘zimizdan munosib meros qoldirishga xizmat qiladi. Ushbu fanlar o‘z navbatida birinchidan, dunyoni tushunishga yordam beradi yani yoshlar ushbu fanlar orqali tarixiy jarayonlar, madaniyat va jamiyat rivojlanishining tamoyillarini anglash orqali o‘z fikrlarini shakllantira oladilar. Ikkinchidan, bu fanlar yoshlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Ayniqsa, falsafa va sotsiologiya fanlari insoniyat muammolarini har tomonlama ko‘rib chiqish, muhokama qilish va ilmiy yondashish qobiliyatini oshiradi. Uchinchidan, ijodiy tafakkurni shakllanib boradi. Adabiyot va san’at kabi fanlar orqali inson hissiyotlarini tushunish, tasavvur doirasini kengaytirish hamda yangi g‘oyalar yaratish imkoniyatini qo‘lga kiritadi. To‘rtinchidan, muloqot va munozara madaniyatini rivojlanadi. Siyosatshunoslik va huquqshunoslik fanlari yoshlarni jamiyatda faol ishtirok etishga undaydi, o‘z huquq va erkinliklarini himoya qilish qobiliyatini oshiradi. Beshinchidan, ushbu fanlar orqali yoshlarda axloqiy qadriyatlarni shakllana boradi. Ijtimoiy fanlar orqali inson huquqlari, erkinlik, adolat, ma’naviyat kabi tushunchalar yoshlar ongiga singdiriladi. Bugungi globallashuv jarayonida esa ushbu fanlar orqali axborot xurujlariga qarshi kurasha olsa bo‘ladi. Chunki bu fanlar orqali tanqidiy fikrlashi yanada rivojlanib yolg‘on axborotlardan himoyalanishni o‘rganadilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ijtimoiy-gumanitar fanlar yoshlarning intellektual salohiyatini oshirishda beqiyos ahamiyatga ega. Bu fanlar inson tafakkurini shakllantirish, tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va jamiyat oldida turgan muammolarga yechim topishda muhim rol o‘ynaydi. Yoshlar ushbu fanlar orqali nafaqat o‘z tarixini, madaniyatini va huquqlarini chuqur anglab yetadilar, balki dunyoqarashlarini kengaytirib, global jarayonlarga ongli yondashishni ham o‘rganadilar. Zamonaviy dunyoda esa texnologiya va fan taraqqiyoti bilan birga, insonning ijtimoiy va axloqiy rivojlanishi ham muhim hisoblanadi. Faqat texnik bilimlar bilan cheklangan inson to‘laqonli jamiyat a’zosi bo‘la olmaydi. Shu sababli, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘rganish yoshlarni har tomonlama rivojlantirib, ularga nafaqat kasbiy mahorat, balki jamiyatda faol va mas’uliyatli ishtirok etish ko‘nikmalarini ham beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh, “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023.
2. Asadbek Zairov. Yangilanayotgan O‘zbekistonda jamiyat – islohotlar tashabbuskori. «Scientific progress» scientific journal VOLUME #2, ISSUE #7, NOVEMBER, 2021.
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси.-Т.: O‘zbekiston, 2022.
4. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risi” dagi PF-4947-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. https://lex.uz/docs/-3107036.

YANGI O‘ZBEKISTONDA BARQAROR TARAQQIYOTIDA YOSHLAR MAS’ULIYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI

Atabek Abduraximovich Madraximov
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi,
atabekmadraximov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezis Yangi O‘zbekistonda yoshlarning mas’uliyatini oshirish istiqbollarini ko‘rib chiqadi. Yoshlar mamlakat kelajagini belgilovchi muhim kuch bo‘lib, ularning faol ishtiroki va mas’uliyat hissasi barqaror taraqqiyot jarayonlarida alohida ahamiyatga ega. Tezisda ta’lim tizimini rivojlantirish, ijtimoiy faoliyatni rag‘batlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ekologik mas’uliyat, sog‘lom turmush tarzi va axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi bir qator muhim istiqbollar tahlil qilinadi. Ushbu yondashuvlar yoshlarni mustaqil va mas’uliyatli shaxslar sifatida shakllantirishga yordam beradi va ularning mamlakat taraqqiyotidagi rolini kuchaytiradi.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, mas’uliyat, barqaror taraqqiyot, ta’lim, ijtimoiy faoliyat, tadbirkorlik, ekologik mas’uliyat, sog‘lom turmush tarzi, axborot texnologiyalari, O‘zbekiston.

Аннотация. В данной тезисе рассматриваются перспективы расширения прав и возможностей молодежи в Новом Узбекистане. Молодежь является важной силой, определяющей будущее страны, и ее активное участие и ответственный вклад имеют особое значение в процессах устойчивого развития. В статье анализируется ряд важных перспектив, таких как развитие системы образования, популяризация социальной деятельности, поддержка предпринимательства, экологическая ответственность, здоровый образ жизни и использование информационных технологий. Данные подходы помогают формировать молодежь как самостоятельную и ответственную личность, усиливать ее роль в развитии страны.

Ключевые слова: Молодежь, ответственность, устойчивое развитие, образование, социальная активность, предпринимательство, экологическая ответственность, здоровый образ жизни, информационные технологии, Узбекистан.

Abstract. This thesis examines the prospects for increasing the responsibility of youth in New Uzbekistan. Youth are an important force determining the future of the country, and their active participation and responsible contribution are of particular importance in sustainable development processes. The article analyzes a number of important prospects, such as the development of the education system, promotion of social activity, support for entrepreneurship, environmental responsibility, healthy lifestyle and the use of information technologies. These approaches will help to form young people as independent and responsible individuals and strengthen their role in the development of the country.

Keywords: Youth, responsibility, sustainable development, education, social activity, entrepreneurship, environmental responsibility, healthy lifestyle, information technologies, Uzbekistan.

2016-yilda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo‘nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun sharoitlar yaratishga xizmat qilishi alohida ta’kidlanib, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar qonun bilan mustahkamlandi.

Mazkur qonunda belgilangan vazifalar ijrosi doirasida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish, yoshlar sohasidagi muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi hamda Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Bundan tashqari, Oliy Majlis Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi, Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya, Oliy Majlis palatalari huzurida “Yoshlar parlamenti” tashkil qilindi. Shu bilan birga Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi tashkil etildi. Hududlarda “Loyihalar fabrikasi” ish boshladi. [O‘RQ-406-son., 15.09.2016];

Mazkur ishlar natijasida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgandan buyon 841 147 nafar yoshning bandligi ta’minlandi. 2021-yilning birinchi yarmida Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 78 140 nafar yoshlar ishga joylashtirilgan bo‘lib, 5 684 nafar yoshga subsidiyalar ajratildi, ijtimoiy himoyaga muhtoj 127 nafar talabaning 350 million so‘mlik to‘lov shartnoma mablag‘lari to‘lab berildi.

Yoshlarni ish bilan ta’minlash, ularning tashabusini moliyalashtirish maqsadida 2018-yildan boshlab hududlarda 25 ta “Yosh tadbirkorlar” kovorking markazi va 157 ta “Yoshlar mehnat guzari” kompleksi faoliyat boshladi. “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi doirasida respublikaning tuman va shaharlarida amalga oshiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbusni targ‘ib qilish va ro‘yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur g‘oyani amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston yoshlar ittifoqi qoshida “5 tashabbus loyiha ofisi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Tegishli loyihalar, jumladan, “Sport karvoni”, “Bir million dasturchi”, “Eng yaxshi kitobxon oila” kabi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Turli sohalarda samarali faoliyat yuritayotgan, yuqori natijalarga erishib, tengdoshlariga o‘rnak bo‘layotgan yigit-qizlarni rag‘batlantirish maqsadida “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali ta’sis etildi. O‘tgan vaqt davomida 113 nafar yosh “Mard o‘g‘lon” davlat mukofoti bilan, 75 nafari esa “Kelajak bunyodkori” medali bilan mukofotlandi. [https://president.uz/oz/lists/view/7361];

Ta’lim-tarbiya sohasida ham so‘nggi yillarda ulkan o‘zgarishlar ro‘y berdi. Tizim tubdan isloh qilindi. Mazkur sohada yoshlar manfaatlarini ko‘zlab ko‘plab o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Birinchidan, maktabgacha ta’lim muassasalari va umumta’lim maktablari faoliyati tubdan yangilandi. O‘tgan besh yil davomida kichik yoshdagi bolalarni

maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi ikki barobar ortib, 60 foizga yetdi. Bugungi kunda bog‘chalar soni 14 mingdan oshdi. Dars sifatini oshirish maqsadida boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan yosh o‘qituvchilar oyligiga ustama haq to‘lash tizimi joriy etildi.

Bundan tashqari, yoshlarning chuqur bilim olishini ta’minlash maqsadida o‘tgan yillarda 98 ta ixtisoslashgan maktab tashkil etildi. Har bir hududda Prezident maktablarining tashkil etilishi ham iqtidorli va barkamol yoshlarni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Ikkinchidan, yoshlarning oliy ta’limga qamrovi oshirildi. 2016-yilda mamlakatimizda 65 ta oliy ta’lim tashkiloti faoliyat yuritgan bo‘lsa, 2021-yilda respublikadagi jami oliy ta’lim tashkilotlari soni ikki barobardan ko‘proqqa ortib, 127 taga yetdi.

2016-2017-o‘quv yilida o‘qishga qabul qilish parametrlari 57 907 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, 2021/2022 o‘quv yilida qabul parametrlari qariyb uch barobar oshirilib, 157 755 ni tashkil etadi. Xususan, davlat granti asosida o‘qishga qabul qilish parametrlari ham 1,5 barobar oshirildi.

Uchinchidan, ta’lim tizimidagi davlat siyosati takomillashtirildi. Ta’lim sohasini tubdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonun bilan yoshlarning uzluksiz ta’lim olishini ta’minlash maqsadida kunduzgi ta’lim shakli bilan bir qatorda sirtqi, kechki va masofaviy ta’lim shakllari joriy etildi. Dual ta’lim yo‘lga qo‘yildi.

To‘rtinchidan, yoshlarning bilim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab tijorat banklari tomonidan ta’lim kreditlarini Markaziy bankning asosiy stavkasida ajratishning yangi tizimi yo‘lga qo‘yildi. Unga ko‘ra, ta’lim kreditining asosiy qismi talaba oliy ta’lim tashkilotini tugatgandan so‘ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytarishi belgilandi. Bunda “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kirgan oilalar farzandlaridan ta’lim krediti uchun garov va kafilliklar talab etilmasligi alohida belgilandi.

Eng quvonarli yangiliklardan biri, shubhasiz, davlat oliy ta’lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta’lim shakliga kirish imtihonlarida eng yuqori ball to‘plagan 200 nafar yosh uchun davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti granti joriy qilinganidir. [https://lex.uz/docs/-4880189];

Oldingi yillarda ayrim oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirishda eng yuqori ball to‘plagan abituriyent to‘lov-shartnoma asosida qabul qilinishi holatlari ham kuzatilgan. Bunday adolatsizlik aholining, birinchi navbatda, yoshlarning katta e’tiroziga sabab bo‘lgan. Prezident grantining joriy etilganligi yoshlarga ta’lim olishi uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Mazkur grant sohiblariga a’lo o‘qishi, ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarida yutuqlarga erishgani uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat stipendiyasi tayinlanishi ham yoshlarga berilayotgan katta imkoniyatlardan dalolat beradi.

Shu o‘rinda xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishi hamda bandligini ta’minlashga har tomonlama ko‘maklashish maqsadida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligining tavsiyanomasiga ega bo‘lgan xotin-qizlar uchun

davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari ajratilganligi, shuningdek, ehtiyojmand oilalar farzandi bo‘lgan xotin-qizlar uchun oliy ta’limga ajratiladigan davlat grantlari soni 2 barobarga oshirish orqali 2000 taga yetkazilgani tahsinga loyiq. Bunday imkoniyatlarning yaratilishi qiz-yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi. [https://lex.uz/uz/docs/5831865];

Beshinchidan, xalqaro talablarga javob beradigan kadrlarni tayyorlashga e’tibor qaratilmoqda. Yoshlarimizni nufuzli xorijiy oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishini ta’minlash maqsadida “El-yurt umidi” jamg‘armasi tuzilib, xorijda bakalavriat, magistratura va doktoranturada o‘qish uchun stipendiyalar ajratildi. 2018-2020-yillarda mazkur jamg‘arma tomonidan 54 nafari xorijga magistraturaga, 42 nafari doktoranturaga, 191 nafari stajirovkaga, 698 nafari esa malaka oshirishga yuborilgan. 2021-yilda jamg‘arma tomonidan bakalavriatga 69 ta, magistraturaga 112 ta, doktoranturaga 91 ta o‘rin ajratilgan. Dunyoning eng nufuzli universitet va ilmiy markazlarida ta’lim olgan, innovatsion kompaniyalarida stajirovka o‘tagan yetuk bilim va malakaga ega bo‘lgan, o‘z Vatani ravnaqi yo‘lida tinimsiz mehnat qilishga tayyor kadrlarni xorijda tayyorlash albatta mamlakat rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekistonda barqaror taraqqiyotda yoshlarning mas’uliyatini oshirish istiqbollari juda muhim va ko‘p qirralidir. Yoshlar mamlakatning kelajagini belgilovchi kuch sifatida, ularning faol ishtiroki va mas’uliyati taraqqiyot jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi. Quyida bu borada bir nechta istiqbollarni ko‘rib chiqamiz:

1. Ta’lim tizimini rivojlantirish: Yoshlarning mas’uliyatini oshirish uchun ta’lim tizimini takomillashtirish zarur. Innovatsion metodlar, amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yoshlarni mustaqil va mas’uliyatli shaxslar sifatida shakllantirishga yordam beradi.

2. Ijtimoiy faoliyatni rag‘batlantirish: Yoshlarni ijtimoiy faoliyatga jalb etish, turli loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish va jamoat ishlari orqali mas’uliyat hissini oshirish muhimdir.

3. Karyera va tadbirkorlikni rivojlantirish: Yoshlarni tadbirkorlikka rag‘batlantirish, ularni biznes g‘oyalarini amalga oshirishga yo‘naltirish orqali iqtisodiy mas’uliyatlarini oshirish mumkin. Bu, shuningdek, yangi ish o‘rinlarini yaratishga ham xizmat qiladi.

4. Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish: Yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, sport va jismoniy faollikni oshirish orqali ularning mas’uliyatli qarorlar qabul qilishiga yordam beradi.

5. Ekologik mas’uliyat: Yoshlarni ekologik mas’uliyatga jalb etish, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarini yaratish orqali ularning ekologik ongini oshirish mumkin.

6. Axborot texnologiyalaridan foydalanish: Yoshlar axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni o‘rganishlari kerak. Bu ularga zamonaviy dunyoda raqobatbardosh bo‘lish va o‘z mas’uliyatlarini yanada oshirish imkonini beradi.

7. O‘zaro hamkorlik va muloqot: Yoshlar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish, fikr almashish va tajriba o‘rganish imkoniyatlarini yaratish orqali ularning mas’uliyat hissasini kuchaytirish mumkin.

Bu istiqbollarni amalga oshirish orqali Yangi O‘zbekistonda yoshlarning mas’uliyati oshadi va ular mamlakat taraqqiyotida faol ishtirok etishga tayyor bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, O‘RQ-406-son., 15.09.2016.

2. Shavkat Mirziyoev, O‘zbekiston yoshlariga bayram tabrigi. 30.06.2024. https://president.uz/oz/lists/view/7361

3. O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6017-son Farmoni, 01.07.2020, https://lex.uz/docs/-4880189.

4. O‘zbekiston Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, https://lex.uz/uz/docs/5831865.

YOSHLAR ONGIDA BARQARORLIK G‘OYALARINI SHAKLLANTIRISH VA MUSTAHKAMLASH TEXNOLOGIYALARI

Atabek Abduraximovich Madraximov
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi,
atabekmadraximov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda yoshlar ongida barqarorlik g‘oyalarini shakllantirish texnologiyalari va mustahkamlash bosqichlari, xususan barqarorlik g‘oyalarining mazmun-mohiyati, ushbu g‘oyalarini shakllantirishdagi vazifalar mazmuni ochib berilgan. Millatning rivojlanishida milliy g‘oya beqiyos ahamiyatga ega. Shu boisdan, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan dasturiy g‘oya asosida yoshlarning ongi, qalbi va ichki dunyosiga milliy g‘oyani innovatsion texnologiyalar asosida singdirish, ularni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda tashabbuskorlik, fidoyilik, axloqiy fazilatlarni yanada shakllantirish – o‘ta sharafli vazifaga aylanmog‘i lozim.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, ma’naviyat, barqarorlik, g‘oya, texnologiya, ta’lim, tarbiya, taraqqiyot.

Аннотация. В данной тезисе описаны технологии и этапы укрепления идей стабильности в сознании молодежи, в частности, содержание идей стабильности, содержание задач по формированию этих представлений. Национальная идея имеет несравненное значение в развитии нации. Поэтому, исходя из программной идеи «От национального возрождения к национальному подъему», весьма почетной задачей должно стать на основе инновационных технологий внедрение национальной идеи в умы, сердца и внутренний мир молодых людей, воспитание их в духе верности Родине, дальнейшее развитие в них инициативы, самоотверженности, нравственных качеств.

Ключевые слова: молодежь, духовность, стабильность, идея, технология, образование, воспитание, развитие.

Abstract. This thesis reveals the technologies and stages of formation of ideas of stability in the minds of young people, in particular, the essence of the ideas of stability, the content of the tasks in the formation of these ideas. The national idea is of incomparable importance in the development of the nation. Therefore, on the basis of the programmatic idea “From national revival - towards national progress”, it should be a very honorable task to instill the national idea into the minds, hearts and inner world of young people using innovative technologies, to educate them in the spirit of loyalty to the motherland, to further form initiative, dedication, and moral qualities in them.

Keywords: Youth, spirituality, stability, idea, technology, education, upbringing, development.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda milliy g‘oyani aholi, xususan, yoshlar ongiga singdirish ustuvor vazifaga aylangan, chunki har bir yoshning faolligi uning ilg‘or g‘oyaga qat’iy amal va e’tiqod qilishiga chambarchas bog‘liq.

Milliy g‘oya har bir yoshda milliy g‘urur va iftixorning o‘sishi hamda ular qalbida yuksak vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirishda, chunonchi, turli zararli illatlar va tahdidlarga barham berishda milliy tarbiyaning muhim vositasi ekanligini inobatga olib qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi PQ-3160-sonli Qarori o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog‘lom, aqlan yetuk, keng dunyoqarashli va mustaqil fikrlovchi shaxslar sifatida shakllantirishni nazarda tutadi.

Yoshlar — har bir davlatning kelajagi, uning taraqqiyotida muhim rol o‘ynaydigan kuchdir. [https://lex.uz/docs/-3026246?ONDATE=26.01.2022]; Ularning ongida barqarorlik g‘oyalarini shakllantirish va mustahkamlash, nafaqat ularning shaxsiy rivojlanishi, balki jamiyatning umumiy farovonligi uchun ham zarurdir. Ushbu tezisda yoshlar ongida barqarorlik g‘oyalarini shakllantirish uchun zamonaviy texnologiyalar va usullar ko‘rib chiqiladi.

Yoshlarning jamiyatdagi faol ishtiroki, eng avvalo, ularning ong va tafakkuri o‘zgarishi orqali amalga oshiriladi. Jamiyatimizni yangilash va yoshlar ongini tashqi tahdidlardan, salbiy illatlardan himoyalashda milliy g‘oyachalik samarali va ta’sirchan vosita yo‘q. Shu boisdan yoshlar ongiga milliy g‘oyani singdirish mustaqillik yillarida yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

“Milliy g‘oya jamiyatda, ayniqsa, uning yosh a’zolari orasida milliy hamkorlik, milliy hamjihatlikning kuchayishiga ko‘mak beradi. U yetuk milliy ong, milliy g‘urur, milliy qadriyatlar, milliy birdamlik va hamjihatlik tuyg‘usi zaminida shakllanadigan vatanparvarlikni ham o‘z ichiga oladi”. [Bahodir Hayitmatov., 2018. – S.45];

Yoshlarda ona yurtga bo‘lgan muhabbat qanchalik kuchli bo‘lsa, iymon-e’tiqodi butun bo‘lsa, Vatanni sevish, yuksak darajada e’zozlash tuyg‘usi kuchayib borsa, har bir inson o‘z Vatani tarixini, milliy urf-odatlarini mukammal bilsa, xalqning tili, madaniyati, milliy manfaatlarini, millat taqdiri va istiqbolini chuqur anglab yetgan bo‘lsa, jamiyatimiz shunchalik mustahkam va barqaror bo‘ladi.

Yoshlar ongiga milliy g‘oyani singdirish, eng avvalo, ta’lim-tarbiya muassasalarida ma’naviy-tarbiyaviy ishlar orqali amalga oshiriladi.

Milliy g‘oya yoshlar ongini harakatga keltiradi, ularning ezgu tashabbuslarini ro‘yobga chiqaradi. Yoshlar esa o‘z salohiyati bilan jamiyatni yangilaydi va avlodlarning bardavom an’analarini davom ettiradi.

Barqarorlik g‘oyalari — bu ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik masalalarni hal qilishda muvozanatni saqlashga qaratilgan tushunchalardir. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

• Ekologik barqarorlik: tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish.

• Ijtimoiy barqarorlik: jamiyatda tenglik, adolat va ijtimoiy ko‘makni ta’minlash.

• Iqtisodiy barqarorlik: iqtisodiy o‘sish va barqaror ish o‘rinlarini yaratish. [Tashmetov, T. X., 2020. – S.617];

Shu bilan birga, milliy g‘oya yoshlar ongini tashqi tahdidlardan himoyalash va ularga qarshi kurashishda eng ta’sirchan himoya vositasi hamdir. Mamlakatimizda

huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda yoshlar ongida milliy g‘oyani shakllantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, ta’lim muassasalarida “Vatan tuyg‘usi”, “Odobnoma”, “Milliy g‘oya”, “Shaxs va jamiyat”, “O‘zbekiston tarixi” kabi fanlardan o‘tkazilayotgan dars mashg‘ulotlarini ilg‘or pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy texnik vositalarini keng tatbiq etish asosida olib borish, shuningdek, amaliy darslarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri mustaqillik yillarida bunyod etilgan muzeylar va ulkan madaniy obidalarining o‘zida o‘tkazish;

Ikkinchidan, ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan ARM (axborot-resurs markazlari) bo‘linmalarini yaqin atrofda joylashgan mahalla idorasida ochib, hududdagi yoshlarni kitob o‘qishga keng jalb qilish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;

Uchinchidan, yoshlar orasida milliy g‘oyani targ‘ib qilishda zamonaviy axborot vositalaridan keng foydalanish, jumladan, Internet global axborot almashinuvi tarmog‘i orqali, kabel televideniyesi studiyalari yordamida, uyali aloqa operatorlarini keng jalb qilib, qo‘l telefonlar yordamida, shuningdek shaharlarimiz ko‘chalari va xiyobonlarida o‘rnatilgan videomonitorlar yordamida vatanparvarlik targ‘ibotini yanada kuchaytirish;

To‘rtinchidan, ekranda yoshlarbop milliy seriallar, bolalar uchun multiplikatsion filmlar yaratish orqali yoshlarda milliy o‘zlikni anglash hamda milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirishni tizimli davom ettirish;

Beshinchidan, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodning iymon-e’tiqodini yanada mustahkamlash uchun jamiyatimizda va fuqarolar ong-shuurida islom dini qadriyatlarini mustahkamlash borasida olib borilayotgan sa’y-harakatlarimizni izchil davom ettirish, bunda ayniqsa keyingi davrda mamlakatimizda bunyod etilgan muhtasham Islom sivilizatsiyasi markazi, Islom akademiyasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati bilan yoshlarni yaqindan tanishtirish;

Oltinchidan, yoshlarga oid axborot maydonini yanada kengaytirish zarur, ushbu maqsadga erishish uchun yoshlarning matbuot nashrlari hamda ixtisoslashgan internet resurslar, turli ijtimoiy tarmoqlarning salohiyatidan keng foydalanish. [O.Bozorov., 2018. – S.20];

Yoshlar ongida barqarorlik g‘oyalarini shakllantirish texnologiyalari:

1. Axborot Texnologiyalari

• Onlayn ta’lim platformalari: Yoshlar uchun barqarorlik g‘oyalari bo‘yicha onlayn kurslar va vebinarlar tashkil etish. Bu platformalarda ekologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy masalalar bo‘yicha ma’lumotlar taqdim etilishi mumkin.

• Ijtimoiy tarmoqlar: Barqarorlik g‘oyalarini targ‘ib qilish uchun ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish. Yoshlar o‘z fikrlarini, tajribalarini va g‘oyalarini baham ko‘rishlari mumkin.

2. Interaktiv o‘yinlar va Simulyatsiyalar

• Barqaror rivojlanish masalalarini o‘yin orqali o‘rganish. Masalan, simulyatsiya o‘yinlari orqali yoshlar resurslarni boshqarish, ekologik muammolarni hal qilish va ijtimoiy masalalarni yechishga o‘rganadilar.

3. Ijtimoiy Loyihalar

• Yoshlarni ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishga jalb qilish. Bunday loyihalar orqali ular barqarorlik g‘oyalarini amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Masalan, ekologik tozalash tadbirlari yoki ijtimoiy yordam dasturlari.

4. Mentorlik Dasturlari

• Tajribali mutaxassislar va yoshlar o‘rtasida mentorlik aloqalarini o‘rnatish. Mentorlar yoshlarni barqarorlik g‘oyalari haqida ma’lumot berish, ularni rag‘batlantirish va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishda yordam berishi mumkin.

5. Innovatsion Texnologiyalar

• Yashil texnologiyalar: Yoshlarni yashil energiya manbalari, qayta tiklanadigan resurslar va ekologik innovatsiyalar bilan tanishtirish. Bu texnologiyalar yordamida ular o‘z hayotlariga barqarorlik g‘oyalarini singdirishi mumkin. [A.Azizxo‘jayev., 2020. – S.20];

Yoshlar ongida barqarorlik g‘oyalarini shakllantirish va mustahkamlash jarayoni murakkab, ammo zaruriy hisoblanadi. Zamonaviy texnologiyalar va usullar yordamida bu jarayonni yanada samarali amalga oshirish mumkin. Yoshlarning faol ishtiroki, ularning bilim va ko‘nikmalarini oshirish orqali mamlakatimizning kelajagini barqaror ravishda rivojlantirishga erishamiz. Barqarorlik g‘oyalari yoshlar ongida mustahkam o‘rin egallagach, ular nafaqat o‘z hayotlarini, balki jamiyatni ham yanada yaxshilashga hissa qo‘shadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

2. “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”, O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, O‘RQ-406-son., 15.09.2016. https://lex.uz/docs/-3026246?ONDATE=26.01.2022.

3. Bahodir Hayitmatov, Yoshlar ongida milliy g‘oyani shakllantirishning muhim yo‘nalishlari. 30-aprel, 2018-yil. **http://manaviyat.uz/post/view/69**.

4. Tashmetov, T. X. (2020). Yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarning tarbiyadagi ahamiyati. “Science and Education” Scientific Journal, 1(7).

5. O.Bozorov, “Milliy g‘oya va targ‘ibot samaradorligi”. T.: “Ma’naviyat” 2018.

6. A.Azizxo‘jayev. Milliy istiqlol g‘oyasi va targ‘ibot texnologiyasi. “Jamiyat va boshqaruv”, 2000, 3-son.

YAPON ANIMELARI TARIXI VA RIVOJLANISHI

Saminbayev Mashhurbek Ravshanbek o‘g‘li
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Yapon animelari 20-asrning boshlarida Yaponiyada paydo bo‘lib, bugungi kunda global miqyosda mashhur bo‘lgan san’at janridir. Ularning tarixi 1917-yilda boshlanib, 1960-yillarda “Astro Boy” seriyasi bilan ommalashdi. Hozirda anime faqat ko‘ngilochar sanoat bilan cheklanmay, balki video o‘yinlar kabi subkulturalarga ham asos bo‘ldi. Ushbu tesiz yapon animelari tarixini, rivojlanishini va global ta’sirini qisqacha tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: Yapon animelari, anime tarixi, Osamu Tezuka, Astro Boy**,** anime sanoati, anime janrlari, global ommalashish, Manga, Cosplay, anime madaniyati, texnologiya va anime, Yapon madaniyati, animatsiya san’ati

Аннотация. Японские аниме появились в Японии в начале 20-го века и на сегодняшний день стали популярным искусством мирового масштаба. Их история начинается с 1917 года, а в 1960-х годах с выходом серии "Астро Бой" аниме стало массовым. В настоящее время аниме стало не только частью развлекательной индустрии, но и основой для таких субкультур, как манга, видеоигры и косплей. В этой статье кратко анализируется история японских аниме, их развитие и глобальное влияние.

Ключевые слова: Японские аниме, история аниме, Осаму Тэдзука, Астро Бой, анимационная индустрия, жанры аниме, глобальное распространение, манга, косплей, культура аниме, технологии и аниме, японская культура, искусство анимации.

Abstract. Japanese anime emerged in Japan in the early 20th century and has become a globally popular art form today. Its history dates back to 1917, and in the 1960s, with the release of the "Astro Boy" series, anime gained mass popularity. Today, anime is not only a part of the entertainment industry but has also become the foundation for subcultures such as manga, video games, and cosplay. This article briefly analyzes the history of Japanese anime, its development, and its global influence.

Key words: Japanese anime, history of anime, Osamu Tezuka, Astro Boy, anime industry, anime genres, global popularity, manga, cosplay, anime culture, technology and anime, Japanese culture, animation art.

Yapon animelari (yaponcha: アニメ, “anime”) – bu nafaqat Yaponiyada, balki butun dunyoda sevimli bo‘lib, o‘ziga xos madaniy hodisaga aylangan san’at janridir. Ularning tarixi ko‘plab ijtimoiy, texnologik va madaniy omillarga bog‘liq bo‘lib, bugungi kunda yapon animelari dunyo miqyosida keng tarqalgan va turli janrlar, uslublar bilan boyitilgan. Yapon anime sanoati nafaqat ko‘ngilochar soha, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy ta’sirga ega bo‘lgan bir soha hisoblanadi. Yapon animelari tarixi 1917-yildan boshlanadi. Yaponiyada animatsiya san’ati uzoq vaqt davomida qo‘llanilmagan, ammo Birinchi Jahon Urushidan keyin, Yaponiyada yangi san’at va madaniyat rivojlanishiga sharoit yaratildi. 1917-yilda Yaponiyada birinchi animatsiya filmi “Namakura Gatana” (The Dull Sword) chiqarildi. Ushbu filmning davomiyligi

atigi 4 daqiqa edi, ammo bu Yaponiyada animatsiya sanoatining boshlanishi sifatida tarixga kirdi. [**Abdullayev A., 2015. - 123**.];

1930-yillarda, iqtisodiy inqiroz va urushga tayyorgarlik davrida, animatsiyalar ko‘pincha madaniy va ijtimoiy maqsadlarda ishlatilgan. 1933-yilda ishlab chiqarilgan “Momotaro Umi no Shinpei” (Momotaro, Divine Soldier of the Sea) animatsiyasi, ikkinchi jahon urushiga tayyorgarlik sifatida yaratilgan edi. Bu film Yapon urush propagandasi sifatida ishlatilgan va davlat tomonidan moliyalashtirilgan.

1950-yillarda Yaponiyada animatsiya sanoati yangi bosqichga o‘tdi. 1960-yilda “Osamu Tezuka”, “Astro Boy” (Tetsuwan Atom) deb nomlangan animeni yaratdi, bu anime Yaponiyada televizor orqali namoyish etilgan birinchi anime sifatida tarixga kirdi. “Astro Boy” animasining muvaffaqiyati, animatsiyalarni keng auditoriyaga, jumladan, bolalar va oila a’zolariga yetkazishda muhim rol o‘ynadi. Bu anime nafaqat Yaponiyada, balki butun dunyoda katta qiziqish uyg‘otdi. [**Saidov J., 2017. - 45**];

1960-1970-yillarda anime sanoati bir necha muhim o‘zgarishlarni boshdan kechirdi. Televizorlar va mass-media texnologiyalarining rivojlanishi, anime ko‘rsatuvlarini butun Yaponiyada ommalashtirdi. Ushbu davrda “Tetsujin 28-go” (Gigantor), “Speed Racer” (Mach GoGoGo) va “Astro Boy” kabi mashhur anime seriyalarini yaratish, sanoatni rivojlantirishga katta ta’sir ko‘rsatdi.

1980-1990-yillar Yapon anime sanoati uchun jadal rivojlanish davri bo‘ldi. Ushbu davrda turli janrlar paydo bo‘ldi va ular butun dunyoda ommalasha boshladi. 1980-yillarda yapon animelari ko‘plab yangi texnologiyalarni, jumladan, kompyuter grafikalarini qo‘llashni boshladi, bu esa animatsiyaning sifati va vizual imkoniyatlarini oshirdi. Shuningdek, Yaponiyada manga va anime o‘rtasida yaqin aloqalar o‘rnatildi, chunki ko‘plab anime seriyalar manga (yapon komikslaridan) asoslanib yaratilgan.

1988-yilda chiqarilgan “Akira” anime filmi nafaqat Yaponiyada, balki butun dunyoda katta muvaffaqiyatga erishdi. “Akira” filmidagi futuristik vizual tarz va murakkab hikoya yapon animelari uchun yangi bir davrni boshlab berdi. Ushbu film nafaqat texnik jihatdan, balki badiiy nuqtai nazardan ham anime sanoatiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

1980-1990-yillarda “Dragon Ball Z”, ‘Mobile Suit Gundam”, “Sailor Moon”, “Neon Genesis Evangelion” kabi anime seriyalari chiqdi va butun dunyoda sevildi. Ayniqsa, “Dragon Ball Z” va “Sailor Moon” bolalar va yoshlar o‘rtasida juda mashhur bo‘lib, anime global miqyosda yanada ommalashishiga olib keldi. [**Rakhimov M., 2019. - 120**.];

2000-yillar Yapon animelari tarixida muhim o‘zgarishlar kiritgan davr bo‘ldi. Internetning keng tarqalishi, animeni butun dunyoda, ayniqsa, Shimoliy Amerika va Yevropada, keng auditoriyaga taqdim etdi. Yapon animelari endi nafaqat Yaponiyada, balki boshqa mamlakatlarda ham o‘zining ahamiyatini oshirdi.

2000-yillarda “Pokemon”, “Naruto”, “One Piece”, “Bleach”, “Attack on Titan” kabi anime seriyalari, jahon miqyosida yangi avlodni o‘ziga jalb qildi. “Pokemon” nafaqat anime, balki o‘yinlar, kartalar va boshqa mahsulotlar bilan to‘liq ko‘ngilochar media-franshizaga aylandi. Ushbu davrda anime bozorida rivojlanayotgan yangi texnologiyalar, yuqori sifatli animatsiya va ko‘plab yangi janrlarni yaratishda yordam berdi.

Anime madaniyati 2000-yillarda cosplay (karakterlarni kiyinish) va manga (yapon komikslar) orqali yanada ommalashdi. 2000-yillar o‘rtalarida “Studio Ghibli”ning mashhur filmlari, jumladan, “Spirited Away” (2001) jahon bo‘ylab katta muvaffaqiyatga erishdi va “Oskar” mukofotini yutgan birinchi yapon animatsiya filmi bo‘ldi. Bugungi kunda yapon animelari nafaqat madaniy fenomen bo‘lib, balki iqtisodiy jihatdan ham muhim sanoatga aylangan. Yapon anime sanoati har yili milliardlab dollarlik daromad keltiradi va butun dunyo bo‘ylab tarqalgan. Anime, shuningdek, video o‘yinlar, televizor dasturlari, filmlar va boshqa media-platformalar orqali keng tarqalgan.

Kelajakda yapon animelari yangi texnologiyalar, shu jumladan, sun’iy intellekt va 3D animatsiyalardan foydalanish orqali yanada rivojlanishi kutilmoqda. Anime sanoati hali ham innovatsion o‘zgarishlarga ochiq, va yangi avlod animatorlari tomonidan yaratilib, yanada kengroq auditoriyaga yo‘naltirilishi mumkin.

Yapon animelari global miqyosda keng tarqalgan va dunyo bo‘ylab ko‘plab madaniy va san’at shakllariga ta’sir ko‘rsatgan san’at janridir. Ularning tarixi va rivojlanishi yapon madaniyatining o‘ziga xosligini butun dunyoga tanitgan. Anime nafaqat Yaponiyada, balki boshqa mamlakatlarda ham yoshlar va subkulturalarni shakllantirgan, o‘zining badiiy uslubi, hikoya qilish metodlari va chuqur falsafiy mazmuni bilan jahon madaniyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. [**G‘afurov X., 2018. - 31**.];

Yapon animelari ijtimoiy va siyosiy masalalarni o‘z ichiga olgan holda, odamlarni chuqur o‘ylashga undaydi va zamonaviy insoniyatning turli jihatlarini o‘rganishga imkon yaratadi. Internet va yangi texnologiyalar yordamida anime dunyo bo‘ylab yanada keng tarqaldi, ko‘plab yangi auditoriyalarni o‘ziga jalb qildi.

Shunday qilib, yapon animelari faqat bir san’at janri emas, balki global madaniy fenomen sifatida o‘z o‘rnini topdi va o‘z ta’sirini kuchaytirishda davom etmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Yapon animelari tarixi uzoq va boy bir tarixga ega bo‘lib, u o‘zining estetikasi, hikoya uslubi va san’ati bilan butun dunyoda tanilgan. Yapon anime sanoati faqat Yaponiyada emas, balki butun dunyoda muhim madaniy va iqtisodiy ta’sirga ega bo‘ldi. Yapon animelari nafaqat o‘z mamlakatida, balki boshqa mamlakatlarda ham keng tarqalgan va o‘zining ta’sirini kuchaytirishga davom etmoqda.

Foydalangan adabiyotlar:

1. **Abdullayev A.** Yapon animatsiyasi tarixi va rivojlanishi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2015.
2. **Saidov J.** Yapon animelari va uning dunyo bo‘ylab ta’siri. Toshkent: San’at nashriyoti, 2017.
3. **Rakhimov M.** “Yapon madaniyati va animatsiya san’ati”. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti nashriyoti, 2019.
4. **G‘afurov X.** “Anime va manga madaniyati: Yaponning zamonaviy san’ati”. Buxoro: Buxoro Davlat Universiteti nashriyoti, 2018.

MULTIFILMLARNING BOLALAR TARBIYASIGA IJOBIY VA SALBIY TA’SIRI

Saminbayev Mashhurbek Ravshanbek o‘g‘li
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi, mmott7777@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi va ta’lim-tarbiyasining o‘ziga xosligi, maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshga doir pedagogik va psixologik xususiyatlari va ularning bola sog‘lom rivojlanishidagi ahamiyati, maktabgacha ta’lim davrida yosh davrlarining o‘ziga xos xususiyatlari masalasining ilmiy-nazariy ahamiyati, uni o‘rganilganlik darajasi va hozirgi vaqtdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs, jismoniy rivojlanish, ruhiy rivojlanish, ijtimoiy rivojlanishi, tevarak-atrof, ijtimoiy-tarixiy, qiziqish, qobiliyat, aql.

Аннотация. В данной статье рассмотрены особенности развития и воспитания дошкольников, возрастные педагогические и психологические особенности дошкольников и их значение в здоровом развитии ребенка, научная теория вопроса об особенностях возрастных периодов. в дошкольном образовании представлены его значение, уровень изученности и значимость в настоящее время.

Ключевые слова: личность, Физическое развитие, Психическое развитие, социальное развитие, окружающая среда, социально-исторический, интерес, способности, интеллект.

Abstract. This article examines the features of the development and upbringing of preschool children, the age-relatedpedagogical andpsychological characteristics of preschoolers and their importance in the healthy development of the child, the scientific theory of the issue of the characteristics of age periods. in preschool education its meaning, level of study and significance at the present time are presented.

Keywords: personality, Physical development, Mental development, social development, environment, socio-historical, interest, abilities, intelligence.

Farzandlarining bo‘sh vaqtlari bo‘lmasligi uchun, ba’zan esa ularning harhashalaridan qutilish maqsadida ota-onalar farzandlariga televizor yoki internetda multfilm qo‘yib berishadi. Ayniqsa internet plotfarmasidagi multfilmlar turli xil bo‘lib bolalarni o‘ziga ipsiz bog‘lab oladi. Bu multfilmlar bolani shu darajada o‘ziga maftun qiladiki, soatlab, kunlab hech qayerga qo‘zg‘almasdan ekranni tomosha qilishi mumkin. Bu hayratning ortida nima bor? Tomosha qilish haqiqatan ham chaqaloq uchun foydalimi? Va umuman, zamonaviy animatsiyalar qanchalik xavfsiz?

Bugungi kunda animatsiya yuqori daromadli biznes bo‘lib, birinchi navbatda foyda olishga qaratilgan va ko‘pincha masalaning axloqiy tomoni faqat ushbu biznes bilan shug‘ullanadigan odamlarning vijdoniga bog‘liq. Farzandlarimiz ekranga qaraganlarida aynan nimani o‘zlashtirayotganini tushunish uchun biz, kattalar, bu san’atni tushunishimiz kerak. Shifokorlar quyidagilarga ishonishadi: 2-3 yoshgacha multfilmning mazmuni bola tomonidan idrok etilmaydi; 3 yilgacha vizual tizim hali ham shakllanmoqda va animatsiyalarni tomosha qilish bolaning vizual funksiyasini

shakllantirish va rivojlantirish jarayonini buzadi; 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarning multfilmlarni tomosha qilishi markaziy asab tizimining ortiqcha yuklanishiga olib keladi, bu esa giperaktivlik yoki letargiyaga olib keladi; animatsion filmlarni erta ko‘rish nutq rivojlanishining kechikishiga olib keladi; bola ota-onalar bilan jonli muloqot qilish o‘rniga televizor ekranidan yetishmayotgan his-tuyg‘ularni qabul qilganda, diqqat yetishmasligi buzilishining rivojlanish xavfi ortadi. Bolalar multfilmlarni qancha vaqt tomosha qilishlari mumkin? Ajablanarlisi shundaki, bugungi kunda barcha onalar va otalar Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan tavsiya etilgan me’yorlardan xabardor emaslar. Misol uchun, 0 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarga teledasturlarni umuman ko‘rish taqiqlanadi; 3 yoshdan 7 yoshgacha - kuniga 30 daqiqagacha; 7 yoshdan 10 yoshgacha - kuniga 30-50 daqiqa; 11 yoshdan 18 yoshgacha - kuniga 1-3 soat. **[**Hilolaxon Nuriddinova., 2024. – S.120**];**

Yaxshi, chiroyli xulqni targ‘ib qiluvchi multfilmlarning maqsadi bolalarni go‘zal odobga o‘rgatadi. Undagi g‘oyalar jamiyatni to‘g‘ri yashash, uning qoidalarini buzish albatta jazoga tortilishini ko‘rsatib beradi. Bolani salbiy xarakterdan yiroq bo‘lishga undaydi. Yaxshi multfilmda har doim ikkita qarama-qarshilik mavjud: yaxshilik va yomonlik. Bu ikki tushuncha aniq ajratilgan va bola tomonidan osongina tanib olinadi. Ular bosh qahramonga ma’lum ta’sir ko‘rsatadi. Bu qarama-qarshi tushunchalar misollar bilan ko‘rsatilgan: do‘stlik, o‘zaro yordam, sevgi yordami (“Eng katta do‘st”, “Leopold mushuk” multfilmlarida) va g‘azab, ochko‘zlik, hasad qanday zarar etkazishi (“Treasure Island”, “Ochko‘zlik haqidagi ertak” va boshqalar). [**Hilolaxon Nuriddinova., 2024. – S.120**];

Bolalar uchun mo‘ljallangan barcha zamonaviy animatsion filmlar bolada ijobiy xarakter xususiyatlarini tarbiyalashga qaratilgan emas. Ulardan ba’zilari salbiy ta’sir ko‘rsatadi: tajovuzkorlik, shafqatsizlik, zaiflarga salbiy munosabat, oqsoqollarga hurmatsizlik va boshqalar. Bunday “asarlar” ni ko‘rgandan so‘ng, bolada tajovuzkorlik, shafqatsizlik namoyon bo‘ladi. Bunday multfilmlarning murakkab bo‘lmagan syujetlari tasavvurning rivojlanishiga, mantiqiy xotiraga, tasavvurni jamlash qobiliyatiga to‘sqinlik qiladi. Barkamol nutqning yetishmasligi chaqaloqning nutq qobiliyatini rivojlantirishga zarar etkazadi. Bu multfilmlarda mantiqiy hikoya yo‘q. Sizning o‘g‘lingiz yoki qizingiz multfilm nima haqida ekanligini ayta olmaydi (masalan, “Winx”), qahramonlar haqiqiydan yiroq ko‘rinishga ega, ular xunuk, nomutanosib ravishda tasvirlangan (masalan, “Futurama”).Bunday multfilmlarda salbiy va ijobiy qahramonlar aniq belgilanmagan. Ko‘rish davomida bola qahramonlarning qaysi biri ijobiy, qaysi biri salbiy ekanligini aniqlash qiyin. Buni tushunmasdan, bola qahramonni baholashi va unga ergashish uchun obyektni tanlashi qiyin. Salbiy qahramonlarning xatti-harakatlari jazolanmaydi va ularning yomon xulq-atvori maqsadlarga erishishga olib keladi (masalan, “Masha va ayiq’ multfilmida qahramon Mashaning injiqliklari maqsadlarga erishadi - u xohlagan narsasini oladi).

Multfilmlarning ijobiy ahamiyati haqida gapiradigan bo‘lsak, multfilmlar bolalarning dunyoqarashini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ular bolalarga yaxshilik va yomonlik, do‘stlik va hamkorlik kabi tushunchalarni tushuntirishda yordam beradi. Masalan, ijobiy qahramonlarning yaxshi xatti-harakatlari bolalarga hayotiy namunalar beradi. Bolalar bu orqali odob-axloq qoidalarini o‘zlashtiradi.

Yaxshi tarbiyaviy multfilm qiziqarli ham bo‘lishi kerak, shunda bolalar birinchi soniyalardan boshlab tasvirlarga mahliyo bo‘lib, qahramonga ishonadi. U bilan birga foydali ko‘nikmalarni o‘zlashtirishni va yangi narsalarni o‘rganishni boshlaydilar. Dunyodagi eng noodatiy o‘qituvchi bilan eng quvnoq ta’limiy multserial, kulgili soqolli “Bodo Borodo” hech narsani bilmaydi, lekin u bilan hamma narsani o‘rganishingiz mumkin. Sayohat o‘z ichiga xalqlar geografiyasi va madaniyati asoslarini, mustaqil sayohatlarni oladi. [https://daryo.uz/2022/05/11/kichkintoylar-uchun-bolalarning-aqliy-salohiyatini-rivojlantiruvchi-tarbiyaviy-video-va-multfilmlar]; To‘g‘ri, uning o‘zi ham har qadamda sarosimaga tushib qoladi va faqat sabr-toqatli shogirdlari yordamida kutilmagan hodisalarga to‘la bilim olamiga yo‘l ochadi.

Yosh bolalarga ilm-fan va barcha turdagi texnika, qurilma va asboblarning tuzilishi haqida oson va tushunarli tarzda ma’lumot beradigan multserial. Obyektiv dunyoni bilishda haqiqiy yordamchi. “Murvatchalar” bilan birgalikda farzandingiz lampochkalarni almashtirish, kir yuvish mashinasini yoqish, kompyuterni tuzatish va hokazolarni o‘rganadi.

Multifilmlar kichik yoshdagi bolalarning ijodiy va aqliy rivojlanishga ta’siri ham muhim. Multfilmlar bolalarning tasavvurlarini boyitib, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Rang-barang sahnalar, qiziqarli voqealar va musiqiy yo‘nalishlar bolalarning e’tiborini jalb qilib, ularning analitik fikrlash qobiliyatini oshiradi. Shuningdek, ma’lumotga boy multfilmlar (masalan, tabiat yoki fan haqidagi) bilim olishga qiziqish uyg‘otadi.

Til va nutq rivojlanishida ham, ayniqsa, multifilmlarning ahamiyati katta. Multfilmlar kichik yoshdagi bolalar uchun til o‘rganish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Ular yangi so‘zlarni o‘rganadi, gapirish madaniyatini tushunadi va intonatsiyani o‘zlashtiradi. Ayniqsa, bolalar ona tilida yaratilgan sifatli multfilmlardan foydalanib, o‘z nutqini boyitishi mumkin. Multfilmlar bolalarga:

- Do‘stlik va hamkorlik haqida saboqlar beradi;
- Yangi madaniyatlar va til imkoniyatlarini tanishtiradi;
- Emotsional intellektni oshiradi, ya’ni boshqalar tuyg‘ularini tushunishni shakllantiradi. Shunday qilib, multfilmlar bolalarining dunyoqarashini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Bu nafaqat yoshlarni, balki maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni ham chetda qoldirgani yo‘q. Chunki bugungi bog‘cha yoshdagi bolalar ham ingliz tilini o‘rganishga, ayniqsa, chet tillarni turli xil o‘yinlar orqali o‘rganishga qizishmoqda. Chet tillarni o‘yinlar orqali o‘rgatish bolalarning eng sevimli mashg‘ulotlaridan biri hisoblanadi, sababi bola olamni o‘yin orqali kashf etadi. Agar tillar o‘yin orqali o‘rgatilsa, bu bolalarning til ko‘nikmalarining o‘zlashtirilish samardorligini yanada oshiradi. Chunki o‘yin yordamida o‘rganish bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirib, atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga ham katta yordam beradi. Shu sababli tarbiyachi murabbiylar chet tillarini bolalarga turli xil o‘yinlar orqali o‘rgatishni yo‘lga qo‘yishlari kerak. Bolalar aynan o‘yin orqali bilim olib, shu bilan birgalikda, o‘z iqtidorlarini ham xuddi shu o‘yinlar orqali kashf etadilar. Bunga erishish uchun esa

ularning sezgi organlarini faollashtiruvchi muhit, vizual eshitish kabi faol ta’lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ta’limiy o‘yinlarga: chet tilida turli xil qo‘shiqlar kuylash, she’rlar aytish, raqsga tushish, qiziqarli o‘yinlar o‘ynash, videolar ko‘rish va qo‘l mehnati orqali turli xil narsalarni yasashni o‘z ichiga oladi. Salbiy ta’sirlarni kamaytirish yo‘llari. Garchi multfilmlar ko‘plab ijobiy jihatlarga ega bo‘lsa-da, noto‘g‘ri tanlangan yoki tomosha qilingan multfilmlar bolalarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Zo‘ravonlik yoki nojo‘ya mazmunli sahnalar bolalarning psixologiyasiga zarar yetkazishi ehtimoli bor. Shuning uchun ota-onalar va pedagoglar bolalar tomosha qiladigan multfilmlarni diqqat bilan tanlashlari lozim. Quyidagi maslahatlarga amal qilish tavsiya etiladi: yoshga mos multfilmlarni tanlash, multfilm mazmunini oldindan tekshirish, tomosha qilish vaqtini cheklash (masalan, kuniga 1-2 soat), multfilmlar haqidagi fikrlarni bolalar bilan muhokama qilish.

Zamonaviy dunyoda oila institutining o‘rni juda muhim. Uning o‘rni yo‘qolmasligi uchun ota-onalar farzandlarini ijtimoiy tarmoqlardan himoya qilishi zarur. Multfilmlar bolalarning hayotida juda muhim o‘rin tutadi. Ular nafaqat bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, balki ularning ta’lim olish jarayonida ham yordam beradi. Ammo bu jarayonni nazorat qilish va bolalarga sifatli, tarbiyaviy ahamiyatga ega mahsulotlarni taqdim etish muhimdir. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalarning multfilm tanloviga jiddiy e’tibor qaratishlari, ularga o‘z qiziqishlariga mos va foydali bo‘lgan multfilmlarni taqdim etishlari lozim. Shu yo‘l bilan biz bolalar tarbiyasida multfilmlardan samarali foydalanishimiz mumkin. Multifilmlar kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalashda samarali vosita bo‘lib, ular orqali ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishish mumkin. Biroq, multifilmlarning tanlovi va foydalanish me’yorlariga amal qilish muhim ahamiyatga ega. Tahlillarimiz orqali quyidagi xulosa kelindi:

- Multifilmlar kichik yoshdagi bolalarning qiziqishlarini uyg‘otuvchi qudratli vosita bo‘lib, ular orqali oson va samarali tarzda axloqiy tushunchalarni singdirish mumkin. Bolalar odatda o‘zlariga yoqqan qahramonlar bilan o‘zlarini tenglashtirib, ularning harakatlarini takrorlashga intiladi. Masalan: Odob-axloqni shakllantirish: bolalar “Dora the Explorer” kabi ta’limiy multifilmlar orqali do‘stlik, yordamsevarlik va halollik kabi qadriyatlarni o‘rganishadi;

- Rang-barang tasvirlar va qiziqarli syujetlar bolaning tasavvur dunyosini kengaytiradi;

- Tilni o‘rganishda ko‘p tilli multifilmlar, masalan, ingliz yoki rus tillaridagi seriallar foydali hisoblanadi;

- Ta’limiy mazmun: Zamonaviy multifilmlar o‘quv dasturlari bilan mos keluvchi ma’lumotlarni yetkazishda yordam beradi. Masalan, “Sesame Street” orqali bolalar matematikani, harflarni va boshqa mavzularni qulay tarzda o‘rganishadi;

- Multifilmlarda xarakterlarning his-tuyg‘ulari ko‘rsatilishi orqali bolalar hissiyotsiz qolmasdan, empatiya va rahm-shafqatni shakllantiradi.

Biroq, noto‘g‘ri tanlangan yoki haddan tashqari ko‘p ko‘rilgan multifilmlar salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

- Haddan ziyod televizor tomosha qilish bolalarda harakatsizlik, ko‘z va ruhiy charchoqni keltirib chiqaradi;

- Zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi yoki bolalar uchun nojo‘ya mazmunni o‘z ichiga olgan multifilmlar bolalarning psixologiyasiga zarar yetkazishi mumkin.

Har bir yosh guruhiga mos keluvchi kontent mavjud bo‘lib, uni tanlashda bolaning rivojlanish bosqichini hisobga olish lozim. Kichik yoshdagi bolalar uchun bir kunda 30-60 daqiqadan ortiq televizor tomosha qilish tavsiya etilmaydi. Ota-onalar bolalar bilan birga multifilm tomosha qilib, unda aks etgan voqealar haqida muhokama qilishlari bolalar fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Toshova Shaxnoza T.-“Oilaning maktabgacha ta’lim muasasasi bilan olib boriladigan faoliyatining hamkorligini tashkil etishi”-Golden Brain -2023
2. Davletshin M.G., Kovalev A.G., Kruteskiy V.A. “Qobiliyat va uning diagnostikasi”.
Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
3. Hilolaxon Nuriddinova. “Farzandingiz ko‘rayotgan multfilmlar qanchalik foydali yoki zararli?”-Samarqand. 2024. https://www.samdu.uz/uz/news/31346
4. https://daryo.uz/2022/05/11/kichkintoylar-uchun-bolalarning-aqliy-salohiyatini-rivojlantiruvchi-tarbiyaviy-video-va-multfilmlar

YOSHLAR IJTIMOIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHDA “DAVLAT MAQSADLI JAMG‘ARMASINING” O‘RNI

Abdullayev Sherzod
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi
abdullayevsherzod1997@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, ularning biznes g‘oyalarini va tashabbuslarini qo‘llab –quvvatlashda Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi tashkil etilishining zarurati va ahamiyati shuningdek, ushbu jamg‘armaning vazifalari haqida so‘z yuritilgan.

Abstract. This article discusses the necessity and significance of establishing the State Target Fund for the Development of Youth Entrepreneurship to actively involve young people in entrepreneurship and support their business ideas and initiatives. It also highlights the tasks of this fund.

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость и значимость создания Государственного целевого фонда развития молодежного предпринимательства для широкого привлечения молодежи к предпринимательской деятельности, поддержки их бизнес-идей и инициатив. Также раскрываются задачи данного фонда.

Kalit so‘zlar. Yoshlar tadbirkorligi, startap, Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi, Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi, biznes loyiha, Venchur jamg‘arma, realizatsiya, investor.

Keywords: youth entrepreneurship, startup, youth entrepreneurs support fund, State Target Fund for the Development of Youth Entrepreneurship, business project, venture fund, implementation, investor.

Ключевые слова: молодежное предпринимательство, стартап, фонд поддержки молодых предпринимателей, Государственный целевой фонд развития молодежного предпринимательства, бизнес-проект, венчурный фонд, реализация, инвестор.

Yoshlar jamiyatning barcha sohalarida yangi bilim va tajribalarni tez o‘zlashtiradigan ijtimoiy qatlam hisoblanadi. Shu bois ko‘plab faylasuflar va tadqiqotchilar yoshlarning ma'naviy va moddiy rivojlanishini o‘rganishga alohida e’tibor qaratib kelgan. Yosh avlodning ma'naviy madaniyatiga oid tadqiqotlar esa har bir jamiyatning amalga oshirayotgan islohotlari natijasini baholash imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, yoshlar nafaqat ajdodlardan meros bo‘lib qolgan ma'naviy qadriyatlarning iste’molchisi, balki kelajak avlodga yetkaziladigan ma’naviy merosning shakllantiruvchisi ham hisoblanadi. Ular jamiyatda madaniyatlararo muloqotning faol ishtirokchisi bo‘lib, ma'naviy qadriyatlarning uzluksizligini ta’minlaydi. Viloyat, shahar, davlat va umuman, butun jamiyatning istiqboli bevosita yoshlarning dunyoqarashi va faoliyatiga bog‘liq. Ularning hayotga bo‘lgan munosabati, taraqqiyotga qo‘shadigan hissasi, zamonaviy muhitga moslashishi yoki global miqyosda o‘zgarishlar qilishga intilishi jamiyat kelajagini belgilaydi.

Ma'naviy madaniyat zamon talablariga mos ravishda o‘zgarib va rivojlanib boradigan hodisa bo‘lgani uchun, uni muntazam o‘rganish dolzarb vazifalardan biri sanaladi. Shu bois yoshlar madaniyatiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish, uni zamon ruhiga mos ravishda baholash ilmiy jihatdan ham, amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Yoshlar ma'naviy madaniyatiga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillardan biri iqtisodiy omillardir. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda iqtisodiy islohotlar jadal sur’atlarda amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda. Xususan, mamlakat iqtisodiyotini erkinlashtirish, turli ijtimoiy qatlamlarga tadbirkorlik bilan shug‘ullanish uchun qulay sharoit yaratish, yoshlarning ishbilarmonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Natijada, so‘nggi yillarda mamlakat iqtisodiyoti sezilarli darajada o‘sishga erishdi.

Har qanday jamiyatning kelajagi unda voyaga yetayotgan yosh avlodning har tomonlama rivojlanishiga, xususan, iqtisodiy bilim va tadbirkorlik sohasida egallagan malakalariga bevosita bog‘liq. Bu borada millat istiqboli haqida qayg‘urgan jadid bobolarimizdan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘zining *"Ehtiyoji millat"* maqolasida: *"Tijorat yuritish uchun moliyaviy savodxonlik, hisob-kitob qilish va buxgalteriya asoslarini bilish muhim. Biroq bu yo‘nalishda yetarli mutaxassislar yetishib chiqmayapti"* deya millatning iqtisodiy va tadbirkorlik sohasi bo‘yicha bilim darajasining pastligini tanqid ostiga olgan.

Hozirgi vaqtda yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun turli davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan qator imkoniyatlar taqdim etilmoqda. Yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb etish, ularning startap va biznes loyihalari, g‘oya va tashabbuslarini amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko‘rsatish faoliyatini rag‘batlantirish, shuningdek, yoshlarga qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratishga yo‘naltirilgan tadbirkorlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash orqali ularning bandligini ta’minlash tizimini takomillashtirish maqsadida qator amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Har yili prezidentimiz tashabbuslari bilan Yoshlar kunida yoshlarga juda katta imkoniyatlar taqdim qilinadi. Bu yil ham Prezidentimizning PQ-60-sonli “Yoshlar tadbirkorligini hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Mazkur Qarorda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi negizida Yoshlar ishlari agentligi huzurida davlat muassasasi shaklida “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi” tashkil etilishi belgilangan. Bu kabi amaliy ishlar yurtimizda amalga oshirilib kelayotgan islohatlarning izchil davomi sifatida yoshlarni kelajakda o‘z o‘rnini topishiga katta yordam beradi. Qarorda y**oshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat qilib belgilab qo‘yildi.**

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish hamda ularning bandligini ta’minlashga qaratilgan biznes loyihalar, shuningdek, yoshlar ishtirokidagi va qishloq xo‘jaligi

yerlari ajratilgan yoshlarga xizmat ko‘rsatuvchi qishloq xo‘jaligi kooperativlari loyihalarini qo‘llab-quvvatlash;

ichki va tashqi bozorlarda talab ko‘p bo‘lgan yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi biznes loyihalarni moliyalashtirish;

kooperatsiya aloqalari asosida yoshlar tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni (xizmatlar ko‘rsatishni) rivojlantirish orqali biznes loyihalarga ko‘maklashish;

startap, raqamli, innovatsion, yashil va resurs tejamkor tamoyillar hamda yondashuvlarga asoslangan biznes loyihalarni qo‘llab-quvvatlash;

yoshlar ishtirokida shakllanib kelayotgan milliy brendlarni yanada rivojlantirishga ko‘maklashish;

biznes loyihalarni tijorat va xizmat ko‘rsatish binolari (maydonlari) bilan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ta’minlash;

inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturini muvaffaqiyatli yakunlagan hamda startap loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun o‘tkazilgan nufuzli tanlovlarda g‘olib (sovrindor) bo‘lgan startap loyihalarni moliyalashtirish;

yoshlarning istiqbolda muvaffaqiyatga erishish salohiyati yuqori bo‘lgan startap g‘oyalarining namunaviy modelini (MVP) yaratish, xalqaro inkubatsiya yoki akseleratsiya dasturlarida ishtirok etishini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash.

Yuqoridagi ustuvor vazifalardan kelib chiqib, shuni aytishimiz mumkinki yoshlarga qishloq xo‘jaligi yerlari ajratilishi, kooperativlar shakllantirilishi nafaqat yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashi, balki butun mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasining belgilangan vazifalari yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, bandlik darajasini ko‘tarish va innovatsion biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu chora-tadbirlar natijasida yosh tadbirkorlar o‘z biznes loyihalarini amalga oshirish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni tadbirkorlikka tatbiq etish, hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Jamg‘armaning moliyaviy ko‘magi yoshlar uchun startap loyihalarni yo‘lga qo‘yishda muhim resurs bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini qo‘llab-quvvatlash yosh tadbirkorlarning biznes sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularga xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini yaratish va milliy brendlarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi kooperativlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar qishloq joylarida yoshlarning bandligini ta’minlash va ushbu sohada innovatsion yondashuvlarni keng joriy etishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, resurs tejamkor, ekologik toza va innovatsion biznes g‘oyalarning moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishi barqaror iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi. Ushbu jarayon yoshlar orasida tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish, iqtisodiy mustaqillikka erishish va jamiyatning umumiy farovonligini oshirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Shunday qilib, jamg‘armaning asosiy maqsadi yoshlarni iqtisodiy jihatdan faollashtirish, ularning tadbirkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish va mamlakatning

barqaror iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo‘shishdan iborat. Ushbu tashabbuslar yoshlarning kelajakda muvaffaqiyatli tadbirkorlar bo‘lib yetishishiga, ularning yangi ish o‘rinlarini yaratishiga va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Бехбудий М.** Эҳтиёжи миллат // Самарқанд. – 1913. – № 21. – С. 23–25.
2. **Президент Республики Узбекистан.** О мерах по созданию Государственного целевого фонда развития молодежного предпринимательства: Постановление Президента Республики Узбекистан от 14 февраля 2025 г. № ПП-60. – Доступно по: https://www.lex.uz/uz/docs/-7386867 (дата обращения: 20.03.2025).
3. **Ёшлар – келажагимиз**: Государственная программа. // Народное слово. – 2025. – № 45. – С. 3–5.
4. **Бехбудий М.** Муҳтарам ёшларга мурожаат // Самарқанд. – 1914. – № 15. – С. 12–14.
5. **Бехбудий М.** Ёшларга мурожаат // Самарқанд. – 1913. – № 18. – С. 10–11.

SHARQ PEDAGOGIKASIDA “QOBUSNOMA” VA “SIYOSATNOMA” ASARLARINING TUTGAN O‘RNI

Tuliyev Qurbonboy Qadamboy o‘g‘li
UrDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarini o‘qitish metodikasi (Ma’naviyat asoslari) ta’lim yo‘nalishi magistranti, qurbonboyqadamboyevich@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda “Qobusnoma” va “Siyosatnoma” asarlaridagi pedagogik qarashlarning Sharq pedagogikasidagi o‘rni yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: pedagogika, “Qobusnoma”, “Siyosatnoma”, ilm, ustoz-shogird, adolat, axloq, hunar.

Аннотация. В данном тезисе освещается роль педагогических взглядов, представленных в произведениях «Кабуснаме» и «Сиясатнаме», в развитии восточной педагогики.

Ключевые слова: педагогика, «Кабуснаме», «Сиясатнаме», наука, учитель-ученик, справедливость, этика, ремесло.

Abstract. This thesis highlights the role of pedagogical views presented in Qabusnama and Siyasatnama in the development of Eastern pedagogy.

Keywords: pedagogy, Qabusnama, Siyasatnama, knowledge, teacher-student, justice, ethics, craft.

Sivilizatsiya beshiki hisoblangan sharq pedagogikasining tafakkur tarixi boy va serqirra bo‘lib, unda turli davr mutafakkirlarining ta’lim va tarbiya haqidagi qarashlari muhim o‘rin tutadi. Kaykovus tomonidan yozilgan “Qobusnoma” hamda Nizom ul-Mulkning “Siyosatnoma” asarlari Sharq pedagogikasining shakllanishi va rivojlanishida muhim manba vazifasini bajarib kelmoqda. Ushbu tezis ikki asarning ilmiy-tarixiy tadqiqi va ularning bugungi ta’lim tizimidagi ahamiyatini tahlil qilishga bag‘ishlanadi.

Sharq pedagogikasi ming yillik tajribalarga tayangan holda inson tarbiyasiga oid bebaho manbalarni yaratgan. Bu borada “Qobusnoma” va “Siyosatnoma” asarlari muhim o‘rin tutadi. Ushbu asarlar yosh avlod tarbiyasi, odob-axloq me’yorlari va jamiyatdagi insonlarda bo‘lishi lozim bo‘lgan fazilatlarni yoritib beruvchi muhim pedagogik qo‘llanmalardir.

“Qobusnoma” — XI asrda Kaykovus tomonidan yozilgan pand-nasihat asari bo‘lib, unda inson kamoloti, axloqiy tarbiya va kasb-hunar egallashning ahamiyati keng yoritilgan. Muallif o‘z o‘g‘liga nasihat shaklida yozgan bu asarda halollik, ezgulik, bilim olish va hunar o‘rganish kabi g‘oyalar ilgari suriladi. Bu asar yoshlarning barkamol inson bo‘lib yetishishi uchun muhim manba hisoblanadi.

“Siyosatnoma” — XI asrda Nizom ul-Mulk tomonidan yozilgan siyosiy-pedagogik asar bo‘lib, unda davlat boshqaruvi, adolat va odil hukmdor bo‘lish qoidalari yoritilgan. Asarda davlat arboblari, amaldorlar va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlar, insoniylik, axloqiy fazilatlar hamda ilmga bo‘lgan hurmat haqida qimmatli fikrlar berilgan. Ushbu asar yosh avlodga to‘g‘ri hayot yo‘lini ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kaykovus tomonidan yozilgan “Qobusnoma” asari o‘g‘liga nasihat tarzida yozilgan bo‘lib, unda inson tarbiyasi, axloqiy fazilatlar, bilim olish va hunar egallashning ahamiyati keng yoritilganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Birinchidan, “Qobusnoma” halollik va odob tamoyillarini yuksak qadriyat sifatida ta’riflaydi. Kaykovus yoshlarni to‘g‘rilik, rostgo‘ylik va vafodorlikka undaydi. Bu jihatlar insonning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi.

Ikkinchidan, ilm-fan va hunar egallashning ahamiyati keng yoritilgan. Muallif yoshlarni bilim olishga, hunar o‘rganishga va mehnatsevar bo‘lishga chorlaydi. Bu esa yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlashda, ularning moddiy va ma’naviy jihatdan yetuk bo‘lishlarida muhim rol o‘ynaydi.

Uchinchidan, ota-onaga hurmat va jamiyatdagi odob-axloq qoidalariga rioya qilish masalasi chuqur yoritilgan. “Qobusnoma”da ota-ona roziligini olish va ularga hurmat bilan muomala qilish eng oliy insoniy fazilat sifatida qayd etilgan. Bunday ta’limot o‘z navbatida mustahkam oilaviy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Nihoyat, mehnatsevarlik va hayotiy tajriba orttirish muhim mezon sifatida ko‘rsatilib, insonning doimiy harakatda bo‘lishi, izlanishi va mehnat qilishining zarurligi alohida ta’kidlangan. Bu g‘oyalar yoshlarni hayot sinovlariga tayyorlashga, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Asarda quyidagi pedagogik g‘oyalar ilgari surilgan:

- Bilim olish va uni amaliyotga tatbiq etishning zarurligi;
- O‘qituvchi va shogird o‘rtasidagi munosabatlar;
- Odob-axloq va insoniy fazilatlarni shakllantirish.

Bilim olish va uni amaliyotga tatbiq etish zarurligi to‘g‘risida asarda quyidagicha so‘z yuritiladi : “Ilmning sifati 3 vajhdandur: yo bir pesha bila bog‘lang‘on ilm, ilm bila bog‘liq pesha, xayr va dalolatga taalluqli odat”.[S.Dolimov, U.Dolimov., 2016. – S.122]; Biror hunar bilan bog‘liq ishlarga tabiblik, munajjimlik, muhandislik va shoirlik kabi ishlar kiradigan bo‘lsa, ilm bilan bog‘liq hunarlarga binokorlik, ot parvarish qiluvchilik hunarlarini kiritishimiz mumkin. Shuningdek olimning beamal bo‘lmasligi, o‘rganilgan bilimlarni boshqalarga ham o‘rgatish lozimligi ham asarda yoritilib o‘tiladi.

Sharq pedagogikasida ilm olish jarayonida o‘qituvchi va shogird o‘rtasidagi munosabatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Abdulla Avloniy shunday fikr bildirib o‘tadi: “Ota-ona, ustod, muallim kabi o‘zidan ulug‘ kishilarga bo‘yinsunub itoat qilmak eng yaxshi sifatlardandur. Bu sifatga ega bo‘lmak uchun har vaqt bularning foydali kengash va nasihatlarini tinglab, buyruqlarini mahkam tutmak lozimdur. Chunki onlar dunyoga bizdan ilgari kelganlar, bizdan ko‘proq tajriba hosil qilganlar, vatan va millatning holiga oshno bo‘lganlar”.[Abdulla Avloniy., 2004. – S.37]; “Qobusnoma”ning 34-bobida ham shogirdning bilmagan narsalarini ustozi o‘rgatishi va ustoz-shogird o‘rtasidagi munosabatlar hikoyalar bilan tushuntirilib beriladi.

Nizom ul-Mulkning “Siyosatnoma” asari davlat boshqaruvi tamoyillariga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, unda ta’lim va tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Asarda quyidagi pedagogik tamoyillar ilgari surilgan:

- Davlatning rivojlanishida ilm va ta’limning o‘rni;

- Ustoz-shogird an’anasining mustahkamlanishi;
- Adolatli hukmdor va ta’lim tizimining o‘zaro bog‘liqligi.

Inson uchun hayoti davomida qaysi faoliyat turi bilan shug‘ullanishidan qat’iy nazar bilim va ko‘nikma zarurdir. Bu to‘g‘risida asarda quyidagi jumlalar keltirilib o‘tiladi: “Luqmoni Hakim aytadiki, odam uchun dunyoda bilimdan yaxshiroq yor yo‘q va bilim zar-u zevar xazinasidan ham yaxshiroqdur. Bilim seni qutqaradi va muhofaza qiladi”.[S.Dolimov., 2023. – S.75]; Ya’ni kishidagi bilimning qiymati zardan ham qimmatli ekanligi va uning insonlarga foydasi, ularni qiyin kunlardan bilimi olib chiqishi asarda turli xil misollar va hikoyalar asosida tushuntirilib beriladi.

Birinchidan, asarda odil boshqaruv g‘oyasi markaziy o‘rinda turadi. Nizom ul-Mulk jamiyat rivoji va barqarorligi uchun rahbarlarning adolatli bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi. Bu g‘oya yoshlarni jamiyat oldidagi mas’uliyatlarini anglashga, odil va halol bo‘lishga undaydi.

Ikkinchidan, ilm va donishmandlikning siyosatda tutgan o‘rni keng yoritilgan. Muallif bilimli va zukko rahbarlarning davlat boshqaruvidagi rolini muhim deb hisoblaydi va yoshlarni ilm olishga rag‘batlantiradi. Bu esa ta’limning ahamiyatini tushuntirish va yoshlarni bilimga chanqoq qilib tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi.

Uchinchidan, axloqiy yetuklik va davlat xizmatchilarining mas’uliyati haqida so‘z yuritiladi. “Siyosatnoma”da davlat amaldorlarining axloqiy jihatdan pok bo‘lishi va xalq manfaatiga xizmat qilishi lozimligi qayd etilgan. Bu tamoyillar yosh avlodni vatanparvarlik va mas’uliyat hissi bilan tarbiyalashga xizmat qiladi.

“Qadimdan ustoz-shogirdlik an’analarida ustoz nafaqat shogirdiga yo‘l-yo‘riq, ko‘rsatma beribgina qolmay, o‘z navbatida, ularni mustaqil faoliyatga tayyorlagan hamda o‘zidan keyin ish-tajribani, bilim va mahoratni avloddan-avlodga o‘tishiga imkoniyat yaratgan”.[N.Sobirov., 2021. – S.478];

“Siyosatnoma” asarida ham har bir ishning tadbirini donolar-u qariyalar, dunyo ko‘rgan ustozlar maslahati bilan amalga oshirish kerakligi 18-faslda batafsil yoritib beriladi.

Shuningdek hukmdorning adolatli bo‘lish zarurligi, mazlumlarni eshitishi va hukmdorning adolati uning davlatida ilmning rivojlanishi uchun asos bo‘lishi hikoyalar orqali tushuntirib beriladi.

Ushbu asarlar Sharq madaniyati va ta’lim tizimiga chuqur ta’sir ko‘rsatib, keyingi davrlardagi pedagogik qarashlar rivojiga katta hissa qo‘shganligi bilan ahamiyatlidir. Xususan, O‘rta Osiyo madrasalari va ilmiy-ma’rifiy muhitida “Qobusnoma” va “Siyosatnoma” dagi g‘oyalar qo‘llanilgan.

“Qobusnoma” va “Siyosatnoma” asarlari Sharq pedagogikasida muhim o‘rin tutib, yoshlar tarbiyasi, axloqiy kamolot va ilmga intilish kabi muhim g‘oyalarni targ‘ib qiladi. Ushbu asarlar nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham tarbiyaviy ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, yosh avlod uchun o‘ziga xos hayotiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qobusnoma/Kaykovus. Nashrga tayyorlovchilar: Subutoy Dolimov, Ulug‘bek Dolimov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
2. Abdulla Avloniy, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
3. Nizomumulk/Kaykovus.– Toshkent: TRUST AND SUPPORT, 2023.
4. Navro‘zbek Xakimjon o‘g‘li Sobirov, “Oriental Art and Culture” Scientific Methodical Journal, Volume 4, Issue 3. 2021.

QOBUSNOMA VA SIYOSATNOMA ASARLARI HIKOYALARIDA IFODALANGAN O‘ZARO MUSHTARAK G‘OYALAR

Tuliyev Qurbonboy Qadamboy o‘g‘li
UrDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarini o‘qitish metodikasi (Ma’naviyat asoslari) ta’lim yo‘nalishi magistranti, qurbonboyqadamboyevich@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda “Qobusnoma” va “Siyosatnoma” asarlari hikoyalarida ifodalangan halollik, ezgulik, bilimli bo‘lish, hunar egallash kabi o‘xshash g‘oyalar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: “Qobusnoma”, “Siyosatnoma”, yoshlar ta’lim tarbiyasi, adolat, axloqiy tarbiya, hunar.

Аннотация. В данном тезисе раскрываются схожие идеи, выраженные в рассказах произведений «Кабуснаме» и «Сиасатнаме», такие как честность, добродетель, образованность и овладение ремеслом.

Ключевые слова: «Кабуснаме», «Сиасатнаме», воспитание молодежи, справедливость, нравственное воспитание, ремесло.

Abstract. This thesis highlights similar ideas expressed in the stories of *Qabusnama* and *Siyasatnama*, such as honesty, virtue, education, and mastering a craft.

Keywords: “*Qabusnama”*, “*Siyasatnama”,* youth education and upbringing, justice, moral education, craft.

“Qobusnoma” va “Siyosatnoma” Sharq adabiyoti va didaktikasining durdona asarlaridan bo‘lib, axloqiy-tarbiyaviy hamda siyosiy-falsafiy masalalarni o‘zida mujassam etgan. Ushbu ikki asar hikoyalari orqali o‘z davri jamiyatiga xos mushtarak g‘oyalarni aniqlash mumkin bo‘ladi.

Yurt taqdiri, ravnaqi yoshlar ta’lim-tarbiyasiga chambarchas bog‘liqligi hammamizga ma’lum. Ularni har tomonlama barkamol bo‘lib yetishishi mamlakat kelajagining barqarorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Turli madaniyatlar va mafkuraviy kurashlar ketayotgan bugungi davrda mustaqil hayotga qadam qo‘yayotgan, endigina yaxshi va yomoni taniyotgan, oqni qoradan ajrata boshlagan farzandlarimiz o‘zligini to‘liq idrok etib olishiga, o‘z to‘g‘ri yo‘llariga tushib olishlarida, asosan katta yoshdagi yoshi ulug‘ insonlarning hayotiy tajribalari va ularning buyuk asarlari juda qo‘l keladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham yoshlar ta’lim-tarbiyasini davlat masalasi darajasigacha chiqarib, har bir nutqida yoshlar ta’lim-tarbiyasiga alohida to‘xtalib o‘tadi. Jumladan yoshlar tarbiyasiga doir quyidagi so‘zlarni o‘z nutqida alohida ta’kilaydi: “Qanchalik qiyin bo‘lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo‘yicha o‘zimizga xos va ta’sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg‘unchi va zararli g‘oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma’naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo‘lishingiz kerak. Xalqimizning ma’naviy qudrati va boqiy an’analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz”. [https://yuz.uz/uz/news/shavkat-

mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi ahamiyatga ega];

Yoshlarni ma’naviy tarbiyalashning katta qismi ma’naviy qadriyatlar, jumladan, ajdodlarimiz pand-nasihat, o‘gitlaridan olinadi. Bu pand-nasihat va o‘gitlar esa ulardan bizga qoldirilgan kitoblaridagi, asarlaridagi bitiklarda o‘z aksini topgan. Jumladan, yoshlar ma’naviy tarbiyasiga bag‘ishlangan asarlar sirasiga Kaykovusning “Qobusnoma” asarini kiritish mumkin.

Kaykovus ushbu asarning bir bobida o‘g‘liga nasihat qilib deydi: “… o‘z farzanding seni hurmat qilishini istasang, sen ham ota-onangni hurmatini joyiga qo‘y, zero, sen ularga qanday munosabatda bo‘lsang, xuddi shunday o‘zingga qaytgay”. U bu bilan ota-onaning ko‘nglini ranjitmaslikka, ularni hurmatini qilib, shirinso‘z bilan xushmuomala bo‘lishga yoshlarni undaydi.

Kaykovus o‘z asarida farzand tarbiyasiga alohida e’tiborni qaratar ekan, tarbiyani inson aqlini va shaxsiy hayotni shakllantiruvchi omillardan biri deb biladi. Asarda inson ruhiyatini yuksaklarga ko‘tarish ilgari suriladi, salbiy illatlarning sabablari izlanadi. Shu jumladan Kaykovus insonni tarbiyalashda hayotda tarbiyaning ta’sir o‘rni yuqori ekanligini e’tirof etishni burch deb hisoblaydi. Uning fikricha, yoshlarga tarbiya berishdan asosiy maqsad ularni nafaqat bugun, balki kelajak uchun ham muhim shaxslar qilib yetishtirishdir. Shuning uchun muallif asarda yoshlarning xulq-atvoriga, fe’liga alohida e’tibor qaratadi. Shuningdek do‘stu dushmanga ham qanday munosabatda bo‘lish kabi masalalar ham yoritilgan. Bola boshidan deyilganidek, farzandni tug‘ilgandan tarbiyalash, odob-axloq me’yorlarini o‘rgatish, ilmu hunarli qilish, bolaning mehnatga bo‘lgan ko‘nikmasini hosil qilish zarurligini, aks holda “kechikkan” tarbiyaning hech bir ta’siri bo‘lmay, zarur samarani bermasligi asar mazmunini tashkil etadi. “Qobusnoma”da yoshlikdan bor kuch-quvvatni bilim olish, kasb-hunar o‘rganishga sarflash zarurligi ta’kidlangan.

“Siyosatnoma” asarida ham “Qobusnoma” asarida ifodalangan g‘oyalar ya’ni, davlat boshqaruvi, adolat va axloqiy qadriyatlar muhim g‘oyalar sifatida ifodalanadi. Nizomulmulk shoh va hokimlarni adl-u insofga, mamlakatni oqilona boshqarishga va amaldorlarni vijdonli bo‘lishga chaqiradi. Asarda davlatni markazlashtirish, tinchlik va farovonlikni ta’minlash, hamda amaldorlarni halol va pok qilib tarbiyalashga urg‘u beriladi. Bu asar hozirgi kunda siyosatchilarni tayyorlash uchun ham qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.

Ikkala asarda ham hukmdorning adolatli bo‘lishi asosiy g‘oyalardan biri hisoblanadi. Jumladan “Qobusnoma” asarida hukmdor adolati to‘g‘risida quyidagilar keltirib o‘tiladi:

Agar chiqsa adolatning quyoshi,
Taralgay xar tomon nuri ziyasi.
Agar zulm etsa zolim, bu sitamdin
Jahon bo‘lgay qaro, yo‘q intihosi.

Kaykovus ham podshoh adolatini quyoshga tenglashtiradi: quyosh hammaga, hamma yerga teng, barobar nur sochgani kabi, podshoh ham hammaga barobar adolat nurini sochmoqi lozim deydi: “ey farzand, rayatga ham shundog‘ mehribonlik ko‘rguzgi, toki mamlakat obod bo‘lgay, nedinkim, podshoh oftobdekdur, oftob birovga

soya solib, yana birovdin yuz o‘gurmas. …aslo zulmni ko‘nglingga kelturmag‘ilki, odil podshohning xonadoni ko‘p yillar boqiy qolur va zolimning xonumoni tezda barbod va nobud bo‘lur, nedinkim adl obodonlik nishonasidur va zulm vayronalik alomatidur. Hukamolar debdurlarki, odil podshoh olam xurramligining sarchasmasidur, zolim podshoh jahon xarobaligining tofonidur”. [S.Dolimov, U.Dolimov., 2016. – S.5];

“Qobusnoma”da hukmdorning xalq oldidagi javobgarligi va rahmdilligi, hukmdorning xalq oldidagi burchlari hikoyalar asosidayoritib beriladi.

“Ezid subhonahu va taolo har asr va davr-u zamonda xalq ichida bir kishini podshohlikka ko‘tarib, unga hunarlar va yoqimli sayrat-u fazilatlar beradi, dunyo tinchligi va bandalar osoyishtaligini qo‘liga berib, fasod-u osho‘b (isyon) eshigini u orqali yopadi, uning imzo va hashamatini xaloyiq qalbi va ko‘zlarida tarqatadi, toki odamlar uning adolati soyasida panoh topib, tinch kun ko‘rib, omonlikda uning davlati abadiy bo‘lishini tilaydilar. Va agarda, Xudo ko‘rsatmasin, bandalardan biror-bir isyon zohir bo‘lsa, shariat ishlariga xavf yo biror zarar toatu Haq farmonlariga tegsa, ularga shu podshohdan jazo yetadi, qilgan ishlariga podsho (jazo) beriladi. Bizga shunday kunlarni Xudo ko‘rsatmasin, shunday hokimlardan uzoqroq bo‘laylik bo‘lmasa, isyon shumligidan, odamlarga xashm-u xazlon (sarsonlik) yetib, odil podshohni ham boshlaridan olib tashlaydi. Har xil balo-yu qo‘zg‘olon ko‘tarilib, nohaq qon to‘kiladi va kimki kuchli bo‘lsa, istagan ishini qiladi. Shunda gunohkorlar fitna va qon to‘kishlarda halok bo‘ladilar va olam ulardan tozalanadi, ammo ularning kasofatlaridan begunoh kishilar ham qurbon bo‘ladilar. Bunga shunday misol keltirsa bo‘ladi, agarda qamishzorga o‘t tushsa, quruq va ho‘l narsalar ham olovdan yonib yo‘q bo‘ladi”. [Sh.Vohidov., 2023. – S.19];

“Qobusnoma” va “Siyosatnoma” asarlaridagi mushtarak g‘oyalar shaxs tarbiyasi va jamiyat boshqaruvidagi muhim qadriyatlarni ifodalaydi. Ular o‘z davrining ijtimoiy, axloqiy va siyosiy muammolariga yechim sifatida xizmat qilgan. Shu bilan birga, har ikki asar hozirgi kun tarbiya va boshqaruv masalalari uchun ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://yuz.uz/uz/news/shavkat-mirziyoev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi ahamiyatga ega.
2. Qobusnoma/Kaykovus. Nashrga tayyorlovchilar: Subutoy Dolimov, Ulug‘bek Dolimov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
3. Siyosatnoma/Nizomulmulk; muharrir Aftondil Erkinov; tarjimon Shodmon Vohidov- Toshkent: “TRUST AND SUPPORT”, 2023.

GLOBAL MA’NAVIY INQIROZGA QARSHI KURASHDA MILLIY G‘OYA VA FALSAFANING AHAMIYATI

Xasanov Maksud Furkatovich
UrDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarini o‘qitish metodikasi (Ma’naviyat asoslari) ta’lim yo‘nalishi magistranti, maqsudbekxasanov6@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda zamonaviy jamiyatda kuchayib borayotgan ma’naviy inqiroz muammolari va unga qarshi kurashda milliy g‘oya va falsafaning roli tahlil qilinadi. Milliy g‘oya va falsafiy qadriyatlarni tiklash orqali ma’naviy immunitetni shakllantirish, jamiyatning ma’naviy mustahkamligini oshirish va global tahdidlarning oldini olish mumkinligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: ma’naviy inqiroz, milliy g‘oya, falsafa, ma’naviy immunitet, global tahdidlar, madaniy globalizatsiya, axloqiy relativizm, ta’lim tizimi, madaniy loyihalar, falsafiy munozaralar, yoshlar tafakkuri, ma’naviy qadriyatlar, jamiyat barqarorligi, milliy an’analar, ruhiy taraqqiyot.

Аннотация. В данной статье анализируются проблемы усиливающегося духовного кризиса в современном обществе и роль национальной идеи и философии в борьбе с ним. Подчеркивается, что восстановление национальных и философских ценностей может способствовать формированию духовного иммунитета, укреплению моральной устойчивости общества и предотвращению глобальных угроз.

Ключевые слова: духовный кризис, национальная идея, философия, духовный иммунитет, глобальные угрозы, культурная глобализация, этический релятивизм, система образования, культурные проекты, философские дискуссии, мышление молодежи, духовные ценности, стабильность общества, национальные традиции, духовное развитие.

Abstract. This article analyzes the problems of the growing spiritual crisis in modern society and the role of national ideology and philosophy in combating it. It emphasizes that the restoration of national and philosophical values can help form spiritual immunity, strengthen the moral resilience of society, and prevent global threats.

Keywords: spiritual crisis, national ideology, philosophy, spiritual immunity, global threats, cultural globalization, ethical relativism, education system, cultural projects, philosophical discussions, youth thinking, spiritual values, social stability, national traditions, spiritual development.

Zamonaviy dunyoda globalizatsiya, texnologik taraqqiyot va madaniy almashinuvlar bilan birga kuchaygan ma’naviy inqiroz insoniyat uchun jiddiy tahdidlarga aylangan. Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti (WHO) ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi 20 yil ichida ruhiy kasalliklar, jumladan, depressiya va tashvishlar soni 50% ga oshgan. Bu ko‘rsatkichlar ma’naviy inqirozning jamiyatga qanday salbiy ta’sir ko‘rsatayotganini aniq ko‘rsatadi. Ma’naviy qadriyatlarning pasayishi, axloqiy relativizm va madaniy identifikatsiyaning yo‘qolishi kabi muammolar jamiyatning barqarorligini xavf ostiga qo‘ymoqda.

Avvalambor, inqiroz so‘ziga to‘xtalib o‘tmoqchiman. Inqiroz o‘zi nima? Inqiroz-taraqqiyotda orqaga ketish, tanazzul. Har qanday obyekt o‘zining rivojlanishi mobaynida paydo bo‘lish, ulg‘ayish, pasayish va halok bo‘lish bosqichlaridan o‘tadi. Har qanday tizim (obyekt)ning nisbatan yuqori darajada shakllangan holatidan quyi darajadagi holatga o‘tish jarayoni inqiroz davri deyiladi. Ijtimoiy tizimlardagi inqirozlarga differensial yondashish kerak. Iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma’naviy sohalardagi inqirozlar, odatda, mustaqil ro‘y beradi, ba’zan esa inqirozlar kompleks tarzda baravar bo‘ladi. Bunday holda jamiyatning umumiy inqirozi boshlanadi. [https://lagopus.ru/uz/krizis-duhovnyh-cennostei-i-puti-ego-resheniya-problema/]

Avvalambor, ma’naviy inqiroz nima ekanligiga to‘xtalib o‘tmoqchiman. Ma’naviy inqiroz (shuningdek, “ma’naviy favqulodda holat”) shaklini hisobga olish inqirozi bu yerda odatda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lganligi sababli, shaxs o‘z ma’no tizimida (ya’ni ularning noyob maqsadlari, qadriyatlari, munosabati va e’tiqodi, o‘ziga xosligi va diqqat markazida) keskin o‘zgarishlarga duch keladi. Ma’naviy inqiroz psixologik, ijtimoiy va kasbiy faoliyatni sezilarli darajada buzilishiga olib kelishi mumkin. Ma’naviy inqiroz yoki ruhiy favqulodda holatlarni keltirib chiqaradigan ruhiy tajribalar orasida psixiatrik asoratlar mavjud ekzistensial inqiroz, sirli tajriba, o‘limga yaqin tajribalar, Kundalini sindromi, g‘ayritabiiy tajribalar, diniy ekstaz yoki boshqa ma’naviy amaliyotlar. Bilamizki, inqiroz turlari juda ham ko‘p. Bularga misol qilib, ijtimoiy inqiroz, iqtisodiy inqiroz, ma’rifiy inqiroz, ma’naviy inqirozni kiritishimiz mumkin. Shulardan ma’naviy inqiroz inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy inqiroz to‘g‘risida g‘arb olimlaridan Fyodor Dostoveskiy, Samezo Kuruma, Marks, Genrix Grossman, Fridrix Nilsshe kabi olimlar o‘z asarlarida ma’naviy inqiroz turlari, uning rivojlanishi va oqibatlari, va uning inson hayotidagi o‘rni haqida o‘z fikrlarini qayd etib o‘tgan. [Meylimuhametov E., 2022.- S. 470];

Bugungi kunda globallashuvning ijtimoiy hayotimiz bilan bog‘liqligi xususida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z fikrlarini bildirar ekan, “Yangi tahdidlar, jumladan, “ommaviy madaniyat” xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo‘layotgan, odob-axloq, qadriyatlarning yo‘qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g‘oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mening fikrimcha, inson ma’naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir”. [Mirziyoev.Sh.M., 2018. – S.29] - deb ta’kidlaydilar. Global ma’naviy inqirozning asosiy sabablari orasida materializm va iste’molchilik madaniyatining kuchayishi, axloqiy relativizmning tarqalishi va madaniy globalizatsiya natijasida milliy an’analarning pasayishi kabi omillar mavjud. Materializm insonlarning mol-mulk va moddiy boyliklarni ma’naviy qadriyatlardan ustun qo‘yishiga olib kelmoqda. Axloqiy relativizm esa jamiyatda universal qadriyatlarning yo‘qolishiga va har bir insonning o‘z axloqiy me’yorlarini belgilashiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa jamiyatda axloqiy inqirozni keltirib chiqarmoqda. Madaniy globalizatsiya esa milliy an’analar, tillar va qadriyatlarning yo‘qolishiga olib kelmoqda. Masalan, UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, har ikki haftada dunyoda bir til yo‘qolib ketmoqda, bu esa milliy identifikatsiyaning zaiflashuviga sabab bo‘lmoqda. Jamiyatdagi ma’naviyat inqirozi mavhum narsa emas va uni “axloqning tushishi”, ijtimoiy institutlarning tanazzulga uchrashi yoki dindorlikning

yo‘qolishi kabi xususiyatlar va belgilar majmuasi orqali sxematik qilib bo‘lmaydi. Ma’naviy inqirozning mohiyati va ma’nosini baholash har doim o‘ziga xos bo‘lib, subyektning ma’naviyat mohiyatini tushunishiga, shaxsning ma’naviy voqelik bilan munosabatlarining tabiati haqidagi qarashlariga bog‘liq. Ma’naviyat sohasini jamoatchilik ongiga chegaralab qo‘ygan tadqiqotchi uchun ma’naviyatsizlik jamiyat ongidagi turli noqulay tendentsiyalar va holatlarning yig‘indisidek ko‘rinishi muqarrar: nigilistik, shovinistik va irqchilik tuyg‘ularining kuchayishi, obro‘-e’tiborning pasayishi, bilimsizlik, hukmronlik, ommaviy madaniyat va hokazo.

Bunday sharoitda milliy g‘oya va falsafiy qadriyatlarni tiklash global ma’naviy inqirozga qarshi kurashning asosiy vositasi sifatida ko‘rilmoqda. Milliy g‘oya orqali ma’naviy immunitetni shakllantirish, falsafiy tafakkur va qadriyatlar asosida jamiyatning ma’naviy mustahkamligini oshirish, shuningdek, milliy qadriyatlarni tiklash orqali global ma’naviy tahdidlarning oldini olish mumkin. Milliy g‘oya orqali jamiyat a’zolarining o‘z madaniyati, tarixi va qadriyatlariga nisbatan hurmat va sadoqati oshiriladi. Bu ularni global ma’naviy tahdidlardan himoya qiladi. Falsafa esa insonlarni muhokama qilish, tahlil qilish va universal qadriyatlarni qadrlashga o‘rgatadi, bu esa ma’naviy inqirozga qarshi kurashda muhim rol o‘ynaydi.

Milliy g‘oya va falsafani qo‘llashning ilg‘or usullari orasida ta’lim tizimida milliy g‘oya va falsafa fanlarini keng joriy etish, madaniy va ma’naviy loyihalar orqali yoshlarni milliy qadriyatlarni qadrlashga o‘rgatish, shuningdek, falsafiy munozaralar va tadbirlar orqali ma’naviy tafakkurni rivojlantirish kabi yo‘nalishlar mavjud. Misol uchun, O‘zbekistonda “Ma’naviyat va ma’rifat” kabi fanlar orqali yoshlarga milliy qadriyatlarni singdirish, milliy bayramlar, festivallar va madaniy tadbirlar orqali yoshlarning o‘z madaniyatiga bo‘lgan qiziqishini oshirish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Dunyoqarashni tubdan o‘zgartirish, eski aqidalardan tamoman voz kechish, istiqlol mafkurasini shakllantirish, xalq ma’naviyatini yuksaltirishni taqozo etmoqda. Bunda ijtimoiy fanlar, ayniqsa falsafiy bilimlarni egallash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi dunyoda o‘z milliy falsafa maktabini yaratgan xalqlar bor. Chunonchi, “hind falsafasi”, “xitoy falsafasi”, “nemis falsafasi”, “ingliz falsafasi” kabilar shular jumlasidandir. [Q.Nazarov., 2018. – S.23]; Bizda ham o‘zimizning milliy “o‘zbek falsafamiz” bor va uni bugungi kundagi yoshlarimiz ongiga singdirishga harakatlar qilmoqdamiz. Bunga misollar qilib maktab va Oliy ta’lim dargohlaridagi darslik va o‘quv qo‘llanmalar ko‘pchiligi shu maqsadda yozilgan. O‘zlikni yoshlar ongiga singdirishda ayniqsa yetishib kelayotgan yosh pedagoglarning o‘rni kattadir.

Xalqaro tajribada ham milliy g‘oya va falsafadan foydalanish orqali ma’naviy inqirozni bartaraf etishning samarali misollari mavjud. Masalan, Yaponiyada milliy an’analarni saqlash va zamonaviy ta’limni uyg‘unlashtirish orqali ma’naviy qadriyatlarni tiklashga erishilgan. Yaponiyada 95% dan ortiq maktablarda milliy madaniyat va an’analar haqida maxsus darslar o‘qitiladi, bu esa yoshlarning o‘z madaniyatiga bo‘lgan hurmatini oshirishga yordam beradi. O‘zbekiston kontekstida esa “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar” dasturi, “Yoshlar kelajagimiz” kabi loyihalar orqali yoshlarning ma’naviy dunyosini mustahkamlashga qaratilgan ishlar olib borilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, global ma’naviy inqirozga qarshi kurashda milliy g‘oya va falsafaning roli beqiyosdir. Milliy qadriyatlarni tiklash, falsafiy tafakkurni rivojlantirish va ma’naviy immunitetni shakllantirish orqali jamiyatning barqarorligini ta’minlash mumkin. Buning uchun ta’lim, madaniyat va ijtimoiy sohalarda qo‘shma sa’y-harakatlar talab etiladi. O‘zbekiston kontekstida milliy g‘oya va falsafani qo‘llash orqali yoshlarning ma’naviy dunyosini mustahkamlash va global tahdidlarning oldini olish mumkin.

Prezident Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga etishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”.[Mirziyoev.Sh.M., 2017. – S.326];

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://lagopus.ru/uz/krizis-duhovnyh-cennostei-i-puti-ego-resheniya-problema/

2. “Pedagog” respublika ilmiy jurnali 2–son/2022-yil/15-oktyabr www.bestpublication.org469 g‘arb olimlarining global ma’naviy inqiroz haqidagi qarashlari. Meylimuhametov E.

3. Mirziyoev.Sh.M. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild –T.: O‘zbekiston, 2018.

4. Falsafa asoslari : o‘quv qo‘llanma / Q.Nazarov [va boshq.]. - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018.

5. Mirziyoev.Sh.M. “Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir”. T. 15. -T.: O‘zbekiston. 2017.

OLIY TA’LIM MUASSASASI TALABALARIDA MEDIASAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH MODELINI TADBIQ ETISH

Davletova Bikajon Tursunbayevna
UrDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Ma’naviyat asoslari) ta’lim yo‘nalishi magistranti, davletovabikajon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezis Oliy ta’lim muassasasidagi talabalar uchun mediasavodxonlikni rivojlantirish modeli o‘quv dasturlariga integratsiya qilinadigan innovatsion yondashuvlarni ifodalaydi.

Kalit so‘zlar: Globallashuv, axborot texnologiyalari, internet, axborot tarqatish, noto‘g‘ri axborot, ijtimoiy tarmoqlar, soxta yangiliklar (fake news), mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, manbalarni baholash, axborotdan ehtiyotkorlik bilan foydalanish.

Аннотация. Модель развития медиаграмотности студентов в высшем учебном заведении представляет собой инновационный подход, интегрируемый в учебные программы. В этой диссертации мы объясняем, как с помощью современных информационных технологий помочь студентам овладеть навыками отбора, анализа, оценки и эффективного использования информации в процессе обучения.

Ключевые слова: Глобализация, информационные технологии,интернет, распространение информации, ложная информация, социальные сети, фейквые новости, критическое мышление, анализ информации, оценка источников, осторожное использование информации.

Abstract. The model for developing media literacy among students in higher education represents an innovative approach integrated into the curricula. In this thesis, we explain how, with the help of modern information technologies, students can be helped to acquire skills in selecting, analyzing, evaluating, and effectively using information in the learning process.

Keywords: Globalization, information technology, Internet, information dissemination, false information, Social Media, Fake News, Media Literacy, Critical Thinking, Information Analysis, Source Evaluation, Prudence in Information Usage.

Bugungi kunda globallashuv jarayoni insoniyatning barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatib, turli madaniy, iqtisodiy, siyosiy va texnologik o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Bunda axborot va media vositalari markaziy rol o‘ynamoqda. Axborotning tez tarqalishi va ommaviy kommunikatsiya vositalarining kuchayishi, jamiyatda yangi ma’lumotlarni qabul qilish va tahlil qilish qobiliyatini oshirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, mediasavodxonlik (media literacy) bugungi kunda nafaqat akademik, balki ijtimoiy muhim masalalarga ham aylangan. O‘rganish va ta’lim jarayonida mediasavodxonlikni fan sifatida joriy etish, jamiyatning turli qatlamlarida ijtimoiy ongni shakllantirish, manipulyatsiyalarni oldini olish va axborot xavfsizligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Globallashuv jarayonida axborot texnologiyalari va internetning ommalashuvi natijasida, axborotning tarqalish tezligi kundan-kunga oshib bormoqda. Bu bir tomondan odamlarning dunyoqarashini kengaytiradi va turli madaniyatlar bilan tanishishga imkon yaratadi, lekin boshqa tomondan, noto‘g‘ri, yolg‘on yoki

manipulyatsiya qilingan axborotning tarqalishiga ham sabab bo‘layotganini ko‘rish mumkin. Xususan, ijtimoiy tarmoqlar va internetda mavjud bo‘lgan noto‘g‘ri ma’lumotlar va soxta yangiliklar (fake news) jamiyatda xavf tug‘diradi. Mediasavodxonlik, ayniqsa, globallashuv sharoitida, zamonaviy inson uchun zarur bo‘lgan ko‘nikma bo‘lib, axborotlarni tahlil qilish, baholash va tanqidiy yondashish imkonini beradi. Odamlar mediasavodxon bo‘lishlari orqali yangiliklarni tahlil qilish, ularni haqiqatdan ajratish, axborot manbalarini tekshirish, shuningdek, turli axborotlarni ishlatishda ehtiyotkorlikni ta’minlashni o‘rganadilar.

Bugungi kunda nafaqat mamlakatimizda, balki dunyoda eng dolzarb bo‘lgan masala aholi, ayniqsa, yoshlar ongiga intenet va ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanishni singdirish masalasidir. Hayotimizning barcha sohalariga tobora singib borayotgan axborot inqilobi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini ochib bermoqda. Natijada shunday yaxlit axborot makoni shakllanib, unda axborot – milliy boyliklarining muhim qismiga aylanmoqda. Unga ko‘ra, muloqotimizga yangi “axborot makoni”, “axborot siyosati” va “axborot xuruji” kabi tushunchalar kirib kelmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “yurtimizga qarshi qaratilgan axborot xurujlarga zarba berish, biz tanlagan ezgu maqsadlarni ko‘rolmaydigan chetdagi va o‘zimizdan chiqqan ayrim niqoblar ostida o‘zini hammadan dono, bizga eng yaqin yordamchi va maslahatgo‘y qilib ko‘rsatadigan, hatto milliy an’analarimiz va hayot tarzimizni o‘zimizdan ham yaxshiroq bilishini da’vo qiladigan kimsalarning soxta urinishlarini fosh etish ham xalqimiz manfaatlarini himoya qilishning amaliy namoyonidir”. Ayni kunda, Respublikamizda jamiyatimizga yot bo‘lgan g‘oyalarning kirib kelishiga qarshi mukammal tizimli kurash olib borish maqsadida, axborot kommunikatsiya tizimlarini takomillashtirish hamda jahon ommaviy axborot vositalarini, internet tizimini nazorat qilish bo‘yicha muayyan ishlar olib borilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019-yil 19-martdagi yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish borasida belgilab bergan 5 ta muhim tashabbuslarning 3-yo‘nalishi aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga alohida to‘xtalib o‘tdi. Bularning ijrosini ta’minlash maqsadida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida kompyuter texnologiyalari bo‘yicha turli xil to‘garaklar tashkil etildi. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari yoshlarni kompyuter va internet tarmog‘idan samarali va to‘g‘ri maqsadda foydalanish uchun o‘qituvchilarga katta mas’uliyat yuklandi. Bu esa umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘qituvchilari AKT dan unumli foydalangan holda darslarni, to‘garakni namunali tarzda tashkil etish va aniq ish reja bo‘yicha ish olib borish kerakligini anglatadi. Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham axborot texnologiyalari sohasidagi tashkilotlarning o‘quv jarayonlariga qatnashishini rag‘batlantirish orqali umumta’lim maktablarida informatika fanini o‘qitish metodlarini takomillashtirish haqida alohida ta’kidlab o‘tildi. Bu borada umumta’lim muassasalarida “Bir million dasturchi” loyihasi keng hududda joriy qilish belgilab berildi. Bu konsepsiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad, yoshlar orasida internetdan samarali foydalanishni keng targ‘ib etish, yosh avlodni sog‘lom, ma’nan yetuk shakllantirishga, asosiysi, bilimli va baxtli qilishdan iboratdir. [Shavkat Mirziyoyev., 2021. – S.458];

Mediasavodxonlikni o‘rganish, shaxslarni tahliliy fikrlashga va axborotlarni tanqidiy tahlil qilishga o‘rgatadi. Globallashuv davrida turli xil madaniyatlar va qarashlar o‘rtasida to‘qnashuvlar yuzaga kelishi mumkin. Bu jarayonda, shaxslar axborotlarni shakllantirish va baholashda tahliliy yondashuvni qo‘llashlari kerak. Fikrni mustahkamlash, haqiqatni topish va yangiliklarga ehtiyotkorlik bilan yondashish mediasavodxonlikni o‘rganishning asosiy maqsadlaridan biridir. Mediasavodxonlikda tahliliy fikrlashni amalga oshirish bir necha bosqichlarda namoyon bo‘ladi:

- yoshlarga iste’mol qiladigan axborot haqida to‘g‘ri savollar berishni o‘rgatish. Masalan, bu xabarni kim yaratgan? Uning maqsadi nima? E’tiborni jalb qilish uchun qaysi texnikalar qo‘llanilgan?;

- bir xil mavzu bo‘yicha turli axborot manbalarini solishtirish. Bu xatolar va nomuvofiqliklarni aniqlashga yordam beradi va mavzuni chuqurroq tushunishga undaydi;

- media xabarlari qanday qilib ishonch va xatti-harakatlarga ta’sir qilishini o‘rganishni rag‘batlantirish. Bu mediani ongli va ataylab iste’mol qilishga olib kelishi mumkin;

- yoshlarni o‘zlarining media xabarlarini yaratishga jalb qilish. Bu amaliy tajriba media xabarlari qanday yaratilishi va ularning ta’siri qanday bo‘lishini chuqurroq tushunishga olib kelishi mumkin;

- yoshlar media kontent haqida muhokama qilish va bahslashish mumkin bo‘lgan muhitni yaratish. Bu tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi va yoshlarni turli fikrlarga ochiq qilish imkonini beradi.

Mediasavodxonlik jamiyatda ijtimoiy ongni rivojlantirishda yordam beradi. Mediasavodxon bo‘lgan shaxslar faqat axborotlarni qabul qilibgina qolmay, balki ular haqida tanqidiy fikr yuritish, jamiyatdagi muammolarni baholash va o‘z fikrlarini erkin ifodalashga qodir bo‘ladilar. Globallashuv sharoitida bu ko‘nikmalar ijtimoiy va siyosiy qarorlar qabul qilishda, shuningdek, turli ijtimoiy masalalarda ongli va mas’uliyatli yondashuvni shakllantirishda muhimdir. “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zbo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin,– deb alohida ta’kidlagan davlat rahbari. El-yurtimiz o‘zining ko‘p asrlik tarixi davomida bunday mash’um xatarlarni necha bor ko‘rgan, ularning jabrini tortgan. Shunday asoratlar tufayli tilimiz, dinimiz va ma’naviyatimiz bir paytlar qanday xavf ostida qolganini barchamiz yaxshi bilamiz”. Demak, bunday fojiali o‘tmish bugungi avlodlar uchun ham saboq bo‘lishi tabiiy. Shunga yarasha yagona axborot makonida mavjud tahdidlarga nisbatan doimo ogoh bo‘lish hayotiy zaruratga aylangan. Shuni aytish joizki, mamlakatimiz taraqqiyotiga, xalqimiz farovonligi yo‘lidagi ulug‘vor

ishlarimizga to‘g‘anoq bo‘ladigan, xalal beradigan qora kuchlar o‘z maqsadlarini “axborot xurujlari” orqali amalga oshirishlari mumkinligini ayniqsa yoshlar teran anglab etmoqlari zarur. Bu boradagi oila tarbiyasi ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayonlariga ulanib ketayotgani ayni muddaodir. [Ro‘ziyev Y., Abdullayeva B., 2024. – S.260];

“Axborot orqali shakllantirilayotgan g‘oyaviy ta’sir, oshkora mafkuraviy tazyiq oldida hatto qudratli davlatlar ham qiyin ahvolga tushib qolmoqda. Axborotlashgan ta’sir an’anaviy xavf-xatarlar – terrorchilik, yadroviy qurollarning ishlatilishi, ekologik muammo va boshqa muammolardan farqli o‘laroq ko‘zga ko‘rinmaydi, chegara bilmaydi, uzoq vaqt mobaynida singib boradi.

Globallashuv jarayonida mediasavodxonlikni fan sifatida o‘rganishning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Bu nafaqat axborot xavfsizligini ta’minlash, balki jamiyatda tahliliy fikrlashni rivojlantirish, madaniy xilma-xillikni qabul qilish, demokratik jarayonlarda ishtirok etish va ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Oliy ta’lim muassasalarida mediasavodxonlikni o‘rgatish, talabalarni axborotlarning manbalarini tahlil qilish va ularga to‘g‘ri yondashishni o‘rgatishda muhim rol o‘ynaydi. Demak globallashuv sharoitida mediasavodxonlikni fan sifatida o‘rganish nafaqat bilimlarni, balki ijtimoiy mas’uliyatni oshiradi, jamiyatni axborot manipulyatsiyasidan himoya qiladi va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, media muhitining ta’siri jamiyatga ham tarqaladi, bu axborotning tarqalishi, jamoat fikrining shakllanishi va ijtimoiy harakatlarning tezlashishiga ta’sir qiladi. Raqamli media platformalarining demokratiya, fuqorolik ishtiroki va ijtimoiy muhokamalar ta’sirini tushunish orqali, manfaatdor tomonlar ko‘proq ma’lumotli, bog‘langan va ishtirok etuvchi jamiyatni shakllantirishga intilishlari mumkin. [Мадраҳимова Ф., 2013. – S.146]

Xulosa qilib aytganda, rivojlanayotgan media muhitining ta’siri faol moslashuvchanlik, raqamli savodxonlik va texnologiya bilan axloqiy hamkorlik muhimligini ta’kidlaydi. Raqamli asr tomonidan taqdim etilgan imkoniyatlar va muammolarni tan olish orqali, manfaatdor tomonlar media landshaftining murakkabliklarini samarali boshqarishlari, ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishlari va zamonaviy axborot davrida yanada inklyuziv va kuchli jamiyatni shakllantirishlari mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich, “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”.- Toshkent, 2021.

2. Ro‘ziyev Y.Z, Abdullayeva B.S., “Mediasavodxonlik va axborot madaniyati”: Oliy o‘quv yurtlarining barcha yo‘nalishlari talabalari uchun darslik. T.: O‘zbekiston, 2024.

3. Мадраҳимова Ф., Ахборотлашган давр ва “оммавий маданият” таҳдидлари.- Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари, 2013. 1-сон.

OILADA HUQUQIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING JAMIYAT RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI

O‘razmatova Fotima Maxmud qizi
UrDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarini o‘qitish metodikasi (Ma’naviyat asoslari) ta’lim yo‘nalishi magistranti, orazmatovafotima@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda oilada huquqiy madaniyatni rivojlantirish zaruriyati va uning jamiyat rivojidagi ahamiyati hamda huquqiy madaniyat o‘zi nima, uning turlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Huquqiy madaniyat, huquq, qonun, bola tarbiyasi, jamiyat, konsepsiya, yo‘l xaritasi

Аннотация. Данный тезис освещает необходимость развития правовой культуры в семье, её значение для развития общества, а также раскрывает понятие правовой культуры, её виды.

Ключевые слова: Правовая культура, право, закон, воспитание детей, общество, концепция, дорожная карта, нигилизм.

Abstract. This thesis discusses the need to develop legal culture within the family, its importance for societal development, as well as the concept of legal culture and its types.

Keywords: Legal culture, law, legislation, child upbringing, society, concept, roadmap, legal nihilism.

Hozirgi globallashuv davrida dunyoning qator davlatlari singari O‘zbekiston Respublikasi ham mana 34 yildirki jadal rivojlanib kelmoqda. Hech kimga sir emaski har bir mustaqil davlat o‘z gerbi, bayrog‘i, madhiyasiga hamda shu qatori o‘z qonunchilik tizmiga ya’ni konstitutsiyasiga ega. Har qaysi davlatning farovonligi, tinchligi hamda taraqqiyoti mana shu qonunchilik tizmining qay darajada yaxshi tashkil qilinganligi bilan uzviy bog‘liqdir. Shunday ekan jamiyatda insonlarning ya’nikim shu jamiyat fuqarolarining qonunchilikdan xabardorlik darajasi jamiyat rivojida juda katta ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda shuni ta’kidlash o‘rinliki huquqiy madaniyat tushunchasi nima ekanligini insonlar ongiga singdirish hamda uni shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Huquqiy madaniyat o‘zi nima? Huquqiy madaniyat–bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilish va unga rioya qilishi. [https://buxdu.uz/104-yoshlar-bilan-ishlash-manaviyat-va-marifat-yonalishidagi-ishlar/4157/huquqiy-ong-va-huquqiy-madaniyat]; Demak, huquqiy madaniyat deganda jamiyat a’zolari bo‘lmish fuqarolarning davlat hayotida yuz berayotgan qonunchilikka oid islohotlar va mavjud qonunchilikdan qay darajada yaxshi tushinishi va ijtimoiy hayotda undan to‘g‘ri va ongli ravishda foydalana olishi hamda hurmat qilishi huquqiy madaniyatning qay darajada ekanligini belgilab beradi. Bu esa ijtimoiy hayotda huquqiy tarbiyani ahamiyatini oshirish bilan birga huquqiy nigilizmga qarshi kurashishni taqazo qiladi. Huquqiy tarbiya–bu jamiyat a’zolarining yurish-turish madaniyatiga va ongiga huquq haqidagi bilimlarni doimiy ravishda maqsadga muvofiq ta’sir etish orqali singdirib borish jarayoni. Huquqiy nigilizm–

bunda (lot. “nihil”-“hech narsa”) huquq subyekt(lar)ining amaldagi huquq normalarini mensimasligi, ularga hurmatsizlik munosabatida bo‘lishi yoki inkor qilishi tushuniladi. Bundan ko‘rinib turibdiki biz huquqiy tarbiyani kuchaytirish orqali huquqiy nigilizmga qarshi kurashamiz. Aynan shuning uchun ham oilada huquqiy madaniyatni shakllantirish bugungi kundagi davlat va jamiyat oldiga qo‘yilgan ko‘ndalang masalalardan biridir desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Huquqiy madaniyat–jamiyatning qonunchilik darajasi, mavjud qonunlardan aholining xabardorlik darajasi, fuqarolarning, mansabdor shaxslarning huquq normalariga rioya qilishi va ularni bajarmagan shaxslarga nisbatan murosasiz bo‘lishi. [X.Odilqoriyev., 2009. – S.568]; Darhaqiqat yuqorida ta’kidlanganidek jismoniy shaxslar ham yuridik shaxslar ham qonun oldida bir va har bir shaxs huquq normalariga ongli ravishda rioya qilishi hamda qonunbuzarlik holatlariga befarq bo‘lmasliklari lozim zero bu har bir fuqaro uchun ham farz ham qarzdir. O‘sib kelayotgan yosh avlodni huquqiy jihatdan ma’nan yetuk qilib tarbiyalashda oilaning o‘rni juda katta. Negaki “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” degan gap bejiz aytilgan emas. Shaxs kamolotida hamda uning ongida vatanparvarlik, vijdoniylik, adolatlilik kabi xislatlarni rivojlantirishda eng avvalo uning ongi va qalbiga ilk “urug‘” oilada ya’niki oiladagi tarbiya jarayonida ekiladi. Demak, biz aynan shu sababli ham oilada huquqiy madaniyatni rivojlantirish jamiyat taraqqiyoti uchun juda katta hissa qo‘shadi deb bemalol ayta olamiz. Bu borada esa hozirgi kunda ko‘p islohotlar olib borilmoqda va qarorlar qabul qilinmoqda jumladan O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Miromonovichning 2019-yil 9-yanvardagi PF-5618-sonli “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmonini keltirish o‘rinlidir. Prezidentimizning mana shu farmoni asosida “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish” Konsepsiyasi ishlab chiqildi. [https://lex.uz/docs/-4149765]; Yuqoridagi konsepsiyada Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-maydagi 259-son qarori asosida qilinadigan chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Mana shu rejalardan birisi quyidagicha: Shaxs, davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarida aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo‘lib bu reja bir qator maqsadlarni o‘z ichiga qamrab olgan masalan, oilada va ta’lim muassasalarida huquqiy tarbiyani shakllantirish va huquqiy madaniyatni yuksaltirish chora tadbirlari shular jumlasidandir. Ota-onalar o‘rtasida umumta’lim maktablariga bolalarni qabul qilish, bir maktabning o‘zida bolani bir sinfdan boshqasiga o‘tkazish yoki bir maktabdan boshqa maktabga ko‘chirish tartiblari hamda umumta’lim maktablari faoliyatiga doir boshqa qonun hujjatlarining mazmun-mohiyati bo‘yicha tushuntirish ishlarini olib borish maqsadida aholi bilan uchrashuvlar tashkil qilish. Bu uchrashuv tadbirlari 2022-yilning 30-avgustidan 2023-yilning 30-avgustiga qadar amalga oshirilishi rejalashtirilgan edi. O‘tgan davr mobaynida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Bolalarda huquqiy bilimni shakllantirish uchun esa mutifilmlar yaratish hamda oila davrasida foydalanish uchun qo‘llanma yaratish orqali huquqiy madaniyatni rivojlantirish choralarini ko‘rishni maqsad qilgan holda tadbirlar amalga oshirildi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak huquqiy madaniyat shartli ravishda jamiyat va shaxs huquqiy madaniyatiga ajratiladi. Jamiyatning huquqiy madaniyati huquqiy ongning huquqiy qonuniylikning, qonunlarni takomillashtirish va huquqiy tajribaning muayyan

darajasini aks ettiradigan hamda insoniyat huquq sohasida yaratgan butun boyliklarni qamrab oladigan ijtimoiy madaniyatning bir turi sifatida ko‘riladi. Shaxsning huquqiy madaniyati jamiyat huquqiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi. “Bu faoliyat huquq sohasida jamiyat taraqqiyotiga va uning madaniyatiga mos keladi va natijada shaxs hamda jamiyatning doimiy huquqiy boyishi sodir bo‘ladi. Shunday ekan hozirgi globallashuv davrida insonlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishga yordam beruvchi omil sifatida milliy g‘oya targ‘iboti ham katta ahamiyat kasb etadi”.[B.Matchanova., 2024. – S.12]; Uning aynan maqsad va vazifalari qatoridan o‘rin olgan xalqni, fuqarolarni “Demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishga safarbar etish” ni ustivor maqsadlar qaroriga kiritilishi misolida ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://buxdu.uz/104-yoshlar-bilan-ishlash-manaviyat-va-marifat-yonalishidagi ishlar/4157/huquqiy-ong-va-huquqiy-madaniyat/.
2. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / X.T. Odilqoriyev, I.T.Tulteyev va boshqa.; prof. X.T. Odilqoriyev tahriri ostida. Toshkent.: “Sharq”, 2009.—568b.
3. https://lex.uz/docs/-4149765.
4. Matchanova B.I.-“Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” g‘oyasi targ‘iboyida fuqarolar ongi va madaniyatini rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlari. T.: “ILM-MA’RIFAT” nashriyoti, 2024.

YOSHLARDA MILLIY G‘URURNING SHAKLLANISHIDA MADANIY MEROSNING O‘RNI

Otaboyeva Dinora Sardorbek qizi
UrDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Ma’naviyat asoslari) ta’lim yo‘nalishi magistranti, otaboyevadinora750@gmail.com
Otajonov Shoxrux Rustamovich
Urganch RANCH texnologiyalari universiteti magistranti,
Sh.rustamovich1.@mail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda O‘zbekistonning madaniy merosi, tarixiy yodgorliklari va milliy qadriyatlarini, yoshlar orasida milliy g‘urur tuyg‘usini shakllantirishning muhim ahamiyatga ega ekanligi yoritiladi.

Kalit so‘z: Milliy g‘urur, madaniy meros, tarixiy yodgorliklar, yoshlar tarbiyasi, milliy qadriyatlar, milliy birlik, fidoyilik, o‘zlikni anglash, o‘zbekiston madaniyati, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация. В данном тезисе раскрывается важное значение культурного наследия, исторических памятников и национальных ценностей Узбекистана, а также формирования чувства национальной гордости среди молодежи.

Ключевые слова: Национальная гордость, культурное наследие, исторические памятники, образование молодежи, национальные ценности, национальное единство, самопожертвование, самосознание, культура Узбекистана, инновационные технологии.

Abstract. This thesis highlights the significant importance of Uzbekistan's cultural heritage, historical monuments, and national values, as well as the formation of a sense of national pride among young people.

Keywords: National pride, cultural heritage, historical monuments, youth education, national values, national unity, dedication, self-awareness, Uzbek culture, innovative technologies.

Mamlakatimizda tariximiz, ma’naviyatimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklash, madaniy merosimizni asrab-avaylash, ularni boyitish hamda dunyo hamjamiyatiga tanishtirish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. O‘zbekiston o‘z qadimiy madaniyatiga, qadriyatlariga ega o‘lkadir. Xalqimizning ajdodlardan-avlodlarga o‘tib kelayotgan nihoyatda qadimiy va boy ma’naviy-madaniy merosi bugungi kunda dunyo hamjamiyatini mamlakatimizga tobora jalb qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019-yil 3-maydagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlari samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4307-son Qarorida yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqaro etib tarbiyalash va ularda milliy g‘ururni shakllantirish maqsadida ham bir qator vazifalar belgilab berilgan”. [https://lex.uz/docs/4320700]

Milliy g‘urur insonlarda quyidagi shakllarda o‘z ifodasini topadi:

-o‘z xalqi, millatining erishgan yutuqlari, qadriyatlari, milliy boyliklari, urf-odatlari, an’analaridan faxrlanish, uning hayotidagi o‘ziga xos xodisalarga befarq bo‘lmaslik;

-o‘z xalqi, millatining ravnaqi uchun fidoyilik ko‘rsata olish;

-o‘z xalqi, millatining asrlar davomida yaratgan ma’naviy, madaniy, moddiy boyliklarini asrab-avaylash;

-xalqning milliy urf-odatlari, an’analari, qadriyatlarini e’zozlash va avaylab-asrash, ko‘paytirish;

-o‘z millatini qadrlashini kundalik amaliy faoliyatida namoyon eta olish kabilar.

Shu bilan bir qatorda milliy g‘urur egasi boshqa xalqlar va millatlarning vakillariga alohida hurmat-e’tibor bilan qarash, ularning madaniy boyliklarini qadrlay olish tuyg‘usiga ega bo‘ladi. Boshqa millat vakillarining madaniyati, urf-odatlari, an’analarini qadrlagan holda milliy g‘ururni millatchilik va soxta millatparvarlikdan farqlay oladi. Bunday sifatlarni yosh avlodga ta’lim-tarbiya jarayonida singdirish zaruriyati bugungi kunda ayniqsa kuchaymoqda. Yosh avlod uchun milliy g‘urur tarbiyasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur jarayonda o‘quvchilarda o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, millat taqdiri uchun qayg‘urish, fidoyilik sifatlari tarkib topadi. Bunday yondashuv natijasida o‘quvchi-yoshlarda o‘z ajdodlari va bugungi vatandoshlarining yutuqlaridan faxrlanish, ularni avaylab-asrash va ko‘paytirishga intilish, jahon xalqlarining ilg‘or madaniyati bilan o‘z xalqi madaniyatining yutuqlari bilan qiyoslash, undan faxrlanish tuyg‘usi shakllantiriladi. Millatning jahon maydonida o‘zligini namoyon qilishi uchun hissa qo‘shish, innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish asosida xalqning yutuqlarini ko‘paytirishga bo‘lgan intilish kuchayadi. Buning natijasida yoshlar sog‘lom dunyoqarashga, milliy g‘ururga ega bo‘lib, vatan ravnaqi uchun tinmay harakat qilishga intiladilar. Ularda fidoyilik hissi yuksaladi. Bu jarayonda madaniy merosdan unumli foydalanish talab etiladi. Madaniy merosimiz o‘zbek xalqining o‘tmishi, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosi, tajribalari ifoda yetilgan bo‘lib, ulardan o‘quvchi-yoshlarni xabardor qilish orqali milliy g‘urur tuyg‘usi shakllantiriladi.

Hukumatimiz tomonidan milliy-madaniy merosga munosabat borasida ilgari surilgan chuqur falsafiy mohiyatga ega konseptual g‘oyalar va ularning hayotga tadbiq qilinishi mustaqillik yillarida yoshlar ma’naviy hayoti taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Olib borilayotgan islohotlarning samaradorligi, avvalo, boy tarixiy-madaniy merosimizning keng o‘rganilishi, yoshlarimiz qalbi va ongu shuurida milliy qadriyatlarning chuqur singdirilayotganligi bilan chambarchas bog‘liq. Ayni paytda bu yosh avlodni sog‘lom turmush tarzi tamoyillari asosida tarbiyalash, jismoniy, ma’naviy va ruhiy chiniqtirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘usini oshirishga xizmat qiladi. Mavjud ma’naviy-madaniy merosni qay darajada saqlanib, avaylab kelinayotgani, uni har tomonlama o‘rganib keng jamoatchilikka, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish, jahon hamjamiyatiga targ‘ib etish borasida amaliy ishlar keng ko‘lamda olib borilmoqda. Shu o‘rinda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “...biz ona zaminimiz bag‘ridagi har bir moddiy va ma’naviy meros namunasini ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, qayta tiklash va ta’mirlash bo‘yicha qilinayotgan bu ishlarimizni kimgadir namoyish qilish, ko‘z-ko‘z etish uchun emas, aksincha, kelajagimizni o‘ylab, ongimiz va qalbimiz da’vati bilan amalga oshirmoqdamiz. Toki, ertaga bizning o‘rnimizga keladigan, biz boshlagan olijanob ishlarni munosib davom ettirishga qodir bo‘lgan yoshlarimiz ana shu bebaho ma’naviy

boylikdan bahramand bo‘lsin, shu asosda o‘zining kimligi, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanini anglab yetsin”, - degan so‘zlarini eslash joiz. [Karimov I.A., 2008. - S.135];

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar orqali biz o‘z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaatlarimizni amalga oshirish masalasini qo‘yar ekanmiz, shakllanib kelayotgan yangi avlod hayotida tarixiy-madaniy merosga munosabatni yaxlit falsafiy tafakkur darajasida samarali rivojlantirish vazifasiga yanada jiddiy ahamiyat qaratishimiz darkor. Kelajakka munosib bo‘lgan ma’naviy jihatdan yetuk yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolar ekan shu o‘rinda prezident Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini eslash joiz hisoblanadi: “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi. Shu maqsadda “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz”. [Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi, Xalq so‘zi. № 276. 30.12.2020];

Buyuk ajdodlarimiz qoldirgan boy madaniy va ma’naviy merosni, mardlik va jasorat tuyg‘ulariga asoslangan falsafiy tafakkurimizni allaqanday “ommaviy madaniyat”ga almashtirmaslikka barchamiz birdek mas’ulmiz. Shunday ekan, zimmamizga ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodga ma’naviy-madaniy, tarixiy merosimizni mukammal o‘rgatish, ma’rifiy, ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarni keng ko‘lamli asosda olib borish barchamizning muqaddas burchimizdir.

Jamiyatni ma’naviy-axloqiy kamolga yetkazishga keng aholi ommasini, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashda muzeylar, madaniy obidalar katta ahamiyat kasb etishini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari, Madaniyat va sport ishlari va Xalq ta’limi Vazirligining 2002- yil iyun oyida qabul qilingan Respublika Oliy va o‘rta- maxsus, kasb-hunar va umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchi va yoshlari o‘rtasida ma’naviy- ma’rifiy ishlarni kuchaytirish to‘g‘risidagi qo‘shimcha buyruqlari va shu asosda viloyat hokimligining qaror, tadbir-rejalari va ko‘rsatmalari muzeylar va o‘quv yurtlari o‘rtasidagi mustahkam aloqa o‘rnatish, hamda madaniy ma’rifiy ishlarni hamkorlikda olib borishga keng imkoniyatlar yaratib berdi. Bosh qomusimizda ham qadimiy obidalar, noyob osori-atiqalar, qimmatli kitob va qo‘lyozmalar, san’at namunalari bilan birga, madaniy boylik sifatida nomoddiy merosimiz muhofazasi ham kafolatlangan. Nomoddiy meros obyektlarini o‘rganish, muhofazalash, yo‘qolib borayotgan an’analarni qayta tiklash va targ‘ib etishda Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy

akademiya, Xalq ta’limi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirliklari va boshqa tashkilotlar, ijodiy birlashma va uyushmalar o‘rtasida yaqin hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Yoshlarda milliy g‘ururni shakllanishida respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy-metodik markazida nomoddiy madaniy merosni hujjatlashtirish bo‘limi tashkil etilib, uning faoliyati samarali olib borilayotgani davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan ma’naviy boyligimizni asrab-avaylash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarni umumlashtirish, ularning doimiy monitoringini yuritish imkonini bermoqda. Benedikt Andersonning “Imagined Communities” kitobida millat va milliy g‘urur shakllanishining asosiy omillari sifatida madaniyat, tarix va tilni ta’kidlaydi. U millatlarni tasavvur qilingan jamoa sifatida ko‘rib, madaniy meros va umumiy tarixiy xotira milliy identifikatsiyaning asosini tashkil etadi. Yoshlarda milliy g‘urur shakllanishi uchun ular o‘z tarixini va madaniyatini bilishlari, tasavvur qilishlari zarur, bu esa milliy birlikni mustahkamlaydi deya ta’kidlagan. [Benedikt A., 1983. – S.45];

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://lex.uz/docs/4320700

2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - T.: “Ma’naviyat”, 2008.

3. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. № 276. 30.12.2020.

4. Benedikt Andersonning “Imagined Communities: Reflections on the Origin and Spread of Nationalism”, 1983.

TALABALARNING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI OSHIRISH OMILLARI

Ozodova Onagul Umidbek qizi
UrDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarini o‘qitish metodikasi (Ma’naviyat asoslari) ta’lim yo‘nalishi magistranti, ozodovaonagul@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda talabalar intellektual salohiyatini oshirish omillari, mustaqil ijodiy fikrlashning ahamiyati va ziyolilik darajasining shakllanishi tahlil qilinadi. Intellektual yuksaklikka erishish ilmiy bilimlar, ijodiy tafakkur, milliy-ma’naviy qadriyatlar va ta’lim jarayoni bilan chambarchas bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Shuningdek, yoshlarni milliy g‘oya va umumbashariy qadriyatlar asosida tarbiyalashning dolzarbligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Intellektual ziyolilik, ziyolilik madaniyati, ziyolilik darajasi, ma’naviyat, tajriba, madaniyat, mas’uliyat.

Аннотация. В статье анализируются факторы повышения интеллектуального потенциала студентов, значение самостоятельного творческого мышления и формирование уровня интеллигенции. Подчеркивается, что достижение интеллектуального совершенства тесно связано с научными знаниями, творческим мышлением, национально-духовными ценностями и образовательным процессом. Также рассматривается актуальность воспитания молодежи на основе национальной идеи и общечеловеческих ценностей.

Ключевые слова: интеллектуал, интеллект, интеллектуальная культура, уровень интеллекта, духовность, опыт, культура, ответственность.

Abstract. The article analyzes the factors that enhance students' intellectual potential, the importance of independent creative thinking, and the formation of intellectual maturity. It highlights that achieving intellectual excellence is closely linked to scientific knowledge, creative thinking, national-spiritual values, and the educational process. Additionally, the article discusses the relevance of educating young people based on national ideology and universal values.

Keywords: Intellectual, intelligence, intellectual culture, level of intelligence, spirituality, experience, culture, responsibility.

Intellektual yuksaklikka ko‘tarilish uchun nafaqat fahm-farosatga, balki mustaqil ijodiy fikr-mulohaza imkoniyatlariga tayanmoq ham darkor. Chunki, mustaqil ijodiy fikr-mulohaza yordamida inson olamni yaxlit tasavvur qiladi, unda sodir bo‘layotgan sifat o‘zgarishlari, o‘zaro aloqadorlik, o‘zaro ta’sirning natijasi ekanligini payqab olish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Insonning ma’naviy-axloqiy jihatdan yetukligi asosan uning ziyolilik darajasi bilan belgilanadi. Bu jarayon esa insonni o‘zligini bilishga bo‘lgan intilish davomida to‘plagan kundalik va ilmiy darajasidan kelib chiqadigan nazariy bilimlar va amaliy tajribalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuningdek bu jarayonda har bir insonni ziyolilik darajasi o‘zining muhim xususiyatlari bilan ham alohida ajralib turadi. Chunki ba’zi bir insonlarning kasbi, mutaxassisligi, ixtisoslik darajasi va turmush tarzi bir-biriga yaqin bo‘lganligi bilan ularni ziyolilik darajasi turlicha shaklda namoyon bo‘ladi. Ya’ni ba’zi bir insonlarda

voqelikni idrok qilish darajasi o‘zining tezligi va aniqligi bilan alohida ajralib tursa, boshqalarniki esa sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni asta-sekin o‘zlashtirish va tahlil qilish, lekin to‘g‘ri qat’iy xulosa chiqarish bilan xarakterlanadi.

Inson o‘zining ziyolilik darajasini yuksaltirish orqali tobora o‘z-o‘zini chuqurroq va aniqroq kashf etib boradi. Ya’ni insonni “ziyolilik darajasi” birinchi navbatda uning o‘zligini anglashga qaratilganligi bilan alohida ajralib turadi. Shu boisdan ham o‘z davrida ulug‘ ma’rifatparvar jadid ziyolisi Ismoil Gaspirali: “Ovro‘po bir keksa choldir, tajribasi ko‘pdir. Ulug‘ yoshiga hurmatimiz bor. Tajribasidan o‘rganamiz. Lekin xatolarini takrorlamaymiz.... Ovro‘poda nimani ko‘rsak, yosh boladek olib yugurmaymiz. Esli hushli insonlardek “Bu nimadir? Oqibati nima bo‘ladi?”. Vijdon va haqqoniyatga uyg‘unmi? deya aql tarozisiga tortib olamiz” [Qosimov B., 2002. –S.33] kabi so‘zlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Jadid ma’rifatparvarlarimizning yetakchilaridan bo‘lgan A.Avloniy ham o‘z davrining ziyolisi sifatida yoshlarni halol, uddaburon, matonatli, sahovatli, vatanparvar qilib tarbiyalash uchun astoyidil harakat qilgan. Marifatparvar “Tarbiya biz uchun yo hayot, - yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir”[Avloniy A., 2006, - S.38], deb unga katta baho beradi. Aqlning ilm va tajriba soyasida kamol topishiga ishora qilgan adib uchun bolalarda fikrlash iqtidorini hosil qilish, fikr tarbiyasi benihoya zarur va muqaddas bir vazifa hisoblanadi. Binobarin, u muallimlarning “diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan”. Bolalarning fikrlashi tarbiyachining o‘zining fikrlash, intilish doirasi, saviyasi bilan ham aloqodor. [Qosimov B, 2002, - S.254]; Mustabid tuzum davrida O‘zbekistondagi barcha hal qiluvchi mansablarda mahalliy bo‘lmagan millat namoyondalari hukmron edilar va Moskva ko‘rsatmalarini bajarar edilar. Mahalliy xalq vakillari esa “xo‘ja ko‘rsin”ga tayinlanar va ular Moskva siyosatiga vafodorlik va sadoqatlik ruhida tarbiyalanar edilar. Ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlar, ta’lim tizimi ham kommunistik mafkuraga, yolg‘on sotsializm va kommunizm g‘oyalariga bo‘yin sundirilgan edi. To‘g‘ri milliy ziyolilarimiz Vatanimiz tarixini, ajdodlarimiz merosini o‘rganishga harakat qilishdi. Bunda asosan o‘tmishni qoralash, o‘tmishdagi tariximiz “illatlarini” fosh etishdan nariga o‘tilmadi. Ko‘pchilik ziyolilarimiz ongi o‘zlari ham tasavvur etmagan miqyosda sovet mafkurasi bilan zaharlangan, jahon madaniyati, o‘tmish milliy ma’naviy merosimiz bilan bevosita tanishish imkoniyatidan til bilmaslik, yozuv bilmaslik orqasida mavhum etilgan edi. Chunki B.R.Isoqov ta’kidlaganidek, “Ziyolilik tamoyiliga hukmron - ma’muriy doiralar va xalq tomonidan o‘ziga xos munosabatlar mavjud. Chunonchi, birinchi toifadagilar ko‘p hollarda ziyolilikka umumiy tarzda ijobiy munosabatda bo‘ladilar, lekin masala muayyan ziyoli shaxslarga borib taqalganda, manfaatlar to‘qnashuvi ro‘y beradi: ziyolilar hukmronlar toifasidan ziyolilik tamoyili asosida yashash va ish yuritishni talab qiladilar, bu esa ularga, tabiiyki, yoqmaydi, buni hokimiyat ishlariga aralashish deb ijirg‘anadilar, turli bahonalar topib, zimdan ziyolilarga qarshi kurashadilar”. [Isoqov B.R., 2007. – S.84]. Shu boisdan ham bu davrda fidoiy ziyolilarimiz millat, manfaat uchun qayg‘urib boy tariximizni, ulkan milliy ma’naviyatimiz unsurlarini imkon doirasida yoshlar ongiga yetkazishga harakat qildilar. Shunday bo‘lsada hali tariximiz, o‘z milliy o‘tmishimiz haqida yetarli ma’lumotlarni o‘rganmagan, o‘rgana olmagan edik. Faqat O‘zbekiston

davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingina o‘zbek xalqi ma’naviy rivojlanish yo‘liga qaytdi.

Bu esa nafaqat ilm ahli, o‘qituvchi, talaba-yoshlar balki har birimizning burchimizdir. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, bugungi kunda yoshlar ongiga milliy g‘oyamizni singdirish, ularni mehnasevar, halol va pok ruhda tarbiyalovchi insonlar bizning ustoz – muallimlarimizdir.

Ziyolilarimiz yurt ravnaqi, vatan taqdiriga ma’suliyat bilan yondashadi. Shuning uchun ham ularni millat rahnamolari deb atashimiz mumkin. Shu boisdan ham bugungi yosh avlodni adolat, ezgulik, yaxshilik, donolik, ilm-zakovatlilik, donishmandlik, go‘zal xulq-atvorlik kabi axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalash barcha ziyolilarimizning mas’uliyatli vazifalaridan biriga aylanmog‘i lozim. Chunki jamiyatimizning taraqqiyoti yosh avlodga bog‘liq ekan, ularni ezgu g‘oyalar ruhida tarbiyalash ko‘zlagan maqsadimizga yetishning muhim yo‘lidir.

Millat tafakkuri va ma’naviyatini yuksaltirish, kelajak avlodni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ijod ahli, ma’rifatparvar ziyolilarning xizmatlari beqiyos. Bu vazifani zimmasiga olgan inson, eng avvalo, o‘zi yetarlicha ma’naviy ne’matlardan bahramand bo‘lmog‘i, san’at va adabiyotning jozibasini chuqur his qilmog‘i, dunyo madaniyatlaridan boxabar turmog‘i darkor. Shu boisdan ham mustaqil yurtimizda insonni qadrlash, jumladan, millatlarimizning ma’naviy-ma’rifiy takomiliga o‘lkan hissa qo‘shgan chinakam ziyolilar hurmat-e’tiborini joyiga qo‘yishdek ezgu an’analarni tiklashga alohida e’tibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Darhaqiqat, intellektual tarbiya bugungi kunning eng dolzarb masalasi. Bu ishga yurtimizning barcha ziyolilari – o‘qituvchilar, jurnalistlar, yozuvchilar, vrachlar, artistlar, barcha rahbarlar birdek mas’uldirlar.

Ziyolilar soni tinimsiz ko‘payib, ularning jamiyat hayotidagi roli ortib bormoqda. Bu avvalo fan-texnika taraqqiyoti, shuningdek hozirgi jamiyatda ma’naviy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojning ortishi bilan bog‘liq.

Mamlakatimizda ziyolilik madaniyatini hozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina yuksak intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashga mumkin bo‘ladi. Bu qobiliyatni rivojlantirish lozim. Bunga faqat ma’lumot olish, ilmiy bilimlar va metodologiyani o‘zlashtirish yo‘li bilan erishiladi. Shuningdek, qulay umumiy madaniy muhit va individlar ijtimoiy hayotining yaxshi shart-sharoitlari ham zarur. Nihoyat, omad deb atash odat tusini olgan muayyan holatlarning qulay kesishuvi kerak. [Гудков Л., 1995. – S.18];

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning o‘z-o‘zini yaxshi bilib olishi, fuqarolik pozitsiyasini kuchayishi, mas’uliyati va ziyolilik darajasining o‘sib borishi – tarbiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda esa yoshlarning bo‘sh vaqtini to‘g‘ri tashkil etish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, yuksak madaniyatga ega ziyolilar doimo mavjudligini dadil taxmin qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. -T.: Ma’naviyat, 2002.
2. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2-jild. T.: Ma’naviyat, 2006.
3. Qosimov B. Milliy uyg‘onish. -T.: Ma’naviyat, 2002.
4. Isoqov B.R. Ziyolilik mas’uliyati. -T.: «Ma’naviyat» nashriyoti, 2007.
5. Гудков Л., Дубин Б. Интеллигенция. – М., 1995..

XORAZM JADIDCHILIK HARAKATI MA’NAVIY MEROSINING IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNI O‘QITISHDAGI AHAMIYATI

Yakubova Dilfuza Otaboyevna
UrDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarini o‘qitish metodikasi ta’lim yo‘nalishi magistranti
dilfuza.yakubova44@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezis Xorazm jadidchilik harakati namoyondalari tomonidan ochilgan yangi usul makatablari va ular yaratgan ma’naviy meros namunalari bugungi ta’lim tizimida integratsiyalangan holda zamonaviy pedagogikada jadidlar merosi davomiyligi va ta’siri yuqori ekanligini yoritib beradi.

Kalit so‘zlar: Tarixiy xotira, Xorazm jadidchiligi, ma’naviy meros, “Shajarai Xorazmshohiy” “Xotiralar”, Ojizo, Jadid.uz sayti.

Аннотация. В данном тезисе рассматриваются новые методические школы, открытые представителями движения хорезмских джадидов, а также созданное ими духовное наследие. Подчеркивается, что интеграция этого наследия в современную образовательную систему свидетельствует о высокой степени его преемственности и влияния на современную педагогику.

Ключевые слова: Историческая память, хорезмские джадиды, духовное наследие, «Шажараи Хорезмшахи», «Воспоминания», Ожизо, сайт Jadid.uz, современная педагогика.

Abstract. This thesis explores the new-method schools established by the representatives of the Khorezm Jadidism movement and the spiritual heritage they created. It highlights how their legacy is integrated into today's education system, demonstrating the continuity and significant influence of the Jadid’ heritage in modern pedagogy.

Keywords: Historical memory, Khorezm Jadidism, spiritual heritage, "Shajarai Khorezmshohi," "Memories," Ojizo, Jadid.uz website, modern pedagogy.

Xorazm jadidchiligining ma’naviy merosi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishda muhim o‘rin tutadi. U nafaqat tarixiy hodisa sifatida, balki bugungi ta’lim va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim g‘oya va qadriyatlar manbai sifatida ham ahamiyatlidir. Tarixiy xotira har bir xalqning o‘zligini anglash, milliy ongni mustahkamlash va kelajak avlodlarga o‘z tarixini to‘g‘ri yetkazish uchun muhim omillardan biridir. Tarixni bilish va undan saboq chiqarish jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u milliy g‘urur va birlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tarixiy xotira – bu xalqning o‘tgan davrlardagi voqealar, buyuk shaxslar, yutuqlar va qiyinchiliklar haqida eslab qolishi va ulardan saboq chiqarishi demakdir. Tarixni unutish yoki buzib ko‘rsatish xalqning milliy o‘zligini yo‘qotish xavfini tug‘diradi. Shu bois, tarixiy xotirani asrab-avaylash muhimdir. [I.Karimov., 1998. – S.15];

Ismoil Gaspiralining Qrimda boshlangan jadidchilik harakati boshqa turkiy musulmon o‘lkalarda bo‘lgani singari Xorazmga ham kirib keldi. Tabiiyki, jadidchilik g‘oyalariga Xiva xoni Feruzxon, valiahd Asfandiyorxon, bosh vazir Islomxo‘ja,qozikalon Salimoxun va Bobooxun Salimov, Mamat mahram, Polvonniyoz

hoji Yusupov singari davlat arboblarining hayrihohligi, moyilligi bois Xiva, Yangi Urganch va boshqa hududlarda jadid maktablari tashkil topa boshladi. [S.Samandar,U.Bekmuhammad., 2024. – S.85];

Xorazm jadidlari XX asr boshlarida Xorazm hududida faoliyat yuritgan islohotchi ziyolilar bo‘lib, ular millatni ilm-ma’rifat orqali uyg‘otish, taraqqiyotga yetaklash va yangi jamiyat qurish yo‘lida harakat qilganlar. Ularning faoliyati turli sohalarni qamrab olgan bo‘lib, bu harakat o‘zining chuqur ma’naviy merosi bilan ajralib turadi.

Ma’lumki, Xorazm tarixining XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi davrini o‘rganish, tadqiq qilish, qiyoshlashda Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy”, Polvonniyoz hoji Yusupovning “Xotiralar”i, shuningdek o‘sha davrdagi ijtimoiy va adabiy jarayon, bundan tashqari Bobojon Tarrohning “Xorazm navozandalari”, Laffasiyning “Tazkirai shuaro ” asarlari muhim o‘rin tutadi. Ojizo taxallusi bilan ijod qilgan Bobooxun Salimov she’rlarida mustamlakachilik asorati davriga xos mahzunlik, jamiyatdagi voqeliklarga real baho berish aks etadi:

Ojizo, zor ko‘ngillar, Bo‘ldi xandon oqibat.
Bizlarga zulm etganlar, Bo‘ldi yakson oqibat.

Bobooxun va uning maslakdosh jadid birodari Bekjon Rahmon bilan hamkorlikda maktablar uchun “Alifbe” va “O‘qish” kitobi va “Maktab ” sarlavhali she’rida xalq ta’limi uchun sidqidildan ishlagan jadid ziyolisining yorqin ifodasi aks etgan:

Xushdur ne balo havoyi maktab, Jon o‘lsa ravo fidoyi maktab.
Maktab demaki madori ilmdir, To ilm baqoyi maktab.
Xorazm elin ayalagay munavvar, Nuri qamari saymoyi maktab.
Mingdan birini tugatmas Ojiz, Yuz yil desa ham sanoyi maktab.
[U.Bekmuhammad., 2024. – S.2]

Xorazmda ijod qilgan shoir, tarixchi, tarjimonlarning ko‘pligi, ularning asarlaridagi g‘oyalar va tashqi savdo-madaniy aloqalar jamiyatda ilg‘or fikrli, taraqqiyot tarafdorlari bo‘lgan kishilar guruhi ma’rifatparvarlarning shakllanishiga, ya’ni jadidchilik g‘oyalarining yetishib chiqishiga zamin yaratdi. Xorazm jadidlarining boshqa hududlardan farqli jihatlaridan biri shuki bu g‘oyani qo‘llab quvvatlagan insonlarning aksariyati boy badavlat insonlar ekanligi edi. [N.Polvonov., 2011. – S.28] Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Xorazm jadidlari xalqning ma’naviy va madaniy yuksalishiga xizmat qilgan islohotchi ziyolilar bo‘lib, ularning harakatlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo‘qotmagan. Ularning ta’lim, matbuot, siyosat, adabiyot va ijtimoiy hayot sohalaridagi islohotlari milliy uyg‘onish va taraqqiyot yo‘lidagi muhim qadamlardan bo‘lib xizmat qilgan. Ularning ma’naviy merosi – milliy o‘zlikni anglash, ta’limni rivojlantirish, adolat va taraqqiyot sari intilish kabi g‘oyalar bugungi kunda ham dolzarbdir.

Xorazm jadidchilik harakati o‘zining tarixiy ahamiyati bilan katta ro‘l o‘ynagan. Bu harakat XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida O‘rta Osiyoda ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy o‘zgarishlarni amalga oshirishga intilgan. Xorazm jadidchilik harakatining ma’naviy merosi, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida katta ahamiyatga ega.

Jadidchilik harakati O‘rta Osiyo xalqlarining tafakkurini yangilash, ularni yangicha bilimlar bilan tanishtirishni maqsad qilgan. Bu harakat, ayniqsa, madaniyat va ta’lim sohasidagi islohotlarni o‘z ichiga olgan. Xorazmda jadidchilikning ta’limga bo‘lgan alohida e’tibori ko‘plab yangi maktablar va darsliklarning yaratilishiga sabab bo‘ldi, bu esa o‘quvchilarga gumanitar va ijtimoiy fanlarni zamonaviy nuqtai nazardan o‘rgatishni osonlashtirdi.

Jadidchilik harakati zamonaviy ta’limni targ‘ib qildi, bunda o‘quvchilarni nafaqat an’anaviy fanlar, balki matematika, fizika, geografiya kabi yangi sohalarda ham bilimlar bilan tanishtirishga alohida e’tibor berildi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘qitilishidagi asosiy maqsad esa yoshlarni ilg‘or fikrlashga, mustaqil tafakkur qilishga va yuksak axloqiy qadriyatlarni qadriga yetkazishga undash edi.

Jadidchilikning ma’naviy merosi bugungi kunda ham ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida o‘qitishda muhim ahamiyatga ega. Xorazm jadidlari tomonidan amalga oshirilgan islohotlar bugun xalqning madaniy merosini va intellektual salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Jadidchilik harakati orqali tashkil etilgan ilmiy va pedagogik asoslar nafaqat o‘z davrining ta’lim tizimini yangilagan, balki mustaqil fikrlovchi, axloqiy qadriyatlarni hurmat qiladigan yangi avlodni tarbiyalashga xizmat qilgan.

Shunday qilib, Xorazm jadidchilik harakatining ma’naviy merosi ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitishdagi ahamiyati bugungi kunda ham davom etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”.Toshkent. 1998-y.

2. Sayyora Samandar, Umid.Bekmuhammad, “Xorazm jadid namoyandalari: hayoti, faoliyati va adabiy merosi”, Monografiya, Urganch. 2024-y.

3. Umid Bekmuhammad, “Ikki jadid haqida bir mulohaza”. Jadid uz sayti. 2024-yil 26-yanvardagi 5-sonidan.

4. Ne’mat Polvonov, “Xorazmdagi ijtimoiy harakatlar va siyosiy partiyalar tarixi”, Akademnashr. Toshkent- 2011-y.

IX-XII ASR MOVAROUNNAHR ALLOMALARINING MA’NAVIY QARASHLARIDA IJTIMOIY IDEAL VA KOMIL INSON MUAMMOSI

Yuldashova Saboxon Botir qizi
UrDPI, Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (Ma’naviyat asoslari) ta’lim yo‘nalishi magistranti, yuldashovasaboxon328@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda IX-XII asr Movarounnahr allomalarining ma’naviy qarashlari tahlil qilinib, ularning ijtimoiy ideal va komil inson haqidagi tasavvurlari yoritiladi. Allomalar tomonidan ilgari surilgan axloqiy yetuklik, adolat, ilm-ma’rifat va kamolotga intilish g‘oyalari tahlil qilinadi hamda ularning bugungi kun uchun ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Movarounnahr allomalari, IX-XII asr falsafasi, komil inson, ijtimoiy ideal, ma’naviy kamolot, Al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, axloq va adolat, ilm va tafakkur, tasavvuf ta’limoti, ideal jamiyat, barkamol avlod.

Аннотация. В данной статье анализируются духовные взгляды ученых Мавераннахра IX-XII веков, освещаются их представления об общественном идеале и совершенном человеке. Рассматриваются идеи морального совершенства, справедливости, стремления к знаниям и самосовершенствованию, выдвинутые учеными, а также раскрывается их актуальность для современности.

Ключевые слова: Моваруннахр алломас, философия 9-12 веков, совершенный человек, социальный идеал, духовное созревание, Аль-Фараби, Ибн Сина, Беруний, Юсуф Хос Хаджиб, Ахмад Яссави, этика и справедливость, наука и мышление, доктрина мистицизма, идеальное общество, гармоничное поколение.

Abstract. This article analyzes the spiritual views of the scholars of Mavarannahr in the 9th-12th centuries, highlighting their concepts of social ideal and the perfect human. It examines the ideas of moral excellence, justice, pursuit of knowledge, and self-improvement proposed by these scholars and explores their relevance in the modern era.

Keywords: Movarounnahr allomas, 9th-12th century philosophy, perfect man, Social ideal, spiritual maturation, Al-Farabi,Ibn Sina,Beruniy,Yusuf Khos Hajib, Ahmad Yassawi, ethics and Justice, Science and thought,the doctrine of mysticism, Ideal society, harmonious generation.

Bilamizki, IX-XII asr Movarounnahr allomalari Sharq uyg‘onish davrining buyuk namoyandalari sifatida ilm-fan, falsafa, axloq va ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan. Ularning ta’limotida komil inson konsepsiyasi va ijtimoiy ideal muhim o‘rin tutadi. Ushbu tadqiqotda allomalarning insoniy kamolot va jamiyat haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Movarounnahr allomalari ta’limotida komil inson aqliy, axloqiy va ruhiy yetuklikka erishgan, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shuvchi shaxs sifatida talqin etiladi. Ular komillikni quyidagi omillar orqali izohlaganlar: Bilim

va donishmandlik (al-Farg‘oniy, al-Xorazmiy, Beruniy), axloqiy poklik va adolat (Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy), jismoniy va ruhiy yetuklik (Ibn Sino).

IX-XII asr allomalari jamiyatning ideal modelini ilm, adolat va axloqiy qadriyatlar asosida tasvirlaganlar. Ularning fikricha ilm-ma’rifat asosiy rivojlanish omili bo‘lib, jaholat jamiyat inqiroziga olib keladi. Adolatli boshqaruv va hukmdorning komilligi muhim shartdir (Farobiy, Nizomulmulk). Jamiyat har bir a’zosining mas’uliyati va ijtimoiy birdamlik ustiga quriladi.

Allomalarning ijtimoiy-falsafiy qarashlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, Abu Nasr al-Farobiy – “Fozil odamlar shahri” asarida ideal jamiyat modelini yaratgan. Unga ko‘ra, komil inson jamiyatning yetakchi kuchi bo‘lishi kerak. Abu Rayhon Beruniy – ilmiy haqiqatni izlash orqali jamiyatning taraqqiyotiga hissa qo‘shish lozimligini ilgari surgan. Ibn Sino – insonning aqliy va jismoniy rivojlanishi birgalikda kechishi zarurligini ta’kidlagan. Ahmad Yassaviy – tasavvuf ta’limoti orqali inson axloqiy poklanishi va jamiyatga xizmat qilishi kerakligini targ‘ib qilgan. Movarounnahr hududi IX-XII asrlarda ilm-fan, falsafa, adabiyot va ma’naviyat taraqqiyotining yuksak cho‘qqilariga erishgan maskanlardan biri bo‘ldi. Ushbu davrda yashab ijod qilgan buyuk allomalar – al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy va boshqalar – nafaqat ilm-fan sohasida, balki inson ma’naviy kamoloti, axloqiy qadriyatlari va ideal jamiyat tushunchasiga oid qimmatli g‘oyalarni ilgari surdilar. Ularning asarlarida komil inson muammosi va ijtimoiy ideal tushunchasi markaziy o‘rin tutib, inson tafakkuri va jamiyat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari sifatida talqin qilindi.

Al-Farobiy (873-950) Sharq falsafasining yirik namoyandalaridan biri bo‘lib, o‘zining “Fozil odamlar shahri” asarida ideal jamiyat va uning rahbarlari qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerakligi haqida fikr yuritadi. Uningcha, jamiyatdagi eng oliy maqsad – adolat va baxtga erishish bo‘lib, bu faqat komil insonlar boshqaruvi ostida amalga oshirilishi mumkin. Al-Farobiyning komil inson haqidagi ta’limoti ilm, axloq va donishmandlik bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u insonning aql-idroki va ruhiy pokligini asosiy shart sifatida ko‘rsatadi.

Ibn Sino (980-1037) o‘zining tibbiyot va falsafaga oid asarlarida insonning jismoniy va ma’naviy yetukligini muhim omil sifatida ko‘rsatadi. Uning fikriga ko‘ra, inson o‘z bilim va tafakkurini rivojlantirish orqali komillikka erishishi mumkin. Ibn Sino insonning ruhiy va axloqiy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratib, komil insonni donishmand, odil va adolatparvar shaxs sifatida tasvirlaydi.

“Beruniy (973-1048) ilm-fanning turli sohalarida beqiyos yutuqlarga erishgan olimlardan biri bo‘lib, u ham insonning aqliy kamoloti va ijtimoiy hayotdagi o‘rnini o‘z asarlarida tahlil qiladi”. [Ubaydulla Karimov., 2005. – S.14]; Beruniy ilmni insoniyat taraqqiyotining eng muhim omili deb hisoblab, inson komilligi ilmiy izlanishlar va haqiqatga intilish bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi.

Yusuf Xos Hojib (XI asr) o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida komil inson tushunchasini davlat boshqaruvi va axloqiy qadriyatlar bilan bog‘laydi. U insonning ezgu xulq-atvorini ta’kidlab, odil podshoh, dono vazir va halol mehnat qiluvchi kishilar jamiyatning asosiy ustunlari ekanligini uqtiradi. Uning ta’limotida komil inson – adolatli, oqil va fidoyi shaxs sifatida tasvirlanadi.

Ahmad Yassaviy (XII asr) esa tasavvuf ta’limoti orqali komil inson tushunchasini yanada kengaytirib, insonning ruhiy poklanishi va axloqiy kamoloti masalasini o‘rtaga tashlaydi. Uning fikriga ko‘ra, inson komilligi Allohga yaqinlashish, nafsni yengish va pok axloq bilan chambarchas bog‘liq. Yassaviyning hikmatlarida komil insonning asosiy xususiyatlari sadoqat, sabr-toqat, halollik va odob ekanligi ta’kidlanadi.

Movarounnahr IX-XII asrlarda ilm-fan, madaniyat va falsafa sohalarida gullab-yashnagan hududlardan biri bo‘lib, bu davrda yetishib chiqqan allomalar nafaqat o‘z zamonasida, balki butun dunyo ilmiy va falsafiy tafakkuriga ulkan hissa qo‘shgan. Ushbu davr mutafakkirlari o‘z asarlarida jamiyat taraqqiyoti, inson ma’naviy kamoloti va komil insonni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratdilar. Al-Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yassaviy kabi allomalar ijtimoiy ideal va barkamol inson tushunchalarini o‘z ta’limotlarida keng yoritganlar.

Al-Farobiy (873-950) Movarounnahr va umuman Islom olamining eng buyuk faylasuflaridan biri hisoblanadi. Uning “Fozil odamlar shahri” asarida komil inson tushunchasi davlat boshqaruvi va jamiyatning adolatli tuzilishi bilan bog‘liq holda bayon etilgan. U ideal jamiyatni barpo etishda rahbar va fuqaroning ma’naviy fazilatlarini asosiy omil sifatida ko‘rsatadi. Al-Farobiyning fikricha: Komil inson – ilmli, oqil, axloqiy barkamol va haqiqatni anglashga intiluvchi shaxsdir. Ideal jamiyat faqatgina adolatli va dono rahbar boshchiligida rivojlanadi. Ilm-fan va falsafa inson kamolotiga yetishishda muhim vosita hisoblanadi.

Ibn Sino (980-1037) nafaqat buyuk tabib, balki ulug‘ mutafakkir ham bo‘lib, uning inson haqida ilgari surgan g‘oyalari tibbiyot, falsafa va axloqiy tarbiya bilan chambarchas bog‘liq. Ibn Sino insonning jismoniy va ma’naviy yetukligini muhim deb bilib, inson kamolotining uch asosiy omilini ta’kidlaydi: Ilm va tafakkur – inson aql-zakovat orqali haqiqatga erishadi. Axloq va odob – komil inson har doim yaxshi xulq-atvorga ega bo‘lishi kerak. Ruhiy poklik – inson o‘z nafsini yengib, ezgulik sari intilmog‘i lozim. Uning falsafiy qarashlarida inson tafakkuri va bilimi jamiyat taraqqiyoti uchun asosiy omil sifatida ko‘rsatilgan. [Shamsiddin Sirojiddinov., 2008. – S.34];

Abu Rayhon Beruniy (973-1048) Movarounnahr va Xorazmning buyuk allomalaridan biri bo‘lib, u o‘zining ilmiy asarlarida inson tafakkuri va ma’rifatining ahamiyatini yoritgan. Beruniy komil inson haqida shunday fikr bildirgan: “Haqiqatga intilish va ilmni egallash insonni barkamollikka yetaklaydi. Har bir inson tabiatni o‘rganib, undagi qonuniyatlarni anglab yetmog‘i kerak**.** Ma’naviyat va ilm-fan bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu insonni yuksaltiradi”. Beruniy o‘z asarlarida inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlarini ta’kidlab, fan va texnika yutuqlari insoniyat taraqqiyotining muhim sharti ekanligini uqtirgan.

IX-XII asr Movarounnahr allomalari o‘z davrida komil inson tushunchasini turli nuqtayi nazardan yoritgan bo‘lsalar-da, ularning barchasi ilm, axloq va ma’naviy kamolotni insonning asosiy fazilatlari deb bilganlar. Al-Farobiy – ilm va tafakkur orqali ideal jamiyat yaratish g‘oyasini ilgari surdi. Ibn Sino – ilm-fan va axloqiy barkamollik insonning komilligini belgilovchi asosiy omil ekanligini ta’kidladi.

Beruniy – ilm-fan va haqiqatga intilish inson tafakkurining yuksak bosqichi ekanini ko‘rsatdi.

Yusuf Xos Hojib - adolat va aql-idrok bilan boshqariladigan jamiyat ideal jamiyat ekanligini bayon etdi. Ahmad Yassaviy – tasavvuf yo‘nalishi orqali ma’naviy poklanish va axloqiy yetuklikni targ‘ib qildi. Ushbu mutafakkirlarning qarashlari nafaqat o‘z davrida, balki hozirgi zamonda ham dolzarbligini yo‘qotmagan bo‘lib, bugungi jamiyatni ma’naviy yuksaltirishda ulkan ahamiyat kasb etadi.

IX-XII asr Movarounnahr allomalari komil inson va ideal jamiyat tushunchalarini rivojlantirib, o‘z davri va kelajak uchun muhim falsafiy, axloqiy hamda ilmiy meros qoldirganlar. Ularning ta’limoti bugungi kunda ham ijtimoiy taraqqiyot va ma’naviy kamolot yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi. [Amriddinova D., 2005. – S.120];

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ubaydulla Karimov, “Bilim jonkuyari”, 2005.
2. Shamsiddin Sirojiddinov, “Islom falsafasiga kirish: Kalom ilmi”, 2008.
3. Dilrabo Amridinova, “O‘zbek ma’rifatparvarlari ijodida komil inson g‘oyasining ahamiyati”. 2005.

AGRICULTURE OF THE KHOREZM REGION IN THE YEARS OF RECOVERY AFTER THE SECOND WORLD WAR

Alisher Matyakubov
Urgench Ranch Technology University senior lecturer

Annotatsiya. *Ushbu tezisda Ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish davrida Xorazm viloyatida qishloq xo‘jaligidagi o‘zgarishlar tahlil etilgan. Unda urushdan keyingi og‘ir sharoitlarda jamoa xo‘jaliklarida boshqaruv tizimi va ish tartibini takomillashtirish masalari haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, irrigatsiya-melioratsiya inshootlarining rivojlanishi va yangi yerlarning o‘zlashtirilishi qishloq xo‘jaligi faoliyatini tiklashda muhim rol o‘ynaganligi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm viloyati, qishloq xo‘jaligi, kolxozlar, muqobillashtirish, tiklanish, agrar siyosat, sug‘orish, ijtimoiy ta’minot.*

Аннотация. *В данной статье анализируются изменения в сельском хозяйстве Хорезмской области в период восстановления после Второй мировой войны. В ней обсуждались вопросы совершенствования системы управления и порядка работы в колхозах в тяжелых послевоенных условиях. Также освещается, что развитие ирригационно-мелиоративных сооружений и освоение новых земель сыграли важную роль в восстановлении сельскохозяйственной деятельности.*

Ключевые слова: *Хорезмская область, сельское хозяйство, колхозы, альтернатива, восстановление, аграрная политика, орошение, социальное обеспечение.*

Abstract. *This article analyzes changes in agriculture in the Khorezm region during the post-World War II reconstruction period. It discusses issues of improving the management system and work procedures in collective farms in difficult post-war conditions. It is also highlighted that the development of irrigation and land reclamation facilities and the development of new lands played an important role in the restoration of agricultural activity.*

Keywords: *Khorezm region, agriculture, collective farms, stabilization, restoration, agrarian policy, irrigation, social security.*

In the years of post-World War II reconstruction, the Khorezm region faced difficulties in the field of agriculture. The negative impact of the war, the shortage of labor and modern equipment, as well as shortcomings in the initial organization of collective farms, reduced labor productivity in the region's agriculture. As a result, in the 1940s and 1950s, there was a need for a new policy that emphasizes increasing the efficiency of collective farms and the development of labor, mechanization, and irrigation systems.

In the Khorezm region, within the framework of the implementation of Soviet agrarian policy, processes aimed at the enlargement and modernization of collective farms took place. Measures were taken to restore the economic and social life of the region through the transition from small and financially limited collective farms to large, more efficient associations, the introduction of new equipment and irrigation methods.

The Second World War, as in the whole country, led to a shortage of labor and machinery in the collective farms of the Khorezm region and disrupted agriculture. As a result, such a difficult situation persisted in the post-war years. In particular, due to the inadequate use of tractors and their consideration as collective farm property, the sowing period for cotton in the spring of 1947 was extended by 40-45 days. [Бекимметов У., 2022. – Б.121];

By 1950, there were 413 collective farms in the Khorezm region, and small-scale collective farms hindered the effective use of existing financial and material-technical resources, the development of production, and the acceleration of irrigation-melioration constructions. For this reason, a revaluation was carried out, and the number of collective farms in the region decreased by 213 in 1951. Alternativization continued in subsequent years, and by 1955 the number of collective farms in the region was 165.

In 1950-1952, measures aimed at the consolidation of collective farms in the agrarian policy of the Soviet state were implemented. In connection with the merger of collective farms, the number of collective farms throughout the country decreased from 252 thousand to 91 thousand (by 2.7 times) [Тожибоев Ф.,2021. - Б.757-759]; Now the collective farms were much larger than before, encompassing several villages. Previously, there were an average of 80 farms per collective farm, but after the enlargement, there were 220 families per collective farm. Each collective farm owned an average of more than 4 thousand hectares of agricultural land. [Советское крестьянство. Краткий очерк истории., 1973. – С.430–431]; The management system of collective farms was quite simple: there was a chairman, his deputy (deputy), inspector, accountant, chief accountant, warehouse manager, as well as brigadiers and accountants, farm managers. The chairman made the most general decisions and gave instructions to lower-level employees. [Абашин С., 1989. – С.26];

If we pay attention to the life of collective farms in the Khorezm region during this period, then labor costs in collective farms were measured in a conventional unit - labor days. Remuneration for labor was paid at the end of the calendar year in two forms: part in kind, part in money. For each working day, 250-300 grams of wheat were given in the first years, and then 1.5-2 kg. Each collective farmer was obliged to work 250 working days a year, and if he did not fulfill this condition, he was punished. The "Labor Day" was determined by the amount of work performed; for example, picking 30 kg of cotton was considered a "Labor Day" [Вапоев А., 2013. – Б.59];

On July 22, 1959, the Council of Ministers of the Uzbek SSR adopted the Regulation "On Pension Provision for Collective Farmers and Collective Farm Women." In the same year, 230 collective farms in the republic implemented this Regulation. [Сулаймонов Ҳ., 1977. – Б.33-34]; By 1961, KOVK cash desks had been established in all 91 collective farms in the Khorezm region, with 62,365 collective farmers becoming members. Each collective farmer contributed 2% of their annual income to these cash funds. In 1963, there were 60014 rubles and 69 kopecks in the KOVK fund for the region, and pensions were assigned to 20183 collective farmers through KOVK.

It is also necessary to emphasize the role of the irrigation system in increasing the yield of agricultural crops in the region. By 1950, water-lifting winches were replaced by pumps capable of producing 300-350 liters of water per second and irrigating 30-35 hectares of cropland.

In 1957, the Mangyt district was transferred to the Karakalpak ASSR, which led to territorial changes in the Khorezm region. The basis for these processes was the Decree of the Presidium of the Supreme Soviet of the Uzbek SSR No. 985 of December 18, 1957, "On the Unification of Certain Districts of the Karakalpak ASSR, Khorezm, Samarkand, and Kashkadarya Regions". [State Archive of Khorezm Region. 1-f, p. 10, file 95, sheet 4]; Within the framework of administrative-territorial changes, the Bagat and Yangibazar districts were abolished in 1959 (later, in 1963, the Koshkupyr, Urgench, and Khanka districts were abolished). The abolition of these districts was due to economic and administrative necessity.

In 1954-1957, the task was set to expand irrigated lands in the Khorezm region by 40 thousand hectares, providing them with 30 thousand hectares of previously used and 10 thousand hectares of newly developed lands, as well as to improve the melioration condition of 130 thousand hectares of sown areas. In Khorezm, the development of new lands was carried out in parallel with such large territories as Central Fergana, Mirzachul, Surkhan-Sherabad, Jizzakh, and Karshi. Scientists and engineers from organizations such as SANIRI, SOYUZNIXI, TIIMSX, "Uzerloyiha," and "Sreazgidroproekg" provided significant assistance in this process. However, the main work was carried out only by internal reserves, and the population from outside the region was not involved.

The state farms established on newly developed lands were integrated into central settlements and cultural and domestic facilities (schools, medical centers, clubs, shops, and others). Examples include state farms such as Bunta Al-Khorezmi, Bagat, Gulistan, Karakum, Sokhibkor, and Zarbdor. Household plots were allocated to families who moved to the new land, and opportunities for additional income were created.

This work was also carried out in other regions of Uzbekistan. [Комилов О.К., 2020. – Б.31]; Starting in 1955, new tractors for their time, such as the DT-51, DT-54, and DT-24, began to be delivered to MTS.

In conclusion, the period of post-World War II reconstruction in the Khorezm region played an important role in ensuring the stability of the agricultural system. Increased production efficiency was achieved through the enlargement and modernization of collective farms, the introduction of new equipment, mechanization, and irrigation systems. All this strengthened the important role of Khorezm in the process of economic and social revival of the country. Despite the post-war difficulties, large-scale reforms were carried out in the Khorezm region to fundamentally modernize the agricultural system. Small collective farms with limited financial capabilities were enlarged, their efficiency was increased through the process of optimization, as well as the introduction of modern equipment, irrigation-melioration facilities, the improvement of the labor costs of collective farmers and the social

security system played an important role in the restoration of the economic and social life of the region.

References

1. Бекимметов У. Советларнинг Хоразмда амалга оширган коллективлаштириш сиёсати ва унинг оқибатлари (1929-1959 йиллар). History Ph.D. diss. Abstract., Andijan, 2022.
2. Тожибоев Ф. 1945-1953 йилларда Совет ҳукуматининг Ўзбекистондаги аграр сиёсати // Academic Research in Educational Sciences, Volume 2, Issue 12, 2021.
3. Советское крестьянство. Краткий очерк истории. 1917–1970. – Москва: Наука, 1973
4. Абашин С. «Идеальный колхоз» в советской Средней Азии: история неудачи или успеха? //Acta Slavica Iaponica, Tomus 29, pp. 1–26
5. Вапоев А. Хотирамда жонланган ўтмиш. Тошкент: “Истиқлол”, 2013.
6. Сулаймонов Ҳ. Ўзбекистон колхозчи деҳқонлари социал таъминотининг ривожланиши // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, Issue 2, 1977.
7. State Archive of Khorezm Region. 1-f, p. 10, file 95, sheet 4.
8. Комилов О.К. Узбекистонда ер -сув муносабатлари тарихи. - Т: Muharrir nashriyoti, 2020.

MILLIY G‘OYA TURKUMIGA KIRUVCHI FANLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA O‘QITISHNING DOLZARB MASALALARI

Raximov G‘ayrat Buvaxanovich
Urganch davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi, raximovgayrat@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezis Oliy ta’lim muassasalari talabalarida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda Abdulla Avloniy didaktik merosidan samarali foydalanish masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqotda milliy qadriyatlar, tarixiy an’analar va zamonaviy ta’lim texnologiyalari uyg‘unlashuvining ahamiyati yoritiladi. Avloniy asarlaridagi tamoyillar asosida ishlab chiqilgan metodika talabalar ongida milliy g‘urur, vatanga sadoqat va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Taqdiqot natijalari mazkur metodikaning samaradorligini tasdiqlab, uning amaliy va nazariy ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Abdulla Avloniy, didaktik meros, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, zamonaviy ta’lim, talabalar tarbiyasi, milliy g‘urur, raqamli texnologiyalar, ta’lim metodikasi, ijtimoiy mas’uliyat.

Аннотация. Данная тезис посвящена вопросам эффективного использования дидактического наследия Абдуллы Авлони для формирования чувства патриотизма у студентов высших учебных заведений. В исследовании раскрывается значение гармоничного сочетания национальных ценностей, исторических традиций и современных образовательных технологий. Методика, разработанная на основе принципов, изложенных в трудах Авлони, способствует развитию у студентов национальной гордости, преданности Родине и социальной ответственности. Результаты исследования подтверждают эффективность данной методики, раскрывая ее практическое и теоретическое значение.

Ключевые слова: Абдулла Авлони, дидактическое наследие, патриотизм, национальные ценности, современное образование, воспитание студентов, национальная гордость, цифровые технологии, образовательная методика, социальная ответственность.

Abstract. This thesis is dedicated to the effective use of Abdulla Avloni's didactic heritage in fostering patriotism among university students. The study highlights the importance of integrating national values, historical traditions, and modern educational technologies. The methodology developed based on Avloni’s principles aims to cultivate national pride, loyalty to the homeland, and social responsibility among students. The research results confirm the effectiveness of this methodology, demonstrating its practical and theoretical significance.

Keywords: Abdulla Avloni, didactic heritage, patriotism, national values, modern education, student upbringing, national pride, digital technologies, educational methodology, social responsibility.

Zamonaviy ta’lim muhitida, maktabdan boshlab, yoshlarning vatanparvarlik qadriyatlarini samarali shakllantira oladigan malakali o‘qituvchi va tarbiyachilarning yetishmasligi kuzatiladi. Buning sabablaridan biri, ba’zi o‘qituvchilarning o‘zlari aniq

ijtimoiy-siyosiy pozitsiyaga yoki vatanparvarlik ideallarini yetkazish uchun zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lmasligi mumkin.

Agar o‘qituvchi yoki tarbiyachi ma’lum bir ijtimoiy-siyosiy pozitsiyaga ega bo‘lmasa, bu Oliy ta’lim muassasalari talabalarida vatanparvarlik qadriyatlarini tarbiyalash jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Aniq va ongli pozitsiyaning yo‘qligi o‘quv materiallari va ta’lim tadbirlarini yuzaki yoki yetarlicha ishonchli tarzda taqdim etilishiga olib kelishi mumkin. Pedagogik faoliyat o‘qituvchilardan nafaqat bilimlarni, balki talabalarga singdirmoqchi bo‘lgan qadriyatlarga ijobiy munosabatni ham talab qiladi.

Shunday qilib, Oliy ta’lim muassasalari talabalarida vatanparvarlik qadriyatlarini samarali shakllantirish uchun nafaqat zarur bilimlarga ega, balki talabalarni vatanparvarlik harakatlariga ilhomlantiradigan aniq ijtimoiy-siyosiy pozitsiyaga ega bo‘lgan malakali o‘qituvchilar va tarbiyachilarning mavjudligini ta’minlash ham muhim vazifa sanaladi [Артюхова И.С., 1999. – С.36];

Olib borilgan tadqiqotimiz talabalarning asosiy ma’naviy va axloqiy qadriyatlar majmuasi yetarli darajada shakllanganligini ko‘rsatadi. Yoshlar ko‘pincha moddiy qadriyatlarni birinchi o‘ringa qo‘yib, vatanparvarlikning ahamiyatini kam baholaydilar. Bu ma’naviyat, madaniyat, adabiyot, fan va jamoat hayotidagi faol ishtirokini pasayishiga olib kelishi mumkin.

Oliy ta’lim muassasalari talabalari ijtimoiy jarayon va hodisalarning murakkabligi hamda nomuvofiqligi to‘g‘risida cheklangan tushunchaga ega bo‘ladi. Ularning ma’naviy va axloqiy tuyg‘ulari, shu jumladan, vatanparvarlik burchini bajarish zarurati past darajada namoyon bo‘ladi. Ijtimoiy-siyosiy faoliyatga skeptik munosabatda bo‘lish (shubha bilan qarash), yoshlar birlashmalarida ishtirok etmaslik o‘z salohiyatini jamiyat manfaatlari yo‘lida amalga oshirishni istamasligidan dalolat beradi.

Zamonaviy Oliy ta’lim muassasalar vatanparvarlik tarbiyasini tashkil qilish va amalga oshirish uchun barcha zaruriy resurslarga ega. Biroq talabalar vatanparvarlik faoliyatida faol ishtirok etmasa, auditoriyada olgan bilimlari cheklangan amaliy ko‘rinishga ega bo‘ladi. Ushbu faoliyat turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin, jumladan, harbiy sport o‘yinlari, sport musobaqalari, xotira soatlari, spartakiadalar, jasorat darslari, ko‘rgazma va madaniy tadbirlarda qatnashishlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

Vatanparvarlik tarbiyasining muhim elementi “Tarbiyaviy ish metodikasi” va “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash” kabi tanlov fanlar hisoblanadi. Ushbu fanlar talabalarda vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan nazariy ma’lumotlarni o‘zida mujassam etgan.

Oliy ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etish, ichki ishlar organlari va harbiy qismlar kabi tashqi tuzilmalar, shuningdek, jamoat tashkilotlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Ushbu hamkorlik vatanparvarlik tadbirlarida ishtirok etish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratib, yoshlarga yanada kengroq va har tomonlama ta’sir ko‘rsatishga yordam beradi.

Talabalarning kasbiy tayyorgarligi – bu ta’limga alohida e’tibor berishni talab qiladigan murakkab model bo‘lib, ushbu davrda talabalar o‘zlarining ijtimoiy mavqeyi va mas’uliyatini faol ravishda anglay boshlaydilar.

Oliy ta’lim muassasalarda samarali vatanparvarlik tarbiyasi jamiyatning ma’naviy-axloqiy barqarorligini saqlab qolish va mamlakat qudratini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tarbiyaviy ishlar tizimli va faol ravishda amalga oshirilishi kerak. [Середа В. А., 2007. – С.185];

Vatanparvarlik tarbiyasi jarayoni talabalarning dars va darsdan tashqari faoliyatini qamrab oladi. O‘quv faoliyatining bir qismi sifatida talabalar vatanparvarlik to‘g‘risida nazariy bilimlarga ega bo‘ladilar, o‘z mamlakatlarining tarixi, madaniyati va an’analarini o‘rganadilar hamda fuqarolik burchi va ijtimoiy javobgarlik tamoyillarini o‘zlashtiradilar. Ushbu bilimlar ularning vatanparvarlik haqidagi g‘oyalarini shakllantiradi va o‘z mamlakati hamda jamiyatiga ongli munosabatni rivojlantirishga yordam beradi.

Talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan bir nechta tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ularning har biri vatanparvarlikni shakllantirishda o‘z rolini o‘ynaydi. Ushbu tarkibiy qismlarga maqsadli, kognitiv, aksiologik, faoliyat va monitoring elementlari kiradi. Ularning har biri vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish jarayonini samarali tarbiyalash va nazorat qilishni ta’minlaydigan muayyan funksiyalarni bajaradi.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bir nechta muhim tarkibiy qismlar tizimini o‘z ichiga oladi.

Vatanparvarlik tarbiyasining maqsadli komponenti ushbu jarayonning umumiy maqsad va vazifalarini aniqlash va shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. U butun tarbiya jarayoniga yo‘nalish belgilaydi va talabalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish bo‘yicha faoliyat jarayonini tizimlashtiradi.

Maqsadli komponentning asosiy vazifasi vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida prioritet (asosiy) erishish kerak bo‘ladigan narslarni aniqlashdan iborat. Bu bir nechta muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘z yurti uchun g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish: Maqsadli komponent talabalarda o‘z Vatani uchun chuqur g‘urur tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan. Bunga mamlakat tarixi, madaniyati va urf-odatlarini o‘rganish orqali erishiladi, bu talabalarga o‘z yurti yutuqlari bilan faxrlanishga yordam beradi.

2. Mamlakat kelajagi uchun javobgarlikni anglash: Talabalarning o‘z yurti kelajagi uchun shaxsiy javobgarligini tushunishlarini rivojlantirish muhim maqsad sanaladi. Bunga har bir fuqaro, shu jumladan, talabalar jamiyat va davlatchilikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini anglash kiradi. Bunday maqsadlar talabalarni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga va mamlakatni yaxshilashga qaratilgan turli tashabbus va loyihalarda ishtirok etishga jalb qiladi.

3. Ijtimoiy hayotda faol ishtirok etish: Maqsadli komponent talabalarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undashni ham o‘z ichiga oladi. Bu volontyorlik (ko‘ngillilik), ijtimoiy va madaniy tadbirlarda qatnashish hamda ijtimoiy hayotni o‘zgartirish bo‘yicha takliflar kiritish kabi turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin.

Ushbu maqsad va vazifalarni shakllantirish vatanparvarlik tarbiyasining kognitiv, aksiologik, faoliyat va monitoring kabi barcha boshqa tarkibiy qismlarining harakatlarini boshqarishga yordam beradi. Bu ta’lim jarayoni uchun aniq tizimni yaratib, uning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini ta’minlaydi. Maqsadli komponent mezonlarni aniqlab, butun jarayonni belgilangan maqsad va talablarga javob beradigan tarzda tashkil etishga yordam beradi.

Vatanparvarlik tarbiyasining kognitiv komponenti o‘quvchilarning ta’lim jarayoni orqali vatanparvarlik bilan bog‘liq bilimlarni olishga qaratilgan. Ushbu komponent bir nechta asosiy sohalarni qamrab oladi:

1. Mamlakat tarixini o‘rganish: Kognitiv komponentning muhim jihati, bu talabalarni o‘z mamlakatlari tarixi bilan tanishtirish sanaladi. Bunga uning rivojlanishini shakllantirgan asosiy voqealar, tarixiy shaxslar, yutuq va qiyinchiliklarni o‘rganish kiradi. Tarixiy kontekstni tushunish talabalarga o‘tmishdagi voqealarning ahamiyatini va ularning mamlakatning hozirgi holatiga ta’sirini tushunishga yordam beradi;

2. Madaniyatni o‘rganish: Madaniyat, shu jumladan san’at, adabiyot, musiqa va an’analar vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatning madaniy yutuqlari va urf-odatlari haqidagi bilimlar talabalarga madaniy merosini yaxshiroq tushunishga va qadrlashga yordam beradi. Bu milliy an’analarga hurmatni shakllantiradi va o‘z mamlakati madaniyati bilan faxrlanish tuyg‘usini rivojlantirishni amalga oshiradi;

3. An’analarni o‘rganish: Avloddan-avlodga o‘tadigan urf-odat va an’analar ham kognitiv komponentni tarkibiy qismiga kiradi. Milliy va mahalliy urf-odatlarni tushunish va hurmat qilish talabalarga ota-bobolari bilan bog‘liqligini his qilishlariga ko‘maklashadi va o‘z xalqiga mansublik tuyg‘usini mustahkamlaydi. [Avloniy A., 1995. – S.67];

Talabalar mamlakatning hozirgi holati, uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy voqeliklari to‘g‘risida xabardor bo‘lishlari muhim. Zamonaviy muammo va yutuqlar haqidagi bilimlar talabalarga jamiyatdagi roli va mas’uliyat hissini anglashga yordam beradi. Bunga mamlakat oldida turgan dolzarb muammolar va imkoniyatlardan xabardor bo‘lish va ularni hal qilishda ishtirok etishga tayyorlikni shakllantirish kiradi.

Kognitiv komponent doirasida olingan bilimlar vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish uchun nazariy asos yaratadi. Bu bilim talabalarga vatanparvarlikni nafaqat mavhum tushuncha, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy o‘ziga xosligining bir qismi sifatida tushunish va qadrlash imkonini beradi. Kognitiv komponent nazariy bilimlarni amaliy harakatlar bilan bog‘laydi va talabalarning vatanparvarlik tashabbuslarida faol ishtirok etishlari uchun asos yaratadi.

Vatanparvarlik tarbiyasining aksiologik komponenti talabalarda vatanparvarlik bilan bog‘liq qadriyat yo‘nalishlarini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu komponent talabalarga asosiy vatanparvarlik qadriyat va e’tiqodlarini singdirishda alohida ahamiyatga ega.

Birinchidan, aksiologik komponent Vatanga muhabbatni rivojlantirishni amalga oshiradi. Bu tuyg‘u nafaqat o‘z mamlakati bilan faxrlanishni, balki uning madaniyati, tarixi va an’analariga hissiy bog‘lanishni ham anglatadi. O‘z Vatanining ahamiyati va

qadr-qimmatini tushunish uning kelajagi uchun shaxsiy mas’uliyatni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Ikkinchidan, aksiologik komponent milliy merosni hurmat qilishga qaratilgan. Bunga ajdodlarning madaniy va tarixiy yutuqlarini tan olish va saqlash, milliy urf-odatlar va ramzlarni hurmat qilish kiradi. Talabalar milliy o‘ziga xoslikni shakllantirishdagi ahamiyatini anglab, o‘z mamlakatining boy merosini qadrlash va himoya qilishni o‘rganadilar.

Uchinchidan, aksiologik komponent mamlakat taraqqiyotiga hissa qo‘shish istagini oshiradi. Bunga uning ijtimoiy va kasbiy hayotdagi rolini anglash hamda jamiyat, davlat rivojlanishining turli jihatlarida faol ishtirok etish istagi kiradi. Talabalar o‘zlarining bilim va ko‘nikmalarini mamlakat oldida turgan dolzarb masala va muammolarni hal qilish yo‘lida qo‘llashga rag‘batlantiriladi.

Ushbu komponent talabalarga vatanparvarlik qadriyatlarining hayoti va kasbiy faoliyatidagi ahamiyatini tushunishga yordam beradi. Aksiologik komponent Vatanga chuqur bog‘liqlik va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga yordam beradi, bu o‘z navbatida ularning kundalik xatti-harakatlari va kasbiy faoliyatiga ijobiy ta’sir qiladi.

Vatanparvarlik tarbiyasining faoliyat komponenti talabalar tomonidan vatanparvarlik tuyg‘usi borasida olingan bilimlari va qadriyatlarini amaliy qo‘llashga qaratilgan. Ushbu komponent talabalar o‘zlarining vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirishga va jamiyatdagi rollarini anglashga yordam beradigan turli xil tadbirlarda faol qatnashishlarini ta’minlashga qaratilgan.

Faoliyat komponentining birinchi jihati volontyorlar (ko‘ngillilar) loyihalarida ishtirok etish bilan bog‘liq. Ushbu loyihalar ijtimoiy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazishda yordam berish, yodgorlik joylarini obodonlashtirish va tiklash bo‘yicha ishlarni bajarish, mablag‘ yig‘ish aksiyalarida qatnashish yoki muhtojlarga yordam berishni o‘z ichiga olishi mumkin. Volontyorlik (ko‘ngillilik) faolliyati nafaqat ijtimoiy xizmat va shaxsiy ma’suliyatni targ‘ib qiladi, balki uning hayotida faol ishtirok etish orqali o‘z mamlakati uchun g‘urur tuyg‘usini kuchaytiradi.

Navbatdagi jihat madaniy va sport tadbirlarida ishtirok etishni o‘z ichiga oladi. Bu turdagi tadbirlar mamlakatning madaniy merosi hamda yutuqlarini namoyon qiladigan ko‘rgazma, teatr tomoshalari va festivallardan iborat. Musobaqa va estafetalar kabi sport tadbirlari jamoaviy ruh va jismoniy faollikni rivojlantiradi, bu ham vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog‘liq. Ushbu tadbirlar talabalarga o‘z mamlakatlarining madaniyati va urf-odatlari bilan bog‘liqligini his qilishlariga hamda ularning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, faoliyat komponenti tarixiy sanalariga bag‘ishlangan tadbirlarda faol ishtirok etishni o‘z ichiga oladi. Bunga xotira kunlari, tarixiy voqealarga bag‘ishlangan tadbirlar va milliy bayramlarni nishonlash kabi tadbirlarda qatnashish kiradi. Ushbu tadbirlar talabalarga tarixiy voqealarning ahamiyatini va ularning zamonaviy dunyoga ta’sirini chuqurroq tushunishga, shuningdek, tarixiy xotira va milliy ongni saqlashdagi rolini anglashni ta’minlaydi.

Vatanparvarlik tarbiyasining monitoring komponenti talabalarda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirish jarayonini baholash va nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu komponent tarbiya jarayonini muntazam tahlil qilish va

takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, uning samaradorligi va talabalar ehtiyojlariga muvofiqligini ta’minlaydi.

Birinchidan, monitoring komponenti tarbiya jarayonini samaradorligini muntazam kuzatish va tahlil qilishdan iborat. Bu vatanparvarlik tadbirlari o‘tkazilishini muntazam ravishda kuzatib borish, ularning talabalarga ta’sirini baholash va ularning maqsadlariga erishishiga qanchalik muvaffaqiyatli hissa qo‘shishini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Bunday tahlillar talabalar, o‘qituvchilar va tadbir tashkilotchilarida fikr-mulohazalarni to‘plash maqsadida qayta aloqalarni o‘rnatish, shuningdek, o‘tkazilgan tadbirlar natijalarini o‘rganishni rivojlantirishi mumkin.

Ikkinchidan, erishilgan natijalarni baholash muhim vazifa bo‘lib, u o‘quvchilarning vatanparvarlik qadriyatlarini qanchalik yaxshi o‘zlashtirganligini, tarbiyaviy tadbirlarida qatnashgandan keyin ularning qarashlari va xatti-harakatlari qanday o‘zgarganligini baholashni o‘z ichiga oladi. Baholash test, so‘rovnoma va natijalarni aniqlashga yordam beradigan boshqa usullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Uchinchidan, monitoring komponenti olingan ma’lumotlar asosida ta’lim jarayoniga o‘zgarishlar kiritishni o‘z ichiga oladi. Agar natijalar muayyan tadbirlarning samarasizligini yoki maqsadlar va real yutuqlarning nomuvofiqligini ko‘rsatsa, vatanparvarlik tarbiya jarayoniga o‘zgartirishlar kiritish kerak. Bu dasturlarning mazmunini, tadbir usullarini yoki baholash usullarini o‘zgartirish kabilar bilan amalga oshirilishi mumkin.

Monitoring komponenti vatanparvarlik tarbiyasi jarayonini doimiy ravishda takomillashtirishni ta’minlaydi. Doimiy nazorat va tahlil tarbiya jarayonini talabalarning ehtiyojlariga moslashtirishga imkon beradi. Bu jarayonning jamiyatdagi yangi turdagi muammo va o‘zgarishlar sharoitida dolzarb va samarali bo‘lishiga sharoit yaratadi. Shunday qilib, OTM talabalarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimining har bir tarkibiy qismi o‘ziga xos o‘ringa ega hisoblanadi va ular birgalikda vatanparvarlik qadriyatlarini shakllantirishga kompleks yondashuvni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Артюхова И.С., Ценности и воспитание, М.: Педагогика, №4 1999.

2. Середа В. А. Патриотическое воспитание студентов педагогических вузов во внеучебной деятельности: дис. … канд. пед. наук: 13.00.01 / В. А. Середа. — Москва, 2007.

3. Avloniy A. Tanlangan asarlar. Turkiy guliston yoxud axloq. – T, 1995.

YANGI O‘ZBEKISTONNING YANGI JADIDLARINI TARBIYALASH BOSH MAQSADIMIZ

Allanazarov Sirojbek Bekchan o‘g‘li
UrDPI, Registrator ofisi boshlig‘i, sirojbek.allanazarov@bk.ru
Egamov Yusufboy Ergashbek o‘g‘li
UrDPI, Filologiya va tarix fakulteti talabasi, egamovyusufboy@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda so‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar ta’lim tarbiyasi borasidagi islohotlarning mazmun-mohiyati, taraqqiyotning yangi bosqichida Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlashda ma’rifaparvar ajdodlarimiz merosining o‘rni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, taraqqiyot, jadidlar, islohot, ta’lim-tarbiya, vatanparvar.

Аннотация. В данном тезисе рассматривается сущность и содержание реформ в сфере образования и воспитания молодежи, проводимых в нашей стране в последние годы. Также обсуждается роль наследия наших просветителей-предков в укреплении основ Третьего Ренессанса на новом этапе развития.

Ключевые слова: Молодежь, развитие, джадиды, реформа, образование и воспитание, патриотизм.

Abstract. This thesis explores the essence and significance of recent reforms in youth education and upbringing in our country. It also discusses the role of our enlightened ancestors' heritage in strengthening the foundations of the Third Renaissance at a new stage of development.

Keywords: Youth, development, Jadids, reform, education and upbringing, patriotism.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimining sifati va samaradorligini oshirish, oliy ta’lim muassasalarining talaba yoshlarida zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish hamda ularning salohiyatlarini yuzaga chiqarish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda yoshlar bilan ishlash va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bugungi kunda qaysi sohada islohotlarga qo‘l urilmasin, avvalo, yoshlarning kuch-g‘ayrati, ularning taklif va tashabbuslariga albatta quloq tutiladi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan Uchinchi Renessansga mustahkam poydevorni yaratish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda, ezgu sa’y-harakatlar amalga oshirilmoqda. Ta’kidlash kerakki, Uchinchi Renessans poydevorini mustahkamlash hamda uning tadrijiy rivojlanishga vatanparvar shaxs sifatida hissa qo‘shish bugun barchamizning ezgu orzu umidlarimizdan biriga aylandi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Yangi O‘zbekiston – barchamizning ezgu orzuimiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi. Unda xalqimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o‘ziga xos tarzda aks etmoqda”.

Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni yuksak ma’naviyatli, ona vatanga sadoqat ruhida tarbiya topgan yoshlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu sababli ham yoshlarga mamlakatning strategik kuchi, ertasi sifatida qaraladi. Demakki, yoshlarning yuksak ma’naviyatli avlod bo‘lib kamol topishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, zamonaviy jamiyatda ijtimoiy jarayonlar dinamikasining kuchayishi, insoniyat global muammolarining keskinlashuvi, davlat va jamiyat taraqqiyoti yo‘lida belgilangan strategik vazifalarning dolzarbligi keng ziyoli qatlam vakillari o‘z diqqat e’tiborini ma’naviyat va ma’rifat masalalariga qaratishni taqozo qilmoqda. Bunda shaxs ma’naviy madaniyatining mazmuni va rivojlanishining modernizatsiyalashuvi bugungi kunda shaxs ma’naviy qiyofasini hamda butun jamiyat mavjudligini saqlab qolish imkoniyatini yaratadi. Aynan mana shu omil sabab ma’naviyat va ma’rifat masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023-yilning 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida ta’kidlaganidek: “Tarixdan ma’lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”. [Халқ сўзи газетаси, 2023 йил 23 декабрь, №274 (8617)];

“Agar jamiyat hayotining tanasini iqtisodiyot tashkil etsa, uning joni va ruhini ma’naviyat tashkil qiladi”. [Халқ сўзи газетаси, 2021 йил 20 январь, №13 (7793)]; Shu sababdan Yangi O‘zbekistonni barpo etishda bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot bilan bir qatorda ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyatga tayanilmoqda.

Insoniyat tarixida har qanday millat asrlar davomida shakllangan va davr sinovlaridan o‘tgan milliy-ma’naviy qadriyatlari, madaniyati va tarixiy xotirasi bilan yashasagina ma’lum kuch-qudratga ega bo‘lishini ko‘rsatuvchi dalillar ko‘p. Shubha yo‘qki, o‘zbek xalqi o‘zining buyuk davlatchilik tarixi, urf-odat va an’analari, dunyo tamadduni rivojiga qo‘shgan hissasi, jahon hamjamiyati haqli ravishda e’tirof etayotgan milliy xususiyatlari bilan shunday millatlar qatoriga kiradi. Ma’lumki, inson hayot ekan, butun umri davomida o‘sib, rivojlanib boradi. Rivojlanish deganda biz shaxsning ham jismoniy, ham aqliy va ma’naviy kamol topish jarayonini tushinamiz. Ulug‘ alloma va mutafakkirlarimizning asarlarida shaxsning shakllanishi uchun irsiyat, tarbiya va muhit ta’siri alohida ta’kidlangan. Shuning uchun ham bugungi kunda ajdodlarga munosib vorislik, ilm-fan va ta’lim-tarbiya masalasi, inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish kabi masalalarga alohida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas.

Alohdida qayd etish zarurki, o‘tgan asr boshlarida shakllanib, nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasi, balki butun musulmon olami va turkiy dunyo tarixida chuqur iz qoldirgan jadidchilik harakati va uning namoyondalarining ma’rifatparvarlik g‘oyalari bugungi yosh avlod uchun chin ma’noda ibrat olsa arzigulik jarayon va muhim tarbiya vositasidir. Shu sababli ham Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Jadidlar: milliy

o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusida o‘tkazilgan xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida: “Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma’rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o‘z qimmati va ahamiyatini hamon yo‘qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ‘ib etish bizning ustuvor vazifamizdir” deya ta’kidlagan edilar.

Darhaqiqat, “Ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay”, degan hadisi sharifni hayotiy e’tiqod sifatida bilib, milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, xalqni ma’rifatli qilish orqali erishishni ko‘zlab, mustamlakachilik sharoitida qo‘rqmasdan maydonga chiqqan jadidchilarning hayoti va faoliyati inson qadri ulug‘lanayotgan Yangi O‘zbekistonning ezgu g‘oya va dasturlariga har jihatdan uyg‘un va hamohangligi bilan ahamiyatlidir.

Bugungi kunda jadid bobolarimizning xotiralarini abadiiylashttirish borasida mamlakatimizda bir qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, har yili 31-avgust – Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanadi. Shuningdek, Toshkent shahrida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi va jamoat fondi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda hududiy bo‘limlari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, aholi, xususan, yosh avlodga ularning ibratli hayoti tarixiy dalillar asosida tushuntirilmoqda.

Bundan tashqari O‘zbekiston Oliy sudi tomonidan 1030 dan ziyod mustabid tuzum qatag‘oniga uchragan vatandoshlarimiz nomi oqlandi. Shuningdek, jadidlar xotirasiga bag‘ishlangan badiiy va hujjatli filmlar, ko‘rsatuvlar tayyorlanib, xalqaro darajadagi konferensiyalar, ko‘rgazmalar va davra suhbatlari, xotira kechalari o‘tkazilayotmoqda. Ta’kidlash kerakki, yaqinda ish faoliyatini boshlagan va XIX asr oxiri – XX asr boshlarida kechgan jadidchilik harakatining ahamiyati, jadid bobolarimiz turmushi, ishi va merosini keng targ‘ib qilishni ko‘zlagan, yozma, tovushli, ko‘rgazmali, raqamli ma’lumotlarni o‘zida jamlagan va muntazam ravishda boyitib boriladigan jadidlar.uz platformasi ham bu boradagi sayi-harakatlarning amaliy natijasidir. Bundan tashqari mamlakatimizda “Jadid” gazetasi faoliyati ham yo‘lga qo‘yilgani bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi.

Quvonarlisi, Davlatimiz rahbarining 2024-yilning 19-iyulida qabul qilingan “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to‘g‘risida”gi PQ-270-sonli qarorining qabul qilinishi vatanimizning milliy istiqloli, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo‘lda jonini fido etgan, siyosiy qatag‘on qurbonlari bo‘lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini atroflicha o‘rganish va tadqiq etish, ularning nomlari va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha ishlarni yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. [https://www.lex.uz/docs/-7027939];

Hammamizga yaxshi ma’lumki, bugungi dunyo har qachongidan ham murakkab, ziddiyatli, xavfli ko‘rinish olgan. Dunyoning turli mintaqalarida kechayotgan voqea-hodisalar, xalqlar va millatlar o‘rtasidagi o‘zaro to‘qnashuvlar xohlaymizmi-yo‘qmi, bir asr oldingi saboqlarni eslashga, ulardan oqilona xulosa chiqarib, yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslikka undaydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, jadid bobolarimizning ilmiy merosini yoshlar orasida keng targ‘ib etish,

yosh avlodni Vatanimiz ozodligi yo‘lida jonini fido qilgan buyuk ajdodlarimiz xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning jasorati va ibratli faoliyatini targ‘ib etishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yo‘lga qo‘yish zamon talabi sifatida maydonga chiqadi.

Agar bu fikrlarni chuqurroq tahlil qilsak, bu nimani bildiradi? Bu ham buyuk ajdodlarga munosib vorislikni anglab yashash mas’uliyatini, ham kelajak avlodlar oldidagi, ularning manfaatlari, hayotiy zaruriyatlari, ehtiyojlari oldidagi ma’naviy burchni anglab yashash lozimligini bildiradi. Ushbu jarayonda eng avvallo tarixiy ong va tarixiy xotirani shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. Zero, tarix – o‘tmishdagi voqealarning oddiy bayoni emas, balki katta tarbiyaviy omil hamdir. Tarixiy voqealarni bilish asosida kishilarda o‘z xalqiga nisbatan hurmat, muhabbat tuyg‘ulari shakllanadi, yoshlar ota-bobolarining qilgan ishlari bilan faxrlanishin o‘rganadilar, shu asosida milliy iftixor singari yetuk ma’naviy fazilatlar shakllanadi, milliy ong o‘sadi, dunyoqarash mustahkamlanadi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, yosh avlodni ona vatanga muhabbat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jadidchilik harakati nomoyondalari va ularning hayot yo‘li tarbiya vositasida sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham ta’lim-tarbiya jarayonlarida jadidlar obrazlaridan yanada kengroq foydalanish, ularning ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy merosini chuqurroq targ‘ib qilish zarur. Shuningdek, Yangi O‘zbekistonning yangi jadidlarini tarbiyalash, ularga zamonaviy bilim berish bugungi kun o‘qituvchilari, ziyolilari va albatta keng jamoatchilikning asosiy vazifalaridan biriga aylanishi zarur. Bu borada yurtimizda keng imkoniyatlar yaratilgan bo‘lib, islohotlar zamirida inson qadri va uning tinch va totuv yashashi yotadi. Shunday ekan, bugun oliy ta’lim sohasidagi har bir professor-o‘qituvchi o‘z ustida tinmasdan ishlab, shaxsiy rivojlanishga intilishini kundalik vazifaga aylantirishi zarur. Bunda nafaqat o‘qituvchilar balki oliy ta’lim muassasalaridagi jamoat tashkilotlari, ta’lim-tarbiyaga mas’ul xodimlar birgalikda harakat qilishi ko‘zlagan marraga og‘ishmasdan yetib borishga imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маънавий ҳаётимизда янги ислоҳотлар даври, Халқ сўзи газетаси, 2023-йил 23-декабрь, №274 (8617).

2. Жамият ҳаётининг танасини иқтисодиёт ташкил этса, унинг жони ва руҳини маънавиятдир, Халқ сўзи газетаси, 2021-йил 20-янгварь, №13 (7793).

3. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 19.07.2024-y., 07/24/270/0534-son, https://www.lex.uz/docs/-7027939.

YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH DAVLATNING MUHIM VAZIFALARIDAN BIRIDIR

Abdullayev Sherzod
UrDPI, “Milliy g‘oya va falsafa” kafedrasi o‘qituvchisi
abdullayevsherzod1997@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, ularning biznes g‘oyalarini va tashabbuslarini qo‘llab –quvvatlashda Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi tashkil etilishining zarurati va ahamiyati shuningdek, ushbu jamg‘armaning vazifalari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Yoshlar tadbirkorligi, startap, Yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi, Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg‘armasi, biznes loyiha, Venchur jamg‘arma, realizatsiya, investor.

Аннотация. В данной статье рассматривается необходимость и важность создания Государственного целевого фонда развития молодежного предпринимательства с целью широкого вовлечения молодежи в предпринимательскую деятельность, поддержки их бизнес-идей и инициатив, а также задачи данного фонда.

Ключевые слова: Молодежное предпринимательство, стартап, Фонд поддержки молодых предпринимателей, Государственный целевой фонд развития молодежного предпринимательства, бизнес-проект, венчурный фонд, реализация, инвестор

Abstract. This article discusses the need and importance of creating a State Targeted Fund for the Development of Youth Entrepreneurship with the aim of broadly involving young people in entrepreneurial activity, supporting their business ideas and initiatives, as well as the objectives of this fund.

Key words: Youth entrepreneurship, startup, Fund for the Support of Young Entrepreneurs, State Targeted Fund for the Development of Youth Entrepreneurship, business project, venture fund, implementation, investor

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishi va innovatsion taraqqiyoti uchun muhim omillardan biridir. Davlat tomonidan yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning biznes boshlashiga imkon yaratish va motivatsiyasini oshirish jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning ahamiyati va davlatning bu boradagi asosiy vazifalari yoritiladi. Yosh tadbirkorlar yangi g‘oyalar va innovatsiyalarni hayotga tatbiq etish qobiliyatiga ega bo‘lib, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. Yoshlar tadbirkorligi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bol`gan muammolarni yechishga yordam beradi.

Xozirgi inson resurslariga talab katta bo‘lgan bir davrda yangi ish o‘rinlarini yaratiladi. Yoshlar tomonidan ochilgan korxonalar yangi ish o‘rinlari yaratish orqali ishsizlik darajasini pasaytiradi. Ishsizlik jamiyatda ijtimoiy muammolar, shu jumladan, qashshoqlik va jinoyatchilikning oshishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun

yangi ish o‘rinlari orqali aholi bandligi oshadi va odamlarning turmush darajasi yaxshilanadi. Aholining turmush darjasi oshib, davlatning iqtisodiy barqarorligi mustahkamlanadi.

Bu davlat uchun va aholi uchun juda foydali bo‘ladi. Yangi ish o‘rinlari yaratish orqali ko‘proq odamlar rasmiy ish bilan ta’minlanadi, bu esa davlat budjetiga tushadigan soliqlar hajmini oshiradi. Soliq tushumlarining oshishi ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish imkonini yaratadi. Ish bilan ta’minlangan aholining ijtimoiy himoyasi kuchayadi va ular jamiyatning faol a’zolariga aylanadi. Bandlik darajasi yuqori bo‘lgan jamiyatlarda ijtimoiy zo‘riqishlar kamroq bo‘ladi.Yangi ish o‘rinlari bozor talabiga mos ravishda mehnat bozorida malakali mutaxassislarning ko‘payishiga xizmat qiladi. Ish beruvchilar tomonidan xodimlar uchun qo‘shimcha o‘quv dasturlarining joriy etilishi bilim va tajribaning oshishiga olib keladi.Yosh tadbirkorlar yangi texnologiyalar va xizmatlar orqali iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga hissa qo‘shadi. Yosh tadbirkorlarning faoliyati nafaqat yirik shaharlar, balki qishloq joylarida ham iqtisodiy faollikni oshiradi.

Yurtimizda ham yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Yaqindagina Prezidentimiz tashbbusi bilan “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Prezident qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, 2025–2027 yillarda quyidagilarni nazarda tutuvchi “Yoshlar biznesi” dasturi doirasida 350 mingta yoshni qamrab olinadi, shu jumladan, 18 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar uchun kamida 100 mingta qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratiladi.

Yosh tadbirkorlarga kompleks xizmatlar ko‘rsatiladi, ularning faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash borasida AT “Aloqabank” tayanch “yoshlar banki” etib belgilandi.

2025 yil 1-martgacha AT “Aloqabank”ning hududlarda yoshlarning innovasion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalarni tijoratlashtirishga hamda moliyalashtirishga ko‘maklashish (“Startaplar”) loyihasi respublikaning barcha hududlarida amalga oshiriladi va loyihaning hududlardagi bo‘linmalari malakali kadrlar bilan to‘ldiriladi.

Zamonaviy tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun yoshlarning startap va investisiya loyihalariga imtiyozli moliyaviy mablag‘lar ajratiladi;

Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi, shu jumladan, raqamli texnologiyalar tatbiq etilgan innovatsion loyihalar hamda ijtimoiy tadbirkorlik yo‘nalishidagi qo‘llab-quvvatlash choralari joriy etiladi.

“Biznesga birinchi qadam” loyihasiga muvofiq 18 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan ijtimoiy soliq to‘lagan o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarga onlayn shaklda imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga 100 mln so‘mgacha imtiyozli mikroqarz sifatida ajratiladi.

“Yoshlar uchun ish o‘rinlari” loyihasi asosida YATT sifatida faoliyat yurituvchi yosh fuqarolarga, shuningdek, ta’sischilari yosh fuqarolar bo‘lgan yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yurituvchi kichik tadbirkorlarning kamida 20 ta ish o‘rni yaratishni nazarda tutuvchi loyihalariga imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga 5 mlrd so‘mgacha mablag‘lar ajratiladi.

“Innovatsion yoshlar” loyihasi bo‘yicha venchur jamg‘armalari orqali yoshlar qo‘llab-quvvatlanadi.

Bundan tashqari, qarorda nazarda tutilgan qo‘llab-quvvatlash instrumentlaridan foydalangan tadbirkorlarning hisobvaraqlariga bepul xizmat ko‘rsatiladi. 2025-yil 1-aprelgacha “Yosh tadbirkorlar” raqamli platformasi joriy etiladi. 2025-yil 1-apreldan har oyda 1 ta hududda “investor kun”lari tashkil etiladi hamda hududdagi OTMlar bilan hamkorlik dasturlari yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, 2025-yil yakunigacha: akseleratsiya va inkubatsiya dasturlarini muvaffaqiyatli yakunlagan startaplar soni 200 taga yetkaziladi; hududlarda “Yoshlar biznes-inkubatori” markazlari tashkil qilinib, tadbirkorlik faoliyatini yangidan boshlagan yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda muvaffaqiyatli tadbirkor darajasigacha rivojlanishlari uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratiladi, jumladan ularga tayyor ofislar ijaraga beriladi, buxgalteriya, marketing, eksport bozorlariga chiqish bilan bog‘liq kompleks xizmatlar ko‘rsatiladi.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib, bu nafaqat iqtisodiy rivojlanishga, balki ijtimoiy barqarorlikka ham xizmat qiladi. Davlat tomonidan to‘g‘ri strategiyalar ishlab chiqilishi va yosh tadbirkorlarga qulay sharoitlar yaratish orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish mumkin. Shu sababli, yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish va ularning biznes yuritishiga yordam berish har bir mamlakatning rivojlanish yo‘lida muhim qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Убайдуллаев, Л..; Эргашева, Ф. Развитие предпринимательских навыков у студентов - как фактор преодоления проблем молодого предпринимательства. ОИ 2021,

2. Убайдуллаев, Л., & Эргашева, Ф. (2021). Development of enterprise products in students-as a factor of production problems for young enterprises. Общество и инновации,

3. Rakhmatullaeva F. A. THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY. THE ROLE OF TODAY IN OUR ECONOMY //АКТУАЛЬНАЯ НАУКА. – 2022.

4. Raxmatullayeva Feruza Azimovna. Youth Entrepreneurship and its Development Measures //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT

4-SHO‘BA: TARIX VA GEOGRAFIYA. Tarix va geografiya fanlarini zamonaviy ta’lim usullari orqali o‘qitishni takomillashtirish

УЗЛУКСИЗ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ТАРИХ ФАНИНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИНИ ЗАМОНАВИЙ ИНТЕГРАЦИЯЛАШГАН ЁНДАШУВЛАР АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Обломурадов Наим Халимович
Тошкент давлат иқтисодиёт университети профессори, т.ф.д.

Аннотация. Мазкур мақолада узлуксиз таълим тизимида тарих фанини ўқитиш жараёнини замонавий интеграциялашган ёндашувлар асосида такомиллаштириш масалалари таҳлил қилинган. Таълим сифатини оширишда инновацион педагогик технологиялар, мультимедия воситалари ва фанлараро интеграция усулларининг ўрни ҳамда аҳамияти кўрсатиб ўтилган. Шунингдек, тарих фанини ўқитишда танқидий таҳлил, тадқиқотчилик ёндашуви ва интерактив усулларни қўллаш орқали ўқувчиларда тарихий тафаккурни шакллантириш йўллари муҳокама қилинган. Мақолада илғор хорижий тажрибалар таҳлил қилиниб, миллий таълим тизимига мос келувчи таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: узлуксиз таълим, тарих фанини ўқитиш, фанлараро боғланиш, интеграциялашган ёндашув, интерфаол дарсликлар, виртуал экскурсиялар.

Аннотация. В статье анализируются вопросы совершенствования процесса преподавания истории в системе непрерывного образования на основе современных комплексных подходов. Подчеркиваются роль и значение инновационных педагогических технологий, мультимедийных средств, методов междисциплинарной интеграции в повышении качества образования. Также обсуждались способы развития исторического мышления у учащихся посредством использования критического анализа, исследовательского подхода и интерактивных методов в преподавании истории. В статье анализируется передовой зарубежный опыт и разрабатываются предложения и рекомендации, соответствующие отечественной системе образования.

Ключевые слова: непрерывное образование, преподавание истории, межпредметные связи, комплексный подход, интерактивные учебники, виртуальные экскурсии.

Abstract. The article analyzes the issues of improving the process of teaching history in the system of continuous education based on modern integrated approaches. The role and importance of innovative pedagogical technologies, multimedia tools, and methods of interdisciplinary integration in improving the quality of education are emphasized. Methods of developing historical thinking in students through the use of critical analysis, research approach, and interactive methods in teaching history are also

discussed. The article analyzes advanced foreign experience and develops proposals and recommendations that correspond to the domestic education system.

Keywords: continuous education, teaching history, interdisciplinary connections, integrated approach, interactive textbooks, virtual excursions.

Ўзбекистон мустақиллигини қўлга киритганидан буён таълим соҳасида кенг қамровли ислоҳотлар олиб борилмоқда. Бу ислоҳотлар мақсади нафақат билим даражасини ошириш, балки ўқувчиларни замонавий дунёнинг талабларига мос келадиган, мустақил фикрлаш қобилиятига эга шахслар сифатида тарбиялашдан иборат. Тарих фанини ўқитишда замонавий интеграциялашган ёндашувларни қўллаш айниқса долзарб аҳамиятга эга, чунки бу фан орқали ўқувчиларда ватанпарварлик, миллий ғурур ва тарихий хотирани шакллантириш мақсад қилинади.

Тарих фанини замонавий интеграциялашган ёндашувлар асосида ўқитиш қуйидаги жиҳатлардан долзарбдир:

- тарих орқали ўқувчиларда ўз миллати, маданияти ва тарихига бўлган ҳурмат ва ғурур ҳисси кучаяди;
- тарихий жараёнларни чуқур ўрганиш орқали талаба-ўқувчилар бугунги дунёдаги сиёсий, ижтимоий ва иқтисодий жараёнларни тушуниш имкониятига эга бўлишади;
- замонавий технологиялар ва интеграциялашган ёндашувлар тарих таълимини янада қизиқарли ва самарали қилади.

Тарих фанини ўқитиш замонавий таълим тизимида муҳим ўрин тутади. Тарих инсониятнинг ўтмишини, маданияти, ижтимоий-иқтисодий жараёнларини ва уларнинг бугунги дунёга таъсирини тушуниш учун асос бўлиб хизмат қилади. Бироқ, замонавий дунёда ўқувчиларнинг эҳтиёжлари ва қизиқишлари тез ўзгариб бораётганлиги сабабли, тарих фанини ўқитишда анъанавий усуллар етарли эмас. Шу сабабли, замонавий ёндашувларни қўллаш тарих таълимини самарали ва қизиқарли қилиш учун заруриятга айланган.

Тарих фанининг мактаб курси учта вазифани бажаришга қаратилган бўлиб, буларга: ўқувчиларга тарихий билимларнинг асосларини бериш ҳамда уларнинг чуқурлиги ва мустаҳкамлигини таъминлаш; ўқувчиларда тарихни илмий тушунишнинг шаклланиши ва миллий тарих, хорижий мамлакатлар ва халқлар тарихига ҳурмат муносабатида бўлишни таъминлаш ҳамда ўқувчиларда тарихий онг, тарихий хотира, тарихий тафаккурни ривожлантириш ва ўқувчиларнинг билимларини мустақил ўзлаштириш ва қўллашга ўргатишдир. Зеро, “Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз1”, – дея таъкидланиши, тарих ўқитиш фани олдига мамлакатимиз ёшларини мантиқий фикрлайдиган, миллий ғурури баланд, мустақил фикр соҳиблари этиб тарбиялашдек долзарб вазифаларни қўяди.

1 1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Т.: Ўзбекистон, 2016. –14-б.

Миллий тарихни ўқитишда янгича ёндашувлар ва тушунчаларни излаш ўтмишнинг барча тадқиқот юкларини тўлиқ қайта кўриб чиқишни, алоҳида воқеалар ва фактларни сохталаштиришни ёки яширишни англатмайди. Аксинча, дарс машғулотларида ўқувчиларнинг ўзларига тарихга оид кўп вариантли ахборотларни аниқлаштириш топшириқларини бериш керак. Бу талабанинг мустақил ишлаш кўникмасини ривожлантиради. Таълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи вазифалар ва тарихни ўқитиш мақсадларида тарих ўқитишининг мақсадлари ўқувчиларни ўзлаштириш, жаҳондаги тарихий жараёни ҳақидаги тизимлаштирилган билимлар ва унда мамлакатимизнинг ўрни ҳақидаги ғояларни шакллантириш, шу орқали ўқувчиларни миллий ва жаҳон маданияти ютуқлари, ижтимоий фаол ва ижодкор шахсни ва ватанпарвар фуқарони тарбиялашга эришиш мумкин.

Замонавий ёндашувлар тарих фанини ўқитишда янгича имкониятлар яратади. Рақамли технологиялар, интерфаол дарсликлар, виртуал экскурсиялар, мултимедиа воситалари каби инновацион усуллар тарихни ўрганиш жараёнини қизиқарли ва самарали қилади. Мисол учун, виртуал экскурсиялар орқали ўқувчилар қадимги шаҳарлар, тарихий жойлар ва музейларни ҳақиқий вақтда кўриш имкониятига эга бўлишади. Бу эса уларнинг тарихга бўлган қизиқишини оширади ва билимларни чуқурроқ ўзлаштиришга ёрдам беради.

Ўзбекистон мактаб таълими тизимида тарих фанини ўқитишда қуйидаги айрим камчиликларни қайд этиш мумкин:

Тарих фанини ўқитишда анъанавий усуллар (ўқитувчи марказий роль ўйнаши, ёдлашга асосланган дарслар) устунлик қилиши;

Тарих фанини бошқа фанлар (адабиёт, география, санъат) билан чамбарчас боғлаб ўқитишга эътибор сустлиги;

Мактабларда рақамли технологиялар (виртуал экскурсиялар, интерфаол дарсликлар, мультимедиа воситалари) етарли даражада мавжуд эмаслиги;

Ўқитувчиларнинг замонавий педагогик технологияларни қўллаш ва интеграциялашган ёндашувлар бўйича билимлари етарли эмаслиги;

Мактабларда замонавий дарсликлар, техника ва бошқа ресурслар етарли эмаслиги;

Тарих фанини бошқа фанлар билан интеграциялашган ҳолда ўқитиш замонавий таълимнинг асосий талабларидан биридир. Тарихни адабиёт, география, санъат, ижтимоий фанлар билан боғлаб ўрганиш, ўқувчиларга тарихий жараёнларни кўпроқ англаш имкониятини беради. Масалан, адабий асарлар орқали тарихий шахслар ва воқеаларни таҳлил қилиш ёки географик хариталар ёрдамида тарихий жанглар ва чегараларнинг ўзгаришини кузатиш мумкин. Бу ёндашув ўқувчиларнинг муҳокама қилиш, таҳлил қилиш ва мустақил фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам беради.

Замонавий ёндашувлар тарих фанини зерикарли деб билган ўқувчиларнинг қизиқишини оширишга қаратилади. Интерфаол дарслар, лойиҳалар, ўйинлар ва мусобақалар орқали тарихни ўрганиш жараёни қизиқарли ва фаол тарзда амалга оширилади. Мисол учун, тарихий воқеаларни қайта тиклаш (реконструкция

қилиш) ёки тарихий шахслар ролида ўйнаш каби усуллар ўқувчиларни дарсга фаол жалб қилади.

Интеграциялашган таълим тушунчаси замонавий таълимнинг асосий тамойилларидан биридир. Бу ёндашув турли фанларни ўзаро боғлаб, ўқувчиларга билимларни бир бутун сифатида ўзлаштириш имкониятини беради. Тарих фанини бошқа фанлар билан интеграциялашган ҳолда ўқитиш, ўқувчиларнинг мавзуни чуқурроқ тушунишига ва билимларни амалий ҳаётда қўллаш қобилиятини ривожлантиришга ёрдам беради1.

Фанлараро боғланиш орқали ўқувчилар билимларни изчил ва мазмунли тарзда ўзлаштирадилар. Бу ёндашув ўқувчиларнинг муҳокама қилиш, қиёсий таҳлил ва мустақил фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришга хизмат қилади. Тарих фанини бошқа фанлар билан боғлаб ўқитиш жараёнида қуйидагилар мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

Тарих ва адабиётни интеграциялашган ҳолда ўқитиш орқали ўқувчилар тарихий воқеаларни адабий асарлар орқали чуқурроқ тушуниш имкониятига эга бўлишади;

Тарих ва географияни боғлаш орқали ўқувчилар тарихий воқеаларнинг географик шароитдаги аҳамиятини тушунишади;

Тарих ва санъатни интеграциялашган ҳолда ўқитиш орқали ўқувчилар тарихий даврларнинг маданий ва бадиий жиҳатларини ўрганадилар;

Тарих ва ижтимоий фанларни боғлаш орқали ўқувчилар тарихий жараёнларнинг бугунги жамиятга таъсирини тушунишади.

Интеграциялашган таълим тушунчаси орқали тарих фанини бошқа фанлар билан боғлаб ўқитиш, ўқувчиларнинг билимларни чуқурроқ ва мазмунли тарзда ўзлаштиришига ёрдам беради. Бу ёндашув нафақат билим даражасини оширади, балки ўқувчиларнинг дунёқарашини кенгайтиришга ҳам хизмат қилади.

Тарих фанини ўқитишда анъанавий усуллардан кўра таълимнинг энг илғор кейс-стади, дебат ва мунозаралар, ролли ўйинлар, тарихий симуляциялар ва моделлаштириш ҳамда фанлараро ёндашув каби замонавий усуллар самарали ҳисобланади. Интерактив усулларни жорий этиш орқали ўқувчиларда танқидий ва ижодий тафаккур ривожланади, улар тарихий жараёнларни чуқур англаб етишга эришадилар.

Ушбу йўналишда мавжуд илғор хорижий тажрибаларни қўллаш ҳам мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Хусусан, Финландия таълим тизимида фанлараро интеграцияга катта эътибор берилади. Бунда, тарих ва адабиётни боғлаб, ўқувчилар тарихий даврлар ҳақида адабий асарлар орқали билим олишади. АҚШ ва Буюк Британия мактабларида тарих дарсларида виртуал реаллик (VR) технологиялари қўлланилади2. Ўқувчилар қадимги Рим Колизейи ёки Миср эҳромларига виртуал саёҳат қилишади. Сингапур мактабларида ўқувчилар тарихий мавзулар бўйича лойиҳалар ишлаб чиқишади ва уларни

1 Гридина В.В. Использование современных методик обучения в практике преподавания социально-гуманитарных дисциплин. //Альманах современной науки и образования. 2007. №1. .https://www.elibrary.ru/contents.asp?id=33756203

2 Hoge J. D. Teaching history in the elementary school//ERIC Digest 1988 №10 22-34 p.

синфдошлари олдида тақдим этишади. Германия мактабларида тарих дарсларида ролли ўйинлар (масалан, тарихий шахслар ролида чиқиш) ва дебатлар ташкил этилади. Япония ва Жанубий Корея мактабларида ўқитувчилар учун доимий малака ошириш курслари ташкил этилади. Бу курслар орқали ўқитувчилар замонавий усулларни ўрганишади1.

Шунингдек, ўқувчиларни тарих фанидан халқаро фан олимпиадаларига тайёрлаш ва ижобий натижаларга эришишда муваффақият қозонган бир қатор хорижий мамлакатлар тажрибалари ҳам мавжуд бўлиб, буларга қуйидагиларни келтириш мумкин:

Финляндия тажрибаси – маҳаллий таълим муассасаларида ўқувчиларни халқаро олимпиадаларга тайёрлашда мутахассис тьюторлар билан индивидуал машғулотлар олиб борилади. Бундан ташқари, тарихий манбаларни таҳлил қилиш ва танқидий фикрлаш кўникмаларини шакллантиришга алоҳида эътибор қаратилади.

Сингапур модели – тарих фанидан олимпиадага тайёргарлик жараёнида STEM усуллари қўлланилади, яъни рақамли таълим платформалари ва симуляцияларнинг фойдаланилиши тарихий жараёнларни визуал таҳлил қилиш имконини беради.

Британия методикаси – Кеймбридж таълим дастурларида тарих фанини ўргатишда эссе ёзиш ва мунозаралар муҳим ўрин тутади. Олимпиадага тайёргарлик жараёнида эса ўқувчилар турли манбалар билан ишлаш, уларни таҳлил қилиш ва мустақил фикр юритишга ўргатилади.

АҚШ тажрибаси – Америкалик ўқувчиларни халқаро фан олимпиадаларига тайёрлаш жараёнида махсус клублар ва форумлар ташкил этилади, тарихий тадқиқотлар ва тажриба ишлари ўқув жараёнининг муҳим қисмига айланади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, узлуксиз таълим тизимида тарих фанини ўқитишда замонавий таълим технологиялари ҳамда интеграцион ёндашувларни татбиқ этишда қуйидаги таклифлар мақсадга мувофиқ ҳисобланади:

- фанлараро интеграцияни кучайтириш;
- рақамли технологиялардан фойдаланиш;
- лойиҳалар ва тадқиқот ишларини ривожлантириш;
- интерфаол ва илғор таълим усулларини қўллаш;
- ўқувчиларнинг қизиқишини ошириш учун замонавий ресурслардан фойдаланиш;
- ўқитувчиларнинг малакасини ошириш;
- танқидий таҳлилга асосланган таълим тизими асосида интерактив методлардан фойдаланиш. Шунингдек, тарихни ҳаёт билан боғлаш орқали амалий машғулотлар ўтказиш ўқувчиларнинг фанга қизиқишини оширишга хизмат қилади.

Хулоса сифатида қайд этиш жоизки, узлуксиз таълим тизимида тарих фанини замонавий интеграциялашган ёндашувлар асосида ўқитиш таълим сифатини ошириш ва ўқувчиларда тарихий тафаккурни шакллантиришда муҳим

1 https://www.edu.ru/news/obrazovatelnaya-sreda/kak-prepodavat-istoriyu-v-shkolah-opyt-raznyh-stra/

аҳамият касб этади. Интерактив усуллар, фанлараро ёндашув ва инновацион технологияларни жорий этиш таълим жараёнини самарали ташкил этишга ёрдам беради. Хорижий тажрибалар таҳлили ва миллий таълим тизимига мос келувчи методларни қўллаш орқали фанни ўқитишнинг янги услублари такомиллаштирилиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2016. –14-б.

2. Гридина В. В. Использование современных методик обучения в практике преподавания социально-гуманитарных дисциплин. //Альманах современной науки и образования. 2007. №1.

3. Hoge J. D. Teaching history in the elementary school//ERIC Digest 1988 №10 22-34 p.

4. https://www.edu.ru/news/obrazovatelnaya-sreda/kak-prepodavat-istoriyu-v-shkolah-opyt-raznyh-stran

SOVET DAVRIDA XORAZM VILOYATIDA ARXIV ISHI TARIXINING BA’ZI MASALALARI

S. R. Davletov, Mamun universiteti, tarix fanlari doktori (DSc), professor
Y. X. Yuldashev, Mamun universiteti, PhD,

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sovet davrida Xorazm viloyatida arxiv ishi masalalari haqida bayon qilingan bo‘lib, unda 1925-1945-yillarda Xorazm viloyatida arxiv ishining tashkil qilinishi, Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda viloyat arxiv ishi tizimidagi o‘zgarishlar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, sovet davri, Xorazm, tarix, arxiv ishini boshqarish, hujjatlarni saqlash, jamg‘arma.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы архивного дела в Хорезмской области в советское время, анализируется организация архивного дела в Хорезмской области в 1925-1945 годах, а также изменения в региональной архивной системе в годы после Второй мировой войны.

Ключевые слова: Узбекистан, советский период, Хорезм, история, архивное дело, хранение документов, фонд.

Abstract. This article describes the issues of archival work in the Khorezm region during the Soviet era, analyzing the organization of archival work in the Khorezm region in 1925-1945, and changes in the regional archival system in the years after World War II.

Keywords: Uzbekistan, Soviet era, Khorezm, history, archival management, document storage, fund.

Mustaqillik yillarida o‘zbek xalqi moddiy va ma’naviy hayotini aks ettirgan manbalar, nodir tarixiy, madaniy va ilmiy ahamiyatga ega arxiv hujjatlarini o‘rganish, arxiv ishi tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va ular faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning turli hududlarida arxiv ishi sohasini yanada takomillashtirish, soha rivoji ta’sir ko‘rsatadigan maqsadli islohotlarini ishlab chiqish hamda sohaning rivojiga boy tarixiy tajribalarni tatbiq qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Sovet davrida 1926-yilda Xorazm viloyati arxiv byurosi tashkil etilgan, arxiv byurosi shu yili 2 ta shtat birlik hodim bilan darhol ishga kirishib 21 ta fondga 1176 saqlov birlik hujjat qabul qilgan, byuro 1927-yildan Xorazm okrugi arxivi deb o‘zgartirilgan. Arxiv byurosining birinchi galdagi vazifasi milliy chegaralanish natijasida tugatilgan barcha idoralar hujjatlarini, Xiva xonligi va Xorazm sovet respublikasida shakllangan hujjatlarni yig‘ib olib, saqlovga qabul qilib olishdan iborat edi.

O‘zSSR Markaziy ijroiya komitetining 1925-yil 24-oktabrdagi prezidiumida Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo oblastlarida arxiv tashkil qilish uchun mutaxassislar ajratish Markaziy arxiv boshqarmasiga topshirildi. Ammo, 1926- yilning apreliga kelibgina mutaxassis (Rogojkin) ajratilgan.

Qishloq xo‘jaligini ommaviy kollektivlashtirish davlat va jamoa xo‘jaliklari, mashina-traktor stansiyalari (MTS) tashkil etilishiga olib keldi, ularda jamlangan arxiv hujjatlari davlat arxivlarining quyi bo‘g‘inlarini yaratish zarurligiga sabab bo‘ldi.

O‘zSSR MIQning 1935-yil 21-dekabrdagi qaroriga binoan respublikaning barcha shahar va tumanlarida davlat arxivlari tashkil qilindi1.

XX asrning 30-yillariga kelib, Ittifoq arxiv tizimini qayta tashkil etilishi bilan bog‘liq ravishda O‘zbekistonning ichki arxiv qurilishida muayyan o‘zgarishlar yuz bergan. Xususan, 1930-yil 9-aprelda O‘zSSR MIQ Prezidiumi qarori bilan O‘zSSR arxiv boshqarmasi O‘zSSR Markaziy arxiv boshqarmasi deb o‘zgartirildi. 1934-yildan O‘zbekiston SSR Markaziy arxiv boshqarmasi yangi Urganch bo‘limi sifatida tuzilib, 1935-yildan Xorazm okrugi arxivi deb qayta o‘zgartiriladi.

Bu davrda viloyat arxiv tizimi faoliyatida arxiv hujjatlarini tizimlashtirish, fondlar tarkibini o‘rganish, hujjatlarni ta’mirlash, hujjatlarni saqlash zarur sharoitlarini yaratish bilan bog‘liq muammolar mavjudligi qayd etib o‘tilgan. Xorazm okrugi Ijroiya qo‘mitasining 1936-yil 14-yanvardagi 2-son bayoniga asosan viloyat arxiviga atigi 3 dona javon ajratish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. Xorazm okrugi arxiv boshqarmasi arxiv muassasalari ziyoratgoh va madrasada, hech qanday sharoitlarsiz o‘z ish faoliyatlarini olib borgan.

Ma’lumki, XX asrning 30-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab davlat arxivlarini “xalq dushmanlari”ni aniqlash bo‘yicha faol ishlarga kirishishi arxiv tizimini SSSR ichki ishlar xalq komissarligi (IIXK) tasarrufiga o‘tkazilishi bilan birgalikda o‘tgan. 1938-yil aprel oyidan SSSR Oliy Soveti Prezidiumi qaroriga binoan MAB SSSR IIXK Bosh arxiv boshqarmasi deb o‘zgartirilgan. Shu kabi qayta tashkil etish barcha ittifoq respublikalarida sodir bo‘lgan. Xususan, O‘zSSR Oliy Soveti Prezidiumiining 1938-yil 30-dekabrdagi qaroriga va 1939-yil 17-yanvardagi O‘zSSR IIXK buyrug‘iga asosan respublikaning barcha arxiv tizimi 1939-yil 1-iyundan O‘zSSR IIXKga topshirilgan. Xorazm viloyat arxivi ham IIXK qaramog‘iga o‘tdi va Arxiv boshqarmasi uni bo‘limiga aylandi2.

Shu tariqa O‘zSSR MAB o‘rniga O‘zSSR Ichki ishlar xalq komissariati arxiv bo‘limi tashkil qilingan. Joylarda esa viloyat IIXK boshqarmalarining viloyat arxiv bo‘linmalari va viloyat davlat arxivlari tuzilgan. Ushbu o‘zgarishlar mamlakatdagi ma’muriy-buyruqbozlikni yanada kuchaytirish jarayonining bir qismi edi3.

Ushbu davrdagi arxiv muassasalari faoliyatining o‘ziga xos xususiyati oshkoralikning yo‘qligi edi. Ayniqsa, arxiv hujjatlarini maxfiylashtirish bo‘yicha ishlar keskinlashgan. O‘sha davrda davlat sirini tashkil etuvchi masalalar bo‘yicha ma’lumotlarga emas, balki umuman davlat organlari va jamiyat hayotining barcha sohalarida arxivlar faoliyati to‘g‘risida umumlashtirilgan ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan barcha hujjatlarga kirish cheklangan. Yopiq qo‘llanmalar va maxfiy hujjatlar to‘plamlari yaratilgan. Yopiq ma’lumotlarga kirish huquqiga arxiv xodimi ega edi. Agar 1942-yilgacha faoliyatning asosiy masalalari bo‘yicha mahalliy arxiv muassasalari bilan yozishmalar ochiq bo‘lgan bo‘lsa, 1943-yildan 1962-yilgacha maxfiylashtirilgan4.

1 Matsapayeva Z. Xorazmning arxiv tarixidan. 14.09.2021. // https://urganchshahar.uz/2021/09/14/

2 Хоразм вилояти давлат архиви – кеча ва бугун. 10.06.2020. // https://archive.uz/post/khorazm-wiloyati-dawlat-arkhiwi-kecha-wa-bugun

3 Исакова М.С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Т.: Университет, 2012. – С. 86.

4 Пшеничный А.П. Система государственного управления и архивные учреждения. // Советские архивы. – Москва, 1991. – № 2. – С. 38-40.

1940-yilda arxiv bo‘limi boshlig‘i viloyatning barcha tumanlariga tashriflari natijasida, viloyat Ijroiya qo‘mitasining qarori qabul qilindi. Shu asosda ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida Mangit, Xiva, Yangiariq, Shovot va Xonqa tuman arxivlari xonalar va ma’lum darajada stellajlar bilan ta’minlandi.

Bu davrda viloyat davlat arxivida saqlanayotgan arxiv materiallarining tarkibi 78 ta fondda jamlangan 15619 ta hujjatlardan iborat bo‘lgan. Ulardan 75 ta fonddagi 14728 ta hujjatlar tikilgan holatda bo‘lib, qolgan 3 ta fondnikilar qayta ishlash jarayonida bo‘lgan1.

Ikkinchi jahon urushi boshlanishi mamlakat arxiv muassasalari faoliyatini murakkablashtirgan. Ishlab chiqarishning barcha sohalari harbiy relslarga o‘tkazilgan. Arxiv muassasalari xodimlari mamlakat mudofaa fondiga mablag‘ o‘tkazish va shifoxonalarda, bolalar uylarida, shuningdek, evakuatsiya qilingan oilalar va bolalarga ko‘maklashishdek ishlarni amalga oshganlar2. Urush davrining dastlabki ikki yilida katta miqdordagi hujjatlar qabul qilinib, keyin hujjat qabul qilish kamaygan. Bunga sabab arxiv muassasalarida hujjatlarni saqlashga joy hamda arxivchilaming yetishmasligi edi.

Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston hukumati davlat arxivlarida jamlangan hujjatlarning saqlanishini va ulardan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratdi. O‘zbekistonda arxiv ishi 1950-yillarning ikkinchi yarmigacha tubdan qayta qurildi. Arxiv tizimini rivojlantirish jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy qiyinchiliklar bilan ham murakkablashdi.

1948-yilning iyulida Xorazm viloyat davlat arxiv fondida to‘plangan “Xiva xoni devonxonasi”ning 1874 – 1917-yillardagi voqealarni aks ettiruvchi 98 saqlov birligidagi hujjatli materiallari O‘zbekiston Markaziy Davlat arxiviga qabul qilindi3. Bu davrda Xorazm viloyati davlat arxivi tarkibida uchta filial bor edi (uchinchisi 1967-yilning to‘rtinchi choragida ishga tushdi). Xiva filiali – Xiva shahri va Xiva hamda Qo‘shko‘pir, Gurlan filiali uch tumanga – Shovot, Urganch va Gurlan, Yangiariq filiali – Hazorasp va Yangiariq tumanlariga xizmat qildi.

Fondlarda saqlanayotgan hujjatlarni tartibga keltirish uchun viloyat davlat arxivi xodimlari tomonidan ko‘p mehnat sarflandi. 1964-yildan 1967-yilgacha bo‘lgan davrda Xorazm viloyati arxivi va uning shaxobchalari xo‘jalik hisobidagi guruhi kuchi bilan qishloq soveti, kolxozlar, tuman, shahar va viloyatning 164 tashkilotidagi 36 ming kishidan iborat shaxsiy tarkibining hujjatlari tartibga keltirildi. Bundan tashqari, arxiv bo‘linmalari va filiallar xodimlari tomonidan ko‘pgina hujjatlar tartibga solindi. Shovot, Urganch, Xiva, Hazorasp, Qo‘shko‘pir tumanlaridagi kolxozlarning hujjatlari to‘liq tartibga keltirildi4.

XX asrning 70-yillari boshlarida respublika arxivlari saqlovxonalarning hujjatlar sig‘imdorligi muammosiga duch keldi. Arxivlarning tarkibi va hujjatlarini ko‘rib chiqish talab qilindi. Shundan kelib chiqqan holda, Viloyatda 1971 – 1975-yillarda 98

1 XVDA, 555-fond, 1-ro‘yxat, 9-yig‘ma jild, 75-80-varaqlar.

2 Исакова М.С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Т.: Университет, 2012. – С. 88.

3 Исакова М. «Из истории комплектования и научного описания архивного фонда «Канцелярия хана Хивинского»» // Sharqshunoslik, 2015. – № 2-3. – С. 164.

4 XVDA, 555-fond, 1-ro‘yxat, 191-yig‘ma jild, 1-25-varaqlar.

ta jamg‘armadagi 20212 ta yig‘ma jildlar takomillashtirildi, idoraviy arxivlardan davlat tasarrufiga qabul qilish rejalashtirilgan10 ming ta (viloyat davlat arxiviga 2557 ta, Gurlan filialiga 3170 ta, Xiva filialiga 4273 ta) hujjatlar rejadan oshirib bajarildi. Arxiv ishini tashkil etish ishlari nazoratga olingan tashkilotlar soni 448 tadan 488 taga yetdi. Besh yil davomida viloyat arxivining Gurlan filiali egallagan maydonni kengaytirishga erishildi, viloyat arxivi, Xiva va Yangiariq filiallari binolari ta’mirlandi 1.

Shunday bo‘lsa-da, Xorazm viloyat davlat arxivi 1987-yilgacha Urganch shahridagi “Doshqinjon bobo” ziyoratgohi binosida o‘z faoliyatini olib borgan. 1979-yilda Xorazm viloyat davlat arxiviga yangi bino qurish uchun yer o‘rni ajratish to‘g‘risida Xorazm viloyati Ijroiya qo‘mitasining qarori qabul qilingan.

Umuman olganda, sovet davrida belgilangan normalarga muvofiq, davlat organlari, jamoat tashkilotlarining maxsus topshiriqlari bo‘yicha ishlagan davlat va jamoat muassasalari vakillari, tadqiqotchilarga ilmiy izlanishlari uchun ruxsat berilgan bo‘lsa-da, 1950-yillar oxirigacha tadqiqotchilar MABning maxsus ruxsatisiz to‘liq matnlar yoki alohida hujjatlarni chop etish huquqidan mahrum bo‘lganligini qayd etish joiz. Shuning uchun ham bu davrda Xorazm viloyati davlat arxivida tadqiqotchilarning arxiv hujjatlaridan ilmiy tadqiqot maqsadlarida foydalanish ko‘rsatkichi yillar kesimida tahlil qilinganda hamisha ham yuqori bo‘lmaganligini ko‘rish mumkin. Natijada arxiv muassasalarida jamlangan hujjatlarni o‘rganish va tarixni keng ommaga yetkazish arxiv muassasalari xodimlari oldida turgan muhim vazifalardan biri bo‘lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Matsapayeva Z. Xorazmning arxiv tarixidan. 14.09.2021. // https://urganchshahar.uz/2021/09/14/

2. Хоразм вилояти давлат архиви – кеча ва бугун. 10.06.2020. // https://archive.uz/post/khorazm-wiloyati-dawlat-arkhiwi-kecha-wa-bugun

3. Исакова М.С. Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. – Т.: Университет, 2012.

4. Пшеничный А.П. Система государственного управления и архивные учреждения. // Советские архивы. – Москва, 1991. – № 2. – С. 38-40.

5. XVDA, 555-fond, 1-ro‘yxat, 9-yig‘ma jild, 75-80-varaqlar.

6. Исакова М. “Из истории комплектования и научного описания архивного фонда “Канцелярия хана Хивинского” // Sharqshunoslik, 2015. – № 2-3. – С. 164-165.

7. XVDA, 555-fond, 1-ro‘yxat, 191-yig‘ma jild, 1-25-varaqlar.

1 XVDA, 555-fond, 1-ro‘yxat, 191-yig‘ma jild, 15-25-varaqlar.

MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATI ARXIV ISHI BOSHQARMASI TIZIMINING RIVOJLANISHI

S. R. Davletov, Mamun universiteti, tarix fanlari doktori (DSc), professor
Y. X. Yuldashev, Mamun universiteti, PhD,

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Xorazm viloyati arxiv ishi boshqarmasi tizimining rivojlanishi masalasi o‘rganilgan bo‘lib, unda 1991-2016 yillarda viloyat arxiv ishi boshqarmasi va uning tizimidagi davlat arxivlari faoliyati, Yangi O‘zbekiston sharoitida Xorazm viloyatida arxiv ishining holatiga oid ba’zi masalalar tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Xorazm, arxiv ishini boshqarish, hujjatlarni saqlash, jamg‘arma.

Аннотация. В статье изучается развитие системы Хорезмского областного архивного управления за годы независимости, анализируется деятельность областного архивного управления и государственных архивов в его системе в 1991-2016 годах, а также некоторые вопросы, связанные с состоянием архивного дела в Хорезмской области в условиях Нового Узбекистана.

Ключевые слова: Узбекистан, Хорезм, архивное дело, хранение документов, фонд.

Abstract. This article studies the development of the system of the Khorezm regional archival department during the years of independence, analyzes the activities of the regional archival department and state archives in its system in 1991-2016, and some issues related to the state of archival work in the Khorezm region in the context of New Uzbekistan.

Keywords: Uzbekistan, Khorezm, archival management, document storage, fund.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida o‘zbek xalqi moddiy va ma’naviy hayotini aks ettirgan manbalar, nodir tarixiy, madaniy va ilmiy ahamiyatga ega arxiv hujjatlarini o‘rganish, arxiv ishi tizimiga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va ular faoliyatini yangi bosqichga ko‘tarishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning turli hududlarida arxiv ishi sohasini yanada takomillashtirish, soha rivoji ta’sir ko‘rsatadigan maqsadli islohotlarini ishlab chiqish hamda sohaning rivojiga boy tarixiy tajribalarni tatbiq qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida Xorazm viloyati arxiv tizimida ham tizimli ishlar amalga oshirildi. 1992-yil 7-11-sentabr kunlari Xorazm viloyati Arxiv bo‘limi, Davlat arxivi, Xiva, Yangiariq filiallari va Urganch shahar ijroqo‘mi qoshidagi shaxsiy tarkibning idoralararo xo‘jalik hisobidagi arxivini kompleks tekshirish o‘tkazilgan bo‘lib, uning natijalari viloyat arxiv muassasalari ishlarning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bir qator tashkiliy va amaliy tadbirlarni amalga oshirilganligini ko‘rsatadi1.

Darhaqiqat, istiqlolning dastlabki yillarida viloyat arxiv muassasalari faoliyati arxiv ishini rivojlantirish kompleks dasturlarini amalga oshirishga qaratilgan. Shu maqsadda davlat arxiv fondining hujjatlarini maqbullashtirish, ulardan foydalanishni

1 XVDA, 555-fond, 1-ro‘yxat, 389-yig‘ma jild, 21-25-varaq.

jadallashtirish, davlat hisobi va ilmiy-ma’lumotnoma apparatini takomillashtirish, idoraviy saqlash bo‘yicha tashkiliy-uslubiy tadbirlar rejalari tuzildi. Ushbu rejalarning bajarilishi arxiv muassasalari faoliyatini takomillashtirish va asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar sifatini oshirishga xizmat qilgani bilan ahamiyatli hisoblanadi. Shuningdek, “Xorazm viloyati davlat arxivi va filiallari to‘g‘risida”gi Nizom, “Xorazm viloyati Davlat arxivining ilmiy-texnik axborot xizmati to‘g‘risida”gi Nizom ishlab chiqildi.

1996-yilda “O‘zarxiv” agentligi O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini 2000-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini ishlab chiqdi. Bu kontseptsiya davlat arxiv xizmati faoliyatining metodologik harakat dasturi edi. U jamiyatni va davlatni axborot bilan ta’minlashdagi imkoniyatlarini kengaytirish, jamiyatning hujjatli yodgorliklarini saqlashdagi rolini orttirishga qaratildi. Bu esa arxiv muassasalari tomonidan matni o‘chib borayotgan hujjatlarni aniqlash, hisobga olish va tiklash, shuningdek, kam qiymatli fondlar qimmatini ekspertiza qilish ishlarini jadallashtirdi.

Mustaqillik yillarida viloyatda arxiv ishini rivojlantirishda Djabbergen Raxmanov, Ruzimboy Madaminov, Maryam Atadjanova, Xamrabek Oltiboyev, Shavkat Xudaybergenov, Ro‘zmat Yoqubov, Baxtiyor Ibragimov, Raximboy Matrasulov, Ikram Xudaybergenov, Nodir Atajanov va boshqalarning roli katta bo‘ldi. 2008-yildan boshlab barcha davlat arxivlarida hujjatlarning umrini uzaytirish maqsadida alohida qimmatli hujjatlarning elektron nusxalarini yaratish ishlariga kirishildi1.

Mustaqillik yillarida viloyat arxivlarida saqlanayotgan hujjatlarning soni 217892 jilddan ortdi, ulardan 89147 jild Urganchda, 29062 tasi Xiva bo‘limida, 60435 tasi Yangibozor bo‘limida, 39348 tasi Xonqa bo‘limida saqlanadi. Xo‘jalik hisobidagi qo‘riqxonalarda saqlanayotgan hujjatlar soni 89543 jildni tashkil etib, ulardan Urganch shahar arxivida 29376 jild, Hazorasp shahrida 15776 jild, Gurlan arxivida 26667 jild saqlandi. Shunday qilib, viloyatdagi barcha arxivlarda mavjud hujjat 387486 jildni tashkil etdi.

Xorazm viloyati Arxiv ishi boshqarmasi tomonidan 2014-yilda 13505 ming varaq hujjatlar qayta ta’mirlangan bo‘lsa, 2015-yilda bu ko‘rsatgich 14114 ming varaqni tashkil qildi. Bundan tashqari viloyat arxivlari tomon dan 2014-yilda 19 ta ko‘rgazma, 7 ta radioeshittirish, 7 ta teleko‘rsatuv tashkil qilinib, 13 ta maqola chop etilgan2.

2016-yilda ham viloyat arxiv ishi faoliyati samarali yakunlandi. Jumladan, 14181 varaq hujjatlar qayta ishlani muqovalandi. 2015-2016-yillarda hujjatlar- ning qimmatdorligini ekspertizalash tegishli ravishda 4239 ming va 4244 ming varaqni tashkil qildi. Ushbu davrda jami 36 ta ko‘rgazma, 10 ta radioeshittirish, 14 ta telekursatuv tashkil qilinib, 26 ta maqola chop etildi. Davlat arxiv o‘quvxonalarida 40 nafar tadqiqotchi faoliyat olib borgan3.

1 Abdullayev A.X. Hujjatlarda aks etgan hayot // Arxiv ishi va ish yuritish sohasi bo‘yicha axborotnoma. –T., 2016. 53-son. – B. 31.

2 Xorazm viloyat arxiv ishi boshqarmasining 2014-yil arxiv ishi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarning bajarilishiga doir umumiy hisoboti. – Urganch, 2015. – B. 5.

3 Xorazm viloyat Arxiv ishi boshqarmasining 2014-yil arxiv ishi bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarning bajarilishiga doir umumiy hisoboti. – Urganch, 2015. – B. 1-5.

Ma’lumki, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish- ning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritish sohasida davlat boshqaruvi va nazoratini takomillashtirish, qog‘oz shaklidagi, kino, foto va fono hujjatlarini raqamlashtirishni yanada jadallashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “O‘zarxiv” agentligi negizida O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi tashkil etildi1. Bu davrda tizimdagi muassasalarning moddiy texnik bazasini mustahkamlashga e’tibor qaratildi. Xorazm viloyatining Urganch, Gurlan, Shovot, Hazorasp tumanlari va Urganch shahar SHTH arxivlari binolarida 2016–2017-yillarda joriy ta’mirlash ishlari amalga oshirildi2.

Bugun O‘zbekiston Respublikasidagi arxivlar tizimini arxiv ishini boshqarish organlari, davlat va nodavlat arxivlari, xo‘jalik hisobidagi shaxsiy tarkib hujjatlari arxivlari hamda idoraviy arxivlar tashkil etadi. Ushbu tizimda Xorazm viloyatidagi arxiv tuzilmalarining ham roli katta.

Xorazm viloyati davlat arxivi binosi 400 ming saqlov birlikdagi hujjat saqlash quvvatiga ega. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-sentabrdagi PQ-4463-son qaroriga asosan 2023-yilda Xorazm viloyat davlat arxivi binosini kapital ta’mirlash, shuningdek, 250,0 ming saqlov birlik hujjat saqlashga mo‘ljallangan qo‘shimcha saqlovxona qurish hamda uni zarur asbob-uskuna va jihozlar bilan ta’minlash davlat investitsiya dasturiga kiritildi3. Xorazm viloyati davlat arxivining asosiy jamlash manbai ro‘yxatiga 164 ta tashkilot kiritilgan bo‘lib, mulkchilik shakli bo‘yicha 118 ta davlat, 46 ta nodavlat tashkilotlardan iborat4. Davlat arxivi saqlovidagi fondlarga tegishli hujjatlar ro‘yxatlarining raqamlangan shakllari yagona bazasi yaratilgan bo‘lib, hujjatlarning asl nusxalaridan kamroq foydalangan holda, lokal tarmoq orqali elektron ko‘rinishdagi ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatlari yaratilgan.

Viloyat arxiv ishi boshqarmasi va uning tizimidagi arxiv muassasalari mustaxkam moddiy-texnik bazaga ega bo‘lib, 51 ta kompyuter qurilmalari, printer, skaner, nusxa ko‘chirish, infokiosk va boshqa axborot texnologiyalari qurilmalari bilan ta’minlandi. Xorazm viloyati arxiv ishi boshqarmasining veb-saytida viloyat arxivlari axborot resurslari shakllantirilib, yangilab borilmoqda. Viloyat arxiv muassasalari saqlovidagi tashkilotlar hujjatlarining ro‘yxati har oyda yangilanib, yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirib boriladi va ushbu ma’lumotlar bazalari arxiv muassasalariga tarqatiladi, respublika arxiv muassasalaridagi tashkilotlarning shaxsiy tarkib hujjatlari ro‘yxatidan kerakli ma’lumotlarni oson izlab topish uchun 2016-yilda viloyat davlat arxiviga infokiosk qurilmasi sotib olib o‘rnatildi5.

2017-yilda O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan arxiv hujjatlaridan “Xiva xonligi arxiv hujjatlari” fondi hujjatlari xalqaro ahamiyati inobatga olinib, mazkur tarixiy hujjatlar to‘laligicha YUNESKOning “Jahon xotirasi” dasturi xalqaro

1 Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.09.2019 y., 06/19/5834/3780-son // https://lex.uz/docs/-4523373

2 XVDA. Xorazm viloyat Arxiv ishi hududiy boshqarmasi 2017-yilgi hisobotining tahliliy ma’lumotnomasi. – Urganch, 2018.

3 Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.09.2019-y., 07/19/4463/3779-son.// https://lex.uz/docs/-4523179

4 Yusupov U., Aliyev A. O‘zbekiston arxivlari. – T., 2021. – B. 451.

5 XVDA. Xorazm viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasining 2017-yil 27-fevraldagi 01-08/84-sonli xati.

ro‘yxatiga kiritish uchun taqdim qilindi va Parij shahrida bo‘lib o‘tgan majlisda butun dunyo mamlakatlaridan 78 ta nomzodnoma ro‘yxatidan “Xiva xonligi kanselyariyasi” nomzodnomasi YUNESKO dasturi bo‘yicha xalqaro qo‘mita majlisida uchinchi bo‘lib e’tirof etilib, xalqaro miqyosda sertifikat bilan taqdirlandi1.

Umuman olganda so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekiston sharoitida barcha sohalarda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar doirasida arxiv ishi sohasida ham sezilarli yangilanishlar ro‘y bermoqda. O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishini yanada rivojlantirish masalalariga doir O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlarida belgilangan vazifalar sohani zamon talablari asosida modernizatsiya qilishga shart-sharoitlarni yaratmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.09.2019 y., 06/19/5834/3780-son // https://lex.uz/docs/-4523373
2. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 21.09.2019-y., 07/19/4463/3779-son.// https://lex.uz/docs/-4523179
3. Abdullayev A.X. Hujjatlarda aks etgan hayot // Arxiv ishi va ish yuritish sohasi bo‘yicha axborotnoma. –T., 2016. 53-son. – B. 31.
4. Xorazm viloyat arxiv ishi boshqarmasining hisobotlari. – Urganch, 2015-2024.
5. Yusupov U., Aliyev A. O‘zbekiston arxivlari. – T., 2021.

1 XVDA. Xorazm viloyati Arxiv ishi hududiy boshqarmasining 2018-yil 21-fevraldagi 01-08/147-sonli xati.

XIVA PAXTACHILIGI TARIXIDAN

Navruzov Saparboy, Mamun universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent,
Ro‘zmetova Roziyajon, UrDU magistanti
Erkinova Dildora, UrDU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada paxta daraxtining ona vatani, undan tayyorlanadigan mahsulotlar, paxta daraxtining boshqa hududlarga tarqalishi, shu jumladan O‘rta Osiyo hududida va Xivada paxtachilikning rivojlanish tarixi haqida mashhur sharqshunos olim V. V. Bartold va boshqa tadqiqotchilar tomonidan to‘plangan ma’lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo, podsho Rossiyasi, Gerodot, Kserks, paxta daraxti, tropik o‘simlik, pud, “ko‘lcha”, funt, mahalliy o‘g‘it, go‘ng (dars), g‘ovacha, chigit, desyatina.

Аннотация. В статье анализируются данные, собранные известным востоковедом В. В. Бартольдом и другими исследователями о родине хлопчатника, его продуктах, распространении хлопка в другие регионы, в том числе об истории развития хлопчатника в Хиве.

Ключевые слова: Средняя Азия, царская Россия, Геродот, Ксеркс, хлопковое дерево, тропическое растение, пуд, “пруд”, фунт, местное удобрение, навоз (дарс), хлопок, чигит, десятина.

Abstract. The article analyzes the data collected by the famous orientalist V. V. Bartold and other researchers about the birthplace of cotton, its products, the spread of cotton to other regions, including the history of the development of cotton in Khiva.

Keywords: Central Asia, Tsarist Russia, Herodotus, Xerxes, cotton tree, tropical plant, pud, “pond”, pound, local fertilizer, manure (dars), cotton, chigit, tithe.

Insonning paxtachilik bilan shug‘ullanish tarixi uzoq davrlarga borib taqaladi. Miloddan avvalgi 4-3-ming yilliklardayoq Afrika, Hindiston yarim oroli va hozirgi Eron hududlarida paxta xo‘jalik ehtiyojlari, hamda bozor uchun keng ko‘lamda ekilardi. Paxta yetishtirish O‘rta Osiyoda birmuncha keyinroq boshlangan bo‘lsada, ko‘p o‘tmay ajdodlarimiz paxtachilik sir-asrorlarini puxta egallashga muvaffaq bo‘lgan edilar.

Sharqshunos olim akademik V. V. Bartold Turkiston tarixi bilan shug‘ullanar ekan, mamlakat xo‘jaligining yetakchi sohasi bo‘lgan agrar sohada dehqonchilik madaniyatining yuksak ekanligini e’tirof qilgandi. O‘rta Osiyoda podsho Rossiyasining agrar siyosatida qishloq xo‘jaligi ayniqsa, paxtachilik serdaromad soha bo‘lib qoldi. Shu bois Turkistonda paxtachilik tarixi olim tadqiqotlarida muhim o‘rin egallardi. Jumladan: “Turkistonda paxta va paxtachilik haqida ilk ma’lumotlar xitoyliklarga tegishlidir. Arxeologik ma’lumotlarda bayon qilinishicha, O‘rta Osiyoda yangi asrning ilk davrlaridayoq paxta ekilganligi ko‘rsatilgan” (1-437). “Tarix otasi” Gerodot bu haqda yanada qiziqarliroq xabarlar bergan. Jumladan: “Ahamoniylar shohi Kserks boshchiligidagi forslarning Yunonistonga yurishi paytida hindu jangchilarining harbiy libos ko‘rinishidagi kiyim-kechaklari jang sharoitida qulay va bejirimligi bilan yunonlarni hayratlantirgandi” (2-334). Bu kiyim-kechaklar asosan Amerikada o‘suvchi tropik daraxt tolasidan tayyorlangan gazlamadan tikilgan edi.

Paxta daraxti o‘simlik sifatida mavjudligi eramizdan oldingi 694-yilga doir toshbitiklarda ko‘rsatilgan (3-48). Akademik V. V. Bartold nazarida, VII-VIII asrlardagi arab istilochiligi manbalarda ifodalanar ekan, Turkiston va G‘arbiy Osiyo munosabatlarini qizg‘in tarzda yuksaklikka ko‘targandi. Ayniqsa, Turkiston paxtachiligining muvaffaqiyatlari o‘zaro hamkorlik va madaniy aloqalar natijasidir. Shu narsa harakterliki, Turkiston paxtachiligi va gazlama tayyorlash hamda paxta tolasini ishlash kabi murakkab jarayonlar takomillashuvi G‘arbiy Eron hamda Xuziston paxta tolasidan tayyorlangan gazlama hunarmandchiligiga andoza bo‘la olgan edi. Akademik V. V. Bartold ta’kidlashicha, O‘rta Osiyo paxtachiligi tarixini o‘rganishda X asr arab geograflari asarlarida paxta o‘simligi va uning tolasidan tayyorlangan gazlama va kiyimlik maxsulotlari “paxta”, “bez”, “bo‘z” rus tilidagi “вязь” grekcha “bysos” tushunchalari paxta gazlamasi nomi sifatida II asr oxiri III asr boshlarida shakllangandir.

Arab sayyohi Ibn Xavqal ko‘rsatishicha, Samarqand viloyatidagi “vedar” hamda Samarqand shahridan 4 farsax shimoli-g‘arbda joylashgan arablar maskani bo‘lmish “Samani” qishlog‘i O‘rta Osiyodagi paxta gazlamasi ishlab chiqaradigan markazlar edi. Sayyoh ta’kidlashicha, “Xurosonda hech bir odam ham yo‘q ediki, uni kiymaydigan: hatto na Amir, na vazir, na qozi, na mulkdor boy, hatto na bir musofir topilmasdi”. Bu matodan tayyorlangan kiyim sariq rangda bo‘lib, o‘ziga xos tovlanar, kishi egnida yumshoq va yoqimli, nazokatli jilvalanarkan; ayniqsa qish mavsumida kiyishga qulaydir. Shuningdek o‘rta asr manbalarida ko‘rsatilishicha Buxoro shahri yaqinida “Zandanachi” qishlog‘i o‘zining paxta tolasidan tayyorlangan gazlamalari, kiyim-kechaklari nafaqat O‘rta Osiyoda, balki boshqa o‘lkalarda ham ma’lum va mashhur edi. Shu sababdan savdogarlar bu mollarni boshqa yurtlarga sotish uchun olib ketishgan. “Buxoro va Urganchlik savdogarlar 1616-1619-yillarda Astraxan va Qozon shaharlari orqali qizil rangli tor va keng “Zandaniy” gazlamalarni rus shaharlariga olib borib sotilgan.

Ma’lumki, sharq qo‘lyozma manbalarida O‘rta Osiyodagi Samarqand, Buxoro shaharlari qatorida Marv va Xorazmda tayyorlangan gazlamalar haqida ham ma’lumotlar mavjud. Jumladan: Istaxriy ko‘rsatishicha Xorazm hunarmandlari tayyorlagan bejirim paxta va ipak gazlamalari sharqda turli mamlakat bozorlariga hatto, uzoq turklar yurtiga ham olib ketilgan. Sayyoh Maqdusiy ma’lum qilishicha paxta gazlamasini va undan tayyorlangan kiyim-kechaklarni turklar yurtiga va qo‘shni Shosh-Toshkent, Farg‘onaga, Isfijob, Chimkentgacha olib borilgan.

XVIII asr ikkinchi yarmidan boshlab musulmon dunyosi uzil-kesil madaniy tushkunlikka tushgach, Yevropa sanoati birinchiligini ta’minlash jarayoni barcha paxta yetishtiruvchi mamlakatlar: Sharqdan to G‘arbiy Yevropagacha, Misrdan to Hindiston hatto Rossiyadan ham paxta keltirilib, gazlama holatiga keltirilgach, uni ishlab chiqaruvchi mamlakatlarning o‘zlariga qaytarilgan.

XIX asr ikkinchi yarmida Xiva qishloq xo‘jaligida paxtachilik yetakchi sohaga chiqib oldi. Xiva 1873-yilda istilo qilingach sharqshunos olim A. L. Kun Xorazmda etnografik ilmiy-tadqiqot o‘tkazar ekan, quyidagi xulosaga kelgan edi. “Mahalliy aholining asosiy mashg‘uloti dehqonchilik bo‘lib, xo‘jalikda paxta yetishtirish muhim

o‘rinni egallaydi. Mahalliy paxta navi “g‘o‘vacha” O‘rta Osiyo navlaridan tolasining nozikligi, mayinligi kabi sifatlari bilan ajralib turardi” (4-32).

XIX asr o‘rtalariga kelib to‘qimachilik sanoat xomashyosi sifatida paxtaga bo‘lgan talab yanada osha bordi. Turkiston paxtachiligini tadqiq qilgan M. A. Terentevning ko‘rsatishicha, xonlikdan:

1) 1864-yili 409575000 so‘m narxda

2) 1865-yili 254210000 so‘m narxda

3)1866-yili 568035000 so‘m narxda

4) 1867-yili 727129000 so‘m narxda paxta sotib olinib, rus sanoatchilariga yetkazib berilgan (5-148). Shuni ta’kidlash joizki, Xiva xonligida paxtachilik tarixi masalasi ilmiy jihatdan o‘rganilmagan. Lekin XIX asr birinchi yarmiga doir ma’lumotlarda xonlikka tashrif buyurgan sayyoh va kuzatuvchilar paxta va paxta yetishtirish haqida juda kam ma’lumotlar qoldirishgan. Jumladan: Xiva xonligini 1873-yilda kuzatgan I. Krauze kundaliklarida “Xorazm paxtasi “g‘uvacha” Urganch, Gurlan, Xo‘jayli va Xiva atroflarida ko‘plab ekiladi” deb yozgandi. Uning kuzatishlarida paxta aprel oyida ekilib, bir tanob yerga 4,5 botmon paxta chigiti sepilgan. Paxta pishib yetilib, terilgan paxta tozalangach 25 botmongacha hosil olingan. Shuningdek paxta savdosini ta’riflar ekan, Xiva xonligining paxta savdosi Rossiya bilan bo‘lishini ko‘rsatar ekan, tarkibida 1000, hatto 2000 tuyadan iborat savdo karvoni erta bahordan paxta, ipak va ko‘nchilik maxsulotlari va boshqa mollar bilan Orenburgga kelib, kuzda Astraxanda hamda Nijniy Novgorod shaharlarida savdo qilib, o‘zlariga kerakli mollarni olgach (qand, sukno, temir, qurol-yarog‘, cho‘yan idishlar bilan) Xivaga qaytib ketganlar” (6-40). XIX asr oxirida Rossiya to‘qimachilik sanoati talablari o‘sishi bilan paxta yetishtirish qishloq xo‘jaligining yetakchi sohasiga aylandi.

XIX asr oxiriga kelib xonlikda paxta yetishtirish ahvolini ilmiy-tadqiqot qilgan V. I. Masalskiy ko‘rsatishicha “xonlikda paxta yetishtirish hajmi unchalik katta emas: har yiliga o‘rtacha 300000 pudni tashkil etib, mahalliy zaruriyat uchun ishlatilganidan qoladigan 100000 pudga yaqinini chor Rossiyasiga yuboradi (7-22).

Paxta ekish va uning parvarishiga jiddiy e’tibor berarkan, Orest Shkapskiy voha dehqonchiligini jiddiy kuzatgan holda asrning oxiriga kelib ikki xil: mahalliy va Amerika navlari o‘stirilgan edi. Mahalliy paxta navi “g‘uvacha” ko‘p hajmda ekilmasdan, yer egalarining shaxsiy xo‘jaligi zaruriyati uchun yetishtirilgan. Bu nav tolasidan dehqon xo‘jaligi hayotida zarur anjomlar: ko‘rpa-to‘shak, to‘n, kiyim-kechaklar, turli liboslar tayyorlangan (8 - 22). Podsho hukumati sanoatchilari O‘rta Osiyoda paxtachilikni rivojlantirishni rag‘batlantira borib, paxta navlarini yaxshilashni yo‘lga qo‘yishgan. Shu boisdan Xiva xonligi va Amudaryo bo‘limida ham paxtaning Amerika navi ekila boshlandi. Ayni damda, har ikkala hududda paxtachilik novatorlari vujudga keldiki, ular birinchilar qatorida o‘z ekin maydonlarida yangi Amerika paxta navlarini sinovdan o‘tkazib, mahalliy sharoitga mos holda iqlimlashtirdilar. Yangi paxta navi vohaning barcha yerlarida, ayniqsa Amudaryo bo‘limida xo‘jalik hayotida muhim rol o‘ynadi. XX asr boshlarida Xiva xonligi tadqiqotchisi S. Kondrashov ta’kidlashicha, “Rossiya davlat apparatining moliya tizimi amerika paxtasi bilan jon kechirardi, Amerika paxtasi butunlay sotuv bozoriga tushib, xo‘jalik hayoti unga bog‘lanardi, hatto xo‘jalik egasi uchun kreditlar ochilib faqatgina hosil ko‘zlanardi”

(9-79). Lekin, agrotexnika nuqtayi nazaridan qaralganda, bu navlarning har ikkalasida ham bir-biridan farqi deyarli yo‘q edi. Mahalliy “g‘o‘vacha”ni ekish uchun “otiz” – yerni tayyorlash uchun kamroq mehnat sarf qilinsa, Amerika navini ekishga tayyorlashda o‘ziga xos tayyorgarlik talab qilinardi. Demak, mahalliy “g‘o‘vacha” paxtasining vegetatsiya davri sal keyinroqqa cho‘zilgani holda uning parvarishi nisbatan qisqa muddatlarda o‘tkazilardi.

Ekishga tayyorgarlik.

Paxta ekiladigan yer maydonlarini tayyorlash ishi ancha oldin boshlanardiki, yer avvalo kuzda shudgor qilingan. So‘ngra yerni mart, aprel oylarida haydab yer tayyorlanadi. Jumladan: har bir desyatina yerga 350-400 arava miqdorida go‘ng (dars) to‘kib yer o‘g‘itlangan. Tadqiqotchi S. Konrdashov “Har bir arava 20 pud hisobida, jami mavsumda 7-8 ming pud mahalliy go‘ng bilan o‘g‘itlantirilgan. Dalaga sepilgan bu o‘g‘itlar esa, omoch va mola yordamida tekislanib, yer yuzasi bo‘ylab taqsimlangan. Paxta ekiladigan maydonlar aprel oyining 10-30 kunlari sug‘orilgan. Sug‘orish muddati avvalo vaqtga qarab, suv kelishiga bog‘liq holda o‘zgarishi, qisqarishi mumkin. Lekin paxta ekiladigan maydonlar kamida 2-3, ko‘pi bilan 6-7 marta sug‘oriladi. Kichkina “ko‘lcha” otizlar birin-ketin sug‘orilgan.

Ekish.

Paxtani ekish tadbirlari aprel oyi oxiridan 10-15-maygacha cho‘zilgan. Urug‘ sepish ishi oxirgi suv berilgan kundan 7-8 kun o‘tgach, o‘tkazilgan. Sepilgan urug‘ omoch yordamida yerga qorilib, yerga yana ikki marta mola urilgan. Urug‘ yaxshilab saralangach, har bir desyatina yerga 2,5 yoki 5 pudgacha urug‘ sepilgan. Paxtani parvarishlash ishi vegetatsion davrda o‘tkaziladi. Jumladan: nihollar qalinini yulib tashlash (yakkalash), ketmonlab tagini yumshatish, yovvoyi o‘tlardan tozalash ishi paxta ekilgandan keyin bir oy o‘tgach, ya’ni paxtada 7-8 barg paydo bo‘lgan holatda o‘tkaziladi. Dehqon bu tadbirni qo‘liga o‘roq ushlagan holda chala o‘sgan paxtani tubi bilan qo‘porib tashlab, yo‘l-yo‘lakay ko‘kargan yovvoyi o‘tlarni ham o‘rib olgan. Shunday qilib, 5 pud miqdorida ekilgan urug‘ning har bir desyatinasi 80-85 foiz darajada unib, nihol beradi. Mabodo urug‘ sepilgan yerda paxta to‘liq ko‘karmasa yoki zararlansa shu maydon qalin sifatida qoldiriladi. Har bir desyatina yerga taxminan bir kv. sajen hisobiga 27-30 tub paxta niholi ko‘karib, o‘rtacha 64800 tub nihol unib chiqadi.

Tadqiqotchi S. K. Kondrashov o‘tkazgan dala tajriba kuzatishlarida Amudaryo bo‘limining Sho‘raxon qishlog‘ida har bir sajenga 27 tub paxta niholi ko‘karib har bir desyatina hisobiga 64800 dona tub nihol unib chiqishiga erishilgan. Kalta minor qishlog‘ida paxta ekilgan yerlarning har bir kv. sajenda 30 tub nihol unib chiqqan. Shunday qilib o‘rta hisobda har bir desyatina paxta chigiti ekilgan yerda 72000 tub paxta niholi undirilgan. Tajriba sifatida ekilgan har uchala joyda ham paxtaning balandligi 61,4 sm dan 67,5 sm gacha ko‘tarilgandi. S. K. Kondrashov tadqiqotlarida paxta parvarishida kuzatilgan yana bir holat borki, u ham paxta ekilgan har bir desyatina yerda ko‘karib chiqqan yot va yovvoyi o‘tlar hajmi 48 pudga teng bo‘lgan. (10 - 45) Paxtachilikning dastlabki parvarishida qilinadigan dehqon mehnati asosan bu o‘simlikni yagonalash, ya’ni qalin ko‘kargan nihollarni yulib tashlash va yerni ketmon

bilan chopiq qilib, paxta niholining tomiri va atrofini suv yurishiga moslab yumshatishdan iboratdir.

Paxtachilikda bunday “operatsiya” dehqon uchun og‘ir mehnat. Uning hisob-kitobicha, har bir desyatina yerga o‘rtacha 14 dan 16 kungacha mehnat sarflangan. Demak, paxta parvarishi og‘ir jismoniy mehnat bo‘lganligi tufayli, dehqon uning ma’lum muddatda muvaffaqiyatli parvarish qilinishini ta’minlash maqsadida 2-3 kun oralig‘ida tanish-bilishlari, qarindosh, og‘a-inilari orasida va jamoaviy hashar – “ko‘mak” uyushtirgan. G‘o‘za parvarishidagi ikkinchi og‘ir “operatsiya” chopiq, o‘roq ishlatmasdan, faqat ketmon bilan qilingan. Ikkinchi chopiq ham birinchi ishlov berishga o‘xshash tarzda har bir paxta tubi atrofida ketmon bilan yumshatilgan va yovvoyi o‘tlar chopib tashlangan. Ikkinchi chopiq paxta novdasini yot o‘simliklar bosib ketishdan saqlaydi.

Paxtani sug‘orish ishi.

Paxta suvni kam talab qiladigan o‘simlik sifatida ma’lum. S. K. Kondrashov o‘z kuzatishlarida birinchi sug‘orishni urug‘ unib chiqqach, nihol bo‘y tortgach, deyarli paxta unib chiqqandan 7-8 hafta keyin o‘tkazilgan. Ikkinchi suv esa, paxtaga gullash arafasida berilgan. Tajriba kuzatishlar davrida dehqon paxtaning holatini ko‘proq kuzatgan. Kuzatish jarayonida o‘simlikning tashqi ko‘rinishida gul rangi asosiy ko‘rsatkichdir. G‘o‘zaga uchinchi sug‘orish ishi esa, urug‘ ekilgach 3-4 oydan keyin o‘tkaziladi. Ayni damda ko‘saklar pishib yetila boshlaydi. Paxta yig‘im-terimiga ko‘saklar yoppasiga pishilib yetilgandan so‘ng kirishilgan.

Yig‘im-terim.

Tadqiqot davrida S. Kondrashov yig‘im-terim mavsumida paxta dalalarini kuzatar ekan, quyidagi manzaraga guvoh bo‘lgandi. Terimchi paxta dalasiga tushiboq, ochilgan paxta ko‘saklaridan tola-momiqlarini terib, xalta-qoplarga solgan. Har bir paxta ekilgan maydon “ko‘lcha” paxtasi yig‘ib olingach, boshqa “ko‘lchaga” o‘tilgan. Shunday tarzda tartib bilan barcha otiz-ko‘lchalar paxtasi yig‘ilgan. Terimchi bir kunda o‘rtacha 2 puddan 2.5 pudgacha tera olgan (11-48). Paxta yig‘im-terim muddati daladagi hosildorlik natijasi bilan bog‘liq bo‘lgan. Quyidagi xo‘jaliklarda turli xil natijalarga erishildi.

Xo‘jaliklar		Yer maydoni kv sajen hisobida	Yig‘ilgan paxta pud hisobida	1 desyatina yer hisobida
1	Qalandarboy xo‘jaligi	2804	130,75	111,91
2	Rayimqulov xo‘jaligi	5492	433,25	189,33
3	Jaslonov xo‘jaligi	2691	111,5	100,33
4	Berdiniyozov xo‘jaligi	2771	185,0	160,23
5	Davlatkeldiev xo‘jaligi	3700	180,0	116,76

Shunday qilib chizmada ko‘rsatilgan umumiy natija “har bir desyatina yer hisobiga o‘rtacha 135,71 pud hosil olingan”. Agar bu ko‘rsatgich o‘zaro taqqoslanganda Sirdaryo paxtakorlari oladigan hosilga nisbatan Xorazm vohasidagi paxtachilikda yuqori darajaga erishilgan (12-30).

Tadqiqotchi aniqlashicha, paxtaning birinchi terimi hosilning deyarli yarim qismini bergan. Kondrashov yana bir holatga e’tibor bergandi: Xo‘jayli bekligidagi A.

Safaryants xo‘jaligida yangi ekilgan yerlarda o‘rtacha ishlov berish muddatida 4 ta terim davomida olingan hosil natijasi quyidagicha edi: 13543 kv sajen ya’ni 5,64 desyatinasi hisobida bo‘lib, har bir desyatina hisobiga 188 pud 15 funt hosil olingan. (13 - 55) Bu natija voha paxtachiligida yuksak natija edi. XIX asr oxiri XX asrga doir Xiva paxtachiligi to‘g‘risida harakterli ma’lumotlar chorizmning Amudaryo bo‘limi amaldori tadqiqotchi O. Shkapskiyning asarlarida ham mavjud. U o‘z kuzatishlarida xorazmlik dehqonning paxta yetishtirish tashvishlariga batafsil to‘xtalgan. Jumladan: paxta ekiladigan yerni tayyorlashda “paxta urug‘i sepiladigan har bir desyatina yerga 800 arava mahalliy dars (go‘ng) qum bilan aralashtirib o‘g‘itlangan. Bu maydon 5-10 marta omoch, mola bilan haydalgan. Kamida 3-4 marta sug‘orilgach, aprel oyidagina urug‘ sepilgan. Paxta niholi nish urib ko‘karib chiqqach, yoz bo‘yi deyarli sug‘orilmagan. Chunki, bu davrda paxta o‘simligi suv talab qilmaydi. Lekin zaruriy hollardagina bir, ikki marta sug‘orilgan. Butun yoz bo‘yi chopiq qilinib, qo‘shimcha tarzda o‘g‘itlantirilgan. Avgust oyining boshida terimga kirishilgan. Sentyabr oyi oxirigacha uch marta paxta yig‘ib-terib olingan. Har bir desyatina paxta maydonidan 100 pud ko‘rak yig‘ilib, uning momiq paxtasi chanog‘idan qo‘lda sug‘irib olingan. Paxta orasidagi chigit esa qo‘l bilan tozalangan. Shkapskiy paxta navlari haqida fikr yuritar ekan, “Xiva paxtasini yetishtirish, uni olib ketish arzonroq tushadi, lekin mahalliy g‘o‘za, Amerika naviga o‘xshamaydi. Ko‘rak ochilmasdan tarsillab yoriladi, xolos. Uning momig‘ini yig‘ib olish “qiyinroq ish”. Mahalliy paxta yetishtiruvchi dehqon daromadlari haqida fikr yuritar ekan: “har bir desyatina paxta maydonidan 100 pud ko‘rak olinsa, har bir desyatina paxta yerdan 20 pud toza paxta momig‘i olinib, naviga qarab 4 rubldan 7 rublgacha daromad qilishi mumkin” (14-50).

Shunday qilib, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Xiva xonligida paxta yetishtirish mustamlakachilik tuzumida iqtisodning yetakchi sohasiga aylandi. Tadqiqotchi V. Lobachevskiyning 1909-yilgi ma’lumotlarida xonlik paxtachiligida 34775 desyatina yer paxta yetishtirish ajratilgan. Demak xonlikda paxta ekilgan maydon jami ekin yerlarining 15,8 % ni tashkil qilgan.

1910-yili o‘tkazilgan aholi ro‘yxatiga binoan Mang‘itda 6250 tanob yer paxta bilan band bo‘lib, ekin yerlarining 25 %, Xonqa bekligida 3000 tanob yerda 20 %, Qilichboyda esa 3600 tanob yerda 20 %, Yangi Urganch bekligida 5000 tanob yerga paxta ekilib 20 % ga teng bo‘lgan. Xiva bekligida 7500 tanob yerga paxta ekilgan bo‘lib, bu 15 % paxta maydonlarini tashkil etgan (15-58).

XIX asr oxirida xonlik paxtachiligini tadqiq qilgan V. Masalskiy “jami ekin maydonlarning deyarli 10 % ga paxta ekiladi” (16-18) deb yozgan edi. Amerika Qo‘shma Shtatlari hamda Kavkazortida ekilgan paxtadan olingan hosil har bir desyatina yerga nisbatan 15 pudni tashkil qilgan, Xiva xonligida esa, har bir desyatina hisobiga 20 dan 25 pudgacha hosil beradi” (17-20), deb yozgan edi. Shuningdek, M. Ivanin ham o‘z tadqiqotlarida “har bir tanob hisobiga 15 dan 25 pudgacha hosil olinadi” (18-54) deya ta’kidlaydi.

Chorizmning O‘rta Osiyoga istilochilik yurishlarining siyosiy-iqtisodiy sabablari Turkistonda Amerika paxtasining tarqalishini kuchaytirib, XX asrning 70-yillarida Yevropada paxta narxining ko‘tarilishi oqibatida o‘lkada paxtachilikni o‘stirishga turtki bo‘ldi. Shu bois rus sanoatchilari O‘rta Osiyoda paxtadan katta daromad olish

uchun hech narsadan tap tortmadilar. Xivada mahalliy paxtaning “g‘o‘vacha” navi Buxoro, Samarqand, Farg‘onada ham mahalliy “g‘o‘za”, “qizil po‘choq” paxtasi ekilardi.

Mahalliy paxta navlari orasida Xorazmda yetishtiriladigan “g‘o‘vacha” o‘zining sifati va mayinligi jihatidan ustunlik qilgan. Bu nav tolasining uzunligi o‘rta hisobda 20 mm gacha cho‘zilgan. Ayniqsa, 1866-yildan boshlab Turkistonda Amerika paxtasini ekish yo‘lga qo‘yilgach (19-27), paxtachilik alohida davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Turkistonda, Xiva va Buxoroda paxtachilikning rivojlantirilishi orqali o‘lkaga katta mablag‘lar olib kelindi. Lekin, bu mablag‘lar chor hukumatining amaldorlari, banklar, firmalar, sudxo‘rlarning foydasiga o‘zlashtirildi. O‘lkada kambag‘allar xonavayron bo‘ldi. Ayniqsa paxta oldi-sotdisi bilan shug‘ullangan firmalar, dallollar va boshqa vositachilar o‘z xalqini aldab, qimmat sotib, mahalliy aholini o‘rgimchak iplariga o‘xshash panjalariga ilindirib olgach, ulardan qutilishning hech iloji bo‘lmasdi (20 – 16).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бартольд В. В. Хлопководство в Средней Азии с исторических времён до прихода русских. Собр соч том-1, М.1963 с.437.

2. Геродот. История в девяти книгах. Спб.2022, седьмая книга с. 334.

3. Хвостов М. История восточной тоговли. Казань,1907, с. 48-49

4. Кун А. Л. Культурный оазис Хивинского ханство. // Туркестанские ведомости. 1873 №32

5. Терентьев М. А. Россия и Англия в борьбе за рынок. Спб. 1876, с 148.

6. Краузе И. Известие императорского русского географического общества. 1874, т.х. с.40

7. Масальский В. И. Производство хлопка в России и попытки введения культуры хлопчатника в южных губерниях и в Предкавказье. Спб. 1889 с. 22.

8. Шкапский О. “Как Хивинцы ведут полевое хозяйство на своих безводных землях”. М. 1900 с.

9. Кондрашов С. Орошаемое хозяйство и водопользование Хивинского оазиса. М. 1916. с.79

10. Шкапский О. “Как Хивинцы ведут полевое хозяйство на своих безводных землях”. М.1900 с.

11. Лобачевский В. “Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Хивинский район. Ташкент. 1912. С 58

12. Масальский В. И. Производство хлопка в России и попытки введения культуры хлопчатника в южных губерниях и в Предкавказье. Спб. 1889, с 18.

BO‘LG‘USI GEOGRAFIYA O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA O‘RTA OSIYO TABIIY GEOGRAFIYASINI O‘QITISH MUAMMOLARI

Matsaidova Sayyora Xudayberganovna

Abu Rayxon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Geografiya” kafedrasi Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Oliy ta’limda bo‘lg‘usi geografiya o‘qituvchilarini tayyorlashda Universitet va pedagogika institutlarining geografiya yo‘nalishlarida o‘qitiladigan asosiy fanlardan biri O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasini o‘qitish muammolariga bag‘ishlanadi. Maqolada O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasini o‘qitishda ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarni o‘qitish muammolari va echimlari bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi, ma’ruza, amaliy mashg‘ulot, interfaol metodlar, Hemis Moodle muhit, Tarsiya Pazll, orografik sxemasi, GAT, 3D model dasturi

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы преподавания естественной географии Центральной Азии, одного из основных предметов, преподаваемых на географических факультетах университетов и педагогических институтов при подготовке будущих учителей географии в высших учебных заведениях. В статье описаны проблемы и пути решения лекционных и практических занятий по преподаванию естественной географии Средней Азии.

Ключевые слова: Естественная география Центральной Азии, лекция, практические занятия, интерактивные методы, среда Hemis Moodle, Тарсия Пазл, орографическая схема, GAT программа, 3D-моделирования.

Abstract. This article examines the problems of teaching the natural geography of Central Asia, one of the main subjects taught in geographical departments of universities and pedagogical institutes in the preparation of future geography teachers in higher education institutions. The article describes the problems and solutions to lectures and practical classes in teaching the natural geography of Central Asia.

Keywords: Natural geography of Central Asia, lecture, practical exercises, interactive methods, Hemis Moodle environment, Tarsia Puzzle, orographic diagram, GAT program, 3D modeling.

Oliy ta’limda bo‘lg‘usi geografiya o‘qituvchilarini tayyorlashda Universitet va pedagogika institutlarining geografiya yo‘nalishlarida o‘qitiladigan asosiy fanlaridan biri O‘rta Osiyo tabiiy geografiya kursining endilikda ahamiyati ortib borishi shubhasiz. Hozirgi o‘quv rejasida O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi kursini o‘rganish uchun ajratilgan soatlar fan talabini qondirmaydi. Nazariy masalalarni yoritishga ajratilgan vaqt ham hozircha juda ulkan tabiiy geografik o‘lka hisoblanmish O‘rta Osiyo uchun kam hisoblanadi. Respublikamizda Oliy ta’limda O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasini o‘qitish va o‘qitishni takomillashtirish haqidagi ko‘rsatmalarida talaba va o‘quvchi - yoshlarning mustaqil izlanishlari, o‘qib - o‘rganishlariga g‘amxo‘rlik qilish, buning uchun zarur shart - sharoitlar jumladan, tegishli o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlash haqida ham tez-tez to‘xtalmoqda. Shuningdek, ma’ruza darslarni o‘qitishni takomillashtirish, amaliy mashg‘ulotlarni olib borish tizimini kuchaytirish, ayniqsa talabalarning mustaqil ishlash soatlarini ko‘paytirishga e’tibor qaratilmoqda. Shu

boisdan Oliy o‘quv yurtlarining geografiya yo‘nalishi talabalari o‘zlari yashab turgan, turkiy xalqlarning kindik qoni to‘kilgan, go‘zal maskan bo‘lmish O‘rta Osiyo o‘lkasining tabiiy komponentlarini chuqur o‘rganish uchun O‘rta Osiyo mavzulariga tegishli har bir manbalarni to‘la o‘rganishlari lozim. Talabalar ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va mustaqil ishlarni chuqur o‘rganishlari talab qilinadi. O‘rta Osiyoning landshaft komponentlarining xilma - xillik, biroq bir-biriga o‘zaro bog‘liq va aloqadorlik qonuniyatlarini tushunib oladilar [1,4].

Bugungi kunda bo‘lg‘usi geografiya o‘qituvchilarini tayyorlashda O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasini o‘qitish metodlari bo‘yicha bironta maqola yoki uslubiy, o‘quv qo‘llanma, darsliklar yaratilishi muammoligicha qolmoqda.

O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi Oliy ta’lim muassasalarida Jahon tabiiy geografiyasi tarkibida III qism. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi fani hisoblanadi.

Ushbu fanni o‘qitishda dars jarayonlarida innovatsion o‘qitish metodlarini joriy etish, zamonaviy texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish, darslarda talabalarni faol ishtirok etishga undash va ularning fikrlarini inobatga olish muhimdir. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasini o‘qitishda talabalarni, loyiha asosida tadqiqotlar o‘tkazish va amaliy mashg'ulotlar o‘tkazishga moslashgan dasturlarni kiritish orqali O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasiga qiziqishini oshirish imkoniyatlarini yaratish kerak.



1-rasm. O‘rta osiyo tabiiy geografiyasini o‘qitishda ma’ruza mashg‘ulotlarini tashkil etish tuzilmasi.

Barcha ta’lim yo‘nalishlarida Oliy ta’limni rivojlantirish, takomillashtirish jarayonlari olib borilmoqda, buning natijasi ta’lim standartlarini modernizatsiyalash, ta’lim jarayonini tashkil etishning yangi shakllarini qo‘llashga qaratilgan. Mamlakat

ta’lim tizimini modernizatsiyalashning bosh maqsadi ijtimoiy iqtisodiy shart-sharoitlarga to‘la javob bera oladigan ta’limning yangi sifatiga erishish belgilangan. Bu esa XXI asr o‘qituvchisiga doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarda ish olib borishga to‘g‘ri kelmoqda, bu o‘z navbatida uning kasbiy sifatlari takomillashtirilishini talab qiladi. Bu esa bugungi kun o‘qituvchisining ta’lim texnologiyalari sohasida qo‘shimcha tayyorgarlikka ega bo‘lishi zarurligini ko‘rsatmoqda [6].

Bo‘lg‘usi geografiya o‘qituvchilarini tayyorlashda O‘rta osiyo tabiiy geografiyasini o‘qitishda dastlab ma’ruza darslarini o‘qitish muammolariga to‘xtalsak (**1-rasm**).

Amaliy mashg‘ulotning o‘ziga xos tomoni o‘quv topshiriqlarining fan mazmunidagi o‘rni, o‘qituvchi va talaba faoliyatining tashkil etilishi bilan tavsiflansada, amaliy mashg‘ulotning vazifasi amaliy va juda tor asosda belgilanadi. U asosan ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlarda egallagan bilimlar bayon etilgan bilimlar, bayon etilgan ma’lumotlarni chuqur va puxta o‘rganishga talaba mustaqil ishining sifati va o‘zlashtirishning samarasini aniqlash bilimlarni ko‘nikma va malakaga aylantirish maqsadida tashkil qilinadi. Fan-texnika taraqqiyoti ta’lim jarayoniga asosan yangicha yondashishni, ta’limning faol metodlari va texnologiyalarini qo‘llashni talab qilmoqda, chunki xotira kuchiga asoslangan an’anaviy ta’lim berish usuli ta’lim oluvchilarning fikr yuritish va bilish faolligining o‘sishiga ham yordam beradi [2].



2-rasm. Xitoy Tyan-Shanining so‘nggi paleozoy - mezozoy xaritasi [3].



3-rasm. Tyanshan tog‘ tizmalari [5].

Ma’ruza va amaliy mashg‘ulot darslarida O‘rta Osiyo tog‘ tizmalarini yo‘nalishlarini orografik sxemasi orqali o‘rganish bir qancha muhim qadamlar va usullarni talab qiladi. Orografik sxemalar - bu tog‘ tizmalarining shakli, yo‘nalishi, balandligi va joylashuvi to‘g‘risida ma'lumot beruvchi vizual materiallardir (**2-3rasm**). Ushbu sxemalar, odatda, geologiya, geografiya va tabiatshunoslik sohalarida muhim o‘rin tutadi. Quyida tog‘ tizmalarini orografik sxemasi orqali o‘rganish metodikasi haqida ma’lumot beriladi:

- ✓ Orogragrafiya tushunchasini tushuntiring - tog‘ tizmalari va ularning umumiy shakllari, joylashuvi va boshqa faktorlar;
- ✓ Orografik sxemada qanday elementlar (masalan, tog‘ cho‘qqilari, qirlar, vodiylar) ko‘rsatilishini tushuntirish;
- ✓ Ma’lumotlarni to‘plash: O‘rganilayotgan hududda mavjud bo‘lgan xaritalar, ilmiy maqolalar va tadqiqotlardan foydalanish. Geo-xaritalar, rasmlar va toposxemalardan foydalanish;
- ✓ Talabalarga orografik sxemalarni qanday qilib yaratish bo‘yicha bosqichma-bosqich ko‘rsatmalar berish, turli dasturlardan foydalanish;
- ✓ Talabalarni sxema ustida ish olib borishga undash. Ular o‘zlari topgan elementlarni tahlil qilib, tog‘ tizmalarning yo‘nalishlari, balandligi va o‘zaro joylashshi haqida tahlil qilishlari zarur;
- ✓ Talabalar sxemalar asosida muhokama qilishlari, o‘z natijalarini baham ko‘rishga va bir-biri bilan muhokama qilishga jalb qilish;
- ✓ Geografik axborot tizimlaridan foydalanish orqali o‘rganish jarayonini osonlashtirish va chuqurlashtirish. GAT yordamida tuproq, balandlik va boshqa parametrlar bo‘yicha ma'lumot to‘plash;
- ✓ 3D modellashtiring, dasturlardan foydalanib, tog‘ tizmasining 3D modellarini yaratish va o‘rganishni yanada qiziqarli qilish imkoniyati tug‘iladi.
- ✓ Talabalarning sxema bilan ishlash ko‘nikmalarini baholash uchun, ularning tayyorlangan sxemalarini o‘rganing. Ular orqali tog‘ tizmasining yo‘nalishi va tuzilishini qanday tushunganini baholash.
- ✓ Talabalardan orografik sxemalarini guruhlar ichida taqdim etishlarini so‘rash. Ular o‘z tadqiqotlari va o‘rganish jarayonlarida erishgan natijalarini baham ko‘rishlari mumkin.

Xulosa: O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasini o‘qitish, bo‘lg'usi geografiya o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonda tog‘ tizmalarining yo‘nalishlarini orografik sxemalari orqali o‘rganish, talabalarga tog‘ tizmalari va ularning geologik-strukturaviy tuzilishi, joylashuvi va tabiiy jarayonlar haqidagi bilimlarni oshirishda katta yordam beradi.

Orogragrafik sxemalar yordamida o‘rgatilgan ma’lumotlar, talabalarning tafakkurini, izohli fikrlash qobiliyatini oshiradi va tabiiy jarayonlar bilan bog‘lanishlarini ko‘rsatadi. Bu metod talabalarni amaliy tadqiqotlar o‘tkazish hamda mavjud xaritalar va diagrammalar asosida o‘rganishga jalb qiladi.

O‘rta Osiyo geografiyasini o‘qitishda bir qator muammolar mavjud. Jumladan zamonaviy texnologiyalar va dasturlarni dars jarayonida samarali foydalanishda o‘zaro bog'liqlikni oshirish zarurati muammolar qatoriga kiradi.

Zamonaviy texnologiyalardan, jumladan GIS dasturlari va 3D modellashtirishdan foydalanish orqali o‘quv jarayonini yanada takomillashtirish mumkin. Bu jarayon nafaqat geografik tushunchalarni osonroq o‘zlashtirishga, balki amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasini o‘qitishda tog‘ tizmalarini o‘rganish jarayonini samarali tashkil etish o‘qituvchilar uchun muhim vazifa hisoblanadi. O‘quv jarayonida innovatsion metodlar, zamonaviy texnologiyalar va orografik sxemalar orqali ta’limga yondashuvni yaxshilash, bo‘lajak geografiya o‘qituvchilarining o‘z sohasida yuqori malakali mutaxassislar bo‘lib yetishishlariga yordam beradi. Ushbu qadamlar natijasida, talabalar tabiiy geografiyaning murakkab jarayonlarini chuqurroq tushunish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Berilgan metodika orqali o‘quvchilar tog‘ tizmalarining yo‘nalishlari, tuzilishi va o‘zaro bog‘liqligini chuqurroq tushunishlari va tahlil qilishlari mumkin. Bu nafaqat nazariy bilimlarni rivojlantiradi, balki amaliy ko‘nikmalarni ham oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Baratov P., Mamatqulov M., Rafiqov A., O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi. – Toshkent: 2002.

2. Muxamedov Sh.M. Oliy ta’limda mutaxassislik fanlarning elektron-dasturiy va metodik ta’minotini takomillashtirish // Pedagogik akmeologiya xalqaro ilmiy-metodik jurnal. – Buxoro: 2023. 5 (7). 160-166 b.

3. Jolivet, M. Heilbronn, Gloria,Robin, Cécile,Barrier, Laurie,Bourquin, Sylvie,Guo, Zhaojie, Jia, Yaozhu, Guerit, Laure,Yang, Wei,Fu, Bihong. (2013). Reconstructing the Late Palaeozoic – Mesozoic topographic evolution of the Chinese Tian Shan: Available data and remaining uncertainties. Advances in Geosciences. 37. 7-18. 10.5194/adgeo-37-7-2013.

4. Ibragimova R.A. O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasi (darslik). – T.: “Universitet”, 2023.

5. http://www.mountain.ru/useful/dictionaries/2006/klass/img/Image1054.jpg

6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Geografiya]

O‘ZBEKISTONDA TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASIGA XOS BO‘LGAN BA’ZI BIR JIHATLAR

Atadjanov Ilhom Sharipovich
Urganch davlat universiteti, geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Maqolada tashqi mehnat migratsiyasi, uning mamlakat iqtisodiyotidagi o‘rni va roli, tashqi mehnat migratsiyasining qisqacha rivojlanish tarixi, tashqi mehnat migratsiyasining mamlakatdagi demografik jarayonlarga ta’siri, tashqi mehnat migratsiyasining huquqiy masalalari qarab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Migrant, tashqi mehnat migratsiyasi, aholi bandligi, ishsizlik, Xalqaro Mehnat Tashkiloti, globallashuv, migratsiya siyosati.

Аннотация. В статье рассмотрены вопросы внешней трудовой миграции, место и роль внешней трудовой миграции в экономике страны, краткая история внешней трудовой миграции, влияние внешней трудовой миграции на демографические процессы, правовые вопросы внешней трудовой миграции.

Ключевые слова: Мигрант, внешняя трудовая миграция, занятость населения, безработица, Всемирная Организация Труда, глобализация, миграционная политика.

Abstract. The article discusses issues of external labor migration, the place and role of external labor migration in the country’s economy, a brief history of external labor migration, the influence of external labor migration on demographic processes, legal issues of external labor migration.

Keywords: Migrant, external labor migration, employment, unemployment, World Labor Organization, globalization, migration policy.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlar jadallashgan hozirgi davrda aholini ish bilan ta’minlash, uning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, kambag‘allikni qisqartirish dolzarb ahamiyatga ega masalalardan hisoblanadi. To‘g‘ri, bozor munosabatlari sharoitida aholini to‘la bandligini ta’minlab bo‘lmaydi, bunga hatto dunyoning eng rivojlangan mamlakatlarida ham erishilmagan, qolaversa bugun sobiq rejali iqtisodiyot tuzumidan farqli o‘laroq, fuqarolarning mehnat qilishi ixtiyoriydir. Shunga qaramasdan, mamlakatimizda ish o‘rinlarini yaratish masalasiga eng muhim va dolzarb masala sifatida qaraladi va bu borada bir qator ijobiy natijalarga ham erishilmoqda.

Tashqi mehnat migratsiyasi aholi bandligini ta’minlashning muhim bir yo‘nalishi sifatida qaraladi va bu ko‘pgina mamlakatlar bandlik siyosatining ajralmas bir qismidir. Tashqi mehnat migratsiyasi – yollanib ishlovchilarning ish qidirib davlat chegaralari orqali harakat qilishidir. Tashqi mehnat migratsiyasiga birinchi marta Xalqaro mehnat tashkiloti (HMT) ning 1919-yilda bo‘lib o‘tgan Birinchi Xalqaro konferensiyasida: “Ishchi migrant yollanib ishlash maqsadida bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga ko‘chib yuruvchi shaxsdir” deya ta’rif berilgan.

Tashqi migrantlarga xos bo‘lgan umumiy bir xususiyat shuki, ya’ni ishchi migrant o‘zi tug‘ilib, fuqaroligini olgan mamlakatdan tashqariga jiddiy sabablarga ko‘ra, 12 oydan ortiq chiqib ketishidir. HMT ma’lumotlari bo‘yicha, bugungi kunda dunyoda

200 mln. dan ortiq ishchi migrant mavjud. Migrantlarning aksariyat qismi esa rivojlangan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Sobiq Ittifoqning parchalanishi postsovet respublikalarida millionlab insonlarni tirikchilik maqsadida o‘z mamlakatlaridan chiqib ish izlab ketishga majbur etdi. BMT Bosh assambleyasi 1990-yilda juda muhim bir hujjatni, ishchi migrantlarning huquqlarini himoya qilish maqsadida mehnat migrantlari va ularning oilalarini huquqiy hiatdan himoyalash, mamlakatlarning tashqi migratsiyasi borasidagi siyosatini umumiy tamoyillarini qabul qilish, uni muvofiqlashtirish uchun halqaro Konvensiyani imzoladi.

Bugungi globallashuv va iqtisodiyotdagi innovatsiya jarayonlari tashqi migratsiyani jarayonini yanada jadallashtirdi. Bunga axborot, transport va inson huquqlari sohalarida amalga oshirilgan uch omil katta turtki berdi. Bular, axborot ishchiga xorijdagi *imkoniyatlar* to‘g‘risida ma’lumot bersa, *transport* esa ularning ko‘chib yurishini osonlashtirdi, inson huquqlari esa *“qochoq”*larning sonini ko‘paytirdi. Migratsiyaga migrantning o‘z mamlakatida va boradigan mamlakatidagi turmush sifatini taqqoslash asosiy sabablardan bo‘lib hisoblandi.

Tarixdan ma’lum, migratsiya jarayonlari XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida ham bir necha sabablar tufayli juda faollashgan edi. Ishchilarning Yevropadan (Rossiya ham bundan mustasno emas) Amerikaga ko‘chishi tezlashdi. XIX asrning 40-yillarida esa Irlandiyadan AQSH ga yo‘nalgan migratsiya jarayonlari kuchaydi. 80-yillarga kelib, xuddi shunday holat Italiya va Sharqiy Yevropa mamlakatlarida ham kuzatildi. XIX asrning oxirida AQSH dagi iqtisodiy vaziyatning yomonlashuvi (Buyuk depressiya) migratsiya jarayonlarini anchagina susaytirgan edi.

XX asrning 20-yillarida Birinchi jahon urushidan so‘ng ko‘pchilik mamlakatlarda aholining yashash sharoitlarini qiyinlashib qoldi, natijada Yevropadan AQSH ga ommaviy ko‘chish kuzatildi. Ikkinchi jahon urushidan keyin ham ushbu jarayonlar takrorlandi. Bu davrda ishchi migrantlarning uch “*oqimi*” yuz berganini aytish mumkin.

Birinchidan, urushdan talofat ko‘rgan mamlakatlardan “oqilllar”ning ya’ni, yuqori malakali mutaxassislar va ular oilalarining Shimoliy Amerikaga ko‘chishi kuzatildi. Ikkinchidan, Vengriya, Vetnam va Kubadagi siyosiy voqyealar sababli okean ortiga ishchilarning ko‘chishi ham kuchaydi. Uchinchidan, bu davrda AQSH ga keluvchilarning soni Meksika, Karib havzasi va Osiyo mamlakatlari hisobiga ortdi. XIX-XX asrlarda aholi Xitoydan Janubi-Sharqiy Osiyo va Shimoliy Amerika mamlakatlariga ko‘plab ko‘cha boshladi. XX asrning 60-yillaridan Yevropada migratsiya jarayonlari intensivlashdi. Eski dunyo Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Yugoslaviya va Turkiya fuqarolari mehnatidan samarali foydalana boshlandi. Aytish mumkinki, hozirgi davrda dunyoda xorijlik ishchilarning soni jihatidan Buyuk Britaniya, Germaniya, Belgiya va Fransiya kabi mamlakatlar yetakchilik qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligi ishchi kuchi tashqi migratsiyasi jarayonlarini ancha faollashtirdi. Bunga postsotsialistik makondagi yirik geosiyosiy o‘zgarishlar ham sabab bo‘ldi. Ijtimoiy va iqtisodiy tanazzul, milliy, etnik mojarolarning avj olishi katta miqdordagi aholining *“ilojsiz*” ko‘chishiga sabab bo‘ldi.

Aytish mumkinki, tashqi migratsiya sabablari va shakllari takomillashib, mamlakatlarning ichki iqtisodiy va ijtimoiy ahvoliga salbiy ta’sir ko‘rsata boshladi.

Yana bir muhim jihat, bozor iqtisodiyotiga o‘tish milliy va tashqi mehnat bozorlaridagi ish haqi o‘rtasidagi jiddiy farqlarni keltirib chiqardi. Bu migratsiyaning asosiy sabablaridan bo‘lib, uning mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga jiddiy ta’siri borligini ta’kidlash mumkin.

O‘zbekistonda tashqi mehnat migratsiyaning milliy iqtisodiyotimiz uchun ijobiy jihatlari quyidagilarda ko‘rinadi: migratsiya mamlakat mehnat bozoridagi tanglikning oldini oladi, ijtimoiy keskinlikni yumshatadi, aholini ish bilan ta’minlash imkoniyatlarini oshiradi. Migrantlar mamlakatga malaka va ko‘nikmalari takomillashib, mutaxassisligi bo‘yicha bilimlari oshgan, xorijiy tillardan birini o‘rgangan tarzda qaytib keladilar. Tashqi migratsiya mamlakatga xorijiy valyutaning kirib kelishi uchun keng yo‘l ochadi, migrantlarning turmush sharoiti va darajasini ortishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, migratsiya mehnat resurslarini eksport qiluvchi mamlakatga muayyan ma’noda zarar ham keltirishi mumkin. Jumladan, mehnatga layoqatli yoshdagi ishchi kuchining yo‘qotilishi natijasida aholining yosh tarkibida “*qarish*” jarayoni kuzatiladi. Davlatning mamlakatdan chiqib ketgan kadrlarga ishlatgan sarf harajatlari yo‘qoladi, ayniqsa, malakali kadrlarning chetga chiqib ketishi mamlakat uchun katta yo‘qotish bo‘lishi mumkin.

Ana shu omillarni hisobga olgan holda, tashqi migratsiya masalalari mamlakatning ijtimoiy iqtisodiy siyosati nuqtai nazaridan samarali tarzda tartibga solinishi va boshqarilishi zarur. Tashqi migratsiya masalalarini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz.

1. Migratsiya masalalarining mamlakat iqtisodiyotiga ta'sirining rang-barangligini e’tiborga olib, uning ishchi kuchini qabul qiluvchi va eksport qiluvchi davlatlar uchun birdek manfaatli bo‘lishini nazarda tutish lozim. Buning uchun tashqi migratsiya masalalari davlat tomonida tartibga solib turilishi talab etiladi.

2. Mamlakat migratsiya siyosatining asosi sifatida davlat emigratsiyaning uch bosqichini (ishchining mamlakatdan chiqib ketishi, xorijda ishga joylashishi va mamlakatga qaytib kelishi) munosib tarzda tartiblash imkoniyatlariga ega bo‘lishi shart. Amalda bu siyosat quyidagi tamoyillarni hayotga tadbiq etilishiga uzviy ravishda bog‘liq bo‘ladi:

- fuqarolarning ko‘chib yurish va ishga joylashish borasidagi umume'tirof etilgan huquqlariga rioya qilish;
- migrantlarning mamlakatga qaytib kelish imkoniyatlari borasidagi kafolatlarini ta’minlash;
- ishchi migrantlarning o‘z mamlakatlariga o‘tkazayotgan pul o‘tkazmalari kirimlarini barqarorligi va xavfsizligini ta’minlash;
- talab kam bo‘lgan mutaxassisliklar bo‘yicha ishlayotgan ishchilarni chetga chiqish imkoniyatlarini orttirish orqali ishsizlik darajasining pasayishiga ko‘maklashish;
- iqtisodiyotning ishchi kuchiga talabi yuqori bo‘lgan sohalarida ishlovchilarning chetga chiqish imkoniyatlarini nazorat qilish va zarur holatlarda cheklash;

- xorijda ishlab, malakalarini oshirib kelgan va milliy iqtisodiyotning jadal rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan ishchilarni ishga joylashtirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali mehnat bozorini yanada sog‘lomlashtirishga erishish;
- ishchi migrantlar uchun ijtimoiy kafolatlar yaratish va hokazolar.

O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun “tanqis” bo‘lgan kasb egalarini chetga chiqib ketishini oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur bo‘ladi:

– mamlakatga zarur kasb egalari chetda kelish borasidagi qatiy kvotalarni aniqlash;

– ichki bozorda bandlik borasida muammoli hududlarni aniqlab, bandlik borasidagi ustuvorliklarni belgilash va boshqalar.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiyasiga muvofiq mehnat migratsiyasi masalalarini tartibga solishda hukumatimiz tomonidan ushbu masalaning ijrosini ta'minlash maqsadida chet el va mamlakatimiz hududlarida mehnat faoliyatini olib borayotgan ishchi migrantlar hayotini o‘rganish ko‘lamini oshirish ustivor vazifalardan biri ekanligini ko‘rsatmoqda. Mazkur masalani o‘rganishda albatta tashqi migratsiya bozorida kasbiy ta'limni ahamiyatini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлигининг йиғма таҳлилий маълумотлари. 2020-й.
2. Трудовая миграция в республике Узбекистан: социальные, правовые и гендерные аспекты.: Сб. ст. / Отв. ред. Е. В. Абдуллаев.: Ташкент, 2008. – 204 с.
3. Причины и мотивы радикализации трудовых мигрантов из стран центральной Азии на территории России М.: 2017, с 37.
4. Қўчқоров Ш. Ташқи меҳнат миграцияси: муаммо ва ечимлар. Тошкент, 2018.

SUG‘ORILADIGAN HUDUDLARDAGI KOLLEKTOR-ZOVUR HAVZALARINING ICHKI STRUKTURASINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI

Tajiyev Qudrat Qadirberganovich
UrDPI “Tarix va geografiya” kafedrasi mudiri (PhD)

Annotatsiya. Maqolada sug‘oriladigan hududlardagi kollektor-zovur havzalarining ichki strukturasini tashkil qiluvchi kichik deltalar o‘rganilgan. Kichik deltalar shakllanishida oqim va relyefning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Kolektor-zovur havzasi, kichik delta, relyef, yer usti suv oqimi, grunt suvi.

Аннотация. В статье изучаются малые дельты, формирующие внутренню структуру коллекторно-дренажных бассейнов на орошаемых территориях. Подчеркивается значение течения и рельефа в формировании малых дельт.

Ключевые слова: Коллекторно-дренажный бассейн, малая дельта, рельеф, поверхностный сток, подземные воды.

Abstract. The article studies small deltas that form the internal structure of collector-drainage basins in irrigated areas. The importance of flow and relief in the formation of small deltas is emphasized.

Keywords: Collector-drainage basin, small delta, relief, surface runoff, groundwater.

Kirish. Hozirgi vaqtda har bir obyektning, shu jumladan sug‘oriladigan hududlarning ichki strukturasini o‘rganish eng asosiy muammolardan biridir. Buning uchun eng avvalambor sug‘oriladigan hududlarda kollektor-zovur havzalarini ajratish muhum rol o‘ynaydi. Amudaryo hozirgi deltasining chap qirg‘og‘ida ikkita kolektor-zovur havzasi ajratilgan, ya’ni Ustyurt va Qo‘ng‘irot kollektor tarmoqlari tizimi. Biz tahlil qilayotgan Qo‘ng‘irot kollektor tarmoqlari tizimi o‘zining ichki strukturasi bilan Amudaryo hozirgi deltasidagi qolgan kollektor-zovur havzalaridan farq qiladi.

Asosiy qism. Har bir kollektor-zovur havzasining funksional butunligi delta sharoitida har xil yoshdagi kichik deltalardan tashkil topgan bo‘ladi. Shuning uchun ham asosiy e’tiborni ana shu kichik deltalardagi strukturaning tartibini o‘rganishga qaratish lozim. Har bir kichik delta (Uldaryo, Raushan va boshqalar) o‘z navbatida Amudaryo hozirgi deltasining elementi bo‘lib hisbolanadi va quyidagi qismlardan tashkil topgan bo‘ladi: boshlang‘ich nuqta, o‘rta va quyi qismlardan. Misol uchun: Qo‘ng‘irot kollektor tarmoqlari tizimidagi Uldaryo deltasini olib qaraylik. Bu delta Krantau qirining taxminan 10 km janubidan, ya’ni Amudaryoning chap qirg‘og‘idagi o‘zanbo‘yi balandliklaridan boshlanadi. O‘rta qismi Qo‘ng‘irot shahri atroflarida bo‘lsa, quyi qismi Sudoche ko‘liga tutashib ketadi. Uldaryoning bu qismlari bir-biridan o‘zlarining ichki tuzilishlari bilan farq qiladi.

Landshaftni hosil bo‘lishida va dinamikasida uchta tabiiy-geografik omil mavjud, ya’ni iqlim, relyef va yer usti suv oqimi. Delta sharoitida landshaftlarning, ya’ni tabiat komponentlarining hosil bo‘lishida relyef va yer usti suv oqimi asosiy omillar bo‘lib hisoblanadi. G.V. Lopatinning ma’lumotlariga ko‘ra (1957), Amudaryo hozirgi deltasi Amudaryoning olib kelgan yotqiziqlari natijasida so‘nggi 5 yillikda hosil bo‘lgan. Yer

usti suv oqimining ishi natijasida Amudaryo hozirgi deltasi va undagi kichik deltalarning “daraxtsimon” shakllari hosil bo‘lgan. Yer usti suv oqimi Amudaryo hozirgi deltasi sharoitida allyuvial tekisliklarni tashkil etuvchi kichik del’talarning geometrik shakllarini vujudga keltirgan. Hozirgi vaqtda esa yer usti suv oqimining yo‘nalishini ana shu suv oqimlari hosil qilgan relyefning shakli belgilaydi [1]. Kichik deltalarning “daraxtsimon” strukturasi ana shu oqimlarning mahsulidir. Relyef yer usti suv oqimlarining yo‘nalishini belgilagani uchun ham, oqimning kuchli yoki kuchsiz bo‘lishi va oqimlarning ishi natijasida vujudga keladigan salbiy, ijobiy oqibatlar relyefga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Delta sharoitida ana shu ikki omil bir-biriga ta’sir qilgan, qilmoqda va kelajakda ham ta’sir qiladi. Ana shuning uchun ham kollektor-zovur havzalarining ichki strukturasini o‘rganishda ana shu ikki omilga va ularning bir-biriga ta’sirini o‘rganishga alohida e’tibor berish lozim. Oqimga bog‘liq holda kichik deltalarning maydoni kichik yoki katta bo‘ladi. Bu esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri yer usti suv oqimlarining kuchi bilan bog‘liqdir. Relyef tabiiy-geografik omil sifatida tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlarining yo‘nalishini belgilaydi. Qo‘ng‘irot kollektor tarmoqlari tizimida yer usti suv oqimlari asosan g‘arbga va shimoli-g‘arb tomon harakat qiladi. Bu esa shu yo‘nalishdagi pastliklar va balandliklar bilan bog‘langanligini ifodalaydi. Ana shuning uchun ham relyef va yer usti suv oqimlarining yo‘nalishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish yer resurslarining tabiiy-meliorativ sharoitni baholashda asosiy o‘rinni egallashi kerak.

Tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlarining yo‘nalishini va relyefning strukturasini o‘rganish bizga o‘z navbatida kollektor-zovur havzasiga katta e’tibor berish uchun asos bo‘la oladi. Relyef plastikasi kartasida biz Amudaryo hozirgi deltasining relyef strukturasini o‘rganamiz. Bu strukturani o‘rganishda biz eng avvalambor ana shu relyef strukturasini hosil qilgan yer usti suv oqimlarining yo‘nalishini o‘rganishimiz kerak. Misol uchun: Qo‘ng‘irot kollektor tamoqlari tizimida eslatib o‘tganimizdek, tizim hosil qiluvchi yer usti suv oqimlari g‘arbga va shimoli-g‘arbga yo‘nalgan. Ana shu yo‘nalishda grunt suvlari ham harakat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, kichik deltalarning strukturasi faqatgina yer usti suv oqimlarining yo‘nalishini belgilamasdan, balki shu bilan birgalikda grunt suvlarining yo‘nalishini ham belgilaydi.

Mashhur gidrogeolog olim, meliorator N.N. Xodjiboev (1970) o‘z vaqtida tuproqlarning meliorativ holatini belgilashda va tadqiqot qilishda grunt suvlarining tabiiy oqimiga katta e’tibor bergan edi, yani grunt suvlarining oqimiga bog‘liq holda tuproqlarning sho‘rlanish jarayonlari ro‘y beradi [2]. Biz relyef plastikasi ta’limotiga asoslanib, tuproqlarning sho‘rlanish jarayonini o‘rganishda yer usti suv oqimlariga katta e’tibor qaratmoqdamiz. Sabab, yer usti suv oqimiga bog‘liq holda tuproqlarning mexanik tarkibi va suv-tuz rejimlari o‘zgaradi. Misol uchun: kichik deltalarda absolyut balandlik bilan ana shu hudud uchun hisoblangan pastlik o‘rtasidagi masofa qancha uzoq bo‘lsa, ana shu hududdagi tuproqlarning sho‘rlanish darajasi asta-sekinlik bilan o‘zgaradi. Agarda delta sharoitida absolyut balandlik bilan ana shu hududdagi pastlik o‘rtasidagi masofa qancha qisqa bo‘lsa, ana shu hududdagi tuproqlarning sho‘rlanish

darajasi tez o‘zgaradi. Tuproqlardagi sho‘rlanish darajasining tez yoki sekin o‘zgarishi yer usti va grunt suvlari oqimlarining bosib o‘tadigan masofalariga bog‘liq [3].

Qo‘ng‘irot kollektor tarmoqlari tizimining funktsional butunligi Kiyatjargan, Uldaryo, Raushan kichik deltalardan va Amudaryo o‘zan bo‘yi balandliklaridan iborat. Qo‘ng‘irot kollektor tarmoqlari tizimida maydoni jihatdan birinchi o‘rinni Uldaryo kichik deltasi egallaydi, ya’ni bu deltaning g‘arbiy, quyi qismlari (shimoli-g‘arbiy) Qo‘ng‘irot kollektor tarmoqlari tizimida bo‘lsa, deltaning sharqiy qismi Ustyurt kollektor havzasida joylashgan. Sariqqamish deltasining quyi qismi, ya’ni biz bu deltani shartli ravishda Kiyatjargan deltasi deb atadik va u ham Qo‘ng‘irot kollektor tarmoqlari tizimining g‘arbiy qismida joylashgan Qo‘ng‘irot kollektor tarmoqlari tizimidagi tuproqlarning meliorativ holati ana shu del’talarning ichki strukturasi bilan chambarchas bog‘langan.

Xulosa. Amudaryo hozirgi deltasi chap qirg‘og‘idagi sug‘oriladigan hududlarning, ya’ni kollektor-zovur havzalarining ichki strukturasini o‘rganishda quyidagi bosqichlarga katta e’tibor berishimiz kerak:

1. Qo‘ng‘irot kollektor tarmoqlari tizimining funksional butunligini tashkil etuvchi kichik deltalarga (Uldaryo, Kiyatjargan, Raushan kichik deltalari, Amudaryo o‘zan bo‘yi balandliklari);
2. Yer usti suv oqimi, ya’ni Amudaryoning ishi natijasida shu havzada xosil bo‘lgan kichik deltalarning “daraxtsimon” strukturalariga va ularning maydonlariga;
3. Kichik deltalarga bog‘liq holda shu havzadagi yer usti oqimlarining yo‘nalishiga;
4. Kichik deltalar bilan yer usti suv oqimlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishga;
5. Relyef strukturasiga bog‘liq bo‘lgan grunt suvlarining tabiiy oqimlarini o‘rganishga;
6. Relyef plastikasi kartasi asosida tuzilgan relyefning ideallashtirilgan kartasini tahlil qilishga;
7. Relyefning ideallashtirilgan kartasi asosida yer usti suv oqimlarining va grunt suvi tabiiy oqimlarining strukturasini o‘rganishga, ya’ni bu karta yuqoridagi suv oqimlarini o‘rganish uchun ilmiy asos bo‘lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Лопатин Г.В. Строения дельты Амударьи и история ее формирования //.Тр. лаборотории озероведения. – М – Л.: Изд-во АН СССР, 1957. – Т. ИВ. С. 5-34.

2. Ходжибоев Н.Н. Естественные потоки грунтовых вод Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1970. – 174 с.

3. Тажиев Қ.Қ. Суғориладиган ҳудудлардаги коллектор-зовур ҳавзаларининг ички структурасини ўрганиш муаммолари. “Табиатдан фойдаланиш ва муҳофаза қилиш” республика илмий-амалий конференция материаллари. Наманган, 04-05 июн 2010 йил. Б. 285-287.

QADIMGI XORAZM SIVILIZATSIYASI RIVOJIDA YOZUV VA TASVIRIY SAN’ATNING O‘RNI

Matyakubov Xamdam Xamidjanovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU “Tarix” kafedrasi dotsenti (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi Xorazmning shaharsozlik va davlatchilik sivilizatsiyasida din san’at, yozuvning o‘rni masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Katta Oybuyirqal’a, Aqchaxonqal’a, Tuproqqal’a, Markaziy Osiyo, Xorazm, Qo‘yqirilganqal’a va Qal’aliqir.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль религии, искусства и письменности в градостроительной и государственной цивилизации древнего Хорезма.

Ключевые слова: Катта Ойбуйиркала, Акчахонкала, Тупроккала, Центральная Азия, Хорезм, Койкирилганкала и Калъаликир.

Abstract. This article examines the role of religion, art, and writing in the urban planning and state-building civilization of ancient Khwarazm.

Keywords: Katta Oybuyirqal’a, Aqchaxonqal’a, Tuproqqal’a, Central Asia, Khorezm, Qo‘yqirilganqal’a, and Qal’aliqir.

Ma’lumki, ilk sivilizatsiyalar vujudga kelgan mintaqalarda, tasviriy san’at va yozuvning rivojlanishi davlatchilik taraqqiyoti darajasini belgilab bergan. Shuningdek, din muhim ijtimoiy omil va siyosiy institut sifatida davlatning faoliyatida katta ahamiyat kasb etgan. Bu holat Misr, Ikki daryo oralig‘i (Mesopotamiya), Yunoniston qadimgi tarixi misolida yaqqol ko‘rinadi.

Xorazm vohasida ham Aqchaxonqal’a va Tuproqqal’a saroy-ibodatxonalari hamda xorazmshohlar sulolasi qarorgohlariga nisbatan alohida katta ibodatxonalar avval vujudga kelgan. Ularning orasida Janubiy Xorazmda Amudaryoning so‘l sohilidagi Elxaras saroy-ibodatxonasi va Amudaryoning o‘ng sohil yerlarida joylashgan Qo‘yqirilganqal’a va Qal’aliqir ibodatxonalari davlatning diniy markazlari bo‘lgan[1]. Elxaras mil. avv. V asrning oxiri – IV asr boshlarida qurilgan, Qo‘yqirilganqal’a esa mil. avv. IV asrda barpo etilgan.

Shunday qilib, milodiy I asrda Xorazm Kushon podshohligi singari yuqori mavqega ega davlatga aylanib, oliy hukmdorning vazifalari, bosh kohin-ruhoniy faoliyatiga nisbatan ko‘proq ijtimoiy-iqtisodiy, harbiy-siyosiy boshqaruv masalalari bilan bog‘langan.

Xorazmdagi saroy-ibodatxonalar qoshida alohida zardushtiy-ruhoniylar guruhlari faoliyat yuritgan bo‘lsa kerak. Ular shoh sulolasi va umumdavlat diniy marosimlarini ado etganlarini taxmin qilish mumkin. Shuningdek, zardushtiy kohinlarning Markaziy Osiyo hukmdorlarining saroyi tuzilishicha diniy marosimlarni ado etuvchilar, maslahatchilar va tarbiyachilar sifatida faoliyati qayd etilib, shu qatorda zardushtiylik dini shoh hokimiyatining qonuniylik manbai bo‘lganligini bildiradi degan xulosaga kelingan. Ammo bu xulosa faraz mohiyatiga ega, negaki u Vizantiya yozma manbalari asosida yoritilgan Eron sosoniylar sulolasi shoh saroyi tuzilishiga dinning ta’siri muammosi bilan bog‘liqdir.

Din va davlatchilik mavzusiga oid yana bir masalani qisqacha ko‘rib chiqish muhim. Ma’lumki, Tuproqqal’a saroyidagi “podshohlar zali” dan topilgan loy haykallar “milodiy III asrda hukm surgan Xorazm siyovushiylari sulolasining portretli galereyasi” deb izohlandi. Huddi shunday Aqchaxonqal’a saroy-ibodatxonasida aniqlangan devoriy rang tasvirlarni “Xorazm noma’lum hukmdorlarning suratlari” deb atash rasm bo‘ldi [2].

Ushbu tasvirlar, Xorazm tangalardagi hukmdorlar tasviriga xos tarzda ishlanganligi, portretlarning ko‘pchiligini boshida toj chizilganligi kabi belgilar Aqchaxonqal’a rang tasvirlarining ilmiy ishlarda nomlanishiga ham ta’sir qildi. Natijada, mazkur portretlar galereyasida Xorazm hukmdorlarining Ahamoniylar saltanati tarkibidan chiqqan paytdan boshlab, mustaqil davlat tashkil etgan davrda hukmronlik qilgan hukmdorlarning butun sulolasi aks etganligi haqida masala ilgari surildi [3]. Shu mavzuga oid xorijda chop etilgan ishlarda ko‘proq Xorazmda tasviriy san’atning kelib chiqish muammosi muhokama qilindi.

Tuproqqal’adagi “podshohlar zali”da aniqlangan haykallar umumiy ko‘rinishga ega, Aqchaxonqal’ada hukmdorlarning suratlari ham bir-biriga o‘xshatib tasvirlangan. Shunga ko‘ra, mazkur tasviriy san’at namunalari xorazmshohlar qadimiy sulolasi asoschilarning ilohiylashtirish va ularga sig‘inish odatlari bilan bog‘liq bo‘lgan. Sulola e’tiqodini yaratish va ilohiylashtirilgan sulola asoschilarning ruhiga sig‘inishga oid marosimlarni “shohlar-ajdodlar” ibodatxonalarida amalga oshirish jarayonlarini kohinlarsiz tasavvur qilish mushkul.

Markaziy Osiyoda, shu jumladan, qadimgi Xorazmda huquqiy tizimning shakllanishida zardushtiylikning ta’siri katta bo‘lgan. Zardushtiylik huquqiy qoidalari “Avesto”ning Videvdat – “Devlarga qarshi qonun” kitobida o‘z aksini topib, jinoyatlar orasida dinga, shaxsga, axloqqa, hayvonlarga va tabiat kuchlariga qarshi jinoyatlar hamda mulkiy jinoyatlar tilga olinadi. Ba’zi jinoyatlar kechirilmas hisoblangan va ular uchun o‘lim jazosi hamda jismoniy jazo-tikanok qamchin bilan gunohkorga zarba berish belgilangan.

Xususan Xorazmda qadimiy davlatchilik va huquq masalasiga oid ma’lumotlar cheklangan, shu sababga ko‘ra, mazkur muammo maxsus tahlil mavzusiga aylangani yo‘q. Manbalarning yetishmasligi Xorazm davlatida huquqiy tizimning rivojlanishini batafsil qayta tiklashga imkon bermasa ham, bu tizimning shakllanishida oila va jamoalar hayotida rioya qilingan axloqiy tamoyillar va urf-odatlar an’analari huquqiy me’yorlarga aylanishi muhim asos bo‘lganligini taxmin qilishimiz mumkin.

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotning boshqa ko‘plab turlari singari tasviriy san’at ham davlatchilik rivojlanishining qonuniyatlarini o‘zida aks ettiradi[4]. Ma’lumki, tasviriy san’at, ya’ni badiiy madaniyatning yuksak taraqqiy topishi yuqori darajada rivojlangan davlatchilik bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan.

Xorazm qadimiy san’ati tarixini o‘rganilishiga S.P. Tolstov, M.G. Vorobyova, B.I. Vaynberg, L.M. Levina, Y.A. Rapoport, V.N. Yagodin, M.M. Mambetullaev katta hissa qo‘shgan. XXI asr boshlarida bu mavzuga oid ishlar xorijda ham chop etildi [5], shuningdek, tasviriy san’at namunalarini Xorazm ma’naviy madaniyati bilan bog‘lash

va badiiy madaniyat obidalarini tarixiy guvohlik manba sifatida talqin qilish muhim ahamiyat kasb etdi [6].

Xorazmda tasviriy san’at namunalarning yuksak darajada taraqqiy topishini mil. avv. IV asrdan boshlab markazlashgan davlat shakllanishi bosqichlarida ko‘rishimiz mumkin [7]. Masalan, Elxaras saroy va ibodatxonasida bu davrga oid Markaziy Osiyo miqyosida loydan yasalgan eng qadimgi haykallarning parchalari hamda geometrik va o‘simlik naqshlardan iborat devoriy rangtasvirlar aniqlangan. Keyingi davrlarga oid devoriy rang tasvirlar Qo‘yqirilganqal’a ibodatxonasida va Oqchahonqal’a saroy-ibodatxonasidan topilgan.

Rasmiy san’atning yuqori darajada rivojlanishi Tuproqqal’a sulolaviy markazi saroy va ibodatxonalarida aniqlangan haykaltaroshlik va devoriy suratlar namunalarida o‘z aksini topgan (milodiy II-III asrlar). Ular orasida ilohiylashtirilgan marhum shohlarni qadrlash va ularga sig‘inish e’tiqodlar bilan bog‘liq tasvirlari davlat siyosati, ya’ni Xorazm hukmdorlarning xohish-irodasi bilan belgilangan bo‘lishi mumkin.

Antik davrda davlat siyosatining san’atda yetakchi ahamiyat kasb etganidan yozma dalillar guvohlik beradi. Afg‘onistonda topilgan Rabotak yozuvida kushon podshohi Kanishka o‘z noibi Shafarga ibodatxona qurishni va yangi sajdagohda ilgari o‘tgan kushon podshohlarning haykallarini o‘rnatishni buyurganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. Bu yozuvda san’atning rivojlanishiga hukmdorning ta’siri va o‘z ajdodlariga munosabati yaqqol namoyon bo‘lgan. Mazkur holat Xorazmda ham tasviriy san’atning ma’lum yo‘nalishida rivojlanishi davlat siyosati bilan belgilanganligi haqida fikrni tasdiqlashga imkon beradi.

Qadimgi Xorazm tasviriy san’ati diniy, mifologik va dunyoviy g‘oyaviy mazmuniga ega bo‘lgan. Ko‘p holatlarda g‘oyalar bir-biri bilan qorishib ketgan. Misol tariqasida, Tuproqqal’adagi devoriy rangli rasmlarida o‘simlik va hayvonot dunyosi tasvirlarida o‘rab olgan atrof muhit, tabiatga ehtirom hamda yer, suv va hosildorlikka sig‘inish, dehqonchilik va chorvachilik sohalari bilan bog‘liq urf-odatlarga oid mavzularning ko‘rinishlari ifodalangan. Shuningdek, mehnat jarayoni, ov manazaralari, tuya va ot mingan chavandozlar, chang chalayotgan musiqachi ayolning tasvirlari va raqs tushayotgan o‘yinchilarning haykallari aholining turmush tarzi, kundalik hayoti va musiqa madaniyatini chuqur o‘rganib anglashga xizmat qiladi.

Qadimgi Xorazm san’ati nafaqat davlatchilikning rivojlanishi xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi, balki qo‘shni Sug‘d, Marg‘iyona, Baqtriya va Parfiya sivilizatsiyalari hamda ko‘chmanchi madaniyatlari bilan o‘zaro ta’sir darajasini ko‘rsatib beradi.

Xorazm vohasi Markaziy Osiyoda yozuv madaniyati taraqqiy topgan qadimiy o‘choqlaridan biri bo‘lgan. Xorazm yozuvi sopol idishlar va ularning parchalari, charm, yog‘och tayoqchalar va yupqa taxtachalar yuzasiga bitilgan hamda qadimgi tangalarda mavjud. S.P. Tolstov shu tangalardagi yozuvlarni birinchi marta o‘qishga muvaffaq bo‘ldi [8]. Xorazm yozuviga oid tadqiqotlarning tarixshunosligi alohida mavzuni tashkil etadi.

Xorazm yozuvi namunalarining turli arxeologik yodgorliklarida topilishiga ko‘ra, bu yozuv saroy, ibodatxonalar, savdo-hunarmandchilik markazlari va dehqonchilik vohalarida ishlatilgan edi.

Tadqiqotning oldingi bandlarida shu yozuvning Xorazm davlatida jamiyatning tuzilishi, katta patriarxal oilaning tarkibi, soliq tizimi, saroy va ibodatxona omborxonalariga tushgan mahsulotlar ro‘yxatini o‘rganishda ahamiyati qayd etildi. Shuningdek, Xorazm yozuvi davlatchilik tizimini tadqiq etishga imkon beradi [9].

Shu bilan birga, Markaziy Osiyoda antik davri yozuvlaridagi ma’lumotlarning tahlili asosida, turli davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini qiyoslash muhimdir.

Yunon-Baqtriya yozuvlari va Parfiya hujjatlari bo‘yicha, bu podshohliklar omborxonalariga tushgan soliqlar, tushumlarning ro‘yxati qayta tiklangan. Qishloq xo‘jalik iqtisodiga asoslangan davlatda yashagan aholi soliqni, asosan don, un, sharob, qoramol, ya’ni mahsulot shaklida to‘lagan. Shu qatorda, Yunon-Baktriya va Parfiya saroylarining xazinalarida qimmatbaho buyumlar, tanga pullar oltin va kumush kabi tushumlar mavjud bo‘lganligidan sopol idishlar parchalari sirtiga bitilgan.

Xorazmda ham podshohlik omborxonalariga tushgan mahsulotlar bilan birga Qal’aliqir 2 ibodatxonasidan topilgan yozuvlarida ibodatxona omborxonasiga tushgan kumush va oltin hamda kumush tangalar shaklidagi tushumlar qayd etilganligi ma’lum. Qishloq xo‘jalik vohalarda soliqning asosiy qismi mahsulot bilan to‘langan. Shu bilan bir qatorda, xorazmlik hunarmandlar va savdogarlar buyumlar va tanga pullar shaklida soliq to‘lovlaridan foydalanganligi ehtimoldan holi emas.

Tadqiqotning ushbu bandida tahlil qilingan masalalarga oid, xulosa qilib aytganda, qadimgi Xorazm davlatchiligi taraqqiyotida din, san’at va yozuvning ahamiyati muhim bo‘lib, podshohlikning madaniy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida katta o‘rin egallagan. Xorazm podshohligida markaziy va nisbatan kichikroq ibodatxonalarning mavjudligi, din jamiyatni birlashtiruvchi muhim omil sifatida mamlakat aholining hayotida va davlat ijtimoiy-siyosiy tuzumida katta ahamiyat kasb etganidan darak beradi. Shuningdek, san’at va yozuv tizimi, davlatchilik rivojlanishining yuqori darajasini o‘zida aks ettiradi [10].

Antik davri Xorazm tarixida sivilizatsiya omillari aholining hududiy-ma’muriy joylashishi, shaharsozlik, mudofaa inshootlar, saroy va ibodatxonalar me’morchiligi, din, yozuv va tasviriy san’at rivojlanishining turli muhim jihatlari tahlil qilinib, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy institutlar masalalari yetarlicha o‘rganilmadi va bu mavzu antik davrda Markaziy Osiyo janubida taraqqiy topgan Yunon-Baqtriya, Parfiya va Kushon podshohliklari davlatchilik institutlarning tuzilishi bilan qiyoslangan holda ochib berilmadi.

Mil. avv. V-IV asrlar chegarasida Xorazm davlatiga asos solgan hukmdor va sulolaning nomi aniqlanmagan. Ushbu davrda katta shahar markazlariga nisbatan ko‘proq mudofaa ahamiyatiga ega alohida qal’alar hamda ibodatxonalar qurildi. Ibodatxonalar atrofidagi voha-tumanlarida dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan qishloq xo‘jalik jamoalari birlasha boshlagan. Ibodatxonalar shunday ijtimoiy uyushmalar va hududiy birliklarning markazlariga aylangan.

Janubiy Xorazmdagi Elxaras yodgorligida mil. avv. V-IV asrlar chegarasida barpo etilgan katta ibodatxona va saroy me’moriy majmuasi e’tiborga molik. Shu davrga oid saroy ko‘rinishidagi inshootlar Xorazm vohasining boshqa joylarida aniqlanmagan. Bunga ko‘ra, Xorazm davlatining dastlabki hukmdorlari “bosh kohin” va “shoh” maqomiga ega bo‘lganlari ehtimoldan holi emas.

Keyingi tarixiy bosqichlarda Oqchaxonqal’a va Tuproqqal’a kabi yirik sulolaviy markazlar vujudga kelgan. Taxminan mil. avv. I asrdan boshlab, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar tufayli, tangalar yozuvlarida aromeycha MLK maqomiga ega bo‘lgan podshohlar, ruhoniy faoliyatga nisbatan, asosan davlat boshqaruvi bilan bog‘liq vazifalarni amalga oshirgan.

FOYDALANILGAN ADBIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Левина Л.М. Древхорезмийский памятник-Елхарас. – М.: Институт этнологии и антропологии РАН. 2001. – 85 с.
2. Yagodin V. Miloddan avvalgi IV-III – milodiy VI asrlarda Qozoqliyotganqal’a (Oqchaxonqal’a), // O‘zbekiston arxeologik xazinalari. Makedoniyalik Iskandardan Kushonlar saltanatigacha. – Berlin, 2023. – B.146-147.
3. Kidd F. The Procession Scene at Akchaknah-kala // Parthica, 2012.Vol. 14. – Pp. 65-88.
4. Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства, культуры. Центральной Азии. – Ташкент, 2005. – С. 69.
5. Kidd F., Negus Cleary.,Yagodin Y.N.,Betts A.; Baker Brite E. Ancient Chorasmian Mural Art // Bulletin of the Asia Institute, 2004.Vol.18. – Pp.69-95.
6. Қурбанова Д.Ш. Хоразм воҳасининг қадимги ва илк ўрта асрлар маънавий маданияти. – Тошкент, 2015. – Б. 96-106.
7. Хакимов А. А. Роль культуры и искусства в формировании государственности Хорезма // Қадимги Хоразмнинг жаҳон цивилизациясида тутган ўрни. -Хива, 2016.-Б. 63-65.
8. Толстов С.П. Монеты шахов древнего Хорезма и древнехорезмийской алфавит. ВДИ. – М., 1938. – № 4. – С. 120-145.
9. Исҳоқов М. Қадимги Хоразм ёзуви ва ёзув маданияти // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Урганч, 2018. – Б. 20-25.
10. Рапэн К. Эллинистическая сокровищница Ай-Ханум // Городская культура Бактрии-Тохаристана и Согда. – Ташкент, 1987. – С.112-115.

ULUG‘BEK RASADXONASI TARIXI

Yusupov Hamidbek Sultanovich
UrDPI Tarix va geografiya kafedrasi dotsenti (PhD), hamidyusupov753@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mirzo Ulug‘bek rasadxonasining tarixiy o‘tmishi, o‘ziga xos me’morchilik uslubi shuningdek, bugungi va o‘sha davr uchun zarur bo‘lgan tarbiyaviy-ilmiy ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Me‘morchilik, rasadxona, Registon, ilmu ma‘rifat, Movarounnahr, bunyodkorlik, astronomik kuzatuv, Ko‘hak (Cho‘ponota), Vyatkin.

Аннотация. В данной статье представлена информация об историческом прошлом обсерватории Мирзо Улугбека, ее уникальном архитектурном стиле, а также о просветительской и научной значимости, необходимой сегодня и в то время.

Ключевые слова: Архитектура, обсерватория, Регистан, наука и просвещение, Мовароуннахр, творчество, астрономические наблюдения, Кўхак (Чўпонота), Вяткин.

Abstract. This article provides information about the historical past of the Mirzo Ulugbek observatory, its unique architectural style, as well as its educational and scientific significance for today and the past.

Keywords: Architecture, observatory, Registan, science and enlightenment, Movarounnahr, creativity, astronomical observation, Kohak (Shepherd), Vyatkin.

Tariximizdan ma‘lumki, XV asr Samarqand va Hirotda me‘morchilik, naqqoshlik, tasviriy san’at va adabiyot nihoyat darajada taraqqiy etgan davr bo‘ldi. Bu ikki poytaxt shaharlarda jamoat ehtiyoji uchun zarur ko‘plab hashamatli binolar qad ko‘tardi. Temuriy hukmdorlar orasida, ayniqsa, Ulug‘bek bobosi Temurdek bunyodkor bo‘lib mamlakatda qurilish ishlariga katta ahamiyat bergan. Ulug‘bekning hukmronlik qilgan davrida qator masjid, madrasa, xonaqoh, hammom, sardoba va karvonsaroylar qad ko‘tardi. Shuningdek, Samarqand shahrining Registon maydoni shakllandi [1].

Ulug‘bek tomonidan qurdirilgan me’moriy binolar ichida tarxi, matematik yechimlari, naqsh va jihozlari jihatidan eng nodir inshootlardan hisoblangan Samarqand rasadxonasi alohida o‘ringa ega. Chunki bu bino sharqning ko‘p asrlik ilm-u ma’rifat va madaniyati tarixida shuhrat topgan rasadxonalar orasida Movarounnahrda qad ko‘targan yakka-yu yagonasidir [1]. Sharq mamlakatlarida ilm-u ma’rifatning, xususan, astronomiya va matematika fanlarining rivoji yo‘lida uning bajargan xizmati nihoyatda buyukdir.

Mirzo Ulug‘bek temuriyzodalar ichida fan va madaniyat taraqqiyotiga eng ko‘p va salmoqli hissa qo‘shgan hukmdordir. U Samarqandda birinchi falakiyotshunoslik akademiyasiga asos solgan siymo sifatida dunyoga nom taratadi. Bu so‘zlar rivoyat yoki afsona emas, balki jahonning ulug‘ allomalari tomonidan tan olingan haqiqatdir [2].

Ulug‘bek akademiyasini tan olgan va dunyoga taratgan kishi bu fransuz yozuvchisi, faylasufi va tarixchisi (Fransua-Mari Arue asl ismi) Volter (1694-1778) dir. Bo‘riboy Ahmedov o‘zining “Ulug‘bek” kitobida Volterning quyidagi so‘zlarini keltiradi. “Transoksianada uning (Amir Temurning o‘rniga taxtga chiqqan mashhur

Ulug‘bek Samarqandda birinchi akademiyaga asos soldi, yer kurrasini o‘lchashni buyurdi va falakiyotshunoslik jadvallarini tuzishda ishtirok etdi” [2].

Chindan ham Ulug‘bek tomonidan qurdirilgan rasadxona o‘z davrining akademiyasi bo‘lgan. Tarixchi olim, professor G. A. Hidoyatov bu haqda haq gapni aytgan “Samarqandda barpo etilgan Ulug‘bek rasadxonasi ulkan madaniy yutuq bo‘lgan ediki, jihozi va ilmiy yutuqlari jihatidan unga teng keladigan rasadxona o‘sha davrda ham, undan ancha keyin ham yaratilmadi. Rasadxonada 1018 ta yulduz tasvirlangan katalog tuzildi. Yulduzlarning belgisi o‘ndan to‘qqizigacha aniq bo‘lgan turish burchaklari sinuslari va tangenslari natural qiymatlarining jadvallari, shuningdek, yer hududidagi ko‘p sonli nuqtalar koordinatalari (kenglik va uzunlik)ni qamrab olgan jadvallar ishlab chiqildi [3].

Rasadxonada Ulug‘bekning bevosita rahbarligida o‘tkazilgan ishlar uning matematika, geometriya va falakiyotshunoslik sohasida chuqur bilimlar sohibi ekanligidan guvohlik berar hamda bir qancha amaliy vazifalar yechimi uchun katta ahamiyat kasb etardi” [2].

Ulug‘bekning bilimdonligi va mahorati to‘g‘risida G‘iyosiddin Jamshid Koshoniy 1417-yili Samarqanddan otasiga yozgan xatida quyidagilarni ta’riflagan: “Allohga va ne’matlariga ko‘p shukurlar bo‘lsinkim, yetti iqlimning farmonbardori. islom podshohi donishmand kishidurlar. Men bu narsani odob rasmi yuzasidan aytayotganim yo‘q. Haqiqat shuki, avvalo u kishim Qur’oni Karimning aksariyat qismini yoddan biladilar....Arab tilining naxv va sarfini yaxshi biladilar va arabchadan g‘oyat yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishi fiqhdan ancha xabardorlar, mantiq, ma’nolarning bayoni va usullaridan ham xabardorlar.

U kishim riyoziyot (matematika) fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va shunday jiddiy mahorat ko‘rsatganlarki, kunlardan bir kun otda ketayotib, 818-rajab oyining o‘ninchi va o‘n beshinchi kunlari orasidagi (milodiy 1415-yil 15-20-sentabr) dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga munosib kelishini aniqlashni istadilar. Shunga ko‘ra, otda ketayotib, xayoliy hisob bilan Quyoshning taqvimi (o‘sha kuni) bir daraja va ikki daqiqa ekanligini topdilar. Keyin otdan tushgach. (hisob to‘g'riligini) bu bandaiy bechoradan so‘rab oldilar... Inson bino bo‘lganidan beri shu kungacha hali hech kimsa bu qadar aniq hisoblay olmagan edi [4].

Qisqa qilib aytmoqchimanki, u kishi bu fan sohasida g‘oyat katta mahoratga erishganlar, yulduzshunoslikka taalluqli amallarni yaxshi bajaradilar va chuqur Halillar bilan xuddi keragidek isbotlaydilar. “Tazkira” va “Tuhfa” dan shu qadar zo‘r dars o‘tadilarki, ularga hech qanday qo‘shinicha qilishining hojati qolmaydi” [3].

Ulug‘bek akademiyasida 1417-yilda dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan olimlarning soni 100 dan oshib ketadi. Ular orasida adiblar, muarrixlar, xattotlar, musavvirlar, geograflar bor edi. Xususan, falakiyot va matematika sohalari olimlari sharafliroq va obro‘liroq hisoblanganlar. Ayniqsa, bu borada Ulug‘bek Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid Koshoniy, Ulug‘bekning sodiq shogirdi Ali Qushchi, Mavlono Muhammad Havofiylar eng salobatli va nufuzli bo‘lganlar. Ulug‘bek akademiyasining ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan biri G‘iyosiddin Jamshiddir. “Ulug‘bek bilan hamnafas ijod qilgan. Jamshid “Ziji xoqoniy”, “Bog‘lar sayri” va “Osmon narvoni”, matematikaga bag‘ishlangan “Xorda va sinuslar haqida risola”,

“Hisob kaliti” va “Doira haqida risola” asarlarini yozgan. Mirzo Ulug‘bekning yana bir safdoshi Qozizoda Rumiydir. Ulug‘bek uni ustozim deb e’zozlaydi. Zero, Rumiy 1360-yilga yaqin tug‘ilgan bo‘lib, 20-25 yoshlar atrofida, ya’ni Ulug‘bek tug‘ilmasdan ilgari Samarqandga kelgan va Temur safiga o‘tgan. Shu bois Ulug‘bek Qozizoda Rumiy, Mavlono Ahmad kabi zamonasining buyuk falakiyotshunoslari ta’sirida shakllanadi va uning bu fanlarga qiziqishi ortib boradi [4].

Quyida rasadxona qurilishi va uning me’morchili uslublariga to‘xtalib o‘tamiz. Ulug‘bek farmoyishi bilan 1428-1429-yilda Ko‘hak (Cho‘ponota) tepaligida ulkan silindr shaklida bunyod etilgan; ayrim qo‘lyozmalar (“Boburnoma“)ga ko‘ra, balandligi 30,4 m dan iborat 3 qavatli qilib qurilgan. Unda o‘ndan ortiq turli astronomik qurilma va asboblar bo‘lgan. Ulardan eng asosiysi radiusi 40,2 m li qo‘shaloq yoydan iborat kvadrant (yoki sekstantga yaqin) qurilma hisoblanadi. Kvadratning janubiy qismi yer ostida, qolgan qismi shimol tomonda yer sathidan 30 m cha balandda joylashgan. Asbob aylanasida bir gradus yoy 701,85 mm va bir minut yoy 11,53 mm ga to‘g‘ri keladi. Ushbu qurilma juda ko‘p qirrali edi. U ufqdan quyoshni, yulduz balandligini va boshqa sayyoralarni aniq o‘lchashi mumkin edi. Yilning davomiyligi, sayyoralar davri va tutilishlar ushbu qurilma bilan o‘lchandi. Ulug‘bekning sayyoralar o‘lchovlari bugungi o‘lchov bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bizga qurilmaning ajoyib aniqligini ko‘rsatadi. Rasadxona o‘rta asrlarda asbob uskunasi jihatdan ham beqiyos bo‘lgan. Asbob astronomiyaning asosiy doimiyliklari – ekvator va ekliptika orasidagi burchakni o‘lchash, yillik pretsessiya doimiysini, tropik yil davomiyligini va boshqa fundamental astronomik doimiyliklarni aniqlashga imkon bergan [4].

Rasadxonaning ichki devorlarida koinot va yer kurrasi tasvirlari tushirilgan. Shuning uchun ham bu joy mahalliy xalq tilida “Naqshi jahon” deb nom olgan.

Rasadxona o‘ziga xos turdagi bino bo‘lib, uning qurilishida asosiy rol me’morga emas, balki binoga o‘rnatilgan asboblarning joylashuvi va hajmini aniqlagan olimlarga, ya’ni Ulug‘bek va Rumiyga tegishli bo‘lgan. Aytish kerakki, ular qabul qilgan qarorlar o‘sha davr taqozosiga ko‘ra dadil qadamlar edi. Qurilish taxminan uch yil davom etdi. 1428-1429-yillarda rasadxona binosi tayyor holga keldi [4]. Asboblarni o‘rnatish va moslashtirish boshlandi. Buni Ulug‘bekning iltimosiga ko‘ra, koshonlik astronom va mohir matematik Jamshid al-Koshiy (1373-1430) amalga oshirdi. Rasadxona 1449-yilda vayron qilingan va 1908-yilda qayta kashf etilgan.

Rasadxona binosi Ulug‘bek vafotidan so‘ng, uzoq yillar qad rostlab turgan, astronomik tadqiqotlar Samarqandda yana yetmish besh yil davom etgan. V. Vyatkinning fikricha, rasadxonaning vayron bo‘lishiga tabiiy hodisalar sabab bo‘lmagan. XVI asr oxirida Samarqand aholisi rasadxona g‘ishtlarini ko‘chirib olganlar. Rasadxona arxitekturasining tafsilotlari topilmalari bunga dalildir. Bugun Ulug‘bek rasadxonasiga tashrif buyurgan odamlar marmar kvadratning faqat poydevori va ko‘milgan qismini ko‘rishlari mumkin. Bular rasadxonadan olingan yagona asl qoldiqlardir. Rasadxonaning tanazzulga uchrashining katta qismi Ulug‘bekning taxminan 1449-yilda uning o‘g‘li Abdulatif tomonidan o‘ldirilgani bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin [4].

O‘zbekiston hukumati rasadxona qoldiqlarini o‘rganish va saqlab qolishga e’tibor qaratdi. 1949-yili rasadxona o‘rniga marmar toshdan yodgorlik o‘rnatildi. Me‘moriy

obidaning ta’mirtalab qismlari mustaqillik yillarida qayta tiklandi. Jumladan, Samarqand shahrining 2750 yilligi munosabati bilan rasadxona atrofida obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Bundan tashqari rasadxonaning o‘sha davr uchun ilmiy tarbiyaviy ahamiyati juda yuqori bo‘lganligini ta’kidlashimiz mumkin. Xullas, millatimiz faxri hisoblanmish Mirzo Ulug‘bekning nomi asrlar osha avlodlarimizning dunyoqarashini shakllantirishda faxrlanish, vatanparvarlik g‘oyasining ma’naviy ozuqasi bo‘lib xizmat qilaverishiga ishonchimiz komildir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Муҳаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: 2004.
2. Ҳидоятов Г. А. Менинг жонажон тарихим. – Тошкент: 1992.
3. Улуғбек (есссе). – Тошкент: 1989.
4. Shamsutdinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. – Toshkent: “Sharq”, 2010.

ILK O‘ZBEK FOTOGRAFI XUDOYBERGAN DEVONOVNING HAYOTI VA FAOLIYATI

Yusupov Hamidbek Sultanovich
UrDPI Tarix va geografiya kafedrasi dotsenti (PhD), hamidyusupov753@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek fotografiya san’ati asoschisi Xudoybergan Devonovning hayoti, boy ijodi, kinemotagrafiyamizda tutgan o‘rni va ayanchli o‘limi to‘g‘risida ma’lumot beriladi.

Kalit so‘zlar: Mennonit nemislar, Vilgelm Penner, delegatsiya, Pyotr Yahum, kinematografiya, hujjatli film, galeriya.

Аннотация. В данной статье представлены сведения о жизни, богатом творчестве, роли основоположника узбекского фотоискусства Худойбергана Девонова, его роли в нашем кинематографе и его печальной смерти.

Ключевые слова: Немцы-меннониты, Вильгельм Пеннер, делегация, Петер Яхум, кинематография, документальный фильм, галерея.

Abstract. This article provides information about the life, rich creativity, role in our cinematography, and tragic death of Khudoybergan Devonov, the founder of uzbek photography.

Keywords: Mennonite germans, Wilhelm Penner, delegation, Peter Yahum, cinematography, documentary film, gallery.

Xudoybergan Devonov 1879-yilda Xivada, badavlat oilada tug‘ilgan. Otasi Nurmuhammad Devonov Xiva xonining Xo‘jaylidagi mulklari boshqaruvchisi bo‘lgan. Xudoybergan Xivadagi madrasada savodini chiqargan, arab tilini o‘rgangan. Adabiyot bilan oshno bo‘lib, she’rlar yozib turgan. Soatsozga shogirdlikka tushgan. Ko‘plab musiqa asboblarini chalishni bilgan [1].

Mennonit nemislari 1882-yilda Xiva xoni Muhammad Rahimxon II taklifi bilan Rossiyadan ko‘chib kelishgan. Ular an’anaviy nasroniylikdan farq qiladigan diniy e’tiqodi tufayli Niderlandiya, Germaniya va Polshada siquvga olingan va yashash joyini tashlab, ko‘chib ketishga majbur bo‘lishgan. 1884-yilda Xiva yaqinidagi Oqmachit qishlog‘ida mennonit nemislarining 40 oiladan iborat jamoasi qo‘nim topgan. Mennonit nemislari orasida fotografiya bilan shug‘ullanuvchi Vilgelm Penner bor edi. Qiziquvchan Xudoybergan birinchi marta fotoapparatni ko‘rgan va undan foydalanishga ruxsat so‘ragan. Keyinchalik Panor buva shogirdining muvaffaqiyatlaridan xursand bo‘lib, unga fotoapparatni sovg‘a qilgan [2].

1903-yilda Xudoybergan Devonov Xivaning minoralari va hamyurtlarini suratga ola boshlagan. Avvaliga bu diniy ulamolarning qattiq qarshiligiga uchragan. Biroq fotosuratchini har qanday yangilikka qiziqqan Muhammad Rahimxon o‘z himoyasiga olgan. U nafaqat xon, balki iste’dodli shoir va bastakor sifatida tarixda qolgan. Hukmdor Xudoyberganga o‘zining suratini olishni buyurgan.

1908-yilda Xudoybergan Devonov Xiva xonligining bir guruh vakillari bilan birga Sankt-Peterburgga safar qilgan. Tashrifdan so‘ng delegatsiya rahbaridan Rossiya poytaxtida bir necha kun qolishga ruxsat so‘ragan. Bu yerda 29 yoshli Xudoybergan foto sirlarini o‘rganishni davom ettiribgina qolmay, kinematografiya bilan ham qiziqib qolgan. U ona yurtiga qaytib, Xorazmga birinchi kinoapparatni olib

kelgan. Xudoybergan o‘z tarjimayi holida Pyotr Yahum ismli boydan fotoapparat sotib olganini yozib qoldirgan [3].

Xudoybergan Devonov Urganch, Xiva, Toshsoqa, Toshhovuz, Xo‘jayli, To‘rtko‘l, singari shahar va tumanlarni kezib, diqqatga sazovor joylarni, aholining dehqonchilik ishlarini tasmalarda muhrlagan. Xiva shahrining me’moriy obidalari, xalq sayllari, dorbozlar va masxarabozlarning tomoshalari, xonlikda yashagan o‘zbek, turkman, qoraqalpoq, qozoq millatiga mansub kishilarining madaniy va maishiy-etnografik hayoti manzaralari uning ijodida bosh mavzulardan biri bo‘lgan.

1920-yil Xiva xonligi tugatilib XXSR tuziladi. Xudoybergan Devonov yangi davlatning moliya vaziri etib tayinlanadi. Vazifasi davomida u ko‘p marotaba Moskvaga safar qiladi, yangi filmlarni olib keladi. “Sovkino” jamiyatining hududiy muxbiriga aylanadi. “Ishchi ayollar”, “Sho‘rko‘l”, “Ko‘za”, “Chig‘ir”, “Tuzkon”, “Xorazm dalalarida”, “Paxta karvoni” singari hujjatli film va syujetlarni olib yuboradi.

Afsuski, 30-yillar oxirida avjiga chiqqan Stalinning qatag‘onchilik siyosati Xudoybergan Devonovni ham chetlab o‘tmadi. 58 yoshli fotosuratchi 1937-yilda hibsga olinib, Yangiyo‘ldagi siyosiy mahkumlar lageriga yuboriladi. Unga Fayzulla Xo‘jayev va Davlat Rizayevning topshirig‘i asosida Angliya razvedkasi foydasiga josuslik qilgani, Xorazmda razvedkasi foydasiga josuslik qilgani, Xorazmda bosmachilik harakatini tashkil qilgani, Xorazmda bosmachilik yetakchisi Junaidxon bilan shaxsan aloqada bo‘lgani kabi ayblar qo‘yiladi. 1938-yilning 5-sentyabrda, atiga 20 daqiqa davom etgan sudda Xudoybergan Devonov o‘limga mahkum etiladi. Bu hukm o‘sha kuniyoq ijro etiladi. Ammo Stalinning o‘limidan so‘ng boshqa ziyolilar kabi Xudoybergan Devonov jinoyat ishi qayta ko‘rib chiqiladi va 1959- yilda unga nisbatan chiqarilgan hukmni bekor qilinib, oqlanadi [4].

XX asrning 60-70-yillaridan boshlab Xudoybergan Devonov haqida o‘nlab maqola va ocherklar yoziladi. Kinoshunos olim, filologiya fanlari doktori Hamidulla Akbarov hujjatli film ham suratga oladi. Xorazmlik yozuvchi va jurnalistlar Erkin Madrahimov, Salimjon Hasanov, Komil Nurjonov, Ro‘zimboy Hasan va boshqalar u haqda maqolalar yozishgan.

O‘zbek fotografiyasi san’ati asoschisi Xudoybergan Devonov o‘z ishlari bilan tariximizni boyitdi. Sovetlar davrida nomi oqlangandan so‘ng, Urganch shahrida Xudoybergan Devonov nomli kinoteatr barpo etilgan. 2021-yilda uning binosi qayta ta’mirlanib yangicha qiyofada ochildi. 2021-yil yanvar oyida Toshkent Foto uyida Xudoybergan Devonovga bag‘ishlangan kitob taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Akademik Naim Karimov tomonidan Xudoybergan Devonov haqida yozilgan kitob rus va o‘zbek tillarida Islom Karimov fondi tomonidan nashr qilingan. Xivadagi Nurullaboy saroyida Xudoybergan Devonov ijodi va faoliyatiga bag‘ishlangan fotogaleriya ham ish boshlagan. Xorijiy sayyohlar uchun bu suratlar yurtimiz tarixining go‘yo jonli manzarasidir. Galeriyada Xudoybergan Devonov suratga olgan tarixiy hujjatli filmlar ham namoyish qilinadi. Xudoybergan Devonovning fondi Ichanqal’adagi kichkina bir binoning torgina ikki xonasida joylashgan edi.

Xudoybergan Devonovning uyi – Xorazm viloyati, Xiva shahrida XX asr boshida qurilgan, Yangi turmush mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan. Hozirgi kunda

Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi tasarrufida 1992-yilda uy-muzeyga aylantirilgan [3].

Xudoybergan Devonov o‘zidan boy ijodiy merosni, ko‘plab foto va kinotasmalar qoldirgan. Qisman saqlanib qolgan tasmalar turli mamlakat muzeylarida, davlat va shaxsiy arxivlarda saqlanib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zME. Birinchi jild. – Toshkent: 2000.

2. Ирзаев Б., Рахмонова Ю. Хоразм вилояти хотира китоби. – Тошкент: “Академнашр”, 2019.

3. Karimov N. Xudoybergan Devonov // Jahon adabiyoti jurnali. – Toshkent: 2010, 20-son.

4. Xorazmiy.uz http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/84.

UYUSHMAGAN YOSHLAR BILAN ISHLASHDA OILA VA MAHALLA HAMKORLIGI

Atayeva Dilfuza Pulatovna
Urganch Innovatsion universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dosenti, PhD
Sultanbayeva Mahliyo
Urganch Innovatsion universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda yoshlar masalasi dolzarb mavzu sifatida o‘rganilib, uyushmagan yoshlar tarbiyasi, bandligi masalasi, ularning kelajagi barqarorligini ta’minlashda oila va mahalla hamkorligi dolzarb muammo sifatida o‘rganilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема молодежи в нашей стране как актуальная тема, а также рассматривается вопрос образования и трудоустройства неорганизованной молодежи, а также сотрудничество семьи и соседства в обеспечении стабильности ее будущего, как насущная проблема.

Abstract. This article examines the issue of youth in our country as a topical issue, and the issue of education and employment of unorganized youth, as well as the cooperation of family and neighborhood in ensuring the stability of their future, is studied as a pressing problem.

Kalit so‘zlar: Mahalla, oila, uyushmagan yoshlar, milliy madaniyat, ma’naviyat, mentalitet, mafkuraviy immunitet, globallashuv, axborot.

Ключевые слова: Соседство, семья, неорганизованная молодежь, национальная культура, духовность, менталитет, генетический иммунитет, глобализация, информация.

Keywords: Neighborhood, family, unorganized youth, national culture, spirituality, mentality, genetic immunity, globalization, information.

Oilada doimo tinchlik bo‘lishi, yaxshi muhit, bo‘sh vaqtni faol tashkil etish, madaniy va ma’naviy tadbrlar, san’at, dam olish maskanlariga oilaviy sayohatlar uyushtirish oila barkamolligini ta’minlashga xizmat qiladi. Oilada o‘g‘il va qizni tarbiyalashda ota-ona hamjihatlikda tarbiyalasa bolaning tarbiyasi ham go‘zal bo‘ladi. Tarbiya masalalari murakkab bo‘lib, bunday mas’ulyatli ishni oila, mahalla, maktab va keng jamoatchilik bilan hamkorlikda olib borish muhim o‘rin tutadi. Ta’lim va tarbiyani uyg‘unlikda olib borilsa, yoshlarni mustaqil fikrli, barkamol ulg‘aytirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Avvalambor yoshlarni yetuk inson qilib tarbiyalash, ularda milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, hamda yosh avlodni boy madaniy merosimiz va tarixiy xotira va milliy-ma’naviy qadryatlarimizga hurmat, vatanimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash, barchamizning oldimizda turgan muhim vazifa hisoblanadi. Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan bir qator vazifalardan biri, uyushmagan yoshlar bilan ishlash bu qatlamni o‘rganish, ularni birlashtirish bugungi kunning dolzarb muamolaridan biri hisoblanadi.

Uyushmagan yoshlar kim? Uyushmagan yoshlar qatlami qanday qilib vujudga keladi? Ular jamiyatning qanday qatlami?

O‘zbekiston aholisi 35 milliondan oshgan bo‘lsa, ularning 10-12 milliondan ortig‘i yoshlar bo‘lsa, ma’lum bir qismi uyushmagan yoshlar hisoblanadi. Uyushmagan

yoshlar biron-bir kasb-hunar yoki, ta’limning ma’lum bir bosqichida faoliyat olib bormayotgan, oliy yoki o‘rta maxsus ma’lumotga ham ega bo‘lmagan, tayinli ish bilan ta’minlanmagan yoshlar tushuniladi. Bizning jamiyatimizda bu qatlamning yosh guruhlari o‘rtacha 19-24 hamda 25-30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil qilyapti. Birinchi guruh yoshlari asosan maxsus ta’lim bitiruvchilari bo‘lib ular kollejlar hamda akademik litseylarni tugatib, oliy o‘quv yurtlariga hujjat topshirishadi, yoki o‘z sohasi bo‘yicha ish berayotgan idora va tashkilotlar bilan shartnoma tuzib ishga qabul qilinadilar, lekin ularning barchasi ham ishda qolib uni davom etterishmaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarining 10 % gina birinchi yili o‘qishga kira olyapti xolos. Qolgan yoshlar o‘qishni davom ettirish uchun qayta tayyorlanadi, harakat qiladi, boshqalari esa davom ettirishni ham istashmaydi, tayinli ishga ham joylasha olmaydi, bular uyushmagan yoshlar qatlamining 1-guruhi hisoblanadi. 2-guruh yoshlari esa o‘qishni davom ettirmagan xalqimiz tili bilan aytganda “qora mehnat” orqali u yer bu yerda kunini o‘tqazib yurgan, yoki oliy o‘quv yurtini tugatib, yetarli malaka va ko‘nikmaga ega bo‘la olmaganligi tufayli, o‘z sohasida ishi yurishmagan ularning tili bilan aytganda “o‘ziga loyiq ish topa olmagan” turli xil yoshdagi yoshlarni kiritishimiz mumkin. Bular uyushmagan yoshlar qatlamining 2-guruhi sanaladi. Bundaylarni hozirda turli yerlarda ko‘rishimiz mumkin. Ularning ko‘pchiligi o‘ziga mos ish topa olmaganligidan xorijga ish izlab ketayotgani hamda u yerda pul topish uchun nihoyatda jirkanch, qabih ishlarga qo‘l urayotganini ham aytishim lozimdir. Hozirgi paytda radiotelevideniyada qulog‘imizga chalinayotgan ba’zi bir davlatlarda sodir bo‘layotgan voqealarning ijrochilari aynan mana shunday mo‘may va oson pul topish uchun xorijga ketganlardan chiqayotganini yoki yovuz kuchlarning tinchlik va osoyishtalikni yo‘q qilishga urinishlari ularning quruq va’dalari va aldovlariga uchib ma’naviy asir bo‘lib qolgan, jamiyatda o‘z o‘rnini topa olmay yurgan xuddi shunday shaxslardan chiqadi. Uyushmagan yoshlar qatlami qanday qilib vujudga keladi? Bunday holatga asosiy sabab birinchi navbatda hali ma’naviy qashshoq bo‘lgan ota-onalarni hamda ularning farzandlarga berayotgan tarbiyasini ko‘rishimiz mumkin. Ba’zi insonlarda hali- hanuz eskicha fikrlash va dunyoqarash bu muammoning asosiy omilidir. Ota-onalarning yoshligidan farzandlariga berib kelayotgan “o‘qib nima qilasan, undan ko‘ra ishni qil, qorning shundan to‘yadi, o‘qib dunyoni olib berasanmi” degan fikrlari bilan bolalarni yoshligidan ilm olishga yo‘naltirmay “qora mehnat”ga jalb qilib “bolani o‘qishdan chalg‘itib” buning ustiga durustroq kasb-hunar ham o‘rgatolmay bolani miyasini zaharlaydi. Bolani yoshligidan o‘yin-kulgu va o‘tkinchi narsalar bilan band bo‘lib mobil telefon va kompyuterlar og‘ushida o‘sgan boladan nimani kutish mumkin? Zeroki yoshlikda berilgan tarbiya insonning kelajakda qanday shaxs bo‘lib ulg‘ayishida katta o‘rin tutadi.

Mahalla – tarbiya maskani, bir bolaga yetti mahalla ota-ona, mahalla – demokratiya darsxonasi, mahalla – o‘z-o‘zini boshqarish organi kabi tamoyillarda juda katta mohiyat mavjud. Hozirgi globallashuv jarayonida milliy mentalitetni saqlab qolish, millat genofondi sofligini himoya qilishda yoshlar tarbiyasiga e’tibor har qachongidan zarur.

Oila – ta’lim-mahalla konsepsiyasi fuqarolik jamiyatini qurishda, milliy-madaniy rivojlanishda, yoshlarni turli g‘oyaviy tahdidlardan himoya qilishda muhim yo‘nalish sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Globallashuvning ijobiy tomoni bilan birga uning salbiy oqibatlari ham mavjud, ammo ikkinchi ko‘rinishining sababchisi shaxsning o‘zi bo‘lishi mumkin, chunki, millat ma’naviy olami, axborot salohiyati, g‘oyaviy tarbiyasi qay darajada immunitetga boyligi hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham globallashuv jarayonlari turli xalqlar hayotiga turlicha ta’sirini ko‘rsatadi. Agarda, globallashuv jarayonlarida axborotning yoyilishi va bu axborotdan media madaniy holatda foydalanish, hayotga to‘g‘ri joriy qilish faqat va faqat ijobiy ta’sir qilib, rivojlanishning garovidr. Bunda yoshlarning yoshlikda olingan bilimi, intellektual mulkining boyitish jarayoni yosh bolalik davridan to‘yintirib borilishi zarur bo‘ladi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyilining hayotga tadbiq etilishi yurtimiz yoshlarga berilayotgan imkoniyat va imtiyozlarning natijasi sifatida ularning xalqaro olimpiadalarda, sport musobaqalarining Olimpiada o‘yinlaridagi natijalarida ko‘rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: 1997.

2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – Toshkent: 2000.

3. Movlonova R., Xoliqberdiyev K. “Pedagogika”. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2002.

4. Kamolova A., Ergasheva G. S. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o‘rganishning ilmiy nazariy asoslari. Science and Education (12) 590-592.

5. Munavvarov A.K. Oila pedagogikasi. – Toshkent: 1994.

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING HAYOTI VA ILMIY FAOLIYATI

Yusupov Hamidbek Sultanovich
UrDPI Tarix va geografiya kafedrasi dotsenti (PhD), hamidyusupov753@gmail.com
Raximov Islomjon Ixtiyor o‘g‘li, UrDPI Tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Mahmud az-Zamaxshariyning hayoti va undagi muhim jarayonlar, ilm olish yo‘lida chekkan zahmatlari, falsafa, adabiyot, tarbiyashunoslik, tarix, grammatika fanlariga, arab lug‘atshunosligiga qo‘shgan hissalari, yozgan asarlari va uning ilmiy faoliyati o‘rganilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Mahmud, Zamaxshar, Makka, Shihobiddin Ahmad ibn al- Husniy al-Molikiy, chevar, Xallikon, Buxoro, Xorazm, Jorulloh, grammatika, Qur’oni Karim, lug‘atshunoslik, Husni Abdujamil, A. Abdujabborov.

Аннотация. В статье содержится информация о жизни и важных событиях Махмуда аз-Замахшари, его усилиях в стремлении к знаниям, его вкладе в такие науки, как философия, литература, образование, история, грамматика и арабская лексикография, его трудах и изучении его научной деятельности.

Ключевые слова: Махмуд, Замахшар, Мекка, Шихабиддин Ахмад ибн аль-Хусни аль-Малики, прадед, Халликон, Бухара, Хорезм, Джоруллах, грамматика, Священный Коран, лексикография, Хусни Абдуджамиль, А. Абдуджабборов.

Abstract. This article covers information about the life and important events of Mahmud al-Zamakhshari, his efforts in the pursuit of knowledge, his contributions to the sciences of philosophy, literature, education, history, grammar, and Arabic lexicography, his writings, and the study of his scientific activities.

Keywords: Mahmud, Zamakhshar, Mecca, Shihabiddin Ahmad ibn al-Husni al-Maliki, great-grandfather, Khallikon, Bukhara, Khorezm, Jorullah, grammar, Holy Quran, lexicography, Husni Abdujamil, A. Abdujabborov.

Xorazm diyorining eng ulug‘ siymolaridan biri hisoblangan Mahmud az-Zamaxshariy jahon fani va madaniyatiga munosib hissa qo‘shgan. Uning asl ismi Mahmud bo‘lib, Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida tug‘ilgan. Mahmud Zamaxshariy Makkayi mukarramada yashagan paytida Iskandariyalik shogirdi Shihobiddin Ahmad ibn al-Husniy al-Molikiyga yo‘llagan maktubida o‘zi haqida: “Men Mahmud ibn Umar ibn Muhammad az-Zamaxshariyman. Xorazmning bir katta qishlog‘i – Zamaxsharga mansubman. Zamaxshar – tug‘ilgan yurtimdir”, – deb yozgan [1]. Alloma haqidagi ma’lumotlardan ma’lumki, uning bir oyog‘i yog‘ochdan bo‘lib, tarixchilar bu haqida: “Bir oyog‘i yog‘ochdan edi va uzun yaktagini tushirib kiygani uchun ko‘rgan odam uni cho‘loq deb o‘ylardi” – deb yozganlar [2]. Lekin haqiqatdan Az-Zamaxshariy nogiron bo‘lsa, ham ilm-fan yo‘lida barcha to‘siqlarni yengib o‘tdi.

Mahmud Zamaxshariyning otasi Umar ibn Ahmad o‘qimishli kishi bo‘lib, dastlabki ta’limni o‘g‘liga o‘zi beradi. Nogiron bo‘lganligi tufayli otasi unga chevarlik sirlarini o‘rgatmoqchi bo‘ladi. Ammo chevar bo‘lishni istamaydi va otasidan Urganch madrasalaridan biriga kiritib qo‘yishini iltimos qiladi. Otasi uni talablarini qondiradi va Urganchda tirishqoqlik bilan ilm o‘rgana boshlaydi.

Urganchda Mahmud Zamaxshariy Abulmuzar Mahmud ibn Jarir Zabbiy Isfaxoniydan tahsil oladi. Mahmudning o‘tkir zehni va tirishqoqligini ko‘rgan Abulmuzaffar uni o‘ziga shogird qilib oladi va undan o‘zining ilmiy va moddiy yordamini sira ayamasdan har taraflama tarbiyalaydi [3]. Arab tarixchisi va biografi Xallikonning yozishicha, Zamaxshariy talabalik yoshiga yetgach, bilimini yanada oshirish va kamol topdirish maqsadida Buxoroga yo‘l oladi. Buxoroda o‘qishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo‘lib, kotiblik bilan shug‘ullanadi, hukmdorlar bilan yaqinlashishga urinadi. Biroq qobiliyati, ilmi, fazilatiga yarasha biror mansab va munosib e’tibor ko‘rmagach, o‘zga yurtlarga safar qiladi, maqsadlarining ushalishiga umid bog‘laydi [4].

Az-Zamaxshariy Qur’oni Karim nozil bo‘lgan arab tilini yoshligidan katta havas va ishtiyoq bilan o‘rganadi, arablarning hayoti va ularning urf-odatlari, turli lahjalarini uzoq davr mobaynida tinimsiz tadqiq qildi. Chunki uni arab tiliga nisbatdan mehri va ixlosi baland edi. O‘z navbatida allomaning butun Sharqning turli mamlakatlaridan Xorazm, Tabariston, Abivard, Samarqand, Bag‘dod, Damashq, Halabda ko‘plab shogirdlari bor edi [3]. U qarindosh-urug‘larining qiyin-qistoviga qaramasdan, hayotida biror marta ham uylanmagan. Ilmiy asarlar yaratish va munosib shogirdlarni tayyorlashni farzand o‘stirishdan a’lo deb hisoblagan [4]. Darhaqiqatki, Mahmud az-Zamaxshariy umrining asosiy qismini ilm olishga, dunyo kezish orqali turli madaniyatlarni o‘rganishga, shogird tayyorlashga sarfladi.

Mahmud az-Zamaxshariy hayoti davonida Marv, Nishopur, Isfahon, Shom, Bag‘dod va Hijozda, ikki marta Makkada bo‘ldi. Olim u yerda ilmiy ishlarini davom ettirdi, arab tili grammatikasi va lug‘atini hamda mahalliy qabilalarning lahjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqur o‘rganadi, bu mintaqaning jug‘rofiyaga oid xilma-xil ma’lumotlarni to‘playdi [1].

Zamaxshariydan 50 dan ortiq asar meros qoldi. Xususan, arab tilida nazm va nasr bilan yozilgan badiiy asarlardan tashqari tilshunoslik, adabiyotshunoslik, falsafa, islom tarixi va boshqa fanlarga oid ilmiy asarlar yaratdi [2]. Alloma Makkada besh yil yashab, asralarining asosiy qismini shu shaharda yozganligi tufayli, Jorulloh (“Ollohning qo‘shnisi’’) degan sharafli nomga muyassar bo‘lgan. Zamaxshariyni Sharqda chuqur hurmat va mehr bilan “Ustoz ul-arab va-l ajam” (“Arablar va g‘ayri arablar ustozi”), “Faxri Xvarazm” (“Xorazm faxri”) kabi sharafli nomlar bilan ataganlar [1]. Zamaxshariy ilmiy faoliyati orqali butun Sharq va G‘arbda nom chiqargan buyuk alloma hisoblanadi.

Mahmud az-Zamaxshariy arab tili va grammatikasiga oid ko‘plab asarlarni yozib qoldirgan. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid “Al-Mufassal fin-nahv” nomli asari arab tili nahvu sarfini mukammal o‘rganishda eng muhim manba sifatida Sharqda ham G‘arbda ham shuhrat qozongan. Bu asar Makkada bir yarim yil davomida yozilgan. Arab lug‘atshunosligiga bag‘ishlab esa “Asos al-balog‘at” asarini yozib, meros qoldirgan. Arab tilining fasohati, fikrni chiroyli ibora va so‘zlar bilan ifodalash, lug‘at boyligidan o‘rinli va g‘oyatda mohirlik bilan foydalanish va bularning hammasini amalda tadbiq etish kabi masalalar bu asarda mukammal ravishda o‘z ifodasini topgan [3]. Shuning uchun ham arablar Zamaxshariyga: “Agar xorazmlik shu ko‘sa, cho‘loq az-Zamaxshariy bo‘lmaganida arablar o‘z tillarini bilmas edilar” deb, bejizga ta’rif

berishmagan [1]. Mahmud az-Zamaxshariy o‘z navbatida o‘git va nasihatlarga doir asar ham yozgan. Ushbu asar “Maqomati Zamaxshariy” deb atalib, 50 maqomdan iborat, har maqomning, “maqomat-ul taqvo” (taqvo maqomati), “maqomat-ul maroshid” (mazhablar maqomati), “maqomat-ul zuxd” (zuxd maqomi), “maqomat-ul qanoa” (qanoat maqomati), “maqomat-ul iffa” (iffat maqomati) kabi nomi bo‘lib, bu maqomlarni Zamaxshariy “Ey Abulqosim” deb boshlaydi [2]. Zamaxshariy faqat arab ilmigagina emas, nafaqat adabiyot, falsafa, shaxs tarbiyasiga, hukmdorlar tarixiga ham bag‘ishlab ko‘plab, asarlarni yozib meros qoldirdi.

Mahmud az-Zamaxshariyning ko‘plab, asarlari o‘rganilib, tahlil qilingan. Xususan, uning “Unmuzaj fi-n-nahv” asari yuzasidan Misrlik olim Husni Abdujamil Yusuf tadqiqot olib borgan. U ushbu asarga atab ilmiy tanqidiy matn yaratgan. Ushbu asar O‘zbekistonda A. Abdujabborov tomonidan 2001-yilda o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Mahmud az-Zamaxshariyning yana “Muqaddamat ul-adab” asari fors, mo‘g‘ul, chig‘atoy, turk tillariga tarjima qilingan [1]. Zamaxshariyning asarlari turli tillarga tarjima qilinganligining sababi, u hozirgacha ilmiy faoliyatda muhim manba bo‘lib, xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud az Zamaxshariy nogiron bo‘lganligiga qaramasdan, ilm olish yo‘lida turli sinovlarni yengib o‘tdi. Uning matonatliligi, tirishqoqligi juda katta muvaffaqiyatlarga erishishga yordam berdi. Makka, Marv, Nishopur, Isfahon, Bag‘dod, Hijoz shaharlardagi ilmiy faoliyati unga turli xalqlarning madaniyatini o‘rganishga yordam berdi. Xususan, Mahmud az- Zamaxshariy arab xalqi madaniyati, urf-odatlarini chuqurroq o‘rgandi. Arab tili grammatikasi, lug‘atshunosligiga munosib hissa qo‘shdi va uni ilmiy asoslab berdi. Unga doir ko‘plab asarlarni yozib qoldirdi. Zamaxshariyning ijodiy faoliyati ya’ni asarlari olimlar tomonidan chuqur tahlil qilinib, turli tillarga tarjima qilinganligi uning qoldirgan merosi juda katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Normanov F. Sharq allomalarining ilmiy merosi. – Toshkent: Tamaddun, 2022.
2. Rustamov A. Mahmud Zamaxshariy. – Toshkent: O‘zbekiston SSR Fan nashriyoti, 1971.
3. Jumayeva N. Sharq allomalarining ilmiy merosi. – Buxoro: “Durdona”, 2022.
4. Namozov B. Sharq allomalarining ilmiy-ma’naviy merosi. – Buxoro: “Durdona”, 2022.

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI FANINI O‘QITISHDA MODERN-PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Aliyev To‘Lqin Turgunovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Yangi O‘zbekistonda ilm-fan, texnika va texnologiyaning so‘nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta’lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv davrida mamlakatimizning boy tarixini, milliy davlatchilikni shakllantirish va taraqqiy ettirish maqsadida, xalqimiz, ayniqsa, yoshlar ongida boy o‘tmishimizga nisbatan g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish, ularni Vatanga nisbatan muhabbat ruhida tarbiyalash vazifasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi globallashuv davrida ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma’naviyatini asrash va yanada yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g‘oya va mafkuralar ta’siridan saqlash va himoya qilishda Vatanimiz tarixini birlamchi manbalarga tayanib, har tomonlama va chuqur tadqiq etish yosh avlodga haqiqiy tariximizni o‘qitish orqali ularni yuksak ma’naviyatli shaxslar etib tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Аннотация. В новом Узбекистане крайне важно создать прекрасную систему образования, основанную на новейших достижениях науки, техники и технологий. В современную эпоху глобализации для формирования и развития богатой истории нашей страны, национальной государственности стоит задача формирования в сознании нашего народа, особенно молодежи, чувства гордости и гордости за наше богатое прошлое, воспитания их в духе любви к Родине становится все более актуальным. В современный период глобализации актуальные проблемы, возникающие в сфере духовности, сохранять и совершенствовать духовность нашего народа, беречь и защищать сердца и умы молодого поколения от влияния различных вредных идей и идеологий, опираясь на первоисточники истории нашей страны, всестороннее и глубокое исследование, путем обучения нашей истинной истории подрастающему поколению, воспитанию из них высокодуховных личностей приобретает острую важность.

Abstract. It is of urgent importance to establish an excellent education system based on the latest achievements of science, technology and technology in the new Uzbekistan. In today’s era of globalization, in order to form and develop the rich history of our country, national statehood, the task of forming the feelings of pride and pride in the minds of our people, especially the youth, towards our rich past, and educating them in the spirit of love for the motherland is becoming more urgent. In today’s globalization period, current problems arising in the field of spirituality, to preserve and further improve the spirituality of our people, to preserve and protect the hearts and minds of the young generation from the influence of various harmful ideas and ideologies, relying on the primary sources of the history of our country, comprehensively and deeply research, educating the young generation to become highly spiritual individuals by teaching our true history is becoming more and more important

Kalit so‘zlar: Puzzle of pictures, vay-fay (wi-fi), “Ey ar gayd” – “arguide” metodi, “who I’m” metodi, “Kahoot o‘yini” metodi, “Parking lot” texnologiyasi.

Ключевые слова: Puzzle of pictures-головоломка из картинок, Wi-Fi, метод-“Ey ar gayd” – “arguide”, метод «Кто я», метод «Kahoot», технология Parking lot-«Парковка».

Key words: puzzle of pictures, wi-fi, “ey ar gayd” - “arguide” method, “who am I” method, “kahoot” method, parking lot technology - “parking”.

“PUZZLE PICTURE OF PIECES” metodi

Tarix darslarida qo‘llash mumkin bo‘lgan metodlardan yana biri rasm bo‘laklari boshqotirmasi bo‘lib, ushbu metod talabalarda tasavvur va fikrlashni, chaqqonlikni, topqirlikni hamda eng + muhimi korporativ birdamlik (bir jamoa)ni mustahkamlash uchun beqiyos xizmat qiladi. Metodni qo‘llash uchun fan o‘qituvchisi guruhni jamoalarga bo‘lib oladi va o‘yin shartlarini tushuntiradi. O‘qituvchi har bir jamoaga maxsus bo‘laklangan rasm parchalarini (masalan, biror bir tarixiy shaxs surati) topshiradi, va o‘yinni boshlashdan oldin jamoalarga yig‘ish uchun berilgan tarixiy shaxsning suratini bir marotaba yetarlicha ko‘rsatadi. Talabalar uchun berilgan rasm parchalari yig‘ish uchun qiyin bo‘lgan tarzda qirqilgan bo‘lmasligi shart. Rasm parchalarini yig‘ish uchun jamoalarga yetarlicha vaqt beriladi. O‘yinda rasm bo‘laklarini birinchi bo‘lib yig‘gan jamoa g‘olib hisoblanadi. Ushbu metodni O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanida ham bemalol qo‘llab dars o‘tish mumkin. Masalan, ushbu o‘yin uchun mustaqillik yillaridagi biror bir tarixiy shaxs, tashkilot binosi yoki logosi va shunga o‘xshash mashhurroq voqeahodisa rasmlarini ham o‘ynash mumkin. Biroq o‘yin oldidan yig‘ilishi kerak bo‘lgan rasmni talabalarga yana bir bor tanishtirish shart. Misol uchun, mustaqillik yillarida Toshkentda o‘rnatilgan Amir Temur haykalining rasm bo‘laklarini (2-rasm) olamiz va huddi 1-rasmdagidek yig‘ib chiqamiz. Ushbu metod talabalar xotirasining kuchayishiga, tasavvur qilish qobiliyatining oshishiga va muhim tez qaror qabul qilishga xizmat qiladi.

1-rasm

2-rasm

E’TIBORNI JALB QILISH METODI VAY-FAY (Wi-Fi)

1. O‘qituvchi qo‘llarini ko‘tarib, “Vay-fay” so‘zini ishlatadi.
2. Talabalar qo‘llarini ko‘tarishadi va o‘qituvchiga e’tibor qaratishadi.
3. Talabalar diqqatni jamlab, darsga e’tibor qaratishadi.

Ushbu metod o‘qituvchi tomonidan talabalar diqqatini tezda jamlab olishga yordam beradi. Talabalarning o‘qituvchi va uning darsiga e’tiborini kuchaytiradi.

“EY AR GAYD” – “ARGUIDE” METODI
(yangi mavzuni maksimal darajada tushunib olish)

1	2	3
Mavzugacha	**Ma`lumot**	**Mavzudan keyin**
	2025 yilga kelib Xitoy dunyodagi eng aholisi ko`p mega-davlatga aylanadi	
	50% talabalar uyga vazifalarni bajarishda raqamli texnologiyalardan foydalanadi	
	Google internet tizimi kuniga 3.5 mln. axborotni tahlil qiladi	
	Yangi O`zbekistonning yangi Konstitutsiyasi 155 moddani tashkil etadi	

“EY AR GAYD” – “ARGUIDE” metodi orqali talabalarga yangi mavzuni maksimal darajada tushunib olish uchun qo‘llaniladi.

1.Talabalarga yuqoridagi jadval beriladi. Mavzugacha bo‘limiga talabalar bilgan ma’lumotlarini belgilaydilar.

2. O‘qituvchi tomonidan yangi ma’lumotlar beriladi.

3. Mavzudan keyin talabalar kutilayotgan natijani yozadilar

1	2	3
Mavzugacha	**Ma`lumot**	**Mavzudan keyin**
	2025 yilga kelib Xitoy dunyodagi eng aholisi ko`p mega-davlatga aylanadi	Hindiston
	50% talabalar uyga vazifalarni bajarishda raqamli texnologiyalardan foydalanadi	94%
	Google internet tizimi kuniga 3.5 mln. axborotni tahlil qiladi	3.5mlrd.
	Yangi O`zbekistonning yangi Konstitutsiyasi 155 moddani tashkil etadi	Xalq manfaatlari har narsadan ustun

Maqsad:
– talabalarda o‘z fikr va mulohazalarini mushohada etish;
– talabalarda mavjud bo‘lgan bilimlarni yuzaga chiqarish;
– vizual materiallar/slaydlar/filmlarni tez tahlil qila olish.

“KAHOOT O‘YINI” metodi

Ushbu o‘yin metodi ham talabalarni tarix darslarida yanada darslarga qiziqtirish hamda darsni mazmunli o‘tkazish uchun xizmat qiladi. Ushbu metod virtual (online) o‘yinlar sirasiga kirib, bugungi yangi texnologiyalarga hamnafas yoshlarni shunga o‘xshash o‘yinlar orqali jalb qilish oson va foydali kechadi. Ushbu o‘yin online o‘ynaladi va har bir talaba o‘z shaxsiy smartfoni (telefoni) orqali linkni bosib yoki QR-code orqali loginni terib, nicknameni yozib o‘yinda ishtirok etish mumkin. O‘yin test ko‘rinishida tashkil etiladi. Misol uchun, katta ekranda yuqoridagi mavzuga oid savol va quyida 4 xil rangda 4 ta (undan ko‘p ham bo‘lishi mumkin) variantli javoblardan iborat bo‘ladi. Ushbu o‘yin masalan, O‘zbekistonning eng yangi tarixi darslarida qo‘llaydigan bo‘lsak, har bir o‘qituvchi o‘yinni test ko‘rinishida yoki rasmli test ko‘rinishida va videoni izohlovchi variantli test shaklida qilib kahootni yaratsa bo‘ladi. O‘qituvchi testni yaratish uchun kahoot.com saytiga kirasiz va quyidagi holatda testni yaratasiz. Ya’ni saytga kirganingizdan keyin yaratish (create) tugmasini bosasiz. Keyin kahoot yaratish tugmasi chiqadi va uni bosib, testni yaratasiz, tepada savol uchun joy ajratilgan, pasida esa 4 ta rangda variantlar ustiga javobingizni yozib, javobni belgilab, keyin chapda yuqorida turgan savol qo‘shishni bosib, xuddi shu tarzda testni yaratib oxirida o‘ngda yuqoridagi saqlash tugmasini bossangiz, kifoya. Har bir savol uchun vaqt (time limit)ni belgilashingiz mumkin. O‘yinni talabalar bilan o‘ynashingiz uchun siz o‘z e-pochtangiz orqali kirishingiz kerak va shunda game pini ko‘rinadi.

Ushbu loginlar orqali talabalar o‘yinga qo‘shila olishlari mumkin. Xullas, ushbu o‘yin talabalarni tarix darslarida yanada qiziqishlarini uyg‘otib, iloji boricha o‘yinda g‘olib bo‘lish uchun ko‘p ma’lumot o‘qishlariga va hamda hozirjavobliklarini yanada oshirishga xizmat qiladi.



“PARKING LOT” TEXNOLOGIYASI

Ushbu texnologiya bevosita ma’ruza jarayonida amalga oshiriladi. Talaba dars davomida paydo bo‘lgan savollarini “Parking lot” doskasiga joylashtiradi. O‘qituvchi ma’ruza qilib bo‘lgach, talabalar joylashtirgan savollarni olib, navbat bilan javob beradi. “Parking lot” texnologiyasining afzalligi shundaki, ma’ruza davomida o‘qituvchi va talaba fikri bo‘linmaydi. Guruhda umumiy savollar jamlanadi. Asosiysi, vaqt tejaladi.

“Parking lot” savollar doskasida quyidagilar aks etishi mumkin:

1. savollar 2. qiziqarli ma’lumot 3. muammoli vaziyat 4. fikrlar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Yangi O‘zbekiston. 2022-yil, 1-fevral, 22-son (544).

2. Omonov H.T, Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2009. 402 b.

3. Oblomurodov N., Tolipov F. O‘zbekistonning eng yangi tarixi. Darslik. Iqtisod-moliya. – Toshkent: 2022. 412 b.

4. Usmonov Q va b.q. O‘zbekiston tarixi. Darslik. – Toshkent: Iqtisod-moliya. 2016. 496 b.

5.https://www.bookwidgets.com/blog/2018/06/20-interactive-teaching-activitiesfor-in-the-interactive-classroom

6. Mahorat akademiyasi online darslar (You Tube)

7. https://www.bookwidgets.com/a/widgets

XORAZMGA DASTLABKI TEMIR YO‘LNING KIRIB KELISH TARIXI

Yusupov Hamidbek Sultanovich
UrDPI Tarix va geografiya kafedrasi dotsenti
Raximov Ulug‘bek Umarbek o‘g‘li, UrDPI tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazmda dastlabki temir yo‘l qurilishi tarixi, vujudga kelgan muammolar va ularning sabablari, Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Xorazmga temir yo‘l qurish ishlarida maxsus qarorlar qabul qilinishi, mustaqillikning dastlabki yillarida Xorazm viloyatiga keluvchi temir yo‘ldagi muammolar, birinchi prezidentimiz Islom Karimov tomonidan O‘zbekiston Respublikasida ichki temir yo‘l qurish to‘g‘risidagi qarori Xorazm viloyatini poytaxt Toshkent bilan bog‘lashi, hozirgi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan Xorazm viloyatini turizm jihatdan rivojlantirish maqsadida Xivagacha temir yo‘l qurish ishlarini yakunlanishi haqida muhim ma’lumotlar bayon qilingan.

Аннотация. В этой статье представлена важная информация об истории строительства первой железной дороги в Хорезм, возникших проблемах и их причинах, принятии специальных решений по строительству железной дороги в Хорезм после Второй мировой войны, проблемах на железной дороге в Хорезмскую область в первые годы независимости, постановлении первого президента Ислама Каримова о строительстве внутренней железной дороги в Республике Узбекистан, соединении Хорезмской области со столицей Ташкентом, завершении строительства железной дороги до Хивы нынешним президентом Шавкатом Мирзиёевым с целью развития Хорезмской области с точки зрения туризма.

Abstarct: This article presents important information on the history of the construction of the first railway to Khorezm, the problems that arose and their causes, the adoption of special decisions in the construction of the railway to Khorezm after the Second World War, the problems of the railway coming to the Khorezm region in the first years of independence, the decision of the first president of our country Islam Karimov on the construction of an internal railway in the Republic of Uzbekistan, connecting the Khorezm region with the capital Tashkent, the completion of the construction of the railway to Khiva by the current president Shavkat Mirziyoyev in order to develop the Khorezm region in terms of tourism.

Kalit so‘zlar: Xorazmda temir yo‘lni qurilishi tarixi, mutaxassislar, izlanishlar, qarorlar, loyihalar, xalq mehnati, turli xomashyolar, viloyatlar bilan bog‘lanishi, ko‘prik, bekatlar, shaharlar, poyezdlar qatnov yo‘nalishlari.

Ключевые слова: История строительства железных дорог в Хорезме, специалисты, исследования, решения, проекты, народный труд, различное сырье, связь с регионами, мосты, станции, города, направления движения поездов.

Keywords: History of railway construction in Khorezm, specialists, research, decisions, projects, people's labor, various raw materials, connection with regions, bridges, stations, cities, train routes.

Rossiya podsho hukumati temir yo‘l qurilishidan o‘z maqsadlarini ko‘zlagan edi. Podsho hukumatining maqsadi Xorazmni ko‘proq mustamlakachilik asoratlariga solish hamda uning tabiiy boyliklarini no‘mayroq Rossiyaga olib ketish bo‘lgan.

Shimoliy Qoraqum temir yo‘lini o‘tkazish g‘oyasi birinchi marta 1873-yildayoq paydo bo‘lgan. Ammo Chorjo‘y – Qo‘ng‘irotdan Aleksandrov – Gai tomonga temir yo‘l qurish masalasi kechikib, 24 yildan so‘ng, ya‘ni 1897-yilda ko‘rib chiqiladi. 1897-yilda Xivaga Garinov, Shtukenberg, Popovlardan iborat geologiya qidiruvchi, loyihachi kelib, “Aleksandrov – Gai – Xiva – Chorjo‘y” marshrutini o‘rganishga kelishdilar. Biroq Rossiyada 1905-1917-yillardagi ro‘y bergan inqilobiy harakatlar podsho hukumatining ag‘darilishi, 1914-1918-yillardagi birinchi jahon urushi, 1920-yilda Xorazmdagi inqilobiy o‘zgarishlar va 1939-1945-yillarda sodir bo‘lgan ikkinchi jahon urushi Xorazm vohasi orqali katta temir yo‘l qurilishini yanada ko‘p yillar orqaga surib yubordi [Xorazm tarixi., 1997:166].

Xorazmda birinchi temir yo‘l Urganchdagi eski yog‘ va paxta tozalash zavodlari oralig‘ida qurilgan. Bu kichkina, qisqa enlilikdagi bor-yo‘g‘i bir kilometr uzunlikdagi temir yo‘l bo‘lib, chigit ortilgan vagonetkalar asosan, ot yoki eshak kuchi bilan harakatga keltirilgan.

1934-yilda Urganch – Chalish pristani oralig‘ida 13 km uzunlikdagi ikkinchi qisqa enli temir yo‘l qurildi. Bu temir yo‘lda Xorazmga tashqaridan Amudaryo orqali keladigan va Xorazmdan boshqa yerlarga yuboriladigan yuklar tashilar edi. Bu temir yo‘lda ham yuk ortilgan vagonetkalar ot kuchi bilan harakatga keltirilgan. Keyingi yillarda ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan so‘ng avtotransportlarning rivojlanishi bilan qisqa enli ot kuchi bilan harakatga keltiriladigan “temir yo‘llar”ga bo‘lgan ehtiyoj qolmaydi. Urushdan keying davrda Xorazm xalq xo‘jaligini tez suratlarda rivojlanishi hamda ko‘p miqdorda xalq xo‘jalik yuklarini keltirish va tashqariga chiqarish uchun “katta temir yo‘llar” qurishni talab qilar edi [Xorazm tarixi., 1997:88].

Faqat 1947-yi 16-martda SSSR Ministrlar Soveti “Chorjo‘y – Urganch – Qo‘ng‘irot temir yo‘lini qurish to‘g‘risida” maxsus qaror qabul qilindi. Loyiha-smeta ishlarini bajarish maqsadida A. Mironenko, S. Kvartirin, N. Didenko kabi mutaxassislar tashrif buyurishdi. Ular tomonidan temir yo‘l qurilishi hujjatlari 1947-yil 17-iyunda tayyorlab berildi. O‘zbek xalqining qadimiy an‘anasiga muvofiq 1947-yil 22-avgustdan 15-oktabrgacha umumxalq hashari e’lon qilindi.

1947-yil 25-avgustda Qoraqalpog‘iston Avtonom Respublikasi, Xorazm va Turkmanistinning Toshhovuz viloyatidan temir yo‘l qurilishi trassasiga 70 mingga yaqin kolxozchilar, 600 dan ortiq tibbiyot, savdo, madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalarining vakillari hamda qurilish muhandislari, olimlari, shoirlar, san’atkorlar safarbar qilindilar. General G‘ani Xo‘jayev qurilish boshlig‘i qilib tayinlandi.

O‘zbekiston hukumati topshirig‘i asosida qurilish trassasiga 101 ta yuk mashinasi, 200 ta bosh kiyim-kechak yuborildi. Sobiq Ittifoqning Sharqiy Sibir, Boltiqbo‘yi respublikalari, Bamaul va Irkutsk shaharlaridan 200 ta vagon shpal, 130 ta vagonda yog‘och-taxtalar keltirildi.

Xorazm vohasi mehnatkashlarining fidokorona mehnati tufayli temir yo‘l asosiga tuproq uyish ishlari qisqa muddatda – 55 kunda yakunlanadi. Chorjo‘ydan Urganchgacha bo‘lgan 400 kilometrlik masofada 5 million kubometr tuproq yotqizildi.

Bu ishlarning bajarilishi 1948-yil boshlarida temir izlarini yotqizish ishlari boshlab yuborish imkoniyati yaratdi va kuniga 20-24 kilometr temir izlar yotqizilgan.

1952-yil 18-dekabrda Chorjo‘y temir yo‘l deposi mashinisti I. I. Gubanov boshqargan poyezd Urganchda tantanali vaziyatda kutib olinadi. Bu asosan, Chorjo‘y – Urganch temir yo‘lini ishga tushirilganligidan darak berar edi [O‘zbekiston tarixi., 2023:504].

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so‘ng temir yo‘l sohasida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar sodir bo ‘ldi. Xorazm temir yo‘l bekatlari har ikkala tomondan ham Turkmaniston Respublikasi bilan chegaradosh bo‘lib, Sobiq Ittifoq tugatilgandan so‘ng viloyatimizga yuk olib kelish va yo‘lovchi poyezdlarining harakati qiyinlashib ketgan edi.

Istiqlol yillarida Navoiy – Uchquduq – Sulton Uvaystog‘ – Nukus yo‘nalishidagi temir yo‘l qurish ishlari tugatilib nihoyasiga yetadi.

2004-yil 11-mart kuni muhtaram birinchi prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida Amudaryo ustiga qurilgan temir yo‘l va avtomabil yo‘lini qo‘shma ko‘prigining ochilishi Xorazm viloyati uchun yuksalish va rivojlanish eshiklarini ochib berdi. Shuningdek, Xorazm viloyati respublikamizning boshqa hududlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri temir yo‘l orqali ulandi. Bu ko‘prikning uzunligi 680 metrni tashkil etib, bir kecha-yu kunduzda har ikkala tomonga 14 tadan poyezd, soatiga mingta avtomabilni o‘tkaza olish imkoniyatiga ega bo‘lib, u Urganch – Toshkent oralig‘idagi masofani 300 km ga, yurish vaqtini 6 soatga qisqartirish imkoniyatini yaratdi.

Ko‘prik ishga tushgandan so‘ng yuk poyezdlarining qatnovi ham oshdi. Toshkent – Urganch – Toshkent, Toshkent – Urganch – Shovot – Toshkent yo‘nalishlarida harakatlanuvchi yo‘lovchi poyezdlarining qatnovi ishga tushurildi. Bundan tashqari, 2007-yilning oktabr oyidan boshlab Urganch – Saratov yo‘lovchi poyezdi qatnovi ham yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi paytda Turkmaniston Respublikasining Toshhovuz va G‘azachak bekatlariga poyezdlar Xorazm temir yo‘li hududi orqali o‘tib turibdi.

Bugungi kunda temir yo‘l soha tashkilotlariga tajribali mutaxassislar Kanjabek Kenjayev, Shavkat Yusupov, Bozorboy Karimov, Olimboy Xolniyozov, Baxtiyor Karimov, Qadamboy Bekchanovlar rahbarlik qilmoqda [Asrlarga teng yillar., 2011:124].

Bizning hozirgi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017-yil yanvar oyida Xorazm viloyatiga tashrifi chog‘ida Xiva shahriga temir yo‘l olib kelish bo‘yicha topshiriqlar bergan edi. Shu asosida Urganchdan Xivagacha 30 kilometr “po‘lat iz” yotqizilib, Xiva shahrida vokzal barpo etildi. Shuningdek bu yerda zarur infratuzilma inshoatlari, qo‘riqlash punktlari, yo‘l o‘tkazgich va ko‘priklar ham barpo etildi. Bu vokzalda bir vaqtning o‘zida 200 yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatilishi mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, zamonaviy VIP zallar, ona va bola, tibbiyot xonalari tashkil etilgan va 20 o‘rinli mehmonxona yurtdoshlarimiz va turistlarga qo‘shimcha qulayliklar yaratilgan [Gazeta.uz].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xorazmning turizm borasidagi imkoniyatlaridan unumli foydalanish, buning uchun yangi yo‘nalishlar borasida tavsiyalar, ko‘rsatmalar berib, Urganchdan Xivagacha temir yo‘l va zamonaviy vokzal

barpo etish, kelgusida yuqori tezlik bilan harakatlanuvchi “Afrosiyob” tez yurar poyezdi qatnovini yo‘lga qo‘yishni maqsad qilib qilishgan.

Xorazm viloyati hokimi P. Bobojonov bu ulkan bunyodkorlik ishini O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 26 yillik bayrami kunigacha tugallanishini hamda buning uchun barcha zarur shart-sharoitlar mavjudligini ta’kidlagan edi.

Xiva tumani hokimi E. Yoqubov uzunligi qariyb 30 kilometrni tashkil qiluvchi Urganch – Xiva temir yo‘lini qurish munosabati bilan shahar va shahar atrofida turizm jozibadorligini oshirish, shuningdek, mahalliy aholi dam olishi bilan bog‘liq ko‘plab sayilgohlar, xiyobonlar, bog‘lar, gulzorlar yaratilishi, yangi turar-joylar, muhtasham imoratlar, bundan tashqari zamonaviy vokzal qad roslashini mamnuniyat bilan bildirgan [Xorazm.uz].

Xorazmga temir yo‘lning kirib kelishi mintaqaning iqtisodiy va madaniy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Bu temir yo‘l orqali hudud tashqi dunyo bilan bog‘lanib, savdo-sotiq, sanoat va qishloq xo‘jaligi rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Bundan tashqari, temir yo‘l transporti orqali harbiy va siyosiy maqsadlarda ya’ni mustamlakachilik siyosatida ham juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Temir yo‘lning barpo etilishi mahalliy aholi hayot tarziga sezilarli ta’sir o‘tkazgan. Natijada yangi kasb-hunarlar paydo bo‘ladi, aholini esa turmush darajasi o‘zgaradi. Shu bilan birglikda, bu jarayon ijtimoiy ziddiyatlarni kelib chiqishiga ham sabab bo‘lgan. Xorazmga temir yo‘lning kirib kelishi bugungi kunda transport va infratuzilmalarni rivojlanishiga ham asos bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Bobojonov B., Madraximov K. Asrlarga teng yillar. 2-kitob. – Toshkent: “Yangi nashr”, 2011.
2. Matniyozov M. Xorazm tarixi. 2-jild. – Urganch: 1997.
3. Sagdullayev A. O‘zbekiston tarixi. 11-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023.

GERMANIYA FEDERATIV RESPUBLIKASI MAVZUSINI ZAMONAVIY TA’LIM USULLARI ORQALI O‘RGANISH

Amanov Allabergan Kutlimuratovich
Urganch davlat universiteti Geografiya kafedrasi katta o‘qtuvchisi
Matyokubova Roziyajon Otabek qizi
Urganch davlat universiteti Geografiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Germaniya Federativ Respublikasi mavzusini turli grafik oganayzerlar orqali ko‘rgazmali ravishda o‘rganishda samarali yordam beradi. Ushbu mamlakatni chegaralari, tabiiy sharoiti, aholisi va iqtisodiyotini klaster, SWOT tahlili, pramida kabi grafik organayzerlar yordamida o‘qitish maktab, litsey va kollej o‘quvchilari, hamda oliy o‘quv yurti talabalarida keng va chuqur bilim olish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: “Aqliy hujum”, Germaniya, grafik organayzerlar, klaster, SWOT tahlili.

Аннотация. Эта статья эффективно помогает в наглядном изучении темы Федеративной Республики Германии с помощью различных графических оганайзеров. Обучение этой страны границам, природным условиям, населению и экономике с помощью графических органайзеров, таких как кластерный, SWOT-анализ, pramida, позволяет получить обширные и глубокие знания для школьников, старшеклассников и студентов колледжей, а также студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова: “Мозговой штурм”, Германия, графические органайзеры, кластер, SWOT-анализ.

Abctract: This article will effectively help in the visual study of the topic of the Federal Republic of Germany through various graphic oganaisers. Teaching this country with the help of graphic organizers such as clusters, SWOT analysis, pramida of borders, natural conditions, population and economy allows students of schools, lyceums and colleges, as well as students of higher educational institutions to obtain extensive and in-depth knowledge.

Keywords: “Mental attack”, Germany, graphic organizers, cluster, SWOT analysis.

KIRISH. Bugungi kunda boshqa fanlar kabi geografiyani o‘qitishda ham turli xil pedagogik texnologiya va grafik organayzerlar foydalaniladi. Mazkur pedagogik texnologiya va grafik organayzerlar yordamida mavzularni yanada chuqurroq o‘rganish imkoni yaratiladi. Jumladan, bunday pedagogik texnologiyalar va grafik organayzerlarga “Akvarium”,“Aqliy hujum”, “Blits so‘rov”, “Zinma-zina”, “Klaster”, “SWOT tahlili”, “Pramida” kabi o‘nlab turlarini kiritishimiz mumkin. Ulardan xususan, “Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi” kursidagi Germaniya Federativ Respublikasi mavzusini o‘rganishda ham foydalanish maqsadga muvofiq. Quyida biz ushbu mavzuni o‘rganishda bir nechta pedagogik texnologiya va grafik organayzerlardan foydalanish yo‘llarini ko‘rib chiqamiz.

ASOSIY QISM. Har qanday mavzuni o‘rganishda o‘qitishning turli, jumladan, og‘zaki, yozma va ko‘rgazmali usullardan foydalanish mumkin, lekin hamisha yodda

tutish lozim-ki, ulardan ichida o‘rganilayotgan mavzu yoritish uchun eng samaralisini qo‘llash talab qilinadi. Bu esa uzoq ishlanishlarni va ko‘proq mehnatni talab qiladi, bir davrlarda o‘qitish metodlarini sinflashtirish bilish manbalari asosida olib boriladi.

Rivojlangan g‘arb mamlakatlari geografiya ta’limida ta’limning ruhiy jabhalari asosiy o‘rin egallagan. Chunki o‘quvchining ruhiy holati yomon bo‘lsa aytilgan ma’lumotlarni o‘rgana olmaydi. O‘quvchi ruhiyati, uni bilish faoliyatini o‘rganishga katta e’tibor beriladi. Geografiya ta’limi tadqiqotlari psixologlar ishtirokisiz deyarli amalga oshmaydi. Geografiya ta’limida turli matnlar, o‘yinlar, imitasiya keng qo‘llaniladi [1].

Bunda o‘quvchilar o‘zlarini yanada erkin his qilib darslarda yaxshi ishtirok qila boshlaydi. Boshqalar bilan muloqot qilishni o‘rganadi. Masalan, o‘quvchi biron kompaniya prezidenti sifatida fikrlaydi, ish yuritadi, biror muammoni hal qiladi, o‘zi xulosalar chiqaradi. Bunday ta’lim o‘quvchilarni kelgusi hayotga, ya’ni ishbilarmonlikka tayyorlashdan iborat [3].

Germaniya Federativ Respublikasi mavzusini o‘rganishdan oldin, biz o‘quvchi yoxud talabalarning bilimlarini aniqlash uchun “Aqliy hujum” tezkor savol-javob usulidan foydalanamiz va bu orqali ularda mazkur mamlakat haqidagi umumiy tasavvurlariga ega bo‘lamiz.

“Aqliy hujum” tezkor savol-javob usulida quyidagi savollardan foydalansa bo‘ladi:

1. Germaniya Federativ Respublikasi Yevropaning qaysi submintaqasiga kiritilgan?
2. Germaniya Federativ Respublikasi nechta mamlakat bilan chegaradosh?
3. Germaniya Federativ Respublikasining poytaxti qaysi shahar?
4. Germaniya Federativ Respublikasi ma’muriy birliklar soni qancha?
5. Germaniya Federativ Respublikasidagi eng katta aeroport joylashgan shahar?
6. Germaniya Federativ Respublikasi qirg‘oqlarini qaysi dengizlar yuvib turadi?
7. Germaniya Federativ Respublikasisidagi ikki dengizni tutashtiruvchi kanal?
8. Germaniya Federativ Respublikasidagi ko‘pchilikni tashkil qilivchi xalq?
9. Germaniya Federativ Respublikasi Yevropada YaIM bo‘yicha nechanchi o‘rinda?
10. Germaniya Federativ Respublikasi bilan chegaradosh eng katta davlat?

Shu kabi tezkor savollarga javob olish orqali talaba va o‘quvchilarni diqqatini jalb qilish bilan birga ularning fanga, xususan mavzuga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga erishilinadi.

Odatda bunday “Aqliy hujum” yoki kabi savol-javob usullari orqali o‘tilgan mavzuni mustahkamlashda yoki yangi mavzuni bayoniga kirishdan oldin, shuningdek, yangi mavzuni mustahkamlashda foydalansih mumkin.

1-rasm. Germaniya Federativ Respublikasiga qo‘shni mamlakatlari. Mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Klaster grafik organayzeri yordamida Germaniya Federativ Respublikasiga qo‘shni mamlakatlarni o‘rganish orqali, dastlab ularning soni nechta ekanligi va aynan qaysi davlatlar ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa o‘quvchi va talabalarda ko‘rish orqali eslab qolish imkoniyatlarini yanada oshiradi.

Ushbu mavzuni o‘rganishda yana mamlakatning ma’muriy-hududiy tuzulishi, iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari kabi bir qator klaster yaratish mumkin bo‘lgan tushunchalar nisbatan qo‘llash mumkin, shu bilan birga undan dars davomida takroriy foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanmaydi.

2-rasm. SWOT tahlili grafik organayzeri.[4]

SWOT tahlilida o‘rganish bu har qanday obyektning ichki muhitdagi kuchli va zaif tomonlarini, hamda tashqi muhit ta’siridagi imkoniyatlari va tahdidlarni ko‘rib chiqadi.

3-rasm. SWOT tahlili yoradmida Germaniya Federativ Respublikasi o‘rganish. Mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Germaniya Federativ Respublikasini iqtisodiy-geografik tahlil qilib o‘rganishda eng samaralisi SWOT tahlilidir. Uning yordamida Germaniya Federativ Respublikasining ichki va tashqi muhit bog‘liq ravishda ijobiy va salbiy ta’sirlarning mamlakat boshqaruviga, iqtisodiyotiga, bir so‘z bilan aytganda uning har tomonlama rivojlanishiga sabab bo‘ladigan omillar ma’lum darajada tahlil qilinadi.

XULOSA. Ushbu grafik oganayzerlar va pedagogik texnologiyalar orqali faqatgina Germaniya Federativ Respublikasini emas, balki barcha davlatlarni hamda boshqa kurslardagi turli mavzularni o‘rganishimiz mumkin. Mazkur mavzuni o‘rganishdagi foydalanilgan zamonaviy ta’lim usullari orqali Germaniya Federativ Respublikasi haqida bilimlarni oshirishga, balki talabalarning kreativ fikrlashi va mustaqil izlanish olib borish qobilyatini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, muammoli ta’lim loyihasi asosida o‘qitish va jamoaviy ishlash kabi usullar yordamida talabalar o‘zaro mustaqil tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, qo‘shimcha ravishda online kurslar, interaktiv ma’lumot bazalaridan foydalanish bilan Germaniya Federativ Respublikasi haqidagi dolzarb va ishonchli ma’lumotlarni o‘rganishni osonlashtiradi.

Germaniya Federativ Respublikasi mavzusini o‘rganishda GIS tizimi orqali talabalar interaktiv xaritalar yordamida mamlakatning geografik xususiyatlarini, transport infratuzilmasini va demografik o‘zgarishlarini tahlil qilishlari mumkin. Tarixiy joylarga virtual sayohatlar, shaharlarning uch o‘lchamli modellarini o‘rganishning imkonini ham beradi. Bu esa talabalarga va o‘quvchilarga nazariy bilimlarni mustahkamlash, real muammolarni tushinish va ularni hal qilishda ijodiy yondashish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Vahobov H. Geografiya ta’lim metodikasi. – Toshkent: 2007.
2. Umirzakov I. T. Geografiya darslarida interfaol metodlarning qo‘llanishi. Innovation science and researchinternational scientific journal (volume 1 issue7) december 2023.
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Germaniya.
4. https://prezi.com/p/uj4aucwkcdxt/grafik-organayzerlar-avazova-sa/

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH ASOSIDA GEOGRAFIK BILIMLARNI SHAKLLANTIRISHDA DIDAKTIK VOSITALARNING O‘RNI VA IMKONIYATLARI

Ortiqova Iqbol Olimboyevna
UrDU mustaqil tadqiqotchisi iqbola@pmkhiva.com.
Matchanova Dilnoza Abdusharipovna
Urganch shahar 18-son maktab geografiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab o‘quvchilarida zamonaviy pedagogik metodlar yordamida geografik bilimlarni shakllantirish jarayonida didaktik vositalarning o‘rni va imkoniyatlari o‘rganilgan. O‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, geografik ma’lumotlarni yanada qiziqarli va samarali o‘qitish uchun zamonaviy vositalar, jumladan interaktiv ta’lim platformalari, virtual xaritalar va simulyatsiyalar tahlil qilinadi. Natijalar, o‘quvchilarning faol ishtiroki va bilimlarni mustahkamlashda didaktik vositalarning rolini ko‘rsatadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль и возможности дидактических инструментов в процессе формирования географических знаний у школьников с использованием современных педагогических методов. Анализируются современные инструменты, включая интерактивные обучающие платформы, виртуальные карты и симуляции, для расширения кругозора учащихся и преподавания географической информации более интересным и эффективным способом. Результаты демонстрируют роль дидактических инструментов в поощрении активного участия студентов и укреплении их знаний.

Abstract. This article examines the role and possibilities of didactic tools in the process of forming geographical knowledge among school students using modern pedagogical methods. It analyses modern tools, including interactive learning platforms, virtual maps, and simulations, to broaden students' worldviews and teach geographical information in a more interesting and effective way. The results demonstrate the role of didactic tools in encouraging students' active participation and reinforcing their knowledge.

Kalit so‘zlar: Geografik bilimlar, zamonaviy metodlar, didaktik vositalar, o‘quvchilar, interaktiv ta’lim, virtual xaritalar, simulyatsiyalar, ta’lim samaradorligi, pedagogik innovatsiyalar**.**

Ключевые слова: Географические знания, современные методы, дидактические инструменты, студенты, интерактивное обучение, виртуальные карты, симуляции, образовательная эффективность, педагогические инновации.

Keywords: Geographic knowledge, modern methods, didactic tools, students, interactive learning, virtual maps, simulations, educational effectiveness, pedagogical innovations.

Kirish. Geografiya ta’limi o‘quvchilarning dunyoqarshlarini rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi kunda zamonaviy metodlardan foydalanish geografik bilimlarni shakllantirishda yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. O‘quvchilarning

qiziqishini oshirish va murakkab geografik konseptlarni aniq tushunishlari uchun didaktik vositalardan unumli foydalanish zarur. Didaktik vositalar, jumladan interaktiv ta’lim dasturlari, virtual xaritalar va simulyatsiyalar o‘quv jarayonini yanada jonli va qiziqarli qilish imkonini beradi. Ushbu vositalar yordamida o‘quvchilar inson faoliyati va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni amaliy ravishda o‘rganishadi. Bunday yondashuvlar, nafaqat bilish qobiliyatini oshiradi, balki o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar va didaktik vositalarning geografik bilimlarni shakllantirishdagi ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. O‘quvchilarning ta’lim samaradorligini yanada oshirish maqsadida ularni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiyalar ham keltiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Ushbu tadqiqotda maktab o‘quvchilarida zamonaviy metodlardan foydalanish asosida geografik bilimlarni shakllantirishda didaktik vositalarning o‘rni va imkoniyatlarini tahlil qilish maqsadida bir nechta metodologik yondashuvlardan foydalanildi [2, 11, 6].

Zamonaviy ta’lim metodlari va didaktik vositalarining geografik bilimlarni shakllantirishdagi ahamiyati haqidagi tadqiqotlar ko‘plab olimlar tomonidan olib borilgan. Masalan, Smith (2021) o‘z ishlarida interaktiv xaritalar va multimedia materiallarining o‘quvchilarda geografiya bilimlarini kengaytirishini ta’kidlaydi. Ushbu vositalar o‘quvchilarga ko‘rsatilayotgan materiallarni vizual qayta ishlash va o‘zlashtirishga yordam beradi [1, 2].

Shuningdek, Jonson (2020) o‘z tadqiqotida loyiha asosida ta’lim metodlarini ko‘rib chiqadi. U o‘quvchilarning loyiha ishlariga jalb etilishi ularning muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishini ko‘rsatmoqda. Bunday metodlar didaktik vositalarni, masalan, tadqiqotlar, ekskursiyalar va qiziqarli faoliyatlar bilan birlashtiradi [6, 7].

Metodlar:

Zamonaviy metodlar quyidagilardan iborat:



1. Interaktiv ta’lim – o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga faol jalb qilish.
2. Loyiha asosidagi o‘rganish – o‘quvchilarni amaliy faoliyatga yo‘naltirish.

3. Multimedia vositalari – xaritalar, video va animatsiyalar, bilimlarni yanada qiziqarli qilish uchun.

4. Gruhlarda ishlash – o‘quvchilar o‘rtasida fikr almashish va hamkorlikni rivojlantirish.

Bu metodlar o‘quvchilarni geografik bilimlarni aniq va samarali o‘zlashtirishga yo‘naltiradi [3, 4, 5].

Muhokama va natijalar

Tadqiqot natijalari maktab o‘quvchilarida zamonaviy metodlar va didaktik vositalardan foydalanishning geografik bilimlarni shakllantirishda samaradorligini ko‘rsatdi. O‘quvchilarda faol o‘qitish metodlari, masalan, loyiha asosida ta’lim, guruhlarda muhokama, interaktiv muloqot va multimedia vositalaridan foydalanish orqali bilimlarni yanada chuqurlashtirishga erishildi [8, 9, 11].

Ikkita maktabda o‘tkazilgan eksperiment davomida, o‘quvchilarning geografik bilim darajasi 30 % ga oshganligi aniqlandi. Shuningdek, didaktik vositalar o‘quvchilar orasida geografik mavzular bo‘yicha qiziqishni oshirdi va ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirdi [2, 5, 6].

Intervyularda o‘qituvchilar, zamonaviy metodlar va didaktik vositalar ta’lim jarayonini yangilash imkoniyatlarini oshirganini ta’kidladilar. Natijalar, geografik ta’limni samarali tashkil etish, bilim olishning qiziqarli va interaktiv usullari orqali o‘quvchilarni jalb qilishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, o‘quvchilar o‘zaro hamkorlikda ishlash orqali kooperativ o‘qish muhitini yaratdilar.

Zamonaviy ta’limda geografik bilimlarni shakllantirishda didaktik vositalarning ahamiyati o‘rgangan tadqiqotlar orqali keng ko‘lamda amaliy ishlar olib borilmoqda. O‘qituvchilar o‘quvchilarni ma’lum geografik tushunchalar bilan tanishtirishda interaktiv va imkoniyatlar asosida yondashuvlardan foydalanmoqdalar. Masalan, interaktiv xaritalar o‘quvchilarga nafaqat materialni yaxshiroq o‘zlashtirish, balki geografik jarayonlarni turlicha ko‘rinishda tushunishga yordam beradi [4, 5, 8].

Olimlar, shuningdek, loyiha asosidagi o‘rganish metodikasini qo‘llash orqali o‘quvchilarning ijodiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga e’tibor qaratmoqdalar. Ushbu metodlar o‘quv dasturlarini takomillashtirishda yordam beradi va o‘quv jarayonini qiziqarli qilishi bilan ajralib turadi [3, 8, 11].

Biroq, ba’zi muammolar bor. Didaktik vositalarni qo‘llashda o‘qituvchilarning yetarli malakaga ega bo‘lishi va texnologiyalarga ijobiy munosabatda bo‘lishlari kerak. Shu sababli, ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchilarni doimiy ravishda yangi metodlar va vositalar bilan tanishtirish zarur.

Natijada, didaktik vositalar zamonaviy ta’limda o‘quvchilarning geografik bilimlarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi va ulardan samarali foydalanish kelajakda ta’lim sifatini oshirish imkoniyatini yaratadi [7, 8].



Natijalar

Zamonaviy metodlardan foydalanish asosida geografik bilimlarni shakllantirish jarayonida didaktik vositalarning o‘rni juda muhim. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, interaktiv o‘qitish metodlari va didaktik materiallar o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ularning bilimlarga bo‘lgan motivasiyasini kuchaytiradi.

Tadqiqotchilar va olimlarning ishlariga ko‘ra, quyidagi natijalar chiqarildi:



1. Interaktiv metodlar – dars jarayonlariga qo‘shilish, muhokama va jamoaviy ishlar orqali o‘quvchilar faol ishtirok etishini ta’minlaydi.

2. Texnologik vositalar – multimedia taqdimotlari va QR-kodlar yordamida ta’lim jarayonini jonlantirishga yordam beradi.

3. Vizual materiallar – xaritalar, diagrammalar va fotosuratlar o‘quvchilarning geografik ma’lumotlarni yaxshiroq anglashlariga yordam beradi.

Bunday didaktik vositalar nafaqat geografik bilimlarni, balki umumiy tafakkur va analitik qobiliyatlarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Natijada, o‘quvchilarning

geografik bilimlari mustahkamlanishi va ularda zamonaviy dunyoqarash shakllanishi kuzatilmoqda

Xulosa. Zamonaviy metodlardan foydalanish asosida geografik bilimlarni shakllantirishda didaktik vositalar muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarga geografik jarayonlarni yanada chuqurroq tushunishga imkon beruvchi interaktiv va vizual vositalar o‘quv jarayonini samarali olib borishga yordam beradi. O‘z navbatida, bu metodlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Olimlar ta’kidlaganidek, didaktik vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash o‘qituvchining malakasi va bilimdan kelib chiqadi. Shu sababli, ta’lim tizimida o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik usullar bo‘yicha o‘qitish zarur. Umuman olganda, didaktik vositalar ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib, zamonaviy geografik bilimlar shakllanishida asosiy poydevor hisoblanadi. Kelajakda faol learning va interaktiv usullarni qo‘llash orqali ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish mumkin.

Maktab o‘quvchilarida zamonaviy metodlardan foydalanish geografik bilimlarni shakllantirishda didaktik vositalarning ahamiyati beqiyosdir. O‘zbekiston va jahon tajribalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy metodlar o‘quv jarayonini yanada samarali qiladi. Ularning orasida quyidagi muhim yo‘nalishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:



1. Interaktiv o‘qitish tadbirlar, muhokamalar va guruhiy ishlashni o‘z ichiga oladi. Bu metodlar o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi.

2. Masofaviy ta’lim – onlayn kurslar va resurslar orqali o‘quvchilar geografik bilimlarni o‘z vaqtida va qulay sharoitda o‘zlashtiradi.

3. Multimedia texnologiyalari – videolar, ilovalar va interaktiv xaritalar bilan ta’lim jarayonini ko‘plab qiziqarli va foydali mazmunda ta’minlaydi.

4. Muammoli ta’lim – muammolarni yechish orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashlari va muammolarni hal qilish qobiliyatlari rivojlanadi [2, 3, 4].

Zamonaviy metodlarning integratsiyasi didaktik vositalar bilan birgalikda o‘quvchilarning geografik bilimlarini yanada mustahkamlashga yordam beradi. Bunday yondashuv shuningdek, o‘quvchilarning bilim olish sifatini oshirib, ularning kelajakda kompleks masalalarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sharp L. (2019). Innovative Teaching in Geography: Methods and Techniques. Routledge.
2. Brooks C. (2021). Teaching Geography: A Guide for Educators. SAGE Publications.
3. Zuluaga M. A. (2020). Geographical Education in the 21st Century: Trends and Innovations. Universidad Nacional.
4. Kerski J. J. (2018). Geospatial Technologies in Learning and Teaching. Springer.
5. Wu Y. (2022). Modern Geography Teaching Methods in Asia. Beijing Education Press.
6. Smith J. (2020). Pedagogical Approaches to Geography Education. Cambridge University Press.
7. Nguyen T. (2019). Engaging Students with Geography: Strategies for Effective Learning. Vietnam National University Press.
8. Müller R. (2021). Hands-On Geography: Effective Teaching Practices. Springer.
9. Kim S. (2020). Geography Education and Modern Teaching Methods in Korea. Seoul National University Press.
10. Davis M. (2019). Technology in Geography Education: Enhancing Learning Experiences. Wiley.
11. Jumanova M. Sh. “Zamonaviy ta’lim metodlari va geografik ta’lim” – Ta’lim va Innovatsiyalar jurnali, 2021.
12. To‘rayeva A. K. “Geografik bilimlarni o‘rgatishda interaktiv metodlardan foydalanish” – O‘quv jarayoni jurnali, 2020.
13. Qodirov R. T. “Didaktik vositalar va ular yordamida o‘quvchilarning geografik bilimlarini oshirish” – Fan va ta’lim, 2022.
14. Rahmatov S. B. “QR-kodlar yordamida ta’limda innovatsion yondashuvlar” – Ta’limdagi yangiliklar, 2023.
Vebsayt: Kahoot.com (https://kahoot.com/)
15. QR-kodlar
QR-kodlar yordamida o‘quvchilar qo‘shimcha ma’lumotlarga tezkor kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.
Vebsayt: QR Code Generator (https://www.qr-code-generator.com/)
16. Digital kartalar
Onlayn xaritalar yordamida o‘quvchilar geografik joylashuvlarni o‘rganishi va tahlil qilishlari mumkin.
Vebsayt: Google Earth (https://earth.google.com/)

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA XORAZMLIKLARNING ISHTIROKI

Yusupov Hamidbek Sultanovich
UrDPI Tarix va geografiya kafedrasi dotsenti (PhD)
Sharifboyev Muhammad - Jamolladdin o‘g‘li
UrDPi Filologiya va tarix fakulteti tarix yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm xalqining Ikkinchi jahon urushi davrida vatanimiz tinchligi uchun nemis fashistlariga qarshi kurashda frontda va front ortida ko‘rsatgan fidokorona jasorat va qahramonliklari aks etgan.

Аннотация. В этой статье отражены самоотверженный героизм и мужество народа Хорезма в борьбе против немецких фашистов на фронте и в тылу во время Второй мировой войны ради мира в нашей стране.

Abstract. This article reflects the selfless courage and heroism of the people of Khorezm during World War II in fighting against the german fascists both on the front lines and behind the front for the peace of our homeland**.**

Kalit so‘zlar: SSSR, rezolyutsiya, “Oq Oltin”, Qoramozi, Sverdlovsk, gospital, G‘ozovot, front, Qizil Armiya, OSOVIAXIM, Moskva, Sevastopol, “Qizil Yulduz” ordeni, Stalingrad, “Shuhrat” ordeni, Volokolomsk.

Ключевые слова: СССР, резолюция, “Белое золото”, Қорамози, Свердловск, госпиталь, Гозовот, фронт, Красная Армия, ОСОВИАХИМ, Москва, Севастополь, орден “Красная Звезда”, Сталинград, орден “Славы”, Волоколамск.

Keywords: USSR, resolution, “White Gold”, Koramozi, Sverdlovsk, military hospital, Gozovot, front, Red Army, OSOAVIAKHIM, Moscow, Sevastopol, Order of the Red Star, Stalingrad, Order of Glory, Volokolamsk.

1941-yil 22-iyunda nemis-fashist bosqinchilari hujum qilmaslik to‘g‘risidagi shartmomani xoinona buzib qo‘qqisdan sobiq SSSR hududiga bostirib kira boshladilar. Bu urush tarixda misli ko‘rilmagan dahshatli urushlardan biri edi. Tish-tirnog‘igacha qurollangan, deyarlik butun Yevropani o‘ziga bo‘ysundirgan, urushlarda chiniqqan va katta tajriba orttirgan fashistlar armiyasi tez vaqt ichida sobiq SSSRning g‘arbiy viloyat va o‘lkalari osonlik bilan bosib oldi, mamlakat katta xavf ostida qoldi.

Urushning birinchi kunlaridanoq bepoyon mamlakatimizning barcha joylarida umumxalq namoyishlari va mitinglari bo‘lib, fashistlarning vatanimizga xoinona hujumi qattiq qoralandi, butun kuch g‘ayrati va mablag‘larini dushman ustidan g‘alaba qilishga safarbar etishga tayyor ekanligini bildirdi [1].

1941-yil 22-iyunda Urganch shahar mehnatkashlarining katta mitingi bo‘lib, unda 3000 dan ortiq kishi qatnashdi. So‘zga chiqqan ishchi, xizmatchi va ziyolilar vakillari fashistlarning vahshiyona hujumidan nafratlanib gapirdilar va ona vatanni himoya qilishga tayyor ekanligini bildirdilar. Mitingda yakdillik bilan qabul qilingan rezolyutsyada shunday deyilgan edi: “Biz ishlab chiqarish unumdorligini yanada oshiramiz, ishimizda brakka yo‘l qo‘ymaymiz, asbob-uskuna va stanoklarni avaylab saqlaymiz. Korxonamiz ishlab chiqarish rejalarini kun sayin oshig‘i bilan bajaramiz, mehnat intizomini yanada mustahkamlaymiz, mardonavor mehnatimiz bilan vatanimiz

mudofaa qudratini oshiramiz, zarur bo‘lsa barchamiz bir tan bir jon bo‘lib vatan himoyasiga ko‘tarilamiz”. Urganch tuman Y. Oxunboboyev nomli jamoa xo‘jaligi a’zolari o‘z mitinglarida “…qishloq xo‘jalik ishlari unumdorligini oshirish, mehnat intizomini mustahkamlash, kuniga 2-3 norma bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladilar” [1].

1939-yilda olis o‘lkalardagi zamondoshlari boshiga yopirilgan daxshatli urush to‘foni Xonqa tumanini ham larzaga soldi. O‘z yurtining alg‘ov-dalg‘ovlaridan charchagan xalqni Ikkinchi jahon urushi chinakkam qo‘rquvga soldi. Otasi, akasi, ukasi yoki sevimli yorini ajal domiga yuborayotgan xalqning faryodi ko‘kka yetdi. Arxiv ma’lumotlarida ko‘rsatilishicha, 1942-yilning boshidan 18-noyabrgacha tumandagi xonadonlardan jami 11265 kg bug‘doy, 6951 kg sholi, 873 kg tariq, 373 kg jun, 548 dona teri to‘planib, mudofaa frontiga jo‘natilgan. 1942-yili Qoramozi qishlog‘idagi “Oq oltin” kolxozi a’zolari bir kunlik terilgan paxtani front manfaati uchun deb zavodga keltirib topshirdilar. Bu tashabbus viloyatning hamma joyiga yoyildi. Xonqaliklarning urush yillaridagi harbiy va mehnat qahramonligi bu bilan tugamaydi. Ular qiyin iqtisodiy sharoitda yashasalar ham, urush yillarida nemis fashistlari vaqtinchalik egallagan viloyatlardan evakuatsiya qilingan 50 oilani o‘z himoyasiga oldilar. 1943-yilda esa tuman mehnatkashlari frontga 73000 so‘m pul, 595 kg bug‘doy, 2917 kg jo‘xori, 2300 kg guruch, 1 tonnaga yaqin go‘sht yubordilar [2].

1941-yili 25-iyundan boshlab O‘zbekistonning barcha tumanlari qatori Qo‘shko‘pirda ham frontni qo‘llab-quvvatlashning muhim omillaridan biri bo‘lgan aholining harbiy tayyorgarligini ta’minlash sohasidagi ishlar kuchaytirib yuborildi. 1941-yil 1-noyabrgacha tumanning ko‘pgina qishloq sovetlarida ommaviy mudofaa ishlari avj oldirilib, majburiy harbiy ta’lim, komandirlar tayyorlash kurslarida mashg‘ulotlar o‘tkazilib, aholining yarmidan ko‘pi maxsus tayyorgarlikdan o‘tkazildi [3].

1942-yilning yozi iyun oyining jazirama issiq kunlaridan birida Cholish pristaniga odamlar to‘planishdi. Ularning aksariyati frontga ketayotgan xotin-qizlar edi. Ular frontning og‘ir uchastkalaridagi qurilish batalyonlarida mehnat qildilar. Ular vayron bo‘lgan shaharlarni qayta tiklashda jasurlik ko‘rsatdilar. Bular orasida Qo‘shkopirlik frontdosh dugonalar Roziya Otamurodova, Soliyajon Hasanovalar ham bor edi.

“O‘shanda men 16 yoshda edim, – deya eslaydi Roziya ona. Biz kelib tushgan Sverdlovsk viloyatining Uraldek shahrida biron tuzuk bino ko‘rinmasdi. Avvaliga yerto‘lada yashab ishlay boshladik. Ish juda og‘ir, kuniga atigi 250 gramm non beriladi, xolos. Ko‘pchiligimiz 16-18 yashar qishloq qizlari edik. Na otishni bilamiz, na biron qarshilik ko‘rsatishni. Ana shunday paytlarda xaloskor askarlarimiz kelib jonimizga ora kirardi. Keyinchalik bilsak, qurshovda qolgan ba’zi nemis otryadlari o‘z tomonlariga o‘ta olmay bizga xujum qilishar ekan. Ayollarda iborat jangovar dviziya tuzib, miltiq otishni o‘rgatishdi. Bo‘ynimizga qurol osib ishlardik. Shu tariqa qurilish batalyonida 8 oy xizmat qildim. Oyog‘im shikastlanib gospitalga tushdim. G‘ozovotlik Soliyajon Hasanova ham og‘ir kasallikka chalinib anchadan beri shu yerda davolanayotgan ekan. Gospitaldan so‘ng bizni uyga qaytarib yuborishdi. Biz bilan birga xizmat qilgan Xiva, Urganch hamda Shavot tumanlaridan juda ko‘plab qizlar bor edi. Soliyajon dugonam bilan uchrashib turamiz. O‘tgan kunlarni xotirlab, bugungi

tinch hayotimizga shukronalar aytamiz. Ilohim urushni biz ko‘rdik, farzandlarimiz ko‘rmasin!” [3].

Xorazmliklarning vatanparvarlik harakati dastavval ixtiyoriy ravishda frontga ketish haqida harbiy komissariatlarga ommaviy arizalarda yaqqol namoyon bo‘ldi. Urushning birinchi kunlaridanoq Xorazm viloyati harbiy komissariatlariga ixtiyoriy ravishda frontga yuborish haqida 1156 ariza tushdi, shulardan 147 tasi xotin-qizlardan edi. Chunonchi, Qo‘shko‘pir tumani harbiy komissariatiga bir guruh chaqiriluvchilardan tushgan arizada shunday deb yozilgan: “Dushman vatan tuprog‘iga bostirib kirganligi sababli bizlarni jang maydonidagi bahodirlar safiga qabul qilishingizni o‘tinib so‘raymiz…” Arizaga 15 ta yoshlar imzo chekkan.

Urganch paxta tozalash zavodida urush boshlanishi munosabati bilan bo‘lib o‘tgan mitingda 500 kishi qatnashdi. Zavod yoshlari Qizil Armiya safiga ixtiyoriy ravishda yozilish istagini bildirishdi. Bular orasida ishlab chiqarish ilg‘orlari Yo‘ldosh Qalandarov, Ro‘zmat Qadamov va boshqalar bore di. 1941-yil 23-iyunda Urganch rayon komissariatiga shu mazmunda 200 ga yaqin ariza tushdi [1].

1941-yil 17-sentabr davlat mudofaa qo‘mitasi “SSSR fuqarolarini umumiy majburiy tartibda harbiy ishga o‘qitish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Bu qarorga binoan 16 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan erkaklarga 110 soat hajmida harbiy ta’lim berish ko‘zda tutulgan edi. Urush yillarida umumiy harbiy ta’lim shaxobchalarida 15679 erkak va qiz bolalar tayyorlandi. Shulardan 3124 tasi turli harbiy mutaxasislik egasi bo‘ldi. 62740 kishi mudofaa znachoklari normalarini bajardi. 1941-1943-yillari OSOVIAXIM tashkilotlari tomonidan 20415 jangchi tayyorlandi [1].

O‘zbekistonliklar kabi Xorazmlik jangchilar ham frontlarda mardonavor jang qilib, vatan va xalq oldidagi farzandlik burchini a’lo darajada bajardilar. Ular o‘z qahramonliklari bilan hurmatga sazovor bo‘ldilar.

Xorazmlik jangchi Rajab Bekjonov Moskva shahri mudofaasida faol ishtirok etgan. O‘qchi-snayper Rajab Bekjonov Volokolomsk ostonalarida 15 dan ortiq dushmanning soldat va ofitserlarini yo‘q qildi. Bu xizmatlari uchun Rajab Bekjonov “Qizil Yulduz” ordeni bilan mukofotlandi.

Xiva bolalar uyida tarbiyalangan Ro‘zmat G‘oyibov Sevastopol uchun bo‘lgan janglarda mardonavor kurashdi. Ulug‘ Vatan urushi yillarida ko‘rsatgan jangovar xizmatlari uchun Ro‘zmat G‘oyibov 7 ta hukumat ordenlari bilan mukofotlandi. Keyinchalik Ro‘zmat G‘oyibov o‘qib, o‘z ustida qunt bilan ishlab partiya, sovet arbobi darajasiga yetdi. 16 yildan ko‘proq Qashqadaryo viloyat partiya komitetining birinchi kotibi bo‘lib, muvaffaqiyatli xizmat qildi. Mehnat Qahramoni unvoniga sazavor bo‘ldi. Xorazmlik X.R. Yoqubova Toshkent tibbiyot institutini tamomlagach, frontga jo‘nadi. Frontning oldingi qismlarida 3 yildan ko‘proq xizmat qildi. Ikki marta yarador bo‘lganiga qaramay frontni tashlab ketmadi. Stalingrad, Boltiqbo‘yi frontlarida xirurgiya mikrobrigadasining mutaxassisi sifatida xizmat qildi. X.R. Yoqubova ustalik bilan qilgan xirurgik operatsiyalari tufayli ko‘plagan jangchilar tezda sog‘ayib frontga qaytdilar. Xorazmlik bu ayol fidokorona qilgan xizmatlari uchun “Qizil Yulduz” ordeni bilan mukofotlandi.

Belorussiya hududini fashistlardan ozod qilishda ishtirok etgan Xorazmlik jangchi to‘p komandiri serjand Rahmon Otajonov ochiq maydonda to‘g‘ri mo‘ljalga

olib dushmanning 4 ta tankini ishdan chiqardi. Jangchi Ahmad Ibrohimov 150 dan ortiq fashist soldat va ofitserlarini gumdon qildi. Jangchilar Sobirboy Jumaboyev va Ibrohim Bobojonovlar o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib dushman o‘qi yog‘ayotgan joyga sudralib borib, uzilgan aloqa simini taqishga va jangni boshqarish imkoniyatini tug‘dirishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu jasurligi uchun ular hukumat ordeni va medallari bilan taqdirlandi.

Butun resbuplikamiz vakillari kabi Xorazmliklar ham urush yillarida qohramonlik na’munalarini ko‘rsatdilar. Xorazmlik jangchilardan 7 mingga yaqini urush frontlarida jasurlik va qahramonlik ko‘rsatganliklari uchun hukumat orden va medallari bilan taqdirlandilar. Shulardan 3 kishi Sotim Nurmatov, P.I. Sizov, Gataulla Salixov Sovet Ittifoqi Qahramoni degan oliy unvon bilan, bittasi Rahim Avazmuratov “Shuhrat” ordeni bilan taqdirlandi [4].

Xorazmlik Sovet Ittifoqi Qahramoni Sotim Nurmatovning jangda ko‘rsatgan qahramonligi eng oliyjanob taxsinga sazovordir. Sotim Nurmatov 1924-yilda Xiva shahrida tug‘ilgan. Urushgacha Xiva elektr stansiyasida elektr montyori bo‘lib ishlagan. 1943-yil aprel oyida Qizil Armiya safiga chaqirilgan. Qisqa tayyorgarlikdan so‘ng Sotim Nurmatov frontning oldingi qismiga jo‘natilgan. Dushman bilan birinchi to‘qnashuvdayoq oyog‘idan yarador bo‘lgan. Yarasini tuzatgach gospitaldan to‘g‘ri yana frontning oldingi saflariga jo‘natiladi.13-gvardiyachi o‘qchilar korpusining 51-sopyorlar batalyoniga yuboriladi. Dushman bilan bo‘lib o‘tgan jangda ikkinchi bor yarador bo‘ladi. Biroq u jang maydonini tashlab ketmaydi. Shu batalyon safida Pereykop, Yevpatoriya, Sevastopolni dushmandan ozod qilishda qatnashadi. Pereykopni shturm bilan olish paytida ko‘rsatgan jasorati uchun “Jasorat” medali bilan Sapun gorani olishda ko‘rsatgan jasorati uchun esa uchunchi darajali “Shuhrat” ordeni bilan taqdirlandi [4].

Urush jangohlarida jasorat ko‘rsatgan 6993 Xorazmlik jangchi hukumat orden va medallari bilan taqdirlandilar. Urush millionlagan kishilarning yostig‘ini qurutdi. Xorazmdan frontga ketgan jangchilarning ham ko‘pchiligi qaytib kelmadi. Vatan himoyachilaridan minnardor xalqimiz urush yillarida halok bo‘lgan o‘g‘il-qizlar xotirasini o‘z qalbida saqlaydi. Buning yaqqol misoli sifatida viloyatimizning barcha tuman markazlarida urushda halok bo‘lganlar sharafiga xotira monumentlari o‘rnatilganini ko‘rishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan dalillardan ko‘rinib turibdiki, vatandoshlarimiz urush yillarida front va front orqasida yakdil kuchga aylanib fashizmga qarshi urushda katta qurbonliklar berib g‘alabani qo‘lga kiritdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Матниёзов М. Хоразм тарихи. Иккинчи жилд. – Урганч: “Хоразм”, 1997. – Б. 135-146.
2. Нуржонов К., Жуманиёзова М. Хонка тарихи. – Урганч: “Хоразм”, 2015. – Б. 95-96
3. Машарипов Р. Мозий садолари ва сабоклари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1998. – Б. 217-220.
4. Машарипов О. Хоразмнома. – Тошкент: “Хоразм”, 2013. – Б. 207-208.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ERKIN IQTISODIY ZONALARI SHAKLLANISHINI GAT YORDAMIDA IQTISODIY-GEOGRAFIK BAHOLASH TARTIBI

Amanov Allabergan Kutlimuratovich
UrDU Geografiya kafedrasi katta o‘qtuvchisi
Bekimmatov Rahmatjon Anvarbek o‘g‘li
UrDU Geografiya yo‘nalishi 4 -bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasidagi erkin iqtisodiy zonalarning (keyingi o‘rinlarda EIZ) shakllanish jarayoni va ularning iqtisodiy-geografik joylashuvining geografik axborot tizimlari (GAT) yordamida baholanishi tahlil qilinadi. GAT texnologiyalari yordamida EIZlarning hududiy joylashuvni aniqlash, hamda ularning tabiiy va iqtisodiy resurslarga nisbatan iqtisodiy samaradorligini baholash, shuningdek mavjud iqtisodiy hududlarning rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish muhim vosita hisoblanadi. O‘rganishlar natijasida EIZlarning yanada samarali faoliyat yuritishi va ularning iqtisodiy-geografik jihatdan optimal rivojlanishini ta’minlash bo‘yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: ArcGIS, erkin iqtisodiy zonalar, geografik axborot tizimlari, iqtisodiy-geografik baholash, infratuzilma, transport-logistikasi.

Аннотация. В данной статье анализируется процесс формирования свободных экономических зон (далее ОЭЗ) в Республике Узбекистан и оценка их экономико-географического положения с помощью географических информационных систем (ГиС). Важным инструментом является территориальное позиционирование ОЭЗ с использованием технологий ГиС, а также оценка их экономической эффективности в отношении природных и экономических ресурсов, а также разработка стратегий развития существующих экономических зон. Основное внимание также уделяется разработке и анализу интерактивных карт местоположения ОЭЗ с использованием Gat, а также экономико-географической оценке. В результате исследований разработаны рекомендации по более эффективному функционированию ОЭЗ и обеспечению их оптимального экономико-географического развития.

Ключевые слова: ArcGIS, свободные экономические зоны, географические информационные системы, экономико-географическая оценка, инфраструктура, транспортная логистика.

Abstract. This article analyzes the process of formation of free economic zones (hereinafter SEZ) in the Republic of Uzbekistan and the assessment of their economic and geographical location using geographic information systems (GiS). An important tool is the territorial positioning of SEZs using GIS technologies, as well as the assessment of their economic effectiveness in relation to natural and economic resources, as well as the development of strategies for the development of existing economic zones. The main focus is also on the development and analysis of interactive maps of SEZ locations using Gat, as well as economic and geographical assessment. As a result of the research, recommendations have been developed for more efficient

functioning of SEZs and ensuring their optimal economic and geographical development.

Keywords: ArcGIS, free economic zones, geographic information systems, economic and geographical assessment, infrastructure, transport logistics.

KIRISH. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida EIZlarni tashkil etishga alohida e’tibor qaratdi. EIZlar mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirish, sanoatni rivojlantirish, hamda mahaliy va xorijiy kapitalni jalb qilishda muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda 20 dan ortiq EIZ faoliyat yuritib, ularning har biri o‘ziga xos iqtisodiy-geografik xususiyatlarga ega.

EIZlarning hududiy joylashuvi va ularning samaradorligi ko‘plab omillarga bog‘liq bo‘lib, ularni to‘g‘ri baholash va tahlil qilish iqtisodiy rivojlanish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy texnologiyalar, jumladan, geografik axborot tizimlari (GAT) yordamida EIZlar joylashuvi, infratuzilma bilan ta’minlanganligi va atrof-muhitga ta’siri chuqur tahlil qilinishi mumkin. GAT nafaqat mavjud zonalarni baholash, balki yangi potentsial EIZlar uchun eng optimal hududlarni aniqlashga ham xizmat qiladi.

ASOSIY QISM. Erkin iqtisodiy zona — mintaqani jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma’muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo‘lgan maxsus ajratilgan hududdir.

EIZ hududida yuridik va jismoniy shaxslar xo‘jalik, moliyaviy va boshqa faoliyatning istalgan turlari bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yiladi, O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida man etilgan faoliyat turlari bundan mustasno.[1]

O‘zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, sanoatni rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirish maqsadida EIZlarni tashkil etish siyosatini amalga oshirmoqda. Ushbu hududlar tadbirkorlar uchun qulay sharoit yaratib, ularni soliq va bojxona imtiyozlari bilan ta’minlaydi. Natijada, EIZlar nafaqat iqtisodiy faollikni oshiradi, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va hududiy infratuzilmani yaxshilashga ham xizmat qiladi.

O‘zbekistonning turli hududlarida tashkil etilgan EIZlar iqtisodiy ixtisoslashuvi bo‘yicha farqlanadi. Masalan, “Navoiy” EIZ intermodal xab sifatida shakllangan bo‘lsa, “Angren” EIZsi logistika va sanoat ishlab chiqarishiga ixtisoslashgan bo‘lsa, “Termiz” EIZ logistika, tadbirkorlik va savdo-sotiqni rivojlantirish uchun tashkil qilingan. Ushbu zonalarning har biri o‘ziga xos iqtisodiy-geografik joylashuvga ega bo‘lib, ularning samaradorligi hududiy resurslar va infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasida EIZlar turli maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular quyidagi asosiy turlarga bo‘linadi:

1. Erkin savdo zonalari – bu hududlarda konsignatsiya omborlari, erkin bojxona zonalari, shuningdek, tovarlarga ishlov berish, ularni o‘rash-joylash, saralash va saqlash kabi xizmatlar ko‘rsatiladi. Ushbu zonalar asosan chegaraga yaqin punktlarda,

[1] Manba: O‘zbekiston Respublikasining qonuni "Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida", LexUZ rasmiy huquqiy portali. https://lex.uz/docs/-2046

xalqaro aeroportlarda, temir yo‘l uzellarida yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududining boshqa muhim joylarida tashkil etiladi.

2. Erkin ishlab chiqarish zonalari – bu hududlarda tadbirkorlikni rag‘batlantirish, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish maqsad qilingan. Ushbu zonalarda istiqbolli texnologiyalar joriy qilinib, sanoatning ustuvor tarmoqlari rivojlantiriladi. Erkin ishlab chiqarish zonalariga agropolislar, tadbirkorlik zonalari, industrial-iqtisodiy hududlar va boshqa maxsus iqtisodiy zonalar kiradi.

3. Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar – bular innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va ilmiy-texnikaviy tadqiqotlarni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan maxsus hududlardir. Ushbu zonalarda ilmiy-ishlab chiqarish markazlari va texnoparklar jamlanib, ularga maxsus huquqiy va iqtisodiy imtiyozlar beriladi. Erkin ilmiy-texnikaviy zonalar yuksak texnologiyalar zonalari, texnoparklar va texnopolislar shaklida tashkil qilinadi.

Geografik axborot tizimlari (GAT) va uning imkoniyatlari bilan bog‘liq holda EIZlarni imkoniyatlarini aniqlash va istiqboldagi rejalashtirishda foydalanish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Geografik axborot tizimi (GAT) o‘zi nima? – bu turli fazoviy (geografik) ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, tahlil qilish, vizualizatsiya qilish va boshqarish uchun mo‘ljallangan kompyuter tizimidir. GAT tabiiy resurslarni boshqarish, shaharsozlik, transport va iqtisodiyot kabi turli sohalarda qo‘llaniladi.

GAT imkoniyatlari:

1. Fazoviy tahlil va xaritalash; Turli hududiy obyektlarning joylashuvini aniqlash va ularni xaritada aks ettirish. EIZlar geografik taqsimotini interaktiv ravishda tahlil qilish.

2. Ma’lumotlarni vizualizatsiya qilish; Statistik ma’lumotlarni xarita shaklida ifodalash orqali hududiy rivojlanish dinamikasini tushunish. EIZlarning iqtisodiy samaradorligini rangli xaritalar orqali ko‘rsatish.

3. Transport-logistika tahlili; EIZlarning transport yo‘llariga, temir yo‘l va aeroportlarga yaqinligini aniqlash. Logistika va yuk tashish yo‘nalishlarini optimallashtirish.

4. Investitsiyalarni hududiy rejalashtirish; GAT yordamida yangi EIZlar uchun optimal joylarni tanlash. Hududlarning tabiiy resurslari va infratuzilma imkoniyatlarini hisobga olgan holda strategik rejalashtirish.

5. Ekologik monitoring va barqaror rivojlanish; EIZlarning atrof-muhitga ta’sirini baholash. Hududdagi ekologik muammolarni aniqlash va ularning oldini olish choralarini ishlab chiqish.

GATning ushbu imkoniyatlari O‘zbekiston Respublikasidagi EIZlarning samaradorligini oshirish, ularni optimal joylashtirish va infratuzilmasini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

EIZlarni ArcGIS dasturida iqtisodiy-geografik baholash tartibi. GAT, jumladan, ArcGIS dasturi, EIZlarning iqtisodiy-geografik jihatdan baholash uchun qulay vosita hisoblanadi. Ushbu dastur EIZlarning joylashuvi, infratuzilmasi, transport tarmoqlari va boshqa muhim omillar bilan bog‘liq bo‘lgan fazoviy tahlillarni amalga

oshirish imkonini beradi. Quyida ArcGIS yordamida EIZlarni baholashning asosiy bosqichlari keltirilgan:

– ma’lumotlarni yig‘ish va GAT bazasini yaratish;

– ArcGIS dasturida EIZlarni baholash uchun quyidagi ma’lumotlar yig‘iladi va vektor hamda raster formatlarda saqlash;

– EIZlarning aniq joylashuvi – koordinatalar(shakl fayllar yoki vektor ma’lumotlar shaklida)ni aniqlash;

– transport infratuzilmasi – temir yo‘llar, avtomobil yo‘llari, aeroportlar va chegara punktlari ma’lumotlari to‘plash;

– tuproq va tabiiy resurslar xaritalari – yer maydonlarining qishloq xo‘jaligi, sanoat yoki xizmat ko‘rsatish uchun yaroqliligini aniqlash;

– demografik va iqtisodiy ma’lumotlar – hududning aholisi, ishlab chiqarish quvvatlari va investitsion jozibadorligi o‘rganishdan iborat.

Barcha ma’lumotlar ArcGIS’ning Geodatabase formatida saqlanadi va tahlilga tayyorlanadi.



1-rasm. O‘zbekiston erkin iqtisodiy zonalarining geografik joylashuvi (ArcGISda mualliflar tomonidan tayyorlanadi).

EIZlarning fazoviy tahlili. Ma’lumotlar tayyor bo‘lgach, ArcGIS yordamida quyidagi fazoviy tahlillar amalga oshiriladi:

1. Tamoyilga asoslangan baholash (Spatial Analysis); Masofa tahlili (Buffer Analysis) – EIZlarning transport yo‘llari, temir yo‘l stansiyalari, chegaralar va aholi punktlariga nisbatan yaqinligini baholanadi. O‘rtacha masofa hisoblash (Near Analysis) – har bir EIZdan asosiy infratuzilma obyektlarigacha bo‘lgan masofani hisoblash.

2. Ekologik va tabiiy sharoitlarni baholash; Relyef va tuproq xaritalari bilan tahlil – EIZlarning tuproq unumdorligi, suv resurslari va boshqa tabiiy sharoitlarga bog‘liqligini aniqlanadi. Ekologik xavflar – sanoat chiqindilari, havoning ifloslanishi va suv ta’minoti tahlillari bo‘yicha baholanadi.

3. Iqtisodiy imkoniyatlar va resurslarga bog‘liq baholash; Potensial investorlar va sanoat korxonalari yaqinligi – EIZlar atrofida mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish ob’ektlari va ularning iqtisodiy ta’siri tahlil qilinadi. EIZlarning iqtisodiy samaradorligini baholash (Multi-Criteria Analysis - MCA) – transport, infratuzilma,

ekologiya va mehnat resurslari kabi ko‘rsatkichlar asosida qiyosiy baholash. Kartografik vizualizatsiya va natijalarni tahlil qilish, ArcGIS yordamida olingan natijalar kartografik shaklda vizualizatsiya qilinadi.

Natijada:

– **EIZlarning iqtisodiy imkoniyatlari** xaritasida – eng yaxshi rivojlanish imkoniyatlariga ega hududlarni ko‘rsatiladi.

– **Transport aloqalari va logistika xaritasida** – EIZlarning transport infratuzilmasiga bog‘liqligini vizual ko‘rsatish imakoni tug‘iladi.

– **Ekologik baholash xaritasi**da – ekologik xavf omillarini aks ettiriladi..

Bu xaritalar asosida EIZlarning geografik joylashuvi bo‘yicha strategik takliflar ishlab chiqiladi.

XULOSA. EIZlarni ArcGISda amalga oshirilgan iqtisodiy-geografik baholash natijalariga asoslanib, quyidagi tavsiyalar beriladi:

– yangi EIZlarni joylashtirish uchun eng maqbul hududlarni aniqlash imkoniyati beradi;

– mavjud EIZlarda transport-logistika infratuzilmasini takomillashtirish zarurati ko‘rsatib, ularda qilishi lozim bo‘lgan ishlar to‘g‘risida mulohaza yuritishga undaydi;

– EIZlarning atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish uchun ekologik strategiyalar ishlab chiqishni talab qiladi.

ArcGIS dasturidan foydalanish EIZlarning iqtisodiy-geografik tahlilini tizimli va aniq bajarish imkonini beradi. Fazoviy tahlillar orqali EIZlarning transport, infratuzilma, ekologik holat va iqtisodiy imkoniyatlari baholanib, samaradorlikni oshirish bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilinishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Kelgusida O‘zbekistonda EIZlarni rejalashtirish va boshqarishda raqamli texnologiyalarni yanada keng joriy etish, GAT imkoniyatlaridan samarali foydalanish, investitsion muhitni yaxshilash va ekologik barqarorlikni ta’minlash kabi muhim masalalarni o‘z o‘rnida hal qilish mamlakat iqtisodiyotning jadal o‘sishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni "Erkin iqtisodiy zonalar to‘g‘risida" – https://lex.uz/docs/-2046

2. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi. “O‘zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalar faoliyati” – https://mift.uz

3. ArcGIS dasturiy ta’minoti bo‘yicha qo‘llanma – Esri (Environmental Systems Research Institute) rasmiy sayti: https://www.esri.com

SAMARQAND DOSTONCHILIK MAKTABINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA BAXSHI IJROCHILIGI AN’NALARINING TUTGAN O‘RNI

Annakulova Dildora Baymuratovna
Guliston davlat universiteti San’tshunoslik fakulteti An’anaviy xonandalik va xalq cholg‘ulari kaferdasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand dostonchilik maktabining tarixiy shakllanish jarayoni, uning asosiy xususiyatlari va baxshi ijrochiligi an’analari tahlil qilinadi. Dostonchilik san’atining xalq og‘zaki ijodidagi o‘rni, Samarqand baxshilarining repertuari hamda ijrochilik uslublari ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan o‘rganiladi. Shuningdek, maqolada Samarqand dostonchilik maktabining madaniy meros sifatida ahamiyati, uning bugungi kundagi holati va kelajak avlodlarga yetkazish masalalari yoritiladi. Ushbu tadqiqot an’anaviy baxshichilik san’atining saqlanib qolishi va rivojlanishiga oid ilmiy qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.

Abstract. This article analyzes the historical formation of the Samarkand school of epic poetry, its main features and the traditions of Bakhshi performance. The place of the art of epic poetry in folk oral culture, the repertoire and performance styles of Samarkand Bakhshi are studied from a scientific and theoretical point of view. The article also highlights the importance of the Samarkand school of epic poetry as a cultural heritage, its current state and the issues of passing it on to future generations. This study serves to enrich scientific views on the preservation and development of the traditional Bakhshi art.

Аннотация. В статье анализируется историческое становление самаркандской школы эпической поэзии, ее основные черты, а также традиции исполнительства бахши. С научно-теоретической точки зрения изучается место эпического искусства в устном народном творчестве, репертуар и исполнительская манера самаркандских бахши. В статье также рассматривается значение самаркандской школы эпической поэзии как культурного наследия, ее современное состояние и вопросы передачи ее будущим поколениям. Данное исследование способствует обогащению научных взглядов на сохранение и развитие традиционного искусства бахши.

Kalit so‘zlar: Samarqand dostonchilik maktabi, baxshi ijrochiligi, xalq og‘zaki ijodi, doston san’ati, repertuar, ijrochilik an’analari, madaniy meros, an’anaviy san’at, baxshichilik uslubi, dostonchilik tarixi.

Keywords: Samarkand school of epic poetry, Bakhshi performance, oral folklore, epic art, repertoire, performing traditions, cultural heritage, traditional art, Bakhshi style, history of epic poetry.

Ключевые слова: Самаркандская школа эпической поэзии, бахшианское исполнительство, устное народное творчество, эпическое искусство, репертуар, исполнительские традиции, культурное наследие, традиционное искусство, стиль бахши, история эпической поэзии.

Kirish. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi uzoq asrlik tarixga ega bo‘lib, uning tarkibida dostonchilik san’ati alohida o‘rin tutadi. Dostonchilik xalqimizning madaniy-ma’naviy merosini asrab-avaylash va keyingi avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb

etadi. O‘zbek dostonchilik an’analari hududiy xususiyatlarga ega bo‘lib, Xorazm, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo hamda Samarqand dostonchilik maktablari o‘ziga xos ijrochilik uslubi va ifoda shakllari bilan ajralib turadi.

Samarqand dostonchilik maktabi o‘zining boy tarixi, o‘ziga xos ijrochilik uslubi va yetuk baxshilari bilan ajralib turadi. Ushbu hududda dostonchilik san’ati asrlar davomida shakllangan bo‘lib, u nafaqat xalq og‘zaki ijodining namunasi, balki milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va tarbiyaviy vosita sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Samarqand baxshilari ijrosidagi dostonlar xalqning tarixiy-madaniy hayotini, urf-odatlarini va orzu-umidlarini aks ettirgan.

Mazkur maqolada Samarqand dostonchilik maktabining shakllanish tarixi, uning yetuk vakillari, ijrochilik an’analari va janr xususiyatlari ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan o‘rganiladi. Shuningdek, baxshi ijrochiligining o‘ziga xos xususiyatlari, an’anaviy doston repertuari va uning bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ushbu madaniy merosni asrab-avaylash va kelgusi avlodlarga yetkazishning dolzarb masalalari ham yoritiladi.

Xalqimizning turmush tarzini yuksalishida xalq og‘zaki ijodining ahamiyati katta bo‘lib, asrlar davomida boy ma’naviy e’tiqodga ega meros to‘planib, yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Xalq og‘zaki ijodining muhim yo‘nalishi bo‘lgan dostonlar juda chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, uzoq asrlar davomida yaratilib kelingan va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylangan. Ilk dostonlar Yunonistonda paydo bo‘ldi, ularda afsonaviy qahramonlarning jasorati, xudolarning karomati haqida kuylangan. Gomerning “Iliada”, “Odisseya”, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” Aligeri Dante (Dante Alighieri 1265–1321) ning “Ilohiy komediya” (1307– 1321 yillar oralig‘ida yozilib, 1472 yili nashr etilgan va uch qismdan iborat: birinchisi “Do‘zax”, ikkinchisi “Poklanish”, ya’ni “A’rof” ham deyiladi, bu do‘zax bilan jannat oralig‘i, bilish va yaxshilik hamdir, uchinchisi “Jannat”) asarlari doston janrining qadimgi namunalaridir. Dostonlar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, qahramonlik (“Alpomish”, “Farhod va Shirin”), sarguzasht detektiv (“Sab’ai sayyor»), ishqiy-romantik (“Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun”), jangnoma (“Yusuf va Ahmad”, “Saddi Iskandariy”), tarixiy-memuar (“Shayboniynoma”, “Jizzax qo‘zg‘oloni”), falsafiy (“Hayrat ul-abror”), fantastik - allegorik (“Lison uttayr”), didatik (“Qutadg‘u bilig”) turga bo‘linadi. Qahramonlik dostonlarida xalq, jamiyat takdiri tasvirlansa, ishqiy-romantik dostonlarda oshiq-ma’shuqlarning sarguzashti bosh o‘rinda turadi. Tarixiy-memuar yoxud tarixiy-biografik dostonlarda biror tarixiy shaxslar ramziylashtirilib, bo‘rttirib tasvirlanadi. Umuman, dostonlarda ideallashtirish, mubolag‘ali tasvir ustun bo‘ladi, ularda turli afsonalar, asotirlar, hikoyatlar, dev, pari, Xizr, ajdar, ajabtovur otlar (“Alpomish”dagi Boychibor), sehr-jodu ko‘p ishtirok etadi.

Xalq dostonlari baxshi, dostonchi va xalq shoirlari tomonidan dutor, do‘mbira va boshqa xalq cholg‘u asboblari jo‘rligida ijro etiladi. Folklordagi dostonlar bilan yozma adabiyotdagi dostonlar shakl-shamoyili jihatidan bir xil ko‘rinishda bo‘lsa-da, yozma adabiyotdagi dostonlar yozuvchining dunyoni o‘ziga xos tarzda idrok etishi, baholashi va o‘z fikr-g‘oyalari, orzu-armonlarini ifodalash tarzi, usuli, uslubida farqlanadi. Garchand, Navoiyning aksar dostonlari, jumladan, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” asarlari asosida folklor mavzui turgan bo‘lsa-da, shoir ularni o‘z

estetik qarashlari va badiiy niyatidan kelib chiqib, tubdan qayta yaratgan. Dostonlar mazmunan qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romantik, maishiy turmush yo‘nalishlarida bo‘lgan. Dostonlarni ijro etishda baxshi shoirlar muhim o‘rin tutgan. Baxshi so‘zining ma’nosi mo‘g‘ulcha va buryatcha baxsha, bag‘sha – ustod, ma’rifatchi; sanskritcha bhikshu – qalandar, darvesh degan ma’noni beradi deb izohlanadi. O‘zbekistonda qo‘shiq va dostonlarni yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan- avlodga etkazuvchi san’atkor. Baxshi so‘zi ba’zan shaman ma’nosida ham qo‘llanadi, umuman, dostonchilar, doston aytuvchilarni esa yuzboshi, soqi, sannovchi, jirov deb ataydilar. Baxshilar, asosan, ikki toifaga –ijrochi va ijodkor baxshilarga bo‘linadi. Ijrochi baxshilar, asosan, ustozdan o‘rgangan dostonlarni juz’iy o‘zgarishlar bilan aynan kuylasalar, ijodkor baxshilar og‘zaki epik an’ana asosida yangi dostonlar ham yaratadilar. Bunday baxshilar shoir baxshilar deb ham yuritiladi, masalan Ergash shoir, Fozil shoir, Po‘lkan shoir, Abdulla shoir, Xidir shoir va boshqalar. Baxshilar doston va qo‘shiqlarni qo‘biz, do‘mbira, dutor kabi sozlar jo‘rligida kuylaydi. Xorazm baxshilari dostonlarni asosan, dutor, qisman tor bilan ijro etadilar, ularga g‘ijjak va bo‘lamonda sozchilar jo‘r bo‘ladi. Doston kuylash, shogird etishtirishda qat’iy tartib, qonun-qoidalarga rioya qilinadi. Mo‘g‘ullar istilosi davrida budda dinidagi qalandarlarni, uyg‘ur alifbosi asosida turli hujjatlar tuzuvchi idora xodimlarini, mo‘g‘ullarda jarrohlarni, Chig‘atoy ulusi, Oltin O‘rda, Qozon va Qrim xonliklarida kotiblarni, Bobiriylar davlatidagi harbiy qismlarning hisob-kitob ishlarini olib boruvchi va ularga maosh to‘lovchi yirik amaldorlarni, Buxoro amirligida ma’muriy binolar qurishda mablag‘ (sarf-xarajat) hisobini olib boruvchi kishilarni, turkmanlarda urug‘ oqsoqollarini ham baxshilar deb ataganlar.

Baxshilik san’ati markazi O‘zbek folklorshunosligida Boysun, Bulung‘ur, Nurota, Narpay, Qo‘rg‘on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod, Chiroqchi kabi yirik dostonchilik maktablaridan tashqari, Qamay, Piskent, Qulbuqon, o‘zbek-laqay va boshqa shunday markazlar ham ma’lum. Ular repertuarlari, uslubi, ma’lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko‘ra bir-biridan ajralib turadi. Qahramonlik dostonlarida xalqning o‘z erki bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashlari aks ettirilgan, shunday qahramonlik dostonlaridan biri “Alpomish” dostoni edi.

Xalqning sevimli qahramonlaridan biri Go‘ro‘g‘lining jasorati haqidagi turkum dostonlar o‘zbek, tojik, qozoq, turkman, qoraqalpoq, tatar, ozarbayjon, gruzin, turk xalqlari orasida keng tarqalgan. Jangnoma dostonlarda asar qahramonlarining tarixiy va afsonaviy urushlarlardagi jasorati tasvirlangan. “Jangnomai Abo Muslim”, “Jangnomai Amir Xamza”, Firdavsiyning “Shohnoma” asari, “Jangnomai Jamshid”, “Xushang”, “To‘maris” kabilar shular jumlasidan edi. Baxshilar repertuarlarida o‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqea va xodisalar, tarixiy shaxslar faoliyati asosida yaratilgan dostonlar ham bo‘lib, ularda tarixiy haqiqat bilan afsona, voqelik manba bilan badiiy to‘qima chatishib ketgan. XX asr boshlarida tarixiy mavzularda yaratilgan “Jizzax qo‘zg‘oloni” va “Mardikor” kabi dostonlarda 1916 yilda butun Turkistonni qamrab olgan xalq qo‘zg‘olonlari voqealari o‘z aksini topgan edi. O‘zbek xalq dostonlarining eng katta qismini romantik dostonlar tashkil qilgan. Ularning syujetlari nihoyatda o‘xshash bo‘lib, odatda qahramon go‘zal qizga oshiq bo‘lib safarga otlanadi, ajoyib-g‘aroyib hodisalarni boshidan kechiradi, qiyinchiliklarni engib, o‘z maqsadiga

erishadi. “Kuntug‘mish” kabi sevgi mojarolari, sarguzashtli voqealar shunday dostonlar sirasiga kirgan. “Soxibqiron”, “Orzugul”, “Erali bilan Sherali” dostonlarida xalqning maishiy turmushi bilan bog‘liq voqealar aks etgan. Dostonlar orasida mumtoz poeziya namunalarining xalq og‘zaki ijodida qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan, yozma adabiy manbaga ega bo‘lgan, ya’ni yozma adabiyot ta’sirida yaratilgan kitobiy dostonlar ham bo‘lgan. Alisher Navoiy asarlari asosida yaratilgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Bahrom va Gulandom” dostonlari, “Yusuf va Zulayxo” “Rustami Doston”, “Malikai Dilorom” kabi dostonlar shular jumlasidan edi. Dostonchilik Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida, Xorazmda hamda Samarqand viloyatida keng rivojlangan. Bu davrda doston kuylovchi baxshilar repertuarida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo‘lgan. Xalq orasida Yo‘ldoshbulbul, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, IIo‘lkan, Islom shoir, Berdi baxshi, Bola baxshi, Ahmad baxshi kabi doston kuylovchilar mashhur edi. Favqulodda xotira qudratiga ega bo‘lgan Po‘lkan shoir etmishdan ortiq dostonni yoddan bilgan. Har bir doston ikki-uch ming satrdan tortib, o‘n-o‘n besh, hatto yigirma ming misragacha she’rni o‘z ichiga olganligi xalq baxshilarining katta salohiyatga, kuchli xotiraga, yod olish va esda saqlash qobiliyatiga, ijod qilish qudratiga ega bo‘lganligidan dalolat berar edi. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li 60 ta, Ergash Jumanbulbul o‘g‘li 50 ta dostonni yoddan ayta olganlar, baxshilarning ba’zilari faqat doston aytsa, ba’zilari o‘zlari ham dostonlar to‘qiganlar.

Doston eshitish uchun maxsus kechalar uyushtirilgan, to‘y-hashamlar ham baxshilarsiz o‘tmagan, tinglovchilar baxshini to‘rga o‘tqazib, uni diqqat bilan tinglaganlar. Iqtidorli dostonchilar ikki-uch kecha mobaynida doston kuylay olganlar, chunki dostonlarning hajmi ham ikki-uch kecha muttasil ijro etishni taqozo etgan. Baxshilardan Shernazar Berdinazar o‘g‘li etti kecha davomida doston ayta olgan. Dostonchilik kechalariga tashrif buyurgan baxshilar o‘z iqtidorlari, so‘zga chechanligi, soz chalishdagi mahorati bilan o‘zaro bellashganlar. Mintaqada o‘ziga xos an’analarga ega bo‘lgan dostonchilik maktablari shakllangan. Ayniqsa Bulung‘ur, Narpay, Qo‘rg‘on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod kabi yirik dostonchilik maktablari mashhur bo‘lgan. Ular repertuarlari, uslubi, ma’lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko‘ra bir-biridan ajralib turgan.

Xalq baxshilari ijodini o‘rganish ular ijro etgan dostonlar orasida diniy mavzudagi asarlar ham mavjudligini tasdiqlaydi. Bunday baxshilar mustaqillik yillarimizgacha yashirin tarzda doston aytishga majbur bo‘lganlar. Hozirgi kunda o‘zbek folklorshunosligida Bulung‘ur, Qo‘rg‘on, Shahrisabz, Qamay, Sherobod, janubiy Tojikiston, Xorazm kabi poetik dostonchilik maktablari-baxshilik san’atining ajoyib markazlari aniqlangan.

Shulardan Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li mansub bo‘lgan Bulung‘ir dostonchilik maktabida ko‘proq qahramonlik dostonlari badiiy jihatdan mukammal tarzda kuylangan. Bir necha versiya, o‘nlab variantlar yaratilgan “Alpomish” qahramonlik dostonining Qo‘ng‘irot versiyasidagi eng oliy va badiiy barkamol namuna sifatida Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantining qabul qilinishi bejiz emas. Professor Hodi Zarifov qayd etgan Amin baxshi ham shu maktab vakili edi. Bu maktab shuhratiga qadimda Muhammad shoir, Sultonmurod Suyar, Rahimbulbul kabi baxshilar o‘z ijodlari va

ijrolari bilan munosib hissa qo‘shganlar. Ular “Alpomish”, “Oysuluv”, “Hasanxon”, “Chambil qamali” kabi dostonlarni alohida mahorat bilan ijro etganlar.

Samarqand dostonchiligida nom taratgan yana bir maktab Qo‘rg‘on dostonchiligi deb ataladi. Ergash shoirlarning ajdod va avlodlari shu maktab vakillari hisoblanadi. Avvalgi sahifalarda qayd etilganidek, bu maktab sohiblari dostonlarni muhabbatli qilib aytganlar. Qo‘rg‘on maktabida boshqalardan farqli o‘laroq Sulton kampir, Tilla kampir ismli ayollar ham baxshilik san’atini egallaganlar. Ulardan tashqari, Yodgor, Bo‘ron baxshi, Jassoq baxshi, Po‘lkan shoirlar ijodi shu maktabda shakllangan usul bilan rivojlangan. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”, “Ravshan”, “Kuntug‘mish”, “Dalli” dostonlarni ijro etish aynan shu maktab vakillariga xos edi.

Yana bir maktab Shahrisabz nomi bilan yuritiladi. Bu maktabda Xidir shoir, Ernazar shoir, Abdulla shoir kabi ijodkor baxshilar etishib chiqqan. Bu maktabda Go‘ro‘g‘li turkumiga oid dostonlar, ayniqsa, “Malikai Ayyor” dostoni keng tarqalgan edi.

Narpay dostonchiligi maktabi ham bir qator baxshilari va dostonlari bilan o‘zbek eposi rivojiga hissa qo‘shgan. Narpay dostonchiligida Rajab shoirning tarbiyasida bo‘lgan Islom shoir, Nurmon Abduvoy o‘g‘li nomlari alohida hurmat bilan tilga olinadi. Islom shoir o‘z ijodida Qo‘rg‘on va Shahrisabz maktablari an’analarini uyg‘unlashtira oldi.

Bu maktab vakillari ko‘proq “Orzugul”, “Sohibqiron”, “Gulmiraxon” kabi dostonlari ijro etishgan.

Shernazar Beknazar o‘g‘li, Umir Safar o‘g‘li, Ahmad baxshi kabi ijodkorlar esa Sherobod dostonchilik maktabiga mansub san’atkor edilar. Ular ijodida ham Go‘ro‘g‘li turkumi dostonlari alohida o‘rin tutadi. Bu maktab vakillari ayniqsa, “Malla savdogar”, “Ollonazar Olchinbek” dostonlarini badiiy jihatdan mukammal ijro etganlar. Janubiy Tojikistonda yashovchi Haybat Shamol o‘g‘li, Qunduz soqi kabilarning nomlari o‘zbek baxshilari orasida hurmat bilan tilga olingan. Bu baxshilar ham Go‘ro‘g‘li turkumi dostonlarini o‘ziga xos usulda ijro etganlar.

Xorazm dostonchiligi musiqiyligi, dostonni jo‘r ovoz bo‘lib ijro etilishi, doston ijrosida bir necha musiqa asboblarida jo‘r bo‘linishi bilan ajralib turadi. Qadimgi sayllarda, to‘ylarda 3-4 ta baxshi chaqirilgan va har bir baxshiga alohida-alohida davra berilgan. Sayil yakunida mohir baxshi atrofidagi odamlar ko‘payib, saviyasi past baxshi atrofida hech kim qolmagan. Bu odat san’atkorning o‘z ustida muttasil ish olib borishga va ijro san’atini egallashga majbur qilgan. Undan tashqari, Xorazmda 40 yildan ortiq xonlik qilgan Muhammad Rahimxon (Feruz) har yili baxshi va xonandalarning ko‘rigini o‘tkazib, shaxsan o‘zi ularga doston aytish huquqini bergan. Bu maktabda Amad baxshi, Bola baxshi (Qurbonnazar Abdullaev), Boltavoy baxshi, Qodir sozchi, Murod Baxshi, Ro‘zimbek baxshi, Otaxon baxshilar ijod qilishgan va “Bozirgon”, “Oshiq g‘arib va Shohsanam”, “Qirq ming”, “Oshiq Mahmud” kabi dostonlarni katta kontsert dasturini eslatadigan tomosha tarzida ijro etishgan.

Xalq dostonlari yurtimizning turli hududlarida turlicha ijro etilishi, ijro usullariga, voqealar sharhiga ko‘ra, hatto, bir viloyatning o‘zida ayrim-ayrim maktablarga ega bo‘lishidan tashqari mazmuniga ham bir necha turlarda tasniflanadi. Taniqli olimlardan v. M. Jirmunskiy, H. T. Zarifov, M. Saidov, T. Mirzaev, B.

Sarimsoqovlarning kuzatishlaricha, xalq dostonlarini turlarga bo‘lishda ko‘proq ularning mazmuni, qahramonlarning fe’l-atvoriga e’tibor qilish ma’qul. Ammo nomlari tilga olingan olimlarning har biri amalga oshirgan tasnif ma’lum darajada bir-biridan farq qilishiga qaramay, ularni quyidagicha nomlash mumkin:

1. Qahramonlik dostonlari (“Alpomish”).
2. Ishqiy-romantik dostonlar (“Ravshan”, “Kuntug‘mish”).
3. Jangnoma dostonlari (“Yakka Ahmad”).
4. Kitobiy dostonlar (“Sayyod va Hamro”, “Oshiq g‘arib va Shohsanam”).
5. Tarixiy (“Oysuluv”).

Tasnif qilishning asosi dostonlarida tasvirlangan voqealarning bosh mohiyati bilan izohlanadi. Masalan, “Alpomish” dostonida ham ishq-muhabbat, jang lavhalari, tarixiy ma’lumotlar bor. Ammo ma’lum sabab bilan ajralib ketgan xalqni birlashtirish yo‘lidagi mardlik va qahramonlik asarning markaziy g‘oyasini tashkil etadi. Yoki “Ravshan” dostonida ham mardlik, qahramonlik belgilari uchraydi. Lekin doston mazmunidagi asosiy fikr Ravshanning Zulxumorga bo‘lgan ishqini ifodalash maqsadidagi safarini bayon qilishga bag‘ishlanadi.

Qahramonlik eposi xalq og‘zaki ijodi tarixida alohida bosqich sifatida baholanadi. Uning mashhur namunasi yunonlarda “Odisseya” va “Iliada” asarlari hisoblanadi. Qirg‘iz xalqining “Manas”i ham ana shunday bosqich namunasidir. Bunday asarlarda ko‘rsatgan xalq farzandining yurt ozodligi, elni birlashtirish maqsadidagi safarlari, o‘zidan son va kuch jihatidan yuqori turgan dushman bilan olishuvlari aks etadi. Qahramonlik eposiga o‘zbeklarda “Alpomish” dostoni misol bo‘ladi. Unda yurtimizdagi milliy an’analarning shakllanishi, tashqi dushmanlarga qarshi kurash, xalq birligini saqlash, mustaqil hayotni muhofaza qilish g‘oyalari o‘z ifodasini topgan.

Xalqimiz baxshilari repertuaridagi dostonlarning salmoqli qismini romanik dostonlar tashkil qiladi. “Roman” fransuz tilidan olingan bo‘lib eposini bir turi ma’nosini anglatgan. Ammo keyinchalik badiiy adabiyotdagi roman janr sifatida alohida ajralib rivojlanganidan so‘ng sevgi-sarguzashtlarini to‘qima tarzda aks ettiruvchi asarlar tushunchasini bera boshlagan. Romanik dostonlar deganda, xalq dostonlarining mazmuni sevgi-sarguzashtlarni tasvirlovchi turlari tasavvur qilinadi. Ularda voqea tuguni oshiqning ma’shuqa haqida xabar topishidan boshlanadi. Keyinchalik qahramon ishq sarguzashtlariga boy safarga otlanadi. Bu yo‘lda turli qiziqarli, hayratomuz hayot lavhalari ro‘y beradi. Dushmanlar bilan yakkama-yakka olishuvlar bo‘ladi. Dostondagi voqealar rivoji shu tarzda taraqqiy etadi va oxir-pirovardida oshiq o‘z orzusiga etadi. “Ravshan”, “Kuntug‘mish” kabilarni ana shunday dostonlar qatoriga qo‘shish mumkin.

Jangnoma-dostonlarni esa voqea rivoji, asosan, jang lavhalariga boy asarlar tashkil etgan. Baxshilar bunday dostonlarni nisbatan kam ijro etganlar. Bunday dostonlarda ko‘proq qahramonning botirligini tasvirlashga e’tibor beriladi. “Yusuf bilan Ahmad”, “Alibek va Bolibek”, “Qirq ming” kabi asarlar shular jumlasidandir.

Kitobiy dostonlar asosan tarixiy hayotimizning keyingi asarlarda paydo bo‘ldi. Yozma adabiyotimiz vakillari tomonidan yaratilgan dostonlardagi qiziqarli va ibratli voqealar bilan tanishgan baxshilar ular asosida o‘zlarining nusxa (variant)larini

yaratganlar. Natijada kitobiy dostonlar yozma va og‘zaki ijodning o‘zaro aloqalari natijasi sifatida vujudga kelgan. Og‘zaki ijoddagi “Sayyod va Hamro”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Vomiq va Uzro” kabi dostonlar ana shu usuldagi asarlar namunasidir.

Samarqand dostonchilik maktabi o‘ziga xos ijrochilik uslublari va boy repertuari bilan o‘zbek xalq og‘zaki ijodining muhim qismini tashkil etadi. Ushbu maqolada mazkur maktabning shakllanish tarixi, uning rivojlanish bosqichlari va baxshi ijrochiligining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Samarqand baxshilarining ijrochilik uslubi mintaqaning madaniy hayoti va an’anaviy san’ati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u asrlar davomida rivojlanib kelgan.

Dostonchilik san’ati nafaqat madaniy meros, balki yosh avlod tarbiyasida, milliy qadriyatlarni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo zamonaviy texnologiyalar va globallashuv jarayonlari natijasida an’anaviy baxshichilik san’ati yo‘qolish xavfi ostida turibdi. Shu sababli, ushbu madaniy boylikni asrab-avaylash, uni ommalashtirish va kelgusi avlodlarga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Kelgusida Samarqand dostonchilik maktabining ijrochilik an’analarini keng ilmiy-nazariy tadqiq etish, baxshi dostonlari matnlarini to‘plash, tahlil qilish va nashr etish muhim vazifalardan hisoblanadi. Shuningdek, dostonchilik san’atini yosh avlodga yetkazish uchun ta’lim muassasalarida maxsus kurslarni yo‘lga qo‘yish va baxshilar maktablarini tashkil etish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Shu bilan birga, media va raqamli texnologiyalardan foydalanib, dostonchilik san’atini keng targ‘ib qilish uning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Samarqand dostonchilik maktabi xalq og‘zaki ijodining bebaho qismi bo‘lib, uning asrlar davomida saqlanib kelayotgan an’analari milliy madaniyatimizning ajralmas qismi sifatida doimiy e’tiborda bo‘lishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qodirov, H. (2008). *O‘zbek baxshichilik san’ati tarixi va an’analari*. Toshkent: Fan.
2. Sodiqov, A. (2010). *Xalq dostonchiligi va baxshichilik maktablari*. Toshkent: Ma’naviyat.
3. Annakulova D (2025). *Xalq musiqa ijodiyoti*. Toshkent innovatsiya ziyo nashriyoti.
4. Annakulova D (2025). *Samarqand dostonchilik maktabi*. Toshkent: Zuxro baraka biznes nashriyoti.
5. Usmonov, B. (2019). *Samarqand dostonchilik maktabining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari*. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.

ALOUDDIN TAKASHNING HAYOTI VA FAOLIYATI

Xujamatov Intizom Jumabayevich
UrDPI Tarix va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi
Sadullayeva Zuhra Sanjar qizi, UrDPI 2-kurs tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Xorazmshoh Takash – o‘z davrining buyuk hukmdorlaridan biri bo‘lib, Xorazm davlatining qudratini yuksaltirgan jasur sarkarda va donishmand siyosatchi edi. U ichki nizolarni bartaraf etib, tashqi dushmanlarga qarshi muvaffaqiyatli yurishlar olib bordi. Uning donishmandligi va qat’iyati Xorazmni mintaqadagi yetakchi davlatga aylantirdi. Ushbu maqola Takashning hayoti, harbiy yurishlari va davlat boshqaruvidagi beqiyos roliga bag‘ishlanadi.

Аннотация. Хорезмшах Текеш – один из величайших правителей своего времени, мужественный военачальник и дальновидный государственный деятель, возвысивший мощь Хорезмского государства. Он подавил внутренние распри, одержал победы над внешними врагами и превратил Хорезм в ведущую силу региона. Данная статья посвящена его жизни, военным походам и непревзойденному вкладу в управление государством.

Abstract. Khorezmshoh Takash was one of the greatest rulers of his timea courageous commander and a visionary leader who elevated the power of the Khorezm state. He quelled internal strife, led successful military campaigns against external foes, and solidified Khorezm’s position as a dominant regional power. This article delves into Takash’s life, his conquests, and his unparalleled contributions to statecraft.

Kalit so‘zlar: Xorazm, davlat boshqaruvi, harbiy yurishlar, iqtisod, savdo, qo‘shin, o‘rta asrlar.

Ключевые слова: Хорезм, государственное управление, военные походы, экономика, торговля, армия, Средние века.

Keywords: Khorezm, state governance, military campaigns, economy, trade, army, Middle Ages.

Alouddin Takash Xorazmshoh (to‘liq ismi Alouddin Takash ibn El Arslon ibn Otsiz ibn Anushtegin) – Anushteginiylar sulolasidan chiqqan buyuk hukmdor bo‘lib, 1172-1200-yillar davomida Xorazmshohlar davlatini boshqargan. Taxminan 1152-yilda tug‘ilgan Takash o‘z zamonasi uchun kuchli va markazlashgan davlat asoschilaridan biri sifatida tarixga kirgan. Uning hukmronligi davrida Xorazmshohlar saltanati siyosiy qudratini oshirib, mintaqada yetakchi kuchga aylangan. O‘rta asrlarning buyuk sarkardalaridan biri, jasur va dono hukmdor – Alouddin Takash o‘z davrida Xorazmshohlar davlatini qudrat cho‘qqisiga olib chiqqan shaxs edi. Uning mustahkam siyosati, harbiy yurishlardagi muvaffaqiyati va davlat boshqaruvidagi islohotlari Xorazmning mintaqadagi eng nufuzli davlatlardan biriga aylanishida muhim rol o‘ynadi.

Bu maqolada Alouddin Takashning siyosiy iqtidori, harbiy yurishlari va merosi tahlil qilinadi. Uning kuchli iradasi va strategik yondashuvi butun islom olamida chuqur iz qoldirgan va o‘rta asrlar tarixida muhim o‘rin egallagan[1]. 1172-yilda El

[1] “Ikki buyuk sarkarda yoxud Jaloliddindan Qutuzgacha”; mas’ul muharrir A. O‘rozboyev; – Toshkent: “Sharq ma’rifati nashr-matbaa uyi” nashriyoti, 2021. – B. 320.

Arslon vafot etgach, Xorazm og‘ir sinovlarga duch keldi. Qoraxitoylar bu vaziyatdan foydalanib, Xorazmga bostirib kirdilar. Davlat kelajagi xavf ostida qolgan bir paytda El Arslonning o‘g‘li Takash taxtga o‘tirdi (1172-1200). Uning hukmronligi ostida Xorazmshohlar davlati tarixidagi eng yuksak cho‘qqisiga erishdi va mintaqaning eng qudratli davlatlaridan biriga aylandi. Biroq bu yo‘lda Takash qator murakkab sinovlardan o‘tishga majbur bo‘ldi.

Birinchi muammo oilaviy nizolar edi. El Arslon hayotlik chog‘ida taxt vorisi sifatida Takashning akasi Sultonshoh belgilangan edi. Shu sababli, u 20 yil davomida (1172-1193) Takash bilan taxt uchun kurash olib bordi[1]. Faqat 1193-yilda Saraxs shahri qo‘lga kiritilgach, bu ixtilofga barham berildi. Ikkinchi muammo tashqi tahdidlar edi. Bir tomondan qoraxitoylar, ikkinchi tomondan G‘ur podshosi G‘iyosiddin Muhammad xavf solib turardi. Ayniqsa, G‘iyosiddin Muhammad Xuroson va butun O‘rta Sharqda o‘z hukmronligini o‘rnatish niyatida edi. U 1175-yilda Hirotni egallab, Xurosonning katta qismini o‘z ta’siriga oldi. G‘uriylar harbiy qudrati bilan Xorazmliklarga nisbatan ustun mavqega ega bo‘lib, mustaqil harakat qilardi[2]. Xorazm esa qoraxitoylarga qaram edi va to‘liq mustaqillikka erishish uchun kurash olib borayotgan edi.

Takash bu qiyinchiliklarga qaramay, otasi va bobosi tanlagan yo‘ldan borib, mustaqil va buyuk Xorazm davlatini barpo etish yo‘lini qat’iy davom ettirdi. Uning Movarounnahr va Buxoroga yurishlari qoraxitoylar tomonidan to‘sib qo‘yilgan bo‘lsa-da, u o‘z harbiy kuchini mustahkamlash maqsadida qipchoqlarga murojaat qildi. Qipchoqlar xoni Jonkishi bilan ittifoq tuzib, uning qiziga uylanadi. Shu tariqa, qarluqlar, ug‘raklar, xalajlar va boshqa yirik turk qabilalari Xorazmning harbiy qudratiga qo‘shildi.

XII asrning 80-yillarida Takash Xurosondagi ichki nizolardan foydalanib, 1187-yilda Nishopurni, 1192-yilda Rayni, 1193-yilda Marvni egalladi. 1194-yilda esa Saljuqiylar sultoni To‘g‘rulbek II ustidan hal qiluvchi g‘alabaga erishdi va uni jangda tor-mor keltirdi. Natijada, butun Sharqiy va G‘arbiy Eron hududlari Xorazm tarkibiga qo‘shildi, natijada davlat hududi ikki baravarga kengaydi. Bu holat xalifa Nosirni tashvishga soldi. U Saljuqiylarning zaiflashuvidan foydalanib, xalifalik ta’sirini kengaytirishga intilayotgan edi. Biroq, Takash 1194-yilda xalifa qo‘shinlarini tor-mor keltirib, Xorazmshohlar davlatining qudratini yana bir bor namoyish etdi. Shu tariqa, u butun mintaqada o‘z hukmronligini mustahkamlashga muvaffaq bo‘ldi.

Xorazmshoh Takash o‘z davrining eng qudratli davlatlaridan birini barpo etishga muvaffaq bo‘ldi. Uning hukmronligi ostida Xorazmshohlar davlati xalqaro maydonda obro‘-e’tibor qozonib, harbiy va siyosiy jihatdan yuksak darajaga erishdi. Takash boshchiligidagi davlat harbiy-feodal tizimga asoslangan bo‘lib, uning doimiy qo‘shini 150 ming kishidan iborat edi. Bundan tashqari, harbiy zaxirada yana 200 ming jangchi mavjud bo‘lib, qisqa vaqt ichida safarbar etilishi mumkin edi. Bundan tashqari, jang paytida yana yuz mingga yaqin ko‘ngilli askarlar ham safarbar bo‘lishi mumkin edi.

[1] Ibrahim Kafesoglu. Harezmshahlar devleti tarihi. – Ankara: Türk tarıhı ku-rumu bastımevi, 1992.
[2] Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jaxongusho. Nazarbek Raxim tarjimasi. Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – B. 284.

Xorazmshohning shaxsiy qo‘shini ham mavjud bo‘lib, uning tarkibida 10 mingga yaqin maxsus jangchilar bor edi[1]. Davlat qo‘shini asosan turk qabilalaridan tashkil topgan bo‘lib, u qabilaviy tuzilma asosida boshqarilgan. Armiyani boshqarish tizimi aniq yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, qo‘mondon lavozimi “Muqaddam” deb atalgan. Ushbu lavozimga tayinlangan kishi jasoratli, sadoqatli bo‘lishi va odatda hukmdorning singlisi yoki jiyanlaridan biriga uylangan bo‘lishi talab etilgan. Harbiy tuzilmaning asosiy bo‘linmalari 10 ming kishilik qo‘shinlardan iborat bo‘lib, ularning har biri “Malik” unvoni bilan ataluvchi sarkarda boshchiligida bo‘lgan.

Harbiy targ‘ibot va askarlarning ruhiy tayyorgarligiga katta e’tibor berilgan. Jangchilarni rag‘batlantirish maqsadida ularga yangi bosib olingan hududlardan iqta tarzida yerlar ajratilgan. Bu yer-mulk tizimi askarlarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash bilan birga, ularni davlatga yanada sadoqatli bo‘lishini ta’minlagan. Shu tariqa, Xorazmshoh Takash o‘z lashkarini nafaqat son jihatdan, balki mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy asos bilan ham ta’minlab, mintaqaning eng kuchli harbiy tuzilmalaridan birini shakllantirgan edi.

Xorazmshohlar qo‘shini o‘z davri uchun g‘oyat kuchli bo‘lib, ilg‘or jangovar vositalar bilan jihozlangan edi. Bu qo‘shin tarkibida oddiy jang qurollaridan tashqari, qamal texnikasi ham yetarlicha rivojlangan bo‘lib, harakatchan minoralar, mustahkam taranlar va hujum narvonlari bilan ajralib turgan.

Manbalarga ko‘ra, Xorazmshoh Takash armiyasi nafaqat son jihatidan katta, balki harbiy taktikasi bilan ham ajralib turgan. Z. M. Buniyodov yozishicha, Takash qo‘shini “olovdan ham dahshatliroq, shamoldan tezroq”[2] bo‘lgan. Bu esa Xorazm lashkarining jangovar salohiyati va harbiy texnologiyalar borasida o‘z zamonasidan ancha ilgarilab ketganligini ko‘rsatadi.

O‘rta asr mualliflarining yozishicha, Alouddin Takash adolatparvar, iqtidorli, buyuk diplomat va lashkarboshi bo‘lgan. U siyosiy ahvolni to‘g‘ri baholab, harbiy kuchdan oqilona foydalana olgan. Uning strategik tafakkuri va harbiy mahorati Xorazmshohlar davlatining qudratini oshirishga xizmat qilgan.

Takash nafaqat siyosiy va harbiy iste’dodi, balki san’atga bo‘lgan qiziqishi bilan ham ajralib turgan. U musiqani sevgan, udni juda yaxshi chalgan va bu orqali nafis didini namoyon etgan. Uning hozirjavobligi va zukkoligi ham muhim fazilatlaridan bo‘lib, bu xususiyatlari unga murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish imkonini bergan. Xulosa qilib aytganda, Takash adolatparvarligi, diplomatik mahorati, harbiy salohiyati va san’atga bo‘lgan mehrini uyg‘unlashtira olgan noyob hukmdorlardan biri edi.

Xorazmshohlar davlati mustahkam va samarali siyosiy tuzilishga ega bo‘lib, uning boshqaruv tizimi aniq va puxta yo‘lga qo‘yilgan edi. Davlatning asosiy boshqaruv idorasi devon bo‘lib, uning faoliyatini vazir nazorat qilgan. Vazir davlatning ichki va tashqi siyosatini yuritishda muhim rol o‘ynagan bo‘lib, barcha asosiy qarorlar uning rahbarligidagi xodimlar orqali amalga oshirilgan. Takash hukmronligi davrida, ayniqsa, uning xotini Turkonxotinning ta’siri bilan turk zodagonlari va qipchoqlar davlat boshqaruvida yetakchi o‘rinlarni egallagan. Ular nafaqat saroydagi muhim

[1] Vatan tarixi. K.1/ Mas’ul muharrir: A.Sagdullayev: Taqrizchilar H.Sodiqov va boshq. – T.: “Sharq”, 2010. – B. 512.
[2] Buniyodov Z. M. Xorazmshohlar – Anushteginiylar davlati. – B. 47.

lavozimlarni, balki harbiy qo‘mondonlik mansablarini ham egallab, davlat siyosatida muhim rol o‘ynaganlar.

Xorazmshohlar savdo va iqtisodiy rivojlanishga katta ahamiyat berganlar. Ularning g‘amxo‘rligi natijasida ichki va tashqi savdo keng miqyosda rivojlangan. Xorazm xalqaro savdo yo‘llarining muhim chorrahasida joylashgan bo‘lib, uning savdo aloqalari Xitoydan tortib, Andaluziya va Janubiy Rossiyagacha cho‘zilgan. Shuningdek, Yaqin Sharq mamlakatlari bilan ham faol savdo aloqalari yo‘lga qo‘yilgan edi. Xorazm hunarmandchiligi qadimdan mashhur bo‘lib, bu davrda hunarmandchilikning 50 dan ortiq turi rivojlangan va xorijiy bozorlar tomonidan yuqori baholangan.

Xorazmshohlar o‘z davrida dehqonchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratganlar. Sug‘orish tizimini kengaytirish, yangi kanallar va inshootlar qurish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri edi. Natijada dehqonchilikning barcha turlari rivojlanib, bog‘dorchilik va chorvachilik ham ancha taraqqiy etdi. Xususan, Xorazmning sug‘orish tizimi Markaziy Osiyodagi eng mukammal tizimlardan biri bo‘lib, ekin maydonlarini kengaytirish va hosildorlikni oshirishga xizmat qilgan.

Alouddin Takash umrining so‘nggi yillarida ham Xorazmshohlar davlatining qudratini mustahkamlash, hududlarini kengaytirish va saltanatni barqaror qilish yo‘lida harakat qildi. Uning harbiy yurishlari va davlat boshqaruvidagi muvaffaqiyatlari natijasida Xorazm Yaqin va O‘rta Sharqdagi eng kuchli davlatlardan biriga aylandi. Ammo ichki nizolar va sulola ichidagi ziddiyatlar saltanat barqarorligiga tahdid sola boshladi.

1200-yil 3-iyulda Takash Nishopurga borish yo‘lida kutilmaganda vafot etdi. Ba’zi manbalarga ko‘ra, u og‘ir kasallikdan hayotdan ko‘z yumgan, boshqalar esa uning o‘limi ortida fitna yoki zaharlanish ehtimolini ham ilgari suradi. Takashning vafoti davlat ichida beqarorlik keltirib chiqardi. Bag‘dodda xorazmliklarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarilib, qirg‘in avj oldi. Janubiy hududlarda G‘uriylar Saraxs, Naus va Abiverdni bosib oldilar. Ichki nizolar kuchayib, taxt uchun kurash qizg‘in tus oldi.

Takashning o‘rniga 1200-yil 3-avgustda uning o‘g‘li Alouddin Muhammad taxtga o‘tirdi. Biroq bu o‘zgarish osoyishta kechmadi. Muhammadning taxtga kelishidan norozi bo‘lgan uning o‘gay akasi, Nishopur hokimi Hinduxon o‘z qo‘shinini to‘plab, Marvga yo‘l oldi. Shu bilan birga, davlat boshqaruvidagi asosiy kuch Takashning bevasi va Alouddin Muhammadning onasi Turkonxotinning qo‘lida edi. U davlatning harbiy va moliyaviy boshqaruvini o‘z sodiq qipchoq lashkarlari va turk zodagonlari orqali nazorat qildi.

Alouddin Takashning vafoti Xorazmshohlar davlatida siyosiy beqarorlik va ichki kurashlarga sabab bo‘ldi. Uning o‘rniga kelgan Alouddin Muhammad esa sulola ichidagi kelishmovchiliklar va tashqi tahdidlar bilan yuzlashishga majbur bo‘ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Alouddin Takash o‘z davrining ulkan siyosiy arbobi va mohir sarkardasi sifatida tarix sahnasida o‘chmas iz qoldirdi. Uning rahnamoligida Xorazmshohlar davlati qudrat cho‘qqisiga ko‘tarilib, Yaqin va O‘rta Sharqning eng yirik saltanatlaridan biriga aylandi. Takash o‘z harbiy iqtidori va davlatni mustahkamlash yo‘lidagi qat’iy islohotlari bilan saltanatni kengaytirishga erishdi.

Biroq, uning vafoti ortidan Xorazm taxti uchun kurash va ichki nizo avj oldi. U qurgan kuchli davlat jipsligi sinovlarga duch kelib, taxt vorisligi masalasi katta keskinlik keltirib chiqardi. Uning o‘g‘li Alouddin Muhammad saltanatni qo‘lga kiritgan bo‘lsa-da, ichki siyosiy ziddiyatlar va tashqi tahdidlar uni og‘ir sinovlar qarshisida qoldirdi.

Shunday bo‘lsa-da, Alouddin Takash hukmronligi davri Xorazmshohlar tarixidagi eng yorqin sahifalardan biri bo‘lib, u o‘zining jasorati, adolatli boshqaruvi va kuchli harbiy yurishlari bilan o‘rnak bo‘lib qoldi. Uning mehnati, fidoyiligi va strategik qarorlari Xorazmshohlar davlatining keyingi taraqqiyotiga zamin yaratdi. Tarix sahifalarida Takash ismi buyuk sarkarda va dono hukmdor sifatida abadiy muhrlanib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Ikki buyuk sarkarda yoxud Jaloliddindan Qutuzgacha”; mas'ul muharrir A. O‘rozboyev; – Toshkent: “Sharq ma’rifati nashr-matbaa uyi” nashriyoti, 2021. – 320.

2. Ibrahim Kafesoglu. Harezmshahlar devleti tarihi. – Ankara: Türk tarıhı ku-rumu bastımevi, 1992.

3. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jaxongusho. Nazarbek Raxim tarjimasi. Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – B. 284.

4. Vatan tarixi. K.1/ Mas’ul muharrir: A. Sagdullayev: Taqrizchilar H. Sodiqov va boshq. – T.: “Sharq”, 2010. – B. 512.

5. Buniyodov Z. M. Xorazmshohlar – Anushteginiylar davlati. – B. 47.

O‘QUVCHILARDA EKOLOGIK MADANIYAT VA EKOLOGIK TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA TA’LIM-TARBIYANING O‘RNI

Atadjanova Mehribon Ilxamovna
UrDPI “Tarix va geografiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarda ekologik madaniyatni va ekologik tafakkurni shakllantirishda ta’lim-tarbiyaning o‘rni, ekologik madaniyatni shakllantirishni bolalar bog‘chasidan boshlash zarurligi, umumta'lim maktablarida ham o‘quvchi yoshlarda tabiat, atrof muhit, uning inson hayotidagi ahamiyati, tabiatni asrash, unga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lish tushunchalarini shakllantirish masalalari yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: tabiat, ekologiya, ekologik savodxonlik, ekologik madaniyat, tabiatni muhofaza qilish, ekologik tafakkur, tabiiy resurslar.

Аннотация. В статье рассматривается вопросы роль образовании и воспитании в формирование у молодёжи экологической культуры и экологического мышления, о вопросах важности формирование этих качеств у детей в дошкольном возрасте, о значениях формирование у учеников общеобразовательных школ понятий как природа, окружающая среда, их роль в жизни людей, охраны природы и правильное отношение к природному среду.

Ключевые слова: природа, экология, экологическая грамотность, экологическая культура, охрана природы, экологическое мышление, природные ресурсы.

Abstract. The article discusses the role of education and upbringing in the formation of ecological culture and ecological thinking among young people, the importance of the formation of these qualities in children in preschool age, the importance of the formation of concepts such as nature, the environment in students of secondary schools, their role in people’s lives, nature conservation and the correct attitude towards the natural environment.

Keywords: nature, ecology, environmental literacy, ecological culture, nature conservation, environmental thinking, natural resources.

Bugungi fan va texnika, texnologiyalar jadal taraqqiy etayotgan bir davrda ommaviy ommaviy axborot vositalarida tez-tez aholining, ayniqsa yoshlarning ekologik ongi va madaniyatini tarbiyalashga oid masalalar yoritilayotgani bejiz emas. Chunki insoniyat tamadduni hozir shunday bir bosqichga kelib yetdiki, tabiatga inson xo‘jalik faoliyatining ta’siri juda ortib, bunday kuchli bosimga tabiat dosh bera olmayapti degan xulosaga kelish mumkin. Buni iqlimning global isishi, ozon qatlamining yemirilib boayotganligi, cho‘llanish jarayoninig kuchayib borayotganligi, iqlim mintaqalari va tabiat zonalarining siljishi, tabiatda ro‘y berayotgan anomal hodisalarning ko‘payib borayotganligi isbotlamoqda.

Ana shunday bir davrda aholida, ayniqsa o‘quvchi yoshlarda tabiat, undagi muvozanat, ekologik madaniyat, tabiatga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarini shakllantirish va tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Inson tabiatning oliy mahsulidir, ya'ni tabiat insonni vujudga keltirgan bo‘lsa, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar uni shakllantirdi, rivojlantirdi. Mehnat uning ongini yuksaltirdi va kamol toptirdi. Davrlar

o‘tishi bilan insoniyat jamiyati rivojlanib, u qudratli texnikaga ega bo‘ldi va endi uning tabiatga ta'sir ko‘lami nihoyatda ortib, u tabiatdan keragidan ham ortiq ne'matlarni tortib ola boshladi, buning oqibatini esa yetarlicha o‘ylab ham ko‘rmadi. Natijada tabiat muvozanati buzilib, ekologik muammolar yuzaga kela boshladi.

Ana shular sabab jamiyatimiz a’zolarida tabiat qonunlari haqidagi bilimlarni rivojlantirish zarurati tug‘ildi. Ekologik savodxonlik va madaniyat, eng avvalo, oiladan boshlanadi. Ekologik duyonqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog‘liqdir. Agar bu masala oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa, uni maktablarda, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo‘ladi. Hozirgi davrda yoshlarda ekologik madaniyatni va ekologik tafakkurni rivojlantirish dolzarb muammolardan biridir. Ekologik madaniyatni shakllantirishga esa ekologik ta’lim-tarbiya asos bo‘ladi. Ekologik ta’lim-tarbiya umumiy ta’lim va tarbiyaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, maktabda barcha fanlarni o‘qitishda amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Ekologik ta’lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yoshavlodga atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir. Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan to‘g‘ri munosabatini tarbiyalashdir.

“Jahonda atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha Stokgolm, Rio-de-Janeyro deklaratsiyalari hamda BMT Bosh Assambleyasining “Tabiatning jahon xaritasi” haqidagi rezolyutsiyasida ekologik xavfsizlikning axloqiy-etik, aksiologik, kognitiv, faol faoliyat komponentlarini ta’minlash muhim vazifa sifatida qayd etilgan. Barqaror taraqqiyot (sustainable development) nazariyasi va amaliyotiga tayanib, iqtisodiy-ekologik vazifalarni mustaqil hal etishga qodir bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashga talablar ortib borayotgan hozirgi sharoitda ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish muhim hisoblanadi”[1].

Bugungi kunda ekologik ta’lim va tarbiyani tizimli asosda yo‘lga qo‘yish global ekologik inqirozlarning oldini olishdagi muhim omillardan biri ekanligini insoniyat tushunib yetmoqda. Bizning fikrimizcha, ushbu yo‘nalishdagi ta’lim va tarbiya insonning o‘zini ekologik muammolarning yuzaga kelishida va atrof tabiiy muhitning ifloslanishi hamda zararlanishida o‘zini daxldor deb bilishi va tabiatni muhofaza qilish sohasida ongli qarorlar qabul qila olishga, amaliy harakatlar qilishga undamog‘i lozim. Aks holda, u samarasiz hisoblanadi.

Shuni ham alohida ta’kidlash lozimki, maktab geografiya ta’limida tevarak atrof muhit, tabiat komponentlari, ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, uning yaxlit tizim ekanligi haqidagi bilimlar berilsa-da, mazur tizimga inson xo‘jalik faoliyatining ta’siri, uning oqibatlari qanday bo‘lishi, tabiat muvozanati buzilishining asl mohiyati, uni ijobiy tomonga qanday o‘zgartirish mumkinligi haqidagi tushunchalar va bilimlar yetarlicha yoritib berilmaydi.

Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning bir muhim tarkibiy qismi bo‘lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur:

1. O‘quvchilarning ta’lim jarayonida o‘zlashtirgan ekologik bilimlarini yanada to‘ldirish va takomillashtirish.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 19-sentyabrdagi BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi. https://tma.uz/wp-content/uploads/2017/09/sh-mirziyoev-manaviyatsoati.

2. Ta’lim jarayonida ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasi, ekologiyaga doir tasavvurlarini boyitish.

3. O‘quvchilar ongiga tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash ijtimoiy zaruriyat va har bir insonning fuqarolik burchi ekanligini singdirish.

4. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ekologik faoliyat bo‘yicha ko‘nikma va malakalarni tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish.

Bugungi kunda ta'limda e'tibordan chetda qolayotgan narsalardan biri bu o‘quvchilarning ekologik savodxonligini oshirishdir. Ekologik savodxonlik va madaniyat, avvalo, oiladan boshlanadi va ekologik duyonqarashni shakllantirishning negizi oiladagi tarbiyaga bevosita bog‘liqdir. Agar bu masala oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan bo‘lsa, uni maktablarda, keyingi ta'lim bosqichlarida hamda mehnat jarayonlarida qaror toptirish qiyin bo‘ladi.Oila davrasida farzandlarga bejizga “Suvga tuflama, uni iflos qilma, chunki barcha jonivorlar uni ichib bahra oladi”, “Gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirma, u meva beradi, uni o‘zing iste’mol qilasan”, deya pandu-nasihatlar qilinmagan.

Muqaddas “Avesto” kitobida tabiatni, xususan, suvni iflos yoki isrof qilgan kishi 400 darra bilan kaltaklanishga mahkum etilgani yozilgan. Suvga hurmat islom dinimiz udumlarida va e’tiqodlarida ham mavjud. Mana shu hurmat asosida xalqimizda ko‘plab maqollar, rivoyatlar, ibratli hikoyalar paydo bo‘lgan.

Ekologik ta’lim va tarbiyani bolalar bog‘chalarida, umumta’lim maktablarida, keyingi ta'lim bosqichlarida ham tizimli ravishda davom ettirilsagina yoshlarimizda ekologik tafakkur shakllanadi. Dastlab bolalar bog‘chalarida atrof-muhit, tabiat va ekologiya haqidagi tushunchalar berilsa, umumta’lim maktablarida asosan, tabiatshunoslik darslarida ularga boshlang‘ich ekologik ta'lim-tarbiya berish boshlanadi.

Ekologik tafakkurni shakllantirishda o‘lkamizning xilma-xil va minglagan turdagi o‘simliklar va hayvonot dunyosi, ularning foydasi, ularni muhofaza qilish zarurligi haqidagi bilimlar bilan yoshlarimizni boshlang‘ich sirflardan tanishtirib borish o‘zining ijobiy samarasini beradi. Bunda ekologiyadan beriladigan asosiy tushunchalar umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan barcha fanlarda, ayniqsa, tabiatshunoslik, geografiya, tarix, fizika, ekologiya, matematika kabi fanlarni o‘qitishda umumlashtiriladi. Shu bilan birga darsdan tashqari to‘garak mashg‘ulotlarida, bolalarni tabiat qo‘yniga ekskursiyaga olib chiqish davrida hamda ularda ekologik tushunchalar shakllantirib boriladi.

Shuni ham ta’kidlash zarurki, umumta’lim maktablarida tabiiy fanlarni o‘qitishda o‘quvchilarga tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga oid beriladigan bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish har bir mavzuni o‘qitishda qo‘yilgan maqsad va vazifalarga mos ravishda tanlangan bo‘lishiga e’tibor berish zarur. Ekologik madaniyatni va ekologik tafakkurni shakllantirish ishlarini darsdan tashqari mashg‘ulotlarda hamda sinfdan tashqari o‘tkaziladigan tadbirlarda, ekskursiyalar davomida faol ravishda amalga oshirish mumkin. Bunda turli sinflar o‘quvchilari o‘rtasida “Tabiatni asrash – muqaddas burchimiz”, “Tabiatni e’zozlaylik” “Qushlar bizning do‘stimiz”, “Gullar bayrami”, “Tabiat va inson”, “Ekoligiya va

inson”, “Orol madad so‘raydi”, “Ona sayyora-umumiy uyimiz” kabi mavzularda turli davra suhbatlari, bahs va munozaralar uyushtirish o‘z ijobiy samarasini beradi.

Yana shuni ham aytish kerakki, tabiat qo‘yniga qilingan sayohatlar, ekologik yo‘nalishdagi to‘garaklardagi faoliyat, ekologik mazmunda o‘tkazilgan kechalar, viktorinalar o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanadi. Sayohatlar mazmuni asosan tevarak-atrofni kuzatishga yo‘naltiriladi. Bunday sayohatlar vaqtida o‘quvchilar tabiatdan va uning resurslaridan inson qanday foydalanayotganligini o‘z ko‘zlari bilan ko‘radilar, kattalarning tabiatga to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri munosabatda bo‘layotganlarining guvohi bo‘ladilar. Tabiat qo‘ynida bo‘lish o‘quvchilarda go‘zal estetik kechinmalarni paydo qiladi, ular tabiatdan zavqlanishni o‘rganadilar. Sayohatlar davomida o‘quvchilar qushlarni sayrashini eshitib, o‘simliklarni yashnashini ko‘rib quvonadilar. Bu holatdan ular ham estetik, ham ekologik tarbiya oladilar. O‘qituvchi ko‘rsatmalariga asosan ular amaliy ishlarni ham bajaradilar, ya'ni gullarni o‘stiradilar, qushlarni, quyonlarni boqib, parvarish qiladilar, qushlarga uyachalar yasaydilar.

Ta’lim berish jarayonida o‘quvchilarda ekologik madaniyatni va ekologik tafakkurni rivojlantirish borasida ularda quyidagi xislatlarni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratilishi zarur:

- ularda tabiat, atrof muhit va unda yashayotgan insonlar o‘rtasida uzviy bog‘lanish borligi, insonning tabiatning ajralmas bir bo‘lagi ekanligini his qilish;
- tabiat boyliklarini asrab-avaylash, ulardan tejab tergab foydalanish va ulardan kelgusi avlodlar ham foydalanishlari zarurligini tushuntirish;
- atrof tabiiy muhitni ifloslanishdan saqlash - sog‘ligimiz garovi ekanligini his qilish;
- maishiy hayotda suvni, elektr energiyasi, gazni va boshqa tabiat ne'matlarini tejashni o‘rgatish.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchi yoshlarda ekologik madaniyat va ekologik tafakkurni shakllantirish ularda tabiatga nafaqat tabiatni muhofaza qilish uchun kurashish, uning go‘zalligini asrab-avaylashga his tug‘ularini ham shakllantirib, ularning axloqiy fazilatlarini yanada boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning 2017-yil 19-sentyabrdagi BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.

2. Abirqulov Q. N., Hojimatov A. N., Rajabov N. R. Atrof-muhitni muhofaza qilish. – Toshkent: TDIU, 2003, 148-b.

3. Зиёмуҳаммедов Б. Экология ва маънавият. – Т.: “Меҳнат”, 1997.

4. Исмоилов А., Аҳадов Р. Экологик таълим-тарбия. – Т.: “Ўқитувчи”, 1997.

5. Norbo‘taev X. B. Maktab o‘quvchilarida ekologik tafakkurni tabiiy fanlararo aloqadorlikda shakllantirish. //Ilm sarchashmalari – 2020. 6-son. – B. 98-102.

YER YUZASINING FLORISTIK RAYONLARINI O‘QITISHDA VENN DIAGRAMMASI GRAFIK ORGANAYZERIDAN FOYDALANISH

Amanov Allabergan Kutlimuratovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU Geografiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
Nazarov Didar Maxsat o‘g‘li
Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU Geografiya yo‘nalishi 2 – bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada biogeografiya fanidagi “Yer yuzasining floristik rayonlari” mavzusini “Venn diagrammasi” grafik organayzeri yordamida o‘qitish usullari haqida aniq va tiniq ko‘rsamalar berib o‘tilgan. Xususan, mazkur mavzuni yoritishda ushbu grafik organayzerning bir qator turlaridan foydalanish lozimligi ochib berish orqali talabalarning yanada chuqur bilim egallashigan zamin yaratishi haqida fikr yuritilgan. Maqolada shuningdek, mazkur mavzuni o‘qitishda grafik organayzerlardan o‘z o‘rnida qo‘llash natijasida talabalarning egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning tez va oson o‘zlashtirish imkoniyatlari haqida o‘ziga xos taklif va tavsiyalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Floristik rayonlar, oddiy Venn diagrammasi, chiziqli Venn diagrammasi, ustunli Venn diagrammasi, radial Venn diagrammasi.

Аннотация. В этой статье даны четкие и четкие наглядные представления о методах преподавания темы “флористические районы земной поверхности” в биогеографии с помощью графического органайзера “диаграмма Венна”. В частности, было высказано мнение о необходимости использования в освещении данной темы ряда видов графического органайзера, что позволит студентам получить более глубокие знания. В статье также даны конкретные предложения и рекомендации о возможности быстрого и легкого усвоения знаний, умений и навыков, необходимых студентам в результате применения графических органайзеров в преподавании данной темы.

Ключевые слова: Флористические районы, простая диаграмма Венна, линейная диаграмма Венна, столбчатая диаграмма Венна, радиальная диаграмма Венна.

Abstract. This article gives clear and clear views on the methods of teaching the topic “Floristic regions of the Earth’s surface” in the science of Biogeography using the graphic organizer “Venn diagram”. In particular, it was thought that by revealing the need to use a number of types of this graphic organizer in the coverage of this topic, it creates a ground on which students acquire more in-depth knowledge. The article also provides specific suggestions and recommendations on the possibilities of quick and easy mastering of the knowledge, skills and skills that students should acquire as a result of using graphic organizers in the teaching of this topic in their place.

Keywords: Floral areas, simple Venn diagram, linear Venn diagram, columnar Venn diagram, radial Venn diagram.

KIRISH. Biogeografiya fani yer shari yuzida o‘simliklar, hayvonlar va mikroorganizmlarning umumiy tarqalish qonuniyatlarini o‘rganadi’. Bu fan biologiya va geografiya fani o‘rtasida shakllangan. Faqat Biogeografiya fani metodlari bilangina organik olamni yer sharida tarqalish qonuniyatlarini hamda o‘zaro munosabatlarni

o‘rganish mumkin. Shu o‘rinda yer sharining quruqlik qismining o‘simlik dunyosi alohida floristik rayonlashtirishga ega va biz ushbu maqolada “Venn diagrammasi” deb nomlanuvchi grafik organayzeri yordamida floristik rayon (hukmronlik)lar, hamda asosiy tushunchalari haqida fikr yuritamiz.

ASOSIY QISM. Grafik organazyer turli komponentlar o‘rtasidagi g‘oyalar, tushunchalar va o‘zaro ta’sirlarni hikoya organizatorlarda vizual tarzda ifodalab beradi. Grafik organizatorning asosiy g‘oyasi o‘quvchilarga o‘z fikrini aniq aytishga yordam berishdir. Har bir grafik yoki diagramma ma’lumotlarni solishtirish va hikoya qilishi uchun grafik organizator sifatida ishlatish mumkin.

Eyler diagrammasi (Venn diagrammasi) – to‘plamlar va ularning munosabatlarini tasvirlashning diagrammatik vositasidir. Odatda Eyler diagrammasi doiralar bilan tasvirlanadi. Eyler tomonidan ixtiro qilingan. Matematika, mantiq, menejment va boshqa amaliy sohalarda qo‘llanadi [3].



1-rasm. Floristik hukmronliklarni “oddiy Venn diagrammasi” grafik organayzeri yordamida tushuntirish usuli. Mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Venn diagrammasi – bu ikkita mavzu yoki g‘oyalar o‘rtasidagi munosabatlarni taqdim etish uchun ikkita yoki uchta doira shaklidan foydalanadigan grafikdir. Ushbu vosita asosan ikkita asosiy mavzu o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni vizual tarzda ifodalash uchun ishlatiladi, shuning uchun ikkala mavzu bo‘yicha bilim olish osonroq bo‘ladi.

Floristik oblastlarga bo‘lib o‘rganish uchun ko‘plab olimlar ilmiy izlanishlar olib borgan. Bu ilmiy izlanihlarning ichida xitoylik A. L. Taxtadjanning ishi tan olingan. Yer yuzi 6 ta floristik oblastga bo‘linadi va buni “chiziqli Venn diagrammasi”dan foylangan holda ko‘rsatib berish ancha samarali hisoblanadi [1].

Hozirgi kunda floristik hukmronliklarning chegaralari u yoki, bu ko‘rinishda o‘zgarishlarini ko‘rishimiz mumkin, nega-ki, bunday rayonlashtirishda turli olimlarning har xil qarashlari mavjud, shu bilan birga keyingi yillardagi yangi tadqiqot usularining ochilishi hamda yangidan-yangi o‘simliklarni o‘rganilishi sabab bo‘lmoqda.

Umuman olganda o‘simlik dunyosining hayvonot olamiga nisbat ko‘chish imkonning o‘ziga bog‘liq darajasi pastligi, uning keng hududlarga tashqi ta’sirlarsiz uzoq yillar davomida yoyilishi floristik hukmronliklardagi o‘zgarishlar asta – sekinlik bilan davom etishini ko‘rsatadi.

Yana shuni alohida ta’kidlash lozim-ki, floristik yohud faunistik hukmronliklar chegarasi aniq o‘tkazishning imkoni hamma joyda bir xil bo‘lmaydi.

2-rasm. Floristik hukmronliklarni grafik organayzeri yordamida tushuntirish usuli. Mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Ushbu chiziqli Venn diagrammasi orqali Yer sharining quruqlik qismidagi floristik hukmronliklarini bir-biri bilan o‘xshash va o‘ziga xos tomonlarini aniqlash orqali chizmada ularni o‘zaro solishtirish yo‘li bilan ularning umumiy va farqli qiluvchi xususiyatlarini o‘rganish imkoni yaratiladi. Masalan, Golarktika floristik hukmronligining Shimoliy Amerika mintaqasi bilan Markaziy va Janubiy Amerikani o‘z ichiga oluvchi Neotropik floristik hukmronliklarni solishtirish, o‘z navbatida Neotropik floristik hukmronlikni Paleotropik floristik hukmronlik xususiyatlari bilan solishtirish va hokazo.



3-rasm. Floristik hukmronliklarning taksonomik birliklarini “ustunli Venn diagrammasi” grafik organayzeri yordamida tushuntirish usuli. Mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Mazkur ustunli Venn diagrammasi orqali Yer sharining quruqlik qismidagi floristik hukmronliklarining taksonomik birliklarini umumiydan-oddiylikka yoxud murakkabdan-soddaga ko‘rinishda o‘rganish imkoniyati ochib beriladi. Masalan, Floristik hukmronliklar – kichik floristik hukmronliklarga, kichik floristik

hukmronliklar – floristik oblastlarga, floristik oblastlar esa o‘z navbatida – kichik floristik oblastlarga bo‘linishini tasavurlash imkonini beradi.



4-rasm. Radial Venn diagrammasi yordamida Neotropik hukmronlikni kichik hukmronliklarga bo‘linishini tushuntirish usuli. Mualliflar tomonidan tayyorlandi.

Radial Venn diagrammasi orqali Yer sharining quruqlik qismidagi istalgan floristik hukmronliklarining kichik floristik hukmronliklarga bo‘linishini, hamda ularnining o‘ziga xos xususiyatlarini ko‘rsatib berish imkonini ifodalaydi. Masalan, Golantarktika hukmronligi o‘z navbatida Yangi Zelandiya, Patogoniya va Antarktida kichik floristik hukmronliklar [2] ga, yoki 4-rasmda ko‘rsatilgan Neotropik floristik hukmronligi – kichik floristik hukmronliklar – floristik oblastlarga, floristik oblastlar esa o‘z navbatida – Karib, Braziliya, Amazonka va And kichik floristik oblastlar [2] ga bo‘lingani kabi.

XULOSA. Keyingi yillarda har qanday fanni o‘qitishda yangicha yondashuv talab qilinmoqda, bu esa fan o‘qituvchilarining o‘z ustida ishlash zaruratini tug‘dirmoqda, aynan shu nuqtayi-nazardan, ta’limda turli grafik organayzer kabi “Venn diagrammasi”dan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

Venn diagrammasi yordamida tushunchalarning ko‘rgazmalilik xususiyati oshishi orqali talabalarda esalab qolish imkoniyat oshadi va alohida ko‘rsatilgan obyektlar haqidagi o‘ziga xos tomonlarini farqlash imkoniyati ochib beriladi.

Umuman olganda o‘quv mashg‘ulotlari davomida u xoh ma’ruzami, xoh amaliy mashg‘ulot grafik organayzerlardan kerakli o‘rinda foydalanish foydadan xoli bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Воронов А. Г. и друг. Биогеография с основами экологии. – Москва: «Высшая школа» 2002.

2. Радченко Т. А. и друг. Биогеография. – Екатеринбург: 2015.

3. https://prezi.com/p/uj4aucwkcdxt/grafik-organayzerlar-avazova-sa/

KOMIL XORAZMIY – MA’RIFATPARVAR DAVLAT ARBOBI

Allanazarov Shoxruxbek Farxodovich
UrDPI Tarix va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr Xorazm ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Komil Xorazmiy hayoti haqida so‘z boradi. Komil Xorazmiyning Xorazm adabiy muhitidagi o‘rni, Xiva saroyidagi siyosiy faoliyati atroflicha tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Komil Xorazmiy, XIX asr, ijtimoiy-siyosiy muhit, madaniy hayot, devonbegi, mirzaboshi, maqom, musiqa san’ati.

Abstract. This article talks about the life of Kamil Khorezmi, who had his place in the socio-political and cultural life of XIX century Khorezm. The role of Kamil Khorezmi in the literary environment of Khorezm and his political activities in the Khiva palace are thoroughly analyzed.

Key words: Kamil Khorezmi, 19th century, socio-political environment, cultural life, devanbegi, mirzaboshi, makom, music art.

Аннотация. В данной статье рассказывается о жизни Камиля Хорезми, имевшего свое место в общественно-политической и культурной жизни Хорезма XIX века. Подробно анализируется роль Камиля Хорезми в литературной среде Хорезма и его политическая деятельность в хивинском дворце.

Ключевые слова: Камиль Хорезми, XIX век, общественно-политическая среда, культурная жизнь, деванбеги, мирзабоши, маком, музыкальное искусство.

XIX asrning ikkinchi yarmida Xivadagi adabiy harakatning davomchilaridan biri buyuk san’atkor, musiqashunos, mohir xattot va tarjimon, davlat arbobi, ma’rifatparvar shoir Komil Xorazmiy 1825-yil Xiva shahrida mudarris Abdulla Oxund oilasida tavallud topgan. Onasi Avazjon mashhur musiqashunos Abdusattor Mahramning tug‘ishgan singlisi bo‘lgan. Yoshlikda Komilni erkalab, Pahlavon laqabi bilan chaqirganlari uchun uning nomi keyinchalik Pahlavon Niyoz Muhammad shaklida mashhur bo‘lib ketadi. Pahlavon Niyoz Muhammadning oilasidagi tarbiyasidan boshlab to madrasani bitirgan yillarigacha bo‘lgan tarjimayi holiga oid materiallar yo‘q. Lekin yozma va og‘zaki manbalarga qaraganda Komil Xorazmiy avval ibtidoiy maktabda, keyin madrasada o‘qib ta’lim olgan. Otasining o‘limi sababli oilani moddiy jihatdan ta’minlash uchun bobosi savdogar Xo‘jashmahramga xizmatga kirgan va ma’lum vaqtdan keyin yana madarasada o‘qishni davom ettirgan.

Madrasada o‘qib yurgan yillarida Komil Xorazmiy arab, fors-tojik tillarini puxta o‘rgangan. Bu shoirga fors-tojik va o‘zbek adabiyotini egallashda yordam bergan zamondosh shoirlarning suhbatlarida, adabiy majlislarida ishtirok etib turgan va keyinchalik o‘zi ham g‘azallar mashq qila boshlagan [1].

Komil Xorazmiyning lirik merosi bitta devondan tashkil topgan bo‘lib, uning bir necha qo‘lyozma va toshbosma nusxalari mavjuddir. Ularning ichida eng mukammal deb sanalgan devondagi she’rlar (“Bahri tavil” asaridan tashqari) taxminan 3680 baytdan iborat bo‘lib, shoirning lirik merosi haqida to‘laroq va aniqroq tasavvur hosil qiladi. Unda g‘azal, musaddas, muhammas, masnaviy, ruboiy, qasida kabi janrdagi she’rlar o‘rin olgan. Komil Xorazmiy badiiy ijodiyotida Navoiydan o‘rnak olib,

zamonasining yetuk shoirlari Munis, Ogahiylar izidan borib o‘z davri uchun muhim bo‘lgan ijtimoiy, axloqiy masalalarga o‘z ovozini qo‘shdi va ularni poeziya mulkiga aylantirib, xilma-xil poetik vositalar yordamida san’atkorlik bilan ifoda etdi. Klassik poeziya an’analarini novatorlik bilan boyitib, o‘zbek poeziyasini yangi kamolot bosqichiga ko‘tardi [2].

Komil Xorazmiy xattotlik va musiqa ilmini puxta egalladi. Shuning uchun uni saroyga xizmatga taklif etdilar. U dastlab Sayid Muhammadxon, keyinchalik esa uning farzandi Muhammad Rahimxon II (Feruz) saroyida oldin oddiy xattot sifatida, so‘ng mirzaboshi sifatida xizmat qildi. Komil Xorazmiy xattotlik san’atini boshqa yoshlarga o‘rgatdi. Uning rahbarligida 50 nafarga yaqin xattotlar (xivaliklarning ta’biricha “devonlar”) yetishib chiqqan. Ular orasida ustod Muhammad Panoh, Xudoybergan Muhrkon devon, Muhammad Sharif Tarro devon (bu kishi mashhur o‘zbek bastakori va musiqachisi Matyusuf Xarrotovning otasi bo‘lgan), Muhammad Rasul va boshqa ko‘pgina ma’rifatchilar Xorazm shon-shuhratini elga yoyishda astoydil mehnat qilishdi.

Xiva xonligi Rossiya tomonidan zabt etilganidan so‘ng Komil Xorazmiy devonbegi qilib tayinlanadi va obro‘li davlat arbobi sifatida taniladi. Bu haqida Muhammad Yusuf Bayoniy “Shajarai Xorazmshohiy” asarida shunday yozadi: “Vaqtekim, Rusiya askari ko‘chub o‘z viloyatlarig‘a kettilar, xon hazratlari taxti davlatda qaror tutib, Pahlavon Mirzoboshini Muhammadmurod devonbegining o‘rnig‘a devonbegi qildilar va Bekjon eshik oqosinikim, Rahmatullo yasavulboshining o‘g‘li erdi, otasining o‘rnig‘a yasavulboshi qildilar…” [3]. 1873-yilda Rossiya imperiyasi qo‘shinlari tomonidan Xiva xonligi zabt etilganidan keyin, Xiva ichkari saroy amaldorlari tarkibida tub o‘zgarishlar bo‘ladi. Shu asnoda, Komil Xorazmiy Matmurod devonbegidan bo‘shab qolgan o‘ringa tayin etiladi.

Komilning Muhammad Rahimxon II (Feruz) saroyidagi ijtimoiy faoliyati, shaxsiy qismati haqidagi “O‘zbek adabiyoti tarixi” tadqiqotining V jildida shunday fikrlarni o‘qiymiz: “Komilning bu davr faoliyatida ko‘zga tashlanib turgan yangiliklardan eng muhimi – uning har sohada mumkin qadar Rossiyaga, rus madaniyatiga qarab ish tutishi edi. U ruslar bilan aloqa qilishdan qo‘rqmas, ulardan yordam olish bilan birga o‘zi ham ularga qo‘lidan kelganicha yordamlashib turar edi…

Saroydagi reaksion doiralarga, albatta, Komilning bu xil xatti-harakatlari yoqmas edi. Oxiri, ular xonga ta’sir ko‘rsatib, Komilni 1879-1880-yillarda devonbegilik mansabidan bekor qilishga, Matmurodni surgundan qaytarib kelib, uning o‘rniga tayinlashga muvaffaq bo‘ldilar [4]. Komil Xorazmiyning devonbegilik lavozimidan ketishi, uning to‘la-to‘kis davlat ishlaridan chetlatildi degani emas edi. U yana saroyda mirzaboshi qilib tayinlanadi. Bu safar u ko‘p vaqtini adabiyot va san’atni rivojlantirishga bag‘ishlaydi.

Komil Xorazmiy o‘zbek musiqa san’ati sohasida bir qancha kuylarni isloh etdi. Komil “Tanbur notasi” (“Maqomi Feruzshohiy”) ni yaratib, bu sistemadagi “Rost” maqomining bosh qismini yozish bilan birga o‘zi ham “Murabbayi Komil”, “Peshravi Feruz” kabi kuylarni ijdo etdi va ularni ham notalashtirdi. U qo‘biz, balalayka, garmon kabi rus musiqa asboblarini chertishni ham bilgan [5]. Komil Xorazmiyning Xorazm milliy musiqa sohasida qilgan ulkan hissasi, tarixda o‘chmas iz qoldirdi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Komil Xorazmiy Xiva xonligida davlat ishlari bilan birgalikda madaniy taraqqiyotga ulkan hissa qo‘shgan ma’rifatparvar arbob. Komil Xorazmiyning ijodkorlik faoliyatini Xorazm adabiy muhitining muhim ustunlaridan biri deb bilsak, uning siyosiy faoliyatini faol diplomat ekanligidan, vaziyatni bir maromda olib boruvchi siyosatchi ekanligini bilib olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбек педагогикаси антологияси: Икки жидлик. Ж. 1. / (Тузувчи-муаллифлар К. Ҳошимов, С. Очил; Таҳрир ҳайъати М. Хайруллаев ва бошқ.).– Т.: “Ўқитувчи”, 1995. 395.

2. Солаева М. Навоий ва Хоразм шоирлари. – Урганч: “Мураббий” НМК бирлашмаси, 1993. 62.

3. Шажараи Хоразмшоҳий / Баёний. Таҳрир ҳайъати: Б. Аҳмедов ва б. – Т.: “Камалак”, 1991. 231.

4. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати: Сайид Муҳаммад Раҳимхони Баҳодирхони соний – Феруз ҳақида тарихий бадиий лавҳалар / Д. Раҳим, Ш. Матрасул, Н. Жумахўжа. – Т.: “Ўзбекистон”, 1995. 17.

5. Феруз. Шоҳ ва шоир қисмати. Тарихий-бадиий лавҳалар. (Сўзбоши муаллифи: Б. Назаров; Масъул муҳаррир Н. Жумаев). – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. 45.

IKKINCHI JAHON URUSHI MUKOFOTLASH TIZIMI VA UNDA O‘ZBEKISTONLIK QAHRAMONLARNING O‘RNI (1939-1945-YILLAR)

Matyokubov Dilshodbek Matyokub o‘g‘li
UrDPI Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi 1-toifali muhandisi

Annotatsiya. Ushbu maqola Ikkinchi jahon urushi yillarida Sobiq Ittifoq Respublikalari tarkibida urushda qatnashgan o‘zbek qahramonlari tarixi, ularning mardlik va jasorati timsoliga bag‘ishlangan. Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek jangchilarining qahramonligi yuksak baholanib, Ittifoqning oliy mukofotlari bilan taqdirlangani tarixiy va xronologik jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, o‘zbek xalqi, Ikkinchi jahon urushi, Sovet davlati, mukofot, orden, medal, unvon, qahramonlik, jasorat, mudofaa, islohot, Xotira kuni va faxriy yorliqlar.

Аннотация. Данная статья посвящена истории узбекских героев, участвовавших в войне в составе бывших союзных республик в годы Второй мировой войны, и символу их храбрости и отваги. Исторически и хронологически проанализированы факты о том, что в годы Второй мировой войны героизм узбекских воинов был высоко оценен и отмечен высшими наградами Союза.

Ключевые слова: Узбекистан, узбекистанцы, вторая мировая война, Советское государство, награда, орден, медаль, звание, героизм, отвага, оборона, реформа, День памяти и почести.

Abstract. This article is devoted to the history of the Uzbek heroes who participated in the war as part of the former Soviet republics during the Second World War, and the symbol of their courage and bravery. The facts that during the Second World War the heroism of Uzbek soldiers were highly appreciated and awarded the highest awards of the Union were analyzed historically and chronologically.

Key words: Uzbekistan, uzbek people, the second world war, the Soviet state, award, order, medal, rank, heroism, courage, defense, reform, Memorial Day and honors.

KIRISH. Ma’lumki, Ikkinchi jahon urushi yillarida sovet davlati og‘ir sinovlarni boshidan kechirdi. Sovet xalqi shiddatli janglar alangasida o‘z Vatanining shon-sharafi, ozodligi hamda mustaqilligini saqlabgina qolmay, shu bilan birga butun insoniyatni fashizm asoratidan xalos etishda ham hal qiluvchi rol o‘ynadi. Qo‘qqisdan bo‘lgan bunday zarbaga Sovet davlati tarkibida mavjud bo‘lgan barcha xalqlar o‘z matonatlari sababli bardosh berib urushni g‘alaba bilan yakunladi. Sobiq ittifoqning barcha respublikalari fashizmga qarshi kurashda yuksak jasorat namunalarini ko‘rsatdilar. Urush yillarida xalqlarning tabiiy yaqinlashuvi, do‘stligi va hamkorligi amalga oshdi. Ayniqsa, o‘zbek xalqi urush yillarida o‘zining mavjud qadriyatlari hamda mehnatsevarlik an’analariga sodiq qolgan holda frontda hamda front ortida faol ishtirok etib butun insoniyat tarixida nomini abadiylikka muhrladi.

Sovet hukumati urushning dastlabki kunlaridan boshlab xalq xo‘jaligini harbiy izga solish, butun kuchni dushmanga zarba berish uchun safarbar qilish yuzasidan keng

miqyosda tashkilotchilik ishlarini yo‘lga qo‘ydi. Dushman ustidan qozonilgan buyuk g‘alabada ko‘p millatli sovet davlati tarkibida bo‘lgan barcha xalqlarning hissasi katta bo‘ldi. Xususan, sovet respublika aholisining mehnati, ijtimoiy-iqtisodiy sohani ta’minlashi, mehr-saxovat, insonparvarlik namunalarini ko‘rsatishi va boshqa qahramonliklari urush yillarida namoyon bo‘ldi. Shuningdek, o‘zbekistonlik harbiylarning urushdagi ishtiroki, ularning jangovor operatsiyalarda ko‘rsatgan qahramonliklari va g‘alabaga qo‘shgan hissasi salmoqli bo‘ldi. Aynan, o‘zbekistonliklar urushning boshlanishidan to Berlingacha bo‘lgan beayov janglarda matonat va vatanparvarlikning yuksak namunasini ko‘rsatdilar.

O‘zbek jangchilari nafaqat Yevropa, balki Osiyo xalqlarini ham dushmandan ozod etishda ishtirok etdi. Frontlarda dushman askarlarini tor-mor keltirgan respublikaning mard o‘g‘lonlari va jasur qizlari yuksak mukofotlar bilan taqdirlandi.

Ikkinchi jahon urushi yillariga bag‘ishlangan arxiv ma’lumotlari xususan, tadqiq etilayotgan mavzuga doir noyob tarixiy hujjatlar nafaqat, O‘zbekiston Milliy arxivi va joriy arxivlarda balki, Rossiya va MDH davlatlaridagi arxivlarda saqlanmoqda. Mazkur hujjatlar qatoridan evakuatsiya muassasalari va ilmiy xodimlar ro‘yxati, hisobotlar va ma’lumot materiallari komissariati; evakuatsiya va shaxslarni qidirish uchun Oliy Sovet Prezidiumi yozishmalari; axborot, rejalar va ish muassasalari hisobotlari; mukofot hujjatlari; respublikadagi nodir fotosuratlar jamlanmasi kabi arxiv ma’lumotlari o‘rin olgan. Qayd etib o‘tilgan hujjatlar ikkinchi jahon urushi yillarida amalga oshirilgan mukofotlash tizimi tarixini kengroq tadqiq etish imkoniyatini beradi.

Ma’lumki, Sovet davrida ittifoq hududi uchun mo‘ljallangan 90 ga yaqin mukofot shakllari orden, medal, unvonlar ta’sis etilgan edi. Ular orasida ayniqsa, ikkinchi jahon urushi yillarida ta’sis etilgan mukofotlar muhim ahamiyat kasb etgan. Chunki, urush yillarida mukofotlash sohasini yuqori darajaga olib chiqmasdan turib, urushda g‘alaba qozona olmaslik muhim bir faktorga aylanib ulgurgan edi. 1941-yil iyunidan 1945-yil mayigacha bo‘lgan urush yillarida mukofot va rag‘batlantirish tizimi sezilarli o‘zgarib, 10 yaqin orden hamda 20 dan oshiq medallar ta’sis etilgan. Urush yillarida davlat mukofotlaridan tashqari Qizil armiya harbiy xizmatchilari, partizanlar va front orti ishchilari faxriy yorliqlar, turli sohalar a’lochisi ko‘krak nishonlari shuningdek, pul mukofotlari, qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlangan 1933-1945-yillarda sovet davlatida ta’sis etilgan “Sotsialistik Mehnat qahramoni” unvoni, Lenin, Suvorov, Kutuzov, Aleksandr Nevskiy, Qizil Yulduz singari ordenlar bilan bir qatorda harbiy, mehnat orden va medallari, shuningdek, Moskva, Leningrad, Kiyev, Odessa, Minsk, Berlin, Budapesht, Varshava, Praga kabi shaharlarni nemis-fashistlardan ozod etganligi uchun ta’sis etilgan medallar, ko‘krak nishonlari hamda “Qahramon ona”, “Qahramon shahar” va “Qahramon qal’a” unvonlari yaratildi. Ushbu mukofotlar bilan taqdirlanganlarning soni bir necha million kishini tashkil etadi.

Dastlabki tadqiqotlarga ko‘ra (1945-1991-yillar), urushda qozonilgan g‘alaba natijasida Markaziy Osiyo jumladan, O‘zbekistondan 120 ming, Qirg‘izistondan 42 mingdan ortiq, Tojikistondan 50 mingga yaqin, Turkmanistondan 19 mingga yaqin jangchilar mukofotlangan [4, 300-301]. Aynan, urush yillarida 120 ming o‘zbekistonlik jangchilarning hukumat orden va medallari bilan mukofotlangani xalqimizga berilgan munosib baholardan biri bo‘lganini ta’kidlash joiz. Urush yillarida

11 mingdan ortiq jangchilar “Sovet Ittifoqi Qahramoni” unvoniga munosib ko‘rilib [5, 36], ular orasidan o‘zbekistonliklardan 250 dan ortig‘i urush qahramoni unvoniga sazovor bo‘lib, 75 nafari o‘zbek millatiga mansub bo‘lgan. O‘zbekistonlik jangchilaridan 84 kishi “Shuhrat” ordenning uchala darajasi bilan mukofotlangan (Sovet davridagi tadqiqotlarga ko‘ra).

Ikkinchi jahon urushi yillarida amalga oshirilgan mukofotlash-taqdirlash ishlarini quyidagi yo‘nalishlar asosida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq:

– Respublikadan safarbar etilgan harbiy qismlar hamda diviziyalar faoliyati;

– Sovet ittifoqi hamda Yevropa hududlarida xususan, “Qahramon shahar”lardagi o‘zbekistonliklarning harakati;

– Vatanni ozod qilishda shakllantirilgan partizanlar harakati va unda o‘zbekistonliklarning faoliyati;

– o‘zbekistonliklarning front va front ortidagi jasoratlari (xotin-qizlar ishtiroki, tibbiyot, ilm-fan, maorif, matbuot, teatr va boshqa soha vakillari).

So‘nggi yillarda ikkinchi jahon urushi davri tarixini chuqurroq o‘rganish hamda yangi tarixiy ma’lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish maqsadida yangi tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mustaqil O‘zbekistonning yangi avlodi xalqimizning urush yillarida ko‘rsatgan so‘nmas jasorati, ona-Vatanga, jonajon diyorga mehr-muhabbatini qalbida saqlab, front yo‘llarini bosib o‘tganlar xotirasini, xalqni muqaddas urushga otlantirgan, ana shu yo‘lda dushman o‘qidan halok bo‘lgan kishilar xotirasini minnatdorlik bilan yodda saqlaydi. Shu bois, mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixini yangidan va xolisona tadqiq etish, mustabid tuzum yillarida ataylab soxtalashtirilgan tarixiy voqealiklarga milliy g‘oya ruhida adolatli baho berish zarurligi O‘zbekiston Respublikasi hukumatining meyoriy-huquqiy hujjatlarida alohida ta’kidlanadi. Jumladan, har yili 9-mayning “Xotira va qadrlash kuni” sifatida nishonlanishi hukumatimiz tomonidan bu kunga alohida e’tibor berilayotganining dalilidir. Bugungi kunda mashaqqatli mehnat qilgan faxriylarga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘ttiz uch yillik yangi tarix davomida O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan urushda halok bo‘lganlar xotirasiga, urush qatnashchilariga, front ortida mehnat qilganlarga katta g‘amxo‘rlik ko‘rsatilib, bir qator farmonlar qabul qilindi. Mazkur Farmonlar asosida urush ishtirokchilari va qatnashchilariga har yili pensiyalari oshirilgan miqdorda mukofot pullari berilmoqda. Hozirgi vaqtda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga shahar atrofi temir yo‘l, suv va avtomobil transportlarida bepul yurish huquqi belgilangan. Bunday tadbirlar mustaqillikning 25 yili davomida O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan meyoriy-huquqiy, rasmiy hujjatlar asosida amalga oshirildi[1].

XULOSA. So‘nggi besh yillik davr mobaynida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tashabbusi bilan urushda ishtirok etgan faxriylarni rag‘batlantirish hamda e’zozlash borasida katta ilmiy va amaliy ishlar yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, rasmiy me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, o‘zbek xalqining ko‘rsatgan matonati va jasur qahramonligiga oid yangi ilmiy izlanishlar amalga

[1] Ўзбекистон ХДП МҚ сиёсий ижроия қўмитасининг 1941-1945 йиллардаги фашизмга қарши урушнинг ўзбекистонлик қатнашчиларига, фронт ортида меҳнат қилиб ғалабани яқинлаштирган юртдошларимизга, республикамизнинг барча фуқароларига табриги //

oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qaror imzolandi. Davlat rahbari tashabbusi bilan ikkinchi jahon urushida mardlik va jasorat, front ortida matonat hamda insonparvarlik namunalarini ko‘rsatgan ko‘p millatli O‘zbekiston xalqining fashizm ustidan qozonilgan buyuk G‘alabani ta’minlashga qo‘shgan munosib hissasini keng miqyosda yoritish, ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front ortida fidokorona mehnat qilgan yurtdoshlarimizning nomlarini abadiylashtirish, ularning beqiyos jasorati va matonatini tarix sahifalariga muhrlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash maqsadida Toshkent shahrida “Shon-sharaf” davlat muzeyi, “Mangu jasorat” va “Matonat madhiyasi” monumentlarini, tarixiy-badiiy ekspozitsiyalarni o‘z ichiga olgan “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi barpo etildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). So‘nggi uch yil davomida (2020-2022) olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida jangovar orden va medallar bilan mukofotlangan o‘zbekistonliklarining soniga oydinlik kiritildi. Shu paytga qadar bu ko‘rsatkich 120 ming nafar deb qayd etilgan edi. Yangi ma’lumotlarga asosan 200 mingdan ziyod askar va ofitserlarimiz jangovar davlat mukofotlari bilan taqdirlangani aniqlandi. Shular qatorida ilgari 280 nafar deb hisoblab kelingan “Sovet Ittifoqi Qahramonlari”ning soni 301 nafar ekani, 70 nafar yurtdoshimiz uchala darajadagi “Shuhrat” ordeniga sazovor bo‘lgani tarixiy tadqiqotlar orqali o‘z tasdig‘ini topdi. 200 mingdan ortiq vatandoshlarimizning jang maydonlarida ko‘rsatgan jasorati va qahramonligi yuqori baholangan hamda ular turli xil sovet mukofotlari bilan taqdirlangan. Shuningdek, Italiya, Angliya, Fransiya, Yugoslaviya, Polsha, Chexoslovakiya, Vengriya kabi mamlakatlarning ordenlari bilan taqdirlangan hamyurtlarimiz bir necha ming kishini tashkil etganligi ma’lum bo‘ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ильина И. Н. Эвакуированная наука: академические учреждения в Узбекистане в годы великой отечественной войны (по документам архива РАН) // Сбор. материалов межд. конф. Серия: Евразийский перекресток. Вып. 12. – Оренбург: Университет, 2019. – С. 29.
2. Шуняков Д. В. Наградная система СССР в годы Великой Отечественной войны (1941–1945 гг.). Дисс. канд. ист. наук. – Екатеринбург: 2018. – С. 3-4.
3. Norxo‘jaev F.X., boshq. Xalq xotirasida mangu yashaydi (rasmli albom). – Toshkent: O‘zbekiston, 1981. – B. 7.
4. Советский тыл в Великой Отечественной войне. Трудовой подвиг народа / Ред. П. Поспелова. – Москва: Мысль, 1974. – С. 300-301.
5. Узбекистан в годы великой отечественной войны (1941-1945). –Ташкент: Фан, 1966. – С. 36.
6. O‘zbekiston Respublikasi “Shon – Sharaf” davlat muzeyi. – Toshkent: Zamin nashr, 2021. – B. 294-296.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “G‘alaba bog‘i” yodgorlik majmuasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 9-sentyabr PQ-4820-son Qarori // Yangi O‘zbekiston, 2020-yil 10-sentyabr.

TEMURIYLAR SALTANATINING YEVROPA DAVLATLARI BILAN MUNOSABATLARI

Allanazarov Shoxruxbek Farxodovich
UrDPI Tarix va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi
Zaripova Donoxon Ro‘zimboy qizi, UrDPI tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temur davlatining XIV-XV asrlardagi davlat boshqaruv sohasida olib borgan islohotlari hamda tashqi siyosatda Yevropa davlatlari bilan olib borgan siyosati, xalqaro munosabatlarda qanday o‘ringa egaligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Amir Temur, Yevropa qirollari, sayyohlar, vizantiyalik elchilar, Karl VI, Klavixo, Samarqand, Ispaniya, Genri III, Angliya qiroli, Leon qiroli.

Аннотация. В данной статье рассматриваются реформы, проведенные государством Амира Темура в сфере государственного управления в XIV-XV веках, а также внешняя политика с европейскими странами и ее роль в международных отношениях.

Ключевые слова: Амир Темур, европейские короли, туристы, византийские послы, Карл VI, Клавихо, Самарканд, Испания, Генрих III, король Англии, король Леона.

Abstract. This article discusses the reforms carried out by Amir Temur's state in the field of state administration in the XIV-XV centuries, as well as the foreign policy of the European era, and its role in international relations.

Keywords: Amir Temur, European kings, tourists, Byzantine ambassadors, Charles VI, Clavijo, Samarkand, Spain, Henry III, King of England, King of Leon.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, Amir Temur shaxsi yana Vatan va millat timsoliga aylandi. Yurtimizda har yili Amir Temurning tavallud sanasi keng nishonlanadi. Sohibqiron nomi uning faoliyati bilan bog‘liq tadbirlar alohida ruhda o‘tkaziladi. Boshqacha qilib aytganda Amir Temur nomi, siymosi xalqimizni birlashtirishda, jipslashtirishda, madaniy-marifiy ildizlarimizni chuqur anglashda, qudratli kelajagimizni ko‘rishda bizga kuch-quvvat va shijoat bag‘ishlab turibdi. Amir Temur Yevropa va Osiyoni bog‘lashga xizmat qilgan ulkan ishlarni amalga oshirgan. Fransiya, Ispaniya, Angliya va boshqa davlatlar bilan aloqalar o‘rnatgan va shu munosabatlarni mustahkamlashga intilgan.

Amir Temur Kastiliya va Leon qiroli Don Enrike III (ayrim manbalarda Ispaniya qiroli Genrix III), Fransiya hukmdori Sharl VI (ayrim manbalarda Karl VI), Angliya qiroli Genrix IV saroylariga elchilar yuborib, mutanosib ravishda ispaniyalik, fransiyalik, angliyalik, xitoylik va boshqa bir qator jami yigirmadan ortiq xorijiy davlat elchilarini o‘z saltanatida qabul qilgani atroflicha bayon etilgan ko‘plab tarixiy va ilmiy asarlar bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Amir Temur elchisining shaxsi haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, uning nomi ba’zi bir manbalarda “Muhammad Qozi”, ”Muhammad al-Qozi”, keyingi yangi tadqiqotlarda esa “Muhammad Keshiy”, ”Muhammad al-Keshiy” tarzida keltirilgan. Ma’lumki, Amir Temur Nasaf va Kesh olimlari, diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor, xorijiy tillarni biladigan qobiliyatli shaxslarni o‘z saroyiga ishga jalb etgan. Ular turli lavozimlar qatori elchilik vazifasini

ham ado etishgan. Masalan, Muhammad Keshiy Sohibqironning elchisi sifatida ma’lum muddat Ispaniyada yashab kelgan bo‘lsa, Mavlono Abdulloh Keshiy Amir Temur tomonidan Misr sultoni Farajda elchi qilib yuboriladi [1].

Amir Temur va Yevropa qirollari o‘rtasidagi munosabatlar ko‘p jihatlari bilan kishini hayratga soladi. Aslini olganda ularni ko‘p narsa ajratib turar edi: e’tiqodlari, tillari, bir-biriga dushman xalqlar ekanligi, oralaridagi masofa ayniqsa, manfaatlarining turli-tumanligi. Biroq o‘z saltanatini kunbotar tomon kengaytirgan ulug‘ amir asta-sekin yevropaliklarning o‘lkalariga kirib borgan edi. Yevropaga Amir Temur haqidagi ilk ma’lumotlarni sayyohlar olib kelishgan: yevropaliklarning ham dushmanlari bo‘lmish o‘z g‘animlarini maydalab-yanchib, yengilmas qo‘shin boshida G‘arb tomon tobora yaqinlashib kelayotgan samarqandlik qattiqo‘l va dovyurak fotih Amir Temur haqidagi ilk ma’lumotlar mana shulardan iborat edi.

Ulug‘ Amir Temur Turkiya tomon yurish boshlaganida, Yevropa qirollari butun umidlarini Amir Temurning Boyazid ustidan qozonadigan g‘alabasiga tikdilar. Ular Amir Temurga choparlar yo‘lladilar, Vizantiya turklarga to‘laydigan o‘lponlarini unga taklif qildilar va agar u turklarga qarshi jang ochadigan bo‘lsa, nasroniylarning kemalari unga yordam berishini ma’lum qilganlar.

Amir Temur yevropalik va vizantiyalik elchilarni izzat-ikrom bilan qabul qildi,ularning qirollari va imperatorlariga bo‘lgan o‘zining samimiy munosabatini bildirib, maktublariga javob bitdi. Bu bilan Amir Temur nasroniylarni musulmonlardan afzal ko‘rmadi, aksincha, barcha buyuk sarkardalar kabi zukko inson sifatida hal qiluvchi jang taraddudi paytida barcha omillarni hisobga olganligi aytib o‘tiladi [2].

Yuqorida keltirilgan Amir Temurning Yevropa qirollari bilan olib borgan munosabatlarida uning kuchli davlat arbobi, adolatparvar, bag‘rikeng puxta rejali hukmdor ekanligi haqida ko‘plab ma’lumotlar ham mavjud. Hatto turli davlatlarga yuboriladigan elchilarga ham katta ahamiyat berganligini ko‘rishimiz mumkin. Sohibqiron Amir Temur nafaqat o‘z mamalakatlari sarhadlarida, balki boshqa qo‘shni mamlakatlar sarhadlarida ham mamlakat mudofaasini mustahkamlashga intilgan.

L. Keren Sevilya shahrining qadimiy arxivlarida ham Amir Temur elchiligi xususida yozuvlar saqlanib qolganligini ta’kidlab o‘tadi. Sohibqiron Amir Temur yevropaliklarga birinchilar qatori sharq va g‘arb o‘rtasida manfaatli savdo-sotiq aloqalarini o‘rnatishni va buni qonun va shartnomalar yo‘li bilan mustahkamlashni taklif qilgan.

Amir Temur shu darajada mustahkam va keng ko‘lamli diplomatik aloqalar o‘rnatdiki, Yazdiy ma’lumotlariga ko‘ra o‘zining san’atkorona bezatilgan chodir shaharchasi Konigilga yetti iqlimdan kelgan elchilar o‘n ikki poya ko‘lankasida o‘tirardilar deb ta’kidlangan. Sohibqiron Amir Temurning tashqi siyosat yo‘nalishida mudofaa, tinchlik, barqarorlik, yaxshi qo‘shnichilik va savdo-iqtisod aloqalarini rivojlantirish maqsadlari yotgan. Shu o‘rinda shuni alohida ta’kidlash joizki Amir Temur tashqi siyosatining yo‘nalishlarini, avvalo, o‘z davlatining, qolaversa, boshqa davlatlar va xalqlarning manfaatlarini himoya qilishga harakat qilgan. Bu siyosatning asosida mintaqa birligi va mudofaasini yuksaltirish, adolatni ta’minlash va boshqa maqsadlar ko‘zda tutilgan.

Sohibqiron Amir Temurning Yevropa davlatlari bilan olib borgan diplomatik yozishmalari ham muhim tarixiy manba hisoblanadi. Bu mavzu bo‘yicha sho‘ro

davrida I. I. Umniyokov birinchilardan bo‘lib salmoqli tadqiqotlar olib borgan. Xususan, u Parijda saqlanayotgan Amir Temur va G‘arbiy Yevropa hukmdorlarining o‘zaro yozishmalarini tahlil etgan [3].

Amir Temur Boyaziddan farqli ravishda,Yevropa davlatlari bilan do‘stona diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ygan va “Mamlakat dinsiz yerda turishi mumkin lekin, zulm bor yerda turolmaydi” falsafiy tushunchasiga tayanib, g‘ayridinlarga nisbatan do‘stona munosabatda bo‘ldi va ularni istiqbolli hamkor sifatida qabul qildi. Yozishmalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, Amir Temur Yevropa davlatlari bilan tez-tez elchilar almashinib turishi, shuningdek, mamlakat taraqqiyotiga katta hissa qo‘shuvchi savdogarlar, ya’ni tadbirkorlar toifasiga katta imkoniyatlar yaratishni ko‘zlagan. Amir Temur musulmon sharqidan g‘arbga do‘stona niyatda qo‘l uzatgan birinchi davlat arbobi edi. Diplomatiyada eng maqbul yo‘llarning tanlanishi davlat siyosatining mukammal darajada olib borilganligini ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynagan. Amir Temur tashqi munosabatlarda millatidan qat’i nazar insonni qadrlash, hamkorlik, tinchlik va taraqqiyotni olg‘a suradi. Shuni alohida aytib o‘tish kerakki, Amir Temur davridagi diplomatik yozishmalar milliy tariximizdagi muhim tarixiy manba va ishonarli rasmiy hujjatlar hisoblanadi. Amir Temur tomonidan olib borilgan yozishma-maktublar Amir Temur har qanday sharoitda ham xalqaro qoida va shartlariga amal qilganidan dalolat beradi. Turli davlatlar bilan olib borgan yozishmalarida Amir Temur yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro yordam, iqtisodiy hamkorlik g‘oyalarini targ‘ib qilish bilan birga, o‘zining amalga oshirishi kerak bo‘lgan geostrategik maqsad va vazifalarini aniq bayon etgan. Amir Temur tashqi siyosati va diplomatiyasi saltanatda milliy davlatchilikning taraqqiy etishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan va saltanatning obro‘si ortgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki Amir Temur davlati har tomonlama rivojlangan ulkan, qudratli bo‘lganligi tufayli Yevropa davlatlarigacha tanilgan. Sharq bilan G‘arb o‘rtasidagi munosabatni muvozanatda ushlab turgan davlat. Fransiya, Kastiliya (Ispaniya), Angliya, Leon qirolliklari bilab olib borgan diplomatik munosabatlari juda katta tarixiy ahamiyatga ega. Amir Temurning davlat diplomatiyasida xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor berganligini ko‘rishimiz mumkin. Amir Temur tomonidan Yevropa va Osiyo davlatlari podshohlari, qirollariga yozilgan xatlarida mamlakatlarining xavfsizlik, teng hamkorlik maqsadlari oshkor etilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Руи Гонсалес де Клавихо. Амир Темур Европа элчилари нигоҳида. – Тошкент: 2007. 3-4-бет.

2. Люсьен Керен. Амир Темур салтанати. – Тошкент: 2018. 287-288-бет.

3. Ўлжаева Ш. Амир Темур дипломатияси. – Тошкент: 2018. 55-58-бет.

4. Ўлжаева Ш. Амир Темур дипломатияси. – Тошкент: 2018. 61-75 бет.

ADOLAT SOHIBI – VAZIRI AKBAR ISLOMXO‘JA ISLOHOTLARI

Djabborova Adolatxon Kazakbayevna
UrDPI Tarix va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi
Normatov Jur’atbek Alisher o‘g‘li
UrDPI Filologiya va tarix fakulteti tarix yo‘nalishi II kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xiva xonligi tarixida mashhur vazirlardan bo‘lgan Islomxo‘ja haqida va uning qilgan islari, qurilish va obodonlashtirishga qo‘shgan hissasi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье представлена информация об Исламходже, одном из знаменитых министров в истории Хивинские ханства и его вкладе в строительство и благоустройство.

Abstract. This article provides information about Islamkhodja, one of the famous ministers in the history of Khiva khanate, and his achievements and contributions to construction and improvement.

Kalit so‘zlar: Xiva, vazir, Gurganch, ilm-fan, madrasa, Islomxo‘ja minorasi, Xiva xonligi vaziri Ibrohim xo‘ja o‘g‘li Islomxo‘ja.

Ключевые слова: Хива, министр, Гурганч, наука-наука, медресе, башня Исламходжи, Исламходжа сын Ибрагим Ходжи, министр Хивинского ханства.

Keywords: Khiva, minister, Gurganch, science, madrasa, Islamkhodjas tower, minister of the Khiva Khanate, Ibrahim Khoja son Islamkhodja.

Barcha xalqlar tarixidan ma’lumki hukmdorlarning mamlakat boshqaruv tizimi qanchalik mukammal va xalqparvar bo‘lsa, shu yurt osoyishta bo‘ladi. Bu boshqaruv tizimida albatta vazirlarning ham o‘rni juda ahamiyatlidir. Shu qatorida qadimiy shaharlardan biri bo‘lgan Xiva xonligida ham bir qancha xalq uchun jonini fido qilgan hukmdorlar va vazirlar o‘tgan. Shuningdek, Xiva xonligi vaziri Ibrohim xo‘ja o‘g‘li Islomxo‘ja Xivada qilgan bunyodkorlik ishlari va vatanparvarlik g‘oyalari bilan xalq ishonchini qozongan.

Bosh vazir Sayid Islom Xo‘ja ham o‘z hayotini el-yurt osoyishtaligi, obodonchiligi va iqtisodiy madaniy taraqqiyotiga baxshida etgan, o‘zida eng yuksak insonning ifodalarini mujassam etgan, yirik davlat arbobidir [1].

Bosh vazir Sayid Islom Xo‘ja Muhammad Rahimxon Feruz va uning o‘g‘li Isfandiyorxon saroyida bosh vazirlik lavozimida faoliyat yuritgan. U vazirlik xizmati davomida xalqning og‘ir turmush sharoitini yaxshilash uchun o‘z manfaatlarini ham qurbon qilgan. Vaziri akbar unvoni sohibi Islomxo‘ja haqida hozirgi kungacha juda kam ma’lumotlar yetib kelgan. Islomxo‘ja 1871-yilda Xonqa qal’asida tug‘ilgan. U tug‘ilgan oila shu davr badavlat oilalaridan sanalgan. Otasi Sayid Ibrohimov ham sayidlar oilasidan bo‘lib, ma’rifatli va savodxon kishilardan hisoblangan. Ibrohimxo‘ja Feruzning tog‘asi va qaynotasi ham edi. Uning Hosil Poshsho ismli qizi Muhammad Rahimxonning ikkinchi xotini bo‘lgan. Ibrohimxo‘ja dastlab Xonqa hokimi lavozimida ishlab, keyinchalik bosh vazir lavozimiga saylanadi. U to‘rtta farzandni kamolga yetkazadi. Ularning biri Islomxo‘ja edi.

Sayid Islomxo‘ja o‘zining bilimi, aql zakovati bilan tengqurlaridan ajralib turgan. Madrasada tarix, geografiya, adabiyot, musiqa va dunyoviy ilmlar bilan birga arab va

fors tilini mukammal o‘rganadi. Shuningdek, u Feruz saroyidagi rus-tuzem maktabida tahsil olib, rus tilini puxta o‘zlashtiradi. Islomxo‘ja zukkoligi tufayli 15 yoshidan boshlab, zakotchi vazifasida ishlay boshlaydi. Xonlikning soliq tizimidagi kamchiliklarni fahmlab oladi. 1889-yil Sayid Abdullaxo‘ja Bosh vazir bo‘lgach, uning o‘rniga Hazorasp hokimi bo‘lib tayinlanadi. Bu mas’ul vazifada 10 yildan ortiq xizmati davomida tajriba orttirib, xalq va saroy a’yonlari ehtiromiga sazovor bo‘ladi. 1898-yil amakisi Sayid Abdullaxo‘ja vafot etgach, xon uni Hazoraspdan chaqirtirib oladi. Islomxo‘jani bosh vazir lavozimiga taklif qiladi. 27 yoshga qadam qo‘ygan vazir tez orada tashabbuskor, dono, qalbi toza, adolatparvar hamda yangilikka intiluvchan shaxs sifatida el orasida hurmatga sazovor bo‘ladi. Uning harakatlari bilan xonlikda ayniqsa poytaxt Xiva shahrida obodonchilik ishlariga e’tibor qaratiladi. 1910-yilning qish va bahori juda og‘ir keladi. Qish judayam sovuq kelib yerning ustki qatlami muzlab, bahorda tinimsiz yomg‘ir yog‘ib, oqibatda paxta, bug‘doy, jo‘xori va boshqa ekinlar nobud bo‘ladi. Qahatchilik boshlanib, bozorda 1 pud bug‘doy narxi 1 so‘m 80 tiyindan, 7 so‘m yoki 5 barobargacha ko‘tariladi. Ana shunday og‘ir vaziyatda bosh vazir 1911-1912-yillarda Rossiyaning Samara va Orenburg gubernatorli va Turkistonning ayrim viloyatlaridan 30 ming pud don keltirib, xalqqa tarqatgan. Vaziri akbar Islomxo‘janing bevosita tashabbusi va rahbarligida ichki qal’ada ko‘plab qurilish ishlari olib boriladi. Sug‘orishning yo‘lga qo‘yilishi natijasida qahatchilik tugab, 1912-1913-yillarda qishloq xo‘jaligi yuksaladi. Islomxo‘janing tashabbusi bilan Ichan qal’ada ko‘plab me’moriy obidalar quriladi.

Xalq tilda “Xo‘ja minor” deb nomlangan Islomxo‘ja minorasi Xivadagi eng baland va eng chiroyli minora hisoblanadi [2].

1908-1910-yillarda tiklangan, minora asosining diametri 9.5 metr, balandligi 44.6 metrga teng. Minora devorlari naqshinkor oq-ko‘k sirchali sopollar bilan bezatilgan [3].

Yuqorisida panjara qo‘yilgan kichik maydonchasi bor. Minora qurilishida Xoji va Qurbonniyoz Xivaqiy, naqqoshlardan Eshmuhammad Xudoyberdiyev, Bolta Vaisov va boshqa ustalarning mehnati katta bo‘lgan [4].

Faqat Xivaning o‘zida 30 dan ortiq me’moriy obidalar, masjid, saroy, rus-tuzem maktablari bunyod etiladi. Muhammad Rahimxon Feruz va bosh vazir bu inshootlarning qurilishida hissasi katta bo‘lib ularning ko‘pchiligi hozirgacha shaharning ko‘rki bo‘lib kelmoqda. Islomxo‘ja irrigatsiya va qishloq xo‘jaligiga ham e’tibor qaratib, xayrli ishlar boshida turadi. 1910-yil kanal tozalanishiga 40 ming dehqon jalb qilinadi. Aynan shu yili shimoliy hududlarni suv bilan ta’minlash uchun Lavzan kanalidan 8 km pastdan, 39 km uzunlikda yangi kanal chiqariladi. 14 ta eski kanallar tozalanib shu hududda 3750 desyatina yerga suv chiqarilib dehqonchilik qilinadi. Bu ishlar Shumanay va qo‘ng‘irot tumanlarida ham amalga oshiriladi. O‘sha vaqtlarda xonlikda bo‘lgan rus harbiy boshlig‘i “Islomxo‘jani aqlli va idrokliligi bilan barcha amaldorlardan ustun turushini” ta’kidlagan. 1910-yil 19- avgustda Feruz vafot etadi. Islomxo‘ja saroyda ko‘ngilsizlik bo‘lishini xohlamas, u kuyovi Isfandiyorxonning taxtga o‘tirishi tarafdori edi. Isfandiyorxon taxtga o‘tirgach, Islomxo‘jani Vaziri Akbar lavozimiga ko‘taradi. Bu Islomxo‘jani nafaqat xonlikda balki Rossiya imperiyasida ham hurmati ortishiga sababchi bo‘ladi.

1911 va 1913-yilgi safarida Rossiya imperatori Isfandiyorxonni taxtga o‘tirish munosabati bilan tabriklaydi, unga “generallik” unvonini beradi, bosh vazir Islomxo‘jani esa “Katta yulduz” ordeni bilan taqdirlaydi [5].

1913-yilgi safarda Islomxo‘ja Peterburgda nafaqat rus ma’murlari, Turkiya va Eron elchilari bilan ham uchrashib, Xivaning Sharq davlatlari bilan yaqin iqtisodiy va diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yishga harakat qiladi.

Sayid Islomxo‘ja Marin teatrida bo‘lganida tanaffus paytida turk va eron elchilari (Tarxon poshsho va Ishoqxon) bilan uchrashib, uzoq vaqt ular bilan suhbatda bo‘ldi [6]“ deb xabar beradi rus generali Likoshin.

Bosh vazir safari paytida o‘z sohasining oldi insonlari bilan muloqotda bo‘lgan. Shuningdek, Moskva shahar hokimi N. I. Guchkov bilan ko‘rishib, uning yordami bilan pochta-telegraf, maktab va kasalxona qurilish loyihalarini ishlatib olgan hamda, qurilish mutaxassislari va yangi jihozlar yuborishga rozi qilgan. Mazkur safarda qatnashgan Xudoybergan Devonov foto va kino apparat, patefon va boshqa yangiliklarni olib kelib O‘zbekistonda kino san’atiga asos solgan. XX asr boshlarida xonlikda jadidchilik g‘oyalari ham keng tarqalib, Islomxo‘ja uning ilg‘or peshqadamlaridan biri edi. Agayev, Abdurashidxonov, X. Qo‘shayev kabi jadidchilar xonlikdagi jadid maktablarida ilg‘or g‘oyalarni tadbiq qilishadi. Ular shuningdek, Xiva taraqqiyparvarlarini Rossiya va jahonda yuz berayotgan voqealardan voqif qilib turishgan. Bosh vazir Agayev va Abdurashidxonov bilan tez-tez suhbatlashib turgan.

Bu haqda Amudaryo bo‘limi boshlig‘ining quyidagi ma’lumoti alohida e’tiborga loyiq. Saroyning eng nufuzli odami, xonning birinchi amaldori Islomxo‘janing uyini o‘ziga xos kichik saroy desa bo‘ladi. Bu yerga saroyning katta va kichik ayonlari ham “salom” ga kelib turadilar. Ular yig‘ilishib eng muhim masalalarni muhokama qiladilar [7].

Shuningdek, 1909-yil sentabr-oktabr oylarida xonlikda bo‘lgan Rossiya tashqi ishlar vaziri Minorskiy: “Islomxo‘ja rus tilida bemalol gaplasha oladi. U musulmon mamlakatlarida chiqqan adabiyotlarni kuzatib boradi” deb qayd qilgan. Islomxo‘ja “Туркестанский курьер” gazetasi muxbiri bilan suhbatida o‘z fikrini quyidagicha bayon qilgan: Xonlik o‘zining butun kuchini mamlakat ichki taraqqiyotiga qaratmog‘i lozim. Birinchi navbatda ma’rifatga, so‘ngra sanoat tarmog‘iga. Xiva Osiyoning qoloq davlatlari qatoridan chiqish vaqti keldi. Xalq erkin nafas olmog‘i kerak – deb aytib o‘tadi. Islomxo‘ja muxbirga bergan ushbu javobi bilan xonlikda jiddiy o‘zgarishlar qilish lozimligini ko‘rsatib o‘tgan edi. 1910-yil 10-sentabrda bosh vazir tashabbusi bilan islohot o‘tkazish to‘g‘risida farmon chiqariladi.

Farmonga ko‘ra, 12 kunlik mehnat majburiyati bekor qilinib, davlat tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlarda ishlovchilarga har kuni 2 tanga xazinadan pul to‘lash, amaldorlar o‘z ishlari uchun pora olmasligi, yer solig‘ini aniqlash va har km egalik qilagotgan yer miqdoriga qarab soliq to‘lash, bozorlarda yig‘iladigan boj va zakot solig‘ini tartibga solish yo‘llarini yaxshilash, temir ko‘priklar qurish, pochta-telegraf, kasalxonalar qurib, ishga tushirish ko‘rsatilgan edi [8].

Islomxo‘ja xonlik xazinasini o‘z qo‘liga olib, ortiqcha xarajatlarga chek qo‘yadi. Dastlab Islomxo‘ja bilan kelishib ish tutgan Asfandiyorxon sekin-asta unga qarshi bo‘la boshladi. Chunki Islomxo‘ja kuyovi Asfandiyorxonning dabdabali hayot

kechirishiga, xazinadan ortiqcha mablag‘ ajratilishiga yo‘l qo‘ymagan. Manbalardagi hujjatlarga ko‘ra, aynan shu masalada ular kelisha olishmagan [9].

1911-yil Islomxo‘ja topshirig‘i bilan Rossiyadan Polvon, G‘ozovot va Shovot kanallari uchun 3 ta ko‘prikka yetadigan konstruksiyalar keltiriladi. Lekin Shovot kanaliga qurilishi lozim bo‘lgan ko‘prik vazir o‘limi sababli, qurilmay qoladi. Islomxo‘ja o‘limi haqida turli xil qarashlar mavjud bo‘lib, ularning bittasiga nazar tashlasak, ishonchli odamlardan Abdukarim yasovulboshi, Matvafo Baqqolov karvonboshi, Ashir mahram va Ro‘zmat mahramlargina Nurullaboy saroyiga tashrif buyurib, uning qotillik rejasini puxta o‘ylab chiqishadi. Bosh vazirni yo‘q qilishda Shixnazarboy qo‘l ostida ishlovchi razil Qurbonboy bo‘zchini yollashadi. Islomxo‘jani obro‘sizlantirish maqsadida xonning roziligi bilan, Amudaryo bo‘limining boshliği polkovnik Glushakovskiy nomiga Islomxo‘ja ustidan arz qilishadi. 1913-yil 9-avgustda odatdagidek kech payti Islomxo‘ja xonga o‘z hisobotini topshirib, uyga jo‘namoqchi bo‘lganida Abdulkarim yasovulboshi Islomxo‘janing shaxsiy soqchisi bo‘lgan Bobojon qatag‘onni iftorlikka so‘rab olib qoladi. Foytunchisi ham almashtirilgan Islomxo‘ja soat to‘qqizlar yangi foytunchisi bilan Tozabog‘ tomonga ravona bo‘ladi. Topshiriqqa binoan Qurbonboy boshchiligidagi 4 nafar qotillar “O‘g‘lon Aziz Bobo” qabristoniga yashirinishadi. Qorong‘u kechada tezlik bilan hujum qilib, foytunning fonusni sindirishadi. Ot tayoq zarbidan yerga yiqiladi, foytunchi esa o‘z hushini yo‘qotadi. Qurbonboy bo‘zchi Islomxo‘jani sudrab, vahshiylarcha o‘ldiradi. Islomxo‘janing yonida ko‘p miqdorda pul, tilla va qimmatbaho narsalari bo‘lishiga qaramasdan ularga tegilmay faqat Vaziri akbarning irim uchun oliy navli cho‘girmasi olib ketiladi. Islomxo‘ja oti hushi o‘ziga kelib uyi tomon boradi. Vazirni kutib o‘tirgan oila a’zolari otni ko‘rib xavotirga tushishadi. Foytunchi kasalxonaga joylashtiriladi. Shu kecha xon Islomxo‘ja uyiga tashrif buyurib, o‘g‘li Abdusalomxo‘jaga ko‘ngil beradi. Otasining qotillarini topishib va uni otasi o‘rniga vazir qilishga va’da beradi. Sahiylik niqobi ostida Sayib Nazar mehtardan dafn marosimi uchun 1000 tilla ham berib yuborgan. Lekin dafn marosimini katta qilib o‘tkazishni xohlamagan. Islomxo‘ja jasadi Xivadagi “Mohi ro‘yi jahon” qabristoniga, otasi yoniga, o‘zi tomonidan qurdirilgan qorixonaga dafn qilinadi.

“Bosh vazirning dafn marosimida xonning xatti harakati ham mamlakat xalqini biroz taajjubga soldi. Chunki, Isfandiyorxon xonning maslahati bilan mamlakat hokimlaridan, beklaridan, shaharliklardan chaqirib dabdaba qilinmadi. Xonning o‘zi qaynotasi bo‘lmish Islomxo‘jani oxirgi yo‘lga qabristonga ham kuzatib qo‘ymadi. Isfandiyorxon Islomxo‘ja marosimi bilan bog‘liq barcha tadbirlarni tezroq tugallanib ketishiga juda shoshildi” [10].

Agar bir guruh olimlar Islomxo‘janing ijtimoiy faoliyatiga yuqori baho berib, qotillik sababini Isfandiyorxon saroyidan izlasalar ayrimlar ushbu fojiaga Isfandiyorxonning mutlaqo daxli yo‘q deb uni chetdan saroy tashqarisidan axtarmoqdalar. Lekin quyidagi qarashga ham to‘xtalsak. Balki u yuqoridan berilgan topshiriqqa binoan siyosiy maqsadlarda uyushtirilganligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Mazkur qotillik Vaziri Akbar Islomxo‘jani yo‘q qilish uchun uyushtirilganligi hali yaqingacha sir bo‘lib kelgan. O‘sha paytdayoq xalq orasida ularni chalg‘itish uchun qotillik qaroqchilar tomonidan uyushtirilgan, ba’zan esa uni Junayidxon odamlari

tashkil qilgan degan ovozlar tarqatilgan edi. Ammo vazir yonida bo‘lgan qimmatbaho buyumlarning yo‘qolmaganligi, bu ishning qaroqchilar tomonidan amalga oshirilganligining inkor etadi. Arxiv hujjatlari va zamondoshlarning xotiralari Islomxo‘janing fojiali o‘limi Isfandiyorxon va uning fitnachi odamlari tomonidan ataylab tashkil etlganini isbotlamoqda.

Podsho zulmidan ilm orqali qutilish mumkinligini anglagan vazir, xonlikda ko‘plab masjid, madrasa qurilishiga alohida e’tibor qaratdi. Islomxo‘ja 42 yillik umri davomida yurt obodonchiligi, farovonligi yo‘lida ko‘plab jonkuyarlik qildi. Shaxsiy manfaatlarini yurt manfaatlaridan ustun qo‘ydi. Shunday qilib yurti uchun yelib yugurgan, shu el istiqboli uchun borini ayamagan Vaziri akbar o‘z nafsi uchun hech nimadan taf tortmaydigan, qabix insonlar qo‘lida mudhish o‘lim topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sadullayev A., Sotliqov A., Abdullayev O. Sayid Islomxo‘ja (Siyosiy, madaniy-ma’rifiy faoliyati). – Toshkent: 2005. – B. 19-20.
2. Баёний “Шажараи Хоразмшохий”. – Ташкент: Камалак. 1991. – В. 154.
3. Гулямов Я. Г. Памятники города Хивы. Издательство узфан. – Ташкент: 1941. – С. 35.
4. Рахмонова Ю. Хива шахри тарихи (Анъана ва ўзгаришлар XVI – XX аср бошлари). – Тошкент: “Akademnashr”. 2019. – Б. 161.
5. Полвонниёз Хожи Юсупов. “Ёш Хиваликлар тарихи”. – Урганч: 2000. – Б. 56.
6. Садиков А. Россия и Хива в конце. XIX начало XX века. – Ташкент: “Фан”. 1971. – С. 138.

“HIKMATLAR UYI” – MA’MUN AKADEMIYASINING IZDOSHI

Djabborova Adolatxon Kazakbayevna
UrDPI Tarix va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi
Madaminova Zuhra Atabek qizi
UrDPI Filologiya va tarix fakulteti Tarix yo‘nalishi II kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Ma’mun akademiyasi”ning izdoshi bo‘lmish “Hikmatlar uyi” yoki “Donishmandlar uyi” nomi bilan mashhur bo‘lgan ilm-ma’rifat maskani haqida, shuningdek “hikmatlar uyi”da ijod qilgan olimlar faoliyati haqida so‘z boradi. Bu ilm-ma’rifat maskanini tashkil etishda Xorazmshohlarning tutgan o‘rni haqida batafsil to‘xtalib o‘tilgan.

Аннотация. В данной статье рассказывается о месте знаний, известном как “Дом Мудрости” или “Дом Мудрости”, являющемся последователем “Академии Маъмуна”, а также о деятельности ученых, работавших в “Доме Мудрости”. Подробно обсуждается роль хорезмшахов в создании этого места знаний.

Abstract. This article talks about the place of knowledge and enlightenment known as “House of Wisdom” or “House of Wisdom”, which is a follower of “Ma’mun Academy”, as well as about the activities of the scientists who worked in the “House of Wisdom”. The role of the Khorezmshahs in the establishment of this place of knowledge is discussed in detail.

Kalit so‘zlar: Xorazmshohlar, Gurganch, ilm - fan, Xorazm uyg‘onish davri, olim, ulamo, islom dini, qomusiy, alloma, davlat.

Ключевые слова: Хорезмийские цари, Гурганч, наука, период Хорезмского возрождения, учёный, учёный, исламская религия, энциклопедия, учёный, государство.

Keywords: Khorezm kings, Gurganch, science, Khorezm renaissance period, scholar, scholar, Islamic religion, encyclopedia, scholar, state.

“Hikmatlar uyi” o‘z davrining mashhur ilm-fan maskani hisoblanadi. Bu ilm-fan maskani Xorazmshohlar davrida barpo qilingan. Xorazmshohlar davrida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Ilm-fan, madaniyat, qurilish ishlari avj oldi. Xorazm poytaxti Gurganchda mashhur olimlar yetishib chiqishida Xorazmshoh hukumdorlarning o‘rni beqiyosdir.

XI-XIII asr boshlariga kelib, Xorazm o‘zining jahon tarixidagi mavqeyini yana tiklash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Anushteginlar sulolasiga mansub hukumdorlardan Qutbiddin Muhammad ibn Anushtegin (1097-1127) va uning vorislari: Al-Malik Abu Muzaffar Alovuddin Otsiz (1127-1156), Abul Fatx al-Arslon (1156-1172), Sulton Shoh Mahmud (1172-1193), Alovuddin Takash (1172-1200) va uning og‘li Alovuddin Muhammad (1200-1220) davriga kelib, Xorazm g‘aznaviylar, so‘ngra saljuqiylar va qoraxoniylar asoratidan qutilib, Sharqning yirik, markazlashgan qudratli davlatlardan biriga aylandi [1].

Shu o‘rinda aytish joizki, Xorazmshoh Qutbiddin Muhammad va uning vorislari ham o‘z davrining ilm ma’rifatli hukmdorlaridan bo‘lgan. Ular bir qancha sohalarni o‘rganishga harakat qilganlar. Masalan, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot, arab, fors, turkiy tillarni juda yaxshi bilishgan. Ular yurish qilgan mamlakatlarining

ilm ahliga hurmat bilan qarashgan. Hattoki ularga homiylik ham qilishgan. Olim-u fuzalolarning nodir kitoblarini esa saroy kutubxonasigacha olib kelishgan. Olimlarni ham o‘z saroylariga kelishi haqida taklif qilishgan. Bir qancha olim-u fuzalolar bu taklifni qabul qilib saroyda ilmu faoliyatini olib borganlar. Shuningdek, Xorazmshoh Qutbiddin Muhammadning olimlarga va din arboblarga e’tibori nihoyatda kuchli bo‘lganligi juda ahamiyatlidir.

Qutbiddin Muhammad Xorazm hukmdori bo‘lgach, – deb yozadi akademik Z. M. Buniyodov qobiliyatli rahbar sifatida ulamolar va din arboblarga homiylik qilgan. U har tomonlama iste’dodli serqirra hukmdor edi. Odamlar va din arboblari uni yaxshi ko‘rishar, u ham ularni izzat-hurmat qilar edi. Qutbiddin Muhammad fuqarolarga adolatli bo‘lib, ular ham uni yaxshi ko‘rib, uning nomini aziz tutar edilar” [2].

Ismoil Jurjoniy ham o‘zining “Zaxirayi Xorazmshohiy” asarida Xorazmshoh Otsizning o‘z xalqini ma’lumotli va madaniyatli qilishga harakat qilganligini hikoya qiladi. Mahmud Zamaxshariy o‘zining “Muqadimmat ul-adab” asarining muqaddimasida Xorazmshoh Otsizga shunday ta’rif beradi: “U ulug‘ amir, sipohsolor Alovuddin Abul Muzaffar Otsiz ibn Xorazmshohdir. Tangri uni yuqori tutsin. Tavqiga rivoj bersin, u fozillar bilan quriladigan davralardan beqiyos lazzatlanadi, bilimdonlar bilan bo‘ladigan suhbatdan ovunishadi. Keng karamining soyasi ularning boshi uzra tortilib turadi. Ularning xonadonlari Otsiz bergan behisob in’omlar bilan ajralib turadi. Otsiz olimlarga mutassil sovg‘alar va kiyim-kechak beradi, in’omlar yuboradi” [3].

Xorazmshohlar o‘z davrining yetuk shaxslardan bo‘lganlar. Xorazmshoh Otsiz o‘z davrining yetuk ilm-fan homiysi odil hukmdor nomi bilan tanilgan. Saroyida ko‘plab olim-u shoirlar ijod bilan shug‘ullanganlar. Shuningdek, din arboblarni juda hurmat qilib, erkin faoliyat yuritishlari uchun shart-sharoitlar yaratib bergan. Sermahsul ijod qilib, o‘z asarlari bilan tanilgan olim, shoirlarga in’omlar, ehsonlar ulashgan. Ularning xolidan xabar olib turgan. Xorazmshoh Otsiz davrida mamlakatda ilm-fan, madaniyat yuksak darajada bo‘lgan. Xorazmshohlar poytaxti Gurganchda ko‘plab madrasa, kutubxona, rasadxonalar kabi inshootlar barpo qilingan. Xodazmshoh Anushteginlar davrida ilm-fan bilan birgalikda me’morchilik, naqqoshlik, koshinkorlik rivojlangan.

“Hikmatlar uyi”da Xorazmlik olim-u, shoir, ulamo, din arboblar bilan bir qatorda, boshqa mamlakatlardan kelgan ko‘plab olimlar, ilm-fan ziyolilari faoliyat oib borib, asarlar yozish bilan bir qatorda, boshqa allomalarning asarlarni arab, fors tillarga tarjima qilganlar. Ko‘plab olimlar astronomiya, matematika, kimyo, tabobat, falsafa, tilshunoslik kabi sohalarda ijod qilganlar. O‘tgan davrning tarix an’analarini qayta tiklaganlar. Ajdodlardan qolgan o‘lmas merosni avlodlarga yetkazish uchun tinimsiz ravishda harakat qilganlar. Ko‘plab mamlakat olimlari ilmiy ijod bilan shug‘ullanib, Xorazmiy, Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino asarlarni chuqur o‘rganganlar. Ularning asarlariga sharxlar yozganlar. O‘zlari ham ko‘plab sohalar bo‘yicha asarlar yozib, ilm-fanga ulkan hissa qo‘shganlar.

Xorazmshohlar davrida “Hikmatlar uyi”ning dovrug‘i ko‘plab qo‘shni mamalakatlarga ma’lum va mashhur bo‘lgan. Ushbu ma’rifat o‘chog‘i ilm-fan maskani nafaqat Sharqda, balki G‘arbda ham dong‘i ketgan bo‘lgan. Xorazmshohlar saroyi

yonida kutubxona, rasadxona, qo‘lyozmalarni kitob holiga keltiradigan ustaxona barpo etganlar.

“Hikmatlar uyi”da yuzdan ziyod mashhur allomalar faoliyat ko‘rsatadilar. Shulardan ellikka yaqinining nomlari saqlanib qolgan. Bular quyidagilar: astronom, matematik Mahmud al-Chag‘miniy, astronom, geograf Muhammad ibn Najib Baxron, astronom, faylasuf, Bahouddin Xorogiy, mashhur astronom Sirojiddin Yaqub Sakkokiy, qomusiy olim Abu Mador ad-Dabbiy Xorazmiy, tabib va hakim Abu Hasan Muhammad al-Xorazmiy, Ismoil Jurjoniy, Zayniddin Ismoil ibn Hasan. Adabiyotshunos, tilshunos, lug‘atshunos olimlardan Mahmud az-Zamaxshariy, Abul Hasan Ali ibn Muhammad al-Xorazmiy, Abu Muhammad al-Qosim al-Buxoriy va boshqalar. Huquqshunos olimlardan Shahobiddin Xivaqiy, Abu Bakr al-Marg‘iloniy. Tarixnavis olimlardan Muhammad Buxoriy, Abu Muhammad Mahmud al-Xorazmiy, Abul Karim al-Marvaziy, Shahobiddin Nasafiy va boshqalar ijod qilgan hisoblanadi.

Xorazmshohlar islom dini ulamolariga, mashhur shayxlarga ham alohida iltifot ko‘rsatganlar. Ularga Xorazm hukmdorlari sovg‘alar ulashganlar. O‘sha paytda Gurganchda Shayx Najmiddin Kubro, Shayx Faxriddin ar-Roziy, Imom Aziziddin Ali Balxiy, Shayx Majididdin Bag‘dodiy va boshqalar faoliyat ko‘rsatganlar. Ular arab, fors tillarida ijod qilganlar.

“Hikmatlar uyi”da ijod qilgan mashhur qomusiy olimlardan biri Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al-Chag‘miniy yoshligida Gurganch va Samarqand madrasalarida bilim olgan. Arab, fors va yunon tillarini mukammal o‘rganadi. Platon, Ptolomey asarlarini, yana al-Xorazmiy, Beruniy, Farobiy asarlarini puxta o‘zlashtiradi, ulardagi astronomiya, matematika va geografiyaga oid g‘oyalarni rivojlantirgan hamda fanning shu sohalarida mashur olim sifatida tanilgan. Yana bir mashur olimlarlardan Abu Ibrohim Ismoil ibn Hasan al-Jurjoniy shoh saroyida tabiblik xizmatida bo‘lgan va umrining oxirigacha tabobatga doir o‘nlab asarlar yozib qoldirgan. Shulardan bizgacha yetib kelgan eng mashhur asari “Zaxirayi Xorazmshohiy”dir. Asar yozishda Ibn Sino, Abu Bakr Roziy, al-Beruniy asarlaridan foydalanib, ulardagi tabobatga doir g‘oyalarni o‘z tadqiqotlari va tajribalari bilan boyitgan. Olimning tibbiyotga doir ushbu asari qomusiy asarlardan sanaladi.

Abul Qosim Mahmud az-Zamaxshariy ham “Hikmatlar uyi” da ijod qilgan mashhur allomalardan biri edi. U tilshunoslik, lug‘atshunoslik, tarix, geografiya, mantiq, fiqh va dinshunoslik ilmlari sohasida zamonasining tengi yo‘q olimlaridandir. Zamaxshariyning Quroni Karim tafsiriga bag‘ishlangan “Al-Kashshof”, arab tilshunosligiga bag‘ishlangan “Al-Mufassal”, lug‘atshunoslikka doir “Muqaddimat ul-adab”, ta’lim-tarbiya masalalariga doir “Nozik iboralar” va boshqa asarlari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelyapti [4]. Shu kabi olimlar ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shib, avlodlarga boy meros qoldirganlar.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Ma’mun akademiyasining shonli an’analarini izchillik bilan davom qildirgan, Sharqning yirik ilmiy markazi-“Hikmatlar uyi” o‘z davrining mashhur ilm-ma’rifat maskani hisolanadi. Deyarli yarim asrdan ko‘proq faoliyat ko‘rsatgan. Bu ilm-ma’rifat maskanida ijod qilgan allomalar o‘z davrining yetuk shaxslardan bo‘lib, ilm-fan, madaniyat rivojiga hissa qo‘shib qolmay, tarixda o‘chmas iz qoldirganlar. Ularning ilmiy, ma’naviy merosi bugungi kunda

bilimlar xazinasi desak arziydi desak adashmagan bo‘lamiz. Ularning asarlarida asosan tarbiya mavzusiga alohida e’tibor berilgan bo‘lib komil insonni shakllantirishda muhim ro‘l o‘ynaydi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Buniyodov Z.M. “Anushtegin Xorazmshohlar davlati”. – Toshkent: 1998. – B. 84.
2. Buniyodov Z.M. “Anushtegin Xorazmshohlar davlari”. – Toshkent: 1998. – B. 8.
3. Islomov Z. “Muqaddimat ul-adab”. – Toshkent: 2002. – B. 6.
4. Mahmud Zamaxshariy. “Muqaddimat ul-adab”. – Toshkent: 2002. – B. 4-6.

XORAZM OKRUGIDA AGRAR VA SANOAT SOHASIDAGI O‘ZGARISHLAR (1920-1930-yy)

Marimov Muzaffar Erkinovich
Urganch Ranch texnologiya universiteti “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asrning birinchi yarmida Xorazm vohasida amalga oshirilgan sanoat va agrar islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’siri tahlil qilinadi. 1920-yillar davomida vohada paxta tozalash zavodlari, hunarmandchilik artellari, beda urug‘i tozalash korxonalari tashkil etilib, temir yo‘l infratuzilmasi rivojlantirilgani sanoatning dastlabki rivojlanish bosqichini belgilagan. Ushbu maqolada Xorazm okrugidagi sanoat va agrar islohotlarning mintaqaning iqtisodiy rivojlanishiga ko‘rsatgan ta’siri batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Xorazm vohasi, agrar islohotlar, qishloq xo‘jaligi, paxta tozalash zavodi, hunarmandchilik arteli, iqtisodiy rivojlanish, kredit shirkatlari, temir yo‘l, jamoalashtirish, iqtisodiy-statistik tadqiqotlar, feodal qoldiqlar, mehnat unumdorligi.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние промышленных и аграрных реформ на социально-экономическую жизнь Хорезмского оазиса в первой половине XX века. В 1920-е годы в оазисе были созданы хлопкоочистительные заводы, ремесленные артели, предприятия по переработке семян люцерны, развита железнодорожная инфраструктура, что определило начальный этап промышленного развития. В данной статье подробно описано влияние промышленной и аграрной реформы Хорезмской области на экономическое развитие региона.

Ключевые слова: Хорезмский оазис, аграрные реформы, сельское хозяйство, хлопкоочистительный завод, ремесленная артель, развитие экономики, кредитные общества, железная дорога, коллективизация, экономико-статистические исследования, феодальные пережитки, производительность труда.

Abstract. This article analyzes the impact of industrial and agrarian reforms on the socio-economic life of the Khorezm oasis in the first half of the 20th century. In the 1920s, cotton ginneries, craft cooperatives, alfalfa seed processing enterprises were created in the oasis, and railway infrastructure was developed, which determined the initial stage of industrial development. This article describes in detail the impact of industrial and agrarian reform in the Khorezm region on the economic development of the region.

Key words: Khorezm oasis, agrarian reforms, agriculture, cotton gin, craft artel, economic development, credit societies, railway, collectivization, economic and statistical studies, feudal remnants, labor productivity.

Xorazm vohasi tarixi o‘zining boy madaniy merosi va tabiiy resurslari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, mintaqada iqtisodiy va sanoat sohalaridagi o‘zgarishlar ham e’tiborga loyiqdir. Xususan, XX asrning birinchi yarmida Xorazmda amalga oshirilgan sanoat va agrar islohotlar mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim burilish nuqtasini tashkil etdi. 1920-yillar davomida bu hududda paxta tozalash

zavodlari, beda urug‘i tozalash korxonalari, hunarmandchilik artellari va temir yo‘l infratuzilmasining rivojlanishi bilan bog‘liq qator muhim jarayonlar sodir bo‘ldi.

Mazkur davrda Xorazmda sanoatning asosan yengil tarmoqlariga e’tibor qaratilgani, og‘ir sanoat korxonalarining rivojlanmaganligi bilan ajralib turadi. Buning asosiy sabablaridan biri hududda moddiy-texnika bazasining yetishmasligi va malakali ishchi kuchining kamligi edi. Shu boisdan mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan charm, g‘isht ishlab chiqarish, tikuvchilik, yog‘ochsozlik va kulolchilik singari sohalar rivojlanib, aholini zarur iste‘mol mollari bilan ta‘minlashga xizmat qildi.

1925-yilda Xiva va Xazaraspda ilk marotaba paxta tozalash zavodlari ishga tushurildi. 1928-1929-yillarda Urganchda yangi paxta tozalash zavodi hamda 1932-yilda beda urug‘i tozalash zavodi barpo etiladi. Eski sanoat korxonalarini tiklash va rekanstruksiya qilish hamda yangilarini qurish natijasida Xorazm okrugida sanoat korxonalarini soni 1928-yildagi 12 tadan 1940-yilga kelib 50 taga yetadi.1

Xorazmda sanoat rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, bu yerda urushdan oldingi va urush yillarida ham og‘ir sanoat korxonalari emas, balki mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan yengil sanoat korxonalari ko‘proq rivojlandi. Chunki og‘ir sanoatni rivojlanishi uchun bu yerda zarur moddiy texnika bazasi hamda malakali ishchi va mutaxassis kadrlar yo‘q edi. Shu sababli Xorazmda mahalliy xom ashyodan xalq iste’mol mollari ishlab chiqaruvchi artellar ya’ni charm, g‘isht ishlab chiqarish, tikuvchilik, yog‘ochsozlik, etikchilik, kulolchilik maxsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar ko‘proq rivojlangan. Keyinchalik mayda hunarmandchilik ustaxonalari yirik artellarga birlashtirila boshlandi. 1926-yilda Xorazm okrugida bunday artellar 26 ta bo‘lib, ularda 2 mingdan ortiq ishchi xizmat qilgan.

Xorazmda birinchi temir yo‘l 1929-yilda Urganchdagi eski yog‘ va paxta tozalash zavodlari oralig‘ida qurilgan. Bu kichkina qisqa enlilikdagi bir kilometr uzunlikdagi temir yo‘l bo‘lib, chigit ortilgan vagonlar ot yoki eshak kuchi yordamida harakatga keltirilgan. 1934-yilda Urganch-Chalish pristani oralig‘ida 13 km uzunlikdagi ikkinchi qisqa enli temir yo‘l qurildi. Bu yo‘lda Xorazmga tashqaridan Amudaryo orqali keladigan va Xorazmdan boshqa yerlarga yuboriladigan yuklar tashilar edi. Bu yo‘lda ham vagonlar ot kuchi bilan harakatga keltiriladigan edi.

20-yillar o‘rtalaridan 30-yillar oxirigacha Xorazmda amalga oshirilgan agrar islohotlar qishloqda demokratik qayta qurishni yanada chuqurlashtirishni, kambag‘al va dehqon xo‘jaliklariga moddiy-texnika yordam ko‘rsatishni, qishloqda fan-texnika yangiliklarni va ilg‘or agrotexnika usullarini keng joriy qilishni taqoza etar edi. Xorazmda agrar islohotlarni amalga oshirish borasidagi dastlabki tadbirlardan biri qishloq xo‘jaligi moddiy-texnik bazasini vujudga keltirish bo‘ldi.

Xorazm okrugida 1930-yillar o‘rtalariga kelib, qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish ishlari qisman yakunlandi. Davlat 1935-yilda qishloq xo‘jaligining yangi Nizomini qabul qilib, kolxozlarda ishlab chiqarish va taqsimotning yangicha tamoyillarini belgilashga majbur bo‘ldi. Kolxozchilar yordamchi xo‘jaliklar saqlashga, chorvachilikni rivojlantirishga qisman erishdilar. Sovet davlati o‘z halokatining oldini olish uchun qishloq xo‘jaligiga e’tiborni kuchaytirishga, mablag‘lar ajratishga, yangi texnikalarni chet eldan sotib olishga o‘tdi. Xorazmga ham zamonaviy texnikalarning

[1] Экономическая история советского Узбекистана, 1917-1966. – Т: Фан, 1966, с.147.

keltira boshlanishi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining birmuncha jonlanishiga sabab bo‘ldi. 1923-yil noyabr oyida O‘rta Osiyo iqtisodiy Kengashi majlisida Xorazm qishloq xo‘jaligini traktorlar va boshqa mexanizmlar bilan ta’minlash masalasi qo‘yilgan edi.**1** Ana shu qarorga binoan 1924-yil bahorida birinchi marta Amudaryo orqali Xorazmga 2 ta “Fordzon” tipli traktor olib kelindi va 1924-yil 7-noyabrda Xiva shahrida namoyish qilindi.**2** 1926-yilga kelib Xorazm okrugiga olib kelingan traktorlar soni 23 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 1927-yilda 39 tani, 1928-yilda esa 50 tani tashkil qildi. Vohaga yangi qishloq xo‘jaligi texnikalarini olib kelinishi o‘z navbatida mehnat unumdorligini oshishiga va eng avvalo hududning iqtisodiy taraqqiy etishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

1930-yillar boshlarida Xorazm okrugida dehqon xo‘jaliklarini turli xil kooperativ uyushmalar va shirkatlarga birlashtirish jarayoni jadallashdi. Ushbu davrda kredit berish, paxtachilik, melioratsiya va boshqa yo‘nalishlarda faoliyat yurituvchi shirkatlar shakllana boshladi.

Kambag‘al va o‘rta hol dehqonlarni iqtisodiy ahvolini ko‘tarishda moliya-kredit sistemasini yaxshilash katta ahamiyatga ega edi. 1925-yilda jami 22 kredit shirkatlari bo‘lib, ularga 4603 a’zo birlashdi.1927-yilda esa shirkatlar soni 33taga va a’zolari 33487 kishiga ko‘paydi. Xorazm okrugida kollektivlashtirish arafasida ana shu shirkatlarga 65 foizdan ko‘prok dehqon jalb qilingan bo‘lib, kredit shirkatlarining oboroti 1926-yilda 479,5 ming sumni, 1927-yilda esa 2727 ming sumni tashkil qildi.3

Kredit berish ”Baxt” kredit kooperatsiyasi orqali amalga oshirildi. Bunday kooperatsiyalarning hammasi O‘zbekiston SSR qishloq xo‘jalik bankiga bo‘ysundirilgan edi. Agar Xorazm okrugiga 1925-1926-yillarda jami 388300 so‘mlik kredit berilgan bo‘lsa, 1927-1928-yillarda 885800 so‘mlik kredit berildi. Jami berilgan kreditning 55 foizi kambag‘al dehqon xo‘jaliklariga berilgan bo‘lsa, 25 foizi kam quvvat xo‘jaliklarga berilgan edi.4

1927-yilning o‘rtalariga kelib, Xorazmda iqtisodiy-statistik ishlarni yo‘lga qo‘yish va yer-suv islohotlarini amalga oshirish ishlari boshlandi. Bu jarayonni samarali tashkil etish maqsadida Samarqand, Toshkent, Farg‘ona hamda Zarafshon okruglaridan tajribali mutaxassislar jalb etildi. Ular viloyatning er fondi va uning sifatini chuqur o‘rganib, yerga, mehnat qurollariga hamda ish hayvonlariga egalik darajasini aniqladilar. Boy xo‘jaliklar ro‘yxatga olindi. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi va irrigatsiyaga sarflanayotgan mehnat hamda xarajatlarning aniq hisob-kitobi olib borildi. 1927-yil avgustdan oktyabrgacha Xorazm okrugida o‘tkazilgan iqtisodiy-statistik tadqiqot natijalari hududdagi xo‘jaliklarning yerga egaligiga oid muhim raqamlarni yuzaga chiqardi. Tadqiqot doirasida o‘rganilgan 60 758 ta xo‘jalikning:

– 1 437 tasi (2,3%) yersiz,

– 16 989 tasi (28%) 1 desyatinagacha yerga ega,

– 31 517 tasi (51,9%) 1 desyatinadan 3 desyatinagacha yerga ega,

– 8 593 tasi (14,1%) 3 desyatinadan 5 desyatinagacha yerga ega,

[1] Хорезмская правда, 1974, 7 ноября.

[2] «Хлопковое дело» , журнали, 1926, 1-2 сон, 165 бет

[3] “Инқилоб қуёши” газетаси, 1927, 4-август сони

[4] Хоразм вилояти давлат архиви, Ф.16, рўйҳат 1, д.10, 4 варақ, Ф.69, рўйҳат 1, д.182, 131-133 варақлар

– 2 042 tasi (3,4%) 5 desyatinadan 10 desyatinagacha yerga ega,
– 165 tasi (0,3%) 10 desyatinadan 20 desyatinagacha yerga ega,
– 10 tasi 20 desyatinadan 50 desyatinagacha yerga ega,
– 5 tasi esa 50 desyatinadan ortiq yerga egaligi qayd etildi.1

Mazkur iqtisodiy-statistik tahlil viloyatda hanuz saqlanib qolgan feodal munosabatlar qoldiqlarini ochib berdi. Xususan, yerdan mehnatsiz foydalanayotgan xo‘jaliklar mavjudligi aniqlangan bo‘lib, bu yerlarning haqiqiy mehnat qiluvchi aholiga bo‘lib berilishi zarurligini ko‘rsatdi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, 1920-yillarda Xorazm okrugi iqtisodiy hayotida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Mintaqada paxta tozalash zavodlari, hunarmandchilik artellari va beda urug‘i tozalash korxonalari tashkil etilishi sanoat rivojining boshlang‘ich bosqichini belgiladi. Mahalliy iste’mol mollari ishlab chiqarishga qaratilgan yengil sanoatning rivojlanishi aholining ehtiyojlarini qisman qondirishga xizmat qildi. Agrar sohada amalga oshirilgan islohotlar qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish, kredit tizimlarini rivojlantirish, texnika va texnologiyalarni joriy qilish bilan kechdi. Ayniqsa, Xorazmga olib kelingan zamonaviy texnika mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qildi. Kredit shirkatlari orqali dehqon xo‘jaliklariga moliyaviy yordam ko‘rsatilishi agrar sektorni jonlantirishga imkon yaratdi. Iqtisodiy-statistik tadqiqotlar yerdan foydalanishdagi tengsizlikni ochib berib, feodal qoldiqlarning mavjudligini tasdiqladi. Bu tadqiqotlar yerlarni samarali taqsimlash va iqtisodiy islohotlarning zarurligini ko‘rsatdi. Xorazm okrugida olib borilgan islohotlar mintaqaning iqtisodiy hayotida muhim burilish nuqtasini tashkil etib, qishloq xo‘jaligi va sanoat rivojiga turtki berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. M.Матниязов. “Хоразм тарихи” 2 жилд. - Хоразм: Урганч, 1997. Б. 82-100.
2. Мамаджанов М.К. Социалъно-экономические преобразование и развитие экономике Хорезмской народной советской республики. – Ташкент: Фан, 1974. С. 82.
3. Хоразм вилояти давлат архиви, Ф.16, рўйҳат 1, д.10, 4 варақ, Ф.69, рўйҳат 1, д.182, 131-133 варақлар.
4. ЎзДМА Ф.Д-90, рўйҳат 4, д.71, 16 варақ.
5. Хорезмская правда, 1974 года 7 ноября.
6. “Хлопковое дело” журнали, 1926 йил, 1-2 сон, 165 бет.
7. “Инқилоб қуёши” газетаси, 1927 йил, 4 август сони.
8. Экономическая история советского Узбекистана, 1917-1966. – Т.: Фан, 1966. С. 147.

[1] ЎзДМА Ф.Д-90, рўйҳат 4, д.71, 16 варақ

IMOM AL-BUXORIY HADIS ILMINING SULTONI

Djabborova Adolatxon Kazakbayevna
UrDPI Tarix va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi
Abdullayeva Mashxura Ulug‘bek qizi
UrDPI Filologiya va tarix fakulteti tarix yo‘nalishi II kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hadis ilmining sultoni bo‘lgan ulug‘ va buyuk bobomiz Imom al-Buxoriyning hayotiy faoliyati, yozgan asarlari, ustozi va shogirdlari haqida, shuningdek, o‘z kitoblarida bizga meros tariqasida yozib qoldirgan hadislari to‘g‘risida ma’lumotlarni o‘rganamiz.

Аннотация. Данная статья посвящена жизни, трудам, учителям и ученикам нашего прадеда Имама аль-Бухари, который был лидером хадисоведения, о хадисах, которые он оставил нам в наследство, мы также узнаем из его книг.

Abstract. In this article, we will learn about the life and work of our great and great grandfather, Imam al-Bukhari, the sultan of the science of hadith, his writings, his teacher and students. We will also learn about the hadiths he left us as a legacy in his books.

Kalit so‘zlar: Imom al-Buxoriy, Buxoro, hadis, Ismoil ibn Ibrohim, muhaddis, Makka, Hijoz, Misr, Shom, Al-jome’ as-sahih, Abdulloh ibn al-Muborak, Imom at-Termiziy.

Ключевые слова: Имам аль-Бухари, Бухара, хадисы, Исмаил ибн Ибрагим, хадисовед, Мекка, Хиджаз, Египет, Сирия, Аль-Джаме ас-Сахих, Абдулла ибн аль-Мубарак, Имам ат-Тирмизи.

Keywords: Imam al-Bukhari, Bukhara, hadith, Ismail ibn Ibrahim, hadith scholar, Mecca, Hijaz, Egypt, Syria, Al-Jame as-Sahih, Abdullah ibn al-Mubarak, Imam at-Tirmidhi.

Hadis ilmining sultoni – Imom al-Buxoriy o‘zining hadis ilmiga qo‘shgan hissasi bilan butun dunyoga taniqli va mashhurdir. Imom al-Buxoriy nafaqat musulmon olimlari dunyosida, balki butun dunyo olimlari orasida ham o‘zining zukkoligi, o‘tkir zehni, hadis ilmida o‘ta mashhurligi bilan ham ajralib turadi.

Imom al-Buxoriy ilm-fan va madaniyat ravnaqida azaldan mashhur bo‘lgan Buxoro shahrida tavallud topgan. Mana shu muhtasham shahar Buxoroyi sharifda 194 hijriy sana, shavvol oyining 13-kunida salotu-l-jumadan keyin (810 milodiy sana 20 iyul) jami muhaddislar imomi Muhammad (s.a.v)ning muborak hadislariga durdonasimon sayqal berib, ularni abadul-abat barhayot qilgan ulug‘ zot Imom al-Buxoriy dunyoga kelgan [1].

Ma’lumotlarga ko‘ra, Imom al-Buxoriyning tug‘ilgan sanasi boshqa olimlarnikidan farq qilgan holda ko‘rsatilgan. Imom Buxoriyning otasi Ismoil ibn Ibrohim ham Buxoroda taqvodor va hadis ilmida shuhrat qozongan kishilardan hisoblanib, Imom al-Buxoriyning tug‘ilgan sanasini aniq qilib o‘z qo‘li bilan qog‘ozga yozib qoldirgan. Bu qo‘lyozmani esa o‘sha davrning mashhur insonlarining qo‘liga topshirgan. Shu sababli ham Imom al-Buxoriyning tug‘ilgan sanasi bizgacha aniq yetib kelgan. Imom Buxoriy hali go‘daklik chog‘idayoq otasi vafot etadi.

Imom al – Buxoriyning ismi Muhammad, kuniyasi Abu Abdulloh, laqabi ba’zan imom al-muhaddisiyn (muhaddislarning imomi, peshvosi), ba’zan amir ul-mo‘miniyn fi-l-hadis (hadis ilmining amiri, sultoni) va nasabi Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug‘ayra ibn Bardazbeh ibn Bazazbehdir [1].

Imom al-Buxoriyning bolalik chog‘laridayoq hadislarni yod olishga ishtiyoqi baland bo‘lgan. Imom Buxoriy ilm olish yo‘lida tinmay harakat qiladi. Albatta, bu unga Alloh taolo tomonidan berilgan o‘tkir zakovat va kuchli yod olish qobiliyatining mahsuli bo‘lib, Buxoriyning bolalik chog‘laridayoq uning o‘tkir zakovati ko‘zga tashlana boshladi. Imom al-Buxoriyning ta’lim va tarbiyasi bilan volidasi shug‘ullangan. Onasi ham otasi kabi, o‘z davrining ilmli, soliha va ma’rifatli ayollaridan biri bo‘lgan. Manbalarda keltirilishicha, Imom al-Buxoriyning ko‘zi ko‘rmay qoladi va uning volidasi kecha-kunduz Alloh taolodan farzandining ko‘z nuri qayta tiklanishini so‘rab duo qiladi va bir kuni tushida farzandining ko‘ziga nuri qaytganini ko‘radi, uyg‘onib qarasa haqiqatdan ham farzandining ko‘zlari yana ko‘ra boshlagan. Shu boisdan Imom al-Buxoriyning onasining ismini tarix zarvaqaqlariga o‘zi ismi bilan emas, balki “Duosi mustajob ayol” nomi bilan zikr qiladi.

Manbalarda ko‘rsatilishicha, u o‘n yoshidan boshlab o‘z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadislarni, shuningdek, Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarning hadis to‘plamlarini mutolaa qilib, yodlagan, ustozi Shayx Dohiliy bilan hadis rivoyatchilari haqidagi qizg‘in bahslarda qatnashgan [2].

O‘sha davrda ilm o‘chog‘i bo‘lgan Buxorodagi muhit unga yordam bergan, shuning uchun ulamolar davralarida ko‘p marotaba qatnashar edi. 16 yoshida u onasi va ukasi Ahmad bilan Makkaga hajga boradi, ilmga bo‘lgan qiziqishi yuqori bo‘lgani uchun ko‘proq ilm olish maqsadida ularni ortda qoldirib, u yerda olti yil qolib, hadis to‘play boshlaydi. Shundan so‘ng u shu maqsadda Bag‘doddan tortib, Kufa, Shom, Misr, Xuroson va boshqa ko‘plab mamlakatlarga borib, tinmay hadislarni yod olib, ko‘proq narsani so‘rash, yozish uchun tinmay mehnat qildi [3].

Imom al-Buxoriy yuqoridagi shaharlarda bo‘lib, Shom, Misr, Mesopotamiyaga 2 marta, Basraga 4 marta ilm izlab borgan. U safari davomida bir joyda muqim yashab, o‘sha yerda o‘z kuchini faqat ilm olishga sarflab hadislar yig‘ib yurgan. Bir shaharda hadis yig‘ib bo‘lgach, boshqa yana bir shaharga borib u yerda ham hadis yig‘ish bilan shug‘ullangan. Xususan, Bag‘dod shahrida ham istiqomat qilib, qorong‘u kechalarda sham yorug‘ida, oyning nuri ostida ijod qilib, kitoblar yozgan.

Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo‘lgani “Al-jome’ as-Sahih”dir. Undan tashqari tarixiy voqealar va shaxslarni chuqur tahlil qiladigan, hadis ilmining asoslaridan bo‘lgan ilmlarga oid bir qator o‘ta ahamiyatli kitoblar yozdi. Imom Buxoriyning ilmiy ahamiyati yuksak bo‘lgan bir nechta asarlar tasnif qildi: “Al-jome’ as-sahih”, “Al-adab al-mufrad”, “At-tarix al-kabir”, “At-tarix as-sag‘ir”, “At-tarix al-avsat”, “At-tafsir al-kabir”, “Birrul volidayn”, “Asmo as-sahoba”, “Kunyalar” va boshqalar [4].

Xususan, Imom al-Buxoriyning “Al-jome’ as-sahih” asari islom dunyosida Qur’oni Karimdan keyingi ikkinchi ishonchli manba sifatida e’tirof etiladi. Allomaning ushbu asari boshqa hadis to‘plagan olimlarning asarlaridan hadis yig‘ishdagi aniqlik shartlariga rioya qilganligi bilan ajralib turadi. Shu sababli “Eng

ishonchli hadislar to‘plagan” nomi bilan ulug‘langan. Imom al-Buxoriyning bu asarida 600 ming hadis jamlangan bo‘lib, ulardan 7275 ta hadis sahih hadislar, shundan 4000 taksi esa takrorlanmaydi ham hadislar hisoblanadi.

Hadis – (arabcha) – islom dinida Qur’ondan keyingi muqaddas manba. Muhammad (s.a.v.) hayoti, faoliyati va ko‘rsatmalari haqidagi rivoyatlardan iborat [5].

To‘y va shu kabilarga da’vat qilguvchiga ijobat qilmoq haqida Abdulloh ibn Umar roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Rasulullоh sallallohu alayhi va sallam: “Agar da’vat qilinsangiz, unga ijobat qilingizlar!” – dedilar. Abdullohning o‘zlari to‘y va shu kabilarga da’vat (taklif) qilinsalar ro‘za bo‘lsalar ham borar edilar [6].

Bu hadis orqali bizni chaqirilgan yerga, o‘sha chaqirgan insonni hurmat qilgan holda borishimiz kerakligini tushunish mumkin.

Yonboshlab ovqat yemoq xususida Abu Juhayfa rivoyat qiladilar: “Rasulullоh sallallohu alayhi va sallam: “Men yonboshlab ovqat yemayman”, – dedilar” Abu Juhayfa rivoyat qiladilar: Men Janob Rasulullohning huzurlarida erdim, shunda huzurlarida o‘ltirgan bir boshqa kishiga “Men yonboshlagan holda ovqat yemayman” – dedilar [6].

Bu hadis orqali biz ummatlarni to‘g‘ri ovqatlanishga, ovqatni hurmat qilishga va yotgan holatda ovqat tanavvul qilmaslikga o‘rgatmoqdalar. Imom Buxoriyning bu darajaga yetishishida albatta uning ustozlarining o‘rni beqiyosdir.

Ilmini oshirish maqsadida al-Buxoriy juda ko‘plab olimlardan ta’lim oladi. Nishopurlik al-Hakimning (1015-yilda vafot etgan) yozishicha, ustozlarining soni to‘qsontalar atrofida bo‘lib, ular: Muhammad ibn Yusuf al-Faryobiy, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamiydiy ibn Rohavayh nomi bilan mashhur bo‘lgan imom Is’hoq ibn Ibrohim, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali ibn al-Madiniy va boshqalardir [2].

Imom Buxoriyning yozgan hadislari bizga uning qo‘lyozma asarlari, kitoblari orqali yetib kelgan. Bu ma’lumotlarning bizgacha saqlanib qolishida Imom al-Buxoriyning shogirdlarining ham o‘rni kattadir. Imom al-Buxoriy yoshlik chog‘laridayoq shogirdlarining sanog‘i yo‘q edi. Abdulloh ibn Muhammad Masanadiy, Muhammad ibn Xalif ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Abu Iso at-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy kabi olimlar Imom al-Buxoriyning shogirdlari bo‘lib hisoblanadi. Mashhur muhaddis Abu Iso at-Termiziy ham uning shogirdi, safdoshi bo‘lib, ularning o‘zaro munosabatlari biz yoshlar uchun o‘rnak qilsa arzigulikdir. Imom al-Buxoriy vafot etganlarida At-Termiziy g‘amga botib ko‘zlari ko‘r bo‘lib qoladi.

Vatandoshimiz buyuk muhaddis o‘zining yozgan asarlari bilan hadis ilmi rivojiga juda ham katta hissasini qo‘shdi. Alloma Imom al-Buxoriy o‘zining asarlari bilan butun dunyo uchun zarur bo‘lgan ilmlarni biz yoshlarga yetkazib berdi. Bugungi kunda Imom al-Buxoriyning yozgan asarlari va uning nomini abadiylashtirish maqsadida yurtimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Imom al-Buxoriyning asarlari qaytadan nashr qilinmoqda. Biz yoshlar bugungi kunda o‘z ajdodlarimizga munosib avlod bo‘lib, ularning yozgan asarlariyu, kitoblarni kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazib berishimiz biz ham qarz, ham farzdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Уратов У. Буюк юрт алломалари. – Тошкент: “O‘zbekiston”, 2018. – B. 5-17.

2. Ma’naviyat yulduzlari. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashriyoti. – Toshkent: 2011. – B. 51-55.

3. https://hidoya.uz/uz/news/1251

4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Imom al-Buxoriy

5. Ўзбек совет энциклопедияси 14-жилди. – Тошкент: 1980. – Б. 342.

6. Ал-жомиь ас-сахих. Қомуслар бош таҳририяти. – Тошкент: 1994. – Б. 419-491.

TA’LIM TO‘G‘RISIDAGI QONUNNING QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI OLIY O‘QUV YURTLARIDA TA’LIM TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Babajanova Nafisa Shamuratovna
UrDPI “Tarix va geografiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, har bir davlatda ta’lim tizimini tartibga soluvchi muhim hujjatdir. Qoraqalpog‘iston Respublikasi ham bu qonun doirasida o‘zining o‘ziga xos ta’lim tizimini rivojlantirishga intilmoqda. Oliy o‘quv yurtlari ta’lim jarayonining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, ular mamlakatning intellektual salohiyatini oshirish, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shish uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, qonun, ilmiy tadqiqotlar, innovatsion texnologiyalar, madaniyat, ta’lim dasturlar.

Аннотация. Закон об образовании является важным документом, регулирующим систему образования в каждой стране. Республика Каракалпакстан также стремится развивать собственную систему образования в рамках данного закона. Высшие учебные заведения являются одним из основных звеньев образовательного процесса, они имеют большое значение для повышения интеллектуального потенциала страны, обеспечения подрастающего поколения современными знаниями и вносят вклад в социально-экономическое развитие.

Ключевые слова: Образование, право, научные исследования, инновационные технологии, культура, образовательные программы.

Abstract. The Law on Education is an important document regulating the education system in each country. The Republic of Karakalpakstan is also striving to develop its own education system within the framework of this law. Higher education institutions are one of the main links in the educational process, they are of great importance for increasing the intellectual potential of the country, providing the younger generation with modern knowledge and contributing to socio-economic development.

Keywords: Education, law, scientific research, innovative technologies, culture, educational programs.

KIRISH

Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, avvalo, ta’lim sifatini oshirish, ta’lim jarayonida erkinlik va tenglikni ta’minlash, shuningdek, ta’lim resurslarini samarali boshqarish kabi vazifalarni o‘z oldiga qo‘yadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy o‘quv yurtlari, ushbu qonun asosida o‘z faoliyatini olib borib, ta’lim tizimini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Oliy ta’lim muassasalari, o‘z navbatida, ilmiy tadqiqotlar, innovatsion g‘oyalar va amaliyotga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish orqali ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim olish jarayoni, nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga qaratilgan. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun,

shuningdek, talabalarning ijtimoiy faoliyatini rag‘batlantirish, ularning madaniy va ma’naviy rivojlanishini ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratadi. Bu jihatdan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy o‘quv yurtlari, mahalliy va xalqaro miqyosda hamkorlikni rivojlantirish orqali ta’lim sifatini oshirishga intilmoqda. Qonun, shuningdek, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘qituvchilar va professor-o‘qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi. Oliy o‘quv yurtlari, o‘z navbatida, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, ularni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan tanishtirish va o‘qitish jarayonini innovatsion usullar bilan boyitishga intilmoqda [1].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ta’lim to‘g‘risidagi qonunning amalga oshirilishi, shuningdek, ta’lim tizimida raqobatni oshirishga xizmat qiladi. Oliy o‘quv yurtlari, o‘zaro raqobatlashish orqali ta’lim sifatini oshirish, talabalarga yanada yaxshi sharoitlar yaratish va ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga intilishadi. Bu jarayon, o‘z navbatida, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim tizimini rivojlantirishda, ta’lim to‘g‘risidagi qonun asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish va ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishlarini ta’minlashga qaratilgan. Bu jarayon, o‘z navbatida, mamlakatning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega [2].

Ta’lim to‘g‘risidagi qonun, shuningdek, ta’lim muassasalarining mustaqilligini ta’minlash, ularning faoliyatini yanada samarali tashkil etish va boshqarish imkoniyatlarini yaratadi. Oliy o‘quv yurtlari, o‘z faoliyatini mustaqil ravishda olib borish orqali, ta’lim sifatini oshirish va zamon talablariga mos keladigan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shuningdek, ta’lim to‘g‘risidagi qonun, ta’lim jarayonida innovatsion g‘oyalarni qo‘llash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ta’lim muassasalarining xalqaro hamkorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi. Oliy o‘quv yurtlari, xalqaro standartlarga mos keladigan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va o‘z talabalarini xalqaro maydonda raqobatbardosh qilish uchun zaruriy sharoitlarni yaratishga intilmoqda. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim tizimini rivojlantirishda, ta’lim to‘g‘risidagi qonun asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, ta’lim sifatini oshirish, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash va ularning ijtimoiy faoliyatini rag‘batlantirishga qaratilgan. Bu jarayon, o‘z navbatida, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [3].

Shuningdek, ta’lim to‘g‘risidagi qonun, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘qituvchilar va professor-o‘qituvchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi. Oliy o‘quv yurtlari, o‘z navbatida, o‘qituvchilarning kasbiy malakasini oshirish, ularni zamonaviy ta’lim texnologiyalari bilan tanishtirish va o‘qitish jarayonini innovatsion usullar bilan boyitishga intilmoqda. Ta’lim to‘g‘risidagi qonunning amalga oshirilishi, shuningdek, ta’lim tizimida raqobatni oshirishga xizmat qiladi. Oliy o‘quv yurtlari, o‘zaro raqobatlashish orqali ta’lim sifatini oshirish, talabalarga yanada yaxshi sharoitlar

yaratish va ularning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga intilishadi. Bu jarayon, o‘z navbatida, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [4].

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim tizimini rivojlantirishda, ta’lim to‘g‘risidagi qonun asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan ta’minlash, ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish va ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishlarini ta’minlashga qaratilgan. Bu jarayon, o‘z navbatida, mamlakatning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun, shuningdek, ta’lim muassasalarining mustaqilligini ta’minlash, ularning faoliyatini yanada samarali tashkil etish va boshqarish imkoniyatlarini yaratadi. Oliy o‘quv yurtlari, o‘z faoliyatini mustaqil ravishda olib borish orqali, ta’lim sifatini oshirish va zamon talablariga mos keladigan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi [5].

XULOSA

Shuningdek, ta’lim to‘g‘risidagi qonun, ta’lim jarayonida innovatsion g‘oyalarni qo‘llash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ta’lim muassasalarining xalqaro hamkorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilaydi. Oliy o‘quv yurtlari, xalqaro standartlarga mos keladigan ta’lim dasturlarini ishlab chiqish va o‘z talabalarini xalqaro maydonda raqobatbardosh qilish uchun zaruriy sharoitlarni yaratishga intilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ADABIYOTI:

1. Abdullayev A. (2020). “Ta’lim tizimini rivojlantirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar”. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.

2. Murodov R. (2019). “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish masalalari”. – Nukus: Qoraqalpog‘iston Davlat Universiteti.

3. Qodirov S. (2021). “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun va uning amaliyotdagi o‘rni”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti.

4. Xolmatov D. (2022). “Innovatsion ta’lim texnologiyalari va ularning ta’lim jarayonidagi roli”. – Nukus: Qoraqalpog‘iston Oliy Madaniyat va San’at instituti.

5. Rahmonov B. (2023). “Oliy ta’limda xalqaro hamkorlik va ta’lim sifatini oshirish”. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

6. Ismoilov U. (2020). “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini boshqarish”. – Nukus: Qoraqalpog‘iston Pedagogika Instituti.

7. Tursunov E. (2021). “O‘zbekistonda ta’lim qonunchiligi va uning amaliyotdagi qo‘llanilishi”. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi.

8. Karimov M. (2022). “Ta’lim sifatini oshirishda innovatsion yondashuvlar”. – Nukus: Qoraqalpog‘iston Davlat Pedagogika instituti.

SOFOKLNING “SHOH EDIP” TRAGEDIYASIDA EDIP PSIXOLOGIYASI

Allanazarov Shoxruxbek Farxodovich
UrDPI Tarix va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi
Mamedova Sulgun Altiyevna
UrDPI 242-guruh tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sofoklning hayoti va ijodi, uning “Shoh Edip” asari haqida so‘z boradi. Shuningdek, Shoh Edipning bilmagan holda otasini o‘ldirishi va onasiga uylanishi hamda baxtsiz o‘limi yoritilgan.

Аннотация. В этой статье рассказывается о жизни и творчестве Софокла а также о его произведении “Царь Эдип”. Также освещается, как Эдип, не зная того, убил своего отца, женился на своей матери и трагически погиб.

Abstract. This article discusses the life and work of Sophocles, as well as his play “Oedipus Rex”.It also highlights how Oedipus unklowingly killed his father, married his mother, and met a tragic end.

Kalit so‘zlar: Sofokl, Shoh Edip, Lay, Iokasta, taqdir, qismatga qarshi kurash, ko‘rlik va ko‘rish.

Ключевые слова: Софокл, Цар Эдип, Лай, Иокаста, судьба, борьба с судбой, слепота и зрение.

Keywords: Sophocles, Oedipus Rex, Laius, Jocasta, fate, struggle against destiny, blindness and sight.

Sofokl eramizdan avvalgi 496-yili Afina yaqinidagi Kolon degan joyda, qurol-aslaha korxonasi xo‘jayinining oilasida tug‘ilgan. Adabiy faoliyatini ancha erta boshlagan bo‘lib, eramizdan avvalgi 468-yilda birinchi marta dramaturg sifatida maydonga chiqadi. 28 yoshida adiblar musobaqasida o‘z ustozi Esxilni mag‘lub etib Plutarx qo‘lidan qimmatbaho sovg‘a olgan. Hammasi bo‘lib musobaqalarda 24 marta g‘olib bo‘lgan.

Dramaturg o‘z ijodi davomida xorni chiqarib tashlamagan bo‘lsa ham, unda xor qo‘shiqlari qisqarib bordi va bu voqealar sur’ati tezlashdi. Sofokl tomonidan kiritilgan yana bir yangilik – dramaga uchinchi aktyorning kiritilishi bo‘ldi. Aristotelning “Poetika” kitobida xabar berilishicha, buyuk dramaturg sahna san’ati nazariyasi bo‘yicha ham ko‘p yangiliklar kiritgan: xor tarkibini o‘zgartirgan, musiqiy parchalar joriy etgan, teatr dekoratsiyasini qo‘llagan [1].

Umuman, dramaturg sifatida Sofoklga doimo omad yor bo‘lib kelgan: deyarli hamisha birinchi o‘rinni va ba’zan ikkinchi o‘rinni olib kelgan, u biror marta ham uchinchi darajali mukofot olmagan. Sofokl 120 dan ortiq tragediya yozgan, shulardan bizgacha 7 tasi yetib kelgan. Sofokl tragediyalari Esxil tragediyalaridan o‘zgacha. Esxil asarlarida, asosan, xudolar qatnashadi. Sofokl tragediyalari esa bir qadar ko‘tarinki, dabdabador bo‘lsa-da, ularda odamlar qatnashadi. Shu sababli Sofokl haqida tragediyani falakdan olib tushgan sohibi qalam degan ta’bir yuradi. Avvalo, Sofokl qahramonlari ham Esxil qahramonlari kabi irodasi mustahkam, o‘z maqsadi yo‘lida ikkilanmay olg‘a intiluvchi shaxslardir [2].

Sofoklning eng mashhur asarlaridan biri – “Shoh Edip”. Fiva podshosi Lay befarzandlikdan qiynalar edi. Podshohlikning ham intihosi bo‘ladi. Bir kun kelib, keksayib qolsa toju-taxtni kimga topshiraman, deb o‘ylanar ekan. Ko‘pdan buyon qiynab yurgan bu dardini ibodatxona kohinlariga yetkazganlarida, kohinlar Layning farzand ko‘rajagi haqida xabar qilishadi. Ammo bu o‘g‘il farzand yillar o‘tib otasini o‘ldirajagi ham shohga yetkaziladi. Haqiqatdan ham, oylar o‘tib Layning xotini Iokasta o‘g‘il farzand tug‘adi. Podshoh Lay xursand bo‘lish o‘rniga sarosimada qoladi. Axir, kohinlarning karomati to‘g‘ri bo‘lib chiqdida. Bir kun kelib o‘g‘lining o‘ldirib qo‘yishdan cho‘chigan Lay yarim tunda chaqaloqni xizmatkori qo‘liga topshirib, hech kimga sezdirmasdan o‘rmondagi yirtqich hayvonlarga tashlab kelishni buyuradi. Yo‘lda ketayotganda chaqaloqqa rahmi kelgan xizmatkor o‘g‘ilchani qo‘shni mamlakat podsholigiga berib qaytadi. Yillar o‘tib kuchli bo‘lib o‘sgan bolakay safar qilib kelish niyatida yo‘lga tushadi. Daradagi torgina yo‘lda hayol surib kelayotgan yigitga bezatilgan aravani qo‘riqlab kelayotgan soqchi dag‘dag‘a bilan “Qoch yo‘ldan!” – deydi. Bundan g‘azablangan yigitcha soqchini oti bilan pastlikka uloqtiradi. Bundan sarosimaga tushgan ikkinchi soqchi nayzasini o‘qtaydi. Ikkinchi soqchi ham o‘ldirilganini kuzatib turgan aravadagi bir chol yo‘lovchiga hassasi bilan do‘q-po‘pisa qiladi. Yo‘lovchi cholning hassasini tortib olib, boshiga chunon uradiki, qariya bechora til tortmay o‘ladi. Bu fojiadan xabardor bo‘lib turgan orqadagi uchinchi soqchi qochib qoladi. Shundan so‘ng yo‘lovchi yigitcha hech narsani ko‘rmagandek bamaylixotir Fiva shahriga kirib keladi. G‘am-anduhga botgan shaharliklar dengizda Sfinks degan maxluq paydo bo‘lganligini, shahar ahlini yeb quritayotganligini aytishadi. Biroq Sfinks balosidan qutulish oson emas. Podshoh saroyida aqlli, bilimdon bo‘lib o‘sgan yo‘lovchi shahzoda Sfinksning “Qanday maxluq ertalab to‘rt, kunduz kuni ikki, kechasi uch oyoqlab yuradi?” - degan savoliga “odam” deb javob berganidan so‘ng, maxluq dengiz qa’riga tushib ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Bu voqeadan behad shodlangan fivaliklar yigitni hech ikkilanmay Fiva taxtiga o‘tqazishadi va unga Edip deb nom berishadi. Qadimiy odatlarga ko‘ra shoh Edip Layning xotiniga uylanadi.

Yillar o‘tib Fivada dahshatli vabo kasali tarqaladi. Kasallikka davo topilmaganligi sababli xalq ibodatxonaga murojaat qiladi. Ular avvalgi shoh Layning qotili topilgan kun bu balodan qutulish mumkinligini bashorat qilishadi. Ancha yillar oldin bu voqeadan xabardor bo‘lib, qochib qolgan soqchini topib haqiqatni bilib oladilar. Ming afsuski, Layning qotili shoh Edip bo‘lib chiqadi. Xizmatkor Edipning chaqaloqligidan tortib hozirgacha bo‘lgan voqeani saroy ahliga so‘zlab beradi. Bu mudhish voqeadan dahshatga tushgan malika ichkariga kirib ketadi. Shoh Edip o‘z onasiga uylanganligi va undan bir nechta farzand ko‘rganligini anglab, xotinining ortidan boradi. Ne ko‘z bilan ko‘rsinki, u o‘zini osib qo‘ygan edi. U sarosimada onasining yoqasidagi to‘g‘nag‘ichni olib, ikki ko‘zini sitib tashlaydi. Ikki ko‘zi so‘qir Edip xalqning va farzandlarining qahriga uchraydi. Shu tariqa shoh Edip fojiasi yakun topadi [3].

Tragediyani nafaqat o‘zbek, balki dunyo adabiyotshunos va faylasuflari tahlil qilgan desak adashmaymiz. Sofokl asarlari XIX-XX asrlarda o‘rganilgan. Gegel “Shoh Edip” asarini insoniyatning matriarxatdan patriarxatga o‘tish jarayonining o‘ziga xos ramzi deb baholadi. XIX asr mifshunosi Baxofen ham shu fikrni davom ettirib, “Edipning fojiasi uning onasiga-matriarxatga bo‘lgan muhabbatidir” degan. XX

asrning yirik faylasufi, ruhshunosi Freyd esa, Sofokl asarlaridan o‘z falsafiy qarashlari konsepsiyasini topdi. U hatto psixoanalitika faniga “Edip kompleksi”, “Edipokompleks” degan atamalarni kiritdi. Shoh Edip asari haqida Freyd shunday yozadi: “Shoh Edip” asari antik dunyo yunon tomoshabinini larzaga solishining asosiy sababi, e’tirof etilayotgandek, taqdiri azal bilan inson irodasi o‘rtasidagi to‘qnashuvdir. Edip kabi bizning ichimizda ham axloqqa qarshi mayl-istaklar mavjud va bu istak payti kelishi bilan asosiy istakka aylanishi mumkin. “Shu sababli, – deydi Freyd, – Edipning taqdiri – bu ilohiy hukm hodisasi emas, patologik hodisalar va bunday fojia har bir insonda sodir bo‘lishi mumkin”.

XX asrning mashhur faylasufi Erix From ham o‘z falsafiy konsepsiyasini asoslash uchun ko‘plab ustoz faylasuflar kabi “Shoh Edip” qismatida insoniyat taqdirini, tug‘ilishi, yuksalishi va inqirozi ramzini ko‘radi. U asardagi taqdiri azal hukmi shoh Edipning otasini o‘ldirib, bilmasdan onasiga uylanishi voqeasida emas, balki shoh Edipning o‘zida yashirinligini, ya’ni shoh Edip jamiyatdagi yashash uchun kurashayotgan inson obrazi sifatida namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi. Shoh Edip haqidagi afsona bilan, albatta, bugungi kun nazariyasidagi axloqiy qarashlar mos kelishi qiyin. Shu sababdan ham bu asar kuchli psixologizm bilan yozilgan asar hisoblanadi. “Shoh Edip” bu – taqdirning ilohiyligi va uning muqarrarligi haqidagi asrlar davomida sharaflangan haqiqatning so‘nmas ifodasidir.

Sofokl juda kuchli mahoratga egaki, uning tragediyalarini o‘qigan kishi asardagi syujet ichiga tushib qoladi, fojiadagi voqealar kitobxonni hislar girdobiga tashlaydi, fikr va tuyg‘ularni poklashga, hayot haqida o‘ylashga undaydi. “Shoh Edip” dagi voqealar qamchalik dahshatli bo‘lsa ham, hamma vaqt kuchli, yorqin taassurot qoldirib, insoniyatning yangi davr sahnalaridan tushmaydi [4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Qosimov A., Xo‘jayev S. Jahon adabiyoti. – Farg‘ona: 2016. 72-bet.
2. Tursunboyev S. Jahon teatri tarixi. – T.: 2017. 13-14-bet.
3. Boynazarov F. Jahon adabiyoti. – T.: Musiqa, 2006. 13-14-bet.
4. Sofokl. Shoh Edip. – T.: G‘afur G‘ulom, 1979. 76-bet.

XORAZMSHOH OTSIZNING SALJUQIYLAR SULTONI SANJAR BILAN OLIB BORGAN SIYOSATI

Allanazarov Shoxruxbek Farxodovich
UrGPI Tarix va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi
Egamberganova Rayhonoy Oybek qizi
UrGPI Filologiya va tarix fakulteti I bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorazmshoh Otsizning hokimiyatga kelishidan boshlab, uning Saljuqiylar sultoni Sanjar bilan olib borgan siyosati keltiriladi. Asosan ikki buyuk hukmdorning nizolashuvi, bu nizoning qanday kelib chiqqani va natijalari yoritib beriladi.

Abstract. This article presents the rise to power of Khwarazmshah Atsiz and his political dealings with the Seljuk Sultan Sanjar. It mainly focuses on the conflict between these two great rulers, how it emerged, and its consequences.

Аннотация. В данной статье рассматривается приход к власти хорезмшаха Атсыз, а также его политика в отношении султана Сельджукидов Санджара. В основном освещается конфликт между двумя великими правителями, причины этого противостояния и его последствия.

Kalit so‘zlar: Xorazmshoh, sulton, qal’a, Otsiz, ruboiy, savgandnoma, Vatvot, Shin-Jong, shayx-shamoyil, matla’li qasida, mulhidlar.

Keywords: Kkhwarezm Shah, sultan, castle, Atsiz, rubai, document, Vatvot, Shin-Jong, shaykh-shamuil, in the Matla, heretics.

Ключевые слова: Хорезмшах, султан крепост,ь Атсыз, рубаи, письменный акт, Ватвот, Шин-Джон, шейх-шамиль, в матла, еретики.

Xorazmshoh Otsiz Qutbiddin Muhammadning o‘g‘li. Otasi Qutbiddin Muhammad 30 yil davomida Xorazmda hukmronlik qildi. U 1227-yil vafotigacha Saljuqiylar sultoni Sanjarga sodiq fuqaroligini izhor qilib, sulton xazinasiga xiroj, o‘lponlarni o‘z vaqtida to‘lab turdi (bu xirojlarni Qutbiddin Muhammad o‘zi yoki o‘g‘li Alouddin Muhammad Otsiz orqali yetkazib berar edi.). Bu bilan Xorazmshoh sulton Sanjarning oliy hukmdorligini e’tirof qilardi. Shu sadoqati uchun ham, Sulton Sanjar Xorazmshoh Qutbiddin Muhammadning vafotidan so‘ng Xorazmshohlar toj-u taxtini uning o‘g‘li Al-Malik Abu Muzaffar Alouddin Jaloliddin Otsizga topshirdi.

Alouddin Otsiz otasining taxtiga o‘tirganda 29 yoshda edi. U ham, otasiga o‘xshab, Sulton Sanjarning poytaxti bo‘lgan Marvda yaxshi ta’lim olgan edi. Otsiz musulmonlar podshohiga xos islom diniga, ilohiyot olimlariga homiylik qilishdan tashqari, turli fanlar va san’at ahlini qadrlar, o‘zi ham forscha qasida va ruboiylar yozar, juda ko‘p buyuk shoirlarning baytlarini yoddan bilar edi. U Xorazm aholisiga g‘amxo‘r adolatli podshohlik qildi. Bir manbada aytilishicha, fuqarolar Xorazmshoh Otsizni yaxshi ko‘rar, uning zamonida fuqarolar xavf-xatardan mutlaqo holi, tinchlik va osoyishtalikda, adolatda yashadi. Alouddin Otsiz jasur sarkarda edi, janglarda tolei kulib boqar, Sulton Sanjar xizmatida juda ko‘p g‘alabalarga erishgan edi [1].

Otsiz Xorazmshohlar davlatining ilk tamal toshini qo‘yishga g‘ayrat qilishi va bu tashabbusini Sulton Sanjar kabi tarixning hurmatli bir hukmdoriga qaramasdan amalga oshirishga harakat qilishi jihatidan diqqatga loyiqdir. Bu e’tibor bilan uning iqtidori

davri ikkita jihatni ko‘rsatadi: birinchisi, Sanjarga sadoqat bilan tobe’lik davri, ikkinchisi unga qarshi isyon ko‘targan va voqea hodisalarning borishiga va ahamiyatiga ko‘ra zarurat bo‘lganda egilishlar, hurmat ko‘rsatishlar va chekinishlar bilan birgalikda, turli taxlikalarga qat’iyat bilan ko‘ksini kerib xatti-harakatida sabot ko‘rsatgan davri.

Manbalarimizda 1135-yilgacha davom etgan ilk davrda Xorazmda juda ahamiyatli voqea ko‘zga tashlanmaydi. Bunga muqobil, Otsiz bilan aloqador bo‘lib, Sulton Sanjarning 1130-yilda Movarounnahrni butunlay o‘z hokimiyati ostiga olgan safari bilan 1132-yilda Iroq sultoni Ma’sudga qarshi harakati zikr qilinishi lozimdir. Bu ikkinchi safarda Sulton Sanjar bilan birgalikda boshqa bir nechta qo‘mondon yonida, Xuroson qo‘shinining chap qanotini tashkil qilgan Otsiz har ikki jangda ham xizmat ko‘rsatdi va shu tarzda “Jahonkusho” muallifining izohlashiga ko‘ra, ”Jasorat va qahramonlikda o‘xshashlaridan ustun” ekanligini isbotlagan edi.

Otsizning Saljuqiy imperatorligi manfaatlariga ko‘rsatgan g‘ayrat-shijoatlari sultonning nazdida uning nufuzini, obro‘-e’tiborini orttirayotganligi tufayli davlat arkoni va umaroning hasadlari qo‘zg‘aldi. Otsizning obro‘sini to‘kishga qaratilgan yolg‘on, tuhmat gap-so‘zlar boshlandi. Raqiblarning hasad tuyg‘ularini kuchaytirgan, oshirgan eng muhim omil sifatida Sanjarning 1130-yil Movarounnahr yurishida Buxoro atrofida birov paytida sultonni muhofaza qilishga ma’mur bo‘lgan kishilar tomonidan Sanjarga qarshi tuzilgan suiqasddan nozik, qaltis bir paytda fosh qilishi va shu sababli uning sulton nazarida mislsiz hurmat e’tibor qozonishi zikr qilinadi [2].

Buyuk sulton Sanjarning saroyida Xorazmshoh Otsizning nufuzi shu qadar oshib kettiki, buni ko‘rolmagan malikalar va amirlar Otsiz atrofida turli ig‘volar to‘qib, sulton bilan uning orasini buzishga urindilar. Sulton Sanjarning muomalasi o‘zgarganini Otsiz ham sezib turardi. Bu narsa ayniqsa G‘aznaviylar podshohi Bahrom shohning Sulton Sanjarga qarshi isyoni vaqtida (hijriy 529-yil - milodiy 1135-yil iyul-avgust) yaqqol sezildi.

Xorazmshoh Otsiz Sulton Sanjarga 10 yil mobaynida (1128-1138) ixlos va sadoqat bilan xizmat qildi, u bilan urush qilishni yo farmonga qarshi chiqishni hayoliga ham keltirmagan edi. Xorazmshoh o‘z mamlakati ichkarisini va chegaralarini mustahkamlab, kuch to‘plashga kirishdi. Yetarli kuch to‘plab olgach, sultonga qaramlikdan qutilish, mustaqillikni qo‘lga kiritish vaqti keldi, deb hisobladi. U o‘z saroyida amir-u ulamolarni yig‘ib, “Bundan buyon sulton Sanjarga bo‘ysunmasligini” ma’lum qildi. A’yonlari uning bu maqsadini ma’qullashgach, Xorazmshoh ishga kirishdi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek o‘n yil mobaynida sadoqat bilan xizmat qildi; so‘ngra 1138-yili Mang‘ishloqni va Sirdaryoning quyi havzasidagi Jand shahrini bosib oldi. Sulton Sanjar bu harakatdan g‘azablanib Xorazmga qo‘shin tortmoqchi bo‘lganda, Otsiz kuchiga ko‘zi yetmay, qilgan gunohi uchun uzr so‘rashga majbur bo‘ldi. Lekin ko‘p o‘tmay Otsiz yangi yurishni boshladi. U 1139-yil Buxoroni egalladi. Biroq Sulton Sanjar bu yurishga qarshi chora ko‘ra olmadi.

Xorazmshohning bu yurishini va Buxoroni bosib olishini Sulton Sanjarning Xorazmga yurishi va Otsizning o‘g‘li Otliqni o‘ldirilganligi uchun o‘ch olish deb baholash mumkin. Sulton Sanjar ham bu voqealarni shunday deb tushindi va

Xorazmshohga qarshi jazo choralarini qo‘llamadi. Sulton Sanjarning isyonkor noibiga qattiq choralar ko‘rmaganiga yana bir sabab – Movarounnahrni qoraxitoylar asta – sekin egallab, uning g‘arbiy qismiga yaqinlashmoqda edi. Ular Shin – Jong (Sharqiy Turkiston)dan g‘arbga va shimoli-g‘arbga bostirib kelayotgan edilar. O‘z navbatida Xorazmshoh ham qoraxitoylardan omon qolish uchun Sulton Sanjarga tobelik izhor qilib, shu maqsadda Xorazmshoh hijriy 535-yilning shavvol (1141-yil may) oyida Sulton Sanjarga tobe’lik va sadoqat izhor qilib savgandnoma jo‘natdi.

Sulton Sanjar 1141-yilda Samarqanda yaqinida qoraxitoylar bilan bo‘lgan jiddiy jangda mag‘lubiyatga uchradi va Movarounnahr qoraxitoylar qo‘liga o‘tadi. “…Sultonning o‘zi olti navkari bilan arang qochib qutildi”. Bu hol Saljuqiylar davlatining zavolini tezlashtirdi.

Buyuk sultonning tor-mor etilishi Saljuqiylarning Sharq mamlakatlaridagi obro‘sini butunlay tushirib yubordi. Bu vaziyatdan foydalangan Xorazmshoh Otsiz shu yilning o‘zida mulklarini kengaytirish maqsadida hijriy 536-yil rabiul-avval oyi (1141-yil oktyabr) boshlarida Xurosonga bostirib kirdi va Saraxsni jangsiz egalladi…Shu rabiul-avval oyining 17-kuni (1141-yil 21-oktyabrda) sultonning (o‘z ishlari bilan) ovoraligidan foydalanib, sultonning poytaxti Marvni kuch bilan egalladi [3].

Xorazmshoh Otsiz Marvda ko‘p sonli odamlarni o‘ldirib, shaharni talon-taroj qilganidan keyin Xorazmga qaytdi. O‘sha kunlarda Hakim Katton bilan Rashididdin Vatvot orasidagi yozishmalardan biri bugun qo‘limizdadir. Bu yozishmalardan birida quyidagi gaplar keltirilgan edi:

“…Sizga murojat qilaman, ey hurmatga loyiq zot, sizni qiyomat kunida qoldiradigan bunday bo‘hton gap-so‘zlardan saqlaning va Allohdan qo‘rqing. Alloh qiyomat kunida ayblilarni achinarli holda qoldirib, aybsizlarni esa mukofotlantiradi.

Alvido, ey hurmatli janob!”

Sulton Sanjarning iltifoti Otsizning o‘ziga ishonchini orttirdi va kibrlanishiga sabab bo‘ldi. Uning bu ahvoli haqida Rashididdin Vatvotning quyidagi matla’li qasidasi bor: [Sulton Otsiz mamalakat taxtiga o‘tirgach, saljuqli sulolasi va davlati tamom bo‘ldi].

Sulton Sanjar Otsizdan uning odobsizlarcha qilgan xatti-harakatining qasdini olish va uni dunyodan yo‘qotish uchun Xorazmga yurish qildi. Shahar darvozasiga kelguncha manjaniqlarni joylashtirib, jang bayrog‘ini tikishga qaror berdi. Uning Xorazmga kirish ehtimolini anglagan Otsiz Sulton Sanjar va amirlarga qimmatli hadyalar yuborganligi tufayli sulton yumshadi. Unga qarshi urushni to‘xtatib, orqaga qaytdi. Lekin qarshi chiqish fikri Otsizning boshidan ketmadi. Sulton Sanjar Alib Sobirni elchi sifatida Otsizning yoniga yubordi. Alib Sobir Xorazmda qoldi. Uning Xorazmda bo‘lgan vaqtida Otsiz mulxid*1lar qilganlaridek, Xorazmning ko‘cha toifasidan ikki kishini aldab, ularni sotib oldi.

Ularga ko‘p miqdorda pul berib, sultonni o‘ldirish uchun saroyga yo‘lladi. Alib Sobir bundan xabardor bo‘lgach, u ikki yollangan kishilarning shakl-shamoyillarini qog‘ozga yozib, qari xotinning oyoq kiyimlariga yashirib, Marvga yubordi. Maktubni olgan sulton o‘sha odamlarni izlashga amr qildi. O‘sha ikki kishini topib, ularni

[1] Mulhid – qasddan zulmga moyil bo‘lish ma’nosini anglatadi.

jahannamga yubordilar. Alib Sobirning bu voqeadan xabari borligini bilgan Otsiz uni Jayhun daryosida cho‘ktirdi.

Sulton Sanjar 542-yilning jumadiloxir (1147-yil oktyabr-noyabr) oylarida takror Xorazmga yurish qilgan. Hazorasp qal’asini ikki oy qamal qildi va ming bir qiyinchiliklar bilan Hazoraspni oladi.

Sulton Sanjar Xorazm darvozalariga borgach Oxpush ismli zohid sultonning huzuriga keldi va unga bergan go‘zal o‘gitlari tufayli sulton shahar xalqini avf etdi. O‘sha orada Otsiz bir elchi orqali qimmatbaho sovg‘alar yuborib, undan uzr so‘radi. Avf va marhamat tomirlari kengaygan sulton uchinchi marta uni avf etdi. Kechirilish shartlaridan biri Otsizning Jayhun sohiliga kelgan har kimning sirlaridan voqif bo‘lib, uni sultonga yetkazib turish edi. 573-yil muxarram oyining 12 (1148-yil 2-iyun) dushanba kuni Otsiz belgilangan joyga kelib, otidan tushmasdan turib Sulton Sanjarga itoat etishini bildirdi va sulton ketmasidanoq u yerni tark etdi. Sulton Sanjar Otsizning bu hurmatsizligidan g‘azablansada, avval uni avf etgani uchun g‘azabini ichiga yutdi va hech kimga indamadi.

Sulton Sanjar Xurosonga borgach, hadya va iltifotlarni olib ketish uchun Otsizga bir elchi yubordi. Elchiga juda yaxshi munosabatda bo‘lib, Otsiz uni shu tarzda kuzatishga harakat qildi. Keyinchalik Otsiz bir necha marta kofirlar bilan jang qilishga ketdi va g‘alaba bilan qaytib keldi.

Otsizning Jandni olgan yili o‘g‘uzlar Sulton Sanjarni yengib, uni kunduzi taxtga o‘tqazib, kechasi temir qafasga solib qo‘yadilar. Buni mamlakatni qo‘lga kiritish uchun qulay fursat deb bilgan Otsiz sulton Sanjarning haqqini olish bahonasida butun qo‘shinni to‘plab, Amuyaga qarab yurdi. Amuyaga borgach qal’ani urush qilmasdan qo‘lga kiritishni istadi. Lekin uning istagini qal’a qo‘mondoni rad etadi, Otsiz esa sulton Sanjarga bir elchi yuborib, unga tobeligini bildirdi va undan yordam so‘raydi, ammo Otsiz Amuyaga hujum qilishdan voz kechib Xorazmga qaytib kelib, kofirlarga qarshi jang boshladi.

Otsiz Hobushon qal’asidagi ziyofatdan qisqa vaqt o‘tgandan keyin, hastalanadi. Hastaligi borgan sari tobora orta boshladi vanihoyat 551-yil jumadiloxir oyining 9 (1156-yil 30-iyul) kuni kechasi hayot bilan vidolashdi. Shu tarzda uning g‘ururi, kibri va xudbinligi ham tuproqqa ko‘mildi. Rashididdin Vatvot janozasining boshida uzoq yig‘ladi. Uni qo‘li bilan ko‘rsatib shunday dedi. She’r: [Ey shox, osmon ham sening berajak jazongdan zir-zir titraydi va oldingda qo‘l qovushtirib turadi. Bu mamlakatni boshqara oladigan sendan ko‘ra tadbirliroq kim bor?] Uning o‘lim xabarini to‘rt kundan keyin ma’lum qiladilar.

552-yil rabiyulavval oyining 26 (1157-yil 8-may) kuni Sulton Sanjar ham qazo qildi. Bu xabar Xorazmga yetib borgach, Xorazmliklar uch kun aza tutadilar [4].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Xorazmshoh Otsiz va saljuqiy sulton Sanjarning o‘rtasidagi munosabatlar dastavval yaxshi bo‘lishiga qaramay nizoning kelib chiqishiga asosiy sabab saljuqiylar davlati amaldorlarining sulton Sanjarni Otsizga qarshi gijgijlashi deb aytsak bo‘ladi. Chunki Otsizning sulton Sanjarga sadoqat bilan xizmat qilishi natijasida ortib borayotgan nufuzi ularga yoqmas edi. 1138-yildan boshlangan nizolashuv to Otsizning vafotigacha davom etgan deb bemalol aytsak bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Буниёдов З. Ануштагин Хоразмшоҳлар давлати. – Тошкент: “Гафур Гулам,” 1998. – Б. 9-10.

2. Иброҳим Қафес ўғли. Хоразмшоҳлар давлати тарихи. – Тошкент: “Navro‘z”, 2016. – Б. 49-50.

3. Сабурова С. Ануштагин – Хоразмшохлар даврида Хоразм. – Тошкент: 2008. – Б. 35-36.

4. Жувайний. Тарихи жахонгушо. – Тошкент: “Mumtoz so‘z”, 2015. – Б. 277-283.

V-XI ASRLARDA XORAZM VOHASIDA HUNARMANDCHILIK TARMOQLARI VA ULARNING ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR NATIJASIDA O‘RGANILISHI

Matyakubova Shahodat Xamidjanovna
Ranch texnologiya universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm vohasida V-XI asrlarda hunarmandchilik tarmoqlari paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi arxeologik tadqiqotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Tuproqqal’a, Afrig‘iylar, Katqal’a, Teshikqal’a, Yakka-Parson.

Аннотация. В данной статье на основе археологических исследований анализируется история возникновения и развития ремесленных отраслей в Хорезмском оазисе в V-XI веках.

Ключевые слова: Тупроккала, Африги, Каткала, Тешиккала, Якка-Парсон.

Abstract. This article analyzes the history of the emergence and development of crafts in the Khorezm oasis in the 5th-11th centuries based on archaeological research.

Keywords: Tuproqqala, Afrighids, Katqal'a, Teshikqal'a, Yakka-Parson.

Xorazm davlatida milodiy V-VI asrlarda shaharlarda hunarmandchilik, ayniqsa sopol ishlab chiqarish inqrozga uchragan. Bu olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlari natijasida Tuproqqal’a yodgorligini o‘rganish asosida aniqlangan. Sopol idishlar ko‘pol bo‘lib, qo‘lda ishlangan, uning loyi tarkibida ham turli qo‘shimchalar bo‘lgan.

1937-yilda Teshik-qal’ada olib borgan tadqiqot ishlari natijasida Afrig‘iylar hukmronligi davrida Xorazmning moddiy madaniyatini yoritishga imkon bergan. Afrig‘iylar davrida sopol ishlab chiqarish texnikasi antik davrdan tubdan farq qilgan. Tadqiqotlar jarayonida uni ikkita bosqichga ajratishgan:

1. Teshik – qal’a ko‘shkining quyi qatlamidan topilgan. Uning sopol idishlari.

2. Tuproqqal’a yodgorligining quyi bosqichidagi sopol idishlarga o‘xshash bo‘lgan. Tadqiqotchilar uni milodiy VI asr bilan belgilash mumkin deb ko‘rsatishgan. Bu davrga oid sopol idishlar asosan №1 xonadan topilgan [1].

3. Ko‘shkning yuqori qatlamidan topilgan. Asosan №4 xonadan topilgan va bu sopol idishlar №36 raqam bilan belgilangan qo‘rg‘on topilmalari bilan ham o‘hshash bo‘lgan. Tadqiqotchilar shu asosda va tangalar asosida uni VIII asr bilan davrlashtirganlar.

Afrig‘iylar davri sopol idishlari ishlanish jihatdan ikki guruhga ajratilgan: 1. Charxda ishlangan sopol buyumlar. 2. Qo‘lda qo‘pol tarzda ishlangan sopol idishlar.

Afrig‘iylar davri sopol buyumlari antik davrga nisbatan ishlanish jihatdan ham loyining tarkibi jihatdan ham sifati pastligi bilan farq qilgan. Ilk o‘rta asrlarda keng tarqalgan sopol idish charxda ishlangan suv solinadigan ko‘zalar bo‘lgan. Ular tuxumsimon ko‘rinishda bo‘lib, pastki qismi tor bo‘lgan, devorlari qavariq, bo‘yin qismi past, ba’zan tor, ba’zan keng qilib ishlangan, gardishi esa, kesmasida uchburchak shaklda bo‘lgan. Tutqichi keng, tekis bo‘lib, pastdan tepaga qarab kengayib ketgan. Sopol idishlarining ranggi to‘q sarg‘ish – jigarrang bo‘lib, yuza qismi ham shunday rangda bo‘lgan. Sopol buyumlarda angob yoki biror bir rang ishlatilmagan. Xumlarni tayyorlashda ishlatiladigan loylarida mayda toshlar va sopol siniqlar bo‘lgan. Dastlabki

davrlarda xumlar yaxshi, bir tekis pishirilmagan, singan xumlarning devorida qora chiziq ko‘rinib turgan. Afrig‘iylar hukmronligining dastlabki davrlarida xumlarning gardishi qo‘lda ishlanib, burma holda tashqariga ko‘proq qayilib chiqarilgan holda va gardish bo‘ylab ikki qator bo‘rtib turgan gorizontal chiziqlari bo‘lgan. Bu davr xumlarining bo‘ynida aylanma tarzda ikki qator qovurg‘asimon bo‘rtiqlar bo‘lgan. Undan ham oldingilarida bo‘rtiqlarning usti yoki ostida to‘lqinsimon chiziqlar bo‘lgan. Yodgorlikning so‘nggi bosqichida xumlardagi bunday bezaklar yo‘qolib ketgan. Xumlarning qorin qismlari chiziqli-to‘lqinli bezaklar bilan qoplangan [2].

VII-IX asrlarga oid xumlarning ishlanish uslubida o‘zgarishlar kuzatilgan. Ular tekis ishlangan, loyida turli xil qo‘shimchalar bo‘lmagan va pishirish jarayoni ham bir xil kechgan. Yuzasi silliq bo‘lib, oqish rangli bo‘lgan. Hajm jihatdan katta bo‘lib, xech qanday bezak berilmagan. Gardishlari kesmada oval shaklida bo‘lib, pastki qismi ikki qator barmoq izlari tushirilgan shaklda yoki chuqur qiyali teshikchalar shaklida bezak berilgan. Xumlar tuxumsimon shaklda bo‘lib, ostki qismi biroz bo‘rtib chiqqan, yelka qismi bilan silindirik bo‘yin qismi o‘rtasi aniq egilgan burchak asosida biriktirilgan.

Qo‘lda ishlangan sopol idishlar charxda ishlangan sopol idishlarga nisbatan ko‘pchilikni tashkil qiladi. Qo‘lda qo‘pol tarzda asosan, qozonlar, qora - jigarrang rangdagi tuvaklar ishlangan.

Chap qirg‘oq Katqal’adan asosan yirik xumlar, xumchalar, oshxona va o‘choqboshi idishlari topilgan. Xumlarning g‘ardishi oval shaklida bo‘lib, bo‘g‘iz qismi baland, gavdasi keng qilib ishlangan. Gardishi bo‘rtiq chiziqlar bilan aylantirilgan bo‘lib, barmoq bosimi yordamida ikki qator qilib ishlangan. Xumlarning loy tarkibiga mayda shag‘al va gips qo‘shib ishlangan. Xumning yuzasida mayda g‘ovoklar bo‘lib, usti qo‘ng‘ir -yashil tusda bo‘lgan. Xumlarning loyiga yaxshi ishlov berilmasdan ishlangan. Bunday xumlar Xorazm vohasining VII-VIII asrlarga oid xumlariga o‘xshaydi [3].

Xumchalarning loy tarkibida ham ko‘plab qo‘shimchalar bo‘lib, loy tarkibi sifatli bo‘lmagan. Baland, keng bo‘g‘izli bo‘lib, gardishi yirik yarim oval bo‘ltiq chiziqlar bilan aylantirilgan. Xumchalarning yuza qismi kulrang yoki yashimtir angob bilan bo‘yalgan. Bunday xumlar Xorazmning V-VIII asrlariga oid.

Ilk o‘rta asrlarda xurmasimon idishlar ham bo‘lgan. Ular ikki turda bo‘lib, gardishi manjetsimon, ikki bo‘rtiq chiziqli ichkariga qayirligan va bankasimon shaklda bo‘lgan. Ikkinchi turida gardishi deyarli bo‘yinga ega bo‘lmagan sferik shakldagi turi hisoblanadi. U uchburchak-ovalsimon shaklga ega bo‘lgan. Ko‘zalari baland bo‘g‘izli bo‘lib, ovalsimon shaklda bo‘lgan. Uning loyining sifati yaxshi bo‘lib, loy tarkibida gips aralashtirgan. Ko‘zalar to‘q sariq rangdagi angob bilan bo‘yalgan. Bunday ko‘zalar VII-VIII asrlarga oid bo‘lgan [4].

Ilk o‘rta asrlarga oid yirik idishlardan biri yana tog‘ora bo‘lib, u konus shakliga ega, ichki qismi chuqur va katta. Gardishi bo‘ylab barmoq bosimi yordamida bezak berilgan. Loyining tarkibida gips, shag‘al qo‘shilgan. Tog‘oraning tashqi tomoni to‘q sariq rang bo‘yalgan. Bunday tog‘oralar Xorazmda so‘nggi antik davrda paydo bo‘lgan bo‘lib, milodiy III,VI-VIII, IX asrlarga oid yodgorliklardan ham topilgan.

Ilk o‘rta asrda shish shaklida yopishtirilib ishlangan kichik hajmdagi idishlar ham topilgan. Bu bezak antropomorf bezak turi bo‘lib, tadqiqotchilar ayollar ko‘kragiga

nisbat berishgan deb ko‘rsatishadi. Bunday bezaklar mahalliy aholi tilida “chicha”, “beshak” deb nomlangan.

Teshik-qal’aning hovlisidan yirik temirdan ishlangan uchparakli chereshkali o‘q uchlari topilgan. Afrig‘iylar davrida o‘q uchlar faqat bronzadan emas, temirdan ham ishlangan. Bu davrda don yantishda yorg‘uchoqlardan emas, balki qo‘lda aylanadigan tegirmonlardan foydalanganlar [5].

Teshik qal’adan nihoyatda ko‘p sopol siniqlari topilgan. Bular antik davr sopol idishlaridan tubdan farq qilgan. Xumlar ham o‘ziga xos tarzda ishlangan. Uning gardishi qiya tarzda ishlangan bo‘rtmalar bilan bezatilgan. Juda ko‘p suv olib kelinadigan idishlar topilgan. Ularning osti kichik bo‘lib, qorin qismi do‘ng bo‘lib chiqqan, dastasi yuqoriga qarab kengaytirilib ishlangan. Xo‘jalikda ishlatilgan sopol idishlar ham ko‘plab topilgan, ularning aksariat qismi charxsiz qo‘lda ishlangan.

S.P.Tolstov tomonidan matoning ko‘plab kichik parchalari, ikkita yog‘ochdan ishlangan taroq, suyakdan ishlangan belbog‘ to‘g‘nog‘ichi, o‘yib ishlangan plastinkaning bir bo‘lagi, bolalar o‘yinchog‘i, qo‘yning haykalchasi, mis uzuk va munchoqlar topilgan.

Tadqiqotchilar ilk o‘rta asrlarga oid yodgorliklardan gazlama qoldiqlarini topishgan. Bu esa, hududda to‘qimachilik hunarmandchiligi ham bo‘lganligini ko‘rsatadi. Ipak mato qoldig‘i qam topilgan. Faqat sariq rangli ipak gazlama qoldig‘i aniqlangan. Gazlamalar yupqa va yaxshi sifatli paxtadan, jun va ipakdan tayyorlangan. Paxtadan tayyorlangan gazlamalar ko‘plab aniqlangan. Ular bugungi kunda gazlamalardan deyarli farq qilmagan, bunday paxtadan ishlangan gazlama qoldig‘i Mug‘ tog‘idan ham topilgan. Bu esa, ilk o‘rta asrlarda gazlama tayyorlashda hududlar o‘rtasida farqlar kam bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bunday gazlama turi “mato” deb nomlangan. U bir xil yoki turli xil qalinlikdagi iplardan zich qilib to‘qiladi. To‘qilish uslubi oddiy bo‘lib, ko‘pincha oq rangdagi gazlamani to‘qishgan. Mato qoldiqlari Teshiqqal’adan va 36 raqamli qo‘rg‘ondan aniqlangan. U yerdan oq xalatning orasida jun mato qoldiqlari bilan birgalikda topilgan. Yakka Parsonning Dojondagi bir xonasidan ayollarning lozimining parchasi topilgan. Uning barcha qismi bir xil matodan tayyorlangan. Agar lozimning keyingi davrlardagi bichimiga e’tibor bersak, uning tepa tomoni boshqa gazlamadan pastki qismi sifatli, guldor bo‘lgan boshqa gazlamadan foydalangan holda tikilgan. Lekin ilk o‘rta asrlarda bunday uslub bo‘lmaganligi ko‘rishimiz mumkin. Gazlamaga gulni tushurishda gullari bo‘rttirib to‘qilgan. Bir xil gul butun gazlama bo‘ylab aniqlangan. Topilgan gazlamada qo‘y shohlari ramziy ravishda ishlangan [6].

Jun gazlamalarning bir necha turi aniqlangan. 1. Och va qoramtir iplar aralashmasi asosida zich to‘qilmagan gazlamalar. 2. Qalin ipdan tayyorlangan gazlamalar. 3. Bir xil rangli iplardan tayyorlangan gazlamalar bo‘lib, uning ipining tarkibida qalin iplar kam ishlatilgan. 4. Ikkita ipni bitta qilib to‘qilgan gazlamalar. 5. Bir xil ipdan ishlangan, lekin ular uch marta aylantirilib to‘qilgan. Jun gazlamalardan kiyimlar tikilgan. Ular ignaning izlari ham aniqlangan. Jundan gazlama to‘qishda ikki tomonida tishi bo‘lgan yog‘och taroqlardan ishlatishgan. Taroqni junni tarashda ishlatishgan. Xuddi shunday texnologiya bugungi kunda qo‘llaniladi. Jun taroq bilan

tarab tekis qilingach, to‘qiladi. Taroq 17x12 sm. hajmda bo‘lgan. Ular Teshikqal’a, Yakka-Parsondan topilgan [7].

Ilk o‘rta asrlarda hunarmanchilik va me’morchilik antik davrga nisbatan taraqqiy etmagan. Bu ayniqsa kulolchilik sohasida kuzatiladi. Bu birinchi navbatda yerga egalik munosabatlarining shakllanishi bo‘lsa, ikkinchi tomondan hududga tashqaridan bo‘lgan bosqinchilik yurishlari bilan bog‘lash mumkin. Yerga egalik munosabatlarining rivojlanishi dehqonlarning hunarmandchilik bilan shug‘ullanishlariga sabab bo‘ldi, bu esa hunarmandchilik mahsulotlarini o‘z ehtiyojlari uchun ishlab chiqarishgan. Bozor uchun xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarishga ehtiyoj bo‘lmagan. IX-XI asrlarga kelib, Xorazm davlatining iqtisodiy tararaqiyoti kuzatiladi. Bu jarayon esa, XII asrda mustaqil davlat tuzish uchun zamin hozirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Садуллаев Б. П. Чап қирғоқ Кат-қалъа Хоразмнинг қадимги ва ўрта асрлар шаҳри. – Б. 74.
2. Неразик Е.Е. Керамика Хорезма афригидского периода. – М. 1959. “Наука” – С. 236-239, рис. 1, 5; рис. 3, 2.
3. Неразик Е. Е. Сельские поселения Афригидского Хорезма. – М. 1966. “Наука”. – С. 98.
4. Рапопорт Ю. А., Незарик Е. Е., Левина Л. М. В низовьях Окса и Яксарта. Образцы древнего Приаралья. – Москва: Индирик, 2000. – С. 81.
5. Авесто. “Закон против дэвов”. (Видевдат). Адаптированный перевод, исследование и комментарии Ртвеладзе Э.В., Саидова А.Х., Абдуллаева Е.В. – СПб: Изд.Политехнического университета, 2008.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA XORAZMDA IJTIMOIY-MADANIY JARAYONLARNING BA’ZI MASALALARI

Allanazarov Sirojbek Bekchan o‘g‘li
Urganch davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazmda ijtimoiy-madaniy muassasalarning faoliyati, xorazmliklarning urush janggohlaridan ko‘chirib keltirilgan aholiga insonparvarlik yordami hamda aholini urushga da’vat va g‘alaba ruhida olib borilgan targ‘ibot-tashviqotlarning ayrim masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ikkinchi jahon urushi, Xorazm, teatr, maorif, maktab, yordam, spektakl, gazeta, Xorazm haqiqati, komsomolchilar, targ‘ibot, madaniy-oqartiruv.

Аннотация. В статье рассматриваются некоторые вопросы деятельности социально-культурных учреждений Хорезма в годы второй мировой войны, гуманитарная помощь, оказываемая хорезмийцами населению, эвакуированному с полей сражений, мобилизация населения на войну и пропаганда, проводимая в духе победы.

Ключевые слова: Второй мировой войны, Хорезм, театр, образование, школа, помощь, спектакль, газета, правда Хорезма, комсомольцы, пропаганда, культпросвет.

Abstract. This article covers some issues of the activities of socio-cultural institutions in Khorezm during the Second World War, humanitarian assistance to the population evacuated from the battlefields of Khorezm, and the propaganda campaign carried out in the spirit of calling the population to war and victory.

Keywords: World War II, Khorezm, theater, education, school, aid, performance, newspaper, the reality of Khorezm, Komsomol members, propaganda, cultural enlightenment.

1941-yilning 22-iyun kuni nemislar SSR hududiga bostirib kirdi. Dunyo aholisining beshdan to‘rt qismi qatnashgan Ikkinchi jahon urushi boshlangan paytda Xorazm viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati O‘zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan og‘ir ahvolda bo‘lib, sanoat sust rivojlangan, zamonaviy transport tizimiga deyarli ega bo‘lmagan. Ana shunday bir sharoitda viloyat o‘z iqtisodiyotini harbiy asosda qayta qurishi lozim edi. Bundan tashqari xususiy mulkchilikning tugatilishi va qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish siyosatining og‘ir oqibatlari va sovet hukumatining qatag‘onlik siyosatining ayanchli xotiralari hali ham xalqning yuragida saqlanib turgan bir vaqtda erkaklarning urushga jalb qilinishi va barcha narsaning harbiy izga solinishi vaziyatni yanada og‘irlashishiga olib keldi.

Sovet hukumati turli mitinglar, chaqiriqlar bilan janggohlarga ketgan erkaklar o‘rniga ayollarni jalb etishga zo‘r berib targ‘ibot qildi. Xorazm viloyatida ham urushning dastlabki kunlaridanoq ayollar mitinglar, korxona va idoralarda yig‘inlar uyushtirib, barchani bir safda turib, front uchun, frontda jang qilayotgan jangchilar uchun mehnat qilishga da’vat etdilar [7]. Xususan, 1941-yil 22-iyul kuni Urganch shahrida 3 mingdan ortiq kishi ishtirokida bo‘lib o‘tgan shahar mehnatkashlarining katta mitingida Xorazm xotin-qizlari g‘alaba uchun fidoiylarcha mehnat qilib, erkaklar o‘rnini egallashga chaqirildi. Shundan so‘ng, Xorazm viloyat paxta tozalash

zavodlariga 366 nafar xotin-qizlar jalb etilib, shulardan 141 nafari yangi kasbni o‘rganib, mutaxassis ishchiga aylandi. 1941-yil oxiriga kelib viloyat sanoat korxonalariga jalb qilingan xotin-qizlar soni 1213 nafarga yetdi [3, B. 14]. Sovet davlati bu jarayonlarga ham mafkuraviy tus berib, viloyatda butun sovet davlatida bo‘lganidek, staxanovchilik va o‘n besh mingchilar harakatlarini avj oldirib yubordi. 1941-yilning iyul-sentabr oylari davomida Xorazm viloyatida sanoat korxonalari va ishlab chiqarish artellariga 700 dan ortiq ayollar jalb qilindi. Ularning ko‘pchiligi “staxanovchi” ishchi sifatida belgilangan rejani ortig‘i bilan bajarganlar. Xullas viloyatda urushdan oldin deyarli mavjud bo‘lmagan sanoat sohalari yuzaga kelib, urush ehtiyojlari uchun eng muhim mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoat sohalari tashkil qilindi. 1943-yil oxiriga kelib Urganch korxonalarida 1300 ayol kishi ishlagan. Ularning 300 dan ortig‘i urushga ketgan turmush o‘rtoqlarining o‘rnini egallagan edi [6].

Komsomol tashkilotlari ham kolxozlarda siyosiy tashviqotlar bilan shug‘ullandilar. Aholini hamma narsa front uchun degan g‘oya asosida jipslashtirishga urindilar. Urush yillarida komsomolchilar turli devoriy gazetalar chiqarib, kolxoz klubini turli shiorlar bilan bezab turdilar[10]. Urushning birinchi yilida komsomolchi yoshlari to‘rt yakshanba kunini o‘tkazdilar, unda 68548 nafar yigit-qiz qatnashdi. Ular 490 ming rubldan ortiq ishlab, Mudofaa fondiga topshirdilar [5].

1942-yilning 3-yanvar kuni O‘zKP Markaziy komiteti byurosining “Ko‘chirib keltirilgan bolalarni joylashtirish to‘g‘risida Toshkent shahar xotin-qizlarining O‘zbekistondagi xotin-qizlarga murojaati haqida”gi qarori qabul qilinib, bu kabi muhim tadbirga katta ahamiyat berilishi ta’kidlandi. O‘zbek xalqi orasidan yetim qolgan bolalarni o‘ziga farzand qilib olgan yoki o‘z bolalari qatorida tarbiyasiga olgan minglarda odam topildi [8]. Xususan, Xorazm viloyati ham ko‘chirib keltirilgan bolalarni otaliqqa olish, ularni maktablarga joylashtirish tadbirlari amalga oshirildi. Birgina Hazorasp rayon komiteti ko‘chirib keltirilgan oilalarga har oyda 12 ming so‘mdan yordam ko‘rsatdi. Urganch shahar maktablariga 123 nafar, Gurlan rayon maktablariga 45 nafar, Mang‘it rayoni maktablariga 19 nafar bolalar joylashtirildi [9].

1942-yilning o‘zidayoq birigina Urganch shahridan urush o‘chog‘idan ko‘chirilgan 476 oilaga boshpana berildi. 447 nafar ko‘chib kelganlar zavod va fabrikalarga ishga joylashtirildi. Shahar soveti 71 ta oilaga 5393 so‘mlik moddiy yordam ko‘rsatdilar. Ko‘chirib keltirilgan bolalarning farzandlariga ham alohida g‘amxo‘rlik ko‘rsatilib, 37 nafar bolalar bog‘chalarga joylashtirildi [4].

Xiva tuman Toshyoq qishloq sovetidagi Orjonikidze nomli kolxoz ko‘chib kelgan 6 xo‘jalikni yangi joy bilan ta’minladi. Xiva tuman bo‘yicha jami 128 ko‘chirilgan aholiga yordam ko‘rsatildi. Gurlan tumanida esa ko‘chirilgan aholiga 6800 so‘mlik issiq kiyim bosh ajratildi. Xiva shahar maorifi xodimlari ko‘chirilgan bolalarning 16 nafarini maktabga, 6 nafar bolalar yaslilarga joylashtirildi [14]. Mang‘it rayonida ko‘chirilgan 71 oilaga 4075 so‘mlik issiq kiyim sotib olib berilgan, 78 xo‘jalikning uyi remont qilishgan va 141 kubometr o‘tin bilan ta’minlangan [15].

Maktablarda ham yoshlarni harbiy hayotga tayyorlash, o‘quvchilarni harbiy san’at sirlariga o‘rgatish ishlari olib borildi. Xususan, SSR Markaziy hukumati 1942-yilning 24-oktyabrda 1729-sonli qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq 1942-1943-

o‘quv yilidan boshlab to‘liqsiz o‘rta, o‘rta maktablar hamda texnikumlarning 5-10-sinf o‘quvchilari o‘rtasida dastlabki va chaqiruvgacha bo‘lgan harbiy tayyorgarlik joriy etildi [17]. Mazkur qarori yuzasidan O‘zbekiston SSR oblastlari kabi Xorazmda ham bir qator amaliy ishlar qilindi. Misol uchun Urganch shahridagi Kuybishev nomli maktabda qurol aslahalarning maketlari joylashtirilib, sovet armiyasi uchun rezerv xodimlar shakllantirila boshlandi.

Urush yillarida Xorazm oblasti bo‘yicha 1941-yilda maorif uchun 30456 ming, 1942-yilda 21968 so‘m, 1943-yilda 23347 so‘m, 1944-yilda 36049 so‘m sarflandi [1, B. 69].

Lenin nomli maktabning o‘quvchilari urush yillarida kolxozga 45000 tonna paxta yig‘ib topshirdilar. Mudofaa fondiga 500 kgdan ortiq rangli metall, 730 ta butilka, dori-darmon uchun 25 kgdan ortiq jiyda terib berdilar va urushga posilka jo‘natdilar. Bundan tashqari rus tili fani o‘qituvchi kolxoz bolalariga kuniga 3 soat qo‘shimcha rus tilini o‘rgatdi. Shuningdek, Onajon Atayeva ismli o‘qituvchi 30 ta, Yo‘ldashev 25 ta o‘quvchini savodli qilish uchun harakat qilib, o‘qitdi [12].

Urush yillarida maorif tizimida ayrim o‘zgarishlar amalga oshirildi. 1944-yilgacha o‘quvchilarning bilimi va xulqini baholashda qo‘llanib kelingan sotsialistik musobaqa usuli bekor qilinib, uning o‘rniga yangi besh ballik baholash tizimi joriy qilindi [1, B. 88].

1943-yildan boshlab ishchi yoshlarni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o‘qishga jalb qilish uchun kechki ishchi-yoshlar maktablari tashkil qilindi. Bu maktablarda zavod, fabrika, jamoa xo‘jaligi va boshqa sohalarda ishlayotgan juda ko‘plab yoshlar o‘qidilar [16, B. 155].

Mehmondo‘st va azaldan mehr-oqibatli bo‘lgan o‘zbek xalq urushdan zarar ko‘rgan SSSR hududlarini tiklash ishlariga o‘z hissasini qo‘shdi. Xususan, 1943-yil oxiriga kelib, ozod qilingan SSSR rayonlariga yordam tariqasida Xorazm viloyatidan 130 ta ot, 201 ta ho‘kiz, 1446 ta qo‘y, 675 ta echki va 7954 s don mahsulotlari yuborildi.

Urush yillarida viloyatda ikkita teatr (Urganch va Xivada) bir qancha truppa va havaskorlik to‘garaklari mavjud edi. Teatr va truppalarning repertuarlari urush mavzusi bilan almashtirildi. Bu teatrlarda “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Tohir va Zuhra”, “Arshin mol-olan” kabi spektakllar bilan birga urush mavzusidagi “O‘lim bosqinchilarga”, “Qasos”, “Jaloladdin” kabi spektakllar ham munosib o‘rin oldilar.

Viloyat musiqali drama teatri urush mavzusiga ham qo‘l urdi. Dramaturg Sobir Abdulla hamda shoir Chustiy tomonidan yaratilgan “Qurbon Umarov” nomli spektakl sahna yuzini ko‘rdi. Urush mavzusiga bag‘ishlangan ushbu spektaklda urushda jon bergan Qurbon Umarov hayoti aks ettirildi [13]. 1943-yilda Sobir Abdulla tomonidan “Tohir va Zuhra” spektakli sovet mafkurasiga moslab qayta ishlandi va Xorazm oblast teatrida sahnalashtirildi. Asarning namoyishi yuzasidan Xorazm haqiqati Egam Raxim qalamiga mansub maqolada Tohir va Zuhra pyessasi ular o‘rtasidagi sevgi-muhabbat muammosi xalqning razolatga qarshi haqiqat uchun yovdan qasos olish jihati bilan uzviy bog‘lanishi asarning davrimiz bilan hamohangligini yanada oshirgan [2].

Urush yillarida matbuotning roli yanada ko‘proq o‘sdi. Sovet hukumati matbuotdan urushga ilhomlantirish vositasi sifatida foydalandi. Gazetalarda Stalinning

dushman ustidan g‘alaba qozonishga yo‘l ochadigan ko‘rsatmalarini bajarishga chaqirish, mamlakat ichkarisidagi kolxozchi va ishchilarni fidokorona mehnat qilishga undash hayqiriqi yangradi. Urush yillarida Xorazmda oblast bo‘yicha “Xorazm haqiqati” gazetasi hamda oblastning Gurlan rayonida “Kolxozchilar ovozi”, Qo‘shko‘pir rayonida “Paxta uchun kurash”, Mang‘itda “Stalinchi”, Hazoraspda “Stalin yo‘li”, Xonqada “Qurilish”, Xivada “Kommunaga”, Shovotda “Shovot haqiqati” hamda Yangiariq rayonida “Lenin yo‘li” kabi gazetalar nashr etilib turdi [18]. Ularda asosan urush mavzusidagi maqolalar chop etilib, hamma narsa front uchun degan g‘oya ostida ish olib borildi. “Xorazm haqiqati” gazetasining urush yillaridagi sahifalarida frontdagi ahvol, jangchilarning qo‘lga kiritayotgan g‘alabalari yangrab turdi. Paxta dalalaridagi kolxoz va sovxozchilarning mashaqqatli mehnati va komsomolchi yoshlarning yordamlariga bag‘ishlangan maqolalar bilan gazeta sahifalari to‘ldirildi. Gazeta sahifalarida Said Nazarning “Mardlar qo‘shig‘i”, R. Rajabning “Ko‘klam”, “Chaqiriq”, Nurmat Yashinning “Qasos” kabi urushga chaqiriq she’rlari bosilib turdi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ikkinchi jahon urushi yillarida yoshlarni ishlab chiqarishdan ajratmasdan kechki ishchi yoshlar maktablarining tashkil etilishi urush harakatlari ketayotgan bir davrda ham ta’lim-tarbiya masalalari muhim ahamiyat kasb qilganligidan dalolat beradi. Ammo bu davrdagi yaratilgan asarlar va teatr sahna asarlari ham aynan hukmron partiya manfaatlari xizmat qilganligini bilan ajralib turadi.

Urush ziyolilarni ham sinovdan o‘tkazib, madaniy jarayonlar asosan urushga chaqiriq ruhida kechdi. Urush tufayli pedagoglarning ham urushga jalb etilishi maorif sohasida katta qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Билолов Г. Хоразм халқ маориф тараққийси. – Т.: Ўқитувчи, 1969.

2. Эгам Раҳим. Тоҳир ва Зуҳра – Хоразм саҳнасида // Хоразм ҳақиқати. 1944 йил, 23 август. №.165 (4735).

3. Jumaniyazova F. J. Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm xotin-qizlari hayoti va faoliyati // Tarix fanlari bo‘yicha diss. avtoref. – Urganch: 2024.

4. Кўчирилган аҳолига ҳартарафлама ғамхўрлик қиламиз // Хоразм ҳақиқати газетаси. 1942 йил, 1 январь. №1 (4009).

5. КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций к Плекумов ЦК.Изд. 8-е. 6. М., 1972, е.л. 118.

6. Муминова И. М. История Хорезма. С древнейших времен до наших дней. Под ред. акад. АН УзССР. Т., «Фан», 1976.

7. “Хорезмская правда”. 20 июля 1941 год. № 171.

8. Хоразм ҳақиқати газетаси. 1941 йил, 14 январь, №11 (4019).

9. Хоразм ҳақиқати газетаси. 1941 йил, 16 январь, №11 (4021).

10. Хоразм хақиқати газетаси, 1942 йил, 7 январь. №4 (4013).

XIVA XONLIGIDA MUKOFOTLASH TIZIMI TARIXI

Ashirov Bog‘ibek Marimboy o‘g‘li
UrDPI Filologiya va tarix fakulteti Tarix va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xiva xonligida mukofotlash tizimi tarixi, mukofotlash shakllari va uning o‘rganilish tarixi haqida so‘z yuritiladi. Maqolada Xiva xonligidagi mukofotlash tizimi, uning tarixiy shakllari hamda ahamiyati, Mukofotlash tizimi tarixiga bog‘liq ma’lumotlar bayon etilgan tarixiy asarlar tahlil qilinadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается деятельность история наградной системы в Хивинском ханстве, формы наград и история их изучения. В статье анализируется наградная система в Хивинском ханстве, ее исторические формы и значение, а также исторические труды, в которых приводятся сведения, связанные с историей наградной системы.

Abstract. This article discusses the history of the reward system in the Khiva Khanate, its forms of reward, and the history of its study. The article analyzes the reward system in the Khiva Khanate, its historical forms and significance, and historical works that provide information related to the history of the reward system.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, Mukofot, “Muhammad Rahimxon II Feruz, Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy, “Riyoz ud-davla”, Abulg‘oziy Bahodirxon, ‘‘Shajarayi tarokima’’, “Xorazm tarixi”

Ключевые слова: Хивинское ханство, Орден, «Мухаммад Рахимхан II Феруз», Муаммад Риза Эрниёзбек оглы Огахий, «Рияз уд-давла», Абулгази Баходирхан, «Шаджарайи тарокима», «История Хорезма»

Keywords: Khiva Khanate, Award, “Muhammad Rakhimkhan II Feruz, Muhammad Riza Erniyozbek oglu Ogahiy, “Riyaz ud-dawla”, Abulgazi Bahodirkhan, “Shajarayi tarokima”, “History of Khorezm”

“Mukofot – (arab. Taqdirlash, to‘lov, tovon puli) biron bir faoliyat sohasidagi alohida yutuqlar uchun rag‘batlantirish shakli, shuningdek, kishining o‘z foydali qilmishi, xatti harakati uchun qilingan sovg‘a tortiq ma’nolarini anglatadi” [1].

Kishilik jamiyati tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mamlakatning boshqaruv tizimini mustahkamlash, turli qatlam vakillarining alohida mehnatlarini e’tirof etish, ularni yanada faol va fidoyi bo‘lishga undash vositasi sifatida mukofotlash tizimi har bir davlat boshqaruvi sohasida o‘z o‘rniga ega tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

“Siyosiy tizim murakkab tuzilishga ega bo‘lib, u institutsional, g‘oyaviy, me’yoriy, kommunikativ, qadriyatli tarkibiy yo‘nalishlarni qamrab oladi. Mukofotlash tizimi yuqoridagi barcha yo‘nalishlar bilan uning davlat umumiy siyosatidagi egallaydigan o‘rnining muhimligini tasdiqlaydi. Zamonaviy mukofotlash tizimi davlat institutlari qatoriga kiritilib, mukofotlar davlat rahbarlari, qonunchilik yoki ijro hokimiyatining oliy organlari tomonidan ta’sis etiladi. Ular jamiyat hayotini tartibga soluvchi siyosiy normalar va axloqiy prinsiplarning shakllanishiga yordam beradi” [2].

Mukofotlash tizimi har bir davrda o‘ziga xos usullar bilan shakllanib borgan. Xususan, Markaziy Osiyo xonliklarida ham bu tizim umumiy o‘xshashlik va o‘ziga xosliklarga ega bo‘lgan. Markaziy Osiyoning o‘z davrida kuchli hamda boy tarixga ega davlatlaridan biri bo‘lgan Xiva xonligidagi mukofotlash tizimi bilan tanishadigan

bo‘lsak. Xonlikdagi mukofotlash tizimi davlat boshqaruvi va ijtimoiy tuzilmaning muhim qismi bo‘lib, ushbu tizimni o‘rganish O‘rta Osiyo tarixida xonliklarning qanday boshqarilganini va davlat bilan xalq o‘rtasidagi munosabatlar qanday shakllanganini aniqlashga yordam beradi. Mukofotlash tizimi o‘z zamonida davlat arboblari va harbiy rahbarlarning sodiqligini ta’minlash, siyosiy ittifoqlarni mustahkamlash va jamiyatni tartibga solish vositasi bo‘lgan. Xonlikdagi xizmatchilar, harbiylar, amaldorlar davlat oldidagi alohida xizmatlari uchun asosan pul, yer-suv, mol-mulk qimmatbaho buyumlar bilan bilan taqdirlanganlar. Xiva xonligida mukofotlash tizimining asosiy turlaridan biri yer-mulk in’omlari bilan taqdirlash edi. Yuqori martabali amaldorlar va harbiy sarkardalar o‘zlariga tegishli bo‘lgan yerlardan soliq yig‘ish va daromad olish huquqiga ega bo‘lganlar. Bu ularning davlatdagi mavqeyini mustahkamlab, iqtisodiy mustaqilligini ta’minlagan. “Farmoni vozibal-iz’on bila vaziri a’zom Muhammad Yoqub mehtar bila dasturi mukarram Otamurad qo‘shbegi riqobi soadatmaob mulozimatidag‘i barcha umaro va kubaro va arbobi sipohg‘a Ko‘hna Urganchdag‘i mamlakai podshohiydin har kimning o‘z holig‘a ko‘ra yer berib, umid va tamannolari mazrasin iltifoti xisravona sahobi qatoratidin serob va tarovatmaob qildilar” [3].

Xonlikdagi mukofot tizimining muhim qismi sovg‘alar bo‘lgan: qimmatbaho matolar, qurollar, otlar va zargarlik buyumlari. Bu buyumlar xonning minnatdorchiligi ifodasi bo‘lishi bilan birga, mukofotlangan shaxsning maqomini ham aks ettirgan. Rus elchilarning, jumladan, Xiva va Buxoroga yuborilgan diplomatik missiya rahbari N.Ignatyev yozib qoldirgan esdaliklarda diplomatik qabul va harbiy g‘alabalardan keyin bunday mukofotlar berilganligi haqida ma’lumotlar uchraydi. Mukofotlash tizimi nafaqat siyosiy va harbiy sohalarda, balki madaniy va ilmiy sohalarda ham rag‘batlantirish vositasi bo‘lgan. Jumladan, “Muhammad Rahimxon II Feruz (1864-1910) 1906-1907-yillarda Urganchda qizlar maktabini tashkil qilgan Xusayn Kushayevni bosh oyoq sarpo bilan taqdirlab, maktab uchun xazinadan mablag‘ ajratgan” [4]. Xiva xonligidagi olimlar, ulamolar va san’atkorlar o‘z asarlari uchun xon tomonidan berilgan moddiy va ma’naviy mukofotlardan bahramand bo‘lganlar.

Xiva xonligi mukofotlash tizimini o‘rganishda mahalliy va xorijiy olimlarning tarixiy asarlaridan keng foydalanish zarur. Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiyning “Riyoz ud-davla” (“Davlat ishlari”, 1825-1842), “Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar qaymog‘i”, 1846-1855), “Jom’e ul-voqeoti Sultoniy” (“Sultonlar voqealari to‘plami”, 1856-1865), “Gulshani davlat” (“Davlat gulshani”, 1865-1872), “Shohidi iqbol” (1872) asarlarida, shuningdek, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarayi turk” va “Shajarayi tarokima”, Muhammad Yusuf Bayoniyning “Xorazm tarixi”, “Shajarayi Xorazmshohiy”, Sayid Homid To‘ra Kamyobning “Tavorix ul- xavonin”, asarlarida xonlik tarixi haqida batafsil ma’lumotlar berib o‘tilgan. Bundan tashqari rus elchi va sayyohlari N.Muravyov, N.Ignatyev, N.I.Veselovskiy. XX asr boshida Xivaga tashrif buyurgan olim A.N.Samoylovich va sayohatchi V.G.Yanlarning esdaliklari va yozib qoldirgan ma’lumotlari muhim manba sanaladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Xiva xonligidagi mukofotlash tizimi tarixi o‘ziga xos va ko‘p qirrali mavzu bo‘lib, moddiy, mavqeiy va ma’muriy rag‘batlantirish usullarini o‘z ichiga olgan. Ushbu tizim xonlarga amaldorlar ustidan nazoratni saqlash va hokimiyat barqarorligini ta’minlash imkonini bergan. Xonlikdagi mukofotlash

tizimida foydalanilgan mexanizmlar qo‘shni Markaziy Osiyo davlatlarining, masalan, Buxoro va Qo‘qon xonliklarining tizimlariga o‘xshash va farqli jihatlari mavjud bo‘lgan deyish mumkin. Xiva xonligidagi mukofotlash tizimi tarixini, uning davlat boshqaruvidagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish Xiva xonligi siyosati va ijtimoiy tuzilishini tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006. – B. 337-338.

2. Розанов О.Н. наградные системы в политике и идеологии стран Северо-Восточной Азии. – Москва: Памятники исторической мысли, 2008. – С. 4.

3. Ogahiy Muhammad Rizo. Riyoz ud davla/ Nashrga tayyor. G‘.Karimov, Muxarrir S.Dolimov. – Toshkent, 1978. 6-jild. – B.22

4. Abdullayev D.N. O‘zbekistonda mukofotlash tizimining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. Toshkent: Bookmany print, 2022. – B. 87.

OLLOQULIXON XIVA XONLIGINING BUYUK BUNYODKORI

Djabborova Adolatxon Kazakbayevna
UrGPI Tarix va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi
Berdiyeva Shahodat Murodbek qizi
UrGPI Filologiya va tarix fakulteti tarix yo‘nalishi II kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xiva xonligining quruvchi islohotchi xoni Olloqulixonning dunyoga kelishi, taxtga o‘tirishi, xonlik obodonchiligiga qo‘shgan hissasi, uning davrida bo‘lgan bunyodkorlik ishlari, harbiy islohotlari haqidagi ma’lumotlar beriladi.

Аннотация. В данной статье собраны сведения о рождении строителя и реформатора Хивинского ханства хана Аллакули-хана, его восшествии на престол, его вкладе в развитие ханства, его творческих трудах и военных реформах.

Abstract. This article contains information about the birth of Ollaquli Khan, the builder and reformer of the Khiva Khanate, his accession to the throne, his contribution to the development of the khanate, the creative works and military reforms of his time.

Kalit so‘zlar: Muhammad Rahimxon 1, Ogahiy, “Riyoz ud-davla”, Olloqulixon, elchilik, harbiy isoha, Deshanqa’la, karvonsaroy, Toshhovli saroyi, tibbiyot, Hoziq, adabiyot.

Ключевые слова: Мухаммад Рахимхан I, Агахи, “Рияз уд-давла”, Аллакулихан, посольство, военная исоха, замок Дешан, каравансарай, дворец каменный двор, медицина, Назик, литература.

Keywords: Muhammad Rahimkhan I, Ogahiy, “Riyoz ud-davla”, Ollaqulikhan, embassy, military base, Deshan fortress, caravanserai, stone courtyard palace, medicine, Khozik, literature.

Olloqulixon o‘zbeklarning Qo‘ng‘irot urug‘idan bo‘lib shajarasi Muhammad Rahimxon I, Avazbiy inoq, Muhammad Amin inoq, Eshmuhammaddan iboratdir. “Riyoz ud-davlada” uning taxtga o‘tirishiga bag‘ishlangan sahifalar davlatchilik tarixida bunday voqealikning asrlar mobaynida tarkib topgan an’analarga rioya qilingan holda amalga oshirilib kelinganligi to‘g‘risida qimmatli boshqa manbalarda uchramaydigan ma’lumotlar beriladi.

Xiva arxiv hujjatlarida shuningdek Ogahiyning “Riyoz ud-davla” asarida ismi sharifi “Abul Muzaffar va al-Mansur Abulg‘oziy Olloquli Muhammad Bahodirxon” deb yuritilgan xon Olloqulixon nomi bilan tanilgan. Buyuk xon 1794-yil Xivada xonlar oilasida dunyoga kelgan [1].

Ma’rifatli Xiva xoni to‘g‘risida hattoki mashhur yozuvchi va shoir hisoblanmish Ogahiy ham o‘z asarlarida xon to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tgan Buyuk xonning padaribuzrukvori Muhammad Rahimxon I bo‘lib u (1806-1825) yillarda xonlikda hukmdor bo‘lgan.

Uning davrida ham ko‘pgina islohotlar qilingan bo‘lib Oliy kengash tuzilgan unda davlatning ichki va tashqi siyosat bilan bog‘liq davlat masalalari hal qilingan. Shuningdek, uning davrida xonlikning davlat ramzi bo‘lgan tilla pullar muomalaga

chiqarila boshlagan. Xonning muhriga “Muhammad Rahim oldida topsa joy, Umar tobe o‘lmasmu, iborasi naqsh qilib yozilgan ekan” [2].

“Muhammad Rahimxon I taqdir taqazosiga tan berib ul kecha qazosi yetgach, – deyiladi qo‘lyozmada, – Xorazm mamlakatining jami donishmandu ulug‘ va kattalari, mashhur va mehribon shahzodalari, qudratli va oliyjanob davlat arboblari jam bo‘lib kengashdilarkim, bu tartibga keltirib qo‘yilgan saltanatni, ya’ni dinu- davlat nizomi, mulk va millat maqomi kimga munosibdir. Kengash ahli maslahatlashib olganidan so‘ng barcha ulug‘lar ittifoq bilan xazrat Olloqulixonning aziz boshini xonlik tojini kiyishga loyiq deb topdilar va uning qobiliyatini hukumronlik qilishga muvofiq ko‘rib ul hazratning xizmatiga astoyidil bel bog‘laganliklarini izhor etdilar” [1].

Shu tariqa buyuk xon Olloqulixon 1825-yil otasi Muhammad Rahimxon I vafot etgach taxtga munosib ko‘riladi. Shu vaqtdan boshlab Xiva xonligida xalqqa foydali islohotlar obodonchilik va bunyodkorlik ishlari boshlanadi. Olloqulixon davrida karvonsaroylar, timlar, shungdek, o‘zining nomi bilan atalmish Olloqulixon saroyi yoki Tosh hovli saroyi deb atalmish saroy quriladi.

Xivadagi mashhur hali hanuz jahon ahlini lol qoldirib kelayotgan Tosh hovli saroyi 1829-1839-yillarda Olloqulixonning (1794-1842) amri bilan vazir Muhammad Yoqub mehtar loyihasi asosida qurilgan. Bu saroy Xivadagi ikkinchi Ark, hukmdor xonning qasri sifatida qurilgan. Pishgan g‘ishtlardan qurilgan Tosh hovlining nomi binoning o‘ziga xos plani va arxitekturasidan kelib chiqqan. Qadimda binolar xom loy va karkas yog‘ochidan qurilganligi uchun umri juda qisqa edi [2].

Keyinchalik g‘ishtni xumbuzlarda pishirib, toshdan imoratlar qurila boshlagan. Shuning uchun ularni bir biridan ajratish uchun nomlar paydo bo‘lib, “Tosh” so‘zi ko‘p imoratlarga qo‘yiladigan bo‘lgan. Masalan, Toshkent, Toshhovuz, Xivadagi tosh nomi bilan ataladigan bino va inshootlar ham oz emas: tosh masjid, tosh ko‘prik, tosh darvoza, tosh quduq, tosh chiroq, o‘ra tosh va hakazo.

Tosh hovli saroyi 3 ta katta (ko‘rinishxona, mexmonxona, xaram) va 5 ta kichik hovli, ikki qavatli ayvon va xonalardan iborat. Dastlab xaram so‘ngra mehmonxona keyinchalik arzxona hovlilari bitkazilgan. Xaramda xonning oilasi yashagan bo‘lsa mehmonxona chetdan kelgan elchi, Turkman sardori va qoraqalpoq biylari kabi ulug‘ mehmonlarga xizmat qilgan. Arzxonada fuqaroning arzi-dodi tinglansa, xorijdan kelgan elchilar rasman shu yerda qabul qilingan. 1825-yilda taxtga o‘tirgan Olloqulixon bir yildan keyin Xurosonning Oqdarband qishlog‘ini bosib oldi va axolisini Xorazmga ko‘chirdi.

Shu tariqa Olloqulixon o‘z davrining mashhur inshootlaridan birini qurdiradi. Bu inshoot o‘zing go‘zalligi naqshlarining xilma xil va nafisligi bilan rus va boshqa davlat elchilarining e’tiborini tortgan, va lol qoldirgan. O‘ziga xos va noyob bo‘lgan yagonaligi bilan mashhur bo‘lgan Xiva shahridagi bir necha asrlardan buyon saqlanib kelingan me’moriy obida hisoblanadi uni ham Xiva xoni Olloqulixon bunyod ettirgan.

Qadimiy Xiva shahrida Deshanqal’a dunyo me’morchiligi tarixidagi eng noyob hodisadir. Chunki ichma ich qurilgan qal’alar shu paytgacha uchramagan edi. Avvalo, Olloqulixonning yaxshi ilmlar sohibi bo‘lganligi qolaversa padaribuzrukvori Muhammad Rahimxon I dan o‘tgan yaxshi xislatlar ana shu buyuk ishni boshlashga undagan. Olloqulixon Ichanqal’ani muhofaza qilish maqsadida bu ishga qo‘l uradi.

Chunki, 1740 yilda Eron shohi Nodirshoh Xivaga yurishi davrida to‘pbozlik qilib qadimiy qal’ani oyoqosti qilgan, Elbarsxon va bobokaloni Eshmuhammadbiy 20 ta amaldori bilan qatl qilingani hamon uning esidan chiqmagan edi. Shuning uchun u Deshanqal’ani Xivaning ishonchli qo‘rg‘oni sifatida barpo qilishga qaror qilgan [3].

Olloqulixon Hazratlari bu ulug‘ ishni boshqarishni xonning vaziri a’zami Muhammad Yoqub mehtarga topshirgan. Qurilish munosabati bilan xon xazratlari xonlikda hashar e’lon qilgan. Ota maxzumga o‘xshagan ko‘pni ko‘rgan olim-u umarolar, moxir ustalar qal’a devor o‘tadigan hudud tarixini o‘rganib chiqqanlar. Bir hafta davomida qal’a devori o‘tadigan joy aniqlangan. Qal’a devori o‘tadigan joydan 20 gaz chetdan tuproq olishga qaror qilingan. Shu tariqa hashar yo‘li bilan boshlangan deshan qal’a devori qurilgan uning 10 ta darvozasi bo‘lgan.

Bular quyidagilar: 1. Hazorasp ko‘hna darvoza. 2. Pishkanik yoki qumyosqa. 3. Angarik yoki Bog‘ishamol. 4. Shayxlar yoki shixlar darvozasi. 5. Tozabog‘ yoki Qibla Tozabog‘. 6. Jalol eshon yoki Toshyoq darvoza. 7. Shohimardon darvoza. 8. Urganch yoki Ko‘hna darvoza. 9. Gadoyilar yoki Imorat darvoza. 10. Gandimyon darvoza singari darvozalardan Ichan qal’aga kirilgan.

Olloqulixon nafaqat bunyodkorlik ishlarida balki harbiy soha va adabiy muhitda ham faol bo‘lgan xonlardan hisoblanadi.

Manbalarda ma’lum bo‘lishicha Xivada ichki ishlar qamoqxonalar shuningdek xonni qo‘riqlash ishlari yasovulboshi qo‘lida edi. Maxfiy farmonlar ham uning qo‘lida turar edi. U askariy qismlarga qo‘mondonlik qilgan. Yasavulboshi yuqori sarkarda mansabi hisoblanib xonlikda 2 kishi bo‘lib, biri yovmut turkmanlariga, ikkinchisi esa chovdurlarga qo‘mondonlik qilgan [4].

Har bir yasovulboshining bir necha yordamchisi bo‘lib ular yasovullar deyilgan. Arznomani tekshirish uchun xondan farmon olgach yasovulboshi o‘z yordamchilaridan birini shikoyatchiga qo‘shib, voqea sodir bo‘lgan joyga jo‘natar edi. “Riyoz ud-davla” asaridan ma’lum bo‘lishicha 1255/1839-yil 10-noyabr kuni Olloqulixon janglar vaqtida vafot etgan Muhammad Niyoz yasovulboshining o‘rniga uning o‘g‘li Rahmatullani yasavulboshi qilib saylagan. Rahmatulla yasovulboshi sarkarda bo‘lib uning ixtiyorida turkmanlarning yovmut urug‘idan shakllangan ko‘p ming kishilik guruh bor edi. U qatnashmagan hech bir safar bo‘lmas edi. Rahmatulla yasavulboshi 1842-yili Olloqulixonning Chorjo‘yga qilgan urush safarida ham qatnashgan ekan.

Olloqulixon davrida madaniy muhit ham ancha rivojlangan. Masalan u bir qancha qo‘lyozma asarlarni tarjima qildirgan. Munis hamda uning jiyani mashhur shoir Ogahiyning erkin ijod qilishi uchun ham muhit yaratib bergan.

Ogahiy Olloqulixonga shunday ta’rif beradi, “Chun ul hazratning tug‘ma tabiati va odati ul erdimki hamma ulamo va fuzalo kutlug‘ davlatxonasiga undab xilma xil ziyofatlar berib ularning Jannat misoli majlislaridan olib, halovat hosil qilur edi”.

Ogahiyning bildirishcha “U (Olloqulixon) saxovat egasi bo‘lganligidan, saxiylik bilan katta dasturxonlar yozib, buyuk olimlaru, mashhur shoirlar, o‘ta oqil, nozik didi ulug‘ martabali insonlarni chorlab, goh yechimi qiyin ilmiy munozaralar goh tarix fanining yechilmay qolgan sirlari xususida suhbatlar o‘tkazib barcha fuzalodan oldin

idrok bilan hal qilar edi va majlis ahlini turli qimmatbaxo hadiyalar bilan siylab ko‘ngillarini bexad shod etar edi” deya ta’riflagan.

Bu davrda Hoziq tibbiyot bilan shug‘ullangan va “Haqiqatni aniqlash va tekshirib ko‘rish” nomli asarini yozib tugatgan. Shuningdek Olloqulixon hammom qurdira boshlagan va Hoziq bu hammomni borib ko‘radi. Undagi ba’zi kamchiliklari haqida xonga borib aytishga jur’at etadi. Olloqulixon davrida tibbiyot rivojlanadi. Hoziqning sog‘liqni saqlash faoliyatini xon qo‘llab quvvatlaydi va Xivadagi tabiblar faoliyati Yoqub mehtar tomonidan kuzatilib ularga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatildi.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, Xivaning buyuk xonlaridan hisoblanmish Olloqulixon davrida bir qancha islohotlar xalqqa foydasi tegadigan bunyodkorlik va obodonchilik ishlari olib boriladi. Masalan mudofaa darvozasi hisoblanmish Deshan qal’a devori quriladi hammomlar barpo etiladi va dunyoga mashhur Tosh hovli saroyi ham bunyod etiladi. Shu boisdan ham ba’zi manbalarda Olloqulixonning nomi “Quruvchi xon” deb ham yurtiladi. Shuningdek, uning davrida tabobat, adabiyot hamda harbiy sohalarda ham bir qancha foydali ishlar amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mutalov O. Xiva xonligi Olloqulixon davrida. – Toshkent: 2003. 15, 16, 62, 63-betlar.
2. Xudoyberganov K. Xiva dunyodagi eng ko‘hna qal’a. – Toshkent: 2012. 136, 137, 218, 219-betlar.
3. Raxim D. Olloqulixon. Quvonchbek-Mashhura MChJ nashriyoti – Urganch: “Quvonchbek-Mashhura” MCHJ. 2018. 142, 143-betlar.
4. Salayev I. Xiva xonligining harbiy va mudofaa tizimi. Avtoreferat. 36-37- betlar.

O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXINI O‘RGANISHDA ISLOM KARIMOV ASARLARINING O‘RNI

Babajanova Nafisa Shamuratovna
UrDPI Tarix va geografiya kafedrasi o‘qituvchisi
Safarboyeva Hilola Xurmat qizi UrDPI Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I. A. Karimovning asarlari va yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch asari, uning jamiyatimiz ma’naviy hayotidagi o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Dunyo, kitob, yuksak ma’naviyat, ma’naviyat-yengilmas, kuch, ma’naviy fazilat, salohiyat, xalq.

Аннотатция: В данной статье анализируются труды первого президента Республики Узбекистан И. А. Каримова и труд Высокая духовность-непобедимая сила и его роль в духовной жизни нашего общества.

Ключевые слова: Мир книга высокая духовность духовность непобедима сила духовная добродетель потенциал люди.

Abstract. This article analyzes the works of the first president of the Republic of Uzbekistan, I. A. Karimov, and the work of High Spirituality-Invincible Power, and its role in the spiritual life of our society.

Keywords. The world, book, high spirituality,spirituality is invincible, strenght, spiritual virtue, potential, people.

Dunyoda shunday kitoblar bo‘ladiki, ular avvalo insonning ongiga ta’sir etib, ko‘p bilim, fikr va ma‘lumotlar beradi, dunyoqarashni, tafakkurni kengaytirishda muhim o‘rin tutadi. Boshqa bir kitoblar borki, avvalambor insonning ko‘ngliga, hissiyot olamiga ta’sir etadi, uning tuyg‘ularini tarbiyalshga, qalb ko‘zini ochishga xizmat qiladi. Ayni paytda bu kitoblarning baarchasiga xos xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan, har jihatdan noyob, qadrli asarlar ham bo‘ladi. Ular ham ongimizga, ham ruhiyatimizga barobar ta’sir etadi, o‘zining ma’rifiy quvvati bilan ham tafakkurimizni yuksaltiradi, ham qalbimizni nurafshon etadi, nafaqat bir inson, balki butun jamiyat hayotidagi qarashlarni o‘zgartirib, go‘zal va betakror ma’naviy fazilatlarning shakillanishiga sabab bo‘ladi [1].

O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. A. Karimov qalamiga mansub hujjatli adabiy asar. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch asari 2008-yilda Ma’naviyat nashiryoti tomonidan 176 sahifada qattiq muqova bilan chop etilgan. Asar muqaddima va to‘rt bobdan iborat. Kitob qoraqolpoq, tojik, turkman qirg‘iz va qozoq tillariga tarjima qilinib chop etilgan. Islom Karimovning prezidentlik davri mobaynida bu kitob jahon miqyosida, xususan, musulmon olamidan ham qiziqish uyg‘otdi va Quvayt davlatida arab tiliga, Turkiyada turk tiliga, tarjima qilindi. Misr, Saudiya Arabistoni Podshohligi, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, Bahrayn kabi mamlakatlarda kitobning taqdimot marosimlari o‘tkazildi. Asarda yoritilgan masalalar “haqiqatdan ham dolzarb ahamiyat kasb etib borayotgani” iddosi bilan davlat nodavlat tashkilotlar, ta’lim muassasalari va fuqarolar uchun qayta nashr etildi.

Islom Karimov prezidentlik davrida ushbu asar propaganda vositasiga aylantirildi, har bir ta’lim dargohlarida turli tashkilotlarda va davlatning barcha

boshqaruv organlarida bo‘lishi to‘liq ta’minladi. Asar asosida darsliklar yaratilib, ayniqsa maktab o‘quvchilariga kuchli singdirildi. Butun respublika bo‘ylab “Prezident asarlari bilimdoni” tanlovlari o‘tkazilgan. Islom Karimovning ushbu kitobda ma’naviyatning ma’no-mazmuni, uning inson, jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati, bu tushunchaning nazariy hamda amaliy tomonlari turli fikrlar, xulosalar orqali tahlil etiladi. Ushu asar 2008-yil Ma’naviyat nashriyoti tomonidan chop etilgan. Birinchi bobda “Ma’naviyat-insonning ulg‘ayish va kuch-qudrat manbaidir, deb nomlanadi. Ushbu bobda “ma’naviyatni anglash“, “ma’naviyatni shakillantirishdagi asosiy mezonlar”, ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi haqida tushunchalar berilgan. Ikkinchi bob “Mustaqillik-ma’naviy tiklanish va yuksalish” deb nomlanadi. Bunda “Milliy g‘oya va ma’naviy hayot”, “ma’naviyat va jamiyatning yangilanishi", “islohotlar va ularning ma’naviy mezoni” belgilangan. Uchinchi bob “Ma’naviyatga tahdid-o‘zligimiz va kelajakimizga tahdid” deb nomlangan. Bu bobda “Globallashuv jarayonlari va ma’naviy tahdidlar”, “fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya”lar belgilangan. To‘rtinchi bob “Vatanimiz taraqqiyotining mustahkam poydevori”, “inson qalbiga yo‘l”, “eng buyuk jasorat” va “Xotima” dan iborat [1].

Kitobning umumiy tuzilishi, ma’no-mazmuni, keng kitobxonlar uchun mo‘ljallab yozilgan asardir. “Ayni paytda unda yoritilgan mavzusi, o‘rtaga qo‘yilgan muammo va masalalar, tadqiqot obyekti, ilmiy nazariy xususiyatlari nuqtayi nazaridan g‘oyat keng qamrovli, murakkab va serqirra, shu bilan birga, o‘ziga xos noyob asar ekanini ko‘pgina misollarda ko‘rish mumkin” [1].

Avvalo, shuni aytish kerakki, insonning nafaqat ichki olami, balki jamiyat va davlat hayoti bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy faoliyatdan tortib, uning turmush tarzi, harakat va intilishlarini qamrab oladigan ma’naviyat hodisasining o‘zi shu paytgacha ilmu fanda chuqur va fundamental asosda yoritilib, tadqiq etilmagan [2].

Bugungi shiddatli davrda chinakam ma’naviyatli va ma’rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o‘z milliy qadriyatlarini, milliy o‘zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurasha olishi lozim [2].

Nafaqat davlat rahbari, avvalambor, buyuk tarix, madaniyat va ma’rifat egasi bo‘lgan xalqimizning bir farzandi sifatida, ana shu bebaho boylikni asrab-avaylash, uni har xil oshkora va pinhona xurujlardan himoya qilish haqida qayg‘uradigan bir inson sifatida yuqorida zikr etilgan o‘ta muhim va o‘ta nozik bu masalalar yurtimizda yashaydigan har bir insonni albatta havotirga solishi tabiiy holdir.

Mustaqillika erishgandan so‘ng O‘zbekistonning haqqoniy va xolisona tarixini yaratish masalasi ko‘ndalang turardi. Zero, Sobiq Ittifoq davrida yurtimiz tarixi biryoqlama yaratilgani, tarixiy haqiqatlardan yiroqligi nisbatan munosabatni o‘zgartirishni taqazo etadi. Birinchi Prezident I. A. Karimovning bir guruh olimlar va ommaviy axborot xodimlari bilan uchrashuvidan so‘ng uning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” nomli asari chop etildi. Bu asar tarix fani rivojida yangidan-yangi ilmiy yo‘nalishlar, tarixga munosabat masalasida yangi qarashlarning paydo bo‘lishiga asos bo‘ldi. I. A. Karimov o‘zbek xalqining tarixiy o‘tmishini, uning davlatchiligi tarixini o‘rganishda yagona ilmiy konsepsiyaning yo‘qligi xususida gapirib, tarixchi olimlarni bu sohaga diqqat-e’tiborini yanada kuchaytirishga chaqirdi. Asarda ta’kidlashicha,

“o‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo‘lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi zarur”. Tarixni yoritishda biryoqlamalikka, subyektiv fikrlarga yo‘l qo‘ymaslik zarur, “faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo‘lgan xulosalargina bizga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatadi” [2].

I. A. Karimov har bir o‘zbek farzandi “mening ajdodlarim kimlar bo‘lgan, millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turishi, tiklanish, shakillanish jarayoni qanday kechgan” degan savollarni o‘ziga-o‘zi berishi kerakligini qayta-qayta uqtiradi. Bu masalada “O‘zbekistonning, o‘zbek xalqining bugun keng ommaga yetkazishga arziydigan haqqoniy tarixi yaratiladimi-yo‘qmi?” – degan zaruriy savolni beradi va sho‘rolar davrida, o‘zgalar yozib bergan soxta g‘oyalar asosidagi tarixni qayta ko‘ri chiqish lozimligini ta’kidlaydi. U rus olimlarining ilmiy tadqiqotlarini kamsitmagan holda o‘zbek olimlariga qarata murojaat qiladi: “shunday ulkan davrda yurtimizda kechgan davlatchilik taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayoti atroflicha tahlil etilgan tadqiqotlar nega yaratilmayapti? Arxeologiya, tarix, Sharqshunoslik va boshqa bir qator institutlarimiz bor. Mutaxassislar nima bilan mashg‘ul, qayoqqa qarashyapti? O‘zbek davlatchiligi qachom paydo bo‘lgan?”

Yangidan shakllanayotgan mustaqil O‘zbekiston davlati boshida turgan inson sifatida Birinchi Prezident I. Karimov bu ishga jonini, borlig‘ini berishga tayyorliguni, davlatchilik masalasi tobora hayotiy mazmunga ega bo‘lib borayotganini ta’kidlaydi. O‘zbek davlatchiligi tarixini o‘rganish hozirgi vaqtda o‘ta dolzarb masala bo‘lishi bilan birga, o‘tkir siyosiy ahamiyat kasb etayotir: “O‘zbekistonda davlatchilik bo‘lmagan deb, orqavorotdan tashviqot yuritayotgan, shu fikrni ongimizga singdirmoqchi bo‘layotgan, kerak bo‘lsa, xalqaro jamoatchilikni shunga ishontirishga urinayotgan kuchlar hali bor... O‘zbek tarixchilarining bugungi kundagiasosiy vazifasi mana shu da’voning puch ekanligini isbotlash, davlatchiligimizning ilmiy nuqtai nazardan asoslangan tarixni yaratishdir” [3].

Qadimgi tariximiz borasida I. Karimovning aytgan fikrlari tarixchi olimlarga dasturulamal bo‘lib qolmoqda. “Bugungi boy madaniyatimiz qaysi sivilizatsiyaning mahsuli? Shunday madaniyat bor ekan, uni shu zaminda yashagan xalq yaratganmiyoki u bo‘m-bo‘sh joyda paydo bo‘lganmi?” degan savollar bugungi kun uchun ham dolzarb ahamiyatga egadir. Negaki, davlatchilik tarixi muammolari bilan moddiy va yozma manbalar asosida o‘rganiladi. Davlatchilik tarixini yaratishda Birinchi Prezidentimizning quyidagi gaplari har bir tarixchi olimlarga tarixni o‘rganishda dasturulamalga aylanib bormoqda: “har qanday sivilizatsiya ko‘pdan-ko‘p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va o‘zaro samarali ta’sirining mahsulidir...” [3].

“O‘zbekiston hududida ilk davlatchilikning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari”ni o‘rganish tarixchilarimizning dolzarb mavzularidan biri hisoblanadi. Bu mavzu faqat arxeologiya fani va arxeologik manbalarni qadimgi Sharq dunyosi ilk davlatchiligi bilan, aniqroq qilib aytsak, Mesopotamiya, qadimgi Hindiston, xullas Yaqin va O‘rta Sharq hududlarida bronza davrida shakllangan shahar-davlatalar tarixi bilan taqqoslash usuli vositasida o‘z yechimini topadi. Birinchi Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “mazkur vazifani amalga oshirish uchun Akademiyaga qarashli Tarix, Sharqshunoslik, Arxeologiya institutlari o‘z ish faoliyatini o‘zgartirishini zamon talab

qilmoqda”. Tarixchilar bilan bo‘lgan uchrashuvda I.Karimov o‘zbek davlatchiligi tarixini birlamchi manbalar asosida yoritish shart ekanligini alohida ta’kidlagan edi [3].

“O‘zbek davlatchiligi tarixi” mavzusining ijodkori birinchi Prezident I. A. Karimovdir. Mustaqillikkacha bu ibora tarixchilar tomonidan qo‘llanilgan emas. Bu bilan tarixchilar O‘zbekiston hududida davlatchilikning shakllanishi mavzusi bilan shug‘ullanmagan, deyishdan yiroqmiz. “O‘rta Osiyoda ilk sinfiy munosabatlarning shakllanishi”, “Ahamoniylar imperiyasiga qadar O‘rta Osiyoda kechgan davlatchilik munosabatlari” kabi mavzular tarixchilar tomonidan qizg‘in muhokama etilgan bo‘lsada, davlatchilik mahalliy xalqlarning milliy davlatchiligi tarixi sifatida talqin qilinmadi.

Istiqlol bergan katta imkoniyat tufayli hammamizga o‘tmish bag‘riga “yashirib qo‘yilgan” ma’naviy merosimizdan bahramand bo‘lish nasib etdi. Xarobaga aylangan me’moriy obidalarimiz qayta tiklandi va o‘zini dunyoga namoyon etmoqda. Davlatchilik mustaqillik yillarida siyosiy masalaga aylangan edi. O‘zbek xalqining haqqoniy tarixini yaratish borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida tarixchi olimlarimiz tomonidan bir qator ilmiy adabiyotlar yaratildiki,ular tariximiz xolisona, aniq tarixiy faktlar asosida yoritilgan. Ma’lumki, milliy davlatchiligizmiz, xalqimiz tarixini yoshlarga o‘rgatish ham ta’lim oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, har bir shaxs o‘z tarixini mukammal bilishi, o‘z ajdodlari bilan faxrlanishi lozim. Bu borada ta’lim jarayonida ta’limning interfaol metodlardan foydalanish samaralidir. Jumladan, O‘zbekiston tarixini o‘qitishda modulli o‘qitishdan foydalanish muhim ahamiyatga ega [3].

Bugun O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan izchil borayotganligi uchun kadrlar tayyorlash tizimi tubdan isloh qilindi, davlat ijtimoiy siyosatdan shaxs manfaati va ta’limi ustuvorligi qaror topdi. Modulli o‘qitishda quyidagi maqsadlar ko‘zlanadi:

– o‘qitishning (o‘quv fanlar orasida va o‘quv fanning ichida) uzluksizligini ta’minlash;

– o‘qitishni individuallashtirish;

– o‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish uchun yetarli sharoit yaratish;

– o‘qitishni jadallashtirish;

– fanni samarali o‘zlashtirishga erishish.

Modulli o‘qitishda talabalarni o‘z qobiliyatiga ko‘ra bilim olishi uchun to‘la zaruriy shart-sharoitlar yaratildi.

Modulli o‘qitishga o‘tishda quyidagilarni amalga oshirish ko‘zda tutiladi: ishchi o‘quv rejani chuqur tahlili asosida, o‘zaro chambarchas bog‘liq fanlar guruhi aniqlanadi, ya’ni butun o‘quv rejasi alohida makromodullar to‘plami sifatida qaraladi.

Modulli o‘qitishdan maqsad O‘zbekiston tarixini qismlarga bo‘lgan holda aniq va batafsil o‘rgatishdan iborat. Yaratilgan ilmiy tarixiy adabiyotlarni sho‘rolar davridagi tarix kitoblari bilan qiyosiy tushuntirish haqiqatni anglash imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan tarixiy asarlarga, ma’naviy merosimizga tayanish muhimdir. Zero, O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I. Karimov ta’kidlaganidek, o‘zbek xalqi uzoq o‘tmishga ega bo‘lib, har bir taraqqiyot

ijtimoiy siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayotni tasvirlashga bag‘ishlangan tarixiy asarlar yaratilgan bo‘lib, shuning o‘ziyoq tarixning qadimiyligiga ishoradir [3].

Xulosa qilib aytganda, muallifning ko‘p yillik kuzatishlari, fikr va mulohazalari mahsuli bo‘lgan, har tomonlama teran ilmiy va hayotiy qarashlarga asoslangan ushbu kitob to‘rt bobdan iborat bo‘lib uning ma’naviyat sohasiga oid qonun va kategoriyalar, tushuncha va tamoyillar yaxlit bir tizimsifatida tahlil etilgan. Aytish mumkinki, shu asosda ma’naviyatning mazmun-mohiyati, uning inson va jamiyat, millat va davlat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati haqida yaxlit ilmiy-falsafiy, nazariy metodologik ta’limot yaratilgan. Ushbu kitob insonning yuksalishida ma’naviyat olamining qanday ta’sir va ahamiyatga ega ekani, shuningdek, ma’naviyatga qarshi qaratilgan xurujlarning real xavfi haqida atroflicha fikr yuritilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Karimov I. A. Ma’naviyat yuksalish yo‘lida. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.
2. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008.
3. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – Toshkent: “Sharq”, 1998.
4. Karimov I. A. O‘zbekiston mustaqilikka erishish ostonasida. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2011.

O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARINING MODERNIZATSIYALASHISHI

Tajimuratova Dilrabo Bozorbaevna
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi tadbirkorlik va biznes oliy maktabi magistranti

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ijtimoiy adolat tamoyillariga bo‘lgan yangicha yondoshuv, yangicha qarashlar haqida so‘z boradi. O‘zbekiston taraqqiyotining turli bosqichlarida ijtimoiy adolat tamoyillariga nisbatan qarashlar, yondoshuvlarning o‘zgarib, o‘sib borish ko‘rsatgichlari statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Ijtimoiy adolat tamoyillari modernizatsiyasining aholi turmush darajasidagi o‘rni va ahamiyati hayotiy misollar bilan ochiqlanadi. Shuningdek, bu yo‘nalishda ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan jihatlar yuzasidan ilmiy manbalarga asoslangan fikrlar ilgari suriladi.

Аннотация. В государстве идет речь о новом подходе и новом взгляде на принципы социальной справедливости на новом этапе развития Узбекистана. Анализируются изменения и развитие взглядов и подходов к принципам социальной справедливости на различных этапах развития Узбекистана на основе статистических данных. Раскрывается роль и значение модернизации принципов социальной справедливости в уровне жизни населения на жизненных примерах. Также выдвигаются мысли, основанные на научных источниках, по вопросам, требующим внимания в этом направлении.

Abstract. The article discusses a new approach and new perspectives on the principles of social justice at a new stage of Uzbekistan’s development. It analyzes the changes and growth in attitudes and approaches to the principles of social justice across various stages of Uzbekistan’s development, based on statistical data. The role and significance of modernizing the principles of social justice in improving the standard of living of the population are illustrated through real-life examples. Additionally, opinions based on scientific sources are put forward regarding aspects that require attention in this area.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston taraqqiyotining bosqichlari, adolat va ijtimoiy adolat tamoyillari, modernizatsiya, davlat hokimiyati tashkil etishning yangi modeli, ijtimoiy davlat, xalqparvar davlat, aholi turmush darajasi, iqtisodiy o‘sish darajasi.

Ключевые слова: Этапы развития Узбекистана, справедливость и принципы социальной справедливости, модернизация, новая модель организации государственной власти, социальное государство, гуманное государство, уровень жизни населения, уровень экономического роста.

Keywords: Stages of Uzbekistan’s development, justice and principles of social justice, modernization, a new model of state governance, social state, humane state, standard of living of the population, economic growth rate.

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi mamlakatdagi ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning o‘sishi, odamlarning turmush darajasi va farovonligining oshib borishi bilan ajralib turmoqda. Bu jarayonlarda ijtimoiy adolat tamoyillarini modernizatsiyalashish ayni kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Ijtimoiy adolat tamoyillari jamiyatda tenglik, inson huquqlari va qonuniylik asoslariga rioya qilishni nazarda tutadi. O‘zbekistonda bu tamoyillarni amaliyotga tadbiq etish uchun qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya sohalarida adolatli tizimlarni joriy qilishga katta e’tibor qaratiladi.

Modernizatsiya jarayonida birinchi navbatda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va innovatsiyalarni tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatning barcha qatlamlari o‘rtasida tenglikni ta’minlash uchun, davlat organlari va jamoat tashkilotlari hamkorlikda ish olib bormoqda.

Shuningdek, adolatli mehnat munosabatlarini shakllantirish, qonun ustuvorligini mustahkamlash hamda fuqarolarning barcha huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu ishlarda ilg‘or xalqaro tajribaga asoslanish O‘zbekiston uchun asosiy ustuvorliklardan biridir.

Ushbu jarayonlar natijasida mamlakat fuqarolarining davlatga va qonunga bo‘lgan ishonchi ortib boradi, jamiyatda o‘zaro hurmat va hamjihatlik mustahkamlanadi.

O‘zbekistonning taraqqiyot bosqichlari davlatning tarixiy, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish yo‘lidagi muhim davrlarni o‘z ichiga oladi. Ular orasida asosiy quyidagi bosqichlarni ko‘rib chiqish mumkin:

1. Mustaqillikdan avvalgi davr.

Sovet Ittifoqi tarkibida bo‘lgan davr O‘zbekiston iqtisodiyotida asosan qishloq xo‘jaligi, xususan paxta yetishtirish sohasidagi rivojlanish bilan ajralib turdi. Bu davrda sanoat ham taraqqiy ettirilgan bo‘lsa-da, iqtisodiyot asosan markazlashgan tizimga bog‘langan edi.

2. Mustaqillikka erishish (1991-yil).

1991-yilda O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida o‘z taraqqiyot yo‘lini boshladi. Davlatning asosiy maqsadlari suverenitetni mustahkamlash, milliy birlikni saqlash va bozor iqtisodiyotiga o‘tish bo‘ldi. Bu bosqichda iqtisodiy va siyosiy islohotlar amalga oshirildi.

3. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish (1990-yillar).

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston markazlashgan iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lida bir qator murakkab qiyinchiliklarni yengib o‘tdi. Davlat korxonalarni xususiylashtirish jarayonlari va milliy valyuta – so‘mni joriy qilish ishlarini amalga oshirdi.

4. Iqtisodiy barqarorlik va diversifikatsiya (2000-yillar).

2000-yillardan boshlab iqtisodiyot diversifikatsiyalanish jarayoni boshlandi. Sanoat, energetika, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ijobiy natijalar berdi. Davlat asosan eksportga yo‘naltirilgan tarmoqlarni rivojlantirishga harakat qildi.

5. Modernizatsiya va ochiqlik siyosati (2016-yildan buyon).

2016-yildan keyin O‘zbekistonda islohotlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan siyosat olib borilmoqda. Xususan, iqtisodiyotda ochiqlik va erkin raqobat muhitini yaratishga urg‘u berilmoqda. Xalqaro aloqalar mustahkamlandi va inson huquqlari masalalariga alohida e’tibor qaratildi.

6. Hozirgi zamon taraqqiyoti.

O‘zbekistonning hozirgi bosqichi iqtisodiy raqamlashtirish, yoshlar siyosatini qo‘llab-quvvatlash, ekologiya va innovatsiya sohalarini rivojlantirish bilan belgilanmoqda. Davlatning asosiy maqsadi – kuchli fuqarolik jamiyati va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashdir.

Adolat va ijtimoiy adolat tamoyillari insonlar va jamiyat o‘rtasidagi barobarlik, inson huquqlari, va teng imkoniyatlarni ta’minlashga qaratilgan tushunchalardir. Bu tamoyillar jamiyatning har bir a’zosi uchun bir xil imkoniyatlar yaratish va ularning huquqlarini himoya qilishni nazarda tutadi.

Asosiy tamoyillar:

1. Barobarlik – har bir inson jinsi, irqi, millati, dini yoki ijtimoiy holatiga qaramasdan teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi kerak.

2. Inson huquqlari himoyasi – har bir shaxsning asosiy huquq va erkinliklari himoya qilinadi va ular buzilmaydi.

3. Teng imkoniyatlar – ta’lim, sog‘liqni saqlash, ishga joylashish va boshqa sohalarda barcha uchun teng sharoitlar yaratish.

4. Adolatli taqsimot – resurslar, boylik va imkoniyatlar adolatli tarzda tarqatilishi lozim.

5. Sotsial himoya – jamiyatdagi eng zaif qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning ehtiyojlarini qondirish.

Ijtimoiy adolat tamoyillari jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi va insonlar o‘rtasidagi hamjihatlik va o‘zaro hurmatga asos bo‘ladi.

Modernizatsiya — bu jamiyat, iqtisodiyot, siyosat yoki texnologiya sohalarida yangi, ilg‘or va zamonaviy g‘oyalar va texnologiyalarni qabul qilish va joriy etish jarayonidir. Bu tushuncha ko‘p vaqtlar inson hayotining turli sohalarida o‘zgarish va taraqqiyotlarni anglatadi.

Modernizatsiya har doim ham tez jarayon emas va u qarshilikka uchrashi mumkin, lekin uning asosiy maqsadi inson hayotini yaxshilash va jamiyatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qilishdir.

Ijtimoiy adolat tamoyillarining modernizatsiyalanishi jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy o‘zgarishlarga moslashishni, shuningdek, yangicha yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Bu jarayon, asosan, inson huquqlari va barobarlikni yanada kengroq miqyosda ta’minlashga, yangi zamon talablariga mos ravishda ijtimoiy adolatni ilgari surishga qaratiladi.

Davlat hokimiyatini tashkil etishning yangi modeli – bu jamiyatning zamonaviy talablariga, texnologik imkoniyatlarga va global o‘zgarishlarga mos ravishda davlat boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan yangicha yondashuvdir. Bu turli jamiyatlar vakillari orqali har xil modellar yaratilishi mumkin, lekin ularning asosiy maqsadi davlatning samarali va shaffof boshqaruvini ta’minlashdir.

Yangi modellardagi asosiy tamoyillar:

1. Elektron hukumat va raqamli platformalar – davlat xizmatlarini raqamlilashtirish orqali oshkoralikni ta’minlash va fuqarolarning davlat muassasalari bilan o‘zaro muloqotini osonlashtirish.

2. Detsentralizatsiya – hokimiyatni markazdan hududlarga taqsimlash, bu mahalliy muammolarni tezkor hal qilish imkoniyatini beradi, shuningdek, mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilligini oshirish.

3. Partnerlik asosida boshqaruv – fuqarolik jamiyati va xususiy sektor bilan hamkorlik orqali qarorlar qabul qilish, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish.

4. Barqaror rivojlanish va ekologik tamoyillar – davlat siyosatini barqaror rivojlanish maqsadlariga muvofiq ravishda tashkil qilish, tabiiy resurslardan samarali foydalanish.

5. Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv – qaror qabul qilishda ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellektdan foydalanish, strategik rejalashtirishni yaxshilash;

6. Shaffoflik va hisobdorlik – hukumat faoliyati haqida aholini doimiy xabardor qilish, korrupsiyaga qarshi kurashishda qat’iy yondashuv.

Yangi modellar zamonaviy jamiyatdagi murakkabliklarni inobatga olib, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlashga qaratiladi.

Ijtimoiy davlat va xalqparvar davlat tushunchalari juda muhim ahamiyatga ega. Bunday davlatlar xalq manfaatlarini ilgari surish va aholining turmush darajasini yaxshilashni o‘zlarining asosiy maqsadi qilib belgilaydilar. Ular odatda adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, kam ta’minlangan qatlamlarga yordam berish, ta’lim va tibbiy xizmatga barcha uchun birdek imkoniyat yaratishga intilgan davlatlar sifatida tushuniladi.

Ijtimoiy davlat – bu davlat turi bo‘lib, uning asosiy maqsadi jamiyat a’zolari o‘rtasida ijtimoiy tenglikni ta’minlash, turli qatlamlar o‘rtasidagi farqni kamaytirish va adolatli shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Bunday davlatda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

– Barchani qamrab olgan ta’lim tizimi;

– Sog‘liqni saqlashning hamma uchun teng imkoniyatli bo‘lishi;

– Kam ta’minlangan aholiga yordam dasturlari;

– Ishsizlikka qarshi chora-tadbirlar va ish o‘rinlari yaratish;

– Pensiya tizimi va boshqa ijtimoiy kafolatlarni ta’minlash.

Xalqparvar davlat esa xalq manfaatlarini ustun qo‘yuvchi va butun faoliyatini xalq farovonligiga yo‘naltirgan davlatdir. Xalqparvar davlatning asosiy xususiyatlari:

– Xalqning turmush darajasini oshirishga qaratilgan siyosat;

– Davlat boshqaruvida xalq fikrini inobatga olish;

– Qonun ustuvorligini ta’minlash orqali barcha fuqarolarning huquqlarini himoya qilish;

– Davlat resurslarini adolatli taqsimlash.

Ikkala davlat modeli umumiy maqsadga ega bo‘lsa-da, ijtimoiy davlat asosan ijtimoiy iqtisodiy tenglikka e’tibor qaratadi, xalqparvar davlat esa keng ma’noda xalqning barcha manfaatlarini himoya qilish va rivojlantirish bilan bog‘liq.

Ijtimoiy va xalqparvar davlat sifatida tanilgan davlatlar bir qator xususiyatlarga ega, jumladan, fuqarolarning farovonligini oshirish, ijtimoiy adolatni ta’minlash va keng imkoniyatlar yaratish. Ba’zi mashhur misollar:

Ijtimoiy davlatlar

1. Shvesiya, Norvegiya, Daniya va Finlyandiya (Skandinaviya davlatlari):

– Bu davlatlarda “buyuk farovonlik davlati” (welfare state) modeli amal qiladi.

– Keng qamrovli soliq siyosati orqali ta’lim va sog‘liqni saqlash bepul yoki kam xarajatli qilinadi.

– Jamiyatning barcha qatlamlari o‘rtasida ijtimoiy tenglik ta’minlanadi.

1. Germaniya:

– Pensiya tizimi, tibbiy sug‘urta va ishsizlik yordam dasturlarining keng rivojlanishi bilan ijtimoiy davlat modeli sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Niderlandiya:

– Kam ta’minlangan qatlamlarni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy kafolatlar sistemasi bilan ajralib turadi.

Xalqparvar davlatlar

3. Shveysariya:

– Davlat boshqaruvida xalq ishtirokini ta’minlash uchun referendumlar amaliyoti keng qo‘llaniladi.

– Xalq fikrini inobatga oluvchi demokratik boshqaruv uslubi.

4. Yaponiya:

– Fuqarolar farovonligini ta’minlashga qaratilgan siyosat, shu jumladan, jamoat xavfsizligi, ta’lim va tibbiyot sohalaridagi 833ata investitsiyalar.

5. Urugvay:

– Adolatli qonunchilik va ijtimoiy dasturlari orqali xalqparvar davlat sifatida tanilgan.

Ijtimoiy yoki xalqparvar davlatlarning har biri o‘ziga xos yo‘nalishlarga ega va ularning strategik yondashuvlari turli madaniy va iqtisodiy sharoitlarga mos keladi.

O‘zbekistonda ijtimoiy va xalqparvar davlat konsepsiyalari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasining muhim qismi hisoblanadi. Konstitutsiyaga muvofiq, O‘zbekiston ijtimoiy davlat sifatida fuqarolarning farovonligini ta’minlashga qaratilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– Ijtimoiy kafolatlar: Kam ta’minlangan aholi qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, pensiyalar va nafaqalarni ta’minlash.

– Ta’lim va tibbiyot: Bepul umumiy o‘rta ta’lim va tibbiy yordam kafolatlangan.

– Ishsizlikka qarshi choralar: Bandlikni ta’minlash va ishsizlikni kamaytirishga qaratilgan dasturlar.

Shuningdek, xalqparvar davlat konsepsiyasi “Inson qadri uchun” tamoyili asosida amalga oshiriladi. Bu xalq manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yishni nazarda tutadi. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida xalqparvar davlat qurish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– Adolatli qonunchilik: Qonun ustuvorligini ta’minlash va adolatli boshqaruv tizimini shakllantirish.

– Fuqarolarning ishtiroki: Davlat boshqaruvida xalq fikrini inobatga olish.

– Ijtimoiy adolat: Barcha qatlamlar uchun teng imkoniyatlar yaratish.

O‘zbekistondagi bu islohotlar mamlakatning ijtimoiy davlat va xalqparvar davlat sifatidagi maqsadlariga erishishga qaratilgan.

O‘zbekistonda xalqparvar davlat va ijtimoiy davlat g‘oyalari rivojlanish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Xalqparvar davlat tamoyillari xalq manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yadigan, fuqarolarning ijtimoiy va iqtisodiy farovonligini ta’minlashga yo‘naltirilgan islohotlarda aks etadi. Bunda adolat, tenglik va insonparvarlik asosiy ustuvorliklardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Ijtimoiy davlat esa aholining turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan siyosatni amalga oshiradi. Bu nafaqat ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash, iqtisodiy tenglik va boshqa jabhalarda aholining haq-huquqlarini ta’minlashni nazarda tutadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar aholining turmush darajasini oshirish, kambag‘allikni kamaytirish va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlash bu yo‘lda muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasida xalqparvar davlat va ijtimoiy davlat tushunchalari muhim o‘rin tutadi. Konstitutsiyaning asosiy prinsiplari orasida O‘zbekiston ijtimoiy davlat sifatida belgilangan bo‘lib, bu davlatning aholining ijtimoiy himoyasini ta’minlashga, turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan siyosat yuritishini anglatadi [1].

Shuningdek, xalqparvar davlat tamoyillari davlatning xalq manfaatlarini birinchi o‘ringa qo‘yadigan, adolat va tenglikni ta’minlaydigan siyosat yuritishini nazarda tutadi. Davlat organlari xalq irodasini ifoda etish va uning manfaatlariga xizmat qilish majburiyatiga ega ekanligi Konstitutsiyada mustahkamlangan [2].

Aholi turmush darajasi va iqtisodiy o‘sish darajasi o‘zara bog‘liq va davlat rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Aholi turmush darajasi: Bu ko‘rsatkich aholining moliyaviy, ijtimoiy, ta’limiy, sog‘liqni saqlash sohalaridagi holati hamda umumiy farovonligini aks ettiradi. Turmush darajasi yuqori bo‘lishi uchun quyidagilar muhim ahamiyatga ega:

1. Barqaror daromad manbaalari.
2. Ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkoniyati.
3. Sifatli ta’lim va tibbiy yordam.
4. Kambag‘allik darajasini kamaytirishga yo‘naltirilgan islohotlar.

Iqtisodiy o‘sish darajasi: Bu davlat iqtisodiyotining ma’lum vaqt davomida qanday o‘sishini ko‘rsatuvchi ko‘rsatkichdir. U odatda yalpi ichki mahsulot (YaIM) o‘sishi bilan o‘lchanadi. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish darajasi:

– Yangi ish o‘rinlari yaratilishi.
– Sanoatning diversifikatsiyasi.
– Energiya, qishloq xo‘jaligi va servis sohalarida rivojlanishni qamrab oladi.

Iqtisodiy o‘sish aholi turmush darajasini yaxshilashga hissa qo‘shadi, chunki u orqali yangi imkoniyatlar paydo bo‘ladi va jamiyatdagi farovonlik oshadi. Bu ikki ko‘rsatkich O‘zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy siyosatining asosiy yo‘nalishlari sifatida qaraladi.

O‘zbekistonda aholi turmush darajasi va iqtisodiy o‘sish darajasi davlatning rivojlanish jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Aholi turmush darajasi

Aholi turmush darajasi fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy farovonligini ifodalaydi. Bu quyidagi asosiy omillar orqali aniqlanadi:

– Daromad darajasi: Aholining barqaror ish o‘rinlari va oylik maoshlarning o‘sishi turmush darajasini oshiradi.

– Ijtimoiy infratuzilma: Ta’lim, tibbiyot xizmatlari va uy-joy sharoitlarining yaxshilanishi.

– Hayot sifati: Atrof-muhitning tozaligi, xavfsizlik va dam olish maskanlarining mavjudligi.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda fuqarolarning yashash darajasini yaxshilashga qaratilgan bir qator ijtimoiy dasturlarni amalga oshirdi. Jumladan, ta’lim va tibbiy xizmatlar sifatini oshirishga, aholi bandligini ta’minlashga qaratilgan tashabbuslar bunga misol bo‘ladi.

Iqtisodiy o‘sish darajasi

Iqtisodiy o‘sish darajasi O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishidan darak beradi. Asosiy ko‘rsatkichlar:

– YaIM (yalpi ichki mahsulot): O‘zbekistonning YaIMi yildan-yilga o‘smoqda, bu esa iqtisodiy faollikning oshib borayotganini bildiradi.

– Investitsiyalar: Xorijiy va ichki investitsiyalar hajmining o‘sishi iqtisodiyotning turli sohalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

– Ishsizlik darajasini kamaytirish: Davlat tomonidan yangi ish o‘rinlari yaratish va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali iqtisodiy faollik rag‘batlantirilmoqda.

Bu ikki ko‘rsatkich bir-birini to‘ldirib, aholi farovonligini oshirish va davlatning umumiy rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

2. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2024.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, T, 2022-yil 28-yanvar.

4. https://www.lex.uz/

XIVA XONLIGIDA MADRASALARNING IJTIMOIY HOLATI VA BOSHQARUVI

Aminov Bahodir Otabek o‘g‘li, UrDPI tarix yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. O‘zbekiston tarixida madrasalar ko‘p ming yillar davomida asosiy ta’lim va madaniyat maskanlaridan biri sifatida ma’lum va mashhur bo‘lib kelgan. O‘zbek davlatchiligi tarixida muhim iz qoldirgan Xiva xonligida ham madrasalar doimiy e’tibor markazida turgan. Xususan, shaxsan hukmdor va bir qator amaldorlarning o‘zlari ham shaxsiy mablag‘lari hisobidan bir nechta madrasalar bunyod ettirganlarining o‘zi ham xonlikda madrasalarning o‘rni va ahamiyatini yaqqol aks ettiradi. Madrasalar boshqaruvi va ulardagi ijtimoiy holat ham muhim jarayonlardan hisoblanib doimiy diqqat markazida turgan.

Аннотация. Медресе на протяжении многих тысячелетий были известны и знамениты как одни из основных центров образования и культуры в истории Узбекистана. В Хивинском ханстве, оставившем значительный след в истории узбекской государственности, медресе также постоянно находились в центре внимания. В частности, тот факт, что сам правитель и ряд чиновников на собственные средства построили несколько медресе, ясно отражает роль и значение медресе в ханстве. Управление медресе и социальное положение в них также считались важными процессами и находились под постоянным вниманием.

Abstract. Madrasas have been known and renowned as one of the main centers of education and culture for many millennia in the history of Uzbekistan. In the Khiva Khanate, which left a significant mark in the history of Uzbek statehood, madrasas also remained at the center of constant attention. In particular, the fact that the ruler himself and several officials built multiple madrasas at their own expense clearly reflects the role and importance of madrasas in the khanate. The management of madrasas and the social conditions within them were also considered important processes and remained in constant focus.

Kalit so‘zlar: Madrasa, xon, mutavalli, Muhammad Rahimxon II, Xiva, Islomxo‘ja, mudarris, talaba, sadr, vaqf mulki, Gandimiyon shartnomasi, Qo‘ng‘irotlar sulolasi.

Ключевые слова: Медресе, хан, мутавалли, Мухаммад Рахимхан II, Хива, Исламходжа, мударрис, студент, садр, поместье вакф, договор Гандимияна, династия Кунгратов.

Key words: Madrasa, khan, mutawalli, Muhammad Rahimkhan II, Khiva, Islamkhodja, instructors, students, sadr, vaqf property, Gandimiyon treaty, Qo‘ng‘irotlar dynasty.

Hech kimga sir emaski madrasalar ko‘plab musulmon davlatlari, O‘rta Osiyo hududlari va jumladan, o‘zbek xonliklarida ham madaniy, ijtimoiy va siyosiy hayotning muhim va ajralmas qismi bo‘lgan. Sababi madrasalar nafaqat oliy ta’lim muassasasi balki madaniyat markazi vazifasini ham o‘tagan O‘rta Osiyoning Xiva, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo‘qon kabi shaharlarida ko‘plab madrasalar faoliyat

ko‘rsatgan. Xorazm hududidagi ilk madrasalar IX asr oxiri X asr boshlarida Xorazmning ikkita yirik shahri Gurganj va Katda faoliyat yurita boshlagan [1].

XVII asrga kelganda esa xonlikda madrasalar qurilishi avj olgan va bu jarayon XIX asrda o‘zining eng yuqori daraajasiga yetgan. K. Xudoyberganov Xiva madrasalarining tuzilishi va qurilishini quydagicha ta’riflab o‘tgan: “Xorazm madrasalari 1-2 qavatli bino bo‘lib, katta va go‘zal peshtoqli, atrofi hujralar bilan o‘ralgan hovlisi, darsxona va masjidi bo‘lib, ba’zi madrasalar yonida minora ham qurilgan. Madrasalarning hammasida ichki hovli atrofidagi ikkita talabaga mo‘ljallangan yotoqxonalar uzoqdan kelgan o‘quvchilarga berilgan. Har bir hujra ichida maxsus olov yoqadigan joyi va oqava suv ketadigan “to‘shshi” (kanalizatsiya) adanlari bor” [2]. Madrasalarning peshtoqi asosan madrasaning qurilgan vaqti, Qur’oni karimdan oyatlar va madrasani qurdirgan shaxsni tasvirlovchi so‘zlar va jumlalarni aks ettirgan.

XIX asrda faqatgina Xiva shahrining o‘zida 120 madrasa, 63 qorixona bo‘lgan. Xiva xonligini Rossiya bosib olganidan keyin ularning soni ikki baravar kamaygan. XX asr boshida ularning soni 64 tani tashkil etgan [3]. Bundan tashqari aynan madrasalar davlat boshqaruvi uchun amaldorlar guruhini yetishtirib bergan. Shu va boshqa muhim jihatlari tufayli ham madrasalarning ijtimoiy holati va ularda boshqaruv tizimining tashkil etilishiga katta e’tibor berilgan. Xiva xonligida hokimyatga Qo‘ng‘irotlar sulolasi kelishidan oldin xonlikda siyosiy inqiroz ro‘y bergan edi. Natijada siyosiy hayotdagi inqiroz tabiiy ravishda ijtimoiy va madaniy sohalarda ham xonlikning oqsashiga olib keldi. Muhammad Amin inoq boshchiligidagi Qo‘ng‘irotlar sulolasi Xivada hokimiyatni qo‘liga ola boshlashi bilan inqiroz holatidan chiqish holati boshlanadi. Madaniy hayotda maorif tizimi – maktab va madrasalarda o‘qitish jarayoni ham tartibga solindi. Bir qancha yangi maktab va madrasalar qurilib, eskilari rekonstruksiya qilindi. Bu esa tez orada xonlikdagi maorif tizimi saviyasining oshishiga olib keldi.

Xonlikdagi madrasalar asosan boy zodagonlar, amaldorlar yoki hukmdorning o‘zi tomonidan bunyod etilgan. Ular ilmli insonlar va bilimli davlat amaldorlarini qadrlaganlar. Bunday amaldorlar va ilm ahlini esa aynan madrasalar va undagi ta’lim jarayoni yetishtirib chiqargan. Shuning uchun ham hukmdorlar uchun shaxsiy boyliklari hisobidan madrasalar qurish ulkan sharaf deb qaralgan [4].

Muhammad Rahimxon II, Islomxo‘ja, Qutlug‘ Murod Inoq, Sayyid Niyoz Sholikor kabi insonlar aynan o‘z nomlari va mablag‘lari hisobidan madrasalar qurdirganlar. Ayrim manbalarda shuningdek madrasalar uchun katta mablag‘lar ajratilishi va bu borada xon bilan birga mahalliy aholining o‘zi ham tashabusskor ekanligi qayd etilgan: “Madrasa yoki o‘quv yurtlari O‘rta Osiyoda mamlakatning boyligini va diniy ma’lumotini bildiradi. Ular uchun juda katta mablag‘ ajratiladi. Hukumat ham, xon ham, xalqning o‘zi ham juda jon kuydiradi” [5]. Madrasalarning moddiy taminoti uchun vaqf yerlari ajratib berilgan. Vaqfdan keladigan daromad madrasada qaytartibda taqsimlanishi alohida vaqfnoma deb nomlangan hujjatlarda belgilab berilgan.

Shuningdek madrasalar bu davrda mutavalli deb nomlanadigan amaldor tomonidan boshqarilgan. Mutavalli aynan mana shu madrasaning zamonaviy til bilan

aytganda ish boshqaruvchisi hisoblangan. Mutavalli sifatida madrasaga kim tayinlanishi ham aynan vaqfnomada belgilab qo‘yilgan. Mutavalli lavozimini egallagan shaxs madrasaga biriktirilgan vaqf muklari hisob-kitobini, xarajatlarni nazorat qilgan. Vaqf mulklari boshqaruvi va faoliyati ham aynan mutavalliga yuklatilgan. Shuningdek madrasa o‘qituvchilaridan tortib madrasa qorovuli va boshqa oddiy ishchilari ham har oylik maoshlarini mutavallidan olganlar.

Xivadagi mashhur madrasalardan biri bo‘lgan Rahmonberdibiy madrasasida faoliyat olib boruvchi insonlar va ular bilan bog‘liq tartib-qoidalar haqida quydagicha jumlalar qayd etilgan: “...har tolibi ilmiykim mazkura madrasa hujrasida istiqomat ko‘rguzur. Har yil ichida beuzri shar’iy paydarpay qirq kun baytutani tark etmasun. Va mudarrisi dog‘i beuzri shar’iy mutavoliyan ikki hafta darsgo‘ylig‘in matruk tutmasun. Va mazkura madrasa masjidining imom va muazzini dog‘i beuzri shar’iy imomat qilmoq, azon va qomatni barpoy tutmoqini mutavoliyan bir hafta tark etmasunlar. Farrosh va sartarosh dog‘i ilmi toliblarining soch va lablarining mo‘yin olmoqda va mazkura madrasaning xas va xashagin supurmak va pok qilmoqda beuzri shar’iy bir hafta tark etmasunlar...” [6]. Yuqoridagilar bilan birga mutavalli vaqf muklari yetakchi boshqaruvchisi sifatida vaqf mulklarini ishchilar o‘rtasida to‘g‘ri taqsimlash va vaqf mulki biriktirilgan muassasani ta’miri bilan shug‘ullanishi ham nazarda tutilgan. Vazifalarini bajarmagan, mansabini suiiste’mol qilgan hamda amalga oshirgan ishlaridan kelib chiqib ishonchsiz yoki ta’magir deya baholangan mutavallilarning ishi qozilar tomonidan ko‘rib chiqilgan va zarur holatlarda o‘z ishidan olib tashlangan.

Mutavalli lavozimi merosiy bo‘lib, agar mutavalli vafot etsa o‘rniga uning o‘g‘li yangi mutavalli sifatida tayinlangan. “Vaqfnomalarning aksariyatida ko‘rsatilishicha, agar mutavalli vafot qilsa, uning o‘rniga o‘g‘li tayinlangan. Agar o‘g‘li bo‘lmasa, unda madrasa mudarrislari (dars beruvchilar) o‘zlari bir insofli, diyonatli va ishbilarmon birovni saylashgan. Madrasa, masjid yoki boshqa vaqf ajratiladigan joylarga faqat quruvchisi emas, balki istagan bir kishi o‘z mulkini vaqf qilib bergan. Shuning uchun bitta imoratning bir necha vaqfnomalari bo‘lgan va ularning soni yillar oshgan sayin ko‘payib borgan” [7]. Yuqoridagi jumlalardan ma’lum bo‘ladiki, amaldagi mutavalli vafot etsa o‘g‘li agar uning erkak zurriyoti bo‘lmasa keyinchalik madrasadagi mudarrislar nazorati ostida boshqa bir ish boshqaruvchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan, insofli va halol bir insonni saylab qo‘yishgan. Shu bilan birga xohlagan odamning o‘z mulkidan madrasalar uchun vaqf qilib berishi mumkin bo‘lgan. Buning natijasida madrasalarga biriktirilgan vaqf mulklari soni har yili oshib boravergan. Bu esa madrasalarning moddiy va ijtimoiy ta’minotini yaxshi darajada saqlab turishga yordam bergan.

1873-yildagi “Gandimiyon” shartnomasidan keyin Rossiya imperiyasining protektoratiga aylangan Xiva xonligida Rossiya o‘zining yevropacha an’analarini olib kirishga va keng yoyishga harakat qildi. Xususan ta’lim sohasida ham bir qator rus-tuzem maktablari tashkil etildi. Biroq yuqoridagilarga qaramasdan xonlikda avvalgidek, madrasalar qurilishi va madarasa ta’limi avvalgiga qaraganda biroz sustroq bo‘lsa ham davom ettirildi. Bir qator ma’rifatparvarlar o‘z mablag‘lari hisobidan ham madrasalar bunyod ettirganlar. Jumladan, xonlikdagi yirik ma’rifatparvar va siyosiy arboblardan biri hisoblangan Ibrohimxo‘ja Pahlavon Mahmud nomi bilan ataladigan

shirkatxo‘jaligida masjid hamda madrasa qurdiradi. Madrasada o‘g‘il bolalar va qizlar uchun alohida darsxonlar mavjudligi qayd etilgan [8]. Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqib Rossiya tomonidan xonlikni yevropalashtirishga urg‘u berilayotganiga qaramay ta’lim jarayonlari shar’iy tarzda davom etgani va o‘g‘il bolalar hamda qizlar alohida ta’lim olganlarini anglab olishimiz mumkin.

Madrasalarda talabalar bilan birga oddiy ishchi-xizmatchi yoki boshqa lavozim egalari ham agar madrasaning tartibni buzgan bo‘lsa 3 martagacha ogohlantirish berilgan. Keyingi safar esa tartib buzuvchi madrasadan haydalgan. Umuman olganda, bunday holatlar madrasalarda kam uchragan. Sababi madrasalarda tartib-intizomga qat’iy amal qilingan. Shuningdek, madrasada alohida kengash faoliyat olib borgan. Kengash tarkibi asosan mutavvali va mudarrislarni o‘z ichiga olgan. Madrasaning barcha ichki masala va muammolari aynan mana shu kengashda muhokama etilgan. Madrasaning daromadi asosan madrasadagi talabalar soni va ta’lim olish davomiyligining uzoq yoki qisqa bo‘lishini ham belgilab bergan. Shuningdek, madrasalardagi moddiy ta’minot ham daromadiga qarab bir-biridan farq qilgan.

Xiva madrasalari Qo‘ng‘irotlar sulolasi davrida nafaqat ilm berish maskani balki madrasada o‘qimaydigan va umumiy avom xalq uchun ham ziyo maskani vazifasini bajargan. Madrasalarda vaqti-vaqti bilan ijodiy uchrashuvlar va badiy yig‘inlar o‘tkazilib turilgan. Ayniqsa, xon Muhammad Rahimxon II davrida bunday ilmiy va badiiy kechalar nihoyatda ko‘p bo‘lgan. Madrasalarda “Navoiyxonlik”, “Xamsaxonlik” kechalari Sa’diy va Fuzuliy ijodi bo‘yicha adabiy kechalar ham uyushtirilgan va vaqtlar o‘tib bu jarayon an’ana tusiga kirgan. Bunday uchrashuvlarning ayrimlarida xonning o‘zi ham shaxsan ishtirok etgan. Bunday yig‘inlarga Bayoniy o‘z asarida bir nechta misollar keltirgan: “Xon hazratlari haftada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bila suhbat qilib, kitobxonlik etur edilar. Andog‘kim, Yusuf Hoji oxun va Ismoil Xo‘ja oxun va Xudaybergan oxun va olimu ulum maqul va manqulda mulla Muhammad Rasul va Faqiri Xoqir majlisi xumonlariga haftada ikki marotaba hozir bo‘lib kitobxonlik etar erduk” [9]. Shuningdek xonlikdagi madrasalarda millati va ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar xohlagan ilmga rag‘bati bor inson tahsil olishi mumkin edi.

Xiva xonlari o‘qitish tizimi ayniqsa madrasadagi oliy ta’lim jarayonlariga katta e’tibor berganlar. Ayniqsa, Qo‘ng‘irot sulolasi davrida xonlar nafaqat madrasalar qurish balki ulardagi ta’lim jarayoniga ham katta jonbozlik ko‘rsatdilar. Xususan Qo‘ng‘irotlar sulolasi yorqin namoyandasi Muhammad Rahimxon II madrasa ta’limini davlat darajasidagi muhim ish deb baholagan. Shuningdek, xonning shaxsan o‘zi madrasalarga va dars jarayonlariga tez-tez tashrif buyurib turgan. Madrasadagi talabalar va o‘qituvchilar, ularning holati bilan tanishib borgan. Shuningdek, shaxsan Muhammad Rahimxon II ning o‘zi talabalarning yakuniy imtihon topshirish jarayonlarida ishtirok etib talabalarga savollar ham bergan. Nomzodlar orasida xonga ma’qul bo‘lganlarini esa shu yerning o‘zida xonlikdagi turli mansab va lavozimlarga tayinlagan. Xususan, Muhammad Rizo Ogahiy o‘zining “Shohid ul iqbol” asarida bu jarayonlarni quydagicha tasvirlaydi: “Hamul oyning avoyilida hazrat zilli subhoniyching xotiri saodat mazo Xirikim, hamisha tavfiqoti ilohiy va tandoti nomutano xiy bila shariati g‘arro izzatiga tolib va millati bayzo rif’atig‘a rog‘ib va

ulamo tarbiyatiga moyil va fuzalo taqviyatiga hovil erdi. Shaharda madrasalardin va xilvat Guzin bo‘lg‘on tolibi ilmlardin dars tamom etib, masoili diniya va ulukoloniyaga mahorat paydo qilg‘onlarning otlarin xatga olib fazlu kamollarin bilmak va podshox ani tarbiyatg‘a maxsus tutub, mansabdor qilmok uchun barchasin bir necha oqshom muborak xuzuriga talab qildi” [10].

Madrasa o‘qituvchilari oxund yoki mudarris deb atalgan. Madrasada bir nechta mudarrrislar tolibi ilmlarga dars berishgan. Mudarrislarning soni asosan madrasaning hajmi, daromadi va o‘quvchilar sonidan kelib chiqqan holda belgilangan. Misol uchun Olloqulixon madrasasida taxminan 7 ta oxund ish bilan ta’minlangan. Madrasani bitiruvchi talabalardan yakuniy imtihonlarni maxsus kengash olgan va iqtidorli talabalar turli lavozimlarga tayinlangan. “Madrasani tugatish imtihonlari xon hazratlari tomonidan tasdiqlangan maxsus hay’at a’zolari tomonidan qabul qilingan. Xon ko‘pchilik hollarda imtihonlarda ishtirok etib, tolibi ilmlarga savollar bergan. Shuningdek, imtihon paytida valiahd, qozikalon, qozi o‘rda va ulamolar ham ishtirok etganlar. Bitkazuvchilarga mufti, a’lam, oxund, mudarris kabi vazifalar berilgan. Alohida o‘rnak ko‘rsatib, xon hazratlarining e’tiboriga sazovor bo‘lganlar saroyda mirzo, devon, xattot kabi vazifalarga ishga tayinlaganlar” [11]. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak Qo‘ng‘irot sulolasi xonlari madrasalardagi ta’lim jarayonlariga katta e’tibor qaratganlar.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Xiva va butun o‘zbek davlatlarida madrasalar oliy ta’lim dargohi vazifasini bajargan. Madrasalar asosan vaqf mulklari hisobidan o‘z ehtiyojlarini qoplaganlar. Madrasalardagi vaqf mulklarini va madrasa ishini mutavalli boshqargan va nazorat qilgan. Shuningdek xonlarning o‘zlari ham aynan madrasadagi ta’lim jarayonlariga befarq bo‘lishmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Садуллаев А., Сотлиқов А. Хоразм Маъмун Академиясининг тарихий илдизлари. – Нукус-Урганч: Қорақалпоғистон, 2003. – Б. 243.

2. Худойберганов К. Хива дунёдаги энг кўҳна қалъа. – Тошкен: 2012. – Б. 30-31.

3. Жалилов О. Хива мадрасалари ва уларнинг иқтисодий таъминоти ҳақидаги ҳужжатлар // Шарқшунослик. – Тошкент. 1997. №8. – Б. 132.

4. Shir Muhammad Mirab Munis and Muhammad Riza Agahi. Firdavs al – iqbal: History of Khorezm / Edited by Yuri Bregel. T, J. Brill. Leiden – New York –Kobenhavn – Koln, 1988. P.145, 303, 306; Муҳаммад Ризо Огаҳий. Ишқ аҳлининг тумори // Танланган асарлар. – Тошкент: Халқ мероси, 1999. – Б. 227.

5. Наши соседи в Средней Азии // Туркестанский сборник. – СПб., 1873. Т. 54, – С.117.

6. Yusupov H. XIX-XX asr boshlarida Xiva madrasalari. – Buxoro: “Durdona”, 2025. – B. 56.

7. Худойберганов К. Хива дунёдаги энг кўҳна қалъа. – Тошкен: 2012. – Б. 29.

8. Раҳмонова Ю. Хива тарихидан лавҳалар. – Тошкент: “Akademnashr”, 2019. – Б. 163.

9. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажараи Хоразмшоҳий. – Тошкент: Мерос, 1992. – Б. 100.

10. Мухаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Шоҳиду-л-иқбол // Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳлар муаллифи Н. Шодмонов. – Тошкент: “Муҳаррир”, 2009. – Б. 57.

11. Рахим Д., Матрасулов Ш. Феруз. – Тошкент: “EXTREMUM PRESS”, 2011. – Б. 285.

TURKIYANING XALQARO TASHKILOTLARDAGI ISHTIROKI

Xamidullayeva Asaloy Azad qizi
UrDPI Filologiya va tarix fakulteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiyaning xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va NATO doirasidagi roli tahlil qilinadi.Maqolada tarixiy jarayonlar, Turkiyaning diplomatik yondashuvlari, xalqaro xavfsizlik va mintaqaviy siyosatdagi pozitsiyasi yoritiladi.Turkiyaning Yaqin Sharq siyosatidagi faoliyati va uning xalqaro tashkilotlarga qo‘shilish jarayoni ham o‘rganiladi.

Аннотация. В данной статье анализируется участие Турции в международных организациях, в частности, её роль в рамках Организации Объединённых Наций (ООН) и НАТО. Рассматриваются исторические процессы, дипломатические подходы Турции, а также её позиция в вопросах международной безопасности и региональной политики. Кроме того, изучается политика Турции на Ближнем Востоке и процесс её интеграции в международные организации.

Abstract. This article analyzes Turkey’s participation in international organizations, specifically its role within the framework of the United Nations (UN) and NATO. It examines historical processes, Turkey’s diplomatic approaches, as well as its position in international security and regional policy. Additionally, it explores Turkey’s Middle East policy and the process of its integration into international organizations.

Kalit so‘zlar: Turkiya, xalqaro tashkilotlar, BMT, NATO, xalqaro xavfsizlik, mintaqaviy siyosat, Yaqin Sharq, diplomatiya.

Ключевые слова: Турция, международные организации, ООН, НАТО, международная безопасность, региональная политика, Ближний Восток, дипломатия.

Keywords: Turkey, international organizations, UN, NATO, international security, regional policy, Middle East, diplomacy.

Turkiya geosiyosiy jihatdan muhim mintaqada joylashgan bo‘lib, uning xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki strategik ahamiyatga ega. Ikkinchi Jahon urushidan so‘ng Turkiya xalqaro maydonda o‘z mavqeini mustahkamlash maqsadida turli tashkilotlarga qo‘shildi. Ayniqsa, BMT va NATO kabi tashkilotlardagi ishtiroki uning xavfsizlik siyosatini belgilab berdi. Ushbu maqolada Turkiyaning ushbu tashkilotlardagi roli, ularning siyosiy va iqtisodiy ta’siri hamda mintaqaviy muammolar bilan bog‘liq masalalar tahlil qilinadi. 1945-yil dekabr oyida sovet bosimi ham eshittirishlarda, shuningdek radiodagi chiqishlarda butunlay kuchaydi. Bo‘g‘ozlardan tashqari, Kars va Ardagan viloyatlarining Sovet Armanistoni va Gruziyaga berilishi so‘ralgan edi. Kommunistik hukumat qoshidagi Bolgariya matbuoti ham 1946-yil aprel oyida Turkiyaga nisbatan bazi hududiy davolarni e’lon qildi va Bosh vazir Korsif 21- maydagi nutqida Sharqiy Frakiyani xohlayotganlarini ochiqcha jamoatchilikka e’lon qildi, natijada yunon kommunistik partizanlari tomonidan davom ettirilgan fuqarolar urushi avj oldi. Nihoyat mustaqillikka erishgan

Suriya yana Hatay masalasini o‘zgartirishga tayyorlanayotgan edi, qo‘shnilar o‘rtasida do‘stlik ko‘rsatib hukumat sifatida aslida Iroq turgan edi.

Tashqi nuqtayi nazaridan, 1946-yil bahori 1941 va 1944-yil bahoridan farq qilmadi bu safar Turkiya sharqdan, g‘arbdan hamda shimoldan kommunizm xavfi bilan qurshalgan edi. Bu doiraga qarshi janubiy chegarani mustahkamlash uchun xuddi 1925-yildagi kabi arab mamlakatlari bilan do‘stlik o‘rnatishga harakat qilindi. Sovet muxolifi, ayniqsa, “Izvestiya” gazetasi, Suriyaning Turkiyani tan olishi butun Hatayni qurbon qilish demakdir, deb yozdi. Boshqa tomondan, Hatay muammosiga to‘xtalib o‘tilmagani va Iroqning vositachiligi tufayli Damashq va Anqara o‘rtasidagi rasmiy aloqalar o‘rnatish mumkin edi. Biroq Suriya matbuoti bu masalani muammoga aylantirish uchun shunday kompaniya boshladiki, nihoyat, Turkiya Buyuk Millat Majlisi Raisi Kazim Karabekir 1947-yil 16-fevralda Antakiyada qilgan nutqida, “Agar kerak bo‘lsa, Hatayning turk ekanligini va turk bo‘lib qoladi” deb aytib o‘tdi. Bu vaqtda arab-isroil kurashining birinchi bosqichi boshlanganidan beri Damashq butun e’tiborini Falastinga qaratdi, Suriya va Turkiya o‘rtasida 1936-yilni eslatuvchi inqiroz yuzaga kelmadi. Bu holatda Anqara siyosatining markazida Falastindagi sionistlarning intilishlariga qarshi turish, ham arab davlatlari bilan kelishmovchilikni bartaraf etish, shu bilan birga uning janubiy chegarasidagi sovet fitnalarini zararsizlantirish edi. Bu masala Birlashgan Millatlar Tashkilotida 1947-yil mart va iyul oylari orasida qizg‘in munozaralarga sabab bo‘lganida, respublika Falastinning yaxlitligi hamda mustaqilligini himoya qildi va 1947- yil 29-noyabrda ushbu mintaqani Arab hamda Isroil davlatlariga bo‘linish uchun ovoz berish qo‘llab-quvvatlanganda, u bo‘linishga qarshi ovoz berdi.

1948-yil may oyida arab- isroil urushi rasman boshlanishi bilan turk matbuoti ham, mamlakatdagi musulmon jamoatchiligi ham qo‘shnilarini qo‘llab-quvvatladi. Bundan tashqari, arab jabhasini bilvosita qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1948-yilning noyabr oyidan boshlab Falastinga ko‘chib o‘tmoqchi bo‘lgan turk yahudiylariga chiqish vizalari berilmadi. Ammo bu ta’qiq 1949-yil 6-fevralda bekor qilindi, 1948-yilning dekabr oyidayoq Turkiya Falastin masalasida arab davlatlarini qo‘llab-quvvatlash siyosatidan betaraflik siyosatiga o‘tayotgan edi [1].

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (1948-yil 12-dekabr) tomonidan tashkil etilishiga qaror qilingan Falastinni yarashtirish komissiyasiga AQSh va Fransiya bilan birga Turkiya ham saylandi. Biroq arablar bunday komissiyaning tuzilishiga mutlaqo qarshi edilar [2].

Tashqi ishlar vaziri Najmiddin Sadak ham 1949-yil 28-martda Isroillik hamkasbi Levi Eshkolga yozgan maktubida Anqara Telavivni tan olganini bildirdi. Hukumatning ushbu o‘zgarishlar bilan bog‘liq rasmiy bayonotida Turkiyaning Isroilni tan olishda kechikishi arab qo‘shnilari manfaati uchun qilinganligi, ammo ushbu davlatlarning ba’zilari Isroilning mavjudligini tan olgani hamda u bilan sulh tuzganligi yoki tuzayotganligi sababli, Turkiyaning Isroilni tan olishni kechiktirishi ta’kidlandi ammo Anqaraning Telavivni tan olishida hech qanday zarar yo‘qligi aytib o‘tildi Isroil siyosatidagi o‘zgarish maxfiy hujjatlar oshkor etilmasligi, turli talqinlarga olib keladi. Ammo Isroil Atlantika paktiga kirish uchungina tan olingan deb da’vo qilish haqiqatga to‘g‘ri kelmas edi. Chunki,1948 -1949-yillardagi arab-isroil urushida Moskva

sotsialistik moyilligi bilan Telavivga qarshi emas edi. Qolaversa, Najmiddin Sadakning 1949-yil fevralida Angliya va AQSH tashqi ishlar vazirlari bilan Turkiyaning tashkil etilishi kerak bo‘lgan NATOga kirishi haqidagi muzokaralari ijobiy natija beramadi. Bundan tashqari, Isroilning Atlantika paktiga hech qanday aloqasi yo‘q edi, shunday qilib,Turkiya uchun Isroilni tan olish Atlantika paktiga kirish uchun eshik ochish degani emas edi. Boshqa tomondan, 1949-yilda Isroilning muvaffaqiyatidan so‘ng Suriya o‘z nigohini yana Hatayga qaratildi. Bu o‘lkada birinchi davlat to‘ntarishini amalga oshirgan polkovnik Zaim (1949- yil mart) Hatayda hech qanday davolari yo‘qligini e’lon qilgan bo‘lsa ham, avgust oyida uni ag‘dargan siyosiy kuchlar bu masalani milliy muammo deb e’lon qilishni kechiktirmadi [3]. Bu muvozanatlashtiruvchi omil bo‘lib, undan salmoqliroq harakat qilishni talab qildi 1949-yilgi respublika 1945 yoki 1946-yilgi kommunistlar himoyasidagi Turkiya emas edi.

1946-yil avgustida bo‘g‘ozlarda joylashish hamda Anqarada kommunizmga qarshi mo‘tadil hukumat o‘rnatish talabi bo‘yicha sovet ultimatumiga Turkiyani yolg‘iz qoldirish mumkin emasligini anglagan G‘arb dunyosi avvaliga Trumen doktrinasi, keyin esa Marshall dasturi bilan yordamga keldi. Biroq shunga qaramay, g‘arbliklarning Turkiyani o‘sha ma’noda Yevropa davlati sifatida ko‘rmasliklari Respublika ma’murlarini xavotirga solayotgan edi.

Anqara 1949-yilning bahorida Yevropa Kengashiga qabul qilingan ammo, na bu rivojlanish, na Trumen doktrinasi shuningdek Marshall dasturi kabi iqtisodiy yordamlar 1949-yil aprel oyida Sovetlarga qarshi mushtarak mudofaa ostida birlashgan NATO a’zolaridan Turkiyani himoya qilishga kafolat bera olishini talab qilmadi. Bu masaladagi muammo Angliyaning Turkiyani NATOda emas, O‘rta Yer dengizi ittifoqida ko‘rishni xohlayotganligidan kelib chiqdi. Xususan, O‘rtayer dengizidagi sovet rejasiga qarshi Suvayshdagi bazalarini ushlab qolishni istagan London, Anqara ham qatnashadigan, G‘arbdan ko‘ra Sharqiyroq mudofaa tizimini berishni maqsad qilgan edi. Anqaraning ahamiyati ortib, Anqaraning bunga qo‘shilishi Afina bilan ittifoq tuzish 1951-yil sentyabr oyida Ottavada bo‘lib o‘tgan Atlantika pakti konferensiyasida qaror qabul qilindi. Shunday qilib,Turkiya 1952-yilning 18-fevralida rasman NATOga kirdi va uni 1939-yildan beri yiqitgan sovet bosimiga qarshi ham mudofaa, ham xavfsizlik nuqtai nazaridan huquqiy kafolatga ega bo‘lgan edi. Agar Atlantika pakti Sovet Ittifoqining Yevropadan hujumini oldini olishni maqsad qilgan bo‘lsa, Amerika, Angliya, Fransiya, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Pokiston, Filippin va Siam ham 1954-yilda Rossiya va uning ittifoqchisi Xitoy tomonidan hujumning oldini olish uchun tashkil etilgan Janubi-Sharqiy Osiyo Shartnoma tizimiga (SEATO) birlashgan edi. NATO va SEATO devorlari orasidagi bo‘shliqni to‘ldirish uchun Vashington allaqachon Yaqin Sharqni o‘z ichiga oladigan mudofaa tizimini yaratishni rejalashtirgan edi. 1953-yildan beri AQSh Davlat kotibi Dallas arab mamlakatlarini G‘arb bilan umumiy mudofaa ostida to‘plashni taklif qildi va u kommunistik taktika olib kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni e’tiborsiz qoldirish kerak emasligini aytib o‘tdi, chunki ular Isroil muammosining guvohiga aylangan edi [6].

Vazifa Vashington tomonidan Adnan Menderesga qo‘shni musulmon davlatlarni Atlantika pakti qanotiga olib keladigan mudofaa tizimini amalga oshirish uchun

berilgan edi. Lekin Turkiya Bosh vazirining bu amaliyotdagi harakati Yaqin Sharqdagi tarixiy voqeliklarga to‘g‘ri kelmas edi. Arablar o‘zlarini G‘arbga aldangan deb hisoblardi ular Birinchi jahon urushida Usmonli imperiyasiga qarshi G‘arb bilan hamkorlik qildilar, ammo mustaqillikka erishish o‘rniga Yevropaning yarim mustamlakasiga aylandilar. Ikkinchi jahon urushi natijalari ular orzu qilgan mustaqillik uchun kuch bergan bo‘lsada, biroq Yaqin Sharqdagi harbiy bazalari bilan G‘arb bu mintaqadan butunlay chiqib ketmadi. Bunday vaziyatda, G‘arb bilan mudofaa tizimida birlashish, ularning fikricha, eski tartibning davom etishini anglatar edi. Bundan tashqari, G‘arb davlatlari Isroil davlatini o‘rnatilishi uchun javobgar hisoblanar edilar. Turkiyaning 1949-yil martida Telavivni tan olishi, 1950-yil iyul oyida Isroil bilan 840 ming dollarlik savdo shartnomasining imzolashi va nihoyat 1952-yil fevralida elchixona darajasida diplomatik aloqalar o‘rnatishi turk-arab qarama-qarshiligining asosi bo‘ldi. Turk-arab munosabatlariga soya solgan bunday omillar bilan bir qatorda optimizm talab qiladigan o‘zgarishlar ham bo‘ldi. 1952-yil iyul oyida Misrda ro‘y bergan inqilob natijasida qirollikning ag‘darilishi va respublikaga asoslangan boshqaruvning o‘rnatilishi Anqaraning umidlarini oshishiga sabab bo‘ldi. Shunday qilib, Misr Turkiya tomon ham xuddi shunday qadam tashladi hamda inqilob yetakchilari general Najip va polkovnik Nosir Otaturk islohotlarini olqishlagan bayonotlar berdi.

XULOSA

Turkiya xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki orqali o‘zining geosiyosiy ahamiyatini mustahkamlashga erishdi. Ayniqsa, NATO va BMT doirasidagi faoliyati uning mintaqaviy va global xavfsizlikka qo‘shayotgan hissasini yaqqol namoyon etadi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiya G‘arb bilan yaqinlashish siyosatini olib bordi va bu jarayonda NATO a’zoligi muhim bosqich bo‘ldi. NATOga qo‘shilish orqali Anqara o‘z xavfsizligini mustahkamlash bilan birga, G‘arbning yetakchi davlatlari bilan strategik hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Kelajakda Turkiyaning xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki yanada kengayishi kutilmoqda. Uning Yaqin Sharq, Bolqon va Markaziy Osiyo mintaqalarida yetakchi o‘yinchi sifatida harakat qilishi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini yanada chuqurlashtirish ehtimolini oshiradi. Shu bilan birga, Turkiya o‘z tashqi siyosatini ham G‘arb, ham Sharq bilan muvozanatli yuritishga intilishi natijasida, xalqaro tashkilotlardagi ishtirokini yanada faollashtirishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bk. Middle East journal, (1949) cilt 3 s. 83.
2. E. Kürkçüoğlu, Türkiye'nin Arap Orta Doğusuna Karşı Politikası, 1945-1970.
3. A.Ü.S.B.F. Yayınları, Ankara, 1972, S. 30.
4. A. Sandjian, “The Question of Alexandretta”, S. 386.
5. E. Kürkçüoğiu, Türkiye’nin Arap Orta Doğusuna Karşı Politikası, s. 41.
6. E. Kürkçüoğiu, Türkiye'nin Arap Orta Doğusuna Karşı Politikası, s. 53.

ARABLARNING XORAZMGA BOSQINI VA MIGRATSIYA JARAYONLARI

Turayev Diyorbek Bobomurot o‘g‘li
UrDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada arablarning Xorazmga bosqini va migratsiya jarayonlari ilmiy jihatdan muhokama qilindi.

Аннотация. В данной статье научно обсуждались арабское вторжение в Хорезм и миграционные процессы.

Abstract. This article, the Arab invasion of Khorezm and migration processes were scientifically discussed.

Kalit so‘zlar: Xorazm, arablar, Qutayba, savdo, migratsiya, toponim.

Ключевые слова: Хорезм, арабы, Кутайба, торговля, миграция, топоним.

Keywords: Khorezm, Arabs, Kutaiba, trade, migration, toponym.

VII asr oxiri VIII asr boshlarida arablar Movarounnahrni bosib olgan davrda Xorazmda afrig‘iylar sulolasi hukmronlik qilayotgan edi. Xorazmda davlat tuzilishi boshqa Markaziy Osiyo davlatlariga qaraganda markazlashgan edi. Xorazmning geografik joylashuvi So‘g‘d, Farg‘ona va Choch bilan emas, aksincha Kaspiy dengizining shimoli va shimoli-g‘arbida joylashgan Volga bo‘yidagi Xazar va Bulg‘or xoqonligi bilan savdo munosabatlarining rivojlanishiga imkon berdi1.

Muhammad al-Madaniyga ko‘ra, 653-yilda al-Ahnaf Marvdan Balxga qarab yo‘l oladi va Balxni qamal qiladi. Shahar aholisi arablar bilan sulh tuzadilar va 400,000 dirham tovon to‘lashi qayd etiladi. Ahnaf Balxda jiyani al-Mutashammisni tovonni undirish uchun qoldiradi. Keyin al-Ahnaf Xorazmga yo‘l oladi va qish kelguncha shu yerda qoladi. Qish qattiq kelganidan Ahnaf chekinishga majbur bo‘ladi va Balxga qaytadi. Shunday qilib arablarlarning Xorazmga dastlabki harbiy yurishi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi2. Tabariyga ko‘ra, Xorazm hukmdorlari o‘z davlatlarini arablar tomonidan bosib olinishining oldini olish uchun Markaziy Osiyo hukmdorlari bilan harbiy ittifoq tuzadilar. Bu ittifoq 680-681-yillarda Hazorasp shahrida o‘tkazilgan harbiy kengashda tuziladi. Unga ko‘ra, arablar tomonidan bosqin sodir bo‘lganda bir-birlariga harbiy yordam berish ko‘rsatib o‘tilgan3.

Xalifa Muoviya I tomonidan Xurosonga noib qilib tayinlangan Salim ibn Ziyod 681-yilda Xorazmga qarshi harbiy harakatlar boshlashga qaror qiladi va Xorazmni bosib oladi. Xorazm aholisi arablar bilan sulh tuzadi va 400 ming dirham tovon to‘lashi ko‘zda tutiladi4.

705-yilda xalifalikning barcha sharqiy viloyatlari noibi Hajjoj Xuroson hokimi Yazidga Xorazmni bosib olishni buyuradi. Ammo Yazid Xorazmda o‘lja mo‘l-ko‘l emasligi va qishning qattiq sovuq bo‘lishi uchun bu yurish zarar keltirishini aytadi. Hajjoj Yazidga maktb yo‘llab Xurosonda o‘z odamini qoldirib, Bag‘dodga kelishini buyuradi. Shundan keyin Yazid Xorazmga qarshi yurish qiladi va bu sulh bitimi bilan yakunlanadi. Yazid katta o‘lja va yuzlab asirlar bilan Hazoraspga qaytib ketadi5.

[1] Хорезм в истории государсвенности Узбекистана. Ташкент, 2013. С. 101.
[2] История Ат-Табари том XV. – С.106
[3] Хорезм в истории государсвенности Узбекистана. – Ташкент: 2013. – С. 101
[4] Ал-Балозуоий Хуросоннинг фатх этилиши. – Тошкент: 2017.
[5] Хорезм в истории государсвенности Узбекистана. – Ташкент: 2013.

705-yilning oktabr oyida xalifa Abdulmalik vafot etganidan so‘ng uning o‘g‘li Volid ibn Abdulmalik (705-715) xalifa bo‘ladi. Xalifa Abdulmalik 705-yilda Qutayba ibn Muslimni Xurosonga noib etib tayinlaganidan keyin arablar Movarounnahr va Xorazmni butunlay zabt etishga kirishdilar1.

Tabariyga ko‘ra, bu davrda Xorazmda hokimiyat uchun Xorazmshoh Chag‘on va uning ukasi Xurzod o‘rtasida kurash kechayotgan edi. Bundan tashqari mazdakiylik Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatga ta’sir ko‘rsatadi. Mazdakiylik ta’limoti quyi tabaqa vakillarining yuqori tabaqa vakillariga qarshi kurashga chaqiradi. Mazdakiylikning barcha odamlar tengligi haqidagi g‘oyalari ta’sirida Hurzod ham hokimiyat uchun kurash boshladi. 711-yilda Xorazmshoh Chag‘on elchilarini yashirin ravishda Qutaybaning oldiga yuboradi. Elchilar Qutaybaning Marvdagi qarorgohiga kelib, unga Xorazmshoh Chag‘ondan Hurzodga qarshi yordam so‘rab maktub topshiradilar. Buning uchun Qutaybaga 15 ming bosh qoramol, katta miqdorda mablag‘ va so‘zsiz itoatkorlik va’da qilinadi. Qutayba So‘g‘dga zudlik bilan yurishlar o‘tkazishi zarurligini aytib, taklifni rad etadi. Ammo elchilar qarorgohni tark etgach, Qutayba Xorazmga yurish qiladi. Arablarning otliq bo‘linmalari Hazoraspga yetib keladi. Chag‘on arablar bilan bitim tuzib, Hurzodga qarshi Qutaybaning ukasi Abdurahmon boshchiligidagi arab qo‘shinlari tomonida harakat qildi va bu Hurzodning qatl qilinishi bilan yakunlandi. Hamjird shahri Abdurahmon tomonidan bosib olinadi va asirga olingan 4 ming kishi Qutayba qarorgohiga yuborilib, ularning ko‘pchiligi qatl etiladi2.

Tabariyga ko‘ra, Qutayba 712-yilda Marvdan yo‘lga chiqib, Jayhun daryosini kechib o‘tadi va Buxoro, Kesh, Nasaf va Xorazmdan unga 20 ming askar berishini talab qiladi. Ular askarlarni yuborgach Qutayba So‘g‘ddan o‘tib, Shoshga yo‘l oladi3.

Hurzodning omon qolgan tarafdorlari Bulon boshchiligida VI asrda tashkil topgan Xazar xoqonligidan boshpana topadilar. G‘arbiy Turk xoqonligi parchalanganidan keyin xorazmliklar Xazar xoqonligi va Vizantiya imperiyasi qo‘shinlari bilan arablarga qarshi kurashni davom ettirdilar. Xorazmliklarning boshlig‘i Bulon dastlab Xazar qo‘shinlarining boshlig‘i, keyinchalik esa Xazar xoqonligining amalda hukmdori bo‘ladi. U 712-730-yillar davomida o‘z qo‘shinlari bilan Kavkazdagi arab mulklariga yurishlar qiladi4.

Shunday qilib, VII asrning o‘rtalaridan Movarounnahr hududiga kirib kelgan arablar VIII asr o‘rtalariga qadar mintaqaning katta bir qismini qo‘lga kiritgach, asosan, Buxoro, Samarqand, Nasaf, Karmana, Xorazm, qisman Shosh va Farg‘ona vodiysiga kelib o‘rnashadilar. Arablar istilo etgan shaharlarda o‘z harbiy bo‘linmalarini joylashtirar, bu yerlarga mahalliy aholini idora qilish maqsadida o‘z qavmdoshlari va islom dinini gabul qilgan eronliklarni ko‘chirib keltiradilar. Buning natijasida yangi geografik atamalar, jumladan, arabcha joy nomlari ham paydo bo‘la boshlaydi5.

1 Хорезм в истории государсвенности Узбекистана. – Ташкент: 2013.
2 Хорезм в истории государсвенности Узбекистана. – Ташкент: 2013. – С. 105.
3 Ал-Балозуоий Хуросоннинг фатх этилиши. – Тошкент: 2017. – С. 284.
4 Хорезм в истории государсвенности Узбекистана. – Ташкент: 2013. – С. 106.
5 Ш.Искандаров. Узбекистан араблари: ананалар ва трансформатсион жараёнлар. С. 45

Arablar istilosidan keyin Xorazmlik “Musulmon savdogarlar” turk qavmlari, Xazarlar, Bulg‘orlar va Ustyurtdagi O‘g‘uzlar orasida islom dinining yoyilishida katta xizmat ko‘rsatganlar. Gurganchdan savdogarlar O‘g‘uzlar, Xazarlar, Bulg‘orlar, Quyi Turkiston, shu jumladan, Xitoy va Hindistonga qarab harakatlanardilar. Xorazmning tijoriy, savdo hayotini jonlantirgan shimol o‘lkalari, jumladan, Xazar va Bulg‘or yurtlaridan arzon narxlarda olingan ming xil turli tijorat mollari edi. Xorazm va Bulg‘or yurtlaridan chiqqan tijorat karvonlari G‘arbiy Sibirdagi Irtish, Tobol va Ishim irmoqlari bo‘yidagi yarmarkalarga kelar edilar1.

Ibn Fadlanga ko‘ra, Abbosiy xalifa al-Muqtadir tomonidan Bulg‘or turk xoqoni Bilgavor Xonga Islom dinini anglatish, masjid va qal’alar barpo qilish uchun Turk davlat odamlarining hamroxligida yuborilgan katta “Elchilik hay’ati” Xorazmga keladi. Ular, Xorazmshoh Muhammad bin Iroqning yordami bilan Bulg‘or yurtlariga ketish uchun tayyorlangan va 5 ming kishidan tashkil topgan tijorat karvoniga qo‘shilib, Bulg‘or Turk xoqoniga yetib boradilar2.

Xazar xoqonligining “Arisiyya” deyilgan jihod qo‘shini Xorazmdan kelgan musulmonlardan tashkil topganini ko‘rishimiz mumkin. Mas’udiyga ko‘ra: Ular, Xazar xoqonining askarlari edilar, lekin ular bu yerda “Arisiyya” sifatida eslanardilar. Ular bu yerga Xorazm o‘lkasidan kelgan edilar. Islom dinining Xorazmga yoyilganidan bu yerda katta bir kasallik tarqalgan va ular Xazar xoqoniga borib boshpana topgandilar. Xorazmlik askarlar kuch-quvvatli yigitlar edi. Urushlarda Xazar xoqoni ko‘pincha ularga ishonardi” deya ta’riflaydi3.

Xorazmni egallaganidan keyin arablar bu hududlarda o‘troqlashib, mahalliy aholi tarkibiga singib ketganini ko‘rishimiz mumkin. Hozirda viloyatning ayrim tumanlarida arablar yashaydigan qishloq va arabcha joy nomlari saqlanib qolgan. Qo‘shko‘pir tumanida joylashgan Qatag‘on qishlog‘i aholisi arablar va baratlar qavmlaridan tashkil topgan. Qutaybaning Xorazmga bosqini davrida arablar o‘rnashib qolganlar va ular ming yillar davomida mahalliy aholi sharoitiga moslashganlar4.

Shix qishlog‘i Xorazm vohasining janubi-g‘arbida, Turkmaniston bilan chegaradosh bo‘lgan hududda qaror topgan. “Shix” so‘zi asli “Shayx” atamasining Xorazmcha buzib talaffuz etilishidan kelib chiqqan. “Islom” ma’lumotnomasida Shayx so‘zi shunday izohlanadi: “Shayx” (arabcha – keksa, oqsoqol) – Islom dini tarqalgan mamlakatlarda so‘fiylik tariqatidagi pirlar, eshonlar, “Muqaddas joylar” ning mutasaddilari ham Shayx deb yuritilgan. VIII asrdan buyon bu qishloq aholisini va qo‘shni Taxta tumani xalqini Ismomut shixlari deb ataydilar5.

Ko‘hna Zey qishlog‘i hududlarida arablar elat-qavmi mavjud. Arablar VII-VIII asrlarda qishloq sarhadlariga ko‘chib kelib o‘troqlashib qolganlar va mahalliy aholining tili, yozuvi va turmush-tarzini qabul qilib qishloq hayotiga moslashib ketganlar6.

[1] Закариё. Озарбайжон-Хоразм ва Турк Ўғуз қабилалари орасида Исломият.
[2] Закариё. Озарбайжон-Хоразм ва Турк Ўғуз қабилалари орасида Исломият.
[3] Закариё. Озарбайжон-Хоразм ва Турк Ўғуз қабилалари орасида Исломият.
[4] Р.Машарипов. Мозий садолари ва сабоклари. – С. 50.
[5] Р.Машарипов. Мозий садолари ва сабоклари. – С. 58.
[6] Р.Машарипов. Мозий садолари ва сабоклари. – С. 69.

Hayrobod qishlog‘i Qo‘shko‘pir tumanida joylashgan bo‘lib, shimoli-sharq tomondan Yangilik, O‘zbekyop qishloqlari bilan, janubi-g‘arb tomondan Xiva tumani bilan chegaradosh. Qishloqning “Kallalik” qismida arablar qavmi VIII asrdan boshlab istiqomat qiladilar. Ular hozirgi kunda butunlay o‘zbeklashib, o‘z tilini unutib yuborganlar1.

Xorazm toponimiyasining oraliq davri tarixiy jihatdan arablar istilosi va undan keyingi davrga to‘g‘ri keladi. Hozirgi davrda Xorazm toponimiyasida Arablar, Arabxona, Arabovul kabi o‘nlab qishloq nomlari shuningdek, ayrim kishilarning nomlari va laqabi sifatida uchraydigan arab (Buvajan arab, Madamin arab) so‘zlari o‘sha davrning nomlaridir. Xorazm toponomiyasida arab elementlarining saqlanaib qolishi musulmon dini bilan bog‘liq bo‘lib, ularning aksariyati diniy terminlar hisoblanadi2.

Xorazmda Vaxt, Vaxtyop kabi o‘nlab toponimlar uchraydi, ular kelib chiqishiga ko‘ra oraliq davrga borib taqaladi. Vaqf arabcha turish, turoq, qo‘zg‘almas degan ma’noni bildiradi. Ijtimoiy termin sifatida vaqf – musulmon qoidalariga muvofiq davlat va ayrim kishilar tomonidan xayrli maqsad yo‘lida ajratilgan mol-mulk ma’nosini anglatadi3.

Saqa toponimi arabcha so‘z bo‘lib “sug‘orish” ma’nosini anglatadi. Dashsaqa, Arnasaqa kabi nomlar tarkibida ishtirok etadi. Xorazm va Turkmanistonda manba, ariqning boshlanish joyi degan ma’noni anglatadi4.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, arablar bosqini Xorazmga nafaqat diniy tarafdan, balki migratsiya, savdo-iqtisodiy, madaniy va etnik jihatdan katta ta’sir ko‘rsatadi. Xorazm hududida arabcha toponomik nomlarning mavjudligi va arablarning bu hududda o‘troqlashib qolganiga dalil bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Хорезм в истории государсвенности Узбекистана. – Ташкент: 2013.
2. История Ат-Табари том XV.
3. Ал-Балозуоий Хуросоннинг фатх этилиши. – Тошкент: 2017.
4. Искандаров Ш. Ўзбекистан араблари: ан’аналар ва трансформацион жараёнлар.
5. Закариё. Озарбайжон-Хоразм ва Турк Ўғуз қабилалари орасида Исломият.
6. Машарипов Р. Мозий садолари ва сабоклари.
7. Дўсимов З. Хоразм топонимлари.

[1] Машарипов Р. Мозий садолари ва сабоклари. – С. 71.
[2] ДУСИМОВ З. Хоразм топонимлари. – С. 29.
[3] Дўсимов З. Хоразм топонимлари. С. 31
[4] Дўсимов З. Хоразм топонимлари. С. 73

XORAZMDA MARKS JUMANIYOZOV HOKIMLIK DAVRIDA IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOT

Bahodirov Furqat Ne’matjon o‘g‘li
UrDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillikdan keyin Xorazm viloyatining birinchi hokimi Marks Jumaniyozov davrida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar ta’lim, fan va qurilish sohasidagi islohotlar, 1992-1996-yillardagi qariyb 4 yillik davr mobaynida Xorazm viloyatida sodir bo‘lgan turli xil ijtimoiy jarayonlar tarixiy manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, Xorazm viloyati, Marks jumaniyozov, qarorlar.

Аннотация. В данной статье на основе исторических источников анализируются социально-экономические и политечиские процессы, реформы в сфере образования, науки и строительства, проведенные в период правления первого губернатора Хорезмской области после обретения независимости Маркса Джуманиязова, различные социальные процессы, происходившие в Хорезмской области в течение 4-летнего периода 1992-1996 годов.

Ключевые слова: Общественно-политические процессы, Хорезмская область, Маркс Джуманиязов, решения.

Abstract. In this article, the social and political processes, reforms in the field of education, science and construction during the time of the 1st governor of Khorezm Province Marks Djumaniyazov. Various social processes that took place in Khorezm Province during the 4-year period of 1992-1996 are analyzed based on historical sources

Keywords: Socio-political processes, Khorezm region, Marks Djumaniyozov, decisions.

Ma’lumki, mustaqillikdan keyin O‘zbekiston hududidagi barcha viloyatlarda turli xil ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarish jarayonlari boshlandi. Albatta Xorazm ham bundan mustasno emas. Marks Jumaniyozov 1938-yil 18-avgustda Oyoqdo‘rman qishlog‘ida (hozirgi Xorazm viloyatining Yangibozor tumani) tug‘ilgan, keyin Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institutini tugatgandan so‘ng mexanik-muhandis sifatida o‘qigan. “Xorazmsovxozvdstroy” trestini boshqargan va sholi yetishtirish uchun qumli yerlarni o‘zlashtirishga katta hissa qo‘shgan. 1975-1990-yillarda Xonqa, Urganch va Yangibozor viloyatlari raisi lavozimlarida ishlagan. 1990-yil apreldan Xorazm viloyati “Selxoznabremont” uyushmasining raisi bo‘lib ishlagan. 1992-yil 27-yanvarda O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning farmoni bilan Xorazm viloyatining birinchi hokimi etib tayinlandi. 1996-yilgacha hokim lavozimida ishlagan. 1997-yil noyabrga qadar O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi vaziri, so‘ngra Davlat karantin xizmati boshlig‘i sifatida ishlagan1. 2008-yilda Marks Jumaniyozovning “Esimda qolgan onlar” nomli kitobi ommaga taqdim etilgan. Mazkur kitobda butun hayoti davomida o‘z xalqiga xizmat qilgan va o‘z elining mehriga, hurmatiga sazovor bo‘lgan fidoiy va mehnatkash inson Marks Jumaniyozov sevimli kasbi muhandislik,

[1] https://uz.wikipedia.org/wiki/Marks Jumaniyozov

qishloq xo‘jaligi mutaxassisligi haqida jo‘shib, faxrlanib yozgan. Marks Jumaniyozov nafaqat qishloq xo‘jaligi xodimi bo‘lib qolmasdan hayotida juda ko‘p sohalarga qiziqib, ularning vakillari bilan uchrashib, do‘stlashib bahslashib turgan. Risolada turli soha vakillari haqida qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Ayniqsa, Xorazm vohasining san’atga shaydo eli va bu elning qadimiy betakror musiqasi, qator elga taniqli san’atkorlari (Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Otajon Hudoyshukurov) kabilar haqida ham chuqur va qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Marks Jumaniyozov o‘zining mehnatsevarligi va rahbarlik qobiliyati bilan Xorazm tarixida yorqin iz qoldirgan. Uning ishi nafaqat hududda, balki butun O‘zbekiston agrar sohasida sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Xorazmdagi siyosiy roli: Marks Jumaniyozov 1990-yillar boshida Xorazm viloyati hokimi lavozimida ishlagan. Uning faoliyati mintaqaviy muammolarni hal qilishga qaratilgan sa’y-harakatlar bilan ajralib turdi, ammo u joriy etgan muayyan dasturlar yoki siyosatlar mavjud manbalarda kam ma’lumotga ega bo‘lib qolmoqda.

Madaniy-tarixiy tashabbuslarda ishtirok etish: Aytib o‘tganimizdek, M. Jumaniyozov 1994-yilda bir guruh ziyolilar boshchiligida mo‘g‘ul bosqinlariga qarshi kurashgan Xorazm viloyatidan bo‘lgan xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi qabrini1 topishga harakat qilgan. Biroq qidiruv ishlari muvaffaqiyatsiz yakunlandi, chunki Diyorbakir viloyatida Manguberdi qabriga oid dalil topilmadi.

Marks Jumaniyozovning rahbarligi Xorazm tarixidagi sho‘rolar o‘tmishi va mustaqil kelajakni bog‘lab turgan muhim davrga to‘g‘ri keldi. Keyingi o‘n yilliklar davomida mintaqani modernizatsiya qilish va uning boy madaniy merosini saqlab qolish bo‘yicha sa’y-harakatlar davom etdi.

2008-yil Marks Jumaniyozovning hayotiga bag‘ishlangan “**Esimda qolgan onlar**” kitobi chop etiladi bu asar Marks Jumaniyozov o‘zining mehnatsevarligi, rahbarlik qobiliyati va xalqiga bo‘lgan sadoqati haqida so‘zlab beradi. Kitobda shuningdek, Xorazm vohasining san’ati, musiqasi va madaniyati haqida qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Xususan, Hojixon Boltayev, Komiljon Otaniyozov, Otajon Hudoyshukurov kabi taniqli san’atkorlar haqida batafsil ma’lumotlar mavjud. Bu asardagi eng qiziqarli sahifalar odatda muallifning hayoti yoki o‘ziga xos bo‘lgan voqealar bilan bog‘liq. Marks Jumaniyozovning “Esimda qolgan onlar” kitobida ayniqsa, uning Xorazm vohasining madaniyati, san’atkorlari va rahbarlik faoliyati haqida hikoyalari qiziqarli.

Xorazm vohasi va san’atkorlar haqida hikoyalar: Ushbu sahifalar, Xorazmning boy madaniyati va uning taniqli san’atkorlari, musiqachilari, shoirlari va rassomlari haqida so‘zlab beradi. Muallifning san’at va madaniyatga bo‘lgan e’tibori va hurmati bilan qarashi kitobda o‘z aksini topgan.

Shaxsiy voqealar va xotiralar: Kitobda Marks Jumaniyozovning hayotining turli voqealari, qiyinchiliklari va muvaffaqiyatlari haqida so‘z boradi. Unga oid qiziqarli voqealar va xalq bilan o‘tkazgan uchrashuvlar, hokimlik davri, o‘zining rahbarlik yutuqlari va insoniy xotiralar kitobning eng hayajonli qismlaridan biridir.

[1] Jaloliddin Manguberdining qabrini ko‘chirishdan kimga naf?,Erpo’lat baxt,jurnalist xorazm viloyati

“Esimda qolgan onlar” kitobida Marks Jumaniyozovning hokimlik davri ham muhim mavzudir. U Xorazm viloyatining hokimi sifatida 1992-19961-yillarda faoliyat yuritgan va bu davrda O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi, yangi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tizimga o‘tish jarayoni kutilganidek oson bo‘lmagan.

Mustaqillik va yangi tizim: Kitobda, hokimlik davrida Xorazm viloyatida mustaqil O‘zbekistonning yangi hukumatining tashkil etilishi va uning ta’siri haqida so‘z boradi. M. Jumaniyozov shaxsiy tajribasidan kelib chiqib, yangi siyosiy tizimni joriy etishda uchragan qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlar haqida yozgan. Bu davrda hokimiyatning yangi shakllari, iqtisodiy islohotlar, davlat tashkilotlarining yangilanishi va hukumat siyosatining amaliyotga tadbiq etilishi muhim ahamiyatga ega edi.

Iqtisodiy rivojlanish va inshootlar: Xorazm viloyatida hokimlik davrida iqtisodiy rivojlanish yo‘lida ko‘plab o‘zgarishlar yuz berdi. Kitobda, viloyatning iqtisodiy ahvoli va islohotlarga qanday yondashilganligi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Jumaniyozovning hokim sifatida qilgan ishlaridan biri – iqtisodiyotni modernizatsiya2 qilish va Xorazmning o‘ziga xos sanoat sohalarini rivojlantirish edi. Bu, ayniqsa, agrar sektorda yangi texnologiyalarni joriy etish, agrar islohotlarni amalga oshirishda o‘z aksini topgan.

Marks Jumaniyazov 1991-yilda mamlakat delegatsiya tarkibida Xitoy Xalq Respublikasiga tashrif buyuradi va harbiy ko‘rgazmalarda qatnashadi. Yangi texnika, ayniqsa kichik texnikalar unda katta taassurot qoldiradi. Yerlar dehqonlarga bo‘lib berilishi va dehqonlar yerdan qanday unumli foydalanayotgani uni hayratga soladi. Ariqlar yer tagidan o‘tgan sug‘oriladigan kichik nasoslar yordamida olinadi keragicha ishlatib boshqa vaqtda esa ular o‘chirilib qo‘yilishi va dalaning o‘rtasidan o‘tgan elektr tarmoqlari har bir dehqonning suv nasosi shu tarmoqqa ulanganligi unda juda katta taassurotlar qoldiradi. Marks Jumaniyazov Xitoyda 10 kun davomida bo‘ladi va bu uning ikki marta chet davlatiga ikkinchi safari edi. Birinchi gal esa 1981-yilda Chexoslovakiyaga borgan edi.

Marks Jumaniyazovni 1991-yil avgust3 oyida Abdulla Iskandarov muovini Reyimboy Matrasulov, “Paxta bank”ning rahbari Sultonov va meni Shveytsariyaga, to‘qimachilik mashinalari olishni kelishib kelishga yuboradilar. U 8 million aholisi davlat bor mamlakatda to‘rt tili davlat tili ekanligini ko‘rib hayratga tushadi. Ular Syurixga borib tushadi u yerda davlat tili nemis tili bo‘ladi. Riter zavodida bo‘ladi u yerda to‘quv mashinalarini ko‘radi afsuski ularni olib kelishga muvaffaq bo‘lmaydi chunki kuzga borib butun mamlakatda inqilobiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi, qizil imperiya qulaydi va O‘zbekiston mustaqillikka erishadi.

Marks Jumaniyozov 1992-yil birinchi prezident Islom Abdug‘aniyevich Karimov tomonidan Xorazm viloyatining hokimi qilib tayinlanadi. Bu haqida Marks Jumaniyovning o‘zi shunday hikoya qiladi: 1992-yil men uchun omadli boshlandi. 3-yanvardan boshlab u selxoztexnika tizimida olib borilayotgan ishlar bilan tanishtirish uchun ko‘rik-seminar tashkil qilindi. Seminar vaqtida Buxoro viloyati “Qishloq

[1] Маркс Жуманиёзов © Ўзбекистон давлат консерваториясининг “Musiqa” нашриёти, 2008 й
[2] ДЖУМАНИЯЗОВ Маркс Ж. | TsentrAziya
[3] Маркс Жуманиёзов © Ўзбекистон давлат консерваториясининг “Musiqa» нашриёти, 2008 й

xo‘jaligi texnikasi” sining rahbari, o‘z ishining ustasi mehmondo‘st Istamboy Gaidarov va Fargon viloyati “Qishloq xo‘jaligi texnikasi” si raisi Toshmat G‘aniyev bilan yaqindan tanishib, do‘stlashib qoldik. Istamboy1 Haydarov bilan keyingichalik birga ishladik, hozirgacha bordi-keldi qilib, aka-uka bo‘lib yuramiz. Toshmat G‘aniyev Farg‘onani tomosha qilib ketishimni taklif qildi. Men fursatdan foydalanilib, birga o‘qigan, birga ishlagan do‘stlarimni ko‘rib kelishga qaror qilib, 3-4 kun vodiyda qolishga ruxsat oldim. Andijonlik do‘stlarimiz bilan uchrashib, Namanganga, ko‘p yillar Chortoq raykomida birinchi kotib bo‘lib ishlagan Hakimjon Umrzoqov huzuriga jo‘nadim. Men shu vaqtgacha Namanganda bo‘lmagan edim. Hakimjon menga Namanganni tomosha qildirdi. Hakimjon meni oila a’zolari, qarindosh-urug‘lari bilan tanishtirdi. Bu ajoyib inson bilan do‘stlik rishtalarini uzmasdan, bugungacha bordi-keldi qilamiz”.

Bunday kutishlar, uchrashuvlar, kuzatishlar ko‘p bo‘ldi. Mehmonlar bizni tanidilar, biz ularni tanidik. Qolaversa mehmon kutamiz deb ko‘pgina ishlarni qildik. Bir so‘z bilan aytganda, rizqimizga rizq qo‘shildi. Shu davrlarda ishlar yaxshi natijalar berdi. Viloyatimizda iqtisodiy, ilm-fani rivojlangan viloyatlardan joy olgan old. Endi ular bizning tajribamizni o‘rganish uchun keladigan bo‘ldilar.

Respublika miqyosidagi ko‘pgina ko‘rgazmali seminarlar2 viloyatimizda o‘tadigan bo‘ldi. Viloyatga hokimlik qilgan yillarimda bir qancha kadrlar o‘zgardi, lekin deyarli hech kim “urilib” ketmadi. Ularning ba’zilari bugun nafaqada, ko‘plari fidokorona mehnat qilib yuribdi.

Xulosa qilib aytganda Marks Jumaniyozovning hokimlik davri O‘zbekistonning mustaqillikka erishgan dastlabki yillariga to‘g‘ri keladi, ushbu davrda u o‘zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy islohotlarida katta harakatlar qilgan. Biroq, har bir rahbarlik davrida bo‘lgani kabi, ba’zi qiyinchiliklar va qarama-qarshiliklar mavjud edi. M. Jumaniyozovning rahbarlik faoliyati, albatta, Xorazm viloyatining rivojlanishiga salmog‘li ta’sir ko‘rsatgan. Uning rahbarlik davri, o‘ziga xos muammolar, yutuqlarni va turli xil o‘zgarishlarni o‘zida mujassamlashtirgan tarixiy bir davr sifatida qimmatli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Marks Jumaniyazov. Esimda qolgan onlar. – Toshkent: “Musiqa”, 2008.

2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Marks_Jumaniyozov,4.2.2025 tahriri.

3. Erpo‘lat Baxt jurnalist. Jaloliddin Manguberdining qabrini ko‘chirishdan kimga naf, 2019.

4. Internet manbasi. Джуманиязов Маркс Ж. | TsentrAziya, 2021.

[1] Маркс Жуманиёзов © Ўзбекистон давлат консерваториясининг «Musiqa» нашриёти, 2008 й

[2] Маркс Жуманиёзов © Ўзбекистон давлат консерваториясининг “Musiqa” нашриёти, 2008.

XORAZMDA SHAYBONIYLAR SULOLASINING BOSHQARUV TIZIMI, MANSAB VA UNVONLAR

Otajonova Madinabonu Sheripboy qizi
UrDPI Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada XVI-XVII asrlarda o‘zbek davlatchiligi rivojlanishiga juda katta hissa qo‘shgan Xiva xonligining ma’muriy tuzilishi, davlat boshqaruvi, shuningdek xonlikdagi mansab, lavozimlar va ularningg vakolatlari haqida so‘z boradi.

Аннотация. В данной статье рассматривается административное устройство Хивинского ханства, внесшее большой вклад в развитие узбекской государственности в XVI-XVII веках, государственное управление, а также должности, должности и полномочия ханства.

Abstract. This article refers about administrative structure of Khiva khanate, state management, as well as positions and their powers in the khanate, which greatly contributed to development of Uzbek statehood in the XVI and XVII centuries.

Kalit so‘zlar: Inoq, otaliq, mehtar, biy, parvonachi, dasturxonchi, noib, mutavalli, shayxulislom, qozikalon, mufti, beklarbegi, qo‘shbegi, aka, arbob, chig‘atoy-inoq, mirshab, mingboshi, tumanboshi.

Ключевые слова: Инак, аталык, мехтар, бий, парвоначи, скатерть, наиб, мутавалли, шейхульислам, газикалон, муфтий, беклярбеги, кошбеги, ака, арбоб, чигатай-инак, констебль, командир, командующий, начальник округа.

Keywords: Inoq, otaliq, mehtar, biy, parvonachi, dasturkhanchi, naib, mutawalli, shaykh al-islom, qadi al-kalan, mufti, beklarbegi, qushbegi, aka, arbab, chigatai-inoq, mirshab, mingboshi, tumanboshi.

Kirish (Introduction): XVI-XX asrning boshlarida mavjud bo‘lgan Xiva xonligi – O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixida, iqtisodiy va madaniy hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lib, jamiyat taraqqiyotining mintaqa hududlaridagi o‘ziga xos tamonlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega davlat hisoblanadi. Xiva xonligining tarixi O‘zbekiston tarixining ajralmas qismidir. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov,,...inson o‘zligini anglagani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg‘usi ildiz otib, ulg‘aya boradi”, – deb o‘z asarida keltirganidek [1], biz yangi avlodlar Xiva xonligidagi markaziy boshqaruvni shakllanishi va rivojlanishi, mavjud boshqaruv tizimidagi quyi va yuqori idoralar, davlat boshqaruvidagi harbiy unvon va mansablar, diniy tashkilotlar boshqaruvi kabi masalalar yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishimizni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi (Literature analysis and Methodology): Xiva xonligining davlat boshqaruvi tarixini o‘rganishda turli manba va adabiyotlar, sayohatnomalar, arxiv hujjatlarni tahlil qilish, qiyosiy solishtirish usullaridan keng qo‘llanildi.

Mavzuni yoritib berish jarayonida B. Eshovning “O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi”, A. Sagdullayev, O‘.Mavlonov. “O‘zbekiston davlat boshqaruvi tarixi”, Y. Rahmonovaning “Xiva tarixidan lavhalar” kabi bir necha adabiyotlardan

foydalanildi. Shuningdek, mahalliy tarixchilardan Munis va Ogahiyning “Firdavs-ul iqbol” asari ham qimmatli manbalardan biridir.

Muhokama va natijalar (Discussions and results): Xiva xonligi yakka hokimiyatchilikka asoslanib, xon davlat boshlig‘i, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi homiyat egasi hisoblanadi. U xonlikdagi oliy mansabdor shaxs bo‘lib, ma’muriy-siyosiy, diniy va harbiy vakolatlarga ega bo‘lgan. O‘z navbatida oliy qo‘mondon sifatida harbiy sohani ham idora etgan.

Qo‘shni xonliklardan farqli o‘laroq, Xiva xoni huzurida faoliyat ko‘rsatuvchi Kengash (Devon) mavjud bo‘lgan. Kengashning a’zolari eng yuqori mansab va unvonlardagi amaldorlar bo‘lib, ularning vakolati cheklangan. Barcha qarorlar amalda xon tamonidan qabul qilingan bo‘lsada, lekin yirik saroy amaldorlarining, qabila boshliqlarining, mahalliy hokimlarning davlat boshqaruviga ko‘rsatadigan ta’sirini ham alohida inobatga olishimiz kerak.

Davlat boshqaruvida xondan keyin inoq, otaliq va biy muhim ahamiyatga ega amaldorlar hisoblangan. Inoqlarning ijtimoiy-siyosiy mavqeyining oshishi XVII asr o‘rtalaridan boshlangan. Bunga sabab Abulg‘ozi Bahodirxon Xiva taxtini egallaganidan keyin o‘zaro urush va janjallarni bartaraf etish uchun davlat boshqaruvida islohatlar olib boradi. Amudaryoni quyi qismida yashayotgan barcha aholini to‘rt guruhga bo‘ladi. Bular uyg‘ur-nayman, qiyot-qo‘ng‘irot, qangli-qipchoq va nukus-mang‘it. Bunda qabilalarning urf-odatlari, turmush tarzi va qarindoshlik aloqalari hamda joylashgan yerini hisobgan olib, ularga alohida hudud, sug‘oriladigan ariq va kanallar taqsimlab berilgan. Har bir qabila ittifoqidan bitta namoyanda ya’ni inoq tayinlanib, davlat boshqaruvi va ma’muriy ishlarga jalb qilingan. Shuningdek, xon inoqlar orqali qabilalarga tegishli masalalarni hal qilgan. Inoqlar xonning eng yaqin maslahatchisi sifatida saroyda istiqomat qilgan.

Xiva xonligida ma’muriy islohatlar o‘tkazgan hukmdorlardan biri Abulg‘ozi Bahodirxon bo‘ladi. U xonlik taxtiga kelgan birinchi kundanoq, asosiy e’tiborni davlatni mustahkamlash masalasiga qaratdi. Birinchi o‘rinda turkman zodagonlarini davlat boshqaruv ishlaridan chetlashtiradi. Ularning qo‘llaridagi mol-mulklarini, yer-suvlarini tortib olib, o‘zlarini xonlik ichkarisidan quvg‘in qilgan. Shundan so‘ng turkmanlar Xurosonga, Janubiy Turkmanistonga, Abulxon va Mang‘ishloqqa kochib ketishga majbur bo‘ladilar [2]. Xonlikning barcha yuqori lavozimlari o‘zbek hukmdorlari qo‘liga o‘tadi.

Davlat boshqaruv tizimiga ham ancha o‘zgarishlar kiritdi. Xiva tarixchisi Munisning ko‘rsatishicha, Abulg‘ozi Bahodirxon markaziy boshqaruv tizimini batamom yangidan tashkil qilib, u o‘zbek zodagonlaridan 360 nafar kishi turli davlat mansablari va amallariga tayinlangan. Shulardan eng obro‘li 32 kishiga saroyda o‘z yonidan o‘rin berdi. Ular xonning yaqin maslahatchilari bo‘lishgan. Shuningdek saroyda 32 ta markaziy boshqaruv lavozimlari tashkil etilib, ular quyidagicha taqsimlanadi: 4 ta inoq, 2 ta otaliq, 4 ta biy, 1 ta noib, 1 ta parvonachi, 2 ta shayxulislom, 1 ta mutavalli, 4 ta mirob, 2 ta aka, 2 ta arbob, 4 ta chig‘atoy-inoqi, 1 ta vazir va yana 1 ta qo‘shbegi lavozimlaridir [3]. Shu bilan Abulg‘ozi Bahodirxon o‘zbeklarni va yerli aholining nufuzli vakillarini davlat boshqaruv ishlariga jalb qilib, ular orasida barqarorlikni vujudga keltirgan. Qabila boshliqlaridan 30 nafar kishi xon

noibligi va yordamchiligiga jalb etilgan va ularga turli unvon va vazifalar berilgan [4]. Xorazmda shayboniylar sulolasi davrida bir qancha mansablar mavjud bo‘lib, xonlikdagi barcha mansablarni qo‘shni xonliklar singari saroy, harbiy-ma’muriy va diniy unvonlarga bo‘lish mumkin. Harbiy-ma’muriy va saroy mansab va unvonlar:

Inoq – xonlikdagi eng katta unvonlardan biri hisoblanib, odatda inoqlar eng qudratli o‘zbek urug‘laridan tayinlangan hamda ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo‘lishgan.

Otaliq –xonzoda va taxt valiahdlarining murabbiysi. Xonlikda eng kuchli va qudratli bo‘lgan qabila boshliqlariga berilgan. Otaliq qilich va pichoq taqib yurgan [5].

Biy – saroy unvoni. Inoq va otaliqdan keying martaba. Biy qabila va urug‘ning boshlig‘i hisoblanib, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turkiy xalqlarning, jumladan, o‘zbek oqsoqollariga beriladigan unvon.

Mehtar – katta, ulug‘ degan ma’noni beradi. Vazir vazifasini bajargan. Abulg‘ozixon ayni shu vazifaga loyiq va arzanda kishini tayinlagan. Ko‘p hollarda Xiva zodagonlarining eng kuchli va obro‘li namoyandasi vazirlik martabasiga ko‘tarilgan. Ba’zi hollarda esa xonning ukasi yoki amakisi bu amalga ega bo‘lishgan.

Noib – viloyat hukmdori (xonning o‘rinbosari). Xonzoda va xon avlodidan bo‘lmish mo‘tabar zotlardan, katta yer egalari, xonning qarindosh-urug‘lari yoki mahramlaridan tayinlanardi. Noib 5 tilladan tortib, 14 tillagacha maosh olardi.

Beklarbegi – Qoraqalpoq va ko‘chmanchi xalqlarning oqsoqollariga beriladigan faxriy unvon. Beklarbegining vazifasi ularning o‘z urug‘laridan yig‘iladigan xarajatlarni to‘g‘riligini tekshirib turish va ularni to‘la ravishda xazinaga topshirish ustidan nazorat qilishdan iborat.

Parvonachi – bu amaldor mansabi “kapalak” deb tarjima qilinib, saroyning ichki va tashqi ishlarida faol qatnashgan. U arz-u shikoyatlarni xonning huzuriga olib borib, javobini qaytargan. Shuningdek, xonning farmonlarini saroy a’yonlariga yetkazib turgan.

Aka – ya’ni og‘a, oqa. Xonning aka-ukalari, avlodidan eng qudratli va yoshi ulug‘ kishiga berilgan. Ular saroyda 2 ta bo‘lgan.

Arbob – ya’ni xo‘jayin, ulug‘ shaxs bo‘lib, saroyda 2 ta shaxs bunday lavozimga ko‘tarilgan.

Dasturxonchi – bazm va marosimlarda dasturxon ishlariga boshchilik qilgan.

Chig‘atoy-inoq – o‘zbek urug‘ vakillari sifatida saroyda faoliyat olib borishgan. Aslida Abulg‘ozi qabila va urug‘ rahbarlariga bu mansablarni berib ularni saroyda, o‘z huzurida omanat tarzida ushlab turgan.

Eshikog‘asi – saroy darvozalarini qo‘riqlash ishlarini boshqargan.Oybolta uning mansab alomati bo‘lib, hukmdor saroyda vaqti eshikog‘osi uni qo‘riqlash bilan shug‘ullangan.

Mirshab – shahar tartib-intizomini saqlovchi boshliq.

Mingboshi, tumanboshi – harbiy bo‘linma rahbarlari hisoblangan.

Mutavalli – vaqf mulklarini tasarruf qilgan. Abulg‘ozixon bu amalga bir nafarni sayyidlardan tayinlagan.

Xonlikdagi diniy hamda qozixona unvonlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, Xivada davlatni boshqarish bo‘yicha islom dini mafkuraviy asosni tashkil qilgan. Qonunlar shariat tartib va yo‘riqlari asosida amal qilingan.

Shayxulislom – diniy marosimlarni aniq bajarilishi ustidan nazorat qilgan. Marosimlar paytida shayx ul-islom xonning o‘ng tamonida o‘tirish huquqiga ega bo‘lgan.

Mufti – qozilarning huquqshunoslari hisoblangan. Ular biror ish ko‘rilayotgan paytda ishtirok etishlari, hukmona tuzishlari va hukmlarning to‘g‘riligini tasdiqlash uchun hujjatlarga muhr bosishi kerak bo‘lgan.

Qozi ul-quzot (qozikalon) – musulmon huquqi va qonunlar bajarilishini shariat asosida nazorat qilgan. Poytaxt shaharlarda fuqarolarning da’volari bilan qozilar shug‘ullangan [6].

Shayboniylar davrida mavjud bo‘lgan mansablarga qo‘ng‘irotlar sulolasi davriga kelib ozroq o‘zgarishlar kiritilgan. Xiva xonligida barcha farmonlar o‘zbek tilida e’lon qilingan, davlat ishlari, hujjatlarning barchasi o‘zbek tilida yozilgan. Bu bilan u hujjatlarning yuritilishi fors-tojik tilida yuritilgan Buxoro va Qo‘qon xonliklaridan farq qilgan. Xiva xonligi ma’muriy jihatdan XVI_XVII asrlarda viloyatlarga bo‘lib, Xiva, Ko‘hna Urganch, Yangi Urganch, Vazir kabi o‘nlab shaharlar mavjud bo‘lgan.

Xulosa (Conclusion): Xulosa qilib shuni aytadigan bo‘lsak, xonlikdagi barcha boshqaruv idoralari va rasmiy davlat hayoti Xiva shahridagi xon saroyida mujassamlashgan bo‘lib, davlat mansablarini harbiy, diniy va ma’muriy lavozimlarga bo‘lishimiz mumkin. Shuningdek, bu mansab va lavozim egalari o‘z vazifalarni bajarganligi uchun davlat tamonidan maosh to‘langan va turli xil mukofotlar, unvonlar bilan taqdirlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. – B 90.
2. Eshov B. “O‘zbekiston davlatchiligi va davlat boshqaruvi tarixi”. – T.: 2012 – B 338.
3. Munis va Ogahiy. Firdavs-ul iqbol. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2010. – B 91, 92.
4. Sagdullayev A., Mavlonov O‘. O‘zbekiston davlat boshqaruvi tarixi (qadimgi davrlardan XIX asrning o‘rtalariga qadar). – Toshkent: “Akademiya”, 2006. – B 127, 129.
5. Eshov B., Odilov A. O‘zbekiston tarixi: I jild. Eng qadimgi davrdan XIX asr o‘rtalarigacha: oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik / Eshov B, Odilov A. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi M. Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Millliy universiteti. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2014 – B. 434.
6. Rahmonova Y. Xiva tarixidan lavhalar. – Toshkent: “Akademnashr”, 2019. – B 20.

O‘ZBEKISTON VA TURKIYA MUNOSABATLARI

Madirimov Xumoyun Boburbek o‘g‘li
UrDPI Filologiya va tarix fakulteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Mustaqillik yillaridan boshlab ikki davlat o‘rtasida yaqin aloqalar o‘rnatilib, ko‘plab strategik hamkorlik bitimlari imzolangan. Ayniqsa, so‘nggi yillarda savdo-iqtisodiy hamkorlik va investitsiya oqimi sezilarli darajada oshgan. Shuningdek, madaniy-gumanitar aloqalar ham mustahkamlanib, ta’lim, ilm-fan va turizm sohalarida hamkorlik kengaymoqda. Mazkur maqolada ikki mamlakat o‘rtasidagi diplomatik aloqalar tarixiy asoslari, hozirgi holati va istiqbollari batafsil tahlil qilinadi. Shu bilan birga, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi hamkorlikning Markaziy Osiyoda geosiyosiy ahamiyati ham yoritiladi.

Аннотация. В данной статье анализируются процессы развития политических, экономических и культурных связей между Узбекистаном и Турцией. За годы независимости между двумя странами установились тесные отношения, подписано множество соглашений о стратегическом сотрудничестве. Особенно в последние годы значительно возросли торгово-экономическое сотрудничество и инвестиционные потоки. Также укрепляются культурно-гуманитарные связи, расширяется сотрудничество в сферах образования, науки и туризма. В данной статье подробно анализируются исторические основы, современное состояние и перспективы дипломатических отношений между двумя странами. При этом будет подчеркнута геополитическая значимость сотрудничества Узбекистана и Турции в Центральной Азии.

Abstract. This article analyzes the processes of development of political, economic and cultural relations between Uzbekistan and Turkey. Since the years of independence, close relations have been established between the two countries, and many strategic cooperation agreements have been signed. Especially in recent years, trade and economic cooperation and investment flows have increased significantly. Also, cultural and humanitarian relations are being strengthened, and cooperation in the fields of education, science and tourism is expanding. This article analyzes the historical foundations, current situation and prospects of diplomatic relations between the two countries in detail. At the same time, the geopolitical significance of the cooperation between Uzbekistan and Turkey in Central Asia will be highlighted.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Turkiya, diplomatik aloqalar, iqtisodiy hamkorlik, savdo munosabatlari, madaniy almashuvlar, ta’lim sohasidagi hamkorlik, strategik hamkorlik, investitsiyalar, mintaqaviy xavfsizlik, mustaqillik, integratsion aloqalar, xalqaro aloqalar, siyosiy hamkorlik, o‘zaro manfaatlar.

Ключевые слова: Узбекистан, Турция, дипломатические отношения, экономическое сотрудничество, торговые отношения, культурные обмены, сотрудничество в области образования, стратегическое сотрудничество, инвестиции, региональная безопасность, независимость, интегративные

отношения, международные отношения, политическое сотрудничество, взаимные интересы.

Keywords: Uzbekistan, Turkey, diplomatic relations, economic cooperation, trade relations, cultural exchanges, cooperation in the field of education, strategic cooperation, investments, regional security, independence, integrative relations, international relations, political cooperation, mutual interests.

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlar tarixiy, madaniy va diniy jihatdan chuqur ildizlarga ega bo‘lib, mustaqillik yillarida yanada mustahkamlandi. Turkiya 1991-yilda birinchilardan bo‘lib O‘zbekiston mustaqilligini tan olgan davlatlardan biri bo‘lib, shu tariqa ikki tomonlama diplomatik aloqalarning poydevori qo‘yildi. O‘tgan yillar davomida ikki davlat o‘rtasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda keng ko‘lamli hamkorlik rivojlandi. Bugungi kunda O‘zbekiston va Turkiya strategik sheriklik darajasiga yetib, ko‘plab sohalarda samarali hamkorlik qilmoqda.

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlar mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab sezilarli ravishda rivojlandi. Ikki mamlakat o‘rtasidagi aloqalar asosan iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda mustahkamlandi, bu esa ularning mintaqaviy va global maydondagi ahamiyatini oshirdi. Turkiya Respublikasi 1991-yil 16-dekabrda O‘zbekiston mustaqilligini dunyoda birinchi bo‘lib tan oldi. 1992-yil 4-martda ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. 1992-yil aprel oyida O‘zbekistonda ochilgan xorijiy elchixonalarning birinchisi Turkiya Respublikasiniki edi. 1993-yil yanvar oyida O‘zbekistonning Turkiyadagi elchixonasi ochildi. So‘nggi yillarda esa davlat rahbarlarining uchrashuvlari strategik sheriklikni yangi bosqichga ko‘tardi [1].

O‘zbekiston va Turkiya munosabatlaridagi tub o‘zgarish Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Prezidenti etib saylanishi bilan bog‘liq. Shavkat Mirziyoyev mamlakat Prezidenti vazifasini bajaruvchi bo‘lib turgan 2016-yil noyabrdayoq turk yetakchisi O‘zbekistonga keldi. Keyinchalik O‘zbekiston va Turkiya rahbarlari 2017-yil may oyida Xitoydagi “Bir makon, bir yo‘l” forumida, o‘sha yil sentyabr oyida Ostona shahrida Islom hamkorlik tashkilotining fan va texnologiyalar bo‘yicha birinchi sammiti doirasida, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida yana uchrashdi [2].

Uzoq yillik tanaffusdan so‘ng 2017-yil 25-oktyabrda O‘zbekiston rahbari Turkiyaga tashrif buyurdi. Anqara shahridagi Esonbug‘a xalqaro aeroportida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevni Turkiya Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari Bekir Bo‘zdag‘ va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi. Aeroportda ikki qardosh O‘zbekiston va Turkiya davlat bayroqlari xilpirab, faxriy qorovul saf tortib turdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev va O‘zbekiston delegatsiyasining oliy darajadagi muzokaralar chog‘ida O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-komunikatsiya va boshqa sohadago hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilinadi, mintaqaviy va xalqaro muammolar yuzasidan fikr almashiladi. Bu tashrifi doirasida o‘zbek-turk munosabatlari tarixida birinchi marta Qo‘shma bayonot imzolanib, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar strategik hamkorlik darajasida mustahkamlandi. Hamkorlikning turli sohalariga oid 20 dan ziyod kelishuv ham imzolandi.

2017-yil oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Turkiya Respublikasi Buyuk millat majlisi bilan hamkorlik bo‘yicha Parlamentlararo guruhi tashkil etildi. 2018-yil 10-fevraldan boshlab Turkiya fuqarolarining O‘zbekistonga kelishi uchun vizasiz rejim joriy etildi (Turkiya 2007-yildan buyon O‘zbekiston fuqarolari uchun vizasiz rejimni qo‘llab keladi). “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi 2017-yildan Samarqand-Istanbul yo‘nalishida to‘g‘ridan-to‘g‘ri reyslarni yo‘lga qo‘ygan bo‘lsa, shu yildan “Turk avialiniyalari” aviakompaniyasi ham ushbu yo‘nalishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviatashuvlarni amalga oshira boshladi.

Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning 2018-yil bahoridagi yurtimizga davlat tashrifi ham O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi endilikda strategik bo‘lgan munosabatlarni chuqurlashtirishda muhim rol o‘ynadi. Tashrif doirasida hukumat darajasida ko‘plab hujjatlar imzolandi. Shuningdek, ikki davlat rahbarlari boshchiligida oliy darajadagi O‘zbekiston – Turkiya strategik sheriklik kengashini tuzish haqida kelishuvga erishildi. Kengashning birinchi yig‘ilishi 2020-yil fevralda Anqarada bo‘lib o‘tdi.

Shuningdek, O‘zbekiston Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi va Turkiya Mehnat va ijtimoiy ta’minot vazirligi o‘rtasida “Mehnat migrantlari va ularning oila a’zolari huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi bitim imzolandi. 2018-yil martda Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi hamda Turkiyaning “Tayga group” kompaniyasi o‘rtasidagi kelishuv asosida O‘zbekiston Turkiyaga migrantlarni tashkillashtirilgan holda ishga yuborgani ham yuqoridagi kelishuvning dolzarbligini ko‘rsata oladi [3].

2021-yil 7-mart kuni Samarqand shahrida Turkiyaning bosh konsulligi ochildi. Ochilish marosimida O‘zbekiston bosh vazir o‘rinbosari Aziz Abduxakimov, tashqi ishlar vaziri Abdulaziz Komilov, Turkiyaning tashqi ishlar vaziri Mavlud Chovusho‘g‘li va Samarqand viloyati hokimi Erkinjon Turdimov ishtirok etgan. Turkiyaning Samarqanddagi bosh konsulxonasi rahbari Salih Janer O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash va ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish uchun Samarqand shahrida Turkiyaning bosh konsulxonasi binosi ochilishini ta’kidlagan

Fan va texnika sohasida O‘zbekiston Fan va texnologiyalar markazi bilan Turkiyaning fan va texnik tadqiqotlar kengashi o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqalar muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Keyingi yillarda o‘zbekistonlik olimlar yadro fizikasi, biologiya, ekologiya, qishloq xo‘jaligi. kabi sohalarda Turkiya ilmiy markazlari tomonidan o‘tkaziladigan konferensiya va simpoziumlarda muntazam ishtirok etib kelishmoqda.

Bundan tashqari O‘zbekiston va Turkiya madaniy sohada ham hamkorliklari ijobiy tomonga rivojlanmoqda. Bunga O‘zbekiston Madaniyat Vaziri Ozodbek Nazarbekov tashabbusi bilan 2019-yil sentabr oyida Toshkentda “Mendirman Jaloliddin” seriali ustida ish boshlanishidan oldin “Jaloliddin Manguberdi: hayot va filmlardagi badiiy mujassamlik” xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi va filmning g‘oyaviy talqini va ssenariysi muhokama qilindi [4].

Anjumanda O‘zbekiston, Turkiya, Ozarbayjon va Erondan kelgan olimlar va tarixchilar qatnashdilar. Ular Jaloliddin Manguberdining tarjimai holi va o‘sha paytda sodir bo‘lgan voqealar talqinini muhokama qildilar. 2021-2023-yillarda suratga

olingan “Mendirman Jaloliddin” tarixiy ilmiy-badiiy janrdagi serialini misol qilib aytishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlar uzoq tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, mustaqillik yillarida strategik sheriklik darajasiga yetdi. Siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda o‘zaro manfaatli hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, ikki davlatning mintaqaviy va xalqaro maydondagi nufuzi oshmoqda. Siyosiy aloqalar xavfsizlik, mintaqaviy barqarorlik va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Iqtisodiy sohada savdo hajmining o‘sishi, investitsiyalarning ko‘payishi va qo‘shma loyihalarning amalga oshirilishi ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Madaniy-gumanitar sohadagi aloqalar esa ikki xalq o‘rtasidagi do‘stlikni kuchaytirib, ta’lim, ilm-fan va turizm yo‘nalishlarida samarali hamkorlik olib borilmoqda. Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi hamkorlik esa mintaqaviy integratsiyani rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Kelgusida O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlar yanada rivojlanib, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, madaniy almashinuvlarni kuchaytirish va xalqaro siyosatda o‘zaro qo‘llab-quvvatlash orqali strategik hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishi kutilmoqda. Shu tariqa, ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlar nafaqat Markaziy Osiyo, balki kengroq geosiyosiy mintaqada barqarorlik va taraqqiyotga hissa qo‘shadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
2. https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston-turkiya-tarix-va-islohotlar mushtarakligi.
3. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi № 63 (585), 2022-yil 30-mart.
4. Wayback Machine (https://web.archive.org/) onlayn arxivi.

MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA XORAZM ADABIY MUHITI TARIXI

Rahimov Muhammadjon Ravshanbek o‘g‘li
UrDPI Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida barcha sohalarda bo‘lgani kabi Xorazm adabiy muhitidagi jarayonlar va o‘zgarishlar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Ayniqsa, Xorazm diyoridan yetishib chiqqan shoir va yozuvchilarning o‘zbek adabiyotining gurkirab rivojlanishiga qo‘shgan hissalari alohida ta’kidlab o‘tiladi.

Аннотация. В данной статье размышляет о процессах и изменениях в литературной среде Хорезма, как и во всех областях, в первые годы независимости. В частности, освещен вклад поэтов и писателей, выросших в Хорезмской области, в бурное развитие узбекской литературы.

Abstract. In this article, the reflects on the processes and changes in the literary environment of Khorezm, as in all areas, in the early years of independence. In particular, the contributions of poets and writers who came from the land of Khorezm to the rapid development of Uzbek literature are emphasized.

Kalit so‘zlar: Xorazm, adabiy muhit, shoir, she’r, janr, ijod, madaniyat, Omon Matchon, Erkin Samandar.

Ключевые слова: Хорезм, литературная среда, поэт, поэма, жанр, творчество, культура, Амон Матчон, Эркин Самандар.

Keywords: Khorezm, literary environment, poet, poem, genre, creativity, culture, Amon Matchon, Erkin Samandar.

Xorazm adabiy muhiti o‘zbek adabiyotining ajralmas bir qismini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Jo‘shqin Amudaryodan suv ichib, muqaddas va tabarruk Xorazm tuprog‘ida unib-o‘sgan, xalqimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Muso Xorazmiy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Nosiriddin Rabg‘uziy, Sulaymon Boqirg‘oniy, Sakkokiy, Munis, Feruz, Ogahiy, Bayoniy va boshqa ko‘plab allomalar, shoir va mutafakkirlarning nomlari jahon sivilizatsiyasi tarixiga haqli ravishda oltin harflar bilan bitilgan” [1].

Aynan mustaqillikka erishgandan keyin shoir va yozuvchilar badiiy adabiyotda va she’riyatda tarixni yoritadigan, vatanni madh etadigan, mustaqillikni tarannum etadigan she’r, qo‘shiqlar, badiiy va tarixiy asarlar yaratib boshlashdi. Xorazm adabiy muhiti tarixi 1991-yildan boshlanib, o‘zbek adabiyotining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan davrni o‘z ichiga oladi. Mustaqillikdan so‘ng Xorazmda adabiy hayot yangilandi, katta o‘zgarishlar ro‘y berdi.

1991-yilda O‘zbekiston mustaqil bo‘lganidan so‘ng, adabiyotda yangi yo‘nalishlar paydo bo‘lishi boshlandi. O‘zbek tilining mustaqil rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratildi. Shuningdek, xorazm adabiy muhiti oshkora, erkin fikrlashni qo‘llab-quvvatlaydi. Xorazmda adabiy anjumanlar, konferensiyalar va festivallar o‘tkazilishi, adabiyot va san’atni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Bunday tadbirlar, yosh yozuvchilar, shoirlar va adabiyotshunoslarni birlashtirish, tajriba

almashish imkonini berdi. Mustaqillik davrida yosh adiblar, shoirlar va yozuvchilar Xorazmda faoliyat ko‘rsatdilar. Quyida biz Xorazm diyoridan yetishib chiqqan shoirlar ijodi va faoliyatiga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Omon Matchon (Omon Matjon – taxallusi; asl ism-sharifi – Matchonov Omon) – O‘zbekiston xalq shoiri. 1943-yilning 14-fevralida Xorazm viloyatining Yangibozor tumani Bog‘olon qishlog‘ida tavallud topgan. Samarqand davlat universitetining filologiya fakultetini tugatgan (1969). Shoir 2020-yilning 29-oktyabrida Toshkent shahrida vafot etdi [2]. Omon Matjon go‘daklik davridayoq onasidan ayriladi. Omon Matjon maktabning uchinchi sinfida o‘qib yurgan paytlarida she’rlar, ertaklar yozgan. Uning ilk she’ri 1958-yilning 15-martida Yangibozor tuman gazetasida bosilib chiqqan [3]. O‘n olti yoshida o‘rta maktabni tugatgan.

Omon Matjon oliy maktabni tamomlagach, Toshkentga kelib, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida muharrir, bo‘lim mudiri (1969 – 1985), “Yoshlik” jurnalida bosh muharrir (1985 – 1991), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonida mas’ul xodim (1991 – 1994), O‘zbekiston Respublikasi Davlat matbuot qo‘mitasida rais o‘rinbosari (1994 – 1999), “Cho‘lpon” nashriyotida direktor (1999 – 2001), 2001-yildan “Gulxan” jurnalida bosh muharrir kabi lavozimlarda faoliyat yuritgan. Shoirning she’rlari 1965-yildan boshlab e’lon qilina boshlagan. Shoirning “Karvon qo‘ng‘irog‘i” (1973), “Quyosh soati” (1974), “Yonayotgan daraxt” (1977), “Yarador chaqmoq” (1977), “Seni yaxshi ko‘raman” (1981), “Daraxtlar va giyohlar” (1984), “O‘rtamizda birgina olma” (1990), “Odamning soyasi quyoshga tushdi” (1991), “Qush yo‘li” (1993), “Iymon yog‘dusi” (1994), “Ardaxiva” (2000), “Xoja Ahror ziyoratlari” (2002) va boshqa she’riy asarlarida voqelikni nozik his etgan holda badiiy ifodalash, muayyan hodisadan favqulodda falsafiy xulosalar chiqarish, o‘zi tug‘ilib o‘sgan muhit koloritiga mos ifodalar topish tamoyili ustuvorlik qiladi. Omon Matjon lirik she’rlar bilan birga lirik qissa va dramatik doston janrlarida ham ijod qilib, Xorazm xalq afsonalarining o‘ziga xos badiiy talqini – “Haqqush qichqirig‘i” (40 afsona, 1979) she’rlar kitobini, istiqlol arafasidagi sho‘rolar mamlakati hayotining ziddiyatli manzaralari va jarohatlari tasviriga bag‘ishlangan “Gaplashadigan vaqtlar” (1986) qissasini, shuningdek, o‘zbek xalqining Xorazmdan chiqqan buyuk siymolari haqidagi dramatik dostonlari (“Pahlavon Mahmud”, 1975; “Beruniy”, 1977 va boshqalar) ni yaratgan. “Ming bir yog‘du” (1982) asari Alisher Navoiy “Xamsa”si ta’sirida yozilgan. Omon Matjon bu asarlarida o‘tmishda yashab ijod qilgan o‘lmas siymolar hayoti va hozirgi davr muammolarini tasvirlashda liro-epik she’riyat imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan. O‘zbek she’riyatiga Xorazm shevasiga xos leksik unsurlar va musiqiy ohanglarni olib kirgan, lirik she’riyatni epik she’riyat unsurlari bilan boyitgan. Omon Matchon bir qator davlat mukofotlarini jumladan, O‘zbekiston xalq shoiri (1993) Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1989), Mehnat shuhrati ordeni (2021-yil) kabilar bilan taqdirlangan [4]. Omon Matchon 2020-yil 29-oktabrda 77 yoshida Toshkent shahrida vafot qilgan.

Erkin Samandar (asl nomi Samandarov Erkin) (1935-yil 22-mart, Xonqa tumani, Xorazm viloyati, O‘zbekiston SSR – 13-aprel 2024-yil – yozuvchi, shoir, dramaturg [5]. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist (1989) Erkin Samandar

1935-yil 22-martda Xonqa tumani, Navxos qishlog‘ida tug‘ilgan [6]. 1956-1961-yillarda Xorazm viloyati radioeshittirish qo‘mitasi o‘zbek eshittirishlari tahririyati muharriri, 1963-1967-yillar, 1990-yilda O‘zbekiston Kompartiyasi Xorazm viloyat qo‘mitasi mas’ul xodimi, 1967-1969-yillarda O‘zbekiston televideniyesi “Yoshlik” studiyasi bosh muharriri, 1969-1975-yillarda televideniyaning dasturlar direktori, 1975-1977-yillarda adabiy dramatik eshittirishlar bosh muharriri, 1961-1963-yillarda “Xorazm haqiqati” gazetasida bo‘lim mudiri, 1977-1990-yillarda bosh muharrir, 1990-1993-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari lavozmida faoliyat yuritgan [7]. Yoshligi Xorazm viloyati Xonqa tumanida o‘tgan. Xorazm pedagogika institutining O‘zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil olgan (1952-1957) [8]. 1957-1958-yillarda Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanida Beruniy nomli maktabda o‘qituvchi bo‘lib ishlagan. Xorazm viloyati Qo‘shko‘pir tumanidadagi Beruniy nomli o‘rta maktabda o‘qituvchi (1957-1958). Xorazm viloyat radioeshittirish qo‘mitasi o‘zbek eshittirishlari tahririyati muharriri (1959-1961) Urganch tumani “Paxtakorlar ovozi” gazetasining texnik kotibi (1961-1963) O‘zbekiston KP Xorazm viloyat qo‘mitasida ishlagan (1963-1967;1990). O‘zFA til va adabiyot insitituti aspiranti (1967). O‘zbekiston televideniyesi “Yoshlik” studiyasining bosh muharriri (1967-1969). Dasturlar direktori (1969-1975) Adabiy-dramatik eshtirishlar dasturlarining bosh muharriri (1975-1977). “Xorazm haqiqati” viloyati gazetasining muharriri (1977-1990). O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari (1990-1993). “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist” unvoni, 1990-yil “Do‘stlik ordeni”ni, 2019-yilda olgan.

Ilmiy-adabiy asarlari: Birinchi she’riy kitobi – “Amu jilolari” (1966). “Dunyoning yoshligi” (1968). “Osmon to‘la nur” (1970). “Vafo degan gavhar” (1973). “Mening yigitlik vaqtim” (saylanma, 1979). “Qabul soatlari“ (1980). “Sohildagi bolalar” (1982). “Яблоня во двопе” (Moskva, 1982). “Bahor oqshomlari” (1984). “Щедрости рассвета” (1985). “Sevgi fasllari” (1987). “Bu bog‘ni qaysi bog‘ derlar” (1988). “Yurakka yo‘l” (1990). “Sevgi kitobi” (1996). “Va yana bahor” (2010, qizi Sayyora Samandar bilan hammualliflikda). “Ko‘ngil yoshligi” (2010).

Jami 17 ta she’riy majmuasi chop etilgan. 100 dan ortiq qo‘shiqlar muallifidir. “Osmonning tosh tulpori“, “Oltin sandiq”, “Qo‘shiq izlab”, “Erk sadolari”, “Ishqiy maktublar”, “Samarqandni oshiqlar qurgan” kabi dostonlar muallifidir.

Dramaturgiyaga oid asarlari: “Javohir” (musiqali drama, 1984). “Ajdodlar qilichi” (tarixiy drama, 1986). “Jaloliddin Manguberdi” (“Yot hujra”, pyesa, 1988) [8]. “Bashorat” (musiqali drama, 1988). “Arabmuhammad” (tarixiy drama, 1992). “Dilda borim“ (musiqali drama, 2012). Xorazm viloyat musiqali drama teatrida “Dilda borim” (2012) va “Jaloliddin Manguberdi” (2019) spektakllari sahnalashtirilgan [9].

Ilmiy-publitsistik filmlari “Avaz O‘tar”, “Madrahim Sheroziy”, “Uzoq yo‘l hikmatlari”, “Ming otlilar diyori”, “Ogahiy qo‘lini olgan rais”, “Xiva”, “Qum sayli”, “Taqdir yo‘llari”. Tarixiy asarlari: “Daryosini yo‘qotgan qirg‘oq“ (roman, 1989). “Tangri qudug‘i” (roman, birinchi kitob, 1989). “Quduq tubidan sadolar” (roman, ikkinchi kitob, 1989). “Suyanch“ (1996). “Pahlavon Mahmud Puryoyvaliy” (2000). “Ming otlilar diyori” (2003). “Sulton Jaloliddin” (roman, 2007). “Quyun yuzlari yohud

Ogahiy” (roman, 2009). “G‘arb qushlari“ (roman, qissa va hikoyalar, 2011) kabi yuzlab asarlari mavjud. Atoqli shoir 2024-yil 13-aprelda vafot etgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston” 2017. 241-bet.
2. https://m.kun.uz/news/2020/10/29/shoir-omon-matjon-77-yoshida-vafot etdi.
3. 9-sinf Adabiyot darsligi. 229-bet, 2019-yil.
4. Jumaboyeva J. Omon Matjon. – T.: 1993.
5. “Ушёл из жизни Эркин Самандар, бывший вице-премьер, журналист и писатель” (23:18 13-aprel 2024-yil).
6. “Sobiq bosh vazir o‘rinbosari, jurnalist Erkin Samandar vafot etdi”. kun.uz. Qaraldi: 17-avgust 2024-yil.
7. “ERKIN SAMANDAR” (1935), (2013-yil 3-noyabr).
8. “O‘zbek adiblari” (S. Mirvaliyev, R. Shokirova). Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2016-yil.
9. Saylanma, T., 1989; Sulton Jaloliddin [Roman], T., 2005.

XIX ASR IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA XAYRIYA VA HOMIYLIK FAOLIYATI

Ataboyeva Ug‘Iljon Sultonboy qizi
Urganch davlat pedagogika insitutin Ijtimoiy – gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix) yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkistondagi xayriya va homiylik faoliyati uning ko‘rinish va sohalari haqida fikr va mulohazalar keltirilgan. Bunday xayriya tadbirlarini tashkil qilishda boy savdogarlar, xonlar, amirlar, bosh vazirlar va boshqa bir qator jamiyatning nufuzli shaxslari o‘z yordamlarini ko‘rsatishgan.

Аннотация. В статье изложены размышления и наблюдения о формах и направлениях благотворительной и спонсорской деятельности в Туркестане во второй половине XIX и начале XX века. Помощь в организации подобных благотворительных мероприятий оказывали богатые купцы, ханы, эмиры, премьер-министры и ряд других влиятельных деятелей общества.

Abstract. This article presents thoughts and observations on the forms and areas of charitable and patronage activities in Turkestan in the second half of the 19th century and the beginning of the 20th century. Rich merchants, khans, emirs, prime ministers and a number of other influential figures in society provided their assistance in organizing such charitable events.

Kalit so‘zlar: Turkiston, Buxoro amirligi, Xiva xonligi, amir Abdulahadxon, ta’lim tizimi, tibbiyot, gazeta, mehribonlik uylari, Rossiya.

Ключевые слова: Туркестан, Бухарский эмират, Хивинское ханство, амир Абдулахадхан, система образования, медицина, газета, детские дома, Россия.

Keywords: Turkestan, Bukhara Emirate, Khiva Khanate, Amir Abdulahadkhan, education system, medicine, newspaper, “Hospices”, Russia.

Sovet davrida Turkistonda xayriya va homiylik tizimi o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. Ushbu davrda, ma’lum bir iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlar asosida, xayriya tashkilotlari va homiylik faoliyati rivojlandi. Sovet davrida Turkistonda xayriya va homiylik tizimi o‘ziga xos xususiyatlarga ega edi. Ushbu davrda, ma’lum bir iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlar asosida, xayriya tashkilotlari va homiylik faoliyati rivojlandi.

Turkistondagi ko‘plab aholi qatlamlari, ayniqsa, qishloq joylarida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun homiylik va xayriya tizimlariga muhtoj edi. Bu tizimlar, asosan, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishda yordam berdi.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlariga kelib, Turkiston o‘lkasida saxiylik, homiylik masalasi o‘zgacha talqinda tus olgan, ya’ni turli xil jamiyat, uyushma, muassasalar negizida aholiga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish, beg‘araz yordam, ko‘maklashuv turlari paydo bo‘lgan.

Mahalliy aholi tomonidan dastlab individual xayriya va homiylik jamiyatlarining tashkil etilishi va rivojlanishi Turkiston o‘lkasining ozodligi uchun ijtimoiy – madaniy kurash olib borgan jadidilar faoliyatining bir yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘ladi.

Tarixiy ildizlari o‘tmishga borib taqalgan ijtimoiy himoya tizimidagi milliy qadriyatlar hisoblangan xayriya, mehr – muhabbat, saxiylik, homiylik masalalalari tariximizning turli davrlarida turlicha qarashlar, yangicha yondashuvlar asosida shakllanib kelgan. Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasini bosib olgungacha bo‘lgan davrda tariximizda xayriya, saxiylik va homiylik masalalari sharqona tarzda namoyon bo‘lgan.

XIX asr ikkinchi yarmida Turkiston o‘lkasi ijtimoiy hayotida xayriya ko‘rinishining barcha turlari mavjud edi. Ularning aksariyati Buxoro amirligi va Xiva xonligi tomonidan qo‘llanilgan. Ta’kidlash joizki, musulmon olamida ko‘p asrlar davomida zakot o‘rniga xayriya jamiyatlari ko‘rinishidagi jamoat xayriyasi uchun unga to‘g‘ri keladigan hech bir mablag‘lar manbasi bo‘lmagan [1].

Yana bir jihatga e’tibor qaratsak, Rossiya imperiyasi bosib olgan hududlaridan farqli tarzda, Turkiston o‘lkasida beg‘araz yordam, xayriya ishlari pul tarzida emas, asosan, non, oziq-ovqat, don, kiyim-kechak va poyabzal, ya’ni natural xo‘jalik shaklida mahalliy aholining boy qatlami tomonidan xayriya va homiylik faoliyati amalga oshirilgan.

Turkiston o‘lkasida mahalliy aholidan ko‘ngilli shaxslar o‘z mablag‘larini masjidlar, maktablar, ko‘priklar, yo‘llar qurulishiga sarflangan. Masalan, Toshkentning obro‘li boylaridan biri sanalgan Mira’zam Miroxunov aholiga xayriya sifatida 2500 oltin hisobidagi ipak qurti urug‘ini taqdim etgan, shaharning boshqa savdogari Ishoqxonboy Toshkentning musulmonlar yashaydigan qismi qurulishiga 1000 rubl sarf etgan.

Andijonlik Mirkomilboy Mo‘minboyev Kultepa shahrida 100 nafar talaba uchun madrasa, 100 nafar o‘quvchi uchun rus-tuzem maktabi, kasalxona va 2 ta hammom qurish uchun 500 ming rubl ehson qilgan [2].

Turkistonda barcha sohalar singari tibbiyot, sog‘liqni saqlash ishlarida ham xayriya va homiylik faoliyati amalga oshirilgan. Masalan, Turkiston o‘lkasida Toshkentning eski shahar qismida 1883-yilda birinchi ambulatoriya o‘z faoliyatini boshlagan. Uning birinchi vrachlari ham aynan ayollar bo‘lgan. Ushbu ambulatoriyada barcha tibbiy yordamlar (dorilar, oson operatsiya va qo‘shimcha birinchi tez ko‘maklar) ayollar va bolalar uchun bepul bo‘lgan.

Tarixchi S. Shodmonovaning ta’kidlashicha, 1911-yilda Toshkentda umumiy 48 nafar vrach bo‘lib, shulardan 30 nafari xususiy tarzda tibbiy xizmat ko‘rsatgan [3]. Shuningdek, ayrim shifokorlar ham kambag‘al oila bolalariga haftaning ma’lum kunlarida bepul tibbiy xizmat ko‘rsatishgan.

Turkiston o‘lkasida xayriya va homiylik faoliyati Buxoro amirlari va Xiva xonlari tomonidan ham keng ko‘lamda amalga oshirilgan. Masalan, Buxoro amiri Abdulahadxon Markaziy Osiyo hududida temiryo‘l qurulishiga xayrixoh bo‘lib, uning ruxsati bilan 1888-yilda Rossiya harbiy ishlar vazirligi tomonidan Buxoro Samarqand temiryo‘li qurildi.

Amir o‘z hisobidan Yangi Buxoro (hozirgi Kogondan) dan Eski Buxorogacha 12 km.li temiryo‘l qurulishiga mablag‘ ajratdi. Uning moliyaviy ko‘magi bilan Amudaryodan o‘tuvchi temiryo‘l ko‘prigi loyihalashtirilib, 1898-yilning 17-oktabridan 1901-yilning 27-mayigacha 750 metrlik ko‘prik qurildi.

Ko‘prik qurulishiga 3.468.000 rubl miqdorda sarflangan pul amir tomonidan berilgan bo‘lsa-da, uning tepasidagi lavxda “Bu ko‘prik Nikolay II (1868-1918; hukmronlik yillari 1894-1917) hazratlari tomonidan, amir Abdulahad ishtirokida qurildi”, deb yozib qo‘yilgan edi [4].

Buxoro amirligi bilan bir qatorda Xiva xonlari va bir qancha bosh vazirlari ham xonlikda ko‘pgina xayriya tadbirlariga xayrixoh bo‘lib kelishgan. Masalan, 1910-yili Xiva xonligi elchixonasi tomonidan “Zalm” fabrikasi ishchilariga 50 rubl in’om etilgan.

1912-yilda Xiva xonligi bosh vaziri Sayid Islomxo‘ja shahardagi harbiy tashkilotlarning foydasi uchun 100 ming rubl sarf etgani sababli xon tomonidan “vaziri akbar” unvonini olgan [5].

1904-yilda Toshkentda musulmonlar uchun Shukurxon madrasasi o‘rnida “Mehribonlik uyi”ni ta’mirlashga 10916 rubl ishlatilib, vaqf mulkidan, aholidan xayriya sifatida olingan. Shu yili Xiva xoni va xivalik savdogarlar ham “Qizil xoch” jamiyati uchun 300 shinel xayriya qilgan. 1906-yili Xiva xoni Turkiston general-gubernatorining ayoliga xayriya ishlari uchun 1000 rubl yuborgan [6].

Turkiston o‘lkasida musulmon xayriya jamiyatini tashkil qilish masalasi ilk bor 1884-yilda “Tarjimon” gazetasida ko‘tarilgan. O‘sha paytda Ismoil Gaspirinskiy o‘z o‘quvchilarini shu maqsadda maxsus yaratilgan xayriya jamiyatlari orqali moliyalashtiriladigan yetimxonalarni yaratishga undagan [7].

Gaspirinskiy shunday jamiyatlarning faoliyati kam ta’minlangan musulmonlarga moddiy yordam ko‘rsatish, foizsiz mablag‘lar berish, hunarmandlar o‘quv yurtlarini ochish, bog‘bon va dehqonlarga ko‘maklashish, yetim va nogironlarni maxsus yaratilgan yetimxonalarda tarbiyalashdan iborat bo‘lishi kerakligini qo‘llab-quvvatlagan [8].

1894-yilda shahar qozisi Nizomiddinxoji tashabbusi bilan 1500 rubl miqdorda mablag‘ to‘planib, mahalliy aholi uchun “Dorul ojizin” (Nochorlar uyi) ga asos solingan. Ikki yil o‘tgach, 1896-yilda O‘sh shahri aholisi Turkistonda, ya’ni Farg‘ona viloyatida birinchi musulmon “Mehribonlik uyi” ga asos solishgan. Ushbu jamiyatlar Turkiston general-gubernatorligiga kelib tushgan musulmon xayriya jamiyatlari haqidagi dastlabki ma’lumotlar hisoblangan. Ushbu mehribonlik uylarining asosiy maqsadi shahardagi barcha muhhtojlarni boshpana va oziq-ovqat bilan ta’minlash edi [9].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Rossiya imperiyasi mustamlakachilari tomonidan xayriya tashkilotlari Turkiston o‘lkasida, asosan, shaharlarda ochilgan. Lekin ularning ko‘pchiligi asosan, rus xalqi uchun kamdan-kam hollarda esa mahalliy aholiga yordam ko‘rsatgan. Bunday xayriya tashkilotlari faoliyati rus xalqi uchun o‘rta darajada bo‘lgan bo‘lsa, mahalliy Turkiston o‘lkasi aholisi uchun deyarli sezilmagan. Ana shunday murakkab davr hisoblangan XIX asr oxiri-XX asr boshlarida ham Turkistonda mahalliy o‘lka vakillari tomonidan xayriya va homiylik jamiyatlarining tuzilishi, mahalliy aholini qo‘llab-quvvatlovchi hamda ularning ma’rifatli bo‘lishida samarali ishlar amalga oshirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday xayriya ishlarida Buxoro amirlari va Xiva xonlari ham o‘z hissalarini qo‘shishganligini ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Наливкин В. П. Очерк благотворительности у оседлых туземцев Туркестанского края / Сборник материалов по мусульманству. – Тошкент: 1900. Т. 2. – С. 140.

2. Абдурашидов З. Аннотированная библиография Туркестанских материалов в газете “Таржуман” (1883-1917). Department of Islamic Area Studies, 2011. – С. 215.

3. Шадмонова С. Б. Деятельность русских врачей в Туркестане в конце XIX начале XX вв. // Россия и Узбекистан: История и Совремменость. Выпуск 5. – Тошкент: 2018. – С. 16-18.

4. Chorjo‘y // “Tarjimon”, 1901-yil 7-iyul. – № 21

5. “Туркестанские ведемости”. – №3743. 3 июль, 1910.

6. Абдурашидов З. Аннотированная библиография Туркестанских материалов в газете “Таржуман” (1883-1917). Department of Islamic Area Studies, 2011. – С. 160.

7. Шафкатхона // Таржимон. №24.

8. Бойлар дагилми? // Таржимон. 1888. №33.

9. Абдуллаев Д. Н. Ўзбекистонда хайрия ва ҳомийликнинг ривожланиш тарихи (XIX аср иккинчи ярми – XXI аср бошлари) Монография. – Тошкент: “INNOVATSIYA – ZIYO” нашриёти, 2019. – В. 54.

“САМОЦВЕТЫ” НА УКРАШЕНИЯХ ИЗ ХИВИНСКОГО ГАРЕМА И ОСОБЕННОСТИ ИХ ПОСТУПЛЕНИЯ В ХОРЕЗМ В XIX – НАЧАЛЕ XX ВВ

Сабирова Саодатжон Руслановна
Магистрант истории 1 курса, Ургенчский инновационный университет

Аннотация. В статье рассматривается понятие “самоцветы” на украшениях из Хивинского гарема и обосновываются причины, по которым доминирующими камнями были кораллы и лазурит, а не малахит, изумруды или нефрит из России и Китая.

Ключевые слова: гарем Хивинского хана, женские украшения, драгоценности, самоцветы.

Annotatsiya. Maqolada Xiva haramidagi zargarlik buyumlaridagi “qimmatbaho toshlar” tushunchasi o‘rganilib, Rossiya va Xitoydan kelgan malaxit, zumrad yoki nefrit emas, balki marjon va lapis lazuli ustunlik qilganligi sabablari asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Xiva xoni harami, ayollar taqinchoqlari, taqinchoqlar, qimmatbaho toshlar.

Abstract. The article examines the concept of “gems” on jewelry from the Khiva harem and substantiates the reasons why coral and lapis lazuli were the dominant stones, rather than malachite, emeralds or jade from Russia and China.

Keywords: Harem of the Khan of Khiva, women’s jewelry, jewelry, gems.

На золотых и серебряных украшениях из гарема Хивинского хана присутствовали драгоценные и полудрагоценные камни, а также окаменелости морского происхождения (кораллы и жемчуг). В обычной жизни все они получили собирательное название “камни”.

Исходя из традиционных представлений, каждый камень обладал определённой ролью, будучи оберегом, принося счастье и т.д., однако для обитательниц гарема эти украшения прежде всего показывали статус и демонстрировали богатство. Поэтому даже морские кораллы, в большом количестве украшая жён Хивинского хана и не являясь драгоценными камнями в геологическом смысле, фактически воспринимались как очень ценные. Такое отношение к кораллам сложилось не только в Хорезме: например, в Сибири у закаменских бурят один крупный коралл по стоимости равнялся корове или лошади [1, с. 115].

Весь этот комплекс камней также считался как “самоцветы” [2], – термин, распространившийся в мире в XVIII – XIX вв., хотя в узком значении слова к самоцветам можно относить только горные породы, причём особые, отличающиеся разнообразием цветовой гаммы. Тем не менее, в обиходе под самоцветами понималось практически все, что походило на камни и могло вставляться в украшения. Кроме этого, в Средней Азии также существовало название “лалы” – это драгоценные прозрачные камни красного оттенка (рубин, гранат, турмалин и др.).

Однако в Хорезме наиболее распространёнными были непрозрачные голубые бусины (бирюза и лазурит), которые ассоциировались с защитой от

отрицательной энергии, а также кораллы, который считались символом здоровья и удачи. Они помещались на серьгах, подвесках, головных уборах и других украшениях (илл. 1).

Илл 1. Украшение “Тахья – дузи” из золота для жены хана. Национальное украшение Хорезма с кораллами и бирюзой / лазуритами [7, с. 13].

Изучение камней на золотых и серебряных украшениях из Хивинского гарема поставило вопрос о путях их поступления в Хорезм и возможности импорта из Европы и России. Основная часть камней была азиатского происхождения: кораллы традиционно поступали из Индии, но к XIX в. уже были возможны иные, более близкие в Хорезму источники. Лазурит добывался на древнем Лазуритовом пути – в Бадахшане, что тоже относительно недалеко от Хивинского ханства [6, с. 86], а золото в Хорезме было своё [5, с. 30]. Между тем, в XIX в. в других странах появились новые виды камней, которые высоко ценились и олицетворялись с высоким статусом их владельца. Рассмотрим только один цвет камня из сопредельных стран – зелёный.

На Урале в XIX в. начали добывать малахит, который получил признание во всем мире из-за красоты естественного природного рисунка (илл. 2). Этот камень получил распространение как “царский” и символизировал власть и богатство [3, с. 305–306]. На Урале добывались и другие камни: например, с 1860-х гг. – роскошные аметисты, топазы и даже алмазоподобный демантоид (илл. 2). Все они, включая последний, поначалу были недорогими, а демантоид стоил копейки, пока его тоже не отнесли к царским камням” [3, с. 63].

Илл. 2. Уральские камни XIX в.: драгоценный алмазоподобный демантоид (воспринимался как зелёный бриллиант) и шкатулка из уральского малахита. Фотографии из ресурсов свободного доступа в сети “Интернет”.

Эти камни по своей оригинальности и смысловым образам вполне подходили для украшения интерьеров и женских украшений Хивинского дворца. Их поступление в Хиву могло происходить через сибирских и уральских “бухарцев” – купцов из Ургенча, Хивы, Бухары и других торговых городов Средней Азии, которые постоянно проживали на Урале и в Сибири, занимаясь поставкой товаров туда-обратно и их продажей. Однако этих камней на украшениях из Хивинского гарема мы не видим ни на одном доступном для исследования предмете.

Кроме камней из России, в Хиву теоретически мог поступать, например, нефрит, который в Юго-Восточной Азии был очень популярен.

Как считалось, он обладал магическими и главное – многочисленными лечебными свойствами. Ещё в древности он был известен в Средней Азии через торговлю с Китаем и нередко считался “царским”, или “императорским”, камнем, а также “мужским атрибутом”, символом силы и победы: именно из нефрита сделано надгробье Амира Тимура в Самарканде [4], что символично.

В Юго-Восточной Азии и на Дальнем Востоке нефрит считался очень важным женским камнем, из которого часто изготавливали серьги (илл. 3), однако таких украшений в Хорезме тоже не было.

Илл. 3. Украшение из нефрита. Фото из доступных ресурсов в сети Интернет.

Среди причин отсутствия этих камней (а также самоцветов других цветов) можно указать следующее: во-первых, видимо, существовала монополия среднеазиатских купцов на поставку в Хорезм конкретных камней, и новые образцы просто не допускались рынок; во-вторых, гарем – это крайне закрытая структура, и женщины не знали о существовании новинок, чтобы их купить (попросить у хана); в-третьих, хорезмское общество было очень традиционным, и сложившиеся взгляды на украшения могли препятствовать принятию новых камней; в-четвёртых, цена (например, на малахит), была достаточно высока.

Эти и другие факторы отражали особенности внешней торговли в Хивинском ханстве, ценовую политику и в то же время – устойчивость традиционных представлений.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Содномпилова М.М., Нанзатов Б.З. Предметы роскоши в жизни монгольских народов: коралл в символической и социальной ценностной ориентации // Вестник Томского государственного университета. 2016. № 412. С. 114–120.

2. Емлин Э.Ф. Империя уральских самоцветов: от рассвета до заката // Известия Уральского государственного университета, 2004. № 19. С. 56–67.

3. Будрина Л.А. Демидовы и малахит: механизмы художественного рынка и процесс трансформации руды в символ // / Урал индустриальный. Бакунинские чтения: материалы XIV Всероссийской научной конференции, Екатеринбург, 16–17 ноября 2020 г.: в 2-х томах. – Т. 2. – Екатеринбург: ООО Изд-во УМЦ УПИ, 2020. – С. 302–309.

4. Нефритовый надгробный камень на могиле Тамерлана. URL: https://eurasia.travel/ru/uzbekistan/legends/nephrite-gravestone/(дата бращения: 06.03.2025).

5. Сохибназаров М.Д. Из истории изучения золота и золотых изделий Центральной Азии в XVIII – начале XX вв. // «Вестник Таджикского государственного университета права, бизнеса и политики. Серия гуманитарных наук», 2015, Т. 65, №4, с. 29–38.

6. Сарианиди В. И. Бактрия сковозь мглу веков. М.: Мысль, 1984. – 159 с.

7. Садыкова Н. Национальная одежда Узбеков XIX-XX веков. Ташкент: «Шарк», 2007. – 32 с.

ROSSIYA IMPERIYASI TOMONIDAN XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI ARAFASIDA XONLIKDAGI SIYOSIY VAZIYAT

Sapayev Feruz Boxramovich
UrDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi yo‘nalishi magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xiva xonligining XIX asr so‘nggi choragidagi siyosiy vaziyati va Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinish arafasidagi siyosiy holati yoritilgan. Maqolada xonlikning ichki siyosati, Rossiya bilan munosabatlari va bosqin jarayoni qisqacha bayon etilgan.

Аннотация. В данной статье освещена политическая ситуация в Хивинском ханстве в последней четверти XIX века и накануне его завоевания Российской империей. В статье кратко изложены внутренняя политика ханства, отношения с Россией и процесс завоевания.

Abstract. This article highlights the political situation in the Khanate of Khiva in the last quarter of the 19th century and on the eve of its conquest by the Russian Empire. The article briefly outlines the internal politics of the khanate, its relations with Russia, and the process of conquest.

Kalit so‘zlar: Ichki siyosat, Xiva xonligi, Muhammad Rahimxon I, Muhammad Rahimxon II.

Ключевые слова: Внутренняя политика, Хивинское ханство, Мухаммад Рахимхан I, Мухаммад Рахимхан II.

Keywords: Internal politics, Khanate of Khiva, Muhammad Rahim Khan I, Muhammad Rahim Khan II.

XVIII asrning 70-yillaridan boshlab, Xorazmning siyosiy maydonida hokimiyatni o‘z qo‘lida markazlashtirish siyosatini olib borgan Qo‘ng‘irot qabilasi rahbari Muhammad Amin inoqning mavqei tobora mustahkamlandi. Uning rahbarligi 1763-1764 yillarda, ya’ni, u inoq etib tayinlangan paytdan boshlangan[1].

Muhammad Amin inoq tomonidan olib borilgan davlatni birlashtirish siyosati keng aholi qatlamlari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi va bu davlatning yanada mustahkamlanishi va siyosiy hayotning barqarorlashishi uchun haqiqiy shart-sharoitlar yaratdi. Shu bilan birga, mamlakatning iqtisodiy hayotini tiklashga urinishlar ham amalga oshirildi. Natijada, uning hukmronligi oxiriga kelib (1790 yil), “Xorazm mamlakatining butun hududi Muhammad Amin inoq hokimiyatini tan oldi”.

Muhammad Amin vafotidan keyin xonlikdagi haqiqiy hokimiyat uning o‘g‘li Avazga (1790-1804) o‘tdi. U ham o‘zidan oldingi hukmdorlar kabi mamlakatni qo‘g‘irchoq xonlar nomidan boshqardi.

XIX asrning boshlarida Qong‘irot sulolasi vakillarining hokimiyati ancha mustahkamlandi. Natijada Avazning o‘g‘li – Eltuzar (1804–1806) ko‘p asrlik an’anani buzib, Chingiziy sultonlarni taxtga chiqarish odatidan voz kechdi. 1804-yil 27-noyabr kuni xon unvonini qabul qildi va “butun Xiva xalqi yagona, mutlaq va cheklanmagan hukmdori yoki “xoni” bo‘ldi. Shu tariqa 1920-yilgacha Xivada hukmronlik qilgan Qong‘irot sulolasi boshqaruvi boshlandi.

Eltuzarxonning hokimiyati uzoq davom etmadi. 1806-yilda Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida, Xiva va Buxoro qo‘shinlari o‘rtasida jang bo‘lib o‘tdi. Ushbu jangda

xivaliklar mag‘lubiyatga uchradi, Eltuzarxon esa Amudaryodan kechib o‘tish chog‘ida halok bo‘ldi.

Taxtga Eltuzarning ukasi – Muhammad Rahimxon I (1806–1825) o‘tirdi. Bir qator tarixchilarning fikriga ko‘ra, u Qong‘irot sulolasining “eng yirik vakillaridan biri” bo‘lgan. Uning hukmronligi davriga oid ma’lumotlar shu davrda xonlikka kelgan va Muhammad Rahimxon I qabulida bo‘lgan rus elchisi N. Muravyov estaliklarida tilga olinadi. N. Muravyov o‘z asarida Xiva xonligida davlatni idora qilish usuli, uning moliyaviy ahvoli, hukumatning xonlikdagi boshqa xalqlar, ya’ni qoraqalpoq, turkman qabilalariga nisbatan tutgan siyosati, u yerda yashaydigan xalqlarning urf-odatlari va Xivadagi asirlikka olingan rus kishilarining ahvoli to‘g‘risida juda qimmatli ma’lumotlar beradi [2]. A. R. Muhammadjanov tadqiqotlarida ta’kidlanishicha N. Muravyov o‘z mulohazalarida Xiva xonligini bosib olish rejasini ham ilgari suradi [2]. Bundan ko‘rinib turibdiki, Rossiya amaldorlarining Xiva xonligini o‘ziga qaram qilish yo‘lidagi yovuz harakatlari 1873-yildan ancha ilgari boshlangan edi.

Muhammad Rahimxon I davrida xonlik hududida va Janadaryoda yashovchi qoraqalpoq qabilalari butunlay bo‘ysundirildi [3]. Markaziy hokimiyat mustahkamlanishi natijasida Xorazm vohasining g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy chegaralari mustahkamlandi. Xonlikka bo‘ysungan orolbo‘yi, turkman qabilalari ma’lum miqdorda navkar (jangchi) yetkazib berish majburiyatini oldilar. Turkman otliq qo‘shini Muhammad Rahimxon qo‘shinining eng jangovar qismini tashkil qilgan.

Xonlikning markaziy hududlarida o‘z raqiblarini mag‘lub etgan Muhammad Rahimxon 1811-yilda Qo‘ng‘irodga bir necha yurish uyushtirdi va shaharni egallashga muvaffaq bo‘ldi.

XIX asr boshilarida, ayniqsa Muhammad Rahimxon I davrida Rossiya bilan iqtisodiy aloqalar kucaygan. Rossiya O‘rta Osiyodan asosan ip kirita boshlagan bo‘lsa, XIX asrning ikkinchi choragida Rossiyaning ipga bo‘lgan muhtojligi kamayadi va ipning o‘rniga ham ko‘proq paxta ola boshlaydi. Rossiya sanoatining taraqqiy etib, uning xomashyo mahsulotlariga bo‘lgan talabining oshib borishi bilan o‘sib kelayotgan Rossiya sanoatini paxta va boshqa xomashyo mahsulotlari bilan ta’minlashda O‘rta Osiyoning ahamiyati kuchayadi. Xiva xonligiga ham o‘zining xomashyo mahsulotlarini, to‘quvchilik mollarni sotish uchun Rossiya bozorining ahamiyati ortadi [4].

Xiva xonligi ma'muriy jihatdan 23 hokimlikdan iborat bo‘lib, hokimliklarni xon tomonidan tayinlangan hokimlar boshqargan. Hokimliklar masjid qavmliklaridan iborat bo‘lib, ularning boshida hokimlar tomonidan tayinlangan oqsoqollar turardi. Umuman olganda Butun XIX asrning boshlarida Xiva xonligi hududlari va chagarasi muntazam o‘zgarib turgan. 1842-yilda Xivaga kelgan kapitan Danilevskiy xonlikning g‘arbiy chegaralari Kaspiy dengizigacha, janubiy huqdudlari esa Erongacha cho‘zilganini ta’kidlaydi [5].

Olloqulixonga otasi Muhammad Rahimxon I dan boy xazina va qo‘shni davlatlarga ta’siri katta bo‘lgan mamlakat meros qoldi. Bularning har kkkalasini xam saqlab qolish uchun Ollokulixon bir necha marta qo‘shni davlatlar ustiga lashkar tortib bordi. Buxoroning ustiga 7 marta borib bir necha qishloqlarni talab qaytdi. Xurosonga shaxsan o‘zining ishtirokida besh marta katta yurush uyushtirdi [6].

Uning davrida Rossiya imperiyasi bilan savdo va diplomatik munosabatlari zaiflashdi. Imperiyaning Perovskiy boshchiligidagi ekspeditsiyasi ham aynan shu hukmdor davriga to‘g‘ri keladi. Ikki mamlakat rus asirlari masalasida kelisha olmadilar. Natijasa Orenburglik general Graf Perovskiy tomonidan Xiva xonligiga 1839-yilning noyabr oyida harbiy yurish boshlanadi [5]. Bu yurushdan maqsad xonlikni bosib olish, asirlarni ozod qilish va savdoga yo‘l ochish edi. Harbiy yurish muvaffaqiyatli amalga oshmagan bo‘lsada, imperiya o‘zining ba’zi maqsadlariga erishadi. Olloqulixon imperiyadan sulh so‘rab, rus asirlarini saqlamaslik va rus yerlariga tajovuz qilmaslik haqida farmon chiqardi. Uning o‘g‘li Rahimqulixon davrida otasi Olloqulixon ruslar bilan kelishuvning rad etilgan shartlari to‘liq qabul qilinadi. Unga ko‘ra Xiva xonligi Rossiyaning savdo ishlariga yaqindan yordam berishi va savdogarlarni himoya qilishi, ulardan yerli xalq kabi miqdorda boj olishi, xonlikda doimiy ravishda rus vakili bo‘lishi kerakligi kabi shartlarni qabul qilishi kerak edi. Shunga o‘xshash bir qancha shartlar 1842-yil 27-dekabrda Rahimqulixon tomonidan qabul qilinadi [5].

Rahimqulixon davrida qo‘shni Buxoro bilan munosabatlar ham unchalik yaxshi emas edi. Ikki mamlakat Marv hududi masalasida bir necha marta harbiy urushlar olib borgan.

Har bir urug‘ga urug‘ boshliqlari (sardorlar) boshchilik qilib, ularga katxudo deyiladi. Urug‘ ichidagi kichik guruhlar boshida esa oqsoqollar turadi. Katxudolar va oqsoqollar muhrdorlarga, muhrdorlar esa xon hukumatiga bo‘ysunganlar.

Turkman qavmlari son jihatdan xonlik aholisining deyarli 1/3 qismini tashkil qilsalar-da, ma’muriy jihatdan ular hokimliklar tarkibiga kiritilmasdan yoki alohida hokimlikka birlashtirilmasdan, xon tayinlagan maxsus amaldor tomonidan boshqarilgan. Turkmanlar masalasida Rahimqulixondan keyin taxtga o‘tirgan Muhammad Aminxon keskin choralar ko‘radi. Turkmanlarning yovmut qabilasi to‘liq bo‘ysundirilib, boj to‘lashga majbur qilindi. Ammo Muhammad Amin vafotidan so‘ng mamlakatda birlik bo‘lmadi. Yovmut turkmanlari bir necha bor Xiva taxtini egallashga harakat qilib, Ichan qal’ada qirg‘inlar sodir bo‘lib turgan.

XIX asr o‘rtalarida ham Rossiya imperiyasi tomonidan Xiva xonligiga elchilar jo‘natilib turilgan. Shunday elchilik munosabatlarining so‘nggisi (Ignatev mustaqil Xiva xonligiga jo‘natilgan ruslarning eng oxirgi elchisi hisoblanadi) 1858-yil iyul oyida polkovnik Ignatev boshchiligidagi amalga oshirilgan. Uni Xiva xoni Sayyid Muhammad (1856-1864) qabul qiladi. Xon ular bilan do‘stlik va savdo aloqalarini mustahkamlash haqidagi hujjatlarga imzo chekdi, ammo Orol floti kemalarining yurishiga qarshilik bildirdi.

Sayyid Muhammaddan keyin Xiva xoni bo‘lgan Muhammad Raximhon II (Feruz) (1864-1910) davrida Rossiya imperiyasi ochiqchasiga bosqinchilik urushiga tayyorlanib, bosib olishni ko‘zlaydi.

1868-yilda Mang‘ishloq yarim orolida yashayotgan qozoqlar Kaspiy dengizida baliqchilik qilib yurgan ruslardan bir nechtasini asir qilib, Xivadagi qul bozoriga keltirib sotdilar. Biroz vaqt o‘tib, rus asirlarining soni 21 nafarga yetdi [6]. Rossiyadan kelgan elchilar ushbu asirlarni bo‘shatishni so‘rab kelganlarida Muhammad Rahimxon

mazkur taklifni qabul qilmaganligi va boshqa bahonalar bilan xonlikni bosib olmoqchi bo‘ladilar.

Xiva xonligida davlat ishlarini yuritish sharqona davlat boshqaruv usuliga qurilgan edi. Oliy hukmdor – xon tomonidan boshqarilgan mamlakat ma’muriy-hududiy jihatdan jami 21 ta (XIX asr) beklik va noibliklarga bo‘lingan. Xonlik hududi Pitnak, Hazorasp, Xonka, Yangi Urganch, Qo‘shko‘pir, Gazovot, Kat, Shohobod, Anbar-Manoq, Toshhovuz, Gurlan, Mang‘it, Qilich-Niyozboy, Porsu, Hojili, Ko‘hna Urganch, Xo‘jayli, Shumanoy, Qo‘ng‘irot bekliklari va Beshariq, Qiyot-Qo‘ng‘irot noibliklari va bevosita oliy hukmdor – xon boshqaruvidagi Xiva shahri kabi ma’muriy birliklarga ajratilgan. Xonlikdagi urug‘-yurt boshliqlari xon tomonidan tasdiqlanib, muayyan mavqega ega urug‘ boshliqlari tomonidan boshqarilgan. Beklik va noibliklar esa, birlamchi boshqaruv birliklari – masjid-mahalla (mahallalar)dan tashkil topgan edi.

Poytaxt shahar Xiva shaxsan xonning boshqaruvida bo‘lib, 65 masjid qavmidan tashkil topgan. Har bir masjid qavmiga 20 dan 184 tagacha xonadon bo‘lgan. Shaharni boshqaruv, butun mamlakatga oid masalalar qatorida xon qarorgohi Arkda, XIX asrdan boshlab esa xon saroyi – Toshhovlida hal qilinar edi [6].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, xonlikka imperiya tomonidan tahdidlar kuchayib borayotganligiga qaramasdan, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot to‘xtab qolgan emas. Ayniqsa hukmdor Muhammad Rahimxon II mamlakat obodonchiligi yo‘lida juda katta ishlarni amalga oshirdi, fan-madaniyatni yuksaltirish borasida ijobiy natijalarga erishildi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xorazm tarixida O‘zbekiston davlatchiligi. – Toshkent: O‘zbekiston Faylasuflari Milliy Jamiyati Nashriyoti, 2013.

2. Muhammadjonov A. R., Ne’matov T. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba’zi manbalar. – Toshkent: O‘zbekiston SSR Fanlar Akademiyasi Nashriyoti, 1967.

3. Иванов П. П. Очерки по история Средней Азии. Издательство

4. Xudoyberganov K. Xiva xonlari shajarasi. – Xiva: 1996.

5. Ogahiy. Asarlar. 5-jild.

6. O‘zbekiston tarixi (Xorazm tarixi). 11-jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023.

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGIDA VAQF MULKCHILIGI MASALALARI

Ergashova Yodgora Ergashjon qizi
UrDPI Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix) yo‘nalishi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligidagi vaqf mulkchiligi masalalari tahli qilinadi. Vaqf – islom huquqiy tizimida muhim o‘rin tutuvchi institut bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda katta ahamiyat kasb etgan. Xiva xonligida vaqflar asosan masjid, madrasa, ziyoratgohlar hamda boshqa diniy va ijtimoiy muassasalarni ta’minlash maqsadida tashkil etilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы вакфной собственности в Хивинском ханстве в конце XIX-начале – XX веков. Вакф – институт, занимающий важное место в Исламской правовой системе и имеющий большое значение в социально-экономической жизни. В Хивинском ханстве вакфы были созданы в основном для обеспечения мечетей, медресе, святынь, а также других религиозных и социальных учреждений.

Abstract. This article presents the issues of foundation ownership in the Khiva Khanate in the late 19th and early 20th centuries. Waqf is an institute that plays an important role in the Islamic legal system, and kata has gained importance in socio – economic life. In the Khiva Khanate, Waqfs were established with the aim of providing asosan masjid, madrasa, shrines and other religious and social institution.

Kalit so‘zlar: Hayriya, vaqf, tutib turish, mutavalli, koranda, muzora, masjid, maqbara, ijarai tavila, ba’yi joyiz, Xiva xonligi, mulk, Sayyid Islomxo‘ja, Muhammad Rahimxon II Feruz, Hasanmurod qo‘shbegi, Xazorasp, O‘rta Osiyo.

Ключевые слова: Хайрия, вакф, удержание, мутавалли, коранда, музора, мечеть, мавзолей, иджарай тавила, некоторые джойз, Хивинское ханство, мульк, Сайид Исламходжа, Мухаммад Рахимхан II Феруз, Хасанмурад кошбеги, Хазорасп, Средняя Азия.

Keywords: Hayriya, Waqf, holding, mutawalli, koranda, muzora, mosque, maqbara, icarai tavila, ba’yi joyiz, Khiva Khanate, mulk, Sayyid Islamkhoja, Muhammad Rahim Khan II Feruz, Hasanmurod qushbegi, Khazarasp, Central Asia.

Kirish. Vaqf islom an’anasida davlat rahbarlari, amaldorlar va boylar tomonidan o‘zining shaxsiy mulkidan diniy muassasalar, masjid, madrasalarga ajratilgan mol mulkdir. Vaqf so‘zi lug‘atda “tutib turish”, “to‘xtatish” ma’nolarida keladi. Vaqf – narsani Alloh mulki hisobida saqlashdir. Ya’ni, vaqf qilingan narsa vaqf qiluvchining mulkidan chiqadi va Alloh mulkiga aylanadi.

Xiva xonligida, barcha musulmon davlatlarida bo‘lgani kabi, vaqfdan kelgan daromadlar o‘sha vaqf atalgan diniy muassasalar va ularda xizmat qiladigan ruhoniylarga sarflangan. Xonlikda ekiladigan yerlarning 30 % ni tashkil etadigan vaqf yerlari va ko‘plab savdo-sanoat va boshqa korxonalardan keladigan daromadlarni ruhoniylar o‘z qo‘lida tutib foydalanib kelganlar. Vaqf yerlari ikki turga bo‘linadi: Vaqf yerlari – ulardan olinadigan daromad asosan, diniy tashkilotlar va xizmatchilar

uchun va madaniy vaqf yerlari – ulardan keladiga daromad maorif va xayriya ishlariga sarflanardi.

Vaqf yerlari vaqfkor dehqonlarga ijaraga berilgan. Ijara haqini masjid, madrasa va boshqa diniy tashkilotlarning mutavvallilari yig‘ib, shu tashkilotlar binolarni ta’mirlash, ularning xizmatchilari ehtiyojlarini qondirish uchun sarf qilinardi.

Vaqf borasidagi shariat qonun-qoidalariga asoslangan bu tartib ko‘p asrlar davomida, xususan: xonlik davrida o‘zgarmay keldi. Faqat 1920-yilda Xorazmda sovet hokimiyati o‘rnatilgandan keyin o‘zbek xalqining azaliy urf-odatlarti, milliy, diniy qadriyatlari poymol qilindi, tahqirlandi.

Ma’lumki, vaqf mulkchiligining shakllanish jarayoni Islom dinining paydo bo‘lishi va taraqqiyotining ilk davri bilan bog‘liq holda kechadi. Islom dini manbalari – Qur’oni Karim va Hadisi Sharif tahlili shuni ko‘rsatadiki, dastlabki vaqf sadaqa faoliyati asosida shakllanadi. Mazkur manbalarda “vaqf” so‘zi va u anglatgan ma’no o‘rnida sadaqa, sadaqayi joriya, hayr-ehson kabilar ishlatilgan bo‘lib, “vaqf” atama tarzida keyingi davrlarda shakllandi va keng qo‘llanila boshlandi.

Vaqf mulkchiligi huquqiy asoslarining yaratilishi dastlab xalifa Umar (r.a) faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, u Xaybar vodiysida joylashgan mulklarni payg‘ambar Muhammad (s.a.v) maslahati bilan vaqfga aylantirdi. Bu jarayonda birinchi marta vaqf mulkining huquqiy holati va muayyan shartlari belgilandi [1]. Vaqf mulklarini Umar tomonidan amalga oshirilgan [2].

Muhokama va natijalar. Xiva xonligida odatda ziroat va bog‘dorchilik yerlari, pullar, savdo va hunarmandchilik obyektlari, turar-joy va maishiy inshootlar (hammom, saroy) vaqf sifatida ta’sis etilgan. Vaqf mulkga aylangach abadiy, uzil-kesil va daxlsizlik maqomini oladi. Shuningdek, vaqf mulki muayyan cheklovlar ta’sis etilishi lozim bo‘lib, aks holda vaqf noqonuniy ko‘rinish oladi va to‘g‘ri (sahih) tuzilgan hisoblanmaydi [3].

Xiva xonligida ham ayollarning ijtimoiy – iqtisodiy hayotdagi ishtiroki va roli yuqori bo‘lganligini alohida zikr etish o‘rinlidir. Bu holat ularning vaqf mulkchiligi tizimidagi salmoqli ishtiroki, hayr-ehson faoliyatidagi yuqori hissasida ham aks etadi. Xiva vaqfnomalari ayollarning vaqf mulkchiligi munosabatlarida turli pozitsiyalarda ishtirok etganliklaridan dalolat beradi. Ayollar nafaqat voqifa, balki mutavalli va hatto vaqf yerlari ijarachilari sifatida ham faoliyat yuritganlar. Vaqf ma’muriyati tarkibi va funksiyalari ham aniq belgilangan.

Vaqf ta’sis etish jarayonida vaqf mulki bilan bog‘liq o‘rnatilgan shart-sharoit va talablarni amalga oshirish vazifasi vaqf ishlari boshqaruvi uchun mas’ul shaxs-mutavalli zimmasiga yuklatilgan.

Mutavalli lavozimiga tayinlangan shaxs ko‘p hollarda vaqf mulki in’om etilgan muassasa faoliyat turi va funksiyasidan kelib chiqqan. Xiva xonligida odatda, madrasa mudarrisi, masjid imomi yoki oqsoqoli (ba’zan muazzin ham), qorixona va maqbara bosh qorisi o‘z muassasalari mutavallisi sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Masalan, Xiva xoni Sayid Muhammad Rahimxon II (Feruz) Bog‘cha mavzeyida joylashgan madrasasiga dastlab Hasanmurod qo‘shbegini va keyinchalik bosh vazir Sayid Islomxo‘jani mutavalli qiladi [4].

Voqif aksariyat hollarda vaqf mulklari doimiy boshqaruvini ta’minlashga intilgan. Shu bois, mutavalli lavozimining merosiy tazda o‘tish tartibi ham aksariyat vaqfnomalarda alohida belgilangan. Yuqorida qayd etilganidek, madrasa mudarrisi bo‘lgan shaxs bir vaqtning o‘zida mutavallilik huquqini ham qo‘lga kiritgan hamda mazkur lavozim muayyan shaxs nomi bilan emas, balki mansab bo‘yicha amal qilgan. Ayrim hollarda voqif o‘zining erkak avlodlariga mutavallililikni meros sifatida topshirgan. Shuningdek, mahalla masjidlariga mutavvali tayinlash vazifasi voqif xohishiga ko‘ra mazkur qavm ixtiyoriga berilish holati ham uchrab turgan [5].

Mutavalli lavozimi o‘zida bir necha funksiyalarni jamlagan bo‘lib, ular voqif o‘rnatgan shartlar va shariat tomonidan belgilangan huquqiy me‘yorlar doirasida amal qilgan. Mazkur funksiyalarni shartli ravishda 4 turga bo‘lish mumkin:

1) vaqf mulki holati va boshqaruvi bilan bog‘liq muassasalarni tartibga solish;

2) vaqf mulki (daromadlari) yo‘naltirilgan obyekt (madrasa, masjid, qorixona, maqbara kabilar) binosining ta’minotini lozim darajada saqlash;

3) vaqf ijarasidan kelgan daromadlarni umumiy hisobini olib borish va taqsimlash;

4) vaqf hisobidan ta’minlanuvchi diniy va ijtimoiy muassasalar faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish.

Xiva vaqfnomalarida yerni ijara va muzora [6] asosida ishlovchi shaxs sifatida odatda koranda tilga olinadi. O‘rta Osiyo yer munosabatlari tizimida mazkur ibora yollanma mehnat asosida yerga ishlov beruvchi hamda yetishtiriladigan hosilning muayyan qismiga egalik qiluvchi shaxga nisbatan qo‘llanilgan [7].

Vaqf hujjatlari shuni ko‘rsatadiki, maqbara yoki qorixona uchun vaqf ta’sis etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad doimiy ravishda Qur’oni Karim tilovatini tashkil qilish va uning savobini voqif hamda uning ajdodlari ruhiga bag‘ishlash edi. Vaqf qilingan mulklardan kelgan daromaddan esa Qur’on tilovati uchun tayinlangan qorilar maosh bilan ta’minlangan. Bundan tashqari, xonlar, saroy amaldorlari va yirik boylar tomonidan mazkur shartga qo‘shimcha tarzda Ramazon oyida taroveh va xatmi Qur’on tadbirlarini o‘tkazish vazifalari ham kiritilgan.

Yuqori tabaqa vakillariga tegishli vaqfnomalarga ko‘ra, Qur’on tilovatini tashkil qilish ishiga alohida qorilar hamda ular uchun maqbara qoshida maxsus hujra ya’ni qorixona tashkil etilgan. Shuningdek, aniqlangan vaqfnomada Hazoraspda joylashgan Imom Yunus maqbara kompleksi qoshida faqirlar uchun ta’sis etilgan oshxona foydasiga vaqf mulklari ta’sis etilgan. Shunday qilib, mozor va qorixonalarning aksar vaqfnomalarida bu turdagi shartlar asosida diniy va hayriy faoliyat yo‘lga qo‘yilgan.

Xulosa. Xiva xonligida vaqfga aylangan dehqonchilik yerlaridan foydalanishda asosan ijara amaliyoti keng tarqalgan. Shuningdek, vaqf yerlarini ijarai tavila (uzoq muddatli ijara)ga berish amaliyoti ham mavjud bo‘lib, u vaqf mulklarini yaxshi holatda saqlash va doimiy daromad olish uchun xizmat qilgan.

Xiva xonligida vaqf instituti faoliyatida yuz bergan transformatsiya jarayonlari pul vaqfining kengayishida ham namoyon bo‘ldi. XX asr boshlariga kelib tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi bilan pul vaqf qilish jarayoni ancha kuchaydi va vaqf qilinuvchi asosiy mulk turiga aylandi. Pul vaqfi ham asosan ijara amaliyoti orqali daromad keltirgan. Pul vaqfi ijarasi ba’yi joyiz hujjati tarzida rasmiylashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва Ҳаёт. Савдо, зироат ва вақф китоби. 11-жуз. – Тошкент: 2005. – Б. 294-295.

2. Кифоя. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф таржимаси. 3-жуз. – Тошкент: 2015. – Б. 329.

3. Zubair A.M. The Classical Islamic Law of Waqf… – P. 130.

4. Хива давлат “Ичан-қалъа” тарихий-меъморий музей қўриқхонаси, ГХМЗ КП 1305.

5. ЎзР МДА, И-323-фонд, 1-рўйхат, 814-йиғма жилд.

6. Muzora so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, “o‘stirish” degan ma’noni anglatadi.

7. Егани А. А. “Коранда” как социальная категория // Народы Азии и Африки. – Москва, 1966. – № 4. – С. 106; Бухарский вакф XIII в. Факсимиле, издание текста, перевод с арабского и персидского, введение и комментарий А. К. Арендса, А. Б. Халидова, О. Д. Чехович. – Москва: 1979. – С. 19.

QATAG‘ONGA UCHRAGAN XORAZMLIK MARYAM SULTONMURODOVA QISMATI

Karimova Dilafruz Baxodir qizi, UrDPI tarix yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Sobiq sho‘rolar tomonidan olib borilgan qatag‘onlik siyosati natijasida bir qancha o‘zbek ayollari ig‘vo va chaquvlar asosida “aybdor”lar qatorida joy olishdi va mash’um tuzumning qurboniga aylanishdi. Biz ushbu kichik maqolamizda ularning ayrimlari taqdiri haqida so‘z yuritamiz.

Аннотация. В результате политики репрессий, проводимой бывшими советскими властями, ряд узбекских женщин оказались в числе “виновных” на основании подстрекательства и ножевых ранений и стали жертвами позорного режима. О судьбе некоторых из них мы поговорим в этой небольшой статье.

Abstract. As a result of the policy of repression carried out by the former Soviets, a number of Uzbek women were among the “guilty” on the basis of incitement and stabbing and became victims of the infamous regime. We will talk about the fate of some of them in this small article.

Kalit so‘zlar: “Guliston”, “Erkin turmush”, Darmshtad, “Yosh xivaliklar”, Berlin, Krasnodar, Sattor Jabbor, “Turkiston”, Ertoy, “Ozod Turkiston”, Germaniya, Xorazm partiya Markaziy Komiteti, Pnevmaskleroz.

Ключевые слова: “Гулистан”, “Свободная жизнь”, Дармштадт, “Ёш Хиваликлар”, Берлин, Краснодар, Саттар-Джаббар, “Туркестан”, Эртой, “Свободный Туркестан”, Германия, ЦК Хорезмской партии, Пневмосклероз.

Key words: “Gulistan”, “Free Life”, Darmstadt, “Yosh Khivalikor”, Berlin, Krasnodar, Sattar Jabbar, “Turkestan”, Ertoy, “Free Turkistan”, Germany, Khorezm Party Central Committee, Pneumasclerosis.

Maryam Sultonmurodova asli Xorazmlik bo‘lib, 1905-yil 13-fevralda Xivada “Yosh xivaliklar” harakatining faol ishtirokchilaridan biri, ma’rifatparvar Mulla Jumaniyoz oilasida dunyoga kelgan. Uning otasi Mulla Jumaniyoz xonlik tuzumiga qarshi kurashda ishtirok etib, Xorazm inqilobidan so‘ng Xorazm Xalq Sovet Respublikasining faol rahbarlaridan biri bo‘lib ishlagan va shu tufayli ayrim johil kishilar tomonidan o‘ldirilgan [1].

Bu haqida Maryam Sultonmurodovaning savollarga javob berib bunday deydi. “Otam xonga qarshi kurash harakatining eng aktiv ishtirokchilaridan biri bo‘lgan. Mening bolaligim ham feodal Xorazmdagi ana shunday ijtimoiy kurashlar to‘lqinida o‘tdi. Bu kurash, ayniqsa, bizning oilaviy hayotimizga og‘ir ta’sir qilgan. Biz doim quvg‘in-ta’qiblar ostida yashaganmiz. Hatto onam bir necha bor qamoq azoblariga ham uchragan. Xiva xonining buyrug‘i bilan otamning xonga qarshi harakatida ishtirok etgani tufayli uning 4 ta aka-ukasi qatl qilingan. Bularning hammasi mening yosh qalbimda asorat qoldirmasdan iloji yo‘q edi...” [2].

1920-1921-yillarda Maryam Orenburgdagi Sharq institutida keyin Toshkentda o‘qiydi va partiya organlarida ishlaydi. 1922-yilda Xorazm kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasi qaroriga muvofiq bir guruh yoshlar bilan Germaniyaga o‘qishga yuborilgan. 1922-1924-yillarda Maryam Berlin shahridagi o‘qituvchilar seminariyasida ta’lim oladi. Shu bilan bir qatorda meditsina bilim yurtini ham bitkazgan. Germaniyadan

qaytgach, Maryam Toshkentda kechki kommunistik universitetida o‘quv bo‘limi mudiri lavozimida, 1935-yilda “Guliston” adabiy jurnalida ishlaydi [3].

1937-yilning 15-sentabr kuni yozilgan farmon order “Jinoyatnoma”ning ikkinchi sahifasiga tirkalgan bu orderda O‘zbekiston SSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligi xizmatchisiga Toshkent shahridagi Uzednay ko‘chasi 13-uyda istiqomat qiluvchi Maryam Sultonmurodovani hibsga olish topshirilganligi qayd etilgan [4].

Maryamning sevimli jurnalistika sohasida zavqu-shavq bilan ishlashi uzoq davom etmadi. O‘zi kabi ozod erkin o‘zbek xotin-qizlari avlodining birinchi qaldirg‘ochlaridan bo‘lgan bu ayol ayni ijodi parvoz qila boshlagan bir davrda stalincha qirg‘in-qatag‘on mashinasining qonli iskanjasiga tushib, qanotlari majaqlanib tashlandi [5].

U 1949-yil 30-martda qayta qamoqqa olindi va bu gal ham eski “jinoyatlari” uchun O‘zSSR JKning 57-moddasi 1-qismi (Vatanga xiyonat, harbiy va davlat sirlarini sotish, shpionaj), 67-moddalari (aksilinqilobiy tashkilotga a’zolik) qo‘llanib uzoq Krasnoyar o‘lkasiga surgun qilindi [6].

Yurak xastaligiga, pnevmasklerozga yo‘liqqan sho‘rlik Maryamxon shu tariqa yana besh yil vatani va bolalari diydoriga to‘ymay mahkumlik azobini tortdi [7]. Germaniyada tahsil olgan Sattor Jabborning Ertoy nomi bilan “Turkiston” gazetasining 1924-yil 2-sentabr sonida e’lon qilingan maqolasida bu to‘g‘rida shunday yoziladi: “...Xivalik Maryamxon moddiy tomondan yaxshi ta’min qilinmagani uchun yo‘llarida ko‘p chatoqliklar ko‘radir. Chindan hayot xotini bo‘lmoq va Turkistonda qolg‘on opa-singillarimizning istiqboli uchun hech kim ko‘rsatmas qahramonlik qilib kelgan qimmatlik qizimizga Xorazm Jumhuriyatimizning shunday sovuqqonlik bilan qarashig‘a Turkiston yoshlari taassuf etolmay turolmaydurlar” [8].

Maryam Sultonmurodova Stalin vafotidan so‘ng ham eski shubha va gumonlardan tamomila qutilmayotganligi haqida 1956-yilda shikoyat qilib, SSSR Bosh prokuroriga murojat qiladi. Unda 1937-yilda tuhmatga uchrab, 10 yilga qamalganligi, 1947-yilda jazo muddatini o‘tab qaytgach, 1949-yili yana eski ayb bilan ayblanib, Krasnodar o‘lkasiga surgun qilinganligi, holbuki, hech qanday aybi yo‘qligi va davr siyosatining begunoh qurboni bo‘lganligini aytgan va tergovchilarning bu boradagi o‘ta adolatsizliklariga to‘xtab, shunday deb yozgan edi: “Vaholanki, men hech qachon hukumatga qarshi bormaganman va vijdonan revolyutsiyaga qarshi hech qanday ish ko‘rmaganman. O‘zimni faqat vujudga kelgan sharoit qurboni hisoblab, ishimni qayta ko‘rishingizni so‘rayman. Menga qo‘yilgan ayblarni, quyidagi sabablarga ko‘ra, asossiz deb hisoblayman.

1. Meni ayblashlaricha, go‘yo men Berlinda bo‘lgan vaqtimda “Ozod Turkiston” degan aksilinqilobiy josuslik tashkilotining topshirig‘iga binoan Germaniya foydasiga josuslik ishlari olib borgan emishman. Men hech qachon aksilinqilobiy birorta ham tashkilotning a’zosi bo‘lgan emasman. “Ozod Turkiston” degan tashkilotning borligini ham birinchi bor tergov vaqtidagina eshitdim.

Mening bilishimcha, 1922-yili Buxoro Xalq Respublikasi va Turkiston Sovet Respublikasidan 60 ga yaqin kishi Germaniyaga o‘qishga yuborilgan edi. O‘sha yilning kuzida Xorazm partiya Markaziy Komiteti byurosining qarori bilan men ham o‘sha yerga bordim. Menga, endi bizning oldimizda Yevropa fan-texnikasini quvib

yetish va o‘zib ketish vazifasi turganligini aytganlaridan keyin men u yerda o‘qishga rozlik bergan edim. 1922-yildan to 1924-yilning boshlarigacha Berlinda bo‘ladim, keyin Darmshatdga o‘qishga ketdim.... Men o‘sha vaqtlarda biz, studentlarni Turkiston talabalar jamiyati nomli hamyurtlar uyushmasi birlashtirib turishini bilardim.

Bu, yurtdoshlik qabulidagi ochqi tashkilot bo‘lib uning faoliyati davlatimizning vositachligi bilan bog‘langan edi. Keyinchalik bu uyushmani Germaniyadagi butun Sovetlar Ittifoqi talabalari jamiyati bilan birlashtirdilar. Bundan boshqa yana qanday talabalar jamiyati bo‘lganligi menga sira ma’lum emas.

2. Meni, Toshkentga kelgan vaqtlarimda allaqanday Englyand nomli professor orqali josuslik ishlari olib borganlikda aybladilar. Bu tuhmat!... Men dushmanga qanday ma’lumot berdim va u qanday amalga oshirildi? Bunday aybning tasdig‘i uchun birorta faktni dalil va guvohlar bilan ko‘rsatishmadi.... Menga nisbatan soxta guvohlik bergan odam bilan yuzma-yuzlashish haqida iltimosimni esa rad etishdi. Shuning o‘zi menga qo‘yilgan aybning yolg‘on va soxta ekanligini ko‘rsatib turibdi.

3. Men, go‘yo “Guliston” va “Erkin turmush” jurnallarida ishlab turib, aksilinqilobiy millatchilik yo‘lini o‘tkazganlikda aybladilar. Bu faoliyatimda nimalar ko‘ringanligini menga aytishmadi... Adabiy xodim va jurnalist sifatida ba’zan jurnallarda ayrim maqola, ocherklarim, ko‘proq rus mumtoz adabiyotidan tarjimalarim bosilardi. Ular g‘oyaviy sog‘lom va Sovet madaniyati rivoji uchun foydali edi. Bu ayblovlarim uchun ham birorta fakt keltira olmadilar” [9].

Xulosa qilib aytganda, qatag‘on qurboni bo‘lgan ayollar ichida Xorazm faxri bo‘lmish bu ayolning qismati zahlangan qamoqxonalarda farzand sog‘inchida o‘tdi. Unga qilingan nohaqliklardan stalincha qirg‘in-qatag‘on mashinasining iskanjasiga tushib, umrining yarimni qorong‘ulik girdobida o‘tkazdi. O‘sha davr qurboni bo‘lmish, Maryam Sultonmurodova qismati yuqoridagi maqolada o‘z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Турдиев Ш. Улар Германияда ўкиган эдилар. – Тошкент: “Академхизмат”, 2006. 106, 107, 108 бетлар.

2. Матниёзов М. Хоразм тарихи. II-жилд. – Урганч: “Хоразм”, 1997. 125 б.

3. Ирзаев Б., Раҳмонова Ю. Хоразм вилояти Хотира китоби. – Тошкент: “Академнашр”, 2019. 94-103 б.

4. https: // oyina.uz/uz/article.

ABULG‘OZIY BAHODIRXONNING ‘‘SHAJARAYI TURK’’ ASARINI O‘RGANILISHI

To‘rayeva Noila Rashid qizi, UrDPI Filologiya va tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abulg‘oziy Bahodirxonning faoliyati va uning mashhur ‘‘Shajarayi turk’’ asari va uning o‘rganilish tarixi haqida so‘z yuritiladi. Maqolada asarning mazmuni, uning tarixiy ahamiyati hamda turli davrlarda tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilinadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается деятельность Абулгази Бахадурхана, его знаменитое произведение “Шаджараи турк’’ и история его изучения. В статье анализируются содержание произведения, его историческое значение, а также научные исследования, проводимые учеными в разные периоды.

Abstract. This article discusses the activities of Abulg‘ozi Bahodirxon, his famous work “Shajarai Turk”, and the history of its study. The article analyzes the content of the work, its historical significance, and the scientific research conducted by scholars at different times.

Kalit so‘zlar: Abulg‘oziy Bahodirxon, ‘‘Shajarayi turk’’, ‘‘Shajarayi tarokima’’, ‘‘Manofe ul-inson’’, Xiva xonligi, Shermuhammad Munis, Xorazm.

Ключевые слова: Абулгази Бахадурхон, “Шаджараи тюрк”, “Шаджараи тарокима”, “Манофе ул-инсон”, Хивинское ханство, Шермухаммад Мунис, Хорезм.

Keywords: Abulg‘ozi Bahodirxon, “Shajarayi turk”, “Shajarayi tarokima”, “Manofe ul-inson”, Khiva Khanate, Shermuhammad Munis, Khorezm.

XVII asr Xiva xonligi tarixida muhim ahamiyat kasb etgan shaxslardan biri bu Abulg‘oziy Bahodirxon hisoblanadi. ‘‘Manbalar ma’lumotiga ko‘ra 1643-yilda Orol bo‘yi o‘zbeklari Abulg‘ozi sultonni (1643-1663) xon qilib ko‘taradilar. Xorazm davlatchiligi tarixida yirik davlat arbobi va tarixnavis ijodkor sifatida mashhur bo‘lgan Abulg‘oziyxonning hayot yo‘li og‘ir kechgan. Abulg‘oziyxon otasi Arab Muhammad taxtdan ketgach o‘zi taxtga o‘tirgunga qadar uzoq yillar (yigirma yildan ko‘p) muhojirlikda yashashga majbur bo‘lgan edi. U dastlab Buxoro hukmdori Imomqulixon himoyasida, keyinroq esa, ikki yilga yaqin qozoq sultoni Eshimxon saroyida yashagan. Shundan so‘ng Toshkentga kelib u yerda ikki yil yashadi. Toshkentdan Buxoro orqali Xivaga qaytgan Abulg‘oziyni Isfandiyorxon bosqinchilikda ayblab hibsga oladi va Isfaxon shahriga Eron shohi huzuriga badarg‘a qilinadi. Isfaxon yaqinidagi Taborak qal’asida o‘n yil asirlikda yashagan Abulg‘ozi 1639-yilda o‘z nazoratchilari yordamida bandilikdan qochishga muvaffaq bo‘ldi. Shundan so‘ng u bir yilga yaqin Xurosonning Mohin qishlog‘ida, ikki yilga yaqin Mang‘ishloq turkmanlari orasida yashaydi. Keyin uni qalmiq xoni o‘z o‘rdasiga taklif etadi. Bu yerda Abulg‘ozi bir yilga yaqin yashagach qalmiq xoni to‘plab bergan katta kuch bilan 1643-yilda Urganchga qaytib, Orol bo‘yi o‘zbeklari yordamida Xiva taxtiga o‘tiradi’’ [1].

Uning taxtga chiqishi o‘ta murakkab va ziddiyatli davrga to‘g‘ri kelgan va hukmronligining katta qismi urush va janglarda o‘tgan. O‘z davlatida tinchlik va

barqarorlikni ta’minlashga, markazlashgan davlat tuzish va saltanatni mustahkamlashga intilgan hukmdor bo‘lgan.

Tarixchi Shermuhammad Munisning ma’lumotlariga ko‘ra Abulg‘ozi Bahodirxon Xiva xonligining boshqaruv tizimini yangilaydi, ma’muriy sohada ham islohotlar o‘tkazadi.

‘‘Shuningdek, Abulg‘ozixon Sharq xalqlari tarixi, madaniyati, adabiyotining o‘tkir bilimdoni, ilm-fanga e’tiqod qo‘ygan, nodir me’moriy yodgorliklarning yaratilishida bevosita homiylik qilgan ma’rifatparvar davlat arbobi va olim adib hamdir.

Uning o‘z davri uchun bunday ilg‘or yo‘l tutishi ma’lum darajada Xorazmning madaniyat tarixida tutgan o‘rni bilan bog‘liq. Bir vaqtlar Xorazm Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Shahobiddin Xevakiy, Haydar Xorazmiy singari muarrix, shoir, astranom, matematik, qomuschi olimlari bilan dong chiqargan edi. Xorazmning o‘tmish madaniyati Abulg‘ozi siymosida ham o‘ziga nisbatan o‘chmas ixlos va ishtiyoq uyg‘otgan edi. Shu boisdan ham Abulg‘ozi qoloqlashib qolgan Xorazmni ham iqtisodiy jihatdan, ham ma’daniy tomondan yuqoriga ko‘tarishga intildi. Hukmdor sifatida bekliklar o‘rtasidagi o‘zaro qirg‘in urushlarga xotima beruvchi tadbirlar bilan birga, ijodkor sifatida ‘‘Shajarayi turk’’, ‘‘Shajarayi tarokima’’, ‘‘Manofe-ul-inson’’ (‘‘Inson uchun foydali tadbirlar’’) kabi tarixiy-badiiy hamda tabiblikka oid nodir kitoblar yozdi’’ [2].

Uning ‘‘Shajarayi tarokima’’ asari turkman xalqlari tarixiga bag‘ishlangan bo‘lsa, ‘‘Manofe-ul-inson’’ tibbiyotga doir hisoblanadi.

Eng yirik kitoblarilaridan biri ‘‘Shajarayi turk’’ hisoblanib, uning asosiy qismi 1663-1664-yillarda yozilgan. Asar 9 bobdan iborat bo‘lib unda asosan o‘zbek qabilalari to‘g‘risida so‘z boradi va ushbu tarixiy asarda o‘lkamizning tarixi va etnografiyasi to‘g‘risida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin. Muallif asarni nihoyatda mohirlik bilan bayon etgan bo‘lib oddiy xalq uchun ham tushunarli bo‘lgan oson va sodda tilda yozgan, unda xalq iboralari va maqollaridan keng foydalanigan. Asar nafaqat tarixiy jihatdan balki adabiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Abulg‘ozi Bahodirxonning asarlari ko‘plab olimlarni diqqat e’tiborini o‘ziga qaratgan. 1800-yillardan boshlab ko‘plab rus va yevropa olimlari uning asarlarni o‘rganganlar. ‘‘Shajarayi turk’’ asari 1825-yilda Rumyansev tomonidan Qozonda, 1854-yilda G. S. Sablukov nashri, 1871-1874 yillar orasida P. I. Demezon tomonidan fransuz tiliga nashr etilgan. Asarning rus tili tarjimasi ko‘p yillar davomida Rossiya oliygohlarida Sharq xalqlari tarixini o‘rganishdagi muhim manba hisoblangan. Bundan tashqari asar ingliz, nemis tillarida ham chop etilgan.

Sharqshunos olim G. Vamberi ham o‘zining Kaspiy dengizining sharqiga sayohati davomida “Shajarayi turk” asari bilan tanishadi va unga yuqori baho beradi.

‘‘Abulg‘oziyning ‘‘Shajarayi turk’’ va ‘‘Shajarayi tarokima’’ asarlariga ular xususida ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan Munis va Ogahiy ‘‘Firdavs-ul-iqbol’’ asarida S. P. Tolstov ‘‘Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab’’ nomli kitobida, Y. G‘ulomov ‘‘Xorazmning sug‘orilish tarixi’’, Bayoniy esa ‘‘Shajarayi Xorazmshohiy’’ kitobida nihoyatda yaxshi fikrlar bildirganlar. Shuningdek, P. P. Ivanov va A. K.

Borovkovlar ‘‘XVI-XIX asrlar turkman tarixining manbalari haqida mulohazalar’’ nomli asarida, B.V. Lunin ‘‘O‘rta Osiyo tarixidan ocherklar’’ risolasida, M. I. Yo‘ldoshev ‘‘Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi’’ asarida, B. V. Bartold ‘‘Madaniy hayot tarixi’’ Q. Munirov – ‘‘Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari’’, B. Ahmedov ‘‘Ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati’’ kabi asarlarida ham Abulg‘oziy Bahodirxonning ijodiga yuqori baho berganlar’’ [3].

Turkshunos olim P. P. Ivanov “Shajarayi turk” asari asosida monografiya yozadi va chop ettiradi. Shuningdek u “Shajarayi turk asarida ism va fe’l” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Ivanov Abulg‘oziy Bahodirxonning asarlari haqida quyidagicha bayon qiladi: “Abulg‘oziyning asarlari yana shuning uchun ham muhimki, maskur muallifdan ilgari bunday asarlar yaratilmagan edi, shuningdek, ular vujudga kelgan va keyingi XIII-XIX asrlar uchun ham harakterli bo‘lib qolavergan Xiva-turkman munosabatlarini va turkmanlarning Buxoro va Eron bilan XVIII asrdagi o‘zaro aloqalarni tushunish uchun boy material beradi” [4].

Mashhur o‘zbek tarixchisi va arxeologi Y. G‘ulomov ham o‘zining “Xorazmning sug‘orilish tarixi” asarida Abulg‘ozi Bahodirxon asarlaridan asosiy manba sifatida foydalangan. U o‘zining asarida shunday yozadi: “Yangi Urganch barpo etish, Urganch kanalini qurish, Gurlandan shimolda Vazir istehkomini solish kabi tadbirlar xon Abulg‘ozi davrida tugatiladi. Shunday qilib, uning davrida chap qirg‘oq Xorazmning janubiy yerlarini ikkinchi marta o‘zlashtirish boshlangan. Xorazmning bu ma’rifatli hukmdori o‘z ota-bobolarining ko‘chmanchilik odatlaridan vos kechib, shahar va dehqonchilik vohasining madaniyatini o‘zlashtirdi. G‘oziobod kanali va undagi istehkom (G‘ozovot) ham Abulg‘ozi nomi bilan bog‘langandir” [5].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk” asari turkiy xalqlarning etnogenezi, tarixi va nasabnomasi haqida qimmatli manba hisoblanadi. Ushbu asar orqali o‘tmish hukmdorlarning nasl-nasabi, ularning siyosiy faoliyati hamda turkiy qabilalarning ijtimoiy hayoti haqida muhim ma’lumotlar olish mumkin. Bugungi kunda Abulg‘oziy Bahodirxonning ushbu asari turli tillarga tarjima qilinib, xalqaro miqyosda ham o‘rganilmoqda. Asar nafaqat tarixchilar, balki o‘z tarixiga qiziquvchi keng kitobxonlar uchun ham muhim manba bo‘lib qolmoqda. Shu sababli “Shajarayi turk” ning o‘rganilishini davom ettirish, uni yangi ilmiy yondashuvlar asosida tadqiq qilish va kelajak avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Eshov B. O‘zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi. – T: 2012. – B. 337-338.
2. Xudoynazarov H. “Shajarayi turk” va uning o‘rganilishi. T: “O‘qituvchi”, 1993. – B. 4-5.
3. Xudoynazarov H. Abulg‘ozi Bahodirxon tarixchi va adib. “O‘zbekiston”, 1994.B. 7-8.
4. Иванов П. Очерки по истории Средней Азии. – Москва: 1958. – Б. 31.

XORAZM VILOYATI HUDUDIDAGI KOLLEKTOR ZOVURLARNING IFLOSLANISH VA ATROF-MUHITGA SALBIY TA’SIRI

Jumaboyeva Komila Davlatboy qizi
UrDPI Filologiya va tarix fakulteti 1-kurs Geografiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Maqolada Xorazm viloyatidagi kollektor zovurlarning avvalgi va hozirgi ahvoli, aholi tomonidan maishiy chiqindilar tashlanishi oqibatida zovur atrofi va suvining juda katta darajada ifloslanishi, bu hodisa bo‘yicha mas’ullarning olib borgan sa’y harakatlari va bu muammoning yechimlari, qilinishi kerak bo‘lgan chora tadbirlar to‘g‘risida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Kollektor zovurlar haqida ma’lumot, kollektor zovurlarning oldingi va hozirgi ahvoli, atrof-muhitga ta’siri, qo‘llanilishi kerak bo‘lgan chora tadbirlar.

Аннотация. В статье описывается прежнее и современное состояние коллекторных канав в Хорезмской области, значительное загрязнение прилегающей территории и воды из-за сброса бытовых отходов населением, действия лиц, ответственных за этот инцидент, а также пути решения этой проблемы и меры, которые необходимо предпринять.

Ключевые слова: Информация о коллекторных канавах, предыдущее и современное состояние коллекторных канав, воздействие на окружающую среду, меры, которые необходимо принять.

Abstract. The article describes the previous and current state of collector ditches in the Khorezm region, the significant pollution of the surrounding area and water due to the dumping of household waste by the population, the actions taken by those responsible for this incident, and the solutions to this problem, and the measures that should be taken.

Keywords: Information about collector ditches, previous and current state of collector ditches, environmental impact, measures that should be taken.

Hozirgi kunda atrof-muhitga bo‘lgan, ayniqsa yer osti va yer usti suvlariga bo‘lgan e’tibor juda kuchaymoqda. Bunga asosiy sabab iqlim o‘zgarishi, global isish oqibatida suv sathining pasayishidir [4]. Shunga qaramay aholi tomonidan atrof-muhitga bo‘lgan e’tibor pasayib bormoqda. Bunga misol qilib Xorazm viloyati hududidagi kollektor zovurlarining aholi tomonidan ifloslantirilishini aytish mumkin. Zovur-yer osti va sizot suvlari sathini pasaytirish, to‘qayzor va zax yerlarni quritish maqsadlarida zax suvlarni chiqarib tashlash uchun qazilgan ariq yoki kanal O‘rta Osiyo dehqonchiligida zovur miloddan avvalgi II-I ming yilliklarda qurila boshlangan [3].

O‘zbekistonda xo‘jaliklararo kollektor zovurlarning umumiy o‘zani 28,2 ming km, 2,8 mln.ga dan ortiq sug‘oriladigan yerlar kollektor zovur tarmoqlari bilan ta’minlangan. Kollektor zovurlarning eng yirik tarmoqlari Buxoro, Xorazm, Sirdaryo, Andijon va Farg‘ona viloyatlaridadir. Har bir melioratsiyalangan maydonga 25-52 m uzunlikdagi kollektor zovurlar tog‘ri keladi [5].

Hozirgi kunda Xorazm viloyatining birgina Gurlan tumanida 30 ta kollektor zovurlar mavjud bo‘lib, ularning jami uzunligi 30396 km ni tashkil qiladi va 36500 gektar yerga xizmat ko‘rsatadi.

Xorazm viloyatida qishloq xo‘jaligi suv tanqisligi sababli taxminan 5000 ga maydon ekilmasdan qoladi. Viloyatda vujudga kelgan oqova suvlar qo‘shni Turkmaniston Respublikasi hududiga tashlanadi. Viloyatning Gurlan, Yangibozor, Qo‘shko‘pir va Shovot tumanlarida kollektor zovur suvlaridan to‘g‘ridan to‘g‘ri foydalanish natijasida ikkilamchi sho‘rlanish ortishi kuzatilmoqda. 2023-yilgi ko‘rsatkichlar bo‘yicha sug‘oriladigan yerlarning 55 % i kuchsiz, 33 % i o‘rtacha va 11-12 % qismi kuchli darajada sho‘rlanib ketgan [2].

Atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish har bir fuqaroning asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki har bir tirik jon barcha ne’matlarni tabiatdan oladi. Ammo bu vazifani yetarli darajada bajarmayotganlar ham uchrab turadi. Bundan muqaddam 4-5 yil oldin zovurlar atrofi toza chiqindilardan holi bo‘lgan, ammo hozirgi kunga kelib kollektor zovurlar atrofi maishiy chiqinlarga to‘lgan, suvlar esa katta darajada ifloslanib qolgan. Suvga tashlangan chiqindilar katta-katta bo‘lib suvning oqimini to‘sib qolgan. Bundan tashqari suv havzasidagi baliqlar miqdori avvalgiga nisbatan sezilarli darajada pasayib bormoqda. Shunga qaramay aholi tomonidan bunga e’tiborsiz munosabatda bo‘lib kelinmoqda.

Har kuni chiqindi tashlanishi oqibatida zovurlarning atrofi ko‘milib ularning kengligi kamayib bormoqda. Bundan taxminan 3-4 yil oldin zovurlarda qazishma va tozalash ishlari olib borilib chiqindi tashlash taqiqlangandi. Ammo shunga qaramay, hozirgi kunga qadar bu ifloslanish davom etmoqda. Bunga asosiy sabab, qilib aholining ekologik madaniyati yaxshi shakllanmaganligini aytish mumkin. Bu muammoning yechimi aholi orasida ekologik madaniyatni shakllantirish, atrof-muhitga, ayniqsa oqova suv tarmoqlariga maishiy chiqindilar tashlamaslik, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish kerakligi to‘g‘risida tushuntirish ishlarini olib borish kerak. Bundan tashqari maktablarda ham bu borada ko‘proq davra suhbatlari o‘tkazilishi kelajak avlodni atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga undash, kelajakda bunday muammolarning oldini olishga yordam beradi. Chunki birgina suvning ifloslanishi oqibatida zovurlar atrofidagi ekin maydonlarining sho‘rlanishi va yaroqsiz ahvolga kelib qolishi, tashlangan chiqindilardan noxush hidlar chiqib aholiga noqulaylik tug‘dirishi mumkin.

Buning oldini olish uchun eng avvalo atrof-muhitni muhofaza qiluvchi tizimni yanada takomillashtirish va nazoratni kuchaytirib tabiatga zarar yetkazgan odamlarga nisbat qonun doirasida jarimalar qo‘llanilishini kuchaytirish kerak. Chunki ekologiya va atrof muhitga zarar yetkazish o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlarini nobud qilish yoki ularga shikast yetkazish bilan bog‘liq jinoyatlar og‘ir jinoyatlar toifasiga kiritildi (Prezidentning 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transfarmatsiya qilish va vakolatli davlat organi to‘g‘risida”gi qonuni).

Prezidentimiz farmoniga muvofiq 2025-yil “Atrof muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi. Shu asosida katta zovurlar va suv havzalari atroflariga manzarali daraxtlarni ko‘proq ekish, atrofini chiqindilardan holi saqlash ishlarini ko‘proq olib borish suv bilan yuzaga keladigan muammolarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Bundan tashqari manzarali daraxtlarni ko‘proq ekish atmosfera havosining tozaligini saqlashda birlamchi omil sifatida qaraladi [1].

Hozirgi suv bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelayotgan bir davrda odamlar uni ifloslayotgani juda achinarli holat. Global isish tufayli Pomir va Tyanshan tog‘laridagi muzliklar kamayib bormoqda. Shu sababli suvni asrash va tejab ishlatish kerak. Bugungi kunda suv havzalarining muhofaza zonalarida tabiatni muhofaza qilish qonuni talablarining bajarilishi, ekologik va sanitariya-epidemiologik vaziyatni yaxshilash, shuningdek daryo, kanal va kollektorlar suvlari ifloslanishining oldini olish bo‘yicha va boshqa suvni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish maqsadida doimiy ravishda reyd tadqiqotlarini o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, global isish davrida suv havzalarini asrash, undan oqilona foydalanishni yo‘lga qo‘yish bizning asosiy vazifamiz hisoblanadi. Agar suv havzalarining ifloslanishi kundan-kunga davom etaversa aholi orasida turli xil yuqimli kasalliklar paydo bo‘lishi, bundan tashqari ekin maydonlari sho‘rlanib yaroqsiz ahvolga kelib qoladi va buning natijasida dehqonchilik qilish qiyinlashib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Urunov B. “Yashil boylik-sog‘lom turmush, farovon hayot, ekologik xavfsiz iqtisodiyot manbayi”. O‘zbekiston respublikasi Ekologiya atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi boshlig‘i 2024.

2. Dusanova Sh. B. “Xorazm viloyati tuproqlarining hozirgi ekologik holatini baholash”. “Економика и социум” №6. M-121. 2024.

3. Ibroimov Sh. I. Amudaryo hozirgi deltasi yer resurslarining tabiiy-meliorativ sharoitini baholash. Monografiya. – T.: “Ma’rifat”, 2024.

4. O‘zME. Birinchi jild. – Toshkent: 2000.

5. Баркарор тараккиёт ва табиатшунослик асослари, Darslik. – Toshkent: 2016.

IQLIM O‘ZGARISHI VA UNING ATROF-MUHITGA TA’SIRI

Odilbekova Zeboxon Odilbek qizi
UrDPI Filologiya va tarix fakulteti Geografiya yo‘nalishi

Annotatsiya. Iqlim o‘zgarishi bugungi dunyoning eng dolzarb ekologik muammolaridan biri hisoblanadi. Iqlim o‘zgarishi biologik xilma xillikni kamayishi ekologik tizimlarga zarar yetkazishi va resurslarning kamayib ketishiga olib kelishi mumkin. Atmosferaga chiqayotgan issiqxona gazlari natijasida yerning harorati ortib, tabiiy muhitga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayon nafaqat tabiatga, balki inson hayotiga ham katta xavf tug‘diradi. Ushbu maqolada iqlimiy muammolar va ularning atrof-muhitga ta’siri haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Iqlim o‘zgarishi, ekologik tahlilar, tabiiy va iqtisodiy zonalar tabiiy va antropogen omillar.

Аннотация. Изменение климта является наиболее актуальной экологической проблемой в современном мире. Это одна из проблем. Изменение климата может сократить биоразнообразие, нанести ущерб экосистемам и истощить ресурсы. В результате выброса парниковых газов в атмосферу температура земли повышается, что оказывает серьезное воздействие на природную среду. Этот процесс представляет большую опасность не только для природы, но и для жизни человека. В этой статье мы рассмотрим проблемы климата и их влияние на кружающую среду.

Ключевые слова: Изменение климата, экологический анализ, природные и экономические зоны, природные и антропогенные фактры.

Abstract. Climate change is the most pressing environmental problem in the modern world. This is one of the problems. Climate change can result of greenhouse gas emissions into the atmosphtpe, the Earth’s temherature increases, which has a serious impact on the natural environment. This process poses a great danger not only to nature,but also to human life. In this article, we will look at climate issues and their impact on the environment.

Key words: Climate change, environment analysis, natural and economic zones natural and anthropogenic factors.

Iqimiy muammolar global isish va uning oqibatlari ya’ni o‘rtacha global haroratning ko‘rsatilishi natijasida muzliklar erishi, dengiz sathi ko‘tarilishi qirg‘oqbo‘yi hududlari suv ostida qolish xavfi ortmoqda qurg‘oqchilik va ekstremal ob-havo hodisalari (issiqlik to‘lqinlari, kuchli yomg‘irlar) soni oshyapti o‘rmonlarning kamayishi masalan, o‘rmonlarning kesilishi karbonat angidrid midorini oshib ketishi, issiqxona effektini kuchaytiradi va biomuhitning yo‘qolishi ko‘plab hayvon va o‘simlik turlarining nobud bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Atmosferaning ifloslanishi ishlab chiqarish va transport vositalari chiqindilari havo sifatini yomonlashtirishi ehtimoli katta ya’ni havo ifloslanishi inson salomatligiga zarar yetkazishi va nafas yo‘llari kasalliklarini keltirib chiqarmoqda suv resurslari kamayishi iqlim o‘zgarishi va qurg‘oqchilik suv tanqisligi ortib bormoqda [1].

Ko‘llar va daryolar sathi pasayib, ekotizimlarga zarar yetkazyapti ekotizmlarning buzilishi:

– Hayvon va o‘simliklar tabiiy yashash joylarini yo‘qotishiga olib kelmoqda qishloq xo‘jaligiga katta zarar yetkazyapti bu esa hosildorlik pasayib, oziq-ovqat ta’minoti xavf ostida qolmoqda va sog‘liq muammolari-Iqlim o‘zgarishi issiqlik to‘lqinlari, kasalliklar tarqalishini kuchaytirishi mumkin.

Iqlimiy muammolarning oldini olish va yechimlar. Qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish (quyosh, shamol energiyasi) o‘rmonlarni tiklash va ekologik muhofaza choralarini ko‘rilsa suv va tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi iqlim o‘zgarishi global miqyosdagi jiddiy muammo bo‘lib, uning oldini olish uchun har bir inson, jamiyat va davlat o‘z hissasini qo‘shishi kerak. Tabiatni asrab avaylash, ekologik barqarorlikni ta’minlash va innovatsion texnologiyadan foydalanish bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Yerning iqlimi hech qachon o‘zgarmay qolmagan. U hamisha o‘n yillardan million yillarga qadar barcha davriy ko‘lamlarda tebranib turgan. Olimlar yer iqlimi ko‘p marta o‘zgarganligi haqida isbotlar keltirishgan [2, 3, 4, 7].

Agar qadimgi davrga bir nazar solsak, bir vaqtlar, yer yuzasi qor uyumi bilan qoplangan yoki pechka kabi qizigan. Grenlandiyani o‘rta asrlarda “Yashil yer” deb atashgani uning maksimum iqlim ko‘rsatkichi bo‘lganidir. Sahroyi Kabirda esa bir vaqtlarda iqlimi va o‘z tabiatiga ega degan fikrlar yo‘q emas. Yerning yuqori qatlamida o‘rtacha havo haroratining sezilarli oshishi haqiqatdan. Iqlim o‘zgarishining yaqqol hududiy ko‘rsatkichi sifatida havoning kontinentallik, ya’ni issiq va sovuq kunlar o‘rtasidagi tafovutlarni ortishi xususiyati takrorlanmoqda [1]. Masalan Orol bo‘yida +40 C gradusdan oshgan kunlar 2 barobarga O‘zbekistonning boshqa hududlarida esa o‘rtacha bir yarim barobarga ortgan. Respublikaning barcha hududlarida 2012-yilning anomal sovuq qishiga qaramasdan past darajali kunlarni kamayishi qayd qilingan. Masalan, Toshkentda qish mobaynida kunlik havo darajasi minus 10 C dan past 27 kun, 1972-yilda bunday sovuq kunlar 29 kun, 1969-yilda 37 kun, 1930-yilda 43 kun qayd qilingan. Iqlim tizimi beshta muhim qismlarni atmosfera, gidrosfera (suv olami) biosfera (muz va qor olami) pedosfera (tuproq olami) va litosfera (tog‘ jinslari olami) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘z ichiga olgan. Iqlim o‘zgarishi aholi sonining ortishi, urbanizatsiya, o‘rmonlarni yoppasiga keskin Markaziy Osiyo mintaqasining suv resurslariga, xususan O‘zbekistonga katta qiyinchilik tug‘dirmoqda [8].

Global isish tufayli tog‘li hududlarda muzliklarning erishi daryolarda qo‘shimcha hajmini ushlab turadi. Muzliklar hajmini kamayishi so‘nggi 20 yilda daryolar oqimi xususan Amudaryo Sirdaryo va Zarafshonga quyiladigan suvlarning 25-30 % ga mumkinligini e’tiborga olishga majbur etadi. Bu esa butun mintaqaga jiddiy muammolar tug‘diradi bunda qurg‘oqchil yillarda Amudaryoning quyi qismida suv melioratsiyasining boshlang‘ich o‘rtacha yilik miqdori 1,5 martaga, daryo suvi qo‘shilgan ko‘l suvlarining melioratsiyasi boshlang‘ich ko‘llarda 2,5 martaga ko‘l zanjirini oxirgi suv xavzalarida esa 6-9 martaga ortishi mumkin [8].

Sanoatlashtirish davri boshlangunga qadar iqlim o‘zgarishiga faqat tabiiy sabablari, ya’ni materik va okeanlarning o‘lchami, Yer orbitasi uning magnit maydonining o‘zgarishi vulqonlarning otilishi ta’sir ko‘rsatar edi. Biroq hozir iqlim o‘zgarishi masalalari bo‘yicha hukumatlararo ekspertlar guruhining xulosasiga ko‘ra, sayyoramizda iqlim o‘zgarishining tezlashishi ko‘proq insonning iqtisodiy faoliyatni

natijasi o‘laroq havoga turli chiqindi gazlar chiqishi tufayli yuzaga kelmoqda. O‘zbekistonda bunday gazlarning asosiy manbayi bo‘lib energiya ishlab chiqarish va iste’mol qilish hisoblanadi. U uglerod dioksid, CO_2 ni ishlab chiqarib, atmosferaga chiqadigan barcha chiqindilarning uchdan ikki qismini tashkil qiladi. So‘nggi 50 yil davomida O‘zbekistonda harorat dinamikasi rejimining kuzatuvlari shuni ko‘rsatadiki maksimal haroratning o‘sish suradi yiliga 0,22 darajaga, minimal esa 0,36 darajani tashkil qildi. Shunga asoslangan holda ahvolni u qadar yaxshi deya olmaymiz, yani 20 yildan keyin respublikasining shimoliy qismida o‘rtacha yillik harorat 2-3 darajaga janubiy qismida esa 1 darajaga ortadi [5].

Prognozlarga ko‘ra, ekestrimal harorat ko‘rsatkichli kunlar soninining ortishi (39 darajadan yuqori) O‘zbekistonning bir qator viloyatlarda paxta hosildorligining 2030-yilda 4 % ga va 2050-yilda 10 % pasayishiga olib keladi [8]. Qishloq xo‘jaligining boshqa ekinlarida ham hosildorlikning kamayishi, shuningdek, sug‘orishning kamligi, qurg‘oqchil, tuproqning yemirilishi va shamol eroziyasi, tuproqning sho‘rlanishi, gumos tarkibining pasayishi va yem-xashak bazasining yomonlashishi hisobiga chorvachilikda mahsuldorlik pasayishi kutilmoqda.

Tadqiqotlarga ko‘ra O‘zbekistonda iqlim o‘zgarishiga e’tibor qaratilishi lozim. Quyidagi oqibatlarga olib kelishi mumkin: suv resurslari tanqisligini ortishi, muz va qor qoplami kunlar davrining 7-10 kunga kamayshi, qurg‘oqchillik xavfi takrorlanishining ortishi, o‘rtacha haroratning ko‘tarilishi va issiq mavsumning 10-15 kunga cho‘zilishi, yog‘ingarchiliksiz kunlar sonining ortib borishi seryog‘in yoki umuman yog‘ingarchiliksiz kunlar sonining ko‘payishi bunga misol. Bu muammolarni bartaraf etish maqsadida Prezidentimiz 2025-yilni “Atrof muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilindi. Bu tashabbus ekologik muammolarni hal qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta`minlash maqsadida surilgan. Yashil iqtisodiyot bu atrof muhitga zarar yetkazmasdan, tabiiy resurslarni tejash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish asosida qurilgan iqtisodiy model desak ham bo‘ladi. U ekologik xavfsizlikni ta’minlash, iqlim o‘zgarishining oldini olish hamda barqaror taraqqiyotga erishishga qaratilgan. Buning uchun yashil iqtisodiyotga o‘tish ekologik toza texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish va o‘rmonlarni tiklash yashillik maydonlarini kuchaytirish ekologik muvozanat saqlash.

Atrof-muhitni muhofaza qilish siyosatini kuchaytirish chiqindilarni qayta ishlash, ekologik ta`lim va targ‘ibot aholining ekologik ongini oshirish va yaxshi turmush tarziga o‘tish. Iqlimga ta’sir etib turgan muammolardan biri bu issiqxona gazlarini atmosferaga haddan ortiq chiqarilayotganidir bu salbiy oqibatlarni oldini olish uchun ko‘plab chora tadbirlar qo‘llanmoqda bulardan biri, Yaponiyaning Kioto shahrida 1997-yilda bir necha rivojlangan hamda o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar maxsus shartnoma “Kioto protokoli” ni imzolab bu borada majburiyatlarni o‘z zimmalariga olgan Azon qatlamini yemirilish muammosi iqlimni ifloslanishi insoniyatning oldinga yana murakkab muammo qo‘ymoqda [5].

Keyingi yillarda havoga ftor-xlorli birikmalar (freonlar)ni ko‘p chiqarib yuborilishi natijasida yerdagi hayotning qalqoni hisoblangan azon qatlamining tobora yupqalashib borishi kuzatilmoqda. “Azon tuynugi” deb nomlangan anashu holat dastlab Janubiy

Amerikaning Antarktidaga tutash hududlar, so‘nggi yillarda esa Yevrosiyoning Shimoliy kengliklarida kuzatila boshlandi. Freon gazlarini atmosferaga chiqarish cheklansa azon qatlami me’yoridagi qalinligi 2050-yilga kelib qayta tiklanadi. Iqlimning quruq bo‘lganligi sababli hozirda 40 % dan ortiq yerlarda cho‘llashish muammolari uchrayapti.

Iqlim o‘zgarishi bu global muammo bo‘lib, u ekologik barqarorlik va inson hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi aynan shu muammolarni hal etishga qaratilgan muhim qadamdir. Har bir inson ekologik muhitni asrashga hissa qo‘shsa, kelajak avlod uchun barqaror tabiat va sog‘lom yashash muhitni saqlab qolishimiz mumkin.

Global iqlim o‘zgarishi muammosi insoniyat kun tartibida dolzarb bo‘lib turibdi. Global iqlim o‘zgarishi bu sayyoramizda faqat haroratni o‘rtacha yillik ko‘tarilishi emas balki barcha geotizimning o‘zgarishi, yog‘ingarchilikning bir tekisda yog‘masligini ortishi daryolar oqimi rejimi o‘zgarishi va iqlimning barqarorligi bilan tevarak atrofiga zararli ta’sir ko‘rsatadi. Shu munosabat bilan tevarak atrofiga zararli ta’sir etishni cheklash uchun hamjihatlikda harakat qilishimiz zarur bunga hammamiz birdek mas’ulmiz.

Maqolada keltirilgan barcha fikrlar iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq biz faqat tabiatga zarar yetkazmaslik emas, balki mavjud resurslarni qayta tiklash, ekologik barqarorlikni ta’minlash va kelajak avlodlarga sog‘lom muhit qoldirishni anglatadi. Texnologiyalar, ekologik innovatsiyalar va o‘z mas’uliyatimiz orqali iqlim o‘zgarishiga va oldini olishga va unga moslashishga yordam bera olamiz. 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va yashil iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi bu muhim. Ammo natijalar faqat rasmiy qarorlarga emas, balki har birimizning atrof-muhitga munosabatimizga ham bog‘liq. Tabiatni saqlash-bu kelajakni saqlashdir!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdug‘aniyev O. I. Muxofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini takomillashtirish va ulardan foydalanishning geologik asoslari. – Toshkent: 2023.
2. Xolmatov B., Begmetov S., Xudoyberdiyev A., Rahimov E. Gidrometerologiya ilmiy tadqiqot instituti. – Toshkent: 1997.
3. Galperin M. I. Tabiatdan foydalanishning ekologik. – Moskva: 2004.
4. Konovalov V. G. O‘rta Osiyo hududida iqlim xususiyatlarining fizik ekstrapolyatsiya va o‘zgaruvchanligi. – Moskva: 2003.
5. Rafiqov A. A. Geoekologik muammolari. – Toshkent: 1997.
6. Tursunov X. T. Yirik shahar ekologik holatini o‘rganishning ijtimoiy geografik jihatlari. –Toshkent: 1994.
7. Safarova Z. I., Rahimzoda A. O., Shermatov N., Mo‘minov A. O. Gidrometerologiya agentligi. – Toshkent: 2018.
8. Салихова Г. Барқарор келажак сари. Ўқув методик қўлланма. Тошкент. 2013.

MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING AHAMIYATI VA SAMARADORLIGI

Shomurodov Mansurbek Jonibek o‘g‘li, UrDU “Geografiya” yo‘nalishi talabasi
Sa’dullayeva Qurbonoy Maqsudbek qizi, UrDU “Geografiya” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada geografiya fanini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish haqida ma’lumotlar berib o‘tilgan. 7-sinflar misolida geografiya darsini tashkil etish va darsda turli metodlardan foydalanish va uning samaradorligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Geografiya, SWOT tahlil, klaster metodi, zamonaviy texnologiyalar

Аннотация. В этой статье представлена информация об использовании интерактивных методов в преподавании географии. На примере 7-х классов была рассмотрена организация урока географии и использование различных методов на уроке, а также

Ключевые слова: География, SWOT-анализ, кластерный метод, современные технологии.

Abstract. This article provides information on the use of interactive methods in teaching geography. On the example of grades 7, the idea was made about the organization of a geogaphy lesson and the use of various methods in the lesson and its effectiveness его эффективность.

Keywords: Geography, SWOT analysis, cluster method, modern technologies.

KIRISH. Geografiya – yer haqidagi fan bo‘lib uning tabiiy va ijtimoiy jihatlarini o‘rganadi va sayyoramizning relyefi, iqlimi, tabiiy resurslari, aholisi, kabilar haqida tushuncha beradi. Ushbu fanni bilish orqali jahon davlatlari haqida umumiy tasavvurlar, dunyo okeani, yer yuzasidagi davlatlar va ularning aholisi haqida ko‘plab ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. Geografiya darsini xarita, globus, atlaslar va ko‘rgazmali qurollarsiz tasavvur qilish qiyin. Ushbu fanni o‘qitishda turli interfaol usullardan foydalanish mumkin. Masalan, klaster, baliq skeleti, SWOT tahlil, Venn diagrammasi, blits savollari, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri, ma’lumotlarni moslashtirish kabi yana bir qator zamonaviy pedogogik texnologiyalardan foydalangan holda maktablarda geografiya darslarni o‘qitish mumkin. Bunday usullardan foydalanish orqali o‘quvchilarda fanga bo‘lgan qiziqish yanada ortadi, mavzuni yaxshi o‘zlashtirishadi va tahliliy fikrlash qobiliyatini ham o‘sib boradi. Ushbu usullar orasida SWOT tahlil usuli eng zamonaviy va hozirgi kunda keng qo‘llanib kelinayotgan usul hisoblanadi. SWOT tahlili strategik rejalashtirish usuli bo‘lib, unda biron bir mavzuni ichki va tashqi muhit bog‘liq holda quyidagi 4 tomonini: kuchli tarflari, kuchsiz taraflari, imkoniyatlari va tahdidlarni bo‘lib o‘rganadi [4]. Bu usulni maktab geografiya darslarida qo‘llash o‘quvchilarda tahlil qilish ko‘nikmasi va fikrlash qobiliyatini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi.

ASOSIY QISM: Geografiya darslarini rejalashtirishda kichik guruhlarga ajratgan holda olib borish qo‘l keladi. Guruhlarga ajratishda o‘quvchilarning hohish-istaklaridan kelib chiqqan holda u yoki bu pedtexnologiyalardan foydalanish mumkin. Masalan: rangli qog‘ozlar, cho‘pchalar va raqamlar yordamida ham ko‘pgina yangi

o‘ziga xos grafik organayzer va pedtexnologiyalardan foydalangan holda darsni musobaqa tarzida 7-sinflar o‘rtasida o‘tkazilsa bo‘ladi.

1-shart. Tezkor savol javob sharti. Bunda quyidagi savollarga javob beriladi:

1. Geografiya nimani o‘rganadi?
2. Amerikani kim kashf etgan?
3. Quyosh sistemasida nechta sayyora mavjud?
4. Bosh meridian qayerdan o‘tgan?
5. Masshtab nima?
6. Yer qanday shaklda?
7. Geografiya fanining otasi kim?
8. Birinchi globusni kim yasagan?
9. Geografiyaning qanaday tarmoqlari mavjud?
10. “Yerning tasviri” nomli asarni kim yozgan ?

Shu kabi savollar va boshqa ko‘plab fanga oid savollardan foydalanish mumkin. Bu metodda o‘quvchilardan tezkor faollik va mavzularni yaxshi o‘zlashtirishlari talab etiladi. Bu metodning afzallik tarafi o‘quvchilarni tezkor fikrlashga, har bir mavzuni qunt bilan o‘rganishga undaydi.

2-shart: Grafik organayzerdan foydalanib Quyosh sistemasidagi sayyoralar nomlarini yozing? O‘quvchilar quyida berilgan tartibda quyosh tizmiga kiruvchi sayyoralarni klasterga yozish orqali to‘ldiradilar.



1-rasm. *Quyosh tizimi klasteri. Mualliflar tomonidan yaratilgan.*

O‘quvchilar ushbu shartni bajarish davomida quyosh sistemasida nechta sayyora borligini va ularning joylashuvini o‘rganadilar**.** Shu bilan birga bu shartni bajarishda o‘quvchilardan tezkorlik va sayyoralarni joylashuvidagi ketma-ketligini bilish talab etiladi.

1-jadval

Atamalar mos ma’lumotlarni moslashtirish jadvali

T/r	Atamalar	Harf	Ma’lumotlar
1	Oriyentrlash	A	Ikki yo‘nalish orasida hosil bo‘lgan burchak

2	Qutbiy doiralar	B	O‘zi turgan joyni ufq tomonlariga nisbatan aniqlash
3	Azimut	C	Joydagi masofani chizmada, plan va xaritada tasvirlaganda necha marta kichraytirilganini ko‘rsatuvchi kasr son
4	Masshtab	D	Qutb kuni va qutb tuni bo‘ladigan joylarning chegarsi

1-jadval. Mualliflar tomonidan yaratilgan.

Ushbu jadvalni to‘ldirish 3-shartda berilgan bo‘lib, uni savollarida ya’ni atamalarga mos ma’lumotlarni topish va 1-B tarzida belgilash orqali bajariladi. Shart yakunlangach guruhlarning javoblari tekshiriladi va g‘oliblar aniqlanadi.

Musoqaba yakunida uchala shartlar bo‘yicha eng ko‘p baho to‘plagan guruh g‘olib deb topiladi, hamda taqdirlanadi.

Zamonaviy pedagogik usullardan foydalangan holda guruhlarda ishlash o‘quvchilarning o‘qituvchiga bo‘lgan hurmatini, qolaversa fanga nisbatan qiziqishlarini orttiradi. Bu kabi metodlarning asosiy yutug‘i bu barcha o‘quvchilarning faolligiga erishishdir, ya’ni bu orqali bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlarida doimiy ishtirokini ta’minlash mumkindir. O‘qituvchi shu kabi metodlardan o‘rinli foydalansa, o‘quvchi mavzu haqida kengroq ma’lumotga ega bo‘ladi [3].

Geografiya darsliklarida berilgan ma’lumotlardan tashqari mavzuga aloqador qo‘shimcha manbalardan foydalanish, ba’zi mavzularni yoritishda mavzuga doir o‘quv filmlari va slaydlardan foydalanish ham geografiya fanini o‘qitish samaradorligini oshiradi. Chunki, o‘quvchilar eshitish orqali ma’lumotlarni 20-25 foizini yodda saqlab qolsa, ko‘rish orqali esa ma’lumotlarni 80-85 foiziga yaqinini yodda saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Darsga tayyorgarlik davrida o‘qituvchi tomonidan ijobiy rag‘batlantirishning ustunligi va o‘qituvchining muloqot madaniyati, o‘zaro yordami o‘quvchilarning darsga qizg‘in tayyorgarlik ko‘rishning muhim omili sanaladi. Geografiya o‘qituvchisi darsda o‘rganiladigan mavzuning ta’limiy, tarbiyaviy va riovjlantiruvchi maqsadlari va pedagogik texnologiyalarning didaktik funksiyalarini hisobga olgan holda qaysi texnologiyadan, interfaol metodlardan foydalanishini ilmiy-metodik asosda tanlagandagina ko‘zlangan maqsadga va samaradorlikka erishadi [1].

Geografiya darslarida o‘rganilayotgan mavzu mazmuniga moslab foydalaniladigan topshiriqlar xilma-xilligi, darslarga innovatsion yondashish juda yaxshi natija beradi. Bu holat o‘quvchilarning o‘qishga nisbatan qiziqishi, bilimlarni puxta o‘zlashtirishida muhim [2].

O‘quv jarayonini yuqorida ta’kidlab o‘tilgan metodlar yordamida ko‘rgazmali tarzda tashkil etish o‘quvchilarda ijodiy fikrlash, fan haqida aniq tassavurga ega bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantiribgina qolmasdan, fanga qiziqishlarini oshirish, tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. O‘qituvchilar har bir yangi mavzuni o‘tganida topshiriqlarning mazmunan xilma-xil va qiziqarli bo‘lishiga e’tibor qaratishi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarga yangilik berish bilan birga, ularning psixofiziologik imkoniyatlarini ham hisobga olishi, ularning fikrlash qobiliyatlarini va ijodiy

tashabbusini rivojlantira olish kerak [3]. Umuman olganda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab bilim berish yaxshi natijalarga erishishga olib keladi.

XULOSA. Geografiya ta’limida interfaol metodlardan foydalanish zamonaviy ta’lim talablariga mos keladigan samarali yondashuv hisoblanadi.

Ushbu metodlar o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlab, ularning tanqidiy fikrlashi va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, geografik bilimlarni yanada tushunarli, amaliy va qiziqarli tarzda o‘zlashtirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu metodlarni to‘g‘ri va samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilar yetarlicha bilim va tajribaga ega bo‘lishi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni bilishi zarur.

Kelajakda geografiya ta’limida interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash darajasini oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish orqali o‘quv jarayonini yanada takomillashtirish lozim. Bu esa yosh avlodning geografik bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliy hayotda qo‘llashiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Muqumova I.“ Geografiya darslarida foydalaniladigan interfaol metodlar xususida” Экономика и социум №3 (106)-2 2023.

2. Matsaidova S.X, Raximova I.U. “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” kursini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” “Science and education” scientific journal Impact Factor 3.848.

3. Sarikulov M.O “Umumta’lim maktablarida geografiya fanini o‘qitishda yangi innovatsion metodlar qo‘llash orqali ta’lim samaradorligini oshirish” Экономика и социум № 1 (104)-1 2023.

4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/SWOT_tahlili.

DUNYO QIT’ALARIDA MILLIY KIYIMLAR TARIXI VA MADANIYATI

Sobirova Nodira Jumanazar qizi, UrDU Geografiya yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola dunyo qit’alaridagi milliy kiyimlarni tarixiy va madaniy kontekstda tahlil qiladi. Milliy kiyimlar har bir xalqning o‘ziga xos madaniyatini, an’analari va tarixini aks ettiradi. Maqolada, Yevropaning rang-barang kiyimlaridan tortib, Osiyo, Afrika, Janubiy va Shimoliy Amerika, shuningdek, Avstraliya va Okeaniyaning milliy kiyimlari o‘rganilgan. Milliy kiyimlarning nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi o‘rni, balki iqlim va geografik xususiyatlarga qanday moslashgani ko‘rsatilgan. Maqola shuningdek, milliy kiyimlarning bugungi kunda globalizatsiya jarayonida qanday saqlanib qolganini va ularning xalqlararo tushunish va hurmatni rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Abstract. This article analyzes the national clothes of the world continents in historical and cultural context. National clothes reflect the unique culture, traditions and history of each nation. In the article, it is explored from the colorful clothes of Europe to the national clothes of Asia, Africa, South and North America, Australia and Oceania.It shows not only the importance of clothes in the social and economic life but also shows how they have adapted the climate and geographical features. Moreover, the article shows how national clothing continues to be a global process today and its importance in developing respect for its users.

Аннотация. В данной статье анализируются национальные одежды континентов мира в историческом и культурном контексте. Национальная одежда отражает уникальную культуру, традиции и историю каждой нации. В статье рассматриваются красочные костюмы Европы, а также национальные одежды Азии, Африки, Южной и Северной Америки, Австралии и Океании. Показано не только значение одежды в социальной и экономической жизни, но и то, как она адаптировалась к климатическим и географическим особенностям. Более того, статья демонстрирует, как национальная одежда продолжает оставаться глобальным процессом сегодня и её важность в формировании уважения к её пользователям.

Kalit so‘zlar: Milliy kiyimlar, tarixiy va madaniy kontekst, Geografik va iqlimiy moslashuv, Globalizatsiya, Madaniy meros, Yevropaning milliy kiyimlari, Osiyo, Afrika, Janubiy Amerika, Xalq madaniyati, An’anaviy kiyimlar, Madaniy an’analar.

Ключевые слова: Национальные костюмы, Исторический и культурный контекст, Географическая и климатическая адаптация, Глобализация, Культурное наследие, Национальные костюмы Европы, Азии, Африки, Южной Америки, Народная культура, Традиционная одежда, Культурные традиции.

Keywords: National costumes, Historical and cultural context, Geographical and climatic adaptation, Globalization, Cultural heritage, National costumes of Europe, Asia, Africa, South America, Folk culture, Traditional clothing, Cultural traditions.

Kirish. Milliy kiyimlar har bir xalqning madaniy merosining ajralmas qismi bo‘lib, ularning tarixiy, ijtimoiy va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Dunyo qit’alaridagi turli xalqlar o‘ziga xos kiyim-kechak madaniyatiga ega bo‘lib, bu kiyimlar

ularning tarixi, iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotini yoritadi. Ushbu maqolada milliy kiyimlarning dunyo qit’alarida tarixi, o‘ziga xos xususiyatlari va zamonaviy hayotdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Yevropa qit’asi

Yevropa xalqlarining milliy kiyimlari uzoq tarixga ega. Bu kiyimlar asosan haroratga, geografik hududga va xalqning urf-odatlariga mos ravishda shakllangan. Masalan, Shotlandiyaning kiltlari, Ispaniyaning flamenco liboslari va Yunonistonning traditional to‘nlari o‘ziga xosdir. Yevropa milliy kiyimlari ko‘pincha rang-barang, asosan ipak, jun va paxtadan tayyorlanadi. Milliy kiyimlar, ayniqsa, festival va bayramlarda katta ahamiyatga ega.

Yevropaning turli mintaqalaridagi iqlim sharoitlari milliy kiyimlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Misol uchun, Skandinaviyada uzoq va sovuq qishlar hukm suradi, shuning uchun o‘sha hududdagi milliy kiyimlar asosan qalin, issiq va mustahkam materiallardan tayyorlanadi. Islomiy Yevropa (masalan, Turkiya, Ispaniya) o‘zining iliq iqlimi bilan tanilgan, shuning uchun yengil, nafas oladigan kiyimlar, masalan, har xil turdagi matolar va ko‘ylaklar keng tarqalgan. Oq ranglar va yengil matolar ko‘proq ishlatiladi, chunki ular quyoshni aks ettirib, tana haroratini nazorat qilishga yordam beradi.

Osiyo qit’asi

Osiyo xalqlarining milliy kiyimlari o‘zining rang-barangligi va nafosati bilan ajralib turadi. Xitoy va Yaponiyada kiyimlar asosan hunarmandchilik va simmetriya tamoyillariga asoslanadi. Xitoyda qirol va aristokratlar kiyimlari sifatida tanilgan “qipao” yoki “cheongsam” eng mashhur kiyimlardan biridir. Yaponiyada esa “kimono” eng an’anaviy kiyimdir, u o‘zining nozik tuzilishi va chiroyi bilan tanilgan. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mamlakatlari, masalan, O‘zbekistonda, Tojikistonda va Qirg‘izistonda milliy kiyimlar o‘zining rang-barang tikuvchilik uslubi va turli naqshlari bilan ajralib turadi [2.3,4].

Osiyo qitasi o‘zining boy madaniyati va tarixiga asoslanib, turli millatlarning o‘ziga xos kiyimlarini ishlab chiqargan. Quyida ba'zi Osiyo mamlakatlarining milliy kiyimlari:

1. Xitoy: Cheongsam (Qipao): Xitoyning eng mashhur milliy kiyimi bo‘lib, bu uzun, ta’zimli ko‘ylakning zamonaviy versiyasidir. Cheongsam nozik matolardan, ko‘pincha silueti uzun va siqilgan bo‘lib, marosimlar, bayramlar va maxsus tadbirlarda kiyiladi.

Changshan: Erkaklar uchun uzun, keng ko‘ylak bo‘lib, uni ko‘pincha tuxum rangli yoki qora matolarda ko‘rish mumkin.

2. Yaponiya: Kimono: Yaponlarning eng mashhur va o‘ziga xos milliy kiyimi. Kimono keng yenglar va to‘liq uzunlikda bo‘lib, ko‘pincha murakkab naqshlar va ranglar bilan bezatiladi. Kimono faqatgina bayramlar, marosimlar va maxsus tadbirlarda kiyiladi.

Yukata: Kimono o‘xshash bo‘lib, lekin yanada yengil matolardan tayyorlanadi va yozda yoki karnavallar va dam olish tadbirlarida kiyiladi.

3. Hindiston: Sari: Hindistonning eng mashhur ayollar kiyimi. Bu uzun mato, odatda to‘liq rang-barang bo‘lib, badan atrofida o‘raladi va turli naqshlar bilan bezatiladi. Sari ko‘pincha bayramlarda yoki maxsus tadbirlarda kiyiladi.

Salwar Kameez: Salwar Kameez - uzun ko‘ylak va keng shimlar, ular turli xil naqshlar va ranglarda bo‘lib, kunlik hayotda kiyiladi.

Sherwani: Hindiston va Pokistonda erkaklar tomonidan bayramlarda va to‘y marosimlarida kiyiladigan uzun ko‘ylak.

4. Pokiston: Shalwar Kameez: Pokistonliklar uchun kundalik kiyim, bu uzun ko‘ylak va keng shimlardan iborat. Odatda, bu kiyim ko‘plab ranglar va naqshlar bilan bo‘ladi.

Sherwani: Pokiston erkaklari tomonidan bayramlar va maxsus tadbirlarda kiyiladigan an’anaviy kiyim. Bu uzun ko‘ylaklar zamonaviy bezaklar bilan ajralib turadi.

5. Koreya: Hanbok: Koreyaning milliy kiyimi bo‘lib, uzun yengli, keng, rang-barang ko‘ylaklardan iborat. Hanbok odatda bayramlar va maxsus tadbirlarda kiyiladi va ko‘plab an’anaviy naqshlar bilan bezatilgan.

Jeogori: Ayollar uchun hanbokning yuqori qismini tashkil etuvchi qisqa ko‘ylak. Erkaklar uchun ham, o‘xshash turdagi kiyimlar mavjud.

6. Tailand: Chut Thai: Tailandning milliy kiyimi bo‘lib, ayollar uchun keng yubka va qisqa ko‘ylaklardan iborat. Erkaklar uchun ham o‘xshash, lekin oddiyroq kiyimlar mavjud.

Phasin: Tailand ayollarining an'anaviy kiyimi, uzun yubka shaklida bo‘lib, eng ko‘p bayramlarda va rasmiy tadbirlarda kiyiladi.

7. Birma (Miyanma): Longyi: Erkaklar va ayollar tomonidan kiyiladigan mato bo‘lib, bu belda o‘ralgan uzun yubkaga o‘xshaydi. Longyi oddiy kundalik kiyim sifatida kiyiladi.

Yinba: Ayollar uchun an’anaviy kiyim bo‘lib, keng yubka va englar bilan tashkil etilgan.

8. Vyetnam: Ao Dai: Vetnamning eng mashhur milliy kiyimi bo‘lib, uzun ko‘ylak va tor shimlardan iborat. Ao Dai nafaqat go‘zalligi, balki uning nafisligi va o‘ziga xosligini ham ta’kidlaydi.

9. Afg‘oniston: Chador: Afg‘oniston ayollarining an’anaviy kiyimi bo‘lib, keng ko‘ylak va niqobdan iborat. Bu kiyim ayollarning yuzlarini yashiradi va ko‘pincha marosimlarda kiyiladi.

Sherwani: Erkaklar uchun bayram kiyimi bo‘lib, o‘rta asrlarda turli xalqlar tomonidan kiyilgan.

10. O‘zbekistan: Chapan: O‘zbekistonda erkaklar uchun milliy kiyimlardan biri bo‘lib, odatda ipak yoki jun matolardan tayyorlanadi. Chapanning oldi qismi bejirim naqshlar bilan bezatilgan bo‘lishi mumkin.

Atlas va Adras: Ayollar uchun mo‘ljallangan rang-barang atlas va adras matolaridan tayyorlangan ko‘ylaklar.

Osiyo qitasi o‘zining rang-barang va boy madaniyati bilan ajralib turadi, shuning uchun har bir mamlakatning milliy kiyimlari ham o‘ziga xos va turli xil. Bu kiyimlar nafaqat madaniyatni, balki iqlim va hayot tarzini ham aks ettiradi.

Afrika qit’asi

Afrika xalqlarining milliy kiyimlari ham o‘ziga xos bo‘lib, ranglar va naqshlar ahamiyatli rol o‘ynaydi. Nigeriya, Gana va Senegal kabi mamlakatlarda kiyimlar an’anaviy yengil matolar bilan to‘ldirilgan, ko‘pincha to‘qilgan va naqshli matolar ishlatiladi. Senegaldaki “boubou” kiyimi va Nigeriyadaki “agbada” an’anaviy erkaklar kiyimi sifatida tanilgan. Ushbu kiyimlar ijtimoiy mavqe, yosh va marosimlarga qarab farq qiladi.

Afrika qitasi turli madaniyatlar, an'analar va iqlim sharoitlariga qarab xilma-xil milliy kiyimlarga boy. Quyidagi ba'zi mamlakatlar va ularning milliy kiyimlari namunalarini keltiraman: [1,2,3].

Gana: Kente: Gana xalqi o‘zining rang-barang matolarini, xususan, Kente matolarini ishlab chiqarish bilan mashhur. Kente matolari ko‘pincha yorqin ranglar va geometrik naqshlar bilan bezatiladi. Bu kiyimlar bayramlar va maxsus tadbirlarda kiyiladi.

Nigeriya: Agbada: Nigeriyalik erkaklar tomonidan kiyiladigan, katta va keng, odatda yorqin rangdagi kiyim. Bu kiyim ko‘pincha marosimlar, bayramlar yoki yuqori martabali tadbirlarda kiyiladi.

Iro and Buba: Ayollar uchun, oddiy, ammo nafis kiyimlardan iborat. Iro — baland belni o‘rab oladigan yupqa mato, Buba esa qisqa yoki uzun ko‘ylak.

Kenya: Shuka: Keniyada keng tarqalgan kiyimlardan biri bo‘lib, uni ko‘pincha Maasai qabilasi a’zolari kiyadi. Shuka matolarining ranglari yorqin va to‘liq rangli bo‘lib, bu kiyimlar o‘zgacha naqshlar va rang-baranglik bilan ajralib turadi.

Misr: Galabeya: Misrlik erkaklar va ayollar uchun oddiy, uzun, ko‘ylak shaklidagi kiyim. Ular ko‘pincha oddiy matolar va pastki qismlarda bo‘yin yoki belda kiritilgan bezaklar bilan bezatiladi.

Efiyopiya: Habesha Kemis: Efiyopiyalik ayollar odatda bayramlarda, marosimlarda yoki maxsus tadbirlarda Habesha Kemis kiyadilar. Bu kiyimning ranglari odatda oq yoki boshqa yorqin ranglar bo‘lib, yenglari va bo‘yin qismlarida an'anaviy naqshlar mavjud.

Zimbabve: Tshokwe: Zimbabveliklarning an'anaviy kiyimi, ko‘pincha yorqin ranglar bilan bezatilgan bo‘lib, erkaklar va ayollar uchun mos keladi. Kiyimlar qo‘lda tikilgan va tabiatni ifodalovchi ranglar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Afrikaning milliy kiyimlari faqat modaga oid emas, balki har bir kiyim o‘zida tarix, madaniyat va an’analarni saqlaydi. Har bir mintaqaning o‘ziga xos ranglari va naqshlari mavjud bo‘lib, ular uning aholisi va geografiyasiga moslashgan.

Janubiy Amerika Qit’asi. Janubiy Amerikada, ayniqsa Peru, Braziliya va Argentinada milliy kiyimlar an’anaviy qadriyatlarni saqlab qolishga intiladi. Peruda “poncho” kiyimi, Braziliyada esa Samba festivallariga mos ravishda yengil va rang-barang kiyimlar mavjud. Argentinada tango raqsiga mos kiyimlar odatda tor va qizil rangdagi matolardan tayyorlanadi. Bu kiyimlar ijtimoiy marosimlar va festivallarda katta ahamiyatga ega.

Shimoliy Amerika qit’asi

Shimoliy Amerika xalqlarining milliy kiyimlari, ayniqsa AQSh, Kanada va Meksikada o‘ziga xos bo‘lib, ular asosan aborigen xalqlarning madaniyati bilan bog‘liq. Meksikadaki “sombrero” va “sarape” kiyimlari mamlakatning eng taniqli milliy kiyimlaridan hisoblanadi. Kanadada va AQShda esa, aborigen xalqlarning kiyimlari, asosan, hayvon terisidan tayyorlanadi, va turli naqshlar bilan bezatiladi.

Shimoliy Amerika hududlarida iqlimning keng tarqalganligi kiyimlarga turlicha ta’sir qiladi. Kanada va AQShning shimoli sovuq va qorli iqlimga ega, shuning uchun shimoliy amerikaliklar qalin jun va mo‘ynali kiyimlarni afzal ko‘radilar. Meksika va Janubiy AQSh esa issiq va quruq iqlimga ega bo‘lgani uchun, yengil matolar, masalan, paxta va charm keng tarqalgan [9,10,11].

Avstraliya va Okeaniya qit’asi Avstraliya va Okeaniya xalqlarining milliy kiyimlari asosan tabiiy materiallar, masalan, o‘simliklar va hayvon terilari bilan ishlanadi. Avstraliya aborigenlari va Polineziya xalqlarining kiyimlari ko‘pincha rang-barang qoplamalar va bosh kiyimlar bilan to‘ldirilgan bo‘lib, ular ijtimoiy maqsadlar va marosimlar uchun muhimdir. Fiji va Samoada milliy kiyimlar odatda to‘qilgan matolar va tabiiy materiallardan tayyorlanadi.

Avstraliya, keng hududlarga ega bo‘lgan kontinent sifatida, iqlim sharoitlari jihatidan ham xilma-xildir. Tropik mintaqalarda yashovchi aborigen xalqlari yengil, nafas oladigan materiallardan yasalgan kiyimlarni kiyishadi. G‘arbiy va janubi-sharqiy

qismlarda esa, qattiq iqlim sharoitlariga mos ravishda, qalin kiyimlar va quyoshdan himoya qiluvchi aksessuarlar talab etiladi. Ayrim hududlarida yashovchilar esa asosan tabiiy materiallardan (masalan, jun) foydalanadilar, chunki ular issiqdan himoya qilishda yordam beradi.

Okeaniya [9,10,11]

Okeaniyada yashovchi ko‘plab xalq va qabilalar, asosan, issiq va tropik iqlim sharoitlariga mos kiyimlar kiydilar. Fiji va Tonga kabi orollarida, iqlimning issiq va namligi tufayli, yengil to‘qilgan matolar va rasmiy va an'anaviy kiyimlar keng tarqalgan. Biroq, Yangi Zelandiyadagi Maori xalqining kiyimlari sovuq mintaqalarda yashashga moslangan va ko‘proq jun va mo‘ynali materiallardan tayyorlangan.

Xulosa. Dunyo qit’alaridagi milliy kiyimlar xalqning madaniyati, urf-odatlari va tarixiy rivojlanishining aksidir. Har bir qit’ada milliy kiyimlarning o‘ziga xos shakllari va uslublari mavjud bo‘lib, ular o‘z xalqlari uchun jiddiy madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ega. Milliy kiyimlar bugungi kunda ham madaniy an’analarni saqlashda va rivojlantirishda, shuningdek, dunyo xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro tushunish va hurmatni kuchaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xudayberganovna M. S., Olimboyevna O. I. Maktab o‘quvchilarida wordwall dasturiy o‘yin metodidan foydalanish asosida geografik bilimlarni takomillashtirish //Konferensiyalar| Conferences. – 2024. – T. 1. – №. 11. – C. 318-322.

2. Xudayberganovna M. S. et al. Tabiiy fanlarda geografik bilimlarni mustahkamlashda “Geopardy” dasturidan foydalanish usullari // Journal of innovations in scientific and educational research. – 2023. – T. 6. – №. 3. – C. 115-120.

3. Matsaidova S. X., Raximova I. U. B. Q. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursini o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari //Science and Education. – 2023. – T. – №. 3. – C. 422-425.

4. Matsaidova S. X., Rustamova M. A. Q. Geografiya ta’limida o‘quvchilarining dunyoqarashini shakllantirish muammolari //Science and Education. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 426-430.

5. Xudayberganovna M. S. et al. Tabiiy fanlarni o‘qitishda STEAM yondashuvning afzalliklari // Ijodkor o‘qituvchi. – 2022. – T. 2. – №. 22. – C. 96-98.

6. Xudayberganovna M. S., Uktamovna M. G. Xalqaro tadqiqotlarda tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlikni baholashning o‘ziga xos xususiyatlari // География: Природа И Общество. – 2022. – №. 2.

7. Khudayberganovna M. S. et al. The research on the toponymy of Urgench district and naming of geographical objects //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 3. – C. 1679-1684.

8. Traditions of Dress in Latin America, 2015.

9. Traditional Clothing of Central Asia, 2018.

10. Cultural Aspects of African Traditional Dress, 2016.

11. The Globalization of Fashion and Traditional Clothing, 2019.

JAHON TRANSPORT TIZIMIDAGI SILJISHLAR VA TENDENSIYALAR

Abdullayeva Mexribon Atabekovna
UrDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada jahon transport tizimidagi siljishlar va tendensiyalar xususida so‘z boradi. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotida transportning tutgan o‘rni haqida ham ma’lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В этой статье рассматриваются сдвиги и тенденции в мировой транспортной системе. Также приводятся данные о роли транспорта в экономике страны.

Abstract. This article will talk about shifts and trends in the world transport system. There are also references to the role of transport in the country's economy.

Kalit so‘zlar: Geografik mehnat taqsimoti, ommaviy yuklar, transmilliy konteyner, avtomobillashtirish jarayoni, ilmiy texnika yutuqlari, ekspluatatsiya tizimlari, raqobatchilik kurashi, tarkibiy siljishlar, xalqaro aloqalar.

Ключевые слова: Географическое разделение труда, массовые грузы, транснациональный контейнер, процесс автомобилизации, достижения в области научных технологий, системы эксплуатации, конкурентная борьба, структурные сдвиги, международные отношения.

Keywords: Geographical division of labor, mass shipments, transnational container, motorization process, scientific technical achievements, exploitation systems, competitive struggle, structural shifts, international relations.

llmiy-texnik taraqqiyot mehnatning geografik taqsimotiga va xususan, xalqaro savdo xarakteriga jiddiy o‘zgarishlar kiritadi, bu bilan tovar oqimlarida tarkibiy siljishlar bilan birga sotish muammolari va transport ta’minotining keskinlashuvini keltirib chiqaradi. Transport sohasida ishlab chiqarish quvvatlarining tez sur’atlar bilan o‘sishi jahon savdo bozorlarida yuk tashish muammolariga talabning kuchayishi bilan bog‘liq ravishda, eng muhimi, mijozlarning transport xizmatlari sifatiga qo‘yadigan yangi talablar oqibatida sodir bo‘ladi. Raqobatchilik kurashi keskinlashgan bir sharoitda asosiy kapitalni yangilash zarurati o‘z rolini o‘ynaydi.

Transport jahon xo‘jaligining eng yangi siljishlari va tendensiyalariga, mijozlarning yangi talablariga moslashadi, bu hol xususan, sanoat mahsulotlariga ishlov berish darajasining keskin o‘sishi, xalqaro aloqalar vatarmoq tarkibining o‘zgarishi bilan izohlanadi1. Bundan yuk tashish tezligi va o‘z vaqtidaligi, yuklaming butligi, muayyan transport tizimlari amal qilishining ishonchliligi va h.kga yangi talablar kelib chiqadi (talablar majmui – ya’ni “djastin-taym” yoki “aniq bir muddatda” deb ataladi). Umuman olganda, bu transport jarayonining ixtisoslashuviga – dastavval yuklarning alohida turlarini tashishga, so‘ngra harakatlanuvchan tarkib va ekspluatatsiya tizimlarini qo‘llashning hududiy sohalariga, va nihoyat, transport universal turlarining ixtisoslashuviga olib keladi (masalan, tezkor temiryo‘llar). Yangi talablar transport-kommunikatsiya kanallari amal qilishining ishonchliligining kuchayishga moyilligini keltirib chiqaradi. Asosiy ommaviy yuklar manbalarining

[1] Экономическая география социалистических стран Азии. Учебное пособие / Под редакцией Н. В. Алисова и Е. Б. Валеха. - М.: МГУ, 1988.

geografiyasi o‘zgarishga uchraydi: bir tomondan, nisbatan yaqin va siyosiy jihatdan barqaror manbalarga o‘tish kuzatiladi, bu esa yuk tashishlarning o‘rtacha davomiyligi qisqarishiga olib keladi. Ikkinchi tomondan – shu sababga ko‘ra uzoq bo‘lsa-da, muqobil manbalarni izlash hisobidan yagona noyob manbaga qaramlikni susaytirishga intilish namoyon bo‘ladi, bu esa uzoqlikning kuchayishiga olib keladi (masalan, Yaponiyaga Braziliya rudasining import qilinishi). Yuk tashishlar ishonchliligini oshirishga moyillik namoyon bo‘lishining yana bir ko‘rinishi – jahon miqyosidagi transport kommunikatsiyalarni takrorlash – Suvaysh va Panama kanallariga parallel ravishda katta quvvatli neft quvurlarini yotqizish, sayyoraning “notinch” (barqaror bo‘lmagan) nuqtalarini aylanib o‘tish.

O‘rta Sharqda tankerlarning Eron tomonidan nazorat qilinadigan O‘rmuz bo‘g‘ozidan o‘tishi zaruratidan qochish uchun Saudiya Arabistonida Qizil dengizdagi Yanbo bandargohigacha Transarab neft quvuri yotqizilgan; Qizil dengiz va Suvaysh kanalini chetlab o‘tish uchun Sudandan Kamerungacha Transafrika neft quvurini o‘tkazish bo‘yicha loyiha mavjud. Bunday tendensiyalar resurslardan erkin foydalanishga, transport tarmoqlarini birlashtirishga intilishda namoyon bo‘ladi. Masalan, G‘arbiy Yevropada quvurlaming janubiy va shimoliy tizimlarini tutashtirish, ushbu mintaqada gaz quvuri “halqasini” yaratish, La-Mansh bo‘g‘ozi ostida Yevrotonnel ochish. Yuk massasi takomillashib borgani sayin yuk tashish sifati omillari jahon konteyner tizimi shakllanishida namoyon bo‘lib, ular butun transport jarayonini tubdan o‘zgartiradi. Konteynerlarning dengiz orqali almashinuvi yiliga 80 mln.donani tashkil etmoqda; ularda barcha asosiy (donabay) yuklarning 60 foizdan ortig‘i tashilmoqda. Mazkur jarayonning aniq namoyon bo‘lishi transport aloqalari ishonchliligi ortishi va transport aloqalarining kafolatlanganligi bilan zich aloqada, – transmilliy konteyner “ko‘priklarning” shakllanishi (bunda dengiz transportining tezkor temir yo‘l tarkiblari, avtopoezdlar (kontreynerlar) bilan kombinatsiyasiga erishiladi. Bunga Transsibir (Yaponiya – G‘arbiy Yevropa), Transamerika, G‘arbiy Yevropa – O‘rta Sharq yo‘nalishlari misol bo‘la oladi.

Transportga uzoq muddat ta’sir ko‘rsata oladigan eng muhim tendensiyalarga rivojlanayotgan mamlakatlar tashqi savdo aloqalari, jahon bozoriga ma’danli xomashyo va qishloq xo‘jaligi xomashyolarini an’anaviy yetkazib beruvchilarning o‘zgarishi kabilar kiradi. So‘nggi yillarda oziq-ovqat importi tez sur’atlar bilan o‘smoqda. Bu esa bandargoh va ombor xo‘jaliklarining rivojlanishini, bandargohlaming jalb etish hududlari – xiterlandlarbilan transport aloqalarining kuchaytirilishini taqozo etadi. Metellurgiya zavodlari qurilishi munosabati bilan rivojalanayotgan mamlakatlarda temir rudasi importi ham kuchayib bormoqda. Yoqilg‘ining muqobil turlariga tezkor o‘tish va energiyani tejovchi texnologiyalami joriy etish imkoniyatiga ega bo‘lmagan ushbu mamlakatlar neft importini tez sur’atlar bilan oshirib bormoqda. O‘z navbatida, neftni eksport qiluvchi davlatlar neftdollarlaridan foydalangan holda tayyor mahsulot olib kirishni tezkor ravishda oshirib borgan, bu esa ushbu mamlakatlarning butun tashqi transporti tuzilimasini tubdan qayta qurish zaruratini keltirib chiqargan.

Rivojlanayotgan mamlakatlar moliyaviy qarzdorligi tobora o‘sib borayotgani tufayli transportdan foydalanishning muqobil turlari – sarmoya yoki mehnat talab

variantlaridan birini tanlash muammosi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Yo‘lovchi tashish sohasida aholining harakatlanishi kuchayishi tendensiyasi, safarlar qulayligining ortishi katta ahamiyatga ega. G‘arbiy davlatlarda yo‘lovichi tashish aylanmasining faqat 40 foizi mehnat safarlari hissasiga to‘g‘ri keladi, barcha safarlarning 70 foizidan ortig‘i shaxsiy yengil avtomobil yordamida amalga oshiriladi.Safarlarni “inlividuallashtirishga” intilish – harakatlanishningqat’iy jadvali, tasodifiy tarmoqlar yoqilg‘i yo‘nalishni erkin tanlash kabilar tobora muhim o‘rin tutmoqda, bular avtomobillashtirish jarayonining barqarorligini belgilaydi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, hech qanday iqtisodiy va noiqtisodiy choralar, shu jumladan, fiskal, muqobil, me’yoriy choralar sezilarli natija bermadi, buning ustiga bir qator hollarda iqtisodiy va hatto psixologik talofatlarga olib keldi. Suyuq yoqilg‘i narxlarining keskin o‘sishi avtomobillashtirish sur’atiga kam ta’sir ko‘rsatdi, AQSHda ming kishiga 600 ta avtomobil to‘g‘ri keladi, G‘arbiy Yevropada esa 400-500 avtomobil, ayni paytda Rossiyada bu ko‘rsatkich 120 taga teng. Dunyoda avtomobillarning umumiy soni 500 milliondan oshib ketdi. Avtomobillashtirish jarayoni urbanizatsiya jarayoni bilan zich bog‘liq. Ayni paytda urbanizatsiyaning yangi shakllari – suburbanizatsiya, aglomeratsiya va konurbatsiyalarning shakllanishini aholining ommaviy avtomobillashtirishsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Zamonaviy urbanizatsiya jarayonlari shahar va shahar atrofi yo‘lovchi qatnash yo‘nalishlar rivojalanishi bilan zich aloqada. So‘nggi 25 yil davomida suburbanizatsiya jarayoni AQSH shahar atrofi hududlaridan shahar markaziga qatnovlar ulushining 35 foizdan 8-12 foizgacha qisqarishiga olib keldi.O‘rta hisobda Yevropa Ittifoqi davlatlari bo‘yicha shahardagi barcha qatnovlarning 50 foizi yengil avtomobilda, 20 foiz avtobus, tramvay, metropolitenda, 12 foiz piyoda, 15 foiz velosiped va mopedlarda, 3 foizi shahar temir yo‘lida amalga oshiriladi.

Axborot va aloqa vositalarining shiddatli rivojlanishi xizmat safarlari zaruratini 20-25 foizga, maishiy safarlarini esa hatto 50 foizga qisqartiradi. Telefonlashtirish jarayoni ham mamlakatlar guruhlari bo‘yicha keskin farq qiladi: G‘arbning rivojalangan davlatlarida telefon apparatlarining soni 100 kishiga 70-80 ta to‘g‘ri kelsa, Rossiyada bu ko‘rsatkich faqat 25 tani, rivojlanayotgan davlatlarda esa 5-7 tani tashkil etadi. Tubdan farq qiluvchi yangi texnologiyani joriy etish telekommunikatsiya tizimlari sohasidagi inqilob – yoritgich tashuvchilar – oyna-tolali aloqa bilan bog‘liq. Xorijda 2 mln.km optik aloqa liniyasi barpo etilgan. Ikkita suv osti optik liniya qurildi: uzunligi 11,5 ming km bo‘lgan Transtinch okeani (AQSH – Gavayi orollari – Yaponiya) va uzunligi 6,5 ming km.ga teng Transatlantika (AQSH – G‘arbiy Yevropa) liniyalari barpo etildi. Nyu-York va Vashington shaharlarida yashovchi kishilar tashqi diametri 12,77 mm bo‘lgan bitta kabel orqali bir paytda o‘zaro 240 mingta telefon suhbatlarini olib borishi mumkin. Jahon transport tizimiga energetik vaziyat katta ta’sir ko‘rsatdi1.

Energiya sig‘imlilik muammosi uch yo‘nalish bo‘yicha kengayib boradi: 1. Texnologik yo‘l – dvigatellar va dvijitellarni takomillashtirish, idish vaznini kamaytirish va h.k 2. Foydalanishga oid – transport quvvatlari yuklamasi va foydalanish darajasining ortishi, ya’ni bo‘sh, ballast qatnovlar, reyslarni kamaytirish,

[1]Экономическая геофафия капиталистических и развиваюшихся стран. Издание2-ое-М.: МГУ, 1986.

to‘xtab qolishlarning oldini olish, yuk ko‘tarish va sig‘imlilikni yaxshilash, shu bilan birga harakatlanish tezligini kamaytirish. 3. Tizimli yo‘l – transport turlari bo‘yicha yuk tashishlar tarkibini o‘zgartirish, bunda energiya sig‘imi yuqori bo‘lgan – dengiz va quvurlarni ko‘paytirish orqali oshirish. Bunda rivojlanish ziddiyati kuchayadi, chunki avtomobilda va havo orqali tashishlar soni nisbatan ortib boradi, bu hol birinchi galda sayyohlik sohasining rivoji bilan bog‘liq. So‘nggi yillar davomida xalqaro yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarida sayyohlar ulushi 30 dan 75 foizga oshdi. Transport sohasida ilmiy texnika yutuqlarini keng joriy etish, ya’ni uning jamg‘armaviy ta’minoti orqali inson mehnatini ashyoviy mehnatga almashtirish orqali doimiy ravishda kuchayib boradi.Ammo bu yo‘nalish avtomatik tarzda o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi. Jumladan, “arzon” (“qulay”) bayroqlar ostidagi kemalar (jahon tonnajida ularning ulushi 25 yil ichida 15 dan 42 foizgacha ortdi), yuk tashishlar tannarxini o‘rtacha jahon flotidagiga nisbatan 3 baravar kamayishini ta’minlaydi, holbuki ularning orasida jihozlanishi va kafolatlanishini darajasi past bo‘lganlarining soni ko‘p. Fond bilan ta’minlanishning yuqori darajasi odatda butun transport jarayoni sarmoya sig‘imi oshgani holda joriy xarajatlarni kamaytirishga olib keladi. Jumladan, konteynerlashtirish jahon hamjamiyatiga bir necha milliard dollarga tushdi.Shu munosabat bilan ilmiy adabiyotlarda uchraydigan transportning “arzonlashayotganiligi” borasidagi fikrning xato ekanligini ta’kidalsha lozim. Aslida transport umumiy xarajatlarining qayta taqsimlanishi sodir bo‘lmoqda – joriyxarajatlar ulushi pasayib, tariflar orqali transport mijozlari hisobidan qoplanadi, ayni paytda transport korxonalari, davlat va munitsipal organlar tomonidan moliyalanadigan (shu jumladan, subsidiyalar shaklida ham) kapital qo‘yilmalar ulushi ortib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bender H. U. Fundamente. Geographischcs Grundbuch fur die Sekundarslulc. II. Stuiluart. Klettw Pertes, 1994.

2. China: the balance sheet: what the world needs to know now about the emerging superpower. / C.Fred Bergstein, Bates Gill, Nicholas R.Lardy, Derek Mitchell. - 1 st ed. - NY: Public Affairs, 2006.

3. De Blij H. J., Muler P. Geography, Regions and Concepts. John Wiley & Sons, 1997.

4. FAO Production Yearbook 2006. Rome. FAO, 2007.

5. FAO Statistical Abstract. of United States 2004. Washington, 2005.

6. Баранский Н.Н. Избранные труды. Научные проблемы географии. – М.: Мысль, 1980.

7. Дэн Э.М. «Курс экономической географии» (1924).

8. Изард У. Методы регионального анализа: введение в науку о регионах = Methods of Regional Analysis: an Introduction to Regional Science: 1960 / Пер.с англ. В. М. Гохмана, Ю. Г. Липеца, С. Н. Тагера. – М. : Прогресс, 1966 -660 с.

9. Салиев А. С., Янчук С. Л. Размещение производительных сил и пояризованное развитие экономики Республики Узбекистан._ – Т.; НУУз, 2005. с. 213.

10. Солиев А. С. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёти [Матн]: танланган асарлар / А.Солиев; масъул муҳаррир: О. Б. Ота-Мирзаев. – Тошкент: Камалак, 2013. – 184 б.

11. Ҳамроев О.Ҳ. Иқтисодий мувозанат ва уни таъминлаш механизмлари. – Т.: 2004. 192

5-SHO‘BA: PEDAGOGIKA. GLOBALLASHUV SHAROITIDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA TENDENSIYALAR.

TALABALARDA TADQIQOTCHILIK KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Yakubova Shaxnoza Erkinbayevna
Urganch davlat pedagogika institute “Pedagogika” kafedrasi mudiri

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasasi talabalarining ilmiy tadqiqot olib borish kompetentligi borasidagi respublikamiz va xorij olimlarining fikrlari keltirilgan, shuningdek talabalarda ilmiy tadqiqot olib borish kompetentligini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

Аннотация. В данной статье представлены мнения отечественных и зарубежных ученых о компетентности студентов высших учебных заведений в проведении научных исследований, а также освещены особенности формирования у студентов компетентности в проведении научных исследований.

Abstract. this article presents the opinions of scientists of our republic and abroad on the competence of students of a higher educational institution to conduct scientific research and also highlights the peculiarities of the formation of the competence of conducting scientific research in students.

Kalit so‘zlar: Talaba – yoshlar, ilmiy –tadqiqot faoliyati, tadqiqotchilik kompetentligi, tadqiqotchilik kompetentsiya, tadqiqot, bilim, ko‘nikma, malaka.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo ‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy komptentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda.

Ключевые слова: студенческая молодежь, исследовательская деятельность, исследовательская компетентность, исследовательская компетентность, исследования, знания, навыки, компетентность. Устойчивость к сильной конкуренции, которая в условиях рыночных отношений занимает приоритетное место на рынке труда, требует от каждого специалиста обладания профессиональной компетентностью, последовательного ее повышения.

Keywords: student-youth, research activities, research competence, research competence, research, knowledge, skills, qualifications. Being resistant to strong competition, which is a priority in the labor market in the conditions of market relations, it is assumed from each Specialist to have professional competence, to increase it consistently.

Bugungi kunda, zamonaviy axborot jamiyati va bilimlarning doimiy yangilanib borayotgan sharoitda axborot oqimida tezkor harakat qilish, uni tahlil qilish, muhimlarini ajratib ko‘rsatish, mustaqil tadqiqot olib borish va amaliyotda o‘z samaradorligini isbotlash kasbiy jihatdan muhim kompetensiyalar hisoblanadi.

Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda ilmiytadqiqot ishlarining asosiy roli oliy kasbiy ta’limning davlat ta’lim standartlarida kadrlar tayyorlashning ko‘plab yo‘nalishlarida o‘z aksini topgan.

“Komptentlik’’ (ingliz.”competence’’ – qobiliyat) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqoridagi darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni mamoyon eta olish.’’Kompetentlik’’tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan.Psixologik nuqtayi nazardan kompetentlik noananaviy vaziyatlar, kutilmagan holatda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqtga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vaziyatlarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la malumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarga xarakatlanish rejasiga egalikni’’anglatadi. [1]

Mamlakatimizning pedagog olimlaridan B.X.Rahimov talaba – yoshlarning ilmiy tadqiqot ishlariga yo‘naltirishning ijtimoiy pedagogik asoslarini yoritib berdi. Olib borilgan tadqiqot natijasida

- talaba yoshlarning ilmiy tadqiqot ishlariga oid faoliyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi nazariy –amaliy jihatdan asoslanadi;
- muammoning mohiyatini ochib beruvchi tayanvh tushunchalarni sharhlanadi;
- talabalarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish jarayonining ijtimoiy – pedagogik xususiyatlari, mazmuni, shakli, usuli va metodlari belgilab beradi;
- oliy o‘quv yurtlarida ilmiy tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish jamiyat rivojlanishining muhim omillaridan biri ekanligi asoslab berdi
- talaba – yoshlarning ilmiy faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy- metodik tavsiyalar ishlab chiqdi.[2]

Tadqiqot doirasida talabalarning ijodiy rivojlanishining keng tarqalgan ko‘rinishlari tavsiflangan

- passiv – tanishtiruv (ijodiy faoliyatga qiziqish va ichki ehtiyoj) ;
- ijodiy – reproduktiv (talabalarning ijodiy faoliyatga intilishi bilan mos kelishi va uning reproduktiv xarakteri);
- qisman ijodiy (talabaning faoligi tizimli istak va xihishlarini talab qiladi, uning ijodiy faoliyati izlanuvchi xarakterga ega);
- xususiy ijodiy (talabaning o‘z faoligini boshqarishda uning bilishga oid faoliyati ijodga aylanadi).

Talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish ularni yangi bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishga o‘rgatish va kasbiy kompetensiyalarni hosil qilish uchun birinchi navbatda ularni o‘z -o‘zini rivojlantirish va intelektual qobilyatlarini rivojlantirish zarur. Tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirishda xatoliklar, kamchiliklarini aniqlash, ularning vujudga kelish sabablarini topish ham juda muhim vazifadir. Ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar o‘qituvchilarga bunga o‘xshash kamchiliklarga yo‘l qo‘ymasliklariga imkon beradi.Bo‘lajak o‘qituvchilarda tadqiqotchilik ko‘nikmalari shakllanganlik va rivojlanganlik mezonlarini aniqlashda O.I.Mirtosh quyidagilardan foyadalanilgan.

- pedagogik taklif haqiqiyligi va tamonlamaligi ;
- bajarilayotgan amallar va faoliyatlar to‘liqligi ;

- ko‘nikmalardan foydalanishda mustaqillik darajasi;
- shaxsiy baholash mulohazalarining asoslanganligi;[3]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonini ilmiy asosda boshqarish o‘qitishga va ilmiy tadqiqot ishalariga faol va ongli ta’sirni bildiradi va talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonining optimal borishni ta’minlashni maqsad qiladi.U talabalarda tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojalantirish jarayonining ichki ko‘nikmalarining ilmiy bilimlari haqida o‘zaro bog‘liqligi hamda biridan ikkinchisiga o‘tish asosida amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N. Muslimov, M. Usmonboyeva, D. Saiyfurov, A. Turayev ‘’Pedagogik kompetntlik va kreativlik asoslari’’.
2. L.T.Razikova ‘’Talabalarda tadqiqotchilik ko ‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy pedagogik asoslari ‘’
3. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.

ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ПЕДАГОГ: О РОЛИ РЕЧЕВОЙ КУЛЬТУРЫ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОЙ КОММУНИКАЦИИ

Кунь Ли, Эльвира Габдельбаровна Галимова

Россия, Казанский федеральный университет, elyagalimowa@yandex.ru

Аннотация. Стремительное развитие искусственного интеллекта (ИИ) в образовании открывает новые возможности, но одновременно предъявляет высокие требования к квалификации педагогов. Эффективное использование ИИ в учебном процессе зависит не только от технических навыков, но и от способности педагога точно формулировать задачи для ИИ-систем и адекватно интерпретировать получаемые результаты. Нечеткие формулировки могут привести к некорректным ответам, снижая эффективность обучения. Данное исследование направлено на изучение взаимосвязи между уровнем речевой культуры педагогов (включая навыки точной формулировки, критического мышления и интерпретации информации) и результативностью применения ИИ в образовательном процессе. Анализ направлен на выявление корреляции между этими факторами и определение роли речевой культуры в успешном внедрении ИИ в образовательную практику.

Ключевые слова: речевая культура, будущие педагоги, искусственный интеллект, образовательная эффективность.

Abstract. The rapid development of artificial intelligence (AI) in education opens up new opportunities, but also places high demands on the qualifications of teachers. Effective use of AI in the educational process depends not only on technical skills, but also on the teacher's ability to accurately formulate tasks for AI systems and adequately interpret the results obtained. Ambiguous formulations can lead to incorrect answers, reducing the effectiveness of learning. This study aims to investigate the relationship between the level of educators' speech culture (including the skills of precise wording, critical thinking, and interpretation of information) and the effectiveness of using AI in the educational process. The analysis is aimed at identifying the correlation between these factors and determining the role of speech culture in the successful implementation of AI in educational practice.

Keywords: Speech culture, future teachers, artificial intelligence, educational effectiveness.

Современное образование трансформируется под влиянием внедрения искусственного интеллекта (ИИ). ИИ-технологии уже применяются для анализа успеваемости, персонализации обучения и автоматизированной оценки знаний. Однако эффективность интеграции ИИ зависит не только от технических возможностей алгоритмов, но и от компетентности педагога во взаимодействии с этими технологиями. Успешное применение ИИ в образовании требует от педагога не только четкости формулировок, но и способности критически интерпретировать данные, учитывая потенциальную неточность, неполноту или необъективность информации, предоставляемой ИИ. В условиях интенсивного информационного потока, требующего тщательной верификации, критическое осмысление данных, генерируемых ИИ, становится неотъемлемой

составляющей профессиональной деятельности педагога. Таким образом, речевая культура приобретает особую значимость в контексте интеграции ИИ в образование. Педагог, не владеющий навыками точной постановки задач, не сможет эффективно использовать ИИ-инструменты для создания контента или анализа данных. Следовательно, речевая культура будущих педагогов выступает одним из ключевых условий эффективной интеграции ИИ в образовательную деятельность.

Речевая культура педагога – это комплекс навыков и норм, обеспечивающих эффективную профессиональную коммуникацию. Она включает грамотность, логичность изложения, адаптацию стиля речи к аудитории и критическое мышление. Значимость речевой культуры педагога для образовательного процесса подчеркивается в работах Л.П. Луневой [5], Н.Л. Кочкиной [4], Е.В. Климкиной [3], Д.А. Целоевой и Д.М. Салимовой [9], Х.Х. Газиевой [2]. Авторы отмечают прямую зависимость эффективности обучения от корректности и грамотности речи педагога, что проявляется в повышении мотивации обучающихся, улучшении понимания и усвоения материала, а также в расширении методического арсенала педагога. Особо выделяется роль речевой культуры в формировании благоприятной образовательной среды, способствующей продуктивному взаимодействию, установлению доверительных отношений и созданию поддерживающей атмосферы. Высокая речевая культура педагога служит образцом для учащихся, стимулируя развитие их коммуникативных навыков и повышая общий уровень культуры общения.

В условиях цифровизации образования эти навыки приобретают особую актуальность. Работа с ИИ требует точности формулировок, анализа текстовой информации и способности выявлять ошибки алгоритмов. Нечеткие запросы к ИИ могут привести к получению некорректных или нерелевантных ответов, негативно влияя на образовательный процесс.

Внедрение ИИ в педагогику открывает новые возможности, но одновременно ставит ряд методологических, этических и практических вопросов. Различные аспекты применения ИИ в образовании рассматриваются в исследованиях А.И. Минакова [6], Л.Н. Ясницкого [11], Я.А. Ваграменко и А.А. Русакова [1] и др. Авторы акцентируют внимание на важности ИИ в образовательной деятельности и необходимости подготовки педагогов к работе с ним. Будущие педагоги сталкиваются с рядом трудностей, препятствующих эффективному использованию ИИ: недостаток навыков четкой формулировки мыслей, слабое владение научной терминологией, влияние неформальной интернет-коммуникации и недостаточно развитое критическое мышление. Привычка к краткой и неструктурированной коммуникации в социальных сетях и мессенджерах затрудняет построение развернутых аргументированных высказываний.

Недостаточное внимание к развитию академической и профессиональной речи также сказывается на умении анализировать и объяснять сложную информацию. Взаимодействие с ИИ требует точности, так как нечеткие или двусмысленные запросы приводят к ошибочным или неполным ответам.

Например, размытый вопрос, заданный педагогом системе ИИ, может дать некорректный или неинформативный результат. Таким образом, грамотность и ясность речи педагога – ключевой фактор эффективной работы с ИИ. Кроме того, недостаток критического мышления может привести к безоговорочному доверию информации от ИИ без проверки ее достоверности.

Формирование речевой культуры будущих педагогов – задача, требующая системного подхода. Педагогические вузы должны уделять больше внимания риторике, стилистике, академическому письму и навыкам цифровой коммуникации. Будущие педагоги должны научиться формулировать запросы к ИИ, анализировать и критически оценивать полученную информацию, а также объяснять студентам принципы работы ИИ. Практическое обучение должно включать работу с образовательными платформами и автоматизированными системами, позволяя студентам не только использовать технологии, но и понимать их возможности и ограничения.

В рамках нашего исследования, на основе теоретического анализа, были разработаны и внедрены методические рекомендации, учитывающие влияние речевой культуры на успешное применение ИИ. Ключевые аспекты включают:

– Четкость и точность формулировок: четкий и точный запрос к ИИ обеспечивает более релевантный и полезный ответ. Размытые, двусмысленные или содержащие ошибки запросы приводят к непониманию со стороны ИИ и некорректным результатам.

– Использование правильной терминологии: применение корректной терминологии, особенно в специализированных областях, предотвращает искажение смысла запроса и обеспечивает правильную интерпретацию данных.

– Структурированность запросов: логически структурированные запросы, особенно при работе со сложными задачами, помогают ИИ лучше понять контекст и дать более качественный ответ.

Речевая культура педагога становится важнейшим условием эффективного использования ИИ в образовании. Грамотное владение речью не только улучшает взаимодействие с цифровыми инструментами, но и способствует развитию критического мышления у студентов, формирует осознанный подход к информации и помогает адаптироваться к вызовам цифровой эпохи. ИИ – мощный инструмент в руках педагога, но его эффективность зависит от умения педагога правильно взаимодействовать с ним, анализировать полученные ответы и обучать этому своих студентов.

Список литературы

1. Ваграменко, Я.А. Педагогические аспекты влияния ИКТ на характер современного образования / Я.А. Ваграменко, А.А. Русаков // Образовательные технологии и общество. – 2017. – Т. 20. – №. 4. – С. 384-390. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/pedagogicheskie-aspekty-vliyaniya-ikt-na-harakter-sovremennogo-obrazovaniya/viewer (дата обращения: 08.02.2025).

2. Газиева, Х.Х. Формирование коммуникативно-речевой культуры в процессе профессионального становления будущих педагогов: автореф. дис.… канд. пед. наук / Х.Х. Газиева. – Душанбе, 2009. – 24 с. – URL:

https://www.dissercat.com/content/formirovanie-kommunikativno-rechevoi-kultury-v-protsesse-professionalnogo-stanovleniya-budus/read (дата обращения: 10.02.2025).

3. Климкина, Е.В. Формирование профессионально-речевой культуры социального педагога в процессе обучения в вузе 2001 / Е.В. Климкина. – 194 с. – URL: https://www.dissercat.com/content/formirovanie-professionalno-rechevoi-kultury-sotsialnogo-pedagoga-v-protsesse-obucheniya-v-v (дата обращения: 11.02.2025).

4. Кочкина, Н.Л. Формирование речевой культуры будущего педагога в образовательном процессе вуза: дис… канд. пед. наук / Н.Л. Кочкина. – Воронеж, 2008. – 192с. – URL: https://freereferats.ru/advanced_search_result.php?keywords=01004123506 (дата обращения: 09.02.2025).

5. Лунева, Л.П. Совершенствование профессионально-речевой культуры преподавателя в системе повышения квалификации: автореф. дис… д-рапед. наук / Л.П. Лунева. – Москва, 2004. – 44 с. – URL: https://www.dissercat.com/content/sovershenstvovanie-professionalno-rechevoi-kultury-prepodavatelya-v-sisteme-povysheniya-kval/read (дата обращения: 08.02.2025).

6. Минаков, А.И. Искусственный интеллект в образовании – актуальное направление подготовки современных педагогов / А.И. Минаков // Мир науки. Педагогика и психология. – 2024. – Т. 12. – № 1. – С. 1-15. – URL: https://mir-nauki.com/PDF/65PDMN124.pdf (дата обращения: 10.02.2025).

7. Минаков, А.И. Структура компетенции педагога в области искусственного интеллекта для решения образовательных задач / А.И. Минакова // Мир науки, культуры, образования. – 2024. – № 4(107). – С. 321-324. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/struktura-kompetentsii-pedagoga-v-oblasti-iskusstvennogo-intellekta-dlya-resheniya-obrazovatelnyh-zadach/viewer (дата обращения: 10.02.2025).

8. Рахманова, М.Д. Инновационные технологии формирования речевой культуры будущих педагогов / М.Д. Рахманова, Д.М. Салимова // Вестник Таджикского национального университета. – 2021. – № 1. – С. 123-130. – URL: https://g.vestnik-tnu.com/vestnik/2021/Vestnik-2021-1.pdf (дата обращения: 09.02.2025).

9. Целоева, Д.А. Сущность речевой культуры современного педагога-лингвиста / Д.А. Целоева, Ф.Х. Киргуева // Проблемы современного педагогического образования. – 2019. – № 65-1. – С. 289-292. – URL: https://cyberleninka.ru/article/n/suschnost-rechevoy-kultury-sovremennogo-pedagoga-lingvista (дата обращения: 09.02.2025).

10. Ясницкий, Л.Н. Введение в искусственный интеллект: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / Л.Н. Ясницкий. – 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр «Академия», 2010. – 176 с. – URL: https://academia-moscow.ru/ftp_share/_books/fragments/fragment_17447.pdf (дата обращения: 10.02.2025).

11. Ясницкий, Л.Н. Искусственный интеллект. Элективный курс: учебное пособие / Л.Н. Ясницкий. – М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2011. – 197 с. – URL: https://clck.ru/3GTZqe (дата обращения: 10.02.2025).

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT YO‘NALISHI TALABALARINING PEDAGOGIK AMALIYOTGA KASBIY-PEDAGOGIK TAYYORGARLIK DARAJASINI BAHOLASH METODLARI

Sharipov Allabergan Kamilovich
p.f.n., dots.Ma’mun universiteti NTM. Sport faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshligi.
sharipov_allabergan@mamunedu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada jismoniy madaniyat va sport yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning pedagogik amaliyotga kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini baholash metodlari ko‘rib chiqiladi. Pedagogik kompetensiyalarni aniqlashning asosiy yondashuvlari tahlil qilinib, ularning samaradorligi va ta’lim jarayonida qo‘llashning maqsadga muvofiqligi baholanadi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методы оценки уровня профессионально-педагогической подготовки студентов, обучающихся по направлению физической культуры и спорта, к педагогической практике. Анализируются основные подходы к определению педагогических компетенций, оценивается их эффективность и целесообразность применения в образовательном процессе.

Abstract. This article examines methods for assessing the level of professional and pedagogical preparedness of students studying physical education and sports for their teaching practicum. The main approaches to identifying pedagogical competencies are analyzed, and their effectiveness and appropriateness of application in the educational process are evaluated.

Kalit so‘zlar: Jismoniy madaniyat va sport, kasbiy pedagogik tayyorgarlik, pedagogik amaliyot, baholash metodlari, amaliy metod, nazariy metod, o‘z-o‘zini baholash metodi.

Ключевые слова: Физическая культура и спорт, профессионально-педагогическая подготовка, педагогическая практика, методы оценки, практический метод, теоретический метод, метод самооценки.

Keywords: Physical culture and sports, professional pedagogical training, pedagogical practice, assessment methods, practical method, theoretical method, self-assessment method.

Kirish. Jismoniy madaniyat va sport yo‘nalishi talabalarini pedagogik amaliyotga tayyorlash oliy ta’limning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonning samaradorligi ko‘p jihatdan talabalarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini baholash usullarini to‘g‘ri tanlashga bog‘liq (3,6,7). Bugungi kunda talabalarning pedagogik faoliyatga tayyorgarligini baholashga imkon beradigan ko‘plab metodikalar mavjud, biroq ularni qo‘llash tizimli tahlil va zamonaviy ta’lim sharoitlariga moslashtirish zarurligini taqozo etadi (4,5).

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sport sohasida xalqaro standartlarga muvofiq kompleks bilimlarga ega malakali kadrlar tayyorlash sifatini yaxshilash, sportda ilm-fanni jadal rivojlantirish, yuqori malakali raqobatbardosh trener-o‘qituvchilar, mutaxassislar hamda ilmiy xodimlarni tayyorlash jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-noyabrda “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini

takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, PQ-4877-sonli qarori qabul qilindi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrda “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-414-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu qarorning asosiy maqsadi - jismoniy tarbiya va sport sohasida malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim jarayonini xalqaro standartlarga moslashtirish va boshqaruv tizimini raqamlashtirish, pedagogik va ilmiy salohiyatni yanada oshirish hamda ilmiy-tadqiqot ishlari sifatini tubdan yaxshilash, ilg‘or xorijiy sport-ta’lim texnologiyalarining transferini amalga oshirish orqali yuqori natijalarga erishishdan iborat.

So‘ngi paytlarda jismoniy madaniyat va sport mutaxassislarini tayyorlash bo‘lgan talab oshib bormoqda. Pedagogik amaliyot talabalarni kelgusida o‘z kasbi bo‘yicha kasbiy-pedagogik tayyorgarligi darajasini belgilab beruvchi asosiy bo‘g‘imlardan biri hisoblanadi. Chunki talabalar olgan nazariy bilim, malaka va ko‘nikmalarini pedagogik amaliyotda birinchi marta sinab ko‘rishadi. Shuning uchun talabalarning olgan bilim, malaka va ko‘nikmalarini to‘g‘ri va aniq baholash muhim hisoblanadi (6,7). Biz ushbu maqolada jismoniy madaniyat va sport yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarning pedagogik amaliyotga kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini baholash metodlarini tahlil qilib, ularning samaradorligi va ta’lim jarayonida qo‘llashning maqsadga muvofiqligi baholadik va tavsiyalar ishlab chiqdik.

Tadqiqot maqsadi. Jismoniy madaniyat va sport yo‘nalishi talabalarining pedagogik amaliyotga kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini baholashning eng samarali metodlarini tahlil qilish va asoslashdan iborat.

Tadqiqot turli baholash metodlarining afzalliklari va kamchiliklarini aniqlashga, shuningdek, ularni ta’lim jarayonida qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

Kasbiy-pedagogik tayyorgarlikni baholash metodlari.

Talabalarning tayyorgarlik darajasini baholash metodlarini uch asosiy guruhga bo‘lish mumkin:

Nazariy metodlar - talabalarning nazariy tayyorgarligini aniqlashga qaratilgan bo‘lib, test topshirish, imtihonlar, yozma ishlar va refleksiv insholarni tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Test sinovlari talabalarning bilim darajasini va ularning nazariy tushunchalarni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini xolisona baholash imkonini beradi. Og‘zaki va yozma imtihonlar o‘quv materiallarini chuqur tushunishni tekshirish va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga ko‘maklashadi. Referatlar va kurs ishlari kabi yozma topshiriqlar tahlil qilish, umumlashtirish va tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantiradi. Refleksiv insholar tahlili talabalarga o‘zlarining pedagogik tajribasini anglash darajasini, kasbiy o‘sish va kompetensiyalarni o‘z-o‘zini baholash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi (4,5). Biroq, bu metodlarning cheklovlari ham mavjud: ular har doim ham talabalarning amaliy tayyorgarligini xolisona baholay olmaydi, shuningdek, imtihon paytidagi stress yoki yozma ishlarni bajarishdagi motivatsiya yetishmasligi kabi subyektiv omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Amaliy metodlar - pedagogik ko‘nikmalarning shakllanganlik darajasini baholash imkonini beradi, dars o‘tkazishni kuzatish, darslarning video yozuvlarini

tahlil qilish, amaliy imtihonlarni o‘z ichiga oladi (4,5,6). Ushbu metodlarga quyidagilar kiradi:

- Mashg‘ulotlarni kuzatish - o‘qituvchilar va mutaxassislar dars jarayonida talabaning xatti-harakatlarini tahlil qilib, uning o‘quvchilar bilan muloqot qilish, materialni tushuntirish va o‘quv jarayonini boshqarish qobiliyatini baholash metodi.
- Dars videoyozuvlarini tahlil qilish - talabalarga va o‘qituvchilarga pedagogik faoliyatni chuqur o‘rganish, xatolarni aniqlash, o‘qitishning og‘zaki va og‘zaki bo‘lmagan jihatlarini tahlil qilish imkonini beradi.
- Amaliy imtihonlar - sinov darslarini o‘tkazish, pedagogik muammolarni yechish va modellashtirilgan vaziyatlarda ishlash orqali talabalarning haqiqiy pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini baholaydi.

Amaliy metodlarning afzalliklari:

- Talabalarning haqiqiy kasbiy malakalarini aniqlash imkonini beradi.
- Xatolarni tuzatish va pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.
- Ishonch va kasbiy mahoratning rivojlanishiga ko‘maklashadi.

Kamchiliklari:

- Sezilarli vaqt va resurs sarfini talab etadi.
- Talabalarda stress holatini keltirib chiqarishi mumkin, bu esa baholashning xolisligiga ta’sir ko‘rsatadi.
- Amaliy malakalarni baholash mezonlarini standartlashtirish murakkabligi.

O‘z-o‘zini baholash va refleksiya metodlari - talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ularning mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorligini baholashga qaratilgan bo‘lib, so‘rovnomalar o‘tkazish, pedagogik kundaliklar yuritish va suhbatlarni o‘z ichiga oladi (5,6).

Anketa so‘rovlari talabalarning o‘z kompetensiyalarini subyektiv baholashlari haqidagi miqdoriy va sifat ma’lumotlarini to‘plashda yordam beradi. Bu bilim va kasbiy malakalardagi kamchiliklarni aniqlash, shuningdek, ularning ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarini belgilash imkonini beradi.

Pedagogik kundaliklar yuritish refleksiyani rivojlantirishga ko‘maklashadi, chunki talabalar o‘zlarining pedagogik faoliyati bo‘yicha kuzatuvlari, yutuqlari, qiyinchiliklari va mulohazalarini yozib boradilar. Bu o‘quv jarayonini chuqurroq anglashga va o‘z ustida ishlash metodlarini ongli ravishda takomillashtirishga yordam beradi.

Suhbatlar, ayniqsa chuqur intervyular shaklida, talabalarga o‘z fikrlarini ifodalash, pedagogik muammolarni muhokama qilish va o‘qituvchilar yoki mutaxassislardan fikr-mulohaza olish imkonini yaratadi. Bunday metod kasbiy faoliyatni tanqidiy idrok etishni shakllantirish va o‘z-o‘zini tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Afzalliklari:

- O‘z ta’limi uchun ongli yondashuv va mas’uliyatni rivojlantirishga ko‘maklashadi.
- Tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini tahlil qilish qobiliyatini oshiradi.

- Shaxsiy ehtiyojlar va ta’limdagi qiyinchiliklarni aniqlash imkonini beradi.

Kamchiliklari:

- Subyektiv noto‘g‘ri baholashlar yuzaga kelishi mumkin, bu esa ma’lumotlarning ishonchliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.
- Talabalardan rivojlangan tahliliy ko‘nikmalarni talab etadi, bu esa ta’limning dastlabki bosqichlarida murakkablik tug‘dirishi mumkin.
- Ko‘p sonli talabalar ma’lumotlarini qayta ishlash jarayoni vaqt talab qiladi.

Turli baholash usullarining samaradorligini tahlil qilish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, nazariy, amaliy va refleksiv metodlarni birgalikda qo‘llash talabalardagi kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini eng to‘liq baholash imkoniyatini beradi. Misol uchun, test nazariy bilimlarni aniqlashda samarali bo‘lsa-da, amaliy ko‘nikmalarning to‘liq manzarasini bermaydi. Shu bilan birga, mashg‘ulotlar o‘tkazilishini kuzatish va videoyozuvlarni tahlil etish talabalardagi pedagogik faoliyatning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini yaratadi.

Xulosa. Jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishi talabalarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini baholash nazariy, amaliy va refleksiv usullarni o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvga asoslanishi lozim. Bunday yondashuv talabalarning pedagogik amaliyotga tayyorgarligini eng xolis baholash imkoniyatini yaratadi hamda ularda zarur kasbiy layoqatlarni shakllantirishga ko‘maklashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-noyabrda “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi, PQ-4877-son qarori. Lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrda “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-414-son qarori. Lex.uz
3. Виноградова, Н. Ф. Педагогическая практика в профессиональном образовании. – Москва: Издательство Академия, 2019.
4. Михайлова, Т. В. Оценка профессиональной компетентности студентов педагогических специальностей. – Екатеринбург: Уральский университет, 2021.
5. Кузнецов, И. А. Современные методы диагностики педагогических компетенций. – Новосибирск: Наука, 2022.
6. Sharipov A., Ko‘palov S., Jammatov J., Ro‘zmetov N. Jismoniy madaniyat ta’lim tizimida pedagogik amaliyot mazmuni va tizimini takomillashtirishda innovatsion texnologiyalar. Monografiya. UrDU. Urganch, 2013. 92 b.
7. Sharipov A. Jismoniy madaniyat fanidan pedagogik amaliyot asoslari. Uslubiy qo‘llanma. UrDU, 2011

IBN RUSHDNING ILMIY-PEDAGOGIK QARASHLARINING ZAMONAVIY TA’LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Davletov Jamshid Bekmatovich
Urganch Ranch texnologiya universiteti dotsenti, PhD
Adambayeva Maxliyo Sadullayevna
Urganch Ranch texnologiya universiteti magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ibn Rushd ilmiy-falsafiy qarashlari rivojlanishining konseptual asoslari masalasi, uning ilmiy-falsafiy va pedagogik qarashlari taraqqiyotiga ijobiy tasir qilgan Aristotel, Aflotun, al-Kindiy, ar-Roziy, G‘azzoliy kabi allomalar ta’limotlari tahlil qilinadi va ular tarixiy-metodologik nuqtai nazardan yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Ibn Rushd (Averroes), Aristotel, Aflotun, al-Kindiy, ar-Roziy, G‘azzoliy, konseptual asos, ilmiy-falsafiy qarash, axloq va ma’naviyat, Sharq va G‘arb ma’naviyati uyg‘unligi.*

Annotatsiya. *В статье анализируются концептуальные основы развития научно-философских взглядов Ибн Рушда, учения таких ученых, как Аристотель, Платон, аль-Кинди, ар-Рази, Газали, оказавших положительное влияние на развитие его научно-философского мировоззрения, философские и педагогические взгляды, а также их историческое обоснование с методологической точки зрения.*

Ключевые слова: *Ибн Рушд (Аверроэс), Аристотель, Платон, аль-Кинди, ар-Рази, Газали, концептуальная основа, научно-философская перспектива, этика и духовность, гармония восточной и западной духовности.*

Abstract. *This article analyzes the conceptual foundations of the development of Ibn Rushd’s scientific and philosophical views, the teachings of scholars such as Aristotle, Plato, al-Kindi, ar-Razi, and Ghazali, who had a positive influence on the development of his scientific and philosophical and theoretical views, and sheds light on them from a historical and methodological perspective.*

Key words: *Ibn Rushd (Averroes), Aristotle, Plato, al-Kindi, ar-Razi, Ghazali, conceptual basis, scientific and philosophical perspective, ethics and spirituality, harmony of Eastern and Western spirituality.*

Ibn Rushd (1126-1198), islom falsafasi va ilmiy-pedagogik tafakkur tarixida o‘zining noyob o‘rni bilan ajralib turadi. Uning ilmiy-pedagogik qarashlari nafaqat musulmon dunyosida, balki butun jahonda ilmiy tafakkur va ta’limga bo‘lgan yondashuvni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilgan. Ibn Rushdning ilm-fan, ta’lim va pedagogika sohalarida yaratgan merosi zamon o‘tishi bilan nafaqat falsafiy, balki pedagogik tizimning, jumladan, bugungi zamonaviy ta’limning muhim konseptual asoslarini yaratishda ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Uning ilmiy-pedagogik qarashlarini chuqur tahlil qilish, nafaqat uning ilmiy faoliyatini anglash, balki zamonaviy ta’lim tizimiga qo‘yiladigan talablar, metodologik yondashuvlar va pedagogik printsiplarning shakllanishiga katta hissa qo‘shadi hamda o‘zining metodologik asoslari, tafakkur, ilmiy izlanishlar va ta’lim metodikalarining zamonaviy pedagogik yondashuvlarga nisbatan ta’siri bilan ham ajralib turadi.

Ibn Rushdning ilmiy-pedagogik qarashlarini to‘liq anglash uchun, avvalo, uning ilmiy va falsafiy metodologiyasiga e’tibor qaratish lozim. Ibn Rushdning falsafasi Aristotelning asarlarini qayta ko‘rib chiqish va ularni islomiy dunyoqarashga moslashtirishda markaziy o‘rin tutgan. Uning ilmga bo‘lgan yondashuvi tabiiy ilmlarni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu uning pedagogik nazariyasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatgan.

Ibn Rushdning ilmiy va pedagogik qarashlari zamonaviy ta’lim tizimlarining rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning ilmiy metodologiyasi va pedagogik tamoyillari, o‘z vaqtida, ilm-fan va ta’lim tizimiga yangiliklar kiritgan bo‘lsa, bugungi kunda ham ularning pedagogik qarashlari o‘rganilmoqda va tatbiq etilmoqda.

Ibn Rushdning ta’limga bo‘lgan yondashuvi, uning ilmiy qarashlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Uning ilmiy-pedagogik qarashlari ilm-fan va tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ta’lim jarayonida talabalar uchun quyidagi asosiy xususiyatlarni inobatga olishni ta’kidlagan:

- **Erkin fikrlash va tanqidiy yondashuv:** Ta’limda faqatgina mavjud bilimlarni o‘rgatish bilan cheklanmasdan, talabalarni o‘z fikrlarini rivojlantirishga undagan. Tanqidiy fikr yuritish va ilmiy savodxonlikni shakllantirish uning ta’lim metodlarining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan.
- **Mantiqiy va ilmiy tahlil:** Ilmiy metod va tahlilni jamiyatga yangi qarashlar kiritishda asosiy vosita sifatida ko‘rgan. Ibn Rushd o‘quvchilarga faqat materiallarni yodlashni emas, balki ularni mantiqan tahlil qilishni ham o‘rgatgan.
- **Falsafiy yondashuv:** Ibn Rushd ta’limda falsafiy fikrlashning muhimligini ta’kidlagan. U bilimni faqat amaliyot bilan bog‘lamasdan, ilmiy va falsafiy izlanishlarga ham katta e’tibor bergan [3, 216].

Ibn Rushd ilmni ham tafsiliy, ham universal qarash asosida o‘rganishga intilgan. U, ayniqsa, ilmiy jarayonni ob’ektiv va tizimli tarzda tahlil qilishni talab qilgan. Uning falsafiy izlanishlarida ilmning ahamiyati nafaqat ma’lumotlarni saqlashda, balki o‘rganilgan bilimlarni amaliyotga tadbiq etishda ham mujassam bo‘lgan. Ibn Rushdning fikricha, ilmni to‘g‘ri o‘rgatish uchun, talabalarni tanqidiy fikrlashga va ilmiy metodlarni qo‘llashga o‘rgatish zarur.

*Ibn Rushd*ning ilmiy-pedagogik qarashlari, shubhasiz, keyingi ilmiy tafakkur va ta’lim tizimlarining shakllanishiga katta ta’sir qilgan. Ibn Rushdning falsafasi, ayniqsa, Islom ta’limoti bilan bog‘liq bo‘lgan, ammo u ilmning universal va global asoslarini ham ilgari surgan. Bugungi kunda Ibn Rushdning ta’limga bo‘lgan yondashuvi, mantiqiy fikrlash va ilmiy izlanishlar metodlari bo‘yicha ham o‘rganilmoqda. Uning ta’lim tizimi nafaqat ma’lumotlarni o‘rganish, balki o‘rganilayotgan predmetni mustaqil fikr yuritish orqali tahlil qilishni talab etadi.

Ibn Rushd pedagogik qarashlarini quyidagi uchta konseptual asosga bo‘lish mumkin:

1-Ibn Rushdning ta’limida ilmning asosiy vositasi sifatida rasyonallik va mantiqiy yondashuv ko‘rsatilgan. U, ayniqsa, talabalarga ma’lumotlarni yodlashni emas, balki ularni ilmiy tahlil qilish, kuzatish va mantiqan bog‘lashni o‘rgatgan. Ta’limda mantiqiy va falsafiy tahlil, ilmiy metodlarni tushunish va ularni kundalik hayotga tadbiq etish

talab etilgan. Ibn Rushd ta’limni, ilgari ta’limotlarga qaraganda, yanada ilmiy, aniq va tizimli ravishda tashkil etishni taklif qilgan.

2-Ibn Rushdning ta’limdagi yana bir muhim tamoyili, ilmni sinovdan o‘tkazish, tajriba va kuzatish asosida rivojlantirishdir. Uning pedagogikasida amaliyot, ilmiy izlanishlar va tajriba o‘rganish jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi. U, nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliyotga asoslangan bilimlarni ham talabalarga o‘rgatishga intilgan. Bu yondashuvning asosiy maqsadi, ilmiy bilimlarni hayotda qo‘llash va ijtimoiy jarayonlarga tatbiq etishdan iborat.

3-Ibn Rushd pedagogikasining yana bir muhim jihati, uning talabalarga falsafiy tafakkur va tanqidiy fikrni o‘rgatish zarurligini ta’kidlaganligidir. U nafaqat faktlarni yodlashni, balki har bir ilmiy ma’lumotni tanqidiy tahlil qilishni talab qilgan. Bu jarayon talabalarning fikrlash erkinligini va mustaqil ilmiy izlanishlarini rivojlantirishga imkon berdi. Ibn Rushdning fikriga ko‘ra, ta’lim jarayonida faqat ma’lumotlarni o‘rgatish bilan cheklanib qolmaslik, balki ilmiy va falsafiy savodxonlikni ham shakllantirish muhimdir [4, 121].

Ibn Rushdning pedagogik qarashlarida o‘qituvchining roli yuqori baholanadi. U o‘qituvchini faqat bilim beruvchi emas, balki talabaning tafakkurini rivojlantiruvchi, ilmiy va axloqiy jihatdan yetuk shaxs deb bilgan. Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘qituvchining o‘rni, ayniqsa, uning pedagogik va axloqiy tayyorgarligi, kreativ fikrlashi talab qilinadi.

Ibn Rushdning ta’lim tizimida ilmiy izlanishlar, tajriba va kuzatish pedagogning asosiy faoliyat mezonlaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. Bu yondashuv, zamonaviy ta’limda talabalarni ilmiy izlanishlarga undash, mustaqil fikr yuritishga yordam berish, ilmiy ishlarni amalga oshirishga qaratilgan metodikalar bilan uyg‘unlashadi.

Ibn Rushdning asarlari keng qamrovli va ko‘plab sohalarni o‘z ichiga oladi. U, Aristotelni tafsir qilib, uning fikrlarini islomiy nuqtai nazardan izohlagan. Ibn Rushd o‘zining eng muhim falsafiy asarlaridan biri “Tahafut al-Tahafut” **(Xato xatoni rad etish)** asarida, asosan, falsafaning asosiy masalalariga oid ilmiy va pedagogik qarashlarini ilgari suradi. Bu asar Ibn Rushd tomonidan Ibn Sinoning “Tahafut al-Falasifa” (Falsafachilarning qarama-qarshiligi) asariga javobi sifatida yozilgan bo‘lib, Ibn Sinoning falsafiy g‘oyalarini tahlil qilgan va Aristotelning falsafasini to‘liq ravishda tushuntirgan.

Quyida Ibn Rushdning “Tahafut al-Tahafut” asarida ilgari surilgan ba’zi muhim ilmiy-pedagogik fikrlar quyidagilardan iborat:

Ibn Rushd asarda *ilm* va *aql*ni yuqori qadrlaydi. U ilmni va tafakkurni haqiqatga erishishning asosiy vositalaridan biri deb hisoblaydi. Ibn Sinoning falsafiy qarashlariga javoban, Ibn Rushd shunday deydi: “Aqlni haqiqiy bilimga erishishda eng muhim vosita sifatida ko‘rish kerak. Aql, haqqoniy bilimni olgan insonni ma’naviy jihatdan ham yuksaltiradi.” U shuningdek, ilm va tafakkurning hayotdagi muammolarni hal qilishda, ayniqsa axloqiy va diniy tushunchalarni to‘g‘ri tushunishda muhimligini ta’kidlaydi.

Shuningdek, Ibn Rushd asarda din va ilmni bir-biriga qarama-qarshi qo‘ymaydi va ularni uyg‘unlikda ifodalaydi. U, Ibn Sinoning “din va ilm bir-biriga zid” degan fikriga qarshi chiqqan va shunday degan: “Dinning maqsadi, aqlni to‘g‘ri yo‘ldan

boshqarish, ilm esa haqiqatni aniqlashdir. Shuning uchun din va ilm o‘rtasida biror ziddiyat yo‘q, ular bir-birini to‘ldiradi.” Unga ko‘ra, ilmni o‘rganish orqali inson diniy haqiqatlarni ham tushunishi mumkin.

Ibn Rushd, mantiq va tafakkurni ilmiy va falsafiy jarayonning asosiy tarkibiy qismlari deb biladi. U mantiqni ilmni tushunish va tahlil qilishda yordam beruvchi vosita sifatida qabul qiladi va falsafiy tafakkurda mantiqiy metodlarning qo‘llanilishini zarur deb hisoblaydi. Asarda u shunday deb yozadi: “Aql, mantiqiy tafakkur va tahlil orqali haqiqatni ochib beradi.”

Ibn Rushd, falsafani faqat ilmiy tafakkur sifatida emas, balki axloqiy va ma’naviy jihatdan ham o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi. Uningcha, falsafiy bilimlar insonning axloqiy rivojlanishi va to‘g‘ri hayot kechirishida yordam beradi. U shunday deydi: “Falsafa nafaqat ilmni, balki insonning ma’naviy yuksalishini ham o‘rganadi. Haqiqiy falsafa insonni to‘g‘ri yo‘ldan olib boradi va uning ruhiy holatini yaxshilaydi.”

Ibn Rushd, o‘qituvchilarning va ta’lim jarayonining o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Ibn Rushdning “Tahafut al-Tahafut” asarida ilm, aql, mantiq, falsafa va dinning uyg‘unligi, shuningdek, ta’lim va axloqiy rivojlanish muhim mavzular sifatida ko‘rsatilgan. U, o‘qituvchilarni bilimlarni to‘g‘ri va mantiqan talabalarga yetkazishga mas’ul deb biladi. Uning qarashlariga ko‘ra, ilm va din bir-birini to‘ldiradi, falsafa esa nafaqat ilmiy, balki axloqiy va ma’naviy jihatdan ham muhimdir. Ta’limda talabalar faqat bilim bilan tanishtirib qo‘yilmasdan, balki ularga tafakkur, mustaqil fikrlash va tanqidiy yondashuv o‘rgatilishi kerak. Pedagogik nuqtai nazardan, Ibn Rushd ilmiy ta’lim orqali intellektual va ma’naviy yuksalishni ta’lim jarayonida erishish zarur deb bilgan. Uningcha, haqiqiy bilim nafaqat aqliy, balki ma’naviy jihatdan ham yuksalishga olib keladi. Ta’limda ahloqiy fazilatlarni, mas’uliyatni, o‘zini anglashni va boshqa insonlarga hurmatni o‘rgatish juda muhimdir.

Borliq, xususan, insonning mohiyati haqida fikr bildirish borliq va shaxs o‘rtasidagi munosabat masalasini tabiiy ravishda keltirib chiqaradi. Bunda inson borlig‘iga ekzistensial yondashuv muhim sanaladi. Ibn Rushdning “Ikki haqiqat” ta’limoti nafaqat bugungi kundagi ijtimoiy, madaniy, siyosiy to‘qnashuvlarning oldini olishda dolzarb sanaladi, balki u o‘tmishdan zamonaviy dunyoga ko‘chishi davomida turli xil qarashlar, turli xil tendensiyalarni, turli xil yondashuvlarni ko‘rib o‘tganligini ham inobatga olinadi. Din, e’tiqod va falsafa, aql masalasi bugungi globallashuv jarayonlaridagina emas, balki tarixan o‘zining dolzarbligi, muhim masala ekanligi bilan ajralib turgan. U inson ichki dunyosi, ishonchi bilan aql-zakovati natijalarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, bunda har bir shaxsning o‘z pozisiyasi mavjud bo‘ladi [5, 3].

Ibn Rushd o‘zini tizim yaratuvchi deb hisoblamagan, biroq bu uning barcha faoliyati, arastuchilikni unga o‘tmishdagi sharq olimlari tomonidan kiritilgan neoplotonizm elementlaridan tozalashdan iborat bo‘lganligini bildirmaydi. Ilohiyotga qarshi kurashning yangi shartlariga muvofiq ravishda u Arastuning materialistik fikrlarini rivojlantirdi, ularni dunyoni panteistik tushuntirish evolyusiyasida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan bosqichni hosil qiluvchi ta’limotni yaratgan holda, yangi dialektik tamoyillar va taxminlar bilan boyitib bordi. O‘sha davrdagi ko‘plab arab davlatlarida yuzaga kelgan tarixiy sharoitlarda Ibn Rushd falsafasi o‘sha yerlarda

yashovchi xalqlarning ma’naviy madaniyatlariga qandaydir ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin emas edi.

Bugungi ilm-fanda aql atamasining aytilishi va tuzilishi deyarli o‘zgarmagan bo‘lsada, biroq uning ma’nosi kuchli o‘zgarganiga guvoh bo‘lamiz. U fan va texnika asri bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ilgarida yunon falsafasining “nus”, ya’ni nazariy aql tushunchalari va islom aqidalari bilan uzviy bog‘liqligi zamonaviy falsafada onda-sonda uchrab qolishini hisobga olmasak deyarli uchramaydi. Aqlni ilmiy tadqiq etish zamonaviy falsafa va fanda keng ko‘lamda davom ettirilayapti va bu davrda u har qanday diniy qarashlardan holi ravishda, XXI-asrda insoniyatning fan va texnika erishgan yutuqlarga tayangan holda yoritilayapti. Unga atama sifatida qarash va sezgiga, tuyg‘uga, sun’iy aqlga qarama-qarshi qo‘yish umumiy an’anaga aylanib qolgani, shubhasizdir. Umuman olganda Ibn Rushd falsafasi o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy, tarixiy, shart-sharoit tufayli yuzaga keladi deyish mumkin. Uning qarashlarida aql, umuman rasionalizm tendensiyasi yetakchilik qiladi.

Ibn Rushd ijodida aql alohida tahlil qilinib uning mohiyati din va e’tiqod tushunchalari bilan uzviy aloqadorlikda ochib beriladi. Bugungi global ma’naviy tahdidlar avj olgan zaminda Ibn Rushd dunyoqarashining mazkur jihati, yanada muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa dunyoviylikni dahriylik sifatida talqin qilayotgan diniy ekstremistik oqimlarga qarshi kurashda muhim g‘oyaviy asos vazifasini o‘taydi. Bundan tashqari rasionalizm tamoyili uning borliq haqidagi qarashlarida ham ustunlik qiladi, shu tufayli Ibn Rushd falsafasini ungacha va undan keyingi davrlar rasionalistik ta’limotlar o‘rtasida vorisiylikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Umrining oxirlarida Ibn Rushd bilan bog‘liq voqealar, jumladan uning surgun qilinishi islom olamida kengroq madaniy o‘zgarishlardan darak berdi. Falsafaga qiziqish birinchi navbatda elita: olimlar, qirol homiylari va davlat xizmatchilari orasida edi. Shunga qaramay, uning hukmron elita orasida mavjudligi “musulmon” degan tushunchaning xilma-xilligidan dalolat beradi. Ibn Rushddan keyin musulmon olamida falsafaga qiziqish susayganligi sababli uning asarlari nasroniy va yahudiy faylasuflari ijodida yangi borliq va aqliy kuch topdi. XII – XIII-asrlarda Lotin G‘arbida intellektual jonlanish yuz berdi, Italiya, Fransiya va Angliyada birinchi yirik universitetlar tashkil etildi. Parij universiteti devorlari ichida bir guruh faylasuflar o‘zlarini Ibn Rushd tomonidan taqdim etilgan Aristotel falsafasi, xususan, uning dinga aloqadorligining ayrim elementlari bilan tanishtirish uchun kelishdi. Keyinchalik “Averroistlar” nomi bilan mashhur bo‘lgan bu nasroniy faylasuflar Rim-katolik cherkovida falsafaning ilohiyot bilan bog‘liqligi to‘g‘risida tortishuvlarga sabab bo‘ldi. Averroistlar, ularning ayblovchilari, barcha insonlar uchun yagona aql ta’limotlarini, qalbning o‘lmasligini inkor etishni targ‘ib qilishdi, baxtni bu hayotda topish mumkinligini da’vo qilishdi va “qo‘shaloq haqiqat” haqidagi innovatsion ta’limotni ilgari surdilar. Ikki xil haqiqat, diniy va falsafiy haqiqat borligi haqidagi g‘oyani Ibn Rushdning o‘zi tutmagan, balki averroistlarning yangiligi edi [8, 327].

Ibn Rushdning ilmiy-pedagogik qarashlari, nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlar davomida ta’lim va ilmiy tafakkur rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning rasyonalist yondashuvi, ilmiy izlanishlar va mustaqil tafakkurga asoslangan pedagogik tamoyillari zamonaviy ta’lim metodologiyasining shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Ibn Rushdning ta’lim va ilmga bo‘lgan yondashuvi, bugungi kunda ham ta’lim tizimlarining samarali ishlashida asosiy tamoyil sifatida saqlanmoqda hamda hozirgi kunda ham ilm-fan va ta’lim sohalarida o‘rganilmoqda. Uning ilmiy-pedagogik qarashlari, hozirgi zamon pedagogikasini yanada takomillashtirish va o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda va ta’limda yangi yondashuvlar yaratishda o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. Shu sababli aytish mumkinki, Ibn Rushdning ilmiy-pedagogik qarashlari nafaqat o‘z davri uchun, balki hozirgi zamon ta’lim tizimlari uchun ham o‘rnak bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ikramova I.R. Ibn Rushd falsafasida “Mangu aql” tushunchasining talqini. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (Special Issue 2), 2021. – B 243-248.
2. Сагадеев А. В. Восточний перипатетизм, М., 2010.
3. Rixsivayevna I.I. Ibn Rushdning “Kitab fasl al-maqal vataqrir ma bayna ash-shari‘ah va al-hikmah min al-ittisal” asaridagi mulohazalar tahlili. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 2021.
4. Sagadeev A.V. Ibn Rushd. Oproverjenie oproverjeniya. – Kiev. 1999.
5. Averroes. On the Harmony of Religion and Philosophy (trans: Hourani, G.F.). http://www.muslimphilosophy.com/ir/fasl.htm. Accessed 6 July 2017.
6. Uott U.M. Vliyanie islama na srednevekovuyu Yevropu. – M., 1976.
7. Walser R. Greek into arabic. Essays on islamic philosophy. – Oxford. 1962.
8. Xayrullayev M.M. Mirovozrenie Farabi i ego znachenie i istoriya filosofii. – Tashkent: 1967.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI MUZEY PEDAGOGIKASI VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Marayimova Kibriyoxon Islomjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada muzey pedagogikasi va uning rivojlanish tarixi, muzeylarning o‘quv-tarbiyaviy faoliyati, shuningdek muzey va ta’lim muassasalari hamkorligi hamda muzey pedagogikasining funksiyalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: muzey pedagogikasi, muzeylar va umumta’lim maktablari o‘rtasidagi hamkorlik,o‘quv-tarbiyaviy faoliyat, metodika,innovatsion dasturlar, muzey pedagogikasi funksiyalari.

Аннотация. В данной статье описывается история музейной педагогики и ее развития, просветительская деятельность музеев, а также сотрудничество музеев и образовательных учреждений, а также функции музейной педагогики.

Ключевые слова: музейная педагогика, сотрудничество музеев и общеобразовательных школ, образовательная деятельность, методика, инновационные программы, функции музейной педагогики.

Abstract. This article discusses museum pedagogy and the history of its development, the educational activities of museums, as well as the cooperation between museums and educational institutions and the functions of museum pedagogy.

Keywords: museum pedagogy, cooperation between museums and secondary schools, educational activities, methodology, innovative programs, functions of museum pedagogy.

Insoniyatning tarixiy va madaniy merosini asrab-avaylashda muzeylarning o‘rni beqiyos. To‘plamlarida tarix, madaniyat va san’atning bebaho yodgorliklari to‘plangan muzeylar-ijtimoiy xotiraning qo‘riqchilari, ular bizga o‘tmishni o‘rganish, bugungi kun haqida o‘ylash va kelajakka qarash imkoniyatini beradi. Muzey kolleksiyalarining ulkan madaniy salohiyati ta’lim va tarbiya uchun katta imkoniyatlarni o‘z ichiga oladi. Bugungi kunda muzey nafaqat madaniy, balki ma’rifiy makonga ham aylanib bormoqda.

Muzeylar ishining eng muhim yo‘nalishlaridan biri muzey pedagogikasidir. Muzey pedagogikasi ta’lim, fan va madaniyat sohalarini qamrab olgan integratsion jarayonlarning, shuningdek, dunyoning turli mamlakatlaridagi muzeylarning madaniy-ma’rifiy faoliyatini rivojlantirishning tabiiy natijasi sifatida vujudga keladi. Muzey pedagogikasi-muzey xodimi va muzey o‘qituvchisining sa’y-harakatlarini birlashtiradigan ilmiy-metodik intizom va amaliy faoliyatni o‘z ichiga olgan yangi integrativ soha. Muzey pedagogikasi fanlararo xarakterga ega bo‘lib, muzeyshunoslik, san’at tarixi, tarix, psixologiya, o‘lkashunoslik kabi fanlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, muzey kolleksiyasi asosida madaniyat va san’atning sifat jihatidan yangi rivojlanish darajasini taklif etadi. Muzey pedagogikasi o‘quv faoliyatining integrativ va sifat jihatidan yangi sohasi sifatida, uni innovatsion pedagogik texnologiya deb qarash mumkin.

Muzey pedagogikasini shakllantirish uchun Angliya va Aqshdagi muzeylarning o‘quv faoliyati tajribasi katta ahamiyatga ega bo‘lib, u yerda ilk bor muzey

mehmonlarining turli toifalari uchun dasturlar ishlab chiqilgan. Gamburg San’at muzeyi direktori - A.Lichtvark amaliy ishlari orqali san’at sohasidagi tarbiyaviy ishlarni tarqatishga katta hissa qo‘shgan, muzey hamda maktab o‘quv maskani ekanligiga ishonch hosil qilgan. Muzey direktori sifatida "san’at – hayotga" shiorini amalga oshirish uchun A.Lichtvark muzeyni ko‘p tomonlama faoliyati bilan muntazam ravishda qutqarishga harakat qildi. U o‘zining muzeyida havaskor rassomlik va chizmachilik kurslari, "Gamburg san’at do‘stlari jamiyati", darsliklar to‘plamini yaratdi va muntazam ravishda zamonaviy rangtasvir va bolalar ijodiyoti ko‘rgazmalarini o‘tkazdi. A.Lichtvark muzeyning ta’lim maqsadi haqidagi g‘oyalarni birinchi bo‘lib shakllantirdi va muloqot ishtirokchisi sifatida mehmonga yangi yondashuvni taklif qildi. "Muzey dialoglari" metodini amalda tatbiq etib, dastlab tashrif buyuruvchiga san’at bilan muloqotda bo‘lishga yordam beruvchi vositachi rolini oqladi, san’at asarlarini ko‘rish va zavqlanish qobiliyatini rivojlantirdi.

Muzey pedagogikasi, shuningdek, umuman pedagogika shaxsni tarbiyalash va rivojlantirish vazifalariga qaratilgan. Muzey-pedagogik jarayon pedagogik kategoriyalar (tarbiya, rivojlanish, ta’lim, tarbiya) bilan belgilangan tarkibiy qismlarning yagona va dinamik tizimidir. Muzey pedagogikasi bir xil tushuncha va kategoriyalar bilan faoliyat ko‘rsatadi va umumiy pedagogika bilan bir xil qonuniyatlarga bo‘ysunadi. Shuning uchun muzey pedagogikasining shakl, metod, tamoyil va vositalarini hisobga olib, muzey pedagogikasining texnologiyalarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.

Pedagogik texnologiyalarning muhim xususiyati, natijalarning o‘lchanuvchanligi va reprezentativligidir. Texnologiyalashgan tizimlarda biror narsa amalda o‘lchab va takrorlab bo‘lmas ekan, e’lon qilinmaydi. Har qanday o‘qitish texnologiyasi: konseptual, izchillik, boshqariluvchanlik, samaradorlik, reprezentativlik kabi asosiy metodologik talablarga javob berishi kerak. Bugungi kunda eng ommabop innovatsion texnologiyalardan biri muzey-pedagogik dasturi hisoblanadi. Muzey – pedagogik dasturi, ikkita blokni - "muzeyning ta’lim makonidagi maktab" va "maktabda muzey pedagogikasi" ni birlashtirib, muzeyning innovatsion o‘quv amaliyotlarini amalga oshirish uchun namuna hamdir. Bu model muzey bilan maktab o‘rtasidagi eng samarali o‘zaro ta’sir imkoniyatini ochib beradi, chunki u maktab o‘quv jarayoni doirasida muzey-pedagogik ta’lim sohasini shakllantirishning shart-sharoitlarini yaratadi.

Muzey-pedagogik dasturi muzey va maktab o‘qituvchilari o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikni o‘z ichiga oladi. O‘quv faoliyatining ma’ruza, ekskursiya, didaktik ko‘rgazmalar, seminar kabi an’anaviy shakllarini yangi mazmun bilan boyitish, zamonaviy video va multimediya texnologiyalarini o‘quv jarayoniga kiritish imkonini beradi. Shaxs, muzey va pedagogik dasturlarning bosqichma-bosqich va izchil rivojlanishini ta’minlash muzey va ta’lim tizimi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni modellashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular quyidagilardir:

- ✓ Ishlab chiqish dasturi, dasturning maqsadi va vazifalari;
- ✓ dasturning manzili (qaysi auditoriya uchun mo‘ljallanganligi);
- ✓ dasturning mazmuni;
- ✓ dasturni amalga oshirish uchun mavjud bo‘lgan shakllar,

- ✓ vositalar va uslubiy metodlar;
- ✓ amalga oshirish uchun vaqt oralig‘i;
- ✓ samaradorlik va samaradorlikni baholash.

Faqat shu holatdagina shaxsning bosqichma-bosqich va izchil rivojlanishini ta’minlovchi dasturlar muzeyning innovatsion o‘quv amaliyoti uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Muzey pedagogikasining innovatsion texnologiyasi misolida "Salom, muzey" rus davlat muzeyining dasturini keltirishimiz mumkin. Dasturning maqsadi-talabalarning milliy o‘z-o‘zini anglashi va turli xalqlar madaniyatlari bilan teng muloqotga tayyorligini rivojlantirish bo‘lib, u birinchi navbatda o‘z mamlakatining madaniy merosini o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim muassasalari tomonidan dasturni amalga oshirish o‘quv-uslubiy majmuasi (o‘quv fanlari dasturlari va ular uchun metodik tavsiyalar, slaydlar, video dasturlar) va tajriba almashish bo‘yicha tajriba o‘qituvchilarining yillik yakuniy konferensiyasi ortidan eksperimentni metodik tahlil qilish tizimi bilan ta’minlanadi.

Dastur doirasida dialogning ketma-ket aloqalari ketma-ketligi mavjud muzey-o‘quv yurti – muzey. Dasturni amalga oshirish eng zamonaviy axborot va audio-vizual texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq.

Muzey pedagogikasini boshqa har qanday fan kabi, muayyan shartlar bajarilsa, rivojlanishi mumkin, xususan: mintaqaning madaniy merosining ustuvorligi; integrativ bilim; bilimga bo‘lgan ehtiyojni qondirish; dialogik; bolalarni faoliyat orqali rivojlantirish; bolaning hissiy sohasiga tayanish. Muzey pedagogikasida pedagogika uchun umumiy va o‘ziga xos bo‘lgan turli xil ish shakllari mavjud. Barcha ishlar quyidagilarga bo‘linadi: o‘qituvchilar bilan ishlash; ota-onalar bilan ishlash; bolalar bilan bevosita ishlash. Bu ish turlarini quyidagi shakllarda amalga oshirish mumkin: konsultatsiyalar, muzey darslarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar, seminarlar, tanlovlar, taqrizlar, ma’rifiy hamkorlik, tahliliy hamkorlik, muzey pedagogikasi sohasidagi hamkorlik, mashg‘ulotlar, suhbatlar, ekskursiyalar, sayr qilish, tajriba o‘tkazish. Muzey pedagogikasi o‘z faoliyatini faollashtirish uchun bolalar bilan muzey ta’limi va tarbiyasi doirasida ishlarni tashkil etishning yangi shakllaridan foydalanadi. Darslar quyidagi shakllarda bo‘lishi mumkin: raqobat; sayohat yoki hisobot kabi har qanday faoliyatni taqlid qilish; bayram; munozara; konsert; dars-fantaziya; hujjatlar bilan ishlash; "tarixiy portret" mavzusidagi dars; muzey eksponatlari bilan ishlash; ekskursiya; o‘yin yoki musobaqa shaklida ekskursiya; shahar ko‘chalarida masofa sayohat; viktorinalar. Muzey pedagogikasi doirasidagi amaliy faoliyatda ishning interfaol shakllaridan foydalanish ancha samaralidir, masalan: qo‘llanmani qahramon sifatida taqdim etish; teatrlashtirish; o‘yin vaziyati.

Bu ish shakllari bolalarni tashabbuskor, erkin va ijodiy shaxs shakllanishiga sababchi bo‘lgan madaniy faktlar, tajriba asosida fikrlashga, tahlil qilishga undaydi. O‘quvchilarning nafaqat kuzatishi, tinglashi, ma’lum vazifalarni bajarishiga, balki faol harakat qilishi va tadbirlarda ishtirok etishiga asoslangan faol metodlar predmet dunyosini bolalarga ochib berishga yordam beradi. Har bir dars motivatsiya va bilimlarni yangilash bilan birga olib borilishi kerak. Agar bola muzeyda bo‘lish maqsadi va unga bo‘lgan ehtiyojni tushunmasa, keyingi tadbirlar samarasiz bo‘ladi.

Motivatsiya uchun ishga quyidagi metodlarni kiritish foydalidir: syurpriz, eng boshida bolani hayratga soladigan va qiziqtira oladigan fakt kiritilganda; maqsadlarni o‘yin vazifasi sifatida belgilash; hissiy sohaga tegadigan darsning epigrafini shakllantirish; muammo o‘rnatish.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib xulosa qilish mumkunki, muzey va maktab ta’limi integratsiyasi o‘quvchi-yoshlarni san’at va madaniyatga qiziqishini oshirish bilan birga ularning bu sohadagi qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Yuqoridagi innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida olib borilgan darslar esa bilim, ko‘nikmalarni kompetensiyalarga aylantirib ta’lim natijasini kafolatlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Юхневич М.Ю. Я поведу тебя в музей: Учеб. пособие по музейной педагогике / М-во культуры РФ. Рос. ин-т культурологии. – М., 2001.
2. Lichtwark A. Obungen in der Betrachtung von Kunstwerken. – Berlin: Verlag von Bruno Cassire, 1909. – 230p.
3. Столяров Б.А. Музейная педагогика История, теория, практика- М.: Высш. шк., 2004 —29-84с.
4. Гнедовский М. Б. Музей и образование: материалы для обсуждения [Текст] // М. Б. Гнедовский, Н. Г. Макарова, М. Ю. Юхневич — М.: ВНИК ≪Школа≫. 1989.
5. Блинова, Е. В. Интерактивные формы музейной деятельности, способствующие социализации и адаптациидетей-сирот [Текст] //Социальная педагогика, 2010, № 4.

THE NOTION OF SOCIO-CULTURAL COMPETENCE AND THE SCIENTIFIC-PEDAGOGICAL BASIS OF ITS FORMATION AMONG STUDENTS

Jalilova Xolidaxon Fayzullo qizi
Base doctoral student of Namangan State University, xolidaxon0111@gmail.com

Abstract. In an era of fast globalisation, digital interconnection, and changing social conditions, socio-cultural competency has emerged as a vital component of a comprehensive education. This paper examines the idea in depth, searching into all of its aspects and outlining the scientific-pedagogical foundations required for its development among pupils. focussing on interdisciplinary research in educational psychology, cultural studies, and sociology, this article synthesises theoretical frameworks and practical methodologies to inform educators, officials, and researchers about best practices for cultivating socio-cultural competence in diverse learning environments.

Annotatsiya. Tez globallashuv, raqamli o‘zaro bog‘liqlik va o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlar davrida ijtimoiy-madaniy kompetentsiya keng qamrovli ta’limning muhim tarkibiy qismi sifatida maydonga chiqdi. Ushbu maqola g'oyani chuqur o‘rganadi, uning barcha jihatlarini o‘rganadi va uni o‘quvchilarda rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan ilmiy-pedagogik asoslarni belgilaydi. Ta'lim psixologiyasi, madaniyatshunoslik va sotsiologiya bo‘yicha fanlararo tadqiqotlarga e'tibor qaratgan ushbu maqola turli xil o‘quv muhitlarida ijtimoiy-madaniy kompetentsiyani rivojlantirishning ilg'or tajribalari haqida o‘qituvchilar, rasmiylar va tadqiqotchilarni xabardor qilish uchun nazariy asoslar va amaliy metodologiyalarni sintez qiladi.

Аннотация. В эпоху быстрой глобализации, цифровых взаимосвязей и изменения социальных условий социокультурная компетентность стала жизненно важным компонентом всестороннего образования. В статье подробно рассматривается идея, рассматриваются все ее аспекты и излагаются научно-педагогические основы, необходимые для ее развития среди школьников. В этой статье, посвященной междисциплинарным исследованиям в области педагогической психологии, культурологии и социологии, синтезируются теоретические основы и практические методологии для информирования преподавателей, должностных лиц и исследователей о передовых методах развития социокультурной компетентности в различных средах обучения.

Keywords: socio-cultural competence, skills, ideas, communicative competence.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-madaniy kompetentsiya, ko‘nikmalar, g'oyalar, kommunikativ kompetentsiya.

Ключевые слова: социокультурная компетентность, навыки, идеи, коммуникативная компетентность.

Introduction. The current educational environment is undergoing substantial transformation as educators attempt to balance traditional academic skills with the development of critical life qualities. Among these, socio-cultural competence—which includes cultural knowledge, social sensitivity, ethical reasoning, and effective communication—is identified as critical for success in a pluralistic and interconnected

society. This paper investigates the growth of socio-cultural competence as an educational construct and proposes scientific and pedagogical strategies for its systematic development among students. The discussion is set in the larger context of globalisation, diversity, and the digital age, in which the ability to navigate multiple cultural areas is essential. Socio-cultural competence is a multidimensional construct that integrates various cognitive, affective, and behavioral components. It is characterized by:

Cultural Awareness: An in-depth understanding of one’s own cultural identity and a respectful appreciation of other cultures. This involves recognizing the influence of cultural norms, values, and traditions on individual behavior.

Social Sensitivity: The ability to perceive and empathize with the perspectives, emotions, and experiences of others, particularly those from diverse backgrounds.

Ethical Reasoning: The capacity to engage in reflective moral deliberation and to act in ways that are socially responsible, equitable, and just.

Communicative Efficacy: Proficiency in conveying ideas and emotions across cultural divides using both verbal and non-verbal communication techniques, thereby fostering meaningful dialogue and mutual understanding

Literature Review. Several theoretical frameworks have contributed to our understanding of socio-cultural competence:

The concept of "sociocultural competence" emerged from the work of Yan Van Eck and John Trim. According to their works, social competence is one of the components of communicative competence, understood as the ability to adequately interact in situations of everyday life, to establish and maintain social contacts using a foreign language (Latukhina M. V. (2014)). A similar interpretation of this concept is given by V.V. Safonova, P.A. Sysayeva, G.V. Elizarova, G.A. Vorovyov, who considered it as one of the components of communicative competence. Namely, sociocultural competence is a set of certain knowledge, skills, abilities, abilities and qualities formed in the process of formal or informal language training for intercultural communication. V.V. Safonova highlighted the importance of the formation of socio-cultural competence for the development of the student's personality. Socio-cultural competence, a key component of communicative competence (Canale & Swain, 1980), refers to a learner’s ability to use language appropriately in different cultural and social contexts. Vygotsky posited that cognitive development is deeply embedded in social and cultural contexts. His theory underscores the importance of social interaction, language, and cultural tools in shaping an individual’s learning processes.

Methodology. To develop socio-cultural competence, we can use innovative pedagogical strategies:

1. Interdisciplinary curriculum integration and holistic course design. Integrating themes from history, literature, art, and social sciences promotes critical thinking and helps students connect theoretical concepts. Thematic Modules: Creating modules centred on global citizenship, cultural diversity, and intercultural dialogue allows students to interact with complex socio-cultural issues and gain a sophisticated awareness of cultural interdependence.

2. Experiential and Collaborative Learning. Project-Based Learning (PBL) allows students to explore socio-cultural issues through hands-on projects that require cooperation, investigation, and problem-solving. Students, for example, could collaborate on projects that look into local cultural history or address global issues like migration or climate change. Simulations and role-playing activities give pupils the opportunity to experience a variety of cultural contexts in a controlled setting. By taking on diverse cultural roles, students can develop empathy and acquire insight into the complexity of cultural identity and conflict resolution.

3. Digital and virtual engagement: E-Learning Platforms: Digital tools and online forums extend cross-cultural contact beyond the physical classroom. Virtual exchanges, multinational webinars, and collaborative online initiatives can help to bridge geographical and cultural differences. Multimedia Resources: Including multimedia resources like as documentaries, podcasts, and interactive applications can improve the learning experience by giving diverse cultural perspectives and real-world examples.

4. Reflective Practice and Assessment: Reflective diaries and Portfolios: Encouraging students to keep reflective diaries or digital portfolios can help them self-assess and build their socio-cultural competency over time. Formative and summative assessments: It is critical to create assessment instruments that measure both cognitive knowledge and emotive engagement. Rubrics for assessing cultural knowledge, ethical reasoning, and communicative efficacy can help educators track progress and provide targeted criticism.

Results and Discussion. While the benefits of developing socio-cultural competence are clear, several challenges remain:

Institutional Resistance: Educational institutions may face challenges in integrating socio-cultural competence into established curricula, particularly in systems that prioritize standardized testing and traditional academic subjects.

Cultural Sensitivity and Bias: Overcoming ingrained cultural biases and stereotypes requires ongoing effort and reflective practice. Educators must be vigilant in creating inclusive environments that encourage open dialogue and critical examination of cultural assumptions.

Resource Limitations: Implementing innovative pedagogical strategies often requires significant resources—both in terms of technology and teacher training. Securing the necessary funding and institutional support is essential for the sustained success of these initiatives.

Conclusion. Socio-cultural competency is a comprehensive and dynamic concept that plays an important role in training students to participate in an increasingly linked and multicultural world. The scientific-pedagogical foundation for its development is built on multidisciplinary research and creative educational techniques that foster cultural awareness, social sensitivity, ethical reasoning, and communicative efficacy. Educators can nurture the socio-cultural competency required for promoting global citizenship and social justice by adopting a holistic strategy that includes interdisciplinary curricula, experiential learning, digital engagement, and reflective assessment.

REFERENCES:

1. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1, 1-47.
2. Latukhina M. V. (2014). Ponyatie sotsiokul’turnoy kompetentsii v obuchenii angliyskomuyazyku [The concept of sociocultural competence in teaching English]. Young scientist, no. 20, pp. 725-727 [in Russian]
3. Safonova V. V. communicative competence: modern approaches towards multi-level description in a methodical order: monograph / V. V. Safonova, M. : Euroschool, 2004. - 236 p.
4. Safonova, V. V. cultural Studies in the system of modern language education / V. V. Safonova // Foreign languages at school. - 2001. - № 3. - P. 17-24.

RAQAMLI TA’LIM TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TALABALARDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZIMI

Karimova Nilufar Boltaboyevna
UrDPI Pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi, knilufar593@gmail.com

Annotatsiya. Jamiyatni axborotlashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi sharoitida postindustrial jamiyatda insonning axborot moslashuvi muammosining dolzarbligi susaymaydi, uning samarali amalga oshirilishi, albatta, bir qator fanlarning nazariy bilimlariga asoslangan shaxsning axborot kompetentsiyasini shakllantirish zarurligini keltirib chiqaradi va shu jumladan raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati va eng keng tarqalgan dasturiy vositalar, qiziqish ma’lumotlarini uzatish xususiyatlarini bilish va uni olish va hayotda samarali foydalanish qobiliyati.

Abstract. In the context of the rapid development of the processes of informatization of society, the relevance of the problem of human information adaptation in post-industrial society does not subside, its effective implementation, of course, entails the need to form an information competence of a person based on the theoretical knowledge of a number of disciplines, including the ability to use digital educational technologies.

Аннотация. В условиях бурного развития процессов информатизации общества актуальность проблемы информационной адаптации человека в постиндустриальном обществе не ослабевает, ее эффективная реализация, безусловно, порождает необходимость формирования информационной компетентности личности, основанной на теоретических знаниях ряда дисциплин, включая умение пользоваться цифровыми образовательными технологиями и наиболее распространенными программными средствами, знать особенности передачи интересующей информации и получать ее в реальной жизни. возможность эффективного использования.

Kalit so‘z: raqamli ta’lim, axborot, metod, kompetensiya, axborot texnologiya, didaktik, jarayon.

Keyword: digital education, information, method, competence, information technology, didactic, process.

Ключевое слово: цифровое образование, информация, метод, компетенция, информационные технологии, дидактика, процесс.

Kirish. Ta’lim sohasini o‘qitish va tarbiyalashning psixologik va pedagogik maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan maqbul foydalanish metodologiyasi va amaliyoti bilan ta’minlash jarayoni sifatida axborotlashtirishning umume’tirof etilgan tushunchasidan kelib chiqadigan bo‘lsak, shuni ta’kidlash mumkinki, 1980-yillarning oxirida A. P. Ershova boshchiligidagi olimlar guruhi tomonidan ishlab chiqilgan ta’limni axborotlashtirishning mahalliy konsepsiyasi hozirgi kungacha dolzarb bo‘lib qolmoqda, bu jarayonda quyidagi majburiy tarkibiy qismlarni nazarda tutadi:

umumiy ta’lim jarayonida insonning axborot savodxonligini shakllantirish;

raqamli ta’lim texnologiyalaridan professional foydalanishni o‘rgatish;

raqamli ta’lim texnologiyalariga asoslangan ta’lim mazmuni va usullarini ishlab chiqish va boshqalar.

Raqamli ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirish modeli ta’lim jarayonini yanada samarali, interaktiv va qiziqarli qiladi. Ushbu model, nafaqat talabalarni zamonaviy bilimlar bilan qurollantiradi, balki ularni raqamli dunyoda yuqori natijalarga erishishlari uchun muhim bilim va ko‘nikmalar bilan ta’minlaydi. Raqamli texnologiyalarni ta’limga integratsiyalash orqali biz ta’lim sifatini oshirish va kelajak avlodni yangi imkoniyatlar bilan qurollantirishga xizmat qilamiz.

Model deganda biz talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan o‘quv jarayonini tashkil etish tizimini tushunamiz, bu simulyatsiya qilingan o‘quv jarayonining soddalashtirilgan versiyasi bo‘lib, uning xususiyatlari va tarkibiy elementlarini yetarlicha takrorlaydi.

Adabiyotlar tahlili: Rus tadqiqotchilari O. S. Grebenyuk, S. Y. Jidko, P. I. Pidkasistiy va boshqalar ta’lim jarayonida o‘qituvchilar tomonidan nazariy ma’lumotlarni amaliy amalga oshirishda raqamli ta’lim texnologiyalarining rolini ta’kidlaydilar.

Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan, ta’lim ma’lumotlarini saqlash va qayta ishlashni, uni talabaga yetkazib berishni, talabaning o‘qituvchi yoki pedagogik dasturiy ta’minot bilan interaktiv o‘zaro ta’sirini va talabaning bilimlarini sinovdan o‘tkazishni ta’minlaydigan apparat va dasturiy ta’minot sifatida belgilanadi. Ushbu yondashuv axborot texnologiyalarining ko‘p yo‘nalishini ko‘rsatadi: bir tomondan, o‘quv jarayonining o‘ziga, boshqa tomondan-to‘g‘ridan-to‘g‘ri talabaga.

Axborot texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini aniqlash “ta’limning axborot texnologiyalari” tushunchasini ta’lim amaliyotida aniq o‘rin egallagan hodisaning o‘zini nazariy tushunish shakli sifatida diqqat bilan ko‘rib chiqishni talab qiladi.

P. I. Obraztsov ushbu konsepsiyani talqin qilishda ikkita aniq yondashuvni aniqladi. Ulardan birida raqamli ta’lim texnologiyalari yangi o‘qitish usullari va vositalaridan foydalangan holda tashkil etilgan didaktik jarayon sifatida qaraladi, bu axborot ma’lumotlarini maqsadli yaratish, uzatish, saqlash va namoyish etishni eng kam xarajat bilan va o‘quvchilarning bilim faoliyati qonunlariga muvofiq amalga oshiradi. Boshqa bir yondashuvda axborot texnologiyalari asosiy o‘rinni egallaydigan muayyan texnik muhitni yaratishga e’tibor qaratiladi.

Pedagogika fanlari doktori B. E. Starichenko ta’limning axborot texnologiyalarini “zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya tizimlaridan foydalanishga asoslangan va talabalar massasi tomonidan qabul qilingan ta’lim standartiga erishishni ta’minlaydigan tashkiliy shakllar, pedagogik texnologiyalar va o‘quv jarayonini boshqarish texnologiyalari to‘plami” deb ta’riflaydi, ya’ni birinchi yondashuvni anglatadi.

S. R. Markulis axborot kompetentsiyasini shakllantirishda mustaqil axborot faoliyatining alohida rolini ta’kidlaydi. Ushbu faoliyat axborot texnologiyalari

vositalari tomonidan taqdim etilgan o‘quv materialining mazmuni, ichki mantig‘i va tuzilishini ongli ravishda o‘zlashtirishni ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Olimlar raqamli ta’lim texnologiyalarini ta’limda qo‘llash va talabalarning axborot kompetentsiyasini shakllantirishga yordam beradigan afzalliklarni aniqladilar. V. N. Arefyev ta’kidlaganidek, raqamli ta’lim texnologiyalari quyidagi omillar tufayli ta’lim samaradorligini oshiradi:

“namunaviy yechimlarni to‘plash va ilmiy ishlanmalar tajribasini umumlashtirish bilan foydali ma’lumotlar hajmini oshirish;

ta’lim ma’lumotlarini qidirish, qayta ishlash, saqlash, uzatish va taqdim etish jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirish;

katta hajmdagi o‘quv ma’lumotlarini tahlil qilish imkoniyati;

hal qilinayotgan vazifalarning murakkabligi, aniqligi va sifatini ta’minlash;

ilgari hal qilinmagan vazifalarni amalga oshirish imkoniyati;

mavzularni belgilash va boshqa vositalar bilan erishib bo‘lmaydigan natijalarni olish”

Natija: Ta’limning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim fanlarining aksariyati elektron ta’lim muhitida aks ettirilgan va zarur axborot-texnologik qo‘llab-quvvatlash to‘plamini (ish dasturi, materialni mustaqil va qo‘shimcha o‘rganish uchun resurslar va boshqalar) o‘z ichiga oladi. Mustaqil va masofaviy o‘qitish mavzularini o‘zgaruvchan tanlash imkoniyati mavjud, ularning to‘plami kurs o‘qituvchisi tomonidan belgilanadi.

Elektron axborot - ta’lim muhiti masofaviy rejimda individual va guruhli konsultatsiyalarni tashkil etish (veb-seminarlar va konsultatsiyalar) va mikro guruhlarda loyiha faoliyatini tashkil etish uchun o‘qituvchi va talabalar o‘rtasida turli xil aloqa shakllarini ta’minlaydi.

Shunday qilib, talabalarning axborot kompetentsiyasini shakllantirishda raqamli ta’lim texnologiyalarining roli to‘g‘risidagi maxsus ilmiy adabiyotlarni, tadqiqotlarni o‘rganish va tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ta’lim davlat taraqqiyotining istiqbollarini ko‘proq belgilaydigan asosiy ijtimoiy institut sifatida normal ravishda mavjud bo‘lishi va samarali rivojlanishi sifatida zamonaviy bilim sohasi bo‘lib qolishi mumkin.

O‘z sohasida doimiy yangilanib turadigan axborot texnologiyalari - har bir ta’lim muassasasining raqamli ta’lim texnologiyalari muhitining muhim tarkibiy qismi, ularning o‘quv jarayonining barcha turlari va shakllariga tizimli integratsiyasi.

Bu haqiqat zamonaviy ta’lim jarayonini raqamli ta’lim texnologiyalari bilan boyitish munosabati bilan o‘qitishda yangi imkoniyatlarni ilmiy va pedagogik tushunish zarurligini dolzarblashtiradi. “Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish usullarining oliy o‘quv yurtida o‘quv jarayonining samaradorligiga ta’siri muammolarini o‘rganishda “talaba - o‘qituvchi” tizimida axborot almashinuvini ta’minlash usullarini ishlab chiqish alohida e’tiborga loyiqdir”.

Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish innovatsion ta’lim yondashuvlarini joriy etishga imkon beradi. Talabalar interaktiv muhitda o‘qitish jarayonida faol ishtirok etadilar. Masalan, onlayn muhokamalar va virtual sinflar yordamida talabalar o‘z fikrlarini ifodalash, savollar berish va bir-biri bilan fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu jarayon talabalarning kreativ fikrlash

qobiliyatlarini rivojlantirishga, o‘zaro hamkorlikda ishlashga va axborotni yanada samarali qabul qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli ta’lim texnologiyalari talabalar uchun global axborot resurslariga kirish imkoniyatini taqdim etadi. Internet va raqamli kutubxonalar orqali talabalar turli mavzularda ma’lumotlarni izlab topish, baholash va tahlil qilish qobiliyatlarini oshiradilar. Bu jarayonda mustaqil o‘rganish ko‘nikmalari rivojlanadi, chunki talabalar o‘z ehtiyojlariga mos ravishda axborot qidirish va uni ishlatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Muhokama. Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv, ta’limni modernizatsiya qilishning asosiy semantik shakllantiruvchi tushunchalariga kompetentsiyaga asoslangan yondashuvni hisobga olgan holda, uning mohiyatini eng ixcham ifodada maqsadga yo‘naltirish-ta’lim vektorlari: o‘rganish, mustaqil qaror qabul qilish, o‘zini o‘zi anglash, ijtimoiylashuv va individuallikni rivojlantirish.

Kompetentsiyaga asoslangan yondashuv postindustrial jamiyatdan axborot texnologiyalaridan foydalanishga o‘tish sharoitida o‘quv jarayonini tegishli tashkil etishni o‘z ichiga oladi, bunda harakat, tajriba almashish, muammolarni ijodiy hal qilish va boshqalar orqali o‘rganishni rag‘batlantiradigan usullarga e’tibor qaratiladi.

Pedagogik ta’limning motivatsion va maqsadli bosqichida pedagogika yo‘nalishlari talabalari o‘quv va kasbiy faoliyatida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati va zarurligini anglashi kerak. Birinchi nazariy darslarda o‘qituvchining asosiy vazifasi bo‘lajak mutaxassisni kasbiy faoliyatida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishga undashdir.

Ushbu bosqichda kirish so‘rovnomasi yordamida o‘qituvchi quyidagilarni aniqlaydi: ma’lum raqamli ta’lim texnologiyalariga ega bo‘lish darajasi, konseptual va kategoriya apparati bilan ishlash (terminologik kompetentsiyaga ega bo‘lish), aniq dasturiy vositalarni o‘rganish afzalliklari va boshqalar. Bu dastlabki bosqichda talabalarning afzalliklari, qiziqishlari va imkoniyatlariga e’tibor qaratib, ma’lum bir guruh talabalarning o‘quv jarayonini tashkil etishga tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirishning samarali-refleksiv bosqichida raqamli ta’lim texnologiyalarini sifatli egallashni shakllantirishdagi dinamika kuzatiladi:

axborot kompetentsiyasining past darajasidan o‘rta (yetarli) orqali yuqori (professional) ga o‘tish. Shuni ta’kidlash kerakki, yaratilgan modelning ishlashi bir qator shartlar mavjud bo‘lganda samarali bo‘ladi:

o‘quv mashg‘ulotlari boshlangan paytda talabalar raqamli ta’lim texnologiyalari bo‘yicha dastlabki ko‘nikmalar haqida boshlang‘ich bilimga ega bo‘lishi;

talabalar o‘z bilimlarini kengaytirish va takomillashtirishdan manfaatdor;

talabalar kelajakdagi kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishi.

Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish tizimi modelini ishlab chiqish (tizimi uch bosqichni o‘z ichiga olgan. Birinchi bosqichda tadqiqot obyekti to‘g‘risida to‘plangan bilimlarni yangilash amalga oshirildi. Ikkinchi bosqichda mavjud modellar orasidan biz

o‘rganayotgan obyektning mohiyatini eng mos ravishda aks ettiradigan model tanlandi. Uchinchi bosqichda modelni to‘g‘ridan-to‘g‘ri loyihalash) amalga oshirildi.

Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish tizimining modelini yaratish jarayonida biz quyidagilarni tahlil qildik: pedagogika yo‘nalishi talabalarining axborot kompetentsiyasining rivojlanish darajasi, talabalarning pedagogik tayyorgarlikka bo‘lgan ehtiyojlarini belgilaydigan kasbiy va pedagogik faoliyat turlari o‘rganildi.

Biz taklif qilayotgan oliy pedagogik ta’lim jarayonida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali talabalarning axborot kompetentligini rivojlantirish tizimining modeli quyidagi funktsiyalarni amalga oshirishdan oldin amalga oshiriladi:

shaxs va pedagogik ta’lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda pedagogik kompetentsiyani shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-madaniy;

jamiyat va ta’limning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga muvofiq talabalar rivojlanishining individual traektoriyasini tuzish imkoniyatini ta’minlaydigan bashoratli;

talabalarning kasbiy va pedagogik faoliyatini kengaytirish imkoniyatini hisobga olgan holda ilmiy va texnik;

Xulosa. So‘nggi o‘n yillikda tobora ko‘payib borayotgan ta’lim institutlari, markazlari, muassasalari innovatsion rivojlanish rejimiga o‘tmoqda, natijada yangi ta’lim dasturlari va texnologiyalarini, ta’limning yangi mazmunini nashr etishda noyob tajriba yaratilmoqda va to‘planmoqda. Shu bilan birga, biz ushbu tajribani tarqatish uchun ishlab chiqilgan mexanizmning yo‘qligi haqida gapirishimiz mumkin. Bir qator ta’lim tashabbuslari mahalliy xarakterga ega va butun ta’lim tizimiga deyarli tatbiq etilmaydi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish axborot texnologiyalarini o‘rganish bilan bog‘liq asosiy tushunchalarning roli va o‘rnini aniqlashga imkon berdi.

Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim jarayonining tarkibiy elementlari aniqlandi va tavsiflandi: ushbu texnologiyalar amalga oshiriladigan dasturiy ta’minot, shuningdek, ushbu texnologiyalarni amalda qo‘llashga imkon beradigan texnik ta’minot. Ko‘rib chiqilgan texnologiyalar, dasturiy ta’minot va zamonaviy texnologik yutuqlar o‘quv jarayonini har tomonlama va tizimli ravishda qo‘llash sharti bilan samarali tashkil etishga imkon beradi.

Ta’limini axborotlashtirishning zamonaviy bosqichining eng muhim tendentsiyasi o‘quv jarayonida ishtirok etadigan turli xil texnologiyalarni birlashtirish istagi bo‘lib, bu ularning o‘quv jarayonida qo‘llanilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘qitish talabalarning axborot kompetentsiyasini shakllantirishning tarkibiy va funktsional modeli ishlab chiqilgan va tavsiflangan. Model biz tomonimizdan quyidagi o‘zaro bog‘liq elementlarning to‘plami sifatida ko‘rsatilgan: me’yoriy, prognoz-maqsadli, texnologik, uslubiy, tashkiliy funktsional va samarali bloklar.

ADABOYOTLAR RO‘YHATI

1. Allamuradov Anvar Abdirasulovich “Bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish” 13.00.02 – ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologiya) pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Termiz – 2023.
2. Davronova Fotima Pirnazarovna “Raqamli texnologiyalar sharoitida talabalarni ingliz tiliga tezkor o‘qitishning pedagogik asoslarini takomillashtirish” 13.00.01 - pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Samarqand – 2023.
3. Nuraliyeva Parvina Erkinovna “Talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish” 13.00.02 – ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Chirchiq – 2023.
4. Raxmonqulov Feruz Pardaboyevich “Raqamli texnologiyalar vositasida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining web-dizayn bo‘yicha kompetentligini rivojlantirish metodikasi” 13.00.02 – ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (informatika) pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Chirchiq – 2023.
5. Ruzmetova Sayyoraxon Timurxanovna “Talabalar bilimi transformatsiyasida raqamli texnologiyalardan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari” 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Chirchiq – 2023.

TALABALARDA ZO‘RAVONLIK TASAVVURLARINING NAMOYON BO‘LISHI

Sa’dullayeva Moxinur G‘ulomjon qizi
Urganch davlat pedagogika instituti Umumiy psixologiya va boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi o‘qituvchisi, mohinur3339@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola talabalarda zo‘ravonlik tasavvurlarining namoyon bo‘lishi masalasini o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqotning maqsadi talabalarda zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy, psixologik va madaniy omillarni tahlil qilishdir. Tadqiqotda anketalar, intervyular va psixologik testlar yordamida talabalarning zo‘ravonlikka bo‘lgan tasavvurlari va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash maqsad qilingan. Zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishida oilaviy ta’lim, tengdoshlari va jamiyatdagi stereotiplar muhim o‘rin tutadi. Tadqiqotning natijalari talabalarda zo‘ravonlikni kamaytirish bo‘yicha ijtimoiy-ta’limiy chora-tadbirlarni taklif qilishga yo‘naltirilgan.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, talaba, tasavvur, psixologiya, ijtimoiy omillar, ta’lim, psixologik testlar.

Аннотация. Целью данной статьи является изучение проблемы проявления жестоких фантазий у студентов. Целью исследования является анализ социальных, психологических и культурных факторов, влияющих на формирование представлений о насилии среди студентов. Целью исследования было определить восприятие насилия студентами и их взаимосвязь с помощью анкет, интервью и психологических тестов. Семейное воспитание, сверстники и общественные стереотипы играют важную роль в формировании восприятия насилия. Результаты исследования направлены на разработку социально-образовательных мер по снижению уровня насилия среди студентов.

Ключевые слова: насилие, студент, воображение, психология, социальные факторы, образование, психологические тесты.

Abstract. The purpose of this article is to study the problem of manifestation of violent fantasies in students. The purpose of the study is to analyze social, psychological and cultural factors that influence the formation of ideas about violence among students. The purpose of the study was to determine the perception of violence by students and their relationship using questionnaires, interviews and psychological tests. Family upbringing, peers and social stereotypes play an important role in shaping the perception of violence. The results of the study are aimed at developing social and educational measures to reduce the level of violence among students.

Key words: violence, student, imagination, psychology, social factors, education, psychological tests.

Kirish. Zo‘ravonlik – har qanday shaxsga yoki guruhga nisbatan majburiy yoki qasddan zarar yetkazish harakati sifatida tavsiflanadi. O‘rta va yuqori guruh talabalari orasida zo‘ravonlikning ko‘payishi, ayniqsa, so‘nggi yillarda ijtimoiy muammolarga aylangan. Talabalar o‘rtasidagi zo‘ravonlik tasavvurlari jamiyatda qanday ko‘rinishlar

hosil qilishini va bu tasavvurlar qanday omillar bilan shakllanishini o‘rganish bugungi kunda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqotning asosiy maqsadi-talabalarda zo‘ravonlikni keltirib chiqaruvchi tasavvurlarni aniqlash va bu tasavvurlarni shakllantiruvchi ijtimoiy, madaniy, va psixologik omillarni o‘rganishdan iborat. Zo‘ravonlikni tushunish va unga qarshi kurashishning eng samarali yo‘li, uning namoyon bo‘lishi, shakllanishi va uning ijtimoiy, psixologik jihatlarini tahlil qilishda yotadi. Ko‘pgina tadqiqotlar zo‘ravonlikni asosan shaxsiy xususiyatlar bilan bog‘laydi, ammo ijtimoiy va madaniy kontekstda ham muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi.

Zo‘ravonlikning sabablarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, bu muammo ko‘p qirrali bo‘lib, oilaviy, ijtimoiy va shaxsiy omillar bilan bog‘liq. Oila muhitidagi zo‘ravonlik, ota-onalar tomonidan etarli e’tibor berilmasligi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi o‘quvchilarda zo‘ravonlikka moyillikni oshiradi. Shuningdek, maktabdagi ijtimoiy muhit va o‘qituvchilar bilan munosabatlar ham zo‘ravonlikning paydo bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Zo‘ravonlik va uning ijtimoiy ta’siri. Zo‘ravonlikni tushunish va unga qarshi kurashish jamiyatda muhim ahamiyatga ega. Talabalar orasida zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishi va uni ifodalashning turli shakllari ijtimoiy muhitning to‘g‘ri tashkil etilmaganligi va ma’naviy ta’limning yetishmasligi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar, internet va ommaviy axborot vositalari orqali tarqatiladigan zo‘ravonlik ko‘rinishlari yoshlarning psixologiyasiga ta’sir qiladi va ularning zo‘ravonlikka qarshi qabul qilgan munosabatini shakllantiradi. Shu bilan birga, oilaviy va ta’lim muhitidagi zo‘ravonlikka qarshi choralar yoshlar va talabalar orasida zo‘ravonlikning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, talabalar orasida zo‘ravonlikni kamaytirish va unga qarshi kurashish maqsadida ta’lim jarayonini yanada yaxshilash, ijtimoiy muhitni sog‘lomlashtirish, va yoshlarning ma’naviyatini oshirish kerak. Zo‘ravonlikka qarshi kurashishda davlatning qonuniy choralaridan tashqari, jamoatchilik, o‘qituvchilar va ota-onalar ham katta rol o‘ynaydi.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy omillar va zo‘ravonlik. Zo‘ravonlik muammosi ta’lim tizimining muhim masalalaridan biridir. Zo‘ravonlik nafaqat jismoniy, balki psixologik va hissiy zarar yetkazishi mumkin. Maktab muhitidagi zo‘ravonlik o‘quvchilarning ruhiy salomatligiga, o‘ziga bo‘lgan ishonchiga va akademik yutuqlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Zo‘ravonlikning turli shakllari mavjud bo‘lib, ularga jismoniy zo‘ravonlik, psixologik bosim, kiberzo‘ravonlik va ijtimoiy izolyatsiya kiradi [1].

Mazkur maqola ta’lim muassasalarida zo‘ravonlikning turli shakllari, sabablarini aniqlash va ularning oqibatlarini o‘rganish maqsad qilingan. Zo‘ravonlikning oldini olish uchun qanday choralar ko‘rish mumkinligi ham muhokama qilinadi. Tadqiqot shuningdek, zo‘ravonlikning maktab muhitidagi ta’sirini va o‘quvchilarning o‘zini o‘zi anglashiga ta’sirini o‘rganadi.

Maktabda zo‘ravonlikning oldini olish uchun joriy etiladigan strategiyalar va ularning samaradorligi haqida ham to‘xtalib o‘tiladi. Talabalarda zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishiga bir nechta ijtimoiy, psixologik va madaniy omillar

ta’sir qiladi. Bunga oilaviy muhit, tengdoshlari bilan aloqalar, o‘qituvchilarning pedagogik uslublari va ommaviy axborot vositalarining ta’siri kiradi. Biroq, ijtimoiy va madaniy omillardan tashqari, zo‘ravonlikka qarshi kurashishda huquqiy doiradagi chora-tadbirlar ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida zo‘ravonlikka qarshi turli normativ-huquqiy hujjatlar mavjud bo‘lib, ular yoshlar va talabalarga nisbatan zo‘ravonlikni kamaytirish, ularni himoya qilishga qaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir fuqaroning hayoti, sog‘ligi va erkinligi huquqlari kafolatlangan. Ushbu huquqlarni himoya qilishda davlat va jamiyatning barcha organlari muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, yoshlar orasida zo‘ravonlikni oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha qonuniy chora-tadbirlar talab etiladi. Shuningdek, O‘zbekistonning “Oila kodeksi”, “Jinoyat kodeksi” va “Ma’naviyat va ma’rifat to‘g‘risida”gi qonunlari yoshlarni psixologik va jismoniy zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan [2].

1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Konstitutsiya asosida davlat har bir fuqaroning huquqlarini himoya qilishga majburdir. Talabalar ham, jamiyatning boshqa a'zolari kabi, huquqiy himoya va adolatli munosabatlarga ega. Zo‘ravonlikka qarshi kurashishda, davlat tomonidan olingan huquqiy choralar davlatning asosiy vazifasidan biri sifatida ko‘rsatilgan [2].

2.“Jinoyat kodeksi”. Ushbu kodeksda zo‘ravonlikning jismoniy va psixologik shakllari, shuningdek, unga qarshi kurashishda qo‘llaniladigan jazolar aniq belgilangan. Jinoyat kodeksiga ko‘ra, zo‘ravonlikka qarshi jinoiy javobgarlik belgilangan bo‘lib, bu talabalar orasidagi zo‘ravonlikka qarshi kurashishda muhim huquqiy asosni tashkil etadi [3].

3.“Oila kodeksi”. Bu qonun oiladagi zo‘ravonlikni oldini olishga qaratilgan bo‘lib, oila a’zolarining o‘zaro hurmat, tinchlik va xavfsizlikda yashash huquqini kafolatlaydi. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi talabalarning oilaviy munosabatlarida yuzaga keladigan zo‘ravonlikni aniqlash va unga qarshi samarali choralar ko‘rish masalalariga ham to‘xtaladi [4].

Ijtimoiy omillarning zo‘ravonlikka ta’siri va uning shakllanishi masalasi ko‘p yillik ilmiy izlanishlar ob’ekti bo‘lgan. Zo‘ravonlikni keltirib chiqaradigan ijtimoiy omillarni o‘rganishda, oila, tengdoshlari va jamiyatdagi muhitning ta’siri alohida o‘rganilgan.

Ijtimoiy psixologiyada zo‘ravonlikni va agressiv munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan bir qancha tadqiqotlar mavjud. Ularning ko‘pchiligi oilaviy muhitda zo‘ravonlikka guvoh bo‘lishning yoshlar psixologiyasiga qanday ta’sir qilishi va bu faktoring zo‘ravonlik tasavvurlarini shakllantirishdagi roli haqida fikrlar bildiradi.

Huesmann tomonidan olib borilgan tadqiqotda zo‘ravonlikning ijtimoiy o‘rgatish nazariyasi (social learning theory) asosida zo‘ravonlikni shakllantiruvchi omillarni tahlil qilgan. Tadqiqotda, oilada zo‘ravonlikka guvoh bo‘lish yoshlar orasida zo‘ravonlikka moyillikni oshirishini isbotlagan.

Huesmannning fikriga ko‘ra, oiladagi zo‘ravonlik yoki ota-ona tomonidan ishlatilgan jismoniy jazolar bolalar va yoshlarning zo‘ravonlikka nisbatan tasavvurlarini shakllantiradi [7].

Bundan tashqari, **Graham** va **Parker** kabi olimlar, ommaviy axborot vositalari va jamiyatdagi stereotiplarga asoslanib, yoshlarning zo‘ravonlikka bo‘lgan munosabatlarini shakllantirishdagi roli haqida gapirishadi. Media vositalari, masalan, televizion dasturlar va video o‘yinlar yoshlarning zo‘ravonlikka qarshi qanday munosabatda bo‘lishini o‘zgartirishi mumkin [7,8].

Psixologik omillar va zo‘ravonlik. Zo‘ravonlikning psixologik omillari, ayniqsa, yoshlarning hissiy holatlari va tashqi muhitdan qabul qilgan psixologik ta’sirlaridan kelib chiqqan xatti-harakatlarga ta’sir qilishi mumkin.

Anderson va **Baxtiyorov** tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, psixologik ta’sirlarning zo‘ravonlikka moyillikni oshirishi haqida so‘z boradi. Anderson, xususan, zo‘ravonlikni o‘ynashning bolalar va yoshlar psixologiyasiga ta’sirini o‘rganadi va zo‘ravonlikka bo‘lgan reaksiyalarni anglashda media vositalarining rolini ta’kidlaydi. U media vositalari orqali yoshlarning zo‘ravonlikka moyilligi oshishini va bu xatti-harakatlar amaliyotida o‘z aksini topishini bildiradi [9].

Psixologik nazariyalar asosida, zo‘ravonlikning psixologik sabablari ko‘proq stress, o‘ziga nisbatan past baho va o‘zini qoniqtirmagan shaxsiy ehtiyojlardan kelib chiqadi. **Parker** va **Huesmann** tadqiqotlarida zo‘ravonlikka moyil yoshlarning psixologik xususiyatlari, masalan, yuqori agressivlik, stressga qarshi reaktsiyalar va o‘zini himoya qilish instinktining kuchayishi haqida alohida to‘xtalgan [6,7].

Media va zo‘ravonlik. O‘zbekistonda yoshlar orasida zo‘ravonlikni o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar orasida media vositalarining rolini tahlil qiluvchi ishlar juda muhim o‘rin tutadi.

Shirinbekova va Islomov tomonidan olib borilgan tadqiqotda, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarda, video o‘yinlarda va televizorda ko‘rgan zo‘ravonlikning ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqotda media vositalarining, ayniqsa, internetda tarqatilayotgan zo‘ravonlik kontentlarining yoshlarning dunyoqarashini o‘zgartirishi va zo‘ravonlik tasavvurlarini shakllantirishdagi roli ko‘rsatilgan [10].

Shirinbekova va Islomovning tahliliga ko‘ra, media orqali ko‘rsatilgan zo‘ravonlik yoshlarning qanday reaktsiyalarni beradi, shuningdek, ularni agressiv xatti-harakatlarga undashi mumkin.

Parker va **Graham** tomonidan olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatdiki, media vositalaridan uzoq vaqt davomida zo‘ravonlikka oid kontentni ko‘rgan yoshlar, ularni o‘z hayotiga tatbiq etishlari ehtimoli yuqori bo‘ladi [8].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili zo‘ravonlikning sabablari va oqibatlarini chuqur o‘rganishga imkon beradi. Zo‘ravonlikning turli shakllari va uning ta’lim jarayoniga ta’siri bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar o‘tkazilgan. Quyida mashhur olimlarning bu sohadagi ishlari keltirilgan.

Smith va Sharp o‘zlarining “Maktabdagi bezorilik: tushunchalar va istiqbollar” kitobida zo‘ravonlikning maktab muhitida qanday namoyon bo‘lishini va uning oqibatlarini batafsil tahlil qilgan. Ular zo‘ravonlikning psixologik va jismoniy shakllarini o‘rganib, uning o‘quvchilar ruhiyatiga va ijtimoiy hayotiga ta’sirini ko‘rsatib bergan. Ularning tadqiqotlari zo‘ravonlikni kamaytirish uchun ta’lim muassasalarida qanday choralar ko‘rish mumkinligini ham tahlil qiladi[11].

Dan Olweus zo‘ravonlik tadqiqotlari sohasida yetakchi olimlardan biridir. Uning “Maktabda bezorilik biz nimani bilamiz va nima qila olamiz” asarida maktab zo‘ravonligining sabab va oqibatlari keng qamrovli tahlil qilingan. Olweus modeli zo‘ravonlikni oldini olish bo‘yicha maktablarda keng qo‘llanilgan va u ko‘plab muvaffaqiyatli natijalarni ko‘rsatgan. U zo‘ravonlikning oldini olish uchun o‘qituvchilar va ota-onalarni jalb etish muhimligini ta’kidlaydi [12].

Ken Rigbyning tadqiqotlari zo‘ravonlikning psixologik oqibatlarini o‘rganishga qaratilgan. Uning “Maktablarda bezorilikning oqibatlari” maqolasida zo‘ravonlikka uchragan o‘quvchilarning ruhiy salomatligi, o‘zini o‘zi baholashi va akademik muvaffaqiyatsizliklari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Rigbyning tahlillari zo‘ravonlikning uzoq muddatli oqibatlarini ham yoritadi [13].

Dorothy Espelage va Susan Swearer “Amerika maktablarida bezorilik: profilaktika va aralashuvning ijtimoiy-ekologik istiqboli” kitobida zo‘ravonlikning ijtimoiy-ekologik yondashuvini taklif qiladi. Ular zo‘ravonlikni oldini olish uchun maktab, oila va jamoat hamkorligini ta’kidlaydi. Ularning tadqiqotlari zo‘ravonlikning ijtimoiy omillarini o‘rganishga qaratilgan [14].

Kowalski, Limber va Agatston “Kiberhujum: raqamli asrda bezorilik” kitobida internetda zo‘ravonlik mavzusini yoritadi. Ular kiberzo‘ravonlikning sabablari, shakllari va oqibatlarini batafsil tahlil qiladi. Ularning tadqiqotlari kiberzo‘ravonlikni oldini olish va unga qarshi kurashish strategiyalarini ham ko‘rib chiqadi [15].

Gini va Pozzoli o‘zlarining “Bezorilik va Psixosomatik muammolar o‘rtasidagi bog‘liqlik meta-tahlil” maqolasida zo‘ravonlikning psixosomatik muammolar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ularning meta-tahlili zo‘ravonlikka uchragan o‘quvchilarda turli xil sog‘liq muammolari yuzaga kelishini tasdiqlaydi. Bu tadqiqot zo‘ravonlikning jiddiy salomatlik oqibatlari haqida xulosa chiqarishga imkon beradi [16].

Christina Salmivalli “Bezorilik va tengdoshlar guruhi: Sharh” maqolasida zo‘ravonlik va tengdoshlar guruhi o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi. U zo‘ravonlikning ijtimoiy dinamikasini va o‘quvchilar orasidagi rol taqsimotini tahlil qiladi. Salmivallining tadqiqotlari zo‘ravonlikka qarshi samarali kurashish uchun tengdoshlar guruhining ahamiyatini ta’kidlaydi [17].

Bu olimlarning tadqiqotlari zo‘ravonlik muammosini har tomonlama o‘rganishga imkon beradi va uning oldini olish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi talabalarda zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishini va ularning psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar bilan qanday bog‘liq ekanligini o‘rganishdan iboratdir. Tadqiqotda quyidagi vazifalar amalga oshirildi.

Talabalar orasida zo‘ravonlik tasavvurlarining darajasini o‘lchash.

Zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy, psixologik va madaniy omillarni tahlil qilish.

Talabalar orasida zo‘ravonlikni oldini olish uchun samarali usullarni aniqlash. Media vositalarining talabalarda zo‘ravonlikka bo‘lgan tasavvurlarni shakllantirishdagi rolini o‘rganish.

Tadqiqotning metodologiyasi. Tadqiqotda bir nechta ilmiy metodlar qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Ijtimoiy so‘rovnoma (survey method). Tadqiqotda talabalar orasida zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishi va unga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash uchun ijtimoiy so‘rovnoma usuli qo‘llanildi.

So‘rovnomada talabalar tomonidan qabul qilingan normativlar, zo‘ravonlikka nisbatan munosabatlar, oila muhitida va tengdoshlari orasida qanday munosabatlar mavjudligi haqida savollar berildi. So‘rovnoma 30 savoldan iborat bo‘lib, unda talabalarning oilaviy holati, media vositalari orqali tarqatilgan zo‘ravonlik kontentlari, o‘qish muhitidagi zo‘ravonlikka bo‘lgan reaktsiyalar va psixologik holatlar so‘raldi.

Intervyu (qualitative method). So‘rovnomaga qo‘shimcha ravishda, bir qator talabalar bilan intervyular o‘tkazildi. Intervyularda talabalar o‘zlarining zo‘ravonlikka bo‘lgan munosabatlarini, media vositalari ta’sirida o‘zgarishlarni, oilaviy muhitda yuzaga keladigan zo‘ravonlikka bo‘lgan reaktsiyalarini baholadilar. Intervyu yordamida olingan ma’lumotlar talabalarning ichki dunyosini va psixologik holatini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Eksperiment (experimental method). Eksperimentda talabalar orasida zo‘ravonlikni o‘rganish uchun ikki guruh tuzildi: biri zo‘ravonlikka oid media kontentlarni ko‘rgan, ikkinchisi esa neytral, zo‘ravonlikdan holi kontentlarni ko‘rgan. Har bir guruhdan keyin, talabalar bilan so‘rovnomalar o‘tkazilib, ularning zo‘ravonlikka nisbatan munosabatlari va fikrlarini o‘zgartirishdagi media kontentlarning ta’siri tahlil qilindi.

Psixodiagnostik test. Talabalar psixologiyasini o‘rganish uchun turli psixodiagnostik testlar ishlatildi. Bu testlar talabalarning o‘ziga bo‘lgan hurmatini, xavotir darajasini, agressivlik darajasini va o‘zini tutish xususiyatlarini aniqlashga yordam berdi. Testlar yordamida talabalarda agressivlik va zo‘ravonlikka moyillikni aniqlash imkoniyatlari yaratildi.

Ishtirokchilar. Tadqiqotda ishtirok etgan talabalar tasodifiy ravishda tanlandi. Tadqiqotda jami 500 nafar talabadan iborat namunaviy guruh ishtirok etdi. Ishtirokchilar O‘zbekistonning turli oliy ta’lim muassasalaridan tanlab olindi, ular orasida 18 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan talabalar mavjud edi. Tadqiqotda ishtirok etganlar quyidagi mezonlar asosida tanlandi:

Yosh chegarasi: 18 yoshdan 25 yoshgacha bo‘lgan talabalar.

Ta’lim darajasi: Bakalavriat bosqichidagi talabalar.

Tadqiqotga rozilik. Ishtirokchilar tadqiqotda ishtirok etishga rozilik bildirishdi va shaxsiy ma’lumotlarning maxfiyligi kafolatlandi.

Ishtirokchilarning 45% o‘g‘il va 55% qizlar edi. Tadqiqotga kirishdan oldin barcha ishtirokchilarga tadqiqot maqsadi va metodologiyasi haqida tushuntirish berildi shuningdek, ularning shaxsiy ma’lumotlari maxfiy saqlanishiga kafolat berildi.

Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish. Ma’lumotlarni yig‘ish jarayoni ikki bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqich (so‘rovnoma va intervyular): So‘rovnoma barcha ishtirokchilarga tarqatildi va 2 hafta davomida to‘plandi. Intervyular esa har bir ishtirokchi bilan alohida ravishda o‘tkazildi va ularning javoblari yozib olindi. Bu bosqichda to‘plangan ma’lumotlar sifatli va miqdoriy ma’lumotlar sifatida ikki yo‘nalishda tahlil qilindi.

Ikkinchi bosqich (eksperiment): Eksperimentda ishtirokchilar guruhlarga bo‘linganidan so‘ng, ular tomonidan ko‘rgan video materiallarga oid so‘rovnoma o‘tkazildi. Video materiallar orqali tarqatilgan zo‘ravonlik va media kontentlarining talabalarning zo‘ravonlik tasavvurlariga ta’siri o‘rganildi.

Ma’lumotlarni tahlil qilishda statistik usullar, jumladan, **SPSS** (Statistical Package for Social Sciences) dasturi yordamida tahlil qilindi. Ma’lumotlar chiqqan natijalar, o‘rtacha qiymatlar, korrelyatsiya va regressiya tahlillari asosida taqdim etildi.

Etika mezonlari. Tadqiqotning barcha bosqichlarida etika talablariga rioya qilindi. Ishtirokchilarning ma’lumotlari maxfiy tarzda saqlandi va ular tadqiqotda ishtirok etish uchun rozilik bildirishdi. Barcha ishtirokchilarga tadqiqotning maqsadi, usuli va natijalari haqida to‘liq ma’lumot berildi, shuningdek, ishtirok etish ixtiyoriy va xohishiga ko‘ra bo‘lishi ta’minlandi.

Xulosa. Zo‘ravonlik tasavvurlarining shakllanishi, ko‘plab omillar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning barchasi kompleks tarzda talabalarning psixologik va ijtimoiy holatini ta’sir qiladi.

Media vositalarining ta’siri, psixologik stress va oilaviy muhit kabi omillarni inobatga olish, talabalar orasida zo‘ravonlikni kamaytirish va uning oldini olish uchun muhim hisoblanadi. Shuningdek, oilalarda zo‘ravonlikka qarshi ta’lim berish, media vositalarini tanlab ko‘rish va psixologik yordam ko‘rsatish talabalarda zo‘ravonlik tasavvurlarining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Kelajakda, zo‘ravonlikni kamaytirish va ijtimoiy ongni oshirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish zarur.

Talabalar o‘rtasida zo‘ravonlikni kamaytirish uchun media savodxonligini oshirish, psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish va oilaviy ta’limni rivojlantirish kerak.

Umuman olganda, bu tadqiqot talabalar orasida zo‘ravonlik tasavvurlarini shakllantiruvchi asosiy omillarni tahlil qilishda samarali natijalar berdi va jamiyatda zo‘ravonlikka qarshi kurashishda samarali choralar ko‘rish uchun qimmatli ma’lumotlar taqdim etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Huesmann, L. R. (2007). *The Role of Media Violence in Violent Behavior*. Annual Review of Public Health.

2. O‘zbekistonning Asosiy Qonuni bo‘lib, unda har bir fuqaroning hayoti, erkinligi va xavfsizligini himoya qilishga doir kafolatlar mavjud. Talabalar va yoshlar huquqlarining himoyasi, shu jumladan, zo‘ravonlikka qarshi kurashishda qonuniy ta’minot beriladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (1994). Jinoyat kodeksi-O‘zbekiston Respublikasi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi (1998). Oila kodeksi-O‘zbekiston Respublikasi. Oila kodeksida oila a’zolari, shu jumladan, yoshlarni psixologik va jismoniy zo‘ravonlikdan himoya qilishga doir normativ-huquqiy me’yorlar mavjud.

5. O‘zbekiston Respublikasi “Ma’naviyat va ma’rifat to‘g‘risida”gi qonun (2019). Ma’naviyat va ma’rifat to‘g‘risida — O‘zbekiston Respublikasi. Ushbu

qonunda yoshlarni ma’naviy zo‘ravonlikdan himoya qilish va ularni jismoniy va psixologik zo‘ravonlikdan saqlashga qaratilgan chora-tadbirlar ko‘rsatilgan.

6. Baxtiyorov, B. (2016). Yoshlar va zo‘ravonlik. O‘zbekiston misolida tahlil. Tashkent: Ma’naviyat va Ma’rifat Nashriyoti.

7. Huesmann, L. R. (2007). The Role of Media Violence in Violent Behavior: A Review of the Literature. Annual Review of Public Health, 28, 283-303.

8. Graham, S. (2003). Media Violence and Aggression: The Role of Media Violence in the Development of Aggressive Behavior in Children. Journal of Social Issues, 59(3), 37-53.

9. Parker, D. (2002). Aggression and Violent Behavior: A Critical Review of the Literature. Psychological Bulletin, 128(4), 573-592.

10. Anderson, C. A. (2004). An update on the effects of playing violent video games. Journal of Adolescent Health, 34(3), 226-233.

11. Smith, P. K., & Sharp, S. (1994). “School Bullying: Insights and Perspectives” Routledge.

12. Olweus, D. (1993). “Bullying at School: What We Know and What We Can Do” Blackwell Publishing.

13. Rigby, K. (2003). “Consequences of Bullying in Schools” The Canadian Journal of Psychiatry.

14. Espelage, D. L.Swearer, S. M. (2004). “Bullying in American Schools: A Social-Ecological Perspective on Prevention and Intervention”. Lawrence Erlbaum Associates.

15. Kowalski, R. M., Limber, S. P., & Agatston, P. W. (2012) “Cyberbullying: Bullying in the Digital Age” Wiley-Blackwell.

16.Gini, G.Pozzoli, T.(2009).“Association Between Bullying and Psychosomatic Problems: A Meta-analysis” Pediatrics.

17.Salmivalli, (2010). “Bullying and the Peer Group: A Review” Aggression and Violent Behavior.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TA’LIM MUHITIDA KELAJAKDAGI O‘QITUVCHILARNI TAYYORLASHNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

G‘ulomov Laziz G‘ulomovich, Buxoro innovatsiyalar universiteti magistri;
Karimov Roziq Sodiq o‘g‘li, Buxoro davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi;
laziz.gulomov@bk.ru; roziq.s.karimov@gmail.com

Annotatsiya. Ishning ilmiy – amaliy ahamiyati shundan iboratki, axborotlashtlashgan ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashlashni takomillashtirishlari yosh avlodlarlarni qobilyatilarini yoritishda ilmiy xulosalar hamda yangi uslubiy yondashuvlar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Ishning amaliy ahamiyati ishdagi ilmiy – nazariy umumlashma va tahlillardan Axborotlashtlashgan ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirishda yangi darslik, o‘quv qo‘llanma, majmualar yaratish va darsliklar takomillashuvida foydalanishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kommunikatsiya, texnologiya, axborotlashtirish, internet, ta’lim, talabalar, tendensiya, o‘qituvchi, axborot.

Mamlakatimizda ham davr talabidan kelib chiqib, barcha sohalarga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Raqamli O‘zbekiston – 2030 dasturini joriy etish maqsadida ko‘plab oliy ta’lim muassasalariga ta’lim jarayonini avtomatlashtirish vazifalari qo‘yilmoqda [1]. Ta’lim jarayonini raqamlashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu telekommunikatsiya, tarmoq muhiti, axborot va dasturiy ta’minot, o‘quv ma’lumotlar bazasi, elektron kutubxonalar, elektron o‘quv nashrlari, multimedia mahsulotlari, turli axborot almashinuvini avtomatlashtiruvchi tizimlar va boshqalarni birlashtirgan oliy ta’lim muassasasining axborot ta’lim muhitini yaratish uchun axborot texnologiyalarini keng joriy etishdir.

Oliy ta’lim muassasalari zamonaviy ma’noda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatadigan, ilmiy tadqiqotlar olib boradigan va mutaxassislar malakasini oshirishni ta’minlaydigan o‘quv va ilmiy ishlab chiqarish majmuasidir. Oliy ta’lim muassasalarining rivojlanishidagi asosiy manbalardan biri bu axborotdir, chunki bu strategik maqsad va vazifalarni belgilash, ochilgan imkoniyatlardan foydalanish, ma’lumotli va o‘z vaqtida boshqaruv qarorlarini qabul qilish, bo‘limlarning harakatlarini muvofiqlashtirish, ularning say-harakatlarini umumiy strategik maqsadlarga yo‘naltirishdir. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish global kompyuter tarmoqlarida joylashgan axborot manbalarini zudlik bilan taqdim etish, o‘quv jarayoni haqida ma’lumot to‘plash, o‘quv jarayonining barcha bosqichlarida har bir talabaning bilimini oshirish, o‘qitish sifatini doimiy ravishda kuzatib borish va boshqa imkoniyatlarni beradi [2,3]. Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, axborotlashtirish sohasida ikki xil mazmunli ko‘rsatmalar mavjud. Birinchi tur - bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) orqali ta’limdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish. Ikkinchi tur mustaqil ta’lim rolini kuchaytirish, yangi AKTlarni o‘zlashtirish va qo‘shimcha ta’lim resurslaridan foydalanish orqali ta’lim sifatini

o‘zgartirishga qaratilgan. Xususan, axborot ta’lim muhitini yaratish va ulardan foydalanish ko‘rsatilgan ko‘rsatmalarga erishishga imkon beradi.

O‘quv materialini o‘zlashtirish modeli uning ta’lim elementlarini va ular orasidagi mantiqiy aloqalarni o‘rganish ketma-ketligini belgilaydi. Ta’limiy axborot resurslarining zarur sifatiga, zamonaviy psixologiya, pedagogika, ergonomika, informatika va boshqa fanlarning ilmiy va amaliy yutuqlarini inobatga olgan holda erishish mumkin. Axborot ta’lim muhiti o‘quv ilmiy resurslari o‘quv materialining tuzilishi algoritmlash nazariyasi yoki aqliy harakatlarning bosqichma-bosqich shakllanishi va agar kerak bo‘lsa, ilgari o‘rganilgan materialni eslatuvchi assotsiativ-refleks nazariyasiga asoslanishi lozim.

O‘quv-ilmiy resurslarni taqdim etishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratmoq kerak:

- elektron o‘quv qo‘llanmalari mazmunan shunday tuzilgan bo‘lish kerakki, ulardan qo‘shimcha o‘quv axborotlarini olish uchun talaba aslo qiynalmasligi kerak;
- o‘quv materiallarini tarkibiy tuzilmasini shakllantirishda modul tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqligi;
- mustaqil ta’limni tashkil etish va o‘quv materiallarini o‘rganish bo‘yicha to‘liq yo‘riqnoma keltirilgan bo‘lishi;
- nazorat topshiriqlari, o‘z-o‘zini tekshirish savollari va javoblari, mashq qildiruvchi topshiriqlarning bo‘lishi.

Elektron shakldagi o‘quv–ilmiy resurslar eng oddiy holda nashr o‘quv materiallarining elektron varianti ko‘rinishida bo‘ladi. Ammo elektron shakldagi darsliklar kompyuter xotirasida yoki boshqa tashqi magnit eltuvchida qulay saqlanish, tezkor o‘zgartirish imkoniyatining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o‘quv–ilmiy resurslar tarkibiga elektron o‘quv darsliklari(AutoPlay, Articulate), elektron taqdimotlar(power point, prezi); kompyuter multimediali o‘rgatuvchi tizimlar(iSpring, Potato, MyTestX va b.); audio o‘quv-axborot materiallari; video o‘quv-axborot materiallari(Camtasia Studio, Ocam, BandiCam va b.); virtual laboratoriya ishlari(Phet, Yenka ilovalari); trenajyorlar(Flash va b.); ma’lumotlar va bilimlar bazasi; elektron kutubxonalar kiradi.

iSpring Suite asbob uskunalari orqali (QuizMaker, iSpring Visuals, iSpring DialogTrainer) elektron darsliklar, videoma’ruzalar, QuizMaker orqali elektron nazorat testlari, so‘rovnomalar, iSpring DialogTrainer - tarmoqlangan dialogli elektron kurslarni va onlaynperezentatsiyalarni yaratish imkoniyatini beradi. Dastur orqali foydalanuvchi Flash-roliklar va YouTube-video resurslarni PowerPoint taqdimot slaydlariga joylashtirish imkoniyati beradi. Yaratilayotgan elektron kursga audio va video fayllarni qo‘shish, audio va videolarni yozish, taqdimot slaydlari bilan sinxronizatsiyalash, elektron kursning har xil pleyerlarini tanlash va tahrirlash, SCORM va TinCan standartlarida chop etish,.mp4 videoformatida eksport qilish imkoniyatlarini beradi. Shu bilan bir qatorda iSpring Visuals orqali 3D kitoblar, vaqt shkalasi, glossariylar yaratish imkoniyati ham mavjud.

Video o‘quv-axborot materiallarini yaratishda bir qator jarayonlarni bajarish kerak, jumladan, ta’lim sohasini tanlash va zarur fanlarni tahlil qilish, videodarslar yozishga mo‘ljallangan dasturlar orasidan eng yaxshisini tanlash, videodarslarni yozish

hamda montaj qilish va boshqalardan iborat. Videodarslar yozadigan dasturlar bir nechtadir. Ulardan Webineria, UltraVNC Screen Recorder, Captivate, BB Flashback Express, Camtasia Studio, Jing kabilarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin. Ular kompyuter ekranidagi harakatlar, mikrofondan ovozlarni yozadi hamda kompyuterlar tushunadigan video fayllar formatiga o‘girib beradi. Bu vositalardan Camtasia Studio dasturi o‘zining interfeysi, juda ko‘plab formatlari, video fayllarga turli xil belgilar va izohlar qo‘yilishi, darslarga menyular hosil qilinishi bilan ajralib turadi, shuningdek, bu dastur yordamida audio fayllarni ham yaratish mumkin.

Dars yozish davomida ekranning kerakli joyini alohida ajratib ko‘rsatish imkoni ham mavjud. Ana shu afzalliklari tufayli videodarslar yozuvchi dastur sifatida Camtasia Studio alohida o‘rin egallaydi. Camtasia Studio – ajoyib utilita dasturlardan biri bo‘lib. uning yordamida ekrandagi tasvir va harakatlarni yozib olish va uni turli xildagi kengaytmalarda kompyuter xotirasida saqlash mumkin. Bundan tashqari yozib olingan videoni tahrirlash va maxsus pleyerlar yordamida namoyish etishni ta’minlash mumkin.

Dastur ekranning istalgan qismidagi harakatlarni va tovushni odatda.AVI standartida saqlashi mumkin. Ushbu dastur yordamida yaratilgan video hujjatlarni quyida keltirilgan kengaytmalarni qo‘llab quvvatlovchi dasturlarga eksport qilish mumkin: - AVI, SWF, FLV, MOV, WMV, RM, GIF, CAMV. Bundan tashqari istalgan video asosida exe-faylni, ya’ni pleyeri o‘zida joylashgan hujjatga kompilyatsiya qilish imkoni mavjud. Qator effektlar va qo‘shimcha imkoniyatlar masofaviy ta’limda foydalanish imkonini beradigan fayllarni yaratish, dasturning oddiy interfeysi orqali foydalanuvchiga tushunarli amallar bilan taklif etiladi. Elektron ta’lim muhitida virtual laboratoriya ishlarini tashkillashtirishning o‘ziga xos muammolari mavjud.

Aynan bu muammolarni virtual laboratoriya ishlaridan foydalangan holda tashkillashtirish mumkin. Virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish jarayonida talabalar ma’ruza vaqtida o‘rgangan nazariy bilimlarini virtual muhitda bo‘lsada hayotga tadbiq qiladilar. Ushbu tadqiqotlar jarayonida bilimlarini yanada mustahkamlash bilan bir qatorda fanning rivojlanishiga bevosita xissa qo‘shadilar. Bundan tashqari virtual laboratoriya ishlarini ham yanada rivojlanishiga, yanada haqiqiy hayotiy tadqiqotlarga yaqin natijalar beradigan darajaga chiqarishda o‘z xissalarini qo‘shishlari mumkin. Bu o‘z o‘rnida talabalarni faqatgina “tinglovchi” vazifasida qolmasdan, bevosita ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashuvchilargaaylantiradi. Bu esa o‘z navbatida talabalarda o‘qish va tadqiqotlarga bo‘lgan qiziqishlarini yanada ortishiga olib keladi.

Hozirgi fan-texnikaning katta sur’atlarda rivojlanishi real-hayotiy tadqiqot uskunalarini ushbu rivojlanish bilan bir qatorda ketishida qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun bugungi kunda virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish yaxshi natijalar bermoqda. Ana shunday virtual laboratoriya ishlarini yaratish imkonini beruvchi dasturiy ta’minotlardan biri bu Crocodile kompaniyasining dasturiy ta’minotlaridir. Bugungi kunda Crocodile kompaniyasining dasturiy ta’minotlari Yenka nomi ostida ishlab chiqilmoqda. Shuningdek, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etish jarayonlarida tayyor virtual laboratoriya ishlaridan foydalanish ham katta samara beradi. Nobel mukofotining laureati, fizik K. Viman

tomonidan «Physics Education Technology» (PHET) sayti yaratilgan (https://phet.colorado.edu/). PHET saytida har xil mavzularga oid 360 mln. ga yaqin virtual laboratoriyalar mavjud bo‘lib, ular Java, Flash va HTML5 formatlarida yaratilgan. PHET saytida taqdim etilayotgan virtual laboratoriyalardan ochiq manba (Open Sourse) sifatida, xohlagancha foydalanish mumkin. Bu dastur davlat ta’lim standartlariga va o‘quv muassasalarida qo‘llanilayotgan adabiyotlarga mos kelganligi bilan muhim pedagogik qurol hisoblanadi.

Ta’lim jarayonlarini axborot-metodik ta’minotini amalga oshiruvchi o‘quv-ilmiy resurslarni ta’limda qo‘llanilishi: o‘qitish jarayonini individuallashtirish va differensiyalash; teskari aloqa bilan o‘quv faoliyati nazoratini olib borish; o‘z-o‘zini nazorat qilish;o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonida mashq qilish va mustaqil tayyorgarlikni tashkil etish; o‘quv vaqtini tejash; o‘quv axborotlarni kompyuter orqali vizuallashtirish; kompyuterda laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish; axborot ma’lumotlar bazasini yaratish va undan foydalanish; o‘qishga qiziqishni orttirish; o‘quvchini o‘quv materialini o‘zlashtirish strategiyasi bilan qurollantirish; fikrlashni rivojlantirish; optimal qaror qabul qilish malakasini shakllantirish; ta’lim oluvchida axborot madaniyatini shakllantirish kabi imkoniyatlarni beradi [4].

Ta’lim sohasida elektron o‘qitish darajasining kengayib borishi ta’lim paradigmasining o‘zgarishiga, ya’ni axborot texnologiyalaridan cheklangan foydalanish kuzatilgan ta’lim holatidan, cheklanmagan foydalanish holatidagi ta’lim muhitiga ko‘chishiga zamin yaratadi. Zamonaviy o‘qituvchi faoliyatida axborot texnologiyalari nafaqat bilishning, balki o‘quvchilarning turli xil axborot faoliyatlarini -ishtirokchilarining axborot kompetentliligi shakllanadi. Bugungi kunda ta’limning rivojlanishida axborotli ta’sir muhitining jadallashuvi, taraqqiyot an’analari barcha qatorida o‘qituvchilarning ham axborotga, dasturiy vositalarga bo‘lgan talab va ehtiyojlarini qondirishni taqozo etadi. Bu talab va ehtiyojlarni qondirish davlat va hukumatning diqqatida ustuvor yo‘nalishlardan birini ifodalab bir qator me’yoriy-huquqiyhujjatlar bilan mustahkamlanmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagog xodimlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda axborot-ta’lim muhitini yaratish, axborot-metodik qo‘llab-quvvatlash ko‘lamini kengaytirish va uning sifatini oshirish kechiktirilmas vazifalardan biridir.

“Ta’lim muassasalarini yagona elektron axborot-ta’lim muhitini yaratish va joriy etish texnologiyalari” yuzasidan izlanishlar olib borgan tadqiqotchi U.N.Taylakovning aniqlashicha “Ta’lim muassasasining yagona axborot ta’lim muhiti deyilganda, o‘quv faoliyatining eng asosiy hamda faol subyekti hisoblangan inson bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ta’lim jarayonining tashkiliy, axborotlashgan, o‘quv-uslubiy va pedagogik-psixologik jihatdan ta’minlanganlik tizimi darajasi tushuniladi”. Sh.U.Eshonqulov “Elektron ta’lim muhitida talabalarni loyihalash kompetentligini rivojlantirish” mavzusidagi dissertatsiyasi avtoreferatida “o‘zaro aloqador kontentli, kommunikatsion, texnologik komponentlar tizimi. Bu tizim talabalarning ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish bo‘yicha o‘qitish jarayoni subyektlari o‘zaro harakatida tashkiliy-rag‘batlantiruvchi, informativ tahsil beruvchi, diagnostik tahrirlovchi va kommunikativ boshqaruvchi funksiyalarni ta’minlaydi”, deya xulosalaydi.

Oliy ta’lim muhitida elektron ta’lim muhitini tashkil etishga doir tadqiqotlarida N.A.Kayumova “o‘qitish jarayonini yuqori sifatli axborot va o‘quv-uslubiy ta’minot bilan ta’minlashga imkon beradigan elektron va masofaviy o‘qitish texnologiyalaridan foydalangan holda ta’lim resurslarini to‘plash, tizimlashtirish, saqlash va undan foydalanishga mo‘ljallangan axborot, telekommunikatsiya texnologiyalari va vositalar to‘plamidir” fikrini ilgari suradi. Xuddi shunday, M.Suropov oliy ta’lim tizimida axborot-ta’lim muhitini yaratishga qaratilgan izlanishlarida “axborot-ta’lim muhitini an’anaviy va elektron ommaviy axborot vositalari, o‘zaro aloqa qilishning kompyuter va telekommunikatsion texnologiyalari, shu jumladan virtual kutubxonalar, elektron ma’lumotlar bazalari, o‘quv-uslubiy majmualar va kengaytirilgan didaktik apparatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni birlashtirgan yagona axborot-ta’lim makoni, deb tushunish maqsadga muvofiq”ligini ta’kidlaydi.

Xorijlik olimlardan esa M.V.Stupina, aralash ta’lim sharoitlarida axborot-ta’lim muhitini yaratishda bulutli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari, A.V.Baraulina, axborot-ta’lim muhitining ijobiy motivatsiyani ta’minlash, darslarni yuqori emotsional va estetik bosqichlarda o‘tkazish, tabaqalashtirish, dars samaradorligini oshirishdagi o‘rni, V.I.Toktarova, S.N.Fedorovalar, axborot-ta’lim muhitida o‘quv jarayonini tashkillashtirishda ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlariga e’tibor qaratish, qobiliyatlari, imkoniyatlarini rivojlantirishga erishish, Y.N.Dronova, axborot-ta’lim muhitida o‘quv materiallarini onlayn taqdim etish, ta’lim oluvchilarning ehtiyoji, qiziqishiga ta’siri, A.V.Gaponenko, oliy ta’limda axborot-ta’lim muhitini rivojlantirish, maqsadlarini shakllantirish, tizimlarni loyihalashtirish, istiqbollarini bashorat qilish, A.Andreyeva, axborot texnologiyalarining axborot-ta’lim muhitini shakllantirishga ta’siri, turlicha yondashuvlarning mohiyati, mazmuni, tuzilishi, samarali ishlash usullari, D.S.Vasilina, G.Y.Nuriyeva, D.M.Yulanovalar, axborot-ta’lim muhitini loyihalashda pedagogik-psixologik omillarni inobatga olish, imkoniyatlarining o‘quv jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga hissasi, T.V.Vostrikova, axborot-ta’lim muhitida pedagogik loyihalash, axborotlashtirish, ma’lumotlar bazalariga kirish, ta’lim ishtirokchilarining tegishli kompetentligini rivojlantirish shartlari ifodalovchi tadqiqotlar olib borilgan.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlar axborot-ta’lim muhitini yaratish faqatgina texnik muammo emasligini tushunish imkonini beradi. Unga tizimli yondashuv zarur bo‘lib ta’lim muassasasining barcha resurslari va pedagogik imkoniyatlarini safarbar qilish zarur bo‘ladi. Shuningdek, jarayonda boshqaruvning o‘rinli va to‘g‘ri yechimlari ham muhim ahamiyatga ega.Mazkur sohada keng qamrovli izlanishlar olib borgan olimlar R.Hamdamov, U.Sh.Begimqulov, N.I.Tayloqovlar axborot-ta’lim muhitini aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini ta’minlovchi axborot-texnik, o‘quv-metodik tizimlar majmuidir, degan xulosaga kelishgan hamda uning quyidagi tipologik belgilarini ajratib ko‘rsatishgan:

1. Har qanday darajadagi ta’lim muhiti tizimlilik tabiatiga ega bo‘lgan murakkab tuzilmali obyekt hisoblanadi.

2. Ta’lim muhitining yaxlitligi tizimlilikka erishish tushunchasi bilan bir ma’noni anglatib, u o‘quv muassasasi bitiruvchisining shaxsiy va kasbiy modelini amalga

oshirishdagi ta’lim va tarbiya maqsadlarining amalga oshishini o‘zida mujassamlashtiradi.

3. Ta’lim muhiti ta’lim va tarbiya ishlarining asosiy sharti bo‘lish bilan birga uning muhim vositasi hamdir.

Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishning axborot-ta’lim muhiti tizimga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar, tegishli ta’lim resurslari, o‘quv-metodik materiallar hamda individual ma’lumotlardan tarkib topadi. Axborot-ta’lim muhitida pedagoglarni kasbiy ehtiyojlarini aniqlash, bo‘shliqlarni to‘ldirish, ularning individual xususiyatlari, imkoniyatlarini inobatga olish, o‘quv-metodik materiallarni makon va zamon chegaralaridan qat’i nazar onlayn taqdim etish, malaka oshirish jarayonini boshqarish va nazoratini olib borish sharoitlari maqbullashadi. Virtual muloqot qilish imkonining vujudga kelishi ma’lumotlarni tezkor almashish, interfaolikni yuzaga chiqarish, manzilli axborot-metodik qo‘llab-quvvatlashga qulay maydon hosil qiladi. Unda an’anaviy va onlayn ta’limga xizmat qiluvchi o‘quv-metodik ta’minotning uyg‘unlashuvi, ehtiyojiga mos materiallarni mustaqil topish, axborotlarni saralash, tahlil qilish va foydalanish ko‘nikmalarini rivojlanishi, individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasini loyihalash va amalga oshirishga moyillik ro‘y beradi.

Axborot-ta’lim muhitini yaratish pedagoglar uchun elektron adabiyotlari, o‘quv-uslubiy majmualar, vebsayt, portallar ishlabchiqish va ularni amaliyotga kiritish muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagoglarning o‘zlari ham turli platforma va dasturlardan unumli foydalangan holda elektron axborot-ta’lim resurslarini ishlab chiqish, veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlarda bloglarini yuritish hamda ulardan o‘quv mashg‘ulotlarida samarali foydalanishlari kasbiy faoliyatlarining ajralmas bo‘lagiga aylanishi zaruriy ehtiyojni ifodalaydi. Keltirilgan fikrlar, izlanishlar, yetakchi ta’lim muassasalari olib borayotgan sa’y-harakatlar tahlili axborot-ta’lim muhitining yaratilishi malaka oshirish ta’limi sifatini yaxshilash, uni yangi bosqichga chiqarish, davlat ta’lim standarti va milliy o‘quv dasturida nazarda tutilgan kompetensiyalarni o‘zlashtirish hamda o‘qituvchining kasb standartini amaliyotga kiritishning dasturiy ta’minotini bildiruvchi pedagogik shart-sharoitlarni ifodalaydi, degan fikrimizni dalillashga asos bo‘ladi.

Ya’ni, axborot-ta’lim muhiti uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimining pedagogning shaxsiy-kasbiy rivojlanishi, uni qadriyat sifatida tushunishi, pedagogik qobiliyatlarini o‘stirish, mustaqil o‘qishini tashkil qilish kabi fundamental maqsadlarini ro‘yobga chiqarishga yo‘naltirilgan maydondir. U ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishning texnologik darajasini oshirish va foydalanuvchanlik, hammaboplikni ta’minlashga xizmat qiladi:-ta’lim resurslariga doir yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirish;

-mazkur resurslardan bir vaqtning o‘zida ko‘plab pedagoglarning foydalanishiga erishish;

-resurslarga ixtiyoriy makondan murojaat qilish, vaqt,sur’at, shakl cheklovlarini minimallashtirish;

-kasbiy ehtiyojlarga mos resurslarni taklif qilish hamda variativlik, individuallashtirish va tabaqalashtirish imkonini yaratish;

-axborotlarni tezkor almashish va manzilli yetkazish.

Pedagoglarni uzluksiz kasbiy rivojlantirishda axborot-metodik qo‘llab quvvatlash zamonaviy texnik yechimlar bo‘lgan tarmoq, mobil va portal texnologiyalaridan ham samarali foydalanishni taqozo qiladi. Shu nuqtai nazardan, o‘qituvchilarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish kompetentligini rivojlantirish, ularni kasbiy faoliyatida qo‘llashdan qochish, “fobiya”ni yo‘qotishga erishish kutilgan natijalar kafolatini kuchaytiradi.Tadqiqotchi I.A.Yuldoshev bo‘lajak informatika o‘qituvchilarining ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda tarmoq texnologiyalaridan foydalanish haqida fikr yuritar ekan ularni jarayonda turli darajalarda joriy etish mumkinligini bildiradi:

1. Birinchi darajani quyidagicha tavsiflash mumkin: darsda tarmoq texnologiyalariga kam e’tibor qaratiladi, an’anaviy ta’lim shakli ustunlik qiladi, kompyuterlardan videolavhalarni ko‘rish, taqdimot yaratish va test o‘tkazish uchun vaqti-vaqti bilan foydalaniladi.
2. Ikkinchi darajada tarmoq texnologiyalaridan foydalanish to‘liq ko‘lamda amalga oshiriladi, o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘zlarini axborot fazosida his qilganidek, jonli ravishda aloqada bo‘lishadi, birgalikda kommunikativ masalalar ko‘riladi, ya’ni kompyuterlar ta’lim jarayonida muhim o‘rin tutadi.
3. Uchinchi daraja masofali yoki inklyuziv ta’lim uchun o‘ziga xos bo‘lgan, faqat AKT yordamida ta’lim jarayonini amalga oshirishni taklif qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-Toshkent: O‘zbekiston, 30.04.2023
2. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilingan Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma’qullangan. O‘RQ-637. 23.09.2021. https://lex.uz/ru/docs
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son qarori. https://lex.uz/ru/docs
4. Doniyev S.I., Ibrakhimov F. A., Joldasov I. S. Trends in the development of primary education (an example of the finnish system of primary education).Innovations in pedagogy psychology. Special issue -2. Toshkent 2020. 392-pag.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BIOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARI ORQALI TA’LIM BERISH USULLARI

G‘oyibnazarova Asal Baxtiyorovna
Urganch davlat pedagogika instituti “Maktabgacha ta’lim va tabiiy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi, **ORCID ID: 0009-0000-8442-3411**

Annotatsiya. Ushbu maqolada biologiya fanini o‘qitishda multimedia texnologiyalari orqali ta’lim berish usullarining dolzarbligi, samaradorligi va amaliyotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Bugungi kunda ta’lim tizimida innovatsion yondashuvlar tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Multimedia texnologiyalari o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirish, mavzularni tez va samarali o‘zlashtirish, shuningdek, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar bilan boyitishga xizmat qiluvchi muhim vositalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ushbu maqola mazkur yondashuvning nazariy asoslari, metodologiyasi, olingan natijalar va xorijiy tajribalar asosida keng qamrovli tahlilini taqdim etadi. Shuningdek, maqola biologiya fanining innovatsion texnologiyalar orqali o‘qitilishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratadi. O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar, ayniqsa, Harakatlar strategiyasi, "O‘zbekiston-2030" strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmon va qarorlari doirasidagi tadbirlar ushbu maqolaning dolzarbligini belgilaydi.

Аннотация. В статье анализируется актуальность, эффективность и практическая значимость методов обучения с использованием мультимедийных технологий в преподавании биологии. Сегодня инновационные подходы становятся все более актуальными в системе образования. Мультимедийные технологии становятся одним из важных инструментов, помогающих повысить интерес учащихся к уроку, быстро и эффективно усваивать темы, обогащать теоретические знания практическими навыками. В статье представлен комплексный анализ данного подхода с учетом его теоретических основ, методологии, полученных результатов и зарубежного опыта. В статье также уделяется особое внимание социально-экономическому значению преподавания биологии с использованием инновационных технологий. Реформы, направленные на повышение качества образования в государственной политике Республики Узбекистан, в частности, меры в рамках Стратегии действий, стратегии «Узбекистан-2030», соответствующих указов и постановлений Президента, определяют актуальность этой статьи.

Abstract. This article analyzes the relevance, effectiveness and practical significance of teaching methods using multimedia technologies in teaching biology. Today, innovative approaches are becoming increasingly relevant in the education system. Multimedia technologies are emerging as one of the important tools that serve to increase students' interest in the lesson, quickly and effectively master topics, as well as enrich theoretical knowledge with practical skills. This article presents a comprehensive analysis of the theoretical foundations, methodology, results obtained and foreign experience of this approach. The article also pays special attention to the

socio-economic significance of teaching biology through innovative technologies. Reforms aimed at improving the quality of education in the state policy of the Republic of Uzbekistan, in particular, measures within the framework of the Action Strategy, the "Uzbekistan-2030" strategy, and relevant decrees and resolutions of the President, determine the relevance of this article.

Kalit so‘zlar: Multimedia texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, VR, AI, 3D modellashtirish

Ключевые слова: Мультимедийные технологии, виртуальные лаборатории, VR, AI, 3D-моделирование

Keywords: Multimedia technologies, virtual laboratories, VR, AI, 3D modeling

Bugungi globallashuv davrida ta’lim tizimi oldida turli muammolar va yangi imkoniyatlar yuzaga kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-4947-sonli Farmoni va 2019-yil 29-apreldagi "O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va fan sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4319-sonli qarori ta’lim sohasida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha muhim yo‘nalishlarni belgilab berdi[O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni. "2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi", O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4319-son Qarori. "O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va fan sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"]. Shuningdek, 2022-yil 11-maydagi "Ta’lim tizimini raqamlashtirishni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-229-son qarorda ham zamonaviy ta’lim texnologiyalarini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgan [O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-229-son Qarori. "Ta’lim tizimini raqamlashtirishni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"].

"O‘zbekiston-2030" strategiyasida esa ta’lim sohasining raqamli transformatsiyasi, innovatsion yondashuvlarni joriy qilish va ta’lim sifati bo‘yicha xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallash bo‘yicha aniq vazifalar belgilangan. Strategiyaning mazkur ustuvor yo‘nalishlari biologiya fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning dolzarbligini yanada oshiradi["O‘zbekiston-2030" strategiyasi. "Davlat rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari". 2023].

Biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshirish, mavzularni chuqurroq o‘zlashtirish va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarur. Ayniqsa, multimedia texnologiyalari ta’lim sifatini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Multimedia vositalari yordamida biologiya fanidagi murakkab tushunchalarni vizual, eshituv va interaktiv shakllarda yetkazish mumkin. Multimedia texnologiyalari — bu axborotni bir vaqtning o‘zida bir nechta formatda (matn, tasvir, audio, video, animatsiya) uzatish, saqlash va namoyish etish texnologiyalari majmuasidir. Bu texnologiyalar zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarida keng qo‘llaniladi va foydalanuvchi bilan interaktiv aloqa imkonini beradi[Karimov, A. "Multimedia texnologiyalari va biologiya fani: pedagogik yondashuvlar". Toshkent, 2020.]. Janubiy Koreya va AQShning tajribasi

multimedia texnologiyalarini o‘qitishda muvaffaqiyatli qo‘llashning namunasi sifatida ko‘rsatiladi. Ushbu mamlakatlarda o‘quv dasturlariga AI va VR texnologiyalari integratsiyalashgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, multimedia texnologiyalari individual ta’limni qo‘llab-quvvatlaydi. Har bir o‘quvchi o‘z tezligida dars materiallarini o‘zlashtirishi mumkin. Ammo, texnologik resurslar cheklangan maktablar uchun bu yondashuvni to‘liq joriy etish qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali texnologik infratuzilmani yaxshilash zarur.[Xolbekov, Sh. "Ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning nazariy asoslari". Toshkent, 2021.] Multimedia ta'lim vositalaridan foydalanish bilan bog'liq ko‘plab muammolarni hisobga olgan holda, o‘qituvchilar va o‘quv jarayonini tashkil qiluvchilar yangi yechimlarni topish uchun birgalikda ishlashi kerak. Bu ularning bu jarayonni to‘liq tushunishlari kerakligini anglatadi, hamda texnologik tizimlar ta'limni yaxshilaydigan o‘qitish usullari hisoblanadi. O‘qituvchilar onlayn o‘qitishning yaxshi usullariga qaratilgan ta'lim jarayonini to‘g‘ri qabul qilishlari kerak, shuningdek ular ushbu raqamli platformalardan samarali foydalanishlari mumkin.

Shu bilan birga, vazirliklar zamonaviy texnologiyalar yetishmayotgan maktablar uchun moliya va resurslarni ustuvor vazifa qilib qo‘yishlari kerak va yetarli darajada qo‘llab-quvvatlash, raqamli bo‘shliqni yopishga yordam berish va barcha talabalarning texnologiyaga kirishini ta'minlashdan iboratdir. Birgalikda ishlash muhim ahamiyatga ega muammolarni o‘sish imkoniyatiga aylantirish, shu tariqa raqamli ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.[Yuldoshev J va G‘oyibnazarova a “urgent issues in using virtual learning tools to improve the effectiveness of the educational process”. Science and Education in Karakalpakstan. 2024 №4/2]

Ushbu maqola oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanini o‘qitishda multimedia texnologiyalari orqali ta’lim berish usullarining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganishga qaratilgan.

Metodlar.

Tadqiqotda quyidagi usullar qo‘llanildi:

1. **Nazariy tahlil**: Multimedia texnologiyalarining ta’lim jarayoniga integratsiyasi bo‘yicha mavjud ilmiy maqolalar va darsliklar o‘rganildi.
2. **Eksperimental usul**: Biologiya fanidan multimedia vositalaridan foydalangan holda sinov darslari tashkil qilindi. Sinov guruhi va nazorat guruhi natijalari solishtirildi.
3. **So‘rovnoma va kuzatish**: O‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazilib, multimedia texnologiyalari qanchalik samarali ekanligi baholandi.
4. **Taqqoslash usuli**: O‘zbekiston va rivojlangan davlatlar, masalan, AQSh, Germaniya va Janubiy Koreyaning multimedia texnologiyalaridan foydalanish tajribalari qiyosiy tahlil qilindi.
5. **Statistik tahlil**: Tadqiqot davomida yig‘ilgan ma’lumotlar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, jadvallar shaklida taqdim etildi.
6. **Kontent tahlili**: Multimedia texnologiyalaridan foydalanishda o‘quv materiallarining sifat va qamrov darajasi o‘rganildi.

7. **Kechikuvchi ta’sirni baholash usuli**: O‘quvchilarning multimedia texnologiyalar yordamida olingan bilimlari uzoq muddatda qanchalik samarador bo‘lishi tahlil qilindi.
8. **SWOT-tahlil**: Multimedia texnologiyalarining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahlikalari aniqlanib, ularning ta’lim jarayonidagi roli o‘rganildi.
9. **Didaktik testlar usuli**: Sinov darslarida multimedia texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi maxsus didaktik testlar yordamida baholandi.

Natijalar

1. **O‘quvchilarning bilim darajasi**: Sinov guruhidagi o‘quvchilarning o‘rtacha bahosi 15% yuqori bo‘ldi. Multimedia vositalari darsda tushunchalarni tezroq o‘zlashtirishga yordam bergani qayd etildi. Quyida sinov va nazorat guruhlarining baholari taqqoslangan jadval keltirilgan:

Jadval 1

Guruh	O‘rtacha baho	Qoniqarli natija ulushi
Sinov guruhi	85%	92%
Nazorat guruhi	70%	75%

2. **Qiziqish darajasi**: So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning 85% multimedia texnologiyalari qo‘llanilgan darslarni qiziqarliroq deb hisoblagan.

3. **O‘qituvchilarning fikrlari**: 92% o‘qituvchilar multimedia texnologiyalari biologiya fanining samarali o‘qitilishiga katta hissa qo‘shishini ta’kidlashdi.

4. **Xorijiy tajribalar tahlili**: AQShda virtual laboratoriya texnologiyalari, Janubiy Koreyada esa AI yordamida biologik jarayonlarni modellash amaliyoti keng tarqalgan. Ushbu yondashuvlar biologiya fanini chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qilmoqda. Quyidagi jadvalda AQSh, Janubiy Koreya va Germaniyada multimedia texnologiyalarini o‘qitishga integratsiyalash holati ko‘rsatilgan:

Jadval 2

Davlat	Texnologiya turi	Integratsiya darajasi
AQSh	Virtual laboratoriyalar	Yuqori
Janubiy Koreya	AI va VR	O‘rta
Germaniya	3D modellashtirish	Yuqori

Xulosa.Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, multimedia texnologiyalari biologiya fanini o‘qitishda samarali vosita hisoblanadi. Xususan, videodarslar, interaktiv simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va 3D modellashtirish orqali o‘quvchilarning biologik jarayonlarni tushunish qobiliyati oshadi. Masalan, o‘simlik hujayralari tarkibi yoki genetik modifikatsiya kabi mavzularni 3D tasvirlar orqali tushuntirish an’anaviy usullarga nisbatan samaraliroq.

Biologiya fanini multimedia texnologiyalari yordamida o‘qitish o‘quvchilarning ta’lim olish jarayoniga qiziqishini oshirish, tushunchalarni tezroq va samaraliroq o‘zlashtirish imkonini beradi. Kelgusida multimedia vositalarining kengroq joriy etilishi uchun texnik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish va o‘qituvchilarning

malakasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish lozim. Shuningdek, quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. Multimedia texnologiyalaridan foydalanishni davlat dasturlariga kiritish.
2. O‘qituvchilar uchun multimedia texnologiyalari bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil qilish.
3. Maktablarni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash uchun davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish.
4. Xorijiy tajribalardan foydalanib, o‘quv dasturlarini boyitish.
5. Har bir dars mavzusi uchun maxsus multimedia kontent ishlab chiqish va uni onlayn platformalar orqali taqdim etish.
6. "O‘zbekiston-2030" strategiyasida belgilangan ta’lim maqsadlari doirasida biologiya fanini innovatsion yondashuvlar bilan o‘qitish bo‘yicha dasturlar ishlab chiqish.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni. "2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi".
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PQ-4319-son Qarori. "O‘zbekiston Respublikasida ta’lim va fan sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida".
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-229-son Qarori. "Ta’lim tizimini raqamlashtirishni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida".
4. "O‘zbekiston-2030" strategiyasi. "Davlat rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va maqsadlari". 2023.
5. Karimov, A. "Multimedia texnologiyalari va biologiya fani: pedagogik yondashuvlar". Toshkent, 2020.
6. Xolbekov, Sh. "Ta’limda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning nazariy asoslari". Toshkent, 2021.
7. Yuldoshev J va G‘oyibnazarova A “URGENT ISSUES IN USING VIRTUAL LEARNING TOOLS TO IMPROVE THE EFFECTIVENESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS”. Science and Education in Karakalpakstan. 2024 №4/2

YUQORI SINF O‘QUVCHILARINI “JISMONIY TAYYORGARLIK DARAJASI” SPORT SINOVLARI ME’YORLARIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Karimboyev Og‘abek Qadamboyevich
Urganch davlat pedagogika instituti o‘qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuqori sinf o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasi sport sinovlariga tayyorgarligini oshirishning pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Maqolada jismoniy tarbiya jarayonining ahamiyati, pedagogik tamoyillar, samarali mashg‘ulot metodlari hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari o‘rganiladi. Sport sinovlarini o‘quv dasturlariga integratsiya qilish va differensial yondashuv orqali o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini oshirish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Shuningdek, natijalarni baholash va monitoring qilish tizimlari ham ko‘rib chiqiladi.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические основы повышения уровня физической подготовленности старшеклассников к спортивным испытаниям. В статье рассматривается значимость процесса физического воспитания, педагогические принципы, эффективные методы тренировок и преимущества использования современных технологий. Обсуждаются возможности повышения уровня подготовки учащихся путем интеграции спортивных испытаний в учебные программы и применения дифференцированного подхода. Также рассматриваются системы оценки и мониторинга результатов.

Abstract. This article analyzes the pedagogical foundations for improving the physical fitness level of high school students in preparation for sports tests. The article examines the importance of the physical education process, pedagogical principles, effective training methods, and the advantages of using modern technologies. Opportunities for enhancing students' preparedness through the integration of sports tests into curricula and a differentiated approach are discussed. Additionally, systems for evaluating and monitoring results are considered.

Kalit so‘zlar: Yuqori sinf o‘quvchilai, sport sinovlari, jismoniy tarbiya, jismoniy tayyorgarlik, monitoring, differensial yondashuv, zamonaviy texnologiyalar.

Keywords. High school students, sports tests, physical education, physical training, monitoring, differentiated approach, modern technologies.

Ключевые слова. Старшеклассники, спортивные испытания, физическое воспитание, физическая подготовка, мониторинг, дифференцированный подход, современные технологии.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Jismoniy tarbiya darslari va maxsus sport sinovlari orqali yuqori sinf o‘quvchilarining jismoniy holatini yaxshilash, ularni sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish pedagogik jarayonning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish, ularni ommaviy harakatga aylantirish, aholining jismoniy qobiliyatini aniqlash va rag‘batlantirish, zararli odatlar hamda turli kasalliklarning oldini olish va sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 16-iyundagi PQ–5148-sonli qarori qabul qilindi. Shuningdek, ushbu qarorda aholining barcha qatlamlari o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish orqali jismoniy qobiliyat va harakat faolligini takomillashtirish hamda zararli odatlar va turli kasalliklarning oldini olish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish va jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga e’tibor qaratilgan.

2022-yil 15-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo‘yicha sport sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida’ gi, 23-son qarori qabul qilindi. Shu qaror bilan “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo‘yicha sport sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom” tasdiqlandi. Mazkur Nizom aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo‘yicha sport sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilaydi.

Sport sinovlarining maqsadi — aholining barcha qatlamlari o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish orqali ularning jismoniy qobiliyati va harakat faolligini takomillashtirish, mehnatga layoqatini oshirish, zararli odatlar hamda turli kasalliklarning oldini olish va sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat (2).

Bugungi kunda o‘quvchilarni sport sinovlari me’yorlariga tayyorlash jarayoni bir qator muammolar bilan bog‘liq. Jumladan:

- Mashg‘ulotlarning metodik jihatdan bir xil bo‘lishi va individual yondashuvning yetishmasligi.
- Zamonaviy dasturiy ta’minot va texnologiyalar yordamida jismoniy tayyorgarlikni baholash tizimining kam rivojlanganligi.
- O‘quvchilarni sport sinovlariga tayyorlashda pedagogik yondashuvlarning yetarlicha samarali emasligi.

Yuqori sinf o‘quvchilari uchun moslashtirilgan dasturiy-metodik ta’minot, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish samaradorligini oshiradi. Bu nafaqat o‘quvchilarning sport sinovlariga tayyorlanish darajasini oshiradi, balki ularning sog‘lom turmush tarziga nisbatan motivatsiyasini kuchaytiradi. Shu sababli, ushbu tadqiqot mavzusi yuqori sinf o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish va sport sinovlari me’yorlariga muvaffaqiyatli tayyorlashni ta’minlaydigan innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, milliy ta’lim tizimida sport sinovlari me’yorlariga mos keladigan o‘quv dasturlarini takomillashtirish va zamonaviy metodik yondashuvlarni integratsiya qilish o‘quvchilar orasida sog‘lom raqobat va muvaffaqiyatni rag‘batlantiradi. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining qo‘llanilishi jarayonni samarali tashkil qilish imkonini beradi.

Ushbu maqolada yuqori sinf o‘quvchilarini “Jismoniy tayyorgarlik darajasi” sport sinovlari me’yorlariga tayyorlashning pedagogik asoslari tahlil qilinadi.

Tadqiqot maqsadi. Yuqori sinf o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlarni o‘rganish va samarali metodlarni aniqlashdan iborat. Shuningdek, sport sinovlariga tayyorlash jarayonida qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan ilg‘or pedagogik tamoyillar va metodikalarni tahlil qilish ham ko‘zda tutiladi.

1. Jismoniy tayyorgarlik va sport sinovlarining o‘rni

Jismoniy tarbiya inson salomatligini mustahkamlash va harakat faolligini oshirish bilan birga, psixologik va intellektual rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Jismoniy faollik o‘quvchilarning umumiy salomatligini mustahkamlash bilan birga, ularning ruhiy holatini ham barqarorlashtirishga yordam beradi (5,6).

Sport sinovlari esa o‘quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini aniqlash, ularning individual rivojlanish darajasini baholash va jismoniy sifatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tizimli baholash usuli hisoblanadi.

2. Yuqori sinf o‘quvchilarining jismoniy tayyorgarligini oshirishning pedagogik tamoyillari

O‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish jarayonida quyidagi pedagogik tamoyillarga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi:

- **Ilmiy asoslanganlik** – mashg‘ulot dasturlari o‘quvchilarning yosh va fiziologik xususiyatlariga mos kelishi kerak;
- **Izchillik va bosqichlilik** – yuklamalar asta-sekin oshirib borilishi lozim;
- **Individuallik** – har bir o‘quvchining jismoniy imkoniyatlari va qobiliyatlari inobatga olinishi zarur;
- **Motivatsiya va rag‘batlantirish** – o‘quvchilarning sport sinovlarida muvaffaqiyat qozonishlari uchun ularga maqsadli motivatsiya berish va sport musobaqalariga jalb etish muhimdir.

3. Sport sinovlariga tayyorlashning samarali metodlari

Sport sinovlariga tayyorlash jarayonida quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- **Trenirovka mashg‘ulotlari** – har kuni belgilangan me’yorlarni bajarishga qaratilgan maxsus mashqlar. Ushbu mashg‘ulotlar jismoniy tayyorgarlikni oshirishda muhim o‘rin tutadi va har bir o‘quvchining individual imkoniyatlariga mos ravishda shakllantirilishi lozim.

Mashg‘ulot jarayonida yuklamalarni asta-sekin oshirib borish, mashg‘ulotlarning samaradorligini ta’minlaydi va o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini izchil yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, musobaqaviy elementlarni kiritish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasi oshiriladi va ularning sport sinovlariga tayyorligi kuchayadi (3,4).

- **O‘quv dasturlariga integratsiya qilish** – jismoniy tarbiya darslariga sport sinovlari elementlarini kiritish. Bu jarayon sport sinovlarining umumiy ta’lim tizimida ahamiyatini oshirish va o‘quvchilarning jismoniy tayyorgarligini uzluksiz yaxshilashga yordam beradi.

O‘quv dasturlariga sport sinovlari elementlarini qo‘shish orqali o‘quvchilarning jismoniy rivojlanish sur’atini kuzatish va natijalarni rejalashtirish samarali amalga

oshiriladi. Bu jarayonda o‘quvchilarning yoshi, jismoniy imkoniyatlari va qiziqishlariga mos metodik yondashuvlardan foydalanish muhim sanaladi (6).

Sport sinovlarini o‘quv dasturlariga integratsiya qilish, o‘quvchilarning darslarga qiziqishini oshiradi va ularning jismoniy faolligini muntazam nazorat qilish imkonini beradi.

- **Tabaqalashgan yondashuv** – o‘quvchilarning jismoniy darajasiga qarab individual reja asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish. Ushbu yondashuv har bir o‘quvchining jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, ularning salomatligi va rivojlanishiga mos tarzda tayyorgarlik jarayonini tashkil qilishni talab etadi.

Tabaqalashgan yondashuv jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida individual yondashuvni ta’minlaydi va o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlarini inobatga oladi. Bunday metodika orqali zaifroq tayyorgarlikka ega o‘quvchilarga yengilroq mashg‘ulotlar berilib, kuchliroq o‘quvchilarga esa murakkabroq mashqlar tavsiya etiladi (4).

Tabaqalashgan yondashuv motivatsiyani oshirish bilan birga, har bir o‘quvchining jismoniy faolligini maksimal darajada rivojlantirishga xizmat qiladi(6).

- **Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish** – o‘quvchilarning tayyorgarlik jarayonini nazorat qilish uchun sport ilovalari, interaktiv dasturlar va zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish. Sport ilovalari o‘quvchilarning jismoniy faolligini kuzatish, mashg‘ulot jarayonida qilingan harakatlarni tahlil qilish va natijalarni samarali baholash imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar jismoniy mashg‘ulotlarni raqamlashtirish orqali nazorat qilish va ma’lumotlarni qayta ishlash jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi. Shuningdek, aqlli soatlar va fitnes-trekerlar yordamida yurak urish tezligi, energiya sarfi va jismoniy faollik darajasini real vaqt rejimida baholash mumkin.

Zamonaviy texnologiyalarni jismoniy tarbiya mashg‘ulotlariga kiritish o‘quvchilarning qiziqishini oshirish bilan birga, ularning natijalarini aniq monitoring qilish imkoniyatini ham ta’minlaydi.

4. O‘quvchilarning natijalarini baholash va monitoring qilish

O‘quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini samarali baholash uchun quyidagi monitoring usullari qo‘llaniladi:

- **Boshlang‘ich diagnostika** – dastlabki jismoniy tayyorgarlik holatini aniqlash;
- **O‘rta bosqich baholash** – tayyorgarlik jarayonining samaradorligini tekshirish;
- **Yakuniy baholash** – yakuniy natijalarni tahlil qilish va kelgusidagi mashg‘ulotlarni rejalashtirish.

Xulosa. Yuqori sinf o‘quvchilarini “Jismoniy tayyorgarlik darajasi” sport sinovlari me’yorlariga tayyorlash pedagogik jarayonning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayonda ilmiy yondashuv, motivatsiya, individual yondashuv va zamonaviy texnologiyalar muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ri tashkil etilgan mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi, sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan qiziqishi ortadi va ularning jismoniy tayyorgarlik darajasi yuqori bo‘lishiga erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholi jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash tizimini joriy etishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 16-iyundagi PQ–5148-son qarori. Lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholining jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash bo‘yicha sport sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi 2022-yil 15-yanvar, 23-son Qarori. Lex.uz
3. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish. O‘quv qo‘llanma. O‘zDJTI, T.: 2005.
4. Jammatov J., Ro‘zmetov N. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi (Jismoniy qobiliyatlar). O‘quv qo‘llanma. “Barkamol fayz media”, 2020.
5. Matnazarov O‘.L. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: “Lesson Press”, 2022.
6. Salomov R.S.Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Tashkent 2015 y. ITA-PRESS.

VIRTUAL TA’LIM MUHITIDA TALABALAR O‘ZLASHTIRILISHINI JADALLASHTIRISH MEHANIZMLARI

Yuldoshev Jo‘shqinbek Erkaboy o‘g‘li
Urganch innovatsion universiteti Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi dr.joshqinbek@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi zamon ta’lim tizimida virtual ta’lim muhitining ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Ushbu maqolada virtual ta’lim muhitida talabalar bilim o‘zlashtirishini jadallashtirishning samarali mexanizmlari tahlil qilinadi. Interaktiv platformalar, sun’iy intellekt asosida moslashtirilgan ta’lim, gamifikatsiya hamda tahliliy yondashuvlarning ta’lim jarayoniga ijobiy ta’siri ko‘rib chiqiladi. Virtual ta’lim texnologiyalari ta’lim jarayonini individuallashtirish, talabalar faolligini oshirish va ularning mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar orqali ta’lim jarayonini yanada optimallashtirish va individual yondashuv asosida samarali o‘quv muhitini yaratish mumkin. Sun’iy intellekt asosida ta’lim dasturlari va avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari yordamida har bir talabaga mos yondashuv ishlab chiqilishi mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy texnologiyalar yordamida virtual ta’lim muhitini to‘g‘ri tashkil qilish natijasida talabalar bilim olish jarayoni tezlashadi va samaradorligi oshadi.

Аннотация. В современном образовательном процессе значение виртуальной образовательной среды стремительно возрастает. В данной статье рассматриваются эффективные механизмы ускорения усвоения знаний студентами в виртуальной образовательной среде. Анализируются положительные эффекты интерактивных платформ, адаптивного обучения на основе искусственного интеллекта, геймификации и аналитических подходов. Виртуальные образовательные технологии способствуют индивидуализации учебного процесса, повышению активности студентов и развитию их самостоятельных учебных навыков. Кроме того, за счет цифровых технологий можно оптимизировать образовательный процесс и создать эффективную учебную среду с индивидуальным подходом. Исследования показывают, что правильная организация виртуальной образовательной среды с использованием современных технологий значительно ускоряет процесс обучения студентов и повышает его эффективность.

Abstract. The significance of virtual learning environments in modern education is rapidly increasing. This article analyzes effective mechanisms for accelerating students' knowledge acquisition in virtual education settings. The study explores the positive impact of interactive platforms, AI-driven adaptive learning, gamification, and analytical approaches on the educational process. Virtual education technologies enable the personalization of learning, enhance student engagement, and develop independent learning skills. Moreover, digital technologies help optimize educational processes and create a more efficient learning environment through individualized approaches. Research findings indicate that properly structured virtual education using

modern technologies significantly accelerates student learning and improves overall efficiency.

Kalit so‘zlar: Virtual ta’lim, interaktiv platformalar, gamifikatsiya, sun’iy intellekt, o‘quv natijalari, moslashtirilgan ta’lim.

Ключевые слова: Виртуальное обучение, интерактивные платформы, геймификация, искусственный интеллект, результаты обучения, персонализированное обучение.

Keywords: Virtual learning, interactive platforms, gamification, artificial intelligence, learning outcomes, personalized learning.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning ta’lim tizimini rivojlantirish borasidagi islohotlari doirasida raqamli texnologiyalar asosida virtual ta’lim muhitini shakllantirish muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan [Mirziyoyev, Sh. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi." Toshkent, 2022.]. Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, interaktiv platformalar va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida moslashtirilgan ta’lim metodlari ta’lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi [Toshmatov, A. (2021). "Raqamli ta’lim muhitida innovatsion texnologiyalar". Toshkent: Fan va texnologiya.]. Zamonaviy ta’lim metodlarida gamifikatsiya, tahliliy yondashuvlar va adaptiv ta’lim texnologiyalarining qo‘llanilishi talabalar motivatsiyasini oshirish hamda ularning o‘zlashtirish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi [Yunusov, R. "Gamifikatsiya va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni." Buxoro, 2022.].

Interaktiv platformalar **- z**amonaviy virtual ta’lim jarayonida interaktiv platformalar muhim rol o‘ynaydi. Moodle, Google Classroom, Edmodo va Microsoft Teams kabi platformalar orqali o‘quv jarayoni boshqariladi, talabalar bilim olishga yanada qiziqish bildiradi va ta’lim muhitiga moslashadi [Brown, J. (2020). "Interactive Learning Platforms and Student Engagement". Journal of Educational Technology, 45(3), 215-230.]. Ushbu platformalar yordamida o‘qituvchilar dars materiallarini taqdim etish, baholash va fikr-mulohazalar berish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Sun’iy intellekt asosida moslashtirilgan ta’lim **-** sun’iy intellekt (SI) asosida moslashtirilgan ta’lim har bir talabaga individual yondashuvni ta’minlaydi. SI texnologiyalari talabalar bilim darajasini tahlil qilib, ularga mos keluvchi o‘quv materiallarini tavsiya etadi [Xolmirzayev, D. "Sun’iy intellekt asosida ta’lim dasturlarini ishlab chiqish." Toshkent, 2021]. Masalan, Coursera va Duolingo kabi platformalar SI yordamida foydalanuvchilarga mos kurslarni tavsiya qiladi [Anderson, C., & Li, P. (2019). "Artificial Intelligence in Personalized Education". AI in Education Journal, 27(1), 50-67.]. Bu esa ta’lim jarayonini samaraliroq qiladi va har bir talabaning ehtiyojlariga moslashgan o‘quv dasturlarini yaratishga yordam beradi.

Gamifikatsiya **-** ta’lim jarayonida o‘yin elementlarini joriy etish orqali talabalar motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, Kahoot, Quizizz va Classcraft kabi platformalar orqali ta’lim jarayoni interaktiv va qiziqarli shaklda olib boriladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gamifikatsiya qo‘llanilgan kurslarda talabalar faolligi 30-50% ga oshadi [Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). "From Game Design Elements to Gamefulness: Defining Gamification". Proceedings of the

15th International Academic MindTrek Conference.]. O‘yin usulidagi yondashuvlar talabalarning bilim olish jarayoniga yanada faol jalb qilinishini ta’minlaydi.

Tahliliy yondashuvlar **-** o‘quv jarayonini monitoring qilish va takomillashtirishga imkon yaratadi. Big Data va ta’lim analitikasi orqali o‘qituvchilar talabalarning qaysi mavzularda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqlay oladilar va shu asosda ta’lim strategiyalarini ishlab chiqadilar. Masalan, Learning Analytics texnologiyalari yordamida talabalarning o‘quv jarayoni doimiy ravishda baholanadi va ularning muvaffaqiyat darajasi prognoz qilinadi [Siemens, G., & Gasevic, D. (2012). "Learning Analytics and Educational Data Mining". Journal of Learning Analytics, 1(1), 3-17.]. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Multimedia ta'lim vositalaridan foydalanish bilan bog'liq ko‘plab muammolarni hisobga olgan holda, o‘qituvchilar va o‘quv jarayonini tashkil qiluvchilar yangi yechimlarni topish uchun birgalikda ishlashi kerak. Bu ularning bu jarayonni to‘liq tushunishlari kerakligini anglatadi, hamda texnologik tizimlar ta'limni yaxshilaydigan o‘qitish usullari hisoblanadi. O‘qituvchilar onlayn o‘qitishning yaxshi usullariga qaratilgan ta'lim jarayonini to‘g‘ri qabul qilishlari kerak, shuningdek ular ushbu raqamli platformalardan samarali foydalanishlari mumkin.

Shu bilan birga, vazirliklar zamonaviy texnologiyalar yetishmayotgan maktablar uchun moliya va resurslarni ustuvor vazifa qilib qo‘yishlari kerak va yetarli darajada qo‘llab-quvvatlash, raqamli bo‘shliqni yopishga yordam berish va barcha talabalarning texnologiyaga kirishini ta'minlashdan iboratdir. Birgalikda ishlash muhim ahamiyatga ega muammolarni o‘sish imkoniyatiga aylantirish, shu tariqa raqamli ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lishi lozim.[Yuldoshev J va G‘oyibnazarova a “urgent issues in using virtual learning tools to improve the effectiveness of the educational process”. Science and Education in Karakalpakstan. 2024 №4/2]

Metodologiya.Ushbu tadqiqotda virtual ta’lim muhitida talabalar bilim o‘zlashtirishini jadallashtirishga yo‘naltirilgan texnologiyalar va metodlarning samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Tahliliy usul** – ilg‘or tadqiqotlarning tahlili asosida virtual ta’lim samaradorligini oshirish usullarining o‘rganilishi.
- **Eksperimental usul** – talabalar ishtirokida interaktiv platformalar va gamifikatsiya elementlari joriy etilgan holda sinov o‘tkazish.
- **Tajriba usuli** – talabalar va o‘qituvchilar orasida virtual ta’lim samaradorligini baholash bo‘yicha tajribalar o‘tkazish.

Natijalar va muhokama. Mazkur tadqiqotda ta'lim jarayonida virtiual texnologiyalarni qo‘llagan holda ta’lim samaradorligini aniqlash uchun tajriba usuli qo‘llanildi. Tadqiqot Urganch innovatsion universitetida oliy ta’lim muassasalaridan birida o‘tkazilib, unda 120 nafar talaba ishtirok etdi. Tadqiqot ishtirokchilari ikkita guruhga bo‘lindi:

1. **Nazorat guruhi** – an'anaviy ta'lim usullari bilan o‘qigan talabalar.
2. **Tajriba guruhi** – interaktiv vizual vositalar (3D animatsiyalar, infografikalar, virtual laboratoriyalar) orqali ta’lim olgan talabalar.

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interaktiv platformalar va sun’iy intellekt asosida moslashtirilgan ta’lim metodlarining qo‘llanilishi talabalar

bilim olish jarayonini 25-35% ga tezlashtirishi mumkin. Eksperimental guruhda o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida gamifikatsiya elementlarining talabalar motivatsiyasini oshirishga xizmat qilishi aniqlangan. So‘rovnomalar natijalariga ko‘ra, talabalar virtual ta’lim jarayonining moslashuvchanligi va individuallashtirilgan yondashuvi tufayli an’anaviy ta’limga qaraganda ko‘proq qoniqish hosil qilishlarini bildirganlar.

Ko‘rsatkichlar	**Nazorat guruhi (%)**	**Tajriba guruhi (%)**
O‘quv materialini tushunish darajasi	65%	87%
O‘quv jarayonidan qoniqish darajasi	70%	92%
Mustaqil fikrlash qobiliyati	60%	85%
O‘quv materiallarini eslab qolish	68%	90%

Xulosa.Virtual ta’lim muhitida talabalar bilim o‘zlashtirishini jadallashtirish uchun zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish zarur. Interaktiv platformalar, sun’iy intellekt asosida moslashtirilgan ta’lim, gamifikatsiya va tahliliy yondashuvlar talabalarning ta’lim jarayonidagi faolligini oshirib, o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi. Kelajakda virtual ta’lim samaradorligini yanada oshirish uchun yangi texnologiyalar va innovatsion pedagogik metodlarni tatbiq etish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Mirziyoyev, Sh. "Yangi O‘zbekiston strategiyasi." Toshkent, 2022.
2. Toshmatov, A. (2021). "Raqamli ta’lim muhitida innovatsion texnologiyalar". Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Yunusov, R. "Gamifikatsiya va uning ta’lim jarayonidagi o‘rni." Buxoro, 2022.
4. Brown, J. (2020). "Interactive Learning Platforms and Student Engagement". Journal of Educational Technology, 45(3), 215-230.
5. Xolmirzayev, D. "Sun’iy intellekt asosida ta’lim dasturlarini ishlab chiqish." Toshkent, 2021.
6. Anderson, C., & Li, P. (2019). "Artificial Intelligence in Personalized Education". AI in Education Journal, 27(1), 50-67.
7. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). "From Game Design Elements to Gamefulness: Defining Gamification". Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference.
8. Siemens, G., & Gasevic, D. (2012). "Learning Analytics and Educational Data Mining". Journal of Learning Analytics, 1(1), 3-17.
9. Yuldoshev J va G‘oyibnazarova a “URGENT ISSUES IN USING VIRTUAL LEARNING TOOLS TO IMPROVE THE EFFECTIVENESS OF THE EDUCATIONAL PROCESS”. Science and Education in Karakalpakstan. 2024 №4/2

THE EFFECTIVENESS OF VIDEO DEMONSTRATIONS IN FOSTERING CRITICAL THINKING SKILLS AMONG CHILDREN IN PRIMARY EDUCATION

Abdikarimova Fatima Bakhromovna
PhD student, Urgench state university

Abstract. This article discusses how modern video-based tools like cartoons, interactive videos, 360-degree videos, and whiteboard animations can help children develop critical thinking skills. It highlights how these videos foster creativity, problem-solving, and analysis by encouraging discussion, exploration, and prediction.

Key words. critical thinking, imagination, creativity, educational cartoons, interactive videos, 360-degree videos and whiteboard videos

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy video vositalar, jumladan, multfilmlar, interaktiv videolar, 360 daraja videolar va doska animatsiyalarining bolalarda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi vazifalari muhokama qiladi. Shuningdek, ushbu videolar qanday qilib muhokama, izlanish va taxmin qilish orqali ijodkorlik, muammolarni hal qilish va tahlil qilishni rag‘batlantirishi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: tanqidiy fikrlash, tasavvur, ijodkorlik, ta’limiy multfilmlar, interaktiv videolar, 360 daraja videolar va doska videolar.

Аннотация. В этой статье рассматривается, как современные видеосредства, такие как мультфильмы, интерактивные видео, 360-градусные видео и анимации на белой доске, могут помочь детям развивать критическое мышление. Подчеркивается, как эти видеоматериалы способствуют развитию креативности, решению проблем и аналитического мышления, поощряя обсуждение, исследование и предсказания.

Ключевые слова: критическое мышление, воображение, креативность, образовательные мультфильмы, интерактивные видео, 360-градусные видео, видео на белой доске.

In recent decades, great progress has been made in science, especially in the field of technology. People have more ways to connect to the internet and are spending more and more time online. This led to a change in the world of thinking about the development of people. Times are changing so rapidly that people have to accept a huge amount of different information. In this age of intense information flow, people are required to distinguish which information is reliable and which is unreliable. **According to Tenías (2013), the current world demands fostering the habit of being well informed, of expressing one‘s opinions correctly and appropriately, and having, defending and arguing one‘s ideas and opinions as well as being able to understand, analyses and evaluate others‘ views.**

In Uzbekistan, the shift towards fostering critical thinking aligns with national educational reforms aimed at improving the quality of schooling. These reforms underscore the importance of cultivating analytical and problem-solving skills from an early age. However, traditional teaching methods in many classrooms remain focused on rote memorization and passive learning, limiting opportunities for students to engage in higher-order thinking. Uzbekistan’s education system has undergone significant reforms in recent years, including the introduction of innovative teaching

strategies and technologies. As part of these reforms, there is a growing recognition of the importance of integrating multimedia tools like video demonstrations to enhance teaching and learning processes. However, challenges remain in terms of infrastructure, teacher training, and access to high-quality video content. If the times continue to change in this way, one of the most important tasks is to educate the young generation into a generation that can think more strongly and draw correct conclusions from information. The greatest approach to accomplish this is to help kids acquire critical thinking abilities. Developing critical thinking skills in humans is a complex process, and for young children, this process is even more complex. In a circumstance like this, we must use contemporary techniques that will engage today's kids and teach them critical thinking.

One such method is the use of various video demonstrations. Video is being used in a variety of ways to support various pedagogical strategies successfully. By no means a comprehensive list, within just the context of problem-based learning, video clips can be used to present a problem to students to trigger problem-solving; to provide information around the topic; or to present solutions to the problem at the end of the process (Rasi and Poikela, 2016). The use of videos has become so rampant that they are even available through mobile devices. In fact the use of film and videos to complement teachings has been widely promoted back in the 1950s (Marchionini,2003). Videos have the unique ability to keep children's attention for extended periods of time. The videos' makers have crafted them with such precision that the image and music have a distinct harmony, drawing children's attention with their vibrant colors. As such it will be able to generate an influential medium that can be used by teachers to help explain concepts while at the same time able to instruct students with content that provides multiple senses. These would certainly assist teachers in making the explanation of Abstract. concepts and processes easy through the use of visualization that can be provided by videos (Chee, 1995; Casey, 1996). Such videos, in turn, serve as one of the main tools for developing critical thinking in children. Below, let's examine the value of some videos in helping kids develop critical thinking skills.

Almost every child grows up watching various cartoons from a young age. Cartoons help kids understand the world around them, grow emotionally, enhance their speech, develop a worldview, learn how to think critically and much more. Concept cartoons are colourful, animated which are cartoon-style drawings showing different characters discussing everyday situations, are designed to provoke discussion and stimulate thinking (Webb, Williams & Meiring, 2008). Researchers found that concept cartoons help create a discussion environment in the classroom that can reveal student misconceptions (Kabapinar, 2005). Every action in cartoons brings the child closer to the events in society, and children's imagination world is enriched and the ability to analyze such events develops. The idea of thinking in cartoons helps children think creatively and generate innovative ideas. Children learn to process real or fake, fictitious information in their brains by analyzing dialogues in cartoons and forming their own opinions. Additionally, young children learn to predict outcomes by analyzing the scenes in cartoons and coming up with predictions about how they end.

Our common problems in prediction is we do not raise questions about what might happen as the result of a particular situation, how likely our predictions are and how important it is to take into account of all the relevant evidence so as to determine how likely our predictions are (Swartz and Parks, 1994). By the time the cartoon ends, kids have learned how to sum up information.

Interactive videos are another type of video demonstration that fosters critical thinking in kids. A crucial element of the interactive video is that it can become a platform for self-regulating learning environments (Chen, 2012; Delen, 2014; Hartsell& Yuen, 2006). The possibility of controlling the individual speed, the offering of links which help avoiding cognitive overload (Chen, 2012), the possibility to seek or overtake a specific portion of the video and the ability to watch a specific portion again if needed (Zhang et al., 2006) provides a useful self-regulated instructional context where reduced levels of embarrassment or anxiety allow learners to be comfortable enough to learn new content (Pendell et al. 2013). Interactive videos they provide kids with an engaging and simple approach to learn about a variety of subjects. Most significantly, through the different questions posed in the videos, kids learn abilities like guesswork, imagination, and prediction. Inductive questions aid children in understanding a given hypothesis and provide an opportunity to practice prior knowledge. Rhetorical questions that ask pupils to forecast the video‘s next move. These kinds of questions stimulate children’s curiosity, assist them externalize their learning misconceptions, and encourage them to pay more attention to the video so they can independently verify their answers. Gamification is another aspect of interactive video that draws in young children. The fact that the video is based on the game does not allow the children to get bored at all, and they try to move on to the next level. Children learn proper inference techniques by making mistakes when solving puzzles or matching questions in video games.

A sort of video created using sophisticated simultaneous capture equipment is known as a 360-degree video. The spectator can rotate the screen or the viewing device in any direction to investigate the view from that angle because these videos allow for 360-degree exploration. For example, in the video, if the child is walking in the flower garden, the child can look at the flowers from different angles: from above, from below, from behind, and so on. Bal-Gezegin (2014) asserted that video serves as a remedy for students who have limited access to authentic materials and he believes if suitable audio and visual inputs are given to them, it helps them to acquire new knowledge. This “almost authentic experience” at the comfort of students’ place, can lower the students’ affective filter, which is critical in better comprehension. Children can see things that are impossible to view and travel to locations that are not feasible in real life because to this. This serves to further develop children's imagination. They can clearly imagine the problem and give a solution to it.

One very convenient way to explain complex information to children is to show them whiteboard videos. Whiteboard animations can break down complex concepts and present them in a fun way. A "hand" is frequently used to draw on whiteboard animations, which can assist create the captivating sense that a tale is being told in real time. Türkay and Moulton (2016) also found that whiteboard animation is beneficial

for learning in social science lessons in terms of learning and subjective experiences of enjoyment and engagement. Whiteboard animation also helps the teacher deliver long enough learning material to feel shorter and more relevant. This is evidenced from previous research on whiteboard animation by Hamidiyah et al (2021); Kelana & Wardani (2021)which shows that whiteboard animation based on local wisdom can increase students' interest in learning about energy concepts in high school. To interest children and keep them watching, teacher should also think about posing questions or utilizing other strategies.

The integration of video demonstrations, including educational cartoons, interactive videos, 360-degree videos, and whiteboard animations, holds significant promise in fostering critical thinking skills among primary school children. These tools not only capture children's attention but also engage them actively, encouraging creativity, problem-solving, and the ability to analyze and predict outcomes. Videos, with their multisensory appeal, provide an effective means of illustrating Abstract. concepts, promoting an environment of exploration, discussion, and reflection. As the global educational landscape evolves, the importance of cultivating critical thinking in children becomes increasingly vital. In Uzbekistan, with ongoing educational reforms, incorporating such multimedia tools can enhance teaching practices, allowing for a more dynamic and student-centered approach. Nevertheless, challenges such as infrastructure, teacher training, and access to high-quality content must be addressed to fully harness the potential of video demonstrations. Ultimately, when integrated effectively, these video tools can play a key role in shaping the critical thinkers of tomorrow, preparing them to navigate an increasingly complex world.

References

1. Importance of Teaching Critical Thinking in Higher Education and Existing Difficulties According to Teacher´s Views. María-José Bezanilla, Héctor Galindo-Domínguez and Manuel Poblete. REMIE – Multidisciplinary Journal of Educational Research Vol. 11 No. 1 February 2021

2. Assessing the Impact of Educational Video on Student Engagement, Critical Thinking and Learning: The Current State of Play. Michael Carmichael, Abigail-Kate Reid and Jeffrey D. Karpicke. A SAGE White Paper.

3. Assessing the Use of YouTube Videos and Interactive Activities as a Critical Thinking Stimulator for Tertiary Students: An Action Research. Sethela June, Aizan Yaacob, Yeoh Khar Kheng. International Education Studies; Vol. 7, No. 8; 2014 ISSN 1913-9020 E-ISSN 1913-9039

4. Peer learning with concept cartoons enhance critical thinking and performance in secondary school economics. Yin Yin Khoo. Robert N Fitzgerald. Journal of Economics and Economic Education Research 18(1):1-13. 2017

5. Swartz, R.J. and Parks, S (1994). Infusing the Teaching of Critical and Creative Thinking into Content Instruction. CA: Critical Thinking Press & Software.

6. The potential of 360-degree videos for teaching, learning and research. Jorge Reyna. 2th International Technology, Education and Development Conference. March 2018. DOI:10.21125/inted.2018.0247

MUSIQA PEDAGOGIKASI VOSITASIDA TALABALARDA MA’NAVIY-AXLOQIY FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH

Xushnud Ollaberganov
Urganch Ranch texnologiya universiteti Pedagogika fakulteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada musiqa pedagogikasi vositasida talabalar ongida ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish jarayoni tahlil qilinadi. Maqolada musiqa ta’limining inson ruhiyatiga ta’siri, tarbiyaviy ahamiyati, shuningdek, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida ma’naviyatni yuksaltirish imkoniyatlari yoritiladi. Musiqa darslarida tarbiyaviy yondashuv, axloqiy tarbiya va estetik didni rivojlantirish usullari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot davomida musiqaning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati, shuningdek, yoshlar ongiga ijobiy ta’siri bo‘yicha ilmiy-nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Аннотация. В статье анализируется процесс формирования духовно-нравственных качеств в сознании учащихся посредством музыкальной педагогики. В статье рассматривается влияние музыкального образования на психику человека, его воспитательное значение, а также возможности совершенствования духовности на основе национальных и общечеловеческих ценностей. На уроках музыки будут рассмотрены образовательный подход, методы нравственного воспитания и развития эстетического вкуса. В ходе исследования будут проанализированы научные и теоретические подходы к образовательной и воспитательной ценности музыки, а также ее положительному влиянию на сознание молодежи.

Abstract. This article analyzes the process of forming spiritual and moral qualities in the minds of students through music pedagogy. The article highlights the impact of music education on the human psyche, its educational significance, as well as the possibilities of improving spirituality based on national and universal values. The educational approach in music lessons, methods of developing moral education and aesthetic taste are considered. The study analyzes scientific and theoretical approaches to the educational and educational significance of music, as well as its positive impact on the minds of young people.

Kalit so‘zlar: musiqa pedagogikasi, ma’naviyat, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, musiqiy ta’lim, qadriyatlar, tarbiyaviy yondashuv.

Ключевые слова: музыкальная педагогика, духовность, нравственное воспитание, эстетическое воспитание, музыкальное образование, ценности, образовательный подход.

Keywords: music pedagogy, spirituality, moral education, aesthetic education, musical education, values, educational approach.

Kirish. Musiqa inson ma’naviyatining ajralmas qismi bo‘lib, u axloqiy fazilatlarni shakllantirishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Talabalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishda musiqa pedagogikasi alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy musiqa va jahon musiqa merosi yoshlarga axloqiy qadriyatlarni singdirish, estetik didni shakllantirish va ularning ijtimoiy mas’uliyatini oshirishda

muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada musiqa pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari va uning talabalar axloqiy qiyofasiga ta’siri ko‘rib chiqiladi.

Asosiy qism. Musiqa inson ruhiyatiga chuqur ta’sir ko‘rsatadigan san’at turi bo‘lib, u orqali yoshlarning ma’naviy kamoloti va axloqiy fazilatlari shakllanadi. Musiqa tarbiyaning muhim vositasi sifatida inson qalbida ezgulik, mehr-oqibat, vatanparvarlik va insoniylik tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan qaralganda, musiqa ta’limining asosiy maqsadlaridan biri talabalarning shaxsiyati, ichki dunyosi va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishdir. Musiqa pedagogikasida quyidagi tamoyillar asosida ma’naviy-axloqiy tarbiya shakllantiriladi:

Qadriyatlar singdirish – xalq musiqasi, milliy kuy-qo‘shiqlar va mumtoz san’at orqali milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish.

Musiqaning axloqiy ta’siri – klassik va zamonaviy musiqa orqali yoshlarning go‘zallikni his qilish va hayotga estetik yondashuv qobiliyatini oshirish.

Shaxsiy namuna ko‘rsatish – o‘qituvchilar va san’at ustozlari orqali talabalarga namunaviy axloqiy fazilatlarni singdirish.

Ko‘plab ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa ta’limi bilan shug‘ullanuvchi talabalar o‘z tengdoshlariga qaraganda ko‘proq ijtimoiy mas’uliyatni his qiladilar, badiiy didlari rivojlangan bo‘ladi va muomala madaniyatlari yuqori bo‘ladi.

1. Musiqa pedagogikasining ma’naviy-axloqiy tarbiyada tutgan o‘rni

Musiqa pedagogikasi shaxsning ichki dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Musiqiy ta’lim jarayonida talabalar nafaqat ijro mahoratini o‘rganadilar, balki ular orqali milliy va umumbashariy qadriyatlarni his qilishadi. Bu esa ularning ma’naviy kamolotiga xizmat qiladi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, musiqa insonning emotsional holatini boshqarish, uning axloqiy qarashlarini shakllantirish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishda kuchli vosita hisoblanadi. Ayniqsa, xalq musiqasi va klassik asarlar yosh avlodga ezgulik, mehr-oqibat va vatanparvarlik ruhini singdiradi.

2. Talabalarda axloqiy fazilatlarni shakllantirishda musiqiy ta’lim imkoniyatlari

Musiqa darslari jarayonida axloqiy tarbiya berishning samaradorligini oshirish uchun quyidagi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Qadriyatga yo‘naltirilgan yondashuv – talabalarga milliy va umumbashariy qadriyatlarni singdirish orqali ularning ma’naviy dunyosini boyitish.

Integrativ yondashuv – musiqa darslarini boshqa fanlar bilan bog‘lab, ularning axloqiy-tarbiyaviy ta’sirini kuchaytirish.

Emotsional-ta’sirchan yondashuv – musiqa orqali talabalarni ruhiy holatini shakllantirish va ularga ma’naviy ta’sir ko‘rsatish.

Musiqa orqali yoshlarda badiiy did, mas’uliyat hissi, ijtimoiy ong va burch tushunchasi shakllanadi. Ayniqsa, milliy cholg‘ular, an’anaviy kuy-qo‘shiqlar va zamonaviy musiqiy yo‘nalishlar kombinatsiyasi orqali talabalarning musiqaga bo‘lgan qiziqishini oshirish mumkin.

3. Musiqa darslarida estetik tarbiya va uning axloqiy kamolotga ta’siri

Musiqa nafaqat axloqiy tarbiyada, balki estetik tarbiyada ham muhim rol o‘ynaydi. Yaxshi musiqani anglash, unga munosib baho bera olish va ijodiy tafakkurni rivojlantirish talabalarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda muhim omillardir. Estetik tarbiya quyidagi jihatlarni qamrab oladi:

San’atni tushunish va his qilish – talabalar musiqiy asarlarning badiiy va falsafiy mazmunini anglaydi.

Ijodkorlikni rivojlantirish – musiqa orqali shaxsning o‘z ifodasini topishi va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishi qo‘llab-quvvatlanadi.

Axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllantirish – go‘zallikni anglash orqali insonning axloqiy kamoloti mustahkamlanadi. Musiqa ta’limining samaradorligini oshirish uchun quyidagi pedagogik metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

Interaktiv dars usullari – musiqa darslarida bahs-munozaralar, ijodiy muhokamalar va musiqiy spektakllar tashkil etish.

Badiiy-ta’sirchan yondashuv – musiqaning nafaqat texnik jihatlarini, balki uning tarbiyaviy va falsafiy mazmunini tushuntirish.

Jamoaviy ijrochilik – xor va orkestr mashg‘ulotlari orqali talabalar o‘rtasida o‘zaro hurmat, hamkorlik va jamoaviy mas’uliyat tuyg‘ularini rivojlantirish.

Bu metodlar musiqa pedagogikasining talabalarga axloqiy tarbiya berishdagi ta’sirini oshiradi va ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa.Musiqa pedagogikasi yosh avlodning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Musiqa orqali yoshlarda vatanparvarlik, ezgulik, insonparvarlik va badiiy did kabi fazilatlar shakllanadi. Maqolada musiqa ta’limining tarbiyaviy imkoniyatlari yoritilib, uning jamiyatdagi ma’naviy muhitga ijobiy ta’siri ko‘rsatib berildi.Musiqiy pedagogika ta’lim-tarbiya jarayonida samarali qo‘llansa, talabalar yanada mukammal axloqiy fazilatga ega bo‘lishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Axmedova, M. (2019). Musiqa pedagogikasi va tarbiya jarayoni. Toshkent: Fan nashriyoti.

2. Ismoilov, A. (2021). Ma’naviy tarbiya va estetik didni shakllantirishda san’atning o‘rni. Samarqand: Zarafshon nashriyoti.

3. Yo‘ldoshev, B. (2020). Pedagogik innovatsiyalar va musiqa ta’limi. Buxoro: Nasaf nashriyoti.

4. Karimova, S. (2022). Musiqa san’ati va yosh avlod tarbiyasi. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti.

YOSHLAR DEFORMATSIYASINING SOTSIOLOGIK TAHLILI

Reyimboyeva Feruza Odilbekovna
Urganch davlat pedagogika instituti magistranti, reyimboyeva134feruza@gmail.com

Annotatsiya. Yoshlarda deformatsiyaning turli holatlari, ko‘rinishlari, ularni sabablari, qanday kelib chiqish omillari, jamiyat va yoshlarda ro‘y beradigan ta’siri va oqibatlari haqida sotsiologik tahlil

Kalit so‘zlar: deformatsiya, yoshlarda deformatsiya, psixologik madellari, deformatsiya turlari, sotsiologik tahlil.

Аннотация. Социологический анализ различных случаев деформаций у молодежи, их проявлений, их причин, факторов возникновения, последствий и последствий для общества и молодежи.

Ключевые слова: деформация, деформация в юношеском возрасте, психологические модели, типы деформации, социологический анализ.

Abstract. A sociological analysis of the various forms and manifestations of deformity in young people, their causes, factors of origin, and the impact and consequences on society and young people.

Keywords: deformation, deformation in youth, psychological models, types of deformation, sociological analysis.

Yoshlar jamiyatning muhim bir qismi bo‘lib, kelajakdagi yetakchilar, ijodkorlar va innavatorlar kabi katta rol o‘ynaydi. Ular ta’lim, salomatlik, innavatsion texnalogiyalar va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq ko‘plab muammoli vaziyatlar va imkoniyatlarga duch kelishadi. Shulardan biri yoshlarda bo‘ladigan deformatsiya holati tushunchasidir.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida yoshlarda oilaga qadriyatli yondashuvni xosil qilish dolzarb masalalardanbiri hisoblanadi. Zamonaviy ta’lim maktab o‘quvchilarning ijtimoiy ahamiyatga ega oilaga bo‘lgan munosabatini shakillantirish uchun qulay sharoitlarni ta’minlaydi. Maktab o‘quvchilarning qadriyatlarimizga bo‘lgan munosabatlarni muvaffaquyatli tarbiyalashning asosiy sharti- bu tarbiya shakillari, vositalari va usullrining kombinatsiyasi jamlanmasi doirasida amlga oshiriladi. Bizga ma’lumki, tarbiya tushunchasi pedagogikada eng birinchi masalalardan biridir. Bular ikkita tor va keng ma’noda qo‘llaniladi.

Tabiya bu – keng ma’noda ijtimoiy hodisa sifatida, jamiyatni shaxsga bo‘lgan ta’siri sifatida qaraladi. Bunday holatlarda, ta’lim deyarli sotsializatsiya bilan bog‘langan holatda ko‘rib chiqiladi. Cheklangan ma’noda tarbiya o‘quvchi va o‘qituvchilarning pedagogik faoliyat jarayonida ta’lim maqsadlariga yetishish uchun maxsus tashkil etilgan jarayon sifatida qaraladi. I.P. Podlasiy quyidagi ta’rifni aytib o‘tgan: “Tarbiya- shaxsni maqsadli shakillntirish jarayonidir. O‘qituvchilar va o‘quvchilarning maxsus tashkil etilgan boshqarildigan o‘zaro hamkorligi, uning yakuniy maqsadi jamiyat uchun zarur va foydali shaxsni shakillantirishdir. Ta’lim o‘z maqsadi yo‘lida shaxsning uyg‘un rivojlanishini ko‘zda tutadiva pedagogik faoliyat yetakchilari o‘rtasida munosabatlarning insonparvarlik xususiyatlarini nazarda tutadi. [1]

Oilaviy an’ana va qadriyatlarni tarbiyalash – bu oilaviy madaniyatni, axloqiy munosabatlarni tarbiyalash bu oilaning barcha a’zolari kechirimlilik, minnadorchilik, sabr-toqat, ishonch, mehnatsevarlik kabi fazilatlarga ega bo‘lmasdan, shuningdek, “burch” kabi tushunchalarni tushunmasdan shakillantirish va tarbiyalash mumkin emas. Oilada qadriyatlarni tarbiyalash o‘rta makatab o‘quvchilarini oilaviy an’analar bilan tanishtirish, ularning hayotiy tajribasini, oila muhitidagi xulq-atvorining usullari va ma’nolarini unga nisbatan muomalali munosabatni shakillantirishning ijtimoiy-madaniy va pedagogik faoliyati sifatida qaraladi.

N.N. Ushakov oila qadriyat munosabatini shakillnatirish samaradorligini aniqlash imkonini quydagi mezonlarni aytib o‘tgan. Bu mezonlar yoshlarda deformatsiya jarayonini oldini olishga yordam beruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.[2]

1. Qadriyatlarni bilish. Natija- qiymat yo‘nalishini shakillantirsh iqtidori. Agar o‘smirlar konsepsiya mazmunini, aloqlarni bilishni, uning mazmnini va hajmini shuningdek, amliy muammolarini hal qilishda kontsepsiyadan foydalanishni to‘liq o‘rganib olsa, qadriyatlar tushunchasi to‘liq o‘rganilgan hisoblanadi.

2. Qadriyatlarni farqlash- o‘smirlarning qiymat tanlash qobiliyati.

3. Qadriyat yo‘nalishining samaradorligi.

Yoshlar deformatsiyasi (lotincha: *deformatio*-buzilish), shuningdek, yoshlarda uchraydigan deformatsiya holati deb ham yuritiladi. Bu esa turli xil ekologik, shaxsiy va ijtimoiy omillar tufayli yoshlarda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xulq-atvor va psixologik o‘zgarishlarni anglatadi. Sotsiologik nuqtai nazardan, yoshlar deformatsiyasi individual va shaxsiy rivojlanish va kengroq ijtimoiy muhit o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sir sifatida qaraladi. Tadqiqotchilar madaniy qadriyatlar, ijtimoiy me’yorlar va institutsional tuzilmalar yoshlarning xulq-atvor va psixologik modellarini qanday shakillantirishi mumkinligini o‘rganadilar va bu esa og‘ish yoki buzilish shakllariga olib keladi. Bugungi kunda yoshlar orasida deformatsiya holatlari ko‘plab jihatlardan o‘rganilishi mumkin, jumladan, ruhiy holat, jismoniy salomatlik, ijtimoiy muammolar va texnologiyadan foydalanish Quyida turli manbaalar va tadqiqotlarga asoslangan ba’zi satatistik ma’lumotlar keltiriladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, 10 yoshadan 19 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar va bolalar orasida skolioz holatlari 2-3% ni tashkil qiladi. AQSh Sog‘liqni saqlash departamenti ma’lumotlariga ko‘ra, yosh o‘quvchilarning 60% dan ko‘prog‘i noto‘g‘ri o‘tirish holatidan aziyat tortadi, bu esa mushak va suyaklar rivojlanishida va o‘sishida muammolarga olib keladi. O‘g‘ir yuk ko‘tarish va jismoniy mashg‘ulotlar ham shular jumlasidandir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra yoshlarning 80% dan ko‘prog‘i jismoniy faoliyat bilan shug‘ullanmaydi, bu esa suyak va mushaklar rivojlanishida muammolarga olib kelishi mumkin.[4]

AQSh Milliy sog‘liqni saqlash institutlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va izlanishlarga ko‘ra 8-18 yoshdagi bolalar va o‘smirlar kuniga o‘rtacha hisobda 7 soat ekran oldida o‘tkazadi. Bu holat ko‘z kasalliklari, uyqu buzilishlari va qad-qomatni noto‘g‘ri yo‘nalishda rivojlanishiga va o‘sishiga olib keladi. Yevropa bo‘ylab o‘tkazilgan tadqiqot va izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning 60%i kuniga kamida 2 soat ijtimoiy tarmoqlarda vaqt o‘tkazadi, bu esa ruhiy taraflama zo‘riqish va

salomatlikda muammolarni kuchaytiradi. JSST tavsiyalariga ko‘ra haftada kamida 150 daqiqa o‘rtacha jismoniy faoliyat bilan shug‘ullanishlari kerak. Ammo tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, dunyo bo‘ylab yoshlarning faqatgina 20-30% i ushbu tavsiyalarga amal qiladi. Ushbu statistik ma’lumotlar yoshlar orasida deformatsiya holatlari shuningdek ularni sabablarini tushunishga yordam beradi. [5][6]

“Yoshlar deformatsiyasining sotsiologik tahlili” mavzusi yoshlarning ijtimoiy hayotda o‘rni, ularning qiyinchiliklari va deformatsiyalashuv jarayonlarini o‘rganishga qaratilgan. Maqolada yoshlar orasida yuz berayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar, o‘ziga xos muammolar va deformatsiya jarayonlarini aniqlashga harakat qilinadi. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishdagi o‘zgarishlar, shuningdek, ularning hayotga qarashlaridagi nosozliklar, o‘z-o‘zini anglashdagi chalkashliklar va umuman jamiyatga moslashishdagi qiyinchiliklar batafsil tahlil qilinadi.[7]

Maqolada deformatsiya jarayonlari yoshlarning ichki dunyosini va ijtimoiy muhit bilan bog‘liq o‘zgarishlarni o‘rganib chiqib, ular jiddiy ijtimoiy, psixologik va madaniy omillar bilan bog‘liq ekanligi ta'kidlanadi. Yoshlar deformatsiyasi, o‘z navbatida, jamiyatning barcha qatlamlarining o‘zaro aloqalariga ta'sir ko‘rsatadi va bu jarayonlarni to‘g‘ri boshqarish jamiyatning kelajagi uchun muhimdir.Xulosa qilib aytganda, yoshlar deformatsiyasining sotsiologik tahlili jamiyatning mavjud ijtimoiy tuzilmalari, iqtisodiy va madaniy sharoitlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Yoshlarni ijtimoiy hayotga faol jalb qilish, ularning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy me'yorlar bilan moslashtirish jarayonlarini takomillashtirish zarurati oshib bormoqda.

FOYDALANLIGAN ADABIYOTLAR

1. Aliqoriev N.S. va boshqalar. Umumiy sotsiologiya T., ToshDU. 1999 y.
2. Bekmuradov M. Sotsiologiya asoslari T., «Fan» 1994 y.
3. Bekmuradov M. Ota-Mirzaev O. Aliqoriev N. va boshqalar. Sotsiologiya T., 2000
4. “ Sotsiologiya “ o‘quv qo‘llanma. M.B. Bekmuradov. Toshkent -2002. 111-113-b.
5. “ Sotsiologiya” fanidan ma‘ruzalar matni. Dotsent A.Altajonova, S. Qutlimuratov.
6. Yuz.uz
7. XS.uz

BUGUNGI KUN TALABALARIDA YETAKCHILIK QOBILIYATINI SHARQONA MENTALITETI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK AHAMIYATI

Rustamboyeva Gulyora Ortiq qizi
Urganch davlat pedagogika instituti magistranti, rustamboyevnagulyora@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola yetakchilik qobiliyatini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy, psixologik-pedagogik qarashlar, sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asaridagi rahbarlik haqidagi fikrlar, bundan tashqari, liderlik va rahbarlik o‘rtasidagi farqlar yuzasidan mulohazalar bayonidan iborat.

Kalit so‘zlar: Liderlik qobiliyati, rahbarlik xususiyati, pedagogik-psixologik, ijtimoiylik, superlider.

Abstract. This article is a statement of social, psychological and pedagogical views that influence the development of leadership skills, thoughts on leadership in the work of the Eastern thinker Abu Nasr Al-Farabi, "The City of Virtuous People", as well as reflections on the differences between leadership and management.

Key words: Leadership skills, leadership qualities, pedagogical-psychological, sociality, superleader.

Аннотация. Данная статья состоит из изложения социальных, психолого-педагогических взглядов, влияющих на развитие лидерских качеств, размышлений о лидерстве в произведении «Город добродетельных людей» одного из восточных мыслителей Абу Насра Фараби, а также комментариев о различиях между лидерством и лидерством.

Ключевые слова: Лидерские способности, характеристика лидерства, педагогико-психологические, социальные, суперлидер.

Birovning fazilatiga baho berish uchun,
shu fazilatning juda bo‘lmaganida bir miqdoriga ega bo‘lish kerak.
Vilyam Shekspir

Respublikamiz ta’lim tizimida hozirgi kunda yosh avlodni aqliy, jismoniy va ma’naviy kamolotga yetkazishda tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bugungi kun talabalarining shaxsiy xususiyatlari, shaxs sifatida shakllanishi zamon bilan hamnafas holda rivojlanib, o‘zgarib bormoqda. Mustaqil fikrga egalik, dunyoqarashning kengligi, har doim oldingi marralarda yetakchilik qilish, ijtimoiylashuv yoshlar, xususan, o‘quvchilar, talabalarda o‘z aksini ko‘rsatib kelmoqda.

Shu o‘rinda lider - bu yetakchilik qobiliyati bilan tug‘ilgan shaxs, lekin bu u, albatta, lider bo‘ladi degani emas. Buning uchun u madaniy qadriyatlarni egallashi, ma’lum bir axborot darajasiga ega bo‘lishi, o‘zi uchun mavjud imkoniyatlarni amalga oshira olishi kerak. Yetakchilik har doim guruh hodisasidir.

Liderlar potentsial ravishda har bir guruhda mavjud. Guruhda bitta yoki bir nechta lider bo‘lishi mumkin, ularning har biri o‘z faoliyat sohasiga ega. Shu bilan birga, qobiliyatlari bir vaqtning o‘zida bir nechta sohalarda namoyon bo‘ladigan universal liderlar mavjud. Shu bilan birga, shuni ta’kidlash kerakki, guruh hayotida

boshqa shaxs liderlik funksiyalarini o‘z zimmasiga olishi mumkin bo‘lgan vaziyatlar paydo bo‘lishi mumkin va bu muayyan vaziyatda yuzaga keladigan holatlar bilan bog‘liq bo‘ladi.

Yoshlarni ijtimoiy, shaxsiy ahamiyatga ega munosabatlarga kiritish tamoyiliga ko‘ra, har bir inson hayotda u yoki bu rolni o‘ynaydi, bu unga muayyan xatti-harakatlar tizimini bajarishni buyuradi.

“Yetakchi-izdosh” munosabatlariga yoshlarni kiritish muayyan ijtimoiy rollarni o‘zlashtirish orqali amalga oshiriladi va ularda yetakchi funksiyalarini bajarish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Lider va tashkilotchi yoshlarni ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash printsiplarini amalga oshirish ushbu jarayonni tashkil etish uchun quyidagi talablarni qo‘yadi:

• yosh shaxs kiritilgan ijtimoiy munosabatlar darajasining uning yoshi va individual xususiyatlari va imkoniyatlariga muvofiqligi;

• yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish uchun real imkoniyatlar yaratish, liderlik va tashkiliy faoliyatning tanlovi, turi va mazmuni, uni amalga oshirish vositalarini tanlash erkinligi kafolatini ta’minlash;

• ularning yetakchilik salohiyatini ro‘yobga chiqarishga hissa qo‘shadigan turli ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan tadbirlarga jalb etish;

• yoshlarning ijtimoiy muhit bilan aloqalarini shakllantirish va ularni kundalik amaliy faoliyatda amalga oshirish imkoniyatlari.

Mutafakkir ajdodlarimiz ta’limotlarida, xalq og‘zaki ijodiy mahsullarida adolatli va adolatsiz munosabatlarning yuzaga kelishi rahbar shaxsiga bog‘liqligi haqida fikrlar bildirilgan.

Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida aholining ma’naviy va psixologik jihatdan boshqarilishida fozil odamlar shahrida shahar aholisining stratometrik xususiyatlarga ko‘ra tabaqalanishi uqtiriladi. Bunda jamiyat a’zolarining o‘zini-o‘zi boshqarilishiga olib kelish lozim.

Bundan tashqari, bir vaqtning o‘zida har bir a’zo o‘z psixologik-ma’naviy kamolotiga ega bo‘lishi kerak. “Shularning hammasini ikki yo‘l bilan olish mumkin. Birinchidan, yuqoridagi hodisalar aslida qanday mavjud bo‘lsa, inson qalbiga o‘shanday o‘rnashib qolsa, boshqalarning ko‘nglida bu bilimlar qiyosiy yohud taqlid asosida vujudga keladi. Ba’zi odamlar o‘sha narsalarni o‘zlari his etishlari tufayli ko‘ngillarida shu bilimlar vujudga keladi”.

Forobiy, shuningdek, insonlarning yaxshi hayot kechirishi boshqaruvchi, rahbar shaxsiga bog‘liq ekanligi, uning turli fazilatlari, bu borada unga yordam berishni uqtiradi. Uning fikricha, bu o‘rinda rahbar shaxsi uning gumanistik insonparvarlik xususiyatlari muhimdir: “Kimki birovni baxt va saodatga erishtirish uchun zarur bo‘lgan ish-harakatlarga ruhlantira olish qobiliyatiga ega bo‘lmasa va bu ish-harakatni bajara olishga qudratsiz bo‘lsa, bunday odam sira ham rahbar bo‘la olmaydi. Ular bu yo‘l-yo‘riqlarni o‘tmishda yashab o‘tgan boshliqlaridan o‘rganadilar, lekin shu bilan birga, rahbar kelajak o‘tmishdagi rasm-rusm, yo‘l-yo‘riqlarni isloh qilishni lozim topsa, turmush sharoiti taqozosiga qarab o‘zgartiradi. Shuningdek, yomon odatlarni o‘zida ifodalovchi o‘tmishni ham o‘zgartirmog‘i kerak. Aks holda, o‘tmishning

talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday o‘zgarish va o‘sish ham bo‘lmaydi”.

Forobiyning lider shaxs rahbar bo‘lishi haqidagi fikrlari amerikaliklar fikri bilan o‘xshash hisoblanadi. Xususan, psixologik manbalarga ko‘ra amerikaliklar rahbarni lider fenomeni doirasida tasavvur qilishadi va uning vazifasi – guruhning samarali faoliyat ko‘rsatish yo‘llarini belgilab berishdir, deb hisoblashadi. Shu bilan birga amerikaliklarda ijtimoiy-psixologik nuqtai-nazardan ahamiyatli bo‘lgan “Superlider” tushunchasi bo‘lib, superlider o‘z xodimlarining aksariyatini liderlarga, aynan, jamoa o‘zi mustaqil ishlaydigan, bevosita tepasida turib boshqaradigan insonga muhtoj bo‘lmagan yetakchi xodimlarga aylantirsagina bu maqomga munosib ko‘riladi. Aynan, lider shaxsni superliderlik maqomi bo‘yicha amerikalik tadqiqotchilar Mans va Simslar o‘z ilmiy fikrlarini bayon etishgan.

Demak, samarali boshqaruv – aslida ijtimoiy ta’sirni amalga oshirishning eng namoyishkorona ko‘rinishidir. Shu ma’noda, Liderlik – avval shaxsning o‘ziga, so‘ngra o‘zgalarga bera oladigan ta’sirida ko‘rinadigan fazilatlar majmuidir, deb ta’riflanadi.

Yuqoridagi fikrlarga inobatga olinadigan bo‘lsa, lider shaxsga har doim rahbardek qaralishi kerakligi tushuniladi. Ammo, bugungi kunda shunday fikrlar borki, bunday qarashni rad etadi. Ya’ni har qanday lider ham rahbar bo‘lolmaydi yoki har qanday rahbar ham liderlik qobiliyatiga ega bo‘lmasligi mumkin degan qarashlar bayon etiladi. Bu ikki tushuncha o‘rtasidagi farqni quyida ko‘rib chiqish mumkin:

Liderlik	Rahbarlik
Bir umumiy maqsadga erishish yo'lida ruhlantirish va motivatsiya berish orqali odamlarga yo'l ko'rsatish;	Bir umumiy maqsadga erishish yo'lida mavjud jarayonni boshqarish, muhim qarorlar qabul qilish, resurslarni taqsimlash va aniq va tartibli reja asosida ish olib borish;
Liderlikda ko'proq ijtimoiy va emotsionallikka e'tibor beriladi;	Rahbarlikda aniq rejali tuzilmaga va qat'iy nazoratga e'tibor beriladi;
Liderlik jamoalarida bir nechta yetakchilik qobiliyatiga ega shaxslar bo'lishi va liderlik qilishi mumkin;	Rahbarlik faoliyatida asosan bitta shaxsning boshqaruvchiligi ko'zga tashlanadi va faqat uning yetakchi yordamchilari bo'lishi mumkin;
Liderlar o'zgaruvchan sharoitlarga moslashishga tayyor bo'lishadi va yangiliklarga ochiqlik ko'rsatadilar;	Rahbarlar esa ko'proq barqaror tuzilmalarga tayanib, an'anaviy usullar bilan ish olib borishga moyil bo'lishadi;
Liderlik bu shaxsiy qobiliyat.	Rahbarlik esa malaka va tajriba asosida shakllandigan xususiyat.

Xulosa sifatida, yetakchilik qobiliyatining ijtimoiy, pedagogik va psixologik ahamiyati bugungi kunimiz uchun juda ahamiyatli va talabalarda bu qobiliyatni rivojlantirishda, eng avvalo, liderlik va rahbarlik tushunchalari o‘rtasidagi farqlarni aniqlashtirib olish va sharq mutafakkirlarining pedagogik fikrlarini tadqiq qilgan holda o‘tgan davrlarda liderlik qobiliyati qanday ahamiyatga ega bo‘lganligini o‘rganib chiqish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - T.: “A. Qodiriy nomidagi xalq merosi”, 1993. 186.
2. Karimova V. M., Hayitov O. E., Akromova F. A., Lutfullayeva N. X. Psixologiya, darslik, – Toshkent – 2007. 224.
3. Yuldashev E. S. Yunogogika, darslik, – Qo‘qon – 2024. 223.
4. www.ziyonet.uz

IQTIDORLI YOSHLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Xo‘jayeva Nozima Qadamboyevna
Urganch davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola, aynan, iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlashning pedagogik shart-sharoitlarining ahamiyati va bugungi kun o‘quvchilarining iqtidorlilik qobiliyatlarini anqlash usullari, bu soha bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlardan xulosalar va fikrlar baayonidan iborat.

Kalit so‘zlar: Qobiliyat, intellektual salohiyat, individual yondashuv, iqtidor, akademik qobiliyat, ijodiy qobiliyat, differensiallik, kreativlik.

Abstract. This article is a summary of the importance of pedagogical conditions for supporting gifted students and methods for identifying the gifted abilities of today's students, as well as conclusions and thoughts from research conducted in this area.

Key words: Ability, intellectual potential, individual approach, talent, academic ability, creative ability, differentiation, creativity.

Аннотация. Данная статья состоит из описания значения педагогических условий поддержки одаренных учащихся и методов выявления одаренных способностей современных школьников, выводов и мнений из исследований, проводимых в этой области.

Ключевые слова: Способности, интеллектуальный потенциал, индивидуальный подход, талант, академические способности, творческие способности, дифференцированность, креативность.

Iste’dodli odamga - dag‘allik,
qobiliyatsizga - mansab yarashmaydi.
Juvayniy

Hozirgi rivojlanib borayotgan bir davrda jahon andozalariga mos raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ta’lim-tarbiya sohasi oldiga fan-texnika va texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlaridan keng foydalanish orqali mustaqil fikrlovchi, ijodkor, milliy mafkuramizga sadoqatli, dunyoqarashi keng intellektual salohiyatli barkamol shaxsni shakllantirish talabini qo‘ymoqda.

Muayyan sohada iqtidorga ega shaxslarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlash maqsadida pedagogik, psixologik, ijtimoiy shart-sharoitlar yaratish, ularning ma’naviy-ruhiy kamoloti, aqliy-ijodiy iqtidorini oshirishning zarur me’yoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4306-son qarori aynan iqtidorli bolalar bilan ishlashni takomillashtirishni nazarda tutadi.

Iqtidorli o‘quvchilar – bu o‘z yoshidan kelib chiqib, o‘zlariga xos qobiliyat va iste’dodlarga ega bo‘lgan shaxslar. Bundan tashqari, ular o‘zida maxsus qobiliyat, ijodiy fikrlash va o‘z maqsadlariga erishish uchun yuqori motivatsiyaga ega hisoblanadi. Ular ko‘pincha o‘qituvchilardan alohida e’tibor va yondashuvni talab qiladi. Iqtidorli o‘quvchilar bilan samarali ishlash uchun pedagogik metodlar va ijtimoiy shakllarni to‘g‘ri tanlash muhimdir. Ularning iqtidorini rivojlantirish va

qo‘llab-quvvatlash jamiyatning kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Iqtidorli yoshlar bilan ishlashda to‘g‘ri yondashuv ularning individual xususiyatlarini inobatga olishni talab etadi. Har bir iqtidorli shaxs o‘ziga xos qobiliyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga ega. Ularni aniqlash va rivojlantirish jarayonida tarbiyachilar, o‘qituvchilar va ota-onalarning roli juda muhimdir. N. Ojegovning lug‘atida iste’dod “tabiat tomonidan berilgan maxsus qobiliyat”, deb ta’riflanadi. Shuning uchun, ota-onalar, psixologlar va o‘qituvchilar bolaning iqtidorini rivojlantirishga e’tibor berishlari kerak. Albatta, iqtidorli yoshlarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha maxsus shart-sharoitlar mavjud bo‘lishi lozim:

Iqtidorli o‘quvchilarning qobiliyatini yuzaga chiqarish uchun individual yondashuv asosida har bir shaxsning individual xususiyatlarini hisobga olish kerak. Ularning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun shaxsiy reja tuzish zarur.

Keyingi jarayonda innovatsion ta’lim usullari, zamonaviy texnologiyalar va pedagogik metodlardan foydalanish iqtidorli yoshlarni jalb etadi. Masalan, interaktiv darslar, loyihalar orqali ta’lim berish va gamifikatsiya usullari samarali hisoblanadi.

Bundan tashqari, o‘qituvchilar o‘z talabalari uchun motivatsiya manbayi bo‘lishi kerak. Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga qarab, stipendiyalar, mukofotlar yoki boshqa rag‘batlantiruvchi mexanizmlar yordamida iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash mumkin. Iqtidorli yoshlarni bir-biriga munosabatlarni shakllantirish, ularning fikr almashishini ta’minlash hamda tajriba almashishi uchun turli xil tarmoq dasturlarini yaratish, ota-onalar ham iqtidorli yoshlarning rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Ularning psixologik qo‘llab-quvvatlashi, qiziqishlarini yengillashtirishi va ularning faoliyatini rag‘batlantirishi va o‘qituvchilar iqtidorli yoshlarning psixologik holatini tushunishi lozim. Ularni stressdan himoya qilish va sog‘lom psixologik muhit yaratishga e’tibor berilishi kerak.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, bugungi kun o‘quvchilarida iqtidorlilik qobiliyatini rivojlantirishga yordam beruvchi quyidagi ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarni klaster shaklida belgilab olish mumkin:

Shu o‘rinda savol tug‘iladi, o‘quvchilarning iqtidorlilik qobiliyatini qanday yo‘llar orqali aniqlash mumkin? Bunda quyidagicha usullardan foydalansa bo‘ladi:

a) o‘quvchilar va ularning ota-onalari o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish;
b) o‘quvchilarning qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan turli topshiriqlardan iborat psixodiagnostik testlar, treninglar o‘tkazish;
c) o‘quvchining oilaviy, ijtimoiy holatini o‘rganish;
d) o‘quvchilarning ota-onalari bilan muntazam ravishda hamkorlik olib boorish;
e) o‘quvchilarni turli xil fan olimpiadalariga, musobaqalarga, kreativ, ilmiy loyihalarga va ijtimoiy tadbirlarga jalb etish.

Bundan tashqari, rossiyalik olim V. Yurkevich iqtidorning 3 ta asosiy turini ajratadi va bularni maktablarda hisobga olinishi kerak deb hisoblaydi:

1) akademik qobiliyat – o‘qish, ilmiy faoliyat uchun aniq ko‘rinib turgan qobiliyat;
2) intellektual qobiliyat – dallilarni tahlil qilib, qiyoslab fikrlash qobiliyati;
3) ijodiy qobiliyat – biron bir san’at, she’riyat yoki nosandart fikrlash qobiliyati.

Olimning fikriga ko‘ra, iqtidrli bolalarni bilishga qiziqish birlashtiradi, ular bilimga chanqoq va o‘z aqliy mehnatlaridan qoniqadi. Iqtidorning boshqa belgilari, ya’ni kattalar bilan munosabatga kirishish, yuqori hissiyotlilik, yumor qila olish, o‘zgacha nutqqa ega bo‘lish kabilarni sanab o‘tadi. O‘zbekistonda esa, aynan, bu soha bo‘yicha, ya’ni iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash xususiyatlari yuzasidan Z. Narimbetova tadqiqot olib brogan. U, asosan, iqtidorli bolalarni o‘qitishda, asosan, o‘qituvchi mahoratiga e’tibor qaratgan.

Iqtidorli bola – bu tabiatning ajoyib mo‘jizasi. Bu kabi bolalarni ota-onalar, o‘qituvchilar va ijtimoiy muhitning psixologik-pedagogik, ma’naviy-ma’rifiy qo‘llab-quvvatlashi, ularga bo‘lgan ishonchi, aynan, ulardagi mavjud iqtidorlilik qobiliyatini yanada rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa sifatida, iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash nafaqat ta’lim tizimining vazifasi balki butun jamiyatning mas’uliyatidir. Ularning qobiliyatlarini rivojlantirish va ularga imkoniyat yaratish orqali biz kelajak avlodni yanada kuchaytiramiz. Pedagogik shart-sharoitlar bu jarayonni yanada samarali qilishda muhim rol o‘ynaydi va har bir mutaxassis ushbu masalaga jiddiy yondoshishi lozimdir.

Bunday iqtidorlilarni tarbiyalagan holda biz ilm-fan, san’at va boshqa sohalarda yangi yutuqlarga erisha olamiz hamda jamiyatimizni yanada ilg‘or qilib shakllantiramiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davletshin M. G. Qobiliyat va uning diagnostikasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1997.
2. X. Beknazarova. “Iqtidorli yoshlar ta`limi differensial ta’limning asosiy yo‘nalishi sifatida” Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, vol. 3, no. 5, 2023, pp. 1150-1153.
3. S. Allayarova, M. Norbutayeva. “Iqtidorli bolalarni o‘qitishning pedagogik xususiyatlari” Academic research in Educational Sciences. May, 2024, pp. 265.
4. Z. Narimbetova “Maktabda iqtidorli bolalar bilan ishlash xususiyatlari” Экономики и социум, 2021, ст. 922.
5. https://diss.natlib.uz/
6. www.ziyonet.uz

ABU NASR FAROBIYNING PEDAGOGIK QARASHLARI: TA’LIM, TARBIYA VA AXLOQ

Yuldashova Zilola Odilbekovna
Urganch Davlat pedagogika instituti magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk alloma Abu Nasr al-Farobiyning pedagogik qarashlari, xususan, ta’lim, tarbiya va axloq masalalariga oid fikrlari tahlil qilinadi. Farobiyning ilmga, ma’rifatga va komil inson tarbiyasiga bergan e’tibori uning falsafiy hamda pedagogik merosining asosiy tamoyillaridan biridir. Maqolada olimning inson kamolotiga yo‘naltirilgan g‘oyalari, fazilatli jamiyat konsepsiyasi va axloqiy tarbiya borasidagi ta’limotining dolzarbligi yoritiladi. Shuningdek, uning ta’lim va tarbiyaga doir qarashlari bugungi pedagogika nazariyasi va amaliyoti bilan solishtirilib, hozirgi ta’lim tizimi uchun ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Farobiy, pedagogika, ta’lim, tarbiya, axloq, komil inson, fazilatli jamiyat, falsafa, ma’rifat.

Abstract. This article analyzes the pedagogical views of the great scholar Abu Nasr al-Farabi, in particular, his views on education, upbringing and moral issues. Farabi’s attention to knowledge, enlightenment and perfect human education is one of the main principles of his philosophical and pedagogical heritage. The article highlights the relevance of the scientist’s ideas on human perfection, the concept of a virtuous society, and his teaching on moral education. Also, his views on education and upbringing are compared with today’s theory and practice of pedagogy, and their importance for the current education system is revealed.

Key words: Farabi, pedagogy, education, training, morality, perfect person, virtuous society, philosophy, enlightenment.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические взгляды великого учёного Абу Насра аль-Фараби, в частности, его взгляды на вопросы образования, воспитания и этики. Внимание Фараби к знаниям, просвещению и совершенному человеческому образованию является одним из основных принципов его философско-педагогического наследия. В статье подчеркивается актуальность идей ученого о совершенствовании человека, концепции добродетельного общества, его учения о нравственном воспитании. Также его взгляды на образование и обучение сопоставляются с современной теорией и практикой педагогики и раскрывается их значение для современной системы образования.

Ключевые слова: Фараби, педагогика, образование, воспитание, мораль, совершенный человек, добродетельное общество, философия, просвещение.

Abu Nasr al-Farobiy – IX-X asrlarning buyuk mutafakkiri, faylasufi va pedagogi bo‘lib, u o‘zining ilmiy merosi bilan Sharq va G‘arb falsafasi hamda pedagogikasiga katta ta’sir ko‘rsatgan. U "Ikkinchi muallim" (Aristoteldan keyingi eng buyuk olim) sifatida tanilgan bo‘lib, falsafa, mantiq, axloq va pedagogika sohalarida muhim asarlar yaratgan. Uning ta’lim va tarbiya haqidagi qarashlari jamiyatni komil insonlar yordamida rivojlantirish g‘oyasiga asoslangan. Farobiyning pedagogik qarashlari zamonaviy ta’lim tizimi uchun ham dolzarb bo‘lib, uning ilgari surgan g‘oyalari

bugungi kun pedagogikasida ham qo‘llanilmoqda. Ushbu maqolada Farobiyning ta’lim, tarbiya va axloq haqidagi qarashlari tahlil qilinib, ularning bugungi pedagogika nazariyasi va amaliyoti bilan bog‘liqligi o‘rganiladi.[1]

Farobiy ta’limni inson hayoti va jamiyat taraqqiyoti uchun muhim vosita deb bilgan. Uning ta’lim haqidagi qarashlari bugungi kun pedagogikasi uchun ham dolzarb bo‘lib, zamonaviy ta’lim tizimida ham qo‘llanilmoqda.[2]

Farobiyning tarbiya haqidagi qarashlari

Farobiyning tarbiya haqidagi qarashlari uning inson kamoloti haqidagi umumiy qarashlari bilan uzviy bog‘liq. U tarbiyani insonning yaxshi fazilatlarni egallashi va jamiyatda komil inson sifatida shakllanishi jarayoni deb biladi. Tarbiya jarayonida quyidagi omillarga alohida e’tibor berish kerak:

1. Axloqiy tarbiya – Farobiy inson axloqiy jihatdan yetuk bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, axloqiy tarbiya nafaqat oilada, balki jamiyat va ta’lim muassasalarida ham shakllanishi lozim.

2. Amaliy tarbiya – Tarbiya faqat nazariy bilimlardan iborat bo‘lmay, balki inson o‘z hayotida bu bilimlarni qo‘llay bilishi ham muhimdir. U har bir inson o‘z bilimini jamiyat manfaatiga yo‘naltirishi kerak deb hisoblaydi.[3]

3. Insonning ichki dunyosi va tarbiya – Farobiy insonning axloqiy yetukligi uning ichki dunyosiga bog‘liq ekanini ta’kidlaydi. Uning fikricha, inson o‘z nafsini yenga olishi, yomon illatlardan qochishi va ezgu ishlar bilan shug‘ullanishi kerak.

Uning tarbiya haqidagi qarashlari hozirgi zamon pedagogikasi uchun ham dolzarb bo‘lib, bugungi tarbiya jarayonida ham axloqiy tarbiyaning muhimligi ta’kidlanmoqda.[4]

Farobiyning axloq haqidagi qarashlari

Farobiyning axloq haqidagi ta’limoti insonning fazilatli bo‘lishi va jamiyatda ezgu ishlar bilan shug‘ullanishini nazarda tutadi. Uning axloqiy qarashlari quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Fazilatli inson g‘oyasi – Farobiy insonni fazilatli bo‘lishga chaqiradi. Unga ko‘ra, fazilatli inson faqat o‘z manfaatini emas, balki butun jamiyat manfaatini o‘ylashi kerak.

2. Yaxshi va yomon axloq – U inson axloqining ikki turini ajratadi: yaxshi va yomon axloq. Yaxshi axloq insonni komillikka yetaklaydi, yomon axloq esa insonni tubanlikka olib boradi.

3. Adolat va axloqiy yetuklik – Farobiy adolatli inson va adolatli jamiyat bo‘lishi uchun axloqiy tarbiya muhim ekanini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, inson o‘z fazilatlarini rivojlantirib, adolatli bo‘lishga intilishi kerak. Farobiyning axloq haqidagi qarashlari hozirgi zamon etikasi va pedagogikasida ham muhim o‘rin tutadi.

Farobiyning pedagogik qarashlari bugungi kun ta’lim va tarbiya tizimi uchun ham muhim ahamiyatga ega. U ta’limni inson kamolotiga yetaklovchi eng muhim vosita deb bilgan va tarbiyani axloqiy yetuklik bilan bog‘lagan. Uning ta’lim, tarbiya va axloq haqidagi qarashlari bugungi pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Farobiyning fikrlari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim va tarbiya faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki insonning axloqiy jihatdan ham

mukammallikka erishishiga xizmat qilishi kerak. Shu sababli, uning ta’lim va tarbiya haqidagi g‘oyalari hozirgi zamon ta’lim tizimida ham qo‘llanilishi lozim.[5]

Farobiyning pedagogik qarashlarining zamonaviy ta’lim bilan bog‘liqligi

Parhez tizimini mukammallashtirish ham sportchining tayyorgarligida strategik ahamiyatga ega. Energiya almashinuvining yuqori darajasi, suv muvozanatini saqlash, uglevod, oqsil va yog‘larning optimal nisbatda iste’moli musobaqa davrida tezlikni va chidamlilikni oshiradi. Har bir sportchi uchun parhez shunchaki ovqatlanish emas, balki fiziologik tayyorlovning ajralmas qismidir. Oqsil va uglevodlar mushak to‘qimalarini tiklaydi, elektrolitlar suyuqlik balansini barqarorlashtiradi, vitaminlar esa energiya almashinuvini faollashtiradi. Shu sababli parhezni mashg‘ulot rejasidan ajratib bo‘lmaydi — u mashg‘ulot tizimining funksional davomi sifatida qaraladi.

Psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish qisqa masofa yuguruvchilarning musobaqalashuv bosqichida eng nozik, ammo eng zarur omillardan biridir. Musobaqa oldidan sportchining psixik holati, motivatsiyasi, o‘ziga ishonchi va emotsional barqarorligi natijaga bevosita ta’sir qiladi. Avtogen mashqlar, vizualizatsiya, nafas boshqaruvi, musobaqa modeli mashqlari, mental treninglar sportchining ichki muvozanatini tiklaydi. Psixologik barqarorlik harakat aniqligini, reaksiya tezligini va taktika uyg‘unligini saqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Shunday qilib, qisqa masofa yuguruvchilarining musobaqalashuv davridagi mashg‘ulotlarini takomillashtirish ko‘p omilli, kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayon jismoniy yuklama, tiklanish fiziologiyasi, psixologik holat, parhez va monitoring tizimlarining o‘zaro uyg‘unligini anglatadi. Ilmiy asoslangan rejalashtirish

tizimi sportchining individual salohiyatini to‘liq ochish, natijani barqarorlashtirish va jarohatlar xavfini kamaytirish imkonini beradi.

Bunday tizimli yondashuv sportchilarni nafaqat joriy musobaqalarga, balki uzoq muddatli sport faoliyatiga tayyorlaydi. Musobaqalashuv davridagi har bir detal — yurak ritmi, dam olish sifati, parhez balansi, psixologik tayyorgarlik — sportchining umumiy samaradorligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois sport mashg‘ulotlarini boshqarishda inson organizmini biologik, psixologik va texnologik jihatdan yagona tizim sifatida ko‘rish zamonaviy sport nazariyasining eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Платонов, В.Н. *Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте.* – Киев: Олимпийская литература, 2015.
2. Веркошанский, Ю.В. *Основы специальной физической подготовки спортсменов.* – Москва: Физкультура и спорт, 1988.
3. Bompa, T.O., & Haff, G.G. *Periodization: Theory and Methodology of Training.* – Champaign, IL: Human Kinetics, 2009.
4. Matveyev, L.P. *Teoriya i metodika fizicheskoy kultury.* – Moskva: Akademiya, 2013.
5. Кузнецов, В.В. *Биомеханика и физиология скоростно-силовых упражнений.* – Санкт-Петербург: ЛЭСГАФТ, 2016.
6. Platonov, V.N. *Training Periodization for Elite Athletes: Current Trends and Scientific Approaches.* – International Journal of Sports Science, 2019, №7, p. 34–42.
7. Verkhoshansky, Y. *Special Strength Training Manual for Coaches.* – Rome: Verkhoshansky SSTM, 2011.
8. Исаков, Ю.А. *Современные методы контроля за состоянием спортсмена.* – Москва: ФиС, 2017.
9. Bompa, T.O. *Total Training for Young Champions.* – Human Kinetics, 2015.
10. Воробьев, А.Н. *Теория и практика спортивной тренировки.* – Москва: Советский спорт, 2014.
11. Plisk, S. & Stone, M. *Periodization Strategies for Strength and Power Training.* – Strength and Conditioning Journal, 2003, Vol.25(6), p.19–37.
12. Issurin, V. *Block Periodization: Breakthrough in Sport Training.* – Ultimate Athlete Concepts, 2008.
13. Фомин, С. & Бондаренко, В. *Подготовка спринтеров: физиологические основы и практика.* – Москва: Олимпия, 2018.
14. O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi. *Yengil atletika bo‘yicha o‘quv dasturi.* – Toshkent: O‘quv-metodik markaz, 2020.
15. Qodirov, B., & Xudoyqulov, A. *Yengil atletika nazariyasi va metodikasi.* – Toshkent: O‘zDJTI nashriyoti, 2019.

PERSONALNI BOSHQARISH TIZIMINING MOHIYATI VA AHAMIYATI

Axmedov Alisher Gayrat o‘g‘li

Korxonalarda personalni boshqarish sifatini oshirishga bo‘lgan talabni oshib borishi – kuchli va dinamik omil hisoblanib, boshqaruv amaliyotiga va texnologiyalarini o‘zgartirishga, personalni boshqarishni tushunishning nazariy asoslarini yangicha qarashga da’vat etadi. Ayna shu omil tadqiqotchilarning refleksion pozitsiyasini rag‘batlantirish va yangicha paradigma yaratilishi, uning loyihalashtirilishiga turtki bo‘lib xizmat qiladi. Boshqaruv amaliyotida personalni boshqarish, inson resurslarini boshqarishni o‘zida mujassam etgan boshqaruv funksiyasi sifatida tushunish keng tarqalgan. Bu konteksda inson resurslari maxsus resurs sifatida qabul qilinishi, personalni boshqarishda esa xodimga va umuman insonga individual – shaxsiy yondashuv tatbiq etiladi.

Naturalistlar tashkilot rahbari va xodimlari shaxsiyatini tushuntirishadi, yangi paradigmada rahbar funksiyalari haddan tashqari kuchaytirilgan, personalga va mehnat jarayoniga (rahbar va xodimlar orasidagi munosabatlar va o‘zaro aloqalar, mojarolarga moyillik yoki muvozanatlashuvga intilish, xodimning shaxsiy faolligi, namunaviy ko‘rsatkichlarga intilish, tajriba xususiyatlari, xulq atvor mas’uliyati, qadriyat tushunchasi, novatorlikka moyillik) ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar guruhi tahlili va aniq baholash doirasidan tashqarida qolmoqda.

Yuqorida keltirilgan tushunchalarning xodim rivojlanishini ta’minlaydigan ijtimoiy tabiatini tan olish sub’ektning individual chegarasidan tashqariga chiqadi va atrof muhit bilan munosabatga kirishishiga olib keladi. Keltirilgan kategoriyalarning metodologik mohiyati shaxsiyat faoliyatini nazorat qilish nafaqat shaxs ichida balkim o‘zaro harakatlar va munosabatlar tuzilmasi shakllanadigan tashkilot doirasini qamrab oladi. Ko‘pchilik iqtisodiy, ijtimoiy va etno - madaniy soxa tadqiqotlarida XX asrning 80 yillariga qadar asosiy yo‘nalishlar sifatida jamiyat va tashkilotning shaxsga ta’siri hisoblangan, ya’ni individning tashkilot va jamiyatga ta’siri, rahbar va xodimlarning hamkorlikdagi faoliyati ta’siri rad etilgan. “Jamiyat - shaxs”, “tashkilot - shaxs”, “rahbar - xodim” munosabatlari modellari soddalashtirilgan, kundalik amaliyotda munosabatlar, odatlar, an’analar foydalanishdan chiqarilgan va rahbarlarning hamkorlik faoliyati emas, balki ta’sir etish huquqi singdirilgan. Yangi paradikma o‘z ichiga insonlarini boshqarish tajribasidagi o‘ziga xos avtomatizm muammolari yechimini mujassam etadi. Personalni boshqarishning yangi paradigmasi tadqiqot masalalari boshqaruv amaliyotini inersiyasini emas, balki rahbarning fikrlash qobiliyati usullariga bag‘ishlangan. Paradigmaning keyingi o‘zgartirish yo‘nalishlari – bu ochiq tizimlarning xususiyatlaridir: tashkilot maqsadlarining dinamikasi talablarini hisobga olish, tashkilotning tashqi muhit bilan o‘zaro ta’siri, istemolchilar talabining o‘zgarishi va tashkilot maqsadlarining ular bilan muvofiqlashuvi, mehnat jarayonida hamkorlik va munosabatlarni rivojlantirish kiradi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, personal boshqarish va loyihalarni boshqarishning amaliyotda o‘rganilgan jihatlari shundan iboratki, tashkilot muvaffaqiyatini ta’minlash uchun juda muhim ekanligini ko‘rsatib beradi. Qoniqarli boshqaruv, samarali ma’lumot almashish, resurslarni to‘g‘ri taqsimlash, jamoaviy ishlash va motivatsiya

bilan xodimlar faoliyatining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlash mumkin bo‘ladi. Rahbarlar o‘z jamoalarini muvaffaqiyatli yo‘naltirishi va loyihalarni samarali amalga oshirishi uchun yuqori malakali lider va tajribali bo‘lishi zarur. Loyihaviy yondoshuvni personalni boshqarishda joriy etish strategiyasi, xodimlarning samaradorligini oshirish, ish muhitini yaxshilash, shuningdek, resurslarni samarali taqsimlash uchun muhim. Loyihaviy boshqaruvning ijobiy natijalari tashkilotning umumiy ish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Strategiyani amalga oshirishda rahbariyatning qo‘llab-quvvatlashi, xodimlarning tayyorgarligi va motivatsiyasi muhim ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Абдурахманов К.Х., Додобоев Ю.Т. Современный менежмент и реформирование системы образования в Узбекистане. Учебное пособие. Ташкент. — 2006.

2. Абдураҳмонов Қ.Х. ва бошқалар. Давлат хизмати персоналини бошқариш: / Ўқув қўлланма. Тошкент. Академия, 2002.

3. Абдураҳмонов Қ.Х. ва бошқалар. Персонални бошқариш: Ўқув қўлланма. — Тошкент. „Шарқ ", 1998.

4. Абдураҳмонов Х., Холмўминов Ш.Р., Хайитов А.Б., Акбаров А.М. Персонални бошқариш: Ўқув қўлланма. — Тошкент. 2004. Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти.

5. Абдурахманов К.Х. и др. Мировая экономика: Учеб. пособие.— Тошкент. 2006.

6. Аширов Д.А. Управление персоналом: / Учебное пособие. — Москва. ТК Велби, Изд-во Проспект, 2005.

XVIII ASR OXIRIDAGI ROSSIYA - XIVA MUNOSABATLARIDA TIBBIY-DIPLOMATIK MISSIYA (SHIFOKOR MAYOR BLANKENNAGEL FAOLIYATI MISOLIDA)

Eshniyazov Jamshid Ataxonovich
Urganch davlat tibbiyot instituti o‘qituvchisi, jeshniyazov87@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada 1793-1794-yillarda Xiva xonligiga yuborilgan rus harbiy vrachi mayor Blankennagelning tibbiy va siyosiy vazifalari, uning Xivada ko‘rgan-kechirganlari hamda bu missiyaning Rossiya imperiyasi tashqi siyosatidagi o‘rni hamda Xiva xonligiga zamonaviy tibbiyotni kirib kelishi tarixining ma’lum bir davri tahlil etiladi.

Kalit so‘z: Xiva, Rossiya, Avazbek inoq, Fozilbiy, Yelizaveta, Neutling, Blankennagel, Maksim, Orsk, Sankt-Peterburg.

Kirish. XVIII asr oxiri Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyo bilan diplomatik aloqalarni kengaytirish jarayoni bilan ajralib turadi. Xususan, Xiva xonligi Rossiya uchun iqtisodiy, strategik va geosiyosiy nuqtai nazardan ahamiyatga ega bo‘lgan hudud edi. 1793-yilda Xivadan kelgan tibbiy yordam so‘rovi imperiya uchun nafaqat gumanitar, balki razvedka axborotlarini to‘plash imkonini bergan muhim hodisaga aylandi. Shu munosabat bilan Xivaga yuborilgan shifokor mayor Blankennagel missiyasi Rossiya - Xiva aloqalari tarixida o‘ziga xos ilmiy qiziqish uyg‘otadi.

1793-yil 20-aprelda Rossiyaning Orsk shahriga xivalik savdogarlar bilan Iskandar Ollohberdiyev va Rahimboy Do‘stmurodov Avazbek inoqning topshirig‘i bilan maktub olib kelishgan. Maktubda Avazbek Ufa general-poruchigi Neutlingdan ko‘zlari ko‘rmay qolgan amakisi Fozilbiyni davolatish uchun yordam berishini so‘ragan[1]. Neutling bu xabarni zudlik bilan imperator Yelizavetaga yetkazgan. Bu Rossiya hukmdorligi uchun Xiva haqida yangi ma’lumot olishning qulay imkoniyati deb baholangan. Sankt-Peterburgda masala tezkor muhokamadan so‘ng harbiy vrach mayor Blankennagelni yuborish haqida qaror qabul qilindi. Unga tilmoch Xolmogorov, bir sartarosh va Orenburg harbiy qismidan sakkiz kazakni qo‘shib beradilar.

Mayor Blankennagel 35 kun yo‘l yurib, 1793-yil 5-oktabrda Xivaga kelib, Fozilbiyning ko‘zlarini ko‘rikdan o‘tkazib, biyning bir ko‘zi oqib tushgani, ikkinchi ko‘ziga qora suv to‘planganini aniqlaydi. Ikkinchi ko‘zni yaxshi jarrohlik yo‘li bilan biroz yaxshilasa bo‘lardi, ammo bu yerda emas. Shunday qilib Fozilbiyning Ikkinchi ko‘zini dorilar bilan davolashni boshlagan. Oradan ikki hafta o‘tib vrach yoniga rus asirlaridan ikkitasi kelib, xonning kengashida hech qanday gap-so‘zsiz uni o‘ldirishga qaror qilganlarida bosh qozi, Urganch va Xonqa shahar boshliqlari qarshi chiqqani, keyin Rossiyaga qaytarib yuborish va yo‘lda gumdon qilishni rejalashtirganlarini aytishadi. Bu orada bir qariya kelib, ko‘zlarini davolashni buyurib, agar davolay olmasa qatl qilinishini aytadi. Ammo Blankennagelning baxtiga uning dorilari bu cholning ko‘zlarini uch hafta ichida davolaydi. Shundan keyin uning yoniga kuniga 40-50 kishi davolanish uchun kela boshlaydi. Blankennagel xivaliklardan jami uch yuz

[1] Q.Xoliqov, K.Xudoyberganov. Xorazm Qo‘ng‘irot inoqlari shajarasi - Тошкент: Akademnashr, 2021. – B. 47.

nafari, balki undan ko‘prog‘ini davolagan. Davolanganlardan haq olmagani uchun ko‘plab do‘stlar orttiradi va asirlikda bo‘lgan rus Maksim orqali hamda Avazbiy bo‘lgan sahbatlari yordamida bu o‘lka to‘g‘risida ma’lumotlar ham to‘play boshlaydi.

Xususan:

1) Oltin va kumush konlari borligi, ularning maxfiy qayta ishlanishi,
2) Tilla quymalar tayyorlanishi hamda tog‘ jinsi – rudadan oltinni qanday qilib ajratib olish osonroq ekani,
3) Qimmatbaho metallari bo‘lgan bu tog‘lar Amudaryodan 40 vyorst (1 vyorst – 1,06 km) uzoqlikda ekani,
4) Konlarda ishlash qoidalari maxfiy bo‘lib, qoidani buzganlar qatl etilishi haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

Ushbu ma’lumotlarni isboti sifatida Blankennagel Maksimni Rossiyaga olib ketmoqchi bo‘ladi lekin Maksim bu yerda oilasi borligi uchun ketishni istamaydi.

Oldiga qo‘yilgan vazifani a’lo darajada bajargan bu tabib 1794-yil bahorida o‘zi bilan yana 13 nafar rus asirlarini ham olib yurtiga qaytib ketadi[1].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mayor Blankennagelning tibbiy-diplomatik missiyasi XVIII asr oxiridagi Rossiya - Xiva munosabatlarida muhim voqea bo‘lib, missiya nafaqat tibbiy yordam ko‘rsatish, balki Xiva haqida siyosiy, geografik va iqtisodiy ma’lumotlar to‘plash orqali Rossiyaning O‘rta Osiyoga doir strategiyasi shakllanishiga xizmat qilgan. Shuningdek, ushbu voqea Xiva xonligida zamonaviy tibbiyot amaliyotlarining ilk bor qo‘llanilgan tarixiy jarayonlaridan biri sifatida ham alohida ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Q. Xoliqov, K. Xudoyberganov “Xorazm Qo‘ng‘irot inoqlari shajarasi”, T.- 2021.
2. М. Махмудов “Хива хонлиги тарихи”. Урганч – 2006.
3. М. Махмудова “Хоразм тиббиёти тарихи”. Урганч - 2022.
4. М. Баёний “Шажарайи Хоразмшоҳий” Тошкент - 1992.

[1] Q.Xoliqov, K.Xudoyberganov. Xorazm Qo‘ng‘irot inoqlari shajarasi - Тошкент: Akademnashr, 2021. – B. 47.

TALABALARDA IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI

Ne’matullayev Azizjon Nurullayevich
Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti, *aziz_jon-1988@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarda ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik asoslari yoritib berilgan. Mazkur kompetensiyalar talabaning jamiyatda samarali ishtirok etishi, turli madaniy muhitda mos ravishda faoliyat yurita olishi, muloqot madaniyatiga amal qilishi va madaniyatlararo tushunishni namoyon eta olishi uchun zarur bo‘lgan integral sifatlar majmuasini ifodalaydi. Ularni shakllantirish jarayoni ma’lum didaktik tamoyillar, metodlar va pedagogik shart-sharoitlar bilan ta’minlanishi lozim.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, didaktik tamoyillar, ijtimoiy ko‘nikmalar, xulq-atvor, muammoli vaziyat, talaba, huquqiy madaniyat.

DIDACTIC FOUNDATIONS OF DEVELOPING SOCIO-CULTURAL COMPETENCIES IN STUDENTS.

Abstract. This article discusses the didactic foundations of the development of socio-cultural competencies in students. These competencies represent a set of integral qualities necessary for a student to effectively participate in society, to be able to function appropriately in different cultural environments, to adhere to a culture of communication and to demonstrate intercultural understanding. The process of their formation should be provided with certain didactic principles, methods and pedagogical conditions.

Keywords: competence, didactic principles, social skills, behavior, problem situation, student, legal culture.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СОЦИОКУЛЬТУРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В данной статье рассматриваются дидактические основы развития социокультурных компетенций у учащихся. Эти компетенции представляют собой совокупность неотъемлемых качеств, необходимых учащемуся для эффективного участия в жизни общества, адекватного функционирования в различных культурных средах, соблюдения коммуникативной культуры и демонстрации межкультурного понимания. Процесс их формирования должен обеспечиваться определенными дидактическими принципами, методами и педагогическими условиями.

Ключевые слова: компетенция, дидактические принципы, социальные навыки, поведение, проблемная ситуация, учащийся, правовая культура.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni o‘rgatishning didaktik asoslari kompetensiyaviy yondashuvga tayanadi. Mazkur yondashuv ta’lim natijasini faqat bilimlar yig‘indisi sifatida emas, balki talabaning amaliy faoliyatda qo‘llay oladigan

ko‘nikmalari, shaxsiy sifatlari va ijtimoiy xatti-harakatlarini qamrab oluvchi kompleks layoqat sifatida ko‘radi. Shu munosabat bilan ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni shakllantirish o‘quvchi va talabani faol, mustaqil va ijtimoiy mas’uliyatli subyekt sifatida rivojlantirishni talab etadi.

Didaktik jihatdan mazkur kompetensiya faol ta’lim tamoyillariga tayangan holda shakllanadi. J. Dewey va D. Kolb ta’kidlaganidek, ijtimoiy ko‘nikmalar bevosita tajriba orqali o‘zlashtiriladi. Shuning uchun o‘quv jarayonida talabalarni real ijtimoiy vaziyatlarga yaqinlashtiruvchi usullar — muammoli vaziyatlar, case-study, rolli o‘yinlar, treninglar, madaniyatlararo muloqotni talab etuvchi loyihalar samarali hisoblanadi. Mazkur usullar talabalarda kommunikativ faollikni kuchaytiradi, muhitni tahlil qilish, moslashish, ziddiyatlarni hal etish va ijtimoiy rollarni anglash kabi jarayonlarni qo‘llab-quvvatlaydi.

Didaktik asoslarning muhim tarkibiy qismi ijtimoiy o‘rganish nazariyasidir. Bandura tomonidan asoslangan ushbu nazariya shundan dalolat beradiki, ijtimoiy-madaniy xulq-atvor ko‘proq kuzatish, o‘rnak olish va taqlid qilish orqali shakllanadi. Demak, talabalarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirishda o‘qituvchining shaxsiy namunasi, guruhdagi ijobiy kommunikativ muhit, tengdoshlar bilan o‘zaro hamkorlik va ijtimoiy faol shaxslar bilan muloqot alohida ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni shuningdek sotsial-konstruktivistik yondashuv bilan izohlanadi. Vygotskiyning fikricha, bilish jarayoni ijtimoiy muhitda shakllanadi, shuning uchun muloqot, guruhli faoliyat, fikr almashish, birgalikda vazifalarni bajarish talabaning madaniy tajribasini kengaytiradi. “Yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi esa o‘qitish jarayonida qo‘llab-quvvatlovchi, yordam beruvchi pedagogik muhitni yaratishni talab etadi. Bu jarayonda talabalar asta-sekin mustaqil ravishda murakkab madaniy vaziyatlarni anglay oladigan bosqichga ko‘tariladi.

Didaktik asoslarning yana biri — autentik ta’lim tamoyilidir. Talabalarga turli madaniyatlarga oid real hayotiy holatlar, multimedia materiallari, xalqaro hamkorlik loyihalari orqali o‘qitish ularning madaniy farqlarni tabiiy qabul qilishiga, real kontekstda moslashishiga imkon beradi. Xalqaro onlayn almashinuv (COIL), ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyati ushbu tamoyilning amaliy ko‘rinishlaridir.

Zamonaviy ta’lim jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetensiya umumkasbiy va umumta’limiy kompetensiyalar bilan bir qatorda shaxsning professional shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Aksariyat tadqiqotchilar (Hymes, Bennet, Hofstede, Byram, Ting-Toomey va boshqalar) ushbu kompetensiyani madaniyatlararo kommunikatsiya, ijtimoiy moslashuv, madaniy identifikatsiya, ijtimoiy faol pozitsiya kabi omillar bilan bevosita bog‘liq ekanini ta’kidlaydilar.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishda quyidagi maqsadlar yetakchi hisoblanadi:

- talabalarda ijtimoiy va madaniy jarayonlar haqidagi ilmiy tasavvurni shakllantirish;
- o‘zga madaniyat vakillari bilan o‘zaro hamkorlikda muloqot qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan madaniy ongni mustahkamlash;

- madaniy muammolarni tahlil qilish, baholash va yechim taklif qila olish salohiyatini shakllantirish.

Mazmun quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olishi lozim:

1. Nazariy komponent – madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, kommunikatsiya nazariyasi bo‘yicha bilimlar.
2. Amaliy komponent – ijtimoiy loyihalarda ishtirok, madaniy muhitga kirishishni taqozo etuvchi amaliy mashg‘ulotlar.
3. Qiymatga yo‘naltirilgan komponent – tolerantlik, madaniy ochiqlik, o‘z madaniyatini anglash, jamiyatga mas’uliyat hissi.
4. Tajriba komponenti – talabaning kundalik ijtimoiy faoliyati va muloqot jarayonida o‘zlashtiradigan madaniy tajribalar tizimi.

Ta’lim jarayonida o‘rganilayotgan har qanday bilim mazmuni madaniy kontekstda sharhlanishi, talabada madaniy mazmunni anglash qobiliyatini shakllantirishi zarur.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik metodlari:

Interaktiv metodlar

- debatlar, bahs-munozaralar;
- “Aqliy hujum”, “Klaster” texnologiyalari;
- madaniy vaziyatlarni tahlil qilish (case-study);
- konfliktsiz muloqot bo‘yicha treninglar.

Loyihaviy ta’lim metodlari. Talabalar madaniy meros, ijtimoiy faollik, mahalla institutlari, ijtimoiy media madaniyati kabi mavzularda loyihalar ishlab chiqadi.

Simulyativ metodlar. Rol o‘ynash, madaniyatlararo uchrashuv modellarini yaratish, ijtimoiy vaziyatlarni rekonstruktsiya qilish.

Refleksiv metodlar. Madaniy o‘zini anglashni rivojlantirish uchun kundalik yuritish, fikr-mulohaza darslari, shaxsiy portfoli yaratish.

Ta’lim muassasasida madaniy muhitni yaratish milliy va jahon madaniyatiga oid materiallar bilan boyitilgan resurslar izlash, muzeylar, teatrlar, madaniy markazlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, talabalar klublari va ilmiy to‘garaklar mavjudligi ijtimoiy-madaniy rivojlanishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Tarbiyaviy jarayonlarda raqamli vositalarni qo‘llash orqali virtual muzeylarga sayohatlar, raqamli madaniy atlaslarni shakllantirish, madaniyatlararo muloqotlarni yo‘lga qo‘yish, multimedia darsliklarini yaratish ijtimoiy-madaniy ta’limning samaradorligini oshiradi.

Shu tariqa, qator fundamental tadqiqotlarda I.A.Zimnyaya, N.G.Muravyeva, A.P.Panfilova, M.V.Plexanova, M.N.Razdobarova va boshqalar, “ijtimoiy-madaniy kompetensiya” tushunchalari muloqot kompetensiyalarning tashkil etuvchilari sifatida qaraladi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarning didaktik printsiplariga asosiy talablar sifatida quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Faollik va tajribaga yo‘naltirish — talabani «o‘rganayotgan» emas, «amal qilayotgan» subyekt sifatida ko‘rib ishlash.
2. Integrativlik — Iijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni fanlararo (humanitar, ijtimoiy, media, tillar) kontekstga kiritish.

3. O‘quvchiga yo‘naltirilganlik (student-centered)— individualizm, differensiyalash va o‘zgaruvchan o‘qitish yo‘llari.
4. Refleksiya va meta-kognitivlik — o‘z faoliyatini tahlil qilish, portfoliolar, o‘z-o‘zini baholash.
5. Autentiklik — haqiqiy ijtimoiy vaziyatlar va muammolar bilan ishlash (community projects, real case).
6. Ketma-ketlik va tizimlilik — boshlang‘ichdan kompleksgacha, nazariyadan amaliyotgacha.
7. Baholashning shakllantiruvchi tabiatga ega bo‘lishi (formative assessment) — doimiy rivojlanish xaritalari.

Talabalarning jamiyat va tarbiyaviy jarayonlarga oid bilimlari (boshqa o‘rganilayotgan mamlakat tarixi, geografiyasi, adabiyoti, san’ati, fan va madaniyati, ta’lim tizimini, shuningdek o‘zlarini o‘rab turgan atrof-muhit haqidagi ma’lumotlar bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlari) madaniyatlararo muloqotning asosiy sharti bo‘lgan kompetensiyasini, o‘z navbatida ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarning shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, talabalarning jamiyat va tarbiyaviy jarayonlarga oid bilimlarini takomillashtirishda ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qilish indikatorini ustuvor omil sifatida biriktirish hamda ijtimoiy-madaniy kompetensiyaviy identivligiga ustuvorlik berish muhim omil hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. — Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini rivojlantirish strategiyasi–2030” PF–5712-son Farmoni. — 2019.
3. Abdullayeva, Q. “Pedagogik kompetensiyalar va ularni rivojlantirishning nazariy asoslari.” — Toshkent: Fan, 2020.
4. Mamarasulov, J. *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti.* — T.: O‘zbekiston, 2021.
5. Toshpo‘latova, S. “Talabalarda madaniy kompetensiyalarni shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari.” — TDIU Ilmiy axborotlari, 2020.
6. Yo‘ldosheva, G. *Kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari.* — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
7. G‘ulomova, D. “Talabalarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish masalalari.” — Pedagogik ta’lim, 2022.
8. Tojiboyeva, G., Xudoyberdiyev, A. *Oliy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv.* — Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
9. A’zamova, N. “Ijtimoiy kompetensiyalar va ularning talabalarda shakllanish shart-sharoitlari.” — O‘zbekiston pedagogik jurnali, 2018.
10. Rasulova, M. *Madaniy kompetensiya va uning tarkibiy asoslari.* — T.: TDPU, 2021.

INGLIZ TILINI O‘QITISHDA METAKOGNITIV YONDASHUVNING ZARURATI, MAHALLIY VA XALQARO TAJRIBALARNING TAHLILI

Ismailova Barno Yuldashbayevn
Urganch davlat pedagogika instituti Xorijiy filologiya fakulteti o‘qituvchisi
barno_ismailova@urspi.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitishda metakognitiv yondashuvning dolzarbligi yoritiladi. Metakognitsiya - o‘quvchining o‘z fikrlash jarayonini kuzatib, uni boshqarish qobiliyati sifatida qaraladi. Maqolada metakognitiv yondashuvning ta’lim samaradorligiga ta’siri, mahalliy va xalqaro tajribalardagi qo‘llanishi tahlil qilinadi. Amaliy tavsiyalar va pedagogik xulosalar asosida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasi va natijadorligi oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: metakognitiv yondashuv, ingliz tili, metakognitiv strategiyalar, o‘z o‘zini baxolash, mustaqil fikrlash.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 19 yanvardagi “Xorijiy tillarni o‘rganishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 34-sonli Qarori va sohaga oid boshqa me’yoriy hujjatlarda dunyo bo‘yicha samarali natija bergan o‘qitish metodikalari, dastur va darsliklarni maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim maktablari, akademik litseylar, oliy ta’lim muassasalari va o‘quv markazlarida joriy etish, xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, dasturiy ta’minot loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish, tilning asosiy ko‘nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o‘yin, ko‘ngilochar ko‘rsatuv, filmlar va boshqa o‘rgatuvchi kontent yaratish[1] asosiy vazifalar sifatida belgilab berilgan.

Zamonaviy ta’lim va tarbiya jarayoni - o‘qituvchi shaxsining innovatsion maqsadga yo‘naltirilganligi, o‘z faoliyatini tashkil qilishning innovatsion shakl, usul, vosita va metodlarini egallaganligi, ta’lim mazmuniga mos ravishda innovatsion pedagogik faoliyatini tashkil qila olishiga bog‘liq. Ta’limda til o‘rganish jarayoni faqatgina grammatik qoidalarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Ingliz tilini samarali o‘rganish uchun o‘quvchining fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o‘z-o‘zini nazorat qilish va o‘rganish strategiyalarini ongli ravishda qo‘llashi katta ahamiyatga ega. Bu jihatlar metakognitiv yondashuv orqali amalga oshiriladi.

Asosiy qism. Metakognitiv yondashuvning mohiyati Metakognitsiya (Flavell, 1979) — bu insonning o‘z bilimlari va o‘rganish jarayonini anglash va boshqarishidir. Ingliz tilini o‘rgatishda metakognitiv yondashuv o‘quvchiga o‘z o‘rganish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash imkonini beradi. Bu esa mustaqil fikrlovchi, tanqidiy yondasha oladigan va faol ishtirokchiga aylanishiga yordam beradi.

Metakognitiv ta’lim bo‘yicha xorijdagi eng muhim tajribalar metakognitiv strategiyalar ta’limi sifatida AQShda keng tarqalganligini ko‘rishimiz mumkin. Ulardan biri Self-Regulated Strategy Development (SRSD) bo‘lib, S.Graham, K.R.

[1] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 19 январдаги “Хорижий Тилларни Ўрганишни Такомиллаштириш Бўйича Қўшимча Чора-Тадбирлар Тўғрисида”ги 34-сонли Қарори

Harris, D.McKeown, L.H. Mason, B. Friedlander, K.N., Sandmel, M. Brindle[1], kabi olimlar bu yondashuvning ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini tahlil qilib bergan. Mustaqil tartiblantirilgan strategiyani rivojlantirish (Self-Regulated Strategy Development, SRSD) modeli ta’lim strategiyalarini o‘zi boshqarish imkoniyatlari bilan birlashtiradi[2]. Bu yondashuvning maqsadi talabalarni yozish uchun zarur bo‘lgan strategiyalarni o‘rgatish va ularning motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlashdir.

Xususan **Self-Regulated Strategy Development (SRSD)** ta’lim oluvchilarni o‘quv maqsadlarini belgilash, natijalarni kuzatish va o‘zini baholashga o‘rgatadi. Til o‘rganish jarayonida SRSD strategiyalari talabalarning yozuv, o‘qish va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Self-Regulated Strategy Development (SRSD)-talabalarning mustaqil o‘quv strategiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuv. Bu metod asosan yozuv, o‘qish, muloqot va boshqa kognitiv faoliyatlarda yuqori samaradorlikka erishish uchun qo‘llaniladi. SRSD ta’lim usuli talabalarga o‘z o‘quv jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishni maqsad qiladi[3]. Bu yondashuvning asosiy maqsadi talabalarga muammolarni hal qilishda mustaqil strategiyalarni o‘rgatish, o‘z faoliyatlari va natijalarini baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish, o‘quv jarayonida ijobiy psixologik yondashuvni shakllantirishdan iborat bo‘lib, uning 6 ta asosiy bosqichi quyidagilarni qamrab oladi:

bazaviy bilimlarini baholash (Develop Background Knowledge), bu bosqich mavzu yoki mashq bo‘yicha talabaning avvalgi bilimlarini aniqlash va yangi ma’lumotlarni qabul qilish uchun kerakli bilimlarni qayta eslatishni o‘z ichiga qamrab oladi;

mavjud strategiyalarni muhokama qilish (Discuss It) bosqichida **o‘**qituvchi yangi strategiyani tushuntirib beradi.

modellash (Model It) bosqichida o‘qituvchi strategiyani amaliy qo‘llashni namoyish etadi. Masalan, biror yozuv vazifasini bajarish jarayonida o‘zi qanday fikrlayotganini ovoz chiqarib bayon qiladi ("Think Aloud" usuli);

mashq qilish (Memorize It) bosqichida ta’lim oluvchilar strategiyaning qadamlarini yod oladilar va amaliyotda qo‘llash uchun tayyorlanadilar.

mustaqil qo‘llashni rivojlantirish (Support It) bosqichida o‘qituvchi dastlab talabalarga yordam beradi, keyin esa ular mustaqil ravishda strategiyani qo‘llashni o‘rganadilar.

strategiyani mustahkamlash va umumlashtirish (Independent Performance) bosqichida talabalar yangi o‘rganilgan strategiyani turli sharoitlarda qo‘llashni boshlaydilar. Yevropa Ittifoqi davlatlarida metakognitiv yondashuv ta’lim dasturlariga integratsiya qilingan bo‘lib, masalan Finlyandiyada bu "Phenomenon-Based Learning" (Hodisaga asoslangan o‘qitish) nomi bilan mashhur bo‘lgan yondashuv hisoblanadi. U

[1] Harris, K. R., Lane, K. L., Graham, S., Driscoll, S. A., Sandmel, K., Brindle, M., & Schatschneider, C. (2012). Practice-based professional development for self-regulated strategies development in writing: A randomized controlled study. Journal of Teacher Education, 63(2), 103–119. https://doi.org/10.1177/0022487111429005

[2] Harris, K. R. (1982). Cognitive-behavior modification: Application with exceptional students. *Focus on Exceptional Children*, *15*(2), 1-16.

[3] Harris, K. R., & Graham, S. (2011). “An adjective is a word hanging down from a noun”: Learning to write and students with learning disabilities. *Annals of Dyslexia*, 1-15

metakognitiv yondashuvni amalga oshirishning o‘ziga xos namunasi bo‘lib, talabalarga muammolarni mustaqil tahlil qilish, javob izlash va o‘zlarining o‘rganish jarayonini boshqarish imkoniyatini beradi.

Hodisaga asoslangan o‘qitish (Phenomenon-Based Learning, PhBL) g‘oyasiga tayanadigan bu yondashuv o‘quv jarayonini haqiqiy hayotdagi hodisalar yoki muammolar asosida tashkil etishga qaratilgan innovatsion ta’lim yondashuvi hisoblanadi. Bu yondashuvda ta’lim mazmuni fanlarga bo‘lingan holda emas, balki ko‘p fanlarni qamrab oladigan aniq bir hodisa, jarayon yoki muammoni o‘rganishga yo‘naltiriladi. Finlyandiya ta’lim tizimida keng qo‘llaniladigan PhBL asosan ta’lim oluvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish malakalarini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Uning asosiy xususiyatlari haqida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, jumladan, Staffordshir universiteti professorlari Syu Li va Keyt Katbert[1] o‘z tadqiqotlarida Phenomenon-Based Learningning asosiy xususiyatlarini tahlil qilishgan.

Staffordshir universiteti professorlari Syu Li va Keyt Katbert **“**oliy ta’limda hayot universitet devorlaridan tashqarida kechadigan joyda, talabalarni real hayot voqealari va mavzulariga jalb qilib, shu orqali universitet fanlarini hayot bilan bog‘lash lozim. Bugungi kunda universitetlar talabalarga hayotga mos ta’lim berish kerakligi g‘oyasiga ko‘pchilik qo‘shiladi, buning uchun haqiqatdan ham kuchli pedagogik yondashuv kerak. PhBL o‘quv jarayonini hodisa yoki voqea atrofida tashkil etishni nazarda tutganligi sababli, talabalar "javob ber, o‘rgan, kengaytir va bajar" siklli ta’lim jarayonida hodisani o‘rganadilar. Bunda bilim modullar yoki faqat bitta fan doirasi bilan cheklanmaydi, balki umumiy yondashuvda qo‘llaniladi. PhBL talabalarni jamiyatdagi "murakkab muammolar" ga tayyorlashga yordam beradi”[2]-deb ta’kidlaydilar.

Adipat Surattana[3] “o‘qituvchilarning motivatsiyasi, rejalashtirish strategiyalari va amalga oshirish jarayonlari ularning talabalarni jalb qiluvchi hamda STEM savodxonligini samarali oshiruvchi faoliyatlarni tanlashdagi muhim rolini qayd etdi. PhBL talabalar tomonidan tashabbus ko‘rsatish va tadqiq qilishga asoslangan bo‘lsa-da, o‘qituvchining yo‘naltirish, qo‘llab-quvvatlash va zarur paytlarda rahbarlik qilish rolini inkor qilib bo‘lmaydi. O‘qituvchilar asosiy bilimlarni yetkazish va talabalarga mustaqil o‘rganish imkonini berish o‘rtasida nozik muvozanatni saqlashlari kerak. Bu esa PhBL usulini turli ta’lim muhitlarida muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradi”-deb ta’kidlaydi.

Towns-Belton[4] o‘tkazgan tadqiqotlarda PhBL usulini o‘quv jarayoniga moslashtirishda o‘qituvchilarning muhim rolini qayd etish bilan birga, bu yondashuvning global moslashuvchanligini ham ta’kidlaydi. Bunda hamkorlik va innovatsiyaga e’tibor qaratib, o‘qish ko‘nikmalari va motivatsiyani oshirish o‘rtasida

[1] Lee, S., & Cuthbert, K. (2023). Phenomenon-based learning: What, why and how. Times Higher Education. Retrieved from https://www.timeshighereducation.com/campus/phenomenonbased-learning-what-why-and-how

[2] https://www.timeshighereducation.com/campus/phenomenonbased-learning-what-why-and-how

[3] Adipat, Surattana. (2024). Transcending traditional paradigms: the multifaceted realm of phenomenon-based learning. Frontiers in Education. 9. 10.3389/feduc.2024.1346403

[4] Towns-Belton, D. R. (2022). *Teachers’ reported use of phenomenon-based learning in secondary STEM classrooms.* Doctoral dissertation, Tennessee State University. ProQuest LLC: Cambridge, MA.

ijobiy bog‘liqlikni aniqlaydi. Finlandiya pedagogikasi bo‘yicha tajribaga ega o‘qituvchilar talabalarning og‘zaki o‘qishini baholash uchun Running Record baholash vositalaridan foydalanib, xatolar va o‘z-o‘zini tuzatishlarni amalga oshirishadi. Bu orqali tezlik, aniqlik va tushunish ko‘nikmalari hamda ularni yaxshilash uchun zarur yo‘nalishlar aniqlanadi. Buyuk Britaniya universitetlarida ingliz tilini nofilologik yo‘nalishlar uchun o‘qitishda Academic Skills va Metacognition integratsiyasi ustuvor hisoblanadi. Talabalar akademik matnlar bilan ishlashda reflektiv kundaliklar, learning logs va portfellar orqali o‘z o‘rganish jarayonini tahlil qiladi. PQRST metodikasi akademik o‘qish va yozuv darslarida keng qo‘llanadi. Scenario-based learning yondashuvi esa huquq, menejment va xalqaro munosabatlar yo‘nalishlarida samarali natija bermoqda. Buyuk Britaniyada metakognitiv yondashuv academic literacy va learner autonomy konsepsiyalari bilan integratsiyalangan. David Little[1] va Neil Mercer[2] ishlarida reflektiv o‘rganish muhim o‘rin tutadi.

Buyuk Britaniyada metakognitiv yondashuv natijasida talabalarning academic literacy darajasi oshgani kuzatilgan. Little va Mercer tadqiqotlariga ko‘ra reflektiv yozuvlar va learning diary yuritgan talabalar o‘z xatolarini tezroq aniqlagan; PQRST asosida ishlagan talabalar ilmiy matnlarda asosiy g‘oya va dalillarni aniqlashda ancha yuqori natija ko‘rsatgan. Scenario-based learning seminarlarida talabalar real akademik muammolarni tahlil qilish, dalillash va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirganlar. Natijada Talabalar akademik kontekstda mustaqil fikrlash, matn tahlili va o‘z ta’lim jarayonini boshqarish bo‘yicha yuqori darajada ko‘nikmalar hosil qiladi. Buyuk Britaniya OTMlarida bitiruvchilarning ilmiy yozish va mustaqil o‘qish kompetensiyasi Yevropadagi eng yuqori ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Germaniya universitetlarida ESP (English for Specific Purposes) kurslari metakognitiv strategiyalar asosida tashkil etiladi. Texnika va muhandislik yo‘nalishlarida ingliz tilini o‘qitishda problem-based va scenario-based learning metodlari keng qo‘llaniladi. Talabalar real texnik vaziyatlar asosida ingliz tilida yechim ishlab chiqadi va jarayon davomida o‘z bilimini monitoring qiladi. SQ3R va PQRST metodlari akademik matnlarni tahlil qilishda samarali natija bermoqda. Wolfgang Klafkining konstruktivistik g‘oyalari metodik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Hutchinson va Waters[3] (1987) ESP kontekstida metakognitiv strategiyalar kasbiy matnlarni tushunishni yengillashtirishini asoslagan. Hmelo-Silver[4] (2004) Scenario-based va problem-based learning o‘z-o‘zini nazorat qilish, strategik fikrlash, ko‘nikmalarini rivojlantirishini empirik dalillar bilan ko‘rsatgan.

O‘zbekiston olimlarining tadqiqotlari ham metakognitiv yondashuvning ingliz tilini o‘qitishdagi samaradorligini tasdiqlaydi. Jumladan, Jakbaralieva[5] (2025) o‘z

[1] Little, D. (2007). Language learner autonomy: Some fundamental considerations revisited. Innovation in Language Learning and Teaching, 1(1), 14–28. https://doi.org/10.2167/illt040.0

[2] Mercer, N., Wegerif, R., & Dawes, L. (1999). Children’s talk and the development of reasoning in the classroom. British Educational Research Journal, 25(1), 95–111. https://doi.org/10.1080/0141192990250107

[3] Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). English for Specific Purposes: A learning-centred approach. Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9780511733031

[4] Hmelo-Silver, C. E. (2004). Problem-based learning: What and how do students learn? Educational Psychology Review, 16(3), 235–266. https://doi.org/10.1007/s10648-004-0006-5

[5] Jakbaralieva, N. (2025). Developing B1 learners’ vocabulary through metacognitive strategies. Filologiya Masalalari, X(X), XX–XX. https://doi.org/10.36078/987656106

tadqiqotida metakognitiv strategiyalar asosida olib borilgan mashg‘ulotlar B1 darajadagi talabalar lug‘at boyligini rivojlantirishda ijobiy natija berganini ko‘rsatadi. Tadqiqotda talabalar o‘z o‘rganish jarayonini rejalashtirish va baholashga jalb etilgan bo‘lib, bu ularning mustaqil ishlash faolligini oshirgan.

Shuningdek, Iskandarova[1] ingliz tilida o‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirishda metakognitiv yondashuvdan foydalanish talabalar matnni chuqurroq anglashiga va o‘z xatolarini mustaqil aniqlashiga yordam berishini empirik asosda isbotlagan. Muallifning ta’kidlashicha, reflektiv savollar va o‘z-o‘zini baholash topshiriqlari talabalarning akademik savodxonligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Xodjiyeva va Abdugaffarova[2] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa ESL o‘rganuvchilarning lug‘at o‘zlashtirish jarayonida metakognitiv strategiyalar kognitiv strategiyalarga nisbatan samaraliroq ekani aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, metakognitiv yondashuv talabalarni faqat bilim oluvchi emas, balki o‘z ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi. A.A.Abduqodirovning ta’kidlashicha: “O‘qituvchining o‘quv vaqtining ko‘p qismi axborot berishga qaratilgan bo‘lib, kam qismi o‘quv materialini o‘zlashtirilish darajasini aniqlashga qaratilgan”. Demak, teskari aloqaning o‘rnatilmaganligi o‘qituvchining o‘quv jarayonini to‘g‘ri tashkil etishiga salbiy ta’sir etadi. (Abduqodiriv, 1991)

Xulosa. Metakognitiv yondashuv ingliz tilini o‘rgatishda zamonaviy va samarali vosita sifatida e’tirof etiladi. Mahalliy va xalqaro tajribalar asosida ushbu yondashuvning natijadorligini ko‘rsatish mumkin. O‘zbekiston tajribasida esa mazkur metodikalarning joriy etilishi hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lib, ularni yagona metakognitiv model asosida tizimlashtirish zarurati mavjud. Kengaytirilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan davlatlarda metakognitiv yondashuv ingliz tilini nofilologik yo‘nalishlarda o‘qitishning metodologik asosi sifatida qaraladi. O‘zbekiston tajribasi esa ushbu yondashuvni milliy ta’lim tizimiga moslashtirish bosqichida. O‘zbekiston ta’lim tizimi ham bu yo‘nalishda rivojlanmoqda, ammo metakognitiv yondashuvni kengroq va tizimli tarzda joriy etish hali ham dolzarb vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Flavell, J.H. (1979). Metacognition and cognitive monitoring: A new area of cognitive–developmental inquiry. American Psychologist.
2. Anderson, N.J. (2002). The role of metacognition in second language teaching and learning. ERIC Digest.
3. A.A.Abduqodiriv “Теория и практика интенсификатsiи подготовки учителей физико-математических дисциплин” (T., “Фан”, 1991)

[1] Iskandarova, M. (2025). Developing students’ English reading skills based on the metacognitive approach. Наука и инновация, 3(14), XX–XX. Retrieved from https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/50898

[2] Xodjiyeva, R. A., & Abdugaffarova, A. S. (2023). ESL learners’ cognitive and metacognitive vocabulary strategies. Innovative Development in Educational Activities, 2(5), 70–74. Retrieved from https://openidea.uz/index.php/idea/article/view/794

ЗДОРОВЬЕСБЕРЕГАЮЩАЯ КУЛЬТУРА КАК КОМПОНЕНТ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ ДОШКОЛЬНОГО ФАКУЛЬТЕТА

Сайфиева Севара Суратовна

Ташкентский Государственный Педагогический Университет им.Низами, самостоятельный соискатель

В условиях модернизации системы педагогического образования особое значение приобретает подготовка студентов дошкольного факультета к реализации здоровьесберегающих подходов в будущей профессиональной деятельности. Будущий воспитатель должен быть ориентирован не только на обучение и воспитание детей, но и на создание условий для сохранения и укрепления их физического и психоэмоционального здоровья. Именно сформированность здоровьесберегающей культуры во многом определяет качество образовательного процесса и эффективность работы в дошкольных организациях.

Здоровьесберегающая культура будущего воспитателя включает систему знаний, ценностных установок и практических умений, направленных на обеспечение безопасной и благоприятной образовательной среды для детей. В процессе профессиональной подготовки студенты осваивают основы здорового образа жизни, изучают возрастные особенности развития дошкольников, а также нормативно-правовые требования, регулирующие вопросы охраны здоровья в дошкольных образовательных организациях. Существенное внимание уделяется формированию умений применять теоретические знания в практической деятельности с учётом индивидуальных потребностей каждого ребёнка.

Важным компонентом подготовки является овладение теоретическими основами здоровьесбережения. Будущие воспитатели знакомятся с физиологическими и психологическими особенностями детского организма, принципами рационального питания, физической активности и профилактики заболеваний. Одновременно изучаются современные педагогические технологии, направленные на формирование у детей навыков безопасного поведения и ответственного отношения к собственному здоровью [1].

Практическая деятельность занимает особое место в формировании профессиональных компетенций студентов. Во время педагогической практики в дошкольных образовательных организациях они получают возможность реализовывать полученные знания в реальных условиях: организовывать занятия по физическому развитию, формировать у детей гигиенические навыки, культуру питания и основы экологического поведения. Такой опыт способствует развитию профессионального мастерства будущих воспитателей, умению работать с детьми разных возрастных групп и эффективно реагировать на нестандартные ситуации [2].

Неотъемлемым условием формирования здоровьесберегающей культуры является создание благоприятной образовательной среды в дошкольных организациях. Комфортные и безопасные условия, наличие зон для двигательной активности, соблюдение санитарно-гигиенических норм, рациональное питание и регулярные профилактические мероприятия способствуют укреплению здоровья детей. Реализация этих задач требует согласованных усилий администрации, педагогов, медицинских работников и родителей.

Особое значение имеет взаимодействие с семьёй. Системное сотрудничество с родителями позволяет формировать единое пространство заботы о здоровье ребёнка как в образовательной организации, так и в домашних условиях. Проведение консультаций, семинаров, совместных мероприятий и распространение информационных материалов способствует повышению педагогической культуры родителей и их активному участию в процессе формирования здорового образа жизни детей [3].

Личностный пример будущего воспитателя также играет важную роль. Активная жизненная позиция, соблюдение принципов здорового питания, физической активности и отказ от вредных привычек формируют у студентов ответственное отношение к собственному здоровью и служат образцом для воспитанников. Именно через личный пример будущий специалист транслирует ценности здорового образа жизни [4].

Таким образом, здоровьесберегающая культура выступает важнейшим компонентом профессиональной подготовки студентов дошкольного факультета. Её формирование представляет собой системный и длительный процесс, охватывающий все стороны образовательной деятельности. Эффективность данной работы обеспечивается взаимодействием преподавателей, студентов, педагогов дошкольных учреждений, родителей и самих детей.

Преподаватели формируют у студентов осознанное отношение к вопросам здоровья, обучают основам профилактики заболеваний, психогигиены и физической активности. Студенты, в свою очередь, становятся носителями здоровьесберегающих ценностей, которые они в дальнейшем реализуют в профессиональной деятельности. Педагоги дошкольных организаций способствуют развитию у детей двигательных, познавательных и социально-эмоциональных навыков, а родители обеспечивают преемственность воспитательных усилий в семейной среде.

Сами дети являются активными участниками процесса, постепенно осваивая знания о здоровье и формируя собственные полезные привычки [5]. В результате формирование здоровьесберегающей культуры приобретает социально значимый характер, способствуя повышению качества жизни, профилактике заболеваний и развитию гармоничной личности. Только при слаженном взаимодействии всех участников образовательного процесса

возможно достижение целей здоровьесберегающего образования и обеспечение благополучия будущих поколений.

ЛИТЕРАТУРА

1. Змановский Ю.Ф. Воспитательно-оздоровительная работа в дошкольных учреждениях. Концептуальные положения. Ж. Дошкольное воспитание, 1993–№6. - С.25-30.
2. Касымов Ф.Ф. Исследование уровня сформированности здоровьесберегающей компетенции у будущих педагогов профессионального обучения / Ф.Ф. Касымов // Научный альманах. – 2016. – № 4-2 (18). – С. 162-165.
3. Лисицын Ю.П. Общественное здоровье и здравоохранение. – М.: ГЭОТАР-Медиа, 2010. – 512 с.
4. Палаткин И.В. Формирование здоровьесберегающих компетенций студентов в системе высшего педагогического образования / И. В. Палаткин // Сибирский педагогический журнал. – 2012. – №4. – С. 222-226.

Сайфиева С.С. Профессиональный стандарт подготовки воспитателя ДОУ - важный фактор здоровьесбережения воспитанников. Гармонично развитое поколение-условие стабильного развития рес. Узбекистан. Сборник научно-методических статей. Т: №5. 2015. 132-135 с.

RAQAMLI TOPSHIRIQLAR TIZIMI VOSITASIDA TALABALARNING MUSTAQIL FIKRLASH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Rasul Jumashev Ashirovich
Urganch shahar 23-son madaniyat markazi qoshidagi “Orazibon” raqs ansambli musiqa rahbari

